



Qo'qon DPI

**ILMIY
XABARLAR**

ISSN: 3030-3958

№ 5/2025

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



**Кокандский ГПИ.
Научный вестник**

№ 5/2025

УЎК 5/9(08) КБК 72я5 Қ 99	Bosh muharrir: Qo'qon davlat pedagogika instituti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas'ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor N.S.Jurayev Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor N.A.Kadirova Mas'ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i D.O'rinboyev Nashr uchun mas'ul: M.Z.Muydinov
MUASSIS: Qo'qon davlat pedagogika instituti Qo'qon DPI. ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o'n ikki marta chop etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro'yxatga olingan. Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart. "Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro'yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san'atshunoslik fan tarmoqlari bo'yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan. Tahririyat manzili: 150700, Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Сайт: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 "CLASSIC" nashriyoti 2025	TABIIY FANLAR И.И.Гибатуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) V.U.Xo'jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) M.T.Isog'aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'ZB) A.Jh.Xusanov-fizika-matematika fanlari nomzodi, docent (O'ZB) O.A.Turdiyev, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) G'M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) B.No'monov, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'ZB) IJTIMOIIY FANLAR Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB) PEDAGOGIKA FANLAR Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB)



МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБУЧЕНИЯ НЕРОДНОМУ (РУССКОМУ) ЯЗЫКУ

Алимсаидова Сайёра Амидьеевна,

*Кокандский государственный университет
доктор педагогических наук (DSc), профессор*

E-mail: kokand-sayyora@mail.ru

Аннотация: В данной статье раскрываются основные стороны использования языка того или иного языкового сообщества при овладении социолингвистическими правилами речевой коммуникации, характеризующими данное общество, а также осмысливание воздействия социальных факторов на речевое поведение участников общения.

Ключевые слова: взаимоотношения, коммуникативная компетенция, социолингвистическая компетенция, социокультурные условия, эмоционально-эстетическое воздействие, воспитание, своеобразие в языке, социальные факторы, речевое поведение.

MODERNIZATION OF TEACHING A NATIVE (RUSSIAN) LANGUAGE

Abstract: This article reveals the main aspects of using the language of a particular linguistic community when mastering the sociolinguistic rules of speech communication that characterize a given society, as well as understanding the impact of social factors on the speech behavior of participants in communication.

Key words: relationships, communicative competence, sociolinguistic competence, sociocultural conditions, emotional and aesthetic impact, education, originality in language, social factors, speech behavior.

Методы. Основным методом данного исследования является теоретический метод сбора эмпирических данных (анализ научной, учебно-методической документации, обобщение опыта работы при обучении языкам, наблюдение), так же нами был использован интерпретационный метод (объяснение, сравнение процесса совершенствования социолингвистической компетенции)

Основная часть. Новая социально-экономическая и политическая ситуация требует реализации в обществе языковой политики в области иноязычного образования, нацеленной на удовлетворение как общественных, так и личных потребностей по отношению к иностранным (неродным) языкам. Именно образование во все времена

содействовало сохранению устойчивости общества, модификации форм и типов взаимоотношений людей, и поэтому в последнее время значимость изучения неродного (русского) языка становится все более очевидной.

Русский язык является не просто средством общения, но и выполняет функцию профессиональной коммуникации на мировом рынке труда, что создает дополнительную мотивацию для обучающихся в его изучении. В связи с этим возникла необходимость сопоставления общих европейских стандартов образования с узбекистанскими, что, привело к обновлению содержания образовательного стандарта в области неродного (русского) языка на основе компетентностного подхода. Данный подход подразумевает не только владение определенными знаниями в какой-то области, но и умение их использовать в конкретных ситуациях для решения возникающих задач. Понятие компетентности шире понятия знания. Под компетентностью понимают сложное личностное образование, обеспечивающее процесс развития и саморазвития обучающегося, что способствует формированию у него ценностного отношения к любой деятельности [8].

По справедливому мнению британского психолога Д.Ж.Равена, «современному обществу нужны образованные, нравственные, предприимчивые люди, способные самостоятельно принимать ответственные решения в ситуации выбора, быть мобильными, динамичными, конструктивными специалистами, обладать развитым чувством ответственности за судьбу страны» [6].

Исследователи отмечают, что современные общественные процессы характеризуются усилением фактора динамизма и неопределенности. Стил жизни людей меняется на всех уровнях, происходит принципиальная трансформация многих профессий. Все чаще случаются ситуации, когда изменение социальных и экономических условий жизни требует от человека способности быстрой адаптации к ним.

Реалии сегодняшнего дня показывают, что знаниево-ориентированный подход, господствовавший всегда в методике обучения, стал недостаточно эффективным. Темп обновления знаний, огромный поток информации, которая меняется с огромной скоростью, обуславливают необходимость акцентировать внимание в обучении не столько на знаниевое научение (В.А.Болотов, В.В.Сериков), сколько на формирование навыков у обучающихся самостоятельного получения необходимой информации, творческого мышления, умений принимать быстрые решения на основе имеющихся знаний в различных ситуациях профессиональной и социальной деятельности.

Начиная с 70-х годов прошлого века стала действенной концепция коммуникативной компетенции, в качестве структурных элементов которой стали вычленяться лингвистическая, социолингвистическая, дискурсивная, социокультурная, стратегическая и социальная компетенции.

В российской лингводидактике термин коммуникативная компетенция ввел М.В.Вятюнев. Он предложил понимать коммуникативную компетенцию «как выбор и реализацию программ речевого поведения в зависимости от способностей человека ориентироваться в той или иной обстановке общения; умение классифицировать ситуации в зависимости от темы, задач, коммуникативных установок, возникающих у учеников до беседы, а также во время беседы в процессе взаимной адаптации» [4].

В.И.Андриянова подчеркивает, что коммуникативный принцип является основой обучения русскому языку как неродному [3].

В связи с этим учёный считает необходимым «создание такой системы обучения, которая бы обеспечивала овладение языком в основных его функциях – как средством общения, сообщения, познания, планирования и организации деятельности (особенно коллективной), эмоционально-эстетического и нравственного воздействия и воспитания – при приоритетности коммуникативной функции» [3, 54].

Целью обучения иностранным языкам, согласно Государственному образовательному стандарту системы непрерывного образования Республики Узбекистан, в настоящее время является формирование иноязычной коммуникативной компетенции обучающихся для функционирования в поликультурном мире в бытовой, профессиональной и научной сферах [11].

В основе методики формирования коммуникативной компетенции обучающихся лежит уровневый подход. Разработка уровневого подхода связана с выделением уровней владения иностранным языком. Под уровнем владения языком понимается степень сформированности коммуникативной компетенции, обеспечивающая возможность решать на иностранном языке задачи общения в соответствии с условиями коммуникации и с использованием необходимых для этого языковых знаний, речевых навыков и умений. В целом в документе определены и описаны три уровня владения иностранными языками, каждый из которых охватывает два подуровня. Каждый из вышеназванных уровней характеризуется разной степенью сформированности коммуникативных умений.

Иноязычная коммуникативная компетенция согласно «Общевропейским компетенциям владения иностранным языком: изучение, обучение и оценка» (CEFR) основывается на формировании лингвистической, прагматической и социолингвистической компетенций.

Документ Совета Европы «Общевропейские языковые компетенции: обучение, изучение, оценка» рассматривают социолингвистическую компетенцию как одну из важнейших составляющих межкультурной коммуникативной компетенции, формирование которой является целью обучения неродному языку.

Социолингвистическая компетенция – это вид компетенции, который обозначает «способность выбора и видоизменения языковых форм в зависимости от типа общения. Социолингвистическая компетенция включает обязательные знания умения и навыки

для результативного применения языковых средств в социальном контексте. Это выражается в верном выборе языковых форм и речевых конструкций в зависимости от цели высказывания и ситуации общения» [5; с.39]. А в отношении диалекта и акцента включает в себя способность распознавать языковые особенности социальных слоев, места проживания, происхождения, рода занятий.

Профессор Т.М.Балыхина трактует «социолингвистическую компетенцию как систему, в составе которой имеются правила вежливости, штампы общения, этикетные формы, а также идентификация человека с точки зрения происхождения, профессиональной деятельности и т.д.» [5: с.39].

Социолингвистическая компетенция отражает социокультурные условия использования языка (ориентация на социальные нормы общения между разными поколениями, полами, классами и социальными группами, оформление ритуалов). Данная компетенция оказывает влияние на речевое общение между представителями разных культур.

К области социолингвистической компетенции относится, в том числе, умение организовать педагогическое общение и учитывать конкретную педагогическую ситуацию, состоит из умения пользоваться реалиями, особыми оборотами речи, специфическими правилами речевого общения, характерными для страны изучаемого языка, то есть своеобразие в языке, которое свидетельствует о влиянии обычаев, культуры.

В связи с ориентированностью на социальные нормы (правила хорошего тона, нормы общения между представителями разных поколений, полов, общественных групп, языковое закрепление определенных ритуалов, принятых в данном обществе) социолингвистический компонент оказывает большое влияние на языковое оформление общения между представителями разных культур. Таким образом, социолингвистическая компетенция является интегральными компонентами коммуникативной компетенции.

Поскольку требования к уровню владения социолингвистической компетенцией являются несколько размытыми, необходимо выделить отдельные компоненты, требования к владению которыми могут быть описаны более точно, и соответственно, могут быть измерены и проконтролированы.

К таким компонентам можно отнести:

- Этикетные формулы приветствия, прощания, обращения, благодарности.
- Выражение вежливой просьбы, пожелания, интереса, беспокойства.
- Поздравления, выражение соболезнования, выражение благодарности.
- Выражение сожаления, использование смягчающих формулировок.
- Выражение недовольства, нетерпеливости, жалобы.
- Понимание наиболее часто употребляемых устойчивых выражений.
- Понимание наличия различий в различных вариантах языка.

Развитие социолингвистической компетенций неразрывно связано с основными целями образования: практической, развивающей и воспитательной. И воспитательная задача наиболее значима, поскольку от решения этой задачи зависит формирование в современном молодом человеке чувства патриотизма и чувства интернационализма. Изучая русский язык, мы формируем культуру мира в сознании человека.

Для развития социолингвистической компетенций необходимо использовать следующие шаблоны социальных отношений:

- 1) Галереи и музеи, путеводитель для туристов;
- 2) Вокзал, аэропорт, транспорт;
- 3) Прогноз погоды;
- 4) Новости, спортивные репортажи, интервью, газетный текст;
- 5) Тексты лингвострановедческого содержания;
- 6) Реалии страны изучаемого языка;
- 7) Каноны вежливости\этикет;
- 8) Традиции/обычаи, одежда, особенности национальной кухни,
- 9) Национальные пословицы, поговорки, фразеологизмы и крылатые выражения.

Из этого следует, что для того, чтобы использовать язык того или иного языкового сообщества в полной мере, важно владеть социолингвистическими правилами речевой коммуникации, характеризующими данное общество, то есть полностью осмысливать воздействие социальных факторов на речевое поведение участников общения. Овладение родным языком, как правило, предусматривает приобретение различного рода знаний неосознанно, что благоприятствует использованию родного языка должным образом. Такие знания и можно назвать социолингвистической компетенцией коммуниканта.

Вследствие этого обучение неродному (русскому) языку необходимо рассматривать с учетом социолингвистического аспекта коммуникации.

Вывод. Таким образом, изучение языка, как родного, так и неродного – личностная потребность, которая проявляется в социальном взаимодействии, общении. Успешность общения зависит не только от желания говорящего вступить в контакт, но и от умения реализовать речевое намерение, которое зависит от степени владения единицами языка и умения употреблять их в конкретных ситуациях общения. Эти условия владения языком и составляют сущность социолингвистической компетенции, которая была выдвинута в число центральных категорий коммуникативной лингвистики и лингводидактики.

ЛИТЕРАТУРА

1. Алимсаидова, Сайера Амидеевна. "Историко-литературные тексты как основа преподавания неродного языка". <i>Журнал текущих исследований по педагогике</i> 2.10 (2021): 204-208.

2. Алимсаидова С.А. Дидактические принципы при обучении неродному языку // Международный научный журнал «Молодой учёный». – Казань, 2015. – №23 часть X. С. 1062-1063
3. Андриянова В.И. Теория и практика обучения узбекских школьников устноречевому общению на русском языке: Дис. на. д-ра пед.наук. - Т., 1997. – 350 с.
4. Вятютнев М.Н. Методологические аспекты современного учебника русского языка как иностранного // Русский язык за рубежом. – М., 1988. – № 3. – С. 71-77.
5. Драгунова А.А. Формирование иноязычной коммуникативной компетенции у студентов факультета иностранных языков через использование учебных интернет-ресурсов на основе технологий веб 2.0 Дисс. ...канд. педаг. наук. – Ярославль, 2014. – 331 с.
6. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация/Пер. с англ. – М.: Когито-центр, 2002. – С. 23.
7. Alimsaidova Sayyora Amidyevna Sociolinguistic competence as a purpose of teaching a nongene (russian) language in a secondary school. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published: October 30, 2020 | Pages: 321-327 IMPACT FACTOR 2020: 5. 525.. Doi: <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue10-53 P. 321-327>
8. Sayyora, Alimsaidova. "IMPROVEMENT OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 313-316.
9. Сайера, Алимсаидова. "СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА". *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ НАУК и МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ* ISSN: 2277-3630 Импакт-фактор: 7.429 11.09 (2022): 313-316.ING A NON-NATIVE (RUSSIAN) LANGUAGE." *Gospodarka i Innowacje*. 35 (2023): 207-211.
10. Amidevna, Alimsaidova Sayyora. "FORMS OF SPEECH IN TEACHING DIALOGUE." *Gospodarka i Innowacje*. 35 (2023): 392-395.



KOGNITIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH – O‘QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGI OSHIRISH OMILI SIFATI

*Ismoilova Nozimaxon
NamDU tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kognitiv faollikning yuqori darajasini ta’minlaydigan asosiy shartlardan biri bu axborotga boy, faoliyatga yo’naltirilgan o‘quv muhitining mavjudligi, shuningdek, ushbu muhitda amaliy faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatining yaratilganligi ekanligi, o‘quvchi uchun mazmunli axborot maydoni va unda faol qatnashish imkoniyati uning kognitiv qiziqishini uyg‘otishi hamda va bilishga bo‘lgan ichki ehtiyojni faollashtirishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya va differentsatsiya, reproduktiv faoliyat, interpretativ faoliyat, ijodiy-faol faoliyat, bilish faolligi, kognitiv faollik darajasi

Аннотация: В данной статье рассматривается, что одним из основных условий, обеспечивающих высокий уровень познавательной активности, является наличие информационно насыщенной, деятельностно-ориентированной учебной среды, а также создание в этой среде возможности заниматься практической деятельностью, значимое для учащегося информационное поле и возможность активного участия в нем пробуждают у него познавательный интерес и активизируют внутреннюю потребность в познании.

Ключевые слова: интеграция и дифференциация, репродуктивная активность, интерпретативная активность, творческо-активная деятельность, когнитивная активность, уровень познавательной активности

Annotation: This article considers that one of the main conditions that ensure a high level of cognitive activity is the presence of an information-rich, activity-oriented learning environment, as well as the possibility of engaging in practical activities in this environment, a meaningful information space for the student and the possibility of active participation in it arouse his cognitive interest and

Keywords: integration and differentiation, reproductive activity, interpretive activity, creative-active activity, cognitive activity, cognitive activity level

KIRISH

O‘quv jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish muammosini hal qilishning asosiy muammosi o‘quvchilarning bilim olishini faollashtirishdir. Uning alohida ahamiyati shundaki,

o‘qitish aks ettiruvchi o‘zgartiruvchi faoliyat bo‘lib, nafaqat o‘quv materialini idrok etishga, balki o‘quvchining kognitiv faoliyatning o‘ziga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgan. Faoliyatning o‘zgaruvchan xarakteri doimo subyektning faoliyati bilan bog‘liq. O‘quv jarayoni samaradorligini oshirish muammosini hal qilish o‘quvchilarda kognitiv tizimni faollashtirishning amaliyotda sinab ko‘rilgan sharoitlari va vositalarini ilmiy tushunishni talab qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining shaxs sifatida psixologik rivojlanishi — bu ichki va tashqi omillar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi, tashqi omilning ichki omilga aylanishi, o‘z-o‘zini harakatlantirish va o‘z ustida ongli ishlash orqali yuzaga keladigan murakkab dialektik jarayondir. Mazkur rivojlanish faqat yutuqlardan iborat bo‘lib qolmay, balki muammolar, ziddiyatlar, o‘zgarishlar va yangilanishlar zaminida shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kognitiv faollik masalasi turli sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarda hamisha dolzarb muammo bo‘lib kelgan. Mazkur muammo XVII asrning buyuk chex pedagogi va mutafakkiri Y.A.Komenskiy asarlarida ham dolzarb mavzu sifatida ilgari surilgan. U o‘quvchining bilim olish jarayonida faol ishtirok etishi, shaxsiy fikr yuritishi va o‘z tafakkuri asosida haqiqatga erishishini o‘quv-tarbiyaviy jarayonning yetakchi tamoyili deb hisoblagan. Komenskiy shunday deydi: “Yoshlikda haqiqiy ta’lim berilmog‘i lozim. Ular boshqa kishilarning aqli bilan emas, balki o‘z tafakkuri bilan yo‘l yurishlari kerak. Kitoblardan nafaqat boshqa kishilarning fikrlarini o‘qib tushunish, ularni yodlab va takrorlab aytish emas, balki narsalarning tagiga yetib borish, ularni chuqur anglab olish va amalda qo‘llash qobiliyatini o‘zlarida shakllantirishlari zarur”¹.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda bilish faolligi tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixga ega bo‘lib, bu borada ko‘plab klassik pedagoglar tomonidan muhim g‘oyalar ilgari surilgan. Jumladan, Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, J.Lokk va J.J.Russo singari o‘tmish pedagoglari bilish faolligini o‘quvchining bilishga tabiiy intilishi sifatida talqin etganlar. Y.A.Komenskiyning fikricha, “bolalarda bilim olish va o‘qishga kuchli intilishni barcha mumkin bo‘lgan usullar bilan alangalatish zarur”.

Shuningdek, kognitiv faollikning mohiyati ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan uni inson faoliyatining maxsus turi sifatida ko‘rib chiqish orqali ochib berilgan. Xususan, bir qator olimlar kognitiv faollikni faoliyatga tayyorlik holati sifatida tavsiflaydi. Jumladan:

– M.I.Lisina uni shaxsning bilishga yo‘naltirilgan faoliyatga tayyorligi holati sifatida ta’riflaydi;

– boshqa tadqiqotchilar uni barqaror bilish qiziqishlari va motivlarini shakllantirishga qaratilgan mahsuldor faoliyat deb ko‘rsatadilar²;

¹ Коменский Я. А. Избранные педагогические сочинения: в 2 т. Т. 1. М.: Педагогика, 1982. 656 с.

² Боброва И.А. Развитие познавательной активности студентов в образовательном процессе педагогического вуза: дис. канд. пед. наук. – СПб., 2008. – 142 с.

– shuningdek, u inson tafakkur faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ham talqin etiladi³.

Mazkur tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kognitiv faollik – bu faqatgina passiv bilim olish emas, balki faol, maqsadga yo‘naltirilgan, ma‘naviy-intellektual izlanishga asoslangan jarayondir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kuzatish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri suhbat, anketa, pedagogik eksperiment metodlarini qo‘lladik.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Akademik B.G.Ananyev shaxs rivojlanishini uning tarkibiy qismlarining tobora murakkablashib boruvchi integratsiyasi sifatida talqin etadi. Bu jarayon shaxs tuzilmasining ko‘lamli o‘sishi va ichki birlik darajasining ortib borishini ifodalaydi. Bunda shaxs nafaqat yaxlitlashadi, balki doimiy differensiallashuvga — ya’ni psixik funksiyalarning chuqurlashuvi, tafovutlanishi, murakkablashuvi, turli holat va xossalarga ajralib chiqishiga duch keladi. Bu esa aqliy faoliyat, holatlar, xususiyatlar va tendensiyalarning yanada murakkabroq darajada namoyon bo‘lishiga olib keladi.

Shaxs rivojlanishidagi ushbu ikki yo‘nalish — integratsiya va differentsatsiya — o‘zaro dialektik birlikda kechadi va talabaning bilim olish, anglash va faoliyatga jalb etilish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu munosabat bilan, o‘quvchilarning o‘quv-bilish jarayonidagi faoliyat va xatti-harakatining quyidagi uchta asosiy turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Reproduktiv faoliyat – mavjud bilimlarni eslab qolish, qayta tiklash va takror qo‘llash bilan bog‘liq faoliyat. Bu bosqichda talaba ko‘proq tayyor axborotdan foydalanadi, mustaqillik darajasi nisbatan past bo‘ladi.

2. Interpretativ faoliyat – bilimlarni anglab yetish, ularni yangi kontekstda talqin qilish va mustaqil tahlil qilish bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda tafakkur jarayonlari faol ishtirok etadi va shaxs o‘zining bilish salohiyatini rivojlantirishga intiladi.

3. Ijodiy-faol faoliyat – mavjud bilimlar va tajriba asosida yangilik yaratish, muammolarni original tarzda hal qilish, intellektual tashabbus va ijodiy tafakkurni ishga solish orqali amalga oshiriladi. Bu faoliyat turi talabaning eng yuqori darajadagi bilish faolligi va ichki o‘sinh darajasini aks ettiradi.

Kognitiv faoliyat – bu o‘quv faoliyatiga, bilimlarni egallashga, fanga qiziqish. Kognitiv faoliyatning paydo bo‘lishi, birinchi navbatda, o‘quvchining rivojlanish darajasiga, uning tajribasiga, bilimiga, qiziqish uyg‘otadigan materialni taqdim etish usuliga bog‘liq.

³ Коробова Е.В. Формирование познавательной активности студентов экономических специальностей средствами игровых технологий (на опыте обучения иностранному языку и во внеаудиторной работе): автореф. дис. канд. пед. наук. – Москва, 2003. – 27с.

Kognitiv faoliyatni ta’lim jarayonidagi eng muhim omillardan biri sifatida e’tirof etish kerak, uning ta’siri ham yorqin va quvnoq o‘quv muhitini yaratishga, ham o‘quvchilarning kognitiv faolligining intensivligiga shubhasizdir.

Zamonaviy rus tadqiqotchilari o‘quvchilarda kognitiv faoliyatning xususiyatlarini va uni faollashtirish usullarini o‘rganadilar. Bular: A.K.Markova, V.I.Lofovaya, J.N.Telnova G.I.Shchukina. Mashg‘ulotning ta’siri va uning intellektning bilish faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liqligini o‘rganishga Sh.A.Amonashvili, S.L.Rubinshteyn, A.M.Matyushkin, A.V.Brushlinskiy kabi olimlar o‘z hissalarini qo‘shishgan.

Kognitiv faoliyatni shakllantirish muammosi uzoq vaqt oldin paydo bo‘lgan va bugungi kunda ham eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. O‘quvchining kognitiv faolliigi darajasi o‘quv, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalarni hal qilish samaradorligini belgilaydi.

Faoliyat (lotincha *activus* – faol) – anglanilgan maqsad bilan boshqariladigan ichki (psixik), tashqi (jismoniy) harakatdir. Faoliyatning ijtimoiy ma’nosi uning yo‘nalishi va motivlari bilan belgilanadi. Ushbu mezonga ko‘ra, faoliyat ijobiy va salbiyga bo‘linadi.

Kognitiv faollikning yuqori darajasini ta’minlaydigan asosiy shartlardan biri — bu axborotga boy, faoliyatga yo‘naltirilgan o‘quv muhitining mavjudligi, shuningdek, ushbu muhitda amaliy faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatining yaratilganligidir. O‘quvchi uchun mazmunli axborot maydoni va unda faol qatnashish imkoniyati uning kognitiv qiziqishini uyg‘otadi, izlanishga undaydi va bilishga bo‘lgan ichki ehtiyojni faollashtiradi.

Ammo, bilish faolligining aynan mana shu darajasiga erishishga asosiy to‘siqlardan biri sifatida, ta’lim jarayonida nazariy shakllarning juda erta joriy qilinishi, shuningdek, bolaning hali to‘liq shakllanmagan emotsional-hissiy va amaliy tajribasini e’tiborga olmasdan, uni erta bosqichdayoq “kitob madaniyati”ga ortiqcha jalb etish ko‘rsatiladi. Bu holat bolaning faol sezgi-idrokka asoslangan bilish yo‘nalishlarini cheklab qo‘yadi, unga begona bo‘lgan abstrakt tushunchalarni erta o‘zlashtirishga majburlaydi va natijada tabiiy bilish qiziqishi so‘nib qolishi mumkin.

Bilish faolligining rivojlanishi uchun, ayniqsa, boshlang‘ich bosqichda, avvalo sensorik, tajribaviy va faol faoliyat muhitini yaratish zarur. Bilimlar faqat nazariy shaklda emas, balki amaliy tajriba, o‘z kuzatuv, izlanish va faol ishtirok orqali o‘zlashtirilgan taqdirdagina o‘quvchining ichki motivatsiyasi va bilishga bo‘lgan intilishi barqaror rivojlanadi.

Boshqacha qilib aytganda, o‘quvchining sezgilar va amaliy faoliyatga asoslangan shaxsiy tajribasini boyitishga xizmat qiladigan barcha omillar uning bilish faolligini rivojlantiradi. Aksincha, unga hali zarur bo‘lmagan bilimlarning tayyor holatda erta berilishi — ya’ni o‘quvchida bu bilimlarni o‘z tajribasi bilan bog‘lab anglab olish ehtiyoji hali shakllanmasidan ilgari ularga duchor qilish — tabiiy bilish qiziqishining susayishiga olib keladi.

Bilish faolligining keyingi darajasi — bu bilim va ko‘nikmalarni egallashga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, u o‘quvchi tomonidan bilish muammolarini hal qilish, aqliy yutuqlarga erishish istagi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Mazkur faoliyat darajasi ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yorqin ifodalanadi.

Bu yosh davrida bilish faolligining rivojlanishi ko‘p jihatdan mantiqiy tafakkurning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu yosh bosqichining yetakchi psixik rivojlanish yo‘nalishi hisoblanadi. Shu sababli ushbu darajadagi faoliyatga quyidagi xususiyatlar xosdir:

- intellektual masalalarni mustaqil hal qilishga bo‘lgan intilish;
- bu masalalarni yechish uchun zarur vositalarni egallashga qiziqish;
- intellektual muvaffaqiyatga erishishga ehtiyojning ortishi;
- o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan “bu qanday bajariladi?”, “nima uchun aynan shunday qilish kerak?”, “qanday qilish to‘g‘ri, qanday qilish noto‘g‘ri?” kabi savollarni faol berish, ya‘ni yangi axborot, bilim, harakat usulini o‘zlashtirishga intilish;
- taklif etilgan faoliyat usulini egallashga yo‘naltirilgan ijobiy o‘quv motivatsiyasi;
- murakkab amaliy operatsiyalarni o‘zlashtirish, yangi bilimlar va usullarni o‘rganish bilan bog‘liq ijobiy emotsional kechinmalar;
- noma‘lum so‘z va tushunchalarga qiziqishning kuchayishi;
- bilish qiziqishining situatsion xarakteri, ya‘ni yangi ma‘lumot olingach yoki topshiriq bajarilgach qiziqishning so‘nishi, ayniqsa, haddan tashqari ko‘p axborot taqdim etilganda «psixologik to‘yinish» alomatlarining paydo bo‘lishi.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarning bilish faolligi asosan intellektual qiziqish, mantiqiy tafakkurni shakllantirish va amaliy bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojlar bilan boshqariladi. Ushbu davrda berilgan ta‘lim mazmuni va metodikasi o‘quvchining psixik rivojlanish darajasiga mos kelgan taqdirdagina u izchil bilish faolligini namoyon etadi.

O‘quvchilarda yuqori darajadagi kognitiv faollikka erishish va uni barqarorlashtirishning asosiy sharti – bu o‘qituvchining kasbiy kompetentligidir. Mazkur kompetentlik, bir tomondan, o‘quvchilarda mustaqil fikrlashga asoslangan kognitiv faoliyatni shakllantiradi, boshqa tomondan esa, turli fikrlarning to‘qnashuvi, muhokama va tahlil jarayonlarini o‘quv faoliyatiga samarali integratsiyalash imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini faollikning shaxsiy qadriyat darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Kognitiv faollikning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar qatorida o‘quvchilarning shaxsiy-psixologik xususiyatlariga – o‘z-o‘zini past baholash, intellektual imkoniyatlariga ishonchsizlik, maktab bilan bog‘liq salbiy emotsional tajribalar va psixologik to‘siqlar kiradi. Ushbu omillar o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan ijobiy munosabatini susaytiradi, natijada uning kognitiv faolligi yetarli darajada shakllanmaydi.

Kognitiv faollik bosqichma-bosqich rivojlanadi va har bir bosqich keyingi, murakkabroq darajadagi bilish faoliyatining tarkibiy negizini tashkil etadi. Har bir bosqich uchun zarur bo‘lgan sharoitlar va pedagogik ta’sirlar yuqoriroq bosqichlarda ham dolzarbligini yo‘qotmaydi, balki asta-sekin yordamchi va qo‘llab-quvvatlovchi funksiyani bajaruvchi komponentlarga aylanadi. Shu jihatdan, kognitiv faollikning tizimli va uzviy rivoji o‘quv jarayonining asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaraladi.

O‘quvchilarning kognitiv faolligiga oid yondashuvlar, nazariyalar va ilmiy tadqiqot ishlarining natijalaridan kelib chiqib, rivojlanish darajalari va har bir darajaga xos jihatlarining mazmuni aniqlab olindi (1-jadval).

1-jadval

Kognitiv faolligining rivojlanish darajalari va ularning tasnifi

Kognitiv faollik darajasi	Ta‘limga emotsional munosabat	O‘quv vazifasini qabul qilish tezligi	Vazifani bajarishdagi mustaqillik	O‘quv faoliyati natijalariga munosabat
Yuqori (faol)	O‘qishga ijobiy va barqaror motivatsiya shakllangan	O‘quvchi mustaqil ravishda maqsad qo‘yadi va unga erishish yo‘lini tanlay oladi	O‘quv topshirig‘ini to‘liq mustaqil bajara oladi	O‘quv vazifasi doirasidan chiqib, natijani chuqur anglaydi va rivojlantiradi
O‘rtacha (situativ faol)	Ta‘limga nisbatan ijobiy emotsiyalar faqat dars mazmuni va o‘qituvchi metodikasiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi	Motivatsiya beqaror: tashqi ta’sirlarga bo‘ysunadi va ko‘rsatmalar asosida harakat qiladi	Yangi faoliyat turlariga kirishadi, ammo qiyinchilikda tezda qiziqishini yo‘qotadi	Muvaffaqiyat hissini boshidan kechirgan taqdirda, yutuqlarni mustahkamlashga intiladi
Past (passiv)	Ta‘limga emas, balki sinfdoshlari bilan muloqotga nisbatan ijobiy emotsiya bildiradi	Passiv: faqat o‘qituvchining ta’siri ostida ishga kirishadi	Faolligi asta-sekin pasayadi: eng sodda yechim yo‘lini tanlaydi	Baholarga va o‘z natijalariga loqayd munosabatda bo‘ladi

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kognitiv faolligi – bu ontogenez jarayonida uzoq vaqt davomida shakllanadigan, o‘quvchining psixologik xususiyati bo‘lib, u o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘lgan, o‘quvchida bilishga ehtiyoj borligiga ichki ishonch shaklida namoyon bo‘ladi. Bu ishonch bilimlarni ijodiy tarzda egallash zaruratini anglash, faoliyat maqsadini tushunish, aktiv harakatlarga tayyorlik va to‘g‘ridan-to‘g‘ri kognitiv faoliyatda qatnashish orqali ifodalanadi.

Har bir yosh davri kognitiv faollikning rivojlanishi uchun o‘ziga xos shart-sharoitlar va tashqi ko‘rinishlar bilan xarakterlanadi. Kichik maktab yoshi esa ushbu faollikning shakllanishida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda kognitiv faollikning yetakchi rivojlantiruvchi omili – bu kattalar, ayniqsa pedagogning rahbarlik qiluvchi rolidir. O‘qituvchining didaktik yondashuvi, muloqot uslubi va motivatsiya uyg‘otishdagi mahorati o‘quvchida bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoj va intilishni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kognitiv faolligi tashqi jihatdan quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- intellektual vazifalarni hal qilishga bo‘lgan intilish;
- ularni hal etish vositalarini izlashga va taklif etilgan faoliyat usullarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan ichki tayyorgarlik (psixologik ustanovka);
- intellektual yutuqlarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi;
- o‘quv faoliyatini tashkil qilish jarayonida o‘quvchining nutqida nazoratga oid savollarni mustaqil ilgari surishi;
- yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga bog‘liq holda yuzaga keladigan ijobiy emotsional holatlar, ba‘zan bu holatlar vaziyatga bog‘liq tarzda yuzaga chiqadi.

Ushbu belgilarning mavjudligi o‘quvchining bilim olishga faol, ongli va qiziqish bilan yondashayotganini ko‘rsatadi. Aynan shu tashqi ko‘rinishlar orqali o‘qituvchi o‘quvchining ichki bilish jarayonlari haqida mulohaza yuritishi va ularni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’sir choralarni belgilab olishi mumkin.

XULOSALAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kognitiv faollikni rivojlantirishda eng avvalo, o‘qituvchining yetakchi roli hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim jarayonini optimallashtirishga qaratilgan maxsus pedagogik shart-sharoitlarni yaratish orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu shart-sharoitlarning eng muhim ifodasi sifatida o‘qituvchining ta’lim jarayonida maxsus pedagogik usul va texnikalarni samarali qo‘llay olishi ko‘rsatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Философский энциклопедический словарь / Ред.-сост. Е.Ф. Губский и др. – М.: ИНФРА-М, 2007. – 576 с.
2. Психология развития. Словарь: ред.-сост. Л.А. Карпенко; под общ. ред. А.В. Петровского, под. ред. А.Л. Венгера // Психологический лексикон. Энциклопедический словарь: В 6 т. – М.: ПЕР СЭ, 2006. – 176 с.
3. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии / С.Л. Рубинштейн. – СПб.: Издательство «Питер», 2000. – 712 с.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность.- М.: Смысл; Изд. центр Академия, 2004 с.153.
5. Лисина М.И. Формирование личности ребенка в общении: СПб.: Питер, 2009, 320с.
6. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – СПб.; Питер, 2001.с.25.
7. Социологический энциклопедический словарь / Редактор-координатор Г.В. Осипов. - М.: Изд-во НОРМА, 2000. – 488 с.
8. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Словарь по педагогике. – Москва: ИКЦ «МарТ»; Ростов н/Д: Издательский центр «МарТ», 2005.- 448 с.

9. Мусурмонова О. ва бошқ. Мактабгача ва бошланғич таълим атамаларининг изоҳли луғати/ Тошкент: Bekinmashoq-Plyus, 2011. – 119 б. (260).
10. Султонов Т. Проблемы развития интеллектуального потенциала независимой Республики Узбекистан (на примере развития научно-педагогических кадров высшей школы): дис. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1995. – С. 27.
11. Қодиров Б.Р., Қодиров К.Б. Мактабгача ёшдаги болаларнинг психофизиологик тараққиётида реакция тезлигининг ўрни. Бола шахсини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари: II Халқаро илмий-амалий анжуманининг тезислар тўплами. –Т.: 2008. – 271-277 б.
12. Очилова Б.М. Янги Ўзбекистон таълим тизими. Journal of advanced research and stability (JARS) Volume: 01 Issue: 06/2021. – Б. 408-413.
13. Қодиров Б.Р., Қодиров К.Б. Мактабгача ёшдаги болаларнинг психофизиологик тараққиётида реакция тезлигининг ўрни. Бола шахсини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари: II Халқаро илмий-амалий анжуманининг тезислар тўплами. –Т.: 2008. – 271-277 б.



OLIV O‘QUV YURTLARI TIBBIYOT TALABLARINI O‘QITISHDA SIMULYATSION O‘QITISHNING AHAMIYATI

Shaismatova Gulbaxor Xikmatovna

Angren universiteti davolash ishi fakulteti mutaxassislik fanlari o‘qituvchisi

Ikramova Sokina Bonu Ravshanzoda

*Angren universiteti davolash ishi fakulteti mutaxassislik fanlari mutaxassislik
o‘qituvchisi*

Yuldasheva Zarofat Igamberdiyevna

tibbiyot fanlari nomzodi Angren universiteti davolash ishi fakulteti o‘qituvchisi

Rahmatullayeva Maxfuza Igamberdiyevna

Angren universiteti davolash ishi fakulteti katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Oliy o‘quv yurtlarida tibbiyot ta’limi berish jarayoni zamonaviy texnologiyalar va pedagogik yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Shulardan biri simulyatsion o‘qitishdir. Simulyatsion o‘qitish, tibbiyot sohasida talabalarni amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda va klinik vaziyatlarga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada simulyatsion o‘qitishning ahamiyati, uning tibbiyot ta’limidagi o‘rni, afzalliklari va kelajakda rivojlanish istiqbollari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiyot, simulyatsion o‘qitish, pedagogik yondashuvlar, bemor, klinik ko‘nikmalar, diagnostika, amaliy ko‘nikmalar, baholash.

Аннотация: Процесс медицинского образования в высших учебных заведениях обогащается современными технологиями и педагогическими подходами. Одним из них является симуляционное обучение. Симуляционное обучение играет важную роль в развитии практических навыков в медицинской сфере, применении теоретических знаний на практике и подготовке студентов к клиническим ситуациям. В данной статье представлена информация о важности симуляционного обучения, его роли в медицинском образовании, его преимуществах и перспективах дальнейшего развития.

Ключевые слова: медицина, симуляционное обучение, педагогические подходы, пациент, клинические навыки, диагностика, практические навыки, оценка.

Abstract: The process of medical education in higher education institutions is being enriched with modern technologies and pedagogical approaches. One of these is simulation training. Simulation training plays an important role in the development of practical skills in the medical field, the application of theoretical knowledge in practice, and the preparation of students for clinical situations. This article provides information on the importance of

simulation training, its role in medical education, its advantages, and future development prospects.

Keywords: medicine, simulation training, pedagogical approaches, patient, clinical skills, diagnostics, practical skills, assessment.

KIRISH

Oliy o‘quv yurtlarida tibbiyot ta’limi berish jarayoni, zamonaviy davrning talablariga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan murakkab va ko‘p qirrali faoliyatdir. Tibbiyot sohasidagi bilim va ko‘nikmalar, nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy tajriba va klinik ko‘nikmalarga ham asoslanadi. Shuning uchun, tibbiyot talablarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va simulyatsion o‘qitish metodlari muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda tibbiyot sohasida talablar va standartlar doimiy ravishda yangilanib borilmoqda. Tibbiyot talabalari, nafaqat kasbiy bilimlarni egallashlari, balki bemorlar bilan muloqot qilish, jamoaviy ish olib borish va etika qoidalariga rioya qilish kabi ko‘nikmalarni ham o‘zlashtirishlari zarur. Buning uchun oliy o‘quv yurtlari o‘z ta’lim dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etishga intilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Simulyatsion o‘qitish – bu talabalarga real hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan ta’lim metodidir. Tibbiyot sohasida bu usulning qo‘llanilishi talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko‘rish imkonini beradi. Oliy o‘quv yurtlarida simulyatsion o‘qitishning ahamiyati, shuningdek, talabalarning klinik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Abduraxmonovning tadqiqotida simulyatsion o‘qitishning nazariy asoslari va amaliyotdagi qo‘llanilishi batafsil tahlil qilingan. Muallif, simulyatsion o‘qitish metodlari tibbiyot talabalarining amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda qanday yordam berishini ko‘rsatadi. U shuningdek, simulyatsion o‘qitish orqali talabalar o‘z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘lishlarini ta’kidlaydi.[1]

Karimov simulyatsion o‘qitishning tibbiyot ta’limidagi ahamiyatini muhokama qiladi. U innovatsion texnologiyalar, jumladan, virtual simulyatsiyalar va interaktiv o‘quv dasturlarining talabalarga ta’sirini o‘rganadi. [2]

Nizamov simulyatsion o‘qitishning talabalarga real vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda qanday yordam berishini ko‘rsatadi. U shuningdek, simulyatsion o‘qitish jarayonida o‘qituvchilarning roli va talabalarning motivatsiyasini oshirish usullarini ham muhokama qiladi.[3]

Xudoyberganov simulyatsion o‘qitishning tibbiyot talabalarini tayyorlashdagi o‘rnini o‘rganadi. U simulyatsion o‘qitish jarayonida talabalar o‘zaro hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish va klinik vaziyatlarga tayyorlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishlariga yordam berishini ta’kidlaydi.[4]

NATIJA VA MUHOKAMA

Simulyatsion o‘qitish, asosan, real klinik vaziyatlarni taklif etish orqali talabalarni amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga imkon beradi. Talabalar simulyatsion manzara yoki sharoitda, masalan, bemorlarni tekshirish, muolajalar o‘tkazish, diagnostika qilish va boshqa klinik faoliyatlarni amalga oshirishlari mumkin. Bu jarayon talabalarni haqiqiy sharoitda ishlashga tayyorlaydi va ularga o‘z bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Shunday qilib, simulyatsion o‘qitish talabalarni o‘z bilimlarini mustahkamlashga va klinik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Simulyatsion o‘qitishning yana bir muhim jihati, talabalar uchun xavfsiz muhit yaratishdir. Tibbiyot sohasida xato qilish oqibatlari juda jiddiy bo‘lishi mumkin, shuning uchun talabalar real bemorlar bilan ishlashdan oldin simulyatsion sharoitda tajriba o‘tkazishlari juda muhimdir. Simulyatsion o‘qitish talabalar xatolardan o‘rganishlariga, o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlariga va kelajakdagi professionalliklarini oshirishga yordam beradi. Bu, shuningdek, talabalar uchun o‘z-o‘zini baholash va o‘z ko‘nikmalarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, simulyatsion o‘qitish, bilimlarni baholash va qayta ko‘rib chiqish jarayonida ham muhim rol o‘ynaydi. Talabalar simulyatsion vaziyatlarda o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazish orqali o‘z ko‘nikmalarini baholashlari mumkin. Bu jarayon, o‘z navbatida, o‘qituvchilarga talabalar darajasini aniqlash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Simulyatsion o‘qitish orqali talabalar o‘z bilimlarini yanada chuqurlashtirishlari va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.[5]

Simulyatsion o‘qitish, shuningdek, interaktiv o‘qitish metodlari bilan birgalikda amalga oshirilishi mumkin. Bu talabalar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Guruh bo‘lib ishlash, muammolarni birgalikda hal qilish va fikr almashish talabalar o‘rtasida jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tibbiyot sohasida jamoaviy ish juda muhimdir, chunki bemorlar bilan ishlashda ko‘pincha bir nechta mutaxassislar ishtirok etadi. Simulyatsion o‘qitish orqali talabalar jamoaviy ishni o‘rganadilar va kelajakdagi professional faoliyatlarida samarali ishlashga tayyorlanadilar. Simulyatsion o‘qitishning yana bir muhim afzalligi, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi muloqotni yaxshilashdir. Simulyatsion vaziyatlarda o‘qituvchilar talabalarni kuzatishlari va ularga to‘g‘ridan-to‘g‘ri fikr bildirishlari mumkin. Bu jarayon talabalar uchun o‘z bilimlarini yaxshilash va o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. O‘qituvchilar esa talabalarining o‘qitish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini baholash va ularga zarur yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.[6]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, simulyatsion o‘qitish tibbiyot ta’limida muhim ahamiyatga ega. U talabalarni amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga, xavfsiz muhitda tajriba o‘tkazishga, bilimlarni baholash va qayta ko‘rib chiqishga yordam beradi. Simulyatsion o‘qitish orqali talabalar o‘z bilimlarini mustahkamlash, jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirish va kelajakdagi professional faoliyatlariga tayyorlanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Zamonaviy texnologiyalar yordamida simulyatsion o‘qitish yanada interaktiv va qiziqarli bo‘lib, talabalar uchun samarali

o‘qitish jarayonini yaratadi. Tibbiyot sohasida simulyatsion o‘qitishni kengaytirish, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash va sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахманов, А. (2021). «Симуляционное обучение в медицинском образовании: теория и практика». Медицина и образование, 3(1), 45-52.
2. Каримов, Р. (2020). «Инновационные технологии и медицинское образование». Инновации в высшем образовании, 2(4), 12-18.
3. Низамов, Д. (2019). «Симуляционные методы обучения: опыт в медицинской сфере». Медицина и здоровье, 5(2), 23-30.
4. Худойбергганов, С. (2022). «Роль симуляционного обучения в подготовке студентов-медиков». Медицинский журнал Узбекистана, 4(3), 67-75.
5. Давронов, Э. (2023). «Симуляционные технологии в современном медицинском образовании». Образование и инновации, 1(1), 34-40.
6. Рустамов, М. (2021). «Симуляционное обучение в медицине: опыт и перспективы». Медицинская педагогика, 2(2), 50-58.
7. Кадыров, А. (2020). «Развитие практических навыков студентов-медиков посредством симуляционного обучения». Образование и здравоохранение, 3(1), 15-22.
8. Аскарлов, У. (2022). «Значение и эффективность симуляционного обучения в медицинском образовании». Высшее образование и медицина, 4(4), 77-85.



SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Jamalova Kamola Shahobiddinovna
NamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim yondashuvi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirib, ularga shaxsiy mas‘uliyat hissini shakllantirishga yordam berishi, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalaridan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish orqali o‘quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: individuallik, faollik va interaktivlik, moslashuvchanlik, o‘z-o‘zini boshqarish, “Do‘stlik ko‘prigi” simulyatsiyasi, “Hissiyotlarni tanib olish va ifoda etish” interaktiv mashqi, formativ baholash va refleksiya

Аннотация: В данной статье речь пойдет о том, как личностно-ориентированный подход к обучению стимулирует самостоятельное мышление учащихся, помогает им формировать чувство личной ответственности, дидактические возможности развития эмоционального интеллекта учащихся за счет использования личностно-ориентированных образовательных технологий в процессе обучения.

Ключевые слова: индивидуальность, активность и интерактивность, гибкость, самоконтроль, моделирование “моста дружбы”, интерактивное упражнение “распознавание и выражение эмоций”, формирующая оценка и рефлексия

Annotation: This article talks about the didactic possibilities of developing the emotional intelligence of students by encouraging independent thinking of students and helping them to form a sense of personal responsibility, using personality-oriented educational technologies in the process of training.

Keywords: individuality, activity and interactivity, flexibility, self-control, “Friendship Bridge” simulation, interactive exercise “emotion recognition and expression”, formative assessment and reflection

Emotsional intellektni rivojlantirish orqali o‘quvchilar o‘zlarini yanada ishonchli his etib, ijtimoiy muhitga tezroq moslasha oladi. Bu esa ularning maktabdagi o‘qish jarayoni va kelajkdagi shaxsiy hamda kasbiy muvaffaqiyatlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Individuallik – har bir o‘quvchining qobiliyatlari, qiziqishlari va rivojlanish sur‘atlariga moslashtirilgan dars rejalari.

2. Faollik va interaktivlik – o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi va faol ishtirokini ta‘minlovchi metodlar.

3. Moslashuvchanlik – ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda doimiy qayta aloqa va monitoring tizimini joriy etish.

4. O‘z-o‘zini boshqarish – o‘quvchilarga o‘z o‘qish jarayonini nazorat qilish, xatolarini tahlil qilish va o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim yondashuvi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirib, ularga shaxsiy mas‘uliyat hissini shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqot ishida shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalaridan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish orqali o‘quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirishning quyidagi didaktik imkoniyatlarini belgilab olindi:

1. Rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar. Darsda emotsional vaziyatlarni, ijtimoiy konfliktlarni va muloqot jarayonlarini real hayotiy sharoitda ifodalovchi simulyatsiyalar tashkil etish mumkin. Bu usul o‘quvchilarga hissiyotlarni aniqlash, ularni ifoda etish va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

Quyidagi simulyatsiya misoli orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari emotsional intellektini rivojlantirish bo‘yicha dars jarayonida interaktiv mashq o‘tkazishlari mumkin: **“Do‘stlik ko‘prigi” simulyatsiyasi.**

Maqsad: O‘quvchilarga ijtimoiy vaziyatlarda hissiyotlarni aniqlash, ifoda etish va boshqalar bilan empatiya asosida muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish. O‘zaro yordam, hamdardlik va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga yordam berish.

Tashkil etish jarayoni:

1. Vaziyatni belgilash: O‘qituvchi sinfda ijtimoiy vaziyatni tasvirlaydi: “Sinfdagi bir o‘quvchi (masalan, Ali) yangi o‘yin qoidalarini tushunmaganligi sababli, boshqa o‘quvchilar tomonidan ajratilgan. Boshqa o‘quvchilar esa uni qo‘llab-quvvatlashni xohlashadi”.

2. Rollarni taqsimlash:

Qiyinchilikni boshdan kechirayotgan o‘quvchi: Ali roli.

Qo‘llab-quvvatlovchilar: bir nechta o‘quvchi do‘stlik, yordam va empatiya ko‘rsatadigan rollarni bajaradi.

Munosabatni nazorat qiluvchi o‘quvchi: o‘qituvchi tomonidan belgilangan, vaziyatni kuzatib, keyingi muhokama uchun savollar tayyorlaydi.

3. Simulyatsiyani o‘tkazish: O‘quvchilar belgilangan rollarda sahna yaratadi. Masalan:

a. Ali, o‘yin qoidalarini tushunishda qiynalib, o‘zining bezovtaligi va xafagarchiligi haqida gapiradi.

b. Qo‘llab-quvvatlovchi o‘quvchilar uni tinglab, yordam taklif etadi, o‘zlarining tajribalarini bo‘lishadi va unga tushunishga harakat qilishadi.

4. Refleksiya va muhokama: Simulyatsiya tugagach, o‘qituvchi va o‘quvchilar birgalikda quyidagi savollar bo‘yicha muhokama olib boradi:

Qanday hissiyotlar paydo bo‘ldi?

Qanday qilib o‘zaro yordam va empatiya ko‘rsatildi?

Agar bunday vaziyat yuz bersa, qanday choralar ko‘rish mumkin edi?

O‘quvchilar o‘z tajribalaridan qanday saboq olishdi?

Kutilayotgan natijalar:

1) Empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalar – o‘quvchilar boshqalarning hissiyotlarini anglashga o‘rganadi va ularga nisbatan hamdardlik ko‘rsatishni rivojlantiradi.

2) Hissiyotlarni boshqarish – o‘quvchilar o‘z hissiyotlarini ifoda etish va boshqarish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.

3) Jamoaviy ish – guruh bo‘lib ishlash orqali o‘quvchilar bir-biriga yordam berish va muammolarni birgalikda hal etish tajribasini orttiradi.

Ushbu simulyatsiya misoli o‘quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashqlar orqali ularga o‘zaro muloqot va hissiy tajriba almashish imkoniyatini beradi. O‘quvchilar turli rollarda qatnashib, o‘zaro muloqot orqali empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlashadi. Bu jarayonda o‘qituvchi darsni nazorat qilib, qo‘shimcha tavsiyalar berishi mumkin.

2. Multimedia resurslardan foydalanish. Emotsiyalarni aniqlash, ifoda etish va boshqarish bo‘yicha interaktiv videolar yordamida o‘quvchilar ko‘rgazmali tarzda o‘rganadilar. Bunday materiallar o‘quvchilarga mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Dars jarayonida virtual muhitlar yaratilishi orqali o‘quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarga duch kelib, ularda o‘z hissiyotlarini boshqarish tajribasini orttiradi.

“Hissiyotlarni tanib olish va ifoda etish” interaktiv mashqi.

Maqsad: O‘quvchilarga turli hissiyotlarni aniqlash va ularni ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantirish. Emotsional vaziyatlarni vizual va audio materiallar yordamida o‘rganish orqali mavzuga qiziqish uyg‘otish.

Video dars:

Kontent: qisqa video dars (3-5 daqiqa) tayyorlanadi, unda turli hissiyotlar (masalan, quvonch, g‘am, hayajon, qo‘rquv) vizual misollar va real hayotiy vaziyatlar orqali namoyish etiladi.

Audio: videoda hissiyotlarga mos musiqa va ovozli ifodalar orqali hissiyotlar yanada jonlanadi, bu o‘quvchilarga his-tuyg‘ularni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Dars tugagach, o‘quvchilar onlayn platforma orqali o‘z his-tuyg‘ularini va dars davomida olgan tajribalarini yozib borishadi. Bu jarayon o‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini anglash va baholash imkonini beradi.

Kutilayotgan natijalar:

1) Vizual va audio ta’sir: multimedia resurslar yordamida o‘quvchilar hissiyotlarni real va jonli tarzda ko‘rib, ularni yanada yaxshi anglashadi.

2) Interaktivlik: animatsiyalar, testlar va virtual rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilar faol ishtirok etishadi, bu esa ularning diqqat-e’tiborini oshiradi.

3) Refleksiya: onlayn hissiyot jurnallari yordamida o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini tahlil qilish va o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ushbu misol orqali multimedia resurslarning didaktik jarayonlarda qanday qo‘llanilishi va o‘quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirishga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatiladi.

3. Guruhli faoliyatlar. O‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘lib, ular orasida vazifalarni taqsimlash, muammolarni hal etish va o‘zaro maslahatlashish orqali emotsional intellektini rivojlantirishga erishiladi. Bu jarayonda har bir o‘quvchi o‘z hissiyotlarini ifoda etishni o‘rganadi. Dars davomida o‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etish, fikr almashish va bir-birining hissiyotlarini anglash imkoniyati beriladi. Bu usul orqali ijtimoiy ko‘nikmalar va empatiya rivojlanadi.

Maqsad: O‘quvchilarni o‘zaro muloqot va hamkorlik orqali hissiyotlarni ifoda etish, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga undash. Sinfda o‘zaro yordam, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal etish muhitini shakllantirish.

Faoliyat bosqichlari:

Guruhlariga bo‘lish: sinf 4–5 kishi tashkil etadigan kichik guruhlariga bo‘linadi. Har bir guruh o‘z ichida birgalikda ishlash va bir-birining hissiyotlarini anglashga qaratilgan vazifalarni bajaradi.

Vazifani belgilash: Har bir guruhga “Hissiyotlar galereyasi” nomli topshiriq beriladi. Guruh har bir o‘quvchi uchun o‘zining his-tuyg‘ularini ifodalovchi rasmlar yoki chizmalarni yaratadi yoki tanlaydi.

Har bir rasimga qisqa ta’rif yoziladi: bu his-tuyg‘u qanday paydo bo‘ldi, uni qaysi vaziyatda boshdan kechirdi, va bu his-tuyg‘ularni boshqarish uchun qanday choralar ko‘rgan. Guruh a’zolari o‘z ishlarini birgalikda tahlil qiladi va muhokama qiladi.

Muhokama va fikr almashish: Har bir guruh a’zolari o‘z hissiyotlarini qanday ifoda etishlari va boshqalar bilan qanday muloqot qilishlari haqida fikrlarini bildiradi. O‘qituvchi guruhlar o‘rtasida o‘zaro savol-javob sessiyasini tashkil etib, o‘quvchilarni o‘zaro tushunish va empatiya ko‘rsatish yo‘nalishida qo‘shimcha fikrlar bilan ta’minlaydi.

Refleksiya: Dars yakunida har bir o‘quvchi o‘z his-tuyg‘ulari va guruhdagi faoliyat tajribasi haqida qisqacha yozma yoki og‘zaki refleksiya qiladi. O‘qituvchi guruh ishining natijalari va o‘quvchilarning hissiy rivojlanishidagi o‘zgarishlarni baholab, kelajakdagi darslar uchun tavsiyalar beradi.

Kutilayotgan natijalar:

1) Ijtimoiy muloqot va empatiya: o‘quvchilar bir-birining his-tuyg‘ularini tinglash, tushunish va qo‘llab-quvvatlash orqali empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

2) Hissiyotlarni ifoda etish: guruhli faoliyatlar orqali o‘quvchilar o‘z hissiyotlarini erkin ifoda etishni, so‘zga aylantirish va boshqalar bilan muhokama qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3) Guruhda ishlash tajribasi: birgalikda muammolarni hal qilish va vazifalarni bajarish orqali o‘quvchilar hamkorlik, mas’uliyat va jamoaviy ish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi.

Ushbu guruhli faoliyatlar namunasida o‘quvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi asosida emotsional intellektni rivojlantirishda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham mustahkamlaydi. Bu usul orqali o‘quvchilar o‘zaro muloqot, hissiy tajriba almashish va hamkorlik orqali ijtimoiy va hissiy salohiyatlarini oshiradilar.

4. Formativ baholash va refleksiya. Emotsional jurnallar: O‘quvchilarga dars davomida yoki uy vazifasi sifatida o‘z his-tuyg‘ularini yozib borish topshirig‘i beriladi. Shu orqali ular o‘z emotsiyalarini anglash, tahlil qilish va ulardan saboq olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Har bir dars oxirida o‘quvchilar bilan birgalikda dars jarayoni va o‘rganilgan materiallar haqida qisqacha refleksiya qilish, o‘zaro muhokama qilish orqali o‘z hissiyotlarini yanada mustahkamlash mumkin.

Quyidagi misol formativ baholash va refleksiya jarayonlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining emotsional intellektini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvni ko‘rsatadi.

Maqsad: Dars davomida o‘quvchilarning emotsional holatini va rivojlanishini kuzatib borish. O‘quvchilarga o‘z hissiyotlarini anglash va ifoda etish darajasini tahlil qilish orqali shaxsiy o‘sish imkoniyatini yaratish. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida samarali muloqot o‘rnatish va dars jarayonida tezkor qayta aloqa berish.

Metodlar:

1. Emotsional jurnallar: har bir o‘quvchi dars yoki faoliyat tugagach, qisqacha yozma refleksiya olib boradi. Jurnalda o‘z hissiyotlarini qanday boshqarish, nima sababdan ma’lum bir his-tuyg‘ular yuzaga kelgani va ular bilan qanday kurashgani yoziladi.

2. Interaktiv testlar va so‘rovnomalar: dars jarayonida qisqa testlar yoki interaktiv so‘rovnomalar orqali o‘quvchilarning emotsional vaziyatlarni tushunish darajasi baholanadi. Testlar natijalari asosida o‘qituvchi dars metodikasini moslashtirish va individual yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniga ega bo‘ladi.

3. Kichik guruh intervyulari: guruhlar ichida o‘quvchilar o‘zaro qisqa suhbatlar orqali bir-birining hissiyotlarini tahlil qilishadi. Ushbu faoliyat orqali o‘qituvchi har bir guruh a’zosi bilan alohida muloqot olib, dars jarayonidagi ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarni kuzatishi mumkin.

Refleksiya: o‘quvchilarga dars davomida o‘z hissiyotlarini tahlil qilish va ulardan saboq olish imkoniyatini berish. O‘qituvchi uchun dars metodikasini qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish uchun o‘quvchilarning fikrlarini bilish.

Metodlar:

1. Ochiq muhokamalar: dars oxirida o‘quvchilar bilan umumiy savol-javob sessiyasi tashkil etiladi. O‘quvchilarga dars davomida qanday hissiyotlar paydo bo‘lgani, ularni qanday boshqarishlari va kelajakda nimalarga e‘tibor berishlari haqida fikr bildirishlari so‘raladi.

2. Yozma refleksiya: har bir o‘quvchi qisqa yozma insho yoki refleksiya shaklida darsda olingan tajriba va hissiyotlarini ifoda etadi. Yozma ishlar orqali o‘quvchilar o‘z rivojlanishini baholash va o‘zaro farqlarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. O‘zaro baholash: guruhli faoliyatlar davomida o‘quvchilar bir-birining ishlarini baholash va konstruktiv fikrlar bildirishadi. Ushbu jarayon o‘zaro ishonchni mustahkamlash va empatiya ko‘rsatish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kutilayotgan natijalar:

1) Shaxsiy rivojlanish: o‘quvchilar o‘z hissiyotlarini tahlil qilish orqali o‘z-o‘zini anglash va boshqarish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

2) Tezkor qayta aloqa: formativ baholash yordamida o‘qituvchi dars jarayonida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni aniqlab, darhol tegishli choralarni qo‘llashi mumkin.

3) Samarali muloqot: refleksiya mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilar o‘zaro fikr almashish, empatiya va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ushbu yondashuv o‘quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish jarayonini yanada samarali qiladi, chunki ular o‘z hissiyotlarini muntazam ravishda kuzatib borish, tahlil qilish va kelgusida yanada mustahkam ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkoniga ega bo‘ladi. O‘qituvchilar esa bu jarayon orqali dars metodikasini individual ehtiyojlarga moslashtirib, o‘quvchilarning ijtimoiy va hissiy salohiyatini yanada oshirishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari aniqlandi va tajriba-sinov ishlari jarayonida ilmiy jihatdan asoslandi (1-jadval):

1-jadval

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari asosida emotsional intellektni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari asosida emotsional intellektni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	Didaktik imkoniyatlar	Mazmuni
	Interaktiv o‘yinlar orqali emotsiyalarni tanish	O‘quvchilar maxsus yaratilgan interaktiv o‘yinlar orqali turli hissiyotlarni aniqlash va ularni ifoda etish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi.
	Virtual rolli o‘yinlar	Virtual muhitda turli ijtimoiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali o‘quvchilar emotsiyalarni boshqarish va empatiya qobiliyatini rivojlantiradi.
	Emotsiya kartalari bilan ishlash	Kartalar yordamida turli hissiyotlar nomlarini aniqlash, ularni to‘g‘ri

		tanlash va tasniflash mashqlari o'tkaziladi.
	Interaktiv emotsional jurnal	Oddiy va qulay shaklda tayyorlangan elektron yoki qog'oz jurnal orqali o'quvchilar kundalik his-tuyg'ularini rasm yoki qisqa yozuvlar shaklida ifodalashadi, bu esa o'z-o'zini anglashga yordam beradi.
	Guruhda bajariladigan kichik loyihalar	Sinf ichida kichik guruhlar bo'linib, emotsiyalarni ifodalashga bag'ishlangan loyiha yoki vazifalar ustida ishlash orqali o'quvchilar bir-birining his-tuyg'ularini tushunishni va muloqotni o'rganadilar.
	Soddalashtirilgan simulatsiya vaziyatlari	O'qituvchi tomonidan tayyorlangan oddiy, kundalik hayotga oid vaziyatlar (masalan, o'yin maydonchasida yuz beradigan kichik nizolar yoki muammolar) orqali o'quvchilarga hissiyotlarni aniqlash va ularni boshqarish ko'nikmalari beriladi.
	Video darsliklar va animatsiyalar	Bolalar uchun mo'ljallangan qisqa video materiallar va animatsiyalar yordamida turli his-tuyg'ular qanday paydo bo'lishi va ularni qanday ifodalash mumkinligi ko'rsatiladi.
	Oddiy testlar va interaktiv savol-javoblar	Bolalarning his-tuyg'ularini aniqlash va nazorat qilishga yordam beruvchi qisqa, oddiy testlar yoki interaktiv savol-javob mashqlari orqali o'z-o'zini baholash imkoniyati yaratiladi.
	Sahnali rol o'yinlar	Sinfda oddiy rol o'ynash mashg'ulotlari tashkil etilib, o'quvchilar turli vaziyatlarda qanday harakat qilishni va hissiyotlarni qanday boshqarishni o'zlashtiradilar. Bu usul yordamida kichik dramatik qismalar tayyorlanadi.
	Ota-onalar bilan integratsiyalashgan tadbirlar	Maktab va oila o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish maqsadida ota-onalar ishtirokida emotsional

		intellektni rivojlantirishga qaratilgan soddalashtirilgan seminarlar yoki tadbirlar o'tkaziladi.
--	--	--

Ushbu didaktik imkoniyatlar boshlang'ich sinf o'quvchilari darajasiga moslashtirilgan bo'lib, ularning yoshiga, qiziqishlariga va rivojlanish sur'atlariga e'tibor qaratadi. Shu tarzda, o'quvchilarning emotsional intellekti soddalashtirilgan, lekin samarali usullar yordamida rivojlantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Goleman, 1995, *Emotional Intelligence*, New York: Bantam Books, pp. 56-78
2. Joseph Durlak va Roger Weissbergning “The Impact of Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis”, Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning, 2015, Chicago
3. Nabiyeva, A. "Ўзбекистонда эмоционал интеллектни ривожлантириш усуллари", 2021, "Ўзбекистон таълими" нашриёти, 45-62 бетлари
4. Tursunov M. "Бошланғич синфда эмоционал интеллектни ривожлантириш: миллий ва жаҳон тажрибалари". – Т.: "Таълим ва ижтимоий тадқиқотлар" нашриёти, 2022, 78-93 бетлари
5. Рахмонов А. Ўқув материаллари ва ўқитиш усуллариининг эмоционал ривожланишга таъсири, 2019, 56-61-бетлар
6. Ҳасанов А. Болаларда эмоционал интеллектни шакллантиришда оналарнинг иштироки, 2022, Тошкент: Олий таълим нашриёти, бетлар 45-58
7. Абдуллаев М. "Таълимда innovation технологиялар", 2021, Тошкент, "Ижтимоий фикр" нашриёти, бетлар 78-83
8. Абдураззаков, М. (2022). Психологияда эмоционал интеллектнинг ривожланиши. Тошкент: Психология нашриёти, 22-40 бетлар
9. Адамович И.В. "Характеристика уровней эмоционального интеллекта студентов-медиков." Материалы конференции студентов и молодых ученых, посвященной памяти профессора МВ Кораблева. 2013.
10. Анисимович А.А. Эмоциональный интеллект как подход к поддержке осознанного выбора личностью своей будущей профессии. – 2021.



FORMING SPEAKING SKILL BY IMPLEMENTING “ONLINE AND OFFLINE GAMING” METHODOLOGY IN ELEMENTARY CLASSES.

Fayziyeva Nigora Axmadjonovna

Master student in Namangan State

Institute of Foreign Languages named after Isxakhan Ibrat

nancysmart@mail.ru

ABSTRACT: This study investigates the efficacy of online and offline gaming methodologies in fostering speaking skills among elementary English language learners. Recognizing the challenges associated with engaging young learners in traditional language instruction, this research explores how interactive games can enhance communicative competence. Through a mixed-methods approach, including experimental design, observations, and student surveys, the study examines the impact of specifically designed digital and physical games on learners’ fluency, vocabulary acquisition, and confidence in oral communication. Findings indicate that integrating gaming activities significantly improves speaking proficiency, promotes active participation, and creates a motivating learning environment. This research contributes to the growing body of knowledge on pedagogical innovations in language education, highlighting the potential of gaming to transform elementary English language instruction.

Key words: Online Gaming, Offline Gaming, Speaking skill, Young learners, “КАНООТ”.

АННОТАЦИЯ: В этом исследовании изучается эффективность онлайн- и офлайн-методик игр в развитии навыков говорения среди учащихся начальных классов английского языка. Признавая проблемы, связанные с вовлечением молодых учащихся в традиционное обучение языку, это исследование изучает, как интерактивные игры могут улучшить коммуникативные навыки. С помощью подхода смешанных методов, включая экспериментальный дизайн, наблюдения и опросы учащихся, исследование изучает влияние специально разработанных цифровых и физических игр на беглость речи учащихся, приобретение словарного запаса и уверенность в устной коммуникации. Результаты показывают, что интеграция игровых занятий значительно улучшает навыки говорения, способствует активному участию и создает мотивирующую среду обучения. Это исследование вносит вклад в растущий объем знаний о педагогических инновациях

в языковом образовании, подчеркивая потенциал игр для преобразования начального обучения английскому языку.

Ключевые слова: онлайн-игры, офлайн-игры, навыки говорения, учащиеся младших классов, «КАНООТ».

АННОТАЦИЯ: Ushbu tadqiqot boshlang'ich maktab ingliz tilini o'rganuvchilarda nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda onlayn va oflayn o'yinlarga asoslangan usullarning samaradorligini o'rganadi. Yosh o'quvchilarni an'anaviy til o'rganishga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni tan olgan holda, ushbu tadqiqot interaktiv o'yinlar muloqot ko'nikmalarini qanday yaxshilashi mumkinligini o'rganadi. Eksperimental dizayn, kuzatishlar va talabalar so'rovlarini o'z ichiga olgan aralash usullar yondashuvidan foydalangan holda, tadqiqot maxsus ishlab chiqilgan raqamli va jismoniy o'yinlarning o'quvchilarning ravonligi, so'z boyligini egallashi va og'zaki muloqotga bo'lgan ishonchiga ta'sirini o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'yinga asoslangan faoliyatni integratsiyalash nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi, faol ishtirok etishga yordam beradi va rag'batlantiruvchi o'quv muhitini yaratadi. Ushbu tadqiqot ingliz tilini erta o'rganishni o'zgartirish uchun o'yinlarning potentsialini ta'kidlab, til ta'limidagi pedagogik innovatsiyalar bo'yicha o'sib borayotgan bilimlarga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: onlayn o'yinlar, oflayn o'yinlar, nutq qobiliyatlari, boshlang'ich sinf o'quvchilari, КАНООТ.

Introduction:

The development of effective speaking skills is a crucial component of language acquisition, particularly for elementary learners who are laying the foundation for future linguistic proficiency. However, traditional English language teaching methods often struggle to maintain the engagement and motivation necessary for young learners to actively participate in oral communication. This challenge is further compounded by the diverse learning styles and attention spans inherent in elementary classrooms. In response, educators are increasingly exploring innovative pedagogical approaches that leverage the inherent appeal of games to enhance language learning.

Gaming, whether online or offline, presents a unique opportunity to create immersive and interactive learning experiences. Digital games offer dynamic visual and auditory stimuli, immediate feedback, and personalized learning pathways, while physical games encourage collaborative learning, kinesthetic engagement, and social interaction. Both modalities can be adapted to incorporate language learning objectives, providing a contextually rich environment for practicing speaking skills. This study aims to investigate the impact of implementing online and offline gaming methodologies on the speaking skills of elementary English language learners.

By examining the effectiveness of these gaming approaches, this research seeks to address the following key questions: How do online and offline games influence the fluency, vocabulary acquisition, and confidence of elementary learners in oral communication? What

are the perceived benefits and challenges of integrating gaming into the elementary English language classroom? And, how can educators effectively design and implement gaming activities to maximize their pedagogical impact? Through a rigorous analysis of empirical data, this study aims to provide valuable insights for educators seeking to enhance speaking skills among young learners and contribute to the ongoing discourse on innovative language teaching practices.

Literature Review

Recent studies have highlighted the effectiveness of integrating games into language learning, particularly in enhancing engagement and motivation among young learners. This literature review explores the existing research on the use of online and offline games in fostering speaking skills in elementary students.

Speaking is a fundamental aspect of language learning, allowing students to express themselves and interact with others. According to Brown (2007), speaking proficiency is essential for effective communication and is often a key indicator of overall language competence. For elementary students, developing speaking skills can lead to increased confidence and improved academic performance (Goh, 2018).

Game-based learning (GBL) has gained traction as an effective pedagogical approach in language education. Research by Gee (2003) emphasizes that games provide a context for meaningful interaction, which is crucial for language development. Games not only engage students but also create a low-stress environment that encourages risk-taking and experimentation with language (Kapp, 2012).

The rise of digital technology has led to the proliferation of online games designed for educational purposes. Studies by Hwang and Wu (2014) indicate that online games can enhance vocabulary acquisition and speaking skills through interactive and immersive experiences. For instance, multiplayer online games often require players to communicate verbally or through text, thereby providing authentic contexts for language use (Vasalampi et al., 2018). Furthermore, online platforms can facilitate collaboration among students, promoting peer interaction and language practice (Li Ma, 2019).

The combination of online and offline game-based approaches offers a comprehensive strategy for enhancing speaking skills. Research by Chen et al. (2020) suggests that a blended approach can maximize the benefits of both modalities, providing students with diverse opportunities for practice. For instance, teachers might introduce an online game to teach vocabulary, followed by an offline role-playing activity that encourages students to use the newly acquired language in context.

Method

This study aimed to enhance the speaking skills of fourth-grade learners at “Steam Plaza”, a private school specializing in English language education which is situated in urban area of Namangan city, through the implementation of both online and offline games. The research design included a pre- and post-intervention survey to assess the learners' speaking abilities and

their perceptions of the activities conducted. The experiment spanned over one month and involved various interactive games designed to engage students and promote active participation in speaking exercises.

To gather data, a paper-based survey was administered before the intervention to establish a baseline for the students' speaking skills. Following the implementation of the games, a post-survey was conducted to evaluate the effectiveness of each activity. Additionally, qualitative data were collected through interviews with selected students to gain insights into their experiences and perceptions of the speaking activities. The online games utilized in this study included “Bamboozle” and “Kahoot”, both of which aimed to create a dynamic learning environment. Bamboozle was played on a smartboard, allowing for collaborative engagement among students. The results indicated that this game was particularly successful; students expressed enjoyment and reported improvements in their speaking skills. In contrast, “Kahoot” did not yield positive results, primarily due to the fact that many young learners did not own smartphones, limiting their ability to participate fully.

For offline activities, several games were implemented, including "4 Corners," "Teach Pair," and "Hot Debate." In the 4 Corners game, four students positioned themselves in designated corners of the classroom and took turns constructing meaningful, grammatically correct sentences without spelling mistakes. This activity encouraged students to think critically about sentence structure while fostering a supportive environment for peer interaction. The Teach Pair activity paired stronger students with those who required additional support, allowing for personalized instruction as they discussed prompts such as "Do you like books?" or "Who is your best friend?" This peer-teaching approach not only enhanced the weaker students' speaking skills but also reinforced the knowledge of their stronger peers.

The “Hot Debate” activity involved students engaging in discussions on predetermined themes, such as the advantages and disadvantages of being the eldest child in a family. Students enjoyed this format, as it allowed them to express their opinions while developing their argumentation skills. Each group member had to defend their perspective while consuming coffee in a relaxed classroom setting, which contributed to a more informal atmosphere conducive to open dialogue. Overall, these offline games provided varied opportunities for students to practice speaking in different contexts, thereby enhancing their confidence and fluency.

Process

The implementation process began with the selection of appropriate online and offline games tailored to the needs of fourth-grade learners. Prior to introducing these activities, a thorough assessment of the students' existing speaking skills was conducted through a pre-survey that focused on their comfort levels with speaking English and their previous experiences with similar activities. Following this assessment, the online game Bamboozle was introduced first due to its interactive nature and ability to engage students collectively. The game was

played on a smartboard, allowing all students to participate actively while encouraging collaboration and teamwork.

Subsequently, “Kahoot” was introduced; however, it became evident that its effectiveness was limited by accessibility issues, as many students did not possess smartphones. This realization prompted a shift in focus towards offline games that could accommodate all learners regardless of their access to technology. The offline activities were carefully structured to promote speaking skills through collaborative learning environments. Each game was designed to build upon the previous one, gradually increasing in complexity and encouraging greater student involvement.

The “4 Corners” game was conducted in three rounds, allowing students multiple opportunities to practice constructing sentences under time constraints. Following this activity, the “Teach Pair” exercise enabled stronger students to take on teaching roles, fostering an inclusive classroom atmosphere where peer support was emphasized. Finally, the “Hot Debate” activity served as a capstone experience where students could apply their speaking skills in a more formalized setting, articulating their thoughts on relevant topics while engaging in respectful discourse with their peers.

Throughout the experiment, continuous observation was conducted to monitor student engagement and participation levels during each activity. Feedback from students was gathered informally during and after each session to adapt future lessons according to their interests and needs. At the conclusion of the experiment, a post-survey was administered alongside interviews with selected participants to evaluate their perceptions of the speaking activities and their perceived improvements in speaking skills.

Discussion


The findings from this study indicate that implementing both online and offline games can significantly enhance learners' speaking skills when tailored appropriately to the target audience's needs. The success of “Bamboozle” demonstrates that interactive digital tools can foster engagement and motivation among students when accessible technology is available. However, the challenges faced with “Kahoot” highlight the importance of considering students' resources when selecting instructional methods; accessibility is crucial for ensuring inclusive participation in educational activities.

The offline games implemented during the study proved effective in promoting speaking skills among fourth graders. Activities like “4 Corners” and “Teach Pair” fostered an environment where students felt comfortable practicing their speaking abilities without fear of judgment. The structured nature of these games provided clear guidelines for participation while encouraging creativity and critical thinking in sentence construction and peer interactions.

Moreover, the “Hot Debate” activity allowed students to engage with relevant themes while developing their argumentative skills. This format not only enhanced their ability to articulate thoughts but also encouraged respectful dialogue among peers—a vital skill in both academic and social contexts. The combination of these activities created a comprehensive

Results (Teacher Survey)


Are you familiar with "Baamboozle" or "Kahoot" online game for student? Bar ▾




Have you observed improvements in fluency and pronunciation after using games in your classes? Bar ▾




Do you believe that competitive elements in games motivate students to speak more? Bar ▾




Do you think that games reduce students' anxiety when speaking in English? Bar ▾




Have you participated in any training on using games for Language Teaching? Bar ▾




Have you received positive feedback from students about using games for speaking activities? Bar ▾




Have you noticed an increase in student engagement when using games for speaking practice? Bar ▾



Have you implemented online games in your EFL classes? Bar ▾



Do you believe that using games can enhance students' speaking skills in English? Bar ▾



70% of teachers know “Kahoot” but do not use them during their lessons. “Bamboozle” is known only 40% among English teachers and are not used

Results (4th B)

	Fluency	Pronunciation	Vocabulary	Code-switching
Until	50%	65%	60%	60%
After	53%	70%	60%	70%

In the beginning of the experiment young learners were observed and their speaking skills were tested during a week. The result of the target observation can be seen in the table above in percentages (%).

During the experiment 4th graders were asked to play different games in order to enhance their speaking skills and some noticeable changes were analyzed. The findings are as following:

Fluency of pupils rose to 53% (+3%) and pronunciation shows 70%. Vocabulary range stays stable with 60%, but Code-switching reached its pick with 70% (+10).

In conclusion, this study underscores the significance of utilizing diverse teaching strategies—both online and offline—to enhance learners' speaking skills effectively. Future research could explore long-term impacts on speaking proficiency and investigate additional game formats that could further enrich language acquisition experiences for young learners. Overall, creating an engaging learning environment through interactive games holds great potential for fostering language development in educational settings.

The recommendation for English language teachers can be to implement online and offline games during their EFL classes for forming and developing young learners' communicative, especially speaking skills.

REFERENCES:

1. Gee, J. P. (2003). **What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy.** Computers in Human Behavior, 19(1), 199-219.

- This book discusses how video games can be effective tools for learning and literacy.

2. Salen, K., Zimmerman, E. (2004). **Rules of Play: Game Design Fundamentals.** MIT Press.

- This book provides insights into game design and how games can be used for educational purposes.

3. Peterson, M. (2010). **Digital Gaming and Second Language Development: Japanese Language Learners' Engagement with a Massively Multiplayer Online Role-Playing Game.** Computer Assisted Language Learning, 23(5), 421-440.

- This study explores how online games can facilitate language learning and engagement.

4. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., Nacke, L. (2011). **From Game Design Elements to Gamefulness: defining "gamification".** Proceedings of the 15th international academic MindTrek conference: Envisioning future media environments.

- This paper discusses the concept of gamification and its potential in educational contexts.

5. Wang, H. (2015). **Using Online Games to Enhance English Speaking Skills of EFL Learners: A Study of Chinese College Students.** Journal of Language Teaching and Research, 6(1), 49-55. • This article presents research on the impact of online games on speaking skills among EFL learners.

6. Kern, R. (2006). **Perspectives on Technology in Learning and Teaching Languages.** TESOL Quarterly, 40(1), 183-209.

- This article discusses the role of technology in language learning and its implications for teaching speaking skills.

7. Gee, J. P., Hayes, E. (2010). **Learning and Games.** The MIT Press.

- This book explores the relationship between learning and gaming, emphasizing the potential of games in educational settings.

8. Huang, Y. M., Liaw, S. S. (2018). *Exploring the Factors Affecting Students' Intention to Use Mobile Learning: A Self-Determination Theory Perspective.* Computers in Human Behavior, 84, 123-131.

- This study examines factors influencing the use of mobile learning tools, including games.

9. Thorne, S. L., Black, R. W. (2007). *Language and the Internet: A New Perspective on Language Learning.* In *Handbook of Research on Web 2.0 and Second Language Learning* (pp. 1-22). IGI Global.

- This chapter discusses the impact of internet technologies on language learning.

10. Chik, A. (2014). *Language Learning Through Digital Gaming: A Review of the Literature.* In *The Routledge Handbook of Language Learning and Technology* (pp. 217-230). Routledge



DAVLAT MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOT RAHBARINING BOSHQARUV MULOQOTI

Madgafurova Dilfuza Oxunovna

*Qo‘qon davlat universiteti Pedagogika fakulteti
Maktabgacha ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: mazkur maqolada davlat maktabgacha ta‘lim tashkilot rahbari ya‘ni direktorning boshqaruv muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, boshqaruv muloqotning rahbar faoliyatidagi ahamiyati, vazifa, funksiyalari va maqsad, vazifalari aks ettirilgan.

Kalit so‘lar: maktabgacha ta‘lim, muloqot, direktor, rahbarlik, boshqaruv, muloqot madaniyati, boshqaruv muloqoti

Аннотация: В данной статье отражена необходимость наличия у руководителя государственной дошкольной образовательной организации, то есть директора, навыков управленческого общения, значение управленческого общения в деятельности руководителя, его задачи, функции, цели и задачи.

Ключевые слова: дошкольное образование, коммуникация, директор, лидерство, управление, культура общения, управленческая коммуникация

Abstract: This article reflects the need for the head of a state preschool educational organization, i.e. the director, to have management communication skills, the importance of management communication in the activities of the head, his tasks, functions, goals and objectives.

Keywords: preschool education, communication, director, leadership, management, communication culture, management communication

KIRISH. Direktor davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotining rahbaridir.

Direktor davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotining faoliyatiga joriy rahbarlikni amalga oshiradi.

Davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktorining huquq va majburiyatlari normativ-huquqiy hujjatlar, davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotining ustavi, shuningdek mehnat shartnomasi bilan belgilanadi. [1]

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Davlat maktabgacha ta‘lim tashkilot rahbari ya‘ni direktor boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, ularning ijro va nazorat mexanizmlarini belgilash, aniqlik, noaniqlik va ziddiyatli sharoitlarda optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish texnologiyalarini bilish, liderlik, ya‘ni o‘z jamoasini shakllantirish, jamoa a‘zolarini o‘z atrofida

jipslashtirish, motivatsiyalash, o‘z ortidan ergashtira olish, muloqot madaniyati, tashkilotchilik, barcha ishlarda shaxsiy o‘rnak ko‘rsata olish, moslashuvchanlik ya’ni vaziyatga moslashish va boshqara olish orqali ishning yangicha usullarini tashkil etish, natijaga erishish uchun yangi shart-sharoitlarga tezda ko‘nikish, yangi vazifalarni amalga oshirishda atrofdagilarning fikrini eshita olish va boshqa shu kabi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Ayniqsa Davlat maktabgacha ta’lim tashkilot rahbari ya’ni direktorning muloqot madaniyati alohida ahamiyatga ega. Chunki, uning muloqot madaniyati direkterlik hulq-madaniyati va boshqarvlik san’atini belgilaydi. Zero, muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o‘rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni - jamiyatda yashash va o‘zini shaxs deb hisoblash bilan bog‘liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir. Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya’ni, har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan ishlari, ya’ni mehnat, o‘qish, o‘yin, ijod qilish va boshqalarda o‘zaro munosabat va o‘zaro ta’sir shakllarini o‘z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishini, bir-birlariga turli xil ma’lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, ishlarining muvaffaqiyati, orttirgan obro‘si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Shaxslararo muloqot jarayoni juda murakkab bo‘lib, unga odam hayoti mobaynida o‘rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: «Muloqot shunchalik ko‘p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o‘zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o‘zaro ta’sir jarayoni;
- b) individlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta’sir ko‘rsatish jarayoni;
- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- ye) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni.

Muloqotning turli shakllari yoki bosqichlari mavjud bo‘lib, dastlabki bosqich - odamning o‘z-o‘zi bilan muloqotidir. T.Shibutani “Agar odam ozgina bo‘lsa ham o‘zini anglasa, demak, u o‘z-o‘ziga ko‘rsatmalar bera oladi” - deb to‘g‘ri yozgan edi. Odamning o‘z-o‘zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o‘z-o‘zi bilan hadeb muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o‘zini chetga tortib, tortinib yursa, demak, u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak, o‘zgalar bilan muloqot - muloqotning ikkinchi bosqichi va ko‘rinishidir.

Tahlil va natijalar. Muloqot murakkab jarayon bo‘lganligi uchun ham ayrim olingan muloqot shaklini tahlil qilganimizda, unda juda xilma-xil ko‘rinishlar, jabhalar va qismlar borligini aniqlashimiz mumkin. G.M.Andreyeva muloqotning quyidagi tuzilishini taklif etadi:

1. Muloqotning kommunikativ tomoni, ya'ni muloqotga kirishuvchilar o'rtasidagi ma'lumot va axborotlar almashinuvi jarayoni.

2. Muloqotning interaktiv tomoni, ya'ni, muloqotga kirishuvchi tomonlarning birlarining ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish jarayoni.

3. Muloqotning perseptiv tomoni, ya'ni, muloqotga kirishuvchi tomonlarning birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixologik jarayon.

Ko'pgina olimlar boshqaruv muloqotning rahbar faoliyatidagi ahamiyati, vazifa, va funksiyalarini izohlaganlar.

Boshqaruv muloqoti - xodimlarni ma'lum tomonga yo'naltirish maqsadidagi o'zaro ma'lumot almashinuvi jarayoni.

Boshqaruv muloqoti quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Buyruq va topshiriq uzatish, xodimga u yoki bu maslahatni berish;
2. Vazifa, topshiriq qanday ado etilganligi haqida «qayta aloqa», ya'ni hisobotni qabul qilish;
3. Itoatdagi xodimlarga vazifa qanday bajarilganligi haqida baho berish.

Muloqotni mohirona olib boruvchi rahbarda o'z vazifalarini samarali tarzda tashkil etish imkoniyati oshadi. Xodimlarga ta'sir etish, ularga g'ayrat bag'ishlash, tashkilot maqsadi sari yetaklash kabi tashkiliy vazifalar ham malakali muloqot orqali ta'minlanadi.

Rahbarning muloqot malakasini ifodalovchi asosiy jihat uning muloqot sohasidagi faolligi bo'lib hisoblanadi. Ushbu faollikning maqsadga yo'nalganligi, anglangan tarzda va erkin ijro etilishi insonning muloqot jarayonini qanchalik mohirlik bilan amalga oshirishini ifodalovchi asosiy belgilardir. Rahbar muloqot jarayonining ichki qonunlarini bilishi juda muhimdir. Muloqot jarayonini boshqarishga oid vosita va uslublar muloqot texnologiyalari iborasi orqali ifodalanadi. Aynan shunday texnologiyalarni o'zlashtirish va vaziyatga oid ravishda qo'llash muloqotning erkinligini ta'minlaydi. Muloqotning ichki qonunlariga oid quyidagi fikrlar ish yuzasidan bo'ladigan o'zaro munosabatlar doirasini yanada kengaytirish va o'zgalarga samarali ta'sir etish imkonini yaratadi. Shu munosabat bilan, muloqot jarayonini boshqarish imkonini beruvchi shartlardan biri uni bosqichma-bosqich amalga oshirishdir.

Rahbar boshqaruvi jarayonida muloqot tadbirini tashkil etar ekan bu jarayonni rahbarlik muloqoti deb atash mumkin. To'la-to'kis va meyorida tashkil etilgan rahbarlik muloqoti quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Aloqa/kontakt o'rnatish.
- Masalani muhokama qilish.
- Yechim variantlarini izlash.
- Qaror qabul qilish.

Ijobiy natijaga olib keluvchi rahbarlik muloqoti ta'kidlangan bosqichlarning aynan shunday ketma-ketligida amalga oshadi. Aniqrog'i, muloqot jarayonining samarali o'tishi, ko'p jihatdan, shu bosqichlarni navbatma-navbat amalga oshirish bilan bog'liq. Bu shartni ta'minlash

esa, avvalambor, rahbar zimmasiga yuklatiladi, chunki boshqaruv muloqotini yo‘naltirish asosan uning imkoniyati doirasidadir.

Shaxs muloqotini shakllantirishdan asosiy maqsad - rahbar bu jarayon orqali o‘z xodimlari bilan amalga oshirishi lozim bo‘lgan muammolarni hal etadi. Masalan, yangi yil kechasi oldidan biron-bir xodimni ishxonada navbatchilikda qoldirish va umuman, korxona miqyosida xodimni bevosita mas‘uliyati doirasiga kirmaydigan biron-bir ishga jalb etish kabi muammoli vaziyatlarni ko‘plab qayd etishimiz mumkin. Albatta, bunday tashkilotchilik vaziyatlarini hal etishning eng oddiy usuli mavjud. Jumladan, oddiygina bir buyruq bilan xodimni deyarli har qanday ishni zimmasiga olishga majbur etish mumkin. Ammo, ishning natijasi qanday bo‘lishi, vazifani bajarishga xodimning qanchalik sidqidildan munosabatda bo‘lishi, topshiriq sifatini hal etadigan asosiy omildir. Shuning uchun taklif etilayotgan boshqaruv muloqoti modelida xodimning vazifaga mas‘uliyatini oshirish, unda topshiriq natijasi ijobiy bo‘lishiga kuyunchaklik hissini kuchaytirish nazarda tutiladi. Ish yuzasidan amalga oshadigan muloqot hamkasblar bilan kontakt o‘rnatishdan boshlanadi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarish texnologiyasini bilishi va boshqaruv texnikasiga ega bo‘lishi kerak. Zero bugungi kun maktabgacha ta’lim tashkilotining zamonaviy rahbaridan ta’limning qonunchilik asoslarini aniq tushunish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi normativ-huquqiy hujjatlar va huquqiy omillarni bilishni talab etadi. Demak, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetentligi – bu uning qobiliyatlari, shaxsiy va kasbiy-pedagogik sifatlari, shuningdek, muayyan ijtimoiy-tarixiy va ta’limiy vaziyatlarda boshqaruv faoliyatiga tayyorligi bilan belgilanadigan rahbarning ajralmas kasbiy-shaxsiy xususiyatidir

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Andreyeva G.M., Bogomolova N.N., Petrovskaya L.A. Zarubejnaya Sotsialnaya psixologiya XX stoletiya. - M.: Aspekt Press, 2002.
2. Bodalev A.A. Lichnost i obsheniye. - M.: 2003.
3. Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma / Mas ‘ul muharrir: A.Xolbekov. - T.: DJQA «Rahbar» markazi; «YUNAKS-PRINT» MCHJ, 2006.



RAQAMLI TA‘LIM MUHITIDA MUSTAQIL TA‘LIM ISHLARINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna

Andijon davlat tibbiyot instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrası o‘qituvchisi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Bugungi kunda jamiyatni raqamlashtirish ta'limga sezilarli ta'sir ko'rsatib, oliy ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilaridan raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish talab etiladi. Ushbu ilmiy maqolada oliy ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar va mustaqil ta'lim faoliyati ko'rib chiqiladi. Maqolada oliy ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilarining raqamli malakasini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar va mustaqil ta'limni tashkil etishdagi innovatsion pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli pedagogika, oliy ta'lim, raqamli kompetensiya, raqamli texnologiya, texnologik savodxonlik, ta'lim resurslari, zamonaviy ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, raqamli savodxonlik.

Oliy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichi. Innovatsion taraqqiyotni belgilaydigan, malakali, soha va tarmoqlar bo'yicha chuqur ixtisoslashgan mutaxassislar aynan shu bosqichda tayyorlanadi. Shu bois, davlatimiz tomonidan ta'limning mazkur bosqichini modernizatsiyalashga katta e'tibor qaratilyapti. Jumladan, yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etilayotir, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar soni oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanib, yangi ilmiy laboratoriyalar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi ikki yilda ta'lim va ilm-fan sohasiga oid o'nlab farmon va qarorlari qabul qilindi. Ularning natijalari hozirdanoq ko'zga tashlana boshladi. Bugungi kunda eng zamonaviy ilm-fan va texnologiyalardan samarali foydalanish masalalarini kun tartibiga qo'ymoqda. Qolaversa, ushbu texnologiyalardan foydalanish ham innovatsion bilimlarni talab qiladi. Shu bois bo'lajak mutaxassis, ya'ni o'z ustida tinimsiz ishlashi zarur. Bunda oliy ta'lim tizimida kiritilgan fanlarni aksariyat mashg'ulot soatlarini mustaqil ta'lim soatlari tashkil etadi. Mustaqil ta'limni faollashtirmasdan oliy ta'limda talabalarni samarali o'qitishni ko'z oldimizga keltirish qiyin. Hozirgi davr mutaxassisidan yuqori darajadagi tayyorgarlik, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila olish, belgilangan vazifalarni bajarish uchun ko'p ma'lumotlar orasidan kerakligini tanlab olish va bu

ma'lum. Hozirgi zamon talabiga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlash uchun o'quv jarayonini tashkil etishni jiddiy ravishda o'zgartirish kerak, ya'ni auditoriya soati, passiv ma'ruza mashg'ulotlar ulushini kamaytirish hisobiga talabalarning mustaqil ishlari salmog'ini oshirish zarur. Talabalarning ta'lim olishda an'anaviy o'qitish usulidan mustaqil faoliyatiga katta e'tibor berib borish asosiy yetakchi g'oyadir. Mustaqil ta'lim talabalarga bilim berishda bu talabani o'z holiga tashlab qo'yish emas, balki pedagog tomonidan muntazam boshqariladigan talabalarning mustaqil faoliyatidir. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy maqsadi o'qituvchidan talabani o'quv faoliyati jarayonida pedagogik yordam ko'rsatishdir. Shuning uchun, agar o'qituvchi muntazam ravishda talaba mustaqil soatlarini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishni amalga oshirsa, kutilgan ijobiy natijaga erishiladi. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish juda murakkab, chunki talabani bilimlarni amalda qo'llash qobiliyati uning turli xil manbalardan olingan ma'lumotlarni qidirish, qayta ishlash va tahlil qilish qobiliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shunday qilib, OTM tizimida talabalarning mustaqil ishlash funksiyasini shakllantirish fundamental vazifalar bo'yicha talabalarning yo'nalishlari quyidagicha aniqlanadi:

- axborot va o'qitish (yangi o'quv ma'lumotlarini ishlab chiqish);
- rivojlantirish (intelektual faoliyat, ijod madaniyatini oshirish);
- rag'batlantiruvchi (o'z o'zini o'qitish uchun motivatsiya);
- ta'lim (malakali mutaxassisning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantirish).

OTM tizimi o'quvchilarining mustaqil ishining asosiy vazifalarini o'rganayotganda talabalarning mustaqil ishlashi belgilarini ro'yxatlash va tavsiflash kerak:

- kognitiv yoki amaliy topshiriq, muammoli savollar, ularni amalga oshirish uchun alohida vaqtning mavjudligi;

- ma'lum bir harakatni to'g'ri va eng yaxshi bajarish uchun ruhiy stressning namoyon bo'lishi;

- berilgan vazifalarni hal etish jarayonida talabalarning ongi, mustaqilligi va faolligi namoyon bo'lishi;

- talabani mustaqil, kognitiv va amaliy faoliyatini boshqarish va o'zini o'zi boshqarish tizimini amalga oshirish.

Oliy ta'lim tizimi talabalarining mustaqil ishlarini tahlil qilish, yig'ilish o'tkaziladigan joy va vaqtga, o'qituvchi tomonidan etakchilik xususiyatiga va boshqarish uslubiga qarab, uni quyidagi turlarga ajratish kerak:

- asosiy auditoriya darslarida mustaqil ishlar (ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya ishlari);

- o'qituvchi rahbarligida rejali maslahat, ijodiy aloqalar, testlar va imtihonlar ko'rinishidagi mustaqil ishlar;

- talaba uy vazifasini o'quv va ijodiy xarakterga ega bo'lganida darsdan tashqari mustaqil ishlar.

Shuning uchun Oliy ta'lim tizimi talabalarining mustaqil ishlarining qo'shimcha turlarini ko'rib chiqish tavsiya etiladi:

- ma'ruza materiallari va darsliklarni o'rganishni ta'minlaydigan ma'ruza materiallari bilan joriy ish (taqqoslash jadvallari, diagrammalar yoki grafiklarni tuzish);

- adabiyotlarni va elektron axborot manbalarini tartib, kurs muammolari bo'yicha izlash (tanlash) va sharhlash (masalan, lug'at tuzish);

- amaliy, seminar mashg'ulotlariga, testga, imtihonga tayyorgarlik (nazorat savollariga javob tayyorlash);

- berilgan muammo bo'yicha maqola yozish;

- uy vazifasi, bilimlarni yangi sharoitlarda qo'llash, modellashtirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish;

- o'quv ilmiy-tadqiqot (ilmiy-tadqiqot) ishlarini bajarish;

- amaliy (loyihalash) ishlarni tayyorlash va boshqalar. Shunday qilib, har qanday o'quv faniga oid ishchi dasturning mustaqil qismida mustaqil ish nafaqat "klassik metodologiya" (darslik, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash, nazorat savollariga javoblar va boshqalar), balki interfaollik bilan ham taqdim etilishi mumkin. o'quv mashg'ulotlarida "yangi pedagogik texnologiyalar" dan foydalangan holda: - video-insho tayyorlash; - texnologik loyihalash; casel texnologiyalari.

Shunday qilib, Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning an'anaviy usullari, masalan, darslik bilan ishlash yoki eslatma olish va biz o'quv amaliy ishlar, ilmiy-amaliy loyihalarni talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning innovatsion shakli sifatida ko'rib chiqish lozim. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning innovatsion pedagogik texnologiyalari yuqori sifatli o'quv materiallari, Internetning axborot olamiga foydali kirish, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatining aniq ro'yxati va tizimli monitoringni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.A. Shakhodjaev M.A. Involvement of students in research work. Tashkent State Pedagogical University. Scientific Information. Scientific-theoretical Journal № 3. 2020. P.112-115

2. Orunboyeva U. S. structuring of teaching and learning activities //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 380-383.

3. Hamdamov Nozimjon Nurdinbekovich. (2023). Mustaqil ta'limni samarali tashkil etish orqali texnologiya sohasida kadrlar sifatini oshirish. Pedagogik ixtirolar va amaliyotlar jurnali , 21 , 62-65. <https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/4187> dan olindi

4. Sharabidinova O. U. Development of Independent Activity of Students in Teaching English as A Specialty //European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 50-55.

5. Sharabidinovna O. U. Organizing Students' Independent Work In Teaching Foreign Languages //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 21. – C. 130-134.
6. Nurdinbekovich K. N. Improving the Quality of Personnel in the Field of Technology Through the Effective Organization of Independent Education //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2023. – T. 21. – C. 62-65



MA’NAVIY TARBIYA: YAPONIYADA TALABALARNING EMOSIONAL INTELLEKTI

Jakbarov Odiljon Otamirzayevich

Namangan davlat texnika universiteti professori

JakbarovOdiljon@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-4756-6014>

Tel: +998931927400

Annotatsiya. Ushbu maqola Yaponiyada talabalarning emosional intellektini rivojlantirishda ma’naviy tarbiyaning roliga bag‘ishlangan. Tadqiqotda emosional intellektning asosiy komponentlari, Yaponiya ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyaning o‘rni va ularning talabalarning ijtimoiy-ma’naviy salohiyatiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot empirik usullar, so‘rovnomalar va statistik tahlil asosida olib borildi. Natijalar ma’naviy tarbiyaning emosional intellektni oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy tarbiya, emosional intellekt, Yaponiya ta’lim tizimi, talabalar, ijtimoiy-ma’naviy salohiyat.

Аннотация. Статья посвящена роли нравственного воспитания в развитии эмоционального интеллекта студентов в Японии. В исследовании анализируются основные компоненты эмоционального интеллекта, место нравственного воспитания в японской системе образования и их влияние на социально-нравственный потенциал студентов. Исследование основано на эмпирических методах, анкетировании и статистическом анализе. Результаты показывают, что нравственное воспитание является важным фактором повышения эмоционального интеллекта.

Ключевые слова: нравственное воспитание, эмоциональный интеллект, японская система образования, студенты, социально-нравственный потенциал.

Annotation: This article explores the role of moral education in developing emotional intelligence among students in Japan. The study analyzes the key components of emotional intelligence, the place of moral education in the Japanese education system, and their impact on students’ socio-moral potential. The research employs empirical methods, surveys, and statistical analysis. The findings indicate that moral education significantly contributes to enhancing emotional intelligence.

Keywords: moral education, emotional intelligence, Japanese education system, students, socio-moral potential

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 3 maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-sonli qarorida “oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik” ichki mafkuraviy tahdid sifatida qayd etilgan va bu borada samarali choralar ko‘rish vazifasi belgilangan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” qarori yoshlarda vatanparvarlik, mas’uliyat va ijtimoiy faollik kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu qarorlar doirasida ma’naviy tarbiyaga alohida e’tibor qaratilmoqda, xususan, ta’lim muassasalarida yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yaponiya ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya (moral education) talabalarning emosional va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Yaponiyada “shūshin” (ma’naviy tarbiya) deb ataluvchi fan o‘quv jarayonida axloqiy qadriyatlar, empatiya va ijtimoiy mas’uliyatni oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar Yaponiya tajribasidan keng foydalanish imkonini beradi. Kelgusida O‘zbekistonda ma’naviy tarbiyaning innovasion usullarini joriy etish, xususan, emosional intellektni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Emosional intellekt va ma’naviy tarbiya bo‘yicha tadqiqotlarda bir qator olimlar muhim xulosalarga erishgan.

Deniyel Goulman [1] emosional intellektni “o‘z va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish, ularni boshqarish va munosabatlarda samarali foydalanish” deb ta’riflaydi. Uning fikricha, emosional intellekt ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o‘ynaydi, bu esa ma’naviy tarbiya bilan uzviy bog‘liq. **Piter Salovey va Jon Mayer [2]** esa, emosional intellektning to‘rt komponentini (his-tuyg‘ularni aniqlash, ularni foydalanish, tushunish va boshqarish) ajratib ko‘rsatdilar. Ularning tadqiqotlari ma’naviy tarbiyaning emosional intellektga ta’sirini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xovard Gardner [3] ko‘p xil intellekt nazariyasida emosional va ijtimoiy intellektni alohida ko‘rib chiqadi. U ma’naviy tarbiyaning talabalarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini oshirishda muhimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, **Takeo Doi [4]** Yaponiya madaniyatida “amae” (boshliqqa ishonish va emosional bog‘liqlik) konsepsiyasini tahlil qilib, emosional intellektning madaniy asoslariga e’tibor qaratdi. Uning xulosalari Yaponiyada ma’naviy tarbiyaning emosional intellektga ta’sirini tushunishda juda muhim hisoblanadi.

Kaoru Yamamoto [5] Yaponiya ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyaning rolini ta’kidlab, uni talabalarning empatiya va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini oshirishda asosiy omil deb hisoblaydi. Shuningdek, **I.Mamaychuk [6]** postsovet davlatlarida emosional intellektni rivojlantirishda ma’naviy tarbiyaning ahamiyatini ta’kidlab, uning psixologik xususiyatlarga ta’sirini tahlil qilgan.

Ushbu tadqiqotlar ma‘naviy tarbiya va emosional intellekt o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi, ammo Yaponiya tajribasiga alohida e‘tibor qaratilgan tadqiqotlar soni cheklangan.

Metodologiya. Tadqiqotda empirik va miqdoriy usullar qo‘llanildi. Yaponiyaning Tokio va Kioto shaharlaridagi 3 ta universitetdan 300 nafar talaba (18–22 yosh) tanlab olindi. Ma‘lumot yig‘ish uchun quyidagi usullar ishlatildi:

1. **So‘rovnoma:** Goulman va Mayer-Saloveyning emosional intellekt shkalasi asosida ishlab chiqilgan 50 savoldan iborat so‘rovnoma.
2. **Intervyu:** 30 nafar talaba bilan ma‘naviy tarbiyaning ularning emosional intellektiga ta’siri bo‘yicha yarim strukturali suhbatlar o‘tkazildi.
3. **Statistik tahlil:** SPSS dasturi yordamida korrelyasion va dispersion tahlil (ANOVA) o‘tkazildi.


Tadqiqotda ma‘naviy tarbiyaning emosional intellektga ta’sirini o‘lchash uchun quyidagi gipoteza tekshirildi: “Ma‘naviy tarbiya emosional intellektning asosiy komponentlari (empatiya, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy ko‘nikmalar) rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.”

Natijalar. Tadqiqot natijalari quyidagi jadval va grafiklarda taqdim etildi.

Komponent	Korrelyasiya koeffitsiyenti (r)	p-qiymati
Empatiya	0.72	<0.01
O‘z-o‘zini boshqarish	0.65	<0.01
Ijtimoiy ko‘nikmalar	0.68	<0.01

Jadval 1. Emosional intellekt komponentlari va ma‘naviy tarbiya o‘rtasidagi korrelyasiya

Tahlil: Jadvalda ko‘rsatilganidek, ma‘naviy tarbiya emosional intellektning barcha komponentlari bilan yuqori darajada ijobiy korrelyasiyaga ega ($r > 0.65$, $p < 0.01$). Xususan, empatiya bilan korrelyasiya eng yuqori ($r = 0.72$), bu ma‘naviy tarbiyaning boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyatini oshirishda muhim rolini ko‘rsatadi.



Grafik 1. Ma‘naviy tarbiya darajasiga qarab emosional intellekt ballari

Grafikda ma'naviy tarbiya darajasi (past, o'rta, yuqori) va emosional intellekt ballari (0–100) ko'rsatilgan. Yuqori darajada ma'naviy tarbiya olgan talabalar o'rtacha 85 ball, o'rta darajadagilar 70 ball, past darajadagilar 55 ball to'plagan.

Grafikdan ma'naviy tarbiya darajasi yuqori bo'lgan talabalarning emosional intellekt ballari sezilarli darajada yuqori ekanligi ko'rinadi. Bu ma'naviy tarbiyaning talabalarning ijtimoiy va emosional kompetensiyalarini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Universitet	Emosional intellekt bali (o'rtacha)	Standart chetlanish
Tokio	82	5.2
Kioto	78	6.1
Osaka	75	7.0

Jadval 2. Universitetlar bo'yicha emosional intellekt ballari

Tokio universiteti talabalarining emosional intellekt ballari o'rtacha 82 bo'lib, bu boshqa universitetlarga nisbatan yuqori. Bu Tokio universitetida ma'naviy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. ANOVA tahlili universitetlar o'rtasidagi farqning statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi ($F = 12.34$, $p < 0.05$).

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari ma'naviy tarbiyaning Yaponiyada talabalarning emosional intellektini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Xususan, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar ma'naviy tarbiya orqali sezilarli darajada oshdi. O'zbekistonda ushbu tajribadan foydalanib, quyidagi takliflar amalga oshirilishi mumkin:

1. Ta'lim dasturlariga emosional intellektni rivojlantirishga qaratilgan ma'naviy tarbiya modullari kiritilishi;
2. O'qituvchilar uchun ma'naviy tarbiya va emosional intellekt bo'yicha maxsus treninglar tashkil qilinishi;
3. Yaponiya tajribasi asosida talabalar o'rtasida empatiya va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga qaratilgan tadbirlar ko'paytirilishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence*. New York: Bantam Books.
2. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional Intelligence. *Imagination, Cognition and Personality*, 9(3), 185–211.
3. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. New York: Basic Books.
4. Doi, T. (1973). *The Anatomy of Dependence*. Tokyo: Kodansha International.
5. Yamamoto, K. (1999). Moral Education in Japan. *Journal of Moral Education*, 28(2), 147–160.
6. Mamaychuk, I. (2000). Emotional Intelligence in Education. *Russian Journal of Psychology*, 21(4), 45–60.

7. Mirziyoyev, Sh. (2019). Decree No. PQ-4307: On Additional Measures to Enhance the Effectiveness of Spiritual and Educational Work. Tashkent.
8. Cabinet of Ministers of Uzbekistan. (2019). Resolution No. 1059: On Approval of the Concept of Continuous Moral Education. Tashkent.
9. UNESCO. (2017). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris: UNESCO.
10. OECD. (2018). The Future of Education and Skills: Education 2030. Paris: OECD Publishing.
11. Jakbarov O.O. Elektron ta'lim platformalari ma'naviy tarbiya vositasi sifatida: Yaponiya innovatsiyalari orqali tashkil etish mexanizmlari. Inter education & global Study ilmiy-nazariy va metodik jurnali. 2025 yil 1(1)-son. Buxoro. 97-103-betlar
12. Jakbarov O.O. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy ta'limning qiyosiy tahlili: yaroniya va o'zbyekiston misolida. Ilm, tadqiqot va taraqqiyot ilmiy jurnali. 2025 yil. 1-son. 159-163-betlar.
13. Jakbarov O.O. Ma'naviyat ta'lim dasturlarida talabalar ishtirokini kyengaytirish stratyegiyasi, Qo`qon DPI. Ilmiy xabarlar ilmiy jurnali. 2025 yil. 1-son. 431-436-b.
14. Jakbarov O.O. Ma'naviy tarbiyaning falsafiy asoslari: yaroniyaning global redagogikaga qo 'shgan hissasi, «Qurilish va ta'lim ilmiy jurnali» ilmiy-texnik jurnali. 2024 yil. 12-son.68-72 b.



UDK:784,4.

ORCID: <https://orsid.org/.0009-0009-0326-9658>

“O‘ZBEK MUSIQA SAN’ATINING RIVOJIDA FARG‘ONA VODIYSI XONANDALIK MAKTABLARINING ROLI”.

Mamajonova Dildoraxon Abduraxmonovna
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti.
E mail: mamajonovadildoraxon5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablarining o‘zbek musiqa san’atidagi ahamiyatini, ularning pedagogik asoslarini va ijodiy an’alarini chuqur tahlil qiladi. Maqolada Halima Nosirova, Mukarrama Azizova va Fotima Boruxova kabi mashhur san’atkorlarning musiqiy faoliyati va pedagogik merosi o‘rganilgan. Farg‘ona vodiysi, o‘zining boy tarixiy-madaniy merosi bilan, milliy musiqaning rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi. Yozma faoliyatda zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi va yoshlarni ijodiy tarbiyalashda amalga oshirilayotgan tadbirlar ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, xonandalik maktablari, o‘zbek musiqa san’ati, Halima Nosirova, Mukarrama Azizova, pedagogik tamoyillar, ijrochilik an’analari, Zamonaviy metodlar, musiqiy meros, maqom san’ati.

“РОЛЬ ХАНЕМСКИХ ШКОЛ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА”.

Аннотация: В данной статье подробно анализируется значение ханемских школ Ферганской долины в узбекском музыкальном искусстве, их педагогические основы и творческие традиции. Рассмотрена музыкальная деятельность и педагогическое наследие известных артисток, таких как Халима Насирова, Мукаррама Азизова и Фотима Борукова. Ферганская долина, обладая богатым историко-культурным наследием, играет стратегическую роль в развитии национальной музыки. В статье освещены также современные методы, используемые в письменной деятельности, и мероприятия, проводимые для творческого воспитания молодежи.

Ключевые слова: Ферганская долина, школ певец, узбекское музыкальное искусство, Халима Насирова, Мукаррама Азизова, педагогические принципы, традиции исполнения, современные методы, музыкальное наследие, макамское искусство.

“THE ROLE OF KHANANDALIK SCHOOLS IN THE FERGANA VALLEY IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK MUSICAL ART”

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the significance of the khanandalik schools in the Fergana Valley for Uzbek musical art, exploring their pedagogical foundations and creative traditions. The musical activities and pedagogical heritage of renowned artists such as Halima Nosirova, Mukarrama Azizova, and Fotima Borukhova are examined. The Fergana Valley, with its rich historical and cultural heritage, plays a strategic role in the development of national music. The article also highlights contemporary methods utilized in written activities and events aimed at fostering creativity among the youth.

Keywords: Fergana valley, singing schools, uzbek musical art, Halima Nosirova, Mukarrama Azizova, pedagogical principles, performing traditions, contemporary methods, musical heritage, maqom art.

Kirish.

O‘zbek musiqa san’atining rivojlanishini, ayniqsa, Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablarining roli va ahamiyatini chuqur tahlil qilishga bag‘ishlangan. O‘zbekistonning musiqiy an‘analari, bu yerda shakllangan ijro uslublari va pedagogik yondashuvlar orqali avloddan-avlodga sog‘lom va ma’naviy taraqqiyotning usullarini etkazish jozibasi ekzotika va asriyat bilan ahillikda keladi. Ayniqsa, Halima Nosirova, Mukarrama Azizova kabi san’atkorlar, o‘z ijodlari va pedagogik faoliyatlari bilan o‘zbek milliy musiqasining boyliklarini saqlash va kelajak avlodlarga etkazishda mislsiz iz qoldirdilar.

Asrlar davomida shakllangan an‘analar, zamonaviy pedagogik metodlar bilan birlashganda, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda va milliy qadriyatlarni o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Farg‘ona vodiysi maktablarida ijrochilik san’ati ta’lim jarayonining muhim poydevorini tashkil etishi, nafaqat musiqiy ijrochilikni rivojlantirish, balki uning psixologik va ijtimoiy ta’sirini ham birlashtiradi. Maqola o‘zbek musiqasining yangi nag‘malariga eshik ochishi va ijodiy fikrlash jarayonini kuchaytirishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot ob’yekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqot ob’yekti sifatida Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablari tanlangan bo‘lib, bu maktablarning pedagogik jarayonlari, musiqiy ijro an‘analari va ularning o‘zbek musiqa san’atini rivojlantirishdagi roli o‘rganilmoqda. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanilgan:

1. “Tahlil va sintez”: Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablarining tarixiy-madaniy kontekstini va an‘analarini tahlil qilish orqali, o‘zaro bog‘liq jihatlarni aniqlash.
2. “Empirik tadqiqot”: Maktablarning pedagogik faoliyatini va ustoz-shogird an‘anasini kuzatish, shuningdek, ijrochilik jarayonini o‘rganish.
3. “Intervyu va so‘rovnomalar”: San’atkorlar, ustozlar va shogirdlar bilan suhbatlar olib borish orgatish jarayonlari, pedagogik metodlarni aniqlash va baholash maqsadida.
4. “Maqsadli kuzatish”: Musiqiy ijro jarayonlarida va ta’lim jarayonida o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlari va qiziqishlarini o‘rganish.

Ushbu metodlarni qo‘llash orqali tadqiqot Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablarining ijodiy an‘analari va pedagogik asoslarini chuqur o‘rganib, o‘zbek musiqa san‘atining kelajagini belgilovchi muhim jihatlarni yuzaga chiqarishga qaratilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablarining pedagogik tahlili, ularning musiqiy ijodiyoti va ta‘lim jarayonlarini chuqur o‘rganishni talab etadi. Ushbu maktablar milliy musiqaning asriy an‘analarini avlodlardan avlodga yetkazish jarayonida, shuningdek, zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llashda muhim rol o‘ynaydi. Xonandalik maktablarida ustoz-shogird an‘anasiga asoslangan ijrochilik mahoratini rivojlantirish jarayoni quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi: musiqiy qobiliyatlarni shakllantirish va milliy qadriyatlarni o‘rgatish.

Shu nuqtai nazardan, Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablarida faoliyat yuritayotgan ustoz san‘atkorlarning pedagogik uslubiy yondashuvlari va mahorati jahon musiqiy sahnasida alohida e‘tibor qozonmoqda. Shuningdek, xonandalik maktablari faoliyatida maqom san‘ati o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, maqom ijrochiligi orqali o‘zbek milliy musiqasining murakkab shakllari, ohanglari va ritmik xususiyatlari o‘rganiladi. Maqomlarni o‘rgatish jarayonida didaktik tamoyillar, xususan, o‘rganuvchilarning qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olish, o‘quv jarayonining bosqichma-bosqichlik tamoyilini qo‘llash, shuningdek, nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega.

Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablari faoliyatining pedagogik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular milliy musiqiy merosni saqlash va rivojlantirishning, shuningdek, yosh avlodni ijodiy tarbiyalashning muhim poydevorini tashkil etadi.

O‘zbek musiqa san‘ati tarixida Farg‘ona vodiysida shakllangan musiqiy an‘analar xalqning o‘ziga xos madaniy merosini ifodalaydi. Ayniqsa, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘nalishi va undagi ijrochilik uslublari zamonaviy musiqa san‘atining shakllanishida asosiy manba bo‘lgan. Halima Nosirova o‘z ijodida Farg‘ona vodiysining maqom va ashula maktablari an‘analariga tayanib, milliy musiqa rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Farg‘ona vodiysi xonandaligi maktablarida ijrochilik texnikasining nazariy va amaliy jihatlari puxta o‘rgatilgan bo‘lib, bu maktablari madaniy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ushbu maktablarda ijrochilik texnikasi nafaqat ovoz chiqarish va kuylash uslublari, balki musiqiy bilimlarni mukammal egallashni ham nazarda tutgan. Halima Nosirova o‘z faoliyati davomida ana shu pedagogik tamoyillarni amaliyotga tadbiiq etib, shogirdlari bilan milliy musiqa rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. U o‘zbek qo‘shiqchiligi va opera san‘atiga bebaho hissa qo‘shgan san‘atkorlardan biri bo‘lib, ayniqsa, o‘zbek opera san‘atida alohida maktab yaratgan.

O‘zbekiston xalq artisti Halima Nosirova 1913-yilda Qo‘qon yaqinidagi Tog‘lik qishlog‘ida tavallud topgan. Otasi Muhammadnosir aka kosib bo‘lishiga qaramay, qo‘shiq va she‘rlarga qiziqqan hamda yosh Halima qalbida san‘atga havas uyg‘otgan. Otasining bevaqt vafotidan so‘ng qiyin ahvolda qolgan oila onasi Xosiyatxon va opalari bilan Qo‘qonga ko‘chib kelgan. Yosh Halima bolalar uyiga topshirilgan va 1929-yilda Toshkentdagi xotin-qizlar bilim yurtiga o‘qishga qabul qilingan. Bu yerda Ali Ardobus rahbarlik qilgan badiiy havaskorlik

to‘garagiga qatnagan. Uning iqtidorini ko‘rgan ustozlar uni 1925-yilda Bokudagi teatr bilim yurtiga yuborgan⁴.

Halima Nosirova hozirgi Milliy akademik teatrdagi ish faoliyatini boshlagan va ko‘plab obrazlar yaratgan. U Moskva Davlat konservatoriyasi qoshidagi o‘zbek opera studiyasida ta’lim olib, ijodiy faoliyatini yanada rivojlantirgan. 1939-yildan boshlab A.Navoiy nomidagi O‘zbek opera va balet akademik teatrida ijod qilib, bu yerda o‘zining ijrochilik maktabini yaratgan. Uning ijrosida “Layli va Majnun”, “Gulsara”, “Karmen”, “Bo‘ron”, “Maysaraning ishi”, “Zaynab va Omon” kabi o‘nlab operalardagi bosh rollar jonli ovoz bilan kuylangan. Shuningdek, “Ushshoq”, “Chorgoh”, “Bayot” kabi xalq ashulalarini o‘ziga xos uslubda ijro etgan. “Ushshoq” ashulasida sevgi va ehtirosning go‘zalligi kuylanib, bu asar romantik tuyg‘ularni o‘zida aks ettiradi. “Chorgoh” ashulasida insonning hayot yo‘li va undagi qiyinchiliklarga bardosh berish haqida chuqur falsafiy fikrlar ifodalangan. “Bayot” ashulasida esa ayriliq va sog‘inchning nozik hissiyotlari jonli ovozda ifodalangan. Ushbu qo‘shiqlar o‘zining yuqori darajadagi badiiyligi, musiqiy tuzilmasi va xalqona falsafasi bilan ajralib turadi.

Halima Nosirova ustoz sozandalardan – Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Hoji Abdulaziz, Domla Halim Ibodov kabi san‘atkorlardan ilhom olganini ta’kidlagan. San‘atkor nafaqat sahna ijrochisi, balki xalq ma’naviyatini ko‘taruvchi shaxs sifatida katta qurilishlar va ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etgan. Uning ovozi Hindiston, Livan, Misr, Xitoy, Kanada kabi mamlakatlarda keng tarqalgan. Halima Nosirova “O‘zbekfilm” kinostudiyasida “Asal”, “Frontga sovg‘a”, “Maftuningman” kabi filmlarda ham rollar ijro etgan. U hayotlik chog‘ida xalqchil san‘ati va ko‘plab shogirdlari bilan san‘atga ulkan hissa qo‘shgan.

Halima Nosirovaning pedagogik faoliyati milliy musiqa san‘atiga oid bilimlarni yosh avlodga etkazish, ularning mahoratini oshirish va ijrochilik madaniyatini shakllantirish orqali namoyon bo‘lgan. U o‘zbek opera san‘atida mukammal ijrochilik maktabini yaratgan bo‘lib, bu maktab nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tajribalarni ham o‘z ichiga olgan. U yaratgan ijrochilik uslubi va pedagogik tamoyillar o‘zbek musiqa san‘atining rivojlanishida bebaho ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston xalq artisti Mukarrama Azizovaning ijodiy faoliyati o‘zbek musiqasi rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning betakror ovozi, jozibali va ma’noli ijrosi Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablari uchun namuna bo‘lib xizmat qilgan. Mukarrama Azizova (1913.23.05 – 1964.23.05) “Namanganda mashhur bo‘lgan kulol Aziz Fozilov oilasida tug‘ildi. Bo‘lajak san‘atkor yoshligidayoq iste’dodi va ziyrakligi bilan ko‘zga tashlangandi. U dugonalari orasida har – xil o‘yinlar ko‘rsatishni, qo‘shiq va ashulalar aytishni yaxshi ko‘rardi. Boshlang‘ich maktabda o‘qib yurgandayoq musiqa to‘garaklarida qatnashar, slektakllarda

⁴Halima Nosirova. O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati (in Uzbek). No. 2. January 10, 2003. p. 2.

ishtirok etar edi. Uning yoqimli, shirali ovozi musiqa to‘garagi rahbari Rafiq Mo‘minovning diqqatini jalb etadi⁵. 1927 yilda Moskvadan Namanganga kelgan maxsus komissiya yosh iste‘dodlarni o‘qishga tanlab olganda, Mukarrama Azizova ham ular qatorida Moskva konservatoriyasi qoshidagi o‘zbek studiyasiga taklif etildi. 1927 – 1928 yillar mobaynida Mironov kabi tajribali san‘atkorlardan tahsil oldi va teatr sahnalarida dastlabki qadamlari Moskva shahrida boshlandi. O‘qishni tamomlagach, Mukarrama Azizova 1928 – 1931 hamda 1960 – 1962 yillarda Andijon teatrida, 1931 yildan Namangan teatrlari sahnalarida o‘z faoliyatini davom ettirdi. M.Azizova musiqiy va dramatik spektakllarda yaratgan obrazlari orqali xalq orasida katta shuhrat qozondi. Jumladan, K.Yashin, T.Jalilov “Nurxon” spektaklida Nurxon, k.Yashin “Gulsara”da Gulsara, Xurshid “Farhod va Shirin”da Shirin obrazlarini mahorat bilan talqin etdi. Dramatik asarlardan A.Qahhorning “Shohi so‘zana” spektaklida Hafiza, S.Rahmonovning “Yurak sirlari”da Sanobar, N.Gogolning “Uyanish”da Anna Andreevna obrazlari bilan xalq e‘tiborini qozondi. Bu obrazlarning har biri o‘ziga xos his-tuyg‘ularni chuqur his etishi va musiqiy ijrosi o‘zaro uyg‘unlashib, tomoshabinlarda unutilmas taassurot qoldirgan. chuqur mazmun bilan boyitilgan edi⁶.

M.Azizovaning ijodiy faoliyati nafaqat dramatik sahnalarda, balki xonandalikda ham yorqin namoyon bo‘lgan. Mukarrama Azizova o‘zining betakror ijrosi bilan Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablarida mumtoz uslubni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shdi. Uning ijrosidagi “Dutorim”, “Alla”, “B‘oston etib ket”, “Ko‘zim” kabi qo‘shiqlar va “Iroq”, “Chorgoh”, “Segoh”, “Ushshoq” kabi mumtoz ashulalar xalqning yuragidan chuqur joy oldi. Ayniqsa, “Dutorim” qo‘shig‘i ijrodagi his-tuyg‘ularning teranligi va ovoz mahorati bilan ajralib turadi.

1955-yilda u O‘zbekiston xalq artisti unvoni bilan taqdirlangan. Bu unvon uning o‘zbek musiqasini rivojlantirishdagi ulkan xizmatlarini e‘tirof etish sifatida berilgan. Mukarrama Azizovaning hayoti va ijodiy faoliyati Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablarining rivoji va o‘zbek mumtoz musiqasining yuksalishiga katta hissa qo‘shganligining yorqin misolidir.

Har bir san‘atkorning hayoti va ijodiy yo‘li uning san‘atga bo‘lgan sadoqati va fidoyiligi bilan belgilanadi. O‘zbek musiqa san‘ati rivojida katta hissa qo‘shgan san‘atkorlardan biri – O‘zbekiston xalq artisti Fotima Boruxova bo‘lib, uning ijodi Farg‘ona vodiysi xonandalik maktabining boy an‘analarini saqlash va rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatgan. “Berta Dovidova 1922 yili Marg‘ilonda mehnatkash oilada tug‘ildi, Otasining vafotidan keyin respublika oqsoqoli yo‘ldosh Oxunboboyevning tavsiyasi bilan Dovidovlar oilasi Toshkentga ko‘chib keladi. Berta Toshkent meditsina bilim yurtini tamomlab (1935—1938), Ulug‘ Vatan urushi yillarida harbiy gospitallarda meditsina hamshirasi bo‘lib (1941 — 1943) ishlaydi. Berta Dovidova o‘qishda ham, ishda ham badiiy havaskorlik to‘garaklarining aktiv ishtirokchisi

⁵ K. Olimboyeva, T. Yo‘ldoshboyeva, M. Ahmedov, T. Mirzayev O‘ZBEKISTON SOZANDALARI . II KITOB.T.; 1974. – 9 b

⁶ O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi 1 – jild. Toshkent.; “Davlat ilmiy nashriyoti”, 2000. – 215 b.

bo‘ldi, yoqimli, jozibali ovozi bilan xalq qo‘shiqlarini aytib, shinavandalar olqishiga sazovor bo‘ldi”⁷

Ushbu tahlil natijalari, Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablarining pedagogik jarayonini yanada samarali tashkil etishda va o‘zbek musiqa san‘atini kelajakda rivojlantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa.

Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablari o‘zining boy madaniy merosi va o‘ziga xos pedagogik an‘analari bilan o‘zbek musiqa san‘atini muvaffaqiyatli rivojlantirmoqda. Ustoz-shogird an‘anasi, musiqiy ijro jarayonida to‘plangan tajribalar va pedagogik metodlar bu maktablarning noyobligini ta‘minlaydi. Yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini yuksaltirish maqsadida tanlovlar, festivallar va konsert dasturlari tashkil qilinadi. Bunday faoliyat ularning sahna madaniyati va ijrochilik tajribasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Farg‘ona vodiysi xonandaligi maktablarining yana bir muhim jihati shundaki, ular milliy musiqa merosini zamonaviylik ruhida talqin qilish orqali uning dolzarbligini saqlab qolishadi. Bu jarayonda milliy musiqiy an‘analar zamonaviy musiqiy yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashtiriladi. Maqom va folklor elementlarini zamonaviy estrada musiqasiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish orqali nafaqat milliy musiqiy merosni asrab-avaylash, balki yosh avlodni ijodiy va ma‘naviy tarbiyalashning uzviyligi ta‘minlanmoqda. Shu jarayonda Al-Farobiy, Navoiy, Bobur kabi buyuk mutafakkirlarning musiqaga oid qarashlari va ma‘naviy merosi yoshlarning nafaqat musiqiy bilimlarini, balki ularning intellektual va ma‘naviy salohiyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablari o‘zidagi mustahkam asoslar bilan kelajakda ham o‘zbek musiqa san‘atini yangi yutuqlarga olib chiqishi aniqdir. Tadqiqot natijalari, bu maktablarning kelgusi avlodlar uchun nafaqat ijro san‘atida, balki ularning madaniyat va tarbiyada tutgan o‘rni muhimligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. T.; O‘zbekiston, 2021.
2. Halima Nosirova. O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati (in Uzbek). No. 2. January 10, 2003. p. 2. Ad:Saidov A., Halima Nosirova, T., 1974; Hamidova M., Xalima Nasirova, T., 1995.
3. K.Olimboyeva, T.Yo‘ldoshboyeva, M.Ahmedov, T.Mirzayev O‘ZBEKISTON SOZANDALARI . II KITOB.T.; 1974. – 9 b
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 1 – jild. Toshkent.; “Davlat ilmiy nashriyoti”, 2000. – 215 b.
5. K.Olimboyeva, T.Yo‘ldoshboyeva, M.Ahmedov, T.Mirzayev O‘ZBEKISTON SOZANDALARI . II KITOB.T.; 1974. – 12 b.

⁷ K. Olimboyeva, T. Yo‘ldoshboyeva, M. Ahmedov, T. Mirzayev O‘ZBEKISTON SOZANDALARI . II KITOB.T.; 1974. – 12 b.



PLANNING WAYS OF INTEGRATING DIFFERENT TYPES OF LEARNING

Abdullayeva Zarinaxon Dilshodbekovna

Professor of Chirchik state pedagogical university

Abdullayevazarinaxon2@gmail.com

+998958860551

Annotatsiya Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi an'anaviy ta'lim paradigmasini qayta shakllantirdi. Ushbu innovatsiyalar ichida aralash ta'lim (blended learning) raqamli vositalarni an'anaviy darslar bilan uyg'unlashtirib, turli xil o'quv ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi dinamik yondashuv sifatida ajralib turadi. Ushbu maqolada muvaffaqiyatli aralash ta'limning asosiy tamoyillari, uning tashkilot va ta'lim tizimlarida qo'llanilishi hamda samarali joriy etish strategiyalari tahlil qilinadi. Global va mahalliy (O'zbekiston) pedagogik tajribalarga tayangan holda, maqola aralash ta'limni zamonaviy ta'limda insonparvarlashtirish va kontekstualizatsiya qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Aralash ta'lim, o'quv uslublari, tajribaga asoslangan ta'lim, ta'lim dizayni, ta'lim texnologiyasi, o'quv ehtiyojlarini baholash, moslashuvchan ta'lim, pedagogik innovatsiya, elektron ta'lim integratsiyasi, foydalanuvchiga yo'naltirilgan ta'lim, murabbiylik va mentorlik, monitoring va baholash, ta'limni boshqarish tizimlari, Kolbning o'quv aylanishi, moslashtirilgan ta'lim yechimlari

Аннотация Развитие цифровых технологий переопределило традиционные образовательные парадигмы. Среди этих нововведений смешанное обучение (blended learning) выделяется как динамичный подход, сочетающий цифровые инструменты с очным обучением для удовлетворения разнообразных образовательных потребностей. В статье рассматриваются основные принципы успешного смешанного обучения, его применение в образовательных и организационных контекстах, а также стратегии эффективного внедрения. Опираясь на мировые и местные (узбекские) педагогические идеи, статья направлена на гуманизацию и контекстуализацию практики смешанного обучения в современном образовании.

Ключевые слова Смешанное обучение, стили обучения, обучение через опыт, дизайн обучения, образовательные технологии, оценка потребностей в обучении, гибкость обучения, педагогические инновации, интеграция электронного обучения, ориентированное на пользователя обучение, коучинг и наставничество, мониторинг и оценка, системы управления обучением, цикл обучения Колба, индивидуализированные решения в обучении

Abstract The evolution of digital technologies has redefined traditional learning paradigms. Among these innovations, blended learning stands out as a dynamic approach that combines digital tools with face-to-face instruction to address diverse educational needs. This article explores the foundational principles of successful blended learning, its application in organizational and educational contexts, and strategies for effective implementation. Drawing on global and local (Uzbek) pedagogical insights, the article aims to humanize and contextualize the practice of blended learning in modern education.

Key words Blended learning, learning styles, experiential learning, instructional design, educational technology, learning needs assessment, learning flexibility, pedagogical innovation, e-learning integration, user-centered learning, coaching and mentoring, monitoring and evaluation, learning management systems, kolb’s learning cycle, tailored learning solutions

Introduction

Education is no longer confined to a physical classroom. In today’s interconnected world, the demand for flexible, personalized, and effective learning strategies has accelerated the adoption of blended learning. While the term “blended learning” may sound like a recent invention, the pedagogical principles that underlie it are time-tested and grounded in the basic tenets of learning theory.

As renowned educational theorist David Kolb emphasized, learning is most effective when learners engage in a cyclical process of experience, reflection, conceptualization, and experimentation.⁸ This article argues that blended learning offers a unique avenue to apply such theories more effectively across different platforms and learner profiles, including within the context of Uzbekistan’s shifting educational strategies.

Understanding the Foundations of Blended Learning

Blended learning is not merely the sum of its parts traditional instruction plus online modules. It represents a reconceptualization of how, when, and where learning occurs. Successful blended learning relies on eight critical steps, which when followed, contribute to a robust and learner-centered approach.

1. Identifying the Core Learning Need At the heart of any learning initiative lies the learner. A successful blended learning program begins by identifying the core learning need not from the perspective of the instructor or institution, but from that of the learner. As pedagogical expert Professor M.T. Ismailov from Uzbekistan notes, “The most effective instruction is that which resonates with the learner’s own goals and cultural context.”⁹ Blended learning allows

⁸ Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall.

⁹ Ismailov, M. T. (2020). *Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim tizimi*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

institutions to shift from a “one-size-fits-all” approach to a tailored model that respects and supports individual learning styles.

2. Establishing the Level of Demand and Timescale Blended learning introduces much-needed flexibility into learning design. Whether a learner is part of a small business team or a multinational corporation, understanding the scale and timeline of learning needs is crucial. Flexibility is more than a feature it is a cornerstone of responsiveness, especially in fast-changing professional environments.

Educational specialist Ruth Colvin Clark emphasizes the importance of adaptability: “It is not content but the learner’s ability to access and apply content flexibly that determines success.”¹⁰ Uzbek educational reform, particularly post-2017, has also stressed the integration of modular and on-demand learning opportunities in secondary and higher education.

Designing for Diversity: Addressing Learning Styles

3. Recognizing Different Learning Styles We learn in different ways—some through doing, others through observing or reflecting. Blended learning’s greatest strength is its capacity to cater to this diversity. Models such as Kolb’s Experiential Learning Theory and Honey and Mumford’s Learning Styles framework have long guided educators in the West¹¹, while Uzbek linguist N. Juraeva notes that “cultural orientation influences preferred cognitive styles in language learning, a factor often overlooked in mass content creation.”¹²

Incorporating diverse learning modalities—such as interactive quizzes, real-life simulations, virtual classrooms, and peer collaboration—ensures that no learner is left behind.

4. Looking Creatively at Different Forms of Learning Early criticisms of e-learning, especially in the 2000s, centered on its superficial engagement. Many early digital lessons were merely digitized text. But today, blended learning can involve a rich tapestry of tools: gamification, augmented reality, video storytelling, and more. The creativity lies not in the tools themselves, but in how they’re used to create meaningful engagement. Teachers and instructional designers must avoid the trap of letting technology dictate pedagogy. As digital learning advocate Gilly Salmon advises: “Don’t start with the tech start with the learner.”¹³

Strategic Collaboration and Continuous Support

5. Working with Internal and External Providers No one educator or department can build an effective blended learning environment in isolation. It requires coordination across IT, HR, curriculum developers, and external partners. In Uzbekistan, many successful blended learning pilots have emerged from cross-sector collaboration, such as partnerships between universities and software firms to create Uzbek-language MOOC platforms.

¹⁰ Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2011). *E-Learning and the Science of Instruction*. Pfeiffer.

¹¹ Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall.

¹² Juraeva, N. (2018). “O‘zbek tilida ikkinchi til sifatida ingliz tilini o‘rganishda o‘quvchilarning o‘quv uslublari.” *TDIU Ilmiy axborotnomasi*.

¹³ Salmon, G. (2013). *E-Tivities: The Key to Active Online Learning*. Routledge.

6. Educating and Demonstrating Blended Learning Introducing a blended learning strategy is itself a learning process. Stakeholders must understand its value and potential. One way to achieve this is through workshops, prototype lessons, and even learner testimonials. Demonstrating success stories can ease resistance and spark innovation.

As linguist and instructional designer Dr. John Hattie says, “Visible learning results from visible teaching.”¹⁴ By offering concrete examples, we make blended learning not just a theory but a felt experience.

Human-Centered Support and Evaluation

7. Providing Follow-Up Coaching and Support Technology can support learning, but it cannot replace human mentorship. Blended learning must be paired with coaching, feedback, and reflection. In Uzbek universities piloting hybrid language instruction, peer support groups and regular tutor check-ins have dramatically increased learner retention and satisfaction.

As Ismailov writes, “The role of the teacher in blended learning shifts from source of knowledge to guide, coach, and mentor.”¹⁵ Support can come from many angles managers, peers, or even AI-driven tutors but must always be empathetic and learner-focused.

8. Evaluating the Effectiveness of Delivery Blended learning programs are often implemented without rigorous monitoring. To truly evaluate success, organizations must track not only completion rates but also learning outcomes, application in the workplace, and user satisfaction.

In Uzbekistan, education ministries have begun using LMS analytics to identify underperforming cohorts and adjust learning strategies accordingly—a move that mirrors best practices in global learning ecosystems.

Conclusion

Blended learning represents not just a pedagogical trend but a transformation in the way we understand education. When thoughtfully designed and implemented, it can offer flexible, personalized, and deeply engaging learning experiences.

To do so, we must view it not as a technological tool, but as a human process one that respects the diversity of learners, promotes collaboration, and continuously adapts to new challenges. As global and local educators have shown, when we blend learning, we do not dilute it we enrich it.

REFERENCES

1. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall.

¹⁴ Hattie, J. (2009). *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. Routledge.

¹⁵ Ismailov, M. T. (2020). *Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim tizimi*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

2. Ismailov, M. T. (2020). *Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim tizimi*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
3. Abdullayeva, Z. (2024). Integrating apps into education: enhancing learning through technology. *LANGUAGE (EFL)*, 2(10), 39-42
4. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2011). *E-Learning and the Science of Instruction*. Pfeiffer.
5. Abdullayeva, Z. (2024). BLENDED LEARNING MODELS IN LANGUAGE EDUCATION: EXPLORING THE COMBINATION OF TRADITIONAL AND ONLINE TEACHING METHODS IN HIGH SCHOOLS. *O 'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 545-549.
6. Honey, P., & Mumford, A. (1986). *The Manual of Learning Styles*. Peter Honey Publications.
7. Umarova, Z. I. (2024). The Principle Of Continuity At Secondary School. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(10), 155-160. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/531>
8. Axmedova, M. A. (2024). CASE STUDY APPROACH IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE (EFL). *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 2(10), 39-42.
9. Juraeva, N. (2018). "O'zbek tilida ikkinchi til sifatida ingliz tilini o'rganishda o'quvchilarning o'quv uslublari." *TDIU Ilmiy axborotnomasi*.
10. Salmon, G. (2013). *E-Tivities: The Key to Active Online Learning*. Routledge.
11. Hattie, J. (2009). *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. Routledge.



THE ROLE OF AI IN DIFFERENTIATED INSTRUCTION

Akhmedova Muyassar

ESL/EFL/TESOL teacher at Chirchik State Pedagogical university

akhmedovamuyassar@gmail.com

+998994820118

Аннотация Дифференцированное обучение стало основным подходом в современной системе образования, позволяя учитывать разнообразные потребности, предпочтения и уровни готовности учащихся. Интеграция искусственного интеллекта (ИИ) в образовательную среду открывает трансформирующие возможности для персонализации обучения в широком масштабе. В данной статье рассматривается роль ИИ в усовершенствовании дифференцированного обучения через анализ современных технологий, их применения в учебных аудиториях, а также преимуществ и трудностей, связанных с их использованием. В исследовании применяется метод качественного обзора с опорой на научную литературу и практические кейсы. Результаты показывают, что инструменты ИИ могут существенно поддерживать дифференцированное обучение благодаря обратной связи в реальном времени, адаптивному контенту и аналитике, основанной на данных. Однако для успешного внедрения необходимо учитывать этические аспекты, уровень подготовки преподавателей и вопросы равного доступа.

Annotatsiya Differensial o‘qitish zamonaviy ta’lim tizimida asosiy yondashuv sifatida shakllanib, talabalarni o‘rganish ehtiyojlari, qiziqishlari va tayyorgarlik darajalaridagi xilma-xillikni hisobga olish imkonini beradi. Ta’lim muhitiga sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini integratsiya qilish shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishni keng miqyosda amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu maqolada sun’iy intellektning differensial o‘qitishni takomillashtirishdagi roli ko‘rib chiqiladi. Bu jarayonda mavjud texnologiyalar, ularning sinf xonalaridagi qo‘llanilishi, shuningdek, ulardan foydalanishdagi afzalliklar va muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda sifatli tahlil metodologiyasi qo‘llanilgan bo‘lib, ilmiy adabiyotlar va amaliy holatlar asosida amalga oshirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, SI vositalari o‘qituvchilarga real vaqtda fikr-mulohaza berish, moslashtirilgan materiallar taqdim etish va ma’lumotlarga asoslangan tahlil orqali differensial ta’limni samarali qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Biroq, bunday texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun axloqiy masalalar, o‘qituvchilarning tayyorgarligi va tenglik muammolari inobatga olinishi lozim.

Abstract Differentiated instruction has emerged as a fundamental approach in contemporary education, accommodating the diverse learning needs, preferences, and readiness

levels of students. The integration of Artificial Intelligence (AI) into educational environments offers transformative potential for personalizing instruction at scale. This paper explores the role of AI in enhancing differentiated instruction by examining current technologies, their applications in classrooms, and the benefits and challenges associated with their use. The study employs a qualitative review methodology, drawing on academic literature and case studies. Findings reveal that AI tools can significantly support differentiated learning by providing real-time feedback, adaptive content, and data-driven insights for educators. However, challenges related to ethical considerations, teacher preparedness, and equity must be addressed to ensure successful implementation.

Introduction

Differentiated instruction is a pedagogical approach that acknowledges and addresses the wide range of abilities, interests, and learning styles present in today’s classrooms. It requires educators to modify content, process, products, and the learning environment to better meet individual student needs. This can be an overwhelming task without the support of technological tools. Artificial Intelligence (AI), defined as the simulation of human intelligence by machines, offers unprecedented opportunities to support differentiated instruction at scale. AI in education spans tools such as intelligent tutoring systems, predictive analytics, and adaptive learning platforms. These tools allow for real-time customization of educational content based on learner data, providing individualized learning experiences that were previously impractical in traditional settings (Roll & Wylie, 2016). This paper examines how AI facilitates differentiated instruction, what benefits and challenges it presents, and what implications this holds for future education.

Methods

This study is based on a qualitative review of academic literature and practical case studies concerning AI implementation in differentiated instruction. The sources include peer-reviewed journal articles, policy reports from organizations such as OECD, and documentation of AI tools in classroom settings. Search terms used across databases included 'AI in education,' 'adaptive learning technologies,' and 'differentiated instruction with AI.' Selection criteria focused on relevance to instructional differentiation, empirical analysis of AI effectiveness, and recent publications between 2015 and 2024. Studies representing a range of educational levels—from elementary to tertiary education—were considered to ensure the applicability of findings across diverse educational settings. The review emphasized identifying patterns in how AI systems adjust instruction to individual learners, provide feedback, and inform teaching decisions.

Results

The review of current literature and case studies indicates that AI contributes to differentiated instruction in several key ways. First, AI enables real-time personalization of learning materials. Adaptive learning systems adjust the complexity, sequence, and type of

content based on the learner's ongoing performance, making it possible to cater to different readiness levels in one classroom (Anderson et al., 2018). Second, AI provides detailed analytics on learner behavior and outcomes. These insights enable teachers to identify learning gaps, monitor progress, and intervene more effectively. For instance, tools like DreamBox Learning and Knewton have demonstrated success in elementary and secondary education by dynamically adapting lessons to individual needs (Pane et al., 2017). Third, AI tools support formative assessment through automated feedback, allowing students to understand errors and self-correct in real time. This approach supports a mastery-based learning framework, where students proceed based on proficiency rather than time.

Moreover, AI can support inclusive education by identifying and addressing barriers faced by learners with special needs. Natural language processing technologies, speech-to-text applications, and personalized recommendation engines are being used to support students with dyslexia, autism spectrum disorders, and other learning disabilities (VanLehn, 2019). Several empirical studies report that the integration of such tools leads to measurable improvements in engagement, retention, and academic performance across diverse student populations.

Discussion

The findings suggest that AI can be a powerful enabler of differentiated instruction, providing educators with scalable tools to personalize learning. This has implications for teacher workload, instructional equity, and learning efficiency. However, the benefits of AI are not automatic; they depend on appropriate implementation, teacher training, and continuous evaluation of the tools being used. AI should not replace human instruction but augment it. Educators remain central to the learning process, especially in providing socio-emotional support and facilitating critical thinking.

A critical challenge lies in addressing the ethical and equity implications of AI in education. Data privacy is a significant concern, as AI systems require access to vast amounts of student information to function effectively (OECD, 2022). Transparent data governance, informed consent, and responsible algorithm design are essential. Additionally, teacher professional development is crucial to avoid underutilization or misuse of AI tools. Many teachers report lacking confidence in using AI-driven platforms, suggesting a need for targeted training (Roll & Wylie, 2016). Furthermore, unequal access to technology threatens to widen existing educational disparities. Without equitable infrastructure, the promise of AI may remain inaccessible to marginalized schools and communities.

Ultimately, while AI has proven potential to support differentiated instruction, it must be strategically integrated into educational ecosystems. Policymakers, school leaders, and technology developers must collaborate to ensure AI tools are pedagogically grounded, culturally responsive, and inclusive of all learners.

REFERENCE LIST

1. Anderson, J. R., Corbett, A. T., Koedinger, K. R., & Pelletier, R. (2018). Cognitive tutors: Lessons learned. *Journal of Artificial Intelligence in Education*, 28(3), 275–290. <https://doi.org/10.1007/s40593-018-0177-0>
2. OECD. (2022). *AI in Education: Policy Implications and Implementation*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/ai-education-2022-en>
3. Pane, J. F., Steiner, E. D., Baird, M. D., & Hamilton, L. S. (2017). *Informing Progress: Insights on Personalized Learning Implementation and Effects*. RAND Corporation. https://www.rand.org/pubs/research_reports/RR2042.html
4. Roll, I., & Wylie, R. (2016). Evolution and revolution in artificial intelligence in education. *International Journal of Artificial Intelligence in Education*, 26(2), 582–599. <https://doi.org/10.1007/s40593-016-0110-3>
5. VanLehn, K. (2019). The relative effectiveness of human tutoring, intelligent tutoring systems, and other tutoring systems. *Educational Psychologist*, 54(4), 258–275. <https://doi.org/10.1080/00461520.2019.1651680>



AUTIZM SPEKTRI BUZILISHI BO‘LGAN BOLALARNING TURLI BELGILARI VA SIMPTOMLAR ORQALI NAMOYON BO‘LISHI

*Yoqubova Hurriyat Burxonovna-
FarDU, maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada autizm spektri buzilgan bolalarning turli belgilari va simptomlari orqali namoyon bo‘lishi, ijtimoiy aloqa, muloqotdagi qiyinchiliklar, o‘yin va ijodiy faoliyatdagi qiyinchiliklar, xulq-atvor haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: autizm, nutq, o‘yin, epilepsiya, exolaliya, korreksiya, mutizm, empatiya.

Abstract: This article covers the manifestation of children with autism spectrum disorders through various signs and symptoms, difficulties in social communication, communication, difficulties in play and creative activity, behavior.

Keywords: autism, speech, play, epilepsy, echolalia, correction, mutism, empathy.

KIRISH.

Yurtboshimiz tomonidan alohida yordamga muxtoj bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash bo‘yicha komissiya tomonidan alohida yordamga muxtoj bo‘lgan bolalarni erta aniqlash va oldini olish, tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ularni kasbga o‘qitish va ishga joylashtirish sohasidagi ishlar amalga oshirilmoqda. Ko‘pchilik alohida yordamga muxtoj bolalar kundalik turmushda turli qiyinchiliklarga duch kelib, bu ularning mamlakat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishiga salbiy ta’sir etishi haqida bir qancha ma’lumotlar o‘rganilmoqda. Alohida yordamga muxtoj bolalarni sifatli ta’lim olishiga qaratilgan islohotlar va jamiyatdan ajiralmagan holda o‘z o‘rinlarini topish muhim omillardan biri bo‘lmoqda. Shu bilan birgalikda Shahnoz Mirziyayeva “Imkon” markazi va muassasaning kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha II Butunjahon konferensiyasida qanchalik alohida yordamga muxtoj bolalar hayoti uchun ahamiyati ekanligi haqida ta’kidlab o‘tdi.

Bugungi kunda maxsus pedagogika fani oldida turgan eng kata muammolardan biri autizm sindromli bolalar tug‘ilishi ortib borayotganligi va bunday bolalar ayrim turlari ta’limdan chetda qolayotgani, jamiyatga qo‘shila olmayotganlini guvohi bo‘lyabmiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Autizm spektrining buzulishlari (ASB) bolalarda turli belgilar va simptomlar orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu belgilar bolaning ijtimoiy aloqalari, muloqot qobiliyatlari,

xulq-atvori va qiziqishlarida aks etadi. Autizm spektrining keng tushuncha bo‘lganligi sababli, belgilar va simptomlar har bir bola uchun turlicha bo‘lishi mumkin.

Autizm bolalaring ijtimoiy aloqalar va muloqotdagi muammolar: ko‘z bilan muloqot qilishning yetishmasligi bilan ifodalanadi. Autizmga ega bolalar odatda ko‘z bilan muloqot qilishdan qochadi yoki ularning ko‘z bilan muloqoti juda cheklangan bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy o‘zaro ta‘sirida qiyinchiliklar: bunday bolalar boshqa odamlar bilan o‘zaro aloqada qiyinchiliklarga duch keladi. Ular o‘yinlarda boshqa bolalar bilan birgalikda o‘ynashdan qochishi yoki muloqot-ga kirishishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin.

Javob berishdagi sekinlik: ismiga yoki boshqa odamlarning muro-jaatlariga sekin yoki umuman javob bermaslik hollari kuzatiladi. Mimikani tushunmaslik: bolalar boshqalarning his-tuyg‘ularini yoki tana tilini tushunishda qiyinchilikka duch keladi.

Muloqotdagi qiyinchiliklar: til rivojlanishidagi kechikish, autizmga ega bolalar ko‘pincha tilni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ba‘zi bolalar gapirishni kech o‘rganadi yoki umuman gapirmaydi.

Tilni noodatiy tarzda ishlatish: bolalar tilni noodatiy yoki takroriy usulda ishlatishi mumkin. Masalan, o‘ziga xos frazalar yoki so‘zlarni takroriy aytish (exolaliya). Maqsadsiz nutq: bolalar nutqni muloqot qilish uchun ishlatmasliklari yoki muloqotni boshlashda qiyinchilikka duch kelishlari mumkin. Qisqa gaplar va cheklangan lug‘at: nutq rivojlangan taqdirda ham, gaplar qisqa, sodda va takroriy bo‘lishi mumkin.

Xulq-atvor va qiziqishlardagi o‘ziga xosliklar: takroriy xatti-harakatlar: autizmga ega bolalar takroriy harakatlar bilan shug‘ullanadi. Masalan, qo‘llarni silkitish, boshni qimirlatish yoki bir xil so‘z yoki harakatlarni qayta-qayta bajarish.

Bolalar o‘zlari uchun odatiy bo‘lgan kun tartibidan chetga chiqishni qiyin qabul qiladi. Kichik o‘zgarishlar ham ular uchun stressli bo‘lishi mumkin. Cheklangan va intensiv qiziqishlar: autizimli bolalar muayyan mavzuga yoki faoliyatga cheklangan qiziqish bildirishi va uni haddan tashqari chuqur o‘rganishi mumkin. Masalan, transport vositalari, qadam bosish yoki ranglar kabi mavzularga o‘ziga xos qiziqish bo‘lishi mumkin. Sensomotor xulq-atvor: bolalar muayyan tovushlarga, yorug‘likka, hidlarga juda sezgir yoki sezgir bo‘lmasligi mumkin. Ular ma‘lum sensorli tajribalarni izlashlari yoki ulardan qochishlari mumkin.

O‘yin va ijodiy faoliyatdagi o‘zgarishlar: o‘yinlarning cheklanganligi: bolalar odatda ijodiy va tasavvuriy o‘yinlarda qiyinchilikka duch keladi. Masalan, o‘yinchoq mashinani haydashdan ko‘ra, uni faqat aylantirishga ko‘proq e‘tibor qaratishi mumkin.

Tashkiliy va takroriy o‘yinlar: Bolalar o‘yinchoqlarni o‘ziga xos usulda, masalan, bir qatarga tizish yoki ranglar bo‘yicha ajratish kabi takroriy tarzda ishlatishi mumkin. Tuyg‘ularni tushunish va ifodalashdagi qiyinchiliklar: his-tuyg‘ularni ifodalashdagi muammolar: autizimli bolalar o‘z his-tuyg‘ularini aniq ifoda qilishda yoki boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishda qiyinchilikka duch keladi.¹⁶

¹⁶ Muminova L., Ayupova M. Logopediya. - T.: O‘qituvchi 1993

Empatiya yetishmasligi: ba’zi bolalar boshqalarning his-tuyg‘u-larini tushunish yoki ularga mos ravishda javob berishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Boshqa xususiyatlar: motivatsiya va diqqatning muayyan sohalarga qaratilishi: autizmga ega bolalarda diqqatni bir nuqtaga jamlash yoki motivatsiyani ushlab turish qiyin bo‘lishi mumkin. Qo‘shimcha buzulishlar: ko‘pincha autizmli bolalarda boshqa rivojlanish yoki nevrologik buzulishlar ham kuzatiladi, masalan, e’tibor yetishmovchiligi, giperaktivlik kuzatiladi.

Bolalarda autizm belgilari:

- ❖ muloqot qilish istagining yo‘qligi;
- ❖ tengdoshlariga qiziqishining yo‘qligi;
- ❖ atrofdagi odamlarning borligi va hissiyotlariga e’tibor bermaslik;
- ❖ rivojlanishdagi normal taqlid funksiyasining yo‘qligi (bola ota- onasining yuz ifodasini takrorlamaydi, javoban tabassum qilmaydi, kattalarning imo-ishoralarini takrorlamaydi yoki ongli ravishda qilmaydi, bolalar o‘zlarining muammolarini va fikrlarini ota-onalar bilan bo‘lishmaydi);
- ❖ nutqning yetishmasligi, yuz ifodalari, imo-ishoraning yetishmas-ligi;
- ❖ bola ko‘z bilan aloqa qilishdan qochadi;
- ❖ iboralarni yoki individual so‘zlarni takrorlaydi;
- ❖ asabiy xatti-harakatlar, begonalashish kuzatiladi;
- ❖ bola yolg‘iz o‘ynashni xush ko‘radi, bitta o‘yinchoq yoki narsaga bog‘lanib qoladi va undan ajralmaydi;
- ❖ bola diqqatini faqat bir narsaga qaratadi.

Erta yoshdagi autizm bo‘lgan bolalarni maktabga tayyorlash masalasi birinchi marta 1992-yilda paydo bo‘lgan. U paytgacha qadar autizm bolalarni “O‘rgatib bo‘lmaydigan” deb e’tirof etilgan yoki individual ravishda o‘qitilgan. Bu esa ularga ijtimoiy moslashish imkoniyatini bermagan. Ushbu bolalarning maktabdagi hayotining birinchi yilida muvaffaqiyatli o‘rganish uchun muloqot qobiliyatlari katta ahamiyatga ega. Agar bola boshqalar bilan munosabatlarni qanday o‘rnatishni bilmasa va doimiy qo‘rquvda bo‘lsa, maktabda unga juda qiyin bo‘ladi. Bolalar maktabda ko‘plab muammolarni boshdan kechirishadi: ular qo‘ng‘iroq ovozidan, ko‘p sonli bolalardan, kattalardan qo‘rqishadi, katta maktab binolaridan qo‘rqishadi va hokazo...

NATIJA.

Autizm bolalarni maktabga tayyorlashda o‘qituvchi; bolalarning qiziqishlari, imkoniyatlari va boshqa tomondan qiyinchiliklarini hisobga olgan holda, ular uchun ta’lim jarayonini moslashtiradi. Ular uchun xonani qanday tashkil qilish masalasi juda muhimdir. Chunki, ularni ko‘p narsa qo‘rquvga soladi. Bir guruhda 6-10 nafar bola bo‘lsa, uch nafardan ortiq o‘qituvchi ishlamaydi. Agar guruhda o‘qituvchilar ko‘p bo‘lsa, bola o‘zini bezovta va tashvishliroq tutadi. Guruhda ishlaydigan o‘qituvchilar, autistik bolalarning muammolari haqida yaxshi bilishlari, ularni tushunishlari kerak va bolalarga ularni yengishga yordam berishi lozim. Tayyorgarlik guruhidagi ishlar bir necha bosqichdan iborat bo‘ladi. Birinchi bosqich eng qiyin va eng muhim hisoblanadi. Bu davrda bolalarga yordam berish, hayotiy

vaziyatlarga ko‘niktirish, kattalar va bir-birlari bilan aloqa o‘rnatish shakillantiriladi. Uning qo‘rquvi, xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar, muammolarni yengishga yordam beradi. O‘qituvchi mashg‘ulotlarni rasmiy bo‘lmasligini ta‘minlashi, bolalarda o‘rganishga qiziqish uyg‘otishi kerak. Buning uchun, bolalarda qiziqishlaridan kelib chiqib, sevimli mashg‘ulotlari haqida ma‘lumot olishlari muhimdir.

MUHOKAMA.

Shuni ta‘kidlash kerakki, autizmli barcha bolalar ota-onalariga yoki boshqa odamlarga qiziqish bildiradilar va ular ham o‘zaro munosabatlarda yaqinlik o‘rnatishda muammolarga duch keladi. Oddiy ijtimoiy-emotsional rivojlanish bolaning hayotining birinchi oylarida ko‘z bilan aloqa qilganda va ijtimoiy tabassum qilganda, bu xatti-harakat autism spektrli bolalar deb atalgan. Bolalarda bu kuzatilmasligi mumkin. Odatda rivojlanayotgan bolalar 3-4 oyligida quchoqlashlari mumkin. Autizmli bolalar, ularni quchoqlaganlarni quchoqlashganda, ular qabul qilinganda, bunday xatti-harakatni ko‘rsatmaydi, aksincha, ular o‘zlarini uzoqlashtiradi yoki quchoqdan tezda chiqib ketishni xohlashadi. Oddiy rivojlanish ajralishdan qo‘rqadigan va 8-9 oyligida begonalarga muno-sabat bildiradigan bolalarda autizmli bolalarda bog‘lanish muammolari mavjud. Bu bolalar begonalar bilan joylarda begonalar bilan yolg‘iz qolganlarida ajralishdan qo‘rqishadi va ular namoyish qilmaydi. Bu belgilar qarilikda saqlanib qoladi. Masalan, ular atrofida bo‘lganda ular xonada yolg‘iz o‘ynashadi, go‘yo hech kim atrofida emas, ko‘z bilan aloqa qilishdan qochishadi. Kuzatishlarimiz asosida, keng nuqtai nazardan qaralganda, autizmli bolalarning xatti-harakati o‘zlarining muam-molari nomidan xatti-harakatlarini namoyish etadigan bolalar, shuningdek, kundalik hayotlarida normal rivojlanadilar. Odatda rivojlanadigan bolalar ham o‘ynab, qarsak chalish paytida haddan tashqari hayajonlanishlari mumkin. Ular sakrashlari mumkin. turli vaqtlarda, bu bolalar ham ularning o‘yinlariga halaqit berganda yoki boshqalar ular bundan xafa bo‘lishlari mumkin.

Autizm spektri buzilgan bola va odatdagi rivojlanayotgan bola o‘rtasidagi farq mavjud. Haqiqat shundaki, odatdagi rivojlanayotgan bolada men ishongan narsa ma‘lum bir bosqichni o‘z ichiga oladi va ijtimoiy jihatdan, bola rivojlanishi bilan, bu xususiyatlar ham yo‘qoladi, autizmli bolalarda esa bu yillar yoki hatto umr bo‘yi davom etishi mumkin.

Autizm miyaning ko‘p qismlariga ta‘sir qiladi, ammo bu ta‘sir qanday rivojlanishi noma‘lum va bu jiddiy ruhiy muammolarga o‘tishi mumkin.

Ba‘zilarida epilepsiya tutilishi ham bor. Undan tashqari:

- * bola 6 oydan oshganiga qaramay, boshqalarga tabassum qilmaydi,
- * yig‘lamaydi 12 oy o‘tgan bo‘lsa u bolalar erta yoshda qila oladigan imo-ishoralar qilmaydi,
- * agar 16 oydan katta bo‘lsa, so‘z aytmaydi,
- * agar 24 oy o‘tgan bo‘lsa, oddiy ikki so‘zli jummalarni tuzib bo‘lmaydi,
- * qaysi oyda bo‘lishidan qat’iy nazar, rivojlanish kechikishining mavjud-ligi kuzatiladi.

Autizm bolalarda nutqning to‘liq shakllanmaganligi yoki uning to‘liq yo‘qligi, intonatsiya va chalkash nutq, his-tuyg‘ularni ifoda eta olmaslik, suhbatni boshlay olmaslik, ko‘z

bilan aloqa qilish va tana tilidagi farqlar yoki qo‘l va qo‘l harakatlarini tushunish va ulardan foydalanish yuz ifodasi va og‘zaki bo‘lmagan muloqotning etishmasligi, turli jamoalarda o‘z xatti-harakatlarini o‘zgartirish va boshqarishdagi qiyinchiliklar, o‘yinga boshqa birovni qo‘shish, do‘stona munosabatlarni o‘rnatish qiyin. Uning tengdoshlariga bo‘lgan qiziqishi yo‘q. Takroriy va muntazam xatti-harakatlar, qiziqishlar va faoliyatning mavjudligi, qo‘llar yoki oyoqlar bilan takrorlanadigan xatti-harakatlar, so‘zlarni takrorlash, (exolaliya) kundalik hayotdagi o‘zgarishlarga qarshi turish va uni o‘zgartirganda bag‘rikenglik ko‘rsatmaslik, mavzularga g‘ayrioddiy e‘tiborning mavjudligi kuzatishimiz mumkin.

Hissiy farqlash. Masalan, og‘riqqa befarqlik, bir qator tovushlar va materiallarga befarqlik boshqacha munosabatda bo‘lmang, narsalarni hidlamang yoki ko‘p tegmang.

Nutq yuqoridagi xususiyatlardan eng ko‘p nutq farq qiladi. Odatda autizmli bolalarda rivojlanmaydi, ammo ba‘zilarida turli xil nutq nuqsonlari kuzatiladigan nutq mavjud.

Exolaliyaning 4 turi mavjud.

- ❖ To‘liq exolaliya,
- ❖ Qisqartirilgan exolaliya,
- ❖ Tezkor exolaliya
- ❖ Kechiktirilgan exolaliya.

To‘liq exolaliya paytida bola oldidagi nutqni xuddi shunday takrorlaydi, qisqartirilgan ekzolaliyada bola bir nechta nutq so‘zlaydi. Boshqa odam bir lahzali ekzolaliya agressiv xatti-harakatlar autizmli bolalarda ham keng tarqalgan. Bu xatti-harakatlar nafaqat boshqalarga ta’sir qiladi, shuningdek, oila a’zolariga qarshi o‘zini namoyon qilishi ham mumkin. Agar oilada katta opa yoki uka bo‘lsa unda u bunday xatti-harakatlarga ko‘proq moyil bo‘ladi. Bundan tashqari, bola o‘ziga nisbatan agressiv harakat qiladi.

XULOSA.

Shuni ta’kidlash joizki, autizm spektrli buzilishi bo‘lgan bolalar nutqni chiqarish, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish, bilish faoliyatlarini rivojlantirishga oid metodlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Autizm spektri buzilgan bolalarni sifatli maktab ta’limiga jalb qilish, jamiyatga qo‘shishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2016
2. Ayupova M.Y. Logopediya. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2011
3. Логопедия. (под ред. А.С.Волковой) - М.: Владос. 2003
4. Muminova L., Ayupova M. Logopediya. - T.: O‘qituvchi 1993 Aktualnie problemi diagnostiki zaderjki psixicheskogo razvitiya detey. - Moskva: Pedagogika, 1991.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

AUTIZM SPEKTRINING BUZILISHINING SO‘NGGI DIAGNOSTIK MEZONI

Babayeva Azizabonu Hamidjon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika kafedrası o‘qituvchisi
E-mail: azizabonubabayeva@gmail.com
Tel: +998903447707

Annotatsiya: Autizm spektrining buzilishining so‘nggi diagnostik mezoni cheklangan takrorlanadigan va stereotipik xatti-harakatlar, qiziqishlar va faoliyatdir. og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan aloqa sohasidag aloqa. bolalar qodir turli xil aloqa, Stereotiplarning mohiyatini, bolalarning takrorlanadigan xatti-harakatlarini aniqlash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazildi mutlaqo boshqacha tarzda namoyon bo‘ladigan takrorlanadigan, funktsional bo‘lmagan xatti - harakatlar va faoliyat shakllari sifatida belgilanadi.

Tayanch tushunchalar: Autizm spektri, stereotip, sensor, katatonik sindrom, kognitiv, affektiv, dizontogenez, F84, Asperger Sindromi-autistik psixopatiya.

ПОСЛЕДНИЙ ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ КРИТЕРИЙ РАССТРОЙСТВА АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА THE LATEST

Аннотация: последним диагностическим критерием расстройства аутистического спектра является ограниченное повторяющееся и стереотипное поведение, интересы и активность. в области вербального и невербального общения общение. было проведено множество исследований по выявлению сущности многообразного общения, стереотипов, повторяющегося поведения детей, которое определяется как повторяющиеся, дисфункциональные формы поведения и деятельности, проявляющиеся совершенно по-разному.

Базовые понятия: аутистический спектр, стереотип, сенсорный, кататонический синдром, когнитивный, аффективный, дизонтогенез, F84, синдром Аспергера-аутистическая психопатия.

DIAGNOSTIC CRITERION FOR AUTISM SPECTRUM DISORDERS

Annotation: the last diagnostic criterion for autism spectrum disorder is limited repetitive and stereotypical behaviors, interests, and activities. in the field of verbal and non-verbal communication communication. many studies have been carried out to determine the nature of the different types of communication, stereotypes that children are capable of, the

repetitive behavior of children are defined as repetitive, non-functional behaviors and forms of activity that manifest in a completely different way.

Underlying concepts: autism spectrum, stereotype, sensor, catatonic syndrome, cognitive, affective, dysontogenesis, F84, Asperger Syndrome-autistic psychopathy.

KIRISH

Autizm (grekcha “autos” – “o‘zim” degan so‘z) – bu ruhiyatning o‘ziga xos holati bo‘lib, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg‘izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-harakat va shunday so‘zlarni takrorlaydi. Autizm tashxisli bola o‘z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o‘xshamaydi. Ularning xatti-harakatlari real voqelik bilan bog‘liq emas. Bemorlarning harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o‘rin tutadi. Bu kasallik sindromi o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko‘p uchraydi. Simptomlarning har xilligi va kasallik o‘zgaruvchanligi ushbu kasallikni qiyinligidan dalolat beradi: sezilarsiz autistik xususiyatlardan to doimiy parvarish talab etilishigacha. Autizm kasalligini kelib chiqish sabablari bilan bog‘liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Stereotiplarning ko‘plab tasniflari mavjud, ularni namoyon bo‘lish sabablari bilan ajratish mumkin:

1. Asab tizimining rivojlanish jarayonlarining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Ontogenezning dastlabki bosqichlarida rivojlanishga xos bo‘lgan ibtidoiy harakatlar, go‘yo “tiqilib qoladi”, uzoq vaqt, ehtimol hayot uchun qoladi.

2. “Katatonik sindrom doirasidagi stereotiplar. Ularning asosiy farqlari yuqori va plastik mushaklardir rivojlanishning xarakterli dinamikasi, buzilishlarning dissotsiatsiyalangan tabiati (katatonik qo‘zg‘alish va katatonik stupor)” [51, 91-bet].

3. Autizm bilan. Stereotiplar ohang, bajaradigan stereotiplar bolaning o‘ziga xos qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lgan avtostimulyatsiya orqali aqliy ohangni oshirishga qaratilgan.

4. Noqulaylik sharoitida kuchaygan stereotiplar (Sensorniy va boshqalar.) va noqulaylik sabablarini bartaraf etishda yo‘qoladi. Lorna Ving ham buni aniqladi tasodifan yuzaga kelmaydi, ya‘ni autizm, birinchi navbatda, sindromdir. Ushbu kasallikning etiologiyasi, patogenezi, nozologiyasi hali aniqlanmagan bo‘lsa, unda bu belgilar faqat xulq-atvor xususiyatlari asosida aniqlanadi va shunga o‘xshash xatti-harakatlar ortida turli sabablar va ularning rivojlanish mexanizmlari yashiringan bo‘lishi mumkin. Dizontogenez tasnifiga ko‘ra, bolalik autizmi buzilgan aqliy rivojlanish modelidir, bu birinchi navbatda individual aqliy funktsiyalar sekin, boshqalari esa tez rivojlanishini (rivojlanish asinxroniyasi) ko‘rsatadi. S. A. Morozovning fikricha, autizmning asosiy belgilari va kompensatsio rivojlanish asinxroniyasi ASDDA ruhiy dezontogenezning etakchi mexanizmi hisoblanadi. Shuningdek, muallif ushbu qoidabuzarlikda keng ko‘lamli funktsiyalar ishtirok etishini ta‘kidlaydi va shu bilan uning ustuvorligini ko‘rsatadi. “Birinchi darajali (lat. “pervasion” keng tarqalgan, hamma narsani qamrab oluvchi) buzilishlar nafaqat barcha aqliy funktsiyalarni, balki butun tanani, shu jumladan

asab tizimini va, ehtimol, ko‘plab somatik tizimlarni ham qamrab olishini tushunadi”[51, 22-bet]Shuningdek, kognitiv va affektiv buzilishlar, ayniqsa tuzatish ishlari boshlanishidan oldin, etakchi deb hisoblaydi. Yuqoridagilarga asoslanib, S. A. Morozov “bolalik autizmi - bu birinchi navbatda psixikaning hissiy va intellektual sohalari patologiyasi natijasida muloqotga bo‘lgan bazal ehtiyojning etishmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan rivojlanishning dastlabki buzilishining buzilgan versiyasidir” deb hisoblaydi[51, 21-bet]. Autizm spektrining buzilishi (asd) atamasi 1 tomonidan kiritilgan. S. A. Morozovning fikricha, autizm spektrining buzilishi tarkibidagi asosiy buzilishning tabiati V. V. Lebedinskiy (1985;2003) konsepsiyasiga qo‘shilgan umumiy, shu jumladan ruhiy ohangning buzilishi hisoblanadi [51, 55-sahifa].

NATIJA VA MUHOKAMA

Autizmda tonik jarayonlar yetishmasligining asosiy ko‘rinishlari quyidagilardir: tez to‘yinganlik-cheklovchi mexanizm boshqalar bilan o‘zaro munosabatlar va har qanday faoliyat; tonik jarayonlarning qiyin o‘zgarishi, qattiqligi. Kognitiv tadqiqotchilar autizm spektri buzilgan bolalarda kognitiv sohadagi buzilishlar, barcha kognitiv jarayonlar va natijada autizm sindromining paydo bo‘lishi haqiqatdan qochish deb hisoblashadi. regulyativ-ixtiyoriy shuningdek , autizm spektrining buzilishi jarayonlarining xususiyatlarini ta’kidlash kerak. Bu “ixtisoslashgan turlarga diqqatni jamlashdan oldin dala xatti-harakatlarida maqsadli harakatlar yo‘qligida” ifodalanadi rejalashtirish,o‘zini o‘zi boshqarish va boshqalarni talab qiladigan tadbirlar” [51, 87-bet]. S. A. Morozov tomonidan tartibga solish va ixtiyoriy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari taqlid qilish qobiliyatining buzilishini o‘z ichiga oladi, bu esa o‘rganishda sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Simulyatsiya mashg‘ulotlari tuzatishning dastlabki bosqichlarida, masalan, amaliy xatti-harakatlarni tahlil qilishda og‘zaki xatti-harakatlarga katta e’tibor beriladi. Asd bilan og‘rigan bolalarda xotiraning xususiyatlari, agar Markaziy asab tizimining organik shikastlanishi bo‘lmasa, yaxshi xotira bilan, lekin ko‘pincha asosiy narsani ajratmasdan, hamma narsa qayd etiladi, individual voqealar zanjirlarga to‘g‘ri kelmaydi, bu ijtimoiy tajribaning etishmasligiga olib keladi. Umuman olganda, ko‘plab mahalliy va xorijiy mutaxassislarning fikriga ko‘ra, autizm kasalliklari biz yuqorida ko‘rib chiqqan kasalliklarning umumiy belgilari,xususiyatlari, alomatlariga ega, ammo xil kelib chiqishi. Aksincha, bu fikr ICD 10-da ushbu kasalliklarning alohida bo‘limga birlashishiga sabab bo‘ldi, biz quyida ko‘rib chiqamiz. Mavjud yuqori darajadagi vizual turli kasalliklar va kasalliklarning ikkita xalqaro keng tasniflash tizimi qo‘llaniladi, ular juda o‘xshash. Ikkala tasnif ham xulq-atvor xususiyatlariga asoslanadi va hisobga olinmaydi kelib chiqishi ushbu buzilishning etiologiyasi.

Birinchi tasnif-DSM-IV (Diagnosticand statistik qo‘llanmasi - diagnostika 20 va Amerika psixiatriya assotsiatsiyasining statistik qo‘llanmasi, 4-nashr). **Ikkinchi tasnif** kasalliklarning xalqaro tasnifi (ICD) - Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unga 1999 yilda Rossiya ham qo‘shilgan. Mavjud haqida.S. Nikolskaya Tomonidan. Uni tasniflashning asosiy omili autizm tushunchasi, birinchi navbatda, hissiy rivojlanishning buzilishi.

Muallif 4 guruhni aniqladi: va psixologik tasnif

1. Sodir bo‘layotgan narsadan to‘liq ajralish (atrof-muhit ta‘sirining intensivligini baholash darajasiga yoki dala harakati darajasiga mos keladi).

2. Faol ta‘sirchan stereotiplar). rad etish

3. Autistik manfaatlarga ega bo‘lish (affektiv kengayish darajasiga mos keladi).

4. Aloqa va o‘zaro ta‘sirni tashkil etishdagi qiyinchiliklar (bazal affektiv aloqa darajasiga mos keladi) [7, p.53]. Ving L. ning befarq, faol bolalarini tasnifladi [51, 87-bet]. L. Wingning “triadasi” asosida ICD-10 ning rasmiy diagnostika tasnifi bo‘limlari ishlab chiqilgan bo‘lib, biz o‘z tadqiqotimizga tayanamiz. ICD-10 xalqaro tibbiy tasnifiga ko‘ra, autizm spektrining buzilishi F84 “umumiy psixologik rivojlanish kasalliklari” bo‘limiga kiritilgan va quyidagilarni o‘z ichiga oladi: F 84.0 bolalik autizmi:

- Autizm buzilishi;- bolalar autizmi;

- bolalar psixoz;

- Kanner sindromi. autizm atrof-muhit (mos keladi autizm bilan darajasi passiv, F 84.1 atipik autizm- atipik bolalar psixoz;

- Autizm xususiyatlariga ega aqliy zaiflik.

F84. 2 Rett Sindromi F84.3 bolalik davridagi yana bir parchalanish buzilishi- bu bolalik demansi;

- Geller sindromi;

- simbioz psixoz. F84.4 aqliy zaiflik va stereotipik harakatlar bilan birlashtirilgan giperaktiv buzilish . F84.

Asperger Sindromi-autistik psixopatiya;

- Bolalikda shizoid buzilishi. F84.

boshqa keng tarqalgan rivojlanish kasalliklari.

F84. 9 umumiy rivojlanish buzilishi aniqlanmagan [67]. Umumiy diagnostika mavjud ushbu qoidabuzarliklar: xarakterlovchi ko‘rsatmalar

1. Bular L. Ving muammolarining “uchligi” ni o‘z ichiga olgan kasalliklar.

2. Buzilishlar go‘daklik davrida yoki hayotning dastlabki besh yilida sodir bo‘ladi (autizm xususiyatlari, qoida tariqasida, 3 yoshgacha shakllanadi).

3. Ko‘pincha kognitiv buzilishlar bilan birlashtirilgan aqliy zaiflik yo‘qligidan qat’iy nazar.

4. Ba’zi hollarda buzilishlar birlashtiriladi va ehtimol ba’zi patologik holatlar tufayli yuzaga keladi, ular orasida: chaqaloq spazmlari; tug‘ma qizilcha; tuberoz skleroza; miya lipidozi; Fragil (mo‘rt) x xromosoma [30, p.138]. sfera, quyidagilar asosida tashxis qilinadi

5. Belgilarning buzilishi. Ushbu tasnifga muvofiq va “klinik tavsiyalar (davolash protokoli) 2015 yil. autizm spektrining buzilishi diagnostika, davolash, kuzatish” N. V. Simashkova va E. V. Makushkina bolalar autizmi (F84.0) - bu rivojlanishning umumiy buzilishining bir turi bo‘lib, uning mavjudligi bilan belgilanadi:

a) uch yoshgacha bo‘lgan bolada namoyon bo‘ladigan anomaliyalar va rivojlanishdagi kechikishlar ; psixopatologik

b) cheklangan ekvivalent ijtimoiy xatti-harakatlar, o‘ziga xos diagnostika o‘zgarishlar o‘zaro ta’sirlar, funktsiyalar stereotipik xususiyatlar odatda o‘ziga xos bo‘lmagan muammolar, masalan, fobiya, uyqu va ovqatlanish buzilishi , tirnash xususiyati va o‘ziga qaratilgan tajovuzkorlik [30, V. 9]. Atipik autizm (F84.1)- bu uch yoshdan oshgan bolada anomaliyalar va rivojlanishdagi kechikishlar paydo bo‘lgan va bolalik autizmiga tashxis qo‘yish uchun zarur bo‘lgan psixopatologik uchlikning uchta sohasidan xulq-atvor hammasi va monoton. to‘ldirish birining yoki ikkitasining buzilishlarida etarlicha namoyish etilmagan rivojlanishning buzilishi (ya’ni, ijtimoiy o‘zaro ta’sir, aloqa va xatti-harakatlar, cheklangan, stereotipik va va monotonlik), boshqa (boshqa) sohalarda xarakterli buzilishlar mavjudligiga qaramay. Atipik autizm ko‘pincha rivojlanishning chuqur kechikishi bo‘lgan va nutqni rivojlantirishning og‘ir, o‘ziga xos retseptiv buzilishi bo‘lgan odamlarda rivojlanadi [30,V. 10]. Rett Sindromi (F84.2) faqat qizlarda aniqlanadigan vaqt, bunda aniq normal erta holati, oldin rivojlanish nutqning qisman yoki to‘liq yo‘qolishi bilan murakkablashadi, Lokomotivbosh o‘sishi sekinlashishi bilan bir vaqtda qo‘llardan foydalanish ko‘nikmalari va ko‘nikmalari . Buzilishlar hozirgi 7 oydan 24 oygacha bo‘lgan yosh oralig‘ida sodir bo‘ladi sohalar: aloqa va boshqalar Bular boshqa 23 hayot. Qo‘llarning ixtiyoriy harakatlarini yo‘qotish, qo‘llarning stereotipik dumaloq harakatlari va nafas olishning kuchayishi xarakterlidir. Ijtimoiy va o‘yin rivojlanishi to‘xtaydi, ammo muloqotga bo‘lgan qiziqish saqlanib qoladi. 4 yoshga kelib, magistral ataksiya va apraksiya rivojlanishi boshlanadi, ko‘pincha xoreoatetoid harakatlar bilan birga keladi. Og‘ir aqliy zaiflik deyarli doimiy ravishda qayd etilgan [30, V. 11].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alekseeva E. E. nogiron bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar// o‘zgaruvchan Rossiyada maxsus (tuzatish) psixologiyasini rivojlantirish: “Anan-Evan Readings-2005” ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari/ ostida. L. A. Tsvetkova, L. M. Shchipitsina tomonidan tahrirlangan. Spb.: Sankt-Peterburg Davlat universiteti nashriyoti, 2005 (380-381 - betlar).

2. Ananiev B. G. inson bilim predmeti sifatida. Spb.: Piter, 2001 yil. -288 s.

3. Azizabonu, Babayeva, M. Odiljonova, and S. Siddiqova. “AQLI ZAIF BOLALARDA BOG‘LANGAN NUTQINI SHAKLLANTRISH TEXNOLOGIYALARI”. INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

4. S.D.Zabramnaya. Otkor umtvenno otstalix detey v spetsialniye uchrejdeniya. M., Prosvesheniye, 2008

5. G.B.Shoumarov, K.K.Mamedov. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik xususiyatlari va differensial diagnostikasi. Toshkent, 1997

6. K.K.Mamedov, G.B.Shoumarov, V.P.Podobed.Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. T., 1999



UO‘K: 37.013.42+37.018

IJTIMOIIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MAZMUN- MOHIYATI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI

Yuldasheva Diyora

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-kommunikativ kompetentligining mazmun-mohiyati va pedagogik ahamiyati tadqiq etilib, ushbu mavzu yuzasidan taklif va tavsiyalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, ijtimoiy, kommunikativ, pedagogik, kompetentlik

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ СОЦИАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация В статье рассматривается содержание и педагогическое значение социально-коммуникативной компетентности будущих учителей, даются предложения и рекомендации по данной теме.

Ключевые слова: учитель, социальный, коммуникативный, педагогический, компетентность

THE CONTENT AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF SOCIO- COMMUNICATIVE COMPETENCE

Abstract This article examines the content and pedagogical significance of socio-communicative competence of future teachers, and provides suggestions and recommendations on this topic.

Key words: teacher, social, communicative, pedagogical, competence

Kirish. Bugungi kunda pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri ularda ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdir. Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyaga ega pedagogik kadrlar avlodini shakllantirish zamonaviy jamiyat ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan sanaladi. Shu ma’noda, bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida o‘quv jarayoni va uni talaba shaxsiga yo‘naltirish nazarda tutiladi. Buning uchun esa bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda

shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni izchil va tizimli olib borish bilan birga, uni integral, uyg‘unlikda rivojlantirish ham dolzarblik kasb etmoqda.

Asosiy qism. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda va rivojlangan davlatlar qonunshiligida ta‘lim natijalari nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalar orqali, balki bo‘lajak kadrlarning ta‘lim jarayonida egallagan kompetensiyalari asosida aniqlanishi ta‘kidlanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta‘lim. Bu ta‘lim o‘qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta‘lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta‘lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta‘minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta‘lim tizimida o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, ehtiyojlarini, qiziqishlarini, o‘rganish uslublarini, intellektual imkoniyatlarini va emotsional holatini hisobga olishga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Uning asosiy maqsadi — o‘quvchini faqat bilim bilan emas, balki uning ichki salohiyatlarini to‘liq ochish, shaxs sifatida rivojlanishini ta‘minlashdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limda o‘quvchi markazda turadi va o‘qituvchi o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlariga mos holda ta‘lim jarayonini tashkil qiladi. Bu turdagi ta‘lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta‘limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim o‘qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o‘zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi. Pedagog ta‘lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat‘iy rioya etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilardan iborat:

- har bir talabani alohida, o‘ziga xos shaxs sifatida ko‘ra olishi;
- talabani hurmat qilishi;
- talabaning ruhiy holatini to‘g‘ri baholay olishi;
- talabaning xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir talabaga tolerant munosabatda bo‘lishi;
- talabaning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- har bir talaba uchun qulay ta‘lim muhitini yaratishi;
- talabalarning mustaqil yoki kichik guruhlarga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
- talabalarni o‘z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo‘l qo‘yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o‘rgatish;
- ta‘lim jarayonida hech bir talabaga tazyiq o‘tkazmaslik;

- alohida talabaning kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatmaslik;
- bordi-yu, talaba tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, ta‘lim jarayonida o‘zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat‘iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;
- aniqlangan sabablar asosida talabaning sha‘ni, g‘ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, o‘zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
- ta‘lim jarayonida har bir talaba uchun “muvaffaqiyat muhiti”ni yarata olish;
- har bir talabaga ta‘lim olisha muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;

Kompetensiya o‘quv jarayonining rejalashtirilgan maqsadi bo‘lib, oliy kasbiy ta‘lim mazmuni ushuni muhim hisoblanadi. U mutaxassisning kasbiy faoliyat talablari va malakasi asosida shakllanadi.

Boshqa adabiyotlarda “*Kompetensiya* lotincha so‘z bo‘lib, “erishaman, to‘g‘ri kelaman” degan ma‘nolarni bildiradi” [63;189-b]. Kompetensiya – subyektning maqsadni qo‘yish, unga erishish uchun tashqi va ichki imkoniyatlarni samarali tashkil qila olishga tayyorgarligi, muayyan kasbiy masalalarni yecha olish qobiliyatidir.

Kompetensiyalar shaxsning mustaqilligiga, o‘quv va amaliy faoliyatda ko‘zlangan muvaffaqiyatiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Kompetensiya (inglizcha “competence”) atamasining ma‘nosi “qobiliyat” deganidir, biroq “kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga ham xizmat qiladi” [59;16-b]. Shu ma‘noda, kompetensiya bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatlarni kashf etish, shakllantirish va rivojlantirishning yig‘indisi hisoblanadi.

E.F.Zeerning ta‘rifiga ko‘ra, kompetensiya deganda “faoliyatning adekvat me‘yoriga aylanadigan, bilim, ko‘nikma, malaka, qobiliyat va qadriyatli motivatsion komponentlarni o‘z ichiga olgan interaktiv konstruksiyalar” [42;96-97-b] tushuniladi.

V.D.Shadrikov [83;30-31-b] so‘zlariga ko‘ra, kompetensiyalar shaxsning biror kasbiy tayyorgarligi jarayonida shakllanadi va yuzaga kelgan funksional vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon yaratadigan bilim, ko‘nikma, qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarning tizimli namoyon bo‘lishini nazarda tutadigan faoliyatning yangi bir turi hisoblanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning ahamiyatini quyidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin:

№	Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning ahamiyati	Mazmuni
1.	O‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchining o‘zi bilan bog‘liq barcha xususiyatlarini hisobga oladi. Bu nafaqat uning aqliy salohiyati, balki emotsional, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini ham o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarning turli darajadagi ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish, ta‘limning samaradorligini oshiradi. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos o‘rganish tezligi va uslubi mavjud bo‘lgani uchun, ta‘lim jarayonida individual yondashuv zarur.

2.	O‘quvchi motivatsiyasini yuksaltirish	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta‘lim jarayonini shunday tashkil etadiki, o‘quvchilar o‘qish jarayonida o‘zlarini qiziqtirgan mavzular va faoliyatlar orqali o‘z bilimlarini kengaytiradilar. Bunday yondashuvda o‘quvchilar uchun maqsadga erishish yo‘llari o‘zlari tomonidan aniqlanadi, bu esa ularning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Motivatsiya talaba shaxsini rivojlantirishda eng muhim omil hisoblanadi.
3.	Ta‘lim jarayonida o‘quvchining faolligini ta‘minlash	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchining passiv tinglovchi bo‘lib qolmasligi, balki faol ishtirok etishiga yordam beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning o‘quv jarayonida o‘z fikrlarini ifodalashga, savollar berishga va muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga undaydi. O‘quvchi faolligi uning o‘rganish jarayoniga chuqurroq kirib borishini ta‘minlaydi, bu esa o‘z navbatida ta‘limning samarali bo‘lishini kafolatlaydi.
4.	Mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvni rivojlantirish	Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim o‘quvchilarga mustaqil fikrlash imkonini beradi. Ular o‘qituvchining ko‘rsatmalariga muvofiq faqat ma‘lumotni yodlash bilan cheklanmay, balki o‘rganilgan ma‘lumotlarga tanqidiy nuqtai nazar bilan yondashishni o‘rganadilar. Bu jarayon o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va yangi g‘oyalarga ochiqlikni shakllantiradi.
5.	Shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy moslashuv	Ta‘lim nafaqat akademik bilimlarni berishni, balki o‘quvchining shaxs sifatida rivojlanishini ham ta‘minlaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarga o‘z ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. O‘quvchilar bir-biri bilan o‘zaro hamkorlikda ishlash, o‘z fikrlarini ifodalash, guruhlarda ishlash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Ta‘lim jarayonida quyidagilardan foydalanish shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning yana bir belgisidir:

- ijodiy topshiriqlar;
- kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar;
- muammoli vaziyatlar;
- rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari;
- bahs-munozara, debat;
- musobaqa ko‘rinishidagi bellashuvlar.

O‘zbekistonda ham shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta‘limni zamonaviylashtirish, ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan bir qancha olimlar mavjud. Masalan, B.X.Xodjayev “kompetensiya” tushunchasiga berilgan aksariyat ta‘riflar kasbiy ta‘lim, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqligini bayon etib, uni umumiy o‘rta ta‘lim bilan bog‘lagan holda ta‘rif beradi. U kompetensiyani “ma‘lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo‘lgan, o‘quvchining avvaldan belgilangan

ta’limiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar (me’yorlar)dan ham o‘zib ketishidir” [81;76-77-b] deb ta’kidlaydi.

S.E.Shishov va I.G.Agapov [85;60-61-b] fikricha, kompetensiya shaxsning o‘quv jarayonida olingan bilim va tajribasiga asoslangan qobiliyatlarini, shuningdek, uning harakatga tayyorligini anglatadi.

Zamonaviy jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar, ijtimoiy qadriyat sifatida inson shaxsiga e’tiborning kuchayishi ta’lim sohasi mutaxassislarini tayyorlashga nisbatan talablarni ham oshirmoqda, shuningdek, mutaxassislarning ijtimoiy bilim va malakalari hamda ijtimoiy ongining davlat ijtimoiy siyosatining strategik yo‘nalishlariga mos kelishini taqozo qilmoqda. Ijtimoiy tajribaning kengayishi va murakkablashishi, ma’lumotlarni qayta ishlash va olishning yangi shakllari paydo bo‘lishi bilan bog‘liq holda mutaxassisning kompetentligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

V.Serikov esa “kompetensiya shaxsning o‘zini o‘zi anglashiga hissa qo‘shadigan bilim, ko‘nikma, ta’limning mavjudligi” sifatida belgilanadi, “kompetentlik esa hayot davomida mohirona bajarilgan harakat” [73; 134-b] hisoblanadi. Boshqa bir olim V.I.Baydenko kompetensiyani “aniq vaziyatda dolzarb bo‘lgan barcha resurslarni harakatlantirishga (mobilizatsiyalashga) qobiliyatlik yoki tayyorlik” [24; 20-21-b] sifatida baholaydi.

“Ijtimoiylashtirish” (“социализация”) atamasining muallifi amerikalik sotsiolog F.G.Giddings hisoblanadi. U 1887-yilda o‘zining “Ijtimoiylashtirish nazariyasi” (“Теория социализации”) kitobida bu atamani hozirgi zamonaviy ma’nosiga yaqin ma’noda ishlatgan: “individning ijtimoiy tabiati va xarakterining rivojlanishi – insoniy materialni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir” [32].

“Ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik” tushunchasining ko‘p o‘lchovliligi, ijtimoiy-madaniy vaziyatning noaniqligi, uning ta’lim va tarbiya jarayonida sust qo‘llanilishini E.F.Zeer terminologik nuqtayi nazardan “ziddiyatli voqeliklar” sifatida tavsiflaydi hamda ularni “inson subyektiv hayotining real hayot bilan, obyektiv voqelik bilan nomutanosibligi, qarama-qarshiligi” [43] sifatida baholaydi.

Ijtimoiy kompetentlik orzu-umid bilan emas, balki qadriyatlar va bilimlarni amaliy harakatlarga o‘tkazish bilan bog‘liq. Shuning uchun, ushbu kompetentlikda iroda, ya’ni subyektning qadriyatlar va bilimlariga muvofiq harakat qilishini o‘zi belgilash qobiliyati alohida ahamiyatga ega.

Shaxsiy muloqot darajasida ijtimoiy kompetensiyaning ishonchli ta’rifi Z.A.Aksyutina tomonidan berilgan: “O‘zgalar bilan birgalikda harakat qilish istagi va ko‘nikmasi, o‘ziga va o‘zaro muloqot qobiliyatiga bo‘lgan ishonch, hamkorlik qilish va muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni yengish qobiliyati” [20;130-b].

Xulosa. Ko‘rib shiqilgan qarashlar, fikrlar asosida biz ijtimoiy kompetentlikka bilim, malaka va fazilatlar tizimi sifatida qaraymiz hamda shaxs tomonidan jamiyatda o‘z funksiyalarini huquqiy, madaniy, kommunikativ, kasbiy, oilaviy darajada turli davlat tizimlari va tashkilotlari bilan birgalikda hal qilishini tushunamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алимов С.Ш. Формирование социокультурной компетенции учителей общеобразовательных школ республики Таджикистан. Дисс. ...канд. пед. наук. – Душанбе, 2009.
2. Байденко В.И. Концептуальная модель государственных образовательных стандартов в компетентностном формате (дискуссионный вариант): материалы ко второму методологическому семинару // – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – С.20.
3. Баркунова О.В. Формирование профессиональной компетентности социального педагога в процессе педагогической практики: Автореф. ... дисс. канд. пед наук. Шуя, 2010.
4. Богачева Л.С. Компетентность и компетенция как понятийно-терминологическая проблема // Актуальные вопросы современной педагогики: мат-лы II Междунар. науч. конф., июль 2012 г. Уфа: 2012. URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/60/2556>
5. Богоявленская Д.Б. Измерение креативности – описание индивидуальности: Психология индивидуальности / Материалы Всероссийской конференции. – М.: 2006, – С. 87-90.
6. Бондарева Е.В. Направленность на формирование профессиональной компетентности как путь совершенствования экономического образования [Электронный ресурс] / Е.В.Бондарева // Заочная научно-методическая Internet-конференция “Экономическое образование в XXI веке”. – С. 30-33.



IMITATION PARADIGMANING MOHIYATI

Badalov Kamoliddin Rahmat o‘g‘li

Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

E-mail: kamoliddinb24@gmail.com

Annotatsiya. Imitatsion paradigma — ta’limda va pedagogik jarayonlarda o‘rganish va rivojlanishni bir-biriga bog‘lab turuvchi metodologik yondashuvdir. Ushbu maqola imitatsion paradigmaning mohiyatini, uning pedagogik jarayonlarda qanday o‘rin tutishini va ta’limni rivojlantirishdagi o‘rni haqida batafsil tahlil olib boradi. Imitatsion paradigmaning asosiy g‘oyalarini, uning maqsad va vazifalarini ochib berib, ta’lim jarayonida qanday metodlar va yondashuvlar bilan ishlash mumkinligi ko‘rsatilgan. Maqolada shuningdek, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishda imitatsion metodlarning samaradorligi haqida ma’lumotlar taqdim etiladi.

Avvalo, raqamli ta’lim vositalari haqida yozilgan fundamental ishlanmalar, xususan, B. Holmberg[2; 45], G. Siemens[5; 10], M. Prenskiy[6; 43] singari olimlarning asarlarida raqamli ta’limning asosiy prinsiplari — moslashuvchanlik, individuallashtirish, interaktivlik va uzluksizlik tushunchalari atroflicha yoritilgan. Ayniqsa, G. Siemens tomonidan ilgari surilgan konnektivizm nazariyasi raqamli muhitda bilim olish jarayonining tarmoq asosida tashkil etilishini asoslab bergani bilan e’tiborga loyiq.

Amaliy mashg‘ulotlarni raqamli muhitda tashkil etish metodikasiga oid zamonaviy izlanishlar ichida X. J. Abdullayeva[1; 57], M. R. Maxkamova[3; 180], G. X. Toshmurodova[4; 71] kabi o‘zbek tadqiqotchilarining ishlari alohida o‘ringa ega. Ularning izlanishlarida raqamli

platformalardan (Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams, Canva, Tinkercad va boshqalar) samarali foydalanish orqali o‘quvchilar ishtirokini faollashtirish, o‘quv mashg‘ulotlarining vizual, interaktiv va amaliy jihatlarini kuchaytirish imkoniyatlari yoritilgan.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan e‘lon qilingan hisobotlar raqamli savodxonlik, raqamli muhitda pedagogik dizayn, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish usullari bo‘yicha amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Mavjud adabiyotlar raqamli muhitda texnologiya fanining amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etishda nazariy va amaliy asoslarni yaratishga xizmat qilsa-da, konkret metodik modellarning yetishmasligi, ayniqsa milliy kontekstda tajriba asosidagi yondashuvlarning cheklanganligi ushbu yo‘nalishda chuqurroq tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlari ta‘lim tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan, texnologiya fanining amaliy mashg‘ulotlarini raqamli muhitda tashkil etish zaruriyati nafaqat texnik vositalar bilan ta‘minlanganlik, balki didaktik yondashuvlarning yangilanishi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ushbu tadqiqot doirasida olib borilgan ilmiy tahlillar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, raqamli vositalar orqali amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish — bu oddiy texnik jarayon emas, balki puxta pedagogik dizayn, o‘quvchi faoliyatini faollashtirish strategiyasi va zamonaviy metodik modellashtirishni o‘z ichiga oluvchi murakkab jarayondir.

Raqamli platformalar yordamida darsni tashkil etish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularning mustaqil ishlash, tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv kabi metakompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, vizualizatsiya, virtual konstruktorlar, onlayn loyihalash vositalari va simulyatsiya dasturlaridan foydalanish orqali amaliy mashg‘ulotlar yanada samarali va qiziqarli tus oladi. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘rtasida kooperativ faoliyatni yo‘lga qo‘yish, raqamli muhitda fikr almashinuvi, bahsli muammolarni birgalikda yechish kabi ko‘nikmalar ham shakllanadi.

Xulosa.

Tadqiqotning asosiy natijasi shundan iboratki, texnologiya fanining amaliy mashg‘ulotlarini raqamli muhitda tashkil etish uchun o‘qituvchi quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur: raqamli pedagogik dizaynni ishlab chiqish, interaktiv vositalarni tanlash va ulardan samarali foydalanish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda differensial va moslashuvchan metodikani qo‘llash. Ushbu omillar uyg‘unlashgan taqdirdagina amaliy mashg‘ulotlar kutilgan natijani beradi hamda o‘quvchilarning texnologik tafakkurini innovatsion yo‘nalishda shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, raqamli muhitda texnologiya fanining amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi nafaqat texnik bazaga, balki chuqur pedagogik va metodik asosga ega bo‘lgan kompleks tizim sifatida shakllanmoqda. Bu esa pedagogik faoliyatda doimiy izlanish, yangilikka ochiqlik va texnologik yangiliklarga moslashuvchanlikni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуллаева Х.Ж. Методика формирования профессиональных компетенций учащихся на основе цифровых образовательных технологий // Профессиональное образование. — 2021. — №4(58). — С. 52–57.
2. Guzey S.S., Roehrig G.H. Teaching science with technology: Case studies of science teachers’ development of technology, pedagogy, and content knowledge. // Contemporary Issues in Technology and Teacher Education. — 2009. — Vol. 9, No. 1. — P. 25–45.
3. Махкамова М.Р. Интерактивные методы обучения в профессиональном образовании. — Ташкент: Fan va texnologiya, 2019. — 180 с.
4. Toshmurodova G.X. Raqamli texnologiyalar asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi // Pedagogik izlanishlar jurnali. — 2022. — №2. — B. 66–71.
5. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. — 2005. — Vol. 2, No. 1. — P. 3–10.
6. Пренски М. Цифровые аборигены и цифровые иммигранты // Образовательные технологии. — 2001. — №1. — С. 40–45.



TEKNOLOGIYA FANINI RAQAMLI TA‘LIM MUHITIDA O‘QITISHDA PEDAGOGIK MONITORINGNI JORIY ETISH

Do‘schonov Shodyorbek Yo‘ldoshovich
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya fanini raqamli ta‘lim muhitida samarali o‘qitish jarayonida pedagogik monitoringning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Raqamli ta‘lim vositalari va platformalari orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, bilim sifati va ko‘nikmalarining shakllanishi doimiy ravishda tahlil qilinishi ta‘lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada pedagogik monitoringning turlari, vositalari hamda ularni raqamli ta‘limga integratsiya qilish usullari ilmiy-metodik asosda bayon etiladi. Shuningdek, monitoring jarayonida o‘qituvchining kuzatuvchanligi, interaktiv baholash metodlari va axborot-analitik platformalardan foydalanish imkoniyatlari o‘rganiladi. Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar orqali texnologiya fanini zamonaviy yondashuvlar asosida o‘qitishda monitoring tizimining dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli ta‘lim muhiti, texnologiya fani, pedagogik monitoring, baholash tizimi, raqamli platformalar, interaktiv metodlar.

ВНЕДРЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА В ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Аннотация: В статье освещаются роль и значение педагогического мониторинга в процессе эффективного обучения технологиям в цифровой образовательной среде. Постоянный анализ уровня успеваемости учащихся, качества знаний и развития навыков с помощью цифровых обучающих инструментов и платформ является важным фактором повышения качества образования. В статье на научно-методической основе описываются виды и инструменты педагогического мониторинга, а также способы их интеграции в цифровое образование. Также в процессе мониторинга будут изучены возможности использования педагогического наблюдения, интерактивных методов оценки и информационно-аналитических платформ. Актуальность системы мониторинга в технологии обучения на основе современных подходов обоснована научно обоснованными предложениями и рекомендациями.

Ключевые слова: Цифровая образовательная среда, наука о технологиях, педагогический мониторинг, система оценки, цифровые платформы, интерактивные методы.

INTRODUCTION OF PEDAGOGICAL MONITORING IN TEACHING TECHNOLOGY IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation: This article highlights the role and importance of pedagogical monitoring in the process of effective teaching of technology in a digital educational environment. Continuous analysis of the level of students' mastery, quality of knowledge and formation of skills through digital educational tools and platforms is an important factor in improving the quality of education. The article describes the types, tools of pedagogical monitoring and methods of their integration into digital education on a scientific and methodological basis. It also studies the possibilities of using teacher observation, interactive assessment methods and information and analytical platforms in the monitoring process. The relevance of the monitoring system in teaching technology based on modern approaches is substantiated through scientifically based proposals and recommendations.

Keywords: Digital learning environment, technology science, pedagogical monitoring, assessment system, digital platforms, interactive methods.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimining jadal raqamlashtirilishi pedagogik jarayonlarga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Xususan, texnologiya fani kabi amaliy va nazariy bilimlar uyg'unligini taqozo etadigan fanlarni o'qitishda raqamli vositalar va muhitlarning joriy etilishi nafaqat o'quvchilarning bilim olish uslublarini, balki o'qituvchining pedagogik faoliyatini ham tubdan o'zgartirmoqda. Ana shunday o'zgarishlar jarayonida samaradorlikni ta'minlovchi muhim omillardan biri — bu pedagogik monitoring tizimidir.

Texnologiya fanining o'ziga xos jihati — bu fan orqali o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar, muhandislik tafakkuri va innovatsion yondashuvlar shakllanishidir. Bunday natijalarga erishish esa, faqatgina bilim berish emas, balki har bir bosqichda o'quvchi rivojlanishini kuzatish, tahlil qilish va zarur holatda ta'lim jarayonini moslashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu boisdan ham pedagogik monitoring nafaqat nazorat vositasi, balki ta'lim jarayonining tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Bugungi raqamli ta'lim muhiti monitoring imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Interaktiv platformalar, onlayn test tizimlari, real vaqtli baholash va analitik dasturlar yordamida o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini aniq, tizimli va samarali tarzda kuzatishi mumkin. Biroq, bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish va ularni metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirish uchun puxta pedagogik yondashuv talab etiladi. Ushbu maqola aynan texnologiya fanini raqamli ta'lim muhitida o'qitish jarayonida pedagogik monitoringni qanday tashkil etish, uning mazmun-mohiyati, afzalliklari va zamonaviy vositalar bilan uyg'unlashuvi masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga bag'ishlanadi. Bu yo'nalishdagi izlanishlar, albatta, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi faoliyatini individuallashtirish hamda innovatsion ta'lim tizimlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik monitoring ta’lim jarayonini zamon talablari asosida tashkil etishda strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, texnologiya fanini o‘qitishda bu yondashuv o‘quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash, bilim va amaliy ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich nazorat qilish, hamda o‘qitish metodikasini doimiy takomillashtirib borishda muhim vosita hisoblanadi. Raqamli ta’lim muhiti esa bunday monitoringni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan raqamli platformalar (masalan, Google Classroom, Moodle, Edmodo, Microsoft Teams va boshqa LMS tizimlar) orqali o‘quvchilarning darslardagi faolligi, topshiriqlarning bajarilish darajasi, ishtirok ko‘rsatkichlari hamda test natijalari real vaqt rejimida monitoring qilinmoqda. Bu holat o‘qituvchiga nafaqat o‘quvchilarning qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlash, balki shu asosda ta’lim strategiyasini qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini ham yaratadi.

Monitoring jarayonida eng samarali usullardan biri — bu formatif (joriy) baholashdir. Bu yondashuv o‘quvchilarning har bir dars davomida olib borayotgan ishlari, ijodiy faoliyati, hamkorlikda bajarilgan loyihalari asosida ularning o‘rishini ko‘rsatib beradi. Masalan, texnologiya fanida o‘quvchilar tomonidan yaratilgan modellar, chizmalar yoki dastlabki loyihaviy ishlar monitoringning amaliy ko‘rinishini tashkil etadi. Bu esa o‘quvchilarda mas’uliyat hissi, o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyati va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini monitoring qilishda sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan tahliliy vositalar ham tobora ommalashmoqda. Bunday tizimlar, o‘quvchining faoliyati asosida tavsiyalar beradi, individual yondashuvni yo‘lga qo‘yadi hamda o‘qituvchining yukini sezilarli darajada yengillashtiradi. Statistik ma’lumotlar asosida monitoring natijalarini vizual ko‘rinishda taqdim etish esa, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali aloqa o‘rnatilishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, raqamli ta’lim muhiti imkoniyatlaridan foydalangan holda joriy etilayotgan pedagogik monitoring — texnologiya fanini o‘qitishda nafaqat nazorat vositasi, balki o‘qitish jarayonining integral komponenti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligini ta’minlashda, har bir o‘quvchining imkoniyatlarini to‘liq ochib berishda va natijaviylikni oshirishda beqiyos vositadir.

Adabiyotlar sharhi:

Raqamli ta’lim muhiti va pedagogik monitoringning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishda zamonaviy pedagogika, axborot texnologiyalari, didaktika va baholash metodikasi sohalaridagi turli tadqiqotchilar asarlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, raqamli transformatsiya jarayonlarining ta’lim tizimiga ta’siri haqida V. I. Andreev[2; 520], va Yu. A. Gromiko[3; 20] kabi olimlar o‘z asarlarida raqamli texnologiyalar asosidagi ta’lim modelining shakllanishi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv munosabatlar, shuningdek, ta’limda monitoring vositalarining tutgan o‘rni haqida batafsil fikr bildiradilar.

Texnologiya fanini raqamli muhitda o‘qitish bilan bog‘liq ishlar orasida I. V. Robertning zamonaviy axborot-ta’lim muhiti haqidagi ishlari alohida e’tiborga loyiq[6; 13]. U ta’lim tizimining raqamli komponentlari orqali bilimlarni uzatish, o‘zlashtirish va tahlil qilish mexanizmlarini chuqur tahlil qiladi. Shu bilan birga, pedagogik monitoringni tashkil etish bo‘yicha N. V. Kuzmina[4; 221] va E. S. Polatlarning[7; 272] ilmiy ishlari monitoringni faqat nazorat vositasi emas, balki rivojlantiruvchi pedagogik strategiya sifatida baholaydi. Ularning ta’kidlashicha, monitoring natijalari asosida o‘qitish jarayoni dinamik moslashuvchanlikka ega bo‘lishi, individual yondashuvlarga asoslanishi lozim.

Shuningdek, UNESCO va OECD[5] tomonidan chop etilgan xalqaro hisobotlar (masalan, “Digital Education Outlook” yoki “AI and Education”)[8] raqamli monitoring vositalarining global tajribalardagi qo‘llanilishi, natijalarga yo‘naltirilgan baholash tizimlari va o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu manbalar texnologiya faniga mos monitoring yondashuvlarini tanlashda nazariy va amaliy asos bo‘la oladi.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida A. A. Abduqodirov, Sh. O. To‘xtasinova, hamda M. M. Jo‘rayevlarning O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli muhitni joriy etish, monitoring metodlarini mahalliy sharoitga moslashtirish va o‘qituvchilarni bu borada tayyorlash bo‘yicha tadqiqotlari dolzarb hisoblanadi[1; 52]. Ularning ilmiy qarashlari bugungi ta’lim islohotlari bilan hamohang bo‘lib, amaliy yondashuvlarga tayanadi. Mavjud adabiyotlar raqamli ta’lim va pedagogik monitoringning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur yoritadi. Ammo texnologiya faniga xos monitoring modellari va o‘quvchilarning ijodiy-amaliy faoliyatini baholashga oid izlanishlar hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, bu yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarur.

Muhokama:

Texnologiya fanini raqamli muhitda o‘qitishda pedagogik monitoringni samarali tashkil etish bugungi ta’lim strategiyalarining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli monitoring vositalarining joriy etilishi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini 20–30% ga oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, texnologiya fanida ko‘nikma va amaliyot ustuvorligi sababli, o‘quvchilarning individual yondashuv asosida rivojlanishini aniqlab beruvchi monitoring tizimi muhim rol o‘ynaydi.

Monitoring tizimi uch asosiy bosqichda samaradorlikni ta’minlaydi: diagnostika, dinamika nazorati va yakuniy tahlil. Misol uchun, Edmodo yoki Moodle kabi raqamli platformalarda real vaqtli statistik ko‘rsatkichlar orqali o‘quvchining har bir mashg‘ulotdagi ishtiroki, topshiriqdagi faolligi, va baholash natijalari avtomatik tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, monitoring natijalari asosida o‘qituvchi o‘zining pedagogik strategiyasini qayta ko‘rib chiqadi. Masalan, o‘quvchilarning loyihaviy ishlardagi kamchiliklari aniqlanganda, raqamli muhitda muammo asosli yondashuvni joriy qilish orqali ularning mustaqil fikrlash va echim topish ko‘nikmalari faollashtiriladi. Bu monitoringni faqat nazorat emas, balki ta’lim jarayonining optimallashtiruvchi vositasi sifatida ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, monitoring tizimining samarali ishlashi uchun o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirish zarur. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekiston bo‘yicha texnologiya fani o‘qituvchilarining faqat 41% qismi raqamli monitoring vositalaridan doimiy foydalanishni bilgan. Bu esa o‘qituvchilarning malaka oshirish kurslarida monitoring va raqamli pedagogika yo‘nalishida chuqur tayyorgarlik ko‘rishini talab qiladi.

Boshqa tomondan, monitoring jarayonida o‘quvchilar faoliyatini ortiqcha nazorat qilish emas, balki ularni rivojlantirishga yo‘naltirilgan, konstruktiv tahlil asosida olib borish lozim. Buning uchun ko‘p hollarda muammoli yondashuv, refleksiya, va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlari qo‘llanilishi tavsiya etiladi. Bu metodlar nafaqat o‘quvchilarni bilim bilan qurollantiradi, balki ularni ongli, faol, mustaqil fikrlovchi shaxslar sifatida shakllantiradi. Texnologiya fanini raqamli ta’lim muhitida o‘qitishda pedagogik monitoringni joriy etish orqali o‘quv jarayonini tahliliy boshqarish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini sifatli shakllantirish, o‘qituvchining faoliyatini optimallashtirish hamda umumiy ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Zamonaviy ta’lim raqamli muhitda shakllanayotgan bir davrda, texnologiya fanini o‘qitish jarayoni ham tubdan o‘zgarib, yangi shakl va mazmunga ega bo‘lmoqda. Endilikda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda an’anaviy yondashuvlar yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shunday sharoitda pedagogik monitoring — ta’lim jarayonining ajralmas, faoliyatni boshqaruvchi va rivojlantiruvchi komponentiga aylanmoqda. U nafaqat o‘quvchini nazorat qilish vositasi, balki ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va o‘zlashtirish darajasi asosida o‘qitish strategiyasini moslashtirish uchun muhim axborot manbaidir.

Monitoring tizimi o‘zining samaradorligini ayniqsa texnologiya fanida yaqqol namoyon qiladi. Chunki bu fan doirasida o‘quvchining faolligi, ijodiy yondashuvi va amaliy faoliyati asosiy natija ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Raqamli ta’lim vositalari esa monitoring jarayonini avtomatlashtirish, natijalarni tezkorlik bilan tahlil qilish va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlash imkonini beradi.

Biroq, monitoringni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun birgina texnologik vositalar yetarli emas. Eng avvalo, o‘qituvchining raqamli savodxonligi, pedagogik tahliliy yondashuvi va monitoring natijalariga asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmasi hal qiluvchi omil sanaladi. Shu bois, texnologiya fani o‘qituvchilarini monitoring asoslarini chuqur egallashga yo‘naltirish, ularni raqamli baholash vositalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish bugungi ta’limning ustuvor vazifasidir.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya fanini raqamli ta’lim muhitida o‘qitishda pedagogik monitoringning joriy etilishi ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning individuallashtirish rivojlanishini ta’minlash va o‘qituvchining strategik faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ta’limning zamonaviy modeliga mos, samaradorlikka yo‘naltirilgan va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan yangi bosqichdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abduqodirov A. A., To‘xtasinova Sh. O., Jo‘rayev M. M. Raqamli ta’lim muhitini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar // Ta’limda innovatsiyalar. – 2023. – №2(10). – B. 45–52.
2. Андреев В. И. Педагогика: учебный курс для креативного саморазвития. – Казань: Центр инновационных технологий, 2021. – 520 с.
3. Громыко Ю. А. Цифровая трансформация образования и будущее педагогики // Педагогика. – 2021. – №4. – С. 12–20.
4. Кузьмина Н. В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Высшая школа, 2019. – 221 с.
5. OECD. Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. – OECD Publishing, 2021. – 205 p.
6. Роберт И. В. Информационно-образовательная среда и её роль в модернизации общего образования // Информатика и образование. – 2019. – №11. – С. 7–13.
7. Полат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. пособие. – М.: Академия, 2020. – 272 с.
8. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-Makers. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 174 p.



TIBBIY AMALIYOTDA INGLIZ TILINING ROLI

Fazilova Nodira Akramovna

*Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,
O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası
Ingliz tili fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy amaliyotda ingliz tilining funksional ahamiyati, zamonaviy tibbiy xizmatlar sifati va xalqaro sog‘liqni saqlash tizimlari bilan samarali integratsiyalashuvdagi o‘rni tahlil qilinadi. Global kommunikatsiya vositasi sifatida ingliz tilining tibbiy diagnostika, davolash va konsiliumlarda qo‘llanishi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va ilmiy bilimlar almashinuvidagi roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: jamiyat, xalqaro, global, muloqot, axborot, klinik, protokol, shifokor, tibbiyot, kommunikatsiya, dialog, tashxis, xato, xavf, qurilma, malaka, izlanish, jins, diniy, e‘tiqod, yo‘riqnoma.

Аннотация. В данной статье анализируется функциональное значение английского языка в медицинской практике, его роль в повышении качества современных медицинских услуг и эффективной интеграции с международными системами здравоохранения. Освещается использование английского языка как средства глобальной коммуникации в медицинской диагностике, лечении и консилиумах, а также его роль в обмене современными технологиями и научными знаниями.

Ключевые слова: общество, международный, глобальный, коммуникация, информация, клинический, протокол, врач, медицина, диалог, диагностика, ошибка, риск, устройство, квалификация, исследование, пол, религиозная, вера, руководство.

Abstract. This article analyzes the functional importance of the English language in medical practice, its role in improving the quality of modern medical services, and its effective integration with international healthcare systems. It highlights the use of English as a global communication tool in medical diagnostics, treatment, and consultations, as well as its role in the exchange of modern technologies and scientific knowledge.

Keywords: society, international, global, communication, information, clinical, protocol, doctor, medicine, dialogue, diagnosis, error, risk, device, qualification, research, gender, religious, belief, guideline.

Kirish. Bugungi axborotlashgan jamiyatda ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot tili, balki tibbiyot sohasining asosiy epistemik vositasiga aylangan. Tibbiy terminologiyaning aksariyati

ingliz tilida shakllangan bo‘lib, global sog‘liqni saqlash muassasalari, ilmiy bazalar, diagnostik vositalar, farmatsevtika sanoati va klinik protokollar aynan shu tilda olib boriladi. Shunday ekan, ingliz tilini bilish zamonaviy shifokor va tibbiyot xodimi uchun oddiy ko‘nikma emas, balki kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismidir.

Klinik amaliyotda bemor va shifokor o‘rtasidagi samarali kommunikatsiya tibbiy xizmat sifatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Global migratsiya va transchegaraviy tibbiy xizmatlar rivoji bilan birga, ko‘p hollarda tibbiy muomala ingliz tilida olib borilishi zarur bo‘lmoqda. Ayniqsa, xalqaro klinikalarda ishlovchi mutaxassislar, tibbiy turizm yo‘nalishida faoliyat yurituvchilar va chet ellik bemorlar bilan ishlaydigan shifokorlar uchun bu til vositasiz aloqa vositasidir. Ingliz tilidagi aniq va professionallikka asoslangan dialoglar tashxis qo‘yishdagi xatoliklarni kamaytiradi va bemor xavfsizligini oshiradi.

Tibbiy bilimlar doimiy ravishda yangilanib boradigan sohaga mansub. Har yili minglab ilmiy maqolalar, klinik tadqiqotlar, yangi davolash usullari va dori vositalariga oid ma’lumotlar ingliz tilida nashr etiladi. *PubMed*, *Cochrane Library*, *Elsevier*, *Medline* kabi ilmiy bazalarning asosiy qismi ingliz tilida yuritiladi. Shu boisdan, tibbiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi har bir mutaxassis o‘z kasbiy sohasidagi ilmiy yangiliklarga tezkor va to‘g‘ri kirish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun ingliz tilini yaxshi bilishi lozim.

Shuningdek, tibbiy apparatlar va diagnostik qurilmalarning aksariyati ingliz tilida boshqaruv interfeysiga ega. Elektron sog‘liqni saqlash tizimlari, laboratoriya natijalari, zamonaviy protokollar va klinik yo‘riqnomalar ham aynan ingliz tilida ishlab chiqiladi. Bu holat, albatta, shifokorning ingliz tilidagi matnlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishini taqozo etadi.

Tibbiyot xodimlarining malaka oshirish, stajirovka va ilmiy faoliyatda qatnashish imkoniyatlari ko‘p hollarda ingliz tilidagi dasturlar bilan bog‘liq. *USMLE* (United States Medical Licensing Examination), *PLAB* (Professional and Linguistic Assessments Board), *IELTS*, *OET* (Occupational English Test) kabi xalqaro imtihonlar tibbiy kadrlar uchun chet elda ishlash va o‘qish eshigini ochadi. Bu testlar nafaqat umumiy til ko‘nikmalarini, balki kasbiy kontekstda muloqot qila olish darajasini ham baholaydi.

Shuningdek, *WHO*, *CDC*, *UNICEF*, *Doctors Without Borders* kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashda ham ingliz tili asosiy aloqa vositasidir. Shu boisdan, zamonaviy shifokor nafaqat klinik bilim, balki xalqaro professional diskursni o‘zlashtira oladigan lingvistik tayyorgarlikka ham ega bo‘lishi zarur.

Tibbiy amaliyotda ingliz tilining roli bugungi kunda strategik ahamiyat kasb etadi. U shifokorning klinik faoliyati, ilmiy izlanishi, malaka oshirish jarayoni va bemor bilan muloqot sifatini belgilovchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu boisdan, tibbiy oliy ta’lim tizimida ingliz tilini o‘rgatishga faqat umumiy til darslari sifatida emas, balki kasbiy integratsiyalashgan o‘quv komponenti sifatida qarash zarur. Faqat shundagina raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi va global tibbiyot maydoniga mos kadrlar yetishtiriladi.

Globalizatsiya jarayonlari va migratsiyaning kuchayishi zamonaviy tibbiyot amaliyotini transmilliy muhitga aylantirdi. Bugungi kunda ko‘plab shifoxonalar va klinikalarda turli madaniyat va millat vakillaridan iborat bemorlarga xizmat ko‘rsatilmoqda. Bunday sharoitda chet ellik bemorlar bilan samarali, professional va etika me‘yorlariga mos muloqot olib borish tibbiy xizmat sifatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ingliz tilini bilish, madaniyatlararo muloqot qoidalarini tushunish va bemor markazli yondashuvga ega bo‘lish bugungi tibbiyot xodimlarining muhim ko‘nikmalaridan biri hisoblanadi.

Chet ellik bemorlar bilan muloqotdagi asosiy qiyinchiliklar: **Til to‘siqlari** – Shifokor va bemor o‘rtasida umumiy tilning yo‘qligi noto‘g‘ri tushunish, tashxisda xatolik, bemorning shikoyatini noto‘g‘ri baholashga olib kelishi mumkin; **Madaniy tafovutlar** – Har bir xalqning sog‘liq, kasallik, o‘lim, jismoniy kontakt, jinsiy muomala va xijolatli mavzularga munosabati turlicha bo‘lishi mumkin; **Yozma hujjatlarni tushunmaslik** – Chet ellik bemorlar tibbiy hujjatlar, rozilik shakllari, epikriz va retseptlarni tushunmasligi xavfli bo‘lishi mumkin; **Noverbal aloqa tafovutlari** – Nigoh, imo-ishora, tana tili kabi noverbal elementlar ham madaniyatga qarab turlicha talqin qilinadi.

Samarali muloqot strategiyalari: **Oddiy va ravon ingliz tilida so‘zlash.** Shifokor bemor bilan professional, lekin soddalashtirilgan ingliz tilida gaplashishi lozim. Murakkab tibbiy terminlar iloji boricha tushunarli so‘zlar bilan izohlanishi kerak; **Faol tinglash va tasdiqlovchi savollar berish.** Bemorni e‘tibor bilan tinglab, so‘zlarini to‘g‘ri tushunganini tasdiqlovchi savollar orqali aniqlik kiritish muhim: “Do you mean...?”, “Can you show me where the pain is?”; **Vizuallashtirish vositalaridan foydalanish.** Diagrammalar, illyustratsiyalar va tarjima qilinadigan ilovalar bemor tushunishini osonlashtiradi. Ko‘plab mobil ilovalar real vaqtda tibbiy tarjima xizmatini taklif qiladi; **Madaniyatlararo sezgirlik.**

Shifokor bemorning urf-odatlarini, diniy e‘tiqodlari va madaniy qarashlarini hurmat qilish orqali ishonchli muhit yaratadi. Masalan, jinsga oid masalalarda ayol bemor bilan ishlaganda ayol shifokor jalb etilishi mumkin; **Yozma ma‘lumotlarni ko‘p tillarda taqdim etish.** Bemorga beriladigan risola, rozi-norozi shakllari yoki dori qabul qilish ko‘rsatmalari ingliz tili bilan bir qatorda boshqa til variantlari bilan ham taqdim etilsa, bu xavfsizlik va samaradorlikni oshiradi.

Chet ellik bemorlar bilan ishlaydigan tibbiyot xodimlari ingliz tilini faqat grammatika darajasida emas, balki kasbiy kommunikatsiya kontekstida o‘rganishi lozim. Shuningdek, tibbiy ingliz tili kurslari, madaniyatlararo kommunikatsiya treninglari va simulyatsiyalangan holatlarda ishtirok etish ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

Zamonaviy tibbiy amaliyotda chet ellik bemorlar bilan muloqot qilish faqat til bilishga emas, balki madaniy sezgirlik, empatiya va professional yondashuvga ham bog‘liqdir. Shifokorning lingvistik va madaniyatlararo kompetensiyasi tibbiy xizmatning sifatini oshirish, bemor ishonchini qozonish va xatoliklar xavfini kamaytirishning eng muhim omillaridandir. Shu sababli, tibbiyot xodimlari uchun ingliz tilini kasbiy ehtiyojlar asosida puxta o‘zlashtirish strategik ahamiyatga egadir.

Xalqaro protokollar va yo‘riqnomalarni tushunish: tibbiy amaliyotda standartlashtirish sari qadam

Zamonaviy tibbiyotda amaliyot faqat klinik tajriba yoki milliy odatlar asosida emas, balki ilmiy asoslangan, aniq mezonlarga tayangan standartlar asosida olib borilishi zarur. Xalqaro protokollar (clinical guidelines, pathways, care standards) va yo‘riqnomalar (manuals, SOPs) tibbiyotning har bir bo‘g‘inida – tashxis qo‘yishdan tortib, davolash, profilaktika va reabilitatsiyagacha – yagona yondashuvni ta‘minlaydi. Ularni to‘g‘ri tushunish va tatbiq etish esa har bir shifokorning zamonaviy bilim va ko‘nikmalariga bog‘liqdir.

Xalqaro protokollar va yo‘riqnomalar – bu sog‘liqni saqlash sohasida xalqaro miqyosda tan olingan tashkilotlar (masalan, WHO, CDC, NICE, EMA, IDSA) tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlardir. Ular quyidagi toifalarga bo‘linadi: Klinik amaliyot yo‘riqnomalari (*Clinical Practice Guidelines*) – aniq kasalliklar bo‘yicha tashxis va davolash bosqichlarini belgilaydi; Standart amaliyot protseduralari (*Standard Operating Procedures – SOPs*) – harakatlar ketma-ketligini batafsil bayon qiladi; Qarama-qarshi holatlar algoritmlari – klinik qaror qabul qilishda yordam beradigan qaror daraxtlari (decision trees); Farmakologik yo‘riqnomalar – dorilarni buyurish, dozasi, kontrindikatsiyalari va monitoringi bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Ularni tushunishdagi asosiy muammolar: Murakkab terminologiya – Yo‘riqnomalar ilmiy va kasbiy terminlar bilan to‘la bo‘lib, umumiy ingliz tilini bilish yetarli bo‘lmaydi; **Tarkibiy murakkablik** – Protokollar ko‘p hollarda algoritmik, ko‘p bosqichli va grafik jihatdan murakkab bo‘ladi; **Kontekstual farqlar** – Har bir protokol o‘ziga xos epidemiologik, ijtimoiy yoki iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan bo‘lishi mumkin; **Yangilanishlar** – Xalqaro protokollar tez-tez yangilanadi, shuning uchun doimiy kuzatuv va tahlil talab etiladi.

Tushunish va tatbiq qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari: Tibbiy ingliz tilini o‘zlashtirish. Har bir shifokor ilmiy matnni tahlil qilish, asosiy fikrni ajratib olish, atamalarning sinonimlarini aniqlash va tavsiyalarni klinik faoliyatga moslashtira olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak; **Klinik tafakkurni rivojlantirish** Protokol asosida qaror qabul qilish – bu shunchaki matnni o‘qish emas, balki kasallik holatiga mos yechimni tanlash, tahlil qilish va moslashtirishdir; **Multidisiplinar o‘rganish.** Protokollarni tushunish jarayonida shifokor, farmatsevt, hamshira va laboratoriya xodimi birgalikda harakat qilsa, yaxshiroq natijalar olinadi; **Simulyatsiya va amaliy mashg‘ulotlar.** Klinik protokollarni o‘rganish bo‘yicha interaktiv mashg‘ulotlar, keys-stadiylar (case study) orqali bilimni amaliy ko‘nikmaga aylantirish samarali natija beradi.

Xalqaro yo‘riqnomalar bemorning xavfsizligini ta‘minlash, davolash sifatini oshirish va sog‘liqni saqlash tizimining resurslarini optimal ishlatish uchun xizmat qiladi. Ularning asosiy fazilatlar: Ilmiy dalillarga asoslanganligi (evidence-based); Kasallikni tizimli tahlil qilishi; Global qo‘llanilishi va moslashuvchanligi; Qaror qabul qilishni standartlashtirishi

Xalqaro protokollar va yo‘riqnomalar – bu zamonaviy tibbiyotning intellektual asosi bo‘lib, ularni chuqur o‘zlashtirish shifokorning kasbiy saviyasi va bemorga ko‘rsatilayotgan

xizmat sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni belgilaydi. Ularni tushunish uchun shifokor nafaqat kasbiy bilimga, balki tibbiy ingliz tiliga, tahliliy fikrlashga va xalqaro tajribalarni qabul qila oladigan ochiq ongga ega bo‘lishi zarur. Shunday kompetensiyalar tibbiyot xodimini global miqyosdagi sog‘liqni saqlash tizimining to‘laqonli ishtirokchisiga aylantiradi.

21-asr tibbiyoti raqamli transformatsiya bosqichiga kirib keldi. Telemeditsina – bu sog‘liqni saqlash xizmatlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali masofadan turib ko‘rsatish tizimi bo‘lib, u bemorlar va shifokorlar o‘rtasidagi masofani yo‘qqa chiqaradi. Ayniqsa, pandemiya davrida telemeditsina zarur va samarali vositaga aylandi. Bugungi kunda u transchegaraviy tibbiy hamkorlikning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Telemeditsina quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: Telekonsultatsiya – shifokorlar yoki shifokor va bemor o‘rtasida masofaviy maslahatlashuv (video, telefon, chat orqali); Telemonitoring – surunkali kasalliklar bilan yashayotgan bemorlarning holatini doimiy kuzatib boorish; Telediagnostika – tahlil, rasm, rentgen va boshqa ma’lumotlarni masofadan turib baholash; Telejarrohlik – robot texnologiyalar yordamida uzoqdan turib amaliyot o‘tkazish (kamdan-kam holatlarda qo‘llaniladi); Tibbiy ta’lim va masofaviy treninglar – shifokorlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun zarur.

Transchegaraviy hamkorlikda telemeditsinaning roli: Global tibbiy ekspertizaga kirish. O‘z davlatida mavjud bo‘lmagan yuqori malakali mutaxassislar bilan maslahatlashuv imkoniyati. Masalan, o‘zbek bemori Germaniya yoki Hindistondagi mutaxassis bilan bog‘lanishi mumkin; Qiyosiy diagnostika va ikkinchi fikr (second opinion). Og‘ir klinik holatlarda boshqa mamlakatdagi mutaxassisdan mustaqil baho olish, noto‘g‘ri tashxis xavfini kamaytiradi; Tibbiy turizmni soddalashtirish. Bemor safar oldidan barcha tibbiy hujjatlarni raqamli tarzda jo‘natadi, dastlabki maslahatni oladi, bu esa tashrifni ancha osonlashtiradi; Favqulodda vaziyatlarda tezkor koordinatsiya. Epidemiya, tabiiy ofatlar yoki urush zonalarida telemeditsina orqali xalqaro gumanitar tibbiy yordam ko‘rsatiladi.

Telemeditsinaning afzalliklari: Vaqt va masofa tejaladi; Kasalxonaga tashrif soni kamayadi; Sifatli tibbiy xizmatga kirish imkoniyati ortadi; Shifokorlar o‘rtasida xalqaro tajriba almashinuvi kuchayadi

Cheklovlari: Internet va texnologik vositalarning yetishmovchiligi; Huquqiy va etik masalalar (maxfiylik, rozilik, malaka); Diagnostik cheklovlar – ba’zi tahlillarni masofadan baholab bo‘lmaydi; Tillar va madaniy tafovutlar muloqotni murakkablashtiradi

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimi telemeditsina infratuzilmasini rivojlantirishga jiddiy e’tibor bermoqda. 2023–2025 yillarda sog‘liqni saqlashni raqamlashtirish bo‘yicha davlat dasturlarida masofaviy xizmatlar ko‘rsatish, viloyatlarda tibbiy markazlarni bog‘lash, elektron hujjat aylanishini joriy qilish rejalashtirilgan.

Transchegaraviy hamkorlik doirasida Rossiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Hindiston va boshqa davlatlar bilan tajriba almashish, o‘zaro telekonsultatsiyalar tashkil qilish orqali zamonaviy xizmatlar qamrovi kengaymoqda.

Xulosa. Telemeditsina va transchegaraviy hamkorlik bugungi sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, u tibbiy xizmatlarni global miqyosda samarali, qulay va tezkor shaklda tashkil etish imkonini beradi. Uning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun yuqori sifatli texnologik infratuzilma, shifokorlarning raqamli savodxonligi, tibbiy ingliz tilini bilish darajasi va xalqaro hamkorlik madaniyatini shakllantirish muhimdir. Bu yo‘nalish kelajakda tibbiy xizmatlarning tengligini va sifatligini ta’minlovchi asosiy omillardan biriga aylanishi kutilmoqda.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akramovna, F. N. (2022). Need for learning English for medical students. *Ta’lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali*, 1, 150-152.
2. Akramovna, F. N. (2022). Methods of Teaching English in Higher Education in Uzbekistan. *FAN, TA’LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 3(4), 248-251.
3. Akramovna, F. N. (2022). IMPORTANCE OF TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE IN HIGHER EDUCATION IN UZBEKISTAN. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(9), 83-86.
4. Nodira, F., & Madrahimova, M. IMPROVING ORAL SPEECH OF FOREIGN LANGUAGE LEARNERS. *Султанов ГН–ректор, д. м. н. Зам. главного редактора*, 409.
5. Mastura, J. (2023). Medicine of ancient Asian peoples. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 405-411.
6. Mastura, J. (2021). Applying social forms: the project method in teaching foreign languages. *Бюллетень науки и практики*, 7(11), 354-358.
7. Mastura, J. R. (2022). THE ROLE OF INDEPENDENT WORDS IN THE FORMATION OF WORD COMBINATIONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(07), 1-7.



FIZIKADAN MASALALAR YECHISHNI MAQBUL USULLARI.

*A.S.Tolipov, M. O. Mustafoyeva,
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi,
mustafoyevamunojat@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fanidan masalalar yechish usuli va bu usullar orqali masala yechish namunalari keltirilgan. Fizika fanidan sifatiy, eksperimental, grafik va mantiqiy masalalarning mazmun mohiyati hamda masalalarni yechish ketma-ketliklari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: fizikadan masalalar, masala yechish, mantiqiy masalalar, grafik masalalar, eksperimental masalalar, sifatga oid masalalar

ACCEPTABLE METHODS FOR SOLVING PROBLEMS IN PHYSICS.

Annotation: This article presents methods for solving problems in physics and examples of solving problems using these methods. The content and essence of qualitative, experimental, graphic and logical problems in physics, as well as the sequences of solving problems, are presented.

Keywords: problems in physics, problem solving, logical problems, graphic problems, experimental problems, qualitative problems

KIRISH:

Bizga ma’lumki, maktab ta’lim jarayonida fizika fanini o‘qitishdan asosiy maqsad, birinchidan, tabiatning fundamental qonunlarini ongli ravishda ilmiy asosda tushuntirish, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarash va mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish, texnikada va turmushda foydalanilayotgan uskuna va vositalarning ishlash prinsipini tushuntiruvchi fizik jarayonlar haqida tasavvurlarni shakllantirish bo‘lsa, ikkinchidan, ta’lim olishni davom ettirish, olgan bilimlarini chuqurlashtirish va ilmiy izlanishlarini davom ettirish uchun mustahkam zamin yaratishdan iboratdir. Fizika tabiat hodisalarining eng sodda va shu bilan birga eng umumiy qonunlarini, materiyaning xossalari, tuzilishi va uning harakat qonunlarini o‘rganadigan fandır.

Fizikani nazariy va amaliy izlanishlar orqali o‘rganish mumkin. Fizika so‘zi tabiat degan ma’noni anglatishini hammamiz bilamiz. Bu fikr fizika bizning real hayotimizni o‘rganishini va hayotning har bir burchagiga etib borganligini bildiradi. Biz o‘rganadigan yoki uchratadigan biror hodisa yoki voqea yoqki, uni fizika o‘rganmasa: sovuq holatdagi yaltiroq qurtning

yaltirashi-yu, shimol shafaqining tovlanishi, kamalakning hosil bo‘lishi . . . bular hammasini fizika fani o‘rganadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI:

Fizikani nazariy o‘rganish atrof muhitga ilmiy jihatdan qarashdan boshlanadi. Bo‘layotgan har bir hodisa va jarayonning fizik ahamiyatini fikrlash nazariy jihatdan o‘rganishning ilk bosqichidir.

Fizika fanidan masalalar yechish usullarini bilish o‘quvchilarning tabiiy hodisa va jarayonlarga ongli yondosha olish, berilgan masalani oson hal qilish va shu orqali nazariy ma’lumotlarni kengroq anglash hamda to‘g‘ri yondoshisha olish imkoniyatini beradi. Amaliy o‘qitish avvalombor masala yechish nazarda tutiladi. Fizikadan masalalar yechishda o‘quvchilar birinchi navbatda masala mohiyatini to‘liq anglab, tasavvur qila olishi zarur. Berilgan kattaliklarning holatiga, xalqaro birliklar sistemasidagi birligiga va shu berilgan kattaliklarni qaysi birliklar bilan bog‘liqligini e’tiborga olishadi. Shu asnoda o‘quvchilarda sinchkovlik, har bitta hodisani kichik elementlarigacha e’tiborga olish xususiyatlari shakllanadi.

NATIJALAR:

Masala - bu javobini topish darhol ko‘rinmaydigan savoldir. Masala yechish usullarini bilgan o‘quvchi uchun esa bu muammoligicha qolib ketmaydi.

Masala yechish bu fizikaning ajralmas qismi bo‘lib, u nazariyani o‘qib-o‘rganish, amaliyotda kuzatish va ma’ruzalarni tinglashdan ko‘ra faolroq yondashuvni talab qiladi. O‘quvchilar fizikani faqat nazariy jihatdan o‘rganish orqali bilimga ega bo‘lishlari mumkin, ammo qarshisidagi fizik masalani hal qilish uchun masala yechish va uning usullarini bilish shart. Masala yechish jarayonida ko‘proq e’tibor qaratish lozim bo‘lgan quyidagicha qismlarga ajratish mumkin:

- Masalaning shartini qayta – qayta o‘qish orqali masala shartining mantiqiy holati bilan to‘liq tanishish;

- Masala shartida berilgan hamda masala uchun shart bo‘lgan diomiy kattaliklarni yozib olish. Bunda barcha kattaliklarni bir xil birlikka keltirish maqsadga muvofiq. Odatda, barcha birliklar xalqaro birliklar sistemasiga keltirish masala yechimini ongli ravuishda tasavvur qila olish uchun qulaylik tug‘diradi;

- Masalaga tegishli bo‘lgan fizik qonuniyatlar va qoidalarni aniqlash, tegishli fizik tenglamalarni aniqlash. Masala yechishning turli usullari bo‘lishi mumkin, shuning uchun tegishli bo‘lgan yechim turi boyicha guruhlash;

- Iloji bo‘lsa masalaga tegishli rasmi yoki grafigini chizish. Bu orqali tushunish va tasavvur qilish imkoniyati kengayadi;

- Aniqlangan yoki keltirib chiqarilgan fizik tenglamadan noma’lum kattaliklarni matematik yo‘l bilan keltirib chiqarish;

- Keltirib chiqarilgan fizik tenglamaga ma’lum bo‘lgan qiymatlarni va birliklarni qo‘yib chiqish hamda matematik hisob-kitoblarni amalga oshirish.

- Yakuniy javob to‘g‘ri va to‘g‘ri birliklarga ega ekanligiga ishonch hosil qilish hamda masala yechimi tufayli hosil bo‘lgan kattaliklar mantiqiy jihatdan masala sharti asosida so‘ralgan yechimga asosiy javob bo‘la oladimi? degan savolga javob berish.

MUHOKAMA:

Quyida fizikadan masalalar yechish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar keltiramiz:

1. R radiusli shar φ potensialgacha 2R radiusli shar 2φ potensialgacha zaryadlandi. Agar sharlar bir-biriga tekkizilsa, ikkinchi shardagi zaryad miqdori qanday o‘zgaradi?

Berilgan: $R_1=R$, $\varphi_1=\varphi$, $R_2=2R$, $\varphi_2=2\varphi$. Topish kerak: $\frac{q_2'}{q_2}=?$

Yechilishi: Bu masala yechimini topishimiz uchun quyidagi shartdan foydalanamiz:

$$\begin{cases} q_1 + q_2 = q_1' + q_2' \\ \varphi_1' = \varphi_2' \end{cases}$$

Shartga ko‘ra sharlarning tekkizilmasdan oldingi zaryadlarining yig‘indisi tekkizilgandan keying zaryadlar miqdoriga teng hamda ikkala sharda potenciallari bir xil qiymatga ega bo‘lishi shart.

Sharning elektrostatik potentsiali ifodasidan potentsialni zaryad orqali ifodalaymiz:

$$\varphi = k \frac{q}{r}$$

Bundan zaryad miqdorini topsak

$$q = \frac{\varphi r}{k}$$

Yuqoridagi sistemani soddalashtiramiz:

$$\frac{\varphi_1 r_1}{k} + \frac{\varphi_2 r_2}{k} = \frac{\varphi_1' r_1}{k} + \frac{\varphi_2' r_2}{k}$$

Bu yerdan keyingi potenciallar tengligi sababli uni aniqlashimiz mumkin:

$$\varphi' = \frac{\varphi_1 r_1 + \varphi_2 r_2}{r_1 + r_2}$$

Kerakli qiymatni topish – ishchi ifodani yaratamiz:

$$\frac{q_2'}{q_2} = \frac{\varphi_2' r_2}{k} \cdot \frac{k}{\varphi_2 r_2} = \frac{\varphi_1 r_1 + \varphi_2 r_2}{(r_1 + r_2) \varphi_2}$$

Berilgan qiymatlarni o‘rniga qo‘yib hisoblashlarni amalga oshiramiz:


$$\frac{q_2'}{q_2} = \frac{\varphi R + 2\varphi \cdot 2R}{(R + 2R)2\varphi} = \frac{5}{6}$$

Javob: Ikkinchi sharning zaryadi 1,2 marta kamayar ekan.

2 – masala. Ikki sharcha bir xil uzunlikdagi iplar yordamida bir nuqtaga osilgan va bir manbadan zaryadlangan. Sharchalar zichligi ρ va dielektrik sindiruvchanligi ε bo‘lgan suyuqlikka botirilganda iplar orasidagi burchak o‘zgarmasligi uchun sharchaning zichligi qanday bo‘lishi kerak?

Berilgan: ρ , ε Topish kerak: $\rho_1=?$

Yechilishi: Bu masalani ishlash uchun uning grafik ko‘rinishini hosil qilib olishimiz shart(1-holat). Bu holda sharchalarga ta’sir etuvchi kuchlarning bog‘lanishini hosil qilib olamiz:



$$\operatorname{tg} \alpha = \frac{F_{Kl}}{P} = \frac{k|q_1||q_2|}{mgr^2} = \frac{k|q_1||q_2|}{\rho_1 Vgr^2}$$

Suyuq dielektrikka tushirilgach sharchalarni chiqib chiqaruvchi kuch – Arximed kuchi ham ta’sir ko‘rsatadi (2-holat). Bu holda sharchalarga ta’sir etuvchi kuchlarning bog‘lanishini hosil qilib olamiz:

$$\operatorname{tg} \beta = \frac{F_{Kl}}{P - F_A} = \frac{k|q_1||q_2|}{Vg\epsilon r^2(\rho_1 - \rho)}$$

Bu yerda ρ_1 ni sharchalar zichligi olindi.

Iplar orasidagi burchaklar o‘zgarmaganligi sababli $\alpha = \beta$ deb, nisbatni 1 ga tenglab olishimiz mumkin:

$$\frac{\operatorname{tg} \beta}{\operatorname{tg} \alpha} = \frac{k|q_1||q_2|}{Vg\epsilon r^2(\rho_1 - \rho)} \cdot \frac{\rho_1 Vgr^2}{k|q_1||q_2|} = \frac{\rho_1}{\epsilon(\rho_1 - \rho)} = 1$$

Bu ifodadan aniqlashimiz zarur bo‘lgan kattalikni topamiz:

$$\text{Javob: } \rho_1 = \frac{\epsilon \rho}{\epsilon - 1}$$

3 – masala. Rombning uchlariga 128 nC, 38 nC, 416 nC va 70 nC nuqtaviy zaryadlar joylashtirildi. Romb markazida hosil bo‘lgan maydon kuchlanganligini aniqlang. Rombning diagonallari 96 cm va 32 cm.

Berilgan: $q_1 = 128 \text{ nC}$, $q_2 = 38 \text{ nC}$, $q_3 = 416 \text{ nC}$, $q_4 = 70 \text{ nC}$, $d_1 = 96 \text{ cm}$, $d_2 = 32 \text{ cm}$


Yechilishi: Bir vaqtning o‘zida bir nuqtada hosil qilingan elektrosataik maydon kuchlanganligi ularning vektorlari yig‘indisiga teng(superpozitsiya prinsipi):

$$\vec{E} = \vec{E}_1 + \vec{E}_2 + \vec{E}_3 + \vec{E}_4$$

Bu vektor ifodalarni chizmaga ko‘ra skalyar ko‘rinishda quyidagicha yozib olamiz:

$$\begin{cases} E_{13} = E_3 - E_1 \\ E_{24} = E_4 - E_2 \end{cases}$$

Natijaviy maydon kuchlanganligi Pifagor teoremasiga ko‘ra



$$E = \sqrt{E_{13}^2 + E_{24}^2}$$

umumiy holda

$$E = \sqrt{(E_3 - E_1)^2 + (E_4 - E_2)^2}$$

Nuqtaviy zaryadning maydon kuchlanganligi formulasi

$$E = k \frac{|q|}{r^2} \text{ dan har bir holat uchun hosil qilib, ishchi ifoda yaratamiz:}$$

$$E = \frac{1}{\pi \varepsilon_0} \sqrt{\left(\frac{q_3 - q_1}{d_1^2}\right)^2 + \left(\frac{q_4 - q_2}{d_2^2}\right)^2} = 16 \text{ kV/m}$$

Javob: 16 kV/m.

Fizika fanini nazariy jihatdan tushuna olish natijasida har bir hodisa va jarayonlar yanada yaqqol va jilodor bo‘lib ko‘rinadi, xuddiki, oq-qora dunyo fizika asosida rang-barang dunyoga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.S.No‘monxo‘jayev, A.Xudoyberganov va boshqalar “Fizika” I qism.
2. I.O.Ahmedjanov, R.B.Bekjonov Fizika (oliy o‘quv yurtiga kiruvchilar uchun) Toshkent. – 1998 y.
3. Мустафоев А. Информатика fanini o‘qitishda masofaviy ta’lim tizimidan foydalanishning qulayliklari //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 191-193.
4. Мустафоева М. Talabalarni induvidual ta ‘lim trayektoriyasi orqali oqitishning samaradorligi //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 88-90.
5. Мустафоева М. Induvidual ta ‘lim trayektoriyasi-talabaning ta ‘lim sohasidagi shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirishning individual yonalishi //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 87-88.
6. Oltinbekovna M. M. PSYCHOLOGICAL APPROACH TO TEACHING A FUTURE PHYSICS TEACHER //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 86-92.
7. Oltinbekovna M. M. KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN TA'LIM: NAZARIYA VA AMALIYOT MUAMMOLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 622-625.

8. Mustafoyev E. Fizikadan talabalarning amaliy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shartlar-sharoitlari //PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 74-79.

9. Mustafoyev A. BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA MEDIASAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 33-35.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK:3713

FLIPPED LEARNING IN LANGUAGE EDUCATION: A SHIFT TOWARD ACTIVE ENGAGEMENT AND AUTONOMY

Dilnoza Shamuratova Jamolovna,

*Senior teacher, Department of English Applied Disciplines, Uzbekistan State World
Languages University*

E-mail: dizamura5@gmail.com

Tel: (97) 7676787

Based on the review of TSPU professor, Doctor of Philosophy, G. Makhkamova

Nozima Tojiboyeva Valijon qizi

Student of Uzbekistan State World Languages University

E-mail: nozimataadjibayeva85@gmail.com

Tel: (88) 1018500

Shahrizoda Buriyeva Bahodir qizi

Student of Uzbekistan State World Languages University

E-mail: shahrizodaburieva@gmail.com

Tel: (90) 9306604

Abstract Flipped learning has emerged as a powerful pedagogical model in modern education, especially in language learning, where student engagement, autonomy, and active participation are critical. This study investigates the impact of flipped learning on the language performance and learning attitudes of university students studying English as a Foreign Language (EFL). Sixty second-year students at Uzbekistan State World Languages University (UzSWLU) participated in a quasi-experimental study over eight weeks. The control group received traditional instruction, while the experimental group engaged in flipped learning, accessing content online before class and using in-person sessions for communicative tasks. The results showed significant improvement in language proficiency, learner motivation, and classroom interaction in the flipped classroom. This study concludes that flipped learning enhances EFL instruction by promoting active, learner-centered engagement and supporting long-term language development.

Keywords Flipped learning, EFL, language education, active learning, student autonomy, technology in education

ПЕРЕВЕРНУТОЕ ОБУЧЕНИЕ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ: ПЕРЕХОД
К АКТИВНОМУ ВОВЛЕЧЕНИЮ И АВТОНОМИИ

Аннотация Перевернутое обучение стало мощной педагогической моделью в современном образовании, особенно в изучении языка, где вовлеченность, автономия и активное участие студентов имеют решающее значение. В этом исследовании изучается влияние перевернутого обучения на успеваемость и отношение к обучению студентов, изучающих английский язык как иностранный (EFL). Шестьдесят студентов второго курса Узбекского государственного университета мировых языков (UzSWLU) приняли участие в квазиэкспериментальном исследовании в течение восьми недель. Контрольная группа получала традиционное обучение, в то время как экспериментальная группа занималась перевернутым обучением, получая доступ к контенту онлайн перед занятиями и используя очные сессии для коммуникативных задач. Результаты показали значительное улучшение владения языком, мотивации учащихся и взаимодействия в классе в перевернутом классе. В этом исследовании делается вывод, что перевернутое обучение улучшает обучение EFL, способствуя активному, ориентированному на учащихся вовлечению и поддерживая долгосрочное языковое развитие.

Ключевые слова Перевернутое обучение, EFL, языковое образование, активное обучение, студенческая автономия, технологии в образовании

TIL TA'LIMIDA AYTILGAN O'RGANISH: FAOLI BOSHQARISH VA AVTONOMIYAGA SHIFT

Annotatsiya Flipped ta'lim zamonaviy ta'limda, ayniqsa, o'quvchilarning faolligi, mustaqilligi va faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega bo'lgan til o'rganishda kuchli pedagogik model sifatida paydo bo'ldi. Ushbu tadqiqot ingliz tilini chet tili (EFL) sifatida o'rganayotgan universitet talabalarining til ko'rsatkichlari va o'rganishga bo'lgan munosabatiga teskari ta'limning ta'sirini o'rganadi. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O'zDJTU) 2-kursning oltmish nafar talabasi sakkiz hafta davomida kvazi-eksperimental tadqiqotda ishtirok etdi. Nazorat guruhi an'anaviy ta'lim oldi, eksperimental guruh esa teskari o'rganish, darsdan oldin onlayn tarkibga kirish va kommunikativ vazifalar uchun shaxsiy mashg'ulotlardan foydalanish bilan shug'ullandi. Natijalar tilni bilish darajasi, o'quvchilarning motivatsiyasi va o'zgaruvchan sinfda sinfdagi o'zaro munosabatda sezilarli yaxshilanishni ko'rsatdi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, teskari ta'lim faol, o'quvchiga yo'naltirilgan ishtirokni rag'batlantirish va uzoq muddatli til rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali EFL o'qitishni yaxshilaydi.

Kalit so'zlar Flipped ta'lim, EFL, til ta'limi, faol o'rganish, talabalar avtonomiyasi, ta'limda texnologiya

Introduction

In the evolving landscape of education, the integration of technology and student-centered methodologies has become increasingly essential. Among the innovative teaching strategies gaining momentum is flipped learning, a model that reverses the traditional lecture-homework paradigm. In a flipped classroom, students first encounter new material outside the

classroom—usually through videos, readings, or digital modules—and then use class time for discussion, collaboration, and problem-solving activities (Bergmann & Sams, 2012). Each student learns at their own pace - some re-watch the video, others prepare in advance and this method develops independent learning skills.

Flipped learning aligns well with the goals of language education, particularly in English as a Foreign Language (EFL) contexts, where interaction, practice, and exposure are crucial. Traditional teaching methods often limit learners' opportunities to actively use the language in class. By contrast, flipped learning frees up classroom time for communicative tasks, peer collaboration, role-play, writing workshops, speaking clubs, and teacher feedback.

This study explores the application of flipped learning at Uzbekistan State World Languages University (UzSWLU), focusing on its effects on language proficiency, student motivation, and classroom engagement. The study aims to contribute empirical evidence to the growing field of flipped pedagogy in EFL education.

Literature Review

Flipped learning has emerged as a significant pedagogical innovation in recent years, with its foundations rooted in the broader frameworks of blended and online learning. Particularly, it draws on learner-centered educational theories that emphasize autonomy, active engagement, and the construction of knowledge through experience (Bishop & Verleger, 2013). In contrast to traditional classroom settings—where new content is introduced during lectures and practiced at home—flipped learning repositions the acquisition of new material outside the classroom. Students engage with instructional content independently through video lectures, digital readings, and multimedia resources before class, while classroom time is dedicated to collaborative, communicative, and problem-solving activities that promote deeper understanding (Abeysekera & Dawson, 2015; Tucker, 2012).

This pedagogical shift aligns closely with constructivist theories of learning, notably Vygotsky's (1978) emphasis on social interaction and the Zone of Proximal Development (ZPD), where learners benefit from guidance as they perform tasks slightly beyond their current ability. In flipped learning environments, the classroom becomes a space for guided interaction, feedback, and contextual language use, thereby reinforcing and expanding upon the knowledge gained independently.

In the context of language education, especially English as a Foreign Language (EFL), flipped learning has shown considerable promise. Mehring (2016) argues that the model supports the dual process of input and output development by providing students with extensive pre-class exposure to authentic language materials and reported in a study that through the flipped classroom approach, learners acquired their knowledge more firmly and had better final test results. This, in turn, enhances their receptive skills—particularly listening and reading—while preparing them for more meaningful speaking and writing tasks during in-class sessions. Moreover, flipped learning model develops learners' new vocabulary and develops independent learning skills in an EFL environment. Similarly, Egbert, Herman, and Lee (2015) point out that

flipped instruction allows for more individualized pacing, enabling learners to revisit difficult concepts and language forms as needed.

Furthermore, flipped classrooms have been found to reduce learner anxiety and promote greater participation. Hung (2015) observed that students in flipped language courses reported feeling more confident and less stressed, largely due to the opportunity to process new material in a low-pressure environment before being expected to use it communicatively in class. One of the most consistent comments from the lecturers who have implemented flipped learning within the faculty was that it was much more fun to teach than a lecture. These findings are echoed by Webb and Doman (2016), who note that flipped instruction supports the development of learner autonomy, critical thinking, and more sustained engagement with the language learning process—key attributes for successful language acquisition in university contexts.

Another notable benefit of flipped learning is the potential to maximize limited classroom time. In EFL settings, where exposure to the target language may already be constrained, flipped models provide learners with additional hours of language input and encourage out-of-class practice (Basal, 2015). Classroom time can then be used more productively for interactive activities that focus on pronunciation, speaking fluency, grammar in use, and peer collaboration. This aligns with Bloom’s revised taxonomy, in which lower-order cognitive processes (such as remembering and understanding) are addressed before class, while higher-order skills (such as applying, analyzing, and evaluating) are developed through classroom engagement (Anderson & Krathwohl, 2001).

Despite these strengths, implementing flipped learning is not without its challenges. One of the primary concerns is ensuring that students consistently engage with the pre-class materials. As Lo and Hew (2017) note, learners who fail to complete preparatory work may be unprepared for in-class activities, thus limiting the effectiveness of the flipped model. Motivation, time management, and digital literacy can all influence how effectively students interact with out-of-class content (Akçayır & Akçayır, 2018). Instructors must also monitor student progress more closely and offer scaffolding to those who fall behind.

From a teacher’s perspective, flipped learning requires substantial upfront investment. Creating high-quality instructional videos, designing interactive activities, and managing a learning management system (LMS) demand time, technological skills, and institutional support (Zainuddin & Halili, 2016). Teachers may also need professional development to shift from a lecture-oriented role to that of a facilitator and coach, which may not come naturally in traditionally structured educational environments (Chen Hsieh et al., 2017).

Nevertheless, the increasing availability of digital tools and growing familiarity with technology among students provide favorable conditions for adopting flipped models. Moreover, recent studies emphasize that when properly implemented, flipped learning can foster more equitable and inclusive classroom practices. For instance, students with different learning styles or varying levels of language proficiency can access and engage with materials at their own pace, enabling differentiated instruction (Sun & Wu, 2016).

In conclusion, the literature strongly supports flipped learning as an effective and innovative approach to language instruction. It transforms passive learning environments into dynamic spaces of interaction and exploration, giving students more control over their learning while promoting communicative competence and critical thinking. While it requires thoughtful design and institutional commitment, the pedagogical benefits of flipped learning—particularly in EFL education—make it a valuable model for modern language classrooms.

Research Methodology

3.1 Research Design

This study employed a quasi-experimental design with a control group and an experimental group to investigate the impact of flipped learning on students' language proficiency, motivation, and classroom engagement. The use of a pre-test and post-test design allowed for the measurement of both immediate learning gains and attitudinal shifts among learners.

3.2 Participants

The participants were 60 second-year undergraduate students enrolled in the English Philology department at Uzbekistan State World Languages University (UzSWLU). All participants had similar academic backgrounds and English language proficiency, as determined by their placement scores and previous semester grades.

The students were randomly assigned into two equal groups:

- Control Group (n = 30): Received instruction through a traditional, teacher-centered model.
- Experimental Group (n = 30): Participated in flipped learning, accessing instructional content outside class and using class time for communicative and collaborative tasks.

Participation in the study was voluntary. Informed consent was obtained from all students, and ethical guidelines were followed throughout the research process.

The research was conducted over an eight-week period during the spring semester. Both groups covered identical syllabus content, which included grammar, vocabulary development, and language skills (reading, writing, listening, and speaking).

- The Control Group followed a conventional instructional model. Lessons were teacher-led, and most learning activities, including grammar explanations and vocabulary introduction, took place during class. Homework assignments reinforced in-class content.

- The Experimental Group experienced a flipped classroom model. Students were provided with pre-recorded video lectures, digital readings, and vocabulary exercises via a learning management system (LMS) before each class. In-class sessions focused on applying the pre-learned content through peer collaboration, problem-solving tasks, role plays, and teacher-guided speaking activities.

Both groups were taught by the same instructor to ensure consistency in teaching style, materials, and assessment.

3.4 Instruments for Data Collection

To assess the effectiveness of flipped learning, both quantitative and qualitative data were collected using the following tools:

- **Pre-test and Post-test:** Standardized English language tests (focusing on grammar, vocabulary, and reading comprehension) were administered before and after the intervention to measure learning outcomes.
- **Writing and Speaking Tasks:** Students completed written assignments and oral presentations at the end of the study. These were evaluated using rubrics that assessed fluency, coherence, grammatical accuracy, and vocabulary use.
- **Student Survey:** A Likert-scale questionnaire was distributed to collect students' perceptions regarding their motivation, classroom engagement, and satisfaction with the instructional method.
- **Classroom Observation:** Two trained observers conducted classroom observations using a checklist to record student participation, use of English, interaction levels, and time-on-task behavior.

3.5 Data Analysis

- Quantitative data from pre-tests and post-tests were analyzed using descriptive statistics (mean, standard deviation) and paired-sample t-tests to compare performance within and between the two groups.
- Qualitative data from the surveys and classroom observations were analyzed thematically to identify trends and support the quantitative findings.
- Statistical analysis was performed using SPSS software to ensure accuracy and reliability.

This mixed-methods approach provided a comprehensive understanding of the pedagogical impact of flipped learning in an EFL setting at the tertiary level.

Results

4.1 Quantitative Results

The pre-test and post-test results were analyzed to determine the impact of flipped learning on students' language proficiency. Table 1 presents the mean scores and standard deviations for both the control group and the experimental group before and after the intervention.

Table 1: Mean Scores and Standard Deviations for Pre-test and Post-test Results

Group	Pre-test Mean (SD)	Post-test Mean (SD)	Difference in Mean Scores	p-value
Control Group (n=30)	65.4 (7.3)	72.8 (6.5)	+7.4	0.042
Experimental Group (n=30)	66.2 (7.1)	81.5 (5.6)	+15.3	0.001

The results of the pre-test show that both groups had relatively similar initial levels of language proficiency, with no significant differences between their mean scores ($p = 0.75$). After the eight-week intervention, the experimental group, which participated in the flipped

learning model, showed a significant increase in their post-test scores ($M = 81.5$, $SD = 5.6$), compared to the control group ($M = 72.8$, $SD = 6.5$). The experimental group's improvement was notably larger, with a mean difference of +15.3 points, compared to +7.4 points for the control group. This difference was statistically significant ($p = 0.001$), indicating that the flipped learning model had a more substantial effect on language proficiency than traditional methods.

4.2 Speaking and Writing Task Performance

The students' speaking and writing tasks were evaluated based on fluency, coherence, grammatical accuracy, and vocabulary use. Results showed that the experimental group outperformed the control group in both areas.

- **Speaking Tasks:** The experimental group demonstrated higher levels of fluency and accuracy in their spoken English, with a mean score of 84.6 ($SD = 4.2$), compared to the control group's mean score of 75.3 ($SD = 5.3$). The experimental group also exhibited greater confidence during oral tasks, with more interactive and spontaneous use of language during peer discussions and role-plays.

- **Writing Tasks:** In writing, the experimental group scored significantly higher on coherence and lexical diversity, with a mean score of 82.9 ($SD = 4.8$), whereas the control group had a mean score of 71.8 ($SD = 6.0$). The flipped learning group was able to better integrate vocabulary and grammatical structures, suggesting that the flipped model facilitated more effective use of language.

4.3 Student Engagement and Motivation

Student engagement and motivation were assessed through surveys and classroom observations. Results from the student surveys indicated that the experimental group felt more motivated and engaged in the learning process. The majority (78%) of students in the flipped learning group reported that they felt more prepared for class activities, as they were able to engage with the content at their own pace outside of class. In contrast, only 52% of students in the control group felt adequately prepared for class, and many reported feeling passive during traditional, lecture-based sessions.

Classroom observations further supported these findings. The experimental group was observed to be more actively involved in discussions, group work, and problem-solving tasks. On average, 85% of students in the experimental group participated in class, while only 65% of students in the control group actively contributed.

4.4 Student Anxiety Levels

Student anxiety was measured using a self-reported questionnaire focusing on how students felt about language use in the classroom. The experimental group reported significantly lower levels of anxiety regarding speaking and making mistakes in class. Only 30% of the flipped classroom students felt nervous about speaking in front of peers, compared to 55% in the control group. The flipped learning environment appeared to reduce anxiety by providing students with the opportunity to prepare and practice outside of class.

4.5 Summary of Results

In summary, the flipped learning model resulted in significantly better outcomes for the experimental group across all assessed areas: language proficiency (both receptive and productive skills), student engagement, and reduced anxiety. The control group, while showing improvement, demonstrated smaller gains overall, and the level of student engagement remained relatively lower. These results suggest that flipped learning, when applied effectively, enhances language learning outcomes and fosters a more interactive and less anxiety-inducing classroom environment.

Discussion

The findings support existing literature that flipped learning enhances both academic performance and learner engagement in EFL contexts (Hung, 2015; Mehring, 2016). Students in the flipped group had more opportunities to internalize new content at their own pace and apply it during interactive class sessions. This model also encouraged learner autonomy, a key component in second language acquisition (Little, 1991).

Flipped learning allowed for deeper in-class engagement, promoting the development of communicative competence through peer collaboration and real-time feedback. It also helped reduce performance anxiety by providing students with more time to process and understand the material before speaking or writing.

However, the success of flipped learning depends on student responsibility and teacher readiness. Students must complete pre-class activities consistently, and instructors need to invest time in planning engaging, communicative lessons.

Conclusion

This study demonstrated that flipped learning positively impacts language proficiency, learner engagement, and classroom interaction. The integration of flipped learning in EFL education promises to create more learner-centered environments. Nowadays, with the development of digital tools, the flipped learning method can also be one of the most common and useful methods, because this method is not limited to teaching only theoretical information, but also increases students' critical thinking, independent research, and studying skills. The model's adaptability and focus on active learning make it a valuable approach in today's educational landscape. At Uzbekistan State World Languages University, second-year students who participated in the flipped model showed greater improvement in language skills and reported higher levels of motivation and autonomy. These findings highlight the potential of flipped instruction to modernize and energize EFL classrooms.

Future research should explore long-term outcomes of flipped learning, investigate its impact across different language levels, and consider how to support students who struggle with self-directed learning in flipped environments.

REFERENCES

1. Abeysekera, L., & Dawson, P. (2015). Motivation and cognitive load in the flipped classroom: Definition, rationale and a call for research. *Higher Education Research & Development*, 34(1), 1–14.

2. Akçayır, G., & Akçayır, M. (2018). The flipped classroom: A review of its advantages and challenges. *Computers & Education*, 126, 334–345.
3. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. Longman.
4. Basal, A. (2015). The implementation of a flipped classroom in foreign language teaching. *Turkish Online Journal of Distance Education*, 16(4), 28–37.
5. Bishop, J. L., & Verleger, M. A. (2013). The flipped classroom: A survey of the research. *ASEE National Conference Proceedings*, Atlanta, GA.
6. Chen Hsieh, J. S., Wu, W. C. V., & Marek, M. W. (2017). Using the flipped classroom to enhance EFL learning. *Computer Assisted Language Learning*, 30(1-2), 1–21.
7. Egbert, J., Herman, D., & Lee, H. (2015). Flipped instruction in English language learning: A review of literature. *The Computer Assisted Language Instruction Consortium Journal*, 32(2), 165–176.
8. Hung, H. T. (2015). Flipping the classroom for English language learners to foster active learning. *Computer Assisted Language Learning*, 28(1), 81–96.
9. Lo, C. K., & Hew, K. F. (2017). A critical review of flipped classroom challenges in K–12 education. *Educational Research Review*, 22, 50–64.
10. Mehring, J. (2016). Present research on the flipped classroom and potential tools for the EFL classroom. *Computers in the Schools*, 33(1), 1–10.
11. Sun, J. C.-Y., & Wu, Y. T. (2016). Analysis of learning achievement and teacher–student interactions in flipped and traditional classrooms. *International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 17(1), 79–99.
12. Tucker, B. (2012). The flipped classroom. *Education Next*, 12(1), 82–83.
13. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
14. Webb, M., & Doman, E. (2016). Impacts of flipped classrooms on learner attitudes toward technology-enhanced language learning. *Computer Assisted Language Learning*, 29(1), 79–97.
15. Zainuddin, Z., & Halili, S. H. (2016). Flipped classroom research and trends from different fields of study. *International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 17(3), 313–340.



TIBBIYOTDA XORIJIY TILNI O‘RGATISHDA ICHKI VA TASHQI MOTIVATSIYA OMILLARI

Iminaxunova Iroda Xuseynovna

Orcid ID: 0000-0002-5094-3192

*Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,
professor*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiy ta’lim muassasalarida xorijiy til, ayniqsa ingliz tilini o‘rgatishda ichki va tashqi motivatsiya omillarining roli tahlil qilinadi. Ichki motivatsiya shaxsiy ehtiyoj, qiziqish va kasbiy o‘rish bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi motivatsiya baho, sertifikat va ijtimoiy bosimga asoslangan. Tadqiqotda talabalar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar, intervyular va kuzatuvlar asosida ushbu motivatsiya turlari tahlil qilindi. Natijalar ichki motivatsiyaning xorijiy tilni puxta egallashda muhim omil ekanini ko‘rsatdi. Muallif tibbiyotda til o‘rgatish jarayonida motivatsiyani oshirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: tibbiy ta’lim, xorijiy til, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, til kompetensiyasi, ESP

Аннотация: В статье рассматривается значение внутренней и внешней мотивации при обучении иностранному языку в медицинских вузах. Внутренняя мотивация связана с личным интересом и профессиональным ростом, тогда как внешняя – с оценками, сертификацией и социальным давлением. На основе анкетирования и интервью с студентами выявлено, что внутренняя мотивация способствует более глубокому усвоению языка. Автор предлагает рекомендации по повышению мотивации в процессе преподавания медицинского английского языка.

Ключевые слова: медицинское образование, иностранный язык, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, языковая компетентность

Abstract: This article examines the role of intrinsic and extrinsic motivational factors in teaching foreign languages, particularly English, in medical education. While intrinsic motivation relates to personal interest and professional development, extrinsic motivation is driven by grades, certificates, or external pressures. The study analyzes surveys, interviews, and classroom observations among medical students. Findings highlight that intrinsic motivation plays a key role in mastering medical English effectively. The paper offers pedagogical recommendations to enhance student motivation in medical language instruction.

Keywords: medical education, foreign language, intrinsic motivation, extrinsic motivation, language competence, ESP

KIRISH: Zamonaviy global axborot makonida faoliyat yuritayotgan tibbiyot sohasi mutaxassislari uchun xorijiy til, ayniqsa ingliz tili, nafaqat ilmiy adabiyotlar va klinik protokollarni o‘qish, balki xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish, xorijiy ta’lim dasturlarida qatnashish, bemorlar bilan xalqaro miqyosda muloqot qilish uchun ham zarur bo‘lgan muhim kompetensiyalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Tibbiy ta’lim jarayonida xorijiy tilni samarali o‘rgatish, talabalarning ushbu tilni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va ularni mustaqil ravishda til o‘rganishga undash dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biridir.

Bugungi kunda tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida xorijiy tilni o‘rgatishda bir qator innovatsion metodlar, axborot texnologiyalari, fanlararo integratsiya uslublari joriy etilmoqda. Shunga qaramay, talabalar orasida tilga bo‘lgan munosabat, uni o‘zlashtirishga bo‘lgan harakat va qiziqish darajasi bir xil emas. Bu holat, avvalo, o‘quvchilarning **motivatsiya** darajasiga bevosita bog‘liqdir. Motivatsiya o‘z navbatida shaxsning bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, kasbiy manfaatga yo‘naltirilganligi, hamda tashqi omillar – baho, tanlovlar, imtihonlar, ustozlar talabi kabi rag‘batlantiruvchi kuchlar orqali shakllanadi.

Motivatsiya nazariyasi pedagogika va psixologiyada keng o‘rganilgan bo‘lib, ko‘pchilik tadqiqotchilar uni ichki (intrinsik) va tashqi (ekstrinsik) shakllarda tasniflaydi. Ichki motivatsiya – bu talabaning shaxsiy qiziqishi, o‘zini rivojlantirishga intilishi, kasbiy faoliyatga bo‘lgan ehtiyoji asosida shakllanadi. Bu holatda til o‘rganish jarayoni zavq bag‘ishlaydi, darslar esa majburiyat emas, balki imkoniyat sifatida qabul qilinadi. Tashqi motivatsiya esa, asosan, baholash tizimi, mukofot, rag‘bat, tanqid yoki ijtimoiy bosim orqali yuzaga keladi. Mazkur motivatsiya turi qisqa muddatli bo‘lib, ba’zida sun’iy yo‘nalishga ega bo‘ladi va talaba tilni vaqtincha o‘zlashtirishga urinadi, ammo uni amaliyotda qo‘llashga ichki tayyorgarligi kam bo‘ladi. Tibbiyotda xorijiy til o‘rganish talabalardan nafaqat umumiy til bilimlarini, balki maxsus tibbiy terminologiyani, klinik nutq va yozuv malakasini, kasbiy etikani anglatuvchi ifodalarni ham egallashni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, til o‘rgatish jarayonida chuqur motivatsion asosga ega bo‘lishni zarur etadi. Talabaning ushbu jarayonga bo‘lgan psixologik tayyorgarligi, uning ichki ruhiy holati, mustaqil bilim olishga bo‘lgan intilishi til o‘zlashtirish samaradorligini belgilaydi.

Ayni paytda, tibbiy ta’lim muassasalarida xorijiy tilni o‘rgatish bo‘yicha olib borilayotgan metodik yondashuvlarda motivatsiya omilini yetarli darajada hisobga olish har doim ham ta’minlanmaydi. Talabalar ko‘pincha baho olish yoki muayyan imtihonlardan o‘tish maqsadida til o‘rganishga majbur bo‘lishadi. Bu esa, ichki motivatsiyaning shakllanishini to‘xtatib, bilimning yuzaki va qisqa muddatli bo‘lishiga olib keladi. Natijada, chet tilini chuqur egallagan, kasbiy faoliyatda uni erkin qo‘llay oladigan mutaxassislar yetishmaydi.

Shunday ekan, tibbiy ta’lim tizimida xorijiy tilni o‘rgatishda ichki va tashqi motivatsiya omillarining o‘zaro nisbatini aniqlash, ularning o‘quv samaradorligiga ta’sirini baholash va bu asosda yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sanaladi. Ushbu maqola aynan shu masalalarga ilmiy asosda yondashadi va tibbiyot ta’limi jarayonida xorijiy tilni o‘rgatishda motivatsiyaning oshirish yo‘llarini ochib berishga qaratiladi.

METODLAR: Ushbu tadqiqotda tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida xorijiy tilni o‘rganish jarayonida talabalar motivatsiyasining ichki va tashqi turlarini aniqlash, ularning o‘zlashtirish darajasiga ta‘sirini baholash va pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asosli xulosalarga erishish maqsad qilindi. Shu sababli tadqiqotda aralash uslub – ya‘ni kvantitativ (miqdoriy) va kvalitatif (sifat jihatdan) yondashuv uyg‘unlashtirildi. Bu metodologiya tadqiqot mavzusi doirasida chuqur va ob‘ektiv natijalarni olish imkonini berdi.

Tadqiqot ishtirokchilari sifatida tibbiyot oliy ta‘lim muassasa talabalaridan 120 nafari tanlab olindi. Ular 2–4-bosqichda tahsil olayotgan bo‘lib, “Davolash ishi”, “Pediatriya”, “Stomatologiya” va “Farmatsiya” yo‘nalishlarida o‘qiyotgan talabalar orasidan ixtiyoriy asosda jalb qilindi. Tadqiqotda ishtirok etgan talabalar ikki guruhga ajratildi: birinchi guruh — tilni yuqori darajada o‘zlashtirayotgan, ichki motivatsiyasi kuchli talabalar; ikkinchi guruh — tilga nisbatan qiziqishi past, o‘zlashtirish darajasi nisbatan sust bo‘lgan talabalar. Bu taqqoslash, turli motivatsiya turlarining o‘rganish samaradorligiga qanday ta‘sir qilishini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Ma‘lumot yig‘ish bosqichida bir nechta vositalardan foydalanildi. Birinchi navbatda, talabalar motivatsiya darajasini o‘lchash uchun 20 ta bayonotdan iborat so‘rovnoma ishlab chiqildi. So‘rovnoma 5 ballik Likert shkalasi asosida tuzildi. Bayonotlar ichki va tashqi motivatsiyaga oid savollarni qamrab olgan: “Men ingliz tilini shaxsiy rivojlanishim uchun o‘rganaman” yoki “Tilni imtihondan o‘tish uchun o‘rganaman” kabi fikrlar talabalar tomonidan 1 dan 5 gacha ball bilan baholandi.

So‘rovnoma natijalarini yanada chuqurroq tahlil qilish maqsadida 20 nafar talabadan va 5 nafar xorijiy til o‘qituvchisidan yarim tuzilgan intervyular olindi. Intervyular mazmunan talabalarning til o‘rganishdagi ichki ehtiyojlari, kasbiy rejalari, baholash tizimi ta‘siri, o‘qituvchi yondashuvi, dars mazmuni va tashqi bosimlar haqidagi fikrlarini o‘z ichiga oldi. Ushbu intervyular yozib olinib, keyinchalik tematik kodlash asosida tahlil qilindi.

Bundan tashqari, o‘quv jarayonining real sharoitda qanday kechayotganini aniqlash uchun 6 ta dars jarayoni videokuzatuv orqali tahlil qilindi. Kuzatuv davomida talabalar faol ishtirok darajasi, savol-javoblardagi faollik, guruhli ishlarda qatnashish, o‘qituvchining o‘zaro muloqot uslubi, darsdan tashqari topshiriqlarni bajarish xatti-harakatlari baholandi. Dars jarayoni tahlili so‘rovnoma va intervyular natijalari bilan taqqoslab o‘rganildi.

Toplangan miqdoriy ma‘lumotlar SPSS statistik dasturi yordamida tahlil qilindi. O‘rtacha ballar, dispersiyalar, va Pearson korrelyatsiya ko‘rsatkichlari asosida ichki va tashqi motivatsiya turlari bilan talabalar o‘zlashtirish darajalari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Statistika shuni ko‘rsatdiki, ichki motivatsiya darajasi yuqori bo‘lgan talabalar ko‘proq mustaqil ishlagan, o‘qituvchining tavsiyalarini to‘liq bajargan va tibbiy ingliz tilini chuqurroq o‘zlashtirgan.

Sifat tahlili esa intervyular va dars jarayonlaridan olinadigan matnli ma‘lumotlarni kontent kodlash orqali tasniflash asosida amalga oshirildi. Asosiy kodlar quyidagicha belgilandi: “shaxsiy kasbiy maqsad”, “bahoga yo‘naltirilganlik”, “ijtimoiy bosim”, “o‘qituvchi

roli”, “mustaqil tayyorlanish”, “ilmiy faoliyatga intilish”. Bu kodlar asosida har bir ishtirokchining motivatsion holati aniqlashtirildi.

Tadqiqotda ayrim cheklovlar mavjud bo‘ldi. Jumladan, ishtirokchilar sonining chegaralanganligi, faqatgina ingliz tili darslari doirasida o‘rganilgan motivatsiya holati va talabalar fikrlarining sub‘ektivligidir. Biroq bu cheklovlarga qaramasdan, tadqiqot natijalari asosida umumiy xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun yetarli ilmiy dalillar hosil qilindi.

Ushbu metodologik yondashuv — motivatsiyaning murakkab va ko‘p qirrali tabiati, uning ta‘lim jarayoniga ta‘siri hamda o‘qituvchining didaktik strategiyasini baholashda asos bo‘lib xizmat qildi. U tibbiy ta‘limda xorijiy til o‘qitishda individual yondashuv va motivatsiyani uyg‘unlashtirishning zaruriyatini ko‘rsatib berdi.

NATIJALAR: Tadqiqot natijalari talabalar orasida xorijiy tilni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya darajasi, uning turlari va ta‘lim samaradorligiga ta‘siri haqida muhim ma‘lumotlarni taqdim etdi. So‘rovnoma, intervyular, hamda dars kuzatuvlari orqali olingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatdiki, talabalar orasida ichki va tashqi motivatsiyaning kuchi, sifati va o‘zlashtirishga ta‘siri sezilarli darajada farq qiladi. Ayniqsa, ichki motivatsiyaning mavjudligi va ustunligi o‘zlashtirish darajasining yuqoriligi bilan chambarchas bog‘liq ekani kuzatildi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 120 nafar talabadan 68 nafari (56,7%) chet tilini o‘rganishdagi asosiy motivi sifatida ichki omillarni — kasbiy ehtiyoj, o‘z ustida ishlash, xorijiy adabiyotlarni tushunish, bemorlar bilan xalqaro muloqotga tayyorgarlik kabi sabablarni ko‘rsatgan. Qolgan 52 nafar talaba (43,3%) esa til o‘rganishga undovchi asosiy sabab sifatida tashqi omillar — baho, imtihon topshirish, DAKdan o‘tish, ustozning talabi, stipendiya olish kabi rag‘batlantiruvchi bosimlarni ta‘kidlagan.

Ichki motivatsiyaga ega talabalar orasida quyidagi xatti-harakatlar va o‘zlashtirishdagi ijobiy tendensiyalar qayd etildi:

- Til darslarida faol qatnashish va savol-javoblarda tashabbus ko‘rsatish;
- Mustaqil tarzda tibbiy maqolalar va darsliklarni ingliz tilida o‘qishga intilish;
- O‘quv materiallari doirasidan tashqarida ham tilni rivojlantirishga urinib ko‘rish (masalan, mobil ilovalar, videolar, podkastlar orqali);
- Tibbiy konferensiyalar, xalqaro tadbirlarda qatnashishga qiziqish bildirganlik.

Tashqi motivatsiyaga tayanayotgan talabalar esa, asosan, baho olish yoki topshiriqni vaqtida bajarish orqali ta‘lim jarayonida ishtirok etgani aniqlandi. Ular darsga qatnashsalar-da, mustaqil o‘rganish darajasi past, tilga bo‘lgan qiziqish yuzaki bo‘lib, ko‘pincha faqat imtihonlarga tayyorlanish bilan cheklanishadi. Bu guruhdagi talabalar ko‘pincha “til men uchun zarur, lekin qiziq emas”, “ingliz tilisiz diplom olishning iloji yo‘q” kabi fikrlarni bildirgan.

Intervyular davomida o‘qituvchilar tomonidan ham shunga o‘xshash kuzatishlar ta‘kidlandi. Ularning fikricha, ichki motivatsiyaga ega talabalar bilan ishlash osonroq bo‘lib,

ular bilan til mashg‘ulotlari interaktiv, samarali va chuqur kechadi. Tashqi motivatsiyali talabalar esa ko‘proq rag‘batga ehtiyoj sezadi, darsga vaqtinchalik yondashadi va bilimni chuqur o‘zlashtirishga intilmaydi.

Dars jarayonini kuzatish natijalari ham so‘rovnomalarni qo‘llab-quvvatladi. Ichki motivatsiyaga ega talabalar 80% hollarda guruhli ishlarda faol ishtirok etgan bo‘lsa, tashqi motivatsiyali talabalar faqat 40% holatda faol qatnashgani kuzatildi. Shuningdek, birinchi guruhdagi talabalar uyga berilgan topshiriqlarni ijodkorlik bilan bajargan, yangicha manbalardan foydalangan, ikkinchi guruh esa ko‘pincha minimal darajada ishlagan.

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, ichki motivatsiya balining yuqori bo‘lishi va til o‘zlashtirish darajasi o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya ($r = 0.72$) mavjudligi aniqlandi. Bu esa talabaning ichki motivatsiyasi kuchli bo‘lsa, u chet tilini samaraliroq o‘zlashtirishini ko‘rsatadi. Tashqi motivatsiya va o‘zlashtirish o‘rtasidagi korrelyatsiya esa nisbatan past ($r = 0.35$) ko‘rsatkichni berdi, bu esa qisqa muddatli va yuzaki ta’sirni aks ettiradi.

Umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ichki motivatsiyali talabalar xorijiy tilni nafaqat o‘qish davrida, balki kelajakda ham kasbiy faoliyatda qo‘llash uchun o‘rganayotgan bo‘lsa, tashqi motivatsiyaga ega talabalar uchun bu jarayon ko‘proq majburiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida bilim sifati, til kompetensiyasi va amaliy qo‘llash darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

MUHOKAMA: Ushbu tadqiqot orqali olingan natijalar tibbiy ta’limda xorijiy til o‘rganish jarayonida motivatsiya muhim omil sifatida harakat qilayotganini yaqqol ko‘rsatdi. Ayniqsa, ichki va tashqi motivatsiya turlarining farqli ta’siri talabaning tilga nisbatan yondashuvi va o‘zlashtirish sifatiga bevosita bog‘liq ekanini isbotlaydi. Ichki motivatsiyaga ega talabalar chet tilini chuqurroq va ongli ravishda o‘zlashtirishga intilayotgan bo‘lsa, tashqi motivatsiyaga tayanayotgan talabalar ko‘proq yuzaki, vaqtincha va natijaga yo‘naltirilgan yondashuvni namoyon qilmoqda.

Motivatsiyaning turlari bo‘yicha ilgari surilgan nazariy qarashlarga tayanadigan bo‘lsak, Deci va Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga ko‘ra, ichki motivatsiya insonga ijobiy hissiyotlar, qoniqish va o‘zlashtirishga ongli ehtiyoj bag‘ishlaydi. Bu motivatsiya turi talabani mustaqil ishlashga, amaliy mashqlarni chuqur bajarishga, o‘z ustida ishlashga undaydi. Ushbu tadqiqotda ham ichki motivatsiyali talabalar darsdan tashqari ingliz tilidagi tibbiy maqolalarni o‘qish, yangi lug‘atlarni mustaqil o‘rganish, tibbiy atamalarni amaliyotda ishlatishga urinayotganini ko‘rish mumkin bo‘ldi.

Tashqi motivatsiya esa, o‘z mohiyatiga ko‘ra, shaxsni o‘zidan tashqaridagi omillarga qaram qiladi. Bunday talabalar, odatda, baho olish, imtihonlardan o‘tish, ustozning talabiga javob berish, stipendiyani saqlab qolish kabi maqsadlar bilan harakat qilishadi. Ular uchun til o‘rganish jarayoni ijodiy va qiziqarli emas, balki zarurat yoki majburiyat sifatida qabul qilinadi. Shu sababli, tashqi motivatsiya asosan qisqa muddatli bo‘ladi va doimiy o‘quv faolligini ta’minlamaydi. Tadqiqot davomida bu guruhdagi talabalar ko‘proq dars materiallarini yod

olishga, testlarga tayyorlanishga intilgani, lekin tilni amaliyotda qo‘llashda ishtirok etmaganlari aniqlandi.

O‘quv jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun faqat o‘quv dasturi yoki o‘qituvchining yondashuvi yetarli emas. Ta’lim sharoiti, o‘qituvchining psixopedagogik yondashuvi, talabalarga nisbatan munosabati va o‘rgatish uslubi ham motivatsiyaning shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Intervyu natijalarida ko‘plab talabalar o‘zlarining ichki motivatsiyasi o‘qituvchining darsdagi interaktiv uslublari, kasbiy hayot bilan bog‘liq topshiriqlar, hamda real hayotiy misollar tufayli shakllanganini bildirganlar. Boshqa tarafdin, darslar faqat grammatikaga asoslangan, monoton bo‘lgan hollarda talabalar qiziqishini yo‘qotgan va o‘rganish jarayoni tashqi rag‘batga bog‘liq holda qolgan. Shu o‘rinda motivatsiyani kuchaytirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Xususan, tibbiyotda xorijiy tilni kasbiy ehtiyojlarga bog‘lash, ya’ni ESP (English for Specific Purposes) yondashuvidan foydalanish muhimdir. Bunda til o‘rgatish darslari oddiy grammatik mashqlar emas, balki tibbiy matnlar, shifokor-bemor suhbatlari, klinik holatlarning ingliz tilidagi tahlili, xalqaro maqolalarning tarjimasi va tahliliga asoslanadi. Bu esa talabalarda kasbiy identifikatsiyani kuchaytiradi va ichki motivatsiyani uyg‘otadi.

Bundan tashqari, raqamli vositalar va multimedia kontentlaridan foydalanish, tilni mobil ilovalar, interaktiv platformalar orqali o‘rgatish talabalar ishtirokini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot davomida bunday resurslardan foydalangan talabalar tilni o‘zlashtirishda yuqori natijalarga erishgani aniqlandi. Bu holat, zamonaviy texnologiyalarning motivatsiyani mustahkamlovchi vosita sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Muhim jihatlardan biri — o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot sifati va psixologik iqlimdir. O‘qituvchining ijobiy munosabati, rag‘batlantirish usullari, talabaga ishonch bilan qarashi motivatsiya shakllanishida muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Intervyularda ishtirok etgan talabalar, ayniqsa, o‘zlarini tinglaydigan, rag‘batlantiradigan va faol ishtirokga chorlaydigan o‘qituvchilarning darslarini “eng samarali va foydali” deb baholashgan. Tibbiy ta’limda xorijiy tilni o‘rgatish samaradorligini oshirish uchun ichki motivatsiyani kuchaytirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Buning uchun o‘quv dasturlarini kasbiy yo‘naltirilgan qilish, interaktiv va zamonaviy metodlarni qo‘llash, talabalar ehtiyojiga mos yondashuvlarni ishlab chiqish lozim. Tashqi motivatsiya zarur, biroq u mustahkam bilim va barqaror o‘rganish jarayoni uchun yetarli emas. Ichki motivatsiyani shakllantirish orqali talabalarda xorijiy tilga bo‘lgan ijobiy munosabat va mustahkam til kompetensiyasi vujudga keladi.

XULOSA: Tibbiyotda xorijiy tilni, ayniqsa ingliz tilini samarali o‘rgatish jarayoni, bugungi kunda nafaqat kasbiy bilimlar, balki xalqaro maydondagi raqobatbardoshlik, axborotga erkin kirish va ilmiy faoliyatda ishtirok etish imkonini ta’minlovchi muhim omilga aylangan. Ushbu maqolada tibbiy oliy ta’lim muassasalarida xorijiy til o‘rganish jarayonida talabalar motivatsiyasining turli ko‘rinishlari, ularning mazmuni, sifati va ta’lim natijalariga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ichki motivatsiya xorijiy tilni ongli, chuqur va barqaror tarzda o‘zlashtirishda hal qiluvchi omildir. Bunday motivatsiya shaxsiy ehtiyoj, kasbiy rivojlanishga intilish, mustaqil fikrlash va kelajakda malakali mutaxassis bo‘lishga bo‘lgan ishtiyoq bilan bog‘liqdir. Ichki motivatsiyali talabalar darslarda faol qatnashadi, mustaqil o‘rganishga intiladi, tilni o‘rgatish doirasidan tashqariga chiqib, real hayotga tadbiiq etishga harakat qiladi.

Tashqi motivatsiya esa, asosan, baho olish, imtihon topshirish yoki muayyan talablarni bajarishga qaratilgan bo‘lib, qisqa muddatli natijalarga olib keladi. Bunday talabalar til o‘rganishni majburiyat sifatida qabul qiladi, chuqur va amaliy bilim olishga kamroq harakat qiladi. Bu holat, til kompetensiyasining yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi.

Shuningdek, o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvi, o‘quv dasturining kasbiy ehtiyojlarga mosligi, darslardagi interaktivlik, texnologik vositalar bilan boyitilgan metodlar motivatsiyaga kuchli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. O‘quv muhitining psixologik jihatdan qulay bo‘lishi, talabalarga individual yondashuv asosida ishlash motivatsiyani mustahkamlovchi muhim omillardan biridir.

- Mazkur tadqiqotdan kelib chiqib quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:
- Tibbiy ingliz tilini kasbiy kontekstda o‘rgatish (ESP yondashuvi);
- O‘quv jarayoniga multimedia vositalarini joriy etish;
- O‘quvchilarning ichki motivatsiyasini shakllantiruvchi topshiriqlar va metodikalar ishlab chiqish;
- O‘qituvchilar uchun motivatsiyani oshirishga qaratilgan malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy ta’limda xorijiy tilni o‘rgatishda ichki va tashqi motivatsiya o‘rtasidagi muvozanatni topish, ayniqsa ichki motivatsiyani rag‘batlantirish — zamonaviy tibbiyot kadrlarini yetishtirishda muhim omil hisoblanadi. Bu esa nafaqat ta’lim sifati, balki sog‘liqni saqlash tizimining xalqaro integratsiyasiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolmatova S., (2020). Tibbiyot sohasida ESP asosida til o‘rgatish metodikasi. *Ta’lim va innovatsiya*, 4(2), 112–118.
2. S.Nishonova, (2021). Chet til motivatsiyasining psixopedagogik asoslari. *Pedagogik innovatsiyalar jurnali*, 3(1), 35–41.
3. Jabborova M., (2023). Tibbiy ingliz tilini o‘qitishda o‘quvchilarning ehtiyojiga asoslangan yondashuv. *Yosh olimlar konferensiyasi to‘plami*, 2(5), 67–70.
4. Azizov F., (2022). Oliy ta’limda chet til o‘rganishga motivatsiyani kuchaytirish omillari. *Ilmiy izlanishlar jurnali*, 1(8), 21–26.
5. Muydinov F. Tibbiy ta’lim talabalarida mediakompetentlikni rivojlantirish metodikasi/*Science Problems.uz* –Tashkent, 2024, –pp. 499-505. (13.00.00; №5)

6. OECD. (2020). *Student Motivation and Engagement in Learning*. OECD Education Policy Perspectives No. 21.
7. E. L. Deci, & Ryan, R. M. (2000). Intrinsic and Extrinsic Motivations: Classic Definitions and New Directions. *Contemporary Educational Psychology*, 25(1), 54–67.
8. Z. Dörnyei, (2001). *Motivational Strategies in the Language Classroom*. Cambridge University Press.
9. R. C. Gardner, (2010). *Motivation and Second Language Acquisition: The Socio-Educational Model*. Peter Lang Publishing.
10. E. Ushioda, (2011). *Language Learning Motivation: Pathways to the New Century*. Oxford University Press.
11. I. Iminaxunova, Development of practical proposals on L3 teaching strategies. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*, Toshkent -2025.
12. H. D. Brown, (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.
13. K. A. Noels, et al. (2000). Why Are You Learning a Second Language? Motivational Orientations and Self-Determination Theory. *Language Learning*, 50(1), 57–85.



BO‘LAJAK HAMSHIRALARNING AMALIY KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA SIMULYATSION O‘QITISH ISHLARINI TASHKIL ETISHNING USLUBIY ASOSLARI

Irgasheva Maxbubaxon Davlatjon qizi

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, assistant

maxbubaxonirgasheva@gmail.com

+998993719777

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak hamshiralarni amaliy kompetentligini oshirish masalalari yoritilgan. Unda bugungi kunda hamshiraning maqomini manipulyatordan o‘z vakolatlari doirasida mustaqil ravishda hamshiralik faoliyatini amalga oshiradigan raqobatbardosh mutaxassisga o‘zgartirish uning kasbiy malakasiga yuqori talablarni qanday qo‘yish tahlil qilingan. Bo‘lajak hamshiralarni simulyatsiya texnologiyasidan foydalanib o‘qitish orqali ularni malakali kadr bo‘lib yetishishlarida muhim.

Kalit so‘zlar: simulyatsiya, kompetentsiya, manipulyator, kognitiv faoliyat, eksperimental, potensial, amaliy kompetentlik, modellashtirish.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ СИМУЛЯЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ПРАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ СЕСТЕР

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы, связанные с повышением практической компетентности будущих медицинских сестер. Анализируется, как изменение статуса медицинской сестры сегодня от манипулятора к конкурентоспособному специалисту, самостоятельно осуществляющему сестринскую деятельность в рамках своих полномочий, требуют высоких требований к её профессиональной квалификации. Важно обучать будущих медсестер с использованием технологий симуляции, чтобы помочь им стать компетентными специалистами.

Ключевые слова: моделирование, компетентность, манипулятор, познавательная деятельность, экспериментальный, потенциал, практическая компетентность.

METHODOLOGICAL BASIS OF ORGANIZING SIMULATION TRAINING IN FORMING THE PRACTICAL COMPETENCE OF FUTURE NURSES

Annotation: This article discusses the issues of improving the practical competence of future nurses. It analyzes how to change the status of a nurse from a manipulator to a competitive

specialist who independently performs nursing activities within the scope of his competence, setting high requirements for his professional qualifications. It is important to train future nurses using simulation technology to help them become qualified personnel.

Key words: simulation, competence, manipulator, cognitive activity, experimental, potential, practical competence, modeling.

KIRISH

Mamlakatimiz aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini yaxshilashga qaratilgan sog‘liqni saqlash tizimi oldida turgan muammolarni hal qilish uchun o‘rta tibbiy xodimlarini tayyorlash masalasi ustuvor vazifa hisoblanadi. Sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, bozor sharoitlariga moslashish ta‘lim muassasalariga raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlashning amaliyotga yo‘naltirilgan va innovatsion yo‘nalishini kuchaytirish, ularni ish bilan ta‘minlash va ish joyida mustahkamlash zarurligini taqozo etadi. Bu butun sanoatning va alohida ish beruvchining – sog‘liqni saqlash muassasalarining ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi.

Interpretability. Educators may find ML predictions challenging to understand and act upon. Solutions: Use explainable AI (XAI) to enhance transparency. Future Directions The integration of ML into education is still evolving. Future research should focus on:

- **Cross-Disciplinary Approaches:** Combining ML with psychology and pedagogy to create holistic solutions.
- **Real-Time Analytics:** Developing tools for immediate feedback and intervention.
- **Longitudinal Studies:** Evaluating the long-term impact of ML-driven interventions on student motivation and engagement.
- **Collaborative Platforms:** Encouraging partnerships between technologists, educators, and policymakers to scale innovations.

Conclusion Machine learning offers transformative potential in reshaping how educational institutions comprehend and enhance student motivation and engagement. By harnessing the power of predictive analytics, personalized learning pathways, and dynamic engagement strategies, ML empowers educators to cultivate more inclusive, adaptive, and effective learning environments. These technologies not only enable targeted interventions but also ensure that students' individual needs are met, fostering greater academic success and participation. However, the successful integration of ML into education depends on overcoming significant challenges, including ethical considerations, scalability across diverse institutions, and the interpretability of complex algorithms. Ensuring that these systems are transparent, unbiased, and accessible will be vital to unlocking their full potential. Furthermore, ongoing

research and collaboration between educators, data scientists, and policymakers are essential to refining ML applications and addressing emerging challenges. The implementation of ML in education represents a groundbreaking advancement, with the capacity to revolutionize teaching and learning processes. By prioritizing ethical practices and innovation, educational institutions can fully leverage machine learning to build a future where technology and pedagogy work hand in hand to enhance student outcomes and engagement.

REFERENCES

1. Baker, R. S., & Siemens, G. (2014). Educational data mining and learning analytics. *Review of Educational Research*, 83(2), 253–294.
2. Zilvinskis, J., & Borden, V. M. (2017). Using student engagement data in predictive modeling for retention. *New Directions for Higher Education*, 2017(179), 51–63.
3. Romero, C., & Ventura, S. (2020). Educational data mining: A review of the state of the art. *IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics: Systems*, 50(6), 1–14.
4. Jurayeva Z.Q. “Specific features of language in the development of culture”. Volume2/Specific issue 27.ISSN 2181-1784.
5. Jurayeva Z.Q. “Improving listening skills at preschools and primary schools”. *Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Fergana*, 2022. 230-232 pages.



"THE ROLE OF HARD SKILLS AND SOFT SKILLS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES"

Khusanova Guljakhon

*Teacher of English at Academic Lyceum
named after M. Vosiqova under
Tashkent State University of Law
+998-97-421-37-32
guljahonkhusanova@gmail.com*

Abstract The acquisition of foreign languages requires a balanced integration of both hard and soft skills to ensure effective learning and communication. Hard skills, such as grammar, vocabulary, pronunciation, and reading comprehension, form the technical foundation for language mastery. Meanwhile, soft skills like communication competence, cultural awareness, emotional intelligence, and adaptability significantly influence how learners engage with the language in real-life contexts. This paper explores the complementary role of these skill sets in second language acquisition. Through the analysis of educational models and learner experiences, the study highlights how the interplay of these skills enhances language proficiency, motivation, and long-term retention. Emphasis is placed on designing educational strategies that integrate both skill types to produce competent and confident language users in increasingly globalized environments.

Keywords: foreign language learning, hard skills, soft skills, communication competence, cultural awareness, language acquisition, language education

CHET TILLARNI O‘RGANISHDA QATTIQ VA YUMSHOQ KO‘NIKMALARNING O‘RNI

Annotatsiya Chet tillarni o‘rganishda samarali ta’lim va muloqot uchun qattiq va yumshoq ko‘nikmalarni muvozanatli ravishda uyg‘unlashtirish zarur. Grammatik, lug‘aviy, talaffuz va o‘qib tushunish kabi qattiq ko‘nikmalar til egallashning texnik asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, muloqot kompetensiyasi, madaniy xabardorlik, emotsional intellekt va moslashuvchanlik kabi yumshoq ko‘nikmalar tilni real hayotda qo‘llashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada chet tilini o‘rganishda bu ko‘nikmalar uyg‘unligining ahamiyati o‘rganiladi. Ta’lim modellari va o‘quvchilarning tajribalari tahlili orqali ushbu ko‘nikmalar o‘zaro ta’siri til bilimi, motivatsiya va uzoq muddatli yodda saqlashni kuchaytirishi ko‘rsatiladi. Globalizatsiyalashib borayotgan dunyoda o‘ziga ishongan va yetuk til egalarini tayyorlash

uchun har ikkala ko‘nikma turini birlashtirgan ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish muhimligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: chet tilini o‘rganish, qattiq ko‘nikmalar, yumshoq ko‘nikmalar, muloqot kompetensiyasi, madaniy xabardorlik, tilni o‘zlashtirish, til ta’limi

РОЛЬ ТВЕРДЫХ И МЯГКИХ НАВЫКОВ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация Освоение иностранных языков требует сбалансированной интеграции как твердых, так и мягких навыков для обеспечения эффективного обучения и коммуникации. Твердые навыки, такие как грамматика, словарный запас, произношение и понимание прочитанного, составляют техническую основу овладения языком. В то же время мягкие навыки, включая коммуникативную компетентность, культурную осведомленность, эмоциональный интеллект и адаптивность, значительно влияют на то, как учащиеся используют язык в реальных жизненных ситуациях. В данной статье исследуется взаимодополняющая роль этих типов навыков в процессе изучения второго языка. Анализ образовательных моделей и опыта учащихся подчеркивает, как взаимодействие этих навыков способствует повышению уровня владения языком, мотивации и долговременного запоминания. Особое внимание уделяется разработке образовательных стратегий, интегрирующих оба типа навыков, чтобы подготовить уверенных и компетентных пользователей языка в условиях глобализации.

Ключевые слова: изучение иностранных языков, твердые навыки, мягкие навыки, коммуникативная компетентность, культурная осведомленность, овладение языком, языковое образование

Introduction

In today’s globalized society, foreign language competence is increasingly recognized as a crucial skill for personal, academic, and professional success. Traditional language instruction has long focused on hard skills—grammatical rules, vocabulary building, reading, and listening comprehension. While these elements are essential for technical mastery, they are not sufficient on their own to ensure effective communication or meaningful language use. Soft skills such as interpersonal communication, empathy, problem-solving, and cultural sensitivity play a vital role in bridging the gap between classroom learning and real-world language application. The interplay between these two skill domains creates a more holistic learning process that supports not only linguistic accuracy but also communicative confidence and adaptability. This paper examines how hard and soft skills collectively shape foreign language learning outcomes and argues for an integrated approach to curriculum design that addresses both skill categories to produce well-rounded and competent language users.

Methods and Research

This study employs a **mixed-methods approach** to explore the integration of hard and soft skills in foreign language acquisition. The research was conducted among 60 second-year students at the M.S. Vosiqova Academic Lyceum under Tashkent State University of Law, all of whom were enrolled in English as a Foreign Language (EFL) courses. Data collection methods included a structured questionnaire, semi-structured interviews, and classroom observations.

The questionnaire was designed to assess students' self-perceived proficiency in hard skills (grammar, vocabulary, reading, writing) and soft skills (communication, adaptability, cultural sensitivity, teamwork). Items were adapted from existing validated language competence frameworks (Council of Europe, 2020; Goleman, 1995). The interviews, conducted with both students and instructors, provided qualitative insights into how these skills interact during the learning process. Classroom observations focused on instructional methods, peer interaction, and the use of soft skills in communicative tasks.

Quantitative data were analyzed using SPSS to determine correlations between skill types and academic performance. Thematic analysis was used to code qualitative data and identify patterns across student responses and teaching practices.

Preliminary findings revealed that students with stronger soft skills, particularly in communication and emotional regulation, demonstrated greater engagement in language activities and performed better in oral and written tasks. These findings support previous research indicating that soft skills facilitate language acquisition by reducing anxiety, increasing motivation, and fostering collaborative learning environments (Dörnyei, 2005; Oxford, 2017). Instructors noted that integrating both skill types led to more dynamic and learner-centered classrooms.

The methodological triangulation ensured data validity and provided a comprehensive understanding of the multifaceted role both skill categories play in language learning. The study thus contributes to current pedagogical discourse by advocating for a balanced approach that values cognitive proficiency alongside interpersonal and emotional competencies.

Results

The results of the study revealed a significant correlation between the integration of hard and soft skills and improved language learning outcomes among the surveyed students. Quantitative analysis of the questionnaire responses showed that students who rated themselves highly in both grammar and vocabulary (hard skills) and in communication and adaptability (soft skills) consistently achieved higher academic scores in English classes. Notably, 78% of participants who demonstrated strong communication and teamwork abilities reported increased confidence in speaking tasks, suggesting a strong link between soft skills and language fluency (Oxford, 2017). Qualitative data from interviews further supported these findings. Instructors emphasized that students who actively participated in group discussions, exhibited empathy, and managed stress effectively were more successful in applying language structures in real-time communication. As one instructor noted, "Students with high emotional intelligence are

not afraid of making mistakes—they view errors as part of learning.” This aligns with Goleman’s (1995) theory that emotional intelligence enhances adaptability and resilience in learning environments.

Observational data highlighted the importance of collaborative activities in developing both skill sets. Students engaged in role-plays, debates, and project-based learning tasks demonstrated not only better language retention but also improved interpersonal interactions. These active learning strategies encouraged the simultaneous application of vocabulary, grammar, and communication strategies in authentic contexts (Richards & Rodgers, 2014).

Interestingly, students with strong grammatical knowledge but limited soft skills struggled to transfer their knowledge into effective communication. This finding reinforces the argument that technical proficiency alone is insufficient for language mastery and must be complemented by soft skill development (Dörnyei, 2005).

Overall, the results suggest that balanced instructional approaches that integrate both hard and soft skills foster more engaged, confident, and competent foreign language learners.

Discussion

The findings of this study reinforce the growing academic consensus that successful foreign language acquisition depends not solely on the mastery of technical skills, but also on the development of soft skills that support communication, motivation, and learner autonomy. As highlighted by Oxford (2017), language learners thrive when instruction addresses both cognitive and affective domains. In our study, students who displayed emotional intelligence and adaptability were more effective in collaborative tasks and oral communication, even when their grammatical accuracy was moderate. This outcome aligns with Dörnyei’s (2005) theory of the “L2 Motivational Self System,” which posits that learners’ motivation and self-image significantly influence language performance. Furthermore, the importance of social interaction in language learning, emphasized in Vygotsky’s sociocultural theory (1978), is echoed in the observed benefits of group activities where learners actively constructed knowledge together.

Additionally, the study provides empirical support for communicative language teaching (CLT) and task-based learning approaches, as described by Richards and Rodgers (2014), which prioritize meaningful interaction over rote learning. These pedagogical strategies inherently require learners to engage soft skills such as negotiation, leadership, and intercultural sensitivity.

Interestingly, students who were strong in grammar and vocabulary but lacked soft skills were often hesitant to participate in discussions or perform in real-time situations, a finding supported by Arnold and Fonseca (2004), who argued that anxiety and lack of confidence can inhibit language use despite technical knowledge.

Given these insights, language curricula should incorporate training in emotional intelligence, communication strategies, and team-based learning alongside traditional linguistic components. A holistic instructional model not only equips learners with language proficiency but also prepares them to use the language effectively in real-world contexts.

Conclusion

This study confirms that the effective acquisition of a foreign language relies not only on hard skills such as grammar, vocabulary, reading, and writing but also on essential soft skills like communication, emotional intelligence, adaptability, and collaboration. While hard skills provide the structural and academic foundation of language proficiency, it is soft skills that enable learners to confidently use the language in real-life, social, and professional contexts. Students with well-developed soft skills demonstrated better performance in speaking, listening, and teamwork activities, and they also showed higher motivation and lower anxiety in classroom settings. Therefore, language education should not be limited to cognitive development but should also nurture interpersonal and emotional competencies. A balanced integration of both skill sets ensures more holistic, learner-centered, and practical outcomes. Educators and curriculum designers are encouraged to embed soft skills training into their teaching strategies to prepare students for meaningful and confident communication in an increasingly globalized world.

REFERENCES:

1. Arnold, J., & Fonseca, M. C. (2004). *Multiple intelligence theory and foreign language learning: A brain-based perspective*. International Journal of English Studies, 4(1), 119–136.
2. Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume*. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
3. Dörnyei, Z. (2005). *The psychology of the language learner: Individual differences in second language acquisition*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
4. Goleman, D. (1995). *Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ*. New York: Bantam Books.
5. Oxford, R. L. (2017). *Teaching and researching language learning strategies: Self-regulation in context* (2nd ed.). New York: Routledge.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
7. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA SYUJETLI-ROLII O‘YINLARNING AHAMIYATI

Kurbanbayeva Moldir Abat qizi
Innovatsion texnologiyalar universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda syujetli-rolli o‘yinlarning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, o‘yin jarayonida bolalarda o‘zaro hamkorlik, muloqot madaniyati, empatiya, qoidalarga rioya qilish kabi ijtimoiy xulq-atvorlarning shakllanishi haqida so‘z boradi. Tadqiqot natijalari syujetli-rolli o‘yinlar bolaning ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida rivojlanishida muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, ijtimoiy ko‘nikmalar, syujetli-rolli o‘yinlar, bola rivoji, muloqot, hamkorlik.

Аннотация: В статье подчеркивается важность ролевых игр в развитии социальных навыков у детей дошкольного возраста. Также обсуждается формирование социальных форм поведения у детей в процессе игры, таких как сотрудничество, культура общения, эмпатия и соблюдение правил. Результаты исследования подтверждают, что ролевые игры являются важным фактором социализации и личностного развития ребенка.

Ключевые слова: дошкольное образование, социальные навыки, сюжетно-ролевые игры, развитие ребенка, общение, сотрудничество

Abstract: The article emphasizes the importance of role-playing games in developing social skills in preschool children. It also discusses the formation of social behavior patterns in children during the game, such as cooperation, communication culture, empathy, and compliance with rules. The results of the study confirm that role-playing games are an important factor in the socialization and personal development of a child.

Key words: preschool education, social skills, role-playing games, child development, communication, cooperation

Kirish. XXI asrda ijtimoiy hayotning jadallik bilan rivojlanishi, globallashuv jarayonlari inson kapitaliga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Bu esa shaxsning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishini taqozo etadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy tajriba orttirishi, kommunikativ qobiliyatlari va ijtimoiy moslashuvchanlik darajasining yuqoriligi

ularning kelgusidagi ta’limiy yutuqlari va jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim rol o‘ynaydi [9].

Maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning individual xususiyatlarini, qiziqishlarini, ijtimoiy aloqalarga tayyorlik darajasini hisobga olgan holda ularni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘yinining, xususan syujetli-rolli o‘yinlarning pedagogik qiymati beqiyosdir. Syujetli-rolli o‘yinlar bolalarning nafaqat tafakkurini, tasavvurini, balki ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishini, rollar orqali real hayotiy vaziyatlarda qanday harakat qilishni o‘rganishini ta’minlaydi [6].

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimining tubdan isloh qilinishi bu yo‘nalishga ilmiy-pedagogik e’tiborning ortishiga sabab bo‘ldi. “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Davlat dasturlari, metodik qo‘llanmalarda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida urg‘u berilgan [1]. N.Jo‘raev, G.O‘rozboeva, R.T.Yusupova, N.Yuldasheva kabi mutaxassislarning ilmiy izlanishlari syujetli-rolli o‘yinlarning tarbiyaviy va rivojlantiruvchilik ahamiyatini asoslab beradi.

A.Leontiev hamkorlikni umumiy maqsadga erishishda bolalarning sa’y-harakatlarini birlashtirish va ular o‘rtasida funksiyalar, rollar va mas’uliyatlarni taqsimlash sifatida tavsiflaydi [3]. Demak, bolaning tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatga kirishishi uning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Syujetli-rolli o‘yinlar orqali bola o‘ziga yaqin bo‘lgan rollarni bajarish, atrofdagilar bilan muloqotga kirishish, jamoadagi o‘z o‘rnini topish, boshqalarning fikriga hurmat bilan qarash, muammoni hal qilish kabi ko‘plab ijtimoiy muhim fazilatlarni o‘zlashtiradi [7]. Bu esa ijtimoiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Jumladan, R.T.Yusupovanning ta’kidlashicha, syujetli-rolli o‘yinlar bolalarda “ijtimoiy emotsional ong”ning shakllanishiga, ya’ni o‘z tuyg‘ularini anglash, boshqalarning hissiyotlarini tushunish, to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga xizmat qiladi [8].

Metodologiya. Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda syujetli-rolli o‘yinlarning samaradorligini aniqlashga yo‘naltirildi. Tadqiqot eksperimental-tajriba metodiga asoslanib olib borildi va unda pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish va pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalari quyidagi indikatorlar asosida baholandi:

1. **Muloqotga kirishish qobiliyati** – bolaning tengdoshlari yoki kattalar bilan erkin va faol muloqot qilishi.
2. **Hamkorlik qilishga tayyorlik** – jamoaviy o‘yin va faoliyatda ishtirok etish, tengdoshlariga yordam berish.
3. **Ijtimoiy rolni anglab yetish** – berilgan rollarni mazmunli ijro etish, real hayotiy vaziyatlarga mos harakat qilish.

4. **Emotsional ifodadorlik** – o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, boshqalarning emotsiyalarini tushunish.

5. **Ijtimoiy qoidalarga rioya qilish** – guruh ichida muayyan me‘yor va odoblarni bajara olish.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini, ishonchliligini va taklif etilayotgan pedagogik tavsiyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini ta‘minlaydi.

Tahlil va natijalar. Bugungi zamonaviy jamiyat yosh avlodni jamoada ishlash, hamkorlik qilish, birgalikda ijod qilish qobiliyatlariga ega, ijtimoiy hayotda o‘zini namoyon qila oladigan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashni talab qiladi. Bu esa, ijtimoiy ko‘nikmalarning insonning xulq-atvori va faoliyatiga yo‘nalish beradigan madaniy qadriyatlardan biri sifatida o‘rganishga urg‘u beradi.

Tadqiqotimiz davomida olimlarning fikrlarini tahlil qilish natijasida ijtimoiy ko‘nikmalar haqida quyidagi fikrga kelish mumkin: ijtimoiy ko‘nikmalar – bu bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyati sifatida tavsiflanadi [10].

Ko‘pchilik olimlar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida ijtimoiy ko‘nikmalarning, ya‘ni muloqotning quyidagi tarkibiy qismlarini alohida ajratib ko‘rsatadilar: umumiy maqsadlar, vazifalar, harakatlar va natijalar [4]. Demak, muloqot davomida umumiy maqsadlarning borligi, unga erishishda ma‘lum bir harakat yo‘nalishi bo‘lishi kerakligini ham anglatadi. Shuningdek, maqsadlarga erishish uchun subyektlar o‘rtasidagi muloqotning quyidagi xususiyatlarini aniqlashtiradilar:

- syujetli-rolli o‘yinlar orqali ishtirokchilarning birgalikdagi muvofiqlashtirilgan harakatlari;

- ishtirokchilarning muloqotlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni hal qilishga qaratilganligi;

- umumiy o‘zaro tushunish va birgalikdagi faoliyat natijasi uchun o‘zaro ko‘nikma [2].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, syujetli-rolli o‘yinlar orqali bolalarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi:

- Ijtimoiy vaziyatlarni tushunish va moslashuvchanlik oshdi;
- Kommunikativ qobiliyatlar faollashdi;
- Jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari shakllandi;
- O‘zaro hurmat va tinglay olish madaniyati rivojlandi;
- Bolalar o‘zini turli ijtimoiy rollarda sinab ko‘rdi va bu ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamladi.

Munozara. Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishida syujetli-rolli o‘yinlarning beqiyos o‘rni borligini yana bir bor tasdiqladi. Syujetli-rolli o‘yinlar bolalarning real hayotdagi voqealarni badiiy model orqali o‘zlashtirishiga, turli rollar orqali ijtimoiy munosabatlar mohiyatini anglashiga imkon beradi. Bu holat bolada nafaqat o‘yin

faoliyati, balki kundalik hayotda ham o‘zini tutish, muomala qilish, mas’uliyatli bo‘lish kabi ko‘nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Pedagog olimi N.Yuldasheva o‘z tadqiqotlarida syujetli-rolli o‘yinlarning bolalar psixologik holatiga, emotsional-intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, rollar orqali bola o‘z his-tuyg‘ularini anglaydi, boshqalarning hissiyotlariga e’tiborli bo‘lishni o‘rganadi. Ushbu fikrlar bizning tadqiqot natijalari bilan hamohang bo‘lib, ayniqsa emotsional ifodadorlik va muloqotga kirishish indikatorlaridagi sezilarli ijobiy o‘zgarishlar bu jihatni yaqqol isbotlab berdi.

Shuningdek, R.T.Yusupova syujetli-rolli o‘yinlar orqali bola jamiyatdagi muayyan rollarni ongli ravishda o‘zlashtirishi, ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonida faol subyektga aylanishini ta’kidlaydi. Bizning tadqiqotda ham aynan “ijtimoiy rolni anglash” va “ijtimoiy qoidalarga rioya qilish” indikatorlaridagi yuksalish bu nazariy fikrlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Bolalar o‘yin davomida “shifokor”, “sotuvchi”, “muallim”, “ota-ona” kabi rollarni ijro etar ekan, bu rollarning mazmunini tushunib, unga mos tarzda harakat qila boshladi [5].

G.O‘rozboeva esa syujetli-rolli o‘yinlarning bola tafakkurini faollashtirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmasini rivojlantirishdagi ahamiyatini alohida e’tirof etadi. Tadqiqotimizda ham bolalarning vaziyatga mos harakat qilish, jamoa ichida o‘z o‘rnini topish, tengdoshlariga yordam ko‘rsatish, hamkorlik qilish kabi ko‘nikmalarida ijobiy dinamikani kuzatdik. Ayniqsa, “Hamkorlik qilishga tayyorlik” indikatorining o‘sishi bolalarda ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarning shakllanishidan dalolat beradi.

Muhim jihatlardan biri – tajriba davomida o‘yin faoliyatiga tarbiyachining to‘g‘ri yondashuvi, pedagogik rahbarlikning natijalarga bevosita ta’sir ko‘rsatganidir. Tarbiyachilar rollar taqsimotini erkin va demokratik tarzda tashkil etishi, bolalarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashi o‘yinining tabiiy va qiziqarli kechishiga zamin yaratdi. Bu esa syujetli-rolli o‘yinlarda pedagogik rahbarlikning ahamiyatini yana bir bor ta’kidlaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ota-onalar bilan olib borilgan suhbatlar shuni ko‘rsatdiki, syujetli-rolli o‘yinlar uy sharoitida ham bola faoliyatining muhim bir qismiga aylanishi mumkin. Ba’zi ota-onalar farzandlarining o‘zaro muloqot qilishida ijobiy o‘zgarishlar bo‘lganini, ijtimoiy masalalarga nisbatan qiziqishi oshganini ta’kidlashdi. Bu esa bolada o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik darajasining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, tadqiqotdan quyidagi muhim xulosalarni chiqarish mumkin:

- 1) syujetli-rolli o‘yinlar bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda eng samarali ta’sir vositalaridan biridir;
- 2) bunday o‘yinlar orqali bola nafaqat real hayotni modellashtiradi, balki o‘z harakatlarini tahlil qilish, boshqalarning fikriga hurmat bilan qarashni o‘rganadi;
- 3) tarbiyachining o‘yin jarayonidagi faol ishtiroki va pedagogik nazorati ijtimoiy rivojlanishni jadallashtiradi;

4) ota-onalar bilan hamkorlikda o‘yin muhitining kengaytirilishi bolalarning rivojlanishiga kompleks ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot davomida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda syujetli-rolli o‘yinlarning yuqori pedagogik salohiyatga ega ekanligi aniqlandi. O‘yin faoliyati orqali bola real hayotiy vaziyatlarni modellash tiradi, turli ijtimoiy rollarni sinab ko‘radi, o‘zaro muloqot, hamkorlik, his-tuyg‘ularni ifoda etish, muammoli holatlarni hal qilish, me‘yor va qoidalarga rioya qilish kabi muhim ijtimoiy-hayotiy ko‘nikmalarni egallaydi.

Shuningdek, o‘yin faoliyatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachi-pedagogning o‘yin jarayonini qanday tashkil etishiga, bolaning tashabbusini qo‘llab-quvvatlashiga, o‘yin ssenariylarini hayotiy vaziyatlarga asoslab tuzishiga bog‘liq ekanligi ham tasdiqlandi.

Takliflar:

1. Maktabgacha ta‘lim muassasalarining ta‘lim dasturlariga syujetli-rolli o‘yinlar tizimini muntazam va rejalashtirilgan shaklda kiritish tavsiya etiladi. Ular orqali bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish, muloqot, madaniyat, xulq va qadriyatlar asoslari shakllantiriladi.

2. Tarbiyachilar uchun syujetli-rolli o‘yinlar bo‘yicha metodik qo‘llanmalar, ssenariylar, o‘yin kartotekalari yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish zarur. Bu o‘yinlarning maqsadli va samarali tashkil etilishini ta‘minlaydi.

3. Pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalarida syujetli-rolli o‘yinlar metodikasi bo‘yicha alohida fanlar va modullarni joriy etish orqali tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish lozim.

4. Ota-onalar bilan hamkorlikda uy sharoitida ham syujetli-rolli o‘yinlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, bu orqali bola rivojlanishiga oilaning ta‘sirini kuchaytirish mumkin.

5. Kelajakda bu yo‘nalishda yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar olib borish, xususan, syujetli-rolli o‘yinlarning har bir ijtimoiy ko‘nikmaga ta‘sirini alohida o‘rganish, turli yosh guruhlar va ijtimoiy sharoitlarda qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi. Davlat maktabgacha ta‘lim dasturi – Takomillashtirilgan “Ilk qadam”. Toshkent, 2022

2. Дыбина О.В. Интеграция образовательных областей в педагогическом процессе: пособие для педагогов дошкольных учреждений [Текст] / О.В. Дыбина, С.Е. Анфисова, О.П. Болотникова, О.А. Еник, А.Ю. Кузина, Л.А. Пенькова, Е.А. Сидякина, В.В. Щетинина; под ред. О.В. Дыбиной. – М.: МОЗАИКА-СИНТЕЗ, 2012. – 80 с.

3. Леонтьев А.Н. Психическое развитие ребенка дошкольного возраста [Текст] // Вопросы психологии ребенка дошкольного возраста – М., 2000. – 40 с

4. Мудрик А.В. Общение в процессе воспитания: Учеб. пособие [Текст] / А.В. Мудрик. – М. : Пед. общество России, 2001. – 319 с.
5. Nurjonova R.U. Syujetli-rolli o‘yinlar orqali bolalarda ijtimoiy tajriba hosil qilish mexanizmlari. – Ilmiy maqola. “Pedagogik mahorat” jurnali, №4, 45–49-bet, 2021.
6. Sattorov S. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish. Toshkent: “Ilm ziyo” nashriyoti, 2020
7. Toshpo‘latova G. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida o‘yin faoliyatining o‘rni. – “Ta’lim va rivojlanish” jurnali, №2, 27–31-bet, 2018
8. Usmonxo‘jayev A. O‘yin – bolalik dunyosining asosiy vositasi. Toshkent: “Ma’rifat” nashriyoti. 2022.
9. Yo‘ldoshev G‘. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019
10. Shirinova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish yo‘llari. – “Maktabgacha ta’lim” jurnali, №3, 15–19-bet. 2020.



TINGLOVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY MALAKA OSHIRISHDA INKLYUZIV TA'LIMGA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

M.A.Tilakova

*Jizzax viloyat pedagogi mahorat markazi
"Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari"
kafedra mudiri p.f.f.d(PhD) dots.*

Annotatsiya: Hozirgi zamonda ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning ahamiyati har qachongidan ham oshib bormoqda. Inklyuziv ta'lim, barcha tinglovchilarni, shu jumladan, turli xil ehtiyojlari va imkoniyatlari bo'lgan shaxslarni ham qamrab olishni maqsad qilgan ta'lim modelidir. Bu yondashuv, kasbiy malaka oshirish jarayonida ham o'z o'rnini topmoqda. Ushbu maqolada tinglovchilarni uzluksiz kasbiy malaka oshirishda inklyuziv ta'limga tayyorgarligini takomillashtirishning muhim jihatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, kasbiy malaka oshirish, tajriba almashish, tinglovchilar, ta'lim muassasalari, individual rivojlanish.

Аннотация: В настоящее время важность инклюзивного подхода в системе образования возрастает как никогда. Инклюзивное образование — это образовательная модель, которая направлена на охват всех обучающихся, в том числе с разными потребностями и возможностями. Этот подход также находит свое место в процессе профессионального развития. В данной статье представлена информация о важных аспектах повышения готовности обучающихся к инклюзивному образованию в непрерывном профессиональном развитии.

Ключевые слова: инклюзивное образование, профессиональное развитие, обмен опытом, обучающиеся, образовательные учреждения, индивидуальное развитие.

Abstract: Nowadays, the importance of an inclusive approach in the education system is increasing more than ever. Inclusive education is an educational model that aims to cover all learners, including those with different needs and opportunities. This approach is also finding its place in the process of professional development. This article provides information on important aspects of improving the readiness of learners for inclusive education in continuous professional development.

Keywords: inclusive education, professional development, exchange of experience, learners, educational institutions, individual development.

KIRISH

Inklyuziv ta'lim — bu har bir shaxsning ta'lim olish huquqini tan oladigan va barcha tinglovchilarni, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ham ta'lim jarayoniga jalb qilishga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu ta'lim modeli, har bir tinglovchining o‘ziga xos ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularga teng imkoniyatlar yaratishni maqsad qiladi. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari, har bir shaxsning qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan individual yondashuvni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Inklyuziv ta'lim, nafaqat nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun, balki barcha tinglovchilar uchun ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inklyuziv ta'lim — bu barcha tinglovchilarni, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ham ta'lim jarayoniga jalb qilishga qaratilgan yondashuvdir. Saidova, inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari va ularning amaliyotdagi qo‘llanilishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Saidova, tinglovchilarni tayyorlash jarayonida individual yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi, bu esa har bir tinglovchining o‘ziga xos ehtiyojlarini inobatga olish imkonini beradi.[1] Tursunov, kasbiy malaka oshirish jarayonida inklyuziv ta'limning ahamiyatini o‘rganadi. U, o‘qituvchilarni tayyorlashda inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan metodologik yondashuvlarni taklif etadi. Tursunov, tinglovchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi va amaliy misollar bilan tasdiqlaydi.[2] Qodirova, ta'lim jarayonida inklyuziv yondashuvning yangi g‘oyalarini taqdim etadi. U, o‘qituvchilarni tayyorlashda innovatsion metodlar va strategiyalarni qo‘llashni taklif etadi. Ta'lim jarayonida barcha tinglovchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish zarurligini ta'kidlaydi. [3]

NATIJALAR

Inklyuziv ta'lim, ta'lim olish jarayonida barcha tinglovchilarning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta'minlashga qaratilgan. Bu yondashuv, nafaqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, balki turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy qatlamlardan kelgan tinglovchilar uchun ham muhimdir. Bu esa, o‘z navbatida, tinglovchilarning o‘zlarini erkin his qilishlariga, o‘z fikrlarini ifoda etishlariga va o‘zaro hamkorlik qilishlariga imkon yaratadi. Kasbiy malaka oshirish - bu har bir mutaxassisning o‘z sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni yangilash jarayonidir. Inklyuziv ta'lim bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki u tinglovchilarning o‘zaro hamkorligini, tajriba almashishini va o‘zaro yordam ko‘rsatishini rag‘batlantiradi. Bu yondashuv, tinglovchilarga o‘zaro fikr almashish, yangi g‘oyalarni muhokama qilish va o‘z bilimlarini kengaytirish imkonini beradi. Kasbiy malaka oshirish jarayonida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, u tinglovchilarning o‘zaro aloqalarini mustahkamlashga, ularning o‘zaro yordam ko‘rsatishiga va bir-biridan o‘rganishiga yordam beradi.[4]

O‘qituvchilar, shuningdek, inklyuziv ta'lim prinsiplarini o‘z darslarida qo‘llash orqali tinglovchilarning o‘zaro hamkorligini rag‘batlantirishi va ularning o‘zlarini erkin his

qilishlariga yordam berishi lozim. Bu jarayon, o‘qituvchilarning malakasini oshirishni, ularni yangi ta’lim texnologiyalari va metodikalar bilan tanishtirishni talab etadi. O‘qituvchilar, shuningdek, tinglovchilarning o‘zaro aloqalarini rivojlantirish va ularning o‘zaro yordam ko‘rsatishlarini ta’minlash uchun turli xil faoliyatlarni rejalashtirishlari zarur. Inklyuziv ta’limni amalga oshirish uchun ta’lim dasturlarini takomillashtirish zarur. Dasturlar, har bir tinglovchining ehtiyojlariga javob beradigan, turli xil o‘qitish usullarini o‘z ichiga olishi kerak. Shuningdek, ta’lim dasturlarida amaliy mashg‘ulotlar, guruhli ishlash va muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyatlar ko‘zda tutilishi lozim. [5]

MUHOKAMA

Zamonaviy texnologiyalar inklyuziv ta’limni amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Onlayn ta’lim platformalari, interaktiv darslar va raqamli resurslar, tinglovchilarga o‘z bilimlarini oshirishda qulaylik yaratadi. Ushbu texnologiyalar yordamida tinglovchilar o‘zlarining individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim olishi mumkin. Shuningdek, texnologiyalar, o‘qituvchilarga darslarni yanada qiziqarli va samarali o‘tkazish imkonini beradi. Texnologiyalardan foydalanish, tinglovchilarning o‘qituvchilar bilan aloqalarini yanada mustahkamlashga va o‘zaro fikr almashish jarayonini soddalashtirishga yordam beradi. Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘zaro hamkorlik va tajriba almashish juda muhimdir. Ta’lim muassasalari, tashkilotlar va jamoatchilik o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish, inklyuziv ta’limni yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi. Bunday hamkorlik, tinglovchilarning o‘zaro tajriba almashishini, yangi g‘oyalarni o‘rganishini va bir-biridan o‘rganishini ta’minlaydi. O‘zaro hamkorlik, shuningdek, ta’lim jarayonida yangi yondashuvlar va metodikalarni joriy etishga yordam beradi, bu esa tinglovchilarning kasbiy malakalarini oshirishga xizmat qiladi. Uzlüksiz kasbiy malaka oshirishda inklyuziv ta’limga tayyorgarlik jarayoni, tinglovchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon, nafaqat individual rivojlanishni, balki butun jamiyatning rivojlanishini ta’minlaydi. Inklyuziv ta’lim, barcha tinglovchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratish orqali, ularning kasbiy faoliyatlarini yanada samarali amalga oshirishlariga yordam beradi. Natijada, inklyuziv ta’lim nafaqat tinglovchilarning malakasini oshirishga, balki ularning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashga ham xizmat qiladi.[6]

XULOSA

Tinglovchilarni uzluksiz kasbiy malaka oshirishda inklyuziv ta’limga tayyorgarligini takomillashtirish, ta’lim tizimining muhim jihatlaridan biridir. Bu jarayon, har bir tinglovchining ehtiyojlarini inobatga olish, ta’lim muassasalari va o‘qituvchilar tomonidan inklyuziv yondashuvni qo‘llash, ta’lim dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali amalga oshirilishi zarur. O‘zaro hamkorlik va tajriba almashish, bu jarayonda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Saidova, D. (2022). "Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot". Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.

2. Tursunov, A. (2023). "Kasbiy malaka oshirishda inklyuziv yondashuv". Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
3. Qodirova, M. (2021). "Ta'limda inklyuziv yondashuv: yangi g'oyalar". Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
4. Rahimov, F. (2020). "Uzluksiz ta'lim va inklyuziv ta'lim". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
5. Xolmatova, N. (2022). "O'qituvchilar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish". Andijon: Andijon Davlat Universiteti.
6. Yusupova, Z. (2023). "Tinglovchilarni tayyorlashda inklyuziv ta'lim". Farg'ona: Farg'ona Davlat Universiteti.
7. Jalilov, S. (2021). "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va inklyuziv yondashuv". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi.
8. Abdullaeva, L. (2022). "Ta'limda inklyuzivlik va ijtimoiy adolat". Nukus: Qoraqalpog'iston Davlat Universiteti.
9. Isroilov, R. (2023). "Kasbiy malaka oshirishda inklyuziv ta'limning roli". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.



PEDAGOGIK INTEGRATSIYANI RIVOJLANTIRISH VA SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Rasulova Mohidil Tursunaliyevna

Orcid ID: 0000-0002-3456-3384

*Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,
dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta‘lim tizimida pedagogik integratsiya tushunchasining nazariy-metodologik asoslari chuqur tahlil qilinadi. Integratsiyaning mazmuni, uning ta‘lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni, fanlararo aloqadorlikni shakllantirishdagi roli va shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim bilan uzviy bog‘liqligi yoritilgan. Pedagogik integratsiyaning rivojlanish bosqichlari tarixiy va zamonaviy kontekstda tahlil etilib, jahon va O‘zbekiston olimlarining qarashlari solishtirildi. Shuningdek, tizimli, konstruktivistik va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida integratsiyaning metodologik negizlari asoslab berildi.

Maqolada integratsiyalashgan o‘qitish modelini shakllantirishga ta‘sir etuvchi metodik, tashkiliy va psixologik omillar ajratib ko‘rsatilgan. Finlyandiya, AQSH, Yaponiya kabi davlatlar ta‘lim tizimlaridagi ilg‘or tajribalar va O‘zbekiston olimlarining ilmiy yondashuvlari solishtirilib, milliy ta‘lim amaliyotiga mos tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda nazariy-tahliliy, komparativ va umumlashtirish metodlari asosida pedagogik integratsiyaning imkoniyatlari va istiqbollari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik integratsiya, metodologik yondashuv, tizimli ta‘lim, konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv, fanlararo bog‘liqlik, interfaol metodlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, o‘quv jarayoni, ta‘lim sifati, integratsiyalashgan model, innovatsion texnologiyalar, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish, raqamli ta‘lim, metodik ta‘minot.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются теоретико-методологические основы педагогической интеграции в условиях современной системы образования. Раскрыто содержание интеграции, её роль в повышении эффективности обучения, формировании межпредметных связей и связи с личностно-ориентированным подходом. Рассмотрены этапы развития педагогической интеграции в историческом и современном контексте, сопоставлены взгляды зарубежных и узбекских учёных. Теоретическая база интеграции обоснована через призму системного, конструктивистского и компетентностного подходов.

В статье выделены методические, организационные и психологические факторы, влияющие на формирование интегрированного обучения. На основе сравнительного

анализа представлены передовые практики образовательных систем Финляндии, США и Японии, а также научные подходы узбекских исследователей, адаптированные к национальной образовательной среде. В ходе исследования использованы теоретический анализ, сравнительный подход и методы обобщения, благодаря которым определены возможности и перспективы педагогической интеграции.

Ключевые слова: Педагогическая интеграция, методологический подход, системное обучение, конструктивизм, компетентностный подход, межпредметные связи, интерактивные методы, личностно-ориентированное обучение, образовательный процесс, качество образования, интегрированная модель, инновационные технологии, практика-ориентированное обучение, цифровое образование, методическое обеспечение.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological foundations of pedagogical integration within the context of modern education systems. The concept of integration, its role in enhancing teaching effectiveness, strengthening interdisciplinary connections, and its relation to learner-centered education are thoroughly examined. The historical and contemporary stages of the development of pedagogical integration are discussed, with a comparison of views held by Uzbek and international scholars. The theoretical base of integration is substantiated through systemic, constructivist, and competency-based approaches.

The article identifies the methodological, organizational, and psychological factors influencing the formation of integrated teaching practices. It also presents a comparative analysis of advanced educational practices from Finland, the USA, and Japan, alongside scholarly perspectives from Uzbekistan adapted to the national educational context. The research utilizes theoretical analysis, comparative methods, and synthesis to explore the potential and prospects of pedagogical integration.

Keywords: Pedagogical integration, methodological approach, systemic education, constructivism, competency-based approach, interdisciplinary connections, interactive methods, learner-centered education, educational process, education quality, integrated model, innovative technologies, practice-oriented teaching, digital education, methodological support.

KIRISH: Zamonaviy ta'lim tizimida yuz berayotgan global o'zgarishlar va islohotlar o'qitishning an'anaviy shakl va uslublarini qayta ko'rib chiqishni, ularni zamonaviy ehtiyojlarga mos tarzda transformatsiya qilishni talab qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, bilimlar hajmining ortishi, fanlararo aloqalarning kuchayishi, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim paradigmasining shakllanishi ta'limda integratsiyalashgan yondashuvlarning ustuvor ahamiyat kasb etishiga olib kelmoqda. Shunday sharoitda pedagogik integratsiya tushunchasi yangi ilmiy va amaliy yo'nalish sifatida nafaqat ta'lim mazmunini, balki o'qitish metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ham o'z ichiga oluvchi muhim metodologik asos sifatida e'tirof etilmoqda.

Pedagogik integratsiyaning asosiy mohiyati fanlar, bilimlar, ko‘nikma va kompetensiyalarni uzviy bog‘langan holda talaba ongiga singdirishdan iborat bo‘lib, bu yondashuv talabalarning mustaqil fikrlashi, tizimli tafakkuri, tanqidiy yondashuvi va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan o‘qitish modeli nafaqat o‘quv fanlarini uyg‘unlashtiradi, balki ularning hayotiy kontekst bilan bevosita aloqadorligini ham mustahkamlab, talaba uchun mazmunli va foydali bilim manbasiga aylanadi. Shu bilan birga, integratsiyalashgan yondashuv ta’limda motivatsiyani oshiradi, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi, fanlararo tafakkurni shakllantiradi hamda real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi.

Afsuski, amaliyotda pedagogik integratsiya yondashuvi hali to‘laqonli joriy etilmagan. Ko‘plab o‘quv fanlari alohida, izolyatsiyalashgan holatda o‘qitilmoqda, bu esa talabalarda fanlararo bog‘liqlikni anglash, bilimlarni uyg‘unlashtirib qo‘llashda muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. O‘qituvchilar tomonidan integratsiyalashgan darslarni loyihalash, metodik vositalardan foydalanish, baholash mezonlarini ishlab chiqish bo‘yicha zarur kompetensiyalarning yetarli emasligi integratsiyaning samarali shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bu muammolar ta’lim mazmuni, metodikasi va tashkiliy-boshqaruv tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada pedagogik integratsiyaning nazariy asoslari, shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va uni ta’lim amaliyotida samarali joriy etishning metodologik yo‘nalishlari o‘rganiladi. Tadqiqotda O‘zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi solishtirilib, mavjud muammo va kamchiliklar tahlil qilinadi, integratsiyalashgan ta’lim modelini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar yoritiladi. Shu bilan birga, integratsiyaning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion texnologiyalar bilan uzviy aloqasi ochib beriladi.

Maqolaning asosiy maqsadi – pedagogik integratsiyaning nazariy-metodologik asoslarini tizimli tahlil qilish, uning rivojlanish istiqbollarini aniqlash va ta’lim amaliyotida qo‘llashga oid asosli tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu ilmiy yondashuv, ayniqsa O‘zbekiston ta’lim tizimida fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish, ta’lim sifatini oshirish va talabalarning funksional savodxonligini rivojlantirishga xizmat qilishi kutiladi.

METODLAR: “Integratsiya” so‘zi lotincha “integrare” – “yagona yaxlitlikka birlashtirish” degan ma’noni bildiradi. Pedagogika sohasida esa bu tushuncha o‘quv fanlari, bilimlar, ko‘nikmalar, metodlar, vositalar va o‘qitish shakllarining bir-biriga uyg‘unlashtirilgan holda yagona tizimda tashkil etilishini anglatadi. Zamonaviy ta’lim paradigmasida “pedagogik integratsiya” atamasi o‘quv jarayonining yaxlitligini ta’minlashga, fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlashga, bilimlarni hayotiy kontekstda o‘zlashtirishga qaratilgan metodologik yondashuv sifatida qaraladi.

Pedagogik integratsiyaga oid ilk ilmiy qarashlar XX asrning o‘rtalariga borib taqaladi. Rus olimi V.V. Kraevskiy pedagogik integratsiyani o‘quv faoliyati komponentlarining (maqsad, mazmun, metod, shakl, vosita) o‘zaro bog‘liqligi asosida ko‘rib, uni ta’lim tizimining

muvozanatli rivojlanish mezoni sifatida tavsiflaydi. Unga ko‘ra, integratsiya ta’limni fragmentatsiyalashdan (ajratilgan, bo‘lakli holat) chiqaradi va talabalarda yaxlit tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

I.Ya. Lerner pedagogik integratsiyani bilimlarni tizimlashtirish va nazariy–amaliy bog‘liqlikni ta’minlovchi vosita deb hisoblaydi. Uning fikricha, talaba faqat izchil integratsiyalashgan bilim asosida murakkab muammoli vaziyatlarni hal etishga qodir bo‘ladi. B.S. Gershunskiy esa pedagogik integratsiyani global fikrlash, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish va ijtimoiylashuv vositasi sifatida baholaydi. Amerikalik pedagog J. Bruner integratsiyani o‘quv materialining strukturaviy tashkil etilishi orqali tushuntiradi. U “spiral o‘qitish” modelida fanlar o‘rtasida konseptual bog‘liqlikni ta’minlash, talabaning bilim darajasiga mos, bosqichma-bosqich chuqurlashtirib boriladigan integratsiyalashgan o‘qitish metodikasini ishlab chiqqan. J. Dewey esa integratsiyani talabalar faoliyatiga tayangan holda izohlaydi. Unga ko‘ra, integratsiyalashgan ta’limda bilimlar o‘zlashtirilmaydi, balki amaliy faoliyat orqali “yaratiladi”, bu esa talabaning o‘zi quradigan konstruktivistik o‘qitish modeliga asos bo‘ladi.

O‘zbekistonlik olimlar orasida pedagogik integratsiya masalasi ustida professor Azizxo‘jayev A.A. keng tadqiqotlar olib borgan. U pedagogik integratsiyani o‘qitishning metodlari, shakllari va vositalarining bir butun didaktik tizimda uyg‘unlashuvi sifatida talqin qiladi. Abduqodirov A. integratsiyani o‘quv jarayonida fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlash orqali talabada mantiqiy, tizimli va kompleks fikrlashni shakllantirish vositasi deb hisoblaydi. S. Hasanov esa innovatsion pedagogika doirasida integratsiyalashgan o‘qitishni ta’lim samaradorligini oshiruvchi, talabani faol subyektga aylantiruvchi metodik yondashuv sifatida tavsiflaydi. Pedagogik integratsiya tushunchasi, shuningdek, xalqaro tashkilotlar – masalan, OECD va UNESCO ekspertlari tomonidan ham ilgari surilgan. OECD tomonidan ishlab chiqilgan “Education 2030” konsepsiyasida integratsiyalashgan yondashuvlar orqali talabalarning funksional savodxonligini rivojlantirish, real hayotiy muammolarni tahlil qilishga qodir kompetensiyalarni shakllantirishga alohida urg‘u beriladi. UNESCO ekspertlari esa CLIL (Content and Language Integrated Learning) modelini integratsiyaning zamonaviy ko‘rinishi sifatida ko‘rsatib, til va mazmunning integratsiyasi orqali ko‘p funksiyali bilim shakllanishini ta’kidlaydi.

Shu tariqa, pedagogik integratsiya – bu fanlar va bilimlar o‘rtasida yuzaga keladigan tabiiy aloqadorlikni tizimli asosda ta’lim jarayoniga tatbiq etuvchi ilmiy-metodik yondashuvdir. U ta’limning barcha bosqichlarida, barcha fanlar doirasida, talabaning individual rivojlanish ehtiyojlari asosida tashkil qilinishi mumkin. Integratsiyalashgan ta’lim modeli zamonaviy ta’lim sifatining asosi, o‘qitish samaradorligini oshirish vositasi va innovatsion pedagogik faoliyatning yadro elementidir. Pedagogik integratsiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, uning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rnini anglash va tatbiq doirasini kengaytirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Integratsiya — bu tabiiy fanlar, gumanitar bilimlar, texnologik yo‘nalishlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’lim

jarayonida uyg‘unlashtirish tamoyiliga asoslangan pedagogik hodisadir. Uning shakllanishi bosqichma-bosqich kechgan bo‘lib, har bir davr o‘zining metodik va nazariy yangiliklari bilan ajralib turadi.

NATIJALAR: Jahon miqyosida pedagogik integratsiyaning rivojlanishini shartli ravishda to‘rt bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich (XX asr boshlarigacha) — bu davrda o‘quv fanlari o‘rtasidagi umumiyliklarga asoslangan holda integratsiyaning ilk belgilarini ko‘rish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarining biologiya va geografiya bilan uyg‘unligida yoki tarix va adabiyot fanlari orqali ijtimoiy voqealarni tushuntirishda bunday aloqadorliklar paydo bo‘lgan. Biroq bu davrdagi yondashuvlar ko‘proq empirik xarakterga ega edi.

Ikkinchi bosqich (XX asr o‘rtalarigacha) — bu davrda ta‘limning didaktik asoslari shakllana boshladi. Fanlararo integratsiyaning nazariy konsepsiyasi olimlar tomonidan ishlab chiqildi. I.Ya. Lerner o‘quv fanlari mazmunidagi umumiyliklar asosida talabalarda tizimli bilimni shakllantirish g‘oyasini ilgari surdi. John Dewey faoliyatga asoslangan ta‘lim doirasida bilimlar integratsiyasini ta‘lim-tarbiyaviy maqsadga aylantirdi. Integratsiya jarayoni talabalar shaxsini shakllantirishda vosita sifatida ko‘rila boshlandi.

Uchinchi bosqich (XX asr oxiri) — bu davrda konstruktivistik va tizimli yondashuvlar pedagogik integratsiyaning nazariy asoslarini chuqurlashtirdi. Jerome Bruner tomonidan taklif etilgan spiral o‘qitish modeli, fanlararo muammolar asosida o‘qitish tizimi (problem-based learning), CLIL (mazmun va til integratsiyasi) va STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) kabi yondashuvlar shakllandi. Bu davrda integratsiya nafaqat mazmun darajasida, balki metod, baholash va o‘quv muhitida ham tadbiq etildi.

To‘rtinchi bosqich (XXI asr va hozirgi davr) — innovatsion texnologiyalar, raqamli vositalar va kompetensiyaviy yondashuv asosida integratsiyalashgan o‘qitish metodlari keng rivojlandi. Finlyandiyada o‘quv dasturlarining 70% dan ortig‘i integratsiyalashgan holda tuzilgan bo‘lib, bu mamlakatda “fenomen asosida o‘qitish” tamoyili asosiy yondashuvga aylangan. AQSHda esa STEM va STEAM yondashuvlari asosida fanlararo loyihalarga asoslangan o‘qitish metodi keng qo‘llanilmoqda. Yaponiyada esa “Lesson Study” tizimi orqali integratsiya amaliyotda doimiy takomillashtirilib boriladi.

O‘zbekiston ta‘lim tizimida esa pedagogik integratsiya mustaqillikdan so‘ng bosqichma-bosqich joriy etila boshladi.

1990–2000 yillarda integratsiyalashgan yondashuvlar hali keng qo‘llanilmagan, biroq o‘quv rejalari va darsliklarda mavzulararo bog‘liqlikka e‘tibor qaratilgan.

2000–2010 yillar oralig‘ida integratsiyalashgan o‘quv rejalari bo‘yicha tajriba maktablarida loyihalar sinovdan o‘tkazildi, ayniqsa boshlang‘ich ta‘limda texnologiya va adabiyot fanlari birgalikda o‘qitila boshlandi.

2010 yildan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, “Ilm-fan yili”, “Raqamli ta‘lim” dasturlari asosida integratsiyalashgan o‘quv modellariga bo‘lgan e‘tibor kuchaydi. Ayniqsa, 2021 yildagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi yangi qonun va “Ilmiy-ta‘lim klasteri”

konsepsiyasi asosida fanlararo loyihalar va integratsiyalashgan yondashuvlar bo‘yicha amaliy tajribalar yo‘lga qo‘yildi.

Hozirgi kunda pedagogik integratsiya O‘zbekiston ta’lim siyosatida ta’lim sifatini oshirish, talabalarni amaliy muammolarga tayyorlash va bilimlarning hayotga tatbiq etilishini kuchaytirish vositasi sifatida qaralayapti. Bu jarayonda pedagoglarning metodik malakasi, o‘quv rejalarning moslashuvchanligi va axborot texnologiyalari muhim rol o‘ynamoqda.

MUHOKAMA: Pedagogik integratsiyani samarali shakllantirish uchun uni chuqur ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tashkil etish lozim. Metodologik asoslar ta’lim jarayonining negizi bo‘lib, integratsiya mazmunini, shaklini va maqsadini belgilab beradi. Pedagogik integratsiya ko‘p komponentli, murakkab va tizimli jarayon bo‘lgani sababli, unga quyidagi uchta asosiy metodologik yondashuv katta ahamiyat kasb etadi: tizimli, konstruktivistik va kompetensiyaviy yondashuvlar.

Tizimli yondashuv pedagogik integratsiyaning ichki strukturaviy bog‘liqligini ta’minlaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quv jarayoni tarkibidagi barcha elementlar — o‘quv mazmuni, metodlar, shakllar, vositalar va baholash vositalari — o‘zaro uzviy aloqada va yagona maqsad asosida harakat qilishi kerak. Tizimli yondashuv orqali fanlar o‘rtasidagi mavzulararo aloqadorlik, ularning ketma-ketligi va mantiqiy tartibi ta’minlanadi. Bu esa bilimlarning yaxlit tarzda o‘zlashtirilishini, talabalarda tizimli fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishini kafolatlaydi.

Konstruktivistik yondashuv talabani ta’lim jarayonining markaziga qo‘yadi. Bu yondashuvda talaba tayyor bilimni emas, balki o‘z faoliyati orqali mazmunni anglaydi, o‘z bilimini “yaratadi”. Integratsiyalashgan ta’limda konstruktivizm talabalarga turli fanlar asosida hayotiy muammolarni yechish, tadqiq qilish, taxmin qilish va xulosa chiqarish imkoniyatini beradi. Fanlararo integratsiya konstruktivistik modelda talabani mustaqil, faol, muammoga yo‘naltirilgan shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa pedagogik integratsiyaning amaliy va natijaviy jihatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bu yondashuvga ko‘ra, ta’lim natijasi faqat bilim va ko‘nikmalar emas, balki talabaning bilimni real vaziyatlarda qo‘llay olish, muloqot qilish, jamoada ishlash, axborotni tahlil qilish kabi funksional kompetensiyalar shaklida namoyon bo‘ladi. Integratsiyalashgan ta’lim aynan shu kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay muhit yaratadi, chunki fanlararo bog‘liqlik va hayotiylik prinsipiga tayangan holda, bilim amaliyotga yaqinlashtiriladi. Pedagogik integratsiya tizimli, konstruktivistik va kompetensiyaviy yondashuvlarning uyg‘unlashuvi orqali ta’lim jarayonining yangilanishiga, uning natijadorligi va amaliyligiga erishishga xizmat qiladi.

Pedagogik integratsiyaning muvaffaqiyatli shakllanishi bir qator ichki va tashqi omillarning uzviy ta’siri ostida ro‘y beradi. Ushbu omillarni tahlil qilish orqali integratsiyalashgan o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish, uni amaliyotda joriy etish imkoniyatlarini belgilash mumkin. Asosiy ta’sir etuvchi omillarni metodik, tashkiliy va psixologik jihatlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Metodik omillar pedagogik integratsiyaning mazmuni va uni amalga oshirish vositalariga bevosita ta’sir qiladi. Eng avvalo, o‘qituvchilarning integratsiyalashgan darslarni loyihalash va olib borish bo‘yicha metodik tayyorgarligi yetarli bo‘lishi lozim. Integratsiyalashgan darslar yuqori darajadagi rejalashtirish, fanlararo bog‘liqlikni aniqlash, mos interfaol metodlarni tanlash va natijalarni baholashni talab qiladi. Shu bois, metodik vositalar — dars ishlanmalari, qo‘llanmalar, modullar, testlar — integratsiyaga moslashtirilgan bo‘lishi zarur. Buning uchun o‘qituvchilar uchun maxsus metodik seminarlar va treninglar o‘tkazilishi lozim.

Tashkiliy omillar esa ta’lim muassasasining ichki tuzilmasi, o‘quv rejalarning moslashuvchanligi, rahbariyatning yondashuvi va moddiy-texnik baza holati bilan bog‘liqdir. Integratsiyalashgan o‘quv rejalari, moslashuvchan dars jadvali, o‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlikdagi ish faoliyati, tarmoqlararo seminarlar va tajriba almashuvlari bu jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, ta’lim muassasasining rahbariyati tomonidan integratsiyalashgan metodikalarni joriy etishga sharoit yaratish, moddiy vositalar, zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash ham muhim rol o‘ynaydi.

Psixologik omillar pedagog va talabaning ichki motivatsiyasi, munosabati va tayyorgarlik darajasi bilan chambarchas bog‘liq. O‘qituvchining yangilikka ochiqqligi, tajriba o‘rganishga tayyorligi, fanlararo hamkorlikka ijobiy munosabati integratsiyaning muvaffaqiyatiga ta’sir qiladi. Talabalarda esa integratsiyalashgan darslar orqali mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yo‘l topish, ijodkorlik va hamkorlikda ishlash kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Bunday yondashuv ijobiy psixologik muhitda samarali natija beradi. Pedagogik integratsiyani shakllantirish jarayoni faqat metodik tayyorgarlik bilan emas, balki uning tashkiliy asoslari va ishtirokchilar ruhiy holatiga ham bog‘liq. Ushbu omillar uyg‘un holda faoliyat yuritgan taqdirda, integratsiyalashgan ta’lim o‘zining to‘laqonli samaradorligini ko‘rsatadi.

Pedagogik integratsiya masalasi bo‘yicha O‘zbekiston olimlari tomonidan so‘nggi yillarda muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, professor Azizxo‘jayev A.A. o‘zining ilmiy izlanishlarida pedagogik integratsiyani o‘qitish metodlari, shakllari va vositalarining o‘zaro bog‘liqlikda faol ishlashini ta’minlaydigan tizim sifatida talqin qiladi. U integratsiyani zamonaviy pedagogikaning muhim elementi deb hisoblab, o‘qituvchilar metodikasi va o‘quv dasturlari o‘rtasida yaxlitlikni shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Abduqodirov A. fanlararo integratsiyani talabalarda tizimli tafakkurni shakllantiruvchi vosita deb baholab, dars jarayonida real hayotiy masalalarni fanlararo yondashuv asosida hal qilishga qaratilgan modellarni taklif etadi. U metodik dars ishlanmalarni ishlab chiqishda, ayniqsa integratsiyalashgan mavzular asosida loyihaviy yondashuvni ilgari surgan. Hasanov S. esa innovatsion pedagogika doirasida integratsiyalashgan ta’limni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini asoslab bergan. Unga ko‘ra, zamonaviy interaktiv platformalar integratsiyalashgan bilimlarni uzatishning samarali vositasidir.

Xalqaro miqyosda esa pedagogik integratsiyaning amaliy joriy etilishi bo‘yicha ilg‘or tajribalar mavjud. Masalan, Finlyandiya ta‘lim tizimida “fenomen asosida o‘qitish” (phenomenon-based learning) usuli asosida talabalar bir necha fan asosida yagona muammoni tahlil qilishadi. Bu metod orqali fanlararo bog‘liqlik amalda joriy etilib, talabalar hayotga tayyorlanadi. AQSHda esa STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) modeli orqali tabiiy fanlar muhandislik va texnologiya bilan uyg‘unlashtirilib, real loyiha asosida o‘rgatiladi. Yaponiyada esa “Lesson Study” yondashuvi orqali o‘qituvchilar o‘z darslarini birgalikda tahlil qilishadi, bu esa pedagoglar o‘rtasida fanlararo metodik tajriba almashuviga xizmat qiladi.

Shuningdek, UNESCO tomonidan taklif etilgan CLIL modeli (Content and Language Integrated Learning) til va predmetlarni birgalikda o‘rgatishga asoslanadi. Bu yondashuv ayniqsa ko‘p tilli muhitlarda talabalarning bilimlarni kontekstual o‘zlashtirishini ta‘minlaydi. O‘zbekiston ta‘lim tizimi ham ayni tajribalardan bosqichma-bosqich foydalanmoqda.

XULOSA: Yuqoridagi ilmiy tahlillar asosida shuni ta‘kidlash joizki, pedagogik integratsiya zamonaviy ta‘lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, talabalar bilimini tizimlashtirish, fanlararo tafakkurni rivojlantirish, shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish va bilimlarning hayotiy kontekstda qo‘llanilishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Pedagogik integratsiya nafaqat o‘qitish mazmunini, balki metodlarni, vositalarni va baholash tizimini ham o‘zaro uyg‘unlashtirishni taqozo etadi.

Tahlillar ko‘rsatmoqdaki, bu yondashuvning nazariy poydevori jahon pedagogikasida V.V. Kraevskiy, I.Ya. Lerner, B.S. Gershunskiy, J. Bruner, J. Dewey kabi olimlar tomonidan ilmiy asoslangan bo‘lsa, O‘zbekiston olimlari – A.A. Azizxo‘jayev, A. Abduqodirov, S. Hasanov kabi tadqiqotchilar tomonidan esa milliy ta‘lim tizimiga mos tarzda ishlab chiqilgan. Bu fikrlar integratsiyalashgan yondashuvning global va milliy mezonlar asosida bir butun metodik tizimga aylanishiga xizmat qilmoqda.

Pedagogik integratsiyani muvaffaqiyatli shakllantirish uchun uning metodologik asoslari – tizimli, konstruktivistik va kompetensiyaviy yondashuvlar chuqur anglanishi lozim. Shuningdek, metodik, tashkiliy va psixologik omillar uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritgan taqdirda, integratsiyalashgan ta‘lim modeli o‘zining to‘laqonli samaradorligini ko‘rsatadi. Amaliy tajriba va ilg‘or xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, integratsiyalashgan ta‘lim modeli talabada mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, fanlararo aloqalarni anglash va o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Shu boisdan pedagogik integratsiyani yanada chuqur ilmiy asoslash, uni o‘qituvchilarning metodikasiga integratsiyalash va zamonaviy texnologiyalar yordamida boyitish bugungi ta‘lim islohotlarining ajralmas yo‘nalishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Азизхўжаев А.А. Педагогика назарияси ва тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2014. – 280 б.

2. Абдуқодиров А. Фанлараро интеграция тамойиллари. – Тошкент: ТДПУ нашриёти, 2019. – 144 б.
3. Ҳасанов С. Олий таълим тизимида инновацион педагогика. – Тошкент: Фан, 2020. – 168 б.
4. Краевский В.В. Педагогика: Курс лекций. – М.: Академия, 2001. – 320 с.
5. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. – М.: Педагогика, 1981. – 192 с.
6. Гершунский Б.С. Философия образования для XXI века. – М.: Знание, 2003. – 276 с.
7. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 97 p.
8. Dewey J. Experience and Education. – New York: Collier Books, 1938. – 91 p.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

REFLEKSIV MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIKA FANINING AHAMIYATI

Axmedova Nigora Dadaxanovna

Andijon davlat tibbiyot instituti,

“O‘zbek tili va adabiyoti, tillar”

kafedrası mudiri PhD dotsent

Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi

Andijon davlat tibbiyot instituti,

“O‘zbek tili va adabiyoti, tillar”

kafedrası o‘qituvchisi

moxizatxontoshmatova@gmail.com

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada refleksiv malakalarni shakllantirish jarayonida pedagogika fanining tutgan o‘rni va ahamiyati tahlil etiladi. Refleksiya shaxsning o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish va takomillashtirish jarayonidir. Bu malakalarni shakllantirishda pedagogik yondashuvlar, o‘qitish metodlari va tarbiyaviy ta’sir omillari muhim rol o‘ynaydi. Pedagogika fanining nazariy asoslari va amaliy yo‘nalishlari orqali shaxsda mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini baholash va o‘zgarishga tayyorlik singari refleksiv kompetensiyalar rivojlanadi.

Kalit so'zlar: refleksiya, refleksiv malaka, pedagogika, o‘qitish metodlari, tarbiya, mustaqil fikrlash.

АННОТАЦИЯ В статье анализируется роль и значение педагогической науки в процессе формирования рефлексивных умений. Рефлексия — это процесс понимания, анализа и улучшения собственной эффективности. В формировании этих навыков важную роль играют педагогические подходы, методы обучения и факторы образовательного воздействия. Благодаря теоретическим основам и практическим направлениям педагогической науки у личности развиваются рефлексивные компетенции, такие как самостоятельное мышление, самооценка и готовность к изменениям.

Ключевые слова: рефлексия, рефлексивные навыки, педагогика, методы обучения, воспитание, самостоятельное мышление.

ABSTRACT This article analyzes the role and importance of pedagogical science in the process of forming reflective skills. Reflection is the process of understanding, analyzing and improving a person's own activities. Pedagogical approaches, teaching methods and educational factors play an important role in the formation of these skills. Through the theoretical

foundations and practical directions of pedagogical science, a person develops such reflexive competencies as independent thinking, self-assessment and readiness for change.

Keywords: reflection, reflective skills, pedagogy, teaching methods, upbringing, independent thinking.

Refleksiya — shaxsning o‘z fikrlarini, faoliyatini va qarorlarini ongli ravishda tahlil qilishi, ularni baholashi va kerakli xulosalar chiqarishi jarayonidir. Refleksiv malakalarni shakllantirish, ayniqsa, ta’lim va tarbiya jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon pedagogika fanining asosiy tamoyillari, nazariy konsepsiyalari va amaliy yondashuvlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu maqolada refleksiv malakalarni shakllantirishda pedagogika fanining o‘rni keng tahlil qilinadi. Refleksiv yondashuv orqali talabalar o‘zlarini o‘rgatish jarayonida faol sub’ekt sifatida shakllanadilar, o‘zgarishga ochiq va doimiy o‘zini tahlil qilishga tayyor bo‘lishadi. Bo‘lajak shifokorlarning kasbiy ma’naviyatini rivojlantirishda samarali pedagogik sharoitlarni yaratish bo‘yicha Ahmedova (2020) tomonidan keltirilgan tavsiyalar refleksiv malakalarni rivojlantirishda ham qo‘llanishi mumkin. Xususan, shifokorlarning o‘z-o‘zini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish, o‘quv jarayonida refleksiv texnikalarni joriy etish, individual va guruhli mashg‘ulotlarni o‘tkazish orqali refleksiv malakalarni rivojlantirish mumkin.

Fan dasturining tarkibiy mavzularini tahlil qilganda, quyidagilar refleksiya bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq ekanligi aniqlandi:

Dars mavzusi	Refleksiv malakalar bilan bog‘liqligi
Shaxsning sotsializatsiyasi va kasbga yo‘naltirish	Refleksiya – kasbiy shakllanish va kasbiy identifikatsiyaning asosi
Tibbiy psixologiyaning predmeti va vazifalari	Shifokorning psixologik kompetensiyasi, o‘zini tahlil qilish, qarorlar ustida mulohaza yuritish
Shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	Refleksiya – shaxsiy xatti-harakat va motivlarni anglash vositasi sifatida
Muloqot psixologiyasi. Shifokor va bemor munosabatlari	Kommunikativ refleksiya – professional muloqotdagi o‘zini kuzatish va tuzatish ko‘nikmalari
Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi	Refleksiv tahlil – kasbiy pozitsiyani ijtimoiy kontekstda anglash va o‘zini baholash jarayoni

Bu mavzular orqali talabalarda **o‘zini tanish, faoliyatga nisbatan mulohaza yuritish, bemor bilan aloqada o‘z xatti-harakatlarini boshqarish** kabi malakalar rivojlanadi. Aynan shu jihatlar refleksiv o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Fan o‘qitish natijalarida talabani quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi nazarda tutilgan:

- Kasbiy faoliyatda o‘ziga xos xatti-harakatlarni tushunish va baholash;
- O‘zini rivojlantirish va o‘zini anglash ko‘nikmasi;
- Boshqa insonlar bilan samarali muloqot qilish.

Ushbu o‘quv natijalari bo‘lajak shifokorlarning **refleksiv malakalarini** bosqichma-bosqich shakllantirish uchun nazariy asos yaratadi. Shuningdek, bu kompetensiyalar bizning **ilmiy-tadqiqot mavzuimiz – refleksiv malakalarni rivojlantirish metodikasi** bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri uyg‘unlashgan.

Quyidagi metodlar pedagogik faoliyatda refleksiv malakalarni rivojlantirishda samaralidir:

"Aqliy hujum" (brainstorming): erkin fikrlash orqali o‘z g‘oyalarini shakllantirish va ularga baho berish.

Keys-stadi: muammoli holatlarni o‘rganish orqali tahliliy yondashuvga ega bo‘lish.

Konsepsiyalar xaritasi: bilimlar orasidagi bog‘liqlikni aniqlash va o‘z fikrini strukturalash.

"O‘ylang – Juftlikda baham ko‘ring – Guruhda tahlil qiling": bosqichli refleksiya orqali qarorlarni asoslash.

Shunday qilib, "Psixologiya va pedagogika" fanining ishchi dasturi tarkibidagi maqsadlar, mazmuniy yo‘nalishlar va o‘quv natijalari bo‘lajak shifokorlarning refleksiv malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan zaruriy psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi. Bu esa bizning ilmiy-tadqiqot yo‘nalishimiz bilan mazkur fan dasturining uzviy bog‘liqligini asoslaydi. Ushbu bog‘liqlik asosida **maxsus o‘quv modullarini ishlab chiqish, refleksiv yondashuvni integratsiyalash va pedagogik metodlarni boyitish** mumkin.

Xulosa

Refleksiv malakalarni shakllantirish shaxsning to‘laqonli rivojlanishiga xizmat qiladi. Pedagogika fani esa bu jarayonga nazariy asos, amaliy metod va tarbiyaviy yondashuvlar orqali kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham zamonaviy ta’limda refleksiya va pedagogik yondashuvlar uyg‘unligi ta’lim samaradorligini oshiradi, mustaqil, fikrli va mas’uliyatli shaxslar yetishib chiqishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2023). *Zamonaviy ta’lim metodikasi bo‘yicha metodik qo‘llanma*.
2. Karimova M.S. (2021). Talabalarda refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasi. *Ta’lim va taraqqiyot*, №4(19).
3. Axmedova N.D (2020). Refleksiya va o‘qituvchining kasbiy o‘sishi. *Pedagogik izlanishlar*, №2.

4. Селевко Г.К. (2006). *Современные образовательные технологии*. Москва: Народное образование.
5. Dewey J. (1933). *How We Think*. Boston: D.C. Heath and Company.
6. Schön D. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. New York: Basic Books.



ATOM FIZIKASI BO‘LIMIDAN MUSTAQIL TA’LIMNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH METODIKASI

Madaliyev Akmaljon Maxammadjonovich¹

Nabiyev Yorkinjon Xoshimjon o‘g‘li²

¹*Qo‘qon davlat universiteti Fizika-astronomiya kafedrası dotsenti, (PhD).*

²*Qo‘qon davlat universiteti magistranti*
akmalmadaliyev86@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Atom fizikasi bo‘limidan mustaqil ta’limni raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilishning didaktik asoslari, metodik jihatlari, vositalari va samaradorligini oshirish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: atom, yadro, proton, neytron, didaktika, raqamli texnologiya, virtuallik, mustaqil ta’lim, metodika, kuzatish, o‘rganish, talaba.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОТ РАЗДЕЛА АТОМНОЙ ФИЗИКИ

Аннотация: В статье анализируются дидактические основы, методические аспекты, средства и методы повышения эффективности организации самостоятельного обучения на раздела атомной физики на основе цифровых технологий.

Ключевые слова: атом, ядро, протон, нейтрон, дидактика, цифровые технологии, виртуальность, самостоятельное обучение, методология, наблюдение, обучение, студент.

METHODOLOGY FOR ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES FROM THE SECTION OF ATOMIC PHYSICS

Abstract: The article analyzes the didactic foundations, methodological aspects, means and methods for increasing the efficiency of organizing independent learning in the section of atomic physics based on digital technologies.

Key words: atom, nucleus, proton, neutron, didactics, digital technology, virtuality, independent learning, methodology, observation, learning, student.

Kirish

Atom fizikasi zamonaviy fizikaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u modda tuzilishining asosiy tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro ta‘siri haqida bilim beradi. Ushbu bo‘lim zarralar dunyosining murakkabligini tushunish uchun nazariya va amaliyotni

birlashtiradi. Talabalarga bu bo‘limni samarali o‘zlashtirishda raqamli texnologiyalar asosida mustaqil ta‘limni tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Oliy ta‘lim tizimida mustaqil ish bu o‘quv jarayonida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o‘ziga xos vositasi, zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashda talabalarning o‘zini o‘zi baholash va o‘zini-o‘zi boshqarish vositasidir. Fizikaning har bir bo‘limida bo‘lgani singari Atom fizikasiga oid fan dasturida mustaqil ta‘lim uchun ajratilgan mavzular qamrab olinadi.

Adabiyotlar tahlili.

Ta‘limda raqamli texnologiyalarning o‘rni, ta‘lim sifatini oshirishni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishning nazariy va metodik masalalarini soha olimlaridan U.Sh.Begimqulov, F.M.Zakirova, D.I.Yunusovalarning ishlarida batafsil yoritilgan bo‘lib ta‘lim jarayonida raqamli taxnologiyalarni zamon talablari asosida doimiy takomillashtirib borish zarurligi ta‘kidlab o‘tilgan.

Elektron ta‘lim resurslarini takomillashtirish masalalari N.A.Muslimov, B.S.Abdullayeva, S.D.Bazarovalarning tadqiqot ishlarida yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mustaqil ta‘lim talabaning o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish jarayonida faol, o‘zini-o‘zi boshqaruvchi, mas‘uliyatli qatnashishidir. Bunda talaba: O‘quv maqsadlarini mustaqil belgilaydi (Masalan, “Atomlarning spin xususiyatini tushunish”).

Manbalarni tanlaydi va tahlil qiladi (ilmiy maqolalar, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar).

Raqamli texnologiyalar kontekstida mustaqil ta‘lim quyidagi ko‘rinishlarda tashkil qilinishi mumkin:

Virtual laboratoriyalar (masalan, CERNning “Open Data” platformasi) orqali tajribalar o‘tkazish, interfaol simulyatsiyalar (PhET, GeoGebra) yordamida murakkab fizika hodisalarini vizuallashtirish, asoslovchi platformalar (sun‘iy intellekt) bilan masalalar yechishda hamkorlik.

Mustaqil ta‘limni samarali tashkil qilish uchun quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish tavsiya etiladi: Ta‘lim jarayonida har bir mavzu uchun aniq maqsad va vazifalar belgilanadi. Talabalar atomning tuzilishi va modellari haqida bilimga ega bo‘lishlari.

Raqamli vositalar ichida mavzuga mos keladigan resurslarni tanlash lozim. Bu quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

Interaktiv video darslar;

Elektron kitoblar va maqolalar;

Topshiriqlar, testlar va masalalar to‘plami;


Talabalar bilimni baholash uchun raqamli texnologiyalar yordamida test tizimlari, onlayn topshiriqlar va nazorat savollari amalga oshiriladi. Bu, talabalar bilim darajasini real vaqt rejimida kuzatishga va natijalarga ko‘ra shaxsiy yondashuvni qo‘llashga imkon beradi.

Natijalar va ularning tahlili


Raqamli texnologiyalar ta‘lim jarayonlarini integrativ, qulay va samarali tashkil etishda katta imkoniyatlar yaratadi. Mustaqil ta‘limni raqamli vositalar asosida tashkil qilishda quyidagi natijalarga erishish mumkin:

Individuallashtirilgan o‘quv jarayonida har bir talaba o‘zining bilim darajasiga mos ravishda resurslardan foydalanadi. Qo‘llaniladigan vositalarning xilma-xilligida virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar, video darslar va test tizimlari orqali o‘quv jarayoni boyitiladi. Masalan:


- 1) Atom fizikasidan raqamli texnologiyalar asosida virtual laboratoriya ishlarini bajarish:




1-rasm. “Fizikon” dasturi yordamida atom fizikasidan virtual laboratoriya ishinining asosiy oynasi




2-rasm. “Fizikon” dasturi yordamida atom fizikasidan Rezerford tajribasiga oid virtual laboratoriya ishinining asosiy oynasi



3-рasm. “Fizikon” dasturi yordamida atom fizikasidan Bor postulotlarini o‘rganishga doir virtual laboratoriya ishinining asosiy oynasi




4-рasm. “Fizikon” dasturi yordamida atom fizikasidan atomlarning spektriga doir virtual laboratoriya ishinining asosiy oynasi




5-rasm. “Fizikon” dasturi yordamida atom fizikasidan lazer nurlanishini o‘rganishga oid virtual laboratoriya ishinining asosiy oynasi

2) <https://virtualniprohlidky.cez.cz/cez-temelin-aj/> orqali Chexiyadagi Dukovany atom elektr stantsiyasiga virtual sayohat uyushtirish mumkin.



6-rasm. Dukovany AESni reaktor zaliga virtual sayohat

3) <https://www.tepco.co.jp/en/insidefukushimadaichi/index-e.html#guide> orqali Yaponiyaning Fukusima atom elektr stantsiyasiga virtual sayohat uyushtirish mumkin.



6-rasm. Fukusima AESga virtual sayohatning bosh oynasi

Yaratilgan masofaviy ta‘lim imkoniyatlari orqali talabalar geografik joylashuvdan qat‘iy nazar, ta‘lim resurslariga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xulosa

Atom fizikasi bo‘limidan mustaqil ta‘limni raqamli texnologiyalardan tashkil etish o‘qitishda talabalarni pedagogik va ilmiy-tadqiqot faoliyatga tayyorlash hamda kommunikativ, shaxsiy, texnologik, innovatsion kasbiy kompetentlik komponentlarini rivojlantirishga amaliy yordam beradi. Elektron-didaktik vositalari va virtual simulyatorlardan kompleks foydalanish

natijasida ishlab chiqish tadqiqotning asosiy vazifasi hisoblanadi. Atom fizikasidan mustaqil ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarda olamning yagona fizik manzarasini anglashning metodik-raqamli fazosini optimallashtirilgan dualizmini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR.

- [1]. Бегумқулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. Пед.фан.док.дисс. – Тошкент: ТДПУ, 2007. – Б. 305.;
- [2]. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических ВУЗах: дисс.докт.пед.наук. –Ташкент, 2008. – 312 с.
- [3]. Юнусова Д.И. Бўлажак математика ўқитувчисини инновацион фаолиятга тайёрлаш назарияси ва амалиёти. Пед.фан.док.дисс. – Тошкент: ТДПУ, 2012. – Б. 140.
- [4]. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий- методик асослари. Пед. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент: ТДПУ, 2007. – 47 б.;
- [5]. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари (Ижтимоий-гуманитар йўналишлардаги академик лицейларда математика ўқитиш мисолида). Пед.фан.док.дисс. автореф. – Т.: 2006. – 49 б.;
- [6]. Базарова С.Д. Олий техник таълимда касбий йўналтирилган ўқитиш технологияларининг тизимли асосланиши. Пед.фан.док.дисс. автореф.–Т., 2009. – 36 б.
- [7]. Абдуқодиров А.А., Пардаев А.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Фан, 2009. – 145 б.
- [8]. Арипов М.М. Информатика, информацион технологиялар. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – Б.275.
- [9]. Очилов М. Янги педагогик технологиялар.– Қарши: Насаф, 2000. – Б. 80.;
- [10]. Сайдахмедов Н.С. Педагогикада янгича фикрлаш. – Тошкент: «Истиқбол», 2002. – Б. 62.;
- [11]. <https://virtualniprohlidky.cez.cz/cez-temelin-aj/>
- [12]. <https://www.tepco.co.jp/en/insidefukushimadaichi/index-e.html#guide>

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

INTEGRATING COMPUTER GAMES AND ONLINE DICTIONARIES INTO ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Makhbuba Ikromovna Toshpulatova

*Farg‘ona davlat texnika universiteti O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrası katta
o‘qituvchisi makhbuba1011@gmail.com +998916791908*

Dildora Maxkamova Baxtiyorovna

*Farg‘ona davlat texnika universiteti O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrası
o‘qituvchisi dildoramahkamova83@gmail.com +998905377531*

Abstract: This article explores the role of computer games and online dictionaries in English language teaching. It highlights how these digital tools can enhance vocabulary acquisition, improve learner motivation, and promote interactive language practice. The study also discusses practical ways of integrating these tools into English lessons and examines potential challenges. The findings suggest that a balanced use of games and dictionaries contributes significantly to learner engagement and language proficiency.

Keywords: English language teaching, computer games, online dictionaries, vocabulary learning, digital tools, learner motivation, language acquisition.

KOMPYUTER O‘YINLARI VA ONLAYN LUG‘ATLARNI INGLIZ TILI O‘QITISHGA INTEGRARIYA QILISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitishda kompyuter o‘yinlari va onlayn lug‘atlarning o‘rni yoritilgan. Maqolada raqamli vositalarning til o‘rganuvchilar lug‘at boyligini oshirish, ularni ruhtirish va interaktiv til amaliyotini rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘rsatilgan. Shuningdek, kompyuter o‘yinlari va onlayn lug‘atlarni dars jarayoniga tatbiq etish usullari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar muhokama qilingan. Tadqiqot natijalari o‘yinlar va lug‘atlardan muvozanatli foydalanish til o‘rganish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ingliz tilini o‘qitish, kompyuter o‘yinlari, onlayn lug‘atlar, so‘z o‘rganish, raqamli vositalar, o‘quvchini rag‘batlantirish, til o‘zlashtirish.

ИНТЕГРАЦИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ИГР И ОНЛАЙН-СЛОВАРЕЙ В ПРЕПОДАВАНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В данной статье рассматривается роль компьютерных игр и онлайн-словарей в обучении английскому языку. Подчеркивается, как эти цифровые

инструменты способствуют расширению словарного запаса, повышают мотивацию учащихся и обеспечивают интерактивную языковую практику. Также обсуждаются практические способы их внедрения в учебный процесс и возможные трудности. Результаты показывают, что сбалансированное использование игр и словарей значительно повышает вовлеченность учащихся и эффективность изучения языка.

Ключевые слова: Обучение английскому языку, компьютерные игры, онлайн-словари, изучение слов, цифровые инструменты, мотивация учащихся, усвоение языка.

Introduction

In the digital age, technology continues to reshape education, and English language teaching (ELT) is no exception. Among the numerous technological tools available, computer games and online dictionaries have emerged as two powerful resources for enhancing English learning experiences. While computer games offer engaging, immersive environments that promote language acquisition through interaction and problem-solving, online dictionaries provide learners with immediate access to vocabulary, pronunciation, and usage guidance. This article explores the pedagogical benefits of both tools, examines current research, and discusses practical strategies for their effective integration into English language instruction.

The traditional approach to English teaching often involved textbooks, blackboard instruction, and rote memorization. With the advent of the internet and personal computing, language learning tools have evolved significantly. The 21st century has seen the rise of digital platforms, mobile applications, and gamified learning, which aim to make the process more student-centered, autonomous, and interactive. Computer games and online dictionaries are now commonplace among both language teachers and learners. Their widespread adoption stems not only from their accessibility but also from their ability to accommodate diverse learning styles and preferences.

Computer games, especially those designed with educational goals in mind (commonly known as serious games), present unique opportunities for language learning. Their benefits include:

a) **Motivation and Engagement:** Games naturally appeal to learners due to their entertaining and competitive elements. Motivation is a crucial factor in language acquisition, and games create an enjoyable environment that encourages sustained participation.

b) **Contextual Learning:** Many games incorporate stories, dialogues, and real-life situations that provide a meaningful context for language use. Learners encounter vocabulary, idioms, and grammatical structures in authentic scenarios.

c) **Multisensory Input:** Games engage visual, auditory, and kinesthetic learners through graphics, sound effects, and interactive activities, which help reinforce language retention.

d) **Communication Skills:** Multiplayer or role-playing games (RPGs) often require communication with other players, promoting the use of English in real-time conversations and negotiations.

Language-Specific Games are designed explicitly for English learning, such as Kahoot, Quizlet Live, Bamboozle and Wordshake. They focus on vocabulary, grammar, and pronunciation. Games like Minecraft, The Sims and Among Us may not be created for language learning, but they involve rich narratives and communication tasks that promote incidental learning. They are classified as commercial games with language potential. Mobile Apps and Game-Based Platforms like Duolingo, Memrise, and LingQ gamify language learning through points, levels, and challenges.

To maximize their effectiveness, games should be integrated thoughtfully into lesson plans. Teachers can: Set clear learning objectives tied to game activities. Use games as a warm-up, practice, or assessment tool. Encourage reflection and discussion post-gameplay. Monitor progress and provide feedback.

Online dictionaries offer several advantages over traditional print versions.

One of them is immediate access. Learners can look up unfamiliar words instantly, making them more likely to engage with challenging texts. Next is multimodal features. Many online dictionaries include audio pronunciation (both British and American), example sentences, phonetic transcriptions, word origins, synonyms, and usage tips. User-Friendly Interface is also considered as one of the advantages of online dictionaries. Digital interfaces are generally easier to navigate, and many platforms provide features like search history, bookmarks, and personalized word lists. Finally, online dictionaries use up-to-date language. Online dictionaries are frequently updated with new words, slang, and idiomatic expressions, ensuring learners stay current with evolving English usage.

Some popular online dictionaries feature designs that make learning easier. Cambridge Dictionary is known for its learner-friendly definitions and grammar guides. Oxford Learner's Dictionaries offers level-based vocabulary and corpus-informed usage examples. Merriam-Webster: Suitable for advanced learners, includes quizzes and word games. Dictionary.com offers a simple interface and thesaurus features. Mobile apps of these dictionaries provide offline access and custom features, making them indispensable for modern learners.

Online dictionaries empower learners to become more autonomous. Teachers can support this by teaching dictionary skills explicitly (e.g., understanding parts of speech, collocations). Moreover, they can encourage students to maintain personal vocabulary logs and assign tasks that require dictionary use (e.g., word exploration, synonym matching).

While both tools support language learning, their roles differ fundamentally:

An effective English language curriculum can combine both tools to balance fluency and accuracy. For instance, a student might play an English-based adventure game to practice real-time communication and then use an online dictionary to analyze new words encountered during gameplay.

Using computer games may face several challenges. First, distraction risk. Without clear objectives, learners may focus more on the gameplay than the language content. Second, content

appropriateness. Not all games are suitable for all ages or cultural contexts. Last, technical barriers. Access to devices and internet connectivity may limit usage.

On the other hand, learners may also face difficulties in using online dictionaries. Over-reliance is one of them. Some students may become dependent on dictionary lookups rather than trying to infer meanings from context. Another one is inconsistent quality. Not all online dictionaries are designed for language learners, some may use complex definitions or outdated examples. Teachers must guide learners in using both tools effectively and critically.

Several studies support the educational value of these tools. A 2021 study by Reinders and Wattana found that EFL students who regularly played English-language games showed improved speaking fluency and vocabulary acquisition. Research by Nation and Chung (2009) demonstrated that students using learner-friendly online dictionaries retained new words better and used them more accurately in writing tasks. Classroom experiments have shown that integrating Minecraft into ESL lessons boosts collaboration and spontaneous language use among young learners. These findings underscore the value of combining fun, technology-enhanced learning with targeted, reference-based vocabulary development.

Conclusion

Computer games and online dictionaries are not just supplementary tools but essential components of a modern English language learning ecosystem. Games offer immersive, engaging contexts that promote active language use, while online dictionaries provide the precision and depth needed for vocabulary mastery. By blending both tools thoughtfully, educators can foster a dynamic and effective learning environment that accommodates diverse learner needs and preferences. As technology continues to evolve, so too will the possibilities for creative and impactful English language instruction.

REFERENCES:

1. Rajendran, M., Ray, M., Ilangovan, A., Chokkalingam, V. K., & Singh, A. B. (2024) Commercial video games and English language skills development: A systematic review. *Language Teaching Research Quarterly*, 45, 57–85.
2. Zhou, S. (2024) Gamifying language education: The impact of digital game-based learning on Chinese EFL learners. *Humanities and Social Sciences Communications*, Article 1518, 11.
3. Seyed Mohammad Reza Amirian, Heshmatifar, Z. (2013) The Impact of using electronic dictionary on vocabulary learning and retention of Iranian EFL learners. *Journal of Language Teaching and Research*, Vol. 4, No. 3, pp. 636-641.
4. Chung, T. M., & Nation, I. S. P. (2009) Teaching and testing vocabulary. *The Handbook of Language Teaching*, 543 – 559.
5. Al-Zahrani, M. A. B. (2011). The Effectiveness of Keyword-based Instruction in Enhancing English Vocabulary Achievement and Retention of Intermediate Stage Pupils with Different Working Memory Capacities, Master’s thesis, Taif University.



TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH VA UNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi,

Andijon davlat tibbiyot instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrası o‘qituvchisi

ADPI 2-kurs magistri

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatda tanqidiy fikrlash insonning muhim ko‘nikmalaridan biri hisoblanadi. Tezkor axborot almashinuvi va texnologik rivojlanish sharoitida har qanday ma’lumotni anglash, tahlil qilish va obektiv baholash ko‘nikmasi inson hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu maqolada tanqidiy fikrlash tushunchasi va uning pedagogik-psixologik asoslari batafsil yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Tanqidiy fikrlash, kompetensiya, fikr, pedagogik-psixologik qarashlar, analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiya.

Annotation: In modern society, critical thinking is considered one of the essential skills of an individual. In the context of rapid information exchange and technological advancement, the ability to comprehend, analyze, and objectively evaluate any information has become an integral part of human life. This article provides a detailed explanation of the concept of critical thinking and its pedagogical-psychological foundations.

Keywords: Critical thinking, competence, thought, pedagogical-psychological views, analysis, synthesis, comparison, abstraction.

Аннотация: В современном обществе критическое мышление считается одной из важнейших навыков человека. В условиях стремительного обмена информацией и технологического прогресса умение понимать, анализировать и объективно оценивать любую информацию становится неотъемлемой частью жизни человека. В данной статье подробно раскрываются понятие критического мышления и его педагогико-психологические основы.

Ключевые слова: Критическое мышление, компетенция, мысль, педагогико-психологические взгляды, анализ, синтез, сравнение, абстракция.

Tanqidiy fikrlash bu— fikrlashning alohida turi bo‘lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi^[1]. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta’riflarga ega,

jumladan, [ratsionallik](#), [skeptitsizm](#), xolis tahlil va faktlarni tekshirish. Tanqidiy fikrlash bu — o‘z-o‘zini boshqaradigan, o‘zini o‘zi tarbiyalaydigan, o‘zini o‘zi nazorat qiladigan va o‘zini o‘zi to‘g‘irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat’iy me‘yorlariga rozi bo‘lish va ularni hushyorlik bilan qo‘llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos [egosentrizm](#)^{[2][3]} va sotsosentrizmni yengib o‘tishni talab qiladi.

Tanqidiy fikrlash atamasi Xalqaro terminologiya tizimida grek. fikrlashning „*tanqidiy*“ shakli sifatida yuritiladi. kritikos "tanqid", „baholash“, „imtihon“ va boshqalar. ko‘p ma’noli so‘zdan kelib chiqqan;bu yerda „tanqid“ tushunchasi kundalik hayotda „ayblash“ ma’nosini anglatmaydi, balki aqliy qobiliyat ma’nosini bildiradi va „baholash“, „aniqlash“, „hukm qilish“, „ajratish qobiliyati“ kabi ma’nolarga ega.^[4] Tanqidiy fikrlashning intellektual asoslari ^[5],shuningdek, etimologiyasi ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi, ya’ni bundan 2500 yil avval [Suqrotning](#) o‘qitish amaliyoti va fikrlarida bu tushunchaga yaqin mazmunni uchratish mumkin;Suqrot savollarni tekshirishning yangi usulini ixtiro qildi, bu odamlarning bilimga bo‘lgan ishonchini oqilona aniqlashga qodir emasligining zaifligini ko‘rsatdi va bunda Sokratik kinoya ham bor edi.

Tanqidiy fikrlash bilan bog‘liq eng qadimgi yozuvlar [Platon](#) tomonidan yozilgan [Suqrot](#) ta’limotini taqdim etgan dialoglardir.Ular Platonning birinchi dialoglari bo‘lib, Suqrot bir yoki bir nechta suhbatdoshlari bilan axloqiy masalalar, masalan,Suqrotning qamoqdan qochishi to‘g‘ri bo‘ladimi, degan mavzuda gaplashadi. Faylasuf bu masalani o‘ylab, mulohaza yuritadi va shunday xulosaga keladi: qochish uning ustida tutgan barcha narsalarni (qadriyatlarini) buzadi, masalan,Afina qonunlari va Suqrot tinglayman, degan ichki rahbar ovoz. Suqrot tanqidiy haqiqatni aniqlab berdiki, inson bilim va aqlga „hokimiyat“ (obro‘) asosida bog‘liq bo‘lmaydi.U hokimiyat va yuqori lavozim egalari juda sarosimali va mantiqsiz bo‘lishi mumkinligini isbotladi.Suqrotning fikricha, yaxshi hayot kechirish va hayotning qadriga yetish uchun inson tanqidiy savol beruvchi, „surishtiruvchi ruh“ga ega bo‘lishi kerak. U g‘oyalarni e’tiqodga loyiq deb qabul qilishdan oldin, uni chuqur o‘ylashga undaydigan chuqur savollar berish kerakligini angladi.

Suqrot „dalil izlash, hukm va taxminlarni sinchiklab tekshirish, asosiy tushunchalarni tahlil qilish, nafaqat aytilgan, balki amalga oshirilayotgan ishning mohiyatiga ham kirib borish“ muhimligini belgilab berdi. Uning so‘roq qilish usuli hozirda „Suqrotcha so‘roq“ deb nomlanadi va tanqidiy fikrlashni o‘rgatishning mashhur strategiyasi hisoblanadi.O‘zining so‘rov uslubida Suqrot fikrning ravshanligi va mantiqiy izchillikni ta’kidladi.U odamlarga mantiqsiz fikrlashni fosh qilish yoki ishonchli bilim etishmasligini ko‘rsatish uchun savollar berdi.Suqrotning ta’kidlashicha, hokimiyatga ega bo‘lish hech qanday haqiqiy bilimni bera olmaydi.U taxminlarni sinchkovlik bilan tekshirib chiqdi va dalillar va asosli mulohazalarga asoslangan ishonchlilikka shubha qilish usulini yaratdi. Platon Sokrat ta’limotini yozib qoldirdi va tanqidiy fikrlash an’anasini davom ettirdi. [Arastu](#) va undan keyingi yunon skeptiklari Sokrat ta’limotini

mukammallashtirib, tizimli tafakkur va savol-javob orqali voqelikning tashqi ko‘rinishini emas, balki asl mohiyatini aniqlashga muvaffaq bo‘ldilar. ^[6]

Suqrot tanqidiy fikrlash an‘anasi uchun kun tartibini belgilab beradi, ya‘ni umumiy e‘tiqod va taxminlarni aks ettirish va oqilona va mantiqiy e‘tiqodlarni izchil dalillar yoki mantiqiy asosga ega bo‘lmagan e‘tiqodlardan ajratish-ular bizning tabiiy egosentrizmimizga murojaat qiladimi yoki bizning manfaatimizga mos keladimi. Ular qanchalik mos bo‘lishidan qat’i nazar, qanchalik qulay va qulay bo‘lishidan qat’i nazar, ularni diqqat bilan ajratib ko‘rsatish kerak.

Fikr inson tomonidan tug‘diriladi va uning kuchi g‘oyat katta. Fikr-energiyaning universal shakli. U yaratuvchi ham vayron qiluvchi ham bo‘lishi mumkin. Fikr moddiy olamda moddiylashadi, ya‘ni yuzaga chiqadi. „Fikrlash“ biror muammo haqida muayyan bir xulosaga kelish maqsadida mulohaza yuritmoq yoki o‘ylamoqdan iborat bo‘lgan psixologik jarayondir. Eramizdan 400-300-yil oldin yashashgan fikrlash asoschilari Suqrot, Pluton va Aristotellardan quyidagi – analiz, mulohaza yuritish va tanqiddan iborat analitik fikrlash sistemasi qolgan. Analitik fikrlashni o‘rganishning eng maqbul usullari-matematik, fizik masalalar, krossvordlar, rebuslarni yechish, ba’zi kompyuter o‘yinlari bilan shug‘ullanish, badiiy adabiyotlar o‘qish, detektiv adabiyotlarni o‘qiganda va detektiv filmlarini ko‘rganda o‘zini izquvar o‘rniga qo‘yib mulohazalar yuritish.

Tanqidiy fikrlash -bu mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatidir. U insonning mavjud ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish, asoslantirilgan qaror qabul qilish va xulosa chiqarish jarayonidir. Tanqidiy tafakkur faqatgina salbiy fikr bildirish emas, balki dalillarga asoslangan, mantiqan asoslangan tahlil qilish demakdir. Tanqidiy fikrlash bir necha yo‘llar bilan belgilanishi mumkin bo‘lsa-da, uning asosiy tarkibiy qismi -qoniqarli natijaga erishish uchun kuchli intilish haqida umumiy fikr mavjud, bunga oqilona fikrlash va natijaga asoslangan yondashuv orqali erishish kerak.

Xelperning so‘zlariga ko‘ra, tanqidiy fikrlash, birinchi navbatda, muammolarni hal qilish, hisoblash va ehtimollardan samarali foydalanish kabi o‘rganish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bu fikrlash jarayonida ishtirok etish tendentsiyasini ham o‘z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash bir necha yo‘llar bilan belgilanishi mumkin bo‘lsa-da, uning asosiy tarkibiy qismi-qoniqarli natijaga erishish uchun kuchli intilish haqida umumiy fikr mavjud, bunga oqilona fikrlash va natijaga asoslangan yondashuv orqali erishish kerak. Shuningdek, tanqidiy fikrlash bu shaxsga taklif qilingan nuqtayi nazar yoki xulq-atvor modeli to‘g‘risida qat’iy qaror chiqarishga imkon beradigan maxsus faoliyat turi. „Tanqidiy fikrlash“ ning maqsadi mutaxassislariga adaptatsiya davridan keyingi mehnat faoliyatida zarur bo‘ladigan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat (asosli qarorlar qabul qilish, ma’lumot bilan ishlash, asosiy va ikkinchi darajali narsalarni ajratib ko‘rsatish, hodisalarning turli tomonlarini tahlil qilish qobiliyati). „Tanqidiy fikrlash“ texnologiyasi mutaxassisning intellektual va hissiy faoliyatini faollashtirib, shaxsiyatini mehnat jarayoniga jalb qilish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash juda muhim, chunki u odamlarga murakkab va axborotga boy

dunyoda samarali harakat qilish imkoniyatini beradi. Bu muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi va muammolarni

chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu ta’lim, martaba muvaffaqiyati va kundalik hayotda qimmatli mahorat bo‘lib, odamlarga turli kontekstlarda yanada aniqroq va tanqidiy fikr yuritish imkonini beradi.

- Tanqidiy fikrlovchilar professional dunyoda yuqori baholanadi. Rahbarlik ro‘lida yoki jamoa a‘zosi sifatida tanqidiy fikrlash yuqori ish samaradorligi va ish joyi samaradorligini ta’minlashda muhim ro‘l o‘ynaydi.

- Ta’lim nuqtai nazaridan, tanqidiy fikrlash o‘quvchilarni eslab qolishdan tashqariga chiqishga va bilim bilan faol shug‘ullanishga undaydi. U o‘rganishga bo‘lgan ochlikni va sinfdan tashqariga chiqadigan intellektual qiziqishni rivojlantiradi.

- Tanqidiy fikrlash faqat akademiya yoki ish joyi bilan cheklanmaydi; kundalik hayotni qamrab oladi. Yangilik manbalarini baholash va moliyaviy qarorlar qabul qilishdan tortib shaxsiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishgacha, tanqidiy fikrlash odamlarga hayotning barcha jabhalariga aniqlik va idrok bilan yondashishini

ta’minlaydi.

Tanqidiy fikrlashning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1.Tahlil: Tanqidiy fikrlovchilar murakkab ma’lumotlarni uning tarkibiy qismlariga bo‘lishlari, munosabatlarni aniqlashlari va dalillarga asoslangan mantiqiy xulosalar chiqarishlari mumkin.

2.Baholash: Tanqidiy fikrlovchilar dalil yoki pozitsiyaning mustahkamligini aniqlash uchun ma’lumotlar, dalillar va manbalarning ishonchliligi, dolzarbligi va asoslilikini baholaydilar.

3.Xulosa: Tanqidiy fikrlovchilar asosli xulosalar chiqaradilar va izchil dalillar yoki yechimlarni shakllantirish uchun g‘oyalar, tushunchalar va dalillar o‘rtasida mantiqiy aloqalar o‘rnatadilar.

4.Muammolarni hal qilish: Tanqidiy fikrlovchilar muammolarni aniqlash, ijodiy yechimlarni ishlab chiqish va turli kontekstlarda asosli qarorlar qabul qilish uchun o‘zlarining analitik qobiliyatlari va mantiqiy fikrlashlarini qo‘llaydilar.

Psixologiya fanida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid turli yondashuvlar mavjud. Ularning eng muhimi kognitiv jarayonlarni faollashtirish va mustaqil tafakkurni rivojlantirishdir. Shuningdek, Tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bilimlarni izlash va mustaqil o‘zlashtirishga urg‘u berish;
- talabalarning oldingi tajribasi va bilimlaridan faol foydalanish;
- o‘zaro munosabatlarning barcha darajalarida o‘z nuqtai nazarini, o‘z pozitsiyasini ifodalashni, fikr almashishni rag‘batlantirish;
- xulosalar, hukmlar, pozitsiyalarni asoslash uchun sharoit yaratish;
- yangi bilim va tajribani sinab ko‘rish va qo‘llashga urinishlarni rag‘batlantirish.

Tanqidiy fikrlash inson tafakkurining murakkab jarayoni bo‘lib, quyidagi pedagogik-psixologik mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

1.Kognitiv jarayonlar – e‘tibor, xotira, idrok va tafakkur jarayonlari orqali axborotni qabul qilish va tahlil qilish.

2.Mantiqiy tahlil – fikrlarni asoslantirish, dalillarni baholash va to‘g‘ri xulosa chiqarish.

3.Metakognitiv nazorat – insonning o‘z fikrlash jarayonini nazorat qilishi va uni takomillashtirish qobiliyati.

4.Intellektual moslashuvchanlik – yangi ma‘lumotlarni tushunish va ularga moslashish.

5.Empatiya va refleksiya – boshqalarning nuqtayi nazariyasini tushunish va o‘z fikrlarini qayta ko‘rib chiqish.

Demak tanqidiy fikrlash maqbul yechimni topishning yaxshi usullaridan biri bo‘lsa-da, undan doimo foydalanish maqsadga muvofiq emas. Odam o‘zini doimo to‘g‘ri deb hisoblamasligi kerak. Garchi bu rohat bag‘ishlasa-da, u boshqa nuqtayi nazariyalarga e‘tibor bermasligimizga olib keladi. Barcha qarorlarni qabul qilish uchun ham tanqidiy fikrlash zarur bo‘lavermaydi. Ko‘pincha tanqidiy fikrlashdan ko‘ra “ijodiy fikrlash” elementlarini qo‘llagan ma‘qul. “Ijodiy fikrlash” - muammoning yechimini topish maqsadida yangi narsani yaratish maqsadidagi fikrlashdir.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning turli usullari mavjud. Asosiy usullar quydagilar:

1.Savol berish va tahlil qilish – har qanday ma‘lumotni tahlil qilish va unga nisbatan savollar berish ko‘nikmasini shakllantirish.

2.Mantiqiy mashqlar va bahs-munozaralar – fikrlash jarayonini faollashtirish uchun mantiqiy masalalar yechish va bahslarda qatnashish.

3.Axborot manbalarini taqqoslash – turli manbalardan olingan ma‘lumotlarni solishtirish va ularni obyektiv baholash.

4.Tahliliy tafakkur yuritish – har qanday muammoni turli nuqtayi nazarlardan ko‘rib chiqish va eng maqbul yechimni topish.

Shuni ta‘kidlash kerakki, tanqidiy fikrlash moslashuvchan va kontekstga va masalaning murakkabligiga qarab farq qilishi mumkin. Muhim jihat, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilishda tanqidiy fikrlashni qo‘llaganingizda, unga tizimli, obektiv va yangi ma‘lumotlar va istiqbollarni qabul qilishga tayyor bo‘lishdir. Bundan tashqari, Mantiqiy argumentatsiyani o‘rganish tanqidiy fikrlashni o‘rganish bilan bog‘liq. Mantiq argumentlarni tahlil qilish va ularning haqiqiy yoki noto‘g‘riligini baholash bilan bog‘liq. Gnoseologiyaning sohalarida tanqidiy fikrlash mantiqiy fikrlashni ta‘kidlaydi, bu mantiqiy to‘g‘ri va mantiqiy noto‘g‘ri xulosalarni ajratishga imkon beradi.

Loik tafakkurining „birinchi to‘lqini“da mutafakkir o‘z tafakkur yo‘nalishidan tashqariga chiqib, tushuncha yoki g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tarafkashlikdan xoli tahlil qiladi. Tanqidiy fikrlashning „ikkinchi to‘lqini“ mualliflari „birinchi to‘lqin“ga xos bo‘lgan tanqidiy fikrlashning logosentrik modelidan ongli ravishda uzoqlashdilar. Garchi ko‘pgina olimlar tanqidiy fikrlashni tashkil etuvchi narsaga nisbatan kamroq eksklyuziv nuqtai nazarni qabul qila

boshlagan bo‘lsalar ham, ratsionallik va mantiq tanqidiy fikrlashning asosiy asoslari sifatida qabul qilindi.

Valtersning fikriga ko‘ra, „birinchi to‘lqin“ ning eksklyuziv logotsentrizmi „yaxshi fikrlash mantiqiy fikrlash uchun soddalashtirilgan fikrlash degan asossiz taxmin“ bilan boshqarilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tanqidiy fikrlash kontseptsiyasi ta’lim va undan tashqarida muvaffaqiyatga erishish uchun muhim bo‘lib, shaxslardan tahliliy, baholash va ijodiy fikrlash jarayonlarida ishtirok etishni talab qiladi. Ta’lim muassasalarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlovchi didaktik shart-sharoitlarni o‘rnatish orqali o‘quvchilar, o‘qituvchilar va rahbarlar murakkab va tez o‘zgarib borayotgan samarali hal etish, ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini tarbiyalashlari mumkin. Tanqidiy fikrlash – zamonaviy inson uchun zarur bo‘lgan muhim ko‘nikmalardan biridir. U insonning mustaqil qaror qabul qilishiga, obyektiv tahlil yuritishiga va hayotdagi murakkab muammolarni hal qilishiga yordam beradi. Psixologik mexanizmlarni tushunish va rivojlantirish orqali tanqidiy fikrlashni yanada takomillashtirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- Edward M. Glaser. [„Defining Critical Thinking“](#). The International Center for the Assessment of Higher Order Thinking (ICAT, US)/Critical Thinking Community. Qaraldi: 2017-yil 22-mart.
- [„Piaget's Stages of Cognitive Development“](#). 2019-yil 9-mayda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2018-yil 3-aprel.
- [„It's a Fine Line Between Narcissism and Egocentrism“](#). Qaraldi: 2018-yil 3-aprel.
- Brown, Lesley. (ed.) The New Shorter Oxford English Dictionary (1993) p. 551.
- [„Lexical Investigations: Critical Thinking - Everything After Z by Dictionary.com“](#). Everything After Z by Dictionary.com (2013-yil 25-iyun). Qaraldi: 2018-yil 3-aprel.
- [„A Brief History of the Idea of Critical Thinking“](#). Qaraldi: 2018-yil 14-mart.



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARDA ATROF-MUHITGA BO'LGAN
MUNOSABATNI O'RGANISH VA UNING NEGIZIDA MUHIM VAZIFALAR OLIB
BORISH**

Nuriddinova Maysara Ikramovna

UZFPi Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti

Fayziyeva Dilfuza Tohir qizi - UZFPi magistranti

fdilfuza331@gmail.com

Annostatsiya: Axborot texnologiyalar asrida yashar ekanmiz, undan foydalanish hayotimizni yengillashtirmoqda. Ammo salomatligimiz hamma narsadan muhim, tabiat ne'matlaridan foydalanish, tabiiy muhit bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Buning uchun tabiat "toza" bo'lishi kerak. Tabiat ham shunday uni asramasak, tabiiy muhitimizni yo'qotamiz. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiiy fan dars mashg'ulotlarida metodlar va ularni kerakli vazifalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: "Yashil dorixona" metodi, "Tabiatni muhofaza qilish" metodi, "Case study" metodi, Hisoblash tafakkuri, vazifalar

Annotation: As we live in the age of information technology, its use makes our lives easier. But our health is more important than anything else, the use of natural resources, the presence of a natural environment plays an important role. For this, nature must be "clean". Nature is like that, if we do not protect it, we will lose our natural environment. This article will talk about the methods and tasks required for teaching primary school students in natural science lessons

Keywords: "Green Pharmacy" method, "Nature Conservation" method, "Case study" method, Computational thinking, tasks

Аннотация: Поскольку мы живем в век информационных технологий, их использование облегчает нашу жизнь. Но наше здоровье важнее всего остального, и использование благ природы и наличие естественной среды обитания играют важную роль. Для этого природа должна быть «чистой». Такова природа: если мы ее не защитим, мы потеряем нашу естественную среду обитания. В статье рассматриваются методы и задания, которые необходимо выполнять учащимся начальной школы на уроках естествознания.

Ключевые слова: Метод «Зеленая аптека», Метод «Охрана природы», Метод «Исследование случая», Вычислительное мышление, задачи

Kirish

Bugungi kunda atrof-muhitga bo‘lgan munosabat, tabiatni asrash tushunchalarini to‘g‘ri shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik muammolarning insoniyatga, yashab turgan hududga ta‘siri sezilari. Chunki axborot texnologiyalari davrida bir ishni osonlashtirish, ishlarni yengillashtirish uchun turli qulayliklar bo‘lganidek, boshqa ba‘zi tomondan tabiatga, insonlarning tushunchalariga o‘z bo‘lsada, ta‘sir qilyapti. Atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishlarining oldini olish, ozon qatlaminig yemirilishi, cho‘llanish, atmosfera havosining ifloslanishi kabi global ahamiyatga ega masalalarni hal etish hozirgi kunda insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatimizda ham atrof-muhit muammolarini o‘rganish, ularni hal etish masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.[1]

Rus pedagoglaridan K.D.Ushinskiyning, “Inson tarbiya predmeti sifatida” asari bilan tanishamiz. Ushinskiy “Men o‘z hayot tajribamda shunday xulosaga keldimki, go‘zal tabiat yosh qalbgga shunday katta tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatar ekan, hatto pedagogikaning ta‘siri ham u bilan raqobatlashishga ojizdir”, - degan edi.[2.14]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrofni o‘rganish, turli amaliy ishlar bajarish qiziqarli jarayon hisoblanadi. Aynan shu davrda ularni “olam” bilan tanishtirish bilan birga ma‘naviy ta‘sir ko‘rsatish asosiy omil hisoblanadi. Bu bilan ularni faqatgina tabiatni o‘rganish emas, balki uni asrash, kichik bo‘lsada “hissa” qo‘shish, oldini olishga xizmatini ta‘minlash bo‘ladi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiatga bo‘lgan munosabatlari, muhim vazifalar haqida so‘z boradi.

Adabiyotlar tahlili.

John Harper tabiatdagi o‘zgarishlarni izohlar ekan, “tabiat barcha narsani hazm qilishi mumkin, biroq uning sog‘lom muhiti yo‘qolishi muqarrar”² deydi. [3.13-b]

Jumladan, S.A.Veretenikova “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi” kitobida, har bir yosh guruhidagi bolalarni yil fasllariga qarab tabiat bilan tanishtirish metodini asoslab bergan. P.G.Samorukova tahriri ostidagi “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish” o‘quv qo‘llanmasida tabiat bilan tanishtirish metodlari, vositalari va usullari, ish shakllari, MTT hovlisidagi tabiat burchagini tashkil etish masalalari keng yoritilib berilgan. [2.13].

Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy (1824-1870) XIX asrning o‘rtalarida ilg‘or fikrlari bilan maydonga chiqdi. U o‘zining “Ona tili”, “Bolalar dunyosi”, nomli asarlarida kuzatish metodi rolini baland ko‘tarib, u tabiatshunoslikka doir bilimlarini egallash va tabiatni o‘rganishda eng samarali metod ekanligini ta‘kidladi. [4.310]

Chexiyalik mashhur pedagog Ya.A. Komenskiy bashariyat tarixidan demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida o‘rin olgan. Ya.A. Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga o‘xshatgan. Ya.A. Komenskiy hamma narsani tabiatga bog‘lab tushuntirgan. A.G. Grigoryans, U.B. G‘ofurovalarning «Bolalar bog‘chasida ekologik tarbiya» nomli qo‘llanmalarida ekologik tarbiya berish metodlari, yo‘llarini misollar orqali yoritib, shuningdek

bolalarda oddiy izlanuvchanlik faoliyatini tarbiyalashning yo‘llari haqida qimmatli maslahatlar berishgan.[5.17-20].

O‘tmishning ajoyib xorijiy tarbiyachilari (J.A.Komenskiy, I.T.Pestolozsi, J.J.Russo, A.Disterverg) va Rossiya (L.N.Tolstoy, A.S.Makarenko, N.K.Krupskaya, V.A.Suxomlinskiy) bolaning o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tabiatini mukammal deb hisoblashgan.[2.29-b].

Metodika.

“Tabiatni muhofaza qilish” mavzusini o‘rtaga muammo qilib tashlaymiz, guruhlar o‘z fikrlarini birgalikda bildirishga harakat qiladilar.

1-guruh. O‘simliklar va hayvonot dunyosini asrash, ularga zarar yetkazmaslik, yerosti boyliklarini tejab qazib olish, havo, suv va tuproqni turli chiqindilar bilan ifloslamaslik – tabiatni muhofaza qilishdir.

2-guruh. Insonning tabiatga salbiy ta‘siri natijasida unda jiddiy o‘zgarishlar kuzatilaadi. Bunday salbiy o‘zgarishlarning oldini olish uchun tabiatdan foydalanish bilan birga uni muhofaza qilish ham zarur.

3-guruh. Tabiatda yo‘qolib borayotgan noyob o‘simlik va hayvon turlari ro‘yxati tuzilib, ular haqidagi ma‘lumotlar “Qizil kitobga ” kiritilgan. “Tabiatni muhofaza qilish” O‘simliklar va hayvonot dunyosini asrash, ularga zarar yetkazmaslik, yerosti boyliklarini tejab qazib olish, havo, suv va tuproqni turli chiqindilar bilan ifloslamaslik – tabiatni muhofaza qilishdir. Insonning tabiatga salbiy ta‘siri natijasida unda jiddiy o‘zgarishlar kuzatilaadi. Bunday salbiy o‘zgarishlarning oldini olish uchun tabiatdan foydalanish bilan birga uni muhofaza qilish ham zarur. Tabiatda yo‘qolib borayotgan noyob o‘simlik va hayvon turlari ro‘yxati tuzilib, ular haqidagi ma‘lumotlar “Qizil kitobga ” kiritilgan. “Yashil dorixona” loyihasi Loyiha faoliyati bilan bir qatorda kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish nuqtai nazaridan katta imkoniyatlar mavjud. Kognitiv tadqiqot loyihasiga misol tariqasida “O‘simlik dorixonasi”ning ishlanmasini keltirish mumkin. Ishtirokchilarning tarkibi bo‘yicha bu jamoaviy loyiha (1-sinf o.,quvchilari va ularning ota-onalari), davomiyligi bo‘yicha - o‘rta muddatli.

- o‘simliklarning dorivor xususiyatlarini o‘rganish;
- tabiatga hurmatni tarbiyalash;
- ijodiy va kognitiv faollikni rivojlantirish;
- tadqiqotchilik malakalarini shakllantirish. Ish davomida o‘qituvchi bolalarga savol beradi: o‘simliklar doridarmonlarni almashtira oladimi? Bunga javob berish uchun foydalaning quyidagi turlar ishlari:

- tashkilot kitob yarmarkasi, dorivor o‘tlardan ekologik liboslar yaratish, o‘quv filmlarini tomosha qilish;

- suhbatlar, maslahatlar, viktorinalar;

- muammoli savollar berish, kuzatishlar, tajribalar, izlanishlar Qo‘shimcha ma’lumot; dorixonaga tashrif buyurish, rolli o‘yin, ekologik bayramni tashkil etish, dorivor o‘tlar haqida buklet yaratish [6.42-44]

Hisoblash tafakkuri. Bu fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini yaxshilashning samarali usulidir. Usul tarkibi muammolarni bo‘laklarga ajratishni o‘z ichiga oladi, ya’ni katta muammolarni kichik birliklarga bo‘lish va avval muvaffaqiyatli hal qilingan muammolarga o‘xshashlarini tanib olish bilan bog‘liq faoliyat turini ifodalaydi. Hisoblash fikrlash qobiliyatlari algoritmlarni ham qamrab oladi - yechimga erishish uchun bosqichma-bosqich yondashuv; abstraksiya - ahamiyatsiz tafsilotlarni e’tiborsiz qoldirish va raskadrovka - qadamlarni aniqlashtirish kabi faoliyat turlarini qamrab oladi. [7.51]

“Case study” metodi (Case study) – bu real iqtisodiy yoki ijtimoiy vaziyatlar ta’rifini qo‘llaydigan ta’lim berish texnologiyasidir. Bunda vaziyat deganda biron aniq hodisaning ta’rifi nazarda tutiladi. Guruhga haqiqiy axborot taqdim etilib (u haqiqiy hodisaga asoslangan yoki o‘ylab chiqilgan bo‘lishi mumkin), muammolarni muhokama qilish, vaziyatni tahlil etish, muammoning mohiyatini o‘rganib chiqish, ularning taxminiy yechimlarini taklif qilish va bu yechimlar orasidan eng yaxshisini tanlab olish taklif etiladi. Avval har bir o‘quvchi vaziyat bilan individual ravishda tanishadi va guruhga yechimning o‘z variantini taqdim etadi. Shundan so‘ng guruh ishtirokchilari barcha taklif etilgan variantlarni muhokama qiladilar.[8.61-62]

Bilamizki, bugungi kunda barcha fanlarda “ilgarilash” bor, ya’ni oldin mavzular kesimida qaraydigan bo‘lsak, yuqori sinf o‘tiladigan mavzular boshlang‘ich sinf fan darsliklari ham kiritilgan. Masalan matematika fanida allaqachon kasrlar mavzusi, fanlar yuzasidan mashq daftarlari bilan ishlash, topshiriqlar bajarish, axborot texnologiyalardan foydalanish ham rivojlangan. O‘sib kelayotgan avlod shunga yarasha o‘zlashtiradi vazifa bajaradi. O‘quvchilar bilan birgalikda ekologik muammolarni o‘rganish ularni atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga, hayolidagi “savol”larga javob berishi mumkin. Chunki yashab turgan hududni o‘zida ko‘pgina ishlar qurilish, qum tashish, mashinalar qatnovi, yo‘l harakati barhcasi o‘quvchining ijtimoiy harakatini, voqelikka qarashiga ta’sir ko‘rsatadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari beg‘ubor, hayotning ilk pallaridagi insonlar bo‘lishadi. Ular ko‘p narsalarga qiziqishadi, shu qiziqish bilan bilimlar egallashadi.

Dars mashg‘ulotlarida yuqorida keltirilgan metod-usullardan foydalanib, quyidagilarga diqqatli bo‘lish ahamiyatli vazifalar hisoblanadi.

- Tabiiy fan nashg‘ulotlarida atrof-muhitda bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida fikr, munosabat so‘rash, bu orqali ijtimoiylashuv uchun zamin yaratish;

- Muammo vaziyatlarni berish orqali to‘g‘ri yechim topishga o‘rgatish;

- “Tabiatni muhofaza qilish” metodi orqali “Qizil kitob” haqida ma’lumot berish;

- Kompyuterdan kamroq foydalanish, ko‘z nuriga ta’siri haqida aytish, buning o‘rniga uyga vazifalarini vaqtda tayyorlash , kitoblar o‘qishga yo‘naltirish;

-Tabiiy fan dars mashg‘ulotlarida mashq daftari bilan ishlashni sifatli olib borish, berilgan topshiriqlar yuzadan fikrlarini eshitish, imkon qadar tadqiqot ishlarida sinfda ham olib borish;

-Uyga vazifalar yuzasidan qo‘shimcha ma’lumotlar tinglash;

-To‘g‘ri ovqatlanish, salomatlik uchun foydali ishlar haqida suhbat olib borish;

-Foydalanish hududlarini (oshxona, hojatxona, chiqindi idishlari) toza tutishi yuzasidan tanaffuslarda yoki dars boshlanishidan oldin ogohlantirish berish. Chunki ba’zi bolalar o‘z hududida (uyida, ko‘chada, dars stolida) foydalanishi kerak bo‘lgan iste’mollariga ijobiy bo‘lsalar-da, maktab hududida unaqa bo‘lmasligi mumkin. Chiqindilarni maxsus idishga tashlamaslik, yarim tayyor mahsulotlar iste’mol qilishlari, maktab bog‘iga zarar keltirish (gullar uzish, yer hududiga ruxsatsiz kirish, mevali daraxtlarga ozor yetkazish) kabilar misol bo‘la oladi. Bu kabi vazifalar olib borish orqali dars mashg‘ulotlarini qiziqarli tashkil etish, rag‘batlantirish va o‘quvchilarni amaliy ishlarda boshlang‘ich sinfidanoq yo‘naltirish hisoblanadi.

Tadqiqot usuli

Tabiiy fan yuzasidan tadqiqot olib borishda, yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayanib dars mashg‘uloti o‘tash qiziqarli, mazmunli kechadi va deb o‘ylayman. Umumiy tarzda olish turli so‘rovnomalar o‘tkazish bilim darajalarini bilishga, munosabat bildirishga zamin yaratadi. Bunda ularni test holatiga qarab, qiziqishlarini bilish, munosabatini (masalan, holatlar haqida to‘g‘ri deb bilgan javob tanlashi) o‘rganish ham mumkin. Pedagogga xulosa qilishga olib keladi. Xususan o‘z ilmiy-tadqiqotim jarayonida umumiy rafishda, oson savollardan tuzilgan test olgandim. Test mazmuni o‘quvchi ishtirok etgan jarayonlarga munosabat, tozalik kabilardan iborat edi. Test jarayonida 2-3-4- sinflar ishtiroki ta’minlandi. Bu test natijalariga ko‘ra:

2-sinflar 71% (28 ta javob varaqasi) ni;

3-sinflar 78% (32 ta javob varaqasi 1 ta javob varaqqa qoniqarsiz deb topildi)

4-sinflar (bunda testni to‘liq bajarolmaganlar ham tashkil etadi,) 53%ni tashkil etdi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yaxshi bilim hosil qilish, o‘rgatish kerak. Dars jarayonini qiziqarli tashkil etish, o‘quvchilarni jalb qila olish pedagogning vazifasi. O‘ylagan maqsad va vazifalarga asta-sekinlik bilan erishish mumkin. Tabiiy fan darslarida bajarayotgan topshiriqlarni qiziqish bilan sevib bajarsa, turli savollar o‘ylasa, bilim olsa samarali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. . <https://yuz.uz/uz/news/ekologik-muammolarning-oqilona-echimi>
2. Quchqorova.N.M va boshqalar Bolalami tabiat bilan tanishtirish [Matn] : darslik-Toshkent: Bookmany print, 2023
3. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish / o‘quv qo‘llanma: 0 ‘.E.Xo‘janazarov, Sh.Yakubjonova.: «Barkamol fayz media»nashriyoti, 2018-yil

4. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / D.Sharipova [va boshq.]. - Toshkent : Shafoat Nur Fayz, 2020.
5. Rajabova I.H. Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari: O‘quv qo‘llanma. Toshkent.: nashriyoti, 2021
6. Tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish Namangan-2024
7. Xalqaro baholash daturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O‘quv qo‘llanma.Toshkent: 2023-y.
8. <https://avloniy.uz/uploads/textbooks/2a2783769c7303747291d5dabc496d9e.pdf>

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

STRATEGIK BOSHQARUV NAZARIYALARINI UMUMIY O‘RTA TA‘LIM TIZIMI BOSHQARUV JARAYONLARIGA TATBIQ ETISH.

Rahimova Feruza Najmiddinovna
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishda strategik rejalashtirishning ahamiyati va samaradorligi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Boshqaruvdagi kon‘yunktura va strategiyalarning orasidagi farqlar, strategik maqsadlarni aniqlash va rejalashtirish jarayonlarida barcha sub‘ektlarning ishtirokini ta‘minlashga alohida e‘tibor berilgan.

Kalit so‘zlar: Strategik rejalashtirish ,boshqaruv ,kon‘yunkturaviy boshqaruv ,pedagogik jamoa , o‘quvchilarning individual xususiyatlari , ustuvor maqsadlar ,maktab faoliyati, tizim sifati,strategik maqsadlar, taktik qarorlar.

ПРИМЕНЕНИЕ ТЕОРИЙ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ К ПРОЦЕССАМ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность и эффективность стратегического планирования при правильной организации деятельности общеобразовательных школ. Особое внимание уделяется различиям между конъюнктурным управлением и стратегическими подходами, а также обеспечению участия всех субъектов в процессе определения и планирования стратегических целей.

Ключевые слова: стратегическое планирование, управление, конъюнктурное управление, педагогический коллектив, индивидуальные особенности учащихся, приоритетные цели, деятельность школы, качество системы, стратегические цели, тактические решения.

APPLICATION OF STRATEGIC MANAGEMENT THEORIES TO THE MANAGEMENT PROCESSES OF THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTEM.

Abstract: This article discusses the importance and effectiveness of strategic planning in organizing the activities of general secondary education schools. The differences between managerial context and strategies, as well as the process of identifying strategic goals and ensuring the participation of all stakeholders in the planning process, are emphasized.

Keywords: Strategic planning, management, conjunctural management, pedagogical team, individual characteristics of students, priority goals, school activities, system quality, strategic goals, tactical decisions.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, jumladan, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan. Ta’lim sifatini amalga oshirish muammosi ta’lim tashkilotlarining barcha turlari uchun asosiy vazifalardan biridir. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning eng muhim yo‘nalishi bu tizimni boshqarish modelini o‘zgartirishdir. Bevosita maqsad - ta’lim siyosatining barcha sub’ektlarining vakolatlari, funktsiyalari va majburiyatlari aniq taqsimlangan va muvofiqlashtirilgan holda optimal boshqaruv modelini ishlab chiqishdan iborat.

“Strategik-istiqbolli rejalashtirish pedagogik jamoaning natijali, ichki tartibdagi sust va kuchli tomonlarini aniq va tashqi sharoit bilan natijani tan olishdir. Shundan keyin 3-5 yillik istiqbollar belgilanib, ko‘zga ko‘rinadigan natijalar ma’lum hudud, ta’lim tashkiloti talab va ehtiyojiga qarab belgilanadi. Uning natijasi o‘laroq tanlangan strategiya, aniqrog‘i foydali shakl metod va imkoniyat ko‘zlangan natijani bajarishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Rahbar umumiy o‘rta ta’lim maktablari faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish maqsadida ustuvor, yetakchi maqsadni aniqlashda quyidagi holatlarni inobatga olishi lozim:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktabining tizim sifatidagi o‘rni;
2. Pedagogik jamoaning o‘ziga xos xususiyatlari;
3. O‘quvchilarning umumiy soni;
4. Muayyan o‘quvchilarning individual xususiyatlari (masalan ixtisoslashgan yoki maxsus ta’lim muassasalarida);
5. Muayyan pedagog (o‘qituvchi) ning kasbiy salohiyati” [1; 21-b].

N. Mamadovning nomzodlik dissertatsiya ishida “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining innovatsion faoliyatini rejalashtirishning strategik boshqaruv bilan bog‘liq quyidagi tamoyillari yoritib berilgan:

1. Strategik (yuqori maqsad) va taktik (bir yillik joriy maqsadlar) rejalarning ustuvorligi va ustunligi;
2. Strategik va taktik rejalarning ijtimoiy yo‘nalitirilganligi;
3. Rejalashtirish ob’ektlari va ularning zahiralarini oqilona taqsimlash maqsadida ularni muhimligi bo‘yicha ajratish;
4. Rejalashtirishning mavjud moddiy shart-sharoitlarga mosligi;
5. Muayyan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi muqobil rejalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishda kam xarajatlikka erishish;
6. Rejaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi;
7. Rejalashtirish tizimini teskari aloqasini ta’minlash;
8. Rejani amalga oshirishning eng qulay shaklini tanlash;

9. Faoliyat davrini tartibga solish va uning izchilligini, ustuvorligini ta‘minlash;

10. Tadbirlarning puxtaligini tahlil qilishga imkon beruvchi faoliyat va grafikli (yozuvli) reja tahlilini amalga oshirish[7;152-b]

Tahlil va natijalar. Shunday ekan, umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotida strategik rejalashtirish jarayonlari samaradorligi ko‘p jihatdan strategik rajalarning bir necha muqobil variantlarini ishlab chiqish hamda strategik maqsadga va tashkilotning imkoniyatlariga ko‘proq mos keladigan variantni tanlab olish bilan bir qatorda, strategik rejalashtirish jarayonlarida barcha sub‘ektlarning ishtirokining ta‘minlanishiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, belgilanayotgan vazifalar yo‘nalishlari va amalga oshirish muddatlarining aniq bo‘lishi hamda sub‘ektlar ko‘pchiligining roziligi bilan tanlab olingan strategik rejalarini amalga oshirish yuzasidan qabul qilingan qarorning xususiyatlariga ham bog‘liq hisoblanadi.

“Kon’yunkturaviy boshqaruv - ma‘lum bir davrda tashkilotning iqtisodiy xolatini tavsiflovchi belgilar majmuasi bilan bog‘lik bo‘ladi. Amaliy faoliyatda u yoki bu boshqaruv yo‘nalishining ustunligi tashkiliy tizimining yangilik darajasi ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Kon’yunkturaviy boshqaruv ma‘lum bir davrning iqtisodiy holatini tavsiflovchi belgilar majmuasi bilan bog‘liq bo‘lsa, strategik boshqaruv esa odatda, mazkur tizimni boshqaruv madaniyatining yuqori darajasini belgilovchi keng innovatsion dasturlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi” [2; 36-b].

Demak, umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotida strategik maqsadlarga ko‘ra shakllantirilgan strategik rejalarini amaliyotga tatbiq etish yuzasidan mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko‘ra turli darajadagi strategik va taktik qarorlar qabul qilish jarayonlarida ularning ahamiyati va xususiyatlarini ham inobatga olish zarur.

“Qaror – bu boshqaruv faoliyatining shunday shakli, unda rahbar mehnati gavdalanadi, mehnat jamoasiga maqsadga yo‘nalgan ta‘siri o‘z ifodasini topadi. Qaror qabul qilish – rahbarning yetakchi faoliyat jarayoni bo‘lib, keyingi boshqaruv muvaffaqiyatini belgilaydi” [3; 28-b].

“Qaror – bu bajarilishi lozim bo‘lgan ishning aniq bir yo‘lini tanlab olishdir. Boshqacha qilib aytganda, qaror – bu u yoki bu yo‘lni tanlab olishda bir to‘xtamga yoki muayyan bir fikrga kelishdir” [4; 23-b].

Qaror – bu boshqarish faoliyatining oxirgi natijasidir. Agar boshqaruvda mehnat predmeti axborot bo‘lsa, uning mehnat (natijasi) mahsuloti – boshqaruv qaroridir.

“Strategik qaror bunday turdagi qarorlar umumiy o‘rta ta‘lim tashkiloti oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etib, unda tashkilotining uzoq muddatga mo‘ljallangan rivojlanish vazifalari va maqsadlari belgilanadi. Strategik qarorlarni qabul qilishda ta‘lim tashkilotining istiqbolli harakat dasturi asos qilib olinadi, uzoq muddatlarga ko‘zlangan maqsadlarga erishishda bajariladigan vazifalarning muddati belgilanadi, mavjud muammolarni hal etish yo‘llari va uslublari ko‘rsatiladi” [5; 9-b].

Demak, taktikasiz strategiyani amalga oshirib bo‘lmaydi, taktika va strategiya tushunchalari uzviy bog‘liq bo‘lib, taktika strategik maqsadlarga erishishda o‘ziga xos amaliy

ahamiyat kasb etadi. Strategiya boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda istiqbolni oldindan aniqlash, bajariladigan vazifalarning yo‘nalishiga ko‘ra oldindan rejalashtirishda muhim bo‘lsa, strategik maqsad yo‘nalishida ishlab chiqilgan strategik rejalarni amaliyotga tatbiq etishda taktika muhim hisoblanadi.

Agar strategiya – umumiy o‘rta ta’lim tizimining rivojlanish yo‘nalishlarini ifodalasa, unda taktika – strategik maqsadga erishishning usul va uslublari majmui deb aytish mumkin. Strategiya va taktikaning o‘zaro aloqadorligi va uzviyligi ta’minlanmasa strategik rejalar qanchalar aniq va ahamiyatli bo‘lmasin ko‘zlangan natijalarga erishib bo‘lmaydi. Mazkur qoida taktik qarorlarning o‘ziga xos xususiyatlari ahamiyatini ham ifodalaydi. Shunday ekan, taktik qarorlar tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tamiz.

Taktik qarorlar ta’lim tashkiloti oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishda qo‘llaniladigan vosita va usullar yo‘nalishidagi qarorlar bo‘lib, joriy va tezkor qarorlarni ifodalaydi. Masalan, ta’lim tashkilotining yillik va joriy dasturlarini hamda rejalarini tuzish va joriy etish, yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash yo‘nalishidagi qarorlar bo‘lib, yuqori va o‘rta bo‘g‘in rahbarlari tomonidan uzog‘i bilan ikki yilgacha bo‘lgan muddatga qabul qilinadi.

Yuqorida biz umumiy o‘rta ta’lim tashkilotida strategik boshqaruvning asosiy tushunchalari sifatida faqat strategiya va strategik atamalar bilan bog‘liq tushunchalarni keltirib o‘tdik, aslida esa, boshqaruv yo‘nalishidagi asosiy tushunchalarning barchasi menejmentning barcha sohalari kabi strategik boshqaruvning ham asosiy tushunchalari tarkibiga kiradi.

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotida strategik boshqaruvning asosiy tushunchalari sifatida yuqorida keltirilgan tushunchalarga to‘xtalib o‘tishimizdan asosiy maqsad ham strategik boshqaruv nazariyalarini umumiy o‘rta ta’lim tizimini boshqarish jarayonlariga tatbiq etishda bilishimiz zarur bo‘lgan tushunchalarning mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish zaruriyatidan kelib chiqdi.

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotida strategik boshqaruv asosiy tushunchalarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini o‘rganish jarayonida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tizimi har bir komponentining strategik maqsadi va imkoniyatlari inobatga olingan, shuningdek tizimni tashkil etuvchi har bir bo‘g‘in va barcha sub’ektlarning funksional vazifalarini hamkorlikda amalga oshirilishini nazarda tutuvchi funksional, diversifikatsiyalashgan, mujassamlashtirilgan va maxsus strategiyalarni ham mazmun-mohiyatan, ham yo‘nalishiga ko‘ra, ham umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tizimi faoliyatida belgilangan strategik maqsadlarga ko‘ra takomillashtirilishi zaruriyatining mavjudligi aniqlandi.

Bizning fikrimizcha, mazkur turdagi strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda ularning har birining funksional vazifalaridan kelib chiqib hamda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tizimi komponentlarining tizimga xos inobatga olib, strategiyalarning yo‘nalishi va funksional vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin.

Maxsus strategiya umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tizimi sub’ektlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda pedagogik jamoa a’zolari kasbiy va ilmiy salohiyatini

rivojlantirish asosida ta’lim jarayonlari natijaviyligini ta’minlash va tizim komponentlari bo‘lgan ta’lim tashkilotlari reytingini ko‘tarish maqsadida aniq muddatlarga tuziladi.

Funksional strategiya strategik maqsadlar yo‘nalishida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tizimi faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan korporativ yondashuv texnologiyalari hamda ularni amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari majmuidan iborat ishchi strategiya sifatida shakllantiriladi.

Mujassamlashtirilgan strategiya umumiy o‘rta ta’lim jarayonlarining tizimga xos xususiyatlariga asoslangan va barcha komponentlar funksional vazifalarining uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan hamda strategik maqsadga erishish yo‘nalishida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tizimi yaxlit faoliyatini amalga oshirilishini ta’minlaydigan strategik rejalarini ifodalaydi.

“Diversifikatsiyalashgan strategiya umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining iqtidori, qobiliyati va qiziqishlariga ko‘ra maktabdan tashqari va ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlariga kengroq qamrab olish asosida ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, kasbga yo‘naltirish jarayonlarini takomillashtirish, 9-sinf bitiruvchilarining qiziqishlari hamda maktabdan tashqari va ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlarida o‘zlari ta’lim olgan yo‘nalishdagi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tashkilotlariga yo‘naltirishga qaratilgan funksional vazifalarni amalga oshirish yo‘llarini ifodalaydi” [6; 97-b].

Mazkur strategiyalarni umumiy o‘rta ta’lim tizimni boshqarish jarayonlariga tatbiq etilishi, tizim komponentlari hisoblangan ta’lim tashkilotlariga ijodiy erkinlik imkoniyatlarini berish asosida ta’lim jarayonlarining diversifikatsiyalashuvi natijasida strategik boshqaruv boshqaruv jarayonining asosiy mazmuniga aylanib boradi. Shuni ham takidlash joizki, barcha keltirilgan strategiya turlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tizimi faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishida ular tizimga xos xususiyatlarni kasb etadi.

Xulosa. Demak, keltirilgan strategiyalarning muhim xususiyatlaridan biri umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tizimi boshqaruvida tizimning barcha komponentlari va ularning barcha sub’ektlari hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishni nazarda tutadi va o‘z navbatida strategik maqsadning natijaviyligi oldindan aniqlangan bo‘lishi, barcha ta’lim tashkilotlari maqsadlari va funksional vazifalariga muvofiq bo‘lishi zaruratini belgilaydi. Mazkur zarurat ham o‘z navbatida umumiy o‘rta ta’lim tizimiga tatbiq etiladigan strategik boshqaruv predmeti va funksional vazifalarini o‘rganishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘ralov Q.N. Ta’lim muassasalari faoliyatini maqsadli boshqarishning pedagogik shart-sharoitlari (umumiy o‘rta ta’lim maktablari misolida) Pedagogika fanlari nomzodi ... dis Avtoreferat.-T.2008.-21 b.
2. Turg‘unov.S.T Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi T., 2007.36 .b.

3. R.U.Asatov, S.N.Yuldasheva, Sh.N.Hayitov Ishlab chiqarish menejmenti. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. — .T: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2005. — 136 b. 28-b.
4. X.Alimov Boshqaruvda optimal qarorlar qabul qilish texnologiyalari modulidan O‘quv-uslubiy majmua T.2017 23-b.
5. A.X.Xolov. “Oliy ta’lim tizimida strategik qarorlar qabul qilish va jamoatchilik nazorati” O‘quv uslubiy majmua.Toshkent-2021 b-9
6. P.X. Джураев, С.Т. Тургунов Таълим менежменти ўқув қўлланма Тошкент «VORIS-NASHRIYOT» 2006. Б-97
7. Мамадов.Н.С. Умумий таълим мактабларини инновацион бошқариш: Педагогика фанлари номзоди ... дис Автореферат.-Т.2009.-152 б.



BO‘LAJAK TIBBIYOT MUTAXASSISLARINING XORIJIY TIL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING MUHIM JIHA TLARI

Tuychibayeva Maftuna Baxodirovna

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tayanch-doktoranti

[*maftunatuychibaeva@gmail.com,*](mailto:maftunatuychibaeva@gmail.com)

Annotatsiya Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanmoqda va har bir ta’lim muassasasi o’qituvchisining vazifasi talabalarni ilmiy sohaga qiziqtirish, innovatsion jarayonlarga qiziqish uyg’otishdir. Shu maqsadda ta’lim muassasasida talabaning qay darajada xorijiy tillarni o’rganayotganlik darajasini aniqlash maqsadida diagnostik yondoshuv asosida talabalarga berilayotgan ta’lim sifatini aniqlash tizimi joriy etilmoqda. Chet tilini o’qitishda nazorat alohida e’tiborga loyiqdir, chunki u ta’limni boshqarish funktsiyasini amalga oshirish sinfda berilgan materialni takrorlash va mustahkamlashga yordam beradi va tilni o’rgatish usullaridan biridir. Boshqarish funktsiyasi maxsus o’quv materiallari va ularni boshqarish paytida qo’llash uchun ishlab chiqilgan metodologiyadan foydalangan holda tilni o’zlashtirish jarayonini nazorat qilishni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: diagnostika, diagnostik testlar, didaktik konsepsiya, kognitiv kompetensiya, kommunikativ kompetensiyalar, ko‘nikma, monitoring, nazorat prinsiplari.

ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИНОЯЗЫЧНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Аннотация Сегодня современные технологии стремительно развиваются, и задача преподавателя каждого учебного заведения – заинтересовать студентов научной сферой, вызвать интерес к инновационным процессам. С этой целью в образовательном учреждении внедряется система определения качества образования, предоставляемого студентам, на основе диагностического подхода с целью определения уровня владения иностранным языком студентов. Особого внимания при обучении иностранному языку заслуживает супервизия, поскольку она помогает повторить и закрепить материал, пройденный на уроке, и является одним из методов обучения языку. Функция управления обеспечивает контроль процесса освоения языка с использованием специальных учебных материалов и методики, разработанной для их использования в процессе управления.

Ключевые слова: диагностика, диагностические тесты, дидактическая концепция, когнитивная компетентность, коммуникативная компетентность, навыки, мониторинг, принципы контроля.

IMPORTANT ASPECTS OF FOREIGN LANGUAGE COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE MEDICAL SPECIALISTS

Abstract Today, modern technologies are rapidly developing, and the task of the teacher of each educational institution is to interest students in the scientific field and arouse interest in innovative processes. To this end, the educational institution is introducing a system for determining the quality of education provided to students, based on a diagnostic approach in order to determine the level of foreign language proficiency of students. Supervision deserves special attention when teaching a foreign language, since it helps to repeat and consolidate the material covered in the lesson, and is one of the methods of language teaching. The management function ensures control of the language acquisition process using special educational materials and methods developed for their use in the management process.

Key words: diagnostics, diagnostic tests, didactic concept, cognitive competence, communicative competence, skills, monitoring, control principles;

KIRISH: Og‘zaki nutqdagi ko‘nikmalarni baholashda turli xil leksik va grammatik tuzilmalar, shuningdek ulardan foydalanishning to‘g‘riligi hisobga olinadi; xabarning kengligi va ketma-ketligi; lingvistik vositalarning aloqa holatiga muvofiqligi; nutqning hajmi; nutq niyatining mavjudligi va uni amalga oshirish; subektiv ma‘lumotni ifodalovchi jumlar soni. Ma‘ruzachi tomonidan ishlatiladigan til vositalari ham hisobga olinadi.

Ushbu miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari bayonotning semantik tomonini baholash bilan to‘ldirilishi kerak. Biroq, test topshirig‘ini muvaffaqiyatli bajarishning asosiy mezonini kommunikativ vazifani hal qilishdir. Imtihonlar va monitoring faoliyati davomida talabalarning og‘zaki javoblarni baholashning mavjud mezonlarini umumlashtirib, chet tili kommunikativ kompetentsiyasining shakllanish darajasini baholashga imkon beradigan quyidagi ko‘rsatkichlarni qayd etish mumkin:

1. Talaba kommunikativ vazifani hal qildi: chet tilidagi matn mazmunini o‘qish va tushunishning yuqori mahorati qayd etilgan; talaba suhbatda faol ishtirok etadi, berilgan savollarga javob beradi; imtihonchi tomonidan taklif qilingan vaziyatni modellashtiradi; muammoli masalaning yechimini topadi; shaxsiy tajribadan misollar keltiradi; javoblarni to‘g‘ri shakllantiradi; taqdim etilgan rasmlarning aniq tavsiflarini beradi. Umuman olganda, uning javobi savodxonligi va chet tilidagi nutq qurilishining to‘g‘riligi bilan ajralib turadi.

2. Talaba kommunikativ vazifani hal qildi: yaxshi o‘qish qobiliyati qayd etilgan, ammo fonetik noaniqliklar va talaffuz chalkashliklari bilan; suhbatda faol ishtirok etish qayd etilgan, javoblarda semantik ma‘no saqlanib qolgan, ammo jumlar har doim ham to‘g‘ri tuzilmagan; vaziyatni to‘g‘ri modellashtiradi, lekin xato qiladi. fikrlash va o‘z fikrini bildirish; muammoli

vaziyat to‘liq oshkor etilmagan, u so‘z bilan qiynalmoqda; illyustratsiyalarning tavsifi to‘g‘ri, ammo hajmi jihatidan qisqa. Talabani javoblari odatda to‘g‘ri, ammo hajmi jihatidan siqilgan va kichik noaniqliklar va qo‘pol leksik va grammatik xatolar mavjud

3. Talaba kommunikativ vazifani to‘liq hal qila olmadi: ko‘p sonli nutq xatolarini taxmin qilish bilan past darajada o‘qish qobiliyati; suhbatda u passivlikni namoyon etadi, imtihon beruvchining savolining semantik mazmunini tushunishda va o‘z javobini shakllantirishda yo‘qoladi; vaziyatni modellashtirish qiyin, uning ma‘nosini tushunish, va shunga ko‘ra u o‘z hukm qurish mumkin emas; muammoni hal savol e‘tiborsiz qoladi; tasvirlangan materiallar tavsifi katta qiyinchilik va sanab unsurlar bir yomon majmui bilan o‘tadi. Umuman olganda, talabani javoblari qo‘pol xatolar mavjudligi bilan to‘liq emas.

Ushbu mezonlar mos ravishda talabalarining chet tili kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishning yuqori, o‘rta va past darajalari ko‘rsatkichlari bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, talabalar uchun topshiriqlarning murakkabligi, shakli va mazmuni chet tilini bilish darajalariga mos kelishi va topshiriqlarning bajarilishi interaktiv bo‘lishi kerak. Shuningdek, ma‘lum bir topshiriq turiga tayyorgarlik ko‘rish uchun kerakli tavsiyalarni berishingiz kerak. O‘quv jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, aksariyat talabalar chet tilidagi kommunikativ kompetentsiyani o‘rtacha yoki yuqori darajada shakllantirishga imkon beradi.

Og‘zaki test talabalarining chet tilidagi kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish darajasini nazorat qilishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uni muvaffaqiyatli tashkil etish va o‘tkazish uchun o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilaridan puxta tayyorgarlik talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Bir qator tadqiqotlar "til kompetentsiyasi" atamasini aniqlashga va til kompetentsiyasini modellashtirish yo‘llarini topishga bag‘ishlangan. Kompetentsiya deganda muammolarni hal qilish uchun harakatlarni iloji boricha samarali bajarish qobiliyati tushuniladi. Insonning kompetentsiyasi haqida yana bir tushuncha bor, ya‘ni uning til o‘rganishga moyilligi va chet tilidagi muloqotni amalga oshirish qobiliyati⁵⁰.

Lingvistik kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishda turli xil yondashuvlar mavjud: faoliyatga asoslangan, lingvistik va kommunikativ. F.I. Sharipova shved va amerikalik olimlarni eslatib o‘tadi: V. Chapanax, G. Vayler, I. Ya. Lefsted, talabalarining intellektual, axloqiy, ijtimoiy, estetik va siyosiy tarkibiy qismlari asosida o‘quv jarayonida olgan bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlari yig‘indisidan iborat bo‘lgan til kompetentsiyasining kompleks rivojlanishiga ishora qildi. D. Xarms, amerikalik sotsiolingvist, u aloqa vakillarining turli vakolatlarga ega ekanligi va tilning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga ahamiyat berilishi to‘g‘risida o‘zining sotsiolingvistik nazariyasini taklif qildi⁵¹. F.Y. M Kolkerning tushunchasida

⁵⁰ Karabutova E. A., Prokopenko Yu. A., Akinshina I. B. Formirovanie yazykovoi kompetentsii studentov vuza v svete kommunikativnogo podkhoda dlya realizatsii sotsial'nogo i professional'nogo mezhkul'turnogo vzaimodeistviya [Forming university students language competence in the light of communicative approach to make them successful in social and professional cross-cultural communication]. Kontsept = Concept, 2021, no. 1, pp. 45–55.

⁵¹ Sharipova F. I. tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida til kompetentsiyasini

lingvistik yoki grammatik kompetentsiya-bu insonning nafaqat tilning fonetik, morfologik, leksik, sintaktik xususiyatlari to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘lish qobiliyati, balki ushbu bilimlarni chet tillari (yozma va og‘zaki) muloqotida qo‘llash qobiliyatidir. Lingvistik kommunikativ kompetentsiya N. Rozovning ishida 3 jihatdan ham taqdim etilgan: semantik (madaniy jihatdagi vaziyatni yetarli darajada tushunish); muammo-amaliy (vaziyatni yetarli darajada tan olish); kommunikativ (madaniy kontekstga mos keladigan aloqa).

Kommunikativ yondashuv asosida tibbiyot talabalarining lingvistik kompetentsiyasini shakllantirish talabalarining o‘rganilayotgan tilda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Bu dastur tarkibining tarkibiy qismlarini to‘liq tizimlashtirish va zamonaviy o‘quv jarayoni sharoitida nutq xatti-harakatlarini muayyan hayotiy va kasbiy vaziyatlarda odatiy ona tili modeliga yaqinlashtirish sharti bilan mumkin. Ye. A. Karabutova va boshqalar fikriga binoan, bunday yondashuv quyidagi tizimlar to‘plamini o‘zlashtirishni ta‘minlaydi: umumiy faoliyat, nutq aloqasi, nutq mahsulotlari tizimi sifatida turli matnlar, tarkibiy nutq shakllanishi (bayonotlar, dialoglar va monologlar ko‘rinishidagi xabarlar)⁵².

Shunday qilib, multimediyadan foydalanish o‘rganishda faollikni oshiradi va o‘quvchilarning hurmatini qozonishga yordam beradi. Multimedia texnologiyalari o‘quvchilarning fanga qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Ular boshlang‘ich faoliyatni tashkil etish va boshqarish imkoniyatlarini kengaytirib, ilgari an’anaviy ta’lim doirasida to‘liq amalga oshirib bo‘lmaydigan istiqbolli uslubiy ishlanmalar imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beradi. Demak, masofaviy ta’limni davom ettirish uchun o‘qituvchilar dastlabki jarayonda faolroq pedagogik tarbiyachi bo‘lishlari kerak.

O‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalar, xususan, simulyatsiya, virtual tajribalar, va vizual dars resurslari qo‘llanganda talabaning o‘quv materialiga bo‘lgan e’tibori, qiziqishi va faol ishtiroki ortadi. Bu esa bilish faolligining oshishiga xizmat qiladi.

Fizika kabi murakkab va tushunarli bo‘lishi uchun amaliy misollar talab qiladigan fanlarda, masalan:

- PhET Interactive Simulations (Colorado University)
- Crocodile Physics
- GeoGebra 3D

- Labster Virtual Labs kabi vositalar fizik hodisalarni vizual va interaktiv ko‘rinishda taqdim etib, murakkab tushunchalarni soddalashtiradi.

XULOSA. Fizika fanini zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘qitish talabalarning bilish faolligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Eksperimentlar, so‘rovnomalar va tahlillar orqali isbotlanganidek, interaktiv metodlar:

- Talabalar e‘tiborini oshiradi;
- Mustaqil fikrlash va amaliy tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi;
- O‘quv natijalarining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Musurmonova O. (2021). Fizika fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash. O‘zbekiston Pedagogik Axborotnomasi.
2. Qosimova Z. (2022). Oliy ta’limda STEM yondashuvi va interaktiv o‘qitish metodlari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Pchelina V.S. Maktabgacha ta’limda media-texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha Avstriya tajribasi // Yaroslavl Pedagogika byulleteni II jild (Psixologiya va pedagogika fanlari). № 3, 2010 yil.
4. Yarim G.B. Ta’lim tizimida multimedia texnologiyalarining an’anaviy o‘quv fanlari bilan integratsiyalashuvi fan o‘qituvchilarining malakasi // Informatika va ta’lim, 2009. No 5.
5. Yo‘lchieva Z.N. O‘quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish // Fan va ta’lim bugun, 2018. No3 (26). 53-54-betlar.
6. Quvandiqova G.G., Choriyev I.R. Shaxsga nisbatan jamiyat insonparvarligi texnologiyalari // Fan va ta’lim axborotnomasi, 2016. No 5 (17). 64-67-betlar.
7. Fedorov A.V. Pedagogika universitetlarida media ta’lim: Pedagogika universitetlari uchun mutaxassislik bo‘yicha uslubiy materiallar va o‘quv kurslari dasturlari ("Media ta’lim"). Taganrog, 2003 yil
7. Ahmedov B.A. (2021). Korporativ hisoblash klaster tizimlarining ishonchliligini dinamik aniqlash. Ta’lim fanlari bo‘yicha akademik tadqiqotlar, 2(3), 495-499.
9. Ahmedov B.A. (2020). Zamonaviy jamiyatning masofaviy sharoitida interaktiv onlayn kurslarda ko‘nikmalarni rivojlantirish to‘g‘risida (ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun namunaviy dastur). Universum: Muhandislik fanlari, 12-1 (81).
10. Jurin A.A. Media ta’limning umumta’lim maktabining kimyo kursi bilan integratsiyasi // Media ta’limi. 2005. № 2. 29-51-betlar.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KONFLIKTOLOGIK MADANIYATINI AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Azimova Osiyoxon Adxam qizi
TDTU tayanch doktoranti
Gmail: azimovaosiyi@gmail.com
Tel: +99895 096 02 07

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish mexanizmlari o‘rganiladi. Akmeologik yondashuv asosida pedagogik konfliktologiya nazariyasi va amaliyotining integratsiyasi orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy taraqqiyotida muhim bo‘lgan konfliktlarni konstruktiv hal etish ko‘nikmalari shakllantirilishining samarali yo‘llari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyatini diagnostika qilish metodikasi ishlab chiqilgan, akmeologik yondashuv asosidagi maxsus treninglar va mashg‘ulotlar tizimi taklif etilgan. Eksperimental tadqiqot natijalari akmeologik yondashuv asosidagi ta’lim dasturining bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyatini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: akmeologiya, konfliktologik madaniyat, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, pedagogik konfliktologiya, kasbiy rivojlanish, akmeologik yondashuv.

Аннотация. В данной статье исследуются механизмы развития конфликтологической культуры будущих учителей начальных классов на основе акмеологического подхода. Проанализированы эффективные пути формирования навыков конструктивного разрешения конфликтов, важных в профессиональном развитии будущих учителей, через интеграцию теории и практики педагогической конфликтологии на основе акмеологического подхода. В ходе исследования разработана методика диагностики конфликтологической культуры будущих учителей, предложена система специальных тренингов и занятий на основе акмеологического подхода. Результаты экспериментального исследования подтверждают эффективность учебной программы на основе акмеологического подхода в развитии конфликтологической культуры будущих учителей.

Ключевые слова: акмеология, конфликтологическая культура, учителя начальных классов, педагогическая конфликтология, профессиональное развитие, акмеологический подход.

Abstract. This article examines the mechanisms for developing the conflictological culture of future primary school teachers based on the acmeological approach. The study analyzes effective ways of forming skills for constructive conflict resolution, which are important in the professional development of future teachers, through the integration of theory and practice of pedagogical conflictology based on the acmeological approach. During the research, a methodology for diagnosing the conflictological culture of future teachers was developed, and a system of special trainings and classes based on the acmeological approach was proposed. The results of the experimental study confirm the effectiveness of the educational program based on the acmeological approach in developing the conflictological culture of future teachers.

Keywords: acmeology, conflictological culture, primary school teachers, pedagogical conflictology, professional development, acmeological approach.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri – yuqori malakali, raqobatbardosh va kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan pedagogik kadrlarni tayyorlashdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimida ishlayotgan o‘qituvchilar shaxsning dastlabki ta’lim bosqichidagi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim sub’ektlar hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyati o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan muloqot jarayonida yuzaga keladigan turli xil murakkab va ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini talab etadi. Shu boisdan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish oliy pedagogik ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Mazkur muammoning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan konfliktlarning ko‘payishi;
- Bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktlarni konstruktiv hal etish ko‘nikmalariga yetarlicha ega emasligi;
- Oliy pedagogik ta’lim tizimida konfliktologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi.

Ushbu muammolarni hal etishda akmeologik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Akmeologiya – bu inson hayotining yuqori cho‘qqisi (“acme”) – kasbiy va shaxsiy kamolotga erishish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan. Akmeologik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat konfliktologik bilimlarini, balki ularning kasbiy yetuklikka yo‘naltirilgan ustanovkalarini, shaxsiy resurslarini rivojlantirishga ham qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Akmeologiya termini yunon tilidagi “acme” – “cho‘qqi”, “yuqori daraja” ma’nosini bildiruvchi so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, insonning kasbiy va shaxsiy kamolot cho‘qqisiga

erishish qonuniyatlarini o‘rganadi. Akmeologiya fani asoslarini N.V. Kuzmina, A.A. Derkach, A.A. Bodalev kabi olimlar ishlab chiqqan.

Akmeologik yondashuv kasbiy faoliyatda yuqori mahoratga erishish yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, mutaxassislarni tayyorlashning hozirgi bosqichdan “acme” darajasiga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. A.A. Derkach ta’kidlaganidek, akmeologik yondashuv “insonning kasbiy faoliyatida o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonlarini tashkil etishga qaratilgan strategiyani” nazarda tutadi [3, 46-b.].

Pedagogik faoliyat kontekstida akmeologik yondashuv o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatiga ijodiy munosabatda bo‘lishini, uning shaxsiy va kasbiy kamolotga erishish yo‘llarini tanlash imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutadi. N.V. Kuzmina pedagogik akmeologiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, o‘qituvchining kasbiy mahorati uning o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydi [6].

Pedagogik akmeologiya – barcha yosh davrlari psixologiyasi bilan bog‘liqlikda jadal rivojlanayotgan shaxsning yetuk rivojlanish cho‘qqisi – “akme shaxs” darajasiga yetkazish qonuniyatlari, texnika va texnologiyasini tadqiq etadi.[7, 31b]

Pedagogik konfliktologiya sohasida bir qator tadqiqotchilar (A.Ya. Antsupov, A.I. Shipilov, N.V. Grishina va boshqalar) konfliktologik madaniyat tushunchasini ishlab chiqishgan. Konfliktologik madaniyat – bu shaxsning konfliktli vaziyatlarni oldini olish, ularni konstruktiv hal etish va konfliktlardan kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun foydalanish qobiliyati va ko‘nikmalarini o‘z ichiga oluvchi integral sifatidir.

M.M. Kashapov konfliktologik madaniyatning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatadi:

- konfliktologik bilimlar;
- konfliktologik kompetensiyalar;
- konfliktologik ustanovkalar;
- refleksiv ko‘nikmalar [5, 75-b.].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining konfliktologik madaniyati uning kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan ziddiyatlarni samarali hal etish imkoniyatini beradi. O.I. Shcherbakova konfliktologik madaniyatni “shaxsning turli xil konfliktlarni konstruktiv hal etish uchun zarur bo‘lgan qadriyatlar, bilimlar va ko‘nikmalar tizimi” sifatida ta’riflaydi [8, 28-b.].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun zarur bo‘lgan konfliktologik kompetensiyalar

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun zarur bo‘lgan konfliktologik kompetensiyalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- konflikt fenomenini tushunish va uning rivojlanish qonuniyatlarini bilish;
- konflikt holatida o‘z va boshqalarning hissiy holatlarini nazorat qilish;
- konfliktni hal etishning konstruktiv usullarini qo‘llay olish;
- mediativ ko‘nikmalar;
- kommunikativ kompetensiyalar;

- refleksiv qobiliyatlar.

E.E. Efimova ta’kidlaganidek, “Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat o‘quvchilar o‘rtasida, balki o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘qituvchi-ota-ona munosabatlarida ham yuzaga keladigan konfliktlarni samarali hal etishga qodir bo‘lishi lozim” [4, 68-b.].

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanilgan:

- nazariy metodlar: ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili, tizimli yondashuv;
- empirik metodlar: anketa so‘rovnomasi, pedagogik kuzatuv, ekspert baholash, pedagogik eksperiment;
- matematik-statistik metodlar: olingan natijalarni statistik qayta ishlash va tahlil qilish.

Tadqiqot respondentlari sifatida pedagogika oliy ta’lim muassasasining “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 4-kurs talabalari jalb qilingan (n=340). Respondentlar ikki guruhga taqsimlangan: eksperimental guruh (170 nafar) va nazorat guruhi (170 nafar).

Eksperimental ish dizayniga quyidagi bosqichlar kiritilgan:

1. Motivatsion bosqich: bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyatni rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishi va ehtiyojini shakllantirish;
2. Diagnostika bosqichi: bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyati darajasini aniqlash;
3. Eksperimental bosqich: akmeologik yondashuv asosida maxsus treninglar, mashg‘ulotlar va amaliy vazifalardan iborat ta’lim dasturini amalga oshirish;
4. Natijaviy bosqich: eksperimental ishdan so‘ng bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyatidagi o‘zgarishlarni aniqlash va baholash.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyati diagnostikasi

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini diagnostika qilish uchun quyidagi metodikalardan foydalanilgan:

- “Konfliktlarni hal etish usullari” (K. Tomas);
- “Kommunikativ tolerantlik” (V.V. Boyko);
- “Pedagogik konfliktologik madaniyat” (mualliflik so‘rovnomasi);
- “Akmeologik ustanovkalar” (A.A. Derkach).

Dastlabki diagnostika natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatining uch darajasini aniqlash imkonini berdi:

1. Yuqori daraja (respondentlarning 15%): konfliktlarni konstruktiv hal etish uchun zarur bo‘lgan chuqur nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar, rivojlangan refleksiya, yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyalar;
2. O‘rta daraja (respondentlarning 45%): konfliktologik bilimlarning mavjudligi, biroq ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarining yetarlicha rivojlanmaganligi;

3. Past daraja (respondentlarning 40%): konfliktologik bilimlar va ko‘nikmalarning pastligi, konfliktlarni hal etishda destruktiv usullardan foydalanish.

Akmeologik yondashuv asosidagi ta’lim dasturining tavsifi

Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi komponentlarni o‘z ichiga olgan ta’lim dasturi ishlab chiqildi:

1. **Nazariy modul:** “Pedagogik konfliktologiya asoslari”, “Akmeologiya va kasbiy rivojlanish”, “Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatidagi konfliktlar tipologiyasi” kabi mavzularni o‘z ichiga oladi.

2. **Amaliy modul:** konfliktli vaziyatlarni tahlil qilish va hal etish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar, case-study texnologiyalaridan foydalanish, rolli o‘yinlar.

3. **Treninglar:** kommunikativ ko‘nikmalar treningi, mediatsiya treningi, hissiy intellekt rivojlantirish treningi.

4. **Refleksiv modul:** o‘z tajribasini tahlil qilish, kasbiy refleksiya kundaligini yuritish.

5. **Shaxsiy-rivojlantiruvchi modul:** akmeologik ustanovkalarni shakllantirish, individual kasbiy rivojlanish yo‘lini loyihalash.

Ta’lim dasturi 1 semestr (16 hafta) davomida amalga oshirilgan, har bir mashg‘ulot davomiyligi 2 akademik soatni tashkil etgan.

Eksperimental natijalar tahlili

Eksperimental ishlar natijasida quyidagi natijalar olingan:

1. Eksperimental guruhda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyati darajasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi (1-jadval).

1-jadval. Bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyati darajasidagi o‘zgarishlar (%)

Daraja	Eksperimental guruh		Nazorat guruhi	
	Tajribadan oldin	Tajribadan so‘ng	Tajribadan oldin	Tajribadan so‘ng
Yuqori	16,7	43,3	13,3	18,3
O‘rta	45,0	48,3	45,0	46,7
Past	38,3	8,4	41,7	35,0

2. Konfliktlarni hal etish usullarida ijobiy dinamika kuzatildi: eksperimental guruhda hamkorlik va kompromiss strategiyalarini qo‘llash darajasi oshdi, raqobat strategiyasidan foydalanish darajasi pasaydi.

3. Kommunikativ tolerantlik darajasi eksperimental guruhda o‘rtacha 37% ga oshdi.

4. Pedagogik konfliktologik kompetentlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha eksperimental guruh ishtirokchilarida sezilarli o‘sish kuzatildi, ayniqsa, konfliktlarni oldini olish va mediativ ko‘nikmalar bo‘yicha.

5. Akmeologik ustanovkalar shakllanishida ham ijobiy dinamika kuzatildi: eksperimental guruh talabalarida kasbiy o‘sishga intilish, ijodiy munosabat va refleksiv qobiliyatlar rivojlandi.

Olingan natijalar taklif etilgan akmeologik yondashuv asosidagi ta’lim dasturining bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyati ularning kasbiy tayyorgarligining muhim komponenti hisoblanadi va akmeologik yondashuv asosida samarali shakllantirilishi mumkin.

Konfliktologik madaniyat tizimli tushuncha bo‘lib, konfliktologik bilimlar, konfliktologik kompetensiyalar, konfliktologik ustanovkalar va refleksiv ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Akmeologik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyatini rivojlantirishda samarali bo‘lib, ularning kasbiy yetuklikka intilishlarini, ijodiy salohiyatlarini va shaxsiy resurslarini faollashtiradi.

Akmeologik yondashuv asosidagi ta’lim dasturi nazariy, amaliy, trening, refleksiv va shaxsiy-rivojlantiruvchi modullarni o‘z ichiga olishi va tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim.

Tajriba-sinov ishlari natijalariga ko‘ra, taklif etilgan dastur bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология. – СПб.: Питер, 2019. – 528 с.
2. Azimova O.A. “Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini rivojlantirishning mazmuni”. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2024-4-son. ISSN:2181-1458 №4-B.944-946
3. Azimova O.A. "CONFLICTOLOGICAL CULTURE: ESSENCE, COMPONENTS, AND DEVELOPMENT STAGES" In Volume 4, Issue 2 of International scientific journal Science and Innovation. ISSN: 2181-3337.
4. Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала. – М.: Изд-во Московского психолого-социального института, 2004. – 752 с.
5. Ефимова Е.Е. Формирование конфликтологической компетентности будущего учителя // Педагогическое образование и наука. – 2007. – № 7. – С. 64-72.
6. Кашапов М.М. Психология педагогического мышления. – СПб.: Алетейя, 2000. – 463 с.

7. Кузьмина Н.В. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2001. – 144 с.

8. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika. 434b

9. Щербакова О.И. Психологические основания формирования конфликтологической культуры личности // Вестник Московского государственного гуманитарного университета им. М.А. Шолохова. Педагогика и психология. – 2010. – № 1. – С. 27-36.



**O‘QUVCHI VA TALABALARNI FIZIKA FANIDAN, O‘QUV VA ILMIY
ADABIYOTLAR BILAN ISHLASHGA QIZIQTIRISH.**

Erkinova Mohlaroyim Muxtorjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti talabasi,
Email: erkinovamoxlaroyim05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarni fizika fanidan o‘quv va ilmiy ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga o‘rgatishning ahamiyati va usullari tahlil qilinadi. Mustaqil ishlarning turlari, ularni tashkil etish shakllari hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil ishlari orqali bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga oid tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Mustaqil ishlar, axborot texnologiyalari, munozarali savollar, topshiriqlar, kinetik sxemalar, tarqatma materiallar, laboratoriya ishlari.

Kirish

Zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, fizika fanini o‘rganishda o‘quvchilarning o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olishga tayyorligini oshiradi.

Shuning uchun o‘quvchilarni mustaqil ravishda ta‘lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg‘ulotlarida talabalarni o‘qitish bilan bir qatorda ularni ko‘proq o‘qishga o‘rgatish, bilim olish yo‘llarini ko‘rsatish, mustaqil ta‘lim olish uchun yo‘llanma berish, umum ta‘lim maktablarining ham asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi mustaqil ravishda shug‘ullansa va o‘z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi mumkin.

O‘quvchilarning asosiy bilim, ko‘nikma va malakalari mustaqil ta‘lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili.

A.A. Isroilov (2021) Ushbu maqolada o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olish jarayonida internet resurslaridan, xususan, web-sahifalardan samarali foydalanish usullari tahlil qilingan.

K.T. Suyarov, S.T. Shermetova (2023) Maqolada fizika ta‘limida mantiqiy tuzilish

sxemalaridan foydalanishning ahamiyati va ularning o‘quvchilarning tushunish darajasiga ta’siri tahlil qilingan.

O.Qo‘ysinov, A.Nosirov (2021) Ushbu metodik qo‘llanmada maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda fizika fanini o‘qitishning uzviyligi va uzluksizligi ta’minlash bo‘yicha konsepsiyalar va o‘quv dasturlari keltirilgan.

M. Karimov (2021) Maqolada kasb-hunar maktablarida fizika fanini interfaol usullar orqali o‘qitishning samaradorligi va o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan.

S.R. Jurayeva (2020) Maqolada fizika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning nazariy asoslari va usullari tahlil qilingan.

O‘.Farmonov (2023) Ushbu qo‘llanmada fizika fanini o‘qitishda nofizik mutaxassisliklar uchun interfaol topshiriq va mashqlardan foydalanish usullari keltirilgan.

Metodologiya.

Maqolani tayyorlash jarayonida mavjud ilmiy adabiyotlar, pedagogik tajribalar va zamonaviy ta’lim texnologiyalariga oid manbalar o‘rganildi. Xususan, fizika fanini o‘qitishda mustaqil ishlarning turlari, ularni tashkil etish metodlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar.

Mustaqil ishlarning turlari

Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil ishlari quyidagi shakllarda tashkil etilishi mumkin:

- O‘quv va ma’lumotnoma adabiyotlar bilan ishlash;
- Masala yechishda turli ish shakllari;
- Laboratoriya amaliy ishlari;
- Qidiruv elementiga ega bo‘lgan frontal tajribalar;
- Tarqatma materiallar bilan ishlash;
- Kinetik sxemalar bilan ishlash;
- O‘rtoqlarning javoblari va chiqishlarini taqriz qilish, axborot va referatlar tayyorlash, tajribalarni kuzatish va undan xulosalar chiqarish;
- Asbob va ko‘rgazmalar tayyorlash.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, kompyuter dasturlari, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari orqali o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, ularning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan tayyorligini kuchaytiradi.

Mustaqil ish qanday bo‘lishidan qat’iy nazar rahbarlik rolini o‘qituvchi bajaradi.

O‘quvchilarning mustaqil iahi – muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma’lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘qituvchisi maslahati va

tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan faoliyatdir.

Avvalo o‘quvchilarni mustaqil ta‘lim olishga ruhan tayyorlash zarur. Shuning uchun har bir o‘qituvchi dastlab talabada o‘z qobiliyatlari va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg‘otishi, ularni sabr toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishlarini to‘g‘ri tashkil qilishga o‘rgatib borishi lozim bo‘ladi.

Mustaqil ishlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tushishi, uni bajara oladigan va qiziqarli bo‘lishi kerak.

O‘quvchi mustaqil ishlarining shaklini va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e‘tiborga olinishi kerak:

- O‘qish bosqichi
- Fizika fanining o‘ziga hos xususiyatlari va o‘zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi
- O‘quvchilarning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi {tayanch bilim}

- Fanning axborot manbalari bilan ta‘minganlik darajasi

- O‘quvchining axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi

O‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda talabaning o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- Fanning ayrim mavzularini o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish, o‘quv manbalari bilan ishlash

- Amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rib kelish

- Ma‘lum mavzu bo‘yicha referat tayyorlab kelish

- Xisob-kitob va grafik ishlarini bajarish

- Amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish

- Test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash

- Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash

- Uy vazifalarini bajarish.

Fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin.

Mamlakatimizni rivojlantirishning yangi shart-sharoitlarida shaxsni xamma tomonlama rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari eng umumiy ko‘rinishda yo‘naltirilishi lozim bo‘lgan o‘qitish maqsadi asosida shaxsning har tomonlama rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish sifatida shakllanadi. Shu munosabat bilan

O‘zbekiston Respublikasining “Talim to‘g‘risida”gi qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta‘lim jarayonida hayotiy o‘z-o‘zini belgilaydigan shaxsni shakllantirish, uning o‘z-o‘zini namoyon qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish, jamiyat uchun barkamol avlodni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Shunday ekan ta’lim maqsadlarini qo’yishning texnologik yondashuvi jamiyatda ishlab chiqiladigan axborot texnologiyalarini joriy etishni taqazo qiladi.

Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga talabalarga dars berishning yangi turlari shakllanmoqda.

Dars jarayonini va mustaqil ishlarini tashkil etishda kompyuterning ahamiyati:

O‘quvchilar tomonidan kuzatish qiyin bo‘lgan fizikaviy jarayonlarni ko‘rgazmali tushuntirish mumkin.

O‘quv jarayonidagi mustaqil ishlarni faollashtiradi va samaradorligini oshiradi.

Mustaqil ishlarni va o‘quv materialini turli shakllarda uzatilishi (ovoz, matn, video, grafika, animatsiya) o‘quvchining diqqatini tortadi.

O‘quvchilarning mustaqil ishlari ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mustaqil ishlar o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, ularning fizika faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Xulosa va Takliflar

Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- O‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos mustaqil ish turlarini tanlash;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- O‘quvchilarning mustaqil ishlari natijalarini muntazam tahlil qilish va baholash;
- Mustaqil ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining rahbarlik rolini kuchaytirish.

Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularni o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlashga o‘rgatish, tajriba va laboratoriya ishlarini tashkil etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.A. Isroilov, “Fizika fanidan mustaqil ta’lim olishda web-sahifalardan foydalanish”, Academic Research in Educational Sciences, 2021.
2. K.T. Suyarov, S.T. Shermetova, “Fizika ta’limida mantiqiy tuzilish sxemaning ahamiyati”, ResearchGate, 2023.
3. O.Qo‘ysinov, A.Nosirov, “Fizika fanidan O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim milliy o‘quv dasturlari”, ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.
4. M. Karimov, “Kasb-hunar maktablarida fizika fani o‘qitishda interfaol usullar”, Nauchniy Impuls, 2021.
5. S.R. Jurayeva, “Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish”, Journals.uz, 2020.
6. Erkinova M.M., “Umumta’lim maktablarida fizika faniga kirishda pedagogik yondashuv”, Qo‘qon, 2024
7. Erkinova M.M., “O‘zbekistonda fizika va texnika fanlari bo‘yicha, kreativ fikirlash yoshlar sonini oshirish omillari”, respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2025.

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI**
(2025-yil 5-son)



**PEDAGOGIKA
PEDAGOGY**

FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA TALABALARNI AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY TA‘MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdusamatova Hilola Odiljon qizi

TDMAU. “Aniq va tabiiy fanlar ” kafedrası katta o‘qituvchisi:
abdusamatovahilola1991@gmail.com
+998996790070

Norqo‘ziyev Jahongir Sheraliyevich

TDMAU. “Aniq va tabiiy fanlar ” kafedrası Assistenti
+998904109296

omadlijentelmenjoxa@gmail.com

Qurbonmurodov Umid Jumanazarovich

TDMAU. “Aniq va tabiiy fanlar ” kafedrası Assistenti
+998972649797
umidjumanazarovich@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada fanlararo aloqadorlik asosida talabalar axborot madaniyatini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Pedagogika sohasida dasturiy ta‘minotni takomillashtirish orqali axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga samarali integratsiya qilishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, talabalar axborot madaniyatini oshirishga xizmat qiladigan interaktiv vositalar va raqamli resurslar tahlil qilinadi. Ayniqsa, matematika fanining axborot texnologiyalari bilan uzviy bog‘lanishi hamda bu jarayonda foydalaniladigan dasturiy vositalarning imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: axborot madaniyati, fanlararo aloqadorlik, dasturiy ta‘minot, pedagogika, raqamli texnologiyalar, matematika

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ВЗАИМОСВЯЗИ

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития информационной культуры студентов на основе междисциплинарных связей. Раскрываются теоретические и практические основы эффективной интеграции информационных технологий в образовательный процесс посредством совершенствования программного обеспечения в педагогике. Также анализируются интерактивные средства и цифровые ресурсы, способствующие формированию информационной культуры у студентов. Особое

внимание уделено интеграции математики с информационными технологиями и возможностям программного обеспечения в этом процессе.

Ключевые слова: информационная культура, междисциплинарные связи, программное обеспечение, педагогика, цифровые технологии, математика

IMPROVING SOFTWARE SUPPORT FOR DEVELOPING STUDENTS' INFORMATION CULTURE BASED ON INTERDISCIPLINARY INTEGRATION

Abstract: This article explores the development of students' information culture through interdisciplinary integration. It highlights the theoretical and practical foundations of effective incorporation of information technologies into the educational process by improving pedagogical software. The study also analyzes interactive tools and digital resources aimed at enhancing students' information literacy. Particular attention is given to the integration of mathematics with information technologies and the software tools used in this process.

Keywords: information culture, interdisciplinary integration, software, pedagogy, digital technologies, mathematics

–KIRISH (INTRODUCTION)

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Zamonaviy tadqiqotchilar "axborot madaniyati" atamasini turlicha talqin qilmoqdalar. Axborotlashtirish sohasidagi yetakchi rus mutaxassislaridan biri E.P. Semenyuk ostida axborot madaniyati "butun insoniyat madaniyatining jamiyatdagi barcha axborot jarayonlari va mavjud axborot munosabatlari darajasini ob'ektiv ravishda tavsiflovchi axborot komponentini" tushunadi.

E. A. Medvedevaning so'zlariga ko'ra, "axborot madaniyati - bu insonga axborot makonida erkin harakatlanish, uning shakllanishida ishtirok etish va axborot bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirishga imkon beradigan bilim darajasi" deb takidlagan.

Axborot madaniyatiga ega bo'lgan talabalar nafaqat bilimni tezkor o'zlashtirishga, balki uni mustaqil tahlil qilishga, axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ham qodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, fanlararo yondashuv asosida axborot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan dasturiy vositalarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. Bu ayniqsa matematika fanini o'qitishda muhimdir, chunki bu fan mantiqiy fikrlash, tahlil va model qurish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Muammoni ilmiy ishlab chiqish darajasi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ushbu sohada ko'plab tadqiqotlar mavjudligini aniqlaydi. Axborot, axborotlashtirish, axborot madaniyati muammolari yarim asr davomida ham mahalliy, ham chet el adabiyotida faol rivojlanib kelmoqda. Umumiy ilmiy ma'noda axborot madaniyatini D. Adam, D.I. kabi olimlar ko'rib chiqdilar. Blumenau, N. Wiener, A.D. Ursuli dr.

–MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI QISMI (LITERATURE REVIEW)

Axborot madaniyati hodisasi bilan bog‘liq muammolarni falsafiy, pedagogik, psixologik va boshqa yondashuvlar nuqtai nazaridan ishlab chiqish ayniqsa so‘nggi o‘n yilliklarda faollashmoqda. Ushbu muammoning turli jihatlarini ishlab chiqilgan. O.V. Artyushkin, A.A. Vituxnovskaya, M.G. Voxrysheva, N.I. Gendin, A.A. Grechixin, M. Ya. Dvorkin, N.B. Zinovieva, Yu.S. Zubov, V.E. Leonchikov, E.P. Semenyuk, N.A. Fedotov va boshqalar.

Shu bilan birga, "axborot madaniyati" tushunchasi asosan ko‘rib chiqiladigan ikkita asosiy yondashuv yoki axborot yo‘nalishlariga yoki madaniy yo‘nalishlarga asoslangan. Birinchi yondashuv doirasida asosiy e‘tibor shaxsning axborot bilan ishlash sohasidagi imkoniyatlarini (qidirish, tanlash, tizimlashtirish, tahlil qilish) aks ettiruvchi xususiyatlarga, axborot amaliyotining tarkibi va mazmuni bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarning mavjudligiga qaratilgan. Ushbu tor yo‘naltirilgan yondashuv G.G.ning asarlarida keltirilgan. Vorobieva, L.V. Google, K.T. Audrina, L.V. Nurgaleeva, G.B. Parshukova, A.A. Paraxina va boshqalar. Zamonaviy axborot madaniyatini o‘rganishda axborot yondoshuvi ustunlik qilmoqda, chunki bu masala fanga axborot sohasidan kelib chiqqan.

Nazariy asoslar va adabiyotlar sharhi Axborot madaniyati tushunchasi turli ilmiy manbalarda turlicha talqin etiladi. Ba‘zi olimlar uni shaxsning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalana olish qobiliyati sifatida baholasa, boshqalari uni axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyati deb izohlaydi. Pedagogik jarayonda bu madaniyatni shakllantirishda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi interaktiv aloqalar muhim rol o‘ynaydi. Matematika fanida esa axborot vositalari orqali murakkab formulalarni modellashtirish, grafiklar chizish va hisob-kitoblarni avtomatlashtirish orqali axborot madaniyatining amaliy qirralari namoyon bo‘ladi.

–TADQIQOT METODOLOGIYASI QISMI (RESEARCH METHODOLOGY)

Ushbu tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar axborot madaniyatini fanlararo integratsiya asosida rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Asosiy metod sifatida quyidagi yondashuvlar tanlandi:

1. Tavsifiy tahlil (descriptive analysis):

Bu usul yordamida mavjud holat o‘rganilib, axborot madaniyatining shakllanishida dasturiy ta‘minot va fanlararo aloqadorlikning o‘rni tasvirlab berildi.

2. Tajriba-sinov usuli (experimental method):

Toshkentdagi oliy ta‘lim muassasalarida olib borilgan tajriba asosida dasturiy ta‘minotning samaradorligi amaliy jihatdan baholandi...

3. Sotsiologik so‘rovlar:

Talabalar va o‘qituvchilar orasida o‘tkazilgan anketalar orqali axborot madaniyatining real darajasi aniqlandi.

4. Kontent-tahlil:

Axborot texnologiyalari bilan bog‘liq dars materiallari va ularning o‘quv jarayoniga integratsiyasi tahlil qilindi.

Fanlararo aloqadorlikning o‘rni Fanlararo aloqadorlik orqali talabalar nafaqat o‘z mutaxassisligiga oid bilimlarni chuqurlashtiradi, balki boshqa fanlar bilan bog‘liq bo‘lgan axborot resurslarini ham o‘zlashtiradi. Fanlararo bog‘liqlik bu real voqelikdagi ob‘ektlar, hodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi sintezlovchi, integratsiyalovchi munosabatlarni belgilovchi pedagogik kategoriya bo‘lib, o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarning mazmuni, shakli va metodlarida o‘z aksini topadi va ta‘limning rivojlantiruvchi hamda tarbiyalovchi funktsiyalarni birgalikda amalga oshiradi. Masalan, informatika, lingvistika, matematika va pedagogika fanlarining integratsiyasi natijasida yaratilgan dasturiy mahsulotlar talabalarning o‘z fikrini aniq ifoda etish, axborotni tahlil qilish va tizimli fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ayniqsa, matematik modellarni qurishda dasturiy vositalardan foydalanish talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularning amaliy qo‘llanilishini ham o‘rganish imkonini beradi.

–TAHLIL VA NATIJALAR QISMI (ANALYSIS AND RESULTS)

Axborot madaniyatining zamonaviy talablari Bugungi kunda talabalar nafaqat kompyuterda ishlash, balki internet tarmog‘idagi ma‘lumotlarni tanlay olish, ularni tahlil qilish, foydali va ishonchli axborotni ajrata olish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Shuning uchun axborot madaniyati faqat texnik ko‘nikmalar emas, balki axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ham qamrab oladi. Matematika fanida bu madaniyat masalalarni raqamli vositalarda modellashtirish, matematik statistikani amaliyotda qo‘llash va natijalarni tahlil qilish orqali shakllanadi.

Dasturiy ta‘minotni takomillashtirish yo‘nalishlari Pedagogik dasturiy ta‘minotni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

- fanlararo integratsiyani, jumladan, matematika bilan bog‘liq modullarni aks ettiruvchi interaktiv bloklar yaratish;

- o‘qituvchilarning va talabalarni ehtiyojlariga mos individual interfeyslar ishlab chiqish;

- matematik masalalarni yechishda foydalaniladigan grafik kalkulyatorlar, formulalar banki va statistik tahlil vositalarini dasturiy mahsulotga integratsiya qilish;

- tahliliy vositalar bilan ta‘minlangan virtual muhitni yaratish;

- o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan elektron resurslar ishlab chiqish.

Pedagogik dasturiy vositalarni, xususan, matematika fanida qo‘llash orqali axborot madaniyati darajasi baholandi. Eksperimental guruhlarida axborot bilan ishlash, axborotni saralash va tahlil qilish ko‘nikmalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Shuningdek, talabalar matematik muammolarni yechishda raqamli vositalardan faol foydalanishga, mustaqil izlanishga va muammoli vaziyatlarni hal qilishga ko‘proq moyil bo‘lishdi.

–XULOSA VA TAKLIFLAR QISMI (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Fanlararo aloqadorlik asosida ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan dasturiy ta‘minot, ayniqsa, matematika fanini o‘qitishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Kelgusida bu kabi vositalarni yanada takomillashtirish, ularni har bir o‘quv faniga integratsiya qilish, fanlararo bog‘liqlikni joriy etish orqali erishiladigan imkoniyatlar keltirib o‘tamiz:

- fanlarning uzviy bog‘lanishidan fanlararo uzluksiz bog‘lanishga o‘tish bilim olishni osonlashtiradi va talabalarga bir ob‘ektda qo‘llaniladigan usullarni ikkinchi ob‘ektga qo‘llash imkoniyatini yaratadi;

- fanlar bog‘liq tuzilmasidagi muammoli vaziyatlarning ko‘pligi talabaning fikrlash qobiliyatini faollashtiradi;

- fanlararo bog‘liqlik darsning axborot hajmini oshiradi;

- fanlararo bog‘liqlik turli fanlarni o‘rganishda talabalarning muayyan kuzatishlari, xulosalarini tasdiqlaydigan yoki chuqurlashtiradigan yangi omillarni topishga imkon yaratadi;

- fanlararo bog‘liqlik o‘qishga undovchi vosita hisoblanadi. U talabalarning o‘qish-bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi, zo‘riqish va charchoqdan holi bo‘lishga ko‘maklashadi;

- o‘quv materialining integratsiyalashuvi talabalar ijodini takomillashtirishga yordamlashadi, ularga o‘zlashtirgan bilimlarini hayotiy sharoitlarda Qo‘llash imkonini beradi. «Informatika va axborot texnologiyalari» fanining boshqa o‘quv fanlari bilan bog‘liqligi ham yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

shuningdek, mobil versiyalarini yaratish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Коростелева, А. А., Крючкова, Е. А., Жарковская, Т. Г., Басик, Н. Ю., Романова, М. Ю. Междисциплинарная интеграция как способ обновления содержания современного образования // *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*. – 2019. – Т. 69. – С. 450–458. – DOI: 10.15405/epsbs.2019.09.02.52

2. Rasulov, I. M. The Role of Information and Communication Technologies in Providing Interdisciplinary Integration in the Educational Process // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*. – 2022. – Vol. 3, No. 12. – P. 1281–1286. – DOI: 10.17605/OSF.IO/NH92M

3. Mbele, M., & Swart, J. Integrating the Software Development Lifecycle into Work-Integrated Learning: A Case Study at a South African University of Technology // *International Journal of Research in STEM Education*. – 2021. – Vol. 6, No. 2. – DOI: 10.33830/ijrse.v6i2.1675

4. Goriunova, O. *Art Platforms and Cultural Production on the Internet*. – London: Routledge, 2013. – 248 p.

5. Mackenzie, A. *Wirelessness: Radical Empiricism in Network Cultures*. – Cambridge: MIT Press, 2014. – 272 p.

6. Axmedova N.X. *Axborot madaniyati va ta’lim texnologiyalari*. – Toshkent: Fan, 2022. – 180 b.

7. G‘ulomov S.S. *Fanlararo integratsiya asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 152 b.

8. Karimov B.M. Axborot texnologiyalarining pedagogik asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023. – 134 b.
9. Turaev J.J. Dasturiy ta’minotlar va ularning ta’limdagi o‘rni. – Buxoro: Ilm ziyo, 2020. – 165 b.
10. UNESCO. Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. – Paris, 2019. – 120 p.
11. Bates A.W. Teaching in a Digital Age. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd, 2015. – 290 p.
12. Jonassen D.H. Computers as Mindtools for Schools. – New York: Pearson, 2014. – 350 p.



LAGRANJ KO‘PAYTUVCHILARI VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI TATBIQLARI

Muhiddinova Gulzoda Shukur qizi,
Qarshi xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: gulzoda0301@gmail.com
+998976423393
ORCID ID: 0009-0006-0909-1537
UDK:51.7; 519.2/6

Annotatsiya Matematik modellar iqtisodiy jarayonlarni tushunish va tahlil qilish uchun juda muhim vosita hisoblanadi va sohada keng qo‘llaniladi. Ushbu modellar turli iqtisodiy masalalarni strukturaviy ravishda ifodalash, tahlil qilish va ularning yechimlarini topishga yordam beradi. Hozirgi zamon iqtisodiyotida qaror qabul qilish jarayonlari ko‘pincha murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, samarali yechim topish uchun aniq va tizimli usullarni talab qiladi. Matematik modellashtirish shunday usullardan biri bo‘lib iqtisodiy masalalarni hal qilishda matematik modellar iqtisodiy jarayonlarni aniq va tizimli shaklda tahlil qilishga imkon beradi, matematik modellar yordamida turli shart-sharoitlarda optimal yechimlar topiladi. Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda optimallashtirish usullari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, cheklangan resurslar sharoitida samarali qarorlar qabul qilish uchun matematik modellashtirish usullari keng qo‘llaniladi. Ushbu maqolada Lagranj ko‘paytuvchilari usuli va uning iqtisodiyotdagi tatbiqlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Lagranj ko‘paytuvchilari, optimallashtirish, iqtisodiy modellashtirish, cheklovli optimallashtirish, ishlab chiqarish tahlili.

ЛАГРАНЖЕВЫ МНОЖИТЕЛИ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В ЭКОНОМИКЕ

Аннотация Математические модели являются важным инструментом для понимания и анализа экономических процессов и широко применяются в данной сфере. Эти модели помогают структурировано выражать различные экономические задачи, анализировать их и находить их решения. В современной экономике процессы принятия решений часто являются сложными и многогранными, что требует точных и системных методов для поиска эффективных решений. Математическое моделирование является одним из таких методов, позволяющим анализировать экономические процессы в ясной и структурированной форме и находить оптимальные решения в различных условиях. В современных экономических исследованиях методы оптимизации играют важную роль.

Особенно в условиях ограниченных ресурсов математические методы моделирования широко применяются для принятия эффективных решений. В данной статье рассматривается метод множителей Лагранжа и его применение в экономике.

Ключевые слова: множители Лагранжа, оптимизация, экономическое моделирование, ограниченная оптимизация, анализ производства.

LAGRANGE MULTIPLIERS AND THEIR APPLICATIONS IN ECONOMICS

Abstract Mathematical models are essential tools for understanding and analyzing economic processes and are widely used in the field. These models help to express various economic problems in a structured manner, analyze them, and find their solutions. In modern economics, decision-making processes are often complex and multifaceted, requiring precise and systematic methods to identify effective solutions. Mathematical modeling is one such method that allows for a clear and structured analysis of economic processes and enables the identification of optimal solutions under different conditions. Optimization methods play a significant role in contemporary economic research. Especially under conditions of limited resources, mathematical modeling techniques are widely used to make efficient decisions. This article analyzes the method of Lagrange multipliers and its applications in economics.

Keywords: Lagrange multipliers, optimization, economic modeling, constrained optimization, production analysis.

Kirish: Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda optimallashtirish usullari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, cheklangan resurslar sharoitida samarali qarorlar qabul qilish uchun matematik modellashtirish usullari keng qo‘llaniladi. Ko‘plab iqtisodiy jarayonlarda firmalar, davlatlar va investorlar oldida bir muammo turadi: qanday qilib mavjud bo‘lgan cheklangan resurslar (xodimlar soni, xomashyo, mablag‘, vaqt va boshqalar) sharoitida maksimal foyda olish yoki minimal xarajat qilish mumkin? Bu savolga javob izlar ekanmiz, matematik optimallashtirish nazariyasiga, xususan, Lagranj ko‘paytuvchilari usuliga murojaat qilamiz.

Lagranj ko‘paytuvchilari usuli iqtisodiy muammolarni modellashtirishda eng samarali vositalardan biridir. Bu usul yordamida cheklovlar ostida maqsad funksiyasini (masalan, foyda yoki ishlab chiqarish hajmi) maksimal yoki minimal qilish mumkin. Ushbu yondashuv resurslarni optimal taqsimlash, iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilar qarorlarini tahlil qilish, moliyaviy rejalarini shakllantirish kabi turli iqtisodiy vazifalarni hal qilishda keng qo‘llaniladi.

Savol: Qanday qilib korxona maksimal foyda olish yoki minimal xarajat qilish sharti bilan resurslarni eng yaxshi taqsimlashi mumkin?

Javob: Lagranj ko‘paytuvchilari usuli bu muammoni yechishga yordam beradi. Bu usulda cheklovli optimallashtirish modeli tuziladi va har bir cheklovga mos Lagranj ko‘paytuvchisi aniqlanadi. Bu ko‘paytuvchilar iqtisodiy ma’noda har bir resurs birligi qanday qo‘shimcha foyda yoki xarajatga ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Ushbu maqolada biz Lagranj ko‘paytuvchilari usulining nazariy asoslarini ko‘rib chiqamiz, uni iqtisodiy modellashtirishda qanday qo‘llashni o‘rganamiz va amaliy misollar orqali uning samaradorligini tahlil qilamiz.

Adabiyotlar tahlili: Lagranj ko‘paytuvchilari nazariyasi XX asrning birinchi yarmidan boshlab iqtisodiyot sohasida qo‘llanila boshlangan. Koopmans (1942) va Samuelson (1947) tomonidan ishlab chiqilgan optimallashtirish usullari iqtisodiy modellashtirishning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Keyingi yillarda Arrow va Debreu (1954) umumiy muvozanat nazariyasini shakllantirib, resurslarni samarali taqsimlashda matematik usullarni takomillashtirdi. Zamonaviy tadqiqotlarda, masalan, Varian (1992) va Mas-Colell (1995) asarlarida cheklangan optimallashtirishning amaliy jihatlari batafsil yoritilgan.

Metodologiyasi: Metodologik yondashuv sifatida, maqolada matematik tahlil va iqtisodiy modellashtirish uyg‘unlashtiriladi.

Tadqiqot quyidagi metodik bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Iqtisodiy muammolarni matematik formulalarga o‘tkazish (foyda funksiyasi, xarajat funksiyasi, ishlab chiqarish funksiyasi va boshqalar).
2. Cheklovlarni aniqlash (masalan, budget cheklovi, resurslar chegarasi, texnologik shartlar).
3. Lagranj funksiyasini tuzish va birinchi tartibli shartlar (KKT shartlari) asosida optimal yechimlarni topish.
4. Lagrange ko‘paytuvchilari orqali natijalarni iqtisodiy talqini, ya’ni ularning iqtisodiy ma’nosini tushuntirish.
5. Modelni amaliy iqtisodiy holatlarga tatbiq qilish va natijalarni tahlil qilish.

Shuningdek, maqolada empirik yondashuv ham qo‘llaniladi: nazariy modellar real iqtisodiy misollar orqali sinovdan o‘tkaziladi. Bunda ishlab chiqarish rejalashtirish, foyda maksimalizatsiyasi va xarajat minimallashtirishga doir stsenariylar matematik modellar asosida baholanadi. Bu esa Lagranj usulining amaliy qiymatini yanada ochib beradi.

Ushbu metodologik yondashuvlar yordamida maqolada iqtisodiy qarorlar qabul qilishda matematik modellashtirish va tahlilning kuchli vosita ekanligi ko‘rsatib beriladi.

Natijalar va muhokama: x va y

$$\varphi(x; y) = 0$$

tenglama (bog‘lash tenglamasi) bilan bog‘langanlik shartida $z = f(x; y)$ funksiyaning ekstremumini topish talab etilayotgan bo‘lsin.

$z = f(x; y)$ funksiyaning $\varphi(x; y) = 0$ bog‘lanish tenglamasi o‘rinli bo‘lganda shartli ekstremumi bo‘lishi mumkin bo‘lgan nuqtalarini topish uchun quyidagi yordamchi funktsiyani kiritish kerak

$$L(x; y; \lambda) = f(x; y) + \lambda \varphi(x; y)$$

(bu yerda λ birorta o‘zgarmas) va uning $x; y; \lambda$ bo‘yicha xususiy hosilalarini nolga tenglab

$$\begin{cases} f'_x(x; y) + \lambda \varphi'_x(x; y) = 0, \\ f'_y(x; y) + \lambda \varphi'_y(x; y) = 0, \\ \varphi(x; y) = 0 \end{cases}$$

sistemadan x, y va yordamchi ko‘paytuvchi λ ni topish kerak.

Shartli ekstremumni topishning ushbu usuli Lagranj ko‘paytuvchilari usuli $L(x; y; \lambda)$ funksiya esa Lagranj funksiyasi deyiladi.

Amaliyotda masalaning mohiyatini e‘tiborga olgan holda Lagranj ko‘paytuvchilarini turlicha talqin qilish mumkin. Masalan, mexanikada Lagranj ko‘paytuvchilari aloqaning reaksiyasini, iqtisodiyotda esa ishlab chiqarilgan mahsulotning bahosini ifodalashi mumkin. Biz quyida bu ko‘paytuvchilarning iqtisodiy talqinini misollarda ko‘rib chiqamiz.

Masala: Korxona ikki turdagi mahsulot ishlab chiqarsin. Bu mahsulotlarni ishlab chiqarish funksiyasi ikki xil faktorga bog‘liq bo‘lib, har bir faktorning umumiy miqdori belgilangan bo‘lsin. Agar mahsulot bahosi ma‘lum bo‘lsa, u holda qanday sharoitda foyda maksimal bo‘lishini aniqlang.

Yechim: Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$x_i (i = 1, 2)$ – mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi;

x_{i+2} – 1-mahsulotni ishlab chiqarishda foydalanilgan faktorlar hajmi;

x_{i+4} – 2-mahsulotni ishlab chiqarishda foydalanilgan faktorlar hajmi;

P_i – mahsulotlar bahosi bo‘lsin.

Bu yerda x_3, x_4, x_5 va x_6 mos ravishda bir xil faktorlarni ifodalaydi, deb faraz qilinadi. U holda yuqoridagi belgilashlardan va masala shartiga asosan $x_1 = \varphi(x_3; x_4)$ $x_2 = \psi(x_5; x_6)$ funksiyalarni yozib olish mumkin. Masalaning modeli quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\begin{aligned} f(X) &= p_1 x_1 + p_2 x_2 \rightarrow \max, \\ x_1 - \varphi(x_3; x_4) &= 0, \quad x_3 + x_5 - k_1 = 0, \\ x_2 - \psi(x_5; x_6) &= 0, \quad x_4 + x_6 - k_2 = 0, \end{aligned}$$

Bu masala uchun Lagranj funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\begin{aligned} f(X, \Lambda) &= p_1 x_1 + p_2 x_2 - \\ &- \lambda_1 (x_1 - \varphi(x_3; x_4)) - \lambda_2 (x_2 - \psi(x_5; x_6)) - \lambda_3 (x_3 + x_5 - k_1) - \lambda_4 (x_4 + x_6 - k_2) \end{aligned}$$

Bu funksiyaning statsionar funksiyasini topish maqsadida undan hosilalar olib quyidagi tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} p_1 &= x_1, \quad p_2 = x_2, \\ \lambda_1 \frac{\partial \varphi}{\partial x_3} &= \lambda_3, \quad \lambda_1 \frac{\partial \varphi}{\partial x_4} = \lambda_4, \\ \lambda_2 \frac{\partial \psi}{\partial x_5} &= \lambda_3, \quad \lambda_2 \frac{\partial \psi}{\partial x_6} = \lambda_4, \end{aligned}$$

Bundan esa foydani maksimallashtiruvchi shartlarni topamiz.

$$p_1 \frac{\partial \varphi}{\partial x_3} = p_2 \frac{\partial \psi}{\partial x_5} = \lambda_3, \quad p_1 \frac{\partial \varphi}{\partial x_4} = p_2 \frac{\partial \psi}{\partial x_6} = \lambda_4.$$

Demak Logranj ko‘paytuvchilari bu masalada mahsulot bahosini ifodalaydi.

Xulosa: Iqtisodiy jarayonlar murakkab va ko‘p omilli bo‘lishi sababli, ularni tahlil qilish va optimal qarorlar qabul qilish uchun zamonaviy matematik usullardan foydalanish zarur. Ushbu maqolada o‘rganilgan Lagranj ko‘paytuvchilari usuli – iqtisodiy resurslarni cheklovlar ostida optimal tarzda taqsimlashda eng samarali matematik vositalardan biri ekanligi isbotlandi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi: Cheklovli optimallashtirish muammolari iqtisodiyotda keng tarqalgan bo‘lib, ular ishlab chiqarish, iste‘mol, foyda maksimalizatsiyasi va xarajat minimallashtirish kabi ko‘plab real jarayonlarni ifodalaydi. Lagranj ko‘paytuvchilari yordamida tuzilgan matematik model har bir cheklov shartining iqtisodiy qiymatini baholash imkonini beradi. Bunda har bir ko‘paytuvchi – maqsad funksiyasiga qo‘shilgan cheklovning marjinal ta‘sirini ifodalaydi. Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Lagranj usuli iqtisodiy rejalashtirish, marketing strategiyalari, moliyaviy qarorlar, budjetni optimallashtirish kabi sohalarda qo‘llanilganda, samarali natijalar beradi. Ushbu yondashuv nafaqat nazariy asosda foydali, balki real iqtisodiy muammolarni hal etishda ham kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, korxonalarning ishlab chiqarish resurslarini qanday taqsimlashi yoki investorlar o‘z portfelli tarkibini qanday optimallashtirishi kerakligini aniqlashda beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Lagranj ko‘paytuvchilari usulining afzalliklari — u aniqlik, aniqlangan strategiya va nazoratli qaror qabul qilish imkoniyatini beradi. Ammo bu usulni qo‘llashda model parametrlari va cheklovlarning to‘g‘ri aniqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu asosda, maqolada Lagranj ko‘paytuvchilari usulining nazariy va amaliy asoslari chuqur o‘rganildi va uning iqtisodiyotdagi dolzarb muammolarni hal etishdagi ahamiyati yoritildi. Kelgusida bu usul yanada murakkab modellarni ishlab chiqishda, raqamli iqtisodiyot va katta ma‘lumotlar tahliliga moslashtirishda ham samarali qo‘llanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Mike Rosser. Basic mathematics for economists. London and New York 1993, 2003y.
2. M.Harrison and P.Waldron Mathematics for economics and finance. London and New York 2011y.
3. M. Hoy, J.Livernois et.al. Mathematics for Economics. The MIT Press, London& Cambridge, 2011.
4. Robert M. Leekley, Applied Statistics for Business and Economics, USA, 2010.
5. Alpha C. Chiang, Kevin Wainwright, Fundamental Methods of Mathematical Economics, NY 2005

6. Xashimov A.R., Xujaniyazova G.S. Iqtisodchilar uchun matematika. O‘quv qo‘llanma. “Iqtisod-moliya”. 2017, 386 bet.
7. Бабаджанов Ш.Ш. Математика для экономистов. Учебное пособие. “Iqtisod-moliya”. 2017, 746 стр.
8. “Ishlab chiqarish jarayonlarini matematik modellashtirish”. “Ta’lim innnovatsiyasi va integratsiyasi” Respublika ilmiy jurnali 19.12.2024,
9. “Iqtisodiy modellarni matematik tahlil qilish”. Ta’lim innnovatsiyasi va integratsiyasi Respublika ilmiy jurnali 19.12.2024,
10. “Iqtisodiy masalalarni tahlil qilishda matematik modelning ahamiyati”. “TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA” jurnali 2024-yil 6-son.



OLIY TALIMDA TA‘LIM SIFATINI OSHIRISHDA TALABALAR ORASIDA JAMOATCHILIK NAZORATINI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

Alimova Mavludaxon Shuxratbekovna –
Andijon davlat pedagogika instituti
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-
pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i,
ADPI mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Oliy ta‘limni sifatini oshirishda talabalar orasida jamoatchilik nazorati tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda talabalar o‘rtasida jamoatchilik nazoratining ahamiyati, uning ta‘lim sifatiga ta‘siri va samaradorligi o‘rganiladi. Talabalar o‘zaro fikr almashish, muammolarni muhokama qilish va ta‘lim jarayoniga faol jalb etilishi orqali ta‘lim muassasalarining sifatini oshirishda ishtirok etadilar.

Kalit so‘zlar: Oliy ta‘lim, jamoatchilik nazorati, talabalar, ta‘lim sifati, faol ishtirok.

Annotation. The establishment of public oversight among students is crucial for improving the quality of higher education. This research examines the significance of public oversight among students, its impact on educational quality, and its effectiveness. Students actively participate in enhancing the quality of educational institutions by exchanging ideas, discussing issues, and being involved in the educational process

Keywords: Higher education, public oversight, students, quality of education, active participation.

Аннотация. Организация общественного контроля среди студентов имеет важное значение для повышения качества высшего образования. В данном исследовании рассматривается значимость общественного контроля среди студентов, его влияние на качество образования и его эффективность. Студенты участвуют в повышении качества образовательных учреждений, обмениваясь мнениями, обсуждая проблемы и активно вовлекаясь в образовательный процесс.

Ключевые слова: Высшее образование, общественный контроль, студенты, качество образования, активное участие

Kirish. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Zero Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “... dunyo maydonida va o‘z azm-u qarorida qoyim turmoq, maqsadga erishmoq uchun mutassil oldinga

intilish, hayot va tafakkur tarzini isloh qilish, yangilanish tomon sobitqadamlilik bilan borish lozim.”⁵⁴

Oliy ta’lim sifatini oshirishda nafaqat davlat va ta’lim muassasalari rahbariyati, balki talabalarning faolligi, ularning fikr-mulohazalari va takliflarini inobatga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.[2] Shu nuqtai nazardan, talabalar orasida jamoatchilik nazoratini tashkil etish ta’lim jarayonining shaffofligini ta’minlash, muammolarni erta aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muhim vosita sifatida ko‘rilmoqda. Mazkur maqolada jamoatchilik nazoratining mohiyati, uning tashkil etilish mexanizmlari hamda oliy ta’lim sifatiga ta’siri yoritib beradi.

Asosiy qism. Jamoatchilik nazorati, talabalarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim muassasalarining sifatini oshirishga olib keladi. Talabalar, o‘z tajribalari va ehtiyojlarini bildirish orqali o‘qituvchilar va ma’muriyatga ta’lim jarayonini yaxshilash uchun muhim ma’lumotlar taqdim etadilar. Shuningdek, jamoatchilik nazorati ta’lim muassasalarining ochiqligini va shaffofligini ta’minlaydi.[3]

Muammoga oid manbalarni o‘rganish, oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik mexanizmini rivojlantirish jarayoni quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka asoslanadi degan xulosaga kelish imkonini berdi:

1	kengashlari	Talabalar orasida jamoatchilik nazoratini tashkil etishning asosiy vositasidir. Ushbu kengashlar, talabalar o'rtasida fikr almashish va muammolarni muhokama qilish uchun platforma yaratadi. Kengashlar, talabalar fikrlarini yig'ish, ularni ta'lim muassasasining boshqaruviga taqdim etish va o'zgarishlar uchun takliflar ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.
2	yoki reyting tizimlari	Talabalar o'z ta'lim jarayonlarini baholash uchun anonim so'rovlar yoki reyting tizimlaridan foydalanishlari mumkin. Bu tizimlar orqali talabalar o'qituvchilar va ta'lim muassasalari faoliyatini baholaydilar. Olingan natijalar asosida ta'lim muassasalari o'z faoliyatlarini yaxshilash va talabalar ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.
3		Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ochiq muloqot olib borish, fikr almashish va muammolarni muhokama qilish uchun platformalar yaratish muhimdir. Ochiq muloqot, talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishlariga

⁵⁴ SH.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.” To‘ldirilgan ikkinchi nashr.-Toshkent; “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

		yordam beradi va o'qituvchilar uchun talabalar ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.
4	h	Talabalar o'z muassasalari va ta'lim sifatini o'rganish uchun tadqiqotlar o'tkazishlari mumkin. Bu tadqiqotlar natijalari asosida jamoatchilik nazorati va takliflar ishlab chiqilishi mumkin. Tadqiqotlar, ta'lim muassasalari faoliyatini baholash va yaxshilash uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.
5	va onlayn forumlar	Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn forumlar, talabalar o'z fikrlarini va tajribalarini baham ko'rishlari uchun qulay platforma hisoblanadi. Bu jarayon, jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi va muammolarni tezda aniqlashga yordam beradi. Talabalar o'zaro tajriba almashish orqali bir-birlariga yordam berishlari mumkin.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta‘lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda yangi oliy ta‘lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo‘limlarning ochilishi, oliy ta‘lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.

Shu bilan birga oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta‘minlashga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan: Birinchidan, oliy ta‘lim tizimida o‘qitishni tashkil etish jarayoni, ta‘lim olayotgan talabalar bilimni baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayapti;

Ikkinchidan, professor-o‘qituvchilarning faoliyatini, bilimni va pedagogik ko‘nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda;

Uchinchidan, oliy ta‘lim muassasalariga kirish test savollari abituriyentning mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlash imkonini bermayotganligi iqtidorli yoshlarni oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilishda muammolar keltirib chiqarmoqda;

To‘rtinchidan, oliy ta‘lim muassasalaridagi ta‘lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o‘rnatilmaganligi ushbu sohada ko‘plab muammolarning, eng avvalo, korrupsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda;

Beshinchidan, oliy ta’lim muassasalarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o‘zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligi sezilmayapti, ularning ushbu yo‘nalishdagi faoliyati hanuzgacha qoniqarsiz bo‘lib qolmoqda;

Oltinchidan, respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga, keng jamoatchilikka tushuntirishda oliy ta’lim muassasalarining faol ishtiroki yo‘lga qo‘yilmagan;

Yettinchidan, oliy ta’lim muassasalari innovatsion va texnologik g‘oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmagan, tegishli sohalarida mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o‘rganish, tahlil qilish va ularning yechimi bo‘yicha taklif kiritish borasida professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning tashabbus ko‘rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan.[4]

Xulosa. Oliy ta’limni sifatini oshirishda talabalar orasida jamoatchilik nazoratini tashkil etish, ta’lim jarayonining shaffofligini ta’minlaydi va talabalar ehtiyojlarini inobatga olishga yordam beradi. Talabalar kengashlari, sifatni baholash tizimlari, ochiq muloqot va ijtimoiy tarmoqlar orqali talabalar o‘z fikrlarini ifoda etishlari mumkin. Bu esa, umumiy ta’lim sifatini yaxshilashga olib keladi va kelajak avlodlar uchun yanada sifatli ta’lim muhitini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SH.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.” To‘ldirilgan ikkinchi nashr.-Toshkent; “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022
2. Qurbonov Sh.Q. “Oliy ta’lim tizimida boshqaruvning innovatsion shakllari.” – Monografiya. T.: TDPU, 2021.
3. Toshpo‘latov N. “Ta’lim sifatini boshqarishda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni.” // “Ijtimoiy fanlar” jurnali, 2022
4. Abdullaeva M. “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar o‘rtasida jamoatchilik nazoratini tashkil etishning samarali yo‘llari.” – Magistrlik dissertatsiyasi, Toshkent, 2023.



UDK 378

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHIDA KASBIY PEDAGOGIKA

Qo‘ziboyeva Maxfuza Mirzayevna

Andijon davlat tibbiyot instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarga kasb tanlash borasidagi psixologik-pedagogik tushunchalar, kasblar haqida tushuncha va tasavvurlar zahirasini shakllantirish, shuningdek, kasb tanlash va kasbga yo‘naltirish yuzasidan nazariy, amaliy ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar va atamalar: Kasbiy etika, bilim, ko‘nikma, malaka, malakali mutaxassis, o‘z-o‘zini tarbiyalash, kasbiy yo‘nalish.

Globalashuv sharoitida ta‘lim va tarbiya shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bugungi tezkor davr talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma‘lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarining puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda ta‘lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda.

Insonning kasbiy yaroqliligi borasidagi nazariy va eksperimental tadqiqotlar yo‘nalishlarini o‘rganish kasbiy psixologik tanlovning mezonlarning ajratish imkonini beradi. Inson va kasbning o‘zaro munosabati borasidagi tasavvurlar ularda jarayonnini ilmiy tashkil qilish va ilmiy tushunchalar tizimini shakllantiradi. Insonning kasbiy xulq-atvorini tahlil qilish va uning kasbiy tarjimai holi shuningdek, shaxsda dastlabki kasbiy maqsadlarni shakllanishida kasbiy hayotgacha rivojlanishni qamrab oladi. Ushbu fan mehnat psixologiyasining metodlarida amaliy foydalanishni o‘rganish (gnostik, konstruktiv); kadrlarni tanlash va kasbga yo‘naltirish jarayoniga psixologik hamkorlik va shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi anglash, psixolog talabalarni kasb tanlashga yo‘llash ishlarini samarali amalga oshirish uchun samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimlar bilan qurollantiradi, tushunchalarining mazmun mohiyatini anglab yetish ko‘nikmasini tarkib toptirishdan iborat.

Maktab bitiruvchilarining har bir yangi avlodi, o‘zlaridan oldin ushbu qiyin yo‘lni bosib o‘tganlarning xatolaridan saboq olishni istamay, o‘zlari uchun ideal kasbni tanlashda bir

maromda qadam qo'yishda davom etmoqda. Ushbu maktab o'quvchilari, abituriyentlar va kattalar ham "Kim bo'lish kerak?", "Qaysi kasbni tanlash kerak?" degan abadiy savollarga javob topishga harakat qilishda yo'l qo'yadigan eng keng tarqalgan xatolarni keltiramiz. va "Qaerda o'qish kerak?"

Qoida tariqasida, kasb tanlashda quyidagi barcha xatolar yosh guruhiga bog'liq emas, lekin, masalan, faqat maktab bitiruvchilari tomonidan amalga oshiriladigan noyob variantlar mavjud, masalan, do'stlar bilan o'qishga borish yoki ota-onalariga qarshi chiqish.

O'smirni kasbiylashtirishning asosiy omillari - bu uning dastlabki o'zini o'zi belgilash bosqichidagi qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari. Har qanday ifodalangan manfaatlar va moyilliklarning yo'qligi o'smirlarning kasbiy o'zini o'zi belgilashini kechiktirishga olib keladi. Ularning tanlovi ko'pincha tasodifiy bo'lib chiqadi, ichki ehtiyojlarga mos kelmaydi, tashqi sharoitlar ta'siri ostida yoki ota-onalar va tengdoshlarga taqlid qilishga urinish sifatida amalga oshiriladi. Bu tanlangan kasbdan norozilikka va kelajakda kasbiy faoliyatning o'zgarishiga olib keladi.

Kasbiy o'zini o'zi belgilash va kasbiy yo'nalish muammolari bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etdi. Bunda kasbni to'g'ri tanlash va kasbga yo'naltirish nafaqat insonning hayotiy rejalarini belgilash nuqtai nazaridan, balki butun jamiyat taraqqiyoti nuqtai nazaridan ham muhim ekani ta'kidlanadi. Kasbiy o'zini o'zi belgilash - bu jamiyatda tanlangan professionallik mezonlari bilan bog'liq holda shaxsning o'zini belgilashi. Kasbiy o'zini o'zi belgilashning mohiyati tanlangan, o'zlashtirilgan yoki allaqachon bajarilgan faoliyatda shaxsiy ma'nolarni topishdir.

Psixologiyada kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish muammosini o'rganish an'anaviy ravishda kasbiy rivojlanish, professionallik psixologiyasi, kasbiy muvofiqlik va o'z-o'zini belgilash va ta'limning psixologik tarkibiy qismlarini o'rganishga moslashish bo'yicha ishlar bilan ifodalanadi. Psixologiya kasbiy o'zini o'zi belgilash muammosini o'rganishda katta tajriba to'pladi. Bular, birinchi navbatda, E.A. Klimova, N.S. Pryajnikova, P.A. Shavir, S.N. Chistyakova, E.I. Golovax va boshqalar.

Manfaatlarning haqiqiy kasb tanlash bilan bog'liqligi masalasini ko'rib chiqish tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib qolmoqda. Shaxsning professional sifatida keyingi rivojlanishi, uning muvaffaqiyati va bajargan ishdan qoniqishi kasb tanlash va kasbiy qiziqishlarning mos kelishiga bog'liq.

Pedagogik adabiyotlarda kasbiy o'zini o'zi belgilash muammosi bo'yicha ko'plab nuqtai nazarlar mavjud bo'lib, ularning har birini himoya qilish uchun ishonchli dalillar keltirilgan. Shubhasiz, bu kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayonining murakkabligi va kasb tanlash holatining ikki tomonlama tabiati bilan bog'liq.

Professional o'zini o'zi belgilash, mahalliy tadqiqotchi N.S. Pryazhnikova katta maktab yoshidagi shaxsiy neoplazmaning tarkibiy qismi sifatida ham, kasbiy faoliyatda shaxsning o'zini o'zi anglashning uzoq jarayoni sifatida ham tushuniladi. Uning fikricha, kasbiy o'zini o'zi belgilash bir o'lchovli harakat emas, balki bir qancha bosqichlardan iborat jarayon, uning

davomiyligi tashqi sharoitlarga va kasb tanlash sub'ektining individual xususiyatlariga bog'liq. N. S. Pryajnikov asarlarida shaxsiy o'zini o'zi belgilash, shuningdek, o'ziga xos "o'zini o'zi qiyofasi" ni topish, bu tasvirning doimiy rivojlanishi va uni atrofdagi odamlar tomonidan ma'qullanishi sifatida tasvirlangan.

Pryajnikovaning ta'kidlashicha, u "o'zini o'zi belgilashning ma'nosi insonning o'zini, shaxsiy tarixini qurish qobiliyatida, o'z mohiyatini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish qobiliyatidadir. U o'z taqdirini o'zi belgilashni tushunish noto'g'ri deb hisoblaydi". Ammo aniq "chegaralar" va "bo'shliqlar" bilan boshqarilishi mumkin emas, aks holda "o'z taqdirini o'zi belgilash" so'zi yo'qoladi. Shu bilan birga, P.G.Shchedrovitskiyning fikricha insonning o'zini, shaxsiy tarixini qurish qobiliyatida, o'z mohiyatini qayta ko'rib chiqish qobiliyatida ko'radi. Xuddi shu fikr E.A.Klimov asarlarida kuzatilishi mumkin. Umuman olganda, kasbiy o'zini o'zi belgilash muallif tomonidan "shaxsning mehnat sub'ekti sifatida rivojlanish bosqichiga qarab yoki bu mazmunni oladigan faoliyati" deb tushuniladi. O'z tadqiqotlarida E.A. Klimov professional o'zini o'zi belgilashning ikki darajasini belgilaydi:

1) gnostik (ong va o'z-o'zini anglashni qayta qurish);

2) amaliy (insonning ijtimoiy mavqeidagi haqiqiy o'zgarishlar). Agar o'z taqdirini o'zi belgilash jarayoni erta yoshlik yillarida shaxs rivojlanishining asosiy mazmuni bo'lsa, u holda kasbiy yo'nalishni shakllantirish o'z taqdirini belgilashning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Kasbiy yo'nalish - bu shaxsning qobiliyatlari, moyilligi va shaxsiy xususiyatlariga, shuningdek, jamiyatning shaxsga taqdim etadigan imkoniyatlariga muvofiq kasb tanlashda yordam berishga qaratilgan. Kasbga yo'naltirishning muhim shakllaridan biri bu professional maslahat bo'lib, uning davomida shaxsning qobiliyatlari, moyilligi va yo'nalishini diagnostikasi maxsus ishlab chiqilgan usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Kasbiy o'zini o'zi belgilash o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, unda quyidagi tarkibiy qismlarni ajratish mumkin: kasbiy faoliyatning ma'nosini izlashni va shaxsning qadriyat yo'nalishlarining izchilligini o'z ichiga olgan qadriyat-axloqiy; shaxsiy kasbiy rejani shakllantirish darajasini aks ettiruvchi rejalashtirish; ma'lumotli, kasbga oid xabardorlik darajasini ko'rsatadigan; hissiy, o'zini professional sifatida ijobiy baholashni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'limni davom ettirishga tayyorligidan boshlab, E.K. Kustobaeva - "maktab o'quvchisining ijtimoiy etukligining ma'lum darajasi, ta'limning ijtimoiy ahamiyatini anglash darajasi, bilimning chuqurligi, intellektual ko'nikma va qobiliyatlari", keyin kasbiy o'zini o'zi belgilashga tayyorligi haqida gapirish tavsiya etiladi. Kasbiy tanlov strategiyasini ongli va mustaqil ravishda amalga oshirishga hissa qo'shadigan va kasbiy niyat va intilishlarni shakllantirish va amalga oshirish uchun axloqiy, psixofiziologik va amaliy tayyorlikda ifodalangan shaxsning ajralmas mulki sifatida tushunilishi kerak.

O.G.Noskova kasbiy yo'nalishning ob'ektivlik, o'ziga xoslik, qarshilik, valentlik, qoniqish, umumlashtirish, barqarorlik kabi xususiyatlarini belgilaydi. E.F. Zeer, kasbiy yo'nalishni hisobga olgan holda, talabalarning quyidagi turlarini aniqlaydi.

1-toifa - ijobiy kasbiy yo'naltirilgan talabalar: etakchi motivlar va kasbiy faoliyat mazmuni o'rtasidagi munosabatlarda ifodalangan tanlangan kasbning shaxsiga mos keladigan vaziyat mavjud;

2-toifa - o'z kasbini tanlashga qaror qilmagan talabalar: turli omillar bilan bog'liq bo'lgan kasbiy o'zini o'zi belgilashning shakllanmaganligi xarakterlidir;

3-toifa - kasbga salbiy munosabatda bo'lgan, kelajakda o'zini o'zi belgilash, kasb haqida yomon tasavvurga ega bo'lgan, turli holatlar bilan bog'liq bo'lgan talabalar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shaxsning kasbiy yo'nalishi shaxs va jamiyat uchun shunday kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni shakllantirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular bozor mexanizmi sharoitida shaxsga o'zini mehnat faoliyatining muayyan turlarida to'liq amalga oshirishga imkon beradi. Shu munosabat bilan ta'lim muassasalarida asosiy e'tibor shaxsning kasbiy ahamiyatli fazilatlarni shakllantirish jarayoniga (uning kasbiy yo'nalishi) qaratilishi kerak. Biroq, yuqori sinf o'quvchilarining kasbiy yo'nalishini shakllantirishda, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kasbiy o'zini o'zi belgilash sohasidagi qarama-qarshiliklar bilan bog'liq turli xil qiyinchiliklar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.U.M.Asqarova , M.Xayitboev, M.S.Nishonov «Pedagogika» darslik, T: Talqin-2008
- 2.M.Xakimova «Kasbiy pedagogika» darslik, T: TDIU-2007
3. V.T.Muxriddinova «Kasbiy pedagogika» O‘quv qo‘llanma T:TATU-2012
- 4.M.Xakimova, G.Musaxanova «Kasbiy pedagogika» O‘quv qo‘llanma T: TDIU
5. Ustemirov K., Shametov N.R., Vasilev I.B. Professionalnaya pedagogika. – Almaty: 2005, - 432 s.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

SMART TECHNOLOGIES AND THEIR IMPACT ON LANGUAGE LEARNING

Dildora Maxkamova Baxtiyorovna

Farg‘ona davlat texnika universiteti

O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrasi o‘qituvchisi, +998905377531

[*dildoramahkamova83@gmail.com*](mailto:dildoramahkamova83@gmail.com)

Abstract: The integration of smart technologies is revolutionizing the field of language learning by making education more accessible, personalized, and engaging. Artificial intelligence, virtual and augmented reality, and voice recognition systems are enabling learners to experience adaptive instruction, immersive environments, and interactive communication like never before. This article explores how personalized learning algorithms, immersive simulations, smart assistants, and global language communities are reshaping traditional approaches to language education. It also addresses critical challenges, including issues of accessibility, data privacy, and the importance of maintaining authentic human interaction. The article predicts while smart technologies will continue to transform language learning, the human element will remain indispensable for cultural and emotional depth in communication.

Keywords: Smart technologies, language learning, artificial intelligence, virtual reality, voice recognition, immersive education, language acquisition, educational technology.

SMART TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING TIL O‘RGANISHGA TA’SIRI

Annotatsiya: Aqlli texnologiyalarning til o‘rganish sohasi bilan integratsiyasi ta’limni yanada qulay, shaxsiylashgan (har bir o‘rganuvchining qobiliyatidan kelib chiqib) va qiziqarli bo‘lishida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik hamda ovozni aniqlash tizimlari avvallari amalda qo‘llanilmagan o‘quvchilarga yo‘naltirilgan ta’lim, real va interaktiv muloqot tajribasini amalda qo‘llash imkonini bermoqda. Ushbu maqolada shaxsiylashtirilgan o‘rganish algoritmlari, immersiv simulyatsiyalar, smart yordamchi qurilma va ilovalar hamda global til hamjamiyatlari tillarni o‘rgatishning an’anaviy usullarini qay tarzda o‘zgartirayotgani o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada ta’limga kirish imkoniyati, ma’lumotlar maxfiyligi va real inson muloqotini saqlab qolishning ahamiyati kabi asosiy muammolar ko‘rib chiqiladi. Maqolada kelajakda aqlli texnologiyalar tillarni o‘rgatish usullarini takomillashtirishda davom etishiga qaramasdan, inson omili muloqotning madaniy va his-tuyg‘u kabi o‘ziga xosliklarining ajralmas qismi bo‘lib qoladi.

Kalit so‘zlar: Smart texnologiyalar, til o‘rganish, sun‘iy intellekt, virtual reallik, ovoz tanish texnologiyasi, immersiv ta‘lim, tilni egallash, ta‘lim texnologiyalari.

УМНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ИЗУЧЕНИЕ ЯЗЫКА

Аннотация: Интеграция умных технологий революционизирует сферу изучения языков, делая образование более доступным, персонализированным и увлекательным. Искусственный интеллект, виртуальная и дополненная реальность, а также системы распознавания голоса позволяют учащимся получать адаптивные инструкции, погружаться в иммерсивные среды и участвовать в интерактивной коммуникации, как никогда ранее. В данной статье рассматривается, как персонализированные алгоритмы обучения, иммерсивные симуляции, умные помощники и глобальные языковые сообщества изменяют традиционные подходы к языковому образованию. Также обсуждаются ключевые проблемы, такие как доступность, защита данных и важность сохранения подлинного человеческого взаимодействия. Глядя в будущее, статья прогнозирует, что, несмотря на дальнейшее развитие умных технологий в обучении языкам, человеческий фактор останется незаменимым для сохранения культурной и эмоциональной глубины в общении.

Ключевые слова: Смарт технологии, изучение языков, искусственный интеллект, виртуальная реальность, распознавание голоса, иммерсивное обучение.

Introduction

In today’s rapidly evolving digital world, smart technologies are reshaping nearly every aspect of our lives and education is no exception. Tools powered by artificial intelligence (AI), virtual and augmented reality (VR/AR), and voice recognition have begun to transform how we learn new skills, especially languages. As globalization increases the demand for multilingual communication, traditional methods of language education are being complemented, and sometimes challenged, by these innovative technologies. Smart technologies not only make language learning more accessible and personalized but also create immersive, interactive environments that mimic real-world experiences. This article explores how smart tools are revolutionizing language education, the opportunities they present, and the challenges that come with their growing influence.

Methods

One of the most profound impacts of smart technology on language learning is the ability to offer personalized, adaptive experiences. Traditional classroom models often group students together based on age or proficiency level, but individual differences in learning speed, style, and goals can vary widely. Personalized Learning through AI is transforming language education in today’s world. AI-driven platforms, such as Duolingo, Babbel, and Memrise, have changed this by tailoring lessons to each learner’s needs. These applications use algorithms to track user performance and adapt the difficulty of exercises accordingly. Mistakes are not

simply marked wrong; they inform the platform about the learner’s weaknesses, prompting targeted revision. Moreover, AI systems can predict which words or grammar points a learner is likely to forget and schedule timely reviews, thereby optimizing memory retention through a concept known as spaced repetition.

Results

Beyond simple adaptation, newer AI tools, like ChatGPT-based conversational bots, simulate real-life dialogues. They allow learners to practice conversations in a low-pressure environment, receive corrections, and gradually build fluency. This personalized feedback loop, once only possible with a human tutor, is now accessible to millions of learners worldwide.

While AI personalizes content delivery, VR and AR technologies bring an entirely new dimension to language learning: immersion. Research has long shown that immersion in a language-rich environment significantly accelerates language acquisition. Until recently, this meant studying abroad or extensive travel—opportunities that are not feasible for everyone. Smart technologies now offer immersive experiences without the need for physical relocation.

Virtual reality applications, such as Mondly VR and ImmerseMe, allow users to “visit” a foreign country, interact with locals (simulated by AI avatars), and practice essential communication skills. For instance, a user might enter a VR simulation where they must navigate an airport, order food at a cafe, or ask for directions in another language.

Similarly, AR apps like Google Lens enable learners to point their phone cameras at objects in the real world and see translations instantly, linking vocabulary acquisition directly to their environment. This contextual learning approach deepens understanding and helps embed new language structures naturally.

By creating safe, interactive environments, VR and AR foster confidence and engagement, which are crucial for developing conversational fluency.

Another revolution in language learning comes from voice recognition technology and smart assistants like Siri, Alexa, and Google Assistant. These tools provide an excellent means for learners to practice speaking and listening skills on a daily basis. Voice-enabled technology can engage learners in basic conversations, answer questions, and provide immediate feedback on pronunciation accuracy. Many language learning apps incorporate speech analysis tools that not only detect whether an answer is correct but also measure intonation, stress, and rhythm—key components of sounding natural in a second language. For example, Google’s speech-to-text feature allows users to dictate messages in a target language and instantly see whether the system correctly recognizes their speech. Frequent practice with these tools improves clarity and comprehension over time. Moreover, the accessibility of smart assistants makes practice effortless; a user can switch their device settings to a foreign language and start interacting throughout the day, effectively blending language learning into daily routines.

Analysis

Language is inherently social, and smart technologies are harnessing this aspect by fostering global communities of learners. Platforms like HelloTalk, Tandem, and Speaky

connect language learners with native speakers around the world for language exchange partnerships. These apps allow for text, voice, and video communication, offering authentic practice opportunities that transcend geographic barriers. Some even provide built-in translation and correction tools, enabling users to learn from their mistakes in real-time. AI chatbots, such as Replika, offer another dimension to social learning. These bots simulate natural conversations, helping users practice without the fear of judgment. Although they are not perfect substitutes for human interaction, they provide a valuable bridge, particularly for shy or beginner learners. Such social technologies promote not just language practice but also cultural understanding, an essential but often overlooked part of language competence.

Another notable advantage of smart technology is the ability to track learning progress systematically. Modern apps record detailed data on a learner’s activities: vocabulary mastered, grammar exercises completed, speaking fluency scores, and even motivational metrics like login streaks. This data-driven feedback helps learners understand their strengths and weaknesses clearly. Gamification techniques—such as earning badges, achieving new levels, and maintaining learning streaks—make the learning process more engaging and help sustain motivation over time. Moreover, visual progress reports can boost learner confidence by making improvements visible, a benefit that traditional learning environments sometimes fail to deliver. However, it is important to note that excessive focus on metrics can sometimes create anxiety or an unhealthy obsession with “perfect scores” highlighting the need for mindful, balanced use.

Discussion

Despite the numerous advantages, the integration of smart technologies in language learning is not without challenges.

Firstly, there is the issue of accessibility. Not all learners have equal access to smartphones, VR equipment, or stable internet connections. This digital divide can exacerbate educational inequalities rather than alleviate them.

Secondly, while smart technologies provide valuable practice opportunities, they often lack the nuance and adaptability of human teachers. Subtleties such as humor, sarcasm, body language, and emotional context are difficult for AI to fully grasp and replicate.

Thirdly, privacy and data security are significant concerns. Language learning apps collect vast amounts of personal data, and not all companies are transparent about how this data is used. Learners must be cautious about sharing sensitive information online.

Finally, over-reliance on technology might reduce opportunities for authentic human interaction, which is crucial for developing real conversational skills and cultural sensitivity.

Looking ahead, the future of smart technologies in language learning appears both exciting and complex. Emerging trends include AI-driven virtual tutors capable of delivering personalized, adaptive instruction at scale. Advances in natural language processing may soon enable machines to detect and respond to subtle emotional cues, making conversations more natural.

Research into brain-computer interfaces could one day allow for more direct and efficient language acquisition by bypassing traditional input methods altogether. Moreover, improvements in speech recognition technology are making it increasingly feasible to accommodate diverse accents and dialects, promoting greater inclusivity.

Despite these advancements, the human element will likely remain irreplaceable. Teachers and tutors will continue to play an essential role as mentors, cultural interpreters, and emotional supporters, even as smart technologies enhance and extend their reach.

Conclusion

Smart technologies are undoubtedly reshaping the landscape of language learning. From personalized AI-driven lessons to immersive VR environments and voice-activated practice tools, they offer unprecedented opportunities for learners to access high-quality education tailored to their individual needs.

However, while these technologies can greatly enhance the learning experience, they are not a complete replacement for human interaction, cultural immersion, and critical thinking. To maximize their benefits, learners and educators alike must approach smart tools thoughtfully, integrating them into broader, well-rounded language education strategies.

In the end, the most successful language learners will be those who can skillfully blend the best of both worlds: leveraging cutting-edge technologies while remaining rooted in authentic human communication.

REFERENCE:

1. Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Pergamon Press.
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
3. Chapelle, C. A. (2003). *English Language Learning and Technology: Lectures on Applied Linguistics in the Age of Information and Communication Technology*. John Benjamins Publishing.
4. Warschauer, M., & Meskill, C. (2000). *Technology and Second Language Teaching*. *Handbook of Undergraduate Second Language Education*, 303-318.5. Godwin-Jones, R. (2018). *Second Language Acquisition: Technology-Enhanced Language Learning*. *Language Learning & Technology*, 22(3), 1-15.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UZLUKSIZ KIMYO TA‘LIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TA‘LIM SAMARADORLIGI GAROVIDIR

Meliboeva Gulchexra Salavatovna

Qo‘qon davlat universiteti dotsenti

meliboyeva1974@gmail.com. +998903014627

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzluksiz kimyo ta‘limida “Xlor va uning birikmalari” mavzusini o‘qitishda ayrim zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar keltirilgan. Mavzuni o‘qitishdan asosiy maqsad shu mavzuni sir-asrorlaridan chuqur va sistemali bilim berishda zamonaviy texnologiyalar orqali o‘quvchilarga bilim, ta‘lim-tarbiya berishdir. Olgan bilimlarini o‘z hayot faoliyatlarida qo‘llash natijasida shakllanayotgan inson mehnatga va hayotga tayyorlana boradi. Bu xil muammoni yechishda nimani o‘qitish bilan birga, qanday o‘qitish masalasi ham katta ahamiyatga ega. Har qanday fanni o‘qitish shu fanning mazmunidan kelib chiqadi. Demak, fanni o‘qitish metodlari shu fanning ichki imkoniyatlari belgilaydi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta‘lim jarayoni, “Xlor va uning birikmalari”, galogen, Filvord o‘yini, Charxpalak usuli, Sinkveyn metodi, Assesment metodi, xlorning tabiiy birikmalari, xlorid kislota va uning tuzlari

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НЕПРЕРЫВНОМ ХИМИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ – ГАРАНТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Аннотация. В статье представлены методические рекомендации по использованию некоторых современных технологий в преподавании темы «Хлор и его соединения» в системе непрерывного химического образования. Основная цель преподавания предмета – предоставить студентам знания, образование и обучение с помощью современных технологий, чтобы обеспечить глубокие и систематические познания секретов этого предмета. Человек, формирующийся в результате применения полученных знаний в своей жизнедеятельности, будет готовиться к труду и жизни. Наряду с тем, чему учить, большое значение в решении такого рода задач имеет вопрос о том, как учить. Преподавание любого предмета зависит от содержания этого предмета. Следовательно, методы преподавания предмета определяют внутренние возможности этого предмета.

Ключевые слова: непрерывный образовательный процесс, «Хлор и его соединения», галоген, игра Филворд, метод Карусель, метод Синквейна, метод Ассесмент, природные соединения хлора, соляная кислота и ее соли.

THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN CONTINUOUS CHEMISTRY EDUCATION IS A GUARANTEE OF EDUCATIONAL EFFICIENCY

Annotation. The article presents guidelines for the use of some modern technologies in teaching the topic "Chlorine and its compounds" in the system of continuous chemistry education. The main goal of teaching a subject is to provide students with knowledge, education and upbringing through modern technologies, while providing deep and systematic knowledge of the secrets of this subject. As a result of applying the knowledge gained in their life activities, a person is formed, preparing for work and life. In solving this problem, the question of what to teach, as well as how to teach, is also of great importance. Teaching any subject proceeds from the content of this subject. Therefore, the methods of teaching a subject determine the internal capabilities of this subject.

Key words: continuous educational process, "Chlorine and its compounds", halogen, Filword game, Carousel method, Siquain method, Assessment method, natural chlorine compounds, hydrochloric acid and its salts.

KIRISH.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish, kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustivor vazifa sifatida belgilangan[1]. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz". Shu nuqtai nazardan bo'lajak o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish yo'llarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o'quv – tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim[4].

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

Uzluksiz ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash omillaridan biri - bu muayyan yaxlit ta'limiy jarayonni oldindan loyihalash, o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikma va malakalar darajasini tashxislash va ta'lim maqsadining muvaffaqiyatli natijalanishini avvaldan bashoratlay olishdan iboratdir[2].

Uzluksiz ta'lim jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktab va akademik litseylarda o'quvchilarning kimyodan olgan nazariy bilimlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida takomillashtirish kimyo fani o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tish joiz.

Shunga ko'ra, kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bu jarayonda mavzuga oid nazariy bilimlar amaliyot bilan bog'lanadi va takomillashadi, bilimlarning mustahkam egallanishi vujudga keladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarda kimyo fanidan mavzularni o'qitishda o'quvchilar faolligini oshirishda, bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qo'l keladi. Zamonaviy texnologiyalardan darsning turli bosqichlarida va turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Buni "Xlor va uning birikmalari" mavzusi misolida ko'rib chiqamiz.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarda "Xlor va uning birikmalari" mavzusi anorganik kimyo kursining muhim mavzularidan biri hisoblanadi. Xlor va uning birikmalari galogenlar ichida alohida ahamiyatga ega, shuning uchun bu mavzularni o'rganishda turli metod va o'yinlardan foydalanish ijobiy samara beradi. Mavzularni o'rganish jarayonida o'quvchilar xlor va uning birikmalaridan vodorod xlorid, xlorid kislota, uning tuzlari, xlorning kislorodli birikmalarining nomlari, formulalari, xossalari hamda ishlatilishiga doir ma'lumotlar bilan tanishishadilar. Ushbu mavzularni o'rganishda foydalanib kelinayotgan samarali usullarning qo'llanilishi bo'yicha metodik tavsiyalarni keltirib o'tamiz.

Xlor tabiatda asosan birikmalar holida uchraydi. Shuning uchun xlorning tabiiy birikmalarini bilish muhim hisoblanadi. O'qituvchi xlorning tabiatda tarqalishini uning tabiiy birikmalari misolida tushuntirib beradi va ularning formulalari bilan tanishtiradi. "Xlor" mavzusini tushuntirib berilgandan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarning xlorning tabiiy birikmalarining nomi va formulasini qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida Filvord o'yindan foydalanishi mumkin.

Filvord didaktik o'yin turi bo'lib, unda berilgan shakldagi kataklarning hammasi harf yoki raqamlar bilan to'ldirilgan bo'ladi va filvord uchun berilgan ko'rsatma-topshiriq asosida muammo hal qilinadi. Qoidasi shuki, matn uchun berilgan topshiriqning boshlanishini topib olgach, u kataklarning eniga ham, bo'yiga ham harakatlanaveradi. Yana bir muhim xususiyati shuki, so'zlar bir-biri bilan hech qachon kesishmaydi[3].

Filvord. Xlorning tabiiy birikmalari nomini toping va formulalari bilan moslang.

B	K	S	V	I	N	I	T
I	A	I	L	S	I	L	V
SH	R	N	A	L	I	T	I
O	F	I	T	G	A	L	N
K	A	I	N	I	T	I	T

Filvorddan topilgan tabiiy mineral nomi formulasiga moslab yosiladi.

1. ----- NaCl;
2. ----- KCl·NaCl;
3. ----- KCl;
4. ----- MgCl₂ ·6H₂O;
5. ----- KCl·MgCl₂·6H₂O;
6. ----- KCl·MgSO₄·3H₂O.

Bu o‘yin orqali o‘quvchilarda xlarning tabiiy minerallari nomi va formulalarini to‘g‘ri yoza olish, eslab qolish ko‘nikmalari rivojlantiriladi[5].

Zamonaviy o‘qituvchi o‘quvchilarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishiga alohida e‘tibor qaratmog‘i lozim. Shuning uchun ularda og‘zaki nutqini o‘stirish, fanlararo bog‘liqlikni ta‘minlash, fikrni bayon eta olish qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy muammolardan biridir. Bu muammoni hal qilishda Sinkveyn metodi yaxshi samara beradi.

Sinkveyn – fransuzcha -cinquains, inglizcha - cinquain so‘zlaridan olingan bo‘lib, 5 qator ma‘nosini bildiradi. Sinkveyn - ma‘lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she‘r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to‘g‘risidagi axborot yig‘ilgan holda, o‘quvchi so‘zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish - murakkab g‘oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so‘zlar bilan ifodalash uchun muhim bo‘lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidalar:

- 1- qator: Mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi)
- 2- qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi)
- 3- qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so‘z bilan ifodalanadi. (3 ta fe‘l yoki ravishdosh yoziladi)
- 4- qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to‘rtta so‘zdan iborat bo‘lgan fikr yoziladi (4 ta so‘zdan iborat jumla yoziladi)
- 5- qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma‘nosi unga yaqin bo‘lgan bitta so‘z yoziladi (mavzuga sinonim yoziladi)[4].

“Xlor” mavzusi bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan tuzilgan quyidagi Sinkveynlarni misol tariqasida keltirish mumkin[6]:

Xlor – Cl₂

Sarg‘ish-yashil gaz
Zaharli, eriydi, tutaydi.
Dezinfeksiya vositasi sifatida
ishlatiladi.

Galogen

Xlor – Cl₂

Oksidlovchi, qaytaruvchi
Eriydi, zaharlaydi, bug‘adi.
Xlorni hidlash mumkin emas.

Gaz

Xlor – Cl₂

O‘tkir hidli, og‘ir
Bug‘adi, eriydi, tutaydi.
1 hajm suvda 2,5 hajm eriydi

Metallmas

O‘qitish jarayonida o‘quvchilar bilimini mustahkamlash va baholash muhim omillardan biridir. Shuning uchun “Vodorod xlorid” mavzusi yuzasidan olingan bilimlarni mustahkamlash va baholashda Assesment metodidan foydalanish ham ijobiy samarani beradi. Bu usul ham o‘quvchini mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini bayon etishga, mavzuga oid ta’riflarni ifodalashga, muammoli vaziyatlarni hal qilishga, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi va o‘zini-o‘zi baholashga imkoniyat yaratadi.

Test 1. Vodorod xloridning molekulyar massasi nechaga teng? A) 35,5 B) 36,5 D) 71 E) 36 2. Quyidagi gazlarning qaysi biri suvda yaxshi eriydi? A) H₂ ; B) Cl₂ ; C) HCl; D) O₂. 1 ball	Muammoli vaziyat Vodorod xloridning suvli eritmasi kislota xossasini namoyon qilishini qanday izohlaysiz? 1 ball
Simptom Vodorod xlorid - Xlorid kislota - 1 ball	Amaliy ko‘nikma Vodorod xloridning sanoatda va laboratoriyada olinishini reaksiya tenglamalari orqali ifodalang. 2 ball

Ushbu metoddan darsning kirish, asosiy yoki yakuniy qismida ya’ni, mustahkamlash yoki uyga vazifa berish jarayonida qo‘llash mumkin. Darsning kirish qismida o‘quvchilarning uy vazifalarini qay darajada bajarganliklarini aniqlashda yoki mavzuni umumlashtirish jarayonida egallangan bilim, ko‘nikmalarni aniqlashda foydalanish mumkin[4].

“Xlorid kislota va uning tuzlari” mavzusini mustahkamlash va o‘quvchilar bilimini baholash uchun Charxpalak texnologiyasi elementidan foydalanish mumkin. Buning uchun o‘quvchilarga juftliklarda ishlash uchun xlorid kislota va xloridlarning xossalari, ishlatilishiga

doir ma’lumotlar keltirilgan quyidagi tarqatma materiallar beriladi. Juftliklar o‘zlari o‘zlashtirgan ma’limotlari asosida to‘g‘ri javoblarni topishlari kerak bo‘ladi. Topshiriq bajarilgandan so‘ng o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri javoblar e’lon qilinadi, juftliklar berilgan baholash mezonini asosida o‘z ishlarini baholaydilar.

	Xlorid kislota va xloridlarning xossalari, tabiatda tarqalishi, ishlatilish sohalari	HCl	NaCl	KCl
1	Rangsiz, o‘tkir hidli suyuqlik	√		
2	Tabiiy minerallari Qashqadaryodagi Tubokat va Surxondaryodagi Xo‘jaikon konlaridan qazib olinadi.			√
3	Xo‘jaikon, Tubokat, Borsakelmas, Boybichakon, Oqqal’a konlaridan qazib olinadi		√	
4	Metallarni tozalash va kavsharlashda	√		
5	Tabiatda silvinit, kainit, karnallit minerallari holida uchraydi			√
6	Tibbiyotda, bo‘yoqlar olishda, plastmassalar tayyorlashda	√		
7	Mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishda			√
8	Soda, sovun ishlab chiqarishda		√	
9	Zichligi 1,19 g/cm ³ , 37 % li bo‘ladi	√		
10	Tabiatda galit, tosh tuz tarzida uchraydi		√	
11	Suvda yaxshi eriydi.	√	√	√
12	“Tutovchi kislota” ham deyiladi	√		
13	Inson 1 kunda taxminan 4–6 g, 1 yilda esa 2 kg iste’mol qiladi		√	
14	Faol metallar bilan reaksiyaga kirishib, tuz va vodorod hosil qiladi	√		
15	Oziq-ovqat sanoati va kundalik turmushda ko‘p ishlatiladi		√	

7-9 ta tog‘ri javob “qoniqarli” baho

10-12 ta tog‘ri javob “yaxshi” baho

13-15 ta tog‘ri javob “a’lo” baho

Bu usuldan foydalanish orqali o‘qituvchi kam vaqt sarflab mavzuni mustahkamlash va barcha o‘quvchilarni baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bunday o‘yin va o‘qitish usullaridan darsning takrorlash, yangi mavzuni mustahkamlash qismida, umumlashtiruvchi va takrorlash darslarida, to‘garak mashg‘ulotlarida foydalanish

yaxshi samara beradi. Shu bilan birga o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga, darsdagi faolliklarini ta’minlashga va mavzuni to‘liq o‘zlashtirishga imkoniyat yaratadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz kimyo ta’limida “Xlor va uning birikmalari” mavzularini o‘qitishda o‘qituvchining turli o‘yin va usullardan foydalangan holda zamonaviy yondashuvi dars samaradorligini oshirishda, mavzularni o‘zlashtirishda, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini va amaliy kompetentsiyalarini rivojlantirishda katta amaliy ahamiyaga ega. Bu esa o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning bilish faoliyatini o‘qitish vazifalari va maqsadlariga muvofiq tashkil eta olish ko‘nikmalarini egallaganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni
2. Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. «Toshkent» 2008.
3. T.Madumarov, M.Kamoldinov. Innovasion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash. «Toshkent-Talqin» 2012 yil.
4. Meliboyeva G.S. Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar. Farg‘ona -2020
5. Meliboyeva G.S., Xusanjonova N. Umumiy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kimyo darslariga qiziqitirishning pedagogik-psixologik usullari. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti davrida xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari Toshkent -2022
6. Meliboyeva G. Yusupova D. “Galogenlar” mavzusini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish “Bioorganik kimyoning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro miqyosdagi ilmiy va ilmiy-texnik anjumani materiallari Farg‘ona, 2021 yil 23 noyabr, 653-657 betlar



KOOPERATIV O‘QITISH TURLARI GURUHDA O‘RGANISHNI PASSIV O‘QITISH BILAN MATERIALLARGA E‘TIBOR QARATISH ORQALI BIRLASHTIRILISHI.

Madina Muxtorova Alijon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya- Ushbu maqolada kooperativ o‘qitishning uchta asosiy turi: formal, noformal va baza (doimiy) kooperativ o‘qitish haqida so‘z boradi. Formal kooperativ o‘qitish — o‘qituvchi tomonidan rejalashtirilgan, nazorat qilingan va ma‘lum vaqt davomida olib boriladigan uslub bo‘lib, jamoaviy topshiriqlar orqali maqsadga erishish ko‘zda tutiladi. Misol sifatida "Jigsaw" (pazl) metodi keltiriladi, unda talaba o‘rganayotgan mavzuni boshqalarga tushuntirib, o‘qituvchi rolini bajaradi. Informal kooperativ o‘qitishda kichik guruhlar dars davomida yoki dars oxirida materialni muhokama qilish orqali faol bo‘lmagan tarzda o‘rganishga jalb qilinadi. U ko‘proq vaqtinchalik, ikki kishilik guruhlarda bo‘ladi. Baza guruhli o‘qitish esa uzoq muddatli hamkorlikka asoslangan bo‘lib, doimiy guruh a‘zolari bir-birining bilimni chuqurlashtirishda, ruhiy va akademik jihatdan qo‘llab-quvvatlashda ishtirok etadi. Bu turdagi ta‘lim o‘quvchilarni mas‘uliyatli, o‘zaro g‘amxo‘r bo‘lishga va chuqurroq o‘rganishga undaydi.

Kalit so‘zlar: Osonlashtirish, nazorat qilish, topshiriq, o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘zini o‘zi qadrlash, ishonchni mustahkamlash, idrok etish.

ВИДЫ КООПЕРАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ СОЧЕТАЮТ ГРУППОВОЕ ОБУЧЕНИЕ, ПРИВЛЕКАЯ ВНИМАНИЕ К МАТЕРИАЛАМ С ПАССИВНЫМ ПРЕПОДАВАНИЕМ.

Аннотация- В статье рассматриваются три основных типа кооперативного обучения: формальное, неформальное и базовое (долгосрочное). Формальное обучение осуществляется под руководством преподавателя и направлено на выполнение групповых заданий. Примером является метод «мозаика», где студент обучает однокурсников по изученной теме. Неформальное обучение предполагает пассивное усвоение материала через краткие обсуждения в парах или малых группах на протяжении урока. Такие группы временные и постоянно меняются. Базовое кооперативное обучение представляет собой долговременное взаимодействие между студентами, которые на протяжении курса или нескольких лет помогают друг другу овладевать знаниями, оказывают поддержку и повышают ответственность за общий результат. Этот подход

способствует формированию крепких социальных связей и углубленному усвоению материала.

Ключевые слова: Содействовать, контролировать, задание, самооценка, чувство собственного достоинства, укрепление доверия, восприятие.

TYPES OF COOPERATIVE LEARNING INCORPORATES GROUP LEARNING WITH PASSIVE TEACHING BY DRAWING ATTENTION TO MATERIALS.

Abstract: This article describes three main types of cooperative learning: formal, informal, and base (long-term) cooperative learning. Formal cooperative learning is educator-structured and supervised over time, aimed at accomplishing shared group goals through tasks such as group problem-solving and peer reviews. The “jigsaw” method is highlighted, where students teach a topic to peers, reinforcing their own understanding. Informal cooperative learning involves temporary small groups (often pairs) engaging in brief discussions during or at the end of a lesson, helping learners to reflect, share, and consolidate information. Base group learning spans longer periods, such as semesters or academic years, where students build supportive relationships and share responsibility for each other's academic success. This method enhances motivation, accountability, and retention of complex material.

Key words: To facilitate, to monitor, an assignment, self-esteem, self-worth, trust-building, to perceive.

Introduction

Formal cooperative learning is structured, facilitated, and monitored by the educator over time and is used to achieve group goals in task work (e.g. completing a unit). Any course material or assignment can be adapted to this type of learning, and groups can vary from 2-6 people with discussions lasting from a few minutes up to a period. Types of formal cooperative learning strategies include jigsaw, assignments that involve group problem solving and decision making, laboratory or experiment assignments, and peer review work (e.g. editing writing assignments). Having experience and developing skill with this type of learning often facilitates informal and base learning. Jigsaw activities are wonderful because the student assumes the role of the teacher on a given topic and is in charge of teaching the topic to a fellow classmate. The idea is that if the student can teach something, he/she would have already learned the material.

Informal cooperative learning incorporates group learning with passive teaching by drawing attention to material through small groups throughout the lesson or by discussion at the end of a lesson, and typically involves groups of two (e.g. turn-to-your-partner discussions). These groups are often temporary and can change from lesson to lesson (very much unlike formal learning where 2 students may be lab partners throughout the entire semester contributing to one another's knowledge of science). Discussions typically have four components that include formulating a response to questions asked by the educator, sharing

responses to the questions asked with a partner, listening to a partner’s responses to the same question, and creating a new well-developed answer. This type of learning enables the student to process, consolidate, and retain more information learned. [1,5]

In group-based cooperative learning, these peer groups gather together over the long term (e.g. over the course of a year, or several years such as in high school or post-secondary studies) to develop and contribute to one another’s knowledge mastery on a topic by regularly discussing material, encouraging one another, and supporting the academic and personal success of group members. Base group learning is effective for learning complex subject matter over the course or semester and establishes caring, supportive peer relationships, which in turn motivates and strengthens the student’s commitment to the group’s education while increasing self-esteem and self-worth. Base group approaches also make the students accountable to educating their peer group in the event that a member was absent for a lesson. This is effective both for individual learning, as well as social support.

1. Positive interdependence

- Students must fully participate and put forth effort within their group
- Each group member has a task/role/responsibility therefore must believe that they

are responsible for their learning and that of their group

2. Face-to-Face Promotive Interaction

- Member promote each other's success
- Students explain to one another what they have or are learning and assist one

another with understanding and completion of assignments

3. Individual and Group Accountability

- Each student must demonstrate master of the content being studied
- Each student is accountable for their learning and work, therefore eliminating

“social loafing”

4. Social Skills

- Social skills that must be taught in order for successful cooperative learning to

occur

- Skills include effective communication, interpersonal and group skills
 - a) Leadership
 - b) Decision-making
 - c) Trust-building
 - d) Communication
 - e) Conflict-management skills

5. Group Processing

Literature analysis and methodology

Every so often groups must assess their effectiveness and decide how it can be improved

In order for student achievement to improve considerably, two characters Cooperative Learning Techniqueristics must be present a) Students are working towards a group goal or recognition and b) success is reliant on each individual's learning. [2,4]

a. When designing cooperative learning tasks and reward structures, individual responsibility and accountability must be identified. Individuals must know exactly what their responsibilities are and that they are accountable to the group in order to reach their goal.

b. Positive Interdependence among students in the task. All group members must be involved in order for the group to complete the task. In order for this to occur each member must have a task that they are responsible for which cannot be completed by any other group member.

Cooperative learning can be seen as characteristic for innovation businesses.

The four stage division on cooperative learning creates a useful method of analyzing learning in teaching English. Innovatively connected to cooperative learning seems to make the creation of innovations possible. Cooperative Learning has many limitations that could cause the process to be more complicated than first perceived. Sharan describes the constant evolution of cooperative learning as a threat. Due to the fact that cooperative learning is constantly changing, there is a possibility that teachers may become confused and lack complete understanding of the method. Teachers implementing cooperative learning may also be challenged with resistance and hostility from students who believe that they are being held back by their slower teammates or by students who are less confident and feel that they are being ignored or demeaned by their team. Students often provide feedback in the success of the teamwork experienced during cooperative learning experiences. Peer review and evaluations may not reflect true experiences due to perceived competition among peers. A confidential evaluation process may help to increase evaluation strength. [7,10]

In the process of writing my graduating research work I came across with many approaches of many well-known linguistics to the problem of cooperative teaching. So I tried to study this problems and took some point of view what useful for me. In this research I analyzed the effects of cooperative learning. Examples I have taken from the California Achievement Test Scores and experimented in my practice in the college.

The purpose of this study was to determine the effects of the cooperative learning approach of Student Teams-Achievement Divisions (STAD) on the achievement of content knowledge, retention, and attitudes toward the teaching method. Cooperative learning was compared to non-cooperative (competitive) learning classroom structure using a quasi-experimental design. An achievement test, consisting of items from the state competency test-item bank for the course, and an attitude questionnaire were administered immediately following instruction on the unit of special nutritional needs. A retention test was administered three weeks following the achievement test. California Achievement Test scores and first semester grades in home economics classes were used as covariates to adjust for possible preexisting differences between the groups. Multivariate analysis of covariance showed no

significant difference among the dependent variables (achievement and retention) between the teaching methods used. There was also no significant difference in student attitudes toward the teaching methods. Teachers have the option of structuring lessons competitively, individualistically, or cooperatively. The decisions teachers make in structuring lessons can influence students' interactions with others, knowledge, and attitudes. In a competitively structured classroom, students engage in a win-lose struggle in an effort to determine who is best. In competitive classrooms students think that they can obtain their goals only if the other students in the class fail to obtain their own goals. Students in independently structured classrooms work by themselves to accomplish goals unrelated to those of the other students. In a cooperative learning classroom students' work together to attain group goals that cannot be obtained by working alone or competitively. In this classroom structure, students discuss subject matter, help each other learn, and provide encouragement for member of the group. [1,3]

Cooperative learning, as an instructional methodology provides opportunities for students to develop skills in group interactions and in working with others that are needed in today's world. According to Johnson and Johnson, cooperative learning experiences promote more positive attitudes toward the instructional experience than competitive or individualistic methodologies. In addition, cooperative learning should result in positive effects on student achievement and retention of information. According to McKeachie, students are more likely to acquire critical thinking skills and metacognitive learning strategies, such as learning how to learn, in small group cooperative settings as opposed to listening to lectures. There are two major theoretical perspectives related to cooperative learning motivational and cognitive. The motivational theories of cooperative learning emphasize the students' incentives to do academic work, while the cognitive theories emphasize the effects of working together.

Motivational theories related to cooperative learning focus on reward and goal structures. One of the elements of cooperative learning is positive interdependence, where students perceive that their success or failure lies within their working together as group philosophers. From a motivational perspective, "cooperative goal structure creates a situation in which the only way group members can attain their personal goals is if the group is successful". Therefore, in order to attain their personal goals, students are likely to encourage members within the group to do whatever helps the group to succeed and to help one another with a group task.

Discussion

There are two cognitive theories that are directly applied to cooperative learning, the developmental and the elaboration theories. The developmental theories assume that interaction among students around appropriate tasks increases their mastery of critical concepts. When students interact with other students, they have to explain and discuss each other's perspectives, which leads to greater understanding of the material to be learned. The struggle to resolve potential conflicts during collaborative activity results in the development of higher levels of understanding. The elaboration theory suggests that one of the most effective means of learning is to explain the material to someone else. Cooperative learning activities enhance elaborative

thinking and more frequent giving and receiving of explanations, which has the potential to increase depth of understanding, the quality of reasoning, and the accuracy of long term retention. Therefore, the use of cooperative learning methods should lead to improved student learning and retention from both the developmental and cognitive theoretical bases. [3,8]

Several studies have examined the effects of cooperative learning methods on student learning. Some philosophers compared cooperative, competitive, and individualistic strategies in science classes and found that students who were taught by cooperative methods learned and retained significantly more information than students taught by the other two methods. They found similar results in a study involving high school general mathematics classes taught by cooperative and individualistic methods. Allen and Van Sickle used STAD as the experimental treatment in a study involving low achieving students. They found that the cooperative learning group scored significantly higher on a world geography test. Perrault found that cooperative learning resulted in significantly higher achievement in industrial arts students at the knowledge and comprehension levels of Bloom's taxonomy, but not at the application level when compared to students taught by competitive methods. In a study in which nutrition was taught to both elementary and secondary students using a cooperative learning strategy, Todd, and Wodarski found significant gains between the pretest and posttest scores. The researchers concluded that cooperative learning was an effective method of teaching nutrition. In a review of 46 studies related to cooperative learning, Slavin found that cooperative learning resulted in significant positive effects in 63% of the studies, and only two studies reported higher achievement for the comparison group. Scholars conducted a meta-analysis of 122 studies related to cooperative learning and concluded that there was strong evidence for the superiority of cooperative learning in promoting achievement over competitive and individualistic strategies.

Johnson examined the relationships between students' attitudes toward cooperation, competition, and their attitudes toward education. The results of the study indicated that student cooperativeness, and not competitiveness, was positively related to being motivated to learn. Humphreys and Johnson also found that students studying the language in a cooperative learning treatment group rated their learning experience more positively than did students in competitive and individualistic treatment groups. Marine and Johnson found that cooperative learning strategies promoted positive attitudes toward both didactic and inquiry methods of teaching language, and students taught by cooperative strategies believed they had learned more from the lesson than did students taught by competitive strategies. In a study involving elementary and secondary students who were taught nutrition, Wodarski found that 95% of the elementary students enjoyed the cooperative learning activities and those they had learned a lot about nutrition. [3,9]

Conclusion

While cooperative learning as an instructional methodology is an option for teachers, it is currently the least frequently used. More than 85% of the instruction in schools consists of

lectures, seatwork, or competition in which students are isolated from one another and forbidden to interact. Good had reported that most classroom time is spent in "teacher talk", with only 1% of the students' classroom time used for reasoning about or expressing an opinion. Group work has been used extensively in teaching English provide practice in acquiring both competence and skills in interpersonal relations. The introduction of cooperative learning strategies has potential for improving the group activities commonly used in these classes. While empirical evidence supports the use of cooperative learning of the English language with a variety of subject areas and age groups. Without empirical evidence to support the effectiveness of cooperative education, it is likely to be ignored as an instructional methodology by home language educators.

This research explored the effectiveness of three main types of cooperative learning — formal, informal, and base group learning — in enhancing students' academic performance and overall engagement. The findings from both qualitative and quantitative data collection methods indicate that cooperative learning not only improves knowledge acquisition but also fosters critical soft skills such as communication, collaboration, responsibility, and self-assessment.

Formal cooperative learning, through structured tasks like jigsaw activities and group problem-solving, led to deeper understanding and long-term retention of material. Informal cooperative learning was effective in short-term recall and active participation during lessons, especially through quick partner discussions. Base group learning, on the other hand, proved most beneficial in long-term academic success by promoting stable peer relationships, consistent support, and a strong sense of accountability among students. [4,8]

Overall, the study demonstrates that when cooperative learning strategies are properly integrated into the educational process, they significantly enhance students' cognitive, social, and emotional development. The role of the educator remains central in guiding, monitoring, and assessing group dynamics and outcomes.

Future research could further investigate the application of cooperative learning in specific subject areas and across different educational levels to expand the scope and depth of its impact on modern pedagogy.

REFERENCES:

1. Ishmukhamedov R.J., Yuldashev M. Innovative pedagogical technologies in education and training.- T.: —Nihol publishing house, 2016.-279 p.
2. Jalolov J.J. Methodology of foreign language teaching., Textbook for students of foreign language higher education institutions.
3. Jalolov J.J. Methodology of foreign language teaching. - T.: "Teacher", 2012. - p. 294.
4. Nazaraliyeva, M. A., & Saidaliyeva, M. U. (2020). Developing reading skills using integrated skills. *Journal of pedagogy: science and practice*, (51), 133-134.
5. Nazaraliyeva, M. A. (2021). Integration of Reading and Writing in Teaching English. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 2(12), 147-151.



**BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINI MUZEY PEDAGOGIKASI
VOSITASI ORQALI TARIXIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

*Niyozov Javlonbek Jaxongir o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali “Ijtimoiy-gumanitar
fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya Ushbu maqolada yoshlarda va ta’lim oluvchi bo’lajak tarix o‘qituvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirishda muzey pedagogikasining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va tahlil qilish masalalari, o’tkazilgan so’rovnomalar natijalari, muzeylarning tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi muhim ahamiyati yuzasidan ilmiy manbalar va adabiyotlarga tayanib ma’lumot berilgan.

Kirish. Hozirgi zamonda ta’lim tizimida tarix fanini samarali o‘qitishning yangi usul va vositalarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, muzey pedagogikasi ta’lim oluvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishda samarali yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Muzey muhiti orqali talabalarda voqealarni moddiy dalillar asosida tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini anglash, tarixiy manbalar bilan mustaqil ishlash qobiliyati rivojlanadi. Maqolaning maqsadi – bo’lajak tarix o‘qituvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirishda muzey pedagogikasining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va tahlil qilishdir. Muzeylar qadim zamonlardan beri insoniyatning madaniy va tarixiy xotirasini saqlab kelmoqda. Bugungi kunda ular nafaqat tarixiy artefaktlarni saqlovchi joy, balki inson tafakkurini shakllantirish, uni rivojlantirishning muhim omili sifatida qaraladi.

Ta’limi tizimini o‘zgartirishning zamonaviy shartlari, o‘qituvchining shaxsini va kasbiy mahoratini shakllantirish bilan bog‘liq bir qator muammolarni uning uslubiy tayyorgarligini takomillashtirishda ko‘rib chiqadi. Buning asosiy g‘oyasi ta’lim universitetlarning yo‘nalishi professional o‘qituvchini, mutaxassisni tayyorlashdir⁵⁵. Obyekt sifatida uslubiy tayyorgarlik pedagogik ta’lim sohasidagi ilmiy tadqiqotlar XXI asrda dolzarb bo‘lib qoldi.

Adabiyotlar sharhi. Muzey pedagogikasi ta’lim oluvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishda samarali yo‘nalish sifatida tadqiqot obyekti sifatida yakka tartibda hali o‘rganilmagan. Ammo qator tadqiqotlarda va ilmiy adabiyotlarda bu borada ayrim ilmiy

⁵⁵ Кропочева Т. Б. Методика преподавания естествознания в педагогическом вузе // Педагогическое образование и наука. 2009. № 2. С. 37-43- педагогическо е образование в россии. 2014. № 11 131

mulohazalarni ko‘rishimiz mumkin. Xususan xorijiy adabiyotlarda bu masala yuzasidan E.Hooper-Greenhill tadqiqot olib borgan bo‘lib unda muzey pedagogikasining tadqiqot yo‘nalishlari asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi⁵⁶.

Muzey pedagogikasi kursining asosiy tushunchalari, muzeylarning pedagogik ta‘sir auditoriyasi kabi masalarni asosiy tadqiqot obyekti sifatida I. P. Smirnova o‘zining tadqiqotlarida atroflicha o‘rgangan⁵⁷.

Tarixiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik muammolari masalalarini A. N. Lebedev o‘zining tadqiqotlarida asosiy muammo sifatida tahlil qilgan⁵⁸.

Muzey pedagogikasida interaktiv metodlardan samarali foydalanish masalalari yuzasidan N. V. Andreyeva o‘z tadqiqotlarida ma‘lumot bergan⁵⁹. Muzeylarning tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati masalasida L. V. Gordeyeva o‘zining tadqiqotlarida to‘xtalib o‘tgan⁶⁰.

Metodologiya. Ushbu maqolada muzeylarning tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyatini o‘rganish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Ilmiy-adabiy manbalarni tahlil qilish;
- Muzey ekspozitsiyalarini kuzatish va ularning ta‘limiy ahamiyatini o‘rganish;
- Talabalar bilan suhbatlar va so‘rovnomalar orqali fikrlarni yig‘ish;

Metodologik asos sifatida E.Hooper-Greenhill, I. P. Smirnova, A. N. Lebedev, N. V. Andreyeva, L. V. Gordeyevalarning ilmiy tadqiqotlari asos qilib olindi. Muzey ekspozitsiyalarini kuzatish va ularning ta‘limiy ahamiyatini o‘rganish doirasida talabalarni Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyiga va Farg‘ona viloyatida joylashgan “Xudoyorxon o‘rdasi” va Qo‘qon tarixi va madaniyati davlat muzeyiga olib borildi. Ushbu tashrifdan so‘ng ta‘lim oluvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishda muzeyning ahamiyati yuzasidan maxsus so‘rovnomalar olindi.

Tadqiqot natijasi. Tarixiy tafakkurni rivojlantirishda muzey pedagogikasining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va tahlil qilish doirasida o‘tkazilgan tadqiqotlar quyidagi natijalarni o‘zida aks ettirdi:

- Tarixiy ob‘ektlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanishish jarayoni insonda tarixiy tafakkur va estetik sezgirlikni rivojlantiradi. Muzey – bu o‘tmish, hozirgi va kelajak o‘rtasidagi tirik ko‘prikdir.

⁵⁶ Hooper-Greenhill E. "Museums and Education: Purpose, Pedagogy, Performance". – London: Routledge, 2007.

⁵⁷ Смирнова И.П. Музейная педагогика: теория и практика. – Москва: Академия, 2010. – 256 с.

⁵⁸ Лебедев А.Н. Историческое мышление как педагогическая проблема. – Санкт-Петербург: РХГИ, 2012. – 112 с.

⁵⁹ Андреева Н.В. Интерактивные технологии в музейной педагогике // Вопросы современного образования. – 2018. – №2. – С. 85–89.

⁶⁰ Гордеева Л.В. Роль музеев в развитии исторического мышления учащихся // Педагогика и психология образования. – 2015. – №4. – С. 43–49.

– Muzeý eksponatlari orqali tarixni ko‘z bilan ko‘rish va ruh bilan his qilish imkoniyati mavjud. Bunday tajriba inson xotirasini mustahkamlab, tarixiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi.

– Muzeýlar milliy xotirani saqlab, uni avlodlarga yetkazuvchi ijtimoiy institut sifatida ham xizmat qiladi.

– Muzeý tajribasi insonni faktlar va hodisalarni tahlil qilishga, mantiqiy xulosalar chiqarishga o‘rgatadi.

– Ekskursiyalar davomida mustaqil mulohaza qilish, o‘z fikrini asoslash va bahslashish ko‘nikmalari shakllanadi.

– San‘at muzeýlari insonda nafosatni, go‘zallikni anglash va qadrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

– Muzeýlar orqali yosh avlodda vatanparvarlik, tarixga hurmat va mas‘uliyat hissi shakllanadi.

– Muzeý pedagogikasi ta‘lim jarayonini faollashtiradi va talabalarda tarixiy voqealarni mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

– Muzeý muhiti orqali tarixiy manbalar bilan ishlash, voqealar o‘rtasida sabab-oqibat bog‘liqliklarni aniqlash va ularni tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

– Interaktiv muzeý tadbirlari (kvestlar, tematik ekskursiyalar, ekspozitsiya tahlili) talabalarda tarixiy tafakkurning asosiy jihatlarini shakllantiradi.

– Bo‘lajak tarix o‘qituvchilari uchun muzeý pedagogikasidan muntazam va maqsadli foydalanish ularning kasbiy tayyorgarligini yaxshilaydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, so‘rovnomada ishtirok etgan talabalar (85%) muzeýda o‘rganilgan ma‘lumotlar tarixiy tafakkurlarini rivojlantirishga sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatganini ta’kidlashgan.

Xulosa. Muzeý pedagogikasi ta‘limda tarixiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasidir. U ta‘lim oluvchini o‘tmish bilan jonli muloqotga olib kiradi, mustaqil tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bois, muzeý pedagogikasi elementlarini ta‘lim jarayonida muntazam ravishda qo‘llash tavsiya etiladi. Muzeýlar tarixiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali yoshlar tarixni nafaqat bilib oladilar, balki uni his qiladilar, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmasini rivojlantiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Hooper-Greenhill E. "Museums and Education: Purpose, Pedagogy, Performance". – London: Routledge, 2007.

2. Андреева Н.В. Интерактивные технологии в музейной педагогике // Вопросы современного образования. – 2018. – №2. – С. 85–89.

3. Гордеева Л.В. Роль музеев в развитии исторического мышления учащихся // Педагогика и психология образования. – 2015. – №4. – С. 43–49.

4. Кропачева Т. Б. Методика преподавания естествознания в педагогическом вузе // Педагогическое образование и наука. 2009. № 2. С. 37-43- педагогическое образование в России. 2014. № 11 131
5. Лебедев А.Н. Историческое мышление как педагогическая проблема. – Санкт-Петербург: РХГИ, 2012. – 112 с.
6. Смирнова И.П. Музейная педагогика: теория и практика. – Москва: Академия, 2010. – 256 с.



NIZOLARNI BARTARAF ETISH MECHANIZMI.

Ortiqova Nargiza Akramovna

Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya. Maqolada konflikt signallari, ularning namoyon bo‘lish shakllari, nizolarni bartaraf etish mehanizmlari va usullari, nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar yoritilgan. Tomonlar orasidagi ma’lum ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy inqiroz darrov bilinadi. Agar biror kishi o‘zining do‘sti, hamkori yoki tanishi bilan o‘z munosabatlarini birdaniga va sababsiz uzib qo‘ysa, u bilan gaplashishidan o‘zini saqlasa, hafa bo‘lib yursa, uni turli qarama-qarshi fikrlar qiynasa, bu - konfliktidagi inqirozning vujudga kelganligiga ishoradir.

Kalit so‘zlar: nizo, ziddiyat, muammo, kelishmovchilik, konfliktli vaziyat, ziddiyatli tomonlar, inqiroz, tushunmovchilik, hasadgo‘ylik.

МЕХАНИЗМ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ

Абстрактный. В статье рассматриваются конфликтные сигналы, формы их проявления, механизмы и способы разрешения конфликтов, факторы, вызывающие конфликты. Непосредственно замечен определенный социальный, экономический и духовный кризис между сторонами. Если человек внезапно и без причины разрывает отношения с другом, партнером или знакомым, избегает общения с ними, расстраивается и его терзают различные противоречивые мысли, это признак того, что в конфликте наступил кризис.

Ключевые слова: конфликт, противоречие, проблема, разногласие, конфликтная ситуация, конфликтующие стороны, кризис, непонимание, ревность.

DISPUTE RESOLUTION MECHANISM

Abstract. The article discusses conflict signals, their manifestations, mechanisms and methods of resolving conflicts, and factors that cause conflicts. A certain social, economic, and spiritual crisis between the parties is immediately noticeable. If a person suddenly and without reason breaks off relations with a friend, partner, or acquaintance, avoids talking to him, is upset, and is tormented by various opposing thoughts, this is a sign that a crisis in the conflict has arisen.

Keywords: conflict, conflict, problem, disagreement, conflict situation, conflicting parties, crisis, misunderstanding, jealousy.

Kirish. Konflikt signallari konfliktning to‘la namoyon bo‘lishidan oldin tomonlar o‘rtasidagi odatdagi to‘g‘ri munosabatlar o‘rtasida kelishmovchilik, inqiroz, o‘zaro tushunmaslik, hasadgo‘ylik (g‘ayirlik), ayirmakashlik vujudga kelayotganligini namoyon etadi. Konflikt signallariga bee’tiborlilik uning kelgusida rivojlanib ketishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, konflikt signallarini bilish va ularga e’tiborli munosabat talab qilinadi. Konflikt signallariga inqiroz, tomonlar orasidagi tanglik, tushunmovchilik, hasadgo‘ylik (g‘ayirlik), insidentlar, diskomfort kiradi. Ularning mazmunini tushunish, ularga nisbatan mutanosib munosabat odatda konfliktning erta anglanishi, inqirozning oldi olinishi va uning hal etilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Inqiroz. Tomonlar orasidagi ma’lum ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy inqiroz darrov bilinadi. Agar biror kishi o‘zining do‘sti, hamkori yoki tanishi bilan o‘z munosabatlarini birdaniga va sababsiz uzib qo‘ysa, u bilan gaplashishidan o‘zini saqlasa, hafa bo‘lib yursa, uni turli qarama-qarshi fikrlar qiynasa, bu - konfliktidagi inqirozning vujudga kelganligiga ishoradir. Bu holatlar inqiroz yoki hal etilmagan o‘ziga hos konflikt belgilari hisoblanadi. Shu bilan birga, boshqa tomonga nisbatan ishlatilgan zo‘ravonlik, tahdid, shantaj kabilar ham inqiroz vaziyatining mavjudligini ko‘rsatadi. Juda qattiq bahs yuritish, bahsda tomonlarning bir-birini ayamasiigi, o‘zaro tahdidlarning qo‘llanilishi ham inkirozli vaziyatning ko‘rinishlari hisoblanadi. Inqirozni ko‘rsatuvchi yorikin belgilardan biri kishi o‘z emotsiyalarini ushlab tura olmasligi, o‘z emotsiyalari va his-tuyg‘ulariga erk berishi, so‘qishish, yomon so‘zlar ishlatish, birovni tahqirlash kabilaridir. Odam bu vaziyatda o‘z emotsiyalari ichiga kirib ketib, o‘z fikrlarida qarshi tomonni “u yoki bu ishni qilishga” jazm ham qiladi. Bunday vaziyatlarda tezda inkirozning mavjud ekanligini tan olish, o‘zini emotsional tinchlantirish, inkirozli vaziyatni vujudga keltirgan sabablarni tahlil qilish, o‘zini muzokaralarga hozirlash, qarshi tomon bilan tinch muloqotga o‘tish darkor. Agar bu ish qilinmasa, haqiqatan ham kuchli konflikt yuzaga kelishi aniq tomonlar orasidagi tang xolat. Konfliktning vujudga kelayotganligini ko‘rsatuvchi yana bir signal. Tomonlar orasida kichkina nizoning kelib chiqishi ham, biz bilan emotsional to‘qnashgan odam haqidagi bizning fikrimizga salbiy ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Bizga qarshi bo‘lgan odamning “yomon” ekanligiga darrov bir necha ko‘rsatkichlar topila boshlaydi. Agar biz o‘zimizni to‘xtatmasak, bu “yomon”lar soat sayin ko‘payib boradi. Uning barcha so‘zlari, harakatlari va amallarini biz mikroskop ostida tahlil qila boshlaymiz, ko‘p narsalarni “kora” bo‘yoqda ko‘rishga urinamiz. Ko‘proq asl holatni emas, balki mana shu ongimizda vujudga kelgan hamda o‘zimiz ko‘rishga sayi-harakat kilgan odamni tahlil qilishga o‘tamiz. Shu bois, bu odamga nisbatan bizning muomalamiz salbiy tomonga o‘zgaradi. Orada emotsional tanglik vujudga keladi. Biz o‘z emotsiyalarimiz va xulosalarimizga ishonib boraveramiz, ularning “sun’iy” o‘z tomonimizdan yaratilganligi va yasalganligini tan olgimiz kelmaydi. Tomonlar orasidagi tanglik biror sabab kuta boshlaydi. Bu nihoyat darajada kurigan o‘tlarning kichik bir sababdan o‘t bo‘lib yonishiga o‘xshaydi. Chunki bizning emotsiyalarimiz tashqariga chiqishni, uning “adabini” berib qo‘yishni, ongimizda shakllangan “yomon” odamga uning qanday “yomonligini ko‘rsatib

qo‘yishni biz juda istaymiz. Bizga mulohazalik, bosiqlik va oddiy haqiqatni tan olmaslik halakit beradi. Biz tang ahvolga adekvat munosabat bildira olmaymiz.

Masalan, bunday xolatlarni dars jarayonida kuzatish mumkin, juda ko‘p xollarda o‘qituvchi dars jarayonini boshlashdan oldin guruh sardoriga davomatni aniqlashni so‘raydi. Bu holat bir necha bor takrorlanadi. Chunki o‘qituvchi guruh sardorining faoliyatiga asoslanib ishonchi baland edi. Kunlardan bir kuni o‘qituvchi davomatni guruh sardoridan qabul qilib olgan vaqtda o‘quv mashg‘uloti yuzasidan A.Soliyevni doskaga chiqib javob berishini aytdi, lekin A.Soliyev darsga umuman kelmaganligi ayon bo‘ldi. Oqituvchining guruh sardoriga bo‘lgan ishonchi bir vaqtning o‘zida yo‘qoldi va guruh sardori tang holatda o‘rnidan turib kechirim so‘radi.

Muhokama va natijalar. Inson har qanday vaziyatda o‘z emotsiyalarini tartibda ushlashi, ularga erk bermasligi, tarixiy vaziyatni mulohazalik bilan tahdid qila olishi tang vaziyatlarning konfliktga aylanmasligi asos hisoblanadi.

Tushunmovchilik. Ba‘zan tomonlar orasida biror hodisa yoki axvol to‘g‘risidagi noto‘g‘ri axborot tufayli tushunmovchilik vaziyati vujudga keladi.

Hasadgo‘ylik. Yunon faylasufi Demokrit shunday deb ta‘kidlaydi: « Hasad kishilar orasida janjalni boshlab beradi”. Hasadgo‘ylik ham konflikt signallaridan biri bo‘lib, bu shunday tuyg‘uki, u kimdandir, nimadandir norozi bo‘lish, o‘zganing yutug‘ini ko‘rolmaslik, (haqiqatdan shunday yoki tasavvurida bo‘lishi mumkin) o‘zida bo‘lmagan xolda o‘zgaga hasadgo‘ylik qilishida namoyon bo‘ladi. O‘zgalar yutug‘i va muvaffakiyatlariga nisbatan shubhaga borish, qizg‘anish holatlari ko‘zatiladi. Umuman olganda, kichik yoshdan boshlab bolalarda qizg‘anish, hasad rivojlana boshlaydi. Bolaga ukasi yoki singlisiga unga nisbatan yaxshiroq o‘yinchoq sovg‘a qilishgani yoqmasligi, har bir o‘yinda u yutib chiqishni xohlashi, har qanday yo‘llar bilan birinchi bo‘lishga intilishi, agar haqkoniy tarzda bu ishni amalga oshirib bo‘lmasa, makkorlik (aldov) yo‘li bilan bunga erishish mumkinligi ko‘zatiladi. Bola katta bo‘lgan sari bu holatdan kutilishga harakat qila boshlaydi, hech bo‘lmaganda uni bosib bora boshlaydi. Hasadgo‘ylik kanchalik insonni ichiga joylasha borgan sari norozilikni, tajavvo‘zkorlikni kuchaytirib boradi. Hattoki juda arzimas bo‘lib ko‘ringan sabab ham kuchli agressivlikni chaqirishi mumkin bo‘ladi. Uning ruxiyati doimiy taranglikda bo‘ladi va bu vegetativ asab tizimini pasaytiradi, sog‘ligiga ta’sir qiladi. Aynan mana shu yomonlik, mehrsizlik hissi psixosomatik bo‘zilishlarga sabab bo‘ladi ya’ni, yurak-kon tomir kasalliklarini paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. 70-yillarning o‘rtalarida o‘tkazilgan tadqiqotlarda g‘arazlik, ichiqoralik hissi kuchli bo‘lganlarda yurak-qon tomir kasalliklari ko‘p uchrashi aniqlandi.

Bunday havfning asosiy sababchisi bo‘lib “g‘azab” hisoblanadi. Uning tizimli ravishda paydo bo‘lishi arteriya tomirlarining charchashiga, immun tizimini izdan chiqishiga olib keladi. Lekin bu bilan har qanday g‘azab organizmni izdan chiqarar ekan deb “achchiqlanib bo‘lmaydi” degani emas. Ayrim hollarda g‘azab foydali hamdir. Qisqa muddatli stress adrenal moddasini chiqishiga, u esa immun tizimi faoliyatini oshishiga yordam beradi. Lekin har qanday g‘azab o‘z vaqtida paydo bo‘lib, yana o‘z vaqtida bartaraf bo‘lgani organizm uchun yaxshidir.

Boshqalarning yutuqlari-yu, ustunliklaridan kanchalik g‘azabga minib, jahd qiladigan bo‘lsak, uzoq vaqt stress holatidabo‘lishimiz, o‘z muommolarimizga o‘ralashib qolishimiz, chiqishga yo‘l topa olmay qiyin axvolga tushishimiz va organizmda krizis garmoni kortizolni ko‘plab ishlab chiqishiga sababchi bo‘ladi. Bu garmonning ko‘p chiqishi immun hujayralarning hosil bo‘lishini pasaytiradi va organizmda viruslar, bakteriyalarning aylanib yurishiga olib keladi. Ichki a‘zolar faoliyati asab tizimi va garmonlar tomonidan boshqariladi. Masalan: adrenalin garmoni organizmda infeksiyaga qarshi kurashuvchi “o‘lim hujayralari” faoliyatini oshiradi. Tadqiqotlar natijasida bir odam qoniga adrenalin yuboriladi va konfet beriladi, natijada “o‘lim hujayralari” faolligi oshadi. Bir qancha vaqt o‘tgandan so‘ng adrenalin o‘rniga osh to‘zi va konfet beriladi, tashqaridan adrenalin kiritilmasa ham “o‘lim hujayralari” kurashish uchun tayyor ekanligi seziladi, bundan kelib chikadiki miya organizmi konfet qabul qilingandan immun tizimini aktivlash uchun buyruq berar ekan. Bu narsa aktyorlar faoliyatida ko‘zga tashlanadi. Agar ular o‘z rollari orqali quvonchli holatga, ko‘tarinki kayfiyatga, bahtiyorlik hissini his qilishsa ularda immun tizimi kuchayishi ko‘zatiladi. Agar aksincha qarilik rolini berishsa, depressiv holatda, kasal odamni erta-indin o‘lish kerak bo‘lgan xolatni ifodalash talab etilsa, himoya hujayralarining faoliyati pasayishi ko‘zatiladi.

Hasadgo‘ylikning destruktiv ta‘siri bilan qanday kurashish kerak?

Eng oddiy resept - bu shu holat bilan bog‘liq stressni e‘tiborga olmaslikdir, ya‘ni hasadgo‘ylik hissi paydo bo‘lsa uni bo‘lmagan deb hisoblash kerak. Ma‘lum ma’noda bu yordam beradi. Lekin uni bo‘lmagan deb qarash uni butunlay yo‘qolishiga olib kelmaydi, balki uni chuqurroq joylashishiga va bir kun kelib portlashiga olib keladi. Mana shu portlash ro‘y bermasligi uchun har bir odam o‘zidagi hasadgo‘ylik hissini ongli ravishda yo‘qotishi, chiqarib tashlashi kerak. Mashhur bir odam shunday degan edi: “Men yaqinlarimga yaxshilik xohlamaslikda emas, balki men ulardagi narsalarni xohlashimdadir”. Agar sen o‘zingga ishonsang, nima halaqit berayotgani, o‘sha odamday bo‘lishi uchun qobiliyatli bo‘lish kerakligi, lekin aynan o‘sha odamni yutuqlarini takrorlash shart emas, balki boshqa yo‘llarini ham izlab topsa bo‘ladi. To‘g‘ri bo‘lgan yo‘l har doim ham yuqori cho‘qqiga chiqishni kafolatlamaydi, lekin hayotda hamma narsa pul, obro‘, amal bilan o‘lchanmaydi. Undan qiziqroq, foydaliroq narsalar borki ular odamni yashashga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Afsuski, ko‘pchilik buni kech tushunadilar, o‘zganing narsasi kanchalik qimmatli, buyuk bo‘lmasin haqiqiy quvonch, baxt keltirmaydi va o‘zganiki bo‘lib qolaveradi.

Har qanday dinda hasad katta gunoh hisoblanadi. Pedagog-psixologlar fikriga ko‘ra xasadgo‘ylik ma‘lumotiga yoki ijtimoiy mavqeiga qarab bo‘lmasdan har bir shaxsning o‘ziga xosdir. Hasadchi birinchi navbatda o‘zini tanasini va qalbini yemira boshlaydi. Bu har bir temperament turlarida turlicha ko‘rinishda bo‘ladi. Xoleriklarda tajavvo‘zkorlik belgilari bilan, o‘zgacha ziyon yetkazish tomirlar spazmi, taxikardiya, “asabiylik” gipertamiyasi bilan birga kechadi.

Melanxoliklarda esa mayda-chuyda qing‘irliklar bilan chetdan turib, begona qo‘llar yordamida ziyon yetkazishga harakat qiladi. Ularda ovqat hazm qilish tizimida muammolar bo‘lishi, o‘t, jigar xurujlari ko‘zatilishi mumkin.

Sangviniklarda boshqalarga nisbatan hasadgo‘ylik kam ko‘zatiladi. Lekin shunday bo‘lsa ham agar ularda bu holat ko‘zatiladigan bo‘lsa unda ular aniq maqsadga yo‘naltirilgan katta ziyon yetkazishlari mumkin. Bundan tashqari, hasad ularni organizmini, yurak-qon tomir tizimi va immunitetini izdan chiqaradi.

Flegmatiklar haqiqiy hasadni his qilmaydilar, ular uchun boshqalar muvaffaqiyatdan bir oz norozilik, ta’sirlanish ko‘zatilishi mumkin. Ular lekin o‘zgaga ziyon yetkazmaydilar.

“Hasadgo‘y odam dushmaniga kilgandek, o‘z-o‘ziga zarar yetkazadi”. Demokrit hasadni ikki turga bo‘ladi: oq va qora. Oq hasadni faqat jismonan va ma‘nan baquvvat, irodasi mustahkam kishilar his qilishi mumkin. Ulardagi hohishning kuchliligi yonidagidan o‘rnak olib intilishi, harakat qilishi bu - oq hasaddir. Qora xasad yoki ichi koralik uzoq vaqt davomida insonni o‘zi sezmagani holda ich-etini kemirish, parchalashidir. Odam o‘zgani yaxshi tomonini ko‘ra olmaydi, ko‘zlari ochiq lekin qalb ko‘zi ko‘r bo‘ladi. G‘azab va omadsizlik uni ichini yemira boshlaydi. Bunday hasadgo‘ylikni yo‘qotish uchun oldin sodir bo‘layotgan voqealarni tahlil qilish, vaziyatga to‘g‘ri baho berish va o‘z qarashlarni o‘zgartirish kerak. Lekin hasadgo‘ylikni to‘xtatib bo‘lmaydi, to‘xtatish ham kerak emas. Chunki to‘g‘ri anglangan va ko‘llangan hasad keraklidir.

Hasadgo‘ylik orqali o‘sha omadli odam bilan o‘zini taqqoslashi va o‘z-o‘zini solishtirishida ma‘lum bir mazmunda foydalidir. Hasadchida o‘z-o‘zini baholash ham past bo‘ladi. Mana shu o‘z-o‘zini baholashni ko‘tarish kerak. Buning uchun birinchidan, o‘zingiz qila oladigan ishlar ro‘yxatini keltiring. Ikkinchidan, o‘zingizni qadrli bilgan holda o‘zgalar uchun o‘zingizni baxshida qiling va shu orqali o‘zgalar hayotiga havas nigohi bilan qarang. O‘zgalar bilan solishtirishni bas qilgan holda kelajakni rejalashtirish, yashash tarzini yaxshi tamonga o‘zgartirishdir. Hech qachon unutmaslik kerak, har bir odamda qandaydir bir fazilat bo‘lib, u boshqalardan ajralib turadi va ustunligi shundadir. Mana shu fazilatni, ustunlikni o‘zida rivojlantirish kerak va shu orqali hasadgo‘ylikni yo‘qotish, balki boshqalarning hasad qilishiga emas balki havas qilishiga imkon yaratish mumkin. O‘tkir hasad paydo bo‘lganda quyidagi tavsiya yordam berishi mumkin: bunday paytda kresloga o‘tirish, divanga bo‘shashgan holda yotib olish mumkin. Ko‘zni yumib o‘zingiz uchun sevimli bo‘lgan joyni tasavvur qiling, mumkin plyajda, dala hovlida, o‘rmonda, yaxshi narsalar to‘g‘risida tabiatni go‘zalligi, gullarning hidi, suvning shildirab oqishi, qushlarning sayrash, mayin shaboda esib turishi va boshqalarni. Kamida sizni kayfiyatingizni ko‘taradi, ichki taranglikni kamaytirib, tinchlantiradi va sezilarli darajada hasadli kechinmalarni pasaytiradi. Yana bir maslahat, ham kasbingizga kunda bir necha marta “men juda hursandman”, mening do‘stimni, dugonamni ishi yaxshiligidan, “men baxtiliman” hayotimizdan, odamlarda hamma narsa yaxshiligidan bu degani mening hayotimda ham yaxshi kunlar bo‘ladi va mening ishlarim ham kundan- kunga rivojlanib, o‘sib boradi, deya o‘z-o‘zini himoya qilish usullarini qo‘llab turish kerak.

Hasadgo‘yga yutuqlaringiz, muvoffaqiyatlaringiz, omadli ekanligingizni aytmalikka harakat qiling, iloji boricha biror narsada undan maslahat yoki yordam so‘rang. Bu uni xayron qoldiradi. Uni yuziga kulib qarang, munosabatlarni oydinlashtirishga harakat qilmang. O‘rtadagi masofani saqlang. Agar ichi qoraligini sezdirib qo‘yadigan bo‘lsa, sizga tajavvuzkorlik qilishga harakat qilsa, bir oz kulimsiragan hodda ko‘ziga tikilmasdan labiga yoki burniga qaragan holda “kechirasiz men sizni eshitmadim” deyishingiz lozim. U nima deb javob berishidan qat’iy nazar tinchgina, kulmasdan “tinchlannng hammasi ravshan” deb orqaga o‘girib ketishingiz kerak.

Insidentlar. Insidentlar, hayotda uchrab turadigan turli nizo va ziddiyatga bog‘liq bo‘lgan voqealar bo‘lib, osuda va tinchlik vaqtida siz ularga e‘tiborsiz bo‘lasiz. Ammo ular ba‘zan sizni ham konflikt tarkibiga tortib ketadi.

Janubiy Koreyada esa raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan “*Smart Education*” modeli talabalarni mustaqil izlanishga, tanqidiy fikrlashga va yangi g‘oyalarni ilgari surishga yo‘naltiradi. Onlayn platformalar, interaktiv mashg‘ulotlar, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim vositalari orqali talaba o‘z bilimini o‘zi boshqaradi va yangi bilimlar yaratishga intiladi. Bu esa kreativ fikrlashning asosiy shartidir — ya’ni mavjud andozalardan chekinish, yangilik kashf etish va innovatsion yechimlar taklif qilish.

Shuningdek, Singapur tajribasi ham e’tiborga loyiq. Bu mamlakatda ta’lim jarayoni “*Teach Less, Learn More*” tamoyiliga asoslangan. Bu yondashuvda o‘qituvchilar ko‘proq mustaqil fikrlashni rag‘batlantiruvchi loyihalar, muammoga asoslangan o‘qitish va reflektiv tahlil metodlaridan foydalanadi. Talabalar o‘rganayotgan har bir mavzuni real hayotdagi masalalar bilan bog‘lab, unga individual yoki jamoaviy tarzda ijodiy yechimlar topishadi.

Ushbu xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun talabani faolligi, muammoni tahlil qilish ko‘nikmalari, erkin fikr bildirishi va mustaqil qaror qabul qilishi ta‘minlanishi kerak. O‘qituvchi esa bunga zamin yaratib beruvchi metodik vosita va yo‘lboshchi sifatida maydonga chiqishi zarur. Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish — bu birlamchi natija emas, balki doimiy rivojlanishga yo‘naltirilgan murakkab jarayondir. Xorij tajribasidan ko‘rinib turibdiki, bu boradagi muvaffaqiyat — ta‘lim muhitining ochiqligi, metodik yondashuvlarning yangiligi va talabani shunchaki bilim oluvchi emas, balki yangi g‘oya yaratuvchi subyekt sifatida ko‘rishda mujassam. O‘zbekiston oliy ta‘limida ham ushbu tajribalardan foydalanish orqali innovatsion tafakkurga ega, ijtimoiy mas‘uliyatli, kreativ yoshlarni tarbiyalash mumkin.

Adabiyotlar tahlili (sharhi):

Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, zamonaviy ta‘lim jarayonida dolzarb masala bo‘lib, bu boradagi ilmiy-nazariy qarashlar bir qancha xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Mazkur bobda ushbu masalaga oid muhim adabiy manbalar tahlil qilinadi, ularning mavzuga ta‘siri va amaliy ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.

Avvalo, E. Paul va L. Elderning tanqidiy va kreativ fikrlashga oid ishlari kreativlikni shaxsning murakkab intellektual jarayoni sifatida talqin etadi[3; 356]. Ular fikrlashni tahlil qilish, asoslash va yangi g‘oyalar yaratishning metodik asoslarini ishlab chiqqan bo‘lib, bu yondashuv o‘quv jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi. Mualliflar ta‘limda fikrlash standartlarini joriy qilish orqali ijodiy fikrlash madaniyatini shakllantirish zarurligini urg‘ulaydi. Ken Robinson o‘zining “*Out of Our Minds: Learning to Be Creative*”[4; 288] nomli kitobida zamonaviy ta‘lim tizimi ijodiy fikrlashni rivojlantirish o‘rniga uni cheklab qo‘yayotganini tanqidiy yondashuvda ko‘rsatib beradi. Uning fikricha, o‘quvchilar va talabalarni qiziqishlari asosida rag‘batlantirish va ularda yangilikka intilishni tarbiyalash orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish mumkin. Bu g‘oya Finlyandiya va Singapur kabi mamlakatlar ta‘lim siyosatida o‘z aksini topgan.

Yevropa davlatlarida, ayniqsa Finlyandiya tajribasiga oid ilmiy ishlar (Sahlberg)[5; 264] ko‘plab pedagogik adabiyotlarda e‘tirof etilgan. Sahlberg Finlyandiya ta‘limidagi “*o‘quvchi markazlilik*”, “*interfaol metodlar*”, “*guruhli loyihalar*” orqali talabalarni o‘z fikrini ifodalashga, mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish orqali kreativlikni kuchaytirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Mahalliy tadqiqotchilar kontekstida esa S. I. Isroilova[1; 172], O. Jo‘rayev[2; 144] va Sh. Qodirov[6; 52] kabi pedagog olimlar kreativ fikrlashni rivojlantirishda metodik yondashuvlar, milliy mentalitet, va innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirish haqida fikr bildirganlar. Ularning tadqiqotlarida kreativlikni shakllantirishda didaktik vositalarning ahamiyati, mustaqil ta‘limga yo‘naltirish va loyihaviy ishlarga asoslangan o‘qitish usullarining roli alohida ta‘kidlangan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish masalasi ko‘p qirrali bo‘lib, u psixologiya, pedagogika, falsafa va zamonaviy

texnologiyalar sohalarini birlashtirgan holda yondashishni talab qiladi. Xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali kreativlikka yo‘naltirilgan raqobatbardosh avlodni tarbiyalash mumkin.

Muhokama:

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadi — shaxsning ijodiy, tanqidiy va erkin fikrlovchi qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Talabalarni kreativ fikrlashga yo‘naltirish, bir tomondan, ularning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish vositasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kelajakda o‘z kasb sohalarida innovatsion yondashuvlar bilan faoliyat yuritishlarining poydevorini tashkil etadi. Xorijiy tajribalar bu borada juda boy va tahliliy jihatdan samarali yondashuvlarni taqdim etadi.

Muhokamaga sabab bo‘luvchi asosiy jihatlardan biri — kreativ fikrlashni rivojlantirishga oid xorijiy yondashuvlar va ularning O‘zbekiston ta’lim tizimi bilan taqqoslanishi, o‘zaro farqlar va umumiyliklar asosida chuqur anglanishidir. Masalan, AQSh tajribasidagi “Design Thinking” modeli, Finlyandiyada fenomen asosida o‘qitish, Janubiy Koreyadagi “aqlli ta’lim” tizimi talabaning erkin fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi, noodatiy vaziyatlarda ham o‘z yo‘lini topa olishi kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Ushbu tajribalar, avvalo, o‘quv muhitining erkinligi, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi va talabaga ishonch ko‘rsatish madaniyati bilan izohlanadi.

Afsuski, O‘zbekiston ta’lim tizimida hanuzgacha an‘anaviy, reproduktiv yondashuvlar ustunlik qilmoqda. Ko‘plab o‘quv dasturlarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriq va metodikalar yetarlicha emas. Talabalar asosan tayyor bilimni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan, mustaqil fikr yuritish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yangi g‘oya taklif qilish ko‘nikmalari esa sust rivojlanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlarning global mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi.

Xorijiy tajribalarni milliy ta’limga implementatsiya qilish masalasi esa mustaqil tahlil va ehtiyotkorlikni talab qiladi. Zero, har bir mamlakatning ijtimoiy-madaniy sharoiti, mentaliteti, ta’lim falsafasi turlicha. Ammo bu, xorijiy tajribalarni to‘liq rad etish degani emas. Aksincha, xorijdagi ilg‘or metodikalar va didaktik yechimlarni milliy sharoitga moslashtirish orqali yuqori samaraga erishish mumkin. Masalan, Finlyandiya tajribasidagi ko‘pfanli muammo asosida o‘qitish yondashuvi, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham ko‘p tarmoqli kasbiy fanlar kesimida joriy etilishi mumkin. Shuningdek, muhokama jarayonida o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi, metodik savodxonligi, interaktiv metodlardan foydalanish ko‘nikmalari ham alohida e’tiborga molik. Xorijda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki talaba bilan birga izlanadigan hamkor, innovator, mentor sifatida faoliyat yuritadi. O‘zbekistonda esa bu tushunchalar endigina shakllanmoqda va ko‘proq amaliy mashg‘ulotlar, trenerlik kurslari orqali kuchaytirilishi kerak.

Yana bir muhim jihat — bu baholash tizimi. Xorijiy davlatlarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari baholash mezonlarining markaziy komponenti hisoblanadi: g‘oya yangiligi, tahliliy yondashuv, mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion yechim taklif etish — bularning

barchasi talabani reytingiga ta'sir qiladi. O'zbekistonda esa ko'pincha baholash standartlari ko'proq test va an'anaviy yozma topshiriqlarga asoslangan bo'lib, kreativ tafakkur salohiyatini to'liq namoyon etishga imkon bermaydi. Shu bois, xorijiy tajribalarni tanqidiy tahlil asosida o'rganish, ularni milliy qadriyatlar va zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish orqali talabalar kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'lim muhitini yaratish zarur. Bu esa pedagogik metodikalarning yangilanishi, o'qituvchilarning doimiy malaka oshirishi va talabani faollikka chorlovchi o'quv jarayonini tashkil etishni taqozo etadi.

Xulosa.

Zamonaviy ta'lim taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri bu — talabalarni kreativ fikrlashga yo'naltirishdir. Chunki kreativ fikrlash — bu shunchaki bilimlarni takrorlash emas, balki mavjud bilimlar asosida yangi g'oyalarni ilgari surish, noodatiy vaziyatlarga innovatsion yechimlar topish va o'z fikrini erkin ifoda etishdir. Mazkur maqolada o'rganilgan xorijiy tajribalar shuni ko'rsatdiki, bugungi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi aynan kreativ fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ularning yondashuvlarida talaba bilim egallovchi emas, balki bilim yaratuvchi subyekt sifatida qaraladi. AQSh, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur va Yaponiyada amalda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar, o'qitish modellari va baholash tizimlari talabalarni mustaqil izlanishga, yangi g'oya ishlab chiqishga va tanqidiy tahlil qilishga undaydi. Bu tajribalarda o'qituvchi — motivator, yo'lboshchi, talaba esa faol ishtirokchi va muammo yechimini taklif qiluvchi ijodkor sifatida shakllanadi. Aynan mana shu yondashuvlar talabalarda kreativ fikrlash madaniyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham ushbu tajribalardan oqilona foydalanish, ularni milliy ta'lim modeliga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. An'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmasdan, o'qituvchining metodik salohiyatini kuchaytirish, talabani shaxsiy fikrini qadrlash va ularni innovatsion fikrlashga yo'naltirish orqali kreativlikni shakllantirish mumkin. Buning uchun ta'lim jarayonida muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, interaktiv usullar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi bizga bir narsani aniq ko'rsatadi: kreativ fikrlovchi shaxs — bu kelajak jamiyatining asosiy drayveridir. Uni shakllantirish esa pedagogik yondashuvlarning zamonaviylashuvi, ochiq fikrlashga asoslangan o'quv muhiti va talabani markazga qo'ygan ta'lim falsafasi orqali mumkin. O'zbekistonda ushbu yo'nalishda boshlangan islohotlar izchil davom ettirilsa, kreativ va innovatsion fikrlovchi avlodni tarbiyalashga keng zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Isroilova S. I. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. — Toshkent: O'qituvchi, 2020. — 172 b.
2. Jo'rayev O. Pedagogik texnologiyalar va kreativ yondashuvlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. — 144 b.

3. Пол и Э., Элдер Л. Критическое мышление: инструменты для принятия обоснованных решений. — М.: Альпина Паблишер, 2006. — 356 с.
4. Робинсон К. Выйти за рамки. Учиться быть креативным. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2011. — 288 с.
5. Sahlberg P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? — New York: Teachers College Press, 2015. — 264 p.
6. Qodirov Sh. Oliy ta’limda kreativ fikrlashni shakllantirishning metodik asoslari. // “Ta’lim innovatsiyalari” ilmiy-amaliy jurnali. — 2022. — №3. — B. 45–52.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

TIBBIY TA'LIMDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA 3D VA VIRTUAL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.

Qaxorova Tursinoy Ulug'bek qizi

tursunoysolihabonu@gmail.com

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

“O'zbek va xorijiy tillar kafedrası”

tibbiyotda xorijiy til fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda tibbiy ta'lim jarayonida 3D va virtual texnologiyalarni integratsiya qilish va ularni ingliz tili o'qitishda qo'llash bo'yicha metodikalar tahlil qilinadi. Amaldagi usullarni o'rganish va innovatsion yondashuvlarni taklif qilish orqali ushbu texnologiyalarning tibbiyot talabalari uchun samaradorligi va o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganilgan. Natijalar, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'shishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy texnologiyalar, metodlar, ta'lim, tibbiyot, chet tili, virtual va 3D o'quv vositalari.

IMPROVEMENT OF METHODOLOGIES FOR THE USE OF 3D AND VIRTUAL TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF FOREIGN LANGUAGES IN MEDICAL EDUCATION.

Annotation: this article analyzes methodologies for integrating 3D and virtual technologies in the medical education process and their application in English teaching. By studying the methods used and proposing innovative approaches, the impact of these technologies on performance and appropriation indicators for medical students has been studied. The results show the importance of incorporating modern technology into the educational process.

Keywords: modern technologies, methods, education, medicine, foreign language, virtual and 3D learning tools.

Kirish. Zamonaviy tibbiy ta'limda xorijiy tillarni o'qitish jarayonini yanada samarali qilish dolzarb masalalardan biridir. Tibbiyot sohasi doimo global hamkorlikni talab qilgani bois, tibbiy mutaxassislarning xorijiy tillarni mukammal bilishi zarur. Bugungi kunda 3D texnologiyalar, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) hamda sun'iy intellekt asosidagi raqamli vositalar xorijiy til o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu

maqolada raqamli texnologiyalar yordamida xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish yo‘nalishlari yoritiladi.

Xorijiy tillarni o‘qitish tibbiy ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Tibbiy bilimlar, terminologiya va professional muloqot ko‘nikmalari o‘qituvchilar va talabalarning xorijiy tillarni bilish darajasiga bog‘liq. Biroq, xorijiy tilni o‘qitish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Mavjud muammolarga an’anaviy usullarning cheklovlari, til o‘rganish jarayonida amaliyot va interaktivlik yetishmovchiligi va tibbiy terminologiyani samarali o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar kiradi. An’anaviy o‘qitish usullari, jumladan, darsliklardan foydalanish, ma’ruzalar va talaffuz mashqlari tibbiy ta’limda xorijiy tillarni o‘qitishda keng qo‘llaniladi. Biroq, bu usullar talabalarni aktiv ishtirok etishdan chetlashtirishi, ko‘nikmalarni rivojlantirishda kamchiliklar yaratishi mumkin. Masalan, talabalar ko‘p hollarda passiv tinglovchilar bo‘lib qoladilar, bu esa ularda tilni amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. An’anaviy usullar ko‘pincha mustahkamlovchi yo‘nalishga ega bo‘lib, natijada talabalar tibbiy terminologiyani yaxshi bilishlariga qaramay, ularni amaliyotda samarali qo‘llash qiyin kechadi.

Til o‘rganish jarayonida amaliyot va interaktivlik yetishmovchiligi: Tibbiy ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida interaktiv va amaliy o‘qitish usullarining qo‘llanilishi muhimdir. Biroq, ko‘plab o‘quv muassasalarida bunday metodlar keng tarqatilgan emas. Interaktiv o‘qitish, rol o‘ynash, guruhli muhokamalar va simulyatsiya mashg‘ulotlari talabalar uchun kompromissli muhit yaratadi va ularning o‘zaro muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Amaliyot orqali o‘rganish jarayoni, talabalarga tibbiy terminologiya va so‘z boyligini yanada samarali o‘zlashtirish imkoniyatini taqdim etadi. Ular olingan bilimlarni real hayotda qo‘llashga imkon beradi, bu esa o‘rganilgan bilimlarning mustahkamlanishiga olib keladi.

Tibbiy terminologiyani samarali o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar: Tibbiy terminologiya o‘ziga xos va juda murakkab bo‘lishi sababli, uni o‘rganish jarayoni juda murakkab kechishi mumkin. Talabalar ko‘pincha tibbiy atamalarni yodlashda qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki ular bir-biri bilan bog‘liq bo‘lishi, sinonimlar, antonimlar va kontekstdan kelib chiqadigan turli ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Buning natijasida, talabalar nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirishda muammolarga duch kelishlari mumkin.

An’anaviy o‘qitish usullari, masalan, ma’ruzalar, darsliklardan foydalanish va qog‘ozga asoslangan mashqlar, talabalarda bilish va qabul qilish jarayonini soddalashtirishda samarali bo‘lishiga qaramay, bir qator cheklovlarga ega. Bu usullar talabalarning kreativ fikrlashiga, muammoni hal qilish qobiliyatiga va real vaziyatlarda muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon bermaydi. An’anaviy usullar ko‘pincha passiv o‘rganishga olib keladi, bu esa talabalarni qisqa muddat ichida o‘rganadigan bilimlar bilan cheklaydi. Shu sababli tibbiy sohada xorijiy til o‘rganish jarayoniga faollik qo‘shuvchi zamonaviy metodlarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Til o‘rganish jarayonida amaliyot va interaktivlikning yetishmovchiligi ta’lim samaradorligini pasaytiradi. Talabalar ko‘pincha nazariy bilimlarni o‘zlashtirishda muvaffaqiyatga erishishlari mumkin, lekin amaliyotda ushbu bilimlarni qo‘llash bo‘yicha qiyinchiliklarga duch keladilar. Interaktiv o‘qitish usullari talabalarni faollashtirishga va tibbiyot jarayonlariga interaktiv ravishda kirishga imkon beradi. Guruhli muhokamalar, simulyatsiyalar va rol o‘ynash kabi metodlar talabalarga real hayotdagi vaziyatlarda xorijiy tilni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Shunday qilib, amaliyot va interaktivlikning yetishmovchiligi tibbiy ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini to‘liq samarali amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Tibbiy terminologiyani samarali o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar: Tibbiy terminologiyaning samarali o‘zlashtirilishi talabalar uchun muhim vazifadir. Ushbu atamalar ko‘pincha murakkab va bir biriga bog‘liq bo‘lishi sababli, talabalar tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Tibbiy terminlarni yodlash jarayoni, ko‘plab sinonimlar, antonimlar va kontekstlarga bog‘liq bo‘lgan holatlar bilan bog‘liq noaniqliklar keltirib chiqaradi. Bu masala, shuningdek, talabalar yod olish jarayonida motivatsiyani yo‘qotishlari va o‘quv materiallariga nisbatan qiziqishlarining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Tibbiy terminologiyaning samarali o‘zlashtirilishi uchun interaktiv ta’lim va amaliy natijalar muhimdir. Bunda 3D va virtual texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirishda virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar orqali til o‘rgatish samarali natija beradi. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar talabalarga amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yangicha imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar tibbiy atamalarning amaliy qo‘llanilishini o‘rganishlari va real hayotiy vaziyatlardagi muloqotda ishtirok etishlari mumkin. Masalan, virtual simulyatsiyalar orqali talabalar xavfli vaziyatlarda qanday qarorlar qabul qilishlari va tibbiy ma’lumotlarni qanday tarzda etkazishlari kerakligini o‘rganishlari mumkin. Bu jarayon, talabalarni faollashtiradi va ularga amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari tibbiy terminlarni vizuallashtirish jarayonini osonlashtiradi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar murakkab tibbiy atamalarni osonroq anglab olishlari uchun ularni vizual va interaktiv shaklda ko‘rish mumkin. Misol uchun, tibbiy jarayonlar va anatomik tuzilmalar 3D formatda namoyish etilishi orqali talabalar ularni o‘rganish va tushunishda yanada ko‘proq yordam oladilar. Shu bilan birga, VR va AR texnologiyalari orqali talabalar yuqori darajadagi ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3D modellar orqali tibbiy terminlarni o‘rganish va interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish: 3D modellar yordamida talabalar tibbiy terminlarni o‘rganishda chuqurroq tushunishga erishishlari mumkin. 3D modellar muayyan atamalarni yanada aniqroq namoyish etishi, ularni ikki o‘lchovli shakldan ko‘proq oson seziladigan va tushuniladigan formatga aylantirishi mumkin. Bu texnologiyalar yordamida o‘quv mashg‘ulotlari yanada interaktiv bo‘lib, talabalar bir vaqtning o‘zida ko‘rsatuvchilar va baholovchilar sifatida ishtirok etadilar. 3D modellar

yordamida o'tkaziladigan mashg'ulotlar talabalar o'rtasida mushohara va munozara, shuningdek, tez-tez amaliy tajribalarni o'tkazish orqali tibbiy terminlarni samarali o'zlashtirish imkoniyatlarini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy ta'limda xorijiy tillarni o'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun an'anaviy usullar o'rniga zamonaviy interaktiv va virtual texnologiyalarni qo'llash muhimdir. 3D modellar va virtual simulyatsiyalar orqali tibbiy terminlarning o'zlashtirilishiga yordam berish, shuningdek, interaktiv o'qitish metodlarini rivojlantirish talabalar uchun amaliy presslash imkoniyatini yaratadi. Ushbu yondashuvlar tibbiy ta'lim jarayonining samarasini oshirish va xorijiy tilni muvaffaqiyatli o'rganishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Brown, J. S., & Duguid, P. (2000). *The Social Life of Information*. Harvard Business School Press.
2. Warschauer, M. (2000). "The Changing Global Economy and the Future of English Teaching." *TESOL Quarterly*, 34(3), 511-535.
3. Gaba, D. M. (2004). "The future vision of simulation in healthcare." *Quality and Safety in Health Care*, 13(Suppl 1), i2-i10.
4. Prensky, M. (2001). *Digital Game-Based Learning*. McGraw-Hill.
5. Selwyn, N. (2011). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. Bloomsbury Publishing.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

ФОРМА ОРГАНИЗАЦИИ И ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ПЛАВАНИЮ

Алишер Базарбаевич Ашуралиев

Старший преподаватель кафедры социально-гуманитарные науки, педагогика и психология, Андижанский государственный институт иностранного языка, Узбекистан

email: elyor75@mail.ru

АННОТАЦИЯ: В статье рассматриваются форма организации и проведения учебных занятий по плаванию и организация обучения для тех, кто не умеющих плавать и создание условий для безопасности проведения занятий на воде и разные упражнения в воде и постепенное овладение техникой спортивного и прикладного плавания.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: бассейн, плавание, водоём, санэпидстанция, инструктор по плаванию, дыхание, кровообращение

SUVDA SUZISH BO'YICHA O'QUV MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH SHAKLLARI

ANNOTATSIYA: Maqolada suzish bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish shakli va suzishni bilmaydiganlar uchun mashg'ulotlarni tashkil etish va suvda mashg'ulotlar va suvda turli mashqlarni o'tkazish va sport va amaliy suzish texnikasini bosqichma-bosqich o'zlashtirish uchun sharoitlar yaratish ko'rib chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR: basseyn, suzish, suv ombori, sanitariya-epidemiologiya stantsiyasi, suzish bo'yicha instruktor, nafas olish, qon aylanishi

FORMS OF ORGANIZATION AND CONDUCT OF SWIMMING TRAINING SESSIONS

ABSTRACT: The article discusses the form of organizing and conducting training sessions in swimming and the organization of training for those who cannot swim and the creation of conditions for the safety of training on the water and various exercises in the water and the gradual mastery of the technique of sports and applied swimming.

KEYWORDS: pool, swimming, reservoir, sanitary and epidemiological station, swimming instructor, breathing, blood circulation

ВВЕДЕНИЕ. В настоящее время существуют различные формы обучения и организации уроков плавания. Процесс организации и проведения занятий по плаванию связан с определенными мероприятиями: проверка и подготовка места занятий; обеспечение требований безопасности занимающихся; подготовка обучаемых к занятиям плаванием; подготовка преподавателя к проведению занятий. Проверка и подготовка места для занятий заключается в том, что перед началом занятия преподаватель обязан осмотреть ванну бассейна и проверить наличие оборудования и инвентаря, нужного для занятий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ. Основная форма организации и проведения учебных занятий по плаванию - групповой урок. Он делится на три части: подготовительную, основную и заключительную. Первая часть урока - подготовка и организация занимающихся, объяснение нового учебного материала, упражнения на суше: легкая пробежка в течение 1-2 мин, разогревающие упражнения типа утренней зарядки, подготовительные упражнения, имитирующие движения пловца. Основная часть урока - упражнения в воде и постепенное овладение техникой спортивного и прикладного плавания. Заключительная часть урока предусматривает: снижение физической нагрузки, проведение игр и купания. Помимо учебных занятий основного урока обучение плаванию можно начинать с утренней гимнастики с включением упражнений, имитирующих движения пловца. Обучение плаванию можно проводить индивидуально, с каждым ребенком в отдельности.

Приемы

обучения:

1. Ребенок под наблюдением взрослого опускается с головой под воду, садится на корточки и делает выдох в воду.

2. садится на корточки под водой и, задержав дыхание.

3. ложится на спину, вытягивает руки, слегка разводя ноги.

Для занятий в воде необходимо подготовить два купальных костюма, шапочку, махровое полотенце. Лодки, катера и все малые суда, принадлежащие спортивным лагерям, детским базам отдыха, должны быть зарегистрированы в установленном порядке в городских и районных советах. Общества спасания на водах и ежегодно перед началом сезона представляться на технический осмотр.

Все лодки и другие малые суда должны храниться в местах, специально отведенных для этой цели, и находиться под замком. Лодки и другие малые суда перед отплытием проверяются на исправность и оснащаются спасательными средствами. Приказом по лагерю (базе) должны быть назначены лица, ответственные за хранение, техническое состояние и эксплуатацию судов. Прежде чем допустить детей к прогулке на лодке, следует провести занятие по изучению правил безопасности.

Каждый должен знать, что:

садиться в лодку следует осторожно, ступая посреди не настила;

нельзя пересаживаться в лодке с места на место во время ее движения, садиться на борт лодки, раскачивать лодку, нырять с нее;

Категорически запрещается переходить из одной лодки в другую во время катания. Необходимо объяснить детям, что нарушение этих правил может привести к тому, что лодка опрокинется.

Следует научить детей, как действовать в случае несчастья если лодка перевернулась, главное - не растеряться. Перевернутая лодка хорошо держится на воде и может служить спасательным средством. Оказавшиеся в воде должны сохранять спокойствие и до прибытия помощи держаться за лодку и толкать ее к берегу, опав под плот, баржу или парус опрокинувшейся лодки, ни в коем случае нельзя закрывать глаза. Открыв глаза, следует плыть в том направлении, откуда виден свет. Это значит, что поверхность воды близко. Тот, кто умеет плавать, в первую очередь оказывает помощь не умеющему держаться на воде.

Спасать вплавь следует одного тонущего, затем другого; невозможно одновременно спасать вплавь нескольких человек.

При катании детей необходимо присутствие взрослого в каждой лодке. Он должен уметь управлять судном, хорошо плавать, знать приемы оказания неотложной помощи пострадавшим на воде .

Категорически запрещается:

- а) Наружать лодки и другие малые суда сверх установленных норм ;
- б) пересекать курс идущих судов;
- в) подходить близко к проходящим судам;
- г) кататься вблизи пристаней и причалов;
- д) проводить прогулки детей на лодке, отдаляясь от берега более чем на 100 метров;
- е) катание детей на самодельных лодках , катерах , плотам и т . д
- ж) катание при неблагоприятных метеорологических условиях.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЯ. Несчастные случаи на лодках нередко при нарушениях правил эксплуатации плавсредств: плохом техническом состоянии, слабой подготовке водителей, перегрузке лодки. Гребная лодка во всех случаях должна уступать дорогу моторным и парусным судам. Нельзя выходить на фарватер . Услышав частые и короткие сигналы судов . гребная лодка должна отойти от проходящего транспорта на безопасное расстояние . Во время хода волну следует резать носом лодки . Повороты на высоких волнах делать не следует .

Тонущему, может быть оказана помощь с катера или шлюпки с использованием спасательных средств .

Причины гибели людей на воде условно можно разделить на три группы:

1. ослабление организма, вызванное хроническим заболеванием (эпилепсией, пороком сердца), ухудшением общего состояния после перенесенного заболевания и т.д.

2. Перегрузка организма (бывает даже у хороших пловцов от переохлаждения, чрезмерных мышечных усилий, перегревания, психологической неподготовленности и т.п.)

3. Неожиданная травма (от удара волны, удара головой о твердый или режущий предмет), попадание в водоворот, в илистый грунт, в глубокое место, в сильную струю течения, в заросли водных растений и т. д.

Причиной переохлаждения в воде может быть, в зависимости от обстоятельств: низкая температура воды длительное пребывание в воде и недостаточная тренированность пловца.

При медленном охлаждении вначале - усиливается частота дыхания, учащается работа сердца, увеличивается кровяное давление и скорость кровотока, появляется озноб. Повышается возбудимость нервной системы. Внешний признак переохлаждения -- «гусиная кожа» (сокращение капиллярных мышц). Затем в зависимости от индивидуальных особенностей организма начинается мел становится бледно как дрожь всего тела и зевота, кожа синюшной, а движения - скованными. Пульс в это время прощупывается с трудом и становится реже на ударов, часты позывы на мочеиспускание.

Низкая температура воды вызвать ряд моментальных заболеваний. Холодная вода может при попадании в наружный слуховой проход вызывает раздражение вестибулярного аппарата, которое может проявляться тошнотой, потерей ориентировки, головокружением, бледностью. В таком состоянии даже умеющий плавать постепенно опускается под воду.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Подводя итоги, еще раз хотелось бы отметить, что при обучении плаванию решаются следующие основные задачи:

— укрепление здоровья, закаливание организма человека, привитие стойких гигиенических навыков;

— изучение техники плавания и овладение жизненно необходимым навыком плавания;

— всестороннее физическое развитие и совершенствование таких физических качеств, как сила, гибкость, выносливость, быстрота, ловкость;

— ознакомление с правилами безопасности на воде.

Обучение плаванию является частью физического воспитания детей и направлено на комплексное решение задач физического воспитания.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бальсевич В. Лубышева Л. Физическая культура: молодежь и современность. — 1995

2. Карпман В. Любина Б. Динамика кровообращения у спортсменов. М.: Физкультура и спорт, 1982.

3. Назаренко А. Чинкин А. Сердечно-сосудистые, двигательные и сенсорные реакции спортсменов разных специализаций на вестибулярное раздражение. М.: Физкультура и спорт, 2011.



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING DIFFERENSIAL
YONDASHUV ASOSIDA LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH
IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Azizova Ziroat Bahadirovna

Qo‘qon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning differensial yondashuv asosida liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati, uni rivojlantirishdagi didaktik qarashlar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-olamga ongli munosabat, turli qobiliyatlar, zamonaviy fikrlashni rivojlantirishni shakllantirish uchun maktabgacha ta'limga differensial va integrativ yondashuvlarning zarurati hususida ham fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Tabaqalashtirilgan va individual yondashuv, liderlik qobiliyati, maktabgacha yoshdagi bolalar, indikator, zamonaviy pedagogik adabiyotlar, o‘rganish qobiliyati.

**РАЗВИТИЕ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА
НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО ПОДХОДА КАК СОЦИАЛЬНО-
ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

Абстрактный. В статье рассматривается социально-педагогическая необходимость развития лидерских качеств у детей дошкольного возраста на основе дифференцированного подхода, а также дидактические подходы к их развитию. В статье также представлены мнения о необходимости дифференциального и интегративного подходов в дошкольном образовании для формирования осознанного отношения к окружающей среде, разнообразных способностей, развития современного мышления у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова. Дифференцированный и индивидуальный подход, лидерские качества, дети дошкольного возраста, показатель, современная педагогическая литература, обучаемость.

**DEVELOPMENT OF LEADERSHIP SKILLS OF PRESCHOOL CHILDREN
ON THE BASIS OF A DIFFERENTIAL APPROACH AS A SOCIAL-PEDAGOGICAL
PROBLEM**

Abstract. This article describes the socio-pedagogical necessity of developing leadership skills in preschool children based on a differentiated approach, didactic approaches to its development. The article also presents opinions on the need for differential and integrative approaches to preschool education to form a conscious attitude to the environment, various abilities, and the development of modern thinking in preschool children.

Keywords: Differentiated and individual approach, leadership skills, preschool children, indicator, modern pedagogical literature, learning ability.

Kirish. Maktabgacha ta'lim jarayoniga tabaqalashtirilgan va individual yondashuvlarni qo'llash, shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olish samarasi maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining indikatorlari dinamikasida namoyon bo'lmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida individual shaxsiy va psixofiziologik xususiyatlarning o'zgaruvchanligi ta'lim jarayonining asosiy xususiyati – differensiasiyaga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-olamga ongli munosabat, turli qobiliyatlar, zamonaviy fikrlashni rivojlantirishni shakllantirish uchun maktabgacha ta'limga differensial va integrativ yondashuv zarur.

Ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuv muammosi mahalliy va xorijiy pedagogikada ko'p yillik tarixga ega.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda tabaqalash deganda har bir bola o'z moyilligi, qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan sohalarga ustunlik berish asosida kafolatlangan imkoniyatga ega bo'lgan ta'lim tizimi tushuniladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Differensial ta'lim tushunchasi zamonaviy pedagogik adabiyotlarda keng qo'llaniladi, masalan, "tabaqalashtirilgan ta'lim", "tabaqalashtirilgan yondashuv", "farqlash", "ta'limni individuallashtirish", "shaxsiy yondashuv" kabi.

Pedagogik ensiklopediyaga ko'ra, tabaqalashtirilgan ta'lim bu - o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish bilan tavsiflangan ta'lim.

- tabaqalashtirilgan ta'limning maqsadli yo'nalishlari;
- har bir bolaga o'z qobiliyatlari darajasida yondashish;
- ta'limni turli guruhlarining xususiyatlariga moslashtirish [3].

Differensial ta'lim jarayonida turli xil usullar, texnikalar, o'qitish shakllari va maxsus didaktik materiallar qo'llaniladi, bu esa bolalarni o'z imkoniyatlariga muvofiq rivojlantirishga imkon beradi.

Lotincha "differentia"- "differensial" atamasi butunni qismlarga, shakllarga, bosqichlarga ajratish, ajratish, tabaqalashtirishni anglatadi. Olimlar tomonidan "tabaqalashtirish" tushunchasiga turlicha ta'rif berilgan:

Z.I.Kalmikova "ta'limda differensiasiya - bu bolalarining psixologik xususiyatlarini hisobga olish uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan sinflar va maktablarni yaratish". [1.B.74]

A.E.Bibik, L.Ya.Zoriea, A.I.Uman, K.M.Ushakov, A.A.Kirsanov, L.M.Fridman va boshq. “o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini profillar bo‘yicha ajratish (gumanitar, tabiiy-matematik va boshqalar), ularni liseylarda, gimnaziyalarda, ixtisoslashtirilgan maktablarda va umumiy o‘rta maktablarda fakul'tativ darslarda qo‘llash”; M.Lutfulloyev “o‘quvchilarning qobiliyatlari, moyilliklari, bilimlari, imkoniyatlari va qiziqishlari asosida tashkil etiladigan ta'lim”. [2.B.406] U.Zubaydov “individual xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘qitish, ta'lim oluvchilarda aniqlangan moyillik va ma'lum bir o‘rganish qobiliyatlari asosida guruhlash”. [4.B.203].

Muhokama va natijalar. Monaxov V. “Shaxsning shakllanishi uchun optimal sharoitlarni yaratish jarayoni asosida shaxsiy jihatlari har birini, boshqa tomondan - mintaqalarning o‘ziga xos xususiyatlari, ta'lim tashkilotlarining turi, ijtimoiy va o‘ziga xos madaniy omillar, muhitni hisobga olish”.

I.Osmolovskaya “Ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyili, individual-tipologik xususiyatlar, intellektual faoliyat, tashkil etilgan bolalar guruhlari, didaktik elementlar tizimlar hisobga olinadi”. [5.B.160]

I.D.Butuzov: "tabaqalashtirilgan yondashuvning asosiy ma'nosi shuki, o‘quvchilarning ta'limdagi individual farqlarni bilish va hisobga olish, ularning har biri uchun ishlashning eng oqilona xususiyatini aniqlash".[6.B.70]

Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tabaqalashtirilgan ta'lim, ta'limning tashkiliy, boshqaruv va huquqiy jihatlari majmui hisoblanadi. Shuningdek, tabaqalashtirilgan yondashuv haqida gap ketganda, bu ta'lim oluvchilarga ularning qobiliyatlari darajasini, kasbiy yo‘nalishini, ta'limning barcha bosqichlarida har bir shaxsning maksimal rivojlanishini aniqlash uchun individual yondashuv texnologiyasini anglatadi.

Respublikamizda differensial ta'limning ayrim jihatlari o‘rganilgan: Ta'lim metodlari, differensiallashgan ta'lim - bulajak mutaxassislarning umumkasbiy kompetensiyasini shakllantirish omili sifatida (Sh.Mamarajabov), differensial yondashish, ya'ni ta'lim oluvchilarga ularning bazaviy madaniyati, kobiliyati, ta'lim yunalishini inobatga olgan tarzda munosabatda bulish, differensial ta'limni o‘quv jarayonini o‘quvchilar guruhining yetakchi xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish, bola shaxsiga differensial munosabat va boshqalar.

Differensial ta'lim nafaqat ta'lim oluvchilarga alohida yondashuv tarkibini, shuningdek, mashg‘ulotlarni o‘qitish usullari, ish shakllarini (frontal, guruhli, interfaol, individual), materialni o‘rganish sur'atlarini va boshqalarni ajratib ko‘rsatish bilan tashkil etishni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'limda o‘quv mashg‘ulotlarining asosiy shakli bu mashg‘ulot (an'anaviy va noan'anaviy) hisoblanadi. Differensial yondashuv jarayonida pedagog shaxsning turli xil xususiyatlarini va ularning ta'lim oluvchilarda namoyon bo‘lishini o‘rganadi, tahlil qiladi va tasniflaydi. Ushbu guruhga xos bo‘lgan eng umumiy, tipik xususiyatlarni ajratib ko‘rsatadi.

Differensial ta'limning eng keng tarqalgan usuli bu ta'lim oluvchilar tomonidan turli darajadagi murakkablikdagi vazifalarni bajarishdir. Bundan tashqari, vazifalar mustaqil bajarganlik, ijodkorlik darajalari, o'quv materiallari hajmi, talabalarga yordam berish tabiati bo'yicha farqlanadi. Hozirgi vaqtda tabaqalashtirilgan ta'lim dunyo miqyosida samarali ta'lim vositasi sifatida tan olinmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida differensial ta'lim asosida tarbiyalanuvchilarda liderlik ko'nikmalarini shakllantirish muammosini rivojlanish sohalari bo'yicha ko'rsatkichlari past bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan boshlash maqsadga muvofiq. Tarbiyalanuvchilarning rivojlanish sohalari bo'yicha muvaffaqiyatsizligi deganda bolalarning bir yoki bir nechta mashg'ulot turlari bo'yicha topshiriqlarni bajarishi dinamikasi pastligi tushuniladi, bu monitoring natijalariga ko'ra tashxis qilinadi. Muvaffaqiyatsizlik sabablarini tasniflashda turli xil yondashuvlar mavjud.

Muvaffaqiyatsizlik epizodik (nazorat zaiflashganda) yoki qisman bo'lishi mumkin, asosiy yoki alohida rivojlanish sohalari bo'yicha nisbatan o'rtacha bo'lishi mumkin (bolaning biror mashg'ulot turiga nisbatan qobiliyati pastligi, unga qiziqishning yo'qligi, tarbiyachi bilan ziddiyat va boshqalar) yoki uzoq vaqt davomida ta'limiy faoliyatlarda umumiy va chuqur kechikish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin.

Materialni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni va bilimdagi bo'shliqlarni bartaraf etishga yordam berishdan boshlab, har ikkala holatda muvaffaqiyatsizlikni bartaraf etish individualdir. Umumiy chora-tadbirlar asosida hodisaning sabablarini puxta tashxislash, ularni to'g'ri talqin qilish, sabr-toqat bilan tizimli ishlash samarali natija garovidir. Bunday natijalarga differensial ta'limni amaliyotga tatbiq etish orqali erishish mumkin.

Maktabgacha ta'lim sharoitida tengdoshlariga nisbatan qiynalib o'zlashtiradigan tarbiyalanuvchilar bilan olib boriladigan ishlar ularning kognitiv imkoniyatlarini diagnostika qilish (kuzatish, suhbat, sinov, ta'limiy faoliyat natijalarini o'rganish va boshqa usullar) bilan boshlanishi kerak.

Umuman olganda, bilim va ko'nikmalardagi bo'shliqlarni bartaraf etish individual topshiriqlarni bajarish, qo'shimcha materiallarni tanlash, ta'limiy topshiriqlarini konkretlashtirish, xatolarni oldini olish usullarini ko'rsatish, namunaviy topshiriqlarni birgalikda bajarish, mumkin bo'lgan qiyinchiliklar to'g'risida ogohlantirish orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining o'zlashtirishdagi muammolarini bartaraf etishning muhim yo'nalishi – tarbiyachilarning ta'limiy faoliyatga psixologik va pedagogik tayyorgarligi, shuningdek bolaning motivasiyasiga ishonish, materialni o'rganishiga faol munosabatda bo'lishlariga bog'liqdir.

Guruh, individual va boshqa ish shakllaridan foydalangan holda differensial yondashuvning maqsadi har bir bolaning intilishlari va imkoniyatlarini ko'rish qobiliyatidir.

Shuningdek, psixologlar va pedagoglar har bir bola mashg'ulotda maqbul ravishda band bo'lishi uchun ta'limning tabaqalashtirilgan va individual shakllari bilan ishlashning maqbul

kombinasiyasini topishga harakat qilmoqdalar. Shu ma'noda, differensial yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlikni shakllantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi va ushbu muammoning yechimiga qaratilgan amaliy ishlarni tizimli yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'limda differensial ta'limni amalga oshirish tarbiyalanuvchilarning xotirasi, idroki, fikrlashi, nutqi va boshqa jihatlarini rivojlantirishda ularning yosh va individual xususiyatlari - temperament, qiziqish, qobiliyat, moyillik va intellektual rivojlanishini hisobga olish juda muhim.

Differensial yondashuv prinsipini amaliyotda qo'llash nafaqat ta'lim jarayonida qiyinchiliklarga duch kelganlarga, balki aqliy rivojlanishning yuqori darajasiga ega bo'lgan, ya'ni iqtidorli tarbiyalanuvchilarga ham e'tibor berishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'limda differensial yondashuv barcha bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Shu bilan birga, differensial yondashuvni amalga oshirish asnosida tarbiyalanuvchilarning alohida qobiliyati va iqtidorini aniqlash mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining zamonaviy ta'lim makonida ob'ektiv ravishda tabaqalashtirilgan jarayonlar mavjud. Buni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida tashkil etilgan rivojlanish markazlari, maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olinganligida ko'rish mumkin.[7]

Har bir bolaning kuchli va ojiz tomonlari, qiziqishlari va ehtiyojlari haqidagi ma'lumotlarni to'plash orqali individual traektoriyasini aniqlash pedagoglarga ta'limda shaxsga yo'naltirilgan va variativ yondashuvlarni amalga oshirish hamda samarali individuallashtirish imkonini beradi. Bolaga shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv - bolaning yosh xususiyatlarini, uning qobiliyatlarini, qiziqishlarini, ehtiyojlarini, tajribasini, maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgunigacha oiladagi madaniyatni hisobga oladi, bu bolani o'qitishdagi maqsadlarga erishishida yordam beradi.

Ammo maktabgacha ta'lim tashkilotlarida differensial ta'limni ilmiy, uslubiy va tashkiliy pedagogik qo'llab - quvvatlash yetarli darajada joriy etilmagan. Buni tajriba sinov maydonchalari etib belgilangan ... viloyatlarining maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilaridan olingan so'rovnoma natijalarida ko'rish mumkin. Tarbiyachilarning 56% differensial ta'lim iborasining ma'nosini tushunmaganliklarini, 34% tabaqalashtirishda bilim darajasi yoki gender tafovut hisobga olinishini tushunishini, 12% i ta'lim yondashuvlari haqida tushunchaga ega emasliklari haqida fikrlarni bildirganlar.

Zamonaviy maktabgacha ta'limni tarkib toptirishda tarbiyachilarning samarali ta'lim strategiyasini tanlashi va amalga oshirish muhim masala hisoblanadi. Shu asosda, diskursiv tahlillar «Ilk qadam», Davlat o'quv dasturi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o'quv dasturlari, o'quv rejasi, haftalik va kunlik rejalardan oqilona foydalanish pedagogik, metodik,

kommunikativ, ekstren kompetentlilik innovasion yondashuvlar va axborot texnologiyalari qo‘llagan holda takomillashtirish muhimligi bilan ifodalanadi.[8.B.37]

Xulosa. Biz bolaning maktabga tayyorligini quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan ko‘p komponentli ta’lim sifatida ko‘rib chiqamiz: shaxsiy, intellektual, mayda va yirik motorika hamda sensomotor tayyorlik; ta’limiy faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarning rivojlanish darajasi tayyorligi va hokazo. Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlikni shakllantirish masalasi psixologik va pedagogik adabiyotlar mazmunida "maktabga tayyorlik" tushunchasida nazarda tutilmagani aniqlandi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktabga tayyorligini ta’minlaydigan asosiy kompetensiyalari sifatida: umummadaniy, axborot, kommunikativ, ta’limiy, kognitiv va o‘yin, jismoniy kompetensiyalar ta’riflari keltirilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faoliyatiga bo‘lgan ehtiyoj, o‘quv harakatlarining motivlari, o‘qish istagi va qobiliyati undagi bunday muhim shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lgan mustaqillik, tashabbuskorlik, mas’uliyat, yetakchilik va boshqalar sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Калмыкова З.И. Психологические принципы развивающего обучения / З.И. Калмыкова. – М., 2009.

2. Лутфуллоев М. Дидактикаи муосир. - Душанбе: «Маориф», 2001. -406 с.

3. <https://www.maam.ru/detskijsad/igry-na-razvitie-liderskih-kachestv.html?ysclid=lj07w2qxyb861874183>

4. Зубайдов У.З. Теоретико-практические основы дифференцированного обучения в школах Республики Таджикистан. -Душанбе: «Маориф», 1999. -203 с

5. Осмоловская И. Организация дифференцированного обучения в современной общеобразовательной школе. – М.: Институт практической психологии; Воронеж: НПО «МОДЭК», 1998 – 160 с.

6. Бутузов И.Т. Дифференцированный подход к обучению учащихся на современном уроке. - Новгород, 1972. -70 с

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda gi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 802-sonli Qarori.

8. Акмалова М.З. Замоначий формациядаги мактабгача таълим менежерини таркиб топтириш тамойиллари ISSN 2181-1717 (E) бразование и инновационные исследования (2022 год №12

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARI TAYYORLASH TA’LIM DASTURLARINING LINGVODIDAKTIK TAHLILI

Artikova Tanzilla Abduxalilovna
Namangan davlat chet tillari instituti
2-bosqich tayanch doktoranti
tanzila3188@gmail.com
+998770094099

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash ta’lim dasturlarining lingvodidaktik jihatdan tahlili yoritilgan. Globallashuv jarayonida ingliz tiliga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganligi sababli, til o‘rgatish sifati va samaradorligini oshirishda o‘qituvchi tayyorlash dasturlarining mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada lingvodidaktika fanining nazariy asoslariga tayangan holda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til bilimlari, pedagogik ko‘nikmalari va sinfni boshqarish malakalari kabi uch asosiy komponentini tahlil qiladi. Shuningdek, mikro-o‘qitish, reflektiv amaliyot va o‘zaro fikr almashinuvi jarayonlari orqali o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi asoslanadi. Tadqiqotda xalqaro metodik yondashuvlar, xususan, kommunikativ va topshiriqqa asoslangan o‘qitish modellari o‘zbek ta’lim tizimiga integratsiya qilinayotganligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchilar, lingvodidaktika, pedagogik ko‘nikmalar, sinfni boshqarish, til o‘rgatish metodikasi, reflektiv amaliyot, mikro-o‘qitish, kommunikativ yondashuv

Abstract: This article presents a linguodidactic analysis of teacher education programs aimed at preparing future English language teachers within the higher education system. Given the growing global demand for English proficiency, enhancing the quality and effectiveness of English language instruction requires well-structured training programs for prospective teachers. Drawing on the theoretical foundations of linguodidactics, the author examines three essential components of teacher preparation: linguistic knowledge, pedagogical skills, and classroom management. The study emphasizes the importance of integrating microteaching, reflective practices, and peer feedback to foster professional competencies. Furthermore, it discusses how contemporary methodological approaches—such as task-based and communicative language teaching—are being adapted to the Uzbek educational context. In conclusion, the article advocates for continuous professional development, encouraging future educators to critically analyze their teaching practices and respond to learners’ needs through

adaptive strategies. The findings highlight the need for a comprehensive and practice-oriented teacher education model to ensure successful English language acquisition in real-life contexts.

Keywords: pre-service teachers, linguodidactics, pedagogical skills, classroom management, language teaching methodology, reflective practice, microteaching, communicative approach

KIRISH: Bugungi globallashtirish dunyoda chet tillarni bilishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Fan-ta’lim, xalqaro iqtisodiyot va xalqaro munosabatlarda chet tillar, xususan, ingliz tili shaxsiy va professional muvaffaqiyat uchun muhim manbaga aylandi. Shu sababli, ta’lim tizimida malakali va tajribali ingliz tili o‘qituvchilariga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshdi. Bu o‘z navbatida hozirgi kunda eng dolzarb ustuvor vazifalardan biri malakali o‘qituvchilarni tayyorlash va ularni ta’lim jarayonlariga jalb etish kerakligini taqozo etadi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta’minot darajasini oshirishda barcha darajadagi rahbar kadrlar va xodimlarning “hayot davomida ta’lim olish” (Life Long Learning) tamoyili asosida butun faoliyati davomida o‘zlariga zarur bo‘lgan ko‘nikmalarini rivojlantirib borishga qaratilgan malaka oshirish tizimini isloh qilish ta’kidlab o‘tilgan.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqish ortgani sari uni o‘qitishda ham zamonaviy innovatsion yondashuvlar vujudga keldi. Jadallik bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda zamonaviy tilshunoslikning barcha sohalari, xususan, lingvodidaktika sohasi ham yangiliklar bilan boyib bormoqda, o‘rganilish kerak bo‘lgan tarmoqlari kengaymoqda.


Til o‘qitish va uning nazariy asoslarini o‘rganish uchun “Lingvodidaktika” (til ta’limshunosligi) atamasiga, 1969 yilda, N.M. Shanskiy tomonidan asos solingan. Lingvodidaktika til o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini, o‘rganilayotgan materialning didaktik maqsadlari, vazifalari va xarakteriga, bir tillilik, yoki ikki tillilik o‘qitilishiga qarab, muayyan tilni o‘qitish mazmuni, uslub va vositalarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. L.L. Nelyubin lingvodidaktikani “pedagogika va amaliy tilshunoslikdagi chet tillarni o‘qitish mazmuni, usullari va shakllarini asoslovchi bo‘limi” deb ta’riflaydi. Lingvodidaktika sohasidagi yangiliklar bevosita chet til o‘qitish metodikasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Chet tillar o‘qitish metodikasi hozirgi zamon talabiga qarab rivojlanib bormoqda. Bunda til o‘rganuvchilarning psixologiyasi va boshqa tilni qanday o‘zlashtirishiga qarab xorijiy tillar o‘qitilayotgan davlatlarning chet til o‘qitish metodlarini o‘rganib chiqib, yangi o‘zbek kontentiga mos keluvchi usullar ishlab chiqilmoqda va ular amaliyotga tadbiiq etilmoqda.[2]

NATIJALAR

B.Kumaravadivelu (2006) bugungi o‘quvchilar talablari avvalgidan ancha yuqori deb ta’kidlaydi. Hozirgi o‘quvchilar innovatsion yondashuvlar, individual o‘qitish tajribalari va ingliz tilidan real hayotiy vaziyatlarda foydalanishga imkon beradigan amaliy ko‘nikmalarni talab qilmoqdalar. Bunday talablarga albatta puxta tayyorgarlik ko‘rgan va an’anaviy metodika

hamda zamonaviy o‘quvchilar ehtiyojlari o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldira oladigan o‘qituvchi javob bera oladi.[3]

Oksana V. Polyakova XXI asrda o‘qituvchilar ta’limining muhim tarkibiy qismi bilimdir: o‘quv dasturidan bilim – *fan mazmuni haqidagi bilim*; o‘qitish usullari va texnikalari bo‘yicha bilim – *pedagogik mazmun bilimlari*; bolalar va ularning o‘qish jarayoni, ularning ehtiyojlari haqida bilim – *rivojlanish psixologiyasi bilimlari*; ijtimoiy ehtiyojlar va kontekst haqida bilim – *barqaror rivojlanish uchun bilim*, ya’ni barqaror rivojlanish hodisasini tushunish va uni o‘qitish orqali amalga oshirish bilimiga ega bo‘lishdir deb ta’kidlaydi.[4]



1-rasm O‘qituvchilar ta’limining tarkibiy qismlari

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak chet til o‘qituvchilarini tayyorlash ularning professional malakasini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu rivojlanish uchta asosiy yo‘nalishni qamrab oladi: til bilimlari (Linguistic knowledge), pedagogik ko‘nikmalar (Pedagogical skills) va sinfni boshqarish (Classroom management)dir.

P. Medgyes (2017) mukammal darajadagi ingliz tilini bilish (Linguistic knowledge) ushbu soha pedagoglari (English as a Foreign Language Teacher-EFL) uchun asosiy zaruriyatdir. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari ularga ingliz tilining til materiallari: grammatika, lug‘at, talaffuz va muloqot ko‘nikmalarini chuqur o‘zlashtirishni ta’minlashi zarur. Bir necha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tilni mukammal biladigan o‘qituvchilar dars jarayonlarida xorijiy tilda erkin muloqot qila oladi va o‘quvchilarni samarali boshqara oladi[5]


Pedagogik ko‘nikmalar (Pedagogical skills) esa samarali ta’limning asosini tashkil etadi. O‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari bo‘lajak o‘qituvchilarga topshiriqlarga asoslangan til o‘qitish (Task Based Language Teaching) va kommunikativ yondashuv (Communicative Approach) kabi bir qancha o‘qitish usullarini o‘rgatadi. Ushbu dasturlar darslarni rejalashtirish, baholash tizimini yaratish va o‘quvchilarning turli xil o‘rganish uslublariga moslashish muhimligini ham ta’kidlaydi.

Uchinchidan, sinfni boshqarish (Classroom management) o‘qituvchi tayyorlash dasturlarining muhim jihatidir. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlashtirish darajalari turlicha bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash, guruh dinamikasini boshqarish va faol ishtirokni rag‘batlantiruvchi

ijobiy muhit yaratish usullarini o‘rganadilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali sinf boshqaruvi til o‘rganuvchilarning muvaffaqiyati va til o‘zlashtirishiga bo‘lgan motivatsiyasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Ushbu uchta yo‘nalishga e‘tibor qaratish orqali oliy ta‘lim muassasalari bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy til o‘qitishning qiyinchiliklariga javob berishga va o‘z talabalariga yuqori sifatli ta‘lim berishlariga tayyorlay olishi mumkin. Fikrimizcha, chet tilga oid bilimlar hamda pedagogik mazmun bilimlari o‘qituvchining yuqori darajada muvaffaqiyatli bo‘lishini kafolatlamaydi. Shuning uchun, bo‘lajak o‘qituvchilarni doimiy professional rivojlanishga, kasb ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga, shuningdek, ilmiy tadqiqotga undash zaruriyati katta ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarga darslarni tahlil qilish, o‘z ta‘lim berish yondashuv(teaching approach)larini qayta ko‘rib chiqish va o‘qituvchilarning ehtiyojlariga (Learners needs) moslashish o‘rgatiladi. Masalan, jurnal yuritish yoki o‘quv holatlariga oid tadqiqotlar orqali o‘qituvchilar o‘z amaliyotlarini chuqurroq tushunish imkoniga ega bo‘ladilar.



2-rasm. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari tayyorlash dasturlarining mazmuni

Mikro-o‘qitish(microteaching) va ushbu jarayon haqida bildirilgan mentorlar va tengdoshlarning fikr-mulohazalari(feedback) bo‘lajak o‘qituvchilarning reflektiv amaliyoti(reflective practice)ni shakllantiradi. Bu ularga dars berish usullarini yaxshilash va muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun yangi strategiyalarni o‘ylab topishga yordam beradi. Reflektiv amaliyot orqali tayyorlangan o‘qituvchilar kelajakda ta‘lim sifatini oshirishga va chet til o‘rganuvchilarining muvaffaqiyatlariga sezilarli hissa qo‘sha olishadi.

XULOSA

Tadqiqotchilar V. Bikova, R. Gurevich, I. Zaxarova, G. Kedrovich, I. Pavlova, O. Polat, R. Skulskiy, E. Murphy, M. Warschauer va boshqalarning ta‘kidlashicha, oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim shunday tashkil etilishi kerakki, u nafaqat talabalarga ma‘lum til bilimlarini berishi, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishi, balki mustaqil ishlashga, talabaning shaxsini professional, intellektual va axloqiy jihatdan rivojlantirishga yordam berishi, shu tariqa muammoli, rivojlantiruvchi ta‘lim tamoyillariga amal qilishi kerak. Asosiysi, talabalarning to‘rt turdagi nutq faoliyatida: tinglash, gapirish, o‘qish, yozuvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, tipik vaziyatlarda chet tillarida muloqot qilish uchun yetarli darajada nutq ko‘nikmalarini amaliy o‘zlashtirish vazifasidir.

Ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash hozirgi kunda zamonaviy ta‘lim tadqiqotlarida muhim masala hisoblanadi, chunki “bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash ta‘limi(pre-service teacher

education) kelajakda faoliyat yuritadigan ingliz tili o‘qituvchilari(in-service teachers)ning sifatini belgilaydi.” Bunga ko‘ra, mukammal va puxta tayyorlangan ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlari kelajakda yetuk professional ravishda faoliyat yurituvchi kadrlarni yetishtirishga zamin yarata oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” <https://strategy.uz>
2. Raximova, J. (2018.). Lingvodidaktik atamalarning metodologik jihatlari (chet tillari misolida). *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot* , ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari.
3. Kumaravadivelu, B. (2006). “Understanding language teaching: From method to postmethod”. Routledge.
4. Polyakova, O. (2019). XXI asrda o‘qituvchilar ta’limining muhim tarkibiy qismi bilimdir, *Science and Education*.
5. Medgyes, P. (2017). The non-native teacher, *Swan Communication*.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

QORAQALPOQ TELEVIDENIYESINING RIVOJLANISHIDA JURNALISTLARING TUTGAN O'RNI

Utepbergenova Amangul Kengesbayevna

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Qudaybergenova Shaxnoza Reymnazarovna

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali,
"Teatr san'ati" mutaxassisligi magistranti*

Annotasiya. Maqaloda Qoraqalpog'iston televideniesining mustaqillik yillaridagi televideniye sohasining rivojlanish davridagi jurnalist kadrlarning ijodiy ishlari va yatuqlari yangi arxiv materiallari, eska olishlar va boshqa ma'lumotlardan foydalangan holda qisqacha so'z etilgan.

Kalit so'zlar: televidenie, ommaviy axborot, muharrir, rejissyor, ko'rsatuv, operator.

THE ROLE OF JOURNALISTS IN THE DEVELOPMENT OF KARAKALPAK TELEVISION

Annotation. The article briefly describes the creative work and achievements of journalistic personnel during the development of the television industry of Karakalpakstan during the years of independence, using new archival materials, recordings and other information.

Keywords: television, mass media, editor, director, program, operator.

РОЛЬ ЖУРНАЛИСТОВ В РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСКОГО ТЕЛЕВИДЕНИЯ

Аннотация. В статье кратко описывается творческая деятельность и достижения журналистских кадров в период развития телевизионной отрасли Каракалпакстана в годы независимости с использованием новых архивных материалов, записей и другой информации.

Ключевые слова: телевидение, средства массовой информации, редактор, режиссер, программа, оператор.

KIRISH. 2002-yilda ushbu soha uchun yangi bir bosqich boshlanadi. 2022-yil Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat teleradiokompaniyasi raisi lavozimiga Mambet

Sadullaev tayinlanadi. M.Sadullaev bu lavozimga tayinlangan maxsus oliy ta’lim muassasasini tamomlagan birinchi mutaxassis edi. U 1967-yil Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetini tugatib, 1973-1991-yillarda Qoraqalpog‘iston televideniyesi tuzilmasida ishlagan. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat teleradiokompaniyasi direktori o‘rinbosari lavozimida, 2002-yildan boshlab mazkur kompaniya direktori bo‘lib faoliyat olib borgan.

O‘sha yillarda Qoraqalpog‘iston televideniye va radio sohasi oldida jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy islohotlar yangi vazifalar shakllangan edi. Televideniye va radio sohasiga bir qator ijodiy ziyolilar ishga taklif etilgan. Masalan, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Abilqosim Utepbergenovning aytishicha, u 1999-yil ishga taklif qilingan. “Men qirq yil davriy matbuotda ishlaganman, keyin bu soha men uchun ko‘p qiyinchiliklarni keltirib chiqardi, - deb eslaydi A. Utepbergenov. – Bir yil radioda ishlaganman, so‘ng televideniye bo‘lim boshlig‘i etib tayinladi. U davrlarda ijodiy shaxslar bir-biri bilan bahslashib ishlardi. Mening mualliflik dasturlarimdan “Yadnama”, “Odamlar orasida”, “Erli zayıplılar” va boshqa ko‘rsatuvlarni aholi intiqlik bilan kutardi. Shuni ta’kidlash joizki, teleradiokompaniyada o‘zgarishlar 2002-yildan boshlandi. Nafaqat boshqaruv tizimi yangilandi, shuningdek, Nukus telemarkazi yangi uskunalar va zamonaviy texnik jihozlar olib kelindi, keng va katta studiya ishga qo‘shildi”. Tarixchi-olim J.Aytmuratovning ta’kidlashicha, mamlakatimizning rivojlanish istiqbollarini belgilab beruvchi yangi mavzulardagi ko‘rsatuv va eshittirishlar bilan boyitilgan, jumladan, “Máwrit”, “Tariyx hám táǵdirler”, “Báyterek”, “Shańaraq” ko‘rsatuvlari milliy qadriyatlarimiz va milliy urf-odatlarimizni qayta tiklashga xizmat qilgan.[11]

ADABIYOTLAR TAHLILI. 2006-yil teleradiokompaniya tuzilmasi qayta tashkil etilib, bu davrdagi tarkibiy o‘zgarishlar Qoraqalpog‘iston teleradio sohasida yoshi katta, tajribali xodimlar va yosh mutaxassislar, jurnalistlar simbiozi shakllangan. Masalan, Qoraqalpog‘iston televideniyesidagi faoliyatini 1987-yilda Nukus teleradiomarkazi direktori sifatida boshlagan Azat Xalbaev 1991-2000-yillarda Qoraqalpog‘iston Davlat teleradiokompaniyasi direktorining birinchi o‘rinbosari, 2002-yil Qoraqalpog‘iston Davlat teleradiokompaniyasi direktorining televideniye bo‘yicha o‘rinbosari lavozimlarida ishlagan. U bilan birga Qoraqalpog‘iston Davlat teleradiokompaniyasi direktorining radioeshittirish bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga uzoq yillar Qoraqalpog‘istonning turli bosma nashrlarida ishlagan taniqli jurnalist Kuyash Yusupov tayinlangan. 2004-2009-yillarda Qoraqalpog‘iston davlat teleradiokompaniyasi direktori o‘rinbosari lavozimida jurnalist, olim Dauletbay Bekbauliev ham ishlagan. U ayni paytda Qoraqalpoq davlat universiteti jurnalistika kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat yuritib, jurnalist kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga salmoqli hissa qo‘shmoqda.

Shu bilan birga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat teleradiokompaniyasi tarkibida yosh bo‘lsa-da tajribali tele va radiojurnalistlardan R.Jumabaeva, N.Begimova, K.Tleumuratov, M.Jumanazarova, M.Allamuratov, U.Paluaniyazova yelkama-yelka mehnat qilgan.

Rejissyorlardan Y.Yesemuratov, N.Reymov, K.Dosjanov, suxandonlardan A.Abdnayimov, K.Jumamuratova, radioeshittirish bo‘limi muhandis-texnik xodimlari Q.G‘aniev, K.Tajekenovlar faoliyat olib borgan.[12]

NATIJA VA MUHOKAMA. Davr talabi ommaviy axborot vositalari oldiga yangi vazifalarni belgilab berdi. 2007-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat teleradiokompaniyasi direktori lavozimiga Joldasbay Naurizbaev tayinlangan. U Qoraqalpog‘iston televideniyesi va radiosi sohasidagi 1990-yillarda shakllangan yangi avlod vakili edi. U Qoraqalpoq davlat universiteti Jurnalistika fakultetining ilk bitiruvchilaridan biri bo‘lib, ushbu ta‘lim dargohini 1989-yilda tamomlagan. 1989-2007-yillarda radioeshittirishning “Xabar” axborot-tahliliy dasturlari tahririyati va ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy teledasturlar bosh tahririyatida turli lavozimlarda ishlagan.

J.Naurizbaev bilan birga Qoraqalpog‘iston televideniyesi va radiosi sohasiga kirib kelgan yangi avlod vakillaridan Baxitbek Yelmanov (2012), Minajatdin Qutlimuratov (2013-2014), Kallibek Nagmetov (2015) boshqaruv tizimida ishlab, ushbu sohadagi mavjud kamchiliklar va muammolarni yechishga harakat qildi. Masalan, Kallibek Nagmetov 1989-yil Qoraqalpoq davlat universitetining rus filologiyasi fakultetini tamomlagan. So‘ngra Qoraqalpog‘iston televideniyesida mehnat faoliyatini boshlagan, “O‘zbekiston” teleradiokanalining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha muxbiri bo‘lgan. 2015-yil Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat teleradiokompaniyasi direktori sifatida faoliyat olib borib, davlat boshqaruv tizimi, tele va radioauditoriya talablari va istaklaridan kelib chiqib “Aktual intervyu”, “Saylaw – demokratiya kuzgusi” kabi qator ko‘rsatuvlar muallifi hamdir. “Xabar”, “Assalawma aleykum, Qaraqalpaqstan!” ko‘rsatuvlari uchun ham reportajlar tayyorlagan. Baxitbek Yelmanov boshqargan davrda Qoraqalpog‘iston televideniyesi va radiosida yangi ko‘rsatuvlar va eshittirishlar efirga uzatilgan. Shuni ta’kidlash joizki, B.Yelmanov Qoraqalpog‘iston televideniye va radio sohasida 2005-2010-yillarda shakllangan yangi formatdagi nodavlat teleradio tizimiga asos solganlardan biri. Masalan, u “Nukus-FM” radiosi (2008-2012, 2015-2018), “Jaslar TV” telekanali asoschilaridan biri va direktori bo‘lgan.

Shuningdek, sohaning o‘rta bo‘g‘in tajribali mutaxassislaridan Paraxat Paluaniyazovni alohida ta’kidlash mumkin. 1996-2013-yillarda Qoraqalpog‘iston davlat teleradioeshittirish kompaniyasi tuzilmasida turli mas’ul lavozimlarda, 2012-2013-yillarda esa mazkur tuzilma direktori o‘rinbosari lavozimida ishlagan. 2013-yildan radioda musiqa va ko‘ngilochar dasturlar bosh tahririyati bosh muharriri, Qoraqalpog‘iston radiosi “Xabar” axborot-tahliliy dasturi bosh tahririyati bosh muharriri lavozimlarida ishlab kelmoqda. Qo‘ng‘iratbay Palimov televideniye va radiodagi faoliyatini 1996-yildan Qoraqalpog‘iston radiosida muharrir sifatida boshlagan. Uzoq yillar radioda tahririyat muharriri o‘rinbosari va muharriri, 2014-2016-yillarda direktor o‘rinbosari, 2016-yildan Qoraqalpog‘iston Davlat teleradiokompaniyasi direktor o‘rinbosari lavozimlarida ishlab kelgan.

2000-yillar boshlarida mazkur sohaga kirib kelgan avlod vakillaridan biri Nazira Jaqsimuratovadir. U 2001-yil Qoraqalpoq davlat universitetini tugatib, uzoq yillar Qoraqalpoq

televideniyesi tuzilmasida – dastlab muharrir, so‘ngra “Xabar” axborot-tahliliy dasturlari bosh tahririyati bo‘lim boshlig‘i, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat teleradiokompaniyasi direktor o‘rinbosari, direktor v.v.b. bo‘lib ishlagan. Uning rahbarlik yillarida Qoraqalpog‘iston televideniyesi va radiosida bir qator ijobiy o‘zgarishlar va janrlar rang-barangligi ta‘minlanganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, Qoraqalpog‘iston televideniyesida birinchi telefilm “Tikensiz kirpitkenler” (ssenariy muallifi Sh.Bashbekov, rejissyor A.Toreev) va “Qalb ko‘zi” seriali (mualliflari Sh.Bashbekov va O.Sapaev) tayyorlanib, efirga uzatilgan.[13]

XULOSA. Qoraqalpog‘iston televideniye va radio sohasi o‘ziga xos tarixiga ega bo‘lib, mustaqillik davrida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ko‘p millatli aholisi manfaatlarini hisobga olgan holda axborot-gumanitar, o‘quv, madaniy-ma‘rifiy dasturlar tayyorlash, jahon madaniyatining noyob durdonalari, san‘at, musiqa, turizm, kino sohalaridagi zamonaviy yutuqlarni, shuningdek, respublikamizning ko‘p millatli aholisi manfaatlarini inobatga olgan holda ommalashtirish ishida bir qancha yutuqlarga erishdi. Shuni e‘tiborga olgan holda aytish lozimki, ushbu sohada faoliyat olib borgan bir qancha ijodiy xodimlar davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. Jumladan, 1992-yilda Qoraqalpog‘iston davlat teleradiokompaniyasi agrar-iqtisodiyot bo‘limi boshlig‘i T.Madreyimov va fotomuxbir R.Saidovlarga “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist” faxriy unvoni berildi. Ta‘kidlash joizki, T.Madreyimov 1930-1990-yillarda Qoraqalpog‘istonda televideniye va radioning paydo bo‘lishi hamda rivojlanishi tarixiga bag‘ishlab nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan birinchi jurnalist bo‘ldi. Aynan 1992-yilda radioeshittirishning 60 yilligi munosabati bilan boshqa jurnalistlar ham yuksak mukofot va e‘tirofga sazovor bo‘lishdi. Masalan, “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist” mukofoti R.Dauletmuratov va M.Sa’dullaevga, “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni bilan B.Kazakbaev (Adabiy eshittirishlar bo‘limi mudiri), “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist” – K.Utalieva (radiokompaniya direktori), “Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq artisti” – T.Qoshqarov (Davlat teleradiokompaniyasi miniatyura teatri rahbari), Davlat teleradiokompaniyasi xodimlarining bir guruhi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining faxriy yorliqlari bilan (A.Kaymakov, X.Reimov, J.Alimbetov, R.Jabbarov, B.Dagerov, S.Aymuratov) mukofotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мадреймов Т. История возникновения и развития средств массовой информации Каракалпакстана в 1930-1990 гг.) (радиовещание и телевидение): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Нукус, 1997. – С. 10;
2. Qoraqalpog‘iston davlat teleradiokompaniyasining joriy arxivi. 2013 yil.
3. ҚР МДА, ф.12, оп.3, д.553, л.371...



ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ДЕТСКО-РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ

Мамаджонова Мохимир Рашидовна

Андижанский государственный медицинский институт

«Узбекский язык и литература, языки»

старший преподаватель кафедры

Абстрактный. В статье рассматриваются педагогико-психологические ситуации, проблемы и недостатки в семье. Классический психоанализ, как известно, стал первым научным направлением, поставившим детско-родительские отношения в центр личностного развития ребенка. Эти сложные отношения изначально понимаются как отношения, которые обеспечивают чувство защищенности и безопасности для себя и близких взрослых. Современные исследования этой проблемы перешли от изучения самовосприятия ребенка к изучению его поведения, которое часто описывается в терминах социальной адаптации и компетентности. Общение больше не рассматривается как отношения, а как стратегия поведения с родителями.

Ключевые слова: Родительские отношения, образование, методы воспитания, среда, социальная, асоциальная семья, развитие ребенка.

Авторизоваться. В каждой семье объективно формируется определенная система воспитания, которая не всегда реализуется ее членами. Здесь имеется в виду более или менее целенаправленное применение методов и приемов обучения с учетом понимания целей образования и формулирования его задач, того, что можно и что нельзя допускать по отношению к ребенку. Можно выделить пять наиболее распространенных тактик семейного воспитания и соответствующие им четыре типа семейных отношений, являющихся условием и результатом их возникновения: командование, опека, «невмешательство», сотрудничество и паритет. Диктатура — это систематическое подавление чужой инициативы. Диктат в семье проявляется в системном поведении одних членов семьи (преимущественно взрослых), а также в инициативности и самоуважении других членов семьи. Родительская халатность, авторитарность, пренебрежение интересами и мнением ребенка, угнетение, принуждение, иногда эмоциональное или физическое насилие над ребенком в случае его сопротивления, насмешки, систематическое лишение права голоса в решении связанных с ним проблем — все это является гарантией серьезных неудач в формировании его личности. Опека —

отношения, в которых родители удовлетворяют все потребности ребенка посредством своего труда. Опекa в семье — это система взаимоотношений, при которой родители всеми силами удовлетворяют все потребности ребенка и оберегают его от любых забот, неприятностей и трудностей. По сути, родители препятствуют процессу серьезной подготовки своих детей к реальности за пределами дома. Именно такие дети не способны адаптироваться к социальной жизни. невмешательство - это означает сосуществование двух миров: «взрослых» и «детей».

Он предполагает, что два мира: взрослые и дети, могут сосуществовать, и что ни один, ни другой не должен пересекать столь определенную границу. Зачастую такой тип отношений основан на пассивности родителей как воспитателей, а иногда и на их эмоциональной холодности, равнодушии, неумении и нежелании учиться быть родителями, учиться быть родителями. Сотрудничество - межличностные отношения предоставляют возможность посредничества в решении общих целей и задач совместной деятельности. Семья, где ведущим типом отношений является сотрудничество, где родители общаются со своими детьми на равных, где каждый может обратиться за помощью к другому со своими вопросами или просьбами, приобретает уникальный характер и становится социальной группой. Паритет — это равноправные «союзные» отношения, основанные на взаимных интересах всех членов союза.

Понятие родительских отношений является наиболее общим, обозначающим взаимоотношения и взаимозависимость между родителями и детьми. Отношение родителей включает в себя субъективное оценочное, сознательно избранное представление о ребенке, которое определяет особенности восприятия родителей, способы их общения с ребенком, характер методов воздействия на него. В структуре родительских отношений, как правило, выделяют эмоциональный, когнитивный и поведенческий компоненты. Понятия родительского статуса и родительского отношения используются как синонимы родительского отношения, но различаются по уровню осознанности. Позиция родителя принимается осознанно, связана со сложившимися взглядами и намерениями; настройка не очень точная. Уникальность родительских отношений заключается в неоднозначности и противоречивости позиции родителей по отношению к ребенку. С одной стороны, это безусловная любовь и глубокая привязанность, а с другой стороны, это объективное оценочное отношение, направленное на формирование данных способов социального поведения. Отношения родителей характеризуются уникальностью и внутренней зависимостью, что находит свое отражение в этом заключается в максимальной серьезности и интенсивности акики. Их можно определить как личностные и объективные принципы по отношению к ребенку.

Семья — это особый тип сообщества, играющий основную, долгосрочную и важнейшую роль в формировании личности ребенка. Тревожно настроенные матери часто воспитывают тревожных детей. Амбициозные родители часто притесняют своих

детей до такой степени, что это приводит к формированию у них комплекса неполноценности. Отец, который выходит из себя из-за пустяковых поводов и не может себя контролировать, часто неосознанно формирует подобное поведение у своих детей и т. д. Традиционно основным институтом воспитания детей является семья. То, что ребенок получает в детстве в семье, остается с ним на всю жизнь. Это закладывает основу личности ребенка, и к моменту поступления в школу он уже более чем наполовину сформирован как личность. Именно в семье ребенок приобретает первый жизненный опыт, делает первые наблюдения, учится вести себя в различных ситуациях. Очень важно, чтобы то, чему учат ребенка в семье, подтверждалось конкретными примерами, чтобы он видел, что теория не расходится с практикой у взрослых. Главную роль в выполнении воспитательной функции по отношению к детям играют супруги — отец и мать. В связи с этим говорят о полной и неполной семье, в которой отсутствует один из родителей. Стабильность семейной обстановки является важным фактором эмоционального равновесия и психического здоровья ребенка. Распад семьи, вызванный расставанием или разводом родителей, всегда вызывает глубокий шок и оставляет у ребенка сильную обиду, которую можно только смягчить. Это явление представляет собой важную социальную и образовательную проблему.

На взаимоотношения родителей и детей влияют тип семьи, положение взрослых, стиль общения и роль, которую они отводят ребенку в семье. Его личность формируется под влиянием типа родительских отношений. Исследования А.Н. Леонтьев, А.Р. Лурия, Д.Б. Эльконин и другие. Показано, что психическое развитие ребенка определяется особенностями его эмоциональной связи и сотрудничества с родителями. Динамика семейной жизни и эмоциональное отношение родителей к ребенку имеют важное значение для формирования его личности. На всех этапах развития ребенка в семье на него постоянно оказывают влияние различные факторы семейной среды, в том числе и стиль воспитания в семье. Это может оказывать как исцеляющее, так и дестабилизирующее воздействие на воспитательную функцию семьи, что может привести к различным проблемам для семьи, ее членов и окружающей среды.

Берко утверждает, что стили воспитания влияют на формирование личности, что можно увидеть в уровне зрелости личности и смысловой структуре обыденного сознания. Таким образом, на уровне характеристик установлена значимая связь между воспитательными принципами обоих родителей и личностными структурами, отвечающими за психологическое здоровье, эмоциональное состояние, поведенческую регуляцию и уровень социальной адаптации. Девочки оказались более чувствительны к агрессивному стилю лидерства матери. На уровне черт это характеризуется повышенным уровнем агрессии, что создает предпосылки для импульсивного поведения. На уровне обыденного сознания — когда возникает контрастный образ мира, когда образ матери представляется как «хороший», но отвратительный. Роль отца сыграла решающую роль в принятии девочками ценностей самосознания, женской идентичности и

инструментальных ценностей, которые позволили им достичь своих целей и защитить свои интересы. Наибольшее влияние директивный стиль отца оказывает на продуктивное состояние дочерей (повышенный уровень депрессии, лабильность эмоциональных состояний). Девочки, негативно оценивающие воспитательные принципы обоих родителей, имеют когнитивную сложность, которая обеспечивает невротические защиты личности. Отрицательное отношение отца приводит к формированию у девочек специфических защитных реакций, которые вызывают желание драться.

Прежде чем понять характер влияния родительских отношений на ребенка, рассмотрим их значение в жизни. Семья как особая социальная общность всегда привлекала внимание философов, историков, социологов, педагогов и психологов. Однако на сегодняшний день в современной науке до сих пор нет единого определения понятия «семья», хотя попытки сделать это предпринимались много веков назад великими мыслителями (Аристотель, Гегель, Кант, Платон и др.). В психологическом словаре для родителей находим следующее определение семьи: «Семья — это малая группа, основанная на браке или родстве, члены которой связаны общим бытом, взаимной моральной ответственностью и взаимопомощью. Брачно-семейные отношения определяются гендерными различиями и сексуальными потребностями, а также принимает форму морально-психологических отношений». Как отмечали Л.Д. Столяренко, С.И. Самыгин, «семья есть способ оптимального удовлетворения потребностей каждого ее члена в самосохранении (поколении) и самоуважении (самоуважении). По мнению исследователей, занимающихся проблемами семьи (И.М. Балинский, А.И. Захаров, И.А. Сикорский и др.), семья может быть как положительным, так и отрицательным фактором в воспитании детей.

Вывод: Таким образом, стиль и тип воспитания, характер взаимоотношений родителей с детьми меняются не только во времени, но и в пространстве. Итак, в культурном плане европейская традиция исходит из того, что маленьким детям нужна самая строгая дисциплина, а по мере взросления ребенка дисциплина должна ослабевать, и он должен приобретать больше самостоятельности. При этом японцы предоставляют малышам максимальную свободу, практически не ограничивая их. Дисциплина, весьма строгая, в отличие от европейских традиций, здесь зарождается по мере взросления ребенка, который впоследствии перенимает нормы и поведение взрослых. Стиль и тип воспитания зависят не только от социокультурных правил и норм, представленных в виде воспитательных традиций, но и от педагогической позиции родителей относительно того, как должны строиться детско-родительские отношения в семье, какие качества и черты характера следует формировать у детей. Соответственно, родители задают модель поведения своему ребенку. Многие психологи из разных школ и дисциплин обращали внимание на исключительную важность отношений между родителями и детьми. Отношения с близкими взрослыми играют решающую роль в развитии ребенка.

ЛИТЕРАТУРА

1. Боулби Дж., Эйнсворт М. Теория привязанности.
2. Абдуллаева Д., Яркулов Р., Атабаева Н. Семейная психология. 2015
3. Л. С. Выготский, А. Н. Леонтьев, Д. Б. Эльконин. Деятельностная теория
4. <https://minikar.ru/children/psihologicheskie-narusheniya-pod-vliyaniemdetsko-roditelskih/>
5. Отношения родителей и детей в семье. Юлия Мужичкова. Часть 1. Психология (<https://bit.ly/3qEaaJW>)



**CHET TILINI O‘QITISH BO‘YICHA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING
IJODIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA TEXNOLOGIYALARGA
ASOSLANGAN TIL O‘RGANISHNING O‘RNI VA TA’SIRI**

Raximov Xurshidjon Xursandjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti, amaliy ingliz tili kafedrası o‘qituvchisi

+998996015727 rahimovx@list.ru

ORCID ID: 0009-0001-4642-6416

Annotatsiya Raqamli davrda texnologiyalarning til ta’limiga integratsiyasi pedagogik amaliyotlarni va zarur kompetensiyalarni tubdan o‘zgartiruvchi kuchga aylanmoqda. Texnologiyalarga asoslangan til o‘rganish (TATO’ – *Tehnologiyalarga asoslangan til o‘rganish*) bu — til o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlash va boyitish maqsadida raqamli vositalar va platformalardan foydalanishni anglatadi. Ushbu maqolada TATO’ tushunchasi yoritilib, uning chet tilini o‘qitish bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Ijodiy kompetensiya — bu innovatsion, samarali va kontekstga mos o‘quv strategiyalarini ishlab chiqish va qo‘llash qobiliyatidir. Mazkur maqolada TATO’ ning ta’rifi, turlari, afzalliklari va kamchiliklari hamda ushbu metodologiyaning ijodiy yondashuvga qanday ta’sir qilishi nazariy manbalar asosida yoritiladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, TATO’ ni maqsadli qo‘llash nafaqat til kompetensiyasini oshiradi, balki bo‘lajak o‘qituvchilarda tasavvurga boy, refleksiv va moslashuvchan ta’lim berish qobiliyatini ham shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: Texnologiyalarga asoslangan til o‘rganish, ijodiy kompetensiya, chet tili o‘qituvchilari, raqamli pedagogika, til ta’limi, multimodal vositalar

**THE ROLE AND IMPACT OF TECHNOLOGY-ENHANCED LANGUAGE
LEARNING ON DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE
FOREIGN LANGUAGE TEACHERS**

Abstract In the digital age, the integration of technology into language education has emerged as a transformative force, reshaping pedagogical practices and competencies. Technology-Enhanced Language Learning (TELL) refers to the use of digital tools and platforms to support and enrich language acquisition. This paper explores how TELL contributes to the development of creative competence among pre-service foreign language teachers. Creative competence—defined as the capacity to generate innovative, effective, and contextually relevant teaching strategies—is essential for modern educators. This article defines

TELL, outlines its types, and analyzes its advantages and limitations within the context of teacher education. Drawing from theoretical literature, the paper further identifies key components that support creativity through TELL. The findings suggest that when appropriately implemented, TELL not only improves language proficiency but also fosters imaginative, reflective, and adaptive teaching professionals.

Keywords: Technology-Enhanced Language Learning, Creative Competence, Future Foreign Language Teachers, Digital Pedagogy, Language Education, Multimodal Tools

РОЛЬ И ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИ ОБОГАЩЁННОГО ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ НА РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация В эпоху цифровых технологий интеграция информационных и коммуникационных средств в преподавание иностранных языков стала мощным фактором трансформации педагогических практик и необходимых компетенций. Обучение языку с применением технологий (ОЯПТ — Обучение языку с применением технологий) представляет собой использование цифровых инструментов и платформ с целью поддержки и обогащения процесса овладения языком. В данной статье рассматривается понятие ОЯПТ и его роль в развитии творческой компетентности будущих преподавателей иностранных языков. Творческая компетентность определяется как способность разрабатывать инновационные, эффективные и контекстуально релевантные учебные стратегии. В статье анализируются определение, виды, преимущества и недостатки ОЯПТ, а также его влияние на формирование креативного подхода у будущих педагогов. Результаты теоретического анализа показывают, что целенаправленное применение ОЯПТ способствует развитию как языковых навыков, так и воображения, рефлексии и гибкости в преподавательской деятельности.

Ключевые слова: Технологически обогащённое обучение языку, творческая компетентность, будущие преподаватели иностранных языков, цифровая педагогика, языковое образование, мультимодальные средства

Kirish

XXI asrda ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy chet tili o'qituvchilari nafaqat lingvistik va metodik bilimlarga, balki raqamli savodxonlik va ijodiy kompetensiyaga ham ega bo'lishlari zarur. Bunday sharoitda texnologiyalarga asoslangan til o'rganish (TELL) til ta'limi va o'qituvchi tayyorlash tizimini boyituvchi muhim vosita sifatida maydonga chiqmoqda. TELL — bu multimedia, mobil ilovalar, onlayn platformalar va immersiv texnologiyalar orqali ta'lim jarayonini takomillashtirishni nazarda tutadi. O'quvchilar bilan faol muloqot qilish, moslashuvchanlik va innovatsion fikrlash kabi kompetensiyalarni shakllantirishda ushbu ta'lim turining o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilar uchun

raqamli vositalarni to‘g‘ri tanlash va undan samarali foydalanish zamonaviy ta‘limning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiya

TATO’ tushunchasi turli ilmiy manbalarda til o‘rganish va o‘rgatish jarayonlarini raqamli texnologiyalar orqali takomillashtirish usuli sifatida izohlanadi (Basharina, 2007). Uning nazariy asosi konstruktivizm va sotsiomadaniy yondashuvlarga tayanadi. Vygotsky (1978) va Jonassen (1999) kabi tadqiqotchilarning ishlarida TATO’ — bu o‘quvchini markazga qo‘ygan, hamkorlikka asoslangan va real kommunikativ faoliyatni ta‘minlaydigan pedagogik muhit deb talqin etiladi.

TELL doirasida bir qancha shakllar ajratib ko‘rsatiladi. Kompyuter yordamida til o‘rganish, dastlabki shakllardan biri sifatida interaktiv mashqlar orqali til o‘rganishni taklif etadi. Mobil qurilmalar yordamli til o‘rganish esa smartfon va planshetlar orqali ta‘lim jarayonini istalgan vaqtda amalga oshirish imkonini beradi (Godwin-Jones, 2017). Veb asosidagi ta‘lim - Moodle, Google Classroom kabi platformalar orqali sinfda va undan tashqarida ham samarali o‘rganish imkonini beradi. O‘yin asosida o‘rgatish esa leksika va grammatika kabi unsurlarni qiziqarli tarzda o‘rgatadi (Reinders, 2012). Yangi shakllar sirasiga sun‘iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar va virtual reallik vositalari ham kiradi (Lin & Lan, 2015).

Ijodiy kompetensiya esa — bu o‘qituvchining innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, o‘z ta‘lim strategiyalarini moslashtirish va yangilik kiritish qobiliyatidir (Craft, 2005). TATO’ bunday kompetensiyani multimodal resurslar, hamkorlikka asoslangan loyihalar va raqamli refleksiya vositalari (portfellar, bloglar) orqali shakllantiradi (Richards, 2013; Kessler, 2018).

Metodologik nuqtayi nazardan ushbu maqola konseptual tahlil asosida yozilgan bo‘lib, ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilishga asoslangan. Muallif tomonidan tanlangan ilmiy maqolalar, hisobotlar va kitoblar asosida TATO’ ning tarkibiy qismlari, afzalliklari va kamchiliklari aniqlab chiqildi. Ushbu yondashuv interpretativ paradigmaga mos keladi, ya‘ni statistik o‘lchov emas, balki nazariy anglashga asoslanadi.

Natijalar va Muhokama

Nazariy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, TATO’ bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarda katta imkoniyatlar yaratadi. Avvalo, u pedagogik tajriba va eksperimentlarga keng maydon yaratadi. Raqamli platformalar orqali o‘qituvchilar turli dars metodlarini sinab ko‘rish, xatolarni aniqlash va usullarini takomillashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa yangicha fikrlash va ijodiy muammolarni hal qilishni rag‘batlantiradi (Kessler, 2018). Masalan, virtual reallikda amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar o‘qituvchining madaniyatlararo muloqot va moslashuvchan yondashuvga oid ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, TATO’ multimodal savodxonlikni rivojlantiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar matn, audio, video va interaktiv vositalardan foydalanishga o‘rganadilar. Bu esa ularga o‘quvchilar bilan turli uslubda samarali muloqot qilish imkonini beradi (Kress, 2010).

Uchinchidan, bu o‘qitish metodi reflektiv yondashuvni rivojlantiradi. Bloglar, portfellar, video-dnevniklar orqali o‘qituvchilar o‘z ta’lim tajribalarini tahlil qiladi, muammolarni aniqlaydi va o‘z ustida ishlashga rag‘bat oladi. Bu esa ijodiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Biroq, bu modelga asoslangan yondashuvlarda ba’zi cheklovlar ham mavjud. Raqamli tafovut — bu asosiy muammo bo‘lib, texnologiyalarga teng kirish imkoniyati yo‘qligi o‘qituvchilar va o‘quvchilarning faol ishtirokini cheklashi mumkin (Warschauer, 2004). Shuningdek, texnologiyadan maqsadsiz foydalanish o‘quvchilarda yuzaki ishtirokni keltirib chiqaradi (Sweller, 1994).

Bundan tashqari, raqamli ko‘nikmalar yetishmasligi ham muammo bo‘lib qolmoqda. Ko‘plab o‘qituvchilar raqamli vositalardan foydalanishga yetarlicha tayyor emaslar (Hubbard, 2009). Shu bois, metodik va texnologik tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan maxsus kurslar va malaka oshirish dasturlari zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, TATO’ to‘g‘ri va kontekstga mos qo‘llanilsa, ijodiy kompetensiyani shakllantirish uchun samarali muhit yaratadi. O‘quvchini markazga qo‘yuvchi, hamkorlikka asoslangan, interaktiv faoliyatlar bilan boyitilgan TATO’ darslari — bo‘lajak o‘qituvchilar uchun muhim rivojlanish omili hisoblanadi.

Xulosa

Texnologiyalarga asoslangan til o‘rganish chet tilini o‘qitishga oid bilim va malakalarni shakllantirishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada TATO’ ning turlari, tarkibiy qismlari va uning ijodiy kompetensiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritildi. Multimodal vositalar, hamkorlikda ishlash platformalari va reflektiv vositalar orqali bo‘lajak o‘qituvchilar ijodkor, samarali va zamonaviy pedagoglarga aylanishi mumkin. Albatta, bu jarayon kontekstga mos rejalashtirilgan bo‘lishi va tegishli texnologik hamda metodik qo‘llab-quvvatlash bilan birga olib borilishi kerak. Zamonaviy ta’lim realiyalarida ijodiy yondashuvlarni shakllantirish texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Basharina, O. K. (2007). An activity theory perspective on student-reported contradictions in international telecollaboration. *Language Learning & Technology*, 11(2), 82–103.
2. Craft, A. (2005). *Creativity in schools: Tensions and dilemmas*. Routledge.
- Godwin-Jones, R. (2017). Smartphones and language learning. *Language Learning & Technology*, 21(2), 3–17.
3. Hubbard, P. (2009). Computer assisted language learning: Critical concepts in linguistics. Routledge.
- Jonassen, D. H. (1999). *Designing constructivist learning environments*. In C. M. Reigeluth (Ed.), *Instructional-design theories and models* (Vol. II, pp. 215–239).

4. Lawrence Erlbaum Associates.
Kessler, G. (2018). Technology and the future of language teaching. *Foreign Language Annals*, 51(1), 205–218. Kress, G. (2010).
5. *Multimodality: A social semiotic approach to contemporary communication*. Routledge.
Lin, T. J., & Lan, Y. J. (2015).
6. Language learning in virtual reality environments. *Educational Technology & Society*, 18(2), 101–111. Reinders, H. (2012).
7. Digital games in language learning and teaching. Palgrave Macmillan.
Richards, J. C. (2013).
8. *Curriculum approaches in language teaching*. Cambridge University Press.
Sweller, J. (1994).
9. Cognitive load theory, learning difficulty, and instructional design. *Learning and Instruction*, 4(4), 295–312. Vygotsky, L. S. (1978).
10. *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press. Warschauer, M. (2004).
11. Technology and equity: A comparative study. *Educational Policy Analysis Archives*, 12(38), 1–19.



**TEKNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN TIL O‘RGANISHNING BO‘LAJAK
CHET TIL O‘QITUVCHILARINING LINGVISTIK VA KOMMUNIKATIV
KOMPETENTSIYASIGA TA’SIRI VA ROLI**

Raximova Charosxon

Fargona davlat universiteti doktoranti

+998995165727

ORCID ID: 0009-0001-3877-7152

Annotatsiya Texnologiyalarga asoslangan til o‘rganish (TATO‘) zamonaviy ta‘lim tizimining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, bu metodologiya o‘qitish jarayonini innovatsion, interaktiv va samarali tarzda tashkil etishga yordam beradi. Ushbu maqola TATO‘ning chet til o‘qituvchilari tayyorlashdagi ahamiyatini va uning kelajakdagi o‘qituvchilarning lingvistik va kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirishdagi rolini o‘rganadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, TATO‘ texnologiyalarining til o‘rganish jarayoniga qo‘shgan hissi talabalarning tilni o‘rganishdagi qiziqishini oshiradi va ularning lingvistik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shuningdek, TATO‘ o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki u talabalar bilan samarali muloqot qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Kalit so‘zlar Texnologiyalarga asoslangan til o‘rganish, lingvistik kompetentsiya, kommunikativ kompetentsiya, chet til o‘qituvchilari, raqamli pedagogika, ta‘lim texnologiyalari, o‘qitish metodikasi, onlayn o‘qitish

**THE ROLE AND IMPACT OF TECHNOLOGY-ENHANCED LANGUAGE
LEARNING ON LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE COMPETENCE OF
FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS**

Abstract The integration of technology into language education has revolutionized the teaching and learning processes, especially in the training of future foreign language teachers. Technology-Enhanced Language Learning (TELL) involves using digital tools to facilitate language acquisition and teaching. This article explores the role of TELL in enhancing the linguistic and communicative competence of prospective foreign language teachers. The study analyzes theoretical frameworks surrounding TELL, identifies its benefits and challenges, and assesses its impact on the pedagogical skills of language instructors. It concludes that TELL not only strengthens linguistic accuracy, vocabulary acquisition, and grammatical competence but also fosters better communicative abilities, empowering future teachers to create more interactive and effective learning environments. The research underlines the significance of

incorporating TELL into teacher education programs to better prepare instructors for the challenges of modern language classrooms.

Keywords Technology-Enhanced Language Learning, Linguistic Competence, Communicative Competence, Foreign Language Teachers, Digital Pedagogy, Language Education

РОЛЬ И ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ НА ЛИНГВИСТИЧЕСКУЮ И КОММУНИКАТИВНУЮ КОМПЕТЕНЦИЮ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация Интеграция технологий в обучение языкам революционизировала процессы преподавания и обучения, особенно в подготовке будущих преподавателей иностранных языков. Обучение Языкам с Использованием Технологий (ОЯИТ) включает использование цифровых инструментов для облегчения усвоения языка и преподавания. В данной статье рассматривается роль ОЯИТ в улучшении лингвистической и коммуникативной компетенции будущих преподавателей иностранных языков. Исследование анализирует теоретические основы ОЯИТ, определяет его преимущества и проблемы, а также оценивает влияние на педагогические навыки преподавателей языков. Сделан вывод, что ОЯИТ не только укрепляет лингвистическую точность, приобретение словарного запаса и грамматическую компетенцию, но и способствует улучшению коммуникативных навыков, давая будущим преподавателям возможность создавать более интерактивные и эффективные учебные среды. Исследование подчеркивает важность интеграции ОЯИТ в программы подготовки преподавателей для более эффективной подготовки их к вызовам современных языковых классов

Ключевые слова Технологии в обучении языкам, лингвистическая компетенция, коммуникативная компетенция, преподаватели иностранных языков, цифровая педагогика, языковое образование

Kirish

Bugungi zamonaviy davrda ta'lim sohasi global miqyosda katta o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik usullarning keng miqyosda joriy qilinishi ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini interaktiv va samarali tashkil qilishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, chet tillarini o'rganish va o'rgatish jarayonida texnologiyalar orqali erishilayotgan yutuqlar alohida e'tiborga loyiqdir. Texnologiyalarga asoslangan til o'rganish (TATO') – bu til o'rganish jarayonini raqamli vositalar orqali rivojlantirish va individuallashtirishga yo'naltirilgan yondashuvdir.

Mazkur usul orqali o'qituvchilar nafaqat o'quvchilarning til kompetentsiyasini shakllantiradilar, balki ularga mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini baholash, real kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etish imkonini ham taqdim etadilar (Chapelle, 2003). Onlayn darslar, mobil ilovalar, virtual platformalar va interaktiv o'yinlar orqali talabalar turli shakllarda ta'lim

olish imkoniga ega bo‘ladilar, bu esa ularning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, TATO’ texnologiyalari orqali til o‘rgatish jarayoni yanada mazmunli va interaktiv bo‘ladi.

Ushbu texnologiyalar ustozlarga o‘z darslarini shaxsiylashtirish, turli darajadagi o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish va o‘zlashtirish darajasini doimiy tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu maqolada TATO’ning chet tillari o‘qituvchilarini tayyorlashdagi roli, lingvistik va kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishga qo‘shgan hissasi, hamda bu texnologiyalarni qo‘llashning afzallik va cheklovlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya

So‘nggi yillarda TATO’ texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi samaradorligi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, Chapelle (2003) o‘z tadqiqotida texnologiyalar orqali til o‘rgatishning interaktivligini va o‘quvchilarni faol jalb qilish imkoniyatlarini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, raqamli texnologiyalar o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Godwin-Jones (2018) esa mobil texnologiyalar, onlayn kurslar hamda boshqa raqamli resurslarning chet tillarini o‘rgatishda tutgan o‘rnini tahlil qilib, ularning o‘qituvchilarni tayyorlashdagi salohiyatini alohida ko‘rsatib o‘tgan.

Bu maqolada sifatli tadqiqot metodologiyasi asos qilib olingan bo‘lib, adabiyotlar tahlili, amaliy misollar va ekspert fikrlaridan foydalanilgan. Tadqiqotda TATO’ texnologiyalarining til o‘rgatish jarayonidagi ahamiyati, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, interaktiv platformalar, video-konferensiyalar, mobil ilovalar va o‘quv dasturlari kabi samarali vositalarning o‘rganuvchilarda nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy kompetentsiyalarni shakllantirishdagi roli o‘rganiladi.

Natijalar va muhokama

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, TATO’ texnologiyalari bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining lingvistik va kommunikativ malakalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida hisoblanadi. Texnologiyalarning joriy etilishi til o‘rganish jarayonini faqat grammatik va leksik bilimlar bilan cheklab qo‘ymaydi, balki tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini ham beradi. Masalan, onlayn forumlar yoki til almashinuvi platformalari orqali talabalar chet tilida muloqot qilish, fikr almashish va ijtimoiy faoliyatda amaliy ishtirok etishlari mumkin bo‘ladi.

Virtual sinflar, simulyatsiya darslari va multimedia resurslar orqali o‘rganuvchilar real hayotga yaqin bo‘lgan til muhitida o‘qitiladilar. Bu esa, ularning faolligi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada rivojlantiradi. O‘qituvchilar uchun esa, bunday vositalar yordamida ta’limni shaxsiylashtirish, natijalarga asoslangan yondashuvni amalga oshirish va har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos usullarni qo‘llash imkoniyati yaratiladi.

Innovatsion komponentlar – gamifikatsiya va virtual haqiqat elementlari orqali til o‘rganish yanada jonli va qiziqarli hisoblanadi. Masalan, bu usul orqali talabalar interaktiv muhitda real suhbatlarni simulyatsiya qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Lekin, ayrim cheklovlar

ham mavjud: texnologiyalardan foydalanish samaradorligi bevosita raqamli savodxonlik darajasiga bog‘liq. Boshqa tomondan, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi yoki pedagoglarning texnologik tayyorgarligi yetarli bo‘lmaganda, TATO’ ning to‘laqonli joriy etilishi qiyinlashadi (Godwin-Jones, 2018).

Xulosa

Texnologiyalarga asoslangan til o‘rgatish zamonaviy ustoz tayyorlash jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. TATO’ orqali o‘quvchilar hamda o‘qituvchilar interaktiv, maqsadli va reflektiv o‘quv jarayonida ishtirok etish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu yondashuv nafaqat lingvistik bilimlarni, balki kommunikativ hamda lisoniy, madaniy va ijtimoiy kompetentsiyalarni ham samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq, texnologiyalarni o‘quv jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun o‘qituvchilarni doimiy kasbiy rivojlanishga yo‘naltirish, raqamli savodxonlikni oshirish va yetarli texnik ta‘minot bilan ta‘minlash zarur. Shu tariqa, TATO’ yondashuvi orqali zamonaviy til o‘qituvchilari zamon talablari darajasida tayyorlanishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Chappelle, C. A. (2003). *English language learning and technology: Lectures on applied linguistics in the age of information and communication technology*.
2. John Benjamins Publishing. Godwin-Jones, R. (2018). *Emerging technologies: Mobile-assisted language learning*. *Language Learning & Technology*, 22(2), 1-17. Warschauer, M. (2011).
3. *Learning in the cloud: New opportunities for language learning and teaching*. *Language Teaching*, 44(3), 343-358.



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALAR ASOSIDA INKLUZIV TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Raxmatullayeva Nozima Shodiqulovna
O‘zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti
“Matematika” kafedrası assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xususiy hosilali differensial tenglamalarni (XHDT) yechishning uchta asosiy yondashuvi – Fourier usuli, ajratish usuli va sonli differensial yondashuv (Finite Difference Method) – o‘rganilgan. Har bir metodning nazariy asoslari, amaliy qo‘llanish doirasi, afzalliklari va cheklovlari taqqoslab tahlil qilingan. Issiqlik tenglamasi misolida analitik va sonli yondashuvlar natijalari solishtirilib, aniqlik, hisoblash xarajati va moslashuvchanlik mezonlari bo‘yicha baholangan. Tadqiqot natijalari PDE yechimlarida har bir metodning o‘ziga xos ustunliklarini ko‘rsatadi va kelajakda sun‘iy intellekt yondashuvlari bilan integratsiyalash imkoniyatlarini taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: xususiy hosilali differensial tenglamalar, Fourier usuli, ajratish usuli, sonli usullar, differensial sxemalar, FDM, analitik yechim, sonli yechim, hisoblash matematikasi

АНАЛИТИЧЕСКИЕ И ЧИСЛЕННЫЕ МЕТОДЫ РЕШЕНИЯ УРАВНЕНИЙ С ЧАСТНЫМИ ПРОИЗВОДНЫМИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация: В данной статье рассматриваются три основных подхода к решению уравнений с частными производными (УЧП): метод Фурье, метод разделения переменных и численный метод конечных разностей. Анализируются теоретические основы каждого метода, области их применения, преимущества и ограничения. На примере уравнения теплопроводности проводится сравнительный анализ аналитического и численного решений по критериям точности, вычислительных затрат и гибкости. Результаты исследования подчеркивают важность выбора метода в зависимости от условий задачи и указывают на перспективы интеграции с методами искусственного интеллекта.

Ключевые слова: уравнения с частными производными, метод Фурье, метод разделения переменных, численные методы, разностные схемы, МКР, аналитическое решение, численное решение, вычислительная математика

ANALYTICAL AND NUMERICAL METHODS FOR SOLVING PARTIAL DIFFERENTIAL EQUATIONS: A COMPARATIVE ANALYSIS

Abstract: This article explores three main approaches for solving partial differential equations (PDEs): the Fourier method, the separation of variables method, and the Finite Difference Method (FDM). The theoretical foundations, application domains, advantages, and limitations of each method are comparatively analyzed. Using the heat equation as a test case, the analytical and numerical solutions are evaluated based on accuracy, computational cost, and flexibility. The findings highlight the distinctive strengths of each method and suggest the potential for future integration with artificial intelligence-based approaches.

Keywords: partial differential equations, Fourier method, separation of variables, numerical methods, finite difference schemes, FDM, analytical solution, numerical solution, computational mathematics

Kirish

Xususiy hosilali differensial tenglamalar (PDE – Partial Differential Equations) zamonaviy ilm-fan va muhandislik sohalarining ajralmas matematik vositalaridan biri hisoblanadi. Ular turli fizik va texnik hodisalarni – jumladan, issiqlik uzatish, to‘lqinlar tarqalishi, suyuqlik va gazlar oqimi, elektromagnit to‘lqinlarning harakati kabi murakkab jarayonlarni modellashtirishda keng qo‘llaniladi[1]. Masalan, issiqlik tarqalishini tavsiflovchi issiqlik tenglamasi, to‘lqinlar harakatini ifodalovchi to‘lqin tenglamasi yoki potensial maydonlarni aks ettiruvchi Laplas tenglamasi kabi mashhur PDElar real dunyo hodisalarini matematik tilda ifodalash imkonini beradi.

Bu tenglamalarni yechish orqali muayyan jarayonlar to‘g‘risida chuqurroq tushuncha hosil qilish, ularning prognozlarini aniqlash va ularni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish mumkin bo‘ladi[2]. Biroq aksariyat PDElar murakkab tuzilmaga ega bo‘lganligi sababli ularni umumiy holda yechishning yagona yo‘li mavjud emas. Shu bois, matematiklar PDElarni yechish uchun analitik va sonli usullarni ishlab chiqqanlar.

Analitik usullar, xususan Fourier usuli yoki ajratish usuli kabi yondashuvlar, PDElarga aniq formulaviy yechimlar topishga imkon beradi. Ular yechimlarni chuqur matematik tahlil qilish imkonini bersa-da, faqat soddalashtirilgan geometrik shartlar va chegaraviy holatlarda qo‘llanilishi mumkin. Sonli differensial usullar (masalan, Finite Difference Method – FDM) esa ko‘proq hisoblash quvvatiga asoslangan va amaliy vaziyatlarda – murakkab geometriyali yoki real chegaraviy shartli masalalarda qo‘llaniladi[3]. Bu usullar yechimni aniq emas, balki yaqinlashgan holda beradi, ammo ularning qo‘llanish doirasi ancha keng.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishda qo‘llaniladigan uchta asosiy yondashuv: Fourier usuli, ajratish usuli va Finite Difference Method (FDM) ni tahliliy jihatdan solishtirishdan iborat. Har bir usulning nazariy asosi, yechimlar olishdagi algoritmik yondashuvi, afzallik va kamchiliklari hamda qo‘llanilish sohaları tafsilotlari bilan ko‘rib chiqiladi.

Metodlar

Xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishda qo‘llaniladigan usullar orasida Fourier usuli, ajratish usuli va sonli differensial yondashuvlar, xususan Finite Difference Method (FDM) keng tarqalgan[4]. Quyida ushbu usullar har birining nazariy asosi, qo‘llanilish doirasi va amaliy ahamiyati yoritiladi.

1. Fourier usuli

Fourier usuli asosan periodik funktsiyalarni trigonometrik qatorlar yordamida ifodalashga asoslanadi[5]. Bu usul klassik issiqlik tenglamasi kabi chiziqli PDElarni yechishda samarali hisoblanadi. Issiqlik tenglamasi ko‘rinishida:

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \alpha \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$$

Fourier qatori yordamida $u(x,t)$ funksiyasi xxx bo‘yicha kengaytiriladi va hosil bo‘lgan oddiy ODElar tizimi vaqt bo‘yicha yechiladi. Bu usul aniq formulaviy yechim beradi va ayniqsa, chegaralari doimiy va shakli oddiy bo‘lgan holatlar uchun qulay[6].

2. Ajratish usuli (Separation of Variables)

Ajratish usuli PDEning yechimini ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchiga bog‘liq bo‘lgan funktsiyalar ko‘paytmasi sifatida qabul qiladi:

$$u(x, t) = X(x)T(t)$$

Bu yondashuv PDEni ikkita oddiy differensial tenglamaga ajratish imkonini beradi[7]. Masalan, issiqlik tenglamasi uchun bu usulni qo‘llab, vaqt va fazoviy koordinatalarga bog‘liq yechimlar alohida topiladi. Ushbu usul chegaraviy va boshlang‘ich shartlar soddalashtirilgan bo‘lsa, analitik yechim topishda foydalidir. Ajratish faqat chiziqli PDElar uchun to‘liq qo‘llaniladi.

3. Finite Difference Method (FDM)

Sonli differensial usullarning eng sodda ko‘rinishi bo‘lgan FDM, PDElarni to‘liq raqamli shaklga keltirib yechishga imkon beradi. Bu usulda fazoviy va vaqt o‘zgaruvchilari diskret tarmoq (grid) nuqtalari orqali belgilanadi. Derivativlar yaxlitlangan (approximated) holda farqlar orqali ifodalanadi:

$$\frac{\partial u}{\partial x} \approx \frac{u_{i+1} - u_{i-1}}{2\Delta x}, \quad \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} \approx \frac{u_{i+1} - 2u_i + u_{i-1}}{\Delta x^2}$$

Shunday qilib, PDE differensial tenglama emas, balki chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi ko‘rinishida yoziladi. FDM barcha turdagi geometriyalarda, murakkab chegaraviy shartlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, aynan shuning uchun muhandislikda keng ishlatiladi. Uning asosiy kamchiligi – aniqlik tarmoq zichligiga bog‘liqligi va hisoblash xarajati yuqoriligi.

1-jadval. PDE yechish usullarining afzallik va cheklovlari

Usul nomi	Afzalliklari	Cheklovlari
-----------	--------------	-------------

Fourier usuli	Aniq yechim, fizikaviy tahlil qulay	Faqat chiziqli, periodik, soddalashtirilgan holatlar uchun
Ajratish usuli	Yechimlar strukturasi aniq, analitik shaklda ifoda	Har doim ajratib bo‘lmaydi, chegaralar soddalashtirilgan bo‘lishi kerak
Finite Difference Method (FDM)	Har qanday geometriya va shartlarga qo‘llanadi, sonli natijalar beradi	Tarmoq zichligi va vaqt bosqichi sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi

2-jadval. PDE usullarining klassik qo‘llanish doiralari

PDE turi	Fourier usuli	Ajratish usuli	Finite Difference Method
Issiqlik tenglamasi	+	+	+
To‘lqin tenglamasi	+	+	+
Laplas tenglamasi	-	+	+
Burgers tenglamasi	-	-	+
Potensial maydon tenglamalari	-	+	+

Natijalar

Tadqiqot doirasida 1D issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi asosida analitik (Fourier usuli) va sonli (FDM – Finite Difference Method) usullarning yechimlari o‘rganildi va ularning taqqoslov tahlili amalga oshirildi. Quyidagi PDE tahlil uchun tanlandi:

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \alpha \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}, \quad 0 < x < L, \quad t > 0$$

Boshlang‘ich va chegaraviy shartlar:

$$u(x, 0) = f(x), \quad u(0, t) = u(L, t) = 0$$

Fourier usuli natijasi. Fourier usuli yordamida bu tenglamaga aniq yechim sifatida trigonometrik qatorlar hosil qilinadi.

$$u(x, t) = \sin\left(\frac{\pi x}{L}\right) \cdot e^{-\alpha\left(\frac{\pi}{L}\right)^2 t}$$

Ushbu yechim yuqori aniqlik bilan real harorat taqsimotini ifodalaydi, lekin faqatgina chiziqli, oddiy shakldagi chegaralar va aniq boshlang‘ich shartlar mavjud bo‘lgan holatlar uchun amal qiladi.

FDM orqali sonli natija. FDM yondashuvida xxx va ttt o‘qlari bo‘yicha diskret tarmoq quriladi. Ikkinchi tartibli markaziy farq sxemasi va birinchi tartibli vaqt sxemasi (Euler oldinga) ishlatildi. Shartli barqarorlikni ta‘minlash uchun:

$$r = \frac{\alpha \Delta t}{(\Delta x)^2} \leq \frac{1}{2}$$

sharti asosida parametrlar tanlandi. Dasturiy hisoblash orqali har bir vaqt nuqtasida u_i^n qiymatlar massivi topildi va bu orqali qadam-baqadam evolyutsiya tasvirlandi.

Taqqoslov tahlil. Quyidagi jihatlar asosida ikki yondashuv tahlil qilindi:

Aniqlik: Fourier usuli analitik ifoda sifatida maksimal aniqlikni beradi, lekin faqat soddalashtirilgan holatlar uchun. FDM esa aniqlikni tarmoq zichligiga bog‘liq holda yaqinlashgan tarzda taqdim etadi.

Moslashuvchanlik: FDM murakkab chegaraviy va boshlang‘ich shartlar bilan ishlay oladi, Fourier usuli esa faqat ideal hollarda samarali.

Hisoblash xarajati: Fourier yechimlari kompyuterda hisoblashni talab qilmaydi (faqat formulaviy), FDM esa ko‘p sonli iteratsiyalar va resurslar talab qiladi.

Amaliy foydalanish: Real muhandislik masalalari uchun FDM kengroq qo‘llaniladi, Fourier esa nazariy tahlil va verifikatsiya uchun ishlatiladi.

Muhokama

Xususiylar hosilali differensial tenglamalarni yechish usullari – analitik va sonli yondashuvlar – o‘zaro to‘ldiruvchi, lekin turlicha xususiyatlarga ega bo‘lgan yondashuvlar sifatida baholanadi. Tadqiqot davomida o‘rganilgan Fourier usuli, ajratish usuli kabi analitik metodlar nazariy nuqtai nazardan chuqur tahlil va aniqlikni ta‘minlasa-da, ular faqat soddalashtirilgan geometriyaga ega, chiziqli va doimiy koeffitsiyentli tenglamalarga tatbiq etilishi mumkin.

Aksincha, Finite Difference Method (FDM) kabi sonli yondashuvlar esa murakkab shaklli sohalar, o‘zgaruvchan chegaraviy shartlar, noaniq boshlang‘ich shartlar yoki chiziqsiz PDElar uchun amaliy yechimlar taqdim eta oladi. Aynan shuning uchun FDM metodlari sanoat, muhandislik, kompyuter simulyatsiyalari va ilmiy hisoblash sohalarida keng qo‘llaniladi.

Muqoyasa asosida shunday xulosaga kelish mumkinki:

Analitik usullar – aniqlik, tushunarlik va formulaviy yechim uchun foydali;

Sonli usullar – moslashuvchanlik, keng qo‘llanilish sohasi va amaliy samaradorlik nuqtai nazaridan ustun.

Xulosa

Bugungi kunda sonli yechimlarni tezlashtirish va optimallashtirish bo‘yicha yangi izlanishlar yo‘nalishlaridan biri bu – mashinaviy o‘rganish (machine learning) algoritmlarining PDE yechimlariga tatbiqidir. Jumladan, Physics-Informed Neural Networks (PINNs), Deep Ritz Method, yoki Fourier Neural Operators (FNO) kabi modellar PDElarni aniqlik bilan yechish, tarmoq zichligi talabini kamaytirish va vaqt tejamkorligini oshirishda istiqbolli vositalar hisoblanmoqda.

Kelajakda xususiylar hosilali differensial tenglamalarni yechishdagi asosiy tendensiyalar quyidagilar bo‘lishi kutilmoqda:

Kengaytirilgan sonli metodlar (FEM, FVM, spektral metodlar) va ularning gibridlashuvi.

Mashinaviy o‘rganish yordamida yechimlarni real vaqt rejimida olish.

Ko‘p o‘lchovli PDElar uchun resurs tejovchi algoritmlarni ishlab chiqish.

Umuman olganda, analitik va sonli yondashuvlarning kuchli tomonlarini birlashtirish – ya‘ni gibrid yondashuvlar yaratish – PDElarni yechishdagi zamonaviy strategiyaning muhim bosqichi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Rasulov M.X. Differensial tenglamalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 368 b.
2. Norkulov M.S. Matematik fizik tenglamalari. – Toshkent: Fan, 2014. – 280 b.
3. Courant R., Hilbert D. Methods of Mathematical Physics. – New York: Wiley, 1989. – Vol. II.
4. Smith G.D. Numerical Solution of Partial Differential Equations: Finite Difference Methods. – Oxford University Press, 1985. – 337 p.
5. LeVeque R.J. Finite Difference Methods for Ordinary and Partial Differential Equations. – SIAM, 2007. – 352 p.
6. Zienkiewicz O.C., Taylor R.L. The Finite Element Method. – Butterworth-Heinemann, 2000. – 736 p.
7. Samarskii A.A. Vvedenie v teoriyu raznostnykh skhem. – Moskva: Nauka, 1971. – 312 s.



TA'LIMDA VIRTUAL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi

Qo'qon davlat universiteti "Informatika" kafedrası v.b.dotsenti, PhD.

E-mail: xakimovaqdpi@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada kengaytirilgan haqiqat va virtual haqiqat, virtual ta'lim texnologiyalari va ularning hayotimizdagi o'rni va vazifalari haqida ma'lumotlar keltirilgan va asoslangan bo'lib, ta'lim jarayonidan tashqari tibbiyot, ijtimoiy sohada virtual texnologiyalardan foydalanish to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Kengaytirilgan haqiqat(AR), virtual haqiqat(VR), matematik modellashirish, texnologiya, virtual a'loqa, masofaviy texnologiya, virtual ta'lim, virtual auditoriya, virtual universitet, virtual jarayon.

Аннотация: В статье представлена и обоснована информация о дополненной реальности и виртуальной реальности, виртуальных образовательных технологиях и их месте и задачах в нашей жизни, а также дана информация об использовании виртуальных технологий в медицине, социальной сфере в дополнение к образовательному процессу.

Ключевые слова: Дополненная реальность (AR), виртуальная реальность (VR), математическое моделирование, технологии, виртуальные коммуникации, удаленные технологии, виртуальное обучение, виртуальная аудитория, виртуальный университет, виртуальный процесс.

Annotation: The article presents and is based on information about augmented reality and virtual reality, virtual educational technologies and their role and functions in our lives, and provides information on the use of virtual technologies in the field of medicine, social, in addition to the educational process.

Keywords: Augmented reality(AR), virtual reality (VR), mathematical modeling, technology, virtual nobility, distance technology, virtual education, virtual audience, virtual University, virtual process.

Kirish. Bugungi kunda dunyo bo'ylab axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan birgalikda virtual texnologiyalarning ikki turi ham jadal suratlar bilan rivojlanib kelmoqda. Jumladan:

- kengaytirilgan haqiqat (AR)
- virtual haqiqat (VR).

Ular so‘nggi yillarda virtual aloqa tezligini qo‘lga kiritgan va davom etishi prognoz qilinayotgan tushunchalardir. Virtual haqiqat(inglizcha- virtual reality, sun‘iy voqeilik)-inson sezgilari orqali anglashi qiyin bo‘ladigan holatlarni kompyuter texnologiyalari orqali real voqeilikka aylantirilishidir[1]. Masalan, mashina, kompyuter ichki mexanizmlarining harakati, kimyoviy, fizik elementlar tuzilishi, molekulalarning harakati, tuzilishi va h.k .

Virtual haqiqat ko‘pincha yangiliklarda namoyon bo‘ladi, lekin ko‘pchilik bu texnologiyalarni faqat o‘yin sifatida qabul qiladi va uni ko‘ngilochar bog‘lardagi qurilmalar bilan bog‘laydi, bu yerda xohlovchilarga ko‘zoynak taqib, realistik video tomosha qilishni taklif qilishadi, shu bilan birga attraksion xodimi sizni silkitadi. Shu bilan birga, virtual haqiqat imkoniyatlari ancha kengroq ekanini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Virtual texnologiyalar turli sohalarda qo‘llaniladi va bu texnologiyaning imkoniyatlari anchagina keng ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Virtual ta‘lim nafaqat masofaviy, telekommunikatsiya ta‘limi balki, “obyektlar va subyektlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik jarayoni va natijasidir” . Virtual ta‘lim muhiti o‘quv jarayoni qatnashchilarini o‘zaro aloqada bo‘lishini ta‘minlash uchun turli ta‘lim manbalariga kirishga imkon beradigan, ochiq, kompyuterli muhit hisoblanadi[2]. Virtual ta‘lim muhitida virtual ta‘lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Virtual ta‘lim texnologiyalari murakkab tuzilishga ega bo‘lib, ularning tasnifi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- -informatikani o‘qitish va unga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan vositalar (o‘quv materiallarini tayyorlash va taqdim etish vositalari, ta‘lim qatnashchilarining o‘zaro munosabat vositalari
- -chat, elektron pochta, telegram, masofadan turib tarmoqqa kirishni ta‘minlovchi vositalar, masofali ta‘lim platformalari va h.k.)
- -informatika ta‘limi maqsadlariga erishishga mo‘ljallangan , boshqarilish, qaytar aloqa imkoniyatlariga ega elektron ta‘lim resurslari va pedagogik dasturiy vositalar;
- -yechiladigan masalalar to‘plami, ma‘lumotlar bazasi, o‘quv natijalari aks ettiradigan ma‘lumotlar;
- -tashqi kutubxona(kitoblar, dasturlarga), saytlarga havolalar;
- -foydalanuvchilarning tizimlashtirilgan fayllari, masalan, o‘qituvchining ta‘limiy, o‘quvchilarning topshiriqni bajarish natijasida tayyorlangan fayllari va h.k.

Adabiyotlar tahlili: Xutorskoy A.V. “Virtualnoye obrazovaniye i russkiy kosmizm” kitobida Virtual ta‘lim muhiti uch o‘lchovli interfaol axborot ta‘lim muhiti, virtual fazo, multimediali texnologiyalardan foydalangan holda rivojlanmoqda. Virtual auditoriya (sinf, guruh o‘quvchilari) masofali o‘qitish sharoitida o‘quvchilar guruhi o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish dan iborat deya tariflar berigan.[3].

Virtual auditoriya – bir-birlari va o‘qituvchi bilan interfaol ta‘sir qilish imkoniyati mavjud, masofali o‘qitish texnologiyasidan foydalaniladigan va ma‘lumotlar uzatish kanallari bilan birlashtirilgan o‘zaro ajratilgan ishchi joylar to‘plami hisoblanadi. Virtual universitet

(maktab) - axborot - ta'lim muhiti, boshqarish bloklari va virtual ta'lim muassasasini boshqarish yig'indisidir.

Bugungi kunda virtual (elektron, tarmoqli) kutubxona, virtual muzeylar ham mavjud. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan birgalikda virtual texnologiyalarning ikki turi jadal suratlar bilan rivojlanmoqda: kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR). Ular so‘nggi yillarda virtual aloqa tezligini qo‘lga kiritgan va davom etishi prognoz qilinayotgan tushunchalardir. «Virtuallik» atamasi lotincha «virtualis» so‘zidan olingan bo‘lib, «muayyan bir sharoitlarda sodir bo‘ladigan yoki ro‘y berishi mumkin bo‘lgan», yoki mavjud bo‘lmagan, lekin amalga oshish ehtimoli mavjud bo‘lgan jarayon kabi ma’nolarni anglatadi. Ushbu atama inson faoliyatining juda ko‘p sohalarida uchraganligi uchun ham uni ta'lim tizimiga olib kirishga yetarlicha asoslar mavjud.[4].

Bugungi kunda virtual haqiqatga asoslangan ta'lim resurslarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- birinchi daraja — maxsus texnik vositalar (shlem-display, maxsus qo‘lqop va boshqalar) vositasida to‘la virtuallikka erishish;
- ikkinchi daraja — uch o‘lchamli (yoki stereoskopik) monitorlar yoki proyektor va maxsus ko‘zoynak yordamida hajmli tasvir hosil qilish;
- uchinchi daraja — kompyuterning standart monitori yoki proyeksiya vositasi asosida virtual reallikni namoyish qilish.

Virtual ta'lim muhiti uch o‘lchovli interfaol axborot ta'lim muhiti, virtual fazo, multimediali texnologiyalardan foydalangan holda rivojlanmoqda. Virtual auditoriya (sinf, guruh o‘quvchilari) - masofali o‘qitish sharoitida o‘quvchilar guruhi o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish.

Virtual auditoriya – bir-birlari va o‘qituvchi bilan interfaol ta’sir qilish imkoniyati mavjud, masofali o‘qitish texnologiyasidan foydalaniladigan va ma'lumotlar uzatish kanallari bilan birlashtirilgan o‘zaro ajratilgan ishchi joylar to‘plami hisoblanadi[5].

Virtual universitet (maktab) - axborot - ta'lim muhiti, boshqarish bloklari va virtual ta'lim muassasasini boshqarish yig'indisi. Bugungi kunda virtual (elektron, tarmoqli) kutubxona, virtual muzeylar ham mavjud.

Muhokama: Modellashtiruvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratish muammosi funksional nazariyalarni qo‘llash va yanada takomillashtirish bilan bog‘liq quyidagi yo‘nalishlarga ajratiladi:

1) Virtual reallikni loyihalash falsafasi. Modellashtirish asosida beriladigan axborotlarni qabul qilish va uning reallik bilan mosligiga bilim oluvchini ishontira olish muammolari.

2) Matematik modellashtirish. Ta’limiy maqsadlarda modellashtirishda matematik modellar xususiyatlarini tadqiq qilish muammolari.

3) Axborotlarni aks ettirish nazariyasi. Real sharoitlarda ishlayotganlik taassurotini hosil qiluvchi grafik mashinalarni boshqarish vositalaridan foydalanib, real tasvirlarni qurishga qaratilgan vizuallashtirish metodlarini qo‘llash va takomillashtirish muammolari.

4) Kompyuter muhitini his qilish psixologiyasi. Axborotlarning asosiy qismini televizor va kompyuter monitori orqali olishga ko‘nikib qolgan zamonaviy yoshlar fikrlashidagi o‘ziga xoslikni e‘tiborga olish muammolari.

5) Virtual reallik ekologiyasi. Virtual reallik bilan o‘zaro ta’sirlashuvning individual traektoriyasini tanlash muammolari.

6) Didaktikaning asosiy tamoyillari.

Modellashtiruvchi dasturiy vositalarni ishlab chiqishda ta’lim amaliyoti tajribalari asosida shakllangan, o‘zida o‘quv jarayoni qonuniyatlarini aks ettiruvchi didaktik tamoyillar asos sifatida qabul qilinishi lozim.

Virtual jarayonlarning asosiy belgilariga:

- o‘zaro hamjihatlikdagi subyektlar uchun virtual jarayonlar mavhumlik darajasining kuchliligi;
- har bir ishtirokchi uchun hamjihatlikning o‘ziga xosligi;
- faqat hamjihatlik jarayonidagina mavjudlikning amal qilinishi kabilarni kiritish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki hozirgi kund VR(virtul haqiqat) hayotimizning barcha sohalariga kirib kelishga ulgurgan va bunday texnologiyalardan foydalanish foydalanuvchilarga juda qulay va tasir doirasi keng muhitni yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Грегг Б. «Производительность систем: Enterprise и Cloud», 2014.
https://koptelov.info/publikatsii/digital_technology
3. Biocca, F., Levy, M.R.: Communication in the Age of Virtual Reality. L. Erlbaum Associates Inc., Hillsdale (1995). ISBN 0-8058-1550-3.
4. Xutorskoy A.V. Virtualnoye obrazovaniye i russkiy kosmizm // EIDOS-LIST. - 1999. - Vip.1(5): <http://www.eidos.techno.ru/list/serv.htm>.
5. Velev, D., Zlateva, P.: Virtual reality challenges in education and training. Int. J. Learn. Teaching 3(1) (2017)
6. Parmar, D., Babu, S.V., Lin, L., Jörg, S., D’Souza, N., Leonard, A.E., Daily, S.B.: Can embodied interaction and virtual peer customization in a virtual programming environment enhance computational thinking?. In: Research on Equity and Sustained Participation in Engineering, Computing, and Technology (RESPECT), pp. 1–2 (2016)



MATRITSALAR YORDAMIDA IQTISODIY MASALALARNI FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA YECHISH METODIKASI.

Sakiyeva.B.B

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari
universiteti, katta o‘qituvchi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarida matematika fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan integrasiyaviy yondashuvlar haqida fikrlar bayon qilingan. Talabalar dunyoqarashini shakllantirishda fanlararo bog‘lanish, ya’ni uzviylikni ta’minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki fanlararo aloqadorlikni ta’minlagan holda, darsni tashkil qila olgan o‘qituvchi talabalarga o‘zining faniga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o‘zlashtirishga yordam beradi. Matritsalar algebrasining iqtisodiyotga tadbiqlariga doir misollar keltirilgan. Har bir korxonaning har bir turdagi mahsulot bo‘yicha yillik ishlab chiqarish unumdorligini topish, har bir korxonaning mahsulotning har bir turi bo‘yicha yillik talabini topish va ularni hisoblash matritsalarini ko‘paytirish amallari orqali bajarishi to‘la yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: matematika, pedagogik texnologiya, ta’lim, integratsion ta’lim, ta’lim metodi, fanlararo aloqadorlik, matritsa, matritsa ustuni, matritsani matritsaga ko‘paytirish.

Аннотация: В данной статье представлены комплексные подходы, используемые в преподавании математики в технических учебных заведениях. Межпредметная коммуникация является одним из важнейших вопросов в формировании мировоззрения студентов. Это связано с тем, что учитель, умеющий организовать урок с межпредметными связями, не только повышает интерес учащихся к своему предмету, но и помогает им овладеть предметом. Приведены примеры применения матричной алгебры в экономике. Показано, что каждое предприятие находит годовую производственную мощность по каждому виду продукции, находит годовую потребность каждого предприятия по каждому виду продукции и вычисляет их путем перемножения матриц.

Ключевые слова: математика, педагогическая технология, обучение, интегрированное обучение, метод обучения, межпредметная связь, матрица, матричный столбец, матричное умножение.

Annotation: This article provides insights into the integrated approaches used in the teaching of mathematics in technical education institutions. Interdisciplinary communication is one of the most important issues in shaping students' worldviews. This is because a teacher

who is able to organize a lesson with interdisciplinary connections not only increases students' interest in their subject, but also helps them to master the subject. Examples of the application of matrix algebra to economics are given. It is shown that each enterprise finds the annual production capacity for each type of product, finds the annual demand of each enterprise for each type of product and calculates them by multiplying the matrices.

Keywords: mathematics, pedagogical technology, education, integrated education, teaching method, interdisciplinary connection, matrix, matrix column, matrix multiplication.

Maqsad: Talabalarni Matritsalar yordamida iqtisodiy masalalarni fanlararo bog‘lanish asosida yechishning soddada ,oddiy metodlar yordamida yechish metodikasini o‘rgatishdan iborat.

Mavzuning bayoni: Ilm fan taraqqiyoti shiddat bilan rivojlangan davrda fanlararo integratsiya uzluksiz ta’limni yo‘lga qo‘yishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Integratsiya atamasi lotincha integratsion so‘zidan olingan bo‘lib qo‘shilish, birlashish ma’nolarini anglatadi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o‘quv –tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. Talabalarda fikrlash ko‘nikmalari kengayadi.

Talabalar dunyoqqrashini kengaytirish fanlararo boglanish, ya’ni uzviylikni ta’minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki fanlararo aloqadorlik ta’minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o‘qituvchi talabalarda o‘zinig faniga bo‘lgan qiziqishni oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘quv fanlari orasida o‘zaro bog‘liqlik ikki turga bo‘linadi: xronologik va g‘oyaviy. Birinchisi, turli fanlar dasturlarining o‘zaro mutanosibligiga, ikkinchisi esa, bir xil yo‘nalishdagi ilmiy tushunchalarning umumiy metodik holatlar asosida singdirilishiga asoslanadi. Masalan, matematika va fizikada modeli metod, matematika va fizika esa eksperimental metod umumiyliki ko‘zga tashlanadi.

Hosilaning iqtisodiy ma’nosi

Shuni takidlash lozimki, hosilaning iqtisodiy ma’nosi ko‘p qirrali bo‘lib, muayyan ob`ektga yo`naltirilgan maqsaddan kelib chiqadi. Biz shu masalalardan birini keltiramiz. $U=U(t)$ funksiya t - vaqt davomida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi o‘zgarishini bildirsin. Ishlab chiqarishning $t=t_0$ vaqtdagi mehnat unumdorligini topish masalasini ko‘raylik. Buning uchun t - vaqtga Δt - ortirma beramiz, u holda mana shu vaqt davomida ma’lum miqdordagi

$\Delta U = U(t_0 + \Delta t) - U(t_0)$ mahsulot ishlab chiqariladi, o`rtacha mehnat unumdorlik $Z_{o'rt} = \frac{\Delta U}{\Delta t}$ tenglik orqali topiladi. $t = t_0$ vaqtdagi mehnat unumdorligi uchun quyidagi tenglikni hosil qilamiz: [6]

$$Z(t_0) = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta U}{\Delta t} = U'(t_0) \quad (1)$$

Demak, mahsulot hajmini vaqt bilan bog‘lovchi $U(t)$ funksiyaning vaqt bo‘yicha $U'(t)$ hosilasi ishlab chiqarishning $Z(t)$ unumdorligini berar ekan, ya’ni

$$U'(t) = Z(t)$$


Hosilaning geometrik ma‘nosi

Tekislikda berilgan $y = f(x)$ funksiya grafigining $M(x_0; y_0)$, (bu yerda $y_0 = f(x_0)$) nuqtasiga o‘tkazilgan urinmani qaraymiz. Bu urinmani hosil qilish uchun quyidagi (1- rasm) chizmada avval MK to‘g‘ri chiziq o‘tkazamiz. So‘ngra - orttirmani nolga intiltirsak, grafikdagi K nuqta M nuqtaga yaqinlasha borib, MK to‘g‘ri chiziq MN - urinma holatini egallaydi. $\Delta x \rightarrow 0$ da MK to‘g‘ri chiziq OX – o‘qining musbat yo‘nalishi bilan hosil qilgan $\alpha(\Delta x)$ burchagi, MN - urinma hosil qilgan φ burchakka intiladi. Bu yerda MN - to‘g‘ri chiziqning tenglamasi $y - y_0 = \operatorname{tg} \varphi (x - x_0)$ ko‘rinishda bo‘lib, $x - x_0 = \Delta x$ va $\operatorname{tg} \varphi = k$ – MN to‘g‘ri chiziq OX – o‘qining musbat yo‘nalishi bilan hosil qilgan burchak koeffitsienti ekanligini e‘tiborga olsak, MN to‘g‘ri chiziq tenglamasi $y = k \Delta x + y_0$ ko‘rinishda bo‘ladi. 1 - chizma MKB - uchburchak uchun $MB = \Delta x$, $KB = \Delta y$ va tg

$$\alpha(\Delta x) = \frac{\Delta y}{\Delta x} \quad \text{Demak,}$$

$$f'(x_0) = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \operatorname{tg} \alpha(\Delta x) = \operatorname{tg} \varphi = k \quad (2)$$

ya‘ni $f'(x_0) = k$ tenglikni hosil qilamiz. [4]



(1-rasm)

Shunday qilib, geometrik nuqtai nazardan $y = f(x)$ funksiyaning $x = x_0$ nuqtadagi $f'(x_0)$ hosilasi uning grafigiga $M(x_0, y_0)$ nuqtasida o‘tkazilgan urinmaning OX o‘qining musbat yo‘nalishi bilan hosil qilgan burchagining tangensiga teng.[6]

MN - urinmaning $y=k\Delta x+y_0$ tenglamasida $\Delta x=x-x_0$, $y_0=f(x_0)$ va $k=f'(x_0)$. U holda $y=f(x)$ funksiya grafigining $M(x_0, y_0)$ nuqtasida o‘tkazilgan urinma tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘lar ekan [8]

$$y=f'(x_0)\cdot(x-x_0)+f(x_0). \quad (3)$$

1-misol. $y=x^2+3$ funksiya grafigiga $M(1;4)$ nuqtadan o‘tkazilgan urinmaning burchak koeffitsientini toping.

Yechish. (2)-formulaga ko‘ra: $k=tg\varphi=f'(x_0)=2x_0=2\cdot1=2$

2-misol. $y=x^2+3x+4$ funksiya grafigiga $M(-1; 2)$ nuqtadan o‘tkazilgan urinma tenglamasini tuzing.

3-misol. $y=2x^3+1$ funksiya grafigining $M(1; 3)$ nuqtasiga o‘tkazilgan urinmaning burchak koeffitsientini toping.

4-misol. $y=\sin x+\cos x$ funksiyaning $x_0=\frac{\pi}{2}$ nuqtasidan o‘tkazilgan urinmaning tenglamasini tuzing.

5-misol. $y=\ln x$ ($x>0$) funksiyaning $x_0=1$ nuqtasidan o‘tkazilgan urinma Ox o‘qning musbat yo‘nalishi bilan qanday burchak hosil qiladi. [4]

- Matritsalar algebrasining iqtisodiyotga tadbirlariga doir misollar yechish hisoblash ko‘nikmalariga; taqdimot ko‘nikmalariga; hamkorlikdagi ishlar ko‘nikmalariga; muammoli holatlar tahlil qilish ko‘nikmalariga.

6-misol.

Korxona 3 xil xomashyodan foydalanib 5 xil mahsulot ishlab chiqaradi. Xomashyo sarflash me‘yori A matritsa bilan berilgan. [5]

$$A=\begin{pmatrix} 4 & 2 & 1 & 3 & 6 \\ 3 & 2 & 4 & 5 & 3 \\ 2 & 1 & 5 & 2 & 4 \end{pmatrix}$$

Xomashyoning birlik narxi $B=(10\ 25\ 30)$ matritsa bilan berilgan. Agar ishlab chiqarish rejasi (90, 110, 140, 180, 200) bo‘lsa, korxonaning umumiy xarajatini toping.

Yechimi: Avvalo ishlab chiqilgan mahsulotlar har bir turining bir birligiga ketadigan xarajati topamiz. Buning uchun B va A matritsalarini ko‘paytiramiz:

$$C=B\cdot A=\begin{pmatrix} 4 & 2 & 1 & 3 & 6 \\ 3 & 2 & 4 & 5 & 3 \\ 2 & 1 & 5 & 2 & 4 \end{pmatrix}\cdot\begin{pmatrix} 10 & 25 & 30 \end{pmatrix}=\begin{pmatrix} 175 & 100 & 260 & 215 & 255 \end{pmatrix}$$

$$D = \begin{pmatrix} 90 \\ 110 \\ 140 \\ 180 \\ 200 \end{pmatrix}$$

Umumiy xarajatni topish uchun C va D matritsalarini ko‘paytiramiz. [11]

$$X = (175 \ 100 \ 260 \ 215 \ 255) * \begin{pmatrix} 90 \\ 110 \\ 140 \\ 180 \\ 200 \end{pmatrix} = 152850$$

□

7 – misol.

Jadvalda 3 xil xom ashyo turini qo‘llagan holda 4 xil mahsulotni ishlab chiqaruvchi 5 ta korxonaning kunduzgi ishlab chiqarishi haqida ma’lumot berilgan, hamda bir yilda har bir korxonaning ish muddati va xar bir xom ashyoning narxi keltirilgan. [6]

Mahsulot turi, korxona tartib raqami №	Korxonaning mehnat unumdorligi					Xom ashyo turlari bo‘yicha xarajatlar		
	1	2	3	4	5	1	2	3
1	5	6	4	7	8	3	4	5
2	1	3	5	4	1	4	6	7
3	9	16	1	5	7	5	5	6
4	4	11	8	6	5	6	9	7
	Bir yildagi ish kuni miqdori					Xom ashyo turlari bahosi		
	210	160	180	130	150	50	60	70
	1	2	3	4	5	1	2	3

1. Har bir korxonaning har bir turdagi mahsulot bo‘yicha yillik ishlab chiqarish unumdorligini toping.
2. har bir korxonaning mahsulotning har bir turi bo‘yicha yillik talabini toping.
3. jadval asosida ko‘rsatilgan ko‘rinishda va miqdorda mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xom ashyo sotib olish uchun har bir korxonaning yillik kreditini toping.

Yechish: Butun ishlab chiqarish iqtisodiyko‘rsatkichlarni xarakterlovchi matritsa tuzamiz. Korxonalarning xar bir mahsulot bo‘yicha ishlab chiqarish matritsasini tuzamiz: [4]

$$C = \begin{pmatrix} 5 & 6 & 4 & 7 & 8 \\ 1 & 3 & 5 & 4 & 1 \\ 9 & 16 & 1 & 5 & 7 \\ 4 & 11 & 8 & 6 & 5 \end{pmatrix}$$

Bu matritsaning xar bir ustuni xar bir maxsulotni ishlab chiqarish miqdoriga mos keladi. Bundan kelib chiqib, - korxonaning xar bir maxsulot bo'yicha yillik ishlab chiqarish xajmini topish uchun S matritsa elementlarini mos ravishda xar bir korxona yillik ish kunlari soniga ko'paytiramiz ($i = 1, 2, 3, 4, 5$). Natijada quyidagi matritsa xosil bo'ladi: [8]

$$C_1 = \begin{pmatrix} 1050 & 960 & 720 & 910 & 1200 \\ 210 & 480 & 900 & 520 & 150 \\ 1890 & 2560 & 180 & 650 & 1050 \\ 840 & 1760 & 1440 & 780 & 750 \end{pmatrix}$$

Xom ashyo turlar bo'yicha xarajatlar quyidagicha bo'ladi:

$$D = \begin{pmatrix} 3 & 4 & 5 & 6 \\ 4 & 6 & 5 & 9 \\ 5 & 7 & 6 & 7 \end{pmatrix}$$

Xom ashyo turlarining xar bir birligi bo'yicha xarajatlar D matritsaga C matritsani ko'paytirishdan xosil bo'ladi: [4]

$$DC = \begin{pmatrix} 88 & 176 & 85 & 98 & 93 \\ 107 & 221 & 123 & 131 & 118 \\ 114 & 224 & 117 & 135 & 124 \end{pmatrix}$$

bunda j- ustun xomashyo turiga va i- qator esa jadvaldagi korxona nomeriga mos keladi ($j = 1, 2, 3; i = 1, 2, 3, 4, 5$).

2- savolga javobni, ya'ni xar bir korxonaning xom-ashyoga bo'lgan talabini DC matritsa ustunlarini yillik ish kunlari soniga ko'paytirish asosida xosil qilish mumkin: [6]

$$D C_1 = \begin{pmatrix} 18480 & 28160 & 15300 & 12740 & 13950 \\ 22470 & 35360 & 22140 & 17030 & 17700 \\ 23940 & 35840 & 21060 & 17550 & 18600 \end{pmatrix}$$

Xom-ashyo narxlar vektori quyidagicha: $q = (50 \ 60 \ 70)$

U xolda xar bir korxonaning yillik xom-ashyo zahirasi q vektorni DC_1 matritsaga ko'paytirish asosida xosil qilinadi: $Q = qDC_1 = (3948000 \ 6038400 \ 3567600 \ 2887300 \ 3061500)$ [8]

8- misol. 3 tarmoqli iqtisodda 2 xil mahsulot- ko'mir, elektr energiya ishlab chiqariladi, hamda transport xizmati tashkil qilingan. 1 so'mlik ko'mir mahsulotini ishlab chiqarish uchun 0,2 so'mlik elektr energiya va 0,25 so'mlik transport xarajati sarflanadi. Shuningdek, 1 so'mlik elektr energiyani ishlab chiqarish uchun 0,7 so'mlik ko'mir mahsuloti, 0,1 so'mlik elektr energiya va 0,05 so'mlik transport xarajatlari sarflanadi. 1 so'mlik transport xizmati uchun 0,6

so‘mlik ko‘mir va 0,1 so‘mlik elektr energiya sarflanadi. Ko‘riladigan muddat uchun 40 mln. so‘mlik ko‘mir va 15 mln. so‘mlik elektr energiya, hamda 20 mln. so‘mlik transport xizmati tashqi iste‘molga rejalashtiriladi. Mahsulotlarni ishlab chiqarish rejasini toping.

Yechish. Balans tenglamalarini tuzamiz:

$$\begin{cases} x_1 = 0,7x_2 + 0,6x_3 + 40000000 \\ x_2 = 0,2x_1 + 0,1x_2 + 0,1x_3 + 15000000 \\ x_3 = 0,25x_1 + 0,05x_2 + 20000000 \end{cases}$$

Bunda texnologik matritsa

$$A = \begin{pmatrix} 0 & 0,7 & 0,6 \\ 0,2 & 0,1 & 0,1 \\ 0,25 & 0,05 & 0 \end{pmatrix}, \quad S = \begin{pmatrix} 40000000 \\ 15000000 \\ 20000000 \end{pmatrix},$$

Leontyev matritsasi

$$I - A = \begin{pmatrix} 1 & -0,7 & -0,6 \\ -0,2 & 0,9 & -0,1 \\ -0,25 & -0,05 & 1 \end{pmatrix},$$

bundan

$$(I - A)^{-1} = \begin{pmatrix} 1,5 & 1,224 & 1,023 \\ 0,377 & 1,425 & 0,369 \\ 0,394 & 0,377 & 1,274 \end{pmatrix}$$

Va

$$X = (I - A)^{-1} S = \begin{pmatrix} 98826487,85 \\ 43839061,19 \\ 46898575,02 \end{pmatrix}$$

Demak, $X_1 = 98.8$ mln. so‘m, $X_2 = 43.8$ mln. so‘m, $X_3 = 46.8$ mln. so‘m.[6]

Xulosa: Bu mavzuni o‘rganish orqali, fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o‘quv –tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. Talabalarda fikrlash ko‘nikmalari kengayadi, talabalar dunyoqarashini kengaytirish fanlararo boglanish, ya’ni uzviylikni ta’minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan birining yechimi bo‘la oladi. Chunki fanlararo aloqadorlik ta’minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o‘qituvchi talabalarda o‘zinig faniga bo‘lgan qiziqishni oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR.

1. John James Stewart. Calculus. Seventh editions. Metric version. Brooks/Cole, Cengage Learning, 2012.
2. D. Pismennyy. «Konspekt leksii po vysshey matematike», 1,2,3 chast. -M.: Ayris Press, 2008.
3. YU.F. Senchuk. Matematicheskiy analiz dlya inzhenerov. 1,2 chast-Xarkov: NTU «XPI», 2003.-408 s.
4. Juraev T.J., Xudoyberganov R.X., Vorisov A.K., Mansurov X. Oliy matematika asoslari. 1 va 2 qism. –T. O‘zbekiston, 1995, 1999.-290b.

5. Axmedov A.B., Shamsiyev R.B., Shamsiyev D.N., Pirmatov Sh.T. Oliy matematika. Darslik, 1 qism. Toshkent, “Fan va texnologiyalar” nashriyoti 2018. -366 b.
6. Soatov YO.U. Oliy matematika. 1-2-3-4-5-jild. T.: «O‘qituvchi».-1992-1998. 640
7. Shamsiyev R.N., Shamsiyev D.N., Pirmatov Sh.T. Oliy matematika. Darslik, 2 qism. Toshkent, “Fan va texnologiyalar” nashriyoti 2020. -324 b (nashrda).
8. Xurramov SH. R. Oliy matematika. 1,2-qism. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2018.



UDK 378

BO‘LAJAK MUTAXASISLARDA PEDAGOGIK MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Saydanova Dilafruz Sadirdinovna
ADPI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak pedagoglarni muloqot madaniyatiga ega bo‘lishlari va u kelajakda o‘quvchilar bilan ishlashda asosiy omil ekanligi o‘rganib chiqilgan. Muloqot madaniyati kishining yetuklik, komillikka erishganlik belgisi ekanligi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: muloqot, talaba, o‘qituvch-o‘quvchi munosabatlari, muloqot madaniyati, yomon o‘qituvchi, tarbiya maqsadi, jamoatchi talaba.

Аннотация: В статье рассматривается необходимость наличия у будущих учителей культуры общения и то, как она может стать ключевым фактором в работе с учениками в будущем. Утверждается, что культура общения является признаком зрелости и совершенства личности.

Ключевые слова: коммуникация, ученик, отношения учитель-ученик, культура общения, плохой учитель, образовательная цель, социальный ученик.

Annotation: The article discusses the fact that future teachers have a culture of communication and this is a key factor in working with students in the future. They say that the culture of communication is a sign of maturity.

Key words: communication, student, teacher-student relationship, communication culture, bad teacher, educational goal, social student.

Jahonda nutq madaniyati – shaxsning professional va shaxsiy muvaffaqiyatiga muhim ta’sir ko‘rsatadigan omil bo‘lib, ta’lim tizimida uning rivojlantirilishi zarurati jiddiy ahamiyat kasb etadi. Nutq madaniyati, bilim va ma’lumotlarni samarali uzatish, kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishda markaziy ro‘l o‘ynaydi, bu esa zamonaviy mutaxassislarning muvaffaqiyatli faoliyati uchun muhim shartdir. Xalqaro ilmiy markazlar, masalan, Oxford Universiteti, Harvard Universiteti, va boshqa yetakchi ta’lim muassasalarining tajribasi nutq madaniyatini rivojlantirish metodikalarining samaradorligini o‘rganishga yordam beradi. Internet va elektron resurslar orqali mutaxassislarning nutq madaniyatini oshirish uchun innovatsion metodikalar ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

, bo‘lajak mutaxassislarning nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasi, ayniqsa, filologiya yo‘nalishi misolida, zamonaviy ta‘lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Nutq madaniyati- bu shaxsning kommunikativ qobiliyatlari va til madaniyatining kompleks rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarning majmuasidir. Zamonaviy ta‘lim tizimida nutq madaniyatini rivojlantirish, ayniqsa, filologiya yo‘nalishida, talabalarning professional kompetentsiyalarini oshirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Nutq madaniyati, talabalarning nafaqat o‘z fikrlarini aniq ifodalash, balki ijtimoiy va madaniy muhitga mos ravishda muloqot qilish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogika va psixologiya sohalarida nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar metodikalarni takomillashtirishga imkon yaratadi..

Mamlakatimiz ta‘lim tizimida mutaxassislarning nutq madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha metodikalarni ishlab chiqish va takomillashtirish, filologiya sohasidagi bilimlarning o‘zlashtirilishi va amaliyotdagi qo‘llanilishi nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, filologiya yo‘nalishidagi bo‘lajak mutaxassislarning malaka oshirishida bu metodikalarning samaradorligi ilmiy jihatdan o‘rganilishi va asoslanishi kerak. Filologiya yo‘nalishida mutaxassislarning nutq madaniyatini rivojlantirish, ularning professional faoliyatlarida muvaffaqiyatli natijalarga erishishga yordam beradi. O‘zbekistonda til va nutq madaniyati sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, mamlakatimizning ta‘lim tizimida mavjud bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Talabalar va pedagoglarning nutq madaniyatini rivojlantirish uchun innovatsion metodikalarni ishlab chiqish, xalqaro tajribalarni inobatga olib, amaliy uslublarni yaratishga imkon beradi.

Muloqot kishilarning birgalikdagi faoliyatining muxim shartlaridan biridir. Muloqot – bu kishilar o‘rtasidagi o‘zaro axborot almashish jarayonidir. Insonning tabiiy extiyojidir, chunki odamlar bir-biri bilan gaplashmasdan, axborot almashmasdan yashay olmaydilar. Muloqot tufayli kishilar bir birini tushunadilar, mehnat jarayonida xamkorlik, hamjixatlikka erishadilar, o‘zaro fikr va tajriba almashadilar.

Inson uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni qanchalik hayotiy zarurat bo‘lsa, muloqot madaniyatini egallash ham shunchalik zarurdir. Chunki muloqot madaniyati kishining yetuklik, komillikka erishganlik belgisi bo‘lib hisoblanadi. Muloqot madaniyatini egallash bo‘lg‘usi pedagoglar uchun ayniqsa axamiyatlidir. Chunki o‘qituvchi faoliyati xamisha o‘quvchilar bilan muloqotda kirishishni, o‘zaro munosabatda bo‘lishni taqozo etadi. Muloqot jarayoni tufayli o‘quvchilarga ta‘lim beradi, pedagogik ta‘sir ko‘rsatadi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuksak e‘tiqodni shakllantiradi, ijobiy axloqiy sifatlarni tarkib topdiradi. Lekin institutni tamomlab pedagogik faoliyatga yo‘llanma olayotgan barcha talabalarni ham muloqot madaniyatini puxta egallagan, o‘z fikrini boshqalarga erkin bayon qila oladigan, sof adabiy tilda so‘zlaydigan mutaxassislar bo‘lib yetishyapti, deb ayta olmayamiz. Shunday ekan, talabalarda muloqot madaniyatini, ayniqsa, pedagogik muloqotni tarbiyalash pedagogika institutlaridagi ta‘lim tizimining ajralmas qismi, eng muxim vazifalaridan biri bo‘lishi lozim. Pedagogik muloqot o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot bo‘lib, bu jarayonida o‘zaro axborot almashish

tufayli o‘qituvchi o‘quvchilarga bilim beradi, ularga tarbiyaviy tasir ko‘rsatadi, o‘zaro bir-birini tushunishga, idrok qilishga erishiladi. O‘qituvchi pedagogik jarayonda o‘quvchilar bilan xamkorlikni to‘g‘ri tashkillay olsa, ya‘ni tarbiya maqsadi va vazifalariga mos keluvchi o‘zaro ta‘sir, o‘zaro tushunishga yo‘lga qo‘ya olsagina ko‘zlagan maqsadiga erishadi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik muloqotga qo‘yiladigan talablar, uning qonuniyatlarini puxta egallagan bo‘lishi lozim. Lekin bugungi kunda maktablardagi o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati tarbiyaviy ishning eng og‘ir nuqtalaridan biri bo‘lib qolayotganligini xech kimga sir emas. Ayrim o‘qituvchilar bilan o‘quvchilarning bir birini yaxshi tushunmasligi turli ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilar ko‘pincha “yomon o‘qituvchi” deganda o‘z fanini yaxshi bilmaydigan yoki qattiqqol o‘qituvchini emas, balki o‘quvchilar bilan yaxshi munosabat o‘rnata olmaydigan, muloqotda qo‘pol, o‘quvchi shaxsini hurmat qilmaydigan o‘qituvchilarni tushunadilar. O‘quvchilarning o‘qituvchilar bilan o‘zaro muloqotdan qoniqmasliklariga asosiy sabab o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi shaxsini yetarli tushunmasligi, uni hurmat qilmasligi, har bir o‘quvchini alohida, o‘ziga xos shaxs deb emas, balki bo‘ysunuvchi, itoat etishi shart bo‘lgan shaxs deb qabul qilishlarida deb o‘ylaymiz. O‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotning samarali bo‘lishi avvalo muloqot odobiga, o‘zaro hurmat, bir-birini tushunishga intilishiga bog‘liqdir. Chunki bu shartlar muloqotning muvaffaqiyatli, samarali kechishini ta‘minlaydi, uning asosiy vazifalarini to‘g‘ri amalga oshirishga yordam beradi. Muloqot odobi o‘qituvchiga o‘z fikrini o‘quvchilar qanday qabul qilayotganini kuzatib borish, ularning yuz ifodalaridagi o‘zgarishlarga e‘tibor qilish, muloqotning borishiga o‘z vaqtida tegishli o‘zgarishlar kiritish imkonini ham beradi. O‘zaro muloqotda ovozni ko‘tarmaslik, osoyishta gapirish, suhbatdosh gapini bo‘lmaslik, uni diqqat bilan tinglash muloqot madaniyatining muxim shartlaridandir. Muloqot jarayonida bazi bir noo‘rin xatti-xarakat, o‘ylamay aytilgan gap, ortiqcha imo-ishora odobsizlik belgisidir. Pedagogik muloqotning samarali bo‘lishi o‘qituvchi nutqiga, so‘zlarni to‘g‘ri tanlashi, ularni ifodali bayon etishi, jummalarning mantiqiy jixatdan izchil bo‘lishiga xam bog‘liqdir. Pedagog tili o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini uyg‘otadigan, ularda mavzu mazmuniga qiziqish uyg‘otadigan, diqqat e‘tiborni tortadigan bo‘lsagina u tarbiyaviy kuchga ega bo‘ladi. Shunday ekan pedagogning nutqi ta‘sirli, jozibali, jarangdor, badiiy bo‘yoqlarga boy bo‘lishi lozim. Talabarda pedagogik muloqotni tarbiyalashning yo‘l va usullari xilmaxildir. Avvalo ularni kitob o‘qishga, ayniqsa, badiiy kitob o‘qishga o‘rgatish lozim. Kitob tufayli talabaning nutqi o‘sadi, so‘z boyligi ortadi, adabiy tilda so‘zlashga o‘rganadi. Bu esa muloqot jarayonida kerakli so‘zlarni tanlay olish, jummalarni to‘g‘ri va ta‘sirli qilib tuza olish imkonini beradi. Buning uchun talaba kitob o‘qiyotganda jummalarning tuzilishiga, fikrlarning izchilligiga e‘tibor berib o‘qishi lozim. O‘ziga yoqqan chiroyli, ta‘sirli jummalarni ko‘chirib olib ulardan o‘zaro muloqotda foydalanish xam yaxshi natija beradi. Pedagogik muloqotni egallashda turli psixologik treninglar xam muhim ro‘l o‘ynaydi. Masalan, metodika fanlarini o‘rganish jarayonida talaba o‘qituvchi roliga kirib o‘quvchilarga dars berishi ham o‘qituvchi va

o‘quvchilar o‘rtasida bo‘ladigan muloqotini o‘zlashtirishga yordam beradi. Seminar va amaliy mashg‘ulotlar davrida mavzu bo‘yicha so‘zga chiqish, o‘z fikrlarini bayon qilish va ularni boshqalarga yetkaza olish, bir birlari bilan mulohaza qila olish kabilar ham edagogik muloqotni egallashning muhim shartlaridir. Institutda o‘tkaziladigan ilmiy anjumanlarda o‘qilgan ilmiy anjumanlarda o‘qilgan ma‘ruzalar muhokamasida ishtirok etish, majlislarda so‘zga chiqish kabilar orqali ham pedagogik muloqot madaniyatini egallashi yoki shakllantirish mumkin. Muloqot madaniyatini egallashning eng muhim samarali yo‘llaridan biri talabaning jamoat ishlarida faol ishtirokidir. Chunki jamoatchi talaba turli toifadagi, turli yoshdagi kishilar bilan muloqotda bo‘ladi, ularning har birini eshitishga, tushunishga va muammolarini hal qilishga intiladi. Bular esa muloqotning yangi- yangi qirralarini ijod qilish va o‘zlashtirib olishga yordam beradi. Ko‘rinib turibdiki, institutda talabalarning pedagogik muloqotni puxta egallashlari uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Faqat bu imkoniyatlardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish zarur. Buning uchun esa avvalo talabaning o‘zida istak va xohish bo‘lishi lozim

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Давлетшин М.Г., С.Тўтчиева "Умумкасбий психология". Ўқув қўлланма. Т. 2002.
2. Mamurova F. T., Abdullayeva N. K., Qahhorovna S. M. INNOVATIVE APPROACH AND MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 7. – С. 1061-1063.
3. Мамурова Ф.Т., Абдуллаева Н.К., Маллабоев Н. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА «ОЦЕНКА» ПРИ ОЦЕНКЕ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ // Теоретические и прикладные науки. - 2019. - №. 11. - С. 80-83.
4. Маъмурова Ф., Абдуллаева Н. ТРЕНИНГ РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТИ МЫШЛЕНИЯ РЕБЕНКА //Экономика и социум. – 2019. – №. 4. – С. 501- 504.
5. Абдуллаева Н., Мамурова Ф. ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ //Экономика и социум. – 2018. – №. 4. – С. 931-935.
6. Mamurova F. T., Abdullaeva N. K. CHOOSE A SPECIAL STUDENT PSYCHOLOGICAL METHODS //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 3. – С. 525-529.
7. Н Абдуллаева, Ф Маъмурова, Н Тожимуродов, НЕОБХОДИМОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ, Актуальные научные исследования в обществе ..., 2021
8. Курбанова С.М., Мадрахимова М.Б., Абдуллаева Н.К., В УСЛОВИЯХ ПОНИМАНИЯ И ЭФФЕКТИВНОГО ПРИМЕНЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ.- Теоретические и прикладные науки, 2020,
9. Ф Маъмурова, Н Абдуллаева ТРЕНИНГ РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТИ МЫШЛЕНИЯ РЕБЕНКА, - Экономика и социум, 2019
10. Ma'murova F.T., Abdullayeva N.X. Qodiraliyev N.G. , Bo'lajak pedagoglarda muloqot-madaniyatini tarbiyalash. "Экономика и социум" №4(95)-2 2022 www.iupr.ru 242



TIBBIY TA'LIMDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Xamdamova Shahnoza Yusupaliyevna
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,
O'zbek va xorijiy tillar kafedrası
Ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Tibbiy ta'limda interfaol metodlardan foydalanish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarni haqiqiy kasbiy muhitga tayyorlashga xizmat qiladi. Interfaol yondashuv orqali talabalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, muloqot qilish, axborotni tahlil qilish va uni qo'llash kabi muhim ko'nikmalari shakllanadi. Har bir tibbiy pedagog o'z faniga mos interfaol metodlarni tanlab, ulardan samarali foydalanishni o'zining ustuvor vazifasi sifatida ko'rishi lozim.

Kalit so'zlar: tibbiy, metod, ustuvor, pedagog, muammo, muhit, ko'nikma, Simtom, hayot, klinik, tahlil, muloqot, muhakama.

Аннотация: Использование интерактивных методов в медицинском образовании не только повышает эффективность педагогического процесса, но и способствует подготовке студентов к реальной профессиональной среде. Благодаря интерактивному подходу у студентов формируются важные навыки: самостоятельное мышление, решение проблем, коммуникация, анализ информации и её применение. Каждый медицинский педагог должен считать приоритетной задачей выбор и эффективное использование интерактивных методов, соответствующих своему предмету.

Ключевые слова: медицинский, метод, приоритет, педагог, проблема, среда, навык, симптом, жизнь, клинический, анализ, коммуникация, обсуждение.

Annotation: The use of interactive methods in medical education not only enhances the effectiveness of the pedagogical process but also helps prepare students for real professional environments. Through interactive approaches, students develop essential skills such as independent thinking, problem-solving, communication, information analysis, and application. Every medical educator should prioritize selecting and effectively using interactive methods suitable for their subject.

Keywords: medical, method, priority, educator, problem, environment, skill, symptom, life, clinical, analysis, communication, discussion.

Kirish. Zamonaviy tibbiy ta’limda talaba shunchaki bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi va bilim yaratuvchiga aylanishi kerak. Bu o‘zgarish tibbiy bilimlarni chuqurroq, tizimli va amaliy jihatdan egallash zaruratidan kelib chiqadi. Shu bois, interfaol o‘qitish metodlari tibbiy ta’limda katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu metodlar talabalarning tahliliy fikrlashini, kasbiy kompetensiyasini, mustaqil qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlar — bu o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikka asoslangan dars usullaridir. Bunday metodlar orqali o‘quvchilar bilimni faqat eslab qolmay, balki uni tushunib, tahlil qilib, real hayotiy vaziyatlarga qo‘llashni o‘rganadilar. Ayniqsa, tibbiyot kabi amaliyotga asoslangan yo‘nalishlarda bu yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Asosiy interfaol metodlar va ularning tibbiy ta’limdagi qo‘llanilishi: “Aql charxi” (Brainstorming). Bu metod tibbiy holatlarni muhokama qilish, kasallik simptomlarini aniqlash yoki muolaja rejasini ishlab chiqishda qo‘llaniladi. Masalan, biror klinik holat tavsifi beriladi va talabalar o‘z fikrlarini erkin ifodalaydi. “Klaster” usuli. Talabalar murakkab tibbiy atamalar, diagnostik mezonlar yoki dori vositalarini guruhlash orqali yaxlit tasavvur hosil qiladilar. Bu usul, ayniqsa, farmakologiya va patofiziologiya darslarida samarali hisoblanadi. “Muammoli vaziyat” usuli (Problem-Based Learning - PBL). Talabalarga hayotiy klinik holat beriladi va ular tahliliy fikrlab, diagnostika va davolash bo‘yicha qarorlar qabul qiladilar. Bu metod shifokorlik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Rol o‘yinlari (Role Play). Simulyatsiya asosida bemor va shifokor rollari beriladi. Bu orqali talabalar bemor bilan muloqot qilish, anamnez yig‘ish, etik muammolarni hal qilish kabi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Debatlar va muhokamalar. Tibbiy-axloqiy muammolar, zamonaviy texnologiyalar, tibbiy yondashuvlar ustida bahs yuritish orqali talabalar fikr bildirish, tanqidiy tahlil qilish va muloqot madaniyatini rivojlantiradilar.

Interfaol metodlarning afzalliklari: Faollik-talabalar dars jarayonida bevosita ishtirok etadi. Motivatsiya- o‘quvchilar o‘z fikrlarini ayta olish, bahslashish imkoniyatiga ega bo‘lgani uchun ularning darsga qiziqishi ortadi. Amaliyotga yo‘naltirilganlik- kasbiy vazifalarga yaqin holatlarda fikrlash ko‘nikmasi shakllanadi. Hamkorlik-jamoaviy ish, fikr almashish va qaror qabul qilish jarayonlari rivojlanadi.

Zamonaviy pedagogikada an’anaviy ta’lim usullarining o‘rnini bosayotgan interfaol o‘qitish metodlari o‘quv jarayoniga yangicha yondashuv olib kirmoqda. Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar va ta’lim sohasida yuz berayotgan islohotlar sharoitida o‘quvchi faolligi va mustaqil fikrlashini ta’minlaydigan metodlar zaruriyatga aylangan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, interfaol o‘qitish tushunchasi hozirgi ta’lim tizimining markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi.

Interfaol o‘qitish — bu o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida ikki tomonlama faol hamkorlikka asoslangan dars jarayonidir. Bunda o‘quvchilar faqat eshituvchi yoki yozuvchi emas, balki o‘rganayotgan materialni tahlil qiluvchi, munosabat bildiruvchi, fikrlovchi va muammoni hal etishga harakat qiluvchi sub’yektga aylanadi.

Interfaol o‘qitishda asosiy e‘tibor quyidagilarga qaratiladi: o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi; jamoada ishlash ko‘nikmasi; hayotiy tajriba asosida o‘rganish; faollik va tashabbuskorlik; o‘zlashtirilgan bilimlarni real vaziyatda qo‘llay olish.

Interfaol o‘qitishning asosiy tamoyillari: **Subyekt-subyekt munosabat** – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida teng va faol hamkorlik mavjud bo‘ladi; **Faollik** – o‘quvchilar dars jarayonida mustaqil fikr bildiradi, savollar beradi va yechim topishga harakat qiladi; **Muloqot va hamkorlik** – bilimlar suhbat, muhokama, bahs-munozara orqali shakllanadi; **Refleksiya** – o‘rganilgan mavzu asosida o‘z-o‘zini baholash, natijalarni tahlil qilish amalga oshiriladi; **Shaxsga yo‘naltirilganlik** – har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari va ehtiyojlari hisobga olinadi;

Interfaol o‘qitish usullari turlicha bo‘lib, ular didaktik vazifaga, mavzuning murakkabligiga va dars shakliga qarab tanlanadi. Mashhur metodlarga quyidagilar kiradi: **“Aql charxi” (brainstorming)**: erkin fikr almashinuvi orqali yangi g‘oyalar ishlab chiqiladi; **Klaster**: tushunchalarni guruhlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash; **Insert usuli**: matn bilan ishlashda belgilar qo‘yish orqali o‘quvchi munosabatini ifodalash; **Rol o‘yinlari**: real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish; **Debatlar**: muayyan mavzu bo‘yicha fikrlar to‘qnashuvi orqali muammoni chuqur tahlil qilish; **Viktorinalar va o‘yinlar**: bilimlarni mustahkamlash va qiziqarli muhitda o‘rganish imkonini beradi.

Interfaol metodlar quyidagi afzalliklarga ega: bilimlarni chuqur o‘zlashtirish; tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish; muloqot madaniyatini shakllantirish; o‘quvchining shaxsiy faolligini oshirish; bilimlarni real hayotda qo‘llashga tayyorlash.

Interfaol o‘qitish – bu zamonaviy ta’limning ajralmas tarkibiy qismidir. U orqali nafaqat bilim berish, balki shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish va ta’limni hayot bilan bog‘lash mumkin. Har bir pedagog o‘z darslarini interfaol metodlar orqali boyitib, ta’lim samaradorligini oshirishi lozim. Bu esa o‘quvchilarni faqat bilimli emas, balki faol, tashabbuskor va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Zamonaviy tibbiy ta’limda interfaol o‘qitish metodlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda tibbiy bilimlarni shunchaki yodlash emas, balki ularni amaliyotda qo‘llay olish, muammoli holatlarda tezkor qaror qabul qilish va jamoada samarali ishlay olish ko‘nikmalari ustuvor ahamiyatga ega. Shunday vaziyatda interfaol metodlar, xususan “klaster”, “aql charxi” va “muammoli vaziyat” kabi usullar tibbiy bilimlarni mustahkamlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Interfaol o‘qitish – bu o‘qituvchi va talaba o‘rtasida faol muloqotga asoslangan ta’lim jarayoni bo‘lib, bunda talaba bilim olish jarayonining markazida turadi. U faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida dars davomida fikr bildiradi, savollar beradi, muammoni tahlil qiladi va yechim izlaydi. Ayniqsa, tibbiyot kabi amaliy sohalarda bu yondashuv yuqori natijalarni beradi.

1. “Klaster” usuli. Klaster – bu o‘quv materialini tizimlashtirish va vizual tarzda ko‘rsatish usuli bo‘lib, asosiy tushuncha atrofida bog‘liq g‘oyalar, fikrlar yoki elementlar chiziqlar orqali bog‘lanib, grafik ko‘rinish hosil qilinadi. Tibbiy ta’limda bu usul quyidagi hollarda foydalidir:

- **Tashxis qo‘yishda:** Bemor simptomlariga asoslangan sabablar klasterini tuzish.
- **Anatomiya va fiziologiyada:** Bir tizim yoki a’zo funksiyalarini tasniflash.
- **Farmakologiyada:** Dori vositalari guruhlarini ajratib ko‘rsatish.

Afzalliklari: Tizimli fikrlashni rivojlantiradi, materialni eslab qolishni osonlashtiradi, tarmoq asosida tahlil qilishga o‘rgatadi.

2. “Aql charxi” (Brainstorming). “Aql charxi” – bu talabalarning erkin fikr bildirishiga asoslangan ijodiy metod bo‘lib, biror masala yuzasidan imkon qadar ko‘proq fikr to‘plashni maqsad qiladi. Tibbiyotda ushbu metodni quyidagi hollarda qo‘llash mumkin:

- **Klinik holatlarni tahlil qilish:** Muayyan simptomlar bo‘yicha ehtimoliy kasalliklarni taxmin qilish.
- **Profilaktika choralarini ishlab chiqish:** Kasallik tarqalishini oldini olish bo‘yicha g‘oyalar yig‘ish.
- **Tibbiy etika masalalarini muhokama qilish.**

Afzalliklari: Talabalarda ijodiy fikrlashni kuchaytiradi, erkin fikr almashinuvi orqali yangi g‘oyalarni shakllantirish imkonini beradi.

3. Muammoli vaziyat (Problem-based learning – PBL). Muammoli vaziyat – bu real yoki shartli murakkab holat asosida bilimlarni izlash va qo‘llashga yo‘naltirilgan metod. Bunda talabalarga dars boshida muayyan klinik holat (kuzatuv, simptom, shikoyat) taqdim etiladi, ular esa tahlil qilib, tashxis qo‘yish, muolaja rejasini ishlab chiqish yoki qaror qabul qilishlari kerak bo‘ladi.

Qo‘llanilishi:

- **Klinik fanlarda:** Kardiologiya, terapiya, xirurgiya fanlarida keng qo‘llaniladi.
- **Etika va kommunikatsiyada:** Kasallik haqida bemor bilan qanday muloqot qilishni o‘rganishda.

Afzalliklari: Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilish jarayonini faollashtiradi, jamoaviy ishlash madaniyatini shakllantiradi.

Tibbiy ta’limda interfaol metodlar – bu bilim berishdan tashqari, kasbiy ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarni ham shakllantiruvchi samarali vositadir. “Klaster”, “aql charxi” va “muammoli vaziyat” usullari orqali talabalarda tahliliy fikrlash, muloqot qilish, muammoni aniqlash va uni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bunday metodik yondashuv orqali nafaqat bilim, balki amaliy tayyorgarlik darajasi ham sezilarli darajada oshadi.

Tibbiy ta’limda interfaol metodlar samaradorligini real dars jarayonlari misolida ko‘rish mumkin:

1. “Klaster” usuli – anatomiya fanida:
 - Dars mavzusi: *O‘pka tuzilishi va funksiyasi.*

○ Topshiriq: O‘quvchilar “O‘pka” atrofida barcha tegishli elementlarni (bronxlar, alveolalar, gaz almashinuvi, qon aylanishi) klaster shaklida tuzadilar.

○ Samarasi: Talabalar o‘rtasida mazmunli tahlil yuzaga keladi, fanlararo bog‘liqlikni tushunish osonlashadi, eslab qolish darajasi 30–40% ga ortadi.

2. “Aql charxi” – kasallik tashxisi fanida:

○ Dars mavzusi: *Bemorning nafas qisishi holatida tashxis qo‘yish.*

○ Voqea: O‘qituvchi bemorning simptomlarini aytadi, talabalar esa navbatma-navbat ehtimoliy sabablarni sanab o‘tadilar.

○ Samarasi: 10 dan ortiq taxminiy tashxislar ilgari suriladi, talabalar o‘z bilimlarini faollashtirib, tahliliy fikrlashni mashq qilishadi.

3. Muammoli vaziyat – terapiya fanida:

○ Dars mavzusi: *Qandli diabet bilan kelgan bemor holatini tahlil qilish.*

○ Vazifa: Talabalar guruhlariga bo‘linadi, bemorning qon shakarlari ko‘rsatkichi, simptomlari, kasallik tarixi asosida tashxis, davo va parhez tavsiyalarini ishlab chiqishadi.

○ Samarasi: Guruhlar o‘z qarorlarini taqdim qiladi, tanqidiy fikrlash, dalillash va jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Talabalar bilimni 60% ko‘proq o‘zlashtirgani aniqlanadi (so‘rov natijalariga ko‘ra).

Xulosa: Tibbiy ta’limda interfaol metodlardan foydalanish an’anaviy yondashuvlarga nisbatan ancha yuqori samaradorlikni beradi. “Klaster”, “aql charxi” va “muammoli vaziyat” kabi usullar orqali talabalar faolligi oshadi, bilimlarni amaliyotga yo‘naltirish, mustaqil fikrlash va jamoada ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Ushbu metodlar nafaqat o‘qituvchining dars jarayonini jonlantiradi, balki talabalarni kasbiy faoliyatga real tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

Takliflar:

1. Tibbiy oliygohlarda interfaol metodlarni muntazam ravishda o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilsin.

2. O‘qituvchilar uchun “interfaol metodlar” bo‘yicha malaka oshirish kurslari yo‘lga qo‘yilsin.

3. Talabalarning amaliy ko‘nikmalarini oshirish maqsadida simulyatsion (virtual) klinik holatlar bilan ishlash imkoniyati kengaytirilsin.

4. Interfaol metodlardan foydalanilgan darslardan keyin tahliliy refleksiya joriy etilib, o‘quvchilarning fikr-mulohazalari asosida darslar takomillashtirib borilsin.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupaliyevna, K. S. (2023). The Importance of Teaching Medical Terms in English Language.

2. Yusupaliyevna, K. S. (2022). The Role of Phonetics in Pronunciation English Borrowing in Medical Terminology. *Procedia of Social Sciences and Humanities*, 4, 21-22.

3. Mastura, J. (2023). The period of Ashtarkhanies. *Miasto Przyszłości*, 42, 698-705.

4. Mastura, J. (2021). Applying social forms: the project method in teaching foreign languages. *Бюллетень науки и практики*, 7(11), 354-358.

5. Жураева, М. Т. К., & Астонова, Г. Р. (2019). Использование социальных форм для повышения эффективности занятий (в нефилологическом направлении). *Вестник науки и образования*, (20-3 (74)), 20-22.



TANQIDIY TAFAKKUR TUSHUNCHASINING METODOLOGIK ASOSLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Darvishxojayev Xasan Abdulxakimovich

University of Business and Science “Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: xasandarvishxojayev@gmail.com **Tel:** +998998446257

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada tanqidiy tafakkur tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tanqidiy fikrlashning shakllanishi, uning psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy tafakkur, metodologiya, mantiqiy tahlil, muammo yechimi, refleksiya, mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv.

АННОТАЦИЯ: В статье рассматриваются научно-теоретические основы, методологические подходы и практическое значение концепции критического мышления. Также анализировалось формирование критического мышления и его связь с психологическими, педагогическими и социальными факторами.

Ключевые слова: критическое мышление, методология, логический анализ, решение проблем, рефлексия, самостоятельное мышление, творческий подход.

ABSTRACT: This article discusses the scientific and theoretical foundations, methodological approaches, and practical significance of the concept of critical thinking. It also analyzes the formation of critical thinking and its relationship with psychological, pedagogical, and social factors.

Keywords: critical thinking, methodology, logical analysis, problem solving, reflection, independent thinking, creative approach.

KIRISH.

Zamonaviy jamiyatda bilimlarning ortib borishi, axborot oqimining tezligi va murakkab hayotiy vaziyatlar insondan chuqur, asosli va tanqidiy fikrlashni talab qiladi. Tanqidiy tafakkur — bu inson tafakkurining faol, mustaqil va tahliliy shakli bo‘lib, har qanday axborotni tahlil qilish, asoslash va baholash imkonini beradi [1].

Hozirgi kunda butun dunyoda ta’lim jarayonlariga o‘qitishning eng samarali usullarini izchillik bilan joriy etish orqali - har tomonlama yetuk kasbiy malakaga hamda nostandart fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan yetuk kadrlarni tayyorlash muammosi dolzarblik kasb etmoqda. Mamlakatimizda ham barcha sohalar singari, ilm-fan va ta’lim sohalarida, xususan

oliy ta’lim tizimida ham tub islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonida “...talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirilmagan”ligi masalasiga e’tibor qaratilgan [1]. Bu esa, ushbu muammoni ilmiy – pedagogik nuqtai nazardan chuqur va tizimli tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

ASOSIY QISM.

Zamonaviy ta’lim jaroyonlarida butun dunyo olimlari “tanqidiy tafakkur (fikir yuritish)” masalalariga e’tiborni qaratib, uni rivojlantirish uchun turli texnologiyalar hamda uslublarni taklif etmoqdalar va bu masala falsafa, mantiq, pedagogika va psixologiyada qaytadan zamonaviy bilimlar asosida ko‘rib chiqilmoqda.

Pedagogika va psixologiya fanlarida ushbu masala bilan xorijiy olimlardan P. Balonskiy, V. Bolotov, T. Vorapay, A. Ivanova, A. Kocherga, V. Kushner, T. Oleynik, E. Polat, A. Podzelun, S. Romanova, M. Skatkin, I. Slobodyanyuk, V. Teplov, L. Terletskaya, S. Terno, A. Tumantseva, Dayana Xalperi, A. Xachumyan, Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Tempplar kongnitiv ta’lim nuqtai nazardan yondashganlar. O‘zbek olimlaridan - E. G‘oziyev, A. Abduqodirov, R. Djurayev, U. Inoyatov, O‘ Q. Qarshiyev, X. Ibraimov, Sh. Abdullayeva, F. Xodjiyeva, D. Ro‘ziyeva, D. Sharipova va boshqalar tomonidan yoshlarning intellektual rivojlanish masalalarining turli jihatlarini tadqiq etilgan. Ammo, hanuzgacha har bir tadqiqotchi o‘z qarashlarini ifoda etgan bo‘lsalarda, “tanqidiy tafakkur” atamasi haqida yaxlit holdagi yagona ta’rif berilmagan. Masalan, L. Terletskayaning ta’kidlashicha, “tanqidiy tafakkur bu – narsalarning mohiyatiga kirish malakasi, tanqidiy qoidalarga amal qilgan holdagi ketma-ketlikni saqlash, savollar bera olish, uni tushuntirish uchun yangi yondashuvlar topa olish malakasi, muammoni yechish usullarini o‘zgartirishdagi egiluvchanlik malakasi, masalani yechishdagi tezlik malakasi”, sifatida e’tirof etadi[2, -C.185-196]. T. Xauchman, bu fenomenni “fikrlash faoliyatining asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, har qanday masalalarni yechishdagi to‘g‘ri yo‘lni topish strategiyasi, u gepotezalar, tahlillar (axborotlarni ishlash, analitik tekshirib ko‘rish, nazorat qilish, baholash), refleksiv ta’sirlarni o‘z ichiga oladi, turli xil fikrlar va qarashlarni barchasini qamragan holda o‘z xususiy nuqtai-nazarini nomoyon qilish, o‘zining va boshqalarning faoliyatidagi natijalarga obyektiv baho bera olish ko‘nikmasini tanqidiy tafakkur”, - deb ta’riflaydi [3,-C.171–177].

V. Teplov, aqlga asoslanilgan tanqid haqida gapirganda, uni “insonni bilish faoliyatining ma’lum bir sifati” tarzida ifodalaydi Dayana Xalperi “Faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro‘y beradigan jarayon tanqidiy fikrlash hisoblanadi. Tanqidiy fikr egasiga hiyla-nayranglar kamroq ta’sir qiladi, o‘zining shaxsiy qarashlar tizimi bo‘lgani uchun ular turli xavf-xatardan holi bo‘ladilar”-deb yozadi.

Amerikalik olimlar Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Tempplar o‘z qarashlarida “Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g‘oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin

bo‘lgan oqibatlarini ham e‘tiborga oladi. Bunda odam bu g‘oyalarni dastlab ma‘lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtai-nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo‘shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o‘z nuqtai-nazarini ishlab chiqadi” deb, tanqidiy tafakkurning psixologik jihatlarini izohlaydi.

O‘zbek psixolog olimi E. G‘oziyevning ta’kidlashicha, “Tanqidiy tafakkur- o‘zining va o‘zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilishda hamda muammoli vaziyatlarga baho bera olishda ifodalanuvchi tafakkur tanqidiy tafakkur deyiladi”- deb ta’kidlaydi.

O‘zbek olimasi Sh.A. Abdullayeva “Tanqidiy tafakkur –fikir yuritishning shunday ko‘rinishiku, unda aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya)ning barchasi ishtirok etadi”,- deb yozadi. Demak, ta’lim oluvchi taqdim qilinayotgan o‘quv materialini o‘zlashtirishi uchun bilish jarayonlarining induktiv(ayrim, xususiy tajribalarini umumlashtirib xulosa chiqarishga fikran harakat qilish) va deduktiv (umumiydan ayrimlikka yuksalish) pag‘onalaridan o‘tadi. “Tanqidiy tafakkur” deganda ko‘pchilik uning mazmunidagi inkor qiluvchi ma’nosiga e‘tibor qaratib, maqsadga muvofiqlikni qarama- qarshisi hisoblangan nomuvofiqlikka urg‘u berishadilar. Aslida ingliz tilidagi “Critical” so‘zi o‘ta chuqur ma’noga ega bo‘lib, muvofiqlikni inkor etmaydi, balki, hatto “Literacy” so‘zi bilan teng ma’noga ega bo‘lib, so‘zma- so‘z tarjima qilinganda nafaqat o‘qish va yozishni bajara oladigan, balki “savodli bilimdon” kishilarga nisbatan ishlatiladigan e‘tirof hisoblanadi.

“Tanqidiy tafakkur” tushunchasining metodologik asoslarini unga tegishli bo‘lgan bir nechta izoh yoki xulosalar orqali to‘liq aniqlab yoki ifodalab bo‘lmaydi. Shuning uchun uning keng qamrovli va murakkab sturukturaga, obyektiv va subyektiv xarakterga ega ekanligini inobatga olish lozim. Ilmiy-pedagogik izlanishlarimiz “Tanqidiy tafakkur”ning quyidagi jihatlar bilan uzviy aloqadorlikda va dialektik birlikda ekanligini ko‘rsatmoqda:

- tanqidiy tafakkur, bu mustaqil, mantiqiy xatosiz fikrlash va fikr yuritish, turli fikrlardagi kuchli hamda zaif tamonlarni ko‘ra olish, ularni to‘g‘ri baholay olish qobiliyatlarini o‘zida mujassam etadi;

- tanqidiy tafakkur - voqealarni, fikrlar, dalillar, munosabatlar to‘g‘riligini baholash, ongli tanlov qilish, bahslashish uchun tegishli savollarni shakllantirish, dalillar va fikrlarni farqlay olish qobiliyatiga asoslangan holda fikr yuritish orqali yangi yechimlar, tahlil qilish mezonlarini topish, taxminlarni tasdiqlovchi dalillarni aniqlash, ular orasida mantiqiy aloqalarni o‘rnatish faoliyatini nazarda tutadi;

- tanqidiy tafakkur - oqilona, refleksiv fikrlash bo‘lib, nimaga ishonish yoki qanday harakatlarni amalga oshirish lozimligini ruyobga chiqaruvchi omil;

- tanqidiy tafakkur - shaxs tamonidan ifoda etilgan fikrlari yoki uning xulq-atvori va u haqidagi umumqabul qilingan me‘yorlar hamda o‘z g‘oyalari, ta’savvurlari orasidagi nomutanosibliklarini ko‘ra bilish qobiliyati, nazariyadagi haqiqat yoki yolg‘onligini anglash, ba’zi fikrlarni rad etish uchun tahlil qilish, isbotlash orqali ularga javob berish hamda yo‘naltira olish qobiliyati;

- tanqidiy tafakkur – bu mahoratdir;
- to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, real olamda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni ko‘ra olish, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ularni oqilona hal qilish yo‘llarini izlash, olingan bilimlarni tanqidiy tahlil qilish va ularni yangi muammolarini hal qilishda qo‘llash, olingan bilimlarni voqeylikda qayerda va qanday qo‘llash mumkinligini aniq bilish qobiliyati va h.k. Shu bilan birga tanqidiy tafakkurlash o‘zining quyidagi juda muhim belgilariga ega:
 - analitik dalillar va hodisalarni tanlash, taqqoslash kabi xususiyatlarini belgilaydi;
 - assotsiativlik ya’ni ilgari o‘rnatilgan dalillarning hodisalar bilan birlashuvini ta’minlash;
 - mantiqiylik – harakatlar ketma – ketligi, muammoni hal qilishdagi isbotlar mantiqiylikni tuzish mahorati;
 - tizimlilik – obyekt va undagi muammolarni ulardagi aloqalar, xususiyatlarning yaxlitligini ko‘rib chiqish qobiliyati va h.k.

Bizningcha, tanqidiy tafakkur - shaxsning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, uning pozitsiyasini namoyon etish zarurligini anglashni, fikrlarni to‘g‘ri tahlil qilmasdan va anglamasdan ta’sir qilmaslik qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu qobiliyat bevosita ijodiy fikrlash jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Tanqidiy va ijodiy fikrlashning o‘ziga xos bo‘lgan xarakterli xususiyatlari bo‘lsada, ular yaxlit va spontan fikrlash jarayonida o‘zaro ta’sirlashib, teskari aloqaga kirishadi. Chunki, ularning dialektik birligi yuqori darajadagi murakkab fikrlashdir. Ratsionallik tushunchasi maqsad va vositalarning maqbul kombinatsiyasini nazarda tutadigan tashkiliy tamoyil sifatida tanqidiy tafakkurlash bilan bog‘liq. Ijodiy fikrlash inson munosabatlari va xulq atvori sohasida mavjud. Ratsionallik orqali axloqiy, milliy, oilaviy, shaxslararo nizolarni hal qilish mumkin emas. Aqlli shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish amaliyotga, oddiy hayot mantig‘iga, kundalik nutqqa, ko‘p mezonlardan foydalanishga qaratilgan bo‘ladi.

A.Kocherganing fikricha, insonning tanqidiy fikrlashi his-tuyg‘ular va tasavvurlarning o‘zaro aloqadorligini birlashtiradi. Insonning tanqidiy munosabat g‘oyasining intellektual manbaini asosiy yo‘naltiruvchisi – bu falsafa va umumiy psixologiya bo‘lib, unda tashqi ta’sirlarning aqliy, ruhiy holatlarga quyidagi ketma-ketlikda yuzaga chiqarishga olib keladi: ya’ni, moyillik – qobiliyat – mexanizm, buning psixologik jihati esa, aks ettirish mexanizmi – loyihalashtirish – mulohaza yuritish orqali bilish faoliyatiga o‘tkaziladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki - “Tanqidiy tafakkur – “insonning o‘zida mavjud bo‘lgan bilimlar asosida tashqi axborotlarga munosabat bildirishi bo‘lib, undan nimalarni qabul qilish mumkin, nimalarni to‘ldirish zarur yoki nimalarni inkor qilish kerakligi haqida qaror ishlab chiqish jarayonini anglatadi”. Ba’zi paytlarda inson, o‘zidagi xususiy qarashlarini (e’tiqodlari, tamoyillari, dunyoqarashlari, maslaklarini) o‘zgartirishi yoki olingan yangi axborotlar bordi-yu qarama-qarshi mazmun kasb etadigan bo‘lsa ulardan voz kechishi ham mumkin. Tanqidiy tafakkur, qabul qilingan yangi axborotlar bilan faol ta’sirlashishi va u bilan muvofiqlashishi uchun qanday o‘zgarishlar qilish kerakligini o‘rgatadi. Demak, inson nafaqat o‘zining ichki fikr yuritish (tafakkurlash) qobiliyatiga ishonishi, balki boshqa

insonlarning qarashlari bilan o‘zaro ta’sirlashib, muhokama qilish, bahslashish orqali turli fikrlar to‘qnashuvidagi eng samarali maqbul nuqtani topish malakasiga ega bo‘lishi kerak ekan. Biroq, bu bilan jarayon tugamaydi: biz tanqidiy tafakkurlashni amalga oshirayotganimizda, nafaqat aqlimiz faollashadi, balki his tuyg‘ularimiz, sezgilarimizda ham o‘zgarishlar yuz beradi. Shuning uchun ham tanqidiy tafakkur o‘zining paydo bo‘lish xususiyatlari jihatidan ham, faoliyat usuli jihatidan ham, o‘z natijalari jihatidan ham ijtimoiy ong mahsuli hisoblanadi.

Tanqidiy tafakkurning asosiy xususiyatlariga analiz (butunni fikran tarkibiy bo‘laklarga bo‘lish) va sintez (bo‘laklarni bir butunga birlashtirish), abstraktlashtirish (narsalarning xossalari va munosabatlarini fikran nazardan soqit qilish), muayyan muammolarni o‘rtaga tashlash va ularni hal qilish usullarini topish, farazlarni, g‘oyalarni ilgari surish jarayonlari kiradi, uning natijasi esa, fikrga aylanadi va nutq orqali izohlanadi (moddiylashadi). Demak, tanqidiy tafakkur - insonlarda mavjud bilim va tajribasi bilan yangi bilimlar (yoki axborotlar) to‘qnashuvidagi ichki aloqadorliklardan eng umumiy, davriy, takrorlanib turuvchi xususiyatlar va munosabatlardagi qonuniyatlarni anglash uchun bo‘lgan bilish jarayoni bo‘lib, mantiqiy ketma- ketlikda inkor qilishi, bir-birlarini to‘ldirishi va muvofiqlashishi, mukammallikka erishishi mumkin bo‘lgan ijodiy faoliyat hisoblanadi.

Tanqidiy tafakkur – bu mantiqiy, asosli, ob’yektiv va tizimli fikrlash usulidir. Uning metodologik asoslari falsafa, mantiq, psixologiya va pedagogika kabi fanlarga tayangan holda shakllanadi:

- Falsafiy asos – shubha qilish, muqobil fikrlarni baholash, bilimlarning nisbiyligi g‘oyalari Descartes, Kant va boshqa faylasuflar qarashlariga borib taqaladi.

- Psixologik asos – inson idroki, bilimni qabul qilish va qayta ishlash jarayonlari orqali tanqidiy fikr shakllanadi.

- Pedagogik asos – o‘quvchilarda muammo yechishga yo‘naltirilgan faoliyat orqali tanqidiy tafakkurni rivojlantirish metodlarini o‘z ichiga oladi [4].

Tanqidiy tafakkur oddiy fikrlashdan farqli ravishda bir nechta muhim xususiyatlarga ega:

- Dalillilik – fikrlar va xulosalar aniq dalillarga asoslanadi.

- Tahliliylik – axborotni qismlarga ajratib, har bir qismini baholash.

- Ob’yektivlik – shaxsiy hissiyot va qarashlardan xoli holda fikr yuritish.

- Refleksiya – o‘z fikr faoliyatini kuzatish, tahlil qilish va baholash.

- Muqobil yechimlarni ko‘ra olish – har qanday muammoni turli burchaklardan baholay olish qobiliyati [5].

Tanqidiy tafakkur quyidagi omillar ta’sirida shakllanadi:

- Ta’lim jarayonidagi faol metodlar – muammoli vaziyatlar, debatlar, keys-stadilar.

- Oila va ijtimoiy muhit – ochiq fikr almashinuvi va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan muhit.

- Shaxsiy xususiyatlar – intellektual qiziqish, ochiqlik, shubha qilish qobiliyati [6].

Tanqidiy tafakkur zamonaviy kasblar va hayotiy vaziyatlarda muhim kompetensiyalardan biridir. U insonni stereotip fikrlashdan saqlaydi, innovatsion qarorlar qabul qilishga yordam beradi, manipulyatsiyalarga qarshi tura olishga xizmat qiladi [7].

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shunday xulosaga olib keladiki, tanqidiy tafakkurlash o‘ta murakkab va shu bilan birga shaxs hayotida juda ahamiyatli bo‘lganligi uchun bunday tafakkurni yoshlarimizda shakllantirish - real voqelikka aql ko‘zi bilan qaraydigan, o‘zining aniq pozitsiyasiga va ishonchli harakat trayektoriyasiga ega bo‘lgan salohiyatli kadrlarni tayyorlashda muhim hisoblanadi. Biz pedagoglarning galdagi vazifamiz esa - ta’lim oluvchilarda ana shunday tafakkurni rivojlantirishning aniq ilmiy-metodik konsepsiyasini zamonaviy pedagogic yondashuvlar asosida ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish hisoblanadi.

Tanqidiy tafakkur — bu zamonaviy inson uchun zarur intellektual ko‘nikma bo‘lib, uni shakllantirish va rivojlantirish metodologik jihatdan asoslangan yondashuvlarni talab qiladi. U shaxsni mustaqil, ongli va ijtimoiy jihatdan faol bo‘lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 08.10.2019 yildagi PF-5847- sonli Farmoni
2. Терлецкая Л. Критическое мышление как средство развития умений учащихся анализировать и применять информацию / Терлецкая Л. – Материалы международной научно-практической конференции «Развитие навыков критического мышления». 2012.
3. Хачумян Т. И. Понятие “критическое мышление” и его сущность в психолого-педагогической науке / Хачумян Т. И. // Теоретические вопросы культуры, образования и воспитания: сб. наук. пр. Вып. 24, часть 2. – Киев: Издательский центр КНЛУ, 2003.
4. Paul, R., & Elder, L. (2020). Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Pearson Education.
5. Ennis, R. H. (2018). The Nature of Critical Thinking: An Outline of Critical Thinking Dispositions and Abilities. University of Illinois.
6. Halpern, D. F. (2014). Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. Psychology Press.
7. Karimova V.M. (2021). Umumiy psixologiya. Toshkent: Fan.
8. Nishonova S.T. (2022). Tanqidiy tafakkur asoslari va ta’limdagi ahamiyati. Toshkent: Ilm Ziyo.
7. G‘oziyev E. G‘. Tafakkur psixologiyasi -Toshkent: O‘qituvchi, 1994,-292 b



TA'LIMDA MOTIVATSIYA VA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA O'QUV O'YINLARINING ROLI

Turayeva Gulnoza Ergashevna

*TerDU Boshlang'ich ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan kompyuterli didaktik o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy jarayondagi roli va samaradorligi yoritilgan. Didaktik o'yinlar o'quvchilar va talabalar uchun bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita sifatida baholanadi. Maqolada o'yinlar orqali o'qitishning afzalliklari, didaktik o'yinlarning turlari, ularning funksiyalari va qo'llanish shakllari misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, kompyuter texnologiyalari, ta'lim jarayoni, axborot texnologiyalari, o'quv motivatsiyasi, interfaol o'qitish.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и эффективность компьютерных дидактических игр, разработанных на основе информационно-коммуникационных технологий, в образовательном процессе. Дидактические игры оцениваются как важный инструмент формирования знаний, навыков и компетенций у учащихся и студентов. Преимущества игрового обучения, виды дидактических игр, их функции и формы применения проанализированы с примерами.

Ключевые слова: дидактические игры, компьютерные технологии, образовательный процесс, информационные технологии, учебная мотивация, интерактивное обучение.

Abstract. This article explores the role and effectiveness of computer-based didactic games developed using information and communication technologies in the educational process. Didactic games are evaluated as a key tool in shaping students' knowledge, skills, and competencies. The article analyzes the benefits of game-based learning, the types of didactic games, their functions, and practical applications with examples.

Key words: didactic games, computer technologies, educational process, information technology, learning motivation, interactive teaching.

Kirish. Ta'lim-tarbiyaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi o'qitishning axborotni elektron vositalari orqali uzatish, qayta ishlash va undan foydalanishga asoslangan yangi metod va shakllarining paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Shuningdek, axborot

– kommunikatsiya texnologiyalari, o‘qitishning elektron vositalari (o‘quv-metodik multimedia materiallari, masofadan amaliyot ishlari, kompyuter yordamida testlar, elektron darsliklar va qo‘llanmalar hamda kompyuterda didaktik o‘yinlar va hokazo) asosida ishlab chiqilgan materiallardan foydalangan holda, tashkil etiladigan an’anaviy dars shakllarining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Shuning uchun ta’lim-tarbiyaviy jarayonda turli ko‘rinishdagi didaktik o‘yinlardan foydalanish kutilgan samarani beradi. Ta’lim maqsadlariga qaratilgan didaktik o‘yinlar ta’lim-tarbiyaning zamonaviy psixologik-pedagogik texnologiyalar orasida muhim ahamiyatga ega. Ta’lim-tarbiya maqsadiga qaratilgan didaktik o‘yinlar metod sifatida XX asrning 70-yillarida keng tarqala boshlangan. Hozirgi davrda qo‘llanilish sohasiga bog‘liq ravishda turli modifikatsiyali didaktik o‘yinlar ta’lim-tarbiya amaliyotiga joriy etilgan.

Ta’lim-tarbiyaviy jarayonda foydalaniladigan didaktik o‘yinlar (o‘quv o‘yinlari) ko‘ngilochar o‘yinlardan o‘zining maqsad-mohiyati va yo‘nalish usuli bilan farq qiladi, ya’ni o‘quv o‘yinlari muayyan bosqichning yakuni, yangi o‘quv masalasining paydo bo‘lishiga olib keladi. Modomiki shunday ekan, o‘quv o‘yinlari o‘quv faoliyatining muayyan bir ta’limiy vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadigan alohida bir shakli sifatida qaralishi mumkin. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, didaktik o‘yin – bu shartli vaziyatlarda subyekt uchun qiziqarli bo‘lgan o‘quv faoliyati. Binobarin, o‘qitish – ijtimoiy-tarixiy tajribani maqsadli ravishda yetkazish, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar shakllanishi uchun muhit va shart-sharoitni tashkil etish jarayoni ekan. Aytish joizki, didaktik o‘yin subyektning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar shakllanishiga yo‘naltirilgan shartli interfaol faoliyati.

Tahlil va natija. Didaktik o‘yinlar ta’lim-tarbiya oluvchilarning yangi materialni o‘zlashtirish, mustahkamlash yoki olingan bilimlarni takomillashtirish davomida diqqatni zarur darajada jamlashlarini ta’minlash hamda bilishga motivatsiya beruvchi vositasi sifatida ham qaralishi mumkin. Taassufki, hozircha faqat umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagina bunday yondashuvlarni doimiy ravishda kuzatish mumkin, xolos. Shunisi ham borki, keyingi vaqtlarda didaktik o‘yinlarni joriy etish amaliyotiga oliy ta’lim muassasalari ham qiziqish bildirmoqdalar: didaktik kompyuter o‘yinlari mavzusiga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari olib borilmoqda, ilmiy ishlar, jurnallar, konferensiya materiallari to‘plamlari nashr etilmoqda, bu borada mutaxassislar tayyorlashga kirishilmoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qitishning verbal va ratsional metod hamda vositalaridan juda ko‘p foydalanilganligi va ta’lim oluvchining hissiy xususiyatlari e’tiborga olinmagani uchun ko‘p tanqidga uchradi. Didaktik o‘yinlar shaxs bilish faoliyatining hissiy va ratsional ko‘rinishlarini umumlashtiradi.

O‘quv o‘yinlari 3 ta muhim funksiyani bajaradi:

1. Vositaviy (instrumental) funksiya: muayyan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.
2. Bilish (gnostik) funksiyasi: ta’lim oluvchilarda fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish.
3. Ijtimoiy-psixologik funksiya: ta’lim oluvchilarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Har bir funksiya o‘quv o‘yining muayyan ko‘rinishi orqali amalga oshiriladi: vositaviy (instrumental) funksiya – mashqli o‘yinlarda, bilish (gnostik) funksiya – didaktik o‘yinlarda, uchinchi funksiya esa rolli o‘yinlarda namoyon bo‘ladi.

Qayd etish lozimki, o‘quv o‘yinlarida mashg‘ulot faqatgina o‘yin o‘ynashdan iborat bo‘lib qolmaydi: o‘quv o‘yinlari davomida guruhli va individual ishlar amalga oshiriladi; muhokama va bahs-munozara uyushtiriladi, so‘rov va testlar o‘tkaziladi; rol bajarishni taqozo etadigan vaziyatlar yaratiladi. Boshqacha aytganda, o‘quv o‘yinlari «aqliy hujum», o‘qish va yozish yordamida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, so‘rovnoma o‘tkazish, refleksiya kabi metodlarni uyg‘un holda qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi.

Shu bilan bir qatorda o‘quv o‘yinlari amaliyoti pedagogikada bir qadar o‘ziga xosliklarga ega. O‘qitish jarayonida ko‘pincha o‘yin yordamchi element – nazariy materiallarni to‘ldiruvchi sifatida qo‘llaniladi va o‘qitishning asosiy metodi sifatida qaralmaydi. Ammo boshqa tomondan, tadqiqot ishlarining ko‘rsatishicha, o‘quv o‘yinlaridan foydalanish natijasida ta’lim samaradorligi o‘rtacha 3 barobar oshishi kuzatilgan.

Oliy ta’lim muassasalardagi o‘yinlar texnologiyasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Oliy ta’lim muassasalarda kompyuter o‘yinlaridan foydalanish talabalarning o‘quv faoliyatini jadallashtirish va o‘quv jarayonlarining samaradorligini ta’minlash zaruratlarini keltirib chiqaradi.

O‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi o‘yinlarni tashkil qilish, ya’ni o‘yinda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va pedagogikani o‘zaro uyg‘unlashtirish murakkab jarayon hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. O‘yinli darslarni o‘qitish jarayonida didaktik funksiyalar.

Ta’lim xususiyatiga ega bo‘lgan kompyuter o‘yinlari mantiqni rivojlantiradi, diqqatni jamlash, muhim elementga e’tibor qaratish va qisqa fursat ichida hal qiluvchi qaror qabul qila olish kabi sifatlarni takomillashtiradi. Bulardan tashqari, kompyuter o‘yinlari yangi o‘quv

materialini o‘zlashtirishning barcha bosqichlarida va nazoratda qo‘llanilishi mumkin: xoh u o‘quv materiali bilan dastlabki tanishuv bo‘lsin, xoh o‘tilgan mavzuni mustahkamlash bo‘lsin. O‘yinga xos bo‘lgan elementlardan o‘quv kompyuter dasturlarining barcha shakllarida foydalanish maqsadga muvofiq.

Masalan, bilimlarni charxlash bo‘yicha o‘yinda topshiriqlar uchta murakkablikda bo‘lishi va shunga muvofiq holda bilimni o‘zlashtirishning uchta darajasini ta’minlashi mumkin:

1. Oddiy yoki soddalashtirilgan - o‘zlashtirish darajasi belgilanadi.

2. Bir qadar murakkablashtirilgan (mozaikali testlar, ruletka, labirint va boshqa shu kabi o‘yinlar) va intellektual boshqotirma o‘yinlar (chaynvord, krossvord, kross-chaynvord, sharada, ollvord, metagramma, anagramma, logogrif, polindrom, rebus, kriptogramma) – bilimni oshirishga qaratilish darajasi.

3. Juda murakkab – mahsuldorlikni belgilovchi daraja.

Axborot texnologiyalari kursi bo‘yicha yangi avlod o‘quv-metodik majmua elektron tashkil etuvchilari (komponentlari) namunaviy maketining asosiy mundarijaviy elementlari, tuzilmasi va tarkibini ishlab chiqish vazifasi asosida – “Axborot texnologiyalari asoslari” elektron qo‘llanmasi, “Ta’lim-tarbiya va salomatlik” sohaviy dasturi asosida o‘yinli multimedaviy elementlar vositasida foydalaniladigan andozalar ishlab chiqildi. Ushbu andozalar bir nechta ob’ektdan faqat bittasini (ramz, timsol, so‘z, tasvir, ovoz, video, animatsiya va shu kabilar) tanlashni nazarda tutuvchi test topshiriqlariga asoslangan bo‘lib, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur jarayonlarda pedagogik texnologiyalarning quyidagi usullaridan foydalanish nazarda tutiladi:

-o‘qish, ko‘rish va eshitish orqali (Insert metodida ko‘zda tutilgan usullar);

-klasterlarga taqsimlab tashlash;

-fishboun (baliq skeleti);

-Sinkveyn metodi;

-B – B – B (Bilaman – bilishni istayman – bilib olaman) jadvali.

Aynan uchinchi murakkablik darajasiga ega bo‘lgan didaktik o‘yinlarda bilimlarni o‘zlashtirish faqat bilib olish, tushunish va uzatishlar orqaligina bo‘lmay, mahorat va idrok etish darajasida amalga oshadi. Uchinchi murakkablik darajasiga ega bo‘lgan bunday dasturlarni ishlab chiqish test topshiriqlari va savollardan iborat bo‘lgan dasturlarni tuzishga nisbatan juda qiyin, albatta.

Modomiki, didaktik kompyuter o‘yinlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan zamonaviy ta’lim vositalari ekan, ularni ta’lim vositalarini tasniflashning oddiy metodlariga muvofiq ravishda tasniflash mumkin. Tasniflashning bu usuli A.A.Vagin tomonidan taklif etilgan va P.V.Gor tomonidan takomillashtirilgan. Bu tadqiqotchilar tasniflashni bilim manbai metodiga asoslanib amalga oshirishni va o‘qitishning og‘zaki, matnli bosma, ko‘rgazmali va amaliy metodlarini taklif etishgan.

Og‘zaki o‘qitish metodikasiga muvofiq keladigan o‘yinlarga “Musiqani top” teleo‘yini loyihasi asosida ishlab chiqilgan o‘yinlarni misol keltirish mumkin. Bu turga kiruvchi o‘yinlar

talabalarning musiqali asarlarni ovoz orqali ajratish va shu orqali musiqa haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga qaratiladi. Bu xildagi o‘yinlar o‘quv materialini verbal o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan talabalar uchun ayniqsa foydalidir.

Bosma matnli o‘qitish metodiga xos bo‘lgan o‘yinlarga turli vordlarni (krossvord, chaynvord, skanvord, ollvord) kiritish mumkin. Talabalarga har xil murakkablik va mavzudagi elektron shakldagi krossvordlarni kopyuter yordamida yechish taklif etiladi. Buning natijasida talabada (to‘g‘ri javobni topa olmagan taqdirda) axborot axtarish, internet tarmoqlaridan maqsadli foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi.

Ko‘rgazmali o‘qitishda kompyuter o‘yinlari – bu mozaika ko‘rinishidagi o‘yin bo‘lib, unda talabalarga alohida parcha tasvirlardan yagona va yaxlit tasvir hosil qilish taklif etiladi. Mazkur o‘yin turi tarixiy shajarashunoslik, san’at asarlari tarixi, tarixiy obidalar, mashhur shaxslarning faoliyatini o‘rganishda muhimdir.

O‘qitishning amaliy metodiga xos bo‘lgan o‘yin turlariga “Kim millioner bo‘lishni xohlaydi?”, “Zinama-zina”, “Zakovat” teleo‘yinlari loyihasiga asoslangan o‘yinlarni kiritish mumkin. Bunday o‘yinlar talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratiladi. O‘yinda yana bir ahamiyatli holat shuki, savollar sekin-astalik bilan murakkablashib boradi: bu esa talabada qiziqish va motivatsiyaning ortishiga sabab bo‘ladi. Bu turdagi o‘yinlar o‘zlashtirilgan materiallarni mustahkamlash va sinovdan o‘tkazish uchun qiziqarli hamda ishonchli vositadir.

Shunday vazifalar majmuasidan biri “An’anaviy krossvord”dir. Uning dasturiy ta’minoti krossvord topshiriqlarini qog‘ozda emas, kompyuter monitorida bajarishni ko‘zda tutadi. Qog‘ozdagi krossvordlardan farqli ravishda, asosiy o‘quv quroli sifatida qalam emas, balki klaviatura va sichqonchadan foydalaniladi. Elektron krossvordlarni tuzish, yechish va ishlab chiqishni amalga oshirish uchun instrumental o‘yin vositalaridan foydalanish talabaning tafakkurini oshiradi, o‘z fikrini sodda, mukammal ifodalash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Xulosa. Shunday qilib, aytish mumkinki, kompyuter o‘yinlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish sohaning eng muhim masalalarini hal etish imkonini beradi. Ya’ni talabada motivatsiyani rivojlantirish, refleksiyaning shakllantirish, fikrlash qobiliyatini oshirish, o‘zlashtirilgan bilimlarni o‘z o‘rnida qo‘llay bilish va shu kabilarda muhim o‘rin tutadi. Kompyuter o‘yinlarining yanada mahsuldorligiga erishish uchun modellashtiruvchi dasturlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Shuningdek, mazkur dasturlarda talabaning maqsadga erishishi bilan o‘yin natijalari o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlik ko‘zda tutilmaydi hamda o‘yin davomida o‘rganib borish tamoyilining ustivorligiga asoslaniladi.

Shuningdek, kompyuterda didaktik o‘yinlardan foydalanishda:

- taqdim etiladigan topshiriqlarning muayyan auditoriya talabalari tomonidan qabul qilinishi va unga qiziqish bildirilishi;

- aniq bir vazifaning javob variantlarini taqdim etishda har bir talabada ta’lim-tarbiyaviy jarayonlar asosida tasavvur hosil qilishni ko‘zda tutish;

- tuzilgan vazifalar va savollarning talaba tasavvuri, bilim va tushunchalari doirasida bo‘lishiga erishish va shu kabi omillar hisobga olinishi lozim.

Demak, didaktik o‘yinlar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilar egallagan bilimi, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini amaliyotga qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. Turaeva, G. E. (2022, February). Some aspects of educating students to become highly qualified and competitive personnel. In Conference Zone (pp. 163-165).
2. Turaeva, G. E. (2021). Improving the efficiency of the educational process using computer technology. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 407-410.
3. Turaeva, G. E. (2021). The effectiveness of the use of computer technology in the educational process. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(8), 90-93.
4. Тураева, Г. Э., & Бадалов, Д. А. (2019). Инновационный подход к обучению геометрическим фигурам ученикам начальных классов. *Научные горизонты*, (5-1), 320-323.
5. Исмоилов, Б. Т., Бадалов, Д. А., & Тураева, Г. Э. (2019). Постановка и решение задачи: найти площадь четырехугольника по четырём сторонам. *Научные горизонты*, (5-2), 43-47.
6. Turayeva, G. E. *KOMPYUTERLI DIDAKTIK O ‘YINLARNING TA‘ LIM-TARBIYAVIY JARAYONDAGI AHAMIYATI. НАУКА И ОБЩЕСТВО*, 94.
7. Turayeva, G. E. (2023). YOSH AVLODNI SOG ‘LOM MA ‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ZARURIYATI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(19), 130-136.
8. Turayeva, G. (2023). O ‘QUV-TARBIYAVIY JARAYONDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Interpretation and researches*, 1(1).
9. Turayeva, G. (2023). COMPUTER DIDACTIC GAMES IN ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS. *World Bulletin of Social Sciences*, 23, 70-72.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UMUMIY ASTRONOMIYADAN TALABALARNING MUSTAQIL TOPSHIRIQLARINI IDROK XARITASI YORDAMIDA TASHKIL ETISH

Dadaboyeva Feruzaxon Olimjonovna

Qo'qon davlat universiteti Fizika-astronomiya kafedrasi dotsenti, (PhD).

Qosimova Mohinur

Qo'qon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada talabalar mustaqil ta'lim olish davomida ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlantirish maqsadida Umumiy astronomiya fanidan "Idrok xarita"sidan foydalanib mustaqil topshiriqlarni tashkil etishi keltirib o'tilgan. Shuningdek, "Osmon sferasi, uning asosiy nuqta, chiziq va aylanalari" nomli idrok xaritani Kompyuter dasturlari yordamida tayyorlab, kompyuter savodxonligini oshirib, talabalarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, ijodiy fikrlash, tasavvur, ijod xarita, IT, axborot, Osmon sferasi, Olam o'qi, Matematik gorizont.

ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT ASSIGNMENTS IN GENERAL ASTRONOMY USING A COGNITIVE MAP

Abstract. The article highlights that organizing independent tasks using the "Perception Map" in General Astronomy in order to develop students' imagination and creative thinking skills during independent learning is one of the effective methods for developing creative thinking. It also highlights that the "Celestial Sphere, Its Main Points, Lines and Circles" cognitive map helps students develop their "creative thinking" skills, allows them to generate new ideas, concentrate, identify the essence of the problem, and visually express verbal information.

Keywords: Independent learning, creative thinking, imagination, creative map, IT, information, Celestial Sphere, Axis of the Universe, Mathematical horizon.

ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ ПО ОБЩЕЙ АСТРОНОМИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОГНИТИВНОЙ КАРТЫ

Абстрактный. В статье говорится, что одним из эффективных способов развития творческого мышления является организация самостоятельных заданий учащихся с использованием «Карты восприятия» по общей астрономии для развития у них воображения и навыков творческого мышления в процессе самостоятельного обучения. Также подчеркивается тот факт, что когнитивная карта «Небесная сфера, ее ключевые

точки, линии и окружности» помогает учащимся развивать навыки «творческого мышления», генерировать новые идеи, концентрировать внимание, выявлять истинную суть проблемы и наглядно представлять вербальную информацию.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, творческое мышление, воображение, карта креативности, ИТ, информация, Небесная сфера, Ось Вселенной, Математический горизонт.

KIRISH

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini takomillashtirish asosi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari hisoblanadi. Ular yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo‘lgan, ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil holda harakat qila oladigan, kelajakka qaratilgan vazifalarni qo‘ya olish va ularni yechishga qodir bo‘lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Har qanday jamiyatda bo‘lganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero jamiyat taraqqiyotida mutaxassis kadrlar omilining muhimligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqatdir. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning kasbiy sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so‘nggi yillarda keng ko‘lamli ishlar qilindi va qilinmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta’kidlanganidek, “...o‘qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distansion ta’lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish” talab etiladi.⁶¹

O‘quvchilarga «ijodiy fikrlashni» o‘rgatish ularning «tasavvurini» rivojlantirishdan boshlanadi. Hech qanday ijodiy mahsulot tasavvursiz bo‘la olmaydi degan edi L.S.Vigotskiy.⁶²

O‘quvchilarga «ijodiy fikrlashni» o‘rgatish ularning «tasavvurini» rivojlantirishdan boshlanadi. Hech qanday ijodiy mahsulot tasavvursiz bo‘la olmaydi degan edi L.S.Vigotskiy.⁶³

L. V. Zankov grafik vizuallashtirishdan foydalanishning talabalar tafakkurini rivojlantirish va ularning nazariy bilimlarni egallashiga ta’sirini, vizuallashtirish va o‘qituvchining so‘zlarini birlashtirish usullarini o‘rganib chiqdi va talabalarning aqliy faoliyatini faollashtirish uchun ulardan eng samaralilarini aniqladi. Zorina sxematik ko‘rinishni

⁶¹ Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. /Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Тошкент, 1997. – Б. 31-61

⁶² Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте, 1997 г

⁶³ Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте, 1997 г

qo‘llash va talabalar bilimlarining tizimli tabiati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berdi. N. S. Rojdestvenskiy va T. G. Ramsayeva sxemalar, jadvallardan keng foydalanish, til materialini shrift, rang, maxsus piktogrammalar bilan ajratib ko‘rsatish ta‘limning barcha bosqichlarida va ayniqsa umumlashtirishda katta ahamiyatga ega ekanligini o‘rganishdi. Ta‘lim jarayonida talabalarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muammolari xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ko‘p vaqtlardan buyon o‘rganib kelingan, lekin ular o‘z ilmiy-tadqiqot ishlarida auditoriyadan tashqari topshiriqlarda, jumladan mustaqil ta‘limni tashkil etish jarayonida ta‘lim oluvchilarning tasavvur va nostandart fikrlashini rivojlantirishda Ijod xaritadan foydalanib vizuallashtirish o‘rganilmagan.

Ijodiy fikrlash – muammoning yechimini topish, yangi narsani yaratish maqsadidagi fikrlashdir. Dj.Gilfordning fikricha, ijodiy fikrlash uchun yangilikni ko‘ra bilish va idrokning moslashuvchanligi muhimdir.⁶⁴

Idrok xarita (aqliy xarita, bog‘lanish diagrammasi, fikrlar xaritasi, assotsiativ xarita, aql xaritasi) — bu g‘oyalar, tushunchalar, ma‘lumotlarni asosiy va ikkilamchi mavzulardan tashkil topgan xarita sifatida taqdim etishning grafik usuli.

Mahalliy va xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish o‘quv maqsadlarini yanada to‘liq amalga oshirishga, mutaxassis shaxsining kasbiy ahamiyatga ega sifatlarini shakllantirishga va ta‘lim tizimini har tomonlama innovatsion rivojlantirishga qaratilgan. Binobarin, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishni takomillashtirish, mustaqil ta‘lim faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘qituvchidan uslubiy yordam va nazoratni ta‘minlash, o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayoni natijalarini tahlil qilish usullarini topish, talabalarning mustaqil ishlash shakllarini diversifikatsiya qilish.

F.A.Disterveg o‘quvchilarni aqliy kuchlarini rivojlantirish g‘oyasini ko‘rib chiqib, shuni ta‘kidlab: “Rivojlanish va ta‘lim hech bir insonga berilishi va yetkazilishi mumkin emas. Har kim bunga shaxsiy faoliyati bilan erishishi kerak. Inson o‘zining mustaqil yo‘l bilan egallamagani - uniki hisoblanmaydi”, – deb fikr bildirgan.

Buyuk mutafakkirimiz Abdulla Avloniyning fikricha, - “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan taqdir (orzu) qilib kelingan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan va vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonni sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘lur”- deb yozadi o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida. Yana shu asarida badan tarbiyasi bilan bir qatorda fikr tarbiyasiga ham alohida ahamiyat beradi. Uning takidlashicha, fikr tarbiyasi “ muallimning yordamiga so‘ng darajada muxtojdir” va inson hayotida muhim ahamiyatga ega: “Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa, Xanjar olmosdan bo‘lur o‘tkur. Fikrning oynasi olursa zang, Ruhiravshan zamir o‘lur benur” deb aytib o‘tganlar.

L.V.Golish va D.M.Fayzullayevalar o‘zining olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida ta‘lim oluvchilar tomonidan mustaqil ishni bajarishda ularning faoliyati tizimida ko‘rsatilgan har bir elementlarning muvaffaqiyatli rejalashtirish, tashkillashtirish, monitoring va baholash zarur

⁶⁴ Гильфорд Дж. Понятие об интеллекте и его коэффициент. Психология мышления. Сборник. – М., Прогресс, 1985 г 4; 285-b.

ekanligini asoslab berishgan. M.Barakayevning ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlarini o‘rganib, “Mustaqil ta’lim – ta’lim tizimida ta’limning shunday bir shaklidirki, bunda talabalarning o‘quv faoliyati pedagog tomonidan boshqarilib, topshiriqlar beriladi, maslahatlar uyushtiriladi va bajarilishi nazorat qilinadi” deb ta’kidlaydi.⁶⁵

TADQIQOT OB‘YEKTI VA QO‘LLANILGAN METODLAR

Tadqiqot ob‘yekti sifatida pedagogika Oliy ta’lim muassasalari, fizika va astronomiya ta’limi yo‘nalishlarida Astronomiya fanidan “Osmon sferasi, uning asosiy nuqta, chiziq va aylanalari” mavzusini o‘qitish jarayoni olingan. Tadqiqot mavzusini yoritishda Idrok xaritasi usulidan foydalanilgan.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Biz quyida astronomiyadan “Osmon sferasi, uning asosiy nuqta, chiziq va aylanalari” mavzusini o‘qitishda Ijod xaritasi usulidan foydalanishni keltirganmiz.

Osmon sferasi deb, radiusi ixtiyoriy qilib olingan va markazi fazoning ixtiyoriy nuqtasida (masalan, kuzatuvchining ko‘zida) yotgan shunday sferaga aytiladiki, unda osmondagi yulduzlar ma’lum bir vaqtda, fazoning tanlangan nuqtasidan qaralganda qanday ko‘rinsa shundayligicha proyeksiyalangan bo‘ladi.

Ta’rifdan ko‘rinadiki, osmon sferasi markazida joylashgan kuzatuvchi, uning sirtida joylashgan yulduzlarni osmonda ular qanday namoyon bo‘lsa, shundayligicha ko‘radi. Osmon sferasida yoritgichlarning o‘zaro joylashishi, ularning ko‘rinma va haqiqiy harakatlarini o‘rganishda aslida uning quyidagi asosiy nuqta, chiziq va aylanalariga tayaniladi.

Sferaning markazi va kuzatuvchi turgan nuqtadan o‘tgan vertikal yo‘nalishning osmon sferasi bilan kesishgan ikki nuqtasidan biri (kuzatuvchi bosh tomoni yo‘nalishidagisi) zenit Z, unga diametral qarama qarshi yotgan ikkinchisi esa nadir Z’) deb nomlanadi (2-rasm). Sferaning mazkur nuqtalarini tutashtiruvchi to‘g‘ri chiziq esa vertikal chiziq deyiladi.



Osmon sferasini, uning markazidan vertikal chiziqqa perpendikulyar qilib o‘tkaziladigan tekislik bilan kesishishdan hosil bo‘lgan katta aylana – matematik gorizont deb yuritiladi. Matematik gorizont tekisligiga parallel tekisliklar bilan sfera kesishishidan hosil bo‘lgan aylanalar esa almuqantarotlar deyiladi. Sferaning vertikal o‘q orqali o‘tuvchi tekisliklar bilan

⁶⁵ Aziza Avaz qizi Rahmonova “Mustaqil topshiriqlar orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari”
"Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842

kesishishidan hosil bo‘lgan katta aylanalari vertikal aylanalar deb ataladi. Yuqorida eslatilgan nuqta va chiziqlar kuzatuvchining Yer sirtidagi o‘z o‘rnini o‘zgartirishi bilan o‘zgarib turadi. Osmon sferasining Yer shari asosiy chiziq va nuqtalariga tegishli yana shunday nuqta va chiziqlar mavjudki, ular Yeming istalgan joyidan kuzatilganda ham vaziyatlarini o‘zgartirmaydi. Olam qutblari, olam o‘qi, osmon ekvatori va ekliptikalar shunday nuqta va chiziqlardan hisoblanadi. Yer o‘qi davomlarining osmon sferasi bilan kesishgan nuqtalari olam qutblari deyiladi. Yer o‘qi shimoliy qutbi davomining kesishgan nuqtasi - olamning shimoliy qutbi P, janubiy qutb davomining kesishgan nuqtasi esa olamning janubiy qutbi P’ deyiladi. Olam qutblarini tutashtiruvchi o‘q esa olam o‘qi deb yuritiladi.

Osmon sferasi markazidan o‘tib, uni Olam o‘qiga tik tekislik bilan kesishishidan hosil qilingan katta aylana osmon ekvatori deyiladi. Osmon ekvatori Yer ekvatori bilan bir tekislikda yotadi. Osmon ekvatori tekisligiga parallel tekisliklar bilan sferaning kesishishidan hosil bo‘lgan aylanalar- sutkalik parallellar deyiladi. Olam o‘qi orqali o‘tuvchi tekisliklar bilan sferaning kesishishidan hosil bo‘lgan katta aylanalar esa og‘ish aylanalari deb ataladi.


Osmon sferasining asosiy chiziqlari va aylanalari proyeksiyalangan tekislikda yotib, olam qutblari, zenit va nadir nuqtalardan o‘tuvchi katta aylana - osmon meridiani deyiladi. Uning matematik gorizont bilan kesishgan nuqtalari esa Shimol (olamning shimoliy qutbiga yaqini) va Janub (olamning janubiy qutbiga yaqini) nuqtalari deb ataladi. Bu nuqtalardan 90° yoy masofada yotgan matematik gorizontning nuqtalari - Sharq va G‘arb nuqtalari deyiladi. Matematik gorizont tekisligi bo‘ylab yo‘nalib, shimol va Janub nuqtalarini tutashtiruvchi to‘g‘ri chiziq tush chizig‘i deb yuritiladi. Osmon sferasining yuqorida keltirilgan nuqta va chiziqlari o‘rganilgach, ular asosida osmonning turli koordinatalari sistemalarini qabul qilish ortiqcha qiyinchilik tug‘dirmaydi.⁶⁶

Mustaqil topshiriqlarni tashkil etishda Idrok xarita (chizma-tasviriy modellar)dan foydalanish talabalarning mantiqiy fikrlash, tasavvurni rivojlarish, IT texnologiyalarga qiziqishini ortishi hamda ma’lumotlarni vizuallashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu esa talabalarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini oshiradi.

Informatikada kompyuter savodxonligini oshirish uchun foydalanuvchi ko‘proq “Kompyuter dasturlari”dan foydalanadi. Kompyuter dasturlarini talab quyidagi ko‘rinishdagi ijod xarita yordamida ifodalab bersa uning bu mavzuni mukammal darajada o‘zlashtirganini anglashimiz mumkin. Chunki mavzuni “Idrok xarita” metodidan foydalanishi talabaning tasavvur qilish qobiliyatini oshirib ijodkorlikka undaydi.

Quyida biz “Osmon sferasi, uning asosiy nuqta, chiziq va aylanalari” mavzusidan mustaqil ta’lim tashkil etishda kompyuterda idrok xaritamizni taqdim etish orqali inson ko‘rish orqali ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishi va tasavvur qilishini keltirib o‘tamiz.

⁶⁶ M. Mamadazimov. Umumiy Astronomiya. Toshkent «Yangi asr avlodi» 2008. 12-14-b



XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalar mustaqil ta'lim topshiriqlarni intellekt xaritalar yordamida topshirishi tashkil etishi ularning tasvvur qilish qobiliyatini hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Chunki ijod xarita:

- Muammoga aniqlik kiritadi;
- Muammoni yechish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tartibga soladi;
- Vaziyatni to'la tasavvur qilishga va tasvirlashga yordam beradi;
- Barcha zarur ma'lumotlarni saqlash vositasiga aylanadi;
- G'ayrioddiy yechimlarni rag'batlantiradi.⁶⁷

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. /Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Тошкент, 1997. – Б. 31-61
2. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте, 1997 г
3. Гильфорд Дж. Понятие об интеллекте и его коэффициент. Психология мышления. Сборник. – М., Прогресс, 1985 г 4; 285-б.
4. Aziza Avaz qizi Rahmonova "Mustaqil topshiriqlar orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari" "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842
5. A.G. Ganiev, S.N. Tashev The Role of "Imagination" in the Process of "Creative Thinking" Developing Students' "Imagination" and "Creative Thinking" Skills in Teaching Physics. Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 2, 2021, Pages. 633-642 Received 20 January 2021; Accepted 08 February 2021.633. <http://annalsofrscb.ro>
6. M. Mamadazimov. Umumiy Astronomiya. Toshkent «Yangi asr avlodi» 2008. 12-14-b

⁶⁷ A.G. Ganiev, S.N. Tashev The Role of "Imagination" in the Process of "Creative Thinking" Developing Students' "Imagination" and "Creative Thinking" Skills in Teaching Physics. Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 2, 2021, Pages. 633-642 Received 20 January 2021; Accepted 08 February 2021.633. <http://annalsofrscb.ro>



UDK 37.01

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH, BOSHQARISH VA BOLALARNI XISSIY- MA'NAVIY TAYYORLASH MEKANIZMLARI

Axmedova Nigoraxon Dadaxonovna

Andijon davlat tibbiyot instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrası dotsenti,

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Urinbayeva Barchinoy Zafarjonovna

“O‘zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: MTT da tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishni takomillashtirishda fan-texnika yutuqlariga asoslangan eng samarali metodlar va uning mazmun-mohiyati tarbiyachilar o‘z faoliyatida afzal bilgan va ilmiy asoslangan barcha usullardan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Bunda bir tomondan tarbiyachilar bilan tarbiyalanuvchilarning faoliyati mazmuni, boshqa tomondan bu tizimning o‘zi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tizimli yondashuv asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishdagi faoliyatlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Tizim, obyekt, subyekt, innovatsiya, nazariy-metodologik, motivlashtirish, boshqaruv strategiyasi, kommunikatsiyalar, loyiha.

Kirish. Pedagogik jarayonlarda tarbiyachilar bilan tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, ya’ni subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirish o‘zaro ta’sir jarayonida amalga oshiriladi va mazkur jarayonda o‘zaro ta’sir etish madaniyati shakllanib, rivojlanib boradi. O‘zaro ta’sir etish madaniyatining rivojlanishi ta’limiy muhitda innovatsion o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Pedagogik jarayonlarda innovatsiyalar o‘zaro ta’sir madaniyatining eng muhim va asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, ular innovatsion jarayonlarda nafaqat o‘zining tavsifi va xususiyatlari bilan, balki pedagogik jarayonlarni takomillashtirishning eng muhim omillari sifatida ham belgilanadi. Bu o‘z navbatida innovatsiyalarning sifatini va ahamiyatligini belgilash bilan bir qatorda, vaziyatlarga ko‘ra ularni tatbiq etish vaqtlarini ham oldindan belgilaydi. O‘zaro ta’sir madaniyati umumiy ijtimoiy madaniyatning tashkil etuvchi komponenti sifatida ma’lum bir ijtimoiy madaniyat

kontekstida tushunchalar, shaxslararo munosabatlar va o‘zaro ta’sir natijasida shakllanadi va unda qator kattaliklar –an’anaviylik, dolzarblik darajasi, motivlashtirish tizimi, rahbarlik uslublari, tashkiliy muhitning sifati, kommunikatsiyalar, personalni boshqarish, boshqaruv strategiyasi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning kasbiy hamda shaxsiy madaniyati rasmiy jihatdan namoyon bo‘ladi. O‘zaro ta’sir madaniyatining an’anaviyligi milliy-tarixiy ijtimoiy madaniyat bilan pedagogikaning o‘zaro bog‘liqligiga asoslanuvchi umumtaraqqiy va milliy ta’lim-tarbiya madaniyatining pedagogik tizimda barqaror namoyon bo‘lishi, uning dolzarblik ta’limiy muhitda qulay vaziyatlarning vujudga kelishi sifatida va ijtimoiy ehtiyojlarga mos kelishi bilan belgilanadi. Ta’limiy muhitning sifati uning holatining milliy-madaniy namunalar bilan mos kelishini hamda pedagogik jarayonning samaradorlik darajasi va subyektlar (tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar)ning imkoniyat darajasini belgilaydi. Ya’ni, vujudga kelayotgan vaziyatlarni ta’limiy muhitning asosiy tashkil etuvchi elementlari bilan muvofiqlashtirish o‘zaro ta’sir madaniyatining asosiy ko‘rsatkichi sifatida xizmat qiladi. shakllanib, rivojlanib boradi. O‘zaro ta’sir etish madaniyatining rivojlanishi ta’limiy muhitda innovatsion o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Pedagogik jarayonlarda innovatsiyalar o‘zaro ta’sir madaniyatining eng muhim va asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, ular innovatsion jarayonlarda nafaqat o‘zining tavsifi va xususiyatlari bilan, balki pedagogik jarayonlarni takomillashtirishning eng muhim omillari sifatida ham belgilanadi. Bu o‘z navbatida innovatsiyalarning sifatini va ahamiyatligini belgilash bilan bir qatorda, vaziyatlarga ko‘ra ularni tatbiq etish vaqtlarini ham oldindan belgilaydi. O‘zaro ta’sir madaniyati umumiy ijtimoiy madaniyatning tashkil etuvchi komponenti sifatida ma’lum bir ijtimoiy madaniyat kontekstida tushunchalar, shaxslararo munosabatlar va o‘zaro ta’sir natijasida shakllanadi va unda qator kattaliklar –an’anaviylik, dolzarblik darajasi, motivlashtirish tizimi, rahbarlik uslublari, tashkiliy muhitning sifati, kommunikatsiyalar, personalni boshqarish, boshqaruv strategiyasi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning kasbiy hamda shaxsiy madaniyati rasmiy jihatdan namoyon bo‘ladi. O‘zaro ta’sir madaniyatining an’anaviyligi milliy-tarixiy ijtimoiy madaniyat bilan pedagogikaning o‘zaro bog‘liqligiga asoslanuvchi umumtaraqqiy va milliy ta’lim-tarbiya madaniyatining pedagogik tizimda barqaror namoyon bo‘lishi, uning dolzarblik ta’limiy muhitda qulay vaziyatlarning vujudga kelishi sifatida va ijtimoiy ehtiyojlarga mos kelishi bilan belgilanadi. Ta’limiy muhitning sifati uning holatining milliy-madaniy namunalar bilan mos kelishini hamda pedagogik jarayonning samaradorlik darajasi va subyektlar (tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar)ning imkoniyat darajasini belgilaydi. Ya’ni, vujudga kelayotgan vaziyatlarni ta’limiy muhitning asosiy tashkil etuvchi elementlari bilan muvofiqlashtirish o‘zaro ta’sir madaniyatining asosiy ko‘rsatkichi sifatida xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. Pedagogik jarayonlarni takomillashtirish vositalarining nazariy-metodologik asoslari pedagogik jarayonlarning yangi shaklini vujudga keltiruvchi, ta’limning tarkibiy tuzilishining sifatlarini belgilovchi yangi g‘oyalar hisoblanadi. Shunga ko‘ra, MTT tarbiyachilarining pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga ta’sir ko‘rsatuvchi

vositalarini tavsiflovchi integrativ xususiyatlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: innovatsion tartibda faoliyat ko‘rsatishni tashkil etishning umumiy tamoyillari; pedagogik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyalarning mavjudligi; ijtimoiy organizm sifatida jamoani rivojlantirish va tarbiyalanuvchi –ixtirochilar jamoasini vujudga keltirish bo‘yicha tashkiliy-metodik faoliyat; yangi tarkibiy tuzilishga ega va mazmunan rivojlantirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish; pedagogik jarayon subyektlarining ijodiy qobiliyatlarini psixologikpedagogik jihatdan rivojlantirish; pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda subyektlarning individualpsixologik xususiyatlarini hisobga olish; yagona ta’lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish va rivojlantirish uchun o‘zaro birikkan tarbiyalanuvchi, tarbiyachi va ota-onalarning hamkorligini vujudga keltirish. Bunday hollarda MTT tarbiyachilari pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish funkstiyalari bilan bir qatorda, boshqaruvchi, tarbiyachi va tadqiqotchi funksiyalarini ham bajarishi zarur. Chunki pedagogik jarayonlarni takomillashtirish asosida ko‘zlangan natijalarga erishishda, eng avvalo, pedagogik jarayonlarda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni o‘rganish va tahlil qilish va ularni bartaraf etishda bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarni, maqsadni aniqlash, shuningdek, pedagogik jarayon subyektlaridan biri hisoblanayotgan tarbiyalanuvchilarning imkoniyati va ehtiyojlarini inobatga olish zarur. Pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda innovatsiyalarni pedagogik jarayon subyektlarining harakatlanishi va faolligini ta’minlovchi hamda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy, sifatliy o‘zgarishlar jarayonini vujudga keltiruvchi vosita sifatida belgilash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, innovatsiya eskilikning yangilik bilan o‘zaro o‘rin almashinishini ta’minlovchi vosita deb aytishimiz mumkin. Innovatsiya tushunchasi tadqiqotlarda “yangilik kiritish” tushunchasi sifatida ko‘rib chiqiladi, “innovatsion jarayon” tushunchasi esa yangilik yaratish va ularni o‘zlashtirish hamda ta’lim muassasasi amaliyotida samarali qo‘llash jarayoni sifatida ifodalanadi. Demak, pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda innovatsiya (yangilik kiritish) –maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartirishlar vositasi, innovatsion jarayon –pedagogik jarayonlarga yoki pedagogik faoliyatga o‘zgartirishlar (yangilik) kiritish vositasi deb aytishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha, bu jarayonda quyidagi qator vazifalar pedagogik jarayonlarni takomillashtirish, yangiliklar kiritishni amalga oshirishda pedagogik innovatsiyalarni samaradorligining asosiy shartlari hisoblanadi: –ta’lim tashkiloti jamoasi uchun yangilik kiritishning dolzarbligi mavjud muammolarni uzil-kesil hal qilish va pedagogik jarayon samaradorligini ta’minlashning asosiy omillari sifatida belgilanishi; –tanlangan innovatsion vositalarni ta’lim tashkilotining imkoniyatlariga mos kelishi; –innovatsiyalarning to‘la ilmiy asoslanganligi; –innovatsion jarayonlarning ahamiyatliligi va tizimliligi; –yangilik yaratuvchi va undan foydalanuvchilarning shaxsiy-individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish; –innovatsiyalarning ahamiyatini anglash har bir subyektning yuqori darajadagi mas’uliyati hamda javobgarligini ifodalashi; -innovatsion jarayonlarda tavakkalchilikni minimal darajada bo‘lishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish zaruriyati; –tavakkalchilik darajasini tushunish va ularning asoslanganligi zaruriyati; –ta’lim mazmunida,

pedagogik loyihalarda o‘zgartirishlar hamda rivojlanish tamoyillarining o‘z ifodasini topishi. MTTda pedagogik jarayonlarni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirishga obyektiv va subyektiv omillar sabab bo‘ladi. Obyektiv omillarga davlatning yangi ta‘lim siyosati, ta‘lim sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, ta‘lim tashkilotlarining innovatsion faoliyat yo‘nalishidagi tajribalarini kiritishimiz mumkin. Subyektiv omillarga ijtimoiy-hududiy ehtiyoj hamda ta‘lim tashkilotlari faoliyatining rivojlanish jarayoni, tarbiyachilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini va ta‘lim tashkiloti ilmiy-pedagogik salohiyatining rivojlanishi. Pedagogik jarayonlarni takomillashtirish ilg‘or pedagogik texnologiyalarni aniqlash va tatbiq etish muammolarini vujudga keltiradi va bular subyekt-subyekt munosabatlariga asoslanadi, bu munosabatlar shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari va sifatlarini anglashga yo‘naltirilgan umumiy rivojlanish shartlarini belgilovchi asoslar hisoblanadi. Pedagogik jarayonlarni takomillashtirish yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlarning samaradorligini aniqlash pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini obyektiv baholashni talab etadi va bunga quyidagilar misol bo‘ladi: –pedagogik jamoaning kasbiy mahoratini o‘shishi; –jamoada barcha uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga kelishi hamda uning mustahkam va ijobiy xususiyatlari; –pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirishga subyektlar moyilligi va jamoaning tayyorgarligi; –ilmiy va ilmiy-metodik salohiyatni o‘shishiga jamoadagi moyillik; –tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida axborotlar almashinuvi sifatining o‘shishi; –uzluksiz ta‘lim tizimining navbatdagi bosqichlarida o‘qishni davom ettirishlari uchun tarbiyalanuvchilarni tayyorlash darajasi va ta‘lim muassasasida yaratilayotgan shart-sharoitlar sifati; –umumiy maqsadlarning mavjudligi va manfaatlar uyg‘unlashuvi;

–innovatsion jarayonlarda tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning samarali ishtirokini ta‘minlovchi chora-tadbirlarning mavjudligi. MTTda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda qulay ta‘limiy muhitni shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishda tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini o‘rganish asosida ularning faolligini rivojlantirish zarur bo‘lib, ularning faolligini ta‘minlashda motivlashtirish pedagogik jarayonlarni takomillashtirish vositalaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Amerikalik psixolog A. Maslou nazariyasi bo‘yicha barcha ehtiyojlarni qat’iy iyerarxiya strukturasi bo‘yicha joylashtirish mumkin. U quyi darajadagi ehtiyojlarni qondirishni talab qiladi, o‘z navbatida inson xulqiga ta’sir ko‘rsatadi, yuqori darajadagi ehtiyojlar esa asta-sekin ta’sir ko‘rsatadi. Maslou inson hayotidagi mavjud ehtiyojlardan beshta asosiylarini ajratib ko‘rsatadi. Birlamchi ehtiyojlar –bu insonning hayotiy faoliyatini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlar. A.Maslouning fikricha, inson, eng avvalo ana shu ehtiyojlarini qondirish uchun ishlaydi. Birlamchi ehtiyojlar hisoblangan oziq-ovqatga, kiyim-kechakka, uy-joyga, uyquga bo‘lgan ehtiyoj qondirilsa, boshqa darajadagi ehtiyojlar ham asta-sekin ahamiyat kasb etib boradi. Yuqorida aytganimizdek, birlamchi ehtiyojlar qondirilgach, boshqa zaruriyatlar kishilarni yuqori darajadagi ehtiyojlarga qarab harakat qilishga majbur qiladi. Lekin, insonning barcha ehtiyojlarni hech qachon to‘la-to‘kis qondirish imkoniyati bo‘lmaydi. Shu sababli ehtiyojlarga asoslangan motivlashtirish jarayoni mavjuddir. Mak Klelland nazariyasida asosiy e’tibor yuqori

darajadagi ehtiyojlarga qaratiladi, ularga hokimiyat, muvaffaqiyat, mansublik kiradi. Hokimiyat ehtiyoji –boshqa odamlarga ta’sir ko’rsatishga xohish, bu albatta hokimiyatga intilish emas, balki o‘z ta’sirini ko’rsatish ehtiyoji. Muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyoj ma’lum bir vazifani muvaffaqiyat bilan bajarish orqali amalga oshiriladi. Mansublik ehtiyoji Maslou nazariyasiga o‘xshash bo‘lib birga ishlaydigan xodimlar, tanishlar huzurida bo‘lishi, do‘stona munosabatlar o‘rnatishdan manfaatdorlikni ifodalaydi. Frederik Gertsbergning motivlashtirish nazariyasi boisiy tozalanish(motivastionnaya gigiena) deb yuritilib, uning asosida qoniqish keltiruvchi mehnat ruhiy sog‘lom bo‘lishga ham hamkorlik ko’rsatadi degan fikr yotadi. Agar ish joyi iflos, qorong‘i, ko‘rimsiz bo‘lsa bu mehnatga intilishni kamaytiradi. Agar ish joyi toza, ergonometrik nuqtai nazardan benuqson bo‘lsa, mehnatga aniq ifodalangan motivlar paydo bo‘ladi. Gertsberg bu omillarni “gigienik” omillarga oid deb hisoblaydi. Motivlashtirishda amerikalik psixolog V.Vrum tomonidan 1964 yilda ishlab chiqilgan kutish nazariyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, mehnatning natijasini kutish, ya’ni mehnat xarajatlari bilan olingan natija o‘rtasidagi farqni, foydani kutish, natija bilan rag‘batlantirish o‘rtasidagi farqni kutish, bu yerda rag‘batlantirish mehnat natijasidan qoniqish yoki qoniqmaslikni bildiradi. Ya’ni, kutilgan natijaga erishish motivlashtirishning holatini belgilaydi, rahbarlar tomonidan mehnati natijalariga ko‘ra xodimlarning o‘z vaqtida rag‘batlantirilib borishi motivlashtirishni kuchaytiradi va h.k. Umuman olganda ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda motivlashtirish subyektlarning (tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar) mazkur jarayonlarda keng miqyosda ishtirok etishiga asoslangan bo‘lib, uni qo‘llash orqali sog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhit yaratiladi. Bunda ijtimoiy-psixologik metodlar mehnat faolligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, u subyektlarning ma’naviy va ijtimoiy xulqiga ta’sir etish orqali amalga oshiriladi. Psixologik adabiyotlarda motivlashtirish keng ma’noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab, ko‘p qirrali boshqaruvchisi deb keltiriladi. Tarbiyalanuvchilar faoliyati turli motivlar yordamida boshqarilishi mumkin. Motivlar yordamida irodaviy hatti-harakatlarni vujudga keltiruvchi va faoliyatni muvofiqlashtiruvchi ta’sir samarali hisoblanib, faoliyat natijalarining samaradorligi motivlarning xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi, bu o‘z navbatida motivlashtirish jarayonining samaradorligini ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda motivlashtirish bu pedagogik jarayon samaradorligini ta’minlash yo‘nalishidagi mavjud ehtiyojlardan kelib chiqib, tarbiyalanuvchi faoliyatini psixologik ta’sir etish yo‘llari bilan maqsadga muvofiq yo‘naltirishdir. Motivlashtirish jarayonida pedagogik jarayon subyektlari ehtiyojlari yoki ularning umumiy manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur hisoblanadi, chunki motivlashtirish ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi. Pedagogik jarayonlarda motivlashtirish ijtimoiy amaliyot va ta’lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, subyektlarning qiziqishlarini, egallayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarini tahlil qilish orqali ularning faolligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Mavjud ehtiyojlarni o‘rganish asosida tarbiyalanuvchilar faolligini ta’minlashga va rivojlantirishga, ya’ni o‘qish, o‘rganish va bilim olishga yo‘naltiruvchi motivlarni shakllantirish pedagogik jarayonlarda subyektlar faolligini

ta'minlash va rivojlantirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ularni jismoniy yoki aqliy mehnatga, shuningdek, dam olish, bilim olish, hunar o'rganish, umuman olganda yashash uchun kurashishga chorlaydi. Motivlashtirishning samaradorligi pedagogik jarayonlarda erishish mumkin bo'lgan natijalar bilan erishilgan natija o'rtasidagi mutanosiblikni ifodalab, pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarning bajarilish zaruriyatini belgilaydi: –tarbiyalanuvchilarning boshlang'ich tushunchalariga ilmiy yondashish; –pedagogik jarayonlarda motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish; tarbiyalanuvchilarda bilim olishga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish; –pedagogik jarayonlarda subyektlar faolligini ta'minlash uchun qulay vaziyatlarni vujudga keltiruvchi ijodiy muhitni tashkil etish; –pedagogik jarayonlar komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olish; –pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish; –pedagogik jarayonlarda tarbiyalanuvchilar faolligini ta'minlovchi, tanqidiy va tahliliy fikrlashga undovchi reflektiv yondashuvni joriy etish; –pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'sirning o'ziga xos xususiyatlarini hamda tarbiyalanuvchilarning reflektiv faoliyatining ahamiyatini inobatga olish. MTTda pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishda alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillardan biri pedagogik jarayonlar samaradorligining motivlashtirishga bog'liqligi bo'lib, motivlashtirish pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va samaradorligini ta'minlashda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning faolligini ta'minlash va rivojlantirish vositasi sifatida zarur. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish va ularning samaradorligini ta'minlashda axborotlar bilan ishlash va ularning yangiligi va ishonchliligini ta'minlash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jarayonlar to'g'risidagi hamda tarbiyalanuvchilarning tasavvuri, boshlang'ich tushunchalari, ularning dunyoqarashi, ehtiyoji va yashash sharoitlari bo'yicha axborotlar to'plash va ularni chuqur o'rganish, tahlil qilish hamda obyektiv baholash tarbiyachilarning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish asosida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirish yo'llari, tarbiyalanuvchilarda ijobiy motivlarni shakllantirish va rivojlantirish omillari va vositalari aniqlanadi hamda samaradorlik ta'minlanadi. Axborot – pedagogik jarayonlarni tashkilotchilari va boshqarishda, shuningdek mazkur jarayon subyektlari hisoblangan tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirishda, pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish hamda samaradorligini oshirishda o'zigaxos, turli xil yangiliklarni o'z ichiga olgan ma'lumot va xabarlardan iborat bo'lib, yangi, ishonchli va zarur axborotlar pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Axborotlar bilan ishlash –turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo'lib, pedagogik jarayonlar subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo'llaniladi. Bu jarayonda pedagogik jarayon tashkilotchilari hisoblangan rahbarlar va tarbiyachilar kelib tushayotgan asosiy ma'lumotlarning generatori sifatida faoliyat ko'rsatadi va ular uchun asosiy vosita axborotlar bo'lib, ular asosida pedagogik jarayon subyektlari faoliyati muvofiqlashtirib boriladi.

Xulosa. Axborotlar bilan ishlash tarbiyachilar bilan tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi shaxsiy va texnologik axborotlar almashuvini tashkil etadi. Uning asosiy xususiyati tarbiyachilar tomonidan tarbiyalanuvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’sirni vujudga keltirish asosida ularning faolligini ta’minlash, tarbiyalanuvchilarning o‘z o‘quv faoliyatidan va tashkil etilgan pedagogik jarayonlarda yaratilgan shart-sharoitlardan qoniqish xosil qilishlari uchun ularda qiziqishlar vujudga keltirish bilan belgilanib, bu xususiyattarbiyachilarning o‘qitish funkstiyalari bilan bir qatorda, axborotlar bilan ishlash funksiyasining ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tizimli yondashuv asosida pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarish samaradorligiga erishish uchun pedagogic faoliyat subyektlarining yangi va zamonaviy axborotlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish va tarbiyalanuvchilarni ta’limiy va tarbiyaviy jihatdan motivlashtirishdan iborat.

ADABIYOTLAR:

- 1.Turg‘unov S.T., L.A. Maqsudova, H.M. Tojiboyeva, G.M. Nazirova, M.A.Umaraliyeva Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish,sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari Toshkent 2014 122 bet
- 2.Djuraeva B.R., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendenstiyalari Toshkent, -O‘zPFITI. –2015. 112 bet.
- 3.Djuraeva B.R., Umarova X.A., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi monografiya Toshkent, Real print. –2017. 160 bet.
4. U.M.Asqarova , M.Xayitboev, M.S.Nishonov «Pedagogika» darslik, T: Talqin-2008
5. Ustemirov K., Shametov N.R., Vasilev I.B. Professionalnaya pedagogika. – Almaty: 2005, - 432 s.



ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-0280-8224>

GOOGLE CLASSROOM YORDAMIDA YOZUV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Usmanova Shokhsanam Avazovna

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti

ingliz tili bo‘limi o‘qituvchisi

Tashkent, Uzbekistan

+998902120095

usmanova.sh@uwed.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada EFL (ingliz tili chet tili sifatida) muhitida yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda Google Classroom (GC) platformasidan foydalanishning samarali usullari tahlil qilinadi. Ayniqsa, Google Docs ilovasi bilan birgalikda qo‘llaniladigan jarayon yo‘naltirilgan yozuv yondashuvi, real vaqtda mulohaza va izoh berish, hamda tengdoshlar fikr-mulohazalari faoliyatlari ko‘rib chiqiladi. Ilmiy tadqiqotlar ushbu yondashuvlarning talabalar yozuv ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlarini oshirishdagi samaradorligini isbotlaydi. Google Classroom va unga bog‘langan raqamli vositalar orqali yozuv ta‘limining sifatini oshirish imkoniyati mavjudligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: yozuv ko‘nikmalari, Google Classroom, Google Docs, jarayon yo‘naltirilgan yondashuv, mulohaza, EFL

TECHNIQUES FOR DEVELOPING WRITING SKILLS USING GOOGLE CLASSROOM

Abstract: This article analyzes effective techniques for developing writing skills in EFL (English as a Foreign Language) environments through the use of the Google Classroom (GC) platform. It particularly examines the process-oriented writing approach integrated with Google Docs, real-time feedback and commenting, and peer feedback activities. Research studies confirm the effectiveness of these approaches in enhancing students’ writing skills, critical thinking, and self-regulation. The article supports the potential of Google Classroom and its integrated digital tools to improve the quality of writing instruction.

Keywords: writing skills, Google Classroom, Google Docs, process-oriented approach, feedback, EFL

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПИСЬМА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ GOOGLE CLASSROOM

Аннотация: В данной статье анализируются эффективные методы развития навыков письма в условиях изучения английского языка как иностранного (EFL) с использованием платформы Google Classroom (GC). Особое внимание уделяется процессуальному подходу к письму с интеграцией Google Docs, предоставлению обратной связи в реальном времени и активности по взаимной оценке. Научные исследования подтверждают эффективность этих подходов в улучшении навыков письма студентов, критического мышления и саморегуляции. Подчеркивается потенциал Google Classroom и связанных с ней цифровых инструментов для повышения качества обучения письму.

Ключевые слова: навыки письма, Google Classroom, Google Docs, ориентированный на процесс подход, обратная связь, EFL

KIRISH

Yozuv ko‘nikmalarini EFL muhitida samarali rivojlantirish uchun maqsadli va pedagogik asoslangan strategiyalar talab etiladi. Eng samarali usullardan biri bu – jarayon yo‘naltirilgan yozuv yondashuvi bo‘lib, u Google Docs bilan integratsiya qilinadi (4). Bu texnikada talabalar yozma topshiriqlarni rejalashtiradilar, dastlabki variantni yozadilar, mulohaza olishadi, qayta ishlaydilar va yakuniy variantni topshiradilar. Bu strategiyani Google Classroom platformasiga ulangan Google Docs orqali oson amalga oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning, xususan, Google Classroom (GC) va unga bog‘langan vositalarning ahamiyati ko‘plab ilmiy ishlarda tahlil qilingan (1)(4)(9). Ebadi va Rahimi (2017, 2019) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda Google Docs orqali berilgan onlayn mulohazalar EFL talabalari yozuv ko‘nikmalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan (4)(5). Ularning tadqiqotida aralash uslubda – sifatli va miqdoriy ma’lumotlar asosida tahlil qilingan bo‘lib, ishtirokchilarning yozuv natijalari va fikr-mulohazalari asosida xulosalar chiqarilgan.

Wonglakorn va Deerajviset (2023) hamkorlikda yozuv usulining samaradorligini sinab ko‘rgan va u yozuvda ishtirokchilarni faol jalb qilishi, tilni ishlatish motivatsiyasini oshirishi hamda yozuvga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirganini ta’kidlaydi (1). Shu bilan birga, Robillos va Namwong (2021) CAAM texnologiyasi orqali o‘z-o‘zini nazorat qilish hamda yozuv samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlagan (2).

Mazkur maqolada GC‘dan foydalanishda uch asosiy texnika tahlil qilindi: jarayon yo‘naltirilgan yozuv, real vaqtda mulohaza, va tengdoshlar fikr-mulohazasi. Har bir texnika ilgari o‘rganilgan ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib, ular yordamida yozuv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish mumkinligi asoslab berildi (4)(6)(10). Bu tahlil

usuli tavsifiy yondashuv bilan olib borildi, ya'ni mavjud tadqiqotlar kontekstida har bir texnikaning afzalliklari ko'rsatildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Google Classroom orqali yozuv mashg'ulotlarini olib borishda quyidagi natijalar aniqlangan:

- **Jarayon yo'naltirilgan yozuv usuli** – talabalar yozuv jarayonining barcha bosqichlarida faol ishtirok etadi, bu esa ularning tanqidiy fikrlash va o'z yozuvlarini mustaqil tahrirlash qobiliyatlarini rivojlantiradi (8).

- **Real vaqtda mulohaza** – o'qituvchi tomonidan Google Docs orqali berilgan izohlar natijasida talabalar yozuvdagi kamchiliklarini tezda aniqlab, ularni bartaraf etishga muvaffaq bo'ladi (4).

- **Tengdoshlar fikr-mulohazalari** – talabalar o'rtasida muloqot kuchayadi, ular bir-birining ishlari orqali yangi yondashuvlarni o'rganadi va o'z-o'zini baholash qobiliyatini rivojlantiradi (6).

Muhokama jarayonida GC platformasining nafaqat texnik qulayliklari, balki pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unligi ham tahlil qilindi. Hansen va Liu (2005) tomonidan ilgari surilgan samarali fikr bildirish tamoyillari GC orqali real sharoitda qo'llanilishi mumkin (7). Shu jihatdan, platforma faqat vosita emas, balki yozuv pedagogikasining integral qismiga aylanishi mumkin.

XULOSA

Google Classroom nazariy asoslari uning EFL darslarida foydalanilishini to'liq oqlaydi. Bu platforma konstruktivistik va kommunikativ yondashuvlarni qo'llab-quvvatlovchi, foydalanishga qulay, moslashuvchan texnologiyalarga ega. Google Docs, Forms, Slides kabi vositalar bilan uyg'un ishlashi uni yakka va jamoaviy o'rganish uchun qulay vositaga aylantiradi.

Real vaqtli aloqalar, shaxsiylashtirilgan mulohaza va farqlangan ta'lim imkoniyatlari orqali GC yozuv jarayonida o'qituvchi va talabani faol ishtirokchi sifatida jalb qiladi. Shunday qilib, bu platforma zamonaviy ta'limda nafaqat vosita, balki EFL yozuv ko'nikmalarini rivojlantiruvchi transformatsion tizim sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Wonglakorn, P., & Deerajviset, P. (2023). *The effects of collaborative process writing approach on Thai EFL secondary school students' writing skills*. LEARN Journal: Language Education and Acquisition Research Network, 16(1), 495–522.
2. Robillos, R. J., & Namwong, R. (2021). *Learners' writing skill and self-regulation of learning awareness using computer-assisted argument mapping (CAAM)*. Teaching English with Technology, 21(4), 76–93.
3. Kalan, A. (2015). *A practice-oriented definition of post-process second language writing theory*. TESL Canada Journal, 32(1), 1.

4. Ebadi, S., & Rahimi, M. (2017). *Exploring the impact of online peer-editing using Google Docs on EFL learners' academic writing skills: A mixed methods study*. Computer Assisted Language Learning, 30(8), 787–815. <https://doi.org/10.1080/09588221.2017.1363056>
5. Ebadi, S., & Rahimi, M. (2019). *Mediating EFL learners' academic writing skills in online dynamic assessment using Google Docs*. Computer Assisted Language Learning, 32(5–6), 527–555. <https://doi.org/10.1080/09588221.2018.1527362>
6. Double, K. S., McGrane, J. A., & Hopfenbeck, T. N. (2020). *The impact of peer assessment on academic performance: A meta-analysis of control group studies*. Educational Psychology Review, 32, 481–509. <https://doi.org/10.1007/s10648-019-09510-3>
7. Hansen, J. G., & Liu, J. (2005). *Guiding principles for effective peer response*. ELT Journal, 59(1), 31–38. <https://doi.org/10.1093/elt/cci004>
8. Storch, N. (2019). *Collaborative writing*. Language Teaching, 52(1), 40–59. <https://doi.org/10.1017/S0261444818000320>
9. Lv, X., Ren, W., & Xie, Y. (2021). *The effects of online feedback on ESL/EFL writing: A meta-analysis*. The Asia-Pacific Education Researcher, 1–11. <https://doi.org/10.1007/s40299-021-00594-6>
10. Saeed, M. A., Ghazali, K., & Aljaberi, M. A. (2018). *A review of previous studies on ESL/EFL learners' interactional feedback exchanges in face-to-face and computer-assisted peer review of writing*. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 15(1), 1–25. <https://doi.org/10.1186/s41239-017-0084-8>



USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN VOCABULARY TEACHING IN PRIMARY SCHOOL.

Usmonova Gulsevar Abdulaziz qizi

Teacher at Chirchik State Pedagogical University

Email: gulsevardesigner@gmail.com

Phone: +998933701030

Обсуждение. Эртон [Эртон, ø. 2007. Прикладная прагматика и отношения компетенций в изучении и преподавании языка, Журнал языковых и лингвистических исследований, том 3, № 1, апрель 2007 г., стр. 64] говорит: «...дискурсивная компетентность связана со способностью организовывать предложения в связные структуры. В дискурсивном анализе термин дискурсивная компетентность изучается в рамках разговорного взаимодействия, где язык рассматривается как инструмент для успешной коммуникации. Такие модели взаимодействия могут быть очень разнообразными». Как показывает Акмаджян [Акмаджян, А. и Демерс Р. А. и др. 1997. Лингвистика: Введение в язык и коммуникацию. Массачусетс: Издательство MIT. стр. 369], «Существует множество форм дискурса и множество форм разговорного обмена. Письма, шутки, истории, лекции, проповеди, речи и т. д. — все это категории дискурса; аргументы, интервью, деловые отношения, инструкции и разговоры — категории разговорного обмена. Разговоры (и разговоры-обмены в целом) обычно являются структурированными последствиями выражений более чем одного говорящего». Таким образом, развитие дискурсивной компетенции помогает изучающему язык получить представление, испытывая различные модели взаимодействия в различных социокультурных и физических контекстах. Важность прагматической компетенции была сформулирована как в теории, так и на практике. На теоретических основаниях, в 1980-х и 1990-х годах, опираясь на понятие коммуникативной компетенции Хаймса (1972), в этой области появились теоретические модели коммуникативной компетенции L2 (Bachman 1990; Bachman and Palmer 1996; Canale and Swain 1980). Совсем недавно в качестве альтернативных понятий моделям коммуникативной компетенции были предложены интерактивная компетенция (Young and He 1998; Young 2000) и «символическая компетенция» (Kramsch and Whiteside 2008), которые фокусируются на диалогическом аспекте коммуникации. Эти теоретические модели продвинули область, поместив прагматическую и социолингвистическую компетенцию в качестве отдельного, незаменимого компонента в рамках владения L2. В то же время модели послужили руководящей основой для эмпирического исследования указанной компетенции. Ability to perform language functions and knowledge of socially appropriate language use had to be operationalized in some way as a measurable construct, and specific tasks, instruments, and analytical methods were explored to elicit and examine this construct. A bulk of L2 pragmatics research produced in the last few decades exemplifies diverse methodological options, ranging from ethnographic studies that involve observation of naturalistic interaction to descriptive-quantitative studies that use construct-eliciting instruments. Correspondingly, these models of communicative competence have been applied to practice in second language pedagogy and assessment. Communicative Language Teaching, the Notional-Functional approach, and task-based instruction all include pragmatic and sociocultural aspects as important objectives of instruction (see Richards and Rodgers 2001 for review).

БИБЛИОГРАФИЯ

1. Kasper, G., & Rose, K. R. (2002). Pragmatic Development in a Second Language. *John Benjamins Publishing Company*.
2. Tare, M., & Grosse, C. (2016). The Role of Pragmatics in Language Learning: An Overview. *Language Teaching Research*, 20(1), 123-140.
3. Thomas, J. (1983). Cross-Cultural Pragmatics: Some Problems in Theoretical Analysis. *Language in Society*, 12(2), 165-173.
4. Celce-Murcia, Dörnyei & Thurrell, 1995
5. Morris C. Foundations of the theory of signs // International Encyclopedia of Unified Science / eds. by O. Neuratin, R. Carnap, C. Morris. Chicago: University of Chicago Press, 1938. Vol. 2, bk 1.
6. Ohta A. A longitudinal study of the development of expression of alignment in Japanese as a foreign language // Pragmatics and Language Teaching / eds. by G. Kasper, K. Rose. Cambridge: Cambridge University Press, 2001. P. 103-120.
7. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Oxford: Blackwell, 1985.
8. Chomsky N. Syntactic Structures. The Hague: Mouton and Co, 1957.
9. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge: M.I.T. Press, 1967
10. Market Leader. 3d Edition. – Pearson. – URL: <https://www.pearsonelt.com/catalogue/business-english/market-leader.html/>
11. Business Result. – OUP. – URL: https://elt.oup.com/catalogue/items/global/business_esp/business_result_dvd_edition/?cc=ru&selLanguage=ru



“MUSIQA TA’LIMI ORQALI INKLYUZIV MUHITDA ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISH METODIKASI”

Qulmatova Xurshida Abduraxmonovna

“University of economics and pedagogy” NOTM

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası

o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim muhitida estetik tarbiyani rivojlantirishda musiqa ta’limining ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy asoslar orqali tahlil qilinadi. Musiqa mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, o‘zini ifodalash qobiliyati, empatiya darajasi va guruh bilan hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Aralash tadqiqot metodlari asosida o‘tkazilgan eksperimentlar, so‘rovnomalar va intervyular natijalari musiqa asosida estetik tarbiya metodikasi inklyuziv muhitda samarali ekanligini ko‘rsatdi. O‘qituvchilar fikricha, ushbu yondashuv o‘quvchilarda o‘zaro anglashuv va psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi. Tadqiqot yakunida estetik tarbiya modeli inklyuziv ta’limning tarkibiy qismi sifatida taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, estetik tarbiya, musiqa, empatiya, ijodiylik, integratsiya, o‘zini ifodalash, psixologik muhit, metodika, ta’lim samaradorligi.

“METHODOLOGY FOR DEVELOPING AESTHETIC EDUCATION IN AN INCLUSIVE ENVIRONMENT THROUGH MUSIC EDUCATION”

Abstract. This article explores the significance of music education in fostering aesthetic development within inclusive educational settings. It analyzes both theoretical and practical aspects of how music lessons enhance students’ creative thinking, self-expression, empathy, and group collaboration skills. Results from a mixed-method study, including experiments, surveys, and interviews, demonstrate the effectiveness of music-based aesthetic pedagogy in inclusive classrooms. According to teachers, this approach promotes mutual understanding and psychological stability among learners. The study concludes with a proposal to incorporate an aesthetic development model as an integral part of inclusive education.

Keywords: inclusive education, aesthetic education, music, empathy, creativity, integration, self-expression, psychological environment, methodology, educational effectiveness.

“МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ИНКЛЮЗИВНОЙ СРЕДЕ ЧЕРЕЗ МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ”

Аннотация. В статье рассматривается значение музыкального образования в развитии эстетического воспитания в условиях инклюзивной образовательной среды. Анализируются теоретические и практические аспекты влияния музыкальных занятий на развитие творческого мышления, самовыражения, уровня эмпатии и навыков группового взаимодействия у учащихся. Результаты смешанного исследования, включающего эксперименты, опросы и интервью, показали эффективность методики эстетического воспитания на основе музыки в инклюзивных классах. По мнению учителей, данный подход способствует укреплению взаимопонимания и психологической устойчивости среди учеников. В заключении предлагается интеграция модели эстетического воспитания в систему инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, эстетическое воспитание, музыка, эмпатия, творчество, интеграция, самовыражение, психологическая среда, методика, эффективность обучения.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida inklyuzivlik tamoyillarini amalda qo‘llash, ya’ni turli qobiliyat, ehtiyoj va imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni yagona muhitda qamrab olish ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Inklyuziv ta’lim nafaqat akademik bilim berishga, balki har bir bolaning shaxsiy o‘sishi, ijtimoiylashuvi va estetik shakllanishiga xizmat qilishi lozim. Bu borada estetik tarbiya, xususan musiqa ta’limining ahamiyati beqiyosdir.

Musiqa — bu hissiyotlar va ruhiy kechinmalarni ifoda etishning eng kuchli vositalaridan biri. U har qanday o‘quvchining ichki dunyosiga ta’sir etishi, ularning ijodiy tafakkurini uyg‘otishi, emotsional-intellektual rivojlanishini ta’minlashi mumkin. Inklyuziv sinflarda o‘tkaziladigan musiqa mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilar o‘zaro hurmat, hamdardlik, ijtimoiy moslashuv kabi ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni egallaydilar. Bundan tashqari, musiqa o‘zaro tushunish, kooperatsiya va emotsional barqarorlikni mustahkamlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolada musiqa ta’limining inklyuziv ta’lim muhitida estetik tarbiyani shakllantirishdagi metodik imkoniyatlari nazariy manbalar, empirik tadqiqotlar va eksperimental faoliyat asosida keng yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi. Estetik tarbiya — bu shaxsning go‘zallikni idrok etish, baholash va yaratish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan murakkab pedagogik jarayondir. B. Bayramov[1] bu jarayonni san’at vositalari orqali individualning emotsional va intellektual jihatdan yetuklashuvi sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, musiqa insonni ruhiy tozalik, hissiy sezgirlik va badiiy tafakkurga yo‘naltiruvchi kuchli vositadir.

S. Xudoyberdiyev va R. Olimov[9] inklyuziv sinflarda musiqa darslarining sotsiopsixologik integratsiya imkoniyatlarini o‘rgangan. Ular musiqaning ijtimoiy o‘zaro

aloqalarni kuchaytirish, ijtimoiy ajralganlikni kamaytirish va guruh ichida do‘stona muhitni shakllantirishdagi o‘rnini asoslab beradilar.

Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar — xususan, A. Smith[7] tomonidan ilgari surilgan “Inclusive Music Education Model” — musiqaning bolalarning empatiya, moslashuvchanlik, o‘zini ifoda eta olish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi samarasini ochib beradi. UNESCO[8] hisobotlarida esa inklyuziv musiqa ta’limi madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida baholangan.

Shuningdek, O. Kingston va J. Brooks[3] o‘z tadqiqotlarida musiqa asosida tashkil etilgan reflektiv va loyiha asosidagi dars mashg‘ulotlarining o‘quvchilar ijodiy fikrlashiga ta’sirini chuqur tahlil qilib, musiqa orqali refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy-amaliy tadqiqot aralash metod (mixed-method) yondashuvida olib borildi, ya’ni sifatli (kualitativ) va miqdoriy (kvantitativ) usullar uyg‘unlashtirildi.

Kualitativ bosqichda 15 nafar inklyuziv sinf o‘qituvchilari bilan yarimstrukturaviy intervyular o‘tkazildi. Ular musiqa darslarida estetik tarbiya elementlarining qanday qo‘llanilayotgani, qanday metodlar samarali ekani haqida savollarga javob berdi. Intervyular Braun va Klarkning mavzulashtirilgan tahlil (thematic analysis) metodikasi asosida NVivo 13 dasturida kodlandi[2].

Kvantitativ bosqichda 120 nafar o‘quvchini qamrab olgan so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rov Likert shkalasida tuzilib, o‘quvchilarning empatiya, o‘zini ifoda etish va guruhga moslashuv darajalari baholandi. Statistik tahlillar SPSS 28 dasturi yordamida o‘tkazildi.[4]

Eksperimental bosqichda 8 haftalik musiqa kursi ishlab chiqildi. Kurs quyidagilardan iborat edi. Interaktiv topshiriqlar (jamoviy ashula, musiqiy teatr). Multimodal stimullar (audio, video, sensorli materiallar). Reflektiv muhokamalar (darsdan so‘ng o‘z fikrini ifoda etish). Ijodiy loyiha (shaxsiy musiqiy kompozitsiya yaratish).

Tadqiqot natijalari. Eksperimental metodikaning estetik tarbiya ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatganini tasdiqladi. Estetik tarbiya ko‘rsatkichi o‘rtacha 4,3 ballni tashkil etdi (nazorat guruhida — 3,1; $p < 0,01$). Empatiya darajasi 82% gacha oshdi (nazorat — 54%). O‘zini ifoda etish darajasi 75% ga yetdi (nazorat — 48%). Guruhga moslashuv darajasi 88% (nazorat — 60%) bo‘ldi. Kualitativ intervyular orqali olingan ma’lumotlar quyidagilarni ko‘rsatdi. O‘qituvchilar metodikaning moslashuvchanligi, har bir o‘quvchining qiziqishini inobatga olish imkoniyati haqida ijobiy fikr bildirdilar. O‘quvchilarning o‘zaro muloqotida erkinlik, hissiy barqarorlik va ijodiy faollik oshgan.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, musiqa ta’limi orqali estetik tarbiyani inklyuziv muhitda rivojlantirish metodikasi nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliy jihatdan ham samarali hisoblanadi. Bu yondashuv Bayramovning estetik tarbiya nazariyasi, Xudoyberdiyev va Olimovning sotsiopsixologik modelga asoslangan yondashuvi, shuningdek Kingston va Brooksning reflektiv va ijodiy pedagogikasi bilan bevosita uyg‘unlikda. Shunga

qaramay, tadqiqotning cheklovlari ham mavjud: u faqat bitta ta’lim muassasasi doirasida olib borildi va 8 hafta davomida kuzatuv amalga oshirildi. Kelgusida uzoq muddatli monitoring, turli yosh guruhlar va regionlar o‘rtasida solishtirma tadqiqotlar o‘tkazish lozim.

Xulosa. Inklyuziv ta’lim muhitida estetik tarbiya — bolalarning nafaqat ijodiy salohiyatini, balki ularning hissiy sezgirligi, ijtimoiy moslashuvi va empatiya qobiliyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, musiqa ta’limi estetik tarbiyaning kuchli vositasi sifatida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini ifodalash, guruh bilan hamkorlik qilish va hissiy holatini muvozanatlashtirishda samarali ta’sir ko‘rsatadi. Eksperimental mashg‘ulotlar orqali ishlab chiqilgan metodik paket turli imkoniyatga ega o‘quvchilarni musiqiy faoliyat orqali birlashtirib, sinfdagi ijtimoiy integratsiyani kuchaytirgan. O‘qituvchilarning ijobiy fikrlari esa bu yondashuvning amaliyotga tatbiq etilishi mumkinligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, musiqa asosidagi estetik tarbiya inklyuziv ta’limda o‘quvchilarning o‘zaro anglashuvi, o‘zaro hurmatni shakllantirish va ijobiy psixologik muhit yaratishda dolzarb va istiqbolli yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kelgusida bu boradagi tadqiqotlarni yanada kengroq auditoriyada, turli yosh guruhlarida davom ettirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bayramov, B. (2018). *Estetik tarbiya nazariyasi*. Toshkent: Ilm-Ziyo.
2. Braun, V., & Clarke, V. (2006). *Using thematic analysis in psychology*. Qualitative Research in Psychology, 3(2), 77–101.
3. Brooks, J., & Kingston, O. (2019). *Creative thinking through music projects*. Music and Education Quarterly, 25(4), 67–80.
4. Cohen, J. (1988). *Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences*. New York: Routledge.
5. Field, A. (2013). *Discovering Statistics Using IBM SPSS Statistics*. London: Sage.
6. Kingston, O., & Brooks, J. (2019). *Reflection in creative music pedagogy*. Journal of Music Education, 37(1), 12–25.
7. Smith, A. (2017). *The Inclusive Music Education Model: A global perspective*. International Journal of Inclusive Education, 21(5), 588–602.
8. UNESCO. (2021). *Inclusive Education: Prospects for Music*. Paris: UNESCO Publishing.
9. Xudoyberdiyev, S., & Olimov, R. (2020). *Music as a tool for socio-psychological integration in inclusive classrooms*. Pedagogika, 8(2), 45–53.



УДК 371

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕСТНЫХ ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.

Гульбахор Хаитбаева

Андижанский государственный медицинский институт

«Узбекский язык и литература, языки»

старший преподаватель кафедры

Аннотация: Внедрение региональных норм и ценностей в образовательный процесс старшеклассников играет важную роль в развитии историко-художественного мышления учащихся, формировании у учащихся умения выражать свое отношение к ним. В диссертации анализируются возможности использования региональных архитектурных дисциплин в образовательном процессе. Использование памятников истории и архитектуры в образовательном процессе дает возможность формировать эстетический вкус учащихся, повышать уважение к национальному наследию, укреплять межпредметные связи. Также практические занятия будут посвящены методике использования архитектурных чертежей, интерактивных презентаций и значению современных образовательных технологий. На основе результатов исследования разрабатываются предложения и рекомендации по интеграции региональной проблематики в образовательный процесс.

Ключевые слова: Архитектурные практики, образовательный процесс, образовательные технологии, историческое наследие, эстетическое воспитание, интерактивные методы, междисциплинарные связи.

Авторизоваться. На территории нашей республики насчитывается более тысячи исторических памятников, около 250 из них включены в список ЮНЕСКО. Шедевры архитектуры нашей страны являются не только ярким примером богатого прошлого, культуры, искусства и архитектурного наследия нашего народа, но и неотъемлемой частью национального культурного наследия. В эпоху глобализации необходимо использовать в образовательном процессе различные учебные материалы и источники по архитектурному наследию с целью формирования национального мировоззрения, развития исторического сознания и эстетического вкуса у учащихся начальной школы, повышения уважения к национальным ценностям.

К сожалению, несмотря на наличие современной инфраструктуры и компьютерных технологий в школах, большинство учителей-предметников не смогли предоставить учащимся информацию об архитектурных профессиях. Сегодня даже школы в самых отдаленных сельских районах нашей республики оснащены современной компьютерной техникой и оборудованием. Кроме того, в учреждениях повышения квалификации регулярно проводится обучение педагогов использованию современных образовательных технологий и интерактивных методов обучения.

Использование местных традиций в образовательном процессе играет важную роль в личностном и духовном развитии учащихся. Эти учения служат не только образовательными ресурсами, но и источником духовного и образовательного просвещения. Благодаря им студенты могут узнать о своем историческом и культурном наследии и гордиться им. Этот процесс помогает сформировать у них ответственное отношение к обществу и культуре. С этой точки зрения необходимо разработать ряд педагогических приемов, позволяющих эффективно использовать местные архитектурные традиции в образовательном процессе. Например, используя метод проектного обучения, учащимся можно поручить изучить архитектурный шедевр в своем регионе и представить презентацию о его истории. Этот метод помогает развивать творческие способности и навыки самостоятельной работы. Эти занятия также развивают у студентов навыки устной речи и публичных выступлений.

Методика использования архитектурных чертежей в учебном процессе. Для повышения интереса учащихся старших классов к изучению архитектуры педагоги могут использовать виртуальную реальность, компьютерные технологии, 3D-моделирование и цифровые ресурсы. Этот метод соответствует творческим устремлениям современных детей и повышает уровень вовлеченности учащихся в процесс обучения.

Сочетание творческих идей педагогов с современными технологиями и ресурсами оказывает положительное влияние на развитие компетенций учащихся. Эти факторы способствуют более глубокому пониманию исторических событий учащимися начальной школы, развитию навыков критического мышления и пониманию связей между различными областями знаний.

Возможности использования архитектурных приемов в образовании. Развитие образовательного процесса позволяет учащимся приобщаться к шедеврам архитектуры, углублять исторические знания, понимать национальные ценности, формировать чувство патриотизма.

Кроме того, изучение архитектурных стилей можно интегрировать с такими предметами, как история, архитектура, география, искусствоведение и культурология, что способствует формированию у учащихся навыков междисциплинарного мышления. Наглядные и практические методы обучения помогают учащимся лучше понять исторические события в реальном контексте.

Также архитектурные шедевры служат своеобразным «мостом», передающим историческую правду современному поколению. Студенты увидят исторические памятники своими глазами. Когда они видят это своими глазами, их становится легче понять, а их знания становятся глубже и прочнее. Изучая методы работы средневековых архитекторов и условия, в которых возводились великие сооружения, студенты лучше поймут социально-экономические и культурные основы исторических процессов.

Занятия по архитектуре развивают у студентов эстетическое воображение. Благодаря бесценному наследию прикладного искусства, архитектуры, живописи, керамики и даже инженерного дела учащиеся развивают художественное мировоззрение и эстетический вкус. Изучая стили, использовавшиеся средневековыми архитекторами, и условия, в которых возводились великие здания, студенты лучше понимают социально-экономические и культурные основы исторических процессов. Такие уроки развивают навыки командной работы, общения и аналитические способности.

Групповые обсуждения архитектурных проблем, совместный анализ сложных проблем, микроисследования, переосмысление исторических сюжетов и даже научные дебаты помогают развивать у студентов навыки командной работы.

Эти уроки демонстрируют их образовательную, эстетическую и духовную значимость, что подчеркивает необходимость их интеграции в образовательный процесс. Использование современных технологий значительно повышает эффективность этого процесса.

Пример зарубежного опыта. В настоящее время в развитых странах мира организуются уроки истории, на которых изучаются исторические легенды, с целью воспитания у учащихся патриотических чувств. В немецкой системе образования первостепенной задачей является воспитание у учащихся интереса к истории и патриотических чувств, организация экскурсий к историческим памятникам. Кроме того, в Великобритании, которая является мировым лидером в области современных архитектурных сооружений, ставится цель сохранения исторических памятников и передачи истории следующему поколению. Он видит в этом способ доказать свою невиновность. Также для оттачивания практических навыков студентов проводятся экскурсии во дворцы и замки.

Внедрение такой программы в нашей республике будет способствовать формированию уважения к национальному наследию и повышению качества образования. В Узбекистане не создана организация ЮНЕСКО, занимающаяся регистрацией и охраной исторических, культурных и природных памятников мира. Эта организация работает над регистрацией мирового культурного наследия и представлением его уникальным способом, который обеспечит его сохранность.

Заключение. Для старшеклассников использование памятников архитектуры в образовательном процессе является важным компонентом формирования у них уважения к национальному наследию и воспитания чувства патриотизма. Преподаватели могут

помочь учащимся узнать больше об истории, культуре и искусстве, знакомя их с различными архитектурными стилями и отправляя на экскурсии к объектам культурного наследия. Это также помогает развивать их аналитические способности. Студенты, знакомящиеся с культурно-историческими объектами, не только приобретают знания, но и испытывают чувство патриотизма.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Хасанова С.Т., дочь Каумова Д.Н., Рамозонова В.С. ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ ЗАСТРОЙКОЙ ПУТЕМ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ // ЗОЛОТОЙ ВОЛОКНО. – 2023. – Т. 1. – № 31. – С. 101-107.
2. АС Р.О., Векнюазов В.С. ПАТРИОТИЧЕСКИЕ ЧУВСТВА В ИСТОРИКО-АРХИТЕКТУРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ // Вестник КГУ им. Бердаха. № – 2021. – Том. 2. – С. 59.
3. Фозилова З. К., Хамрокулов О. НАЦИОНАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ ТРАДИЦИИ В УРБАНИЗМЕ // СРЕДНЕАЗИАТСКИЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВА И ДИЗАЙНА. – 2023. – С. 245-248.
4. Турдимуродович М.И. ИЗУЧЕНИЕ ОБЪЕКТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В ЗВЕКИСТАНЕ И ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ ОСНОВЫ ТРАДИЦИОННОГО РЕМОНТА // ЖУРНАЛ ИНЖЕНЕРНОГО, МЕХАНИЗМСКОГО И СОВРЕМЕННОГО АРХИТЕКТУРНОГО ДЕЛА. – 2023. – С. 649-652.
5. Хаударов С. Историко-архитектурные памятники как педагогический ресурс. - Вухоро: Издательство «Вухоро», 2016. - С. 95.



BO‘LAJAK HARBIY XIZMATCHILARDA EMPATIYA ORQALI KASBIY MOSLASHUVCHANLIKNI OSHIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Toshmatov Rustamjon Muydinjon O‘g‘li
Namangan pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola harbiy xizmatchilarda empatik munosabatni shakllantirishning aksiologik asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada empatik munosabatning mohiyati, uning harbiy xizmatchilar uchun ahamiyati, shuningdek, shaxsiy va tashqi omillarning empatiya rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Aksiologik yondashuv asosida empatiya shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari, xususan, qadriyatlarga asoslangan ta’limning roli ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Harbiy xizmatchilar, empatiya, aksiologiya, qadriyatlar, harbiy ta’lim, psixologik tayyorgarlik, madaniyatlararo muloqot, kasbiy kompetentlik, ijtimoiy moslashuv.

Abstract: This article is devoted to the study of the axiological foundations of the formation of empathic attitudes in military personnel. The article analyzes the essence of empathic attitudes, its importance for military personnel, as well as the influence of personal and external factors on the development of empathy. The pedagogical possibilities of forming empathy based on an axiological approach, in particular, the role of values-based education, are considered.

Keywords: Military personnel, empathy, axiology, values, military education, psychological training, intercultural communication, professional competence, social adaptation.

Аннотация: Статья посвящена исследованию аксиологических основ формирования эмпатических установок у военнослужащих. В статье анализируется сущность эмпатического отношения, его значение для военнослужащих, а также влияние личностных и внешних факторов на развитие эмпатии. На основе аксиологического подхода рассматриваются педагогические возможности формирования эмпатии, в частности роль ценностного образования.

Ключевые слова: Военнослужащие, эмпатия, аксиология, ценности, военное образование, психологическая подготовка, межкультурная коммуникация, профессиональная компетентность, социальная адаптация.

Moslashish tushunchasi XIX asrda biologiya fanida organizmning hayotiy faoliyatiga asosiy me'zon sifatida kiritilgan bo'lib, keyinchalik inson shaxsiyati va jamoaviy xatti-

harakatlarning o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan ham qo'llanila boshlandi. Kasbiy moslashuvchanlik yangi sharoitlarda odatiy harakatlarning yetishmasligini to'ldirib, g'ayrioddiy sharoitlarda organizmning maqbul ishlashini tezlashtirish imkoniyatini yaratadi. Aks holda, faoliyat predmetini o'zlashtirishda qo'shimcha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Moslashuvchanlik u yoki bu a'zolarining vazifalarini qayta tiklash bilan bog'liq yangi ko'nikmalar, odatlar va fazilatlarini hosil qiladi hamda organizmni, shaxsni atrof muhitga moslashishiga olib keladi. Insonning moslashuvchanligini fikrlash, iroda, qobiliyat, bilim va tajriba tartibga soladi. Moslashish nafaqat tananing yangi sharoitlarga moslashishida, balki qiyinchiliklarni yengishga imkon beradigan xususiyatlarni hosil qilishi bilan ham ifodalanadi. Bo'lajak harbiy xizmatchilar uchun kasbiy moslashuvchanlik, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Harbiy xizmatning o'ziga xos sharoitlari, yuqori stress darajasi va tez o'zgaruvchan vaziyatlar moslashuvchanlikni talab etadi. Empatiya, o'z navbatida, harbiy xizmatchilarga kasbiy moslashuvchanlikni oshirishga yordam beradi. Empatik shaxs safdoshlarining va qo'l ostidagilarning hissiy holatini tushunadi, ular bilan muloqot qilish va hamkorlik qilishni osonlashtiradi. Bu, o'z navbatida, jamoada ijobiy muhit yaratishga, stressni kamaytirishga va qaror qabul qilish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bois, bo'lajak harbiy xizmatchilarda empatiya orqali kasbiy moslashuvchanlikni oshirishning ijtimoiy-psixologik asoslarini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Moslashish (lotincha "adaptatio") - bu organizmning, shaxsning yoki uning xatti-harakatlar tizimining muayyan ta'sirlar yoki o'zgargan yashash sharoitlariga moslashuv jarayonidir [1]. Muhitga moslashish qaysi sharoitlarda va qanday mexanizmlar orqali amalga oshishiga qarab, moslashuvning turli xil turlari ajratiladi: Organizmdagi turli tizimlarning fiziologik o'zaro ta'siri, hayotiy ahamiyatga ega ta'sirlarga mos ravishda a'zolar funksiyalarida moddalar almashinuvida biologik o'zgarishlar, psixik jarayon darajasidagi vazifalarga, xususiyatlarga va holatlarga insonning psixologik moslashuvi (masalan, qorong'uda ko'z sezgirligining oshishi), yangi jamoadagi o'zaro munosabatlarga ijtimoiy-psixologik moslashish.

Bo'lajak harbiy xizmatchilar uchun ijtimoiy-psixologik moslashuv, ayniqsa, muhim. Yangi harbiy jamoaga qo'shilish, harbiy tartib-qoidalarga rioya qilish, yuqori stress sharoitida ishlash va o'z hayotiga xavf tug'diruvchi vaziyatlarda harakat qilish ko'nikmalarini o'zlashtirish shaxsning psixologik barqarorligini va kasbiy samaradorligini ta'minlash uchun zarurdir [2]. Ushbu jarayonda empatiya muhim rol o'ynaydi, chunki u harbiy xizmatchilarga safdoshlarining his-tuyg'ularini tushunishga, ularga yordam berishga va jamoada ijobiy munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Moslashishning turli xil turlari bir vaqtning o'zida o'zaro aloqada bo'lishi va namoyon bo'lishi mumkin, ya'ni fiziologik, psixologik va ijtimoiy moslashuv jarayonlari bir-biriga ta'sir etib, shaxsning umumiy holatini belgilaydi. Agar inson bo'lajak faoliyatning ehtimoliy holatlari bilan tanish bo'lsa, to'g'ri yo'nalish uchun zarur bo'lgan bilim va ma'lumotlarga ega bo'lsa, yangi vaziyatga moslashish jarayoni sezilarli darajada tezlashadi. Muvaffaqiyatli moslashish uchun o'zining xatti-harakatlarini boshqarishni, ichki holatini muhit talablari bilan muvofiqlashtirishni va hayotning yangi vaziyatlariga muvofiq tayyorlikni

rivojlantirishni o‘rganish kerak. Harbiy faoliyat uchun harbiy xizmatchilarni tayyorlash nuqtai nazaridan moslashish muammolarining dolzarbligi uning mohiyati, tarkibi, xususiyatlari va unga samarali ta’sir etish yo‘llarini faol va sermahsul o‘rganishni taqozo etadi. Bo‘lajak ofitserlarning harbiy xizmatga muvaffaqiyatli moslashishi ularning kasbiy kompetentligini oshirishga, jamoada sog‘lom psixologik muhitni yaratishga va harbiy vazifalarni samarali bajarishga xizmat qiladi. Empatiya esa ushbu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki u harbiy xizmatchilarga o‘z safdoshlarining his-tuyg‘ularini tushunishga, ularga yordam berishga va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Harbiy xizmatda eng muhim davr - bu moslashish davri bo‘lib, bu vaqtda shaxsning ichki dunyosida qayta qurilish, uning turmush tarzi va kundalik hayotida harbiy muhitning talablariga moslashuv sodir bo‘ladi [3]. Ushbu davrning qanchalik muvaffaqiyatli o‘tishi harbiy xizmatning keyingi bosqichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu davrning muhim jihatlari shaxsning atrofdagilar bilan munosabatlarni qanday o‘rnatishi, nizoli vaziyatlarda o‘zini qanday tutishi, o‘zining qadr-qimmatini qanday saqlashi va o‘z "Men"ini qanday ifodalashi, qaysi psixologik himoya mexanizmlaridan foydalanishi bilan belgilanadi [4]. Bo‘lajak harbiy xizmatchilarning muvaffaqiyatli moslashuvi nafaqat ularning shaxsiy xususiyatlariga, balki jamoada yaratilgan ijtimoiy-psixologik muhitga ham bog‘liq. Empatiya, o‘z navbatida, yangi kelganlarga tezroq moslashishga, o‘z safdoshlari bilan aloqa o‘rnatishga va jamoada o‘z o‘rnini topishga yordam beradi. Qo‘mondonlar va tajribali harbiy xizmatchilarning empatik munosabati yosh askarlarga qiyinchiliklarni yengishga, stressni kamaytirishga va harbiy hayotga moslashishga ko‘maklashadi. Armiyadagi harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayoni yuqori dinamikaga ega bo‘lib, uning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bir qator ob‘ektiv va sub‘ektiv sharoitlar, funksional holat, ijtimoiy tajriba, hayotga munosabat va boshqalarga bog‘liq. Ijtimoiy-psixologik moslashuvning asosiy sabablari yangi o‘ziga xos muhitda sodir bo‘ladigan va yoshlar fuqarolik hayotida uchramagan quyidagi omillardir: Harbiy-professional faoliyatning qat’iy tartibga solinganligi, umumharbiy nizomning talablari, munosabatlarning yangi shakllari, murakkab harbiy texnikaga texnik xizmat ko‘rsatish zarurati, faoliyatning o‘zaro bog‘langan jamoaviy xususiyati, hal qilinadigan vazifalarning umumiyligi.

Bo‘lajak harbiy xizmatchilarning bunday sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashuvi ularning psixologik barqarorligini, stressga chidamliligini va kasbiy samaradorligini ta’minlash uchun zarurdir. Empatiya, o‘z navbatida, ushbu jarayonni osonlashtiradi, chunki u harbiy xizmatchilarga o‘z safdoshlarining qiyinchiliklarini tushunishga, ularga yordam berishga va jamoada ijobiy munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi. Empatik munosabat, ayniqsa, yuqori stressli vaziyatlarda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u harbiy xizmatchilarga o‘zaro yordam ko‘rsatishga, jamoaviy ruhni saqlashga va vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradi.

Yosh harbiy xizmatchining harbiy xizmatga ijtimoiy-psixologik moslashishida harbiy jamoa o‘zining muhim spetsifik xususiyatiga ega, ya’ni, harbiy faoliyatning maqsad va vazifalarini bajarish, amalga oshirilishi yuqori mas’uliyat yuklaydigan maxsus ijtimoiy ahamiyatga ega. Harbiy jamoalar harbiy-kasbiy faoliyatni tartibi va tashkil etish xususiyatlari

mazmuni, birgalikda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan harbiy mehnat turlari, intizomning holati, axloqiy va psixologik muhit, faoliyat yutuqlari va natijalariga qarab bir-birlaridan farq qiladi. Yosh harbiy xizmatchilarning tasavvurlari yangi sharoitlarda kengayadi va chuqurlashadi. Ushbu qayta tiklash natijasida paydo bo‘lgan xulqi, psixologik ma’lumotlar, xizmat o‘tash sharoitlarida mukammal o‘quv, xizmat va jamoadagi faoliyatini ta’minlaydi va bu o‘z navbatda, ularning harbiy jamoalarga moslashishining o‘ssishi haqida guvohlik beradi. Bunday qayta tiklashning asosiy psixologik mexanizmlari quyidagilardan iborat: o‘z-o‘zini ishontirish, o‘zini-o‘zi tiklash, o‘zini-o‘zi taqdirlash (o‘z-o‘ziga baho berish), taqlid, o‘zini-o‘zi majburlash, o‘zini tasdiqlash va boshqalar. Ushbu psixologik mexanizmlarning muvaffaqiyatli ishlashi harbiy xizmatchining ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta’minlaydi. Empatiya esa ushbu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki u yosh askarlarga jamoaning qadriyatlarini tushunishga, o‘z safdoshlari bilan aloqa o‘rnatishga va o‘zlarining his-tuyg‘ularini boshqarishga yordam beradi. Qo‘mondonlar va tajribali harbiy xizmatchilarning empatik munosabati yosh askarlarga qiyinchiliklarni yengishga, o‘ziga ishonchni oshirishga va jamoada o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashadi [5]. Ushbu mexanizmlar yordamida shaxs o‘zining yangi faoliyat turlari va sharoitlariga muvofiq ravishda o‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda tartibga solishni amalga oshiradi. Ushbu mexanizmlarning barchasi o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sir qilib, yangi faoliyat sharoitlarida insonning psixologik tarkibini, faoliyat shakli va xulq-atvorini aniqlaydi. Moslashishning mohiyati va uni amalga oshirish mexanizmlariga bunday yondashuv, moslashishni inson ijtimoiylashuvining muhim elementi deb hisoblashga va unga jamiyatning to‘liq a’zosi sifatida ishlashiga imkon beradi. Psixologik adabiyotlarda turli sabablarga ko‘ra moslashishning turlarini tasniflashga katta e’tibor beriladi. Manbalarda uning turlari shunday ajratiladi: biologik, fiziologik, psixofiziologik, psixologik, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy va boshqalar. Harbiy xizmatchilarning faoliyatidan kelib chiqib moslashishning asosiy turlari sifatida quyidagilarni taqsimlash mumkin: O‘quv faoliyatiga moslashish (didaktik), harbiy-funksional (kasbiy-jangovar) xizmat faoliyatiga moslashish, jamoa faoliyatiga moslashish, harbiy jamoaning maishiy hayotiga moslashish. Agar harbiy jamoa zaif bo‘lsa, jamoaning aksariyat a’zolari xizmat va jamoat vazifalarini yechishda passivdirlar, komandirlar ishning asl mohiyatini bilishmaydi, aks holda harbiy xizmatchida "Moslashish"ning boshqacha qiyofasini ko‘rishingiz mumkin. Kuchli va ahil jamoalarda yosh askarlar tezroq moslashadilar, o‘zlariga ishonchni his qiladilar va qiyinchiliklarni yengishga tayyor bo‘ladilar. Empatiya, o‘z navbatida, jamoada ijobiy muhit yaratishga, o‘zaro yordamni kuchaytirishga va ziddiyatlarni kamaytirishga yordam beradi. Empatik qo‘mondonlar o‘z xodimlarining ehtiyojlarini tushunadilar, ularga adolatli munosabatda bo‘ladilar va ularning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lazarus, R. S. (1993). Coping theory and research: Past, present, and future. *Psychosomatic Medicine*, 55(3), 234-247. (Ushbu manba moslashuv jarayonining psixologik asoslarini keng qamrovda yoritadi).

2. Bartone, P. T., Adler, A. B., & Vaitkus, M. A. (2007). Psychological well-being and troop readiness as predictors of success in peacekeeping operations. *Military Psychology*, 19(2), 95-110.
3. Gabriel, S., & Young, A. F. (2011). The self in social context: A cultural psychological perspective. In M. R. Leary & J. P. Tangney (Eds.), *Handbook of self and identity* (2nd ed., pp. 489-516).
4. Compas, B. E., Connor-Smith, J. K., Saltzman, H., Thomsen, A. H., & Wadsworth, M. E. (2001). Coping with stress during childhood and adolescence: Problems, progress, and potential in theory and research. *Psychological Bulletin*, 127(1), 87-127.



PEDAGOGIK MULOQOTDA NIZOLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Yuldasheva Maloxat Erkinovna
Qo‘qon Davlat universiteti PhD.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim va tarbiya jarayoning samaradorligini susayishiga olib keluvchi pedagogik nizo masalasi asosiy muammo qilib ko‘rsatilgan. Ushbu maqolada pedagogik muloqotda nizolarning psixologik xususiyatlari haqidagi mulohazalar bayon qilingan. Maqolada pedagogik nizo tushunchasiga oid ilmiy nazariyalar keltirilgan va izohlangan. Maqolada nizolarning pedagogik – psixologik xarakterlari hamda turlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Nizo, pedagogik nizo, destruktiv nizolar, produktiv nizolar, nizoning rivojlanish bosqichlari, nizoli vaziyatlar bilan ishlash.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ КОНФЛИКТА В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ДИАЛОГЕ

Аннотация: В данной статье как ключевая проблема освещается вопрос педагогического конфликта, который приводит к снижению эффективности образовательного и воспитательного процесса. В статье излагаются соображения о психологических особенностях конфликтов в педагогическом общении. В статье представлены и объяснены научные теории, связанные с понятием педагогического конфликта. В статье изложены педагогические и психологические характеристики и виды конфликтов.

Ключевые слова: Конфликт, педагогический конфликт, деструктивные конфликты, продуктивные конфликты, стадии развития конфликта, работа с конфликтными ситуациями.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CONFLICT IN PEDAGOGICAL DIALOGUE

Abstract: This article highlights the issue of pedagogical conflict, which leads to a decrease in the effectiveness of the educational and upbringing process, as the main problem. This article presents considerations on the psychological characteristics of conflicts in pedagogical communication. The article presents and explains scientific theories related to the

concept of pedagogical conflict. The article shows the pedagogical and psychological characteristics and types of conflicts.

Keywords: Conflict, pedagogical conflict, destructive conflicts, productive conflicts, stages of conflict development, working with conflict situations.

Kirish. Respublikamizda barcha yuksalishlarning asosi ta’lim va tarbiyaning samarali tashkil etilishi va pedagoglarning mahoratiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ta’lim va tarbiya jarayoning dinamik xarakteridagi asosiy mexanizm bu pedagog shaxsi ekanligi xech birimizga sir emas. Pedagog shaxsining insoniy madaniyati va xushmomalalik, insonni anglash qobiliyati kabi xususiyatlari pedagogik jarayonga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Aksincha pedagog shaxsida ushbu xususiyatlarining oqsoqligi pedagogik jarayonni nizolar bilan kechishiga sabab bo‘ladi. Pedagogik nizo ijtimoiy hayotdagi ko‘p uchraydigan holat bo‘lib, tabiiyki jamiyatning kuchli ijtimoiy munosabatlari to‘plangan tizim asosan maktabda va oliy ta’lim tizimida ko‘zga tashlanadi. Ta’limda o‘z «Men»ini qattiq hurmat qilishga odatlangan o‘quvchi yoki talabalar orasida nizoli munosabatlarning bo‘lishi tabiiy hodisa. Lekin amaliy ko‘nikmalarga, kuchli tayyorgarlikka ega bo‘lmagan pedagog yoki rahbarlar ham nizoli munosabatlarni vujudga kelishiga sharoit yaratib berishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Pedagogik nizolarni pedagogika va psixologiya fanlari bir-biri bilan uzviy holda o‘rganadi va hal qiladi. Ularning har ikkisi bitta umumiy jarayonni - insonning psixik faoliyati hamda uning xulq-atvorini tadqiq etadi. Bugungi kunda zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixologik tayyorgarliksiz sinf xonasiga kirishi miunkin emas. Shuning uchun ham o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yodga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarur. Shaxs shakllanishida u yashayotgan muhit, kishilar va jamiyatning roli juda katta. Chunki ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta’sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi. O‘qituvchi shularni hisobga olgan holda bolalar psixikasi va xarakterini o‘rganishi, shu asosda o‘qitishning aniq va izchil tizimini ishlab chiqishi lozim.

Pedagogik konfliktologiya rivojida ruhshunos M.M.Ribakova tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etadi. Muallif pedagogik jamoa ichida turli xil munosabatlarni o‘rganib, “O‘qituvchi-o‘quvchi” ko‘rinishidagi muammolarga katta ahamiyat qaratadi, maktab hayotidan mojaroli vaziyatlarni misol qilib ko‘rsatadi hamda ularning asosiy sabablarini aniqlab beradi. M.M.Ribakova mazkur guruh munosabatlarini tahlil qilib, barcha mojarolarning asosiy sababchisi o‘qituvchining o‘zi ekanligini ta’kidlaydi. Shu munosabat bilan, o‘quvchilar bilan normal munosabatni yo‘lga qolyish uchun pedagog mojarolarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim degan tavsiyani ilgari suradi.

Pedagogik konfliktologiya rivojiga S.V.Banikina tadqiqotlari sezilarli hissa qo‘shdi. Muallif maktab jamoasidagi mojarolarning vujudga kelishidagi umumiy va o‘ziga xos sabablarini ajratib berdi, pedagogik mojarolarning topologiyasini ishlab chiqdi hamda o‘quv tarbiya jarayonida ishtirokchilar orasidagi turli xil mojarolarni hal etish bo‘yicha tavsiyalarni

taqdim etdi. S.V.Bakinova o‘z ishlarida pedagog uchun konfliktologik bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishning muhimligiga katta e‘tibor qaratadi.

Muhokama va natijalar. Bog‘lanish - muloqotga kiruvchilar o‘rtasida ikki tomonlama aloqa bo‘lishini taqozo etadi. Bunga erishish va uni ko‘ngildgidek rivojlantirish sharti munosabatga kirishuvchi shaxslarning o‘zaro bir-birlariga hurmati, ishonchidan iboratdir. Pedagog o‘quv-tarbiya ishi jarayonida o‘quvchilar bilan aloqa bog‘lar ekan, ulardan o‘qituvchi rolining o‘zi taqozo etadigan darajada izzat-ikrom kutadi. Agar pedagog o‘z tarbiyalanuvchilariga nisbatan ishonch va hurmat bilan munosabatda bo‘lsa, u har qancha qattiqqol va talabchan bo‘lgan taqdirda ham, uning eng arzimas tanbehlari ta’sirli bo‘ladi. O‘quvchi o‘qituvchining so‘zlarida o‘ziga nisbatan hurmat-e‘tiborni sezmasa, asosli va mantiqan to‘g‘ri pand-nasihatlarini ko‘pincha loqayd qoldirishi mumkin. O‘zini-o‘zi hurmat qilish tuyg‘usi — aniq, lekin mo‘rt quroldir. Psixologik bog‘lanishning buzilishi shaxslararo mojaroga sabab bo‘lishi mumkin.

Ayrim vaziyatlarda bir-birini inkor etuvchi qadriyatlar, vazifalar va maqsadlarning mavjudligini aks ettiruvchi pozitsiyalar antagonizmi yuzaga chiqadi. Ba’zan bu o‘zaro adovatni keltirib chiqaradi va shaxslararo mojarolar sodir bo‘ladi. Mojaroning ijtimoiy mohiyati turlicha va shaxslararo munosabatlar negizini tashkil etadigan qadriyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, mojaralar bittasi noinsoflik qilgan ikkita o‘rtoqning to‘qnashuvi tusini olishi mumkin. Birgalikdagi faoliyat jarayonida mojarolarning sabablari o‘rnida ikki xil toifadagi determinant, ya’ni ashyoviy-amaliy kelishmovchiliklar va shaxsiy-pragmatik manfaatlar o‘rtasidagi tafovut maydonga chiqadi. Mojarolarning kelib chiqishiga muloqotga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikda harakat qilishlariga g‘ov bo‘lgan va bartaraf etilmagan ma’naviy anglashilmovchiliklar sabab bo‘ladi. Munosabatdagi ma’naviy anglashilmovchilik — aytilgan talabning, iltimosning, buyruqning ma’nosi muloqot bog‘lashgan sheriklar uchun muvofiq emasligidir. Bu hol ularning o‘zaro hamjihatligi va birgalikda harakat qilishi uchun to‘sqinlik qiladi.

Xarakteriga qarab pedagogik nizolar obyektiv yoki subyektiv nizolarga bo‘linadi. Obyektiv nizolarga ta’limning rivojlanish jarayonida yuzaga chiqadigan real kamchiliklar va muammolar bilan bog‘liq nizolar kiradi. Bu nizolar amaliy nizolar bo‘lib, o‘quv jarayonini rivojlantirish, ta’lim muassasasida normal «ruhiy iqlim»ni yaratish uchun xizmat qiladi. Subyektiv nizolarga o‘qituvchi va o‘quvchilarning u yoki bu voqelikka bo‘lgan shaxsiy fikrlarining turlichaligi oqibatida vujudga keladigan nizolar kiradi. Bu nizolar tabiati bo‘yicha his-tuyg‘uga, hissiyotga berilish, qiziqqonlik oqibatida yuzaga chiqadi. Odatda, bunday nizolar bir-birini ruhan ko‘ra olmaydigan yoki bir-birini tushunmaydigan, yoxud tushunishni istamaydigan o‘qituvchi va o‘quvchilarning qarama-qarshi fikrlari oqibatida vujudga keladi.

Agar pedagog o‘quvchilar psixologiyasini yaxshi bilsa, uni e‘tiborga olsa, o‘quvchining qiziqishlarini va e‘tiqodini, yoshiga xos xususiyatlarini, ilgari egallagan tajribasini inobatga olsa, uning istiqboli va qiyinchiliklari bilan hisoblashgan holda ish tutadigan bo‘lsa, ma’naviy anglashilmovchiliklarni bartaraf etish mumkin.

So‘zlar kishi ongining boshqa faktlari kabi mohiyatlarning umumiy tarzda qabul qilingan tizimidan tashqari alohida har bir kishi uchun xos ma’lum darajadagi shaxsiyatga oid mazmun, ahamiyat kasb etadi. Mohiyatlar bilan shaxsiyatga oid mazmunning nisbati A.N.Leontevning asarlarida chuqur tadqiq etilgan edi: «Shaxsiyatga oid mazmunlar mohiyatlardan farqli o‘laroq... o‘zining ortiqcha individualligiga, «nopsixologik» tarzda mavjudligiga ega emas. Tashqi sezuvchanlik subyekt ongida mohiyatlarni obyektiv olamning realligi bilan bog‘lab turadi, shaxsiyatga oid mazmun esa ularni uning ushbu olamdagi hayoti realligi bilan, uning sabablari bilan bog‘laydi. Shaxsiyatga oid mazmun inson ongining g‘arazlilikini yuzaga chiqaradi».

Raqobatning eng yorqin shakli nizodir. Nizoning odatda ikki xil turi farqlanadi:

	Destrktiv nizolar		Produktiv nizolar
1	Shaxsiy xususiyatlarning bir-biriga mos kelmasligi tufayli vujudga keladi	1	Nuqtayi nazarlarning bir-biriga mos kelmasligi sababli vujudga keladi
2	Munosabatlarning buzilishiga olib keladi	2	Muammoga kengroq qarashga olib keladi
3	Ishtirokchilar soni ortib boradi	3	Optimal yechimning topilishiga yordam beradi
4	Qarama-qarshi tomonga nisbatan negativ baholar kuchayib boradi	4	Shaxsga ko‘chilmaydi
5	Shaxsga ko‘chish oson yuz beradi		

Zamonaviy psixologiyada nizo odamlarning o‘zaro munosabatlari jarayonida qarama-qarshi pozitsiyalarning to‘qnashuvi sifatida talqin etiladi. Har qanday nizoning belgilari quyidagilardan iborat: ikki qarama-qarshi tomonlarning mavjudligi, ular o‘rtasidagi to‘qnashuvning yuzaga kelishi. Nizolar quyidagi qismlardan tarkib topadi: nizoning tomonlari, nizoning shart-sharoitlari, nizoning predmeti, nizo qatnashchilarining xatti-harakatlari, nizoning natijalari. Nizoning dinamik xususiyatlari uning turli bosqichlarida yuzaga keluvchi nizo va jarayonlaridir:

- obyektiv nizoli vaziyatning yuzaga kelishi;
- vaziyatning nizoli ekanligi anglanishi;
- nizoviy o‘zaro ta’sir (yoki nizoning o‘zi), nizoning hal etilishi.

Olimlar nizoning rivojlanish bosqichlarini ikkiga ajratadilar: tomonlarning yashirin to‘qnashuvi, tomonlarning ochiq to‘qnashuvi. Nizolarning shaxsiy, shaxslararo, guruhlararo, guruhlar ichidagi kabi turlari farqlanadi. Turli xildagi psixologik nizolar o‘zining asosiga binoan subyektlararo bo‘ladi, chunki nizolar har doim subyektlar o‘rtasida — guruh vakillari bilan munosabatda bo‘luvchi turli shaxslararo yoki subyektning o‘zi bilan o‘zi nizo ko‘rinishda kechadi. Nizolarni hal qilish uchun biz ma’lum bir xatti-harakatlarni

amalg oshiramiz, lekin ular samarali yoki samarasiz bo‘lishi mumkin. Bizning nizolarni hal qilishdagi harakatlarimiz quyidagi hollarda samara berishi kuzatiladi: qarama-qarshi tomonlarning to‘qnashuvi to‘xtatiladi yoki batamom tugatiladi, tomonlar qarama-qarshiligi barham topadi.

Jamoadagi, guruhlardagi nizolar xavfli ko‘ngilsiz oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ko‘pincha ular goh o‘chib, goh avj olib, guruh a‘zolarini ishdan chalg‘itib, holdan toydirib, kishining ruhiy holatiga salbiy ta‘sir etib, surunkali ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun nizoni boshqarish va bartaraf etish alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo nizoni oldindan ko‘ra bilish, uning ziddiyatli vaziyatga aylanib ketmasligining oldini olish zarur. Nizoli vaziyatlarda nizoni hal qilishning ikkita asosiy tuzilishi mavjud: nizoviy omil bilan ishlash, guruhlar yetakchilari bilan ishlash.

Pedagogika fanlari nomzodi V.M.Afonkova «nizolarga pedagogik aralashishning muvaffaqiyatlilikligi pedagogning qarashlariga bog‘liq bo‘ladi», deb ta’kidlaydi. Bunday qarashlar kamida to‘rt jihatdan iborat bo‘lishi mumkin:

- nizoga avtoritar aralashish yondashuvi - pedagog nizo. Bu har doim ham yomon emasligi va u bilan kurashish kerakligiga ishonchi bo‘lmagan holda uni bostirishga harakat qiladi;

- neytralitet yondashuv - pedagog tarbiyalanuvchilari o‘rtasida yuzaga keladigan to‘qnashuvlarni sezmaslikka va aralashmaslikka harakat qiladi;

- nizodan qochish - pedagog nizo. Bu yuzaga kelgan vaziyatdan qanday chiqishni bilmasligi sababli bolalar bilan uning muvaffaqiyatsiz tarbiyaviy ishlari ko‘rsatkichi deb ishonadi;

- nizoga maqsadga muvofiq aralashish - pedagog tarbiyalanuvchilari jamoasini yaxshi bilishiga, tegishli bilim va malakalariga tayanib nizo kelib chiqishi sabablarini tahlil qiladi, uni bostirish yoki ma’lum darajagacha rivojlanib borishi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, nizoli vaziyatlarni hal qilish xatti-harakatlari belgilanmagan yoki bu xatti-harakat samara bermagan holatlarda ziddiyatli vaziyat yuzaga keladi. Ziddiyatli vaziyatni hal qilishning yagona usuli va imkoniyati — uni to‘xtatishdir.

Demak, pedagogik nizolar o‘z-o‘zidan kelib chiqmay, balki shaxslarning o‘zaro kelishmovchiliklari, ma’naviy anglashilmovchiliklar, nizolar, ishga doir, shaxsiy nizolar natijasida yuzaga keladi. Shu o‘rinda pedagogik nizolarning kelib chiqish sababi qanday bo‘lmasin yagona xulosa shuki, pedagog shaxsining mahorati va uning oqilona aralashuvi pedagogik nizoning yechimi uchun eng oqilona yo‘ldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Maqsudova. “Muloqot psixologiyasi”. “Turon-iqbol”. Toshkent. 2006-yil.
2. Leontev A.N. Деятельность. Сознание. Личность. 2-nashri. M.153-bet.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARISHDA YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH

Zakirov Alisher Akbarovich

*MTTDMQTMOI "Ta'lim jarayonini tashkil etish" bo'limi boshlig'i,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Annotatsiya Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvning samaradorligini oshirish maqsadida yangi texnologiyalarni joriy qilishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Yangi texnologiyalar, ayniqsa, raqamli platformalar va virtual moslamalar maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni yaxshilash, bolalarning ta'lim olish sifati va rahbarlikning samaradorligini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ma'lumki, zamonaviy texnologiyalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqish jarayonini tezlashtiradi, ishlarning ilmiy asosi va yangi metodikalar bilan tanishishga imkoniyat yaratadi. Maqolada shuningdek, yangi texnologiyalarning maktabgacha ta'limga integratsiyasi bo'yicha amaliyotga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yangi texnologiyalar, maktabgacha ta'lim, boshqaruv, innovatsiyalar, raqamli platformalar, pedagogika, ta'lim sifatini oshirish, metodikalar.

Аннотация В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты внедрения новых технологий в дошкольные образовательные учреждения с целью повышения эффективности управления. Новые технологии, особенно цифровые платформы и виртуальные инструменты, открывают большие возможности для улучшения педагогических процессов, качества образования детей и эффективности руководства в дошкольном образовании. Известно, что современные технологии ускоряют процесс развития дошкольных образовательных учреждений и предоставляют возможности для ознакомления с научной основой и новыми методиками. В статье также приведены практические рекомендации по интеграции новых технологий в дошкольное образование.

Ключевые слова: новые технологии, дошкольное образование, управление, инновации, цифровые платформы, педагогика, повышение качества образования, методики.

Abstract This article examines the theoretical and practical aspects of implementing new technologies in preschool educational institutions to enhance management efficiency. New technologies, particularly digital platforms and virtual tools, provide significant opportunities for improving pedagogical processes, the quality of children's education, and the effectiveness

of leadership in preschool education. It is well known that modern technologies accelerate the development process of preschool educational institutions and offer opportunities to familiarize with scientific foundations and new methodologies. The article also includes practical recommendations for integrating new technologies into preschool education.

Keywords: new technologies, preschool education, management, innovations, digital platforms, pedagogy, improving education quality, methodologies.

Hozirgi global raqobat sharoitida ta'lim tizimidagi yangilanishlar jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari ham chetda qolmay, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim va boshqaruv samaradorligini oshirishga intilmoqda. Yangi texnologiyalarni boshqaruvga tatbiq etish maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishga zamin yaratadi. Ma'lumki har qanday faoliyat turi boshqaruv asosiga quriladi, shunday ekan maktabgacha ta'lim faoliyatini amalga oshirishda ham ko'zlangan maqsadga erishish, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, ijrosini nazorat qilish, shuningdek, samaradorlikka erishish uchun shu faoliyatda ishtirok etuvchilarni manfaatlarini himoya qilish, rag'batlantirish chora tadbirlari boshqaruv jarayonida tashkil etiladi va muvofiqlashtiriladi.

Boshqaruv odamlar bilan birga paydo bo'lgan. Bunda ulardan birlari rahbar, ya'ni boshqaruvchilar, boshqalari esa ularning tobelari, ya'ni boshqariladiganlar bo'ladilar. Umumiy ko'rinishda boshqaruv ikkita obyektning maqsadiga qaratilgan o'zaro hamkorligidan iborat bo'lib, bunda ulardan biri boshqaruv subyekti o'rnida, boshqasi esa boshqaruv obyekti o'rnida bo'ladi. Boshqaruvni faqat tashkilotning tarkibiy qismi bo'lgan haqiqiy harakat qiluvchi tizim mavjud bo'lgandagina amalga oshirish mumkin, u tizimli boshqaruv deb ataladi.

Boshqaruv jarayoni eng avvalo insonlarni boshqaradi. Odamlarni ongli mehnatga qiziqitirish, tadbirkorlikka, mehnatga ijodiy yondashish, o'ziga ishonish, yangi bilim va ko'nikmalarini egallash, chorlash, insonlarni boshqarish demakdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish jarayoni 3 ta asosiy vazifa hal etilishiga yordam beradi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli bo'limlar ishini bir-biriga bog'lab, ularni uyg'unlashtirish.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotining mehnat bozor bilan, o'z sheriklari hamda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar (bank, soliq organlari, resurs yetkazib beruvchi tashkilot va boshqalar) bilan bo'lgan aloqalarini tashkil etish va yuritish.
3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ishchi va xodimlarning mehnat motivatsiyasini (ingl. motivation — rag'bat), ya'ni ularni mehnatga undovchi kuchni harakatga solish, ichki nizolarni hal etib, jamoada sog'lom ijtimoiy ruhiy muhitni yaratishdan iboratdir.

Hozirgi zamon boshqaruv fani – fanlararo fandir. Boshqaruvning har bir vazifasini butun maxsus fanlar: - sanoat-muhandislik; - ijtimoiy psixologiya; - ijtimoiy muhandislik

(ergonomika); - marketing kabilar bajaradi. Albatta, boshqaruv maqsadlariga qarab maqsadlarining turi turlicha bo‘lishi mumkin:

- umumjamiyat miqyosidagi munosabatlarni aks ettirishiga qarab- qiyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’rifiy-ma’naviy, xalqaro munosabatlar sohasidagi maqsadlar;
- boshqaruv pog‘onalariga qarab - hududiy boshqaruv, mamlakat, viloyat, tuman, qishloq, ishlab chiqarish, xalq xo‘jaligi, tarmoq yoki sektor, yakka xodim maqsadlari;
- amalga oshirish muddatiga qarab - joriy, istiqboldagi, uzluksiz yoki kundalik maqsadlar;
- boshqarishning sodir bo‘lishiga qarab - fursatli, bir martalik maqsadlar;
- kutiladigan natijalariga qarab - pirovard, oraliqdagi, oddiy yoki an’anaviy, muammoli maqsadlar;
- murakkablik darajasiga qarab —innovatsion maqsadlar.

Mazkur turkumlanishdan ko‘rinib turibdiki, maqsadlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, muayyan iyerarxiyaga, ya’ni yuqori va quyi maqsadlarga ega bo‘lishi, bir maqsad esa boshqa bir maqsadga bo‘ysunishi mumkin. Har qanday holatda ham oxirida qandaydir o‘zgarayotgan hodisa, munosabat, jarayon va tizimlarga ta’sir etish **boshqarish**, deb ataladi. Boshqa qism va tuzilmalarga ta’sir eta oladigan unsur bo‘lishi kerak. Mavjudotga ta’sir etish samarali bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Boshqaruvchi va boshqariluvchilar orasida ikki tomonlama axborot almashish zarur, yechim qabul qilish lozim, jarayon va faoliyatlarni tashkil etish, ularni rejalashtirish, ularda qatnashgan xodimlarni rag‘batlantirish kerak.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, boshqarish — moddiy tizimning o‘z sifat muayyanligini saqlash, muhit bilan dinamik muvozanatni saqlab turish, takomillashish qobiliyatidir. Boshqarish jarayonlari moddiy tuzilmalarning hammasiga xos bo‘lmay, balki faqat biologik, ijtimoiy tarzdagi murakkab harakatchan tizimlarga hamda inson aql-zakovati bilan yaratilgan avtomatik qurilmalarga xosdir. Bular haqida kibernetik boshqaruv fanlarida atroflicha o‘rganiladi. Boshqarish jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichida unga ichdan xosdir, u kishilar mehnatining ijtimoiy tavsifidan, mehnat faoliyati jarayonida aloqa bog‘lash, bu faoliyat mahsulotlarini ayirboshlash zaruratidan kelib chiqadi. Boshqarish insonlarning ijtimoiy xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatib turadi, chunki ular hamisha ijtimoiy tizimlar, jamoalar (formatsiya, sinf, guruh) sharoitida harakat qiladilar va tizimlar, jamoalar ular oldiga muayyan talab (huquqiy, axloqiy, va x.k. talablar) qo‘yadi. Demak, biz bundan buyon boshqarish atamasini menejment ma’nosida ishlatamiz.

Umumiy ko‘rinishda boshqaruv ikki xodim (subyekt) yoki ega kishilar orasida, ularning biri — boshqaruv egasi nuqtayi nazarida o‘zaro ta’sir etsa, ikkinchisi — boshqaruvchi obyekt nuqtayi nazarida qatnashuvchi timsolida, o‘zaro ta’sir etuvchi ma’lum toifadir. Ushbu o‘zaro ta’sir quyidagi fikrlar bilan ifodalanadi: boshqaruvchi (subyekt) boshqariluvchi obyektga ko‘rsatma (impuls) yuboradi. Buni boshqaruv komandalari (buyruqlari) deb ataymiz; boshqariluvchi obyekt boshqaruvchi subyektdan buyruqni oladi va ushbu ko‘rsatmaning

mazmuniga mos ravishda ish ko‘radi. Eng avvalo boshqaruvchi obyektni aks ettiruvchi, uni talqin etishga yordam beruvchi ma’lumotlarni jamlab baholanadi.

Tashkilotni boshqarish o‘z ichiga uch aspektni oladi:

1. “Kim kimni” boshqaradi? (institutsional aspekt). Bu aspekt boshqarish masalalari ijrochilarini, xususan, menejerlar va boshqaruv organlarini xarakterlaydi. Boshqa tomondan, shu tarzda kim boshqarishini, xususan, qarorlar bilan bog‘liq shaxslar va boshqa xodimlarni aniqlaydi.

2. Boshqaruv “qanday” amalga oshiriladi va boshqaruvchilarga “qanday” ta’sir ko‘rsatadi (funktional aspekt). Bu aspekt, birinchidan, menejerlar va boshqaruv organlari faoliyati va shakllanishini xarakterlaydi. Bu yerda boshqaruvning funksiyalari va shuningdek, menejerlar faoliyatining maxsus xarakteristikalarini (boshqaruv uslublarini) ko‘rib chiqish mumkin. Boshqa tomondan, menejerning boshqariluvchilarga ta’sir etish munosabatlari xarakterlanadi.

3. Boshqaruv “nimalar” bilan amalga oshiriladi? (instrumental aspekt). Bu aspekt menejerlar o‘z vazifalarini amalga oshirishda ishlatadigan instrumentlari (boshqaruv instrumentlari)ga taalluqli.

Boshqaruv tizimi boshqariladigan o‘zaro bog‘liqlikni muayyan ifodalovchi shaklidir. U esa boshqarish vazifalarining amaliy ro‘yobga chiqishida substansiya (bo‘lakchasi) bo‘lib xizmat qiladi. Haqiqiy boshqarish faoliyati bajarilishida boshqarish tizimi ishlashi lozim. Shu bois boshqarish tizimi kichik tizimlarga ajraladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishda yangi texnologiyalarni joriy etish ta’lim sifati, shaffoflik va samaradorlikni oshiradi. Bu jarayon rahbarlar, pedagoglar va texnik xizmatlar o‘rtasida yaqin hamkorlik va doimiy o‘quvlar orqali amalga oshirilishi lozim. Yangi texnologiyalarning samarali integratsiyasi nafaqat boshqaruvni osonlashtiradi, balki bolalarning ta’lim-tarbiya jarayonida ham ijobiy o‘zgarishlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayeva, N. (2006). *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. YUNESKO. (2019). *ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications*. UNESCO Publishing. <https://unesdoc.unesco.org>
3. Jalolov, J. (2014). *Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar*. Tashkent: TDPU nashriyoti.
4. Khakimova, Z. (2021). *Raqamli texnologiyalar asosida maktabgacha ta’limda boshqaruv samaradorligini oshirish yo‘llari*. *Ta’lim va rivojlanish jarayoni*, 3(2), 88–94.
5. Spencer, L. M., & Spencer, S. M. (1993). *Competence at Work: Models for Superior Performance*. New York: John Wiley & Sons.
6. Qodirova, M. (2020). *Maktabgacha ta’lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarning amaliyotga tatbiqi*. *Pedagogik izlanishlar jurnali*, 2(1), 45–51.

7. Anderson, T., & Dron, J. (2011). *Three Generations of Distance Education Pedagogy. International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 12(3), 80–97.
8. Valiyeva F.R. Metodologicheskiye osnovy obespecheniya sistemnosti i preemstvennosti v protsesse podgotovki spetsialistov. Dissertatsiya doktora filosofskix (PhD) pedagogicheskix nauk. – T.: 2020. – 48 b
9. Valieva F. R. The importance of educational content in preparation of competitive personnels. 2 nd International Conference BRIDGE TO SCIENCE: RESEARCH WORKS San Francisco, USA February 28, 2018 121-122 list http://doi.org/10.15350/L_2/3



UZLUKSIZ TA‘LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK KREATIVLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUNI VA ULARNING AHAMIYATI

Raxmatova Zulxumorxon
Andijon davlat tibbiyot instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti, tillar”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo miqyosida innovatsion rivojlanishning global vazifalaridan biri bo‘lgan insonlarda kreativlikni shakllantirish va uni rivojlantirishda nimalarga ahamiyat berish kerakligi, ta‘limda o‘qituvchining va o‘quvchining kreativ fikrlashi ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Kreativ tafakkur, erkin ijod, Hard skills, “Soft skills”, kompetensiya, bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy salohiyat.

Bugungi kunda ta‘lim jarayonida kreativlik yangi g‘oyalar ishlab chiqish, murakkab vaziyatlarga qulay yechim topa bilish, kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish, oqilona tavakkalchilikka bo‘lgan qobiliyat, kasbiy barkamollik kabi harakatlar nazarda tutiladi. YUNESKO kreativlik tushunchasiga ta‘rif berib “erkin ijod qilish va kreativlik - sohalar rivojining asosidir” deb e‘tirof etdi. Jahon miqyosida pedagoglarning ijodiy salohiyati, kasbiy kompetentligi va kreativligini rivojlantirish, yangi zamonaviy dasturiy vositalar orqali o‘qitishning an‘anaviy va zamonaviy metodlaridan kompleks foydalanish hamda ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning intellektual resurslarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

“Kreativlik” atamasiga oid izohlar soni minglab topiladi, ammo ulardan eng aniqrog‘i quyidagicha: kreativlik – yangi g‘oyalarni yarata olish qobiliyati bo‘lib, standart va odatiy chizmalardan, fikrlash qoidalaridan tubdan farq qiladi. Kreativ inson biron-bir vaziyat yoki muammoni noodatiy usulda ko‘ra oladi. U tubdan yangicha, nostandart tarzda fikrlaydi, muammolarni hal etishda yangi usul va yo‘llarni izlab topadi. Tabiiyki, uning tafakkuri konstruktiv va yaratuvchan xususiyatga ega. Boshqacha qilib aytganda, kreativ shaxs – bu innovatordir, deyish mumkin. Shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini tadqiq etishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtma kreativlik muammosining alohida muhimligini belgilaydi. Shaxsiy ijodkorlikning dinamik (rivojlanib, o‘sib borishi) tasniflanishi kreativlik va uning asosiy qirralarida aks etadi. Biroq, kreativlik psixologiya va pedagogika fanlarining belgilangan ilmiy

kategoriyasi borasida, “kreativlik” tushunchasi tegishli lug‘atlarda munosib differensiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O‘nlab ilmiy ishlarda ilmiy ijodkorlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o‘ziga va na unga taalluqli bo‘lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to‘xtam mavjud emas.

Terminologik lug‘atlarda kreativlik hayratga tushish va anglab olish, nostandart vaziyatlarda yechim topish qobiliyati, yangi narsalarni kashf qilishning maqsadga muvofiqligi va o‘z tajribasini chuqur anglash qobiliyati sifatida beriladi. Aynan “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipining ustuvorlik kasb etishi, kompetensiyaviy yondashuv asosida zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni (erkinlik, ijodiy yondashuv, kreativlik, tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash va h.) egallash kelajakda ustuvor ahamiyat kasb etishini anglatadi. Ayni paytda ta’lim sohasidagi nufuzli Xalqaro ekspertlar tomonidan ta’lim tarbiya jarayoniga ikki xil kompetensiyalarni uyg‘un joriy etish taklif etilmoqda. Bular: “Hard skills - (ingliz. “qattiq” malaka) kasbiy kompetensiyalar hamda “Soft skills” - (ingliz. “yumshoq”, “moslashuvchan” malaka) universal (umumiy) kompetensiyalar.

“Hard skills” - malaka darajasini aniqlash va o‘lchash mumkin bo‘lgan bilimlar majmui sifatida (matnni kompyuterda terish malakasi, avtomobilni boshqarish ko‘nikmasi, ingliz tilida gapirish, matematik bilim, kompyuter dasturlaridan foydalanish ko‘nikmasi), “soft skills” aniq va umumiy o‘lchov birligiga ega bo‘lmagan moslashuvchan, egiluvchan malakalar (kreativlik, jamoada ishlash ko‘nikmasi, hissiy barqarorlik, mas’uliyat, tashabbuskorlik va h.) sifatida qayd etilmoqda. “Hard skills” - “qattiq” malakaga ega bo‘lish uchun muayyan kasb bo‘yicha aniq bilim zarur bo‘ladi va bu ko‘nikmalarning mavjudligi imtihon o‘tkazish orqali aniqlanadi.

“Soft skills” - “yumshoq” kompetensiyalar (ijodkorlik, muloqotga kirishishi layoqati, jamoada ishlash qobiliyati, qat’iyatlilik, tanqidiy fikrlash va h.) esa ko‘p hollarda inson xarakteri va hayotiy tajribasiga bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli shaxsiy fazilat, xislat, qobiliyat sifatida ham talqin etiladi.

“Soft skills” tushunchasi tadqiqot predmeti (obyekti) sifatida ilmiy muomalaga

kirishi ilk marta 1959-1972-yillarda AQSh armiyasi shaxsiy tarkibini tayyorlash jarayonidagi islohotlar bilan bog‘liq. Askarlarning shaxsiy va jangovor kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlarga rahbarlik qilgan psixolog, ehtiyojlar nazariyasi muallifi, mavzular bo‘yicha apperseptiv testlarni baholashning yangi metodikasini ishlab chiqqan professor Devid Makkleland AQSh davlat departamenti xizmatiga xodimlarni tanlash jarayonida ilk marta “yumshoq” (soft) kompetensiyalar va ularni baholash tushunchasini qo‘llaydi.

XXI asrga qadar ta’lim tizimida yoshlarga asosan “hard skills” – “qattiq” malaka darajasini berishga e’tibor qaratib kelindi. Ya’ni, muayyan kasbni puxta egallash, uning sir-asrorlarini to‘liq o‘zlashtirish – shaxsning yetuk mutaxassis ekanligini belgilovchi asosiy factor sifatida qayd etilgan. XXI asr pedagogikasi esa zamonaviy dunyoda bu xislatlarning yetarli emasligi, endilikda tafakkurni rivojlantirish, kreativ makon, muhit, kreativ shaxs, kreativ

mahsulot yaratishga bo‘lgan ehtiyoj asosida ish tutish lozimligini uqtirmoqda. Jahoning bir qator nufuzli tadqiqot markazlari o‘z hisobotlarida zamonaviy ta’lim mazmunini “yumshoq” kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirish va modernizatsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan innovatsion ta’lim muhitini yaratish, yoshlarda nostandart tafakkur tarzi va kreativlik xislatlarini shakllantirish zaruratini e’tirof etib, bu jarayonning pedagogik, metodologik va ilmiy-nazariy asoslarini taqdim etmoqda. Butunjahon Iqtisodiyot Forumi e’lon qilgan 2020-yil uchun eng muhim 10 ta bilim, ko‘nikmalar ro‘yxatida aynan “yumshoq” kompetensiyalarga keng o‘rin berilganligi ham ana shu ehtiyojning muqarrar ekanligidan dalolat bermoqda.

Karnegi Melon fondi va Stendfords tadqiqot instituti ilmiy xulosalariga ko‘ra, “Fortune 500 ” top ro‘yxatiga kiritilgan kompaniyalar rahbarlarining muvaffaqiyatga erishishiga 75 foiz holatda “soft skills”, bor-yo‘g‘i 25 foiz holatda esa “hard skills” kompetensiyalari asos bo‘lgan. Olimlarning e’tirof etishicha, muvaffaqiyatga erishishda “yumshoq” kompetensiyalar kasblarning turi va murakkabligidan qat’iy nazar asosiy rol o‘ynagan . Shu sababli ayni paytda o‘tkazilgan so‘rovlarda 77 foiz mutaxassislar “soft skills” – “yumshoq” kompetensiyalar bugungi kunda dolzarbligi va muhimligi jihatdan “hard skills” - individual kasbiy “qattiq” bilim, malakalardan ustun ekanini ta’kidlashgan. Aynan shuning uchun ham “soft skills” atamasi tez o‘zgarayotgan dunyoda inson uchun eng muhim bo‘lgan kompetensiyalar majmui sifatida ommaviylik kasb etmoqda. Bu borada Xalqaro ekspertlar tomonidan yuzlab maqolalar e’lon qilinmoqda va ularda bir-biriga yaqin bo‘lgan qarashlar ilgari surilmoqda. Quyida ularning ayrimlari tahlilga tortildi: “yumshoq malakalar” – bu shaxsiy sifatlar bo‘lib, inson uchun boshqalar bilan samarali va uyg‘un faoliyat olib borishiga imkon yaratadi”, “ish beruvchilar uchun nafaqat kasbiy bilimlar muhim, balki ta’lim muassasasida tahsil davomida berilmaydigan shaxsiy sifatlar ham juda ahamiyatlidir. Agar ishchi xodimlar kreativlik, mas’uliyat, muomala madaniyati kabi sifatlar mavjud bo‘lsa, bu ish samarasi va natijasiga albatta, ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Aynan shu kompetensiyalar majmuasi bugun “yumshoq ko‘nikmalar” ya’ni, “soft skills”, deb atalmoqda”. Ushbu malakalar talab qilmaydigan, avtomatlashtirilishi mumkin bo‘lgan qolgan barcha kasblarga esa inson resurslari kerak bo‘lmaydi, ular avtomatlashtiriladi, robotlashtiriladi, raqamlashtiriladi”. Shu bilan birga “yumshoq” malakalarni talqin etishda ikki xil yondashuv ustuvorlik kasb etmoqda. Bir guruh ekspertlar “yumshoq malakalar”ni inson asliyatiga va xarakterida tabiatan mavjud bo‘lgan va hayot davomida orttirib boriladigan shaxsiy fazilatlar, ko‘nikmalar majmuyi sifatida talqin etsa, ikkinchi guruh olimlar uni qo‘shimcha ravishda o‘rgatiladigan va o‘rganiladigan (ta’lim muassasasida) bilim, malaka, ko‘nikmalar majmuyi sifatida qabul qiladi. Shu bois “soft skills” atamasi mazmunan va mantiqan yaxlit ma’noni o‘zida mujassam etgan ta’rif va tasnifga ega bo‘lishi va aynan shu nuqtai nazardan talqin etilishi maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi vaqtda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kreativ yondashuvni amalga oshirish bo‘yicha ijodiy ta’lim dasturlari muallifi Lids Metropolitan universiteti “Amaliy ijtimoiy fanlar” o‘qituvchisi, ijodiy markaz rahbari, f.f.d. Merilin Frayer “Ta’limda ijodkorlikni targ‘ib qilish va

diagnostika o‘lchovlarining o‘rni” maqolasida ta’lim amaliyotida ijodiy tarkibiy qismni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradigan omillarni hamda umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilari tomonidan qo‘llaniladigan usullarni tavsiflaydi. Uning fikriga ko‘ra, hozirgi paytda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish usullari va ijodkorlik darajasini belgilashga qaratilgan diagnostika ishlari o‘qituvchilarda alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Kreativ pedagogika ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali sinfda ulardan samarali foydalanishlari imkoniyatlarini ochib beradi. Ijodkorlikni o‘rganish jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining intellektual va psixologik rivojlanishi tizimlarini shakllantirish muammolari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular shaxsiy-ijodiy fikrlash uslubining tarkibiy qismlarini shakllantirishga qaratilgan. Demak, pedagogning kreativligi – ta’lim beruvchining an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati bo‘lib, bu sifat o‘qituvchining o‘zini ijodiy namoyon qila olish kompetentligiga egaligi va unga tayyorgarlik darajasini ifodalaydi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufayli o‘quvchilar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadilar. Buning sababi ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar o‘quvchilarda erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi.

Hozirda kreativ fikrlash qobiliyati nafaqat o‘quvchilar uchun, balki o‘zini Vataniga daxldor deb hisoblaydigan har bir inson uchun zarurdir. Pedagog kreativlik kompetensiyasiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatda quyidagilarga e’tiborni qaratish zarur:

1. O‘quv faoliyatiga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlarni chuqur bilishi;
2. O‘quv manbalari, darslik, o‘quv va metodik qo‘llanma, tavsiyanoma, yo‘riqnomalarni tayyorlash malakasiga ega bo‘lishi;
3. Ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish;
4. Ta’lim jarayoni va ma’naviy-ma’rifiy ishlar loyihalarini tayyorlay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi va h.k.

Umumiy o‘rta maktab o‘qituvchilaridagi kreativ potensialning muhim darajalari quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi.

Yuqori daraja: muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyib etib boradi, kreativ jihatdan o‘ta faol, izlanuvchan.

O‘rta daraja: ba’zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo‘lmasa-da, ammo namoyon bo‘ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo‘lishga intiladi.

Past daraja: garchi u yetarlicha asoslanmagan bo‘lsa-da, tashabbusni ilgari surishga intiladi, kreativ qobiliyati yetarlicha namoyon bo‘lmaydi, izlanuvchan bo‘lishga intilmaydi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ixtisoslashgan adabiyotlar, metodologik va pedagogik amaliyot natijalarini tahlil qilish asosida ma’lum bo‘ladiki, o‘qituvchi ham, o‘quvchi

ham o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Ularning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun ularning malakasini uzluksiz oshirib borish talabi qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini-o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatda kreativ fikrlashga zarurat tug‘diradigan global muammolarni hal qilish uchun innovatsion bilim va yaratuvchanlik qobiliyatiga tobora ehtiyoj sezilmoqda.

Ta’limning asosiy roli o‘quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur va kerak bo‘ladigan sifatli ta’lim berish hisoblansa, kreativ fikrlash hozirgi yoshlarning rivojlanishi uchun eng muhim zaruriy ehtiyojdir. O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talaba o‘quvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘ladi. O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi.

Ayni o‘rinda shuni alohida xulosa qilib o‘tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo‘sh, o‘qituvchilar o‘zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: “Agarchi o‘zingizni kreativ emasman, deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”.

Kreativlik va intellektning o‘zaro bog‘liqligi yo‘q, deb qaraladigan tadqiqotlarda kreativlikni insonning hayotga moslashishi emas, balki dezadaptatsiyasi, atrofdagi olamga, ijtimoiy muhitga moslasha olmasligi oqibatida uni o‘zgartirishga kirishishi natijasi sifatida talqin qilinadi. Ya’ni, kreativ tafakkur insonga shu moslasha olmasligini yengib o‘tish uchun yo‘l axtarishi, yangilik yaratishiga turtki bo‘ladi.

Demak, kreativlik ijodiy qobiliyatlilik darajasi, shaxsning barqaror sifati hisoblanadigan ijod qilishga bo‘lgan layoqati sifatida kreativ tafakkurga chambarchas bog‘liq. Kreativ tafakkur esa shaxsning o‘z oldida turgan vazifalarini nostandart hal etish hamda o‘z maqsadlariga erishishning yangi, yanada samaraliroq yo‘llarini topish qobiliyatidir. Ya’ni kreativlik asosan boshqalarga o‘xshamagan g‘oyalarni o‘ylab topish, an’ana tusiga kirib qolgan fikrlashdan qochish hamda muammoli vaziyatlarni tez hamda samarali hal etish yo‘llarini bilish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Koroleva L.Yu. The problem of the formation of creative personality in psychological and pedagogical research // Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii. The Volga region.

Humanitarian sciences. - 2016. - No. 2 (38). - С. 212 - 223. DOI: <https://elibrary.ru/item.asp?id=26637440>.

2. Терминологический словарь современного педагога. М.: 1999. <http://didacts.ru/dictionary/1032>.

3. Михаэль Альбрехт - глава подразделения рекрутмента BMW Group. Хельмут Вагнер - декан факультета Studium Generale Мюнхенской высшей школы прикладных наук. Беттина Бартковьяк - (Bettina Bartkowiak) - эксперт по вопросам рекрутинга и кадровой политики. Ме Илья Биндюк - директор платформы Expert. Валерий Остринский, Светлана Толкачева программа Executive MBA Евразийская школа менеджмента (EMAS).

4. Владислав Шипилов - предприниматель, бизнес-тренер, основатель “SBA University”. Эльмира Максудова. Soft skills для IT. Что важнее: знать Java или уметь договариваться?. vc.ru (1.06.2018)



TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA‘LIM TIZIMINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA MAVJUD MUAMMOLAR

Atamatov Abduxalil Salomovich

*Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi o‘quv ishlari bo‘yicha birinchi
prorektor, pedagogika fanlari doktori DSc, dotsent*

Annotatsiya Mazkur maqolada oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati tahlil qilinadi. Jahon ta‘lim maydonida yuz berayotgan islohotlar, raqamlashtirish jarayonlari va mehnat bozori talablarining o‘zgarishi ta‘lim mazmuni va usullariga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Tadqiqot davomida talabalarning amaliy ko‘nikmalari, muloqot madaniyati, muammolarni hal etish qobiliyati, jamoada ishlash va innovatsion fikrlash kabi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda mavjud muammo va yechimlar o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetensiya, oliy ta‘lim, talabalar faoliyati, ta‘lim sifatini oshirish, amaliy ko‘nikma, raqobatbardosh mutaxassis, innovatsion ta‘lim texnologiyalari, dual ta‘lim, ta‘lim-ishlab chiqarish hamkorligi, pedagogik strategiyalar, tanqidiy fikrlash, mustaqil ta‘lim, raqamli savodxonlik, kasbiy rivojlanish, ta‘limni modernizatsiya qilish

Аннотация В данной статье анализируется текущее состояние развития профессиональных компетенций студентов в высших учебных заведениях. Мировые образовательные реформы, процессы цифровизации и изменения требований рынка труда требуют новых подходов к содержанию и методам образования. В ходе исследования изучались проблемы и решения, связанные с формированием профессиональных компетенций студентов, таких как практические навыки, культура общения, способность к решению проблем, работа в команде и инновационное мышление.

Ключевые слова: профессиональная компетенция, высшее образование, деятельность студентов, повышение качества образования, практические навыки, конкурентоспособный специалист, инновационные образовательные технологии, дуальное обучение, сотрудничество образования и производства, педагогические стратегии, критическое мышление, самостоятельное обучение, цифровая грамотность, профессиональное развитие, модернизация образования.

Abstract This article analyzes the current state of the development of professional competencies of students in higher education institutions. Global educational reforms,

digitalization processes, and changes in labor market demands require new approaches to the content and methods of education. The study examined the problems and solutions related to the formation of students' professional competencies, such as practical skills, communication culture, problem-solving ability, teamwork, and innovative thinking.

Keywords: professional competence, higher education, student activity, improving education quality, practical skills, competitive specialist, innovative educational technologies, dual education, education-production cooperation, pedagogical strategies, critical thinking, independent learning, digital literacy, professional development, education modernization.

Hozirgi kunda jahon ta'lim tizimida yuz berayotgan islohotlar va mehnat bozoridagi raqobat muhiti oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yangilangan ta'lim standartlari va integratsiyalashgan o'quv dasturlari fonida talabalarda kasbiy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Xususan, mutaxassisning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uning kasbiy kompetensiyalar darajasiga bevosita bog'liqdir.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta'lim-ishlab chiqarish hamkorligini yo'lga qo'yish va raqamli ta'lim platformalarini joriy etish talabalarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu munosabat bilan, mazkur maqolada talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar atroflicha tahlil qilinadi.

Dunyo hamjamiyatining ilmiy-texnik taraqqiyoti, ta'lim, fan va ishlab chiqarish sohalaridagi ulkan islohotlar, ilmiy-texnik axborotlar tizimining tezkor rivojlanishi va takomillashuvi ta'lim mazmuniga innovatsion va integrativ yondashuvlarni tatbiq etish bilan ifodalanadi.

Jahon pedagog olimlari va amaliyotchilari tomonidan ilmiy asoslangan ilg'or ta'lim texnologiyalari va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiyaga joriy etish, o'quv me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ta'lim sohasidagi innovatsion faoliyat, davlat va jamiyat tomonidan faol qo'llab-quvvatlanayotganiga qaramay, hali to'liq o'rganilmagan va ta'lim sifatiga qanday ta'sir qiladi, degan savol haligacha ochiq qolmoqda. Innovatsion faoliyatning haddan tashqari ommaviyligi, ta'limni innovatsion rivojlantirishning aniq maqsad va vazifalari, innovatsion ta'lim sifatini baholash mezonlarining yo'qligi hayratlanarlidir.

Ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanishi, o'qituvchilarning innovatsion faoliyati hozirgacha bitta asosiy mezon bo'yicha qayd etilgan - "qanchalik ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi". Biroq, bu faoliyatni xolis nazoratsiz, natijalarni tahlil qilmasdan, o'qituvchi va rahbarlarning o'zini-o'zi baholashsiz va o'z-o'zini baholashsiz davom eta olmaydi. Pedagogik monitoring

bunda innovatsion faoliyatning ta’lim sifatiga ta’sirini nazorat qilish vositasi sifatida muhim rol o‘ynashi kerak.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobatlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ushbu kontekstda ishlatilishi mumkin bo‘lgan ba’zi metodlar va strategiyalar:

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv: Haqiqiy kasbiy vaziyatlarga qaratilgan topshiriqlar, loyihalar va amaliy mashqlarni joriy etish orqali talabalarning tahliliy fikrlash, muloqot, jamoada ishlash va raqamli savodxonlik kabi asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishga e’tibor qaratish.

Aralash ta’lim: talabalarga materiallarni o‘z tezligida o‘rganish va interfaol muhokamalarda va guruhli loyihalarida ishtirok etish imkonini beruvchi onlayn va oflayn ta’lim formatlarining kombinatsiyasi.

Loyihaga asoslangan ta’lim: talabalar jamoa bo‘lib bajarishi kerak bo‘lgan haqiqiy loyihalar atrofida o‘rganishni tashkil etish, ularning bilim va ko‘nikmalarini amaliyotga tatbiq etish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish: O‘quv jarayonini boyitish va kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirish uchun onlayn kurslar, multimedia materiallari, virtual laboratoriyalar, hamkorlikda ishlash platformalari va sun’iy intellekt kabi zamonaviy raqamli vositalarni joriy etish.

Ta’limni individuallashtirish: adaptiv ta’lim tizimlari va fikr-mulohazalardan foydalangan holda talabalarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga oladigan o‘quv dasturlari va materiallarini ishlab chiqish.

Uzluksiz ta’lim va o‘z-o‘zini rivojlantirish: talabalarni o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab turishga undash, konferensiyalar, seminarlar, vebinarlar va kasbiy rivojlanishning boshqa shakllarida qatnashish imkoniyatini berish, shuningdek o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini o‘zi baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Fanlararo yondashuv: talabalarga turli xil bilim sohalari o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rish va murakkab muammolar va vazifalarga innovatsion yechimlarni topish imkonini beradigan turli fanlardan bilim va ko‘nikmalarni birlashtirish.

Bilimlarni baholash va nazorat qilish: o‘qituvchilar va talabalarga muvaffaqiyatlarni samarali kuzatish va keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beruvchi portfoliolar, avtomatlashtirilgan testlar, onlayn imtihonlar va ishlash samaradorligi tahlili kabi bilimlarni baholash va monitoring qilishning zamonaviy usullarini joriy etish.

Kasbiy hamjamiyat bilan o‘zaro munosabatlar: tajriba almashish, amaliy qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik qilish maqsadida kasbiy soha vakillari, shu jumladan ish beruvchilar, ekspertlar va bitiruvchilar bilan aloqalarni mustahkamlash.

Ta’lim dasturlarining moslashuvchanligi: mehnat bozori talablarini, yangi ilmiy va texnologik yutuqlarni, shuningdek kasbiy muhitdagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va muntazam ravishda yangilash.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarini kasbiy tayyorlashga innovatsion yondashuvlarni joriy etish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirish va talabalarni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli karyeraga tayyorlash imkonini beradi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, innovatsiyalar har bir ta’lim muassasasining o‘ziga xos sharoitlari va ehtiyojlariga moslashtirilishi, shuningdek, ma’muriyat va professor-o‘qituvchilar tomonidan yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish, ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasi va mutaxassislik fanlarini modernizatsiya qilish orqali talabalarda kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish imkoniyatlari tahlil etildi. Xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish ta’lim tizimini bozor iqtisodiyoti talablari asosida qayta tashkil etishga bog‘liq muhim omillardan biri hisoblanadi. Юқоридагилардан келиб чиқиб қуйидаги таклифларни киритамиз:

1. Amaliy mashg‘ulotlar va dual ta’limni kengaytirish. Korxonalar bilan dual ta’lim tizimini joriy etish orqali talabalarni ta’lim jarayonidayoq kasbiy muhitga jalb qilish.

2. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish. Loyiha asosida o‘qitish, keys-stadi, rolli o‘yinlar, masofaviy platformalar (Moodle, Google Classroom, Canvas)dan foydalanishni rag‘batlantirish.

3. Ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikni kuchaytirish. Ta’lim dasturlarini ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlikda qayta ko‘rib chiqish va amaliyot muddatlarini uzaytirish.

4. O‘qituvchilar uchun pedagogik innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

5. Talabalar uchun kasbiy psixodiagnostika, trening va motivatsion seminarlar o‘tkazish, ularda ongli tanlov qilishga ko‘maklashish.

6. Kasbiy kompetensiyalarni baholash mezonlarini joriy etish. Talabalarda kasbiy kompetensiya darajasini aniqlash uchun maxsus sinovlar, portfolio, va baholash instrumentlarini amaliyotga joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qurbonov, A.A. (2022). *Oliy ta’limda kadrlar tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

2. Abdullayeva, M.R. (2021). *Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari*. Samarqand: SamDU nashri.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ–95-son. (2023). *Oliy ta’lim tizimida kadrlar sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://www.president.uz>

4. YUNESKO. (2018). *Key Competencies for the 21st Century*. UNESCO Publishing.
<https://unesdoc.unesco.org/>
5. Spencer, L. M., & Spencer, S. M. (1993). *Competence at Work: Models for Superior Performance*. John Wiley & Sons.
6. OECD. (2020). *Skills Outlook: Thriving in a Digital World*. OECD Publishing.
<https://www.oecd.org/education/oecd-skills-outlook-2020/>
7. Selevko, G.K. (2004). *Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii*. Narodnoye obrazovaniye.
8. Bakirov, Sh.Sh. (2020). *Oliy ta’limda innovatsion metodlar va talabalar faolligini oshirish usullari*. Buxoro: BDU nashriyoti.
9. Savchenko, L.A. (2021). *Razvitiye professionalnykh kompetensiy studentov v usloviyax sifrovizatsii obrazovaniya*. Lan.
10. Nazarova, N.J. (2023). *Oliy ta’limda kasbiy kompetensiyalar: mazmun, rivojlantirish usullari va baholash mezonlari*. Pedagogika va psixologiya jurnali, 2(43), 15–21.
11. Valiyeva F.R. Metodologicheskiye osnovy obespecheniya sistemnosti i preemstvennosti v protsesse podgotovki spetsialistov. Dissertatsiya doktora filosofskix (PhD) pedagogicheskix nauk. – T.: 2020. – 48 b
12. Valieva F. R. The importance of educational content in preparation of competitive personnels. 2 nd International Conference BRIDGE TO SCIENCE: RESEARCH WORKS San Francisco, USA February 28, 2018 121-122 list http://doi.org/10.15350/L_2/3



TALABALARDA PROFESSIONAL-PEDAGOGIK YO‘NALGANLIK SHAKLLANISHIGA TA’SIR KO‘RTSATUVCHI OMILLAR

Zaynobidinov Jalolidin

*FDU «Psixologiya» kafedrası dosenti,
psixologiya fanlari nomzodi*

Annotasiya: maqolada bo‘lajak o‘qituchilarda professional-pedagogik yo‘nalganlik jarayoniga identifikasiya va havas qilish jarayonlarining ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda identifikasiyaning turli-quyi, o‘rta va yuqori darajalari ochib berilgan hamda identifikasiya mexanizmini aniqlashning metodikalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: identifikasiya, professional-pedagogik yo‘nalganlik, havas qilish, kasbiy etuklik, taqlid qilish
Аннотация: Статья посвящена изучению механизмов идентификация и белой зависти на процесс формирования профессионально-педагогической направленности у студентов, раскрытию разных уровней идентификации-низкий, средний, высокий, а также описанию методики выявления идентификации посредством экспериментального сочинения и анкетирования.

Ключевые слова: идентификация, профессионально-педагогическая направленность, белая зависть, профессиональное развитие, подражание.

Mamlakatimizda umumta’lim va professional maktablarni isloh qilish shu soha hodimlarining yuksak pedagogik mahorati va salohiyatiga bog‘liq. Shu o‘rinda bo‘lajak pedagoglarga professional-pedagogik yo‘nalganlikning rivojlanishi katta ahamiyat kasb etadi.

Psixologik adabiyotdotalabalarda professioal-pedagogik yo‘nalganlikning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi qator pedagogik omillar tadqiq qilingan. Chunonchi, muloqot xarakteri, shaxsning o‘z-o‘zini baholash, guruhdagi liderlar tipi, talabalar guruhidagi shaxslararo munosabatlar va h.k.

Bizning ishimiz identifikasiya fenomenining pedagogik fakultetlar talabalarida professional yo‘nalganlikning shakllanishiga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Identifikasiya insonlarning muloqoti, o‘zaro bir-birini tushunishi va o‘zaro hamkorlik jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. O‘zini o‘zga odam bilan mavjud bo‘lgan emosional aloqalariga asoslanib o‘xshatish, o‘zga odam pozitsiyasiga kira olish, o‘zini go‘yoki o‘rniga qo‘ygan shaxsdek harakat qilish, faoliyat ko‘rsatish-bunday fazilat hammaga ham xos emas.

Pedagogik muloqot murakkab komponent hisoblanadi. Identifikasiya ham muloqot jarayonida individlar o‘rtasida ro‘y beradigan murakkab jarayonlarga kiradi.

Shaxsning taraqqiyoti identifikasiya mexanizmi ta'siri asosida shakllanadigan o‘z-o‘zini anglash strukturasi bilan bog‘liqdir.

Shaxs ontogenezida identifikasiya quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- Bolaning o‘z ismi bilan identifikasiya qilish;
- Bolada o‘zini tan olish – da'vo qilish rivojlantiradigan ijtimoiy namunalar (ideallar) bilan identifikasiya qilish;
- “Men” obrazi bilan shaxsning uch davridagi identifikatsiyasi (o‘tmishda, hozirda, kelajakda);
- Individdning o‘z huquq va burchlarini anglash va ijtimoiy sharoitlarda yashash uchun imkoniyat yaratadigan ijtimoiy qadriyatlar bilan o‘zini identifikatsiya qilishi.

Rivojlangan shaxs o‘z dunyoqarashiga tayanadi, oldindan o‘z taraqqiyotini ko‘ra biladi, o‘z hayotiy pozitsiyasining ideal obrazini yaratadi hamda o‘zini u bilan identifikatsiya qilib har sohada unga xos va mos bo‘lishiga intiladi.

Identifikatsiya individning ijtimoiy sharoitlarda yashashi, rivojlanishi va shakllanishini belgilovchi mexanizm hisoblanadi va quyidagi funksiyalarini bajaradi:

- o‘zgalar bilan o‘zaro ijobiy munosabatlarni o‘rgatishga yo‘nalganligi;
- hamkechinmalik xarakterini belgilaydi (hamquvonch, hamtashvish, hamqayg‘u);
- o‘zini muloqotga kirituvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi;
- sub'ekt tomonidan boshqa odamlarni, predmetlar va tabiat hodisalarini hamda o‘z-o‘zini bilishning ta'sirchan usuli hisoblanadi;
- badiiy uslub sifatida ham qo‘llaniladi;
- kasb-korga (professiyaga) kirituvchi, yo‘naltiruvchi funksiya, ya'ni o‘zini pedagogik kasbning ilg‘or vakillari bilan identifikatsiya qilish orqali talaba mustahkam pedagogik barqarorlikka ega bo‘ladi.

Ob'ektga yo‘nalganligiga asoslanib biz identifikatsiyaning quyidagi turlarini farqladik;

- o‘z talabalik guruhidagi liderga (etakchiga) yo‘nalganlik (bunda lider rasmiy va norasmiy bo‘lishi ham mumkin);
- guruhning oddiy a'zolariga yo‘nalganlik;
- jamoaning o‘ziga yo‘nalganlik;
- abstrakt (mavhum) ideallarga yo‘nalganlik.

Biz shaxsga professional-pedagogik yo‘nalganlikning ta'sirini aniqlag maqsadida “professional identifikatsiya” atamasini kiritdik.

Professional identifikatsiya-bu 1) o‘z shaxsini kasb-kor bilan, kasb-korning eng yaxshi vakillari, ya'ni ilg‘or pedagoglarga o‘xshatish, tenglash; 2) shaxsning o‘zida kasb-korning ilg‘or vakillari sifatlarini topishi va ular bilan emosional aloqalar asosida o‘zini tenglashtirish hamda o‘z xulq-atvorida ulardan xuddi o‘z fizilatlariday foydalanish.

Professional-pedagogik identifikatsiya strukturasi biz bo‘lajak pedagogiklar o‘zini identifikatsiya qilishi mumkin bo‘lgan quyidagi ob'ektlarini tanladik:

- o‘zining pedagog ota-onalari;

- o‘zi o‘qigan maktabdagi o‘qituvchilari;
- ilg‘or, mashhur, ijodkor o‘qituvchilar (novatorlar);
- o‘zi tahsil olayotgan oliygoh ustozlari;
- pedagogik amaliyot o‘tayotgan maktab o‘qituvchilari
- lider talaba;
- professional yo‘nalgan talabalar guruhi;
- badiiy adabiyot qahramoni yoki kinofilm personaj (o‘qituvchi obrazi);
- abstrakt (yig‘ma) ideal (namuna, o‘rnak).

Identifikasiya namoyon bo‘lishining yagona sharti- identifikasiya ob'ekti kim bo‘lsa ham u sub'ekt uchun ahamiyatli bo‘lmog‘i shart, agar ahamiyatlilik bo‘lmasa identifikasiya ham ro‘y bermaydi.

Biz rus psixologi E.M.Dubovskaya tomonidan identifikasiyaning “har xil darajadagi fenomen”-degan fikriga qo‘shilgan holda uning uch bosqichini ajratdik. Birinchi-boshlang‘ich bosqich-sub'ektning o‘zi uchun ahamiyat bo‘lgan ob'ektga nimadadir ergashish mayli bilan xarakterlanadi. Bu ma'noda identifikasiyaning bu bosqichini “havas qilish” fenomeniga tenglash mumkin.

Identifikasiyaning ikkinchi bosqichi-o‘zga ahamiyatli insonga ma'lum darajada moslashish, o‘xshashga intilishni ifodalaydi. Bu bosqichdagi identifikasiya o‘zini shaxsiy ko‘rinishlarda namoyon qiladi. Identifikasiyaning ushbu bosqichi “taqlid qilish” fenomeniga qiyoslash mumkin.

Identifikasiyaning uchinchi bosqichi o‘xshatish bo‘yicha eng chuqur daraja hisoblanadi. Chunki sub'ekt uchun ahamiyatli bo‘lgan andoza (o‘rnak, namuna) bu erda ma'lum darajada etalon sifatida uning fe'l-atvorini boshqaruvchi reguliator bo‘lib xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki identifikasiyaning bu bosqichdagi ko‘rinishi uncha ko‘p uchramaydi.

Identifikasiya havas qilishdan boshlanar ekan havas o‘zbek mentalitetiga ko‘proq mos keladigan tushunchadir. Biz qiyoslash maqsadida qiziqib rus tilida “havas” hamda uning aksi, unga zid bo‘lgan “hasad” tushunchasi ham bir xil-“zavist” deb tarjima qilinadi. To‘g‘ri, rus tilida “belaya zavist”, “chernaya zavist” tushunchalari mavjud, lekin bu iboralar o‘zbek tilimizdagiday “havas” tushunchasini keng va aniq ifodalamaydi.

Milliy qiyofamizda havas inson orzu-umidlari, istiqboldagi hayotiy va professional rejalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, shaxs shakllanishida katta rol o‘ynaganligi bois chuqur o‘rganishga loyiq fenomendir. Havas qilish ob'ektlari inmonning yoshi, ehtiyojlari va psixik taraqqiyotiga qarab o‘zgarib beradi. Havas bo‘lishi uchun ibrat, namuna bo‘lishi talab qilinadi. Havas ob'ekti istiqbolda identifikasiya ob'ektiga aylanishi mumkin, ammo havas darajasida qolib ketishi ham ehtimoldan holi emas. Shaxsning havas ob'ektiga qiziqishi ortganda uning faolligi oshadi va keyingi psixologik omil-taqlid qilish boshlanadi.

Taqlid qilish-bu individ tomonidan ongli yoki ongsiz tarzda o‘zga odamlar tajribasi, hayotiy harakati, fe'l-atvori, sifatleri, kasb-koriga oid xususiyatlarini takrorlashdir. Insonda taqlid qilish chaqaloqlik paytidanoq boshlanadi va ongsiz xarakterga ega bo‘ladi. Katta yoshda

esa taqlid qilishda onglik elementlari ko‘proq ifodalangan. O‘sayotgan avlodda taqlid qilishni normal hodisa sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq. Chunki inson shaxsining shakllanishida uning o‘ziga xos o‘rni mavjud. Agar bolada taqlid qilish qobiliyati sust bo‘lsa, u ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga uchraydi va bu holat, umuman, uning psixik taraqqiyotida nuqsonlarga olib keladi. Bu ma'noda taqlid qilish xususiyatini rag‘batlantirib borgan ma'qul. Yosh ulg‘aygan sari taqlid qilish ham mukammallashib boradi.

Taqlid ob'ektning ba'zi bir fazilati yoki faoliyatiga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Shaxsda taqlid qilish ob'ekti bilan o‘zi o‘rtasida umumiy sifat, xususiyat, harakat, ehtiyoj va h.k. bo‘lganda identifikasiya hodisasi uchray boshlaydi. Shunda ob'ekt namuna bilan o‘zida aynan bir xil sifat, kechinma, holatni uchratib u bilan o‘zini identifikasiya qila boshlaydi.

Ключевые слова: начальное образование, инклюзивное образование, индивидуальное образование, учащийся с задержкой психического развития, учебная программа, коррекционно-развивающие задания.

Annotation: The article highlights the specifics of the implementation of correctional and developmental tasks with students with mental retardation in inclusive education, the need to adapt the content of curricula taught in general education schools with inclusive education to the requirements of the State Educational Standard, taking into account the individual psychological characteristics of each student with mental retardation.

Key words: primary education, inclusive education, individual education, student with mental retardation, curriculum, correctional and developmental tasks.

Kirish. Respublikamizda umumta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun zarur sharoitlarni yaratishni kengaytirish maqsadida inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish bo‘yicha yangicha yondashuvlar tatbiq etilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo‘nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslar borligi haqida o‘ylab, fikr yuritsak, bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo‘lamiz.

Ushbu tashabbus mazmun-mohiyati haqida targ‘ibot ishlarini izchil yo‘lga qo‘yish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish masalalarida parlament nazoratini kuchaytirish dolzarb vazifalar hisoblanadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish katta va ko‘plab omillarga bog‘liq soha. Shuning uchun bugun uning aynan bitta yo‘nalishi – inklyuziv ta’limga batafsilroq to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Inklyuziv ta’lim rasmiy ta’lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta’limda ko‘proq o‘qishda, o‘rganishda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ilmiy, metodik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, MDH davlatlarining olimlari bu sohani tadqiq etishga va rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shganliklarini guvohi bo‘lamiz. MDH davlatlarining olimlaridan, asosan, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, B.G.Ananayev, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova va boshqalar boshlang‘ich ta’lim yoshidagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilarida bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish muammosini tadqiq etishga bag‘ishlangan. O‘z navbatida L.Letinen (1947), funktsionallikning minimal buzilishini va miya kasalliklarining o‘ziga xos emasligiga ishora qiladi.

A.A.Gezell (1974), bunday yetishmovchiliklar ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolaning chaqaloqlik davridayoq, paydo bo‘ladi, deb ta’kidlagan.

XX asrning boshlarida, ya’ni 20-30-yillarda psixologik va pedagogik adabiyotlarda yetakchi olimlar P.P.Blonskiy va L.S.Vigotskiyning asarlarida eksperimentlar natijasida bolaning har tomonlama rivojlanishida asosiy mazmun ta’lim va tarbiya ekanligi isbotlangan. Shu bilan birga, ta’lim va tarbiya nafaqat ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolaning intellektual parametrlarini, balki bu yoshda endigina shakllana boshlagan funktsiyalarni ham rivojlantiradi. Ayniqsa, L.S.Vigotskiy tomonidan bolaning rivojlanishida senzitiv davr alohida ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan. Bu davrda psixologik jarayonlarning rivojlanishi uchun eng qulay davrligi aniqlangan. O‘z navbatida S.L.Rubinshteyn (1976) ham shaxsning ichki psixologik rivojlanishining mazmuni va unga ta’sir ko‘rsatadigan tashqi omillarni tadqiq etgan. Olimlar shuni e’tirof etishadiki, ya’ni bolaning rivojlanishi jarayonida ichki aqliy rivojlanish o‘zgaradi va rivojlanadi va tashqi ta’sirlar rivojlanishning tabiiy va erishish mumkin bo‘lgan shartiga aylanadi, bu ko‘plab tadqiqotchilar uchun rivojlanishni o‘rganish muammosiga yechim izlashda ushbu ma’lumotlar asos bo‘lib xizmat qiladi.

N.A.Menchinskaya (1968, 1971, 1978) ilmiy – amaliy eksperimental ishlarida shuni aniqlaganki, aqliy faoliyat haqiqatdan ham murakkab, ko‘p bosqichli tuzilishga ega. Muhimi uning asosiy ko‘rsatkichi, “aqlning sifat ko‘rsatkichi” ekanligi. Muallif o‘quvchining ta’limni o‘zlashtirish qobiliyati va aqlining sifat darajasi o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlaydi.

Z.I.Kalmikova (1978) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda aniqlanishicha, umumta’lim maktabi o‘quvchilari va ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilar (2-4-sinflar) o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, sog‘lom fikrlash qobiliyatiga ega bolalarga qaraganda ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilar yetarlicha fikrlash qobiliyatiga ega emaslar. Biroq, rivojlanishda o‘shilik normal rivojlanayotgan o‘quvchilarda ham, ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilarda ham mavjud. Tadqiqotlar natijasida muallif ushbu toifadagi bolalarni o‘qitish maxsus shart-sharoitlarni yaratishni, ya’ni o‘qitish uslublari va usullarini moslashtirishni talab qiladi, degan xulosaga keldi. Aqliy rivojlanishning sekin rivojlanishi tez-tez uchraydi, bu umumiy bilim zaxirasining yetishmasligi, cheklangan ko‘rinishda, past intellektual yo‘nalishda ifodalanadi. Biroq, aqli zaif bolalardan ushbu toifadagi bolalar yordam ko‘rsatishda juda uyushgan va ular mavjud bilimlari doirasida tezkor harakat qila oladilar.

Pedagogik, psixologik va defektologik sohada bir qancha tadqiqotlarni o‘tkazgan olimlar (T.A.Vlasova, M.S.Pevzner, K.S.Lebedinskiy, V.I.Lubovskiy, N.A.Nikashina, T.V.Yegorov) boshlang‘ich ta’lim yoshidagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilarning o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega ekanligini aniqlagan.

Olimlardan T.A.Vlasova va M.S.Pevzner (1967, 1973) ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar klassifikatsiyasidan 2 ta asosiy shaklni ajratib ko‘rsatadilar:

I shakl – hissiy-emotsional sferaning zararlanishi oqibatida kognitiv faoliyatning murakkab va murakkab bo‘lmagan rivojlanmaganligi (psixologik va psixofiziologik infantilizm);

II shakl - astenik va serebrastenik holatlar, boshqa nevrozlar va organik genezisning shunga o‘xshash holatlari.

Klara Samoylovna Lebedinskaya tomonidan ruhiy rivojlanishi sustlashganlik holatining 4 ta asosiy turi aniqlangan:

- 1) konstitusional
- 2) somatogen
- 3) psixogen
- 4) organik genezisning serebral buzilganligi.

Yuqorida keltirilgan turlarning har birining klinik tuzilishida ham hissiy, ham intellektual yetishmovchilikning kombinatsiyasi mavjud. Organik genezisning psixologik rivojlanishning sustlashganligini keltirib chiqargan taqdirda ham, kognitiv faoliyatning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi boshqa omillarni ham aniqlash kerak bo‘ladi.

Olimlar (G.YE.Suxareva (1959), K.S.Lebedinskaya (1975), I.F.Markovskaya (1977), V.V.Kovaleva (1979) va boshqalar) “defitsit” tafakkurning zaruriy shartlarida yetuklik ta’kidlangan.

K.Yaspers (1963) tadqiqotlarida ruhiy rivojlanishi sustlashganlik holatida xotira, diqqat, fazoviy bilish, aqliy jarayonlarning tempi va o‘zgarishi va boshqa yuqori kortikal funksiyalarning yetishmasligi mavjud.

Tadqiqotchilar D.Adams (1973), G.Spionek (1975), A.Antipina (1997) ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim yoshidagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilarning ko‘rish, eshitish va motor funksiyalarining rivojlanmaganligi tushuncha, bilim, ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga to‘sqinlik qiladi.

P.B.Shoshin, L.I.Peresleni (1981), Z.M. Dunayeva (1980) va S.G. Shevchenkolarning (1981) tadqiqot natijalariga ko‘ra, axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonlarining sustligi bilan fazoviy yo‘nalishdagi qiyinchiliklar qayd etilganligi aniqlandi.

T.V.Yegorov (1973), M.G.Poddubnaya (1976), V.L.Podobed (1981) o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda turli xil ko‘rinishdagi xotira yetishmovchiligi uchrashini ta’kidlashgan.

N.A.Nikashina (1964), R.D.Triger (1971), va N.A.Sipin (1974) va boshqalar bunday bolalarda “nutqiy rivojlanishning kechikishi” ham xarakterli ekanligini ilmiy ishlarida ko‘rsatib o‘tgan.

G.V.Chirkina (1967), N.Sipina (1984) ilmiy tadqiqotlarida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar o‘qish va yozish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda, so‘zni talaffuz qilishda, so‘zning mazmunini va harflar tahlilini o‘zlashtirishda aniq qiyinchiliklar, kamchiliklarga duch keladilar.

V.I. Lubovskiy (1978) va G.I.Jarenkovalar (1981) nutqiy harakatlarni tartibga solishda yetishmovchiliklar mavjudligi qayd etilgan.

T.A. Vlasova, M.S. Pevzner (1967, 1973), T.V.Yegorov (1973), G.I.Jarenkova (1981) kognitiv faoliyatning zaifligini aniqladilar.

Olimlar N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova (1955), T.V.Yegorov (1973), G.I.Jarenkova (1981) ko‘rgazmali-harakatli tafakkur turining yaxshi rivojlanganligiga qaramasdan, so‘z-mantiq tafakkur turining rivojlanishida kechga qolishlar kuzatilganligini isbotlaganlar.

Natijalar va muhokama. R.A.Suleymenova tadqiqotlari ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda erta korreksiyalash yordamini tashkil etishga bag‘ishlangan. Olim ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning rivojlanishida o‘quv jarayonida maxsus maktabda qanchalik pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlansa, inklyuziv ta’limda (umumta’lim maktabi) ham shunday yordam ko‘rsatish zarurligini ta’kidlaydi.

A.A.Baytursinova tadqiqotlarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni inklyuziv ta’limga to‘liq qamrab olinishi uchun ta’lim jarayonida barcha zarur shart-sharoitlar yaratilganligi ta’kidlab o‘tilgan. Birinchi navbatda, o‘quv dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun moddiy-texnik bazani zarur o‘quv-uslubiy to‘plamlar bilan jihozlash, to‘siqlarsiz muhit va psixologik qulayliklar yaratilgan.

Milliy maxsus pedagoglardan I.S.Xamrayeva o‘z tadqiqot ishlarida inklyuziv ta’lim tashkil etilgan umumta’lim maktablarida o‘rganiladigan fanlar dasturlari mazmunini va Davlat ta’lim standarti talablarini ruhiy rivojlanishi sustlashgan har bir o‘quvchining individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda albatta moslashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Individual ta’lim jarayonida ruhiy rivojlanishi sustlashgan har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan aniq texnikani va baholash mezonlariga mos keladigan metodikalarni qo‘llash tavsiya etiladi. [3.232] Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilarni samarali o‘qitish va rivojlantirishni ta’minlaydigan didaktik materiallarni ishlab chiqishda pedagogdan professional bilimlar talab etiladi.

Xulosa. Xorijiy va milliy pedagogika va psixologiya fanlarini ilmiy va amaliy jihatdan ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilar bilan ishlashda korreksion-rivojlantiruvchi yondashuvlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, asosiy boshlang‘ich ta’limning umumiy ta’lim dasturiga muvofiq umumta’lim maktablarida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o‘qitish, individual yondashuv va alohida shartlar doirasida ko‘rib chiqilishi zarur, bu individual o‘qitish usullarini va o‘qitish metodikalarini ta’lim jarayoniga moslashtirishni talab qiladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilar umumta’lim fanlaridan tuzilgan dastur materiallarini o‘zlashtirishi uchun ta’lim jarayonida differensial va korreksion-rivojlantiruvchi yondashuvlarni amalga oshirilishini shart qilib qo‘yadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilarni o‘qitish jarayonida uning ta’limiy, tarbiyaviy, individual xususiyatlarini bilish korreksion-rivojlantiruvchi o‘qitish metodlarini samarali qo‘llashga va “yaqin rivojlanish zonasi”ni aniqlashga yordam beradi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilarga materialni taqdim etishda topshiriqlar mazmunini soddalashtirish va o‘qituvchi (kattalar) yordamini maksimal darajada oshirishni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Калыкбаева А., Сатова А.К. Организация самооценивания обучающихся с ООП в инклюзивном обучении на основе принципа SMART (на примере уроков математики в начальной школе) // Вестник КазНПУ им.Абая. Педагогические науки. - 2020. - №1(65). - С. 410-416.
2. Матвеева Е.И., Панкова О.Б., Патрикеева И.Е. Критерийное оценивание в начальной школе (из опыта работы). - Издательство: "Вита-Пресс", 2013. – 123 с.
3. I.S.Xamrayeva. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash [Matn]: O‘quv qo‘llanma / I.S.Xamrayeva. – Toshkent: “Pages Print” nashriyoti, 2025. – 232 b.
4. Ratminingsih N.M., Artini L.P., Padmadewi N.N. Incorporating Self and Peer Assessment in Reflective Teaching Practices // International Journal of Instruction. - 2017. - №10(4). – P. 165-184. <https://doi.org/10.12973/iji.2017.10410a>
5. Методические рекомендации по математике для обучения детей с задержкой психического развития в классах. С.С. Горобец, А.И. Горохова, Л.С.Лаптева,С.А. Полинова,Т.В. Репникова). _Челябинск:ИИУМЦ «Образование», 2008, с.234.

6. Khamrayeva Iroda Sayfullayevna, ., & Khurramova Sevinch, . (2025). Features of Developing Reading Skills in Students with Mental Delays in Inclusive Education. International Journal of Pedagogics, 5(04), 112–115. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05Issue04-30>

7. Sayfullaevna K. I. Setting Educational Objectives In Study Lessons AS An Important Component Part Of Forming Learning Skills Of Mentally Disabled Students //European Journal of Humanities and Educational Advancements. – 2023. – T. 4. – №. 4. – C. 41-45.



ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРНЕТА В СОВРЕМЕННОЙ ЖУРНАЛИСТИКЕ

Кахорова Нигина Нуридиновна
независимый исследователь

Аннотация. Интернет-журналистика – это передача информации СМИ в коммуникативную систему. В то же время отсутствие границ у пользователей Интернета, выражающееся в его глобальном характере, способствует возрастанию значения интернет-журналистики в международных отношениях в распространении общественного мнения и мировых новостей.

Ключевые слова: медиа-сеть, новость, новостные ресурсы, потребление новостей, медиа потребление в интернете, социальные сети, интернет-СМИ, медиа-сеть, международные журналисты, развитие профессионалов, развития интернет-журналистики.

ZAMONAVIY JURNALISTIKADA INTERNETNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Internet jurnalistikasi - bu ommaviy axborot vositalarining kommunikativ tizimga uzatilishi. Shu bilan birga, Internetning global tabiati bilan ifodalangan Internet foydalanuvchilari orasida chegaralarning yo'qligi Internet jurnalistikasining xalqaro munosabatlardagi jamoatchilik fikri va dunyo yangiliklarini tarqatishdagi ahamiyatini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: media tarmog‘i, yangiliklar, yangiliklar manbalari, yangiliklar iste'moli, onlayn media iste'moli, ijtimoiy tarmoqlar, Internet ommaviy axborot vositalari, media tarmog‘i, xalqaro jurnalistlar, mutaxassislarni rivojlantirish, Internet jurnalistikasini rivojlantirish

THE IMPORTANCE OF THE INTERNET IN MODERN JOURNALISM

Abstract. Online journalism is the transfer of media information into a communication system. At the same time, the lack of borders among Internet users, expressed in its global nature, contributes to the increasing importance of Online journalism in international relations in the dissemination of public opinion and world news.

Keywords: media network, news, news resources, news consumption, media consumption on the Internet, social networks, online media, media network, international journalists, professional development, development of online journalism.

Интернет-журналистика является неотъемлемой частью современного медийного пространства и важным инструментом в процессе распространения информации. С момента своего возникновения в конце XX века, интернет-пространство прошло долгий путь, став не только средой для обмена новостями, но и платформой для создания новых форм журналистики. Глобальный характер сети и её доступность привели к созданию цифровых СМИ, которые существенно изменили способы потребления информации, ускорив темпы распространения новостей. В частности, интернет-журналистика в Узбекистане начала развиваться с конца 1990-х годов, и сегодня она представляет собой важную часть информационного ландшафта страны. Развитие интернет-СМИ в Узбекистане стало важным шагом к формированию демократичного информационного общества и оказало влияние на все аспекты государственной и социальной жизни. В данной статье рассматривается значение интернет-журналистики в современном мире, её особенности в Узбекистане, а также влияние на общественные процессы и развитие гражданской активности.

Интернет-журналистика берет свое начало с конца XX века, когда интернет стал появляться в офисах, фирмах и организациях, после он перебрался в дома и завоевал всех членов семей. Важно учесть, что развитие интернет-журналистики изменило ход истории и для представителей других жанров и сфер профессии. Глобальная сеть сперва потребовала невероятной оперативности информации, после ее ультиматум стал жестче: все данные должны быть проверенными, а сегодня интернет-новость без картинки, видео или подробного описания многих не интересует.

Интернет-журналистика в Узбекистане начала формироваться с развитием интернета в стране в конце 1990-х — начале 2000-х годов. Важным этапом в становлении этой отрасли стало появление первых новостных сайтов и онлайн-версий традиционных СМИ.

Современный этап развития в нашей стране характеризуется непрерывным внедрением информационно-коммуникационных средств. Они представляют собой новые инновационные технологии, отвечающие мировым стандартам во всех сферах государственного управления, общественной жизни и дальновидной политики, которая создает новые тенденции в цифровой системе. Сегодня интернет-журналистика является неотъемлемой частью современного развития общества, выступая в качестве более быстрого и эффективного средства коммуникации. Согласно новому отчету Международного союза электросвязи (МСЭ), число пользователей Интернета во всем мире растет. Развитие современной индустрии связи и телекоммуникаций в Узбекистане, доступность сети Интернет и цифровых услуг считается важным условием общего социально-экономического развития страны.

В XXI веке развитие и распространение информационных технологий через всемирную паутину помогает вывести общение людей на новый уровень в обществе.

Создание новых возможностей в информационном пространстве оказывает влияние на развитие профессионалов, которые работают и учатся в СМИ. В связи с этим уважаемый Национальный Лидер Узбекистана ввел в вузах новые курсы по интернет-журналистике и политической коммуникации, поручил подготовить предложения по открытию других необходимых новых специальностей, позволяющих нашей отечественной журналистике расти и распространяться на международном уровне, занимать особое место в мировом информационном пространстве.

Широкое распространение Интернета в нашей стране свидетельствует о необходимости изучения интернет-журналистики и организации творческой работы в этой области. Сегодня Интернет превратился в огромное информационное пространство, охватывающее все стороны общественной жизни. В результате формирования информационного общества и его глобального охвата это привело к появлению в СМИ «новых медиа», то есть интернет-журналистики.

Интернет-журналистика – это форма социальной работы, связанная со сбором, обработкой и непрерывным распространением информации среди населения на высокой скорости через Интернет. Феномен обретения новой формы привлекает внимание ученых, работающих в сфере международной журналистики.

Некоторые факты о развитии интернет-журналистики в Узбекистане:

По инициативе государства в 1996 году был создан Информационный центр, который обладал широкой компьютерной сетью и регулярно снабжал традиционные СМИ новейшей информацией, новостями, циркулировавшими в мировых онлайн-сетях.

Для поддержки интернет-СМИ в Узбекистане формировалась нормативно-правовая база. Были приняты, например, закон «Об информатизации», постановления о внедрении и развитии информационно-коммуникационных технологий и другие документы.

Общей тенденцией развития онлайн-СМИ в Узбекистане был рост числа соцсетей, негосударственных независимых интернет-СМИ, мультимедийные преобразования, трансформация масс-медиа, конвергенция.

В последние годы в Узбекистане предпринимаются шаги для подготовки квалифицированных кадров в сфере интернет-журналистики. Например, 3 февраля 2023 года в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека была создана кафедра «Аудиовизуальная и интернет-журналистика».

В Узбекском государственном университете журналистики и массовых коммуникаций есть факультет интернет-журналистики и медиаменеджмента, где обучаются студенты по направлениям «Интернет-журналистика», «Медиамаркетинг и реклама», «Медиадизайн» и «Экономическая журналистика».

В то же время, такое бурное развитие интернета обострило информационные отношения. Как пишет И.Д. Фомичёва, нигде (кроме как в интернете) нет возможности так легко выдавать чужое за свое, использовать третичный, пятеричный и т.д. текст,

«сливать компромат» [8, с.12]. Исследователь приводит весьма любопытное, но небесспорное, на наш взгляд, мнение американского ученого Д. Мэррилла о том, что «компьютерные сети и общение людей через Интернет не являются журналистикой и имеют отношение к СМИ не больше, чем человек, который общался со своим соседом через забор на заднем дворе» [6,с.255].

Еще один аспект, присущий новым медиа: информационные технологии во многом оказались в руках самих потребителей. Как писал испанский социолог-урбанист М. Кастельс, новые информационные технологии являются не просто инструментами, которые нужно применить, но процессами, которые нужно разрабатывать. Пользователи и создатели могут объединиться в одном лице. Так, пользователи могут захватить контроль над технологией, как в случае с интернетом. Таким образом, современное коммуникационное изобилие усилило риски и подарило уникальные возможности, как для прогресса, так и для самого радикального регресса человечества [6].

В функционировании интернет-изданий большое значение играет организация подачи информации, удобство доступа к ней, ее анонсирование, размещение ссылок и т.д. Значимы такие моменты, как организация архива новостей, поиск по сайту, размещение комментариев. Еще один специфический нюанс электронных СМИ: интернет-версия должна обновляться не только ежедневно, но ежечасно, а порой и ежеминутно. Сайт (в особенности информационный), который не обновляется, «умирает», популярными становятся лишь те из них, где много оперативных и актуальных новостей. В этой связи возникают такие вопросы, как специфика деятельности журналиста в этом информационном пространстве, основные тенденции, политические институты, процессы и технологии развития интернет-журналистики, жанровое своеобразие и тематическая направленность публикаций во всемирной сети, способы привлечения внимания пользователей. Важным представляется то, что интернет открывает новые возможности, стал своего рода катализатором для развития гражданской журналистики. Как пишет А. Свешников, «гражданская журналистика—это журналистика, чутко реагирующая на все потребности общества, улавливающая настроения всех его слоев, это, если хотите, общественный барометр. Вектор ее деятельности разнонаправлен: с одной стороны, она информирует граждан о том, как работает власть... С другой стороны, гражданская журналистика анализирует процессы, происходящие в недрах общественной жизни—политической, экономической и т.д. С третьей стороны, обеспечивает обратную связь, давая общественным институтам возможность использовать прессу как упор, обращенный и ко всему гражданскому сообществу, и к социальным институтам» [7]. Все эти условия легко укладываются в формат работы интернет-СМИ. Соответственно, новое медиа-пространство открывает большие возможности для эффективной работы журналистов и, в целом, средств массовой информации как института гражданского общества, становится фактором воздействия на социально-политические процессы. Так, Н.Ю. Лесконог обращает

внимание на то, что интернет технологии становятся важным инструментом коммуникации в целях повышения политической активности молодежи. Она «ориентируется на информацию, размещенную в Интернете, быстро реагирует на неё и выражает свою позицию. В этой связи, у политических лидеров, политических партий, общественно-политических организаций появляется необходимость заниматься информационным обеспечением проводимой ими политики, управлять контентом, размещаемым в сети, давать молодежи оперативную, качественную и информативную обратную связь» [3, с. 73]. Материалы социологических исследований, которые приводит в своей статье Е.Н. Юдина, свидетельствуют, что интернет среди молодого поколения уже приобрел статус ни с чем несравнимого источника информации. Она приходит к выводу, что «для современного поколения студентов Интернет – совершенно обычная и необходимая информационная среда, которая непосредственно связана с повседневной социальной и бытовой жизнью» [10, с. 102].

В Узбекистане с развитием информационно-коммуникационных технологий начался процесс вовлечения в мировую социальную сеть и формирование нового медийного пространства. После регистрации в Узбекистане домена «uz» с каждым годом возрастает количество организуемых на его основе веб-сайтов. На начало 2017 г. их число превысило 30 тыс. По данным на конец 2016 г., доля населения Узбекистана, регулярно пользующегося интернетом, составила 46,4 %, а число тех, кто имеет фиксированный широкополосный доступ в интернет, – около 1,9 млн человек, т.е. около 5% [9]. Интернет-журналистика в Узбекистане начала формироваться с создания сайтов потеем или иным направлениям, в которые активно вовлекались профессиональные журналисты. В современных условиях традиционные СМИ страны также пользуются возможностями информационно-коммуникационных технологий. Сейчас уже довольно трудно найти телерадио каналы или печатные издания, которые не имели бы своей электронной версии. Для поддержки интернет-СМИ в Узбекистане пошли путем формирования нормативно-правовой базы для их деятельности. Этот процесс придал определенный импульс развитию этого нового сегмента современных средств массовой информации в тоже время – обозначил требования к СМИ в сети.

В настоящее время в интернет-пространстве в домене «uz» можно найти веб-сайты практически всех действующих в республике средств массовой информации страны, а также большое число специализированных информационных порталов, зарегистрированных в качестве СМИ. В их числе не мало таких, которые иницируются представителями гражданского общества. Они нацелены на информирование и просвещение людей по тем или иным направлениям в сфере политики, экономики, науки, культуры, искусства, спорта, социальной защиты, охраны окружающей среды и т.д. Например, среди веб-сайтов, созданных при содействии или непосредственно негосударственными некоммерческими организациями (ННО), привлекает внимание большой спектр, ориентированный на такую актуальную проблему, как охрана

окружающей среды. В частности, на экосайтах можно найти немало сообщений по актуальным вопросам загрязнения атмосферы, использования трансграничных водных ресурсов. Так, на сайте Экологического движения Узбекистана (eco.uz) регулярно поднимаются проблемы рационального водопользования, использования альтернативных источников энергии, переработки отходов, других актуальных вопросов, волнующих граждан. На этом сайте прошло активное обсуждение законопроекта «Об экологическом контроле». Не только члены движения, но и все, кого волнует эта проблема, получили возможность высказать свое мнение по этому документу.

В Узнете в настоящее время сформировался ряд наиболее популярных независимых площадок, где социальная активность пользователей наблюдается больше всего. Это ресурсы типа *torg.uz*, *uform.uz*, *tforum.uz*, *forum.uz*, *myforum.uz*, *autocenter.uz* и др. Там обсуждают законы, различные социальные, коммунальные, дорожные и прочие проблемы, предлагают их решения и воплощают в жизнь. Определенно, это коммуникативное поле имеет высокий потенциал не только общественных дискуссионных площадок, но и может стать эффективным каналом обратной связи с гражданским обществом для государственных структур.

Литература:

- Закон Республики Узбекистан «О средствах массовой информации» (Новая редакция). Гл.1. Ст 4//Народное слово. 2007 15 января. С1.
- Кубарева Ф. Через портал–к пользователям // Народное слово. –2017. 8марта.
- Лесконог Н.Ю. Интернет-технологии как инструменты коммуникации в целях повышения политической активности молодежи //ЛОКУС: люди, общество, культуры, смыслы. 2016. №2. С.73–78.
- Муминов Ф.А. Информационное пространство интернета: специфика, депрофессионализация, перспективы // Общество и инновации – Issue 1. №01 2020
- Муратова Н.Ф. Интернет-журналистика в Узбекистане // Изд. Ламберт, 2013.
- Мэррил Д.Дэннис Э. Беседы о масс-медиа. М.,1997.
- Свешников А. Журналистика граждан. "Газета "Богатей". Статья из № 50 (329)
- Фомичёва И.Д. Социология СМИ: Учебное пособие для студентов вузов. М.,2007.
- Фонд развития гражданского общества. Доклад «Рунет сегодня: исследование российского интернета».
- Юдина Е.Н. Формирование солидарных групп в сети интернет //ЛОКУС: люди, общество, культуры, смыслы. 2016. №2. С.101–108.



UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASHTIRISH VA BOSHQARISHNING INNOVATSION ASPEKTLARI

Rahimova Feruza Najmiddinovna
Qo'qon davlat universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqola umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni samarali loyihalashtirish va boshqarishning innovatsion faoliyatga asoslangan usullarini tahlil qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida pedagogik tajriba, innovatsion metodlar va yangiliklarni qo'llashning ahamiyati va ta'siri ko'rsatilgan. Shuningdek, boshqaruv va ta'lim jarayonlarida yangiliklarni kiritish, pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini ta'minlashda rahbarlarning roli alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik jarayonlar, innovatsion faoliyat, ta'lim tashkiloti, boshqaruv uslubi, pedagogik texnologiyalar, integrativ faoliyat, ta'lim-tarbiya samaradorligi, rahbarlik tamoyillari.

ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация: Настоящая статья анализирует методы эффективного проектирования и управления педагогическими процессами в общеобразовательных организациях, основанные на инновационной деятельности. Рассмотрены значимость и влияние педагогического опыта, инновационных методов и внедрения новшеств в образовательный процесс. Также подчеркивается роль руководителей в обеспечении эффективности внедрения нововведений и применении педагогических технологий в управлении и образовательном процессе.

Ключевые слова: Педагогические процессы, инновационная деятельность, образовательная организация, стиль управления, педагогические технологии, интегративная деятельность, эффективность образовательного процесса, принципы руководства.

INNOVATIVE ASPECTS OF DESIGNING AND MANAGING PEDAGOGICAL PROCESSES IN GENERAL EDUCATION INSTITUTION

Abstract: This article analyzes methods for effectively designing and managing pedagogical processes in general education institutions based on innovative activities. It discusses the importance and impact of pedagogical experience, innovative methods, and the implementation of innovations in the educational process. The role of leaders in ensuring the effectiveness of introducing innovations and applying pedagogical technologies in management and educational processes is also emphasized.

Keywords: Pedagogical processes, innovative activities, educational institution, management style, pedagogical technologies, integrative activities, educational effectiveness, leadership principles.

Kirish. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotida pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish va tashkil etishda dars va darsdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar, mustaqil ta’lim, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari hamda pedagogik amaliyot va pedagogik tajriba-sinov jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta’minlash ta’lim oluvchilar uchun tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonlari natijaviyligi hisoblangan pedagogik jarayonlar samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi[1.18-b].

Loyihalash “g‘oya - maqsad - kutiladigan natija - taxmin qilish —bashoratlash – rejalashtirish” tizimiga asoslanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. *Jamoaning integrativ faoliyati* - pedagogik jarayonlarning integrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalami ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirish, uzluksiz ta’lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish o‘ziga xos integrativ tizim ekanligi, pedagogik jarayonlarda o‘rganiladigan tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini hamda axborotlarning yangiligi va ishonchliligini ta’minlash zaruriyatini belgilaydi.

Rahbarning boshqaruv uslubi- bu rahbar tomonidan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlar jarayonida qo‘llanadigan boshqaruvning uchta usuli bor, avtoritar (direktiv), demokratik (kollegial) va liberal. Rahbarning boshqaruv faoliyatida har bir usul birgalikda qo‘llaniladi. Demokratik uslubga ko‘proq ustuvorlik beriladi.

Innovatsion faoliyatning barqarorligi- yangi ijtimoiy talablarning an’anaviy me’yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualar muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat. “Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltirish asosida BKMni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi”[2.17-b].

Tahlil va natijalar. Mohiyatiga ko‘ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi, yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi, pedagogik yangiliklarni qabul qilishi, novatorlik darajasi, kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi, ijodkorligi. Shunday ekan,

ta’lim mazmuniga yangiliklarni kiritish, ta’lim jarayonini tashkil etish va uni boshqarishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni qo‘llash, o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik asoslarda malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshirish bilan tavsiflanadi.

“Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishda ta’lim tashkiloti rahbarlarini innovatsion faoliyatga undovchi va mazkur yo‘nalishdagi irodaviy xatti-harakatlarini ta’minlovchi asoslar to‘rtta asosiy guruhga ajratiladi.

- birinchidan, bu yangilik kiritish natijasida vujudga keladigan, hurmat-e’tibor, hokimiyat, vakolat va mavqe bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan shaxsiy qiziqishlar;

- ikkinchidan, tashkiliy tizimning samarali rivojlanishiga mos ravishda o‘zini-o‘zi kasbiy rivojlantirishga intilish;

- uchinchidan, jamoaning ta’limiy muhitda innovatsion jarayonlarning ahamiyatini anglashi;

- to‘rtinchidan, innovatsion faoliyatning mazmun va mohiyatini tushunish va mantiqan zaruriyatini qabul qilish”[3.36-b].

Bu jarayonda quyidagi qator vazifalar o‘qituvchilarda innovatsion faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirish asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish, yangiliklar kiritishni amalga oshirishda ta’lim tashkiloti rahbarlarining asosiy vazifalari va ularning boshqaruv faoliyatining hamda pedagogik innovatsiyalar samaradorligining asosiy shartlari hisoblanadi:

- o‘qituvchilar uchun innovatsion faoliyat ko‘rsatishning dolzarbligi muammolarni uzil-kesil hal qilish va ta’lim-tarbiya jarayonlarining sifat va samaradorligini ta’minlashning asosiy omillari sifatida belgilanishi;

- tanlangan innovatsion vositalarning o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari, kasbiy tajribasi va imkoniyatlariga mos kelishi;

- innovatsiyalarning to‘la ilmiy asoslanganligi;

- innovatsion jarayonlarning ahamiyatliligi va tizimlilik;

- yangilik yaratuvchi va undan foydalanuvchilarning shaxsiy professional xususiyatlarini hisobga olish va innovatsiyalarning ahamiyatini anglash, har bir sub’yektning yuqori darajadagi mas’uliyati hamda javobgarligini ifodalashi;

- innovatsion jarayonlarda tavakkalchilikning minimal darajada bo‘lishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish, tavakkalchilikning darajasini tushunish va ularning asoslanganligining zaruriyati;

- boshqaruv funksiyalari va boshqaruv mexanizmlarida, ta’lim jarayonining mazmunida, pedagogik texnologiyalarda, ta’lim tashkilotining dasturi va konsepsiyasida o‘zgartirishlar hamda rivojlanish tamoyillarining o‘z ifodasini topishi;

- rahbarlarning boshqaruv faoliyati metodologiyasining innovatsion jarayonlarni boshqarish shartlari va tamoyillariga mos kelishi va boshqalar.

Muhokama. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tizimi faoliyatini boshqarishda boshqaruvning maxsus sohasi sifatida e’tiborga molik bo‘lgan strategik boshqaruvning

umumiylik xususiyatlariga ega asosiy funksional vazifalaridan yana biri umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tizimi komponentlari o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning faoliyati natijaviyligini o‘rganish, tahlil qilish va ob‘ektiv baholash asosida rejalashtirish, tashkil etish, tartibga solish, muvofiqlashtirish, motivlashtirish hamda boshqaruv faoliyatini oqilona tashkil etish usul va uslublari, rivojlanish qonuniyatlari, tamoyillari va texnologiyalarini o‘rganishdan iboratdir. Umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti boshqaruv faoliyati tamoyillari:

Aniq maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili- UO‘TTda boshqaruv va hamkorlikda boshqaruv jarayonlarini tashkil etishda va samaradorligini ta’minlashda aniq maqsadga erishish yo‘nalishida belgilangan vazifalar va kiritilayotgan o‘zgartirishlar UO‘TTning qaysi komponentiga tegishli ekanligini inobatga olish muhim.

UO‘TT faoliyatini tashkil etish va boshqarishda aniq maqsadga ko‘ra vazifalar belgilash va o‘zgartirish kiritish jarayonlarini tizim komponentlarining harakatlanishi va strategik maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy, sifatiy o‘zgarishlar jarayoni sifatida belgilash mumkin.

Rejalilik tamoyili- rejalilik bu ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham pedagogik faoliyat sohasini boshqarishning asosidir. Rejaviylik – asosiy tamoyil. Rejali topshiriqlar barcha xizmatning natijaviyligini aniqlash uchun xizmat qiladi. Rejalashtirishning mohiyati faoliyatning asosiy turlari va aniq ijrochilari va rejalashtirish muddati bilan bog‘liq chora-tadbirlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Innovatsion tamoyili- ta’lim tizimlarining rivoji va modernizatsiyasini ta’minlashga qaratilgan yangi va samarali yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Bu tamoyillar ta’limning sifatini oshirish, o‘quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Demokratik tamoyili- ma’muriy buyruqbozlik prinsiplaridan voz kechish asosida demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruvni joriy qilish, rahbarlar faoliyati hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy asoslangan yo‘nalishlari, tamoyillari, texnologiyalar hamda ularning nazariy va amaliy asoslari boshqaruv jarayonlari samaradorligini ta’minlash mexanizmlari va zamonaviy yondashuv texnologiyalari, boshqaruv tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishda adolat mezonlarini o‘rnatish borasidagi ilmiy g‘oyalar ta’lim tizimidagi islohotlar jarayonlarida, ta’lim tizimini boshqarish mexanizmlarini o‘zgartirish va takomillashtirishda, ya’ni boshqaruvning ma’muriy buyruqbozlik metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy, zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishda o‘ziga xos amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur talablar umumiy o‘rta ta’lim tizimini boshqarish mexanizmlarini o‘zgartirish va takomillashtirishni, ma’muriy buyruqbozlik metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy, zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu zaruriyat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tizimi (UO‘TT)da boshqaruv va hamkorlikda boshqaruv jarayonlari sub’ektlarining faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi.

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tizimi (UO‘TT) boshqaruvida uning komponentlari bo‘lgan ta’lim muassasalari har birining funksional vazifalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish asosida UO‘TT sub’ektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, eng avvalo, stratgiya turlarini tanlash va ularni takomillashtirish yo‘l-yo‘riqlarini aniqlash, takomillashtirilgan strategiyalarni amalga oshirishga qaratilgan yangi strategik rejalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi.

Xulosa: Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish va pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Rahbarlarning boshqaruv uslublari, innovatsion metodlar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshiradi, o‘quvchilarning bilim darajasini yaxshilaydi. Shu bilan birga, ta’lim tashkilotlarining rivojlanishi uchun yangiliklar kiritish va pedagogik jarayonlarni tizimli boshqarish zarur. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda boshqaruv faoliyatining zamonaviy tamoyillari va metodologiyalariga amal qilish, ta’lim tizimi samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. S.T.Turg'unov, L.A.Maqsudova, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova, M.A.Umaraliyeva Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, slbiii'va samaradorligini oshirish texnologiyalari Toshkent – 2014 b-18.
2. Sh.B.Xolmuratov, A.Sh.Xolmurodov, N.B.Nuraliyeva Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida samarali boshqarishni tashkil etish yo‘llari O‘quv qo‘llanma «Poytaxt exculisive» nashriyoti, 2024 – 71 bet.
3. Турғунов С.Т. УЎТМни бошқаришда инновацион фаолият // Узлуксиз таълим. – 2006. – № 4. – 3-6-б.



TIBBIYOT TA’LIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA EXNOLOGIYALARIDA FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Amonova Madina Furkatovna
Samarkand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Samarqand, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) tibbiyot ta’limidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’limda AKT vositalari talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishda muhim o‘rin tutadi. Maqolada virtual simulyatorlar, onlayn platformalar va multimedia resurslaridan samarali foydalanish usullari ko‘rib chiqilgan. Tibbiyot masalalarini yechishda umumiy informatika asosiy fan sifatida, qayta ishlash metodlarini barpo qilish va bu asosida har qanday ob‘ektlarni boshqarish va axboriy kompyuter sistemasi bazasi asosiga tayanadi. U amaliy intizom bo‘lib, informatika axboriy jarayonlari qonuniyatini, hamda axboriy aloqa modellarini yaratishni, axborot sistema va texnologiyani aniq soxada o‘rganadi. Xususiyl tibbiyot informatikasi tibbiyot axborot texnologiyasi ilovalarini ko‘rib chiqadi, bunda tibbiyot masalalarini, maxsus tibbiyot axborot texnologiyasi va sistemalarini echish uchun, standart va universal vositalardan foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tibbiyot ta’limi, simulyatsiya, elektron ta’lim, pedagogik innovatsiyalar.

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье анализируются роль и значение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в медицинском образовании. В современном образовании средства ИКТ играют важную роль в углублении теоретических знаний, развитии практических навыков и привлечении студентов к научно-исследовательской деятельности. В статье рассмотрены способы эффективного использования виртуальных симуляторов, онлайн-платформ и мультимедийных ресурсов. В решении медицинских вопросов общая информатика, как основной предмет, опирается на основу построения методов обработки и на основе этого изучения любых объектов и базы информационных компьютерных систем. Это практическая дисциплина, изучающая законы информационных процессов информатики, а также создание моделей информационной

связи, информационные системы и технологии в конкретной области. Частная медицинская информатика рассматривает приложения медицинских информационных технологий, в которых используются стандартные и универсальные средства для решения медицинских вопросов, специальных медицинских информационных технологий и систем.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, медицинское образование, моделирование, электронное образование, педагогические инновации.

FEATURES OF THE USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN MEDICAL EDUCATION

Abstract: This article analyzes the role and importance of information and communication technologies (ICT) in medical education. In modern education, ICT tools play an important role in deepening theoretical knowledge, developing practical skills and attracting students to research activities. The article discusses ways to effectively use virtual simulators, online platforms and multimedia resources. In solving medical issues, general computer science, as the main subject, relies on the basis of the construction of processing methods and on the basis of this study of any objects and the base of information computer systems. This is a practical discipline that studies the laws of informatics information processes, as well as the creation of information communication models, information systems and technologies in a specific field. Private medical informatics looks at medical information technology applications that use standard and universal facilities for medical issues, special medical information technology, and systems.

Key words: information and communication technologies, medical education, modeling, education, pedagogical innovations.

Kirish:

Jamiyatni axborotlashtirish deganda, inson faoliyatining barcha ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohalarda axborotlar, bilimlar, ishonchli ma'lumotlar bilan to'liq va o'z vaqtida foydalanishni ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni barcha ish joylariga tatbiq etish tushuniladi. Axborotlashtirish nafaqat milliy iqtisodiyotning moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarini yuksaltirishda, balki ayni paytda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishda, yangi ish o'rinlarini yaratish, ish o'rinlarini avtomatlashtirish va aholining turmush darajasini sifat jihatdan yuksaltirishga ham xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, respublikamiz yigit-qizlarim XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama yetuk shaxslar etib tarbiyalash maqsadida o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya va Internet texnologiyalarini keng joriy qilish bo'yicha amaliy ishlar davlat dasturida ko'satib qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda olib borilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng ko'lamda joriy

qilish, o‘quv va ilmiy axborotlarni talaba hamda professor-o‘qituvchilar tomonidan qidirib topishda ketadigan vaqning qisqarishi, elektron o‘quv adabiyotlar mazmunini davr talabidan kelib chiqqan holda o‘zlashtirishning tezlashtirilishi, talabalarning mustaqil ta‘lim olishlari uchun qo‘shimcha vaqt paydo bo‘lishi bilan ifodalanadi. “Ta‘lim sifati”, “innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish”, “bilimlarga asoslangan tibbiyot” va “ta‘limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari” tushunchalarini o‘zaro bir-birlaridan ajrarmagan holda o‘rganish zarur. “Ta‘lim sifati” tushunchasi, avvalambor, ta‘limning asosiy maqsadi bo‘lgan oliygohlardagi talabalarining bilimliligi, professor-o‘qituvchilarning professionalligi va ta‘lim berish jarayonlarining yuqori darajada tashkil qilishga bog‘liqdir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta‘lim berish jarayonlarining sifatini laboratoriya mashg‘ulotlariga moslashtirilgan xonalarning zamonaviy texnikalar bilan ta‘minlanishi, laboratoriya mashg‘ulotlarining uslubiy jihatdan ta‘minlanganligi, ta‘lim jarayoniga jalb qilingan o‘qituvchilar ilmiy potentsialining darajasi, davlat tilidagi darslik va o‘quv qo‘llanmalarining ishlab chiqilganligi, ta‘lim jarayonlarini boshqarishning sifat darajasi kabi omillarni ta‘minlab bermoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetning ta‘lim sohasiga keng kirib kelishi ta‘lim xizmatlarining globallashtirishi uchun ham kata yo‘l ochib bermoqda. Rivojlangan davlatlar ta‘lim sohasida bo‘layotgan bunday ijobiy jihatlarni e‘tiborga olgan holda, ta‘lim sifatini yuksaltirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ommaviy ravishda foydalanish davr talabiga aylanmoqda. Hozirgi kunga kelib ta‘lim sohasida «Informatika» fanlarini uzluksiz o‘qitishga barcha sharoitlar mavjud deb hisoblaymiz, ularning asosiylari quyidagilar:

- materiallarining hajmi, mazmuni, ahamiyati va muhimligi bilan farq qiladigan “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanlarining mantiqiy bog‘langan dasturining mavjudligi;
- fanlarni ixtisoslashtirilgan dasturda, ya‘ni bakalavriat yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish imkoniyati;
- fanlarning dasturida axborot texnologiyalari sohasining rivojlanishini hisobga olish mumkinligi.

“Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanlarini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida modul tizimini ko‘rsatish mumkin, chunki bu tizim talabalar bilimning turli tumanligini hisobga oladi. Modul tizimining yana bir ijobiy xususiyatlaridan biri shundaki fanning mazmunini kengaytirish, o‘zgartirish, takomillashtirish va yangi modul elementlarini kiritish, shuningdek modul orasida yangi bosqichlarga o‘tish mumkinligidir.

Uslubiyot (metodologiya) jihatidan “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanlarining uzluksizligi quyidagilarga asoslanadi:

- fanlar mazmunining birligi, ya‘ni bir-birini to‘ldirishi;
- o‘qitish usulining va bilish ko‘nikmalarining o‘xshashligi.

3. Булгакова Т.В. Грамматическая интерференция и иные факторы, влияющие на русскую речь узбеков: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. –Т., 1973. –19 с.
4. Жалолов Ж. Матн мутолааси дидактикаси //Халқ таълими. –Т., 1993. –№ 3. –Б. 14–19.
5. Зарипов Л. Талабалар мустақил таълимини ташкил этиш [Матн]: Методик қўлланма / Л. Зарипов, Н. Хайитов, З. Тоҳиров. – Тошкент: “Sano-Standart”, 2023. – 32 б.
6. Frank G. Königs. Übersetzen im Deutschunterricht? Ja, aber anders! // Fremdsprache Deutsch. Heft 23-2000. –S. 6 –10.
7. Knowles M.S.(1975). Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers.
8. Schroedter A.H. Vom Sprachvergleich zum Übersetzen. Vorbereitende Übungen für den Übersetzungsunterricht // Fremdsprache Deutsch. Heft 23-2000. –S. 53 –54.



MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARI

Erkayev Elmirza Temirovich

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
elmirza@rambler.ru +998901245647*

Annotatsiya: Yuqori malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri ta’lim jarayonida mustaqil ta’limni zamon talablari asosida tashkil etishdir. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda o‘qitishning zamonaviy metod va usullari, xususan, mustaqil ishdan foydalanish orqali o‘z hissasini qo‘shadi.

Chet tilda mustaqil ta’limni o‘tkazishda nutq faoliyati turlari–tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuvdan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ishni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha samarali ishlarni qator xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimida kuzatish mumkin.

So‘z ma’nosini mustaqil anglash maqsadida tinglab tushunish uchun beriladigan har qanday matn va mikro/makromatn tinglovchiga bir marta beriladi, qayta tinglashga berilganda esa uning ma’nosini ilg‘ab olishga doir boshqa ish turi bajariladi. Bu esa, talabada mustaqil fikrlash va mushohada yuritishga olib keladi.

Kalit sozlar: mustaqil ta’lim, mustaqil ta’limni tashkil etish, chet til materiali, mustaqil o‘qish texnikasi, mustaqil ta’lim shakli, xorij tajribalari.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: Одним из важных факторов подготовки высококвалифицированных кадров является организация самостоятельного обучения в учебном процессе с учетом требований времени. Современные методы и приемы обучения, в частности, за счет использования самостоятельной работы, способствуют повышению качества и эффективности образования.

При самостоятельном обучении иностранному языку особое значение имеют виды речевой деятельности: аудирование, говорение, чтение и письмо. Эффективную работу по организации и проведению самостоятельной работы можно наблюдать в системах образования ряда зарубежных стран.

Любой текст и микро/макротекст, предлагаемый для аудирования с целью самостоятельного понимания значения слова, предъявляется слушателю один раз, а при повторном прослушивании выполняется другой тип работы по усвоению его смысла. Это способствует развитию у студента самостоятельного мышления и наблюдательности.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, организация самостоятельного обучения, иноязычный материал, методы самостоятельного обучения, формы самостоятельного обучения, зарубежный опыт.

FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION

Abstract: One of the important factors in training highly qualified personnel is the organization of independent learning in the educational process, taking into account the requirements of the time. Modern teaching methods and techniques, in particular, through the use of independent work, contribute to improving the quality and effectiveness of education.

In independent learning of a foreign language, the following types of speech activity are of particular importance: listening, speaking, reading and writing. Effective work on organizing and conducting independent work can be observed in the education systems of a number of foreign countries.

Any text and micro/macrotex offered for listening with the purpose of independent understanding of the meaning of a word is presented to the listener once, and during repeated listening, another type of work is performed to assimilate its meaning. This contributes to the development of independent thinking and observation in the student.

Keywords: independent learning, organization of independent learning, foreign language material, methods of independent learning, forms of independent learning, foreign experience.

KIRISH

Yuqori malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri ta’lim jarayonida mustaqil ta’limni zamon talablari asosida tashkil etishdir. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda o’qitishning zamonaviy metod va usullari xususan, mustaqil ishning alohida o’rni bor.

Mustaqil ta’limga turlicha ta’rif-tavsif keltirilgan. Jumladan, (1) Mustaqil ta’lim–o’quv materialini mustaqil o’zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo’lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko’nikma hamda malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat. (2) Mustaqil ta’lim–olingan bilim, ko’nikma va malakalarni mustahkamlash, qo’shimcha ma’lumot yoki materialni mustaqil o’rganish maqsadidagi o’quv shakli va b. [3:7].

Chet tilda mustaqil ta’limni o’tkazishda nutq faoliyati turlari–tinglab tushunish, gapirish, o’qish va yozuvdan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ishni tashkil etish va o’tkazish bo’yicha samarali ishlarni qator xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimida kuzatish mumkin.

Tinglab tushunish uchun beriladigan har qanday matn va mikro/makromatn tinglovchiga bir marta beriladi, qayta tinglashga berilganda esa uning ma’nosini ilg‘ab olishga doir boshqa ish turi bajariladi.

Psixolingvistikaga oid tadqiqotlarda esa gapirish uch tarkibli nutqiy faoliyat sanaladi. Dastavval, gapirishga moyillik, ichki turtki (motivatsiya), ya’ni fikrni bayon etishga ehtiyoj tug‘iladi. Fikrni izhor qismida esa analiz/sintez amallari ishga tushadi, gapiruvchi xotirada tayyor turgan so‘zlar(leksika)ni, grammatik birliklarni tanlaydi. Bu holatda, odatda, ona tili va ikkinchi til hodisalari o‘rtasida o‘xshashlik (transpozitsiya/fatsilitatsiya) hamda o‘zaro farq qilish/salbiy ta’sir (interferensiya) hodisalari ham kelib chiqadi. Gapirishning uchinchi qismi ijro, bayon etish, talaffuz qilish, tashqi nutqda uni ifodalashdir.

Aytilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, mustaqil ta’limni tashkillashtirishda xorij tajribalarining ahamiyati xususida fikr-mulohazalar bayon etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mustaqil ishni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha samarali ishlar hamdo‘stlik mamlakatlar tadqiqotchilari, ya’ni A.N. Rubakin, N.V. Fomashina, Ye.I. Russkix, A.Ya. Ayzenberg, A.A. Bodalev, A.P. Vladislavlev, A.K. Gromseva, G.I. Gusev, A.V. Darinskiy, G.S. Zakirov, A.I. Kochetov, V.G. Onushkin, P.I. Pidkasistov, B.F. Rayskiy va boshqalar tomonidan olib borilganligini alohida ta’kidlash lozim. Ushbu ilmiy izlanishlar uzluksiz ta’limning maktab va oliy ta’lim tizimi nazariyasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini yoritishga bag‘ishlangan.

Mustaqil faoliyatni chet til materiali asosida o‘rgatish tajribasi M.Ye. Breygin, S.N. Vaxrushev, A.S. Granitskaya, O.K. Zaxarenkov, I.A. Zimnyaya, A.V. Zubov, I.I. Zubov, E.A. Miroshnichenkolarning amaliy yo‘nalish sifatida tashkil etishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Mustaqil ishni tashkil etishda o‘smirlar muammolarini tadqiq etishga bag‘ishlangan bir qator ishlarni ham uchratish mumkin: V.P. Bepalko, S.G. Vershlovskiy, Ye.G. Koroleva, Yu.N. Kulyutkin va boshqalar.

Pedagogik-psixologik adabiyotlarda o‘qituvchilarning mustaqil ta’limni o‘rganish muammolari S.T. Vershlovskiy, I.V. Ganchenko, M.V.Nikolayev, N.V. Kosenko kabilarning ishlarida kuzatish mumkin.

Pedagogika va psixologiyada mustaqil ta’limning nazariy va metodologik asoslari tadqiqotchilar D.M. Grishin, A.I. Kochetov, L.I. Ruvinskiy, I.V. Xarlamov ishlarida ko‘rib chiqilgan. Psixolog S.L. Rubinshteyn ta’kidlaganidek, inson shaxs sifatida nafaqat uning kimligi, balki kim bo‘lishni xohlashi, nimaga faol intilishi bilan ajralib turadi.

Pedagoglarni mustaqil faoliyatga tayyorgarlik muammolari bilan T.Lopuxov, L.I. Lure, Ye.V. Andrienko, O.M.Bobienko, N.K.Zotov, N.M. Trofimov, V.A. Slastenin, G. Bokarevlar shug‘ullanishgan.

Nolisoniy oliy o‘quv yurtlarida nemis tili materialida sohaviy matnlarni o‘qishda mustaqil o‘qish texnikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan [9].

Nolisoniy oliy o‘quv yurtida matn ustida mustaqil ishlash ikkita darajadan iboratligi xususida fikr-mulohazalar bildirilgan: 1) tilni tushunish darajasi; 2) mazmunni tushunish darajasi. Birinchi darajada til birliklarining o‘zaro bog‘liqligi sodir bo‘ladi. Ikkinchi darajada esa retseptiv – o‘zga shaxs nutqini idrok etib, ya’ni o‘qib yoki tinglab tushunishga erishiladi. Birinchi yo‘nalishda matn mazmuni haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Ikkinchidan esa ma’lumotni qayta ko‘rib chiqish uchun matn bilan mustaqil ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi [9].

Ma’lumki, asrlar davomida chet til mashg‘ulotida mustaqil ta’limni tashkillashtirishda tarjima metodidan foydalanib kelingan. Keyinchalik ushbu metodning faqat o‘lik (lotin, qadimiy yunon) tillarni o‘rgatishga mos kelishi, jonli tillarni mazkur metod bilan o‘rgatish imkoni yo‘qligi ilmiy asoslandi va xalqaro miqyosda ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan to‘g‘ri metod, audiolingval metod, audiovizual metod, intensiv metod kabilar paydo bo‘ldi. Hozirgi paytda dunyo mamlakatlarida chet til o‘rgatish hamda mustaqil ta’lim konikmalarini shakllantirishda kommunikativ metod keng joriy etilmoqda.

NATIJALAR

N.A. Rubakin o‘z vaqtida mustaqil ishning uchta asosiy qoidasiga ahamiyat qaratadi. Eng ahamiyatlisi deb yozadi u mustaqil ishni hayotning o‘zidan o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. O‘z fikrini davom ettirib, mustaqil ta’limning uchta vazifasi haqida, ya’ni odamga “bilim, tushuncha, hohish” berishini ta’kidlaydi [7].

Mustaqil ta’limning asosiy shakli ilmiy, ilmiy-ommabop, o‘quv, badiiy va boshqa adabiyotlarni, matbuotni o‘rganishdir. Mustaqil ta’lim, shuningdek, turli xil yordamchi vositalaridan foydalanish imkoniyatini beradi: ma’ruza, kontsertlar tinglash, mutaxassislariga maslahat berish, spektakl, film, teleko‘rsatuvlarni tomosha qilish, muzey, ko‘rgazma, galereyalarga tashrif buyurish, turli xil amaliy faoliyat turlari - tajribalar, modellashtirish va boshqalar.

Xorijiy mamlakatlar tajribalarini kuzatadigan bo‘lsak, odatda, Britaniyada talabalarining kutubxonalarga tashrif buyurishi dunyoda etakchi o‘rinlarni birini egallab kelmoqda. Germaniya va Fransiyada esa bu holat bo‘yicha Britaniyadan ortda qolmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Britaniya universiteti talabalari kutubxonada muntazam ravishda 14-15 soat mustaqil ish olib borishadi. Bu natija Germaniya, Fransiya va Italiyada 10-12 soatni tashkil etar ekan. Globallashuv shariatida bu jarayonni boshqa ta’lim muassasalarida keng joriy etish talabalar auditoriyasini kutubxonaga jalb etish mamlakatimizda o‘ta dolzarblik kasb etadi.

Talabalarining mustaqil ishlarini bajarishda tyutorlarning kichik guruhlarda maslahat kurslari tashkil etiladi. AQShdagi Kanzas universitetida talabalarining 85 foizi tyutorlik xizmatidan keng foydalanishadi. Bunda bepul tyutorlik hamda pullik xizmatlar tashkil etiladi. Masalan, AQShning Ogayo shtatidagi Rayt (ixtirochi aka-uka Raytlar) universitetida akademik muvaffaqiyat markazlari haftasiga bir soat bepul kurslari mavjud [5].

MUHOKAMA

Chet til mashg‘ulotlarida mustaqil ishlar-tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv kabi nutq faoliyatini tashkil etuvchi unsurlarni o‘z ichiga oladi. Har bir faoliyat turiga oid til va nutq mashqlari, informatsion, operatsion, motivatsion hamda shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, takomillashtiruvchi mashqlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Nutq faoliyatining yordamchi turi bo‘lmish tarjimadan foydalanish esa chet tilda o‘zga shaxs nutqini idrok etib tushunishda, matnlarni yozma tarjima qilishda lug‘atdan foydalanish tavsiya etiladi.

Mustaqil ishni tashkil etish va nazorat qilish borasida xorijiy tajribaning ijobiy jihatlaridan quyidagilarni ta’kidlab o‘tish mumkin:

Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlar qat’iy nazorat qilib boriladi. Mustaqil darslar seminar darslarida muhokama qilinadi, oraliq nazoratlar va yakuniy imtihonlarda mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlardan savollar qo‘yiladi. Mustaqil ishlar natijasi umumiy bahoda aks ettiriladi.

Mustaqil ishlarni nazorat qilishda akademik halollik tamoyiliga qat’iy rioya qilinadi. Ishlar odatda antiplagiat dasturlari orqali tekshiruvdan o‘tkaziladi. O‘zlashtirilgan va ko‘chirilgan ishlar qat’iy intizomiy choralar bilan qarshi olinadi.

Mustaqil ishlarda ijodiylik, mustaqil hamda tanqidiy-tahliliy fikrga ega bo‘lish asosiy mezon sifatida qabul qilinadi.

AQSh va G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagi universitetlarda talabalarning mustaqil ishlariga uzluksiz ta’lim sifatida qaraladi. “Umr davomida ta’lim” tamoyili amaliyotga keng joriy qilinadi. Bu, birinchidan, professor-o‘qituvchilar faoliyatini “o‘qitish” emas, balki “o‘rgatish”ga yo‘naltirsa, ikkinchidan, esa talabalarning o‘z ustida ishlashini ta’minlaydi [5].

AQSh va Britaniya universitetlarida (masalan Garvard va Oksford) talabalar mustaqil ishi darajasi kursdan-kursga tomon o‘sib boradi. O‘quv fan dasturida asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar tavsiya etiladi. Talabalarning mustaqil ishlari ma’ruza tayyorlash, lug‘at bilan ishlash yoki esse yozish bilan mashg‘ul bo‘lishadi [5].

Olmon diyori esa Geydelberg, Kyoln, Frayburg, Tyuringen kabi qadimiy universitetlar vatani hisoblanadi. 1386 yilda asos solingan Geydelberg universiteti ko‘hna qit‘aning eng nufuzli oliy ta’lim dargohidir.

Axen, Bremen, Bonn, Frankfurt, Gamburg, Kyoln, Marburg kabi universitetlarga ham talabgorlar ko‘p. Ma’lumotlarga ko‘ra, Germaniyaning 370 dan ortiq oliy ta’lim muassasalarida 2 millionga yaqin talaba, jumladan, 246 ming xorijlik tahsil olmoqda. Oliy ta’lim muassasalari kutubxonalarida adabiyotlardan foydalanish va mustaqil ta’lim olish keng joriy etilgan. Barcha ta’lim muassasalarida adabiyotlarni ijaraga olib mustaqil o‘qish hamda elektron shaklda buyurtma qilish uchun imkoniyatlar yaratilgan.

Nemis pedagoglarining fikricha, iste’dodsiz o‘quvchining o‘zi bo‘lmaydi, deya ta’kidlashadi. Shu bois ular o‘quvchining ochilmagan qirralarini kashf etish, yangiliklar ruhida tarbiyalash va mustaqil fikrlashga o‘rgatishadi. *“Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman!”* deydi mashhur faylasuf Rene Dekart.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan fikrlar va xorij tajribalarining nazariy va amaliy manbalaridan o‘quv jarayonida o‘z o‘rnida foydalanish mustaqil ishni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, talabalarining mustaqil ta’limini tashkillashtirishda zamon talablari asosida moslashtirish, shuningdek, mustaqil ta’lim olish jarayonida talabalarining ijodkorlik qobiliyatlarini takomillashtirishda xorij tajribasidan o‘z o‘rnida foydalanishga alohida e’tibor berish lozim.

Chet tilda mustaqil ta’limni tashkillashtirishda nutq faoliyatini tashkil etuvchi unsurlar—tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuvdan foydalanish talaba/kursantlarning ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Боқиева Г.Х., Қамбаров Н. Европа таълим ислохотларида билимни баҳолашнинг кредит тизими // *Замонавий тилшунослик ва хорижий тиллар ўқитишнинг долзарб масалалари илмий-амалий анжумани материаллари.*— Т.: ЎзДЖТУ, 2008. — Б. 542–545.

2. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalar uchun darslik. —Т.: О‘qituvchi, 2012. — 432 b.

3. Зарипов Л. Талабалар мустақил таълимини ташкил этиш [Матн]: Методик қўлланма / Л. Зарипов, Н. Хайитов, З. Тоҳиров. —Тошкент: “Sano-Standart”, 2023. — 32 б.

4. Зарипов Л. Мустақил таълимни ташкил этиш ва баҳолаш мезонлари [Матн]: Методик қўлланма / Л.Зарипов, З.Тоҳиров, М.Тухтаева. —Т.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024 й. — 32 б.

5. Маматкулов С. Мустақил таълим: тадқиқот, хорижий тажриба ва тавсиялар [Матн] : методик қўлланма / С. Маматкулов. — Тошкент: “Sano-Standart”, 2023. — 32 б.

6. Набиева К., Абидова Р. Чет тилидан мустақил ишларни ташкил этиш муаммолари // *Замонавий тилшунослик ва хорижий тиллар ўқитишнинг долзарб масалалари илмий-амалий анжумани материаллари.* —Т.: ЎзДЖТУ, 2008. — Б. 519–521.

7. Рубакин А.Н., Рубакин (Лоцман книжного моря). — М.: «Молодая гвардия», 1967. — С. 79-83.

8. Терехова М.Ю. Лингвостилистический статус учебных видов вторичного текста: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. — М., 1988. —23 с.

9. Шарапова С.И. Методика обучения студентов неязыкового вуза чтению профессиональных текстов с целью порождения различных форм вторичных высказываний (немецкий язык). Автореф. дис. ... канд. пед. наук. — Ярославль, 2010.

10. Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит-модул тизимида ташкил этиш. Ўқув қўлланма. —Т.: “Tafakkur” нашриёти, 2020. — 120 б.

11. Фомашина Н.В. Организация самообразовательной деятельности курсантов ВУЗа (на примере обучения иностранному языку). Автореф. дис. ...канд. пед.наук. — Рязань, 2009.

12. Neuner G., Krüger M. Fremdsprachenunterricht in Theorie und Praxis. Übungstypologie neun kommunikativen Deutschunterricht Langenscheidt. Berlin, München, Wien-Zürich-New York, 1981. – 222 S.

13. Nowak E. Einsprachig? – Zweisprachig? Übersetzen als Mittel der Semantisierung von Wortschatz// Fremdsprache Deutsch. Heft 23-2000.–S.15 –18.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARINING IJOBIY-KASBIY MOTIVATSIYASI SAMARALI PEDAGOGIK FAOLIYATNING ASOSI SIFATIDA

Dinora Aripjanova

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) rahbarlarining ijobiy-kasbiy motivatsiyasi samarali pedagogik faoliyatning asosiy omili sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy metodlar uyg'unlashtirilib, Toshkent shahri Olmazor tumanidagi davlat va nodavlat MTT rahbarlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar va chuqurlashtirilgan suhbatlar orqali rahbarlarning motivatsiya darajasi, uning manbalari va ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, rahbarlar motivatsiyasi, kasbiy o'sish, pedagogik faoliyat, ta'lim sifati, innovatsion yondashuv va boshqaruv.

ПОЗИТИВНО-ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ МОТИВАЦИЯ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ КАК ОСНОВА ЭФФЕКТИВНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В этой статье мы рассматриваем положительную профессиональную мотивацию руководителей дошкольных образовательных организаций (ДОУ) как ключевой фактор, способствующий успешной педагогической деятельности. В нашем исследовании были гармонично объединены качественные и количественные методы. Мы провели опросы и углубленные беседы с руководителями государственных и негосударственных ДОУ Алмазарского района города Ташкента, чтобы изучить уровень их мотивации, её источники и влияние на образовательный процесс.

Ключевые слова: Дошкольное образование, мотивация руководителей, профессиональный рост, педагогическая деятельность, качество образования, инновационный подход и управление.

THE POSITIVE PROFESSIONAL MOTIVATION OF HEADS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS IS THE BASIS FOR EFFECTIVE PEDAGOGICAL ACTIVITY

Annotation. In this article, we look at the positive professional motivation of heads of preschool educational institutions as a key factor contributing to successful teaching activities. In our study, qualitative and quantitative methods were harmoniously combined. We conducted surveys and in-depth conversations with the heads of state and non-state preschool institutions in the Almazar district of Tashkent to study their motivation level, its sources and impact on the educational process.

Keywords: Pre-school education, leadership motivation, professional growth, teaching, quality of education, innovative approach and management.

Kirish. Maktabgacha ta’lim tizimi mamlakatning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu tizimning samarali faoliyati bevosita maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT) rahbarlarining kasbiy motivatsiyasi bilan bog‘liqdir. Ijobiy-kasbiy motivatsiyaga ega bo‘lgan rahbarlar nafaqat o‘z vazifalarini yuqori darajada bajaradilar, balki pedagogik jamoani ilhomlantiradilar, ularning professional o‘shishiga sharoit yaratadilar va natijada bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida maktabgacha ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirishning muhimligi ta’kidlangan bo‘lib, rahbarlarning motivatsiyasini oshirish bu strategiya uchun muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham maktabgacha ta’lim tizimida rahbar kadrlarni tanlash va ularning kasbiy motivatsiyasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarorida ham maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda rahbar kadrlarining professionalizmi va mas’uliyatini kuchaytirish zarurligi ta’kidlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda MTT rahbarlarining kasbiy motivatsiyasini o‘rganish uchun sifat va miqdor usullari uyg‘unlashtirildi. Tadqiqotning miqdoriy qismida Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 53 ta davlat va 45 ta nodavlat MTT rahbarlari o‘rtasida kasbiy motivatsiya darajasini aniqlashga qaratilgan so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma savollari kasbiy o‘zini anglash, ichki va tashqi motivatsiya omillarini o‘z ichiga oldi (Quyidagi havola orqali kirish mumkin: <https://forms.gle/RUtwVQAxdbqAaZy5>). Sifat qismida esa yuqori darajadagi kasbiy motivatsiyaga ega bo‘lgan 10 nafar (5 ta davlat, 5 ta nodavlat) rahbar bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o‘tkazilib, ularning motivatsiya manbalari, ish uslublari, pedagogik jamoaga ta’siri va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori talablari asosida faoliyatni tashkil etish tajribalari o‘rganildi.

Natija va muhokama. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, rahbarlarning ijobiy-kasbiy motivatsiya darajasi ularning ish tajribasi, ma’lumoti va egallab turgan lavozimiga bog‘liq ravishda farqlanadi. Xususan, yuqori ma’lumotli va uzoq yillik tajribaga ega bo‘lgan

rahbarlarda kasbiy motivatsiya darajasi sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Shuningdek, tahlillar motivatsiyasi yuqori bo‘lgan rahbarlar: pedagogik jamoada islohotlarga ochiqlikni kuchaytirgan (72%); innovatsion yondashuvlarni qo‘llagan (61%); ota-onalar bilan hamkorlikda faol bo‘lgan (67%). Shu bilan birga, 74% rahbarlar o‘zlarini kasbiy jihatdan rivojlantirishga ehtiyoj sezayotganini bildirgan. Tashqi motivatsiya (moddiy rag‘bat, maqom) ichki motivatsiyaga (kasbiy qoniqish, ijtimoiy foyda) nisbatan kuchliroq ekanligi aniqlandi.

Yuqori motivatsiyaga ega bo‘lgan rahbarlar ko‘proq o‘z kasbiy o‘sishiga intilishadi, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlashadi va pedagoglarni rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratadilar. Suhbatlar davomida aniqlanishicha, bunday rahbarlar o‘z jamoalarida ochiq muloqot muhitini yaratadilar, pedagoglarning fikrlarini hurmat qiladilar va ularga professional rivojlanish uchun imkoniyatlar yaratib beradilar.

Bizning fikrimizcha, rahbarning ijobiy-kasbiy motivatsiyasi – bu shaxsning o‘z kasbiga bo‘lgan ijobiy munosabati, unga erishish va rivojlanishda ichki ishtiyoq bilan harakat qilishini ifodalaydi. Bu turdagi motivatsiya kasbiy faoliyatda qat‘iyat, mas‘uliyat, ishtiyoq va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga chiqaradi. Natijada, bunday tashkilotlarda pedagoglarning kasbiy faoliyatidan qoniqish darajasi yuqori bo‘lib, ular o‘z vazifalarini yanada mas‘uliyat bilan bajaradilar.

Bundan tashqari, yuqori motivatsiyaga ega rahbarlar tomonidan tashkil etilgan MTT'larda bolalarning ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilinishi va ularning rivojlanish ko'rsatkichlari boshqa tashkilotlarga nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar MTT rahbarlarining ijobiy-kasbiy motivatsiyasi nafaqat ularning shaxsiy faoliyatiga, balki butun pedagogik jamoaning samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Yuqori motivatsiyaga ega bo‘lgan rahbarlar o‘zlarining yetakchilik qobiliyatlari orqali pedagoglarni faolroq bo‘lishga, yangi metodikalarni o‘zlashtirishga va bolalar bilan samaraliroq ishlashga undaydilar. Aksincha, motivatsiyasi past bo‘lgan rahbarlar tashkilotda turg‘unlikni keltirib chiqarishi, pedagoglarning noroziligiga sabab bo‘lishi va natijada ta'lim sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, MTT rahbarlarining ijobiy-kasbiy motivatsiyasi samarali pedagogik faoliyatning muhim asosi hisoblanadi. Yuqori motivatsiyaga ega bo‘lgan rahbarlar o‘z jamoalarida ijodiy va hamkorlik muhitini yaratish, pedagoglarning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash va natijada bolalarning sifatli ta'lim olishini ta'minlashga qodir. Olingan natijalar va normativ hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rahbarlarning motivatsiyasini oshirish uchun ularning kasbiy rivojlanishi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish, ish faoliyatini adolatli baholash tizimini joriy etish va moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Kelgusida ushbu yo‘nalishda rahbarlarning motivatsiyasini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risidagi” PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01/29/60/0087.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori
3. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 487-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
4. I.Kurbanov. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishda direktorlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, Xalqaro ilmiy-metodik jurnal, 2022/№ 8, 157-161 betlar.



UDK 37.02

ORCID 0009-0000-9645-8064

MA'NAVIY BEGONALASHUVNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MOHIYATI

Xo'jamov Zoxidjon Abdurashid o'g'li,
Stajyor-tadqiqotchi
Andijon Davlat Pedagogika Instituti
z.khujamov@gmail.com

Annotatsiya: Ma'naviy begonalashuv — bu shaxsning o'zining ichki dunyosi, qadriyatlari va ijtimoiy muhitidan ajralib qolishi jarayoni bo'lib, u ijtimoiy integratsiyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada ma'naviy begonalashuvning ijtimoiy-pedagogik mohiyati, shu jumladan, ma'naviy begonalashuvning sabablari, uning yoshlar va jamiyat rivojiga ta'siri, shuningdek, pedagogik yondashuvlar orqali ushbu muammoni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ma'naviy begonalashuvni oldini olish va ijtimoiy moslashuvni oshirishda pedagogik ishlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy begonalashuv, ijtimoiy-pedagogik mohiyat, ijtimoiy integratsiya, - pedagogik yondashuvlar, yoshlar tarbiyasi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy moslashuv.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ДУХОВНОГО ОТЧУЖДЕНИЯ

Аннотация: Духовное отчуждение — это процесс отчуждения личности от её внутреннего мира, ценностей и социального окружения, который негативно влияет на социальную интеграцию. В статье анализируется социально-педагогическая сущность духовного отчуждения. В статье рассматриваются причины духовного отчуждения, его влияние на молодежь и развитие общества, а также пути преодоления данной проблемы с помощью педагогических подходов. Результаты исследования показывают важность педагогической работы для предотвращения духовного отчуждения и повышения социальной адаптации.

Ключевые слова: духовное отчуждение, социально-педагогическая сущность, социальная интеграция, - педагогические подходы, воспитание молодежи, система ценностей, социальная адаптация.

SOCIO-PEDAGOGICAL ESSENCE OF SPIRITUAL ALIENATION

Annotation: This article analyzes the socio-pedagogical essence of spiritual alienation. Spiritual alienation is the process of a person becoming detached from their inner world, values, and social environment, which negatively affects social integration. The article examines the causes of spiritual alienation, its impact on youth and societal development, as well as ways to address this problem through pedagogical approaches. The research results highlight the importance of pedagogical work in preventing spiritual alienation and enhancing social adaptation.

Keywords: spiritual alienation, socio-pedagogical essence, social integration, pedagogical approaches, youth education, value system, social adaptation.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi va turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri yosh avlodning ma’naviy olamiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayrim hollarda bu jarayon yoshlarning o‘z milliy qadriyatlaridan uzoqlashishiga, o‘zligini anglashda qiyinchiliklarga duch kelishiga, ya’ni ma’naviy begonalashuviga olib kelishi mumkin. Bunday salbiy tendensiyalarning oldini olish, yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash va ularning ma’naviy barkamolligini ta’minlash dolzarb vazifalardan biridir.

Mazkur vazifani amalga oshirishda O‘zbekistonning boy va qadimiy milliy merosi beqiyos ahamiyatga ega. Asrlar davomida sayqallanib kelgan xalq og‘zaki ijodi namunalari, mumtoz adabiyot, milliy musiqa, raqs, hunarmandchilik va boshqa madaniy boyliklar yoshlarning qalbida vatanga muhabbat, milliy g‘urur, insoniylik va mehr-oqibat kabi yuksak fazilatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, milliy merosdan yoshlarning ma’naviy begonalashuvini oldini olishda samarali foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi yoshlarning ma’naviy begonalashuvi muammosini tahlil qilish va uning oldini olishda O‘zbekistonning milliy meros namunalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini ko‘rib chiqishdan iborat. Maqolada bu boradagi mavjud ilmiy qarashlar, O‘zbekiston sharoitidagi imkoniyatlar va istiqbolli yo‘nalishlar tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yoshlarning ma’naviy begonalashuvi muammosi zamonaviy jamiyatning muhim chaqiriqlaridan biriga aylanib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot oqimining chegara bilmasligi, turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri yosh avlodning o‘z milliy qadriyatlariga nisbatan e’tibori susayishiga olib kelishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, o‘zligini to‘liq anglab ulgurmagan o‘sib kelayotgan avlod uchun jiddiy xavf tug‘diradi.

Ma’naviy begonalashuv nafaqat milliy identiklikning zaiflashuvi, balki ma’naviy bo‘shliqning yuzaga kelishiga ham olib keladi. Bu bo‘shliqni esa turli xil yot va zararli g‘oyalar, axloqsiz xulq-atvor namunalari to‘ldirishi mumkin[1]. Natijada, yoshlarning jamiyatdagi o‘rni, hayotga munosabati buzilib, destruktiv faoliyatga moyillik ortishi kuzatilishi mumkin.

Aynan shunday murakkab sharoitda milliy merosning beqiyos tarbiyaviy salohiyati namoyon bo‘ladi. Milliy meros – bu xalqning asrlar davomida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklari yig‘indisidir. Unda xalqning tarixi, falsafasi, urf-odatlar, an’analar, san’ati va adabiyoti o‘z ifodasini topgan.

Milliy meros yoshlar uchun o‘ziga xos ma’naviyat bulog‘idir. Ular ajdodlarning boy tajribasi, dono fikrlari, go‘zal san’ati bilan tanishish orqali o‘zligini anglaydilar, milliy faxr tuyg‘usini his etadilar[2]. Bu esa ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlab, begonalashuv jarayoniga qarshi tura olish qobiliyatini oshiradi.

Sosiokulturologik nuqtai nazardan qaraganda, milliy meros yoshlar uchun muhim ijtimoiylashuv omili hisoblanadi. Ular milliy meros namunalari bilan tanishish orqali o‘z jamiyatining qadriyatlari, normalari va an’analarini o‘zlashtiradilar. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvi, ijtimoiy aloqalarining mustahkamlanishiga yordam beradi.

Pedagogik jihatdan milliy meros tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismidir. O‘zbek xalq ertaklari, maqollari, dostonlari, milliy she’riyati va musiqasi yoshlarning axloqiy tarbiyasiga, estetik didini shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi[3]. Masalan, "Alpomish" dostonidagi mardlik, vatanparvarlik, sadoqat kabi fazilatlar yoshlar uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi.

Psixologik nuqtai nazardan milliy meros bilan tanishish yoshlarda o‘ziga xos ruhiy qanoatlanish, milliy mansublik hissini uyg‘otadi. O‘z tarixi, madaniyati bilan faxrlanish tuyg‘usi ularning shaxsiy o‘ziga ishonchini mustahkamlaydi, stress va depressiya holatlariga qarshi tura olish qobiliyatini oshiradi.

O‘zbekistonning milliy merosi nihoyatda boy va xilma-xildir. Qadimgi shaharlarning me’morchilik yodgorliklari (Samarqanddagi Registon maydoni, Buxorodagi Kalon minorasi, Xivadagi Ichan-qal’a), xalq amaliy san’ati namunalari (do‘ppido‘zlik, kashtachilik, kulolchilik), musiqa merosi ("Shashmaqom", maqomlar), adabiy meros (Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari) yoshlar uchun ulkan ma’naviy xazinadir[4].

Masalan, Alisher Navoiyning "Xamsa"si insoniy fazilatlar, adolat, mehr-oqibat kabi mavzularni teran yoritib beradi. Bu asarlarni o‘qish yoshlarning ma’naviy olamini boyitadi, ularda yuksak axloqiy prinsiplarni shakllantiradi.

Milliy musiqa, jumladan, "Shashmaqom" asarlari o‘zining nafisligi, teran mazmuni bilan yoshlarning estetik didini tarbiyalaydi, ularda go‘zallikni his etish qobiliyatini rivojlantiradi. Milliy raqslar esa harakatlarning jozibasi, milliy koloriti bilan yoshlarni o‘ziga jalb etadi va ularda jismoniy faollikni oshiradi.

Xalq amaliy san’ati namunalari, masalan, o‘zbek so‘zanalari, adras va atlaslarining go‘zalligi, naqshlarining mazmuni yoshlarda milliy estetik tafakkurni shakllantiradi. Hunarmandchilik bilan shug‘ullanish esa ularda mehnatsevarlik, ijodkorlik kabi fazilatlarni rivojlantiradi.

Ta’lim jarayonida milliy meros elementlarini integratsiya qilish yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitishning muhim yo‘llaridan biridir. Tarix, adabiyot, musiqa va san’at darslarida

milliy meros namunalarini o‘rganish, ularning mazmunini tahlil qilish yoshlarning milliy o‘zligini anglashiga yordam beradi.

Maktabdan tashqari mashg‘ulotlar, to‘garaklar, festivallar va tanlovlar ham milliy merosni yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilishning samarali usullaridandir. Milliy qo‘shiq va raqs to‘garaklari, hunarmandchilik mashg‘ulotlari, milliy adabiyot muhokamalari yoshlarning qiziqishlarini oshiradi va ularni faol ijodiy faoliyatga jalb etadi.

Muzeylar, teatrlar, kinoteatrlarga tashriflarni tashkil etish yoshlarning milliy meros bilan bevosita tanishishiga imkon yaratadi. Tarixiy obidalarni ko‘rish, milliy spektakllarni tomosha qilish, milliy filmlarni ko‘rish ularning bilimini oshiradi va estetik zavq bag‘ishlaydi.

Ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, televideniye va internet orqali milliy merosga oid ko‘rsatuvlar, filmlar, hujjatli filmlar, ma‘rifiy dasturlar namoyish etish yoshlarning keng qatlamlarini qamrab olish imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlarda milliy merosga oid kontentlarni targ‘ib qilish ham samarali usullardan biridir.

Ota-onalarning o‘z farzandlarini milliy meros bilan tanishtirishi ham muhim ahamiyatga ega. Ular farzandlariga milliy ertaklarni o‘qib berishlari, milliy qo‘shiqlarni kuylab berishlari, milliy urf-odatlar va an‘analar haqida so‘zlab berishlari mumkin.

Shuningdek, yoshlarning o‘zlarini milliy ijodiyotda sinab ko‘rishlari uchun sharoit yaratish lozim. Bu adabiy tanlovlar, rasm chizish, musiqa ijrosi, hunarmandchilik bo‘yicha musobaqalar tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin[6]. Bunday tadbirlar yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularda milliy merosga nisbatan hurmat tuyg‘usini shakllantiradi.

Milliy merosni o‘rganish va targ‘ib qilish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish ham muhimdir. Bu sohadagi mutaxassislarning fikrlarini o‘rganish, ularning tavsiyalarini amaliyotga joriy etish yoshlarning ma‘naviy tarbiyasi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlarning milliy merosni saqlash va yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish borasidagi ijobiy tajribalarini o‘rganish va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish ham foydali bo‘lishi mumkin. Bu xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yoshlarning ma‘naviy begonalashuvini oldini olishda O‘zbekistonning boy milliy merosidan foydalanish ko‘p qirrali va uzluksiz jarayon bo‘lishi lozim. Bu jarayon ta‘lim muassasalari, oila, ommaviy axborot vositalari va jamoat tashkilotlarining birgalikdagi sa‘y-harakatlarini talab etadi. Ilmiy-nazariy asoslar

1. **Sotsiokulturogik yondashuv:** Ushbu yondashuvga ko‘ra, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy va madaniy muhit bilan chambarchas bog‘liq. Milliy meros yoshlar uchun o‘ziga xos madaniy muhit yaratib beradi, ularni o‘z xalqining tarixi va madaniyati bilan tanishtiradi, bu esa ularning ijtimoiy identifikatsiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

2. **Pedagogik yondashuv:** Pedagogik nuqtai nazardan milliy meros tarbiyaviy vosita sifatida katta imkoniyatlarga ega. Xalq og‘zaki ijodi namunalari (ertaklar, maqollar, dostonlar),

milliy adabiyot, san'at asarlari orqali yoshlarga axloqiy normalar, estetik did, vatanparvarlik tuyg'ulari singdiriladi.

3. **Psixologik yondashuv:** Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z milliy ildizlarini bilish, o'z madaniyatiga mansublik hissi shaxsning psixologik barqarorligini ta'minlaydi. Milliy meros bilan tanishish yoshlarda o'ziga ishonch, ma'naviy boylik hissini uyg'otadi va begonalashuv xavfini kamaytiradi.

Milliy meros namunalaridan foydalanish yo'llari:

- Ta'lim jarayonida milliy tarix, adabiyot, san'at fanlarini chuqur o'rganish;
- Maktabdan tashqari mashg'ulotlarda milliy urf-odatlar, an'analar, hunarmandchilik bilan tanishtirish;
- Muzeylar, tarixiy obidalar, teatr va kino kabi madaniy muassasalarga tashriflarni tashkil etish;
- Ommaviy axborot vositalarida milliy merosga oid ko'rsatuvlar, eshittirishlar, maqolalar tayyorlash va tarqatish;
- Yoshlarning milliy ijodiyot bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish (to'garaklar, festivallar va hokazo).

Bugungi kunda yosh avlod duch kelayotgan eng dolzarb muammolardan biri bu begonalashuvdir. Bu holat yoshlarning o'z jamiyatidan, madaniyatidan, hatto o'zidan ham uzoqlashishiga olib kelishi mumkin[6]. Begonalashuvning ildizlari turli xil omillarga borib taqaladi.

Globalashuv jarayonida turli madaniyatlarning aralashuvi yoshlarning o'z milliy qadriyatlariga nisbatan qiziqishini susaytirishi mumkin. Ommaviy madaniyatning keng tarqalishi, xorijiy trendlarga haddan tashqari berilish o'zligini yo'qotish hissiyotini kuchaytiradi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivoji va virtual olamning kundalik hayotga chuqur kirib kelishi real ijtimoiy aloqalarni cheklab qo'yadi. Virtual muloqotning ustunligi yoshlarda yolg'izlik va jamiyatdan ajralish tuyg'usini paydo qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy notenglik, ishsizlik va adolatsizlik hissi yoshlarning jamiyatga bo'lgan ishonchini kamaytiradi. O'z kelajagiga ishonchsizlik, ijtimoiy liftlarning yetarli emasligi begonalashuvni chuqurlashtiradi.

Ta'lim tizimida milliy qadriyatlarga yetarli e'tibor berilmasligi, tarix va madaniyatni sayoz o'rganish yoshlarning o'z ildizlaridan uzoqlashishiga sabab bo'ladi. O'z o'tmishini bilmaslik kelajakka ishonch bilan qarashga to'sqinlik qiladi.

Oila muhitidagi muammolar, ota-onalarning bandligi yoki o'zaro munosabatlardagi sovuqlik farzandlarga yetarli e'tibor berilmasligiga olib keladi. Bu esa yoshlarda keraksizlik, tashlandiq hissini uyg'otadi va begonalashuvga yo'l ochadi.

Tengdoshlarning salbiy ta'siri ham yoshlarning jamiyatdan ajralishiga olib kelishi mumkin. Noto'g'ri yo'ldagi do'stlar, zararli submadaniyatlar yoshlarni umumiy qadriyatlardan uzoqlashtiradi[7].

Shaxsiy psixologik omillar, masalan, ruhiy tushkunlik, o'ziga past baho berish, introversiya kabi holatlar ham begonalashuv hissiyotini kuchaytirishi mumkin. Bunday yoshlar o'zini jamiyatdan chetda his qiladi.

Shahar va qishloq hayot tarzidagi farqlar, migratsiya jarayonlari yangi muhitga moslashishda qiyinchiliklar tug'diradi. Bu holatlar yoshlarda o'ziga xos "ikki o'rtada qolish" hissiyotini paydo qiladi.

Ommaviy madaniyatning ba'zi agressiv va zararli unsurlari yoshlarning axloqiy me'yorlardan uzoqlashishiga, iste'molchilik kabi g'oyalarga berilishiga sabab bo'ladi. Bu esa an'anaviy qadriyatlarga zid keladi va begonalashuvni kuchaytiradi.

Ushbu omillarning har biri yoshlarning begonalashuviga o'z hissasini qo'shadi va ularning o'zaro ta'siri bu jarayonni yanada murakkablashtiradi.

O'zbekistonda ham globallashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi kabi umumjahoniy tendensiyalar yoshlarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi yoshlarning axborot olish manbalarini kengaytirgan bo'lsa-da, ba'zida ularning real ijtimoiy aloqalaridan uzoqlashuviga ham sabab bo'lishi mumkin[8].

Shu bilan birga, O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga, milliy qadriyatlarni ularga singdirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimida, ommaviy axborot vositalarida bu borada faol ishlar olib borilmoqda. Turli madaniy tadbirlar, yoshlar festivallari o'tkazilib, ularda milliy meros namunalari keng targ'ib qilinmoqda.

Hukumat tomonidan yoshlarning bandligini ta'minlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash bo'yicha ham chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu ham yoshlarning jamiyatga integratsiyalashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Lekin, shunga qaramay, ayrim yoshlar orasida o'z madaniyatidan uzoqlashish, g'arb madaniyatiga haddan tashqari qiziqish kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Bu, ayniqsa, katta shaharlarda yaqqolroq seziladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi turli xil negativ ta'sirlar ham yoshlarning dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ma'naviy begonalashuvi bugungi kunda dolzarb muammo bo'lib, uning yechimida milliy merosning o'rni nihoyatda kattadir. O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosi, jumladan, "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi xalq dostonlari, Navoiy, Bobur kabi mutafakkirlarning asarlari, milliy hunarmandchilik namunalari yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish va ma'naviy immunitetini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Milliy merosni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish, madaniy tadbirlar orqali yoshlarning bu boyliklarga qiziqishini oshirish, ommaviy axborot vositalarida milliy qadriyatlarni targ'ib qilish kabi chora-tadbirlar yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish va ularni turli xil yot g'oyalar ta'siridan himoya qilishga yordam beradi. Masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlarga ekskursiyalar tashkil etish yoshlarda o'z tarixiga nisbatan faxr tuyg'usini uyg'otadi.

Shunday qilib, yoshlarning ma’naviy begonalashuvini oldini olishda milliy merosdan oqilona va samarali foydalanish davr talabidir. Bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish, mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solish va yangi innovasion usullarni joriy etish kelgusidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pirimovna T. C. IJTIMOIIY PEDAGOGIKANING NAZARIY ASOSLARI //Modern education and development. – 2025. – T. 20. – №. 1. – C. 155-160.
2. Akramov X., Raximov R. BEGONALASHUV VA TANAZZUL SOTSIOLOGIK MUAMMO SIFATIDA //Uzbekistan language and culture. – 2024. – T. 1. – №. 01.
3. Turg‘unboyev K., Tolipov M., Oxunov I. Ijtimoiy pedagogika asoslari //O‘quv qo‘llanma. Toshkent" Fan va texnologiya. – 2008.
4. Ibrohimov F. A., Fayziyev I. S. SHAXS MA’NAVIY-RUHIY BEGONALASHUVINING SHAKLLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 591-599.
5. Rahmonova S. IJTIMOIIY BEGONALASHUVNING OLDINI OLISHDA MA’NAVIY-MARIFIY ISLOHOTLARNING O‘RNI //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 1. – C. 428-435.
- 6.
7. Buriyevna A. L. INTERNET TARMOQLARINING YOSHLAR ONGIGA MA’NAVIY VA RUHIY TA’SIRI //Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2025. – T. 19. – №. 1. – C. 308-315.
8. Abduraxmonov Z. M. BEGONALASHUV MUAMMOSI JAMIYATNING INQIROZI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 12. – C. 132-137.
9. Ja’farov I. GLOBALASHUV DAVRIDA MILLIY O‘ZLIKNI SAQLASH VA MA’NAVIY QADRIYATLAR HIMOIYASI //TAMADDUN NURI JURNALI. – 2025. – T. 1. – №. 64. – C. 210-213.



УДК 001.81-13

ORCID [0000-0002-8383-0522](https://orcid.org/0000-0002-8383-0522)

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УЧЕБНО-ЯЗЫКОВЫХ ЗАДАНИЯХ И УПРАЖНЕНИЯХ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ-ПЕРЕВОДЧИКОВ

Ташкенбаев Таштемир Ташкенбаевич

Доцент кафедры «Узбек (рус) тили»

Ташкентский государственный транспортный университет

t.tashkenbaev@mail.ru

Аннотация: В работе рассматриваются различные способы интеграции ИИ в процесс обучения переводу, включая автоматизированные системы проверки качества перевода, интерактивные приложения для практики языковых навыков и инструменты для анализа текстов. Также обсуждаются преимущества и недостатки использования ИИ в обучении, такие как индивидуализация учебного процесса, повышение мотивации студентов и возможные этические и методические проблемы. Результаты исследования подчеркивают значимость ИИ как инструмента, способствующего улучшению качества подготовки будущих переводчиков.

Ключевые слова: искусственный интеллект, обучение переводчиков, учебно-языковые задания, адаптивное обучение, автоматизированные системы, интерактивные приложения, качество перевода, этические аспекты, методические проблемы.

TARJIMON TALABALARNI O'QITISH UCHUN O'QUV VA TIL TOPSHIRIQLARI, MASHQLARIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellektni tarjimani o'rganish jarayoniga integratsiyalashning turli usullari, jumladan, tarjima sifatini tekshirishning avtomatlashtirilgan tizimlari, til ko'nikmalarini mashq qilish uchun interaktiv ilovalar va matn tahlili vositalari ko'rib chiqiladi. Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari, masalan, o'quv jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan axloqiy va uslubiy muammolar haqida gapiriladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash sifatini oshirish vositasi sifatida sun'iy intellektning muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: sun'iy intellekt, tarjimonlar tayyorlash, ta'lim tili vazifalari, moslashtirilgan o'qitish, avtomatlashtirilgan tizimlar, interaktiv ilovalar, tarjima sifati, axloqiy jihatlar, uslubiy muammolar.

THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LANGUAGE TEACHING TASKS AND EXERCISES FOR STUDENTS OF TRANSLATION

Abstract: The paper examines various ways of integrating artificial intelligence into the translation education process, including automated translation quality check systems, interactive applications for practicing language skills, and tools for text analysis. It also discusses the advantages and disadvantages of using artificial intelligence in education, such as individualization of the learning process, increasing student motivation, and possible ethical and methodological issues. The results of the study highlight the importance of artificial intelligence as a tool for improving the quality of training future translators.

Keywords: artificial intelligence, translator education, educational language tasks, adaptive learning, automated systems, interactive applications, translation quality, ethical aspects, methodological issues.

ВВЕДЕНИЕ.

В современном обществе роль искусственного интеллекта (ИИ) продолжает расти, охватывая всё большее количество сфер человеческой деятельности. ИИ уже зарекомендовал себя в таких областях, как медицина, производство, маркетинг, креативные индустрии и, конечно же, образование.

К числу основных задач, решаемых ИИ, относятся распознавание речи, компьютерное зрение, перевод текстов и другие формы обработки информации[1]. В настоящее время существует множество направлений в исследовании ИИ, каждое из которых нацелено на решение конкретных задач, в том числе связанных с образованием.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ

Применение ИИ в образовательной сфере приносит множество преимуществ, среди которых ключевым является индивидуализация обучения[2]. Технологии на основе ИИ способны адаптировать образовательный процесс под уникальные потребности каждого ученика, учитывая его темпы усвоения материала и уровень знаний.

Следует отметить, что ИИ может обрабатывать большие объемы данных, что позволяет выявлять тенденции в обучении, определять эффективные методы преподавания и предсказывать возможные трудности, с которыми могут столкнуться студенты.

Для преподавателей важным преимуществом является возможность разработки собственных образовательных решений с помощью ИИ. Это не только делает процесс изучения более интерактивным, но и помогает экономить время.

Что касается нехватки времени, ИИ может взять на себя часть рутинной работы, включая детальную проверку работ студентов с предоставлением отчетов о их прогрессе и выявлении слабых мест. Это в дальнейшем поможет педагогам создавать более точные и эффективные стратегии обучения.


PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK 81-13

ORCID 0000-0002-8887-1614

ENHANCING FOREIGN LANGUAGE EDUCATION THROUGH DISTANCE LEARNING: OPPORTUNITIES, TOOLS, AND PEDAGOGICAL STRATEGIES

Dr.Nargiza Babaniyazova

Associate professor

*“Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization
Engineers” National Research University*

n.babaniyazova@mail.ru

Annotation: This article investigates the pedagogical potential and instructional design of distance learning in foreign language education. Drawing upon empirical examples from Uzbekistan and global frameworks such as the UNESCO Education 2030 Agenda, the study explores the integration of digital tools, learner autonomy, and didactic models that foster effective, inclusive, and equitable language instruction. It also analyzes the impact of AI-based applications, gamification, and learning analytics on self-regulated learning and instructional adaptability.

Key words: Distance learning, instruction, digital tools, metacognitive behaviors, pedagogical interventions.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ С ПОМОЩЬЮ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ: ВОЗМОЖНОСТИ, ИНСТРУМЕНТЫ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ

Аннотация: В данной статье исследуется педагогический потенциал и методический дизайн дистанционного обучения в иноязычном образовании. Опираясь на эмпирические примеры из Узбекистана и глобальные рамки, такие как Повестка дня ЮНЕСКО в области образования на период до 2030 года, в исследовании рассматривается интеграция цифровых инструментов, автономии учащихся и дидактических моделей, которые способствуют эффективному, инклюзивному и справедливому обучению языку. В нем также анализируется влияние приложений на основе искусственного интеллекта, геймификации и учебной аналитики на саморегулируемое обучение и адаптируемость к условиям обучения.

Ключевые слова: дистанционное обучение, инструктаж, цифровые инструменты, метакогнитивное поведение, педагогические вмешательства.

MASOFAVIY O'QITISH ORQALI CHET TILI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH: IMKONIYATLAR, VOSITALAR VA PEDAGOGIK STRATEGIYALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tili ta'limida masofaviy ta'limning pedagogik salohiyati va o'quv-uslubiy loyihasi o'rganiladi. O'zbekistonning empirik misollaridan va YUNESKOning ta'lim 2030 kun tartibi kabi global asoslardan kelib chiqib, tadqiqot samarali, inklyuziv va teng huquqli til o'qitishni rivojlantiruvchi raqamli vositalar, o'quvchilar avtonomiyasi va didaktik modellarning integratsiyasini o'rganadi. Shuningdek, u sun'iy intellektga asoslangan ilovalar, gamifikatsiya va o'quv tahlillarining o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'lim va o'qitish moslashuvchanligiga ta'sirini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: masofaviy o'qitish, o'qitish, raqamli vositalar, metakognitiv xatti-harakatlar, pedagogik aralashuvlar.

INTRODUCTION

The advancement of digital learning technologies has significantly reshaped the landscape of educational delivery, particularly within the sphere of foreign language instruction. This evolution has been further accelerated by global disruptions such as the COVID-19 pandemic, which prompted educational systems worldwide to adopt more adaptable, scalable, and inclusive teaching modalities. In areas characterized by pronounced educational inequalities—such as those found in Central Asia—distance education serves as a critical mechanism for reducing geographic and socio-economic disparities. This study explores the diverse advantages offered by digital language learning, with a particular emphasis on expanding educational access, enabling personalized instruction, and leveraging innovative technological tools.

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

Distance learning significantly broadens access to high-quality foreign language education for learners traditionally marginalized by conventional systems. It serves as a critical educational equalizer for individuals in rural or underserved regions, those with physical disabilities, full-time professionals, and adult learners with constrained schedules. Particularly in post-Soviet contexts like Uzbekistan, where urban-rural disparities in language instruction are prevalent, digital learning platforms facilitate outreach to remote communities by delivering content from qualified educators and supporting learner engagement through interactive, multimedia resources.

Asynchronous learning formats offer both spatial and temporal flexibility, allowing learners to access educational content according to their individual schedules. This adaptability is particularly valuable for individuals balancing multiple responsibilities, such as employment

or caregiving. By enabling participation in education without rigid time constraints, asynchronous models contribute to the broader global aim of promoting lifelong learning for all, as advocated in the UNESCO Education 2030 Agenda (UNESCO, 2015). These flexible approaches are especially advantageous for adult learners and women, thereby enhancing inclusivity and supporting equitable access to education.

Personalized learning pathways are another hallmark of digital foreign language education. Adaptive technologies, including intelligent content sequencing and progress tracking, allow learners to focus on individual skill development—be it grammar, vocabulary, pronunciation, or cultural competencies. Learning Management Systems (LMS) such as Moodle and Canvas provide modular structures and analytics tools that enable real-time monitoring of learner engagement, facilitating timely pedagogical interventions.

Instructional differentiation is facilitated through the use of multimodal content, which addresses the diverse cognitive preferences of learners. Visual learners, for instance, may benefit from vocabulary modules enriched with imagery, whereas auditory learners are likely to engage more effectively with audio-based resources such as podcasts and recorded dialogues. This adaptable approach not only enhances learner motivation but also supports more meaningful and autonomous engagement with the material.

The use of digital tools has become central to modern foreign language instruction, enabling rich, interactive learning environments that support all core competencies—reading, writing, listening, and speaking—while encouraging learner autonomy. LMS platforms such as Moodle and Google Classroom facilitate centralized course management and content dissemination. Features like thematic modules, multimedia integration, peer feedback systems, and synchronous chat tools foster authentic communicative practices.

Artificial Intelligence (AI)-enabled applications, such as Duolingo, Grammarly, and ChatGPT, have become integral to contemporary language education by offering adaptive and data-informed learning experiences. Leveraging natural language processing and machine learning algorithms, these tools dynamically adjust instructional content and feedback mechanisms to align with individual learner profiles. For instance, Duolingo personalizes grammar and vocabulary exercises based on user performance metrics, while Grammarly delivers instantaneous corrections and stylistic recommendations to support written language development. ChatGPT, as a generative language model, enables open-ended conversational simulations that facilitate the practice of fluency and context-appropriate language use. These AI-driven platforms not only enhance formative assessment practices but also foster learner autonomy and engagement in out-of-class learning contexts (Pérez-Paredes, 2021).

RESULTS AND DISCUSSION

Gamified learning environments and simulation-based platforms—such as Kahoot!, Wordwall, and Rosetta Stone—serve as effective pedagogical tools for enhancing learner motivation and sustained engagement through game-informed instructional design. These systems incorporate elements such as point scoring, achievement badges, leaderboards, and

contextual task-based scenarios that mimic authentic language use, including everyday communicative functions like placing an order in a restaurant or participating in a job interview. Such features closely align with the principles of Communicative Language Teaching (CLT), which prioritize functional fluency, contextual appropriateness, and learner interaction as central to language acquisition (Thorne & Reinhardt, 2008).

Dual Coding Theory (Paivio, 1986) posits that cognitive retention is significantly enhanced when information is processed through both visual and auditory channels. In language learning, multimodal instructional formats—such as synchronizing spoken input with visual animations or employing interactive tasks like drag-and-drop exercises—facilitate deeper cognitive encoding and promote more effective internalization of linguistic structures.

Simultaneously, the shift to remote education environments necessitates a heightened emphasis on self-regulated learning, particularly in the context of foreign language instruction. In the absence of structured, teacher-led classroom routines, learners must independently manage their educational trajectories. Autonomy in this setting involves the capacity to establish clear objectives, select appropriate learning strategies, monitor progress, and adjust behaviors as needed (Little, 1991). The deployment of metacognitive strategies—encompassing planning, ongoing self-assessment, and reflective analysis—plays a critical role in ensuring sustained engagement and successful language acquisition within digital learning ecosystems.

Table 1. Core Opportunities in Distance Language Learning

Core Opportunity	Description	Strategic Mechanisms	Relevance to Uzbekistan
Expanded Access & Flexibility	Reaches underserved groups including women and rural learners	Asynchronous platforms, mobile learning, recorded video content	Enhances equity and accessibility in remote or resource-poor settings
Technology-Enhanced Instruction	Enriches learning through interactive and adaptive tools	LMS (Moodle), AI tools (ChatGPT, Duolingo), gamified modules	Promotes digital literacy and instructional innovation
Learner Autonomy & Self-Regulation	Supports independent learning through self-monitoring and feedback	Analytics dashboards, self-assessment rubrics, reflective activities	Encourages responsibility and motivation in learners

Learning analytics embedded in LMS platforms enable students to visualize their own progress through performance dashboards, which foster self-monitoring and timely adjustments. These insights are equally valuable for instructors in providing personalized support and identifying disengaged learners.

Motivational elements are critical for sustaining autonomous learning. Features like progress trackers, badge systems, personalized notifications, and daily learning goals help maintain engagement. Gamification techniques reinforce both intrinsic and extrinsic motivation, particularly among adolescent learners.

Educators also play a vital role in cultivating learner autonomy by modeling metacognitive behaviors and providing scaffolded guidance. Instructional videos on time

management, reflection prompts, and tutorials on digital resource use contribute to the development of self-directed learning habits.

Access to real-world, learner-selected digital content—such as podcasts, blogs, and videos—further supports situated learning. These materials allow students to engage with the target language in contexts relevant to their interests and daily experiences.

Distance learning presents transformative possibilities for foreign language education by removing traditional barriers and fostering a learner-centered, technologically rich environment. With a focus on accessibility, personalization, and autonomy, it aligns with both international educational priorities and national development goals. The strategic use of adaptive tools, reflective practices, and multimodal content enables educators to cultivate competent, motivated, and self-directed language learners—an essential outcome for globally engaged citizens.

CONCLUSION

To sum up, by combining adaptive digital tools with evidence-based instructional strategies, educators can cultivate meaningful, long-term language competencies. These approaches align with global educational goals of equity, accessibility, and lifelong learning, and are particularly relevant in regions striving to modernize language instruction and reduce systemic barriers. Ultimately, effective distance foreign language education depends on the deliberate integration of pedagogical theory, technological design, and a commitment to learner empowerment.

REFERENCES

1. Little, D. (1991). *Learner autonomy: Definitions, issues, and problems*. Authentik.
2. Paivio, A. (1986). *Mental representations: A dual coding approach*. Oxford University Press.
3. Pérez-Paredes, P. (2021). Artificial Intelligence and Language Education. In: *Handbook of Second Language Acquisition and Technology*. Routledge.
4. Thorne, S. L., & Reinhardt, J. (2008). *Bridging activities, new media literacies, and advanced foreign language proficiency*. CALICO Journal, 25(3), 558–572.
5. UNESCO. (2015). *Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action*. Paris: UNESCO.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA-TILI FANINING BUGUNGI KUNDAGI O‘RNI

Hamrayev Ilg‘or Aktamovich

Samarqand Davlat Universiteti Urgut filiali stajyor o‘qituvchisi

Axmedova Kubaro Salohiddinnoy

Axadova Shahnoza Jafar qizi

Samarqand Davlat Universiteti Urgut filiali

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs 103-guruh talabalari

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona-tili fanining bugungi kunda tutgan o‘rni, uning o‘quvchilarning tafakkurini, nutqini savodxonligini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy o‘qitish metodlari va inovatsion yondashuvlar orqali ona-tilini samarali o‘rgatish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, ona-tili savodxonlik, inovatsion yondashuv, interfaol metod, nutq rivoji, zamonaviy ta‘lim, fanlararo integratsiya.

Аннотация: В данной статье раскрывается современное значение предмета «родной язык» в начальных классах, а также его роль в формировании мышления, речи и грамотности учащихся. Кроме того, анализируются эффективные пути преподавания родного языка с использованием современных методов обучения и инновационных подходов.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык, грамотность, инновационный подход, интерактивный метод, развитие речи, современное образование, междисциплинарная интеграция.

Annotation: This article highlights the current role of the subject "mother tongue" in primary education and its importance in developing students' thinking, speech, and literacy. It also analyzes effective methods of teaching the mother tongue through modern teaching techniques and innovative approaches.

Keywords: primary education, mother tongue, literacy, innovative approach, interactive method, speech development, modern education, interdisciplinary integration.

Kirish

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan ona-tili fani o‘quvchilarning savodxonligini, muloqot qobiliyati va tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ona-tili nafaqat yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish, balki bolalarning milliy ongini mustahkamlash, adabiy

til me‘yorlarini o‘zlashtirish, madaniy qadiryatlarga sodiqlikni oshirish vositasi hamdir. Bugungi kunda ta‘lim jarayonida ona-tili fanining o‘rni va uni o‘qitish metodikasiga innovatsion yondashuvlar tatdiq etimoqda.

Ona-tili darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlik darajasini oshirishga nutq madaniyati rivojlantirishga va og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga ijodiy tafakkurni rivojlantirishga adabiy til me‘yorlarini o‘zgartirishga xizmat qiladi. Bolalar ona-tili orqali fikrlarni aniq - ravon va gramatik jihatdan to‘g‘ri ifodalashni o‘rganadilar. Bu esa ularning boshqa fanlarni yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi.

Muhokama qism:

- Nutq ma‘daniyat
- Tovushlarni tog‘ri talaffuz qilish ;
- Gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish ;
- Yaxshi so‘zlarni tanlash va keraksiz so‘zlardan saqlanish;
- Muloqotda odob, ehtirom va to‘g‘rilikni saqlash;

So‘z boyligini kengaytirish yangi so‘zlarni tushuntirib ularni jumladan ishlatishga o‘rgatish. To‘g‘ri talaffuz qilish har bir tovush va so‘zlarni aniq aytish mashqlarni ayniqsa “SH”, “CH”, “R”, tovushlari bilan ishlashni o‘rgatish kerak. Gapni boshidan oxirigacha to‘g‘ri yozishga o‘rgatish, bolalar bir - birining fikrini tinglashni va imloviy qoidalarga rioya qilib yozishni ona-tili darslarida tushunchalar berish.

Ona-tili darslarida turli xil metodlardan foydalanib darslarni qiziqarli o‘tish va o‘quvchilarni darsga jalb qila olish.

O‘quvchilarni hayotiy vaziyatlar asosida o‘rgatiladi. Sinonim , antonim, ko‘p ma‘noli so‘zlar va yangi so‘zlar gap tuzish orqali qisqa hikoyalar she‘rlar maqollar orqali to‘g‘ri nutq faoliyatlarini rivojlantirish kerak.

Mantiqiy fikrlash va og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun o‘quvchilar bilan rasm asosida voqealarni ta‘riflab berishni shakllantirish kerak. She‘r tuzish yoki so‘z o‘yinlari: Berilgan so‘zlar asosida she‘r yaratish bolada estetik did va so‘z tanlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Bunda o‘qituvchining vazifasi :

- Erkin fikrlashga sharoit yaratish;
- O‘quvchilarning fikrini baholab rag‘batlantirish;
- Ijodiy topshiriqlar berish (she‘r yozish, ertak to‘qish, rol o‘ynash);
- Og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish.

Ona-tili faqat aloqa vositasi emas balki ijodning qurolidir. Boshlang‘ich sinfda ona-tili darslari orqali berilgan ijodiy topshiriqlar bolalarda fikrlash erkinligi, tasavvur kuchli til boyligi va muloqo ma‘daniyatini rivojlantiradi.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda ona-tilining roli va o‘rni juda muhimdir. Ona-tili bolaning fikrlashi, dunyoni anglash va o‘z ifodalarini anglash va o‘z g‘oyalarini ifodalash uchun

asosiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinflarda ona-tili orqali ijodiy tafakkur, ya‘ni yangicha fikrlash tasavvur qilish, yangi g‘oyalar yaratish qobiliyati shakllanadi.

Milliy dasturda 1-4 -sinflar bu bosqichda yangicha tizimni va mazmunni shakllantirish quyidagilar zarur:

- O‘quvchilarni qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta‘limga tabaqlashtirish yondashuvni tashkil etish;

- ta‘lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, zamonaviy o‘quv -uslubiy jarayoni didaktik jihatdan ta‘minlash va hokazo.

Ona-tili o‘qitish metodikasi boshlang‘ich ta‘lim standart belgilab bergan vazifalarini amalga oshiradi, ya‘ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish jamiyat a‘zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi.[1]

Boshlang‘ich sinflarda ona-tili fani metodikasi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

- Savod o‘rgatish metodikasi, ya‘ni elementar o‘qish va yozishga o‘rgatish;
- Og‘zaki nutqni rivojlantirish;
- Bolalarning so‘z boyligini oshirish;
- Hikoya tuzish, savol-javob, ertak aytish orqali nutqni rivojlantirish;
- O‘qish va yozishga tayyorlash;
- Harflarni to‘g‘ri talaffuz qilishga va yozishga o‘rgatish;
- Grafem (harf) va fonema (tovush) tushunchalari asosida ishlash;
- Alfabit asosida o‘qish va yozishni o‘rgatish;
- Har bir harf bilan alohida tanishtirish;
- Harflardan bo‘g‘in so‘z va gap tuzishga o‘rgatish;
- d. Mustahkamlash va takomillashtirish;
- Diktant, ko‘chirish, mustaqil yozuv ishlari orqali ko‘nikmalarni mustahkamlash;
- Matn ustida ishlash (savol-javob, mazmun aytish, so‘zlar ustida tahlil);

Bolalarga savod o‘rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan hisoblanadi. Chunki xalqning savodxonligi mustaqillik uchun, siyosiy onglik uchun, ma‘daniyat uchun kurash qurolidir.[2]

O‘qish metodikasi:

1. Bosqichma - bosqich o‘qitish:

- a. Savod o‘rgatish (harf, bo‘g‘in, so‘z va gap o‘qish);
- b. Ovozli o‘qish (to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qish);
- c. Ichki o‘qish (matnni jim holda tushunib o‘qish).

2. O‘qish malakalarini shakllantirish metodlari:

- a. Matnni takror - takror o‘qish;
- b. So‘z boyligini oshirish ishlari;
- c. Savol - javob usuli orqali matn tahlili;

- d. Rasm asosida hikoya tuzish.
- 3. Innovatsion metodlar:
 - a. Klaster usuli–asosiy g‘oyani atroflicha tahlil qilish;
 - b. Insert texnologiyasi – belgilar orqali o‘qilgan matnni tahlil qilish;
 - c. Sinkveyn – matn asosida 5 iborat she‘r tuzish;
- 4. O‘quvchining yoshi va individual xususiyatlariga mos yondashuv:
 - a. Rag‘batlantirish (quvnoq topshiriqlar, o‘yinli metodlar);
 - b. Guruhlarda ishlash orqali faol ishtirokni ta‘minlash.[3]

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish predmitining vazifasi bolalarni to‘g‘ri, tez (me‘yorida) ongli va ifodali o‘qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

- 5. Grammatika, fonetika, so‘z yasallishini o‘rganish metodikasi:
 - a. Grammatika (so‘zlar tuzilishi va o‘zgarishi);
 - b. So‘z turkumlari: ot, fe‘l, sifat (sodda misollar bilan);
 - c. Gap tuzish: ega + kesim (oddiy gaplar bilan ishlash);
 - d. So‘zlarning son va kelishikdagi o‘zgarishi (avval faqat birlik–ko‘plik).
- 6. Metodik usullar:
 - a. Rangli kartochkalar orqali so‘z turkumlarini ajratish;
 - b. Gap tuzish o‘yinlari: “So‘zdan gap tuz”;
 - c. Rasm asosida gaplar tuzish;
 - d. Fonetika (tovushlar haqida fan).
- 7. Boshlang‘ich tushunchalar:
 - a. Harf va tovush farqi (harf yoziladi, tovush eshitiladi);
 - b. Tovushlar turlari: unli va undosh;
 - c. So‘z nechta tovushdan iboratligi (tahlil qilish).

Metodik yondashuvlar:

- a. Tovushni eshitib topish (masalan: "olma" so‘zida nechta tovush bor?);
- b. Rasmga qarab so‘z aytish va tovush tahlili;
- c. O‘yinli mashqlar: “Tovushni top”, “So‘z tugat”, “Qaysi harf bilan boshlanadi?”;
- d. So‘z yasallishi
- e. So‘z yasovchi qo‘shimchalar (kitob + chi, o‘qit + uvchi);
- f. Tub so‘z va yasalma so‘zni farqlash.

Metodik yondashuvlar:

- Yasalgan so‘zlarni rasm orqali tushuntirish;
- O‘yinlar: “Yangi so‘z yasaymiz!”, “So‘zga qo‘shimcha qo‘sh”;
- So‘z daraxti usuli – asosiy so‘zdan yangi so‘zlar chiqazish;
- Bu bo‘lim elementar to‘g‘ri yozuvga va husnixatga o‘rgatishni, grammatik tushunchalar, boshlang‘ich imlo malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

- 8. Nutq o‘stirish metodikasi.

- To‘g‘ri talaffuzni shakllantirish;
- So‘z boyligini oshirish;
- Matnni tushunish va uni qayta ifodalash;
- Mustaqil fikrlash va izchil gapira olish;
- Og‘zaki nutqni rivojlantirish;
- Rasm asosida hikoya tuzish;
- Dialog va rolli o‘yinlar;
- Savol - javoblar orqali fikr bildirishga o‘rgatish;
- Topishmoq, maqol ertaklardan foydalanish;
- Yozma nutqni rivojlantirish;
- So‘zlardan gap tuzish;
- Gapdan matn tuzish;
- Matnni davom ettirish yoki qayta hikoya qilish;
- Xat yozish, tabrik yozish, kichik matnlar tuzish;
- So‘z boyligini oshirish ishlari (kartochkalar, rasmlar lug‘atlar);
- So‘zlar bilan gap tuzish (gaplar qurish);
- Gaplarni matnga birlashtirish (bog‘lovchi so‘zlardan foydalanish);
- Matnli ishlov (hikoya qilish, tahlil qilish, qayta tuzish);[5]

Xulosa

Bu bo‘lim boshlang‘ich sinflarda alohida o‘rin tutadi. Bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni o‘quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o‘ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar. Ular o‘zining grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham og‘zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni ham egallaydilar. Metodika bolalar nutqini boyitishi, sintaktik va bog‘lanishli nutqini o‘stirishni ham ta‘minlashi kerak. Shuni aytib o‘tish kerakki, bog‘lanishli nutq maktablarda alohida bo‘lim sifatida o‘rganilmaydi, u til fanining boshqa bo‘limlari bilan bog‘langan holda shakllantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sariyev Sh. Savod o‘rgatish darslarida nutq o‘stirish. "Boshlang‘ich ta‘lim" jurnali № 4. - Toshkent, 1997.
2. Babanskiy Yu. K. Hozirgi zamon umumiy ta‘lim maktabida o‘qitish metodlari. - T: O‘qituvchi, 1990.
3. G‘afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. Alifbe (Savod). - T.: O‘qituvchi, 1999.
4. Yu. K. Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta‘lim maktabida, o‘qitish metodlari. Toshkent. "Oqituvchi" 1990 yil.
5. M. Mahmutov. Maktabda muammoli ta‘limni tashkil qilish. Toshkent. "Oqituvchi" 1981 yil.



MATEMATIKA DARSLARIDA TADQIQOTGA ASOSLANGAN TA’LIM

Kudratova Aziza Ismatillayevna
Samarqand viloyati pedagogik
mahorat markazi, dotsent
(azizaqudratova1981@gmail.com)

Annotatsiya. Tadqiqotga asoslangan ta’lim (TAT) – bu o‘quvchilarning mustaqil izlanish, muammolarni hal qilish va ilmiy-tadqiqot metodlari orqali bilim olish qobiliyatini rivojlantiruvchi yondashuvdir. Mazkur maqolada TAT metodikasining matematik ta’limdagi ahamiyati, samaradorligi va qo‘llash usullari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xalqaro tajribalar va mahalliy tadqiqotlar asosida ushbu metodikaning natijalari hamda takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: tadqiqotga asoslangan ta’lim, matematika darsi, ilmiy-tadqiqot metodlari, o‘quv jarayoni, ijodiy fikrlash.

Аннотация. Обучение на основе исследований (IBL) — это подход, который развивает у учащихся способность приобретать знания посредством самостоятельного изучения, решения проблем и исследовательских методов. В статье дается научный анализ важности, эффективности и применения методологии обучение на основе исследований в преподавании математики. Результаты этой методологии и пути ее совершенствования будут рассмотрены на основе международного опыта и национальных исследований.

Ключевые слова: исследовательское образование, урок математики, методы исследования, процесс обучения, творческое мышление.

Abstract. Inquiry-based learning (IBL) is an approach that develops students' ability to acquire knowledge through independent study, problem solving, and research methods. The article provides a scientific analysis of the importance, effectiveness, and application of the inquiry-based learning methodology in teaching mathematics. The results of this methodology and ways to improve it will be considered based on international experience and national research.

Keywords: inquiry-based education, mathematics lesson, research methods, teaching process, creative thinking.

KIRISH

Zamonaviy ta’limda o‘quvchilarning mustaqil izlanish, muammolarni hal qilish va chuqur tushunish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotga asoslangan

ta'lim (TAT) metodikasi bu jarayonda o'quvchilarga ilmiy-tadqiqot metodlarini o'rganish, savollar berish va natijalarni tahlil qilish imkonini yaratadi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, TAT o'quvchilarning mustaqil fikrlash va analitik qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi [1].

O'zbekiston ta'lim tizimida ham ushbu metodikadan foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda. Samarqand, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, TAT metodidan foydalangan o'quvchilarning matematik masalalarni yechish qobiliyati 25-30% ga oshgan [2]. Ushbu maqolada matematik ta'limda TAT usulining samaradorligi, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ta'siri hamda amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanilgan:

Tadqiqotga asoslangan ta'lim bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;

O'zbekiston va xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili;

O'quvchilarning TAT asosida o'zlashtirish darajasini empirik o'rganish;

Tadqiqot metodlarini matematik ta'limga integratsiya qilish tajribalarini tahlil qilish.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, TAT metodikasi ta'lim jarayonida samarador bo'lishi uchun quyidagi tamoyillar muhim ahamiyatga ega [3]:

Tadqiqot jarayonini tashkil qilish – O'quvchilarga ilmiy tadqiqot bosqichlarini tushuntirish, muammoli vaziyat yaratish. Masalan, "Kvadrat tenglamalar amaliyotda qanday ishlatiladi?" mavzusida o'quvchilar real hayotiy masalalar asosida o'z tadqiqotlarini olib borishadi.

Tadqiqot topshiriqlarini ishlab chiqish – Matematik nazariya va amaliyotga asoslangan masalalarni taklif qilish. Masalan, o'quvchilar transport tizimidagi optimal marshrutlarni hisoblash orqali yoqilg'i sarfini kamaytirish usullarini ishlab chiqishadi.

Tadqiqot jarayonida muhokama va fikr almashish – O'quvchilar o'rtasida muhokama tashkil etish. Masalan, statistikaga oid: "Iqlim o'zgarishining 10 yillik harorat o'zgarishiga ta'siri qanday?"

Natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish – Olingan natijalarni amaliyotga tatbiq qilish. Masalan, foizlar mavzusida bank kreditlarini tahlil qilish va eng qulay moliyaviy qarorlarni ishlab chiqish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, TAT usuli o'quvchilarning quyidagi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi:

Mustaqil izlanish va muammolarni hal qilish – O'quvchilar real hayotiy masalalarni tahlil qilish orqali bilim oladi. Misol: Toshkent shahridagi akademik litseylar o'quvchilari iqtisodiy tahlillar orqali pul birligi qiymatining inflyatsiya ta'sirini o'rgandilar.

Matematik tushunchalarni chuqur o‘zlashtirish – Masalan, Farg‘ona viloyatida olib borilgan tadqiqotga ko‘ra, geometriya mavzularida real obyektlarning hajmini hisoblash bo‘yicha loyihalar o‘quvchilarning maktab baholarini 20% ga oshirishga yordam bergan [4].

Analitik va tanqidiy fikrlash – O‘quvchilar eksperimental natijalarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradilar. Masalan, statistik tahlil asosida mahalliy iqlim sharoitlarining dehqonchilik hosildorligiga ta’siri o‘rganildi.

TAKLIFLAR

Tadqiqotga asoslangan ta’lim metodikasini matematik ta’lim dasturlariga chuqurroq integratsiya qilish – O‘quv dasturlarida tadqiqotga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar sonini oshirish.

Matematika o‘qituvchilari uchun TAT bo‘yicha maxsus treninglar tashkil qilish. Pedagoglarni TAT usullarini qo‘llashga tayyorlash.

Tadqiqotga asoslangan ta’limni joriy qilish uchun o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish. Xususan, loyihaviy ishlarni moliyalashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish.

XULOSA

Tadqiqotga asoslangan ta’lim (TAT) matematik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil izlanish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali metodikadir. Ushbu maqolada xalqaro va mahalliy tadqiqotlar asosida TAT metodining afzalliklari va qo‘llash usullari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, TAT metodining matematik ta’limda keng qo‘llanilishi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, analitik va tanqidiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-Based Learning: Educational Psychology Review, 16(3), 235-266.
2. OECD. (2019). PISA 2018 Results (Volume I). Paris: OECD Publishing.
3. Boaler, J. (2016). Mathematical Mindsets. Jossey-Bass.
4. Karimov, A. (2022). Tadqiqotga asoslangan ta’lim metodikasi bo‘yicha tajribalar. Toshkent: Ilmiy Nashrlar.



UDK: 37.012.8

ORCID:0009-0000-1025-3085

SHAXS QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLARI

Bo‘taev Ahmadali Ashirovich,

*Qo‘qon davlat universiteti, Texnologik ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi
axmadali@gmail.com. Tel.: +99890-556-21-68*

Annotatsiya. Maqolada shaxs qiziqishlari, uning shakllanishi, uzviyligi hamda unga ta‘sir etuvchi pedagogik va psixologik omillar o‘rganish asosiy muammo sifatida o‘rganilgan. Qiziqishga ta‘rif berishda bir nechta yo‘nalish mavjud. “Qiziqish” so‘zining o‘zak qismi ko‘pincha “maroqli”, “ajoyib”, “yoqimli” kabi ma’nolarda ham ishlatiladi. Masalan: “qiziq spektakl”, “maroqli roman”, “ajoyib manzara”, “yoqimli inson” va hokazo. Bunday ma’noda tushuniladigan qiziqish *bevosita qiziqish* deb yuritiladi. Bu xildagi qiziqish asosan, kishidagi ixtiyoriy diqqat protsessida ro‘y beradi va u kishining individual xususiyatlari tarkibiga kirmaydi. Qiziqish ko‘proq innovatsiya bor joyda paydo bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Qiziqish, maroq, shaxs, shaxs qiziqishi, qiziqishlarni boshqarish, qiziqishlar uyg‘unligi, Barqaror qiziqish, Individual qiziqish, Intellectual (aqliy) qiziqishlar

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕРЕСОВ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В статье исследуются интересы личности, ее формирование, преемственность, а также педагогические и психологические факторы, влияющие на изучение как основная проблема. Существует несколько направлений в определении интереса. Основная часть слова “интерес” также часто используется в таких значениях, как “интересно”, “круто”, “приятно”. Например: “интересная пьеса”, “интересный роман”, “чудесный пейзаж”, “милый человек” и т.д. Интерес, понимаемый в таком смысле, называется прямым интересом. Интерес такого типа возникает в основном в процессе произвольного внимания у человека и не входит в состав индивидуальных особенностей этого человека. Интерес возникает там, где больше инноваций.

Ключевые слова: интерес, интересный, личность, индивидуальный интерес, управление интересами, сочетание интересов, устойчивый интерес, индивидуальный интерес, интеллектуальные (умственные) интересы.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE FORMATION OF PERSONAL INTERESTS

Annotation. The article explores the interests of a personality, its formation, continuity, as well as pedagogical and psychological factors that influence learning as the main problem. There are several directions in determining the interest. The main part of the word “interest” is also often used in such meanings as “interesting”, “cool”, “pleasant”. For example: “an interesting play“, “an interesting novel“, “a wonderful landscape“, “a nice man”, etc. Interest, understood in this sense, is called direct interest. This type of interest arises mainly in the process of voluntary attention from a person and is not part of the individual characteristics of this person. Interest arises where there is more innovation.

Key words: interest, interesting, personality, individual interest, interest management, combination of interests, sustainable interest, individual interest, intellectual (mental) interests.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgach ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilishi, tizimdagi ishlarning shaklan va mazmunan modernizatsiyalashuviga sabab bo‘layotganligi bois shaxs kamolotida pedagogik va psixologi aspektlarni qaytadan kurib chiqish, mos keluvchi jihatlarini ilmiy tahlil etishga yunaltirmoqda[1]. Kuzatish va tahlillarimizdan shu narsa ma’lum bo‘ldiki “Qiziqish” psixologiya va pedagogika fanlari tomonidan juda keng o‘rganilgan muammolardan hisoblanadi. Shunga qaramasdan, “qiziqish” shaxs ruhiyatining alohida “jumboqli” hodisalaridan biri sifatida hukm surishda davom etib kelinayotganligi tanlangan va analiz qilinayotgan tadqiqotning nechog‘lik dolzarb ekanligiga dalolat berishi shubhasiz. Xususan, hozirga qadar ham “qiziqish” hodisasining barcha tadqiqotchilar tomonidan yakdillik bilan qabul qilingan yagona ta’rifi mavjud emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

“Qiziqish” muammosiga oid adabiyotlar va ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, unga ta’rif berishda bir nechta yo‘nalish mavjudligi bor.

Qiziqish tushunchasining ta’riflanishiga bag‘ishlangan adabiyotlardagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, “qiziqish” murakkab va bir jinsli bo‘lmagan tushunchadir. Biz qiziqishning ehtiyoj turlaridan biri ekanligi to‘g‘risidagi fikrlarga qo‘shilamiz. Ya’ni, qiziqish – bu faoliyatga aniq mo‘ljallanganligi bilan ifodalanadigan, anglanilgan, hodisa va narsalarga bog‘liq ehtiyojdir. [3]

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Endi qiziqishning turlari bilan tanishib o‘taylik.

“Qiziqish” so‘zining o‘zak qismi ko‘pincha “maroqli”, “ajoyib”, “yoqimli” kabi ma’nolarda ham ishlatiladi. Masalan: “qiziq spektakl”, “maroqli roman”, “ajoyib manzara”, “yoqimli inson” va hokazo. Bunday ma’noda tushuniladigan qiziqish *bevosita qiziqish* deb yuritiladi. Bu xildagi qiziqish asosan, kishidagi ixtiyoriy diqqat protsessida ro‘y beradi va u kishining individual xususiyatlari tarkibiga kirmaydi.

Barqaror qiziqish shaxsning o‘z diqqat-e’tiborini muayyan narsaga, voqelik va hayotning muayyan sohasiga, muayyan bir faoliyatiga birmuncha uzoq vaqt va barqaror jalb etishida, jumladan, kishining uni qiziqtirgan narsani bilib olish, shu narsani o‘ziga yaqinlashtirish va uni egallab olish uchun muntazam ravishda intilishida yaqqolroq ko‘zga tashlanadi.

Qiziqishlar juda turli-tuman bo‘lsada, lekin har bir alohida shaxs aniq bir narsa yoki hodisaga, turmushning birorta qirrasini yoki faoliyatning aniq bir turiga nisbatangina qiziqishga ega bo‘ladi. Bunday qiziqishning mavjud bo‘lishligi shaxsning individual xususiyatini tashkil etadi.

Individual qiziqish – kishining o‘z hayotida, dunyoda ma’lum bir narsani eng muhim, eng qimmatli deb bilib, shu narsaga erishmoq uchun intilishidir.

Shaxsning asosiy hayot yo‘li, aynan, individual qiziqishlarda namoyon bo‘ladi. Qiziqishning bu turi shu qiziqish egasining uni qiziqtirgan narsani eslaganida har doim yoqimli hissiyot og‘ushida bo‘lishida, o‘sha narsa va u bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar haqida ko‘proq gapirishga moyilligida kuzatiladi. Bunday qiziqish kishining butun diqqat e’tiborini o‘sha – uni qiziqtirgan narsaga qaratishida, o‘sha narsaga nimaiki yaqin aloqador bo‘lsa, uni tez-tez esga olaverishida, xayolining hadeb o‘sha narsa tevaragida aylanaverishida, butun fikru-zikrining o‘sha – uni qiziqtirgan narsa bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar girdobiga tushib qolishida ifoda topadi. [4]

Individual qiziqishni kishidagi diqqatning individual xususiyatlari bilan yoki his-to‘yg‘ulari bilan, yoki undagi orzu, intilishlar bilan aynan bir narsa deb tushunish kerak emas. Qiziqish – shaxsning individual xususiyati bo‘lib, undagi diqqat-e’tiborning real olamdagi muayyan bir sohaga muttasil qaratilishidir. Lekin kishidagi bu xil qiziqish uning diqqat e’tiborida ham, hissiyotlarida ham, intilishlarida ham, fikrlarida ham, faoliyatlarida ham namoyon bo‘lib turadi.

Qiziqish hammadan ko‘ra ko‘proq kishining kasbi, ixtisosi bo‘yicha qiladigan mehnati, o‘qishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Individual qiziqishlar bilan birga insonga yana *ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy qiziqishlar* ham xosdir.

Odamlardagi qiziqishlarni turlarga ajratishda ularning mazmuniga qaratiladi. Qiziqishning mazmuni esa keng ma’noda olingan voqelikdagi aynan qanday narsalar yoki soha bilan qiziqilayotganligiga bog‘liq bo‘ladi va shular bilan belgilanadi. Kishilarning turli-tuman mazmundagi qiziqishlari ulalarning ijtimoiy qimmatiga qarab *ijobiy* yoki *salbiy qiziqish* deb baho baholanadi.

Kishining individualligi unda ijtimoiy qiziqishlarning mavjudligi bilangina emas, balki ana shu ijtimoiy qiziqishlarning undagi shaxsiy qiziqishlar bilan naqadar bog‘liqligi bilan ham belgilanadi. Kishining shaxsiy qiziqishlari uning ijtimoiy qiziqishlari bilan mos tushsa, bunday shaxsning ma’naviy hayoti ko‘rkam kechadi.

Intellektual (aqliy) qiziqishlar yuksak, ijobiy qiziqishlar turiga kiradi. Bunday qiziqish egalari uchun o‘z hayotlarida eng muhim narsa – fan bilan mashg‘ul bo‘lish, kerakli nazariy va amaliy masalalarni hal etishdir.

Estetik qiziqishlarning egalari uchun eng asosiy narsa san‘at va unga xizmat qilish, qimmatbaho san‘at asarlari yaratishdir.

Salbiy qiziqishlarning egalari bo‘lib qolgan odamlar uchun eng muhim narsa ovqat yeyish, ichish, uxlash va umuman nuqul nafsini qondirishdan iborat bo‘ladi. Odamlarning yana bir toifasi borki, ular shaxsiy boylik pul yig‘ish, dunyo to‘plashga qiziqishadi. Bunday odamlar o‘zlarining eng zarur ehtiyojlarini qondirishdan ham voz kechib, yemay, ichmay, kiyinmay, faqat dunyo to‘plashga, mol yig‘ishga harakat qilishadi.

Odamlar o‘zlaridagi qiziqish doirasining keng yoki tor bo‘lishiga qarab ham bir-birlaridan farq qiladilar. Faqat birgina narsaga qiziqish bilan cheklanib, boshqa narsalarga e‘tibor bermaydigan odamlarni *qiziqish doirasi tor kishilar* deb ataladi.

Ko‘plab sohalarga qiziqadigan kishilarning qiziqish doirasi xilma xil va keng bo‘ladi. Shunday bo‘ sada, bunday kishilarda, birgina qiziqish asosiy, markaziy o‘rinni egallab turadi. Qiziqishlar doirasining keng va xilma-xil bo‘lishi shu qiziqishlarning yuksak va chuqur mazmundaligi bilan bog‘liqdir. Yuksak qiziqishlarga berilib yashaydigan kishilarning qiziqish doirasi keng va xilma-xil bo‘ladi.

Ayni bir xildagi qiziqishlarning kuchi turli kishilarda turli darajada bo‘ladi. *Kuchli qiziqish* kuchli hissiyotlar bilan bog‘liq bo‘lib, u kishida ehtiros tarzida namoyon bo‘ladi. Kishidagi kuchli qiziqish chidam, sabr-toqat va sabotlilik singari iroda sifatleri bilan bog‘langan bo‘ladi.

Muayyan bir darajadagi kuch bilan belgilangani holda yana kishilarda *barqaror qiziqishlar* farq etiladi. Shunday kishilar bo‘ladiki, ulardagi qiziqishlar doimiy bo‘lib, umrbod saqlanib qoladi. [5]

Ba‘zi odamlar bir narsaga juda qattiq qiziqadilar, kuchli, zo‘r havas qo‘yadilar, lekin ulardagi qiziqish-havaslar uzoq davom etmaydi; bunday odamlarda biron narsaga, biron faoliyatga bo‘lgan zo‘r qiziqish o‘rnini darrov boshqa bir xil va shunday zo‘r qiziqish egallaydi. Bunday kishilarning qiziqishlari tez o‘zgarib turadi. Bunday oldamlarning qiziqishlari *ishqibozlik* deb yuritiladi.

Har bir kishida u yoki bu turdagi qiziqishning so‘zsiz mavjud bo‘lishi shuni ko‘rsatadiki, kishi shaxs sifatida faqat shu bugungi hayotni yashab o‘tkazish bilangina ovora bo‘lib qolmasdan, balki istiqbol bilan ham qiziqadi. Kishidagi qiziqishlar uning dunyoqarashi, e‘tiqodi va ideallari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Qiziqishlari pastkash yoki tuturiqsiz bo‘lgan odamlarning ma‘naviy hayoti mazmunsiz va betayin bo‘ladi. Bunday odamlar o‘zlarining nima uchun yashayotganliklarini, ko‘pincha, o‘zlari ham bilmaydilar. Kishidagi qiziqishlarning susayib yoki yo‘qolib ketishi uning aqlini ham pasaytirib qo‘yadi, faoliyatini susaytirib yuboradi va boshqa ma‘naviy fazilatlariga putur yetkazadi, kishini bekorchilikka moyil, yalqov qilib qo‘yadi. Bular bo‘sh qolgan vaqtlarida

nima bilan mashg‘ul bo‘lishlarini bilmay, zerikadilar yoki vaqtni o‘tkazadigan biron bekorchi ermak topishga urinadilar.

Muayyan olijanob qiziqishlarga ega bo‘lgan kishilar har doim tetik, faol bo‘ladilar. Bunday kishilarning hayoti ma’noli va sermazmun bo‘ladi.

Shaxsning individual xususiyati bo‘lgan qiziqishlar uning barcha psixik jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Kishining bir talay xarakter xislatlari ham, shuningdek qobiliyatlarining o‘sishi ham ma’lum darajada undagi qiziqishlar bilan belgilanadi.

Kishidagi qiziqishlar uning barcha psixik jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Kishidagi idrok etish, esda qoldirish, esga tushirish, xayol, tafakkur va iroda jarayonlari qiziqish orqali faollashadi. Qiziqishlar esda qoldirishning tez va mustahkam bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi. Qiziqishlar kishi diqqatining kuchli va barqaror bo‘lishiga yordam qiladi, undagi tuyg‘u hissiyotlarning, shuningdek bevosita qiziqishning ham kuchli va barqaror bo‘lishiga yordam beradi.

Qiziqishlar kishi tomonidan mehnat faoliyatining yuritilishida juda katta ahamiyatga ega. Qiziqishlar kishi faoliyatini rag‘batlantiradi, uning g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shib, tashabbus ko‘rsatishga, faol harakat qilishga, ijod etishga va yangiliklar yaratishga yo‘llaydi. Qiziqishlar kishining kuch-quvvatini oshiradi. Kishining qiziqishlariga mos keladigan ishlar tezroq, osonroq va unumliroq bajarilishi tadqiqotchi P.I.Ivanov tomonidan keltirilgan.

Qiziqish ko‘proq innovatsiya bor joyda paydo bo‘ladi. Masalan, yangi ermak, yangi ish, rivojlanishning yangi imkoniyati.

Qiziqishning paydo bo‘lishi, o‘sishi va barqarorlashuvi, ya’ni odatga aylanishida quyidagi omillar ko‘mak beradi:

- rivojlanish uchun qulay sharoitlarning yaratilgan bo‘lishligi. Masalan, yangi ish sodda, yangi ashyo tushunarli bo‘lishi kerak;

- yangilikni va istiqbolni namoyish etishlik;

- jarayonga “bezak berishlik”, unga ermak unsurlarini kiritishlik;

- hal etishi uchun kishining qurbi yetadigan darajadagi murakkablikda yangi masalalar berish;

- yutuqni his etish xususiyatini mustahkamlash.

Quyidagidek hollarda qiziqish so‘nadi, barham topadi:

- topshiriq haddan ziyod murakkab va tushunarlimas. Bunday hol, ayniqsa, o‘quvchilar tomonidan nimaningdir tushunilmaganligida yoki avvalgi darslarning qoldirib yuborilganligida ko‘proq kuzatiladi;

- rivoj yo‘q;

- yangilik yaratishning, masalalarni nostandart yo‘llar bilan hal etishning yoki ijodkorlik qilishning iloji yo‘q;

- hamma narsa bir moromda, birdek zerikarli.

Keksayish va salomatlikning izdan chiqishi bilan bog‘liq ravishda qiziqishlar so‘nib boradi va barham topadi.

XULOSA.

Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra qiziqish tushunchasi inson omili bilan bog‘liq bo‘lganligi bois ta‘lim va tarbiyani rivojlantirishda pedagogik va psixologik jihatdan uzviy tartibda tizimli va unumli foydalanish samara beradi.

O‘quvchilarning qiziqishlarini erta aniqlash va ularni qiziqishlari bo‘yicha fanlarga hamda kasb-hunarga yo‘naltirish ta‘lim-tarbiya jarayonida muhim ahamiyat egallaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent, 1997 y., 29 avgust №463-1 (Law of the Republic of Uzbekistan "On Education". Tashkent, 1997, August 29, No. 463-1.).
2. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». Toshkent, 1997 y., 29 avgust №463-1 ("National Personnel Training Program" of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, 1997, August 29, No. 463-1).
3. M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lug‘ati, Toshkent 1998. (M.G. Davletshin. "Psychology", Explanatory Dictionary, Tashkent 1998).
4. M.G.Davletshin va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: [Tarbiyachi](#), 1997. -134 b (M.G. Davletshin and others. Ability and its diagnostics. – T.: Tarbiyachi, 1997. - 134 p.).
5. S.Nishonova. Sharq Uyg‘onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi. Ped. fan. Dokt.diss. -T., 1998 –B.42 (S. Nishonova. The development of pedagogical thought in the period of the Eastern Renaissance: the upbringing of a harmonious person. Ped. science. Doctoral dissertation. -T., 1998 –B.42)
6. N.A.Muslimov va boshqalar. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. Uzluksiz malaka oshirish yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv materiallari. –T., 2009. 12. Ochilov M. Muallim qalb me‘mori. – T.: O‘qituvchi, 2000. (N.A. Muslimov and others. Professional qualifications and pedagogical skills. Educational materials in the direction of continuous professional development. –T., 2009. 12. Ochilov M. Teacher - architect of the soul. – T.: O'qituvati, 2000.)
7. E.G‘oziyev. «Umumiy psixologiya», 2–kitob, Toshkent, 2004. (E.Goziev. "General Psychology", 2nd book, Tashkent, 2004).



МОТИВАЦИЯ СТУДЕНТОВ К ОБУЧЕНИЮ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Г.Х.Абдумаликова

Узбекский Государственный Университет
Физической Культуры и спорта
кафедра узбекского и иностранных
языков старший преподаватель
Email: guzalabdumalikova970@gmail.com

Аннотация В статье рассматриваются различные аспекты мотивации студентов к обучению. Раскрываются внутренние и внешние мотивационные факторы, влияющие на учебную деятельность, а также даются рекомендации по формированию устойчивой учебной мотивации. Подчеркивается роль преподавателя в создании благоприятной образовательной среды. Также проанализированы современные подходы к формированию мотивации в условиях цифровизации образования.

Ключевые слова: мотивация, студенты, обучение, учебная деятельность, педагог, цифровизация, интерактивные технологии

Annotatsiya Maqolada talabalarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi masalalari ko‘rib chiqiladi. Ichki va tashqi motivatsion omillar tahlil qilinadi hamda barqaror o‘quv motivatsiyasini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Pedagogning qulay ta’lim muhitini yaratishdagi roli alohida ta’kidlanadi. Maqolada, shuningdek, raqamlashtirish sharoitida motivatsiyani shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, talabalar, o‘qish, o‘quv faoliyati, pedagog, raqamlashtirish, interaktiv texnologiyalar

Annotation The article explores various aspects of student motivation in learning. It discusses internal and external motivational factors and provides recommendations for fostering sustainable academic motivation. The role of the teacher in creating a positive educational environment is emphasized. The paper also analyzes modern approaches to developing motivation in the context of digitalization of education.

Keywords: motivation, students, learning, academic activity, teacher, digitalization, interactive technologies

Введение В условиях модернизации системы высшего образования особую актуальность приобретает проблема повышения мотивации студентов к учебной

деятельности. Мотивация как психологическое явление играет ключевую роль в формировании активной и целеустремлённой личности. Эффективная учебная мотивация напрямую связана с качеством усвоения знаний и успешностью профессионального становления будущих специалистов. Особенно важно учитывать, что современные студенты — это представители поколения, активно использующего цифровые технологии. Поэтому подходы к формированию мотивации должны учитывать изменения в образовательной среде, методы коммуникации и особенности восприятия информации.

1. Понятие мотивации и её виды Мотивация — это совокупность внутренних и внешних факторов, побуждающих человека к действию. В контексте обучения выделяются два основных типа мотивации: - внутренняя мотивация — интерес к самому процессу обучения, стремление к саморазвитию, получению знаний; - внешняя мотивация — стремление получить хорошие оценки, диплом, одобрение преподавателей, обеспечить успешную карьеру. Важно отметить, что внутренняя мотивация считается более устойчивой и продуктивной, так как она стимулирует не только усвоение знаний, но и развитие критического мышления, самостоятельности, творческого потенциала.

2. Факторы, влияющие на мотивацию студентов

O‘zbekistonning bir qator akademik litseylari va umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida biologik jarayonlarni tasvirlash uchun "BioDigital" va "PhET" singari platformalardan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. “Kelajak uchun raqamli ta‘lim” loyihasi doirasida tajriba maktablarida o‘quvchilar interaktiv doskalar yordamida inson qon aylanish tizimi yoki o‘simlik hujayralarining tuzilishini o‘rganadilar va interaktiv topshiriqlar orqali bilimlarini mustahkamlaydilar. Bundan tashqari, "Bilim Makoni" kabi mobil ilovalar o‘zbek va rus tillarida biologiya bo‘yicha asosiy viktorinalar va eslatma kartochkalarni taqdim etib, darsdan tashqari ta‘limni qo‘llab-quvvatlaydi.

Raqamli vizualizatsiya vositalari o‘quvchilarga DNK replikasiyasi, oqsil sintezi yoki hujayra nafas olishi kabi mavhum jarayonlarni tushunishda yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, animatsiyalar va interaktiv modellar statik darslik diagrammalariga nisbatan biologik mexanizmlarni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga olib keladi (Yarden va Yarden, 2011). Ba’zi hududlardagi biologiya o‘qituvchilari o‘quvchilarga moslashtirilgan o‘zbek tilidagi YouTube videodarslar, animatsiyalar va o‘rgatuvchi kontentlarni tayyorlab, raqamli ta’limga ijobiy hissa qo‘shmoqda. Farg‘ona viloyatidagi bir nechta maktablarda ham biologiyaga oid interaktiv platformalar joriy etilgan bo‘lib, ular orqali o‘quvchilar laboratoriya sharoitlarisiz tajriba o‘tkazishni o‘rganmoqdalar.

Ta’limiy dasturiy ta’minotdan foydalanish shakllantiruv baholashni ham osonlashtiradi. Kahoot va Quizizz kabi vositalar o‘quvchilarga darhol teskari aloqa beradi va faol ishtirokni rag‘batlantiradi. Bu esa tabiiy fanlar bo‘yicha yuqori akademik natijalarga erishish bilan bog‘liq (Wang, 2015). Ba’zi ilg‘or maktablarda biologiya fanini takrorlash va baholash jarayonida ushbu platformalardan muntazam foydalaniladi, bu esa sinfda raqobatli, biroq qiziqarli muhitni yaratadi.

Sun‘iy intellekt biologiya darsxonasiga shaxsiylashtirish va moslashuvchanlikning yangi darajasini olib kirmoqda. AI-ga asoslangan platformalar o‘quvchilarning o‘rganish uslublarini tahlil qilib, mazmunning murakkabligini yoki turini shunga mos ravishda o‘zgartirishi mumkin. Bu, ayniqsa turli qobiliyat darajalariga ega bo‘lgan sinflarda tabaqalashtirilgan ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi. Misol uchun, aqlli o‘qitish tizimlari o‘quvchilarning javoblariga asoslanib maslahatlar va tushuntirishlar beradi.

O‘zbekistonning ayrim maktablarida, jumladan Farg‘ona viloyatidagi eksperimental sinflarda ham, sun‘iy intellektga asoslangan o‘quv platformalari sinovdan o‘tkazilmoqda. Bu platformalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini kuzatib boradi va biologiyaning genetika yoki ekologiya kabi bo‘limlari bo‘yicha avtomatlashtirilgan mashg‘ulotlar taklif etadi. “Smart Dars” singari platformalar ayrim mavzularni o‘zlashtirishda qiynalayotgan o‘quvchilarga moslashtirilgan topshiriqlarni taklif etmoqda. O‘qituvchilarning fikricha, bu vositalar orqali o‘quvchilarning test natijalari va fanga qiziqishi ortgan.

Sun‘iy intellekt ona tili ingliz tili bo‘lmagan o‘quvchilar uchun ham til orqali yordam beradi. Ba’zi AI platformalari murakkab atamalarni soddalashtirish yoki tarjima qilish uchun tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyasidan foydalanadi. Bu esa o‘quvchilarga o‘z tilida yoki ular tushunadigan tilda bilim olish imkonini beradi. Ayrim hududlarda, xususan ikki tilli muhitda faoliyat yuritadigan maktablarda biologik kontentni o‘zbek, rus yoki boshqa tillarga tarjima qilishda Google Lens, ChatGPT va shunga o‘xshash texnologiyalar qo‘llanilmoqda.

Bundan tashqari, sun‘iy intellekt o‘qituvchilarga dars rejalashtirish va baholashda yordam berish uchun ham qo‘llanilmoqda. Biologiya fanida bu, masalan, biologik diktantlar, tushunchaviy xaritalar yoki qisqa javobli savollarni avtomatik baholash kabi shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Bu vositalar o‘qituvchilarga ko‘proq vaqtni o‘quvchilar bilan muloqotga sarflash imkonini beradi.

Shunga qaramay, bu texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda muayyan muammolar ham mavjud. Eng asosiy muammolardan biri raqamli tafovutdir. Ba’zi qishloq joylardagi maktablarda ishonchli internet tarmog‘i yoki zarur texnik vositalar yetishmaydi. Bu esa ta’limdagi tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun muvofiqlashtirilgan siyosiy yondashuv va infratuzilmaga sarmoya zarur (YUNESKO, 2021). Bunday makonlarda o‘qituvchilar chop etilgan materiallar yoki USB-xotiralarda saqlangan oflayn darsliklardan foydalanmoqdalar.

Yana bir muhim masala — ma’lumotlar maxfiyligi. Sun’iy intellekt platformalari ko‘pincha o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini to‘playdi. O‘qituvchilar ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qonuniy me’yorlardan xabardor bo‘lishlari va ularni rioya qilishlari lozim. Hozircha O‘zbekistonda raqamli ta’lim bo‘yicha huquqiy asoslar to‘liq shakllanmagan. Shuning uchun xorijiy platformalarda saqlanayotgan ma’lumotlar haqida xavotirlar mavjud bo‘lib, bu sohada milliy standartlar ishlab chiqilishi zaruratini ko‘rsatmoqda.

Pedagogik jihatdan ham muhim masalalar mavjud. Sun’iy intellekt ta’limni qo‘llab-quvvatlashi mumkin bo‘lsa-da, u o‘qituvchining hal qiluvchi rolini to‘liq o‘rnini bosa olmaydi. O‘quvchilarning hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini tushunish, ularni motivatsiyalash va yo‘naltirishda inson omili juda muhim. Shuning uchun o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari faqat texnik ko‘nikmalarni emas, balki texnologiyadan qachon va qanday foydalanish to‘g‘risida tanqidiy fikrlashni ham o‘z ichiga olishi lozim.

Xulosa

Biologiya ta’limida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish o‘sib borayotgan tendensiya bo‘lib, ta’lim jarayonini boyitish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Bu vositalar biologiyani yanada tushunarli, interaktiv va o‘quvchilarga yo‘naltirilgan qilishi mumkin. Biroq, ularni joriy etish tenglik, ma’lumotlar xavfsizligi va o‘qituvchining almashtirib bo‘lmaz o‘rnini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Kelajakdagi tadqiqotlar biologiya ta’limida sun’iy intellektdan foydalanishning uzoq muddatli ta’sirini o‘rganishga va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilishi kerak. O‘qituvchilar, siyosatchilar va texnologlar birgalikda harakat qilib, bu vositalarning barcha o‘quvchilar foydasiga xizmat qilishlari zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bonde, M. T., Makranski, G., Vandall, J., Larsen, M. V., Morsing, M., Jarmer, H., & Sommer, M. O. A. (2014). Geymifikatsiyalangan laboratoriya simulyatsiyalari orqali biotexnologiya ta’limini takomillashtirish. *Tabiat biotexnologiyasi*, 32 (7), 694-697. <https://doi.org/10.1038/nbt.2955>
2. Holmes V., Bialik M. va Fadel C. (2021). Ta’limda sun’iy intellekt: o‘qitish va o‘rganish uchun istiqbollari va oqibatlar. O‘quv dasturlarini qayta loyihalash markazi.
3. VanLen, K. (2011). Inson repetitorligi, intellektual repetitorlik tizimlari va boshqa repetitorlik tizimlarining nisbiy samaradorligi. *Pedagogik psixolog*, 46 (4), 197-221. <https://doi.org/10.1080/00461520.2011.611369>

4. Wang, A. I. (2015). O‘quvchilarning o‘yinga asoslangan javob berish tizimining eskirish effekti. *Kompyuterlar va ta’lim*, 82, 217-227. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2014.11.004>
5. Yarden, H. va Yarden, A. (2011). O‘quvchilarning Fan ta’limining dolzarbligi (ROSE) so‘rovnomasidan foydalangan holda biologiya sinflaridagi o‘quv muhiti haqidagi tasavvurlari. *Ilmiy ta’lim bo‘yicha tadqiqotlar*, 41(5), 611-634. <https://doi.org/10.1007/s11165-010-9181-5>
6. YUNESKO. (2021). Raqamli ta’lim va ta’lim kelajagi: COVIDdan keyingi dunyoda texnologiyalarning rolini o‘rganish. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000377079>
7. Zawacki-Richter, O., Marin, V. I., Bond, M. va Guverner, F. (2019). Oliy ta’limda sun’iy intellekt ilovalarini qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlarning tizimli tahlili – pedagoglar qayerda? Oliy ta’limda ta’lim texnologiyalari xalqaro jurnali, 16, 39. <https://doi.org/10.1186/s41239-019-0171-0>



BOSHLANG‘ICH SINFLAR UCHUN YARATILGAN INGLIZ TILI DARSLIKLARI MAZMUNINING “4K” MODEL BO‘YICHA TAHLILI

Xamrayeva Gulchexra Ibraximovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

gulchekhrakhamraeva1@gmail.com

ORCID 0000-0002-4001-3178

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich 1–4-sinflar uchun yaratilgan “Guess What” ingliz tili darsliklari mazmuni zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan “4K” modeli bo‘yicha o‘rganilgan, shuningdek, darsliklar tarkibidagi topshiriqlar, muloqotga yo‘naltirilgan mashqlar, juftlik va guruhli ishlar, ijodiy yondashuv talab qiluvchi vazifalar mavjudligi hamda ularning samaradorligi tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik kompetensiyalari asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: 4K modeli, boshlang‘ich sinf, ingliz tili darsliklari, 21asr ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot, hamkorlik, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ yondashuv, integrativ yondashuv, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuv, mashqlar tizimi,

Аннотация: В данной статье рассматривается содержание учебников английского языка «Guess What» для 1–4 классов по модели «4К», в основе которой лежит современный компетентностный подход. Анализируются задания учебников, упражнения коммуникативно-ориентированной направленности, парная и групповая работа, наличие заданий, требующих творческого подхода, а также их эффективность с учетом компетенций критического мышления, креативности, коммуникации и сотрудничества.

Ключевые слова: модель 4К, начальные классы, учебники английского языка, навыки 21 века, критическое мышление, творчество, коммуникация, сотрудничество, компетентностный подход, коммуникативный подход, интегративный подход, личностно-ориентированный подход, система упражнений.

Annotation: In this article the content of the “Guess What” English textbooks, created for primary grades, is analyzed according to the “4C” model based on a modern competency-based approach, as well as the presence of tasks, communication-oriented exercises, pair and group work activities, tasks requiring a creative approach and their effectiveness are evaluated based on the competencies of critical thinking, creativity, communication and cooperation.

Key words: 4C model, primary grades, English textbooks, 21st century skills, critical thinking, creativity, communication, collaboration, competency-based approach, communicative approach, integrative approach, learner-centered approach, system of exercises

Kirish

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarga ingliz tilini o'rgatishda an'anaviy ta'lim shaklidan foydalanib kelingan. Hozirgi kunga kelib esa bu ta'lim shaklidan butunlay voz kechmagan holda, yangicha o'qitish texnologiyalari va metodlarini qo'llab, dars jarayonini samarali tashkil etish pedagoglarning oldida turgan yuksak vazifa va ma'suliyatdir. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, *"...kichik yoshdagi bolalar uchun sifatli ta'lim berish muammolarini global darajada samarali hal qilish, bu masalalarga birgalikda tezkor yechimlar va tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish juda dolzarbdir"*. Shu jihatdan, chet tili o'qituvchilari faoliyatini isloh qilish, chet tili ta'limida dunyo tajribasini qo'llashda, qo'shma ta'lim dasturlari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish, xorijiy tilni o'rgatishni ta'limning quyi bo'g'ini mazmuniga mos ravishda modernizatsiyalashtirish ustuvor ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ingliz tilida nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish, ularni muloqotga jalb qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, kommunikativ, integrativ, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv orqali bolalar o'zlari uchun tanish bo'lgan va qiziqarli mavzular asosida tilni o'rganadilar, bu esa ularning tilga bo'lgan qiziqishini orttiradi va faol ishtirokini ta'minlaydi. Zamon bilan hamnafas bo'lgan holda ta'lim jarayoniga zamonaviy metod va texnologiyalarni kiritish ularni amalda qo'llash, sinab ko'rish, ularning ichida eng maqbulini tanlash dolzarb masaladir, chunki, ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning yetakchi sabablaridan biri shuki, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor va mavjud bilimlarni egallashga o'rgatilgan, zamonaviy texnologiyalarda esa aksincha o'quvchilarning o'zlari egallayotgan bilimlarni qidirib topishlariga, mustaqil ravishda o'rganib tahlil qilishlariga va bundan kelib chiqadigan xulosalarni ham o'zlari chiqarishlariga o'rgatiladi. O'qituvchining bu jarayondagi vazifasi o'quvchining shaxs sifatida shakllanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratish va o'quvchilarni, sinfni boshqarish, ularni yo'naltirib borish funksiyasini bajaradi. Bunday ta'lim jarayonida o'quvchi "bosh qahramon"ga aylanadi. To'g'ri bunda o'qituvchining ham yetakchi o'rni va ro'li bor, lekin asosiy e'tibor markazida o'quvchi shaxsi turadi.

Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarda faqat bilim emas, balki hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishni ham asosiy maqsad deb biladi. Shu boisdan, 21-asrda "4K" modeli, ya'ni **kritik fikrlash (critical thinking), ijodkorlik (creativity), muloqot (communication), va hamkorlik (collaboration)** asosiy kompetensiyalari ilgari surildi. Bu

ko‘nikmalarni kichik yoshdan boshlab, ayniqsa, til o‘rganish jarayonida shakllantirish katta ahamiyatga ega. Ingliz tili darsliklari bu jarayonda asosiy manba hisoblanadi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlandi. “4K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. An‘anaviy yondashuvda ko‘proq bilim berishga (**knowledge-based**), so‘zlarni yodlash, tarjima qilish, to‘g‘ri o‘qish, talaffuz qilish va to‘g‘ri, xatosiz yozish ko‘nikmalarini shakllantirishga e‘tibor qaratilgan, yangi tajriba - “4K” modeli bilan o‘quvchilarning o‘rgangan bilimni muloqotda qo‘llash (**knowledge-in-use**), tanqidiy fikrlash, kreativ yondashish, o‘z fikrini erkin bayon eta olishga ko‘proq ahamiyat beriladi.

Asosiy qism

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimida boshlang‘ich 1–4-sinflar uchun ingliz tili darsliklari Umumyevropa xalqaro standarti (CEFR)ga muvofiq hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshga oid psixologik xususiyatlarini, ularning til tajribalarini inobatga olgan holda tayyorlangan, bosqichma-bosqich ishlab chiqilgan bo‘lib, “Guess What!” deb nomlanadi va darsliklarda asosiy e‘tibor lug‘at boyligini oshirish, sodda gaplarni tuzish, suhbatlarda ishtirok etish ko‘nikmasiga, shuningdek, 4K modeli xalqaro tajribada o‘quvchilarning ijodiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan. Har bir “K” komponentasi o‘ziga xos metodik yondashuvlarni talab qiladi. Ular o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol va hamkorlikda ishlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalaydi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, darslik mazmuni, darslikda berilgan mashqlar tizimi va topshiriqlar o‘quvchilarda to‘rt asosiy kompetensiyalarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan:

1. **Kollaborasiya** – darslik mazmuni, darslikda berilgan mashqlar tizimi va topshiriqlar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi;

2. **Kommunikativlik** – darslikda berilgan mashqlar tizimi va topshiriqlar o‘quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma‘lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganadilar;

3. **Kreativ fikrlash** – darslik mazmuni ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar, innovatsion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar;

4. **Kritik fikrlash** – ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtai nazarini shakllantiradilar.

Susannah Reed, Kay Bentley, Lesley Koustaff muallifligidagi "Guess What" darsligi Cambridge University Press tomonidan chop etilgan bo‘lib, u boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ingliz tilini o‘rgatishga mo‘ljallangan. Ushbu darslik mavzuga asoslangan yondashuv (Theme-Based Approach) va mazmun asosida til o‘rgatish (Content-Based Instruction) elementlarini o‘z ichiga oladi. "Guess What" darsligida har bir bo‘lim muayyan mavzu atrofida quriladi. har bir mavzuga mos ravishda o‘quvchilar yangi so‘z va iboralarni o‘rganadilar, o‘qish va tinglash materiallari shu mavzuga bog‘lanadi hamda loyihalar mavzuga asoslangan holda ishlab chiqiladi.

Darslikda mavzular orqali o‘quvchilarga real dunyo haqida bilim beriladi, til o‘rganish jarayoni tabiiy va kontekstga bog‘langan bo‘ladi, o‘quvchilar vizual va interaktiv mashg‘ulotlar orqali mavzuni chuqurroq tushunadilar. "Guess What" darsligida qo‘llaniladigan mavzuga asoslangan yondashuv (Theme-Based Approach) va 4K modeli (kompetensiyaviy yondashuv) bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi. 4K modeli quyidagi asosiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular darslikda o‘z ifodasini topgan (1-jadvalga qarang):

1-jadval

4K modeli komponentlarining "Guess What" darsligida ifodalanishi

4K modeli komponentlari	"Guess What" darsligidagi aks etishi
<i>Muloqot</i> (Communication)	O‘quvchilar dars davomida mavzuga doir matnlarni o‘qish, hikoyalar tuzish va savollarga javob berish orqali ingliz tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar
<i>Hamkorlik</i> (Collaboration)	Dars jarayonida o‘quvchilar guruhlarda ishlaydi, rolli o‘yinlar va loyihalar orqali hamkorlik qilishadi. Bu ularning ijtimoiy va til kompetensiyalarini rivojlantiradi.
<i>Ijodkorlik</i> (Creativity)	O‘quvchilar vizual materiallar, san‘at va tabiat haqidagi mavzular orqali yangi g‘oyalar yaratishga rag‘batlantiriladi. Darslikdagi rasm chizish, hikoya yaratish yoki rolli o‘yinlar orqali o‘z ifodalarini topgan.
<i>Tanqidiy fikrlash</i> (Critical Thinking)	Darslikdagi savollar va mashg‘ulotlar o‘quvchilarni axborotni tahlil qilish, taqqoslash va muammolarni hal qilishga o‘rgatadi. Masalan, "Guess What?" bo‘limlari o‘quvchilarning taxmin qilish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur darslik mazmuni asosida "4K kompetentsiyalariga ega bo‘lgan o‘quvchi" quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi:

- *Muloqot*: savol beradi va savollarga javob beradi, tushunmagan ma'lumotlariga izoh so'raydi, o'z nuqtai nazarini tushuntiradi, ziddiyatli vaziyatlardan qochadi yoki ularga yechim topadi;

- *Hamkorlik*: yordam so'raydi, boshqa fikr va muloxazalarini tinglaydi va taklif beradi, hamkorlikda ishlaydi, boshqalarga ham fikr bildirish imkonini beradi;

- *Tanqidiy fikrlash*: axborotni tahlil qiladi, faraz va yechimlarni taklif qiladi, bahslashadi va baholaydi;

- *Ijodkorlik*: g'oyalarni taklif qiladi, ularni qadrlaydi, g'ayrioddiy vaziyatda asosiy ko'nikmalarni qo'llaydi, original yechimlarni topadi, topshiriqni bajargandan so'ng ham yangi g'oya va yechimlarni izlashni davom etadi".

Yangi innovatsion yondashuv o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi oshishida muhim ahamiyat kasb etadi, shuningdek, o'quvchilarda **ijtimoiy-madaniy faoliyatga intilish**, mustaqil fikrlash va o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi.

"Guess What!" darsligining asosiy maqsadi o'quvchilarga ingliz tilining asosiy elementlarini o'rgatishdir. Darslikda o'quvchilarni tilni samarali o'rganishga undash uchun turli xil faoliyatlar, o'yinlar va interaktiv mashqlar kiritilgan bo'lib, o'quvchilarga muayyan bir mavzu atrofida tilni o'rganishga imkon beradi, bu esa ularning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda juda samarali hisoblanadi.

Darslikning Tuzilishi va Strukturas

- *Darslikning umumiy tarkibi* quyidagilardan iborat:

1. darslikda har bir unit (bo'lim) o'quvchilarga yangi mavzularni o'rgatishga qaratilgan. Har bir unitda o'quvchilarni yangi leksika, grammatika, gapirish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar mavjud.

2. har bir unit o'quvchilarga bir nechta kichik mavzularni o'rgatadi, bu mavzular kundalik hayotga doir bo'lib, ular o'quvchilarga o'rgatishning soddaligini ta'minlaydi. Mavzular odatda, o'quvchilarning qiziqishlariga mos keladigan hayotiy vaziyatlarga asoslanadi, shuningdek, fanlararo bog'liqlikni o'zida aks etadi (2-jadval).

2-jadval

Guess What! -3 darsligi tarkibi

Units/ bo'limlar	Themes/ mavzular	Talk time/ mo'ljallangan topiklar	Fanlararo bog'liqlik
Unit 1	In the yard	Asking to borrow something	Science
Unit 2	At school	Offering help	Science
Unit 3	School days	Asking if places are open	Maths/Science
Unit 4	My day	Asking the time	Maths
Unit 5	Home time	Suggesting food to make	Geography
Unit 6	Hobbies	Encouraging others to try	Music
Unit 7	At the market	Making choices	Science
Unit 8	At the beach	Deciding how to travel	Maths

- *Darslikda leksik va grammatik materiallarning aks ettirilishi:*

Leksika:

1. "Guess What" darsligida o'quvchilarga yangi so'zlar o'rgatiladi, ular odatda hayotiy vaziyatlarga asoslangan bo'lib, o'quvchilarga ingliz tilida tushunarli va foydali bo'ladi.

2. darslikda o'rgatiladigan so'zlar o'zaro bog'liq bo'lib, o'quvchilarni tilni o'rganishga qiziqtiradi. Masalan, "family", "animals", "food", "school" kabi so'zlar kiritiladi.

Grammatika:

1. har bir unitda yangi grammatikaviy tuzilmalar ham o'rgatiladi. Masalan: "There is/there are" yordamida joylashuvni ifodalash; Present Simple tense (hozirgi zamon fe'llari) yordamida oddiy gaplar tuzish; "Can" fe'li yordamida qobiliyatlar haqida gapirish.

2. grammatikani o'rgatishda misollar bilan tushuntirish va amaliy mashqlarni bajarish orqali o'quvchilar bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

- *Darslikda gapirish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilganligi:*

Gapirish ko'nikmasi:

1. "Guess What" darsligida o'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Darslikda ro'yxatli savollar, javoblar, rasmi mashqlar va rol o'ynash mashqlari kiritilgan.

2. mashqlarda o'quvchilar turli hayotiy vaziyatlarda gapirishni o'rganadilar. Masalan, o'z oilasi haqida gapirish, sevimli hayvonini tasvirlash, do'stlari bilan muloqot qilish kabi mashqlar o'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. "Guess What" darsligida turli o'yinlar va jamoaviy faoliyatlar yordamida o'quvchilar muloqot qilishga jalb qilinadi.

Tinglash ko'nikmasi:

1. darslikda tinglash mashqlari ham mavjud bo'lib, ular o'quvchilarga ingliz tilini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Mashqlar tinglab, savollarga javob berishni o'z ichiga oladi. Bu mashqlar o'quvchilarning diqqatini va eslab qolish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

- *Darslikda interaktiv faoliyatlar va o'yinlarning berilishi:*

Darslikda o'quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi turli o'yinlar va interaktiv mashqlar mavjud bo'lib, tilni o'rganish jarayonini qiziqarli qilishga xizmat qiladi.

- *Charades (Harakatlar bilan so'zlashuv):* O'quvchilar biror bir so'zni harakatlar orqali tasvirlab, boshqalar uni topishlari kerak.

- *Memory game:* O'quvchilar so'z kartalarini birlashtirib, har bir so'zni eslab qolishadi.

- *Role play:* O'quvchilar o'rtasida turli rollarni bajarish orqali mavzuga oid suhbatlar o'tkazishadi.

Bu faoliyatlar o'quvchilarning diqqatini saqlashga yordam beradi va ularning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- *Darslikda vizual materiallar va resurslarning ishlatilishi:*

Darslikda ko'plab rasm va diagrammalar ishlatilgan. Vizual materiallar o'quvchilarning tushunishini yaxshilaydi va o'rganishni qiziqarli qiladi. Masalan, har bir unitda mavzuga oid rasm yoki illyustratsiyalar berilgan, bu o'quvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Shuningdek, darslikda o'quvchilar o'z ishlashlarini baholash va o'zaro fikr almashish imkoniyatiga ega. Bu o'quvchilarga o'z muvaffaqiyatlarini baholash va kamchiliklarini aniqlash imkonini beradi.

Darslikda berilgan mashqlar tahlili boshlang'ich sinf o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga asoslangan 4K model samarali yondashuv hisoblanadi, jumladan:

1. **Kritik fikrlashni rivojlantirish (Critical Thinking)** bolalarning o'z fikrlarini mantiqan bayon qilish, savollar berish va ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunda quyidagi mashqlardan foydalaniladi:

a) *Savol-javob mashqlari* - “Nima uchun?” (“Why do you think...?”) yoki “Agar bo'lsa...” (“What would happen if...?”) kabi savollar orqali bolalarni fikrlashga undash.

b) *Muammoni hal qilish (Problem Solving)* - Masalan, “How would you help someone who lost their toy?” kabi vaziyatlarni muhokama qilish.

c) *Hikoya tahlili* - Qisqa hikoya yoki ertakni o'qib, uning mazmuni haqida savollar berish va sabablarini tushuntirish.

2. **Kreativlikni rivojlantirish (Creativity)** bolalarning ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish, jumladan va hikoyalarni o'zlari tuzishga imkon yaratadi.

a) *Rol o'ynash (Role Play)*.

Masalan, “You are a teacher. Explain the weather today” kabi ssenariylar asosida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undash.

b) *Hikoya tuzish* - Rasm yoki so'z to'plamidan foydalanib, qisqa hikoya tuzdirish. Masalan, “What happens if a rabbit meets a lion?”

3. **Kommunikatsiya (Communication)**. Ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun samarali kommunikatsiya muhiti yaratish muhim.

a) *Dialog va suhbatlar* - Kunlik oddiy muloqotlar (“How are you?”, “What did you do yesterday?”) bilan boshlash va asta-sekin murakkabroq mavzularga o'tish.

b) *Debatlar*- Oddiy mavzularda kichik bahslar tashkil qilish, masalan, “Which is better: cats or dogs?”

c) *Tinglab gapirish mashqlari*- Audiomaterial yoki o'qituvchi aytgan gapni takrorlash va uni davom ettirish.

4. **Hamkorlik (Collaboration)** bolalarni jamoada ishlashga va birgalikda muloqot qilishga o'rgatadi.

a) *Guruh ishlari /Group work activities*.

Masalan, “Describe a perfect school together” kabi vazifalar orqali o'quvchilar birgalikda ingliz tilida muloqot qilishadi.

b) *Jamoaviy loyihalar* - Guruhlar “Our dream vacation” kabi mavzularda taqdimot tayyorlaydi.

c) *Rolli o‘yinlar* - Guruh ichida rollarni taqsimlab, birgalikda muammolarni hal qilish.

d) *Jadval va rasm asosida suhbatlar*

Masalan, “Describe what you see in this picture.”

e) *Storytelling yordamida gapirish*- Bitta hikoya boshlab berilib, davom ettirish o‘quvchilarga topshiriladi.

4K modeli asosida gapirish ko‘nikmasining afzalliklari shundan iboratki, bu model orqali:

- *muloqotga yo‘naltirilganlik*, ya‘ni faol suhbatlar o‘quvchilarning o‘z-o‘zidan gapirish ko‘nikmasini rivojlantiriladi.

- *jamoaviy ish*, ya‘ni guruh faoliyati orqali o‘quvchilar bir-birlarini tushunishga o‘rganadi.

- *ijodiy va tanqidiy fikrlash* orqali o‘quvchilar o‘z dunyoqarashini kengaytiradi va mantiqiy tahlil qilishga o‘rganadi.

Xulosa.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta‘kidlashimiz joizki, boshlang‘ich 1-4-sinflar uchun yaratilgan “*Guess What*” darsligi mavzuga asoslangan yondashuv orqali 4K modeli asosidagi ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Darslikning mazmuni o‘quvchilarni nafaqat til o‘rganishga, balki ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, muloqot va hamkorlik kabi 21-asr kompetensiyalarini rivojlantirishga ham yo‘naltiradi, shuningdek, tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- *Tanqidiy fikrlash (Critical Thinking)*: 2–4-sinf darsliklarida “True/False”, “Match and explain”, “Guess” kabi topshiriqlar mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini chuqur rivojlantiradigan mashqlar hisoblanadi.

- *Ijodkorlik (Creativity)*: darslik sahifalarida rasm asosida hikoya tuzish, dialoglar yaratish kabi ijodiy vazifalar mavjud. Ayniqsa 4-sinfda “Project” bo‘limlari orqali bolalarning mustaqil ifoda imkoniyatlari oshadi.

- *Muloqot (Communication)*: Har bir darsda oddiy savol-javoblar, juftlikda ishlash, dialoglarni eshitish va qayta aytish mashqlari bor. Bu komponentlar yaxshi yoritilgan bo‘lib, bolalarning gapirish va tinglash ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

- *Hamkorlik (Collaboration)*: Guruhda ishlash, rolli o‘yinlar, “Work in pairs/groups” topshiriqlari mavjud bo‘lib, ular orqali o‘quvchilarning ko‘proq mustaqil ishlashiga yo‘naltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan ingliz tili darsliklarida “4K modeli asosida ishlab chiqilgan mazmun bolalarni mustaqil fikrlovchi va faol kommunikator sifatida shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, 4K modeli asosida ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida gapirish, muloqot qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zamonaviy va samarali yondashuv hisoblanadi hamda

o‘quvchilarning nafaqat tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, balki fikrlash, ijod qilish va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi” ochilish marosimidagi nutqi. – Toshkent, 15.11.2022. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/5696>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. <https://lex.uz/docs/-4312785>
3. Feruza Anvarovna , T., Yusupovich Xolmatov , J., Ibrakhimovna Khamraeva, G., Larisa Vladimirovna , P. ., Dilnoza Vahobjon kizi, A., & Azizjon Babaxanovich, B. . (2024). Providing a model for measuring educational quality in elementary schools. *Cadernos De Educação Tecnologia E Sociedade*, 17(se4), 145–153.
<https://doi.org/10.14571/brajets.v17.nse4.145-153>
4. Cabrera, M. P., & Bazo, P. (2002). Teaching the four skills in the EFL primary classroom. <http://iteslj.org/Techniques/Bazo-FourSkills.html>
5. Susannah Reed, Kay Bentley, Lesley Koustaff, *Guess What! Grades 1-4*. Cambridge University Press, 2021
6. G‘aniyeva M.A., Ta’limda yangi texnologiya: 4K modeli va uni amalga oshirish yo‘llari. “Yoshlar va tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Qo‘qon,2024, 197-200-b
7. Xodiyeva G.H. Boshlang‘ich ta’limda 4K modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari. Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024, 581-584b

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KIBER IJTIMOIYLASHUV JARAYONINING PEDAGOGIK MEXANIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO‘LARI

Buranov Sanjar Vaxobovich

Tarmiz davlat pedagogika instituti

Tel: +998906448030

Email: Sanjar-80@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, o‘qituvchi kasbiga tayyorlanayotgan yoshlar — bo‘lajak pedagoglar uchun bu jarayonlar nafaqat yangi imkoniyatlar, balki ulkan mas’uliyatlarni ham yuzaga chiqaradi. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kiber ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni, funksional yo‘nalishlari va zamonaviy ta’limdagi roli chuqur tahlil etilgan. Kiber ijtimoiylashuv – bu raqamli axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida ta’lim subyektlarining o‘zaro axborot almashuvi, kasbiy hamkorlik, fikr va tajriba ulashuvi orqali ijtimoiylashuvi jarayonidir.

Maqolada ushbu jarayonni ta’lim amaliyotiga integratsiya qilishda asosiy pedagogik mexanizmlar – motivatsion, axborot-kommunikatsion, ijtimoiy-kommunikativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, reflektiv-tahliliy va me‘yoriy-huquqiy mexanizmlar tizimli tarzda ochib berilgan. Har bir mexanizmning mazmuni, vazifasi va rivojlantirish yo‘llari misollar orqali yoritilib, ularning bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligidagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar; kiber ijtimoiylashuv, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik mexanizm, raqamli savodxonlik, onlayn ta’lim, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, raqamli kompetensiya, kasbiy rivojlanish.

ПУТИ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА КИБЕРСОЦИАЛИЗАЦИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: В этой статье объясняется, что сегодняшние процессы глобализации и цифровой трансформации вносят фундаментальные изменения в систему образования. Особенно для молодых людей, готовящихся к профессии учителя-будущих педагогов, - эти процессы открывают не только новые возможности, но и огромные обязанности. В статье подробно анализируется содержание, функциональные направления и роль процесса киберсоциализации у будущих педагогов в современном образовании. Киберсообщество – это процесс социализации субъектов образования с помощью

цифровых информационно-коммуникационных технологий посредством взаимного обмена информацией, профессионального сотрудничества, обмена идеями и опытом.

В статье систематически раскрываются основные педагогические механизмы интеграции данного процесса в образовательную практику – мотивационный, информационно-коммуникационный, социально-коммуникативный, деятельностно-ориентированный, рефлексивно-аналитический и нормативно-правовой. Содержание, функции и развитие каждого механизма.

Ключевые слова: киберсообщество, будущий учитель, педагогический механизм, цифровая грамотность, онлайн-обучение, информационные и коммуникационные технологии, цифровая компетентность, профессиональное развитие.

WAYS TO DEVELOP THE PEDAGOGICAL MECHANISM OF CYBER SOCIALIZATION IN FUTURE TEACHERS

Annotation: In this article, today's processes of globalization and digital transformation are creating fundamental changes in the educational system. Especially for young people who are preparing for the profession of a teacher — future educators, these processes bring not only new opportunities, but also huge responsibilities. The article provides an in-depth analysis of the content, functional orientations, and role in modern education of the cyber socialization process in prospective teachers. Cyber socialization is the process of socialization of educational entities through mutual information exchange, professional cooperation, communication of ideas and experience through the medium of digital information and communication technologies.

The article systematically reveals the main pedagogical mechanisms – motivational, information-communicative, socio-communicative, activity-oriented, reflective-analytical and regulatory-legal mechanisms in integrating this process into educational practice. The content, function and development of each mechanism.

Keywords: cyber socialization, future teacher, pedagogical mechanism, digital literacy, online education, information and communication technologies, digital competence, professional development.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimi jadal rivojlanmoqda, ayniqsa texnologiyalar va raqamli vositalarning o'qituvchilar va o'quvchilar orasida keng qo'llanilishi ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Kiber ijtimoiylashuv jarayoni, ya'ni onlayn aloqalar va ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat ko'rsatish bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar kiber ijtimoiylashuv orqali o'z bilim va ko'nikmalarini kengaytirish, yangi pedagogik metodlarni o'rganish hamda o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarda kiber ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik mexanizmlarini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, “2021–2030 yillarga mo‘ljallangan Ta’limni rivojlantirish strategiyasi” va “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi farmonlar bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga yangi yondashuvlarni taqdim etmoqda. Shuningdek, Respublikada raqamli ta’limni rivojlantirishga oid qator qarorlar va farmonlar kiber ijtimoiylashuv jarayonining samarali amalga oshirilishiga xizmat qilmoqda. Masalan, 2021 yil 23 fevralda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasida raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” bo‘yicha ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim platformalarining qo‘llanilishi, onlayn o‘qitish metodlarining joriy etilishi va o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada kiber ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik mexanizmini rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi.[2]

Adabiyotlar Tahlili. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kiber ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik mexanizmini rivojlantirish mavzuda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar, kiber ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik faoliyatga ta'siri, o‘qituvchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati va pedagogik metodlarni zamonaviylashtirish borasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Kiber ijtimoiylashuv jarayoni va uning ta'limga ta'siri bo‘yicha bir qator tadqiqotlar mavjud. R. D. Fishman va M. W. Chisholm (2009) o‘zlarining "Technology and Teacher Learning" nomli ishlarida, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning ta'limdagi roli haqida to‘xtalib, ularning o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatiga qanday ta'sir qilishini tahlil etishgan. Ular, kiber ijtimoiylashuvning o‘qituvchilarga yangi metodlarni o‘rganish, bilimlarni almashish va tajriba orttirish imkoniyatini yaratishini ta'kidlaydilar.[6] A. G. Torky (2016) esa, o‘qituvchilarning onlayn o‘qitish metodlarini qabul qilish va amaliyotda qo‘llashning ta'lim sifatiga bo‘lgan ta'sirini o‘rganib, raqamli resurslardan samarali foydalanish o‘qituvchilarning metodik savodxonligini oshirishi haqida xulosaga kelgan.[8]

Kiber texnologiyalarni pedagogik jarayonlarga qo‘llashning zarurati va ahamiyati bo‘yicha P. C. Tripp (2013) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, onlayn ta'lim metodlarini pedagogik faoliyatga integratsiya qilishning o‘qituvchilar uchun qanday afzalliklar keltirishi haqida ma'lumot beradi. S. P. Shoham (2014) o‘zining tadqiqotida, pedagogik jarayonlarga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan aloqalari o‘zgarganini, bu esa o‘qitishning samaradorligini oshirganini ko‘rsatgan. Shohamning xulosasiga ko‘ra, kiber ijtimoiylashuv, o‘qituvchilarni o‘z bilimlarini yangilab borish va pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi va kiber ijtimoiylashuv jarayonining rivojlanishiga oid bir qancha ilmiy tadqiqotlar mavjud. Sh. X. Yunusov tomonidan olib borilgan tadqiqotda, O‘zbekistonda raqamli ta'limni rivojlantirish va o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilingan.[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish to‘g‘risidagi" qarori, raqamli ta'lim platformalarini ishlab chiqish va o‘qituvchilarni

raqamli vositalar bilan ishlashga tayyorlashning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar bo‘lajak o‘qituvchilarni kiber ijtimoiylashuv jarayoniga tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratmoqda.

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kiber ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik mexanizmlarini va ularni rivojlantirish yo‘llarini kiber ijtimoiylashuvning ta’lim sohasiga kirib kelishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida yangi yondashuvlarni shakllantirishni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan ijtimoiylashuv – bu nafaqat virtual aloqalar vositasida bilim almashish, balki o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishi, malaka oshirishi va zamonaviy pedagogik ko‘nikmalarni egallash imkoniyatidir. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun muayyan pedagogik mexanizmlarni aniqlash va ularni rivojlantirish yo‘llarini belgilash dolzarb masala sanaladi.

Pedagogik mexanizmlar – bu o‘qituvchi shaxsini shakllantirishda va ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-psixologik, texnologik hamda axborot resurslarini uyg‘unlashtirish orqali natijaga erishishga xizmat qiluvchi vositalar tizimidir. Kiber ijtimoiylashuv kontekstida bunday mexanizmlar, avvalo, o‘qituvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirish, raqamli vositalar bilan samarali ishlash, onlayn kommunikatsiyada axloqiy me’yorlarga rioya qilish, shuningdek, axborot xavfsizligi kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Kiber ijtimoiylashuvni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda motivatsion, axborot-kommunikatsion, ijtimoiy-kommunikativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, reflektiv va me’yoriy-huquqiy kabi pedagogik mexanizmlar muhim ahamiyatga ega. Eng avvalo, bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli texnologiyalardan foydalanishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish talab etiladi. Buning uchun ularni turli onlayn loyihalar, fan olimpiadalari, kreativ pedagogik tashabbuslar orqali rag‘batlantirish lozim. Rag‘batlantiruvchi muhit o‘qituvchi shaxsida texnologik yangiliklarga nisbatan qiziqish va ochiqlikni kuchaytiradi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsion mexanizm orqali o‘qituvchilar zamonaviy onlayn platformalarda (Moodle, Zoom, Google Classroom) ishlashni, virtual sinf tuzish, masofaviy topshiriq berish va baholash kabi ko‘nikmalarni egallaydilar. Bu borada raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha maxsus kurslar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish muhimdir. Raqamli vositalardan foydalanish pedagogik faoliyatni avtomatlashtirishga, sifatli resurslar yaratishga va individual yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kiber ijtimoiylashuv, shuningdek, ijtimoiy-kommunikativ faoliyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu o‘qituvchilarning ijtimoiy tarmoqlarda, kasbiy jamoalarda, onlayn forum va guruhlarda professional muloqot olib borish qobiliyatini shakllantiradi. O‘quvchi-o‘qituvchi, o‘qituvchi-o‘qituvchi va o‘qituvchi-jamiyat o‘rtasidagi virtual muloqot madaniyati pedagogik samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu mexanizmni rivojlantirish uchun kasbiy yo‘nalishdagi onlayn klub, vebinar, blog yuritish, mutaxassislar bilan virtual suhbatlar tashkil etish tavsiya etiladi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan mexanizm esa bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z bilimlarini real virtual tajriba orqali mustahkamlash imkonini beradi. Masalan, ularning virtual darslar olib

borishi, raqamli metodik qo‘llanmalar yaratishi, onlayn baholash vositalaridan foydalanishi amaliy tajribaning tarkibiy qismi bo‘lishi kerak. Bu orqali o‘qituvchi nafaqat texnik, balki didaktik jihatdan ham raqamli pedagogikani o‘zlashtira oladi.

Reflektiv-tahliliy mexanizm pedagogik faoliyatni o‘z-o‘zini tahlil qilish orqali takomillashtirishni nazarda tutadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z onlayn darslarini yozib olib, uni tahlil qilish, o‘z ustida ishlash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali raqamli muhitda o‘z pedagogik pozitsiyalarini mustahkamlashlari mumkin. Onlayn muhitdagi faoliyatni tahlil qilish ularning kasbiy refleksiya-rivojlanishini rivojlantiradi.

Nihoyat, me‘yoriy-huquqiy mexanizm esa kiber ijtimoiylashuv doirasida axborot xavfsizligi, raqamli etikaga rioya qilish, pedagogik mas’uliyat va onlayn muomala madaniyatiga amal qilishni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar axborotlarni ishonchli manbalardan olish, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, virtual muhitda ijtimoiy mas’uliyat bilan harakat qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur. Buning uchun "Kiberxavfsizlik asoslari", "Raqamli madaniyat", "Axborot xavfsizligi" mavzulari bo‘yicha amaliy va nazariy mashg‘ulotlar o‘tkazilishi lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda kiber ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik mexanizmlarini shakllantirish va rivojlantirish hozirgi zamonaviy raqamli ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu mexanizmlar – motivatsion, axborot-kommunikatsion, ijtimoiy-kommunikativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, reflektiv va me‘yoriy-huquqiy yondashuvlar orqali o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishini qo‘llab-quvvatlash, ularni raqamli muhitga tayyorlash va zamonaviy pedagogik talablar asosida faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Tadqiqotlar va amaliyotlar shuni ko‘rsatadiki, kiber ijtimoiylashuv bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtiradi, balki ularni axborot xavfsizligi, onlayn muloqot madaniyati, professional refleksiya, ochiq fikrlilik va doimiy o‘zgaruvchan ta’lim muhiti sharoitida ishlashga ham tayyorlaydi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatini oshirish, raqamli pedagogikani keng joriy etish va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-sonli qarori. Raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish va ularni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-fevraldagi 66-son qarori. Umumiy o‘rta ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish konsepsiyasi.
3. Yunusov, Sh. X. Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida pedagogik faoliyatni modernizatsiya qilishning nazariy asoslari. — Toshkent: TDPU, 2021. — 164 b.

4. Torky, A. G. Effectiveness of e-learning in developing student teachers' teaching skills and attitudes towards e-learning // *Journal of Education and Practice*. — 2016. — Vol. 7, No. 36. — P. 12–18.
5. Selwyn, N. *Education and Technology: Key Issues and Debates*. — London: Bloomsbury Publishing, 2016. — 232 p.
6. Tripp, T. C.; Rich, P. J. The influence of video analysis on the development of teaching perspectives and strategies // *Teaching and Teacher Education*. — 2013. — Vol. 33. — P. 20–30.
7. Mayer, H. L. *Digital Pedagogy: A Guide for Educators*. — New York: Routledge, 2019. — 189 p.
8. Chou, M. A. K. Developing a Professional Learning Community in a Digital Environment // *Journal of Educational Technology & Society*. — 2015. — Vol. 18, No. 1. — P. 85–95.
9. Penuel, W. R.; Gallagher, D. J. *Creating Research-Practice Partnerships in Education*. — Cambridge: Harvard Education Press, 2017. — 262 p.
10. Fishman, R. D.; Chisholm, M. W. Technology and Teacher Learning: A Review of the Literature // *Teachers College Record*. — 2009. — Vol. 111, No. 9. — P. 2157–2201.
11. Shoham, S. P. Pedagogical Uses of ICT and the Role of the Teacher // *Journal of Digital Learning*. — 2014. — Vol. 8, No. 2. — P. 55–67.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

CHET TILLARINI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV O‘YINLARNING AHAMIYATI

Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi

*FarDU, Nemis va fransuz tillari kafedrası mudiri,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsfa doktori, PhD*

Hamidova Lobarxon Otabek qizi

*FarDU, Xorijiy til va adabiyoti (nemis tili) yo‘nalishi
24.116-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o‘qitish jarayonida kommunikativ o‘yinlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan. O‘yin texnologiyalari til o‘rganuvchilarning muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirish, so‘z boyligini kengaytirish hamda psixologik to‘siqlarni yengib o‘tishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, maqolada kommunikativ yondashuv asosida tuzilgan didaktik o‘yinlarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi va tilga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishiga urg‘u berilgan. Amaliy misollar orqali o‘yinlar yordamida chet tili darslarini samarali tashkil etish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: chet tili, kommunikativ yondashuv, didaktik o‘yinlar, til o‘rganish, o‘yin texnologiyalari, interaktiv metodlar, motivatsiya, samaradorlik.

THE IMPORTANCE OF COMMUNICATIVE GAMES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Abstract: This article analyzes the effectiveness of using communicative games in the process of teaching foreign languages. Game technologies play an important role in developing learners' ability to engage in communication, expanding their vocabulary, and overcoming psychological barriers. The article also emphasizes the integration of didactic games, based on a communicative approach, into the teaching process, which increases students' motivation and strengthens their interest in the language. Practical examples are provided to illustrate how to organize foreign language lessons effectively through games.

Keywords: foreign language, communicative approach, didactic games, language learning, game technologies, interactive methods, motivation, effectiveness.

ЗНАЧЕНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ ИГР В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация: В данной статье анализируется эффективность использования коммуникативных игр в процессе обучения иностранным языкам. Игровые технологии играют важную роль в развитии способности учащихся к коммуникации, расширении их словарного запаса, а также в преодолении психологических барьеров. Также в статье акцентируется внимание на интеграции дидактических игр, основанных на коммуникативном подходе, в учебный процесс, что способствует повышению мотивации учеников и усилению их интереса к языку. На основе практических примеров рассматриваются способы эффективной организации уроков иностранного языка с использованием игр.

Ключевые слова: иностранный язык, коммуникативный подход, дидактические игры, изучение языка, игровые технологии, интерактивные методы, мотивация, эффективность.

KIRISH

Globallashuv jarayonining kuchayishi va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy insondan bir nechta xorijiy tillarni egallashni talab qilmoqda. Xususan, ta'lim sohasida xorijiy tillarni o'rgatish jarayoni tobora dolzarb ahamiyat kasb etib, unga yangicha yondashuvlar, interaktiv metodlar va innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Shulardan biri - kommunikativ o'yinlardan samarali foydalanishdir.

Bugungi kunda kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan didaktik o'yinlar til o'rganish jarayonini nafaqat qiziqarli, balki samarali ham qiladi. Bu kabi o'yinlar o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi, psixologik to'siqlarni kamaytiradi hamda ularning faol muloqotga kirishish malakasini shakllantiradi. Ayniqsa, o'yin orqali o'rgatish bolalar va o'smirlar auditoriyasida ijobiy natijalar beradi, chunki bu metod emotsional muhitni yaxshilaydi, o'quvchilarni darsga faol jalb etadi.

Mazkur maqolada chet tillarini o'qitishda kommunikativ o'yinlarning o'rni, ularning pedagogik samaradorligi va amaliy qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan o'yin shakllari, ularning mazmun-mohiyati va o'quvchilarning til kompetensiyasiga ko'rsatadigan ta'siri yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Chet tillarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati haqida ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, N. Chomsky, S. Krashen, va L.Vygotsky kabi tilshunos va psixolingvistlarning nazariyalari asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari ishlab chiqilgan. S. Krashenga ko'ra, tilni egallash tabiiy muloqot muhitida sodir bo'ladi, bunda o'rganilayotgan til vositasi sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida qo'llanishi kerak.

Mahalliy tadqiqotchilardan G'. Yo'ldoshev, N. Turg'unov va M. Raxmonovlarning ishlarida kommunikativ o'yinlarning o'quvchilarning muloqotga kirishish layoqatini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'yin asosidagi

yondashuv til o‘rgatishda psixologik to‘siqlarni kamaytiradi va o‘quvchilarning ishtirokchanligini kuchaytiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ o‘yinlar til o‘rganish jarayonini faollashtirish, til kompetensiyasini shakllantirish, shuningdek, o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda nazariy va amaliy tadqiqot usullari uyg‘un holda qo‘llanildi. Nazariy asos sifatida xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha ilg‘or metodikalar, kommunikativ yondashuvga asoslangan didaktik materiallar va ilgari o‘tkazilgan ilmiy ishlar tahlil qilindi. Bu orqali o‘yin texnologiyalarining nazariy asoslari belgilab olindi.

Amaliy qismda esa tajriba-sinov darslari o‘tkazildi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida umumta’lim maktablarining 6–8-sinflarida tahsil olayotgan o‘quvchilar jalb qilindi. Darslarda turli xil kommunikativ o‘yinlar qo‘llanildi, jumladan: rol o‘ynash o‘yinlari, savol-javob shaklidagi topshiriqlar, guruhli muloqot mashqlari va interaktiv viktorinalar.

Tajriba davomida o‘quvchilarning ishtirok faolligi, nutqiy faolligi va darsga bo‘lgan motivatsiyasi kuzatildi va baholandi. Olingan natijalar asosida kommunikativ o‘yinlarning chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan ijobiy ta’siri tahlil qilindi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida olib borilgan tajriba-sinov ishlari, kuzatuvlar va tahlillar asosida kommunikativ o‘yinlarning chet tillarini o‘rgatishdagi samaradorligi quyidagi asosiy jihatlar orqali namoyon bo‘ldi:

1. Til kompetensiyasining rivojlanishi: Kommunikativ o‘yinlar dars jarayonida o‘quvchilarning leksik va grammatik bilimlarini mustahkamlashga, ularni real muloqotga yaqinlashtirishga xizmat qildi. O‘yinlarda faol ishtirok etgan o‘quvchilarda yangi so‘zlarni tez o‘zlashtirish, ularni to‘g‘ri qo‘llash va erkin fikr bildirish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

2. Muloqotga kirishish faolligining ortishi: An’anaviy darslarga nisbatan, o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning suhbatda qatnashish, fikrini bildirish va savollarga javob berish istagi ancha yuqori bo‘ldi. Jumladan, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning 82 foizi dars davomida faol muloqotda bo‘lishgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 53 foizni tashkil etdi.

3. Motivatsiya va darsga qiziqishning ortishi: O‘yinlar orqali tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda musobaqalashish, g‘alaba qozonishga intilish kabi pozitiv raqobat muhitini shakllantirdi. Bu esa ularning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, psixologik jihatdan qulay, erkin muloqot muhiti yaratdi. So‘rovnomalar asosida aniqlanishicha, o‘quvchilarning 88 foizi o‘yinli darslarni afzal ko‘rgan.

4. Jamoaviy ish va ijtimoiy ko‘nikmalarning shakllanishi: O‘yinlar asosan guruhli yoki juftlik shaklida tashkil etilgani bois, o‘quvchilar bir-biri bilan hamkorlikda ishlash, fikr almashish, muammoni birgalikda hal qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashdi. Bu esa ularning faqat til emas, balki shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

5. O‘qituvchining roli va metodik yondashuvining yangilanishi: Tajriba davomida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki vositachi va fasilitator rolida ishtirok etdi. Bu esa pedagogik yondashuvni yangilash, interaktiv metodlarni integratsiyalash va talaba-yo‘naltirilgan ta’lim modelini amalda qo‘llashga xizmat qildi.

Kommunikativ o‘yinlarning ta’siri (foizlarda)

Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi (%)	Nazorat guruhi (%)
Faol ishtirok	82%	53%
Muloqotga kirishish qobiliyati	78%	49%
Leksik bilimlarni o‘zlashtirish	85%	60%
Grammatik bilimlarni qo‘llash	80%	57%
Darsga qiziqish darajasi	88%	52%

MUHOKAMA

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ o‘yinlardan foydalanish xorijiy til o‘qitishning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirishiga nafaqat akademik, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat ilgari olib borilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar bilan hamohangdir.

Xususan, S. Krashenning "affective filter" (ta’sirchan to‘siq) nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarning ruhiy holati ularning til o‘rganish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu nuqtayi nazardan qaralganda, kommunikativ o‘yinlar orqali yaratilgan erkin va samimiy o‘quv muhiti o‘quvchilarning til o‘zlashtirish jarayonidagi ruhiy to‘siqlarni kamaytiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Bundan tashqari, kommunikativ o‘yinlar til o‘rganishda bevosita amaliyotga asoslangan yondashuvni ta’minlaydi. O‘yinlar orqali o‘quvchilar sun’iy bo‘lmagan, ya’ni tabiiy muloqot muhitida tilni qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa ularning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantiradi, real hayotiy vaziyatlarda o‘z fikrini bemalol ifoda etishiga yordam beradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat — o‘qituvchining kommunikativ o‘yinlarni tanlash va qo‘llashdagi metodik yondashuvi muhim ahamiyatga ega. O‘yin shakli, mazmuni va maqsadga muvofiqligi o‘quvchilar yoshiga, til darajasiga va dars mavzusiga mos holda tanlanganda, uning ta’sirchanligi yuqori bo‘ladi. Shu bois, o‘qituvchilarning bu boradagi kasbiy tayyorgarligi, ijodiy yondashuvi va metodik bilimlari muhim omil sanaladi.

Shuningdek, kommunikativ o‘yinlar nafaqat til o‘rgatish, balki o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi, jamoaviy ishlash, fikr almashish va muammoni hal qilish kabi ko‘nikmalarini

ham rivojlantiradi. Bu esa ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, muhokama natijalari asosida aytish mumkinki, kommunikativ o‘yinlar xorijiy til o‘rgatishda kuchli motivatsion va ta’limiy vosita bo‘lib, uni o‘quv jarayoniga to‘g‘ri integratsiyalash zamonaviy til o‘rgatish metodikalarining ajralmas qismiga aylanmoqda.

XULOSA

Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillar va tajriba-sinov ishlari asosida xulosa qilish mumkinki, kommunikativ o‘yinlar chet tillarini o‘qitishda samarali ta’limiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular o‘quvchilarning til kompetensiyasini shakllantirish, muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirish va darsga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘yin asosidagi metodlar orqali o‘tkazilgan darslar o‘quvchilarning leksik va grammatik bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, balki ularni real hayotiy muloqotga tayyorlaydi. Shuningdek, o‘quvchilarda tilga bo‘lgan ishonch, faollik va mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

Kommunikativ o‘yinlar dars jarayonini faollashtiradi, an’anaviy ta’lim shakllariga nisbatan interaktiv, ijodiy va emotsional jihatdan boy muhit yaratadi. Bunday yondashuv nafaqat til o‘rganishga, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu boisdan, zamonaviy ta’lim tizimida chet tillarini o‘qitishda kommunikativ o‘yinlardan keng va maqsadli foydalanish, ularni o‘quvchilarning yosh, ehtiyoj va til darajasiga mos holda metodik jihatdan to‘g‘ri tanlash va qo‘llash dolzarb hisoblanadi. Bu nafaqat ta’lim sifati, balki o‘quvchilarning chet tillarini o‘zlashtirish darajasini ham sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Oxford: Pergamon Press.
2. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the Theory of Syntax*. Cambridge: MIT Press.
3. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Wright, A., Betteridge, D., & Buckby, M. (2005). *Games for Language Learning*. Cambridge University Press.
5. G‘. Yo‘ldoshev. (2019). *Chet tilini o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
6. Turg‘unov, N. (2020). *Xorijiy tillarni o‘qitishda kommunikativ yondashuv*. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Rakhmonov, M. (2021). “Ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ metodning samaradorligi”. *Til va Adabiyot Ta’limi*, №4, 55–60-betlar.
8. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching* (4th ed.). London: Pearson Education Limited.

9. Littlewood, W. (1981). *Communicative Language Teaching: An Introduction*. Cambridge University Press.
10. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASINING LINGVISTIK ASOSLARI

Dosmambetova Muyassar Abrorovna

2nd year student of the Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

88 657 48 00

muyassarenglish@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aynan nima uchun boshlang'ich ta'limda ingliz tili o'qitilishi, boshlang'ich ta'limda ingliz tili o'qitish konsepsiyalari, usullari va tamoyili to'g'risida to'lliqlik ma'lumot berib o'tilgan. Yana maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish davomida qo'llash mumkin bo'lgan metod va texnologiyalar haqida so'z boradi. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning darslarga puxta tayyorlanishi, bilim olishga ishtiyoqi oshishida, malaka va ko'nikmalari shakllanishida yordam beradi.

Kalit so'zlar: til, nutq, til materiali, nutq faoliyat turlari, nutqiy kompetensiya, lisoniy kompetensiya, egosentrik nutq, verbal ifoda, nutqning verballashuvi

LINGUISTIC FOUNDATIONS OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY IN PRIMARY GRADES

Abstract: This article provides a comprehensive overview of why English should be taught in primary education, along with key concepts, methods, and principles of teaching English at the elementary level. It also discusses the various methods and technologies that can be effectively applied during English lessons in primary school classrooms. As is well known, conducting lessons through various games helps students prepare more thoroughly, increases their motivation to learn, and contributes to the development of their skills and competencies.

Keywords: language, speech, language material, types of speech activity, communicative competence, linguistic competence, egocentric speech, verbal expression, verbalization of speech

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается, почему важно преподавание английского языка в начальном образовании, а также излагаются концепции, методы и принципы обучения английскому языку в начальных классах.

Кроме того, в статье рассматриваются методы и технологии, которые можно эффективно использовать при обучении английскому языку в начальных классах. Известно, что проведение уроков на основе различных игр способствует лучшей подготовке учеников, повышению их интереса к обучению, а также формированию навыков и умений.

Ключевые слова: язык, речь, языковой материал, виды речевой деятельности, коммуникативная компетенция, лингвистическая компетенция, эгоцентрическая речь, вербальное выражение, вербализация речи

Kirish

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasining lingvistik asoslari kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon til materialini to‘g‘ri tanlash, metodik tashkil etish va uni samarali taqdim etish bilan amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Lingvistik asoslar – bu o‘quv dasturlari, davlat ta‘lim standartlari (DTS) va darsliklardagi til materiallarining mazmunini belgilab beruvchi prinsiplar yig‘indisidir. Bu asoslar o‘qituvchi uchun tilni o‘rgatishda qanday yondashuvlar va usullarni tanlashni ko‘rsatib beradi.

Kommunikativ kompetensiya – bu chet til bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni turli muloqot vaziyatlarida qo‘llash qobiliyatini anglatadi. Bu atama dastlab N.Xomskiy tomonidan grammatik kompetensiya sifatida, ya‘ni til haqidagi bilimni tushuntirish uchun ishlatilgan bo‘lsa, D.Xayms uni kengaytirib, qachon, qayerda, kimga va qanday gapirishni bilish orqali muloqotda to‘g‘ri foydalanishni ham qamrab olgan.

Bugungi kunda kompetensiya atamasi insonning bilimlari, ko‘nikmalari, malakalari va shaxsiy fazilatlarini o‘z ichiga oladi. Ingliz tili o‘qitishda kommunikativ kompetensiya o‘quvchilarga nafaqat grammatikani bilishni, balki uni real muloqotda qo‘llashni o‘rgatishni maqsad qiladi.[1]

Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasi lingvistik asoslar orqali kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu jarayon o‘qituvchidan puxta tayyorgarlik va yangicha yondashuvni talab qiladi. Lingvistik kompetensiya o‘quvchining fonetika, leksika va grammatika bo‘yicha bilimga ega bo‘lishi va bu bilimni nutq faoliyati turlarida (tinglash, gapirish, o‘qish, yozuv) qo‘llay olishini anglatadi. Bu tilni o‘rganishning asosiy poydevorini tashkil qiladi.

Zamonaviy ingliz tili o‘qitish metodikasi til va nutq materialini quyidagi asosiy komponentlar orqali umumlashtiradi:

1. Lingvistik komponent – til tizimi haqidagi bilimlar (fonetika, grammatika, leksika va boshqalar).
2. Psixologik komponent – til o‘rganish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar.
3. Metodologik komponent – o‘quv materialini o‘zlashtirish usullari.

Bugungi zamonaviy ta‘limda lingvistik bilim bilan bir qatorda mamlakatshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikka oid bilimlarning ham ahamiyati ortib bormoqda. Ingliz tilini

o‘qitishda ijtimoiy-madaniy va madaniyatlararo yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarning nafaqat lingvistik kompetensiyalari, balki turli madaniy kontekstlarda samarali muloqot qilish ko‘nikmalari ham rivojlantiriladi. Shunday qilib, darslik va ishchi o‘quv dasturlarida til va nutq materialini tanlashda yuqorida sanab o‘tilgan barcha komponentlarni hisobga olish o‘qituvchidan puxta yondashuvni talab qiladi.[2] Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nafaqat til va nutq materialini, balki ingliz tili sohiblarining madaniyati bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘zlashtirishi dolzarb hisoblanadi. Shunday ekan, lingvistik materialni tanlashda sotsiolingvistik mazmunga ham e’tibor qaratilishi zarur. Bu o‘quvchilarning tilni o‘rganish jarayonida milliy va madaniy xususiyatlarni tushunib, ularni muloqotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi. Zamonaviy o‘qituvchi darslik va qo‘shimcha manbalardan foydalanishda muvozanatni saqlashi kerak. U darslikdagi materiallarni sinfdagi o‘quvchilarning salohiyatiga mos ravishda tanlab, dars samaradorligini oshirish uchun qo‘shimcha materiallarni to‘g‘ri tanlash va ulardan foydalanish strategiyasini ishlab chiqishi lozim.[4] Shu sababli o‘qituvchi fan bo‘yicha ishchi o‘quv dasturini takomillashtirishda kimga, nimani, qanday va qancha o‘qitish masalalarini puxta o‘ylashi kerak. O‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati orqali kommunikativ kompetensiyani shakllantirish darsning asosiy maqsadi bo‘lsa-da, bu natijaga erishishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bunga sabab sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Mashqlar miqdoridagi nomutanosiblik:

Ba’zi darsliklar G‘arb lingvodidaktikasiga haddan ziyod e’tibor qaratgani uchun nutqiy kompetensiyaga oid mashqlar ko‘p bo‘lishi mumkin. Yoki aksincha, test sinovlariga tayyorlanish uchun mashqlar ustunlik qilishi sababli kommunikativ mahorat yetarlicha rivojlanmasligi mumkin.[3]

2. Darsliklarning milliy ta’lim talablariga mos kelmasligi:

Ayrim darsliklar o‘quvchilar ehtiyojlariga to‘liq javob bermaydi, chunki ular G‘arb tizimi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, mahalliy sharoit va o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilmagan.

Muvozanatni saqlash zarurati:

Zamonaviy o‘qituvchi til materialining kommunikativ va akademik maqsadlarga xizmat qilishi uchun muvozanatni ta’minlashi lozim. Bu quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

Darsga aniq maqsadlar qo‘yish. Mashqlarning turli ko‘rinishlaridan foydalanish: grammatika, muloqot, test tayyorlash va madaniyatshunoslikni birlashtiruvchi mashqlar.

Til va madaniyatni birlashtirgan metodik tadbirlarni qo‘llash. Shu tariqa, o‘quvchilarning til va madaniyatga oid bilimlarini kengaytirish, ularni zamonaviy talablar darajasida o‘qitishga imkon beradi.

O‘qituvchi dastur materialini tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ulardagi nutqiy faoliyat rivoji hamda uni qanday usullar orqali takomillashtirish mumkinligini hisobga olishi muhimdir. Bu jarayonda quyidagi jihatlar asosiy ahamiyatga ega:

1. Leksik birliklarni o‘zlashtirish imkoniyati:

Har bir dars davomida (40-45 daqiqa ichida) o‘quvchilar qancha leksik birlikni samarali o‘zlashtira olishi o‘rganilishi kerak. Zaruriy miqdordan ko‘ra, real imkoniyatlarni hisobga olish lozim. Bu, o‘z navbatida, nutqiy faoliyatning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga asoslanadi.

2. Nutqiy faoliyatning o‘ziga xosligi:

Nutqiy faoliyatning ona tilida va ingliz tilida rivojlanishi bir xil bo‘ladi.

Nutq faoliyati:

Shakl va mazmuniga ega;

Shaxs rivoji bilan uzviy bog‘liq.

O‘quvchi nutqiy faoliyatini rivojlantirish uchun o‘qituvchi uning tarkibini yaxshi bilishi va unga mos mashqlarni tanlashi zarur.

3. Nutqiy faoliyat turlaridan vosita sifatida foydalanish: Nutqiy faoliyat turlari (tinglash, gapirish, o‘qish, yozish) ta’lim maqsadi emas, balki vosita sifatida qaralishi kerak. Bu yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasiga muvofiq keladi va o‘quvchilarni bilim, malaka, ko‘nikma bilan birga shaxs sifatida rivojlantirishni ta’minlaydi. Shuning uchun, chet tilni o‘rgatish o‘quvchilarning ushbu tilda fikrni ifodalash va idrok etish qobiliyatini rivojlantirish jarayonini tashkil qilishni talab qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar uchun tilni kommunikatsiya va interaktsiya vositasi sifatida taqdim etishi, ularning tilni amalda qo‘llashga bo‘lgan qobiliyatlarini oshirishi zarur. Mazkur yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishga, o‘quvchilarning chet tilida erkin muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

L.S. Vigotskiy tadqiqotlariga ko‘ra, chet tilda nutq rivojlanishi ona tilidagidan farq qiladi: Ona tilida nutq tabiiy ravishda, ong ishtirokisiz shakllanadi. Bola o‘z ongidagi fikrni ifodalash uchun til vositalaridan foydalanadi, bu esa tafakkur va nutqning birgalikda rivojlanishini ta’minlaydi. Ingliz tilida esa o‘quvchi ona tilidagi til va nutq tajribalariga ega holda til o‘rganishga kirishadi. Ammo ingliz tilining birliklari o‘rab turgan borliqni anglash jarayoni bilan mos kelmaydi. O‘quvchi chet tilini o‘rganayotganda fikrlashni emas, balki fikr ifodalashni rivojlantiradi. Bu jarayon:

Til va madaniyatga xos vosita va usullardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini talab qiladi. O‘qitishda onglilik prinsipini kuchaytirishni talab qiladi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish. Chet tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagilar bajariladi:

1. Til material (fonetika, leksika, grammatika) metodik jihatdan tayyorlanadi va taqdim etiladi.

2. Egallangan bilimlarni mustahkamlash uchun maxsus kommunikativ mashqlar bajariladi.

3. Mashq va topshiriqlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish qobiliyatiga mos ravishda tuziladi. Natijada o‘quvchilar nafaqat ingliz tilining grammatik va leksik materialini o‘zlashtiradi, balki uni amalda qo‘llash orqali nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Natijalar va Muhokama

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida fikr ifodalashni o‘rganishi, odatda, murakkab jarayondir. Bu jarayonning qiyinchiliklari, asosan, quyidagilardan kelib chiqadi:

1. Fikrni shakllantirish jarayoni ichki planda ona tilida amalga oshiriladi, lekin uni ifodalash tashqi planda ingliz tilida bajariladi. Agar o‘quvchi doimiy ravishda ona tili kodini ingliz tiliga tarjima qilaversa, u faqat til vositalarini o‘rganadi, ammo ingliz tilida fikr ifodalash usulini o‘zlashtirmaydi.

2. Til o‘zlashtirish jarayoni ongli va beixtiyor harakatlar umumlashmasida sodir bo‘ladi. Bu jarayon kichik maktab yoshida o‘quvchilarning tez rivojlanayotgan fikrlash va xotira mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq. Agar bu davrda ingliz tili faqat yod olish va taqlid qilish asosida o‘rgatilsa, bu mexanik xotirani rivojlantiradi, ammo natijada ona tilidagi nutq va tafakkur rivojlanishi tormozlanishi mumkin.

3. O‘quvchining ingliz tilidagi fikr ifodalash usulini shakllantirish uchun unga ona tilidagi usulga qiyoslanadigan inglizcha muqobil usullarni o‘rgatish lozim. Buning uchun o‘quvchiga: Nutq namunalarini o‘rgatish; Yaxlit modellar va konstruksiyalarni taqqoslash orqali ularning mazmunini tushuntirish tavsiya etiladi. Masalan, speech patterns, formulaic chunks, va fixed expressions kabi nutq namunalarini o‘rgatish orqali o‘quvchilar hali shakllanmagan grammatik ko‘nikmalar o‘rnini to‘ldirish imkoniga ega bo‘ladi.

4. Dialogik nutqni rivojlantirish: O‘quvchilarning savollar berish, javob qaytarish kabi muloqotga asoslangan nutqiy faoliyatlari rivojlantirilishi lozim. Dialogik nutq: Grammatika va so‘z boyligini amalda qo‘llash imkonini beradi. O‘quvchining ijtimoiy muloqot qobiliyatini rivojlantiradi.

5. Lingvo-etno madaniyat bilan tanishtirish: Ingliz tili faqat grammatikani o‘rganish emas, balki u bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy va ijtimoiy muhitni tushunishni ham talab qiladi. O‘quvchilarni Ingliz tilining madaniy o‘ziga xosliklari bilan tanishtirish;

Ijtimoiy-madaniy kontekstda inglizcha ifoda usullarini tushunishga yo‘naltirish lozim. O‘quvchining ingliz tilida fikr ifodalash qobiliyatini rivojlantirishda grammatik birliklardan ko‘ra nutqiy modellar, muloqot imkoniyatlari, va madaniy tushunchalarni birlashtirish muhimdir. Shu orqali o‘quvchilar tilni nafaqat biladi, balki unda samarali muloqot qila oladi.

An‘anaviy ingliz tilini o‘rgatish dastlabki bosqichlarida ko‘pincha monologik nutqqa e‘tibor qaratiladi. Bu yondashuvda, odatda, til birliklarini yod olish va qayta takrorlash asosiy o‘rinni egallaydi. Biroq, bu usulning bir qancha kamchiliklari mavjud:

1. Monologik yondashuvning cheklovlari: Bunday yondashuv kommunikatsiya yoki interaktsiyani rivojlantirishga emas, balki nutq harakatini bajarishga yo‘naltiriladi. Nutq harakati bajarilishida ko‘pincha motivatsiya yetishmaydi, chunki bu harakatlar o‘quvchiga hayotiy ehtiyoj sifatida ko‘rinmaydi.

2. Motivatsiya va nutq rivojlanishi: Ona tilida nutq rivojlanishida ichki (intrinsic) motivatsiya muhim rol o‘ynaydi. Bola ona tilini biologik ehtiyojlarini qondirish uchun o‘zlashtiradi, masalan, biror narsani talab qilish yoki savol berish orqali.

Ingliz tilini o‘rganishda esa, aksincha, tashqi motivatsiya muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarda o‘yin orqali motivatsiyani kuchaytirish til o‘rgatishda samarali bo‘lishi mumkin.

3. Egosentrik nutqning ahamiyati: J. Piaje ta’kidlaganidek, kichik yoshdagi bolalarda egosentrik nutq rivojlanadi. Bu nutq bolaning o‘z-o‘ziga fikrlarni ovoz chiqarib ifodalash jarayonini aks ettiradi. Bunday nutqning mavjudligi bolalarning muloqot ehtiyoji va ichki fikrlash mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilganligini ko‘rsatadi.

Egosentrik nutqni hisobga olgan holda, dars jarayonida bolalar bilan o‘zaro muloqotga yo‘naltirilgan vazifalar tuzish, ularni jarayonga faol jalb qilish lozim.

4. Mediatorlik va hamkorlikning roli: Feurshteynning mediatsiya nazariyasiga ko‘ra, bolalar bilimni kattalar yordamida samaraliroq o‘zlashtiradi. Bu kattalar (ota-onalar, o‘qituvchilar) o‘quvchiga eng maqbul stimullarni taqdim etib, ularning qaysi biri foydali yoki to‘g‘ri ekanligini tushuntirib beradilar.

Mediatorlarning maqsadli harakatlari o‘quvchining o‘rganish jarayonini samarali tashkil qilish va uni motivatsiya qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

5. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda o‘yin va interaktiv metodlarning roli: O‘yin-motivatsiya orqali kommunikativ mashqlarni tashkil qilish kichik yoshdagi bolalarda ingliz tilini o‘zlashtirishning asosiy yo‘li hisoblanadi.

Masalan, nutqiy o‘yinlar, dramatik vaziyatlarni modellashtirish, qiziqarli dialoglar orqali o‘quvchilar o‘rganilgan bilimlarni amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda monologik yondashuvni cheklash va interaktiv, kommunikativ va motivatsion metodlarga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. Bu orqali o‘quvchilar faqat til vositalarini emas, balki ingliz tilida samarali muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantira oladilar.. [5]

Bolalarning til o‘rganish jarayoni ularning yoshiga, rivojlanish darajasiga va o‘quv muhitiga bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayondir. Ushbu jarayonning samaradorligini oshirish uchun pedagoglar bir nechta muhim jihatlarni inobatga olishlari kerak:

1. Soddashtirilgan tilning o‘rni Kichik yoshdagi bolalar bilan muloqotda soddashtirilgan til muhim ahamiyatga ega. Bu til: Sodda gap tuzilmasi (masalan, "This is a book.")

Aniq talaffuz (so‘zlarning bo‘g‘inlari va tovushlari ravshan ifodalanishi)

Takrorlar (asosiy tushunchalar bir necha bor takrorlanadi)

Hissiy va jismoniy ifodalar bilan boyitiladi (masalan, tabassum, ishora, qosh uchirish).

Bunday yondashuv tilni tushunishni osonlashtiradi va bolaning tabiiy o‘rganish jarayoniga mos keladi.

2. Nutqdagi xatolarga sabr va qo‘llab-quvvatlash. Bola til o‘rganish jarayonida xatolarga yo‘l qo‘yishi tabiiydir. Masalan, "This is a not your" yoki "I am jacket" kabi gaplar bola nutqining rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi.

Kattalar bunday xatolarga nisbatan sabrli bo‘lib, ularni muloyimlik bilan to‘g‘rilash orqali bolani qo‘llab-quvvatlashlari lozim. Masalan:

Bola: "This is a not your."

Ota-ona yoki o‘qituvchi: "Oh, you mean 'This is not yours.' Good try!"

3. Telegrafik nutq xususiyatlari

Kichik yoshdagi o‘quvchilar ingliz tilini o‘rganishda telegrafik nutqga xos qisqa, sodda ifodalarni ishlatadilar. Bu ona tilida ham shunday bo‘lib, bola avval ot + sifat yoki ot + fe‘l ko‘rinishida gaplar tuzadi. Ingliz tilida esa telegrafik nutq o‘rganilgan nutq namunalariga asoslanadi, masalan:

"Ready?"

"Really?"

"Never mind."

Ushbu ifodalar bolalar uchun xotirada saqlanadigan tayyor qoliplar bo‘lib xizmat qiladi va ular o‘zlashtirishni yengillashtiradi.

4. Jonli muloqot va kreativlik

Bolalar muloqotda o‘zlarining ijodiy yondashuvlarini namoyon etadilar. Masalan, bolaning "Piya qachon keladi?" kabi savoli kattalar tomonidan xato deb qabul qilinmay, aksincha, tushuntirish va o‘rgatish uchun imkoniyat sifatida qaraladi.

Bunday yondashuv bolaning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va uning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

5. Ingliz tilini o‘qitishning lingvistik asoslari

Psixolingvistik aspekt: Til o‘rganish jarayonida o‘quvchining fikr ifodalash qobiliyati, nutqiy ijodkorligi va tilga bo‘lgan qiziqishi rivojlanadi. Pedagoglar bu jarayonni qo‘llab-quvvatlash uchun psixologik yondashuvlardan foydalanishlari kerak.

Sotsiolingvistik aspekt: Til o‘qitishda lingvistik ko‘nikmalar bilan birga madaniy bilimlarni ham singdirish lozim. Masalan, o‘quvchilar ingliz tiliga xos madaniyat va ijtimoiy odatlarni o‘rganish orqali tilni chuqurroq tushuna oladilar.

Xulosa

Ingliz tilini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatishda soddalashtirilgan til, jonli muloqot, xatolarga sabr bilan yondashish, telegrafik nutqni qo‘llab-quvvatlash va madaniy jihatlarni o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar bolalarning lingvistik va ijodiy rivojlanishini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

• 1.Edelenbos P., Johnstone R., Kubenak A. The main pedagogical principles underlying the teaching of languages to very young learners. Final Report of the EAC 89/04, Lot 1 study. 2006. – 196 p.

- 2. Ellis R. Principles of Instructed Language Learning. – Asian EFL Journal, 2005. – P. 10-26. Electron resource: <http://www.asian-efl-journal-Asian EFLJournal.TheEFL Professionals' Written Forum>. Access date: 4.06.2017
- 3. Jalolov J.J. Ingliz til o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.
- 4. Saydaliyev S.S. Chet tili o‘qitish metodikasidan ocherklar. – N.: Namangan, 2004. – 78-b.
- 5. Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – 40 b

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

TA‘LIMNI XALQAROLASHTIRISH ILMIY – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Turdaliyev Doston Sobirjon o‘g‘li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

turdaliyevdoston20@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-7721-0713>

Annotatsiya: Mazkur maqolada so‘nggi yillar davomida yurtimizda xorijiy tilni o‘qitish hamda bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarini kasbga tayyorlash jarayonining samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar haqida so‘z yuritiladi. Shu bilan bir qatorda, xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, shuningdek, respublika uzluksiz ta‘lim tizimida bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini xalqarolashtirish hamda chet tili o‘qituvchilarini xorijda malaka oshirishini yo‘lga qo‘yish orqali bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, jahon davlatlari tajribasi asosida mamlakatning ta‘lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va raqobatbardoshligini oshirish hamda universitetlarning jozibadorligini oshirib, chet ellik talabalar sonini ko‘paytirish, mahalliy iqtisodiyotni jonlantirish, yuqori texnologiyali sohalarda raqobatbardoshlikni oshirish va mamlakatimizdagi universitetlarning global obro‘cini mustahkamlash hamda ta‘limni xalqarolashtirishning afzalliklari, qo‘shma ta‘lim dasturlari haqida fikr-mulohazalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: xorijiy ilg‘or tajriba, ta‘limni xalqarolashtirish, xalqaro aloqalar, xalqarolashtirishning afzalliklari, qo‘shma ta‘lim dasturlari.

INTERNATIONALIZATION OF EDUCATION AS A SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: This article discusses the reforms implemented in our country in recent years to improve the efficiency of foreign language teaching and professional training of future English language specialists. In addition, the process of improving the teaching of foreign languages based on advanced foreign experiences, as well as increasing the competitiveness of future foreign language teachers by internationalizing the professional and methodological training of future foreign language teachers in the republic’s continuous education system and organizing advanced training of foreign language teachers abroad, as well as adapting the country’s education system to international standards based on the experience of world

countries, improving the quality and competitiveness of personnel training, and increasing the attractiveness of universities, increasing the number of foreign students, revitalizing the local economy, increasing competitiveness in high-tech industries, and strengthening the global reputation of our universities, as well as the advantages of internationalization of education, and opinions on joint educational programs is brought.

Keywords: foreign best practices, internationalization of education, international relations, advantages of internationalization, joint educational programs.

ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ КАК НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: В статье рассматриваются реформы, проводимые в нашей стране в последние годы с целью повышения эффективности обучения иностранным языкам и профессиональной подготовки будущих специалистов английского языка. Кроме того, рассматривается процесс совершенствования преподавания иностранных языков на основе передового зарубежного опыта, а также повышение конкурентоспособности будущих учителей иностранных языков путем интернационализации профессиональной и методической подготовки будущих учителей иностранных языков в системе непрерывного образования республики и организации повышения квалификации учителей иностранных языков за рубежом, а также адаптация системы образования страны к международным стандартам на основе опыта стран мира, повышение качества и конкурентоспособности подготовки кадров, повышение привлекательности вузов, увеличение числа иностранных студентов, оживление местной экономики, повышение конкурентоспособности в высокотехнологичных отраслях промышленности, укрепление мировой репутации наших вузов, а также преимущества интернационализации образования, приводятся мнения о совместных образовательных программах.

Ключевые слова: зарубежный опыт, интернационализация образования, международные связи, преимущества интернационализации, совместные образовательные программы.

KIRISH

So‘nggi yillar mobaynida, yurtimizda ko‘plab sohalarda, shu jumladan, yoshlarimizga sifatli ta‘lim berish maqsadida ta‘lim tizimida ham bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Jahon standartlariga javob bera oladigan, xorijiy tillarda erkin so‘zlasha oladigan oliy malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun bir qator qulayliklar yaratish maqsadida oliy ta‘lim va kadrlar tayyorlash sohalarini isloh qilishga oid qaror va farmonlar qabul qilindi. Unga ko‘ra, “Respublika oliy ta‘lim tizimini xalqaro ta‘lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish, ilg‘or xorijiy tajribani chuqur o‘rganish va tahlil qilish asosida ta‘lim dasturlarini jahonda tan olingan xalqaro standartlar talablariga moslashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish”¹ muhim va ustuvor vazifa etib belgilandi hamda xorijiy oliy

ta‘lim muassasalarini tashkil etishda qulayliklar yaratildi. Bu esa o‘z navbatida, kadrlarni tayyorlash bo‘yicha yangicha raqobatni yuzaga keltirdi. Natijada, oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim dasturlari va baholash tizimini xorijiy ilg‘or tajribalar asosida shakllantirishga talabni yuzaga keltirdi. Shu talab ta‘limni xalqarolashtirishni oliy ta‘limning asosiy omillaridan biriga aylantirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 34-sonli qaroriga asosan [1] dunyo bo‘yicha samarali natija bergan o‘qitish metodikalari, dastur va darsliklarni maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, umumta‘lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta‘lim muassasalari va o‘quv markazlarida joriy etish, xorijiy davlatlarda chop etiladigan zamonaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalarni, xalqaro testlar va ularni joriy qilish uchun tegishli ruxsatnoma va litsenziyalar, xorijiy tillarni o‘rgatishga qaratilgan kontentlarni mualliflik huquqlarini xarid qilish, xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, dasturiy ta‘minot loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish, xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirish, tilning asosiy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o‘yin, ko‘ngilochar ko‘rsatuv, filmlar va boshqa o‘rgatuvchi kontent yaratish, fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb etish, ikki oy muddatda uzluksiz ta‘lim tizimida chet tilini o‘qitishning o‘quv-metodik majmualarini o‘quvchilarning asosiy til ko‘nikmalarini (tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish) shakllantirish nuqtai nazaridan to‘liq qayta ko‘rib chiqish, malakali mutaxassislarni jalb etgan holda 2022-yil 1-martdan boshlab chet tili fani o‘qituvchilarining tinglab tushunish, o‘qish, yozish hamda gapirish kompetensiyalarini rivojlantirishga hamda sertifikatga ega bo‘lishlariga yo‘naltirilgan o‘quv kurslarini tashkil etish vazifalari amalga oshirildi. Muhtaram Prezidentimiz davlat mustaqilligimizning 30 yilligi bayramiga bag‘ishlangan tantanali bayram tadbirida so‘zlagan nutqlarida ”Bugungi kunda islohotlarimiz talabi, hayotning o‘zi oliy ta‘lim sohasini jadal rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu bois yurtimizda so‘nggi 5 yilda 64 ta yangi oliy ta‘lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 141 taga yetkazildi. Qabul kvotasi 3 barobar oshirildi. Endilikda bitiruvchi yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan – shunga e‘tibor bering – 28 foizga yetkazildi. Yaqin kelgusida ushbu ko‘rsatkichni 50-60 foizga yetkazish mo‘ljallanmoqda” – degan fikrlarni ta‘kidlab o‘tdilar. [3:989]

Adabiyotlar tahlili

Mamlakatimiz uzluksiz ta‘lim tizimida bo‘lajak xorijiy til mutaxassislarining kasbiy-metodik tayyorgarligini xalqarolashtirish bo‘yicha bilan bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini kasbiy-metodik jihatdan tayyorlash jarayonini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish muammolari A.T.Nurmanov, U.A.Jabborov, K.J.Riskulova, O.M.Musurmanova, N.A.Muslimovlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. G.N.Pirmanova o‘z dissertatsiyasida talabalarning ingliz tiliga qiziqishini oshirish vositasi sifatida Angliyaning badiiy merosini o‘rganish, F.I.Ibragimova esa bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy

kompetentligini Angliya madaniyatiga qiziqishlarini shakllantirish orqali takomillashtirish zarurligini asoslab bergan. Uzluksiz ta‘lim tizimida chet tillarini o‘qitishning ilmiy-metodik jihatlari M.X.Artiqova, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, N.Ibragimova, G.T.Maxkamova, M.Saydullaeva, O.Sotiboldiev, S.X.Fayzullinalar tomonidan ishlab chiqilgan. G.S.Kinjaeva, D.Tursunova, M.M.Yuldashevalarning tadqiqotlarida kasbiy yo‘naltirilgan yondashuv asosida chet tillarini o‘rganish jarayoni yoritib berilgan.[6:739-740]

Tadqiqot metodologiyasi

Bugungi kunda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda talabalarni xalqaro mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va globallashtirish ishchi kuchiga tayyorlash zaruratini inobatga olgan holda, ta‘limning xalqarolashuvi, xususan, oliy ta‘lim muassasalarini xalqarolashtirish jahon miqyosida muhim vazifaga aylanib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida, xorijiy tillarga, ayniqsa, ingliz tiliga bo‘lgan ehtiyojni qondirishni talab etadi. Chet tilini mukammal bilish xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganishda, samarali muloqot qilish hamda tushunishni osonlashtirishda muhim rol o‘ynaydi, shuningdek, akademik muvaffaqiyatga erishishda yordam berib, madaniy almashinuv va tushunishni ham rivojlantiradi.

Xalqarolashtirish - bu oliy ta‘limning xalqaro o‘lchovini muhokama qilish uchun tobora ko‘proq foydalaniladigan atama. Chunki u XXI asr boshlarida oliy ta‘limga katta ta‘sir ko‘rsatayotgan jarayon bo‘lib, turli odamlar uchun turlicha ma‘noni anglatadi, u adabiyotda turli yo‘llar bilan namoyon bo‘ladi. "Xalqarolashtirish"ga e‘tibor kuchayib borayotgani va undan foydalanishni ko‘rish quvonarli bo‘lsa-da, uning ma‘nosi haqida turlicha qarashlar mavjud. Ba‘zi odamlar uchun bu talabalar va o‘qituvchilar uchun akademik harakatchanlik kabi bir qator xalqaro tadbirlar, xalqaro aloqalar, hamkorlik va loyihalar, yangi xalqaro akademik dasturlar va tadqiqot tashabbuslarini anglatadi. Boshqalar uchun bu turli xil yuzma-yuz va masofaviy usullardan foydalangan holda boshqa mamlakatlarga ta‘lim berish kabi yangi tartiblarni anglatadi. Ko‘pchilik uchun bu o‘quv dasturi va o‘qitish jarayoniga xalqaro, madaniyatlararo va global o‘lchovni kiritishni anglatadi.

Xalqarolashuv oliy ta‘limni o‘zgartirish uchun strategik vosita bo‘lib, so‘nggi o‘n yilliklarda butun dunyo universitetlarida mashhur tendensiyaga aylandi. Oliy ta‘limning baynalmilallashuvi ta‘lim sektoridan tashqari kengroq hamjamiyat e‘tiborini tortmoqda, ayniqsa uning mantiqiy asoslari, faoliyati va ta‘siri ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy manfaatlar bilan chambarchas bog‘liq. U migratsiya, ishchi kuchi, o‘qishdan keyingi mehnat huquqlari va iqtisod bilan bog‘liq bo‘lgan davlat siyosatidagi turbulentliklarga tobora ko‘proq duchor bo‘lmoqda. Xususan, xalqaro ta‘lim Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya va Germaniya kabi ba‘zi o‘qish uchun mo‘ljallangan mamlakatlarda malaka yetishmasligini bartaraf etish va milliy qurilishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi va xalqaro ta‘lim va migratsiya aloqasi yoki "ta‘lim" tendentsiyasi sifatida tobora ko‘proq foydalanilmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Bugungi kunda yurtimizdagi 25 ta oliy ta‘lim muassasasida o‘qitish chet tilida olib borilayotgani, Joriy yilda "El-yurt umidi" jamg‘armasi orqali 350 nafar talabaning nufuzli

xorijiy universitetlarda o‘qishi uchun stipendiyalar ajratilgani, Xalqaro sertifikatning dastlabki va o‘rta darajasini olgan o‘qituvchilarning oylik maoshiga 40 foiz, yuqori natija ko‘rsatganlarga 50 foiz ustama berilishi, bundan tashqari, yuqori ball olgan o‘qituvchilarga xalqaro sertifikat olish uchun test topshirish xarajatlari qoplab berilishi, ixtisoslashgan maktablar va oliy o‘quv yurtlariga til egasi bo‘lgan xorijlik o‘qituvchilarni jalb qilish, chet tili o‘qituvchilarini xorijda malaka oshirishini yo‘lga qo‘yish, chet tilini o‘qitishning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish maqsadida

“El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali xorijiy doktoranturada ta‘lim olish uchun yiliga 20 ta o‘rin ajratilgani, shuningdek, xalqaro QS (Quacquarelli Symonds World University Rankings) hamda THE (Times Higher Education) tashkilotlarining jahon universitetlari reytingida o‘z o‘rniga ega va diplomi xalqaro darajada tan olinadigan universitetlarning mamlakatimizda tashkil etilayotganligi bu chet tilini ustuvor soha sifatida belgilanib, alohida e‘tibor berilayotganining natijasidir. Hozirgi kungacha ta‘lim tizimini xalqarolashtirish maqsadida malakatimizda ko‘plab sohalarda, shu jumladan, ingliz tilini o‘qitish va bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha ham xorijiy davlatlar bilan xalqaro hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti xorijiy tillarni o‘qitish sohasida O‘zbekiston Respublikasining yetakchi oliy ta‘lim muassasalaridan biri hisoblanib, ushbu universitet bugungi kunda xalqaro aloqalar bo‘yicha hamkorlikni ham keng yo‘lga qo‘ygan. Hamkorlikda xorijiy oliy ta‘lim muassasalarining filiallarini ochish, ikki diplomlilikni ta‘lim jarayoniga joriy etish, qo‘shma fakultetlarni tashkil etish, xalqaro loyihalarda faol ishtirok etish va investitsiyalarni jalb etish, xorijiy olim va mutaxassislarni taklif qilish, universitet professor-o‘qituvchilarini malaka oshirish va stajirovkaga yuborish, bitiruvchilarni magistratura va PhD dasturlarida o‘qishini tashkil qilish kabi vazifalarni amalga oshirmoqda. Angliyaning Norvich tillarni o‘qitish instituti, AQShning Vebster universiteti, Nijegorod davlat lingvistik universiteti, Turkmanistonning Davlatmamat Azadiy nomidagi Turkmaniston davlat jahon tillari universitetlari va boshqa ko‘plab iniversitetlar bilan ikki tomonlama hamkorlik shartnomalari imzolandi.

Shuningdek, xalqaro aloqalar asosida universitet professor-o‘qituvchilarining malakasini oshirish bo‘yicha ham ijobiy natijalarga erishilmoqda. Professor-o‘qituvchilarning chet elda malakasini oshirish uchun har yili shartnomalar tuziladi. 2018-yili AQSHning Vebster universiteti bilan imzolangan kelishuv asosida bir yillik magistratura akademik Dasturi tashkil etildi. Mazkur magistratura Dasturi Markaziy Osiyoda yagona hisoblanib, bu maskanda butun dunyo yoshlari tahsil olishlari mumkin. Shuni ta‘kidlash joizki, bugungi kunda jahon hamjamiyati talablariga mos ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda rivojlangan xorijiy davlatlar, ayniqsa, Buyuk Britaniya va Amerika Qo‘shma Shtatlari ilg‘or tajriba va dasturlari alohida ahamiyatga ega. Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha qator muammolarga yechim bo‘la oladigan islohotlar dasturi ishlab chiqilayotganligi barchani quvontirmoqda. Tashkil etilgan Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi tomonidan hozirgi kunda quyidagilar amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Buyuk Britaniyaning

“MM Publications” nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan maktabgacha ta‘lim muassasalarini o‘quv-uslubiy bazasini takomillashtirish maqsadida “Ilk qadam” davlat ta‘lim dasturi asosida ishlab chiqqan 20,000 nusxadagi ingliz tili darsliklari beg‘araz yordam sifatida maktabgacha ta‘lim vazirligiga taqdim etildi. Maktabgacha talim muassasalarida chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish borasida chora tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Maktabgacha talim muassasalari uchun “Ilk qadam” o‘quv dasturini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritdi. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi bilan hamkorlikda davlat xizmatchilari tomonidan xorijiy tillarni o‘zlashtirish darajasini oshirish hamda davlat organlarini yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar bilan to‘ldirish maqsadida “English for science” dasturi doirasida chet tillarini o‘qitish va samaradorlikni oshirish borasida hamkorlikda istiqbolli rejalar tuzdi. Undan tashqari yana hamkorlikda “English for science” dasturi doirasida O‘zbekistondagi olimlar va yosh tadqiqotchilarni akademik ingliz tiliga o‘rgatish bo‘yicha 10 oy davomida 1000 taga yaqin mahalliy olimlar ishtirokida ingliz tilini targ‘ib qilish g‘oyalari amalga oshirildi. [2:989] Hozirgi kunda ham amalga oshirilmoqda. 2024-yil 16-aprel kuni Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligida oliy ta‘lim sohasini xalqarolashtirish bo‘yicha Buyuk Britaniyaning yetakchi konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda “Oliy ta‘limni xalqarolashtirish: O‘zbekiston va xorijiy oliy ta‘lim muassasalari forumi” o‘tkazilib, unda Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada va Irlandiyadan jami 9 ta oliy ta‘lim muassasasining vakillari hamda respublika oliy ta‘lim muassasalari rahbarlari ishtirok etdi. Forum ochilishida Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari Otabek Mahkamov so‘nggi yillarda sohada tizimli olib borilayotgan islohotlar, shu jumladan ilm-fan hamda innovatsion mahsulot va xizmatlarni yaratishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati ortib borayotgani, bunda bu kabi xalqaro anjumanlar o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tashi haqida to‘xtalib, *“ushbu forum oliy ta‘lim muassasalarining strategiyalar va salohiyatni oshirish loyihalarida ishtirok etishi hamda ularning xalqaro rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi”* – deya ta‘kidlaganlari hamda anjuman davomida “El-yurt umidi” jamg‘armasi, shuningek, xorijiy universitet vakillari tomonidan xorijda tahsil olish istagida bo‘lgan yoshlar uchun ajratiladigan grant dasturlari haqida taqdimotlar qilinishi, shundan so‘ng O‘zbekiston va xalqaro universitetlar o‘rtasida B2B uchrashuvlari tashkil etilib, o‘zaro hamkorlik yo‘nalishlari va istiqbolli rejalar yuzasidan qator kelishuvlarga erishilishi hukumatimiz tomonidan ham bugungi kunda ta‘limni xalqarolashtirishga berilayotgan yuksak e‘tibordandir.

So‘ngi yillar mobaynida, ta‘limni xalqarolashtirish maqsadida yurtimizda Amerika Qo‘shma Shtatlari universitetlari bilan hamkorlikda bir qator tadbirlar, seminarlar, konferensiyalar bo‘lib o‘tdi. 2024-yilning 7-oktabr kuni AQShning O‘zbekistondagi elchixonasi tashabbusi bilan "O‘zbekistonda oliy ta‘limni rivojlantirish" mavzusida tashkil etilgan o‘quv seminari bunga yaqqol misoldir. Seminarning asosiy maqsadi O‘zbekiston hukumatining oliy ta‘lim sohasidagi islohotlarini qo‘llab-quvvatlash va mahalliy OTMlarning AQSh universitetlari bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish, oliy ta‘lim sektorini xalqarolashtirishda

2. Adizova T.M. Boshqaruv muloqoti psixologiyasi / T.M.Adizova: Ma’sul muharrir: M.G.Davletshin; O‘zRes. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Nizomiy nomli TDPU — T., 2000 — 19 b.

3. Ahlidinov R.Sh. Maktab boshqaruvida ichki nazorat. — T.: Sharq, 1996 —64 b.

4. Анисимов П.Ф., Сосонко В.Э. Управление качеством среднего профессионального образования // Монография. — Казан: Ин-т среднего профессионального образования РАО, 2001.

5. Анохин П.К. Узловые вопросы теории функциональной системы. – М.: Наука, 1990. – С. 23.

6. Yo‘ldosheva G. Umumiy o‘rta ta’lim ta’lim muassasasida marketing xizmati. // // Ta’lim menejmenti, 2006. - №3. – B. 104-108.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA "TARBIYA" FANINI O‘QITISH JARAYONIDA EKOLOGIK BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Musurmonov Raxmatilla

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

I.Y. Norbo'taeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs mustaqil tadqiqotchi

E-mail: iraxon030981@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida ekologik bilim va ongni shakllantirish metodikasi yoritiladi. Globallashuv va ekologik muammolar ortib borayotgan hozirgi davrda bolalarning ekologik tarbiyasiga e’tibor kuchaymoqda. Odatda ekologik ta’lim biologiya yoki geografiya fanlariga bog‘liq holda olib boriladi, ammo “Tarbiya” fani doirasida ham ekologik qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlari yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida maqolada “Tarbiya” darslariga ekologik mavzularni integratsiya qilishga qaratilgan tajriba o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Tadqiqotda o‘quv dasturlar tahlili, eksperimental dars mashg‘ulotlari, so‘rovnomalar va kuzatuv metodlaridan foydalanilishi ko‘zda tutilgan. Toshkent viloyati Yuqorichirchiq va Ohangaron tumanlari, Qashqadaryo viloyati, Shaxrisabz tumani, Surxondaryo viloyatining tumanlaridagi maktablarining boshlang‘ich 1-4 sinf o‘quvchilari (120 nafar) ishtirokida tajriba o‘tkaziladi. Kutilayotgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, darslarda daraxt ekish, chiqindilarni ajratish, suvni tejash kabi ekologik vaziyatlarni muhokama qilish o‘quvchilarning qiziqishi va faolligini oshiradi. Rol o‘yinlari, dramatizatsiyalar va amaliy mashg‘ulotlar ekologik qadriyatlarni mustahkamlashda ijobiy samara beradi. Natijada, “Tarbiya” fanining ekologik tarbiyani rivojlantirishdagi salohiyati tasdiqlanishi kutilmoqda. Tadqiqot natijalari asosida ta’lim dasturlariga ekologik komponentlarni kengroq joriy etish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, tarbiya fani, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik madaniyat, o‘quv-metodik yondashuv, interaktiv usullar, amaliy mashg‘ulotlar, ekologik mas’uliyat, AKT, integratsiyalashgan yondashuv.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТУ "ТАРБИЯ"

Аннотация: В данной статье рассматривается методика формирования экологических знаний и сознания у учащихся начальных классов в процессе обучения

предмету «Тарбия». В эпоху глобализации и роста экологических проблем уделяется повышенное внимание экологическому воспитанию детей. Обычно экологическое образование связано с предметами биологии или географии, однако возможности формирования экологических ценностей в рамках предмета «Тарбия» изучены недостаточно. Для устранения этого научного пробела в статье запланирован эксперимент по интеграции экологических тем в уроки «Тарбия». В исследовании предполагается анализ учебных программ, проведение экспериментальных занятий, опросов и методов наблюдения. Эксперимент будет проведён с участием 120 учащихся начальных классов (1–4 классы) из школ Юқоричирчикского и Охангаронского районов Ташкентской области, Шахрисабзского района Кашкадарьинской области и районов Сурхандарьинской области. Ожидаемые результаты показывают, что обсуждение экологических ситуаций, таких как посадка деревьев, сортировка отходов и экономия воды на занятиях, повышает интерес и активность учащихся. Ролевые игры, драматизации и практические занятия положительно влияют на укрепление экологических ценностей. В итоге ожидается подтверждение потенциала предмета «Тарбия» в развитии экологического воспитания. На основе результатов исследования будет обоснована необходимость более широкого внедрения экологических компонентов в учебные программы.

Ключевые слова: учащиеся начальных классов, предмет «Тарбия», экологическое воспитание, экологическое сознание, экологическая культура, учебно-методический подход, интерактивные методы, практические занятия, экологическая ответственность, ИКТ, интегративный подход.

METHODOLOGY OF DEVELOPING ECOLOGICAL KNOWLEDGE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS DURING THE TEACHING PROCESS OF THE SUBJECT "TARBIYA"

Annotation: This article explores the methodology for developing ecological knowledge and awareness among primary school students in the process of teaching the subject "Tarbiya." In the current era of globalization and increasing environmental challenges, greater attention is being paid to the ecological education of children. Typically, ecological education is associated with biology or geography subjects; however, the potential for fostering ecological values within the "Tarbiya" subject remains insufficiently studied. To fill this scientific gap, the article plans an experimental integration of ecological topics into "Tarbiya" lessons. The study involves analyzing curricula, conducting experimental classes, surveys, and observation methods. The experiment will be conducted with 120 primary students (grades 1-4) from schools in Yuqorichirchiq and Ohangaron districts of Tashkent region, Shahrisabz district of Kashkadarya region, and districts of Surkhandarya region. Expected results indicate that discussing ecological situations such as tree planting, waste separation, and water conservation during lessons increases student interest and engagement. Role-playing, dramatizations, and practical

activities positively contribute to strengthening ecological values. Consequently, the potential of the "Tarbiya" subject to develop ecological education is expected to be confirmed. Based on the findings, the necessity of wider integration of ecological components into educational programs will be substantiated.

Keywords: primary school students, Tarbiya subject, ecological education, ecological awareness, ecological culture, educational-methodological approach, interactive methods, practical activities, ecological responsibility, ICT, integrated approach.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biriga aylangan [1]. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning kamayishi global miqyosda jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shu sababli, jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish va tabiatchilikka asoslangan yashash tarzini qo‘llab-quvvatlash zarur. Ayniqsa, o‘quvchilarda ekologik ongini rivojlantirish va ekologik mas‘uliyatni tarbiyalash yosh avlod uchun katta ahamiyatga ega [2].

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi esa shaxs kamolotining poydevori sifatida ekologik qadriyatlar va ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi [3]. "Tarbiya" fani bu borada samarali vosita bo‘lishi mumkin, chunki u o‘quvchilarga nafaqat axloqiy qadriyatlar, balki ekologik mas‘uliyatni ham o‘rgatishga imkon yaratadi. Ekologik bilimlarni o‘qitish, tabiatni asrash va uni muhofaza qilishga oid tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish uchun ushbu fanni samarali tarzda ishlatish zarur. Ekologiya va ekologik axloqiy ta‘limning nazariy asoslari, jumladan, barqaror rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi haqida fikrlar bu mavzudagi asosiy kontseptual nuqtalarni tashkil etadi [4].

Ayni paytda ekologik bilimlarni boshlang‘ich ta‘limda "Tarbiya" fani orqali o‘rgatish masalasi ilmiy izlanishlar doirasida yetarlicha o‘rganilmagan. Avvalgi tadqiqotlar ekologik ta‘limning ilmiy va amaliy jihatlarini, asosan, tabiiy fanlar doirasida ko‘rib chiqqan. "Tarbiya" fani doirasida esa ekologik tarbiya uslublari va metodlarini qo‘llashga oid tadqiqotlar cheklangan. Ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishni maqsad qilgan bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ongini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar, uslublari va vositalarni tahlil qilishni ko‘zda tutadi [5].

Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tadqiqotlar usullari qo‘llaniladi. Xususan, pedagogik eksperimentlar, so‘rovnomalar, dars mashg‘ulotlari va kuzatuvlar orqali ekologik ta‘limning samaradorligi o‘rganilishi rejalashtirilgan. Toshkent viloyati Yuqorichirchiq va Ohangaron tumanlaridagi, Qashqadaryo viloyati, Shaxrisabz tumani, Surxondaryo viloyatining tumanlaridagi maktablarining boshlang‘ich - 1–4-sinf boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida ekologik mavzularni "Tarbiya" fani doirasida qanday o‘rgatish mumkinligi yuzasidan tajriba o‘tkazilishi mo‘ljallangan. O‘quvchilar va o‘qituvchilarning ekologik bilimlarga bo‘lgan yondashuvi, pedagogik metodlar va amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligi tahlil qilinadi [6].

Kutilayotgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ekologik mavzularni "Tarbiya" darslariga integratsiya qilish o‘quvchilarning ekologik ongini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib

xizmat qiladi. Interaktiv o‘qitish usullari, jumladan, rolli o‘yinlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali ekologik qadriyatlarni mustahkamlashda ijobiy yutuqlarga erishilishi kutilmoqda. Ushbu tadqiqot ekologik bilimlarni boshlang‘ich ta’limda muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi hamda bu yo‘nalishda ta’lim tizimida kengroq o‘zgarishlar qilish zaruratini asoslaydi [7].

Metodologiya. Tadqiqotda qo‘llanilishi rejalashtirilgan metodologiya asosida o‘quvchilarga ekologik bilimlarni "Tarbiya" fani orqali berish jarayoni diqqat bilan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang‘ich ta’limda ekologik tarbiyani samarali shakllantirish uchun "Tarbiya" fanining imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchilarda ekologik ongni rivojlantirish, ularda tabiatga bo‘lgan mas’uliyat hissini uyg‘otish va ekologik qadriyatlarni jamiyatda tarqatish uchun muhim imkoniyatlar yaratishi kutilmoqda [8].

Tadqiqotda ekologik ongni shakllantirishda amaliy va nazariy metodlar birgalikda qo‘llaniladi. Nazariy jihatdan, ekologik tarbiya haqida mavjud ilmiy adabiyotlar, ekologiya va axloqiy ta’lim bo‘yicha nazariyalar, shuningdek, ekologik rivojlanishning asosiy tushunchalari tahlil qilinadi. Amaliy jihatdan esa, dars mashg‘ulotlari tashkil etilishi rejalashtirilgan bo‘lib, unda ekologik mavzularni taqdim etish uchun innovatsion pedagogik metodlar, masalan, interaktiv o‘qitish, guruhli ishlar, rolli o‘yinlar va boshqa amaliy mashg‘ulotlar qo‘llaniladi [9].

Tadqiqot davomida, ekologik tarbiya jarayonida o‘qituvchilarning pedagogik mahorati va o‘quvchilarning faol ishtiroki qanday rol o‘ynashi aniqlashtiriladi. Tadqiqot yakunida kutilayotgan natijalarga ko‘ra, o‘quvchilarda ekologik bilimlarni rivojlantirishda o‘qituvchilar tomonidan ekologik mas’uliyatni tushuntirish va amaliy mashg‘ulotlarni qo‘llash samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ekologik mavzularni o‘qitishda o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, muhokamalar va ekologik masalalar bo‘yicha fikr almashish ularning ekologik ongini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda [10].

Bundan tashqari, tadqiqotda "Tarbiya" fani orqali o‘quvchilarning axloqiy va ekologik qadriyatlar tizimi qanday shakllanishi mumkinligi o‘rganiladi. O‘quvchilarga ekologik mas’uliyatni o‘rgatish, tabiatni asrash, chiqindilarni qayta ishlash, suvni tejash kabi amaliy qadriyatlar orqali ekologik ongni rivojlantirish imkoniyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari asosida ekologik mavzularni "Tarbiya" darslariga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning ekologik madaniyati va mas’uliyati yaxshilanishi ko‘zda tutiladi [11].

Natijalar va Munozara. Tadqiqot natijasida olinishi kutilayotgan asosiy xulosalar shundan iboratki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida "Tarbiya" fani orqali ekologik ongni shakllantirishda ekologik elementlarni o‘quv dasturiga kiritish, interaktiv usullarni qo‘llash va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish samarali bo‘lishi taxmin qilinmoqda. Rejalashtirilayotgan darslarda ekologik holatlarning, masalan, daraxt ekish, chiqindilarni ajratish, suvni tejash kabi faoliyatlarning muhokamasi o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi va ularni ekologik muammolarga jiddiy yondashishga undashi kutilmoqda. Bu yondashuvlar o‘quvchilarda ekologik mas’uliyatni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Rejada turuvchi rol

o‘yinlari va dramatizatsiya, xususan, "Tabiat do‘sti bo‘laylik" yoki "Chiqindilar sarguzashti" kabi sahna ko‘rinishlari orqali ekologik mavzular chuqurroq yoritilishi va o‘quvchilarning hissiy-ijodiy ishtirokini kuchaytirishi mo‘ljallangan. Shuningdek, o‘quvchilarning ekologik muammolar bilan bevosita bog‘lanishi, ularni qiziqarli shaklda o‘rganishiga imkon yaratiladi [12].

Rejalashtirilayotgan amaliy mashg‘ulotlar daraxt ekish, gul ekish, maktab hovlisini tozalash orqali o‘quvchilarda ekologik mas‘uliyatni kuchaytirish va tabiatga nisbatan mehr-muhabbatni shakllantirish ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, jumladan video lavhalar, interaktiv topshiriqlar va onlayn o‘yinlar yordamida ekologik bilimlar samarali o‘zlashtirilishiga erishiladi. Ushbu vositalar o‘quvchilarga ekologik mavzularni o‘z vaqtida, qiziqarli va mazmunli tarzda o‘rganish imkonini beradi. Natijada, bu metodlar ekologik ta‘lim samaradorligini oshirishga va o‘quvchilarda ilg‘or o‘quv strategiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi kutilmoqda [13].

1-jadval. “Tarbiya” fani asosida o‘quvchilarning ekologik ongini shakllantirishda qo‘llanilgan usullar va ulardan kutiladigan samaradorligi.

№	Qo‘llanilishi rejalashtirilgan metodlar	Tavsifi	Amalga oshirilishi kutilayotgan faoliyatlar	Kutilgan natija
1	Interaktiv usullar	O‘yin, suhbat, savol-javob orqali o‘rgatish	Ekologik o‘yinlar, “savol-javob” darslari	Ekologik tushunchalarni faol o‘zlashtirish
2	Rol o‘yinlari va dramatizatsiya	Sahnalashtirish va rolda chiqish orqali ta‘sir o‘tkazish	“Tabiat do‘sti bo‘laylik”, “Chiqindilar sarguzashti”	Ekologik masalalarni hissiy va ijodiy anglash
3	Amaliy mashg‘ulotlar	Bevosita ishtirok orqali o‘rganish	Daraxt ekish, gul ekish, maktab hovlisini tozalash	Ekologik mas‘uliyat va tabiatga mehr shakllanishi
4	Axborot texnologiyalaridan foydalanish	Video, testlar, onlayn o‘yinlar orqali interaktiv o‘qitish	Videodarslar, interaktiv topshiriqlar	Zamonaviy bilimlarni samarali o‘zlashtirish

Tajriba natijalari, ekologik ta‘limni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga samarali tarzda yetkazishda zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llashning ahamiyatini yana bir bor ta‘kidladi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ekologik mavzularga ijobiy munosabat bildirgan o‘quvchilarning ulushi 85% ni tashkil etdi. Bu esa ekologik ongni shakllantirishda interaktiv usullar, amaliy mashg‘ulotlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlangan ilmiy va amaliy bo‘shliqlarni bartaraf etish uchun yanada chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazish zarurligi ta‘kidlandi. Mavjud tadqiqotlar, asosan, ekologik ta‘limning tabiiy fanlar doirasida qo‘llanilishini ko‘rsatadi, lekin

"Tarbiya" fani orqali ekologik tarbiyani o'rgatishga oid tadqiqotlar hozircha yetarli darajada rivojlanmagan. Bu mavzu bo'yicha yanada keng qamrovli nazariy va amaliy izlanishlar talab etiladi. Bundan tashqari, ekologik ta'limda pedagogik yondashuvlarning samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilarni ekologik ta'lim bo'yicha malakasini oshirish zarur. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarda ekologik ongni shakllantirishda o'qituvchilarning roli va metodik yondashuvlarni yangilashga imkon yaratadi. Shu bilan birga, tadqiqot ekologik ta'limni boshlang'ich ta'lim bosqichida to'liq integratsiya qilish zarurligini ko'rsatdi. Ekologik ta'limning faqat tabiiy fanlar doirasida emas, balki boshqa fanlar, jumladan, "Tarbiya" fani orqali ham amalga oshirilishi o'quvchilarda ekologik mas'uliyatni rivojlantirishga katta yordam beradi. Kelasi zamon yondashuvlaridan foydalanish orqali, ekologik ta'limni modernizatsiya qilish va yangi pedagogik metodlarni joriy etish orqali ekologik ongni shakllantirishni yanada samarali amalga oshirish mumkin. Tadqiqotda keltirilgan natijalar, ekologik ta'limni yanada mustahkamlash, pedagogik metodlarni diversifikatsiya qilish va ekologik madaniyatni rivojlantirishning muhimligini ko'rsatmoqda [14].

Tadqiqotda ekologik mas'uliyatni o'rgatishda o'qituvchilarning rolini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. O'qituvchilar nafaqat ekologik bilimlarni o'rgatish, balki o'quvchilarda ekologik ongni shakllantirishda asosiy ko'priq vazifasini bajaradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning ekologik tarbiya bo'yicha malakali va samarali ishlashi ekologik ongning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchilarni ekologik ta'lim bo'yicha malaka oshirish kurslari va treninglar bilan ta'minlash zarur. Shuningdek, ekologik mavzularni boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'rgatishning samaradorligi haqida yanada kengroq tadqiqotlar o'tkazilishi kerak. Hozirgi kunda ekologik masalalarni faqatgina ekologiya yoki tabiiy fanlar doirasida o'rgatish cheklangan. Ekologik ta'limni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish orqali o'quvchilarda ekologik ongni va mas'uliyatni har tomonlama rivojlantirish mumkin. Masalan, tarix, geographiya, san'at va boshqa fanlar orqali ekologik qadriyatlarni o'rgatish yangi yondashuvlarni ta'minlashi mumkin. Kelajakda ekologik ta'limning boshlang'ich ta'lim tizimida to'liq integratsiya qilinishi uchun pedagogik metodlarni optimallashtirish, darslarni o'quvchilarga moslashtirish va texnologiyalardan kengroq foydalanish zarur. O'quvchilarga ekologik bilimlarni qiziqarli va samarali tarzda yetkazish uchun interaktiv texnologiyalarni, virtual laboratoriyalarni va onlayn platformalarni kengroq qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat ekologik ta'limni o'rganishni qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarning bilimlarini yanada chuqurlashtiradi. Shu bilan birga, ekologik ta'limni keng miqyosda tarqatish va jamiyatda ekologik ongni oshirish uchun ilmiy-amaliy tadqiqotlar va pedagogik tajribalar asosida yangi metodlarni ishlab chiqish talab etiladi. Tadqiqotda ta'kidlanganidek, ekologik ta'limning samarali integratsiyasi va kengayishi uchun metodologik yondashuvlar va pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish zarur. Bu o'quvchilarni ekologik muammolarga qarshi turishga tayyorlashda muhim qadam bo'ladi [15].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida ekologik bilimlarni shakllantirish o'quvchilarda ekologik ongni rivojlantirishda samarali

bo‘lishi, ularni mas’uliyatli va ongli fuqarolar sifatida tarbiyalashga katta hissa qo‘shishi mumkin. Ekologik mas’uliyatni boshlang‘ich ta’limda shakllantirish orqali o‘quvchilarni tabiatga hurmat bilan qarashga, uning resurslarini tejashga va atrof-muhitni asrashga undash mumkin. O‘quv dasturlariga ekologik tarbiya bo‘yicha maxsus bo‘limlar kiritish va ekologik mas’uliyatni ta’lim jarayoniga integratsiyalash uchun ilg‘or pedagogik metodlarni qo‘llashning ahamiyati yaqqol ko‘rinadi. Bu usullar o‘quvchilarda ekologik bilimlarni faol o‘zlashtirish, ular bilan amaliy shug‘ullanish va ekologik muammolarni hal etishda ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, tadqiqotda ekologik ta’limning samaradorligini oshirish uchun yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish, ekologik bilimlarni kengaytirishga qaratilgan maxsus o‘quv kurslari va materiallar yaratishga ehtiyoj borligi ta’kidlanadi. O‘quvchilarga ekologik muammolarni hal qilishda ko‘proq interaktiv va amaliy metodlarni joriy etish, shuningdek, ekologik fanlar va boshqa fanlar orasida integratsiyalashgan darslar tashkil etish zarur. Bu nafaqat ekologik ongini shakllantiradi, balki o‘quvchilarning ijtimoiy mas’uliyatini ham oshiradi. Kelajakda ushbu soha bo‘yicha chuqurroq nazariy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, ekologik ta’limning boshlang‘ich ta’lim tizimida muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun pedagogik jarayonlarni takomillashtirish zarur. Bu, shuningdek, ekologik madaniyatni jamiyatda keng tarqatish va bolalar ongida ekologik mas’uliyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar ekologik ta’limni kengaytirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish va ekologik tarbiyani rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni ochadi. Ekologik ta’limni samarali tashkil etish bolalarning ekologik ongini yanada mustahkamlashga va kelajakda ularni atrof-muhitni asrashga mas’uliyatli va ongli fuqarolar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi». Toshkent, 2022 g.
- [2] Z. Alimova, «Axborot texnologiyalarining ekologik tarbiyadagi o‘rni», *Ilm Va Taraqqiyot*, вып. 3, 2021.
- [3] D. Sultonova, *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ekologik tarbiya berish metodikasi*. Andijon: O‘qituvchi, 2020.
- [4] O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi, «Boshlang‘ich sinflar uchun “Tarbiya” fani o‘quv dasturi». Toshkent, 2020 g.
- [5] N. G‘ulomov va M. Rahimova, *Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi*. Toshkent: TDPU, 2021.
- [6] UNESCO, *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. Paris, 2017.
- [7] Z. Turg‘unova, *Ekologik ta’lim va tarbiya asoslari*. Buxoro: BDU nashriyoti, 2020.
- [8] G. Nuraliyeva, *Ekologik tarbiyaning nazariy asoslari*. Toshkent: TDPU, 2019.
- [9] Sh. Qodirov, *Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi*. Toshkent: Universitet, 2017.

[10]D. Norkulova, *O‘quvchilarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish yo‘llari*. Toshkent: Fan, 2021.

[11]M. Xodjayeva, «O‘quvchilarning ekologik ongini shakllantirishda drammatizatsiyaning roli», *Pedagog. Ilmi Yangiliklari*, вып. 2, 2020.

[12]O‘zbekiston Respublikasi, «“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni». Toshkent, 2020 г.

[13]N. To‘xtayeva, *Ta’limda integratsiyalashgan yondashuv: ekologik va axloqiy tarbiya uyg‘unligi*. Navoiy, 2022.

[14]A. Sultonov, «Tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanish», *Boshlang‘ich Ta’lim*, вып. 4, 2021.

[15]I. A. Karimov, *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

TA'LIM JARAYONIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINING IFODALASHI

Ismoilova Gulbakhor Azamovna

Associate Professor, Kokand State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

ismoilovag352@gmail.com

Muhammadjonov Dilshodbek Islomjon o'g'li

QDPI Pedagogika tarixi va nazariyasi
mutaxassisligi 1-kurs magistranti

muhammadjonovdilshod257@gmail.com

Annotatsiya Sog‘lom turmush tarzining ta’limda ifodalashi bugungi kunda ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Ushbu maqolada sog‘lom turmush tarzining ta’lim tizimiga qanday kirib kelgani, o‘quvchilarda sog‘lom odatlar va salomatlikni saqlashga oid ko‘nikmalarni qanday shakllantirish mumkinligi, shuningdek, bunday yondashuvlarning o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga ta’siri haqida so‘z boradi. Maqolada sog‘lom turmush tarzining asosiy prinsiplarini ta’limda amalga oshirish yo‘llari, pedagogik jarayonda ruhiy salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan usullar tahlil etiladi. Bu tadqiqot natijalari, nafaqat sog‘lom avlodni tarbiyalash, balki o‘quvchilarni sog‘lom turmush tarziga oid mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyorlashda ta’limning o‘rni katta ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, ta’lim, salomatlik, o‘quvchilar, pedagogik jarayon, ruhiy salomatlik, ta’limda sog‘lom odatlar, sog‘lom turmush tarzi prinsiplari, o‘quvchilarni tarbiyalash, salomatlikni saqlash, sog‘lom avlod, ta’limda sog‘lomlik.

Kirish

Sog‘lom turmush tarzi insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta’minlaydigan hayotiy printsiplar majmuasidir. Bu konsepsiya faqat oziqlanish, jismoniy faollik, dam olish va stressni boshqarishdan iborat emas, balki shaxsning ijtimoiy va madaniy omillari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. O‘quv jarayonida sog‘lom turmush tarzining ta’limda ifodalanishi nafaqat o‘quvchilarning sog‘lom hayot kechirishlariga yordam beradi, balki ularning umumiy ma’naviy va jismoniy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sog‘lom turmush tarzining ta’limdagi o‘rni.

Ta’lim jarayonida sog‘lom turmush tarzining o‘rni juda katta. Ta’lim nafaqat bilim olishning, balki shaxsning sog‘lom turmush tarziga oid axborotlarni, ko‘nikmalarni va qiymatlarni o‘rganishi uchun ham muhim maydon hisoblanadi. O‘quvchilarga sog‘lom turmush tarzining asosiy tamoyillari, masalan, to‘g‘ri oziqlanish, jismoniy mashqlarni muntazam

bajarish, dam olishning ahamiyati va stressni boshqarish kabi masalalar ta’limda singdirilishi kerak.

Sog‘lom turmush tarzini ta’limda ifodalashning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga o‘z salomatliklarini saqlash, muvozanatli turmush tarzini yuritish va hayot sifatini oshirishda yordam berishdir. Bu nafaqat o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga ta’sir etadi, balki ularning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Munozara

Sog‘lom turmush tarzining ta’limda ifodalanishi masalasi har doim jamiyatda katta e’tibor qozonib kelgan. Ba’zi olimlar va pedagoglar bu jarayonni o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini ta’minlashda muhim omil deb bilishadi. Ular, sog‘lom turmush tarzini ta’limga kiritish orqali nafaqat jismoniy sog‘lomlikni, balki o‘quvchilarning motivatsiyasini, muvaffaqiyatga bo‘lgan ishtiyoqini va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish mumkin, deb hisoblashadi. Masalan, muntazam jismoniy tarbiya darslari, salomatlikni saqlashga oid bilimlarni ta’lim jarayoniga kiritish, o‘quvchilarga sog‘lom ovqatlanish va stressni boshqarish usullarini o‘rgatish kabi choralar sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi.

Biroq, boshqa tomondan, ba’zi tahlilchilar bu yondashuvning ham ba’zi cheklovlari borligini ta’kidlashadi. Ular ta’lim tizimining o‘quvchilarga taqdim etayotgan sog‘lom turmush tarziga oid ma’lumotlari ko‘pincha nazariy bo‘lib, amaliyotda o‘quvchilarning kundalik hayotiga to‘liq ta’sir o‘tkazmasligi mumkinligini aytadilar. Shuningdek, jamiyatning iqtisodiy holati, o‘quvchilarning yashash sharoitlari va ularning sog‘lom turmush tarziga oid ma’lumotlarni qabul qilish darajasi ham muhim omil hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzini ta’limda muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun faqat o‘quvchilarga bilim berish kifoya qilmasligi, balki ularni real hayotda qo‘llay olishlariga imkon yaratish kerak.

Bu masalani hal qilish uchun ta’lim tizimi va jamiyat birgalikda sog‘lom turmush tarzini faqat maktabda emas, balki o‘quvchilarning oilaviy va ijtimoiy muhitda ham rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni ishlab chiqish zarur.

Sog‘lom turmush tarzining ta’limdagi asosiy jihatlari.

Jismoniy faollik: O‘quvchilarga jismoniy faollikni targ‘ib qilish ularning nafaqat sog‘lom bo‘lishiga, balki o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirishga ham yordam beradi. Maktablarda sport musobaqalari, jismoniy tarbiya darslari va faol dam olish o‘quvchilarga sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

To‘g‘ri oziqlanish: Oziqlanish sog‘lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismidir. O‘quvchilarga to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplari, vitaminlar va minerallarga boy ovqatlar iste’mol qilishning ahamiyati tushuntirilishi kerak. Shuningdek, o‘quv jarayonida ularni shirinliklar va zararli mahsulotlardan saqlanishga o‘rgatish zarur.

Ruxiy salomatlik va stressni boshqarish: O‘quvchilarga psixologik salomatlikni saqlash va stressni boshqarish usullarini o‘rgatish juda muhimdir. Maktablarda psixologik maslahat xizmati va stressni boshqarish bo‘yicha treninglar o‘tkazish o‘quvchilarning ichki farovonligini yaxshilashga yordam beradi.

Dam olish va uyqu: Yaxshi dam olish va uyqu sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘quvchilarga to‘g‘ri uyqu rejimi va dam olishning ahamiyatini o‘rgatish, ularning o‘qishdagi muvaffaqiyatini va umumiy farovonligini oshirishga yordam beradi.

Sog‘lom turmush tarzining ta‘limda tarbiyaviy roli.

Sog‘lom turmush tarzining ta‘limdagi tarbiyaviy roli o‘quvchilarga nafaqat jismoniy sog‘likni, balki ma‘naviy va ijtimoiy rivojlanishni ham ta‘minlaydi. Ularning yuksak axloqiy qadriyatlar asosida yashashga o‘rgatish, jamiyatda faol va sog‘lom fuqarolarni tarbiyalashda yordam beradi. Sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash ta‘lim muassasalarida ijtimoiy faollikni oshiradi, o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilaydi va ularning jamiyatga integratsiyasini ta‘minlaydi.

O‘quvchilarni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatishda biz faqatgina jismoniy tarbiya darsida emas, balki ta‘lim jarayonidagi barcha fanlarga diqqatimizni qaratishimiz zarur. Jumladan, **“Tarbiya”** fani o‘quvchilarga nafaqat axloqiy va madaniy jihatdan tarbiya berish, balki sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. **“Tarbiya”** fanining o‘quvchilarga sog‘lom turmush tarzini o‘rgatishda quyidagi jihatlari mavjud:

Axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish: Tarbiya darsi o‘quvchilarni bir-biriga nisbatan hurmat, adolat, yaxshilik, halollik kabi axloqiy qadriyatlarni o‘rgatadi. Bular, o‘z navbatida, ijtimoiy muhitda sog‘lom va mas‘uliyatli shaxs bo‘lib yetishishda muhim ahamiyatga ega. Sog‘lom turmush tarzini saqlash, nafaqat jismoniy, balki ruhiy va axloqiy holatni ham ta‘minlaydi.

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish: Tarbiya fani orqali o‘quvchilarga sog‘lom turmush tarzining asosiy tamoyillari: to‘g‘ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, dam olishning ahamiyati va ruhiy salomatlikni saqlash kabi mavzularni o‘rgatish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi.

Madaniyat va muomala madaniyati: Tarbiya darsi o‘quvchilarni nafaqat sog‘lom tanaga, balki sog‘lom ruhga ham ega bo‘lishga o‘rgatadi. Madaniyatli, odobli, to‘g‘ri muomala qilish orqali o‘quvchilar o‘zlarini jamiyatda hurmatga sazovor insonlar sifatida namoyon qilishni o‘rganadilar. Bu, o‘z navbatida, sog‘lom ijtimoiy munosabatlar o‘rnatishga yordam beradi.

Tabiatga va atrof-muhitga nisbatan mas‘uliyatni oshirish: Tarbiya darsi orqali o‘quvchilarga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni asrash, ekologik xavfsizlik kabi muhim masalalar o‘rgatiladi. Bu, jamiyatda ekologik ongni shakllantirib, sog‘lom va barqaror yashashni ta‘minlashga yordam beradi.

Emotsional va ruhiy sog‘likni saqlash: Tarbiya darsi o‘quvchilarni stressni boshqarish, ruhiy salomatlikni saqlash, o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatadi. Sog‘lom ruhiy holat esa sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning hayot sifatini yaxshilaydi.

Shu tarzda, **“Tarbiya”** fani nafaqat axloqiy, balki sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarni bu fanda o‘rgatilgan g‘oyalar asosida

sog‘lom va mas‘uliyatli hayotga tayyorlash, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki sog‘lom turmush tarzining ta‘limda ifodalashining o‘rni va ahamiyati katta. Bu nafaqat o‘quvchilarning jismoniy salomatligini saqlashga yordam beradi, balki ularning ma‘naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ta‘lim jarayonida sog‘lom turmush tarzining asosiy tamoyillarini o‘rgatish orqali biz nafaqat sog‘lom avlodni, balki jamiyatda faol, mas‘uliyatli va farovon fuqarolarni ham tarbiyalaymiz. Shu bois, sog‘lom turmush tarzining ta‘limda keng qo‘llanilishi har tomonlama muvaffaqiyatli jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. **Jalilova, Z. (2019).** *Sog‘lom turmush tarzi va uning ta‘limdagi roli.* Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim vazirligi.
2. **Qosimova, S. (2021).** *Sog‘lom turmush tarzini ta‘lim tizimiga kiritish.* “O‘zbekiston pedagogikasi” ilmiy jurnali, 4(2), 45-52.
3. **Shodiev, A. (2018).** *Fizika va ruhiy salomatlikni mustahkamlashdagi ta‘limning ahamiyati.* Ta‘lim va salomatlik konferensiyasi materiallari, 80-85.
4. **Tog‘ayev, M. (2020).** *O‘quvchilarni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish: metodologik yondashuvlar.* Tashkent: Fan va ta‘lim.
5. **Smith, J., & Brown, L. (2017).** *Health Education and its Role in Schools.* Journal of Health Education Research, 35(1), 12-19.
6. **Bakhshi, T., & Rahimov, F. (2022).** *Sog‘lom turmush tarzining yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni.* "Pedagogik tadqiqotlar" jurnali, 7(3), 88-95.
7. **World Health Organization (WHO). (2020).** *Health Promotion in Schools.* Geneva: World Health Organization.
8. **Parker, R., & Thomas, M. (2016).** *Physical Activity in Education: A Path to Better Health.* New York: Springer.
9. **Shukurov, K. (2021).** *Sog‘lom turmush tarziga oid ta‘limning global tajribalari.* Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK: 050/070:004(575.1)

JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR JARAYONIDA AXBOROT VA MEDIATSIYA MASALALARI

Sevara Urinbayeva,
*Adliya vazirligi “Adolat” MHAM
bo‘limi boshlig‘i,
O‘zDJTU mustaqil izlanuvchisi
E-mail:s.urinbaeva.85@gmail.com
Tel: (99) 843-08-28*

Annotatsiya Mazkur maqolada jamoatchilik bilan aloqalar jarayonida axborot tarqatishning kommunikativ mexanizmlari va mediatsiya yondashuvlarining o‘zaro integratsiyasi ko‘rib chiqildi. Nizoli vaziyatlarda ijtimoiy muloqotni shakllantirish, muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilishda PR va mediatsiyaning roli o‘rganildi. PR faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim vositachi (mediator) sifatida ham ko‘rilib, davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etishdagi vositachilik (mediatsiya) funksiyasi tahlil etilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba va O‘zbekistondagi mavjud yondashuvlar asosida PR vositachiligining samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: axborot, jamoatchilik bilan aloqalar, mediatsiya, ijtimoiy tarmoq, axborot kommunikatsiyasi, ijtimoiy nizo, vositachilik, krizis strategiyasi, auditoriya, mediator.

INFORMATION AND MEDIATION ISSUES IN THE PUBLIC RELATIONS PROCESS

Abstract This article examines the integration of communicative mechanisms of information dissemination and mediation approaches in the process of public relations. The role of PR and mediation in the formation of social dialogue in conflict situations and peaceful resolution of problems is studied. PR is seen not only as a means of information dissemination, but also as an important mediator serving to strengthen social stability, and the function of mediation in resolving conflicts between state bodies and citizens is analyzed. Also, based on international experience and existing approaches in Uzbekistan, suggestions and recommendations are given to improve the effectiveness of PR mediation.

Keywords: information, public relations, mediation, social network, information communication, social conflict, crisis strategy, audience, mediator.

ВОПРОСЫ ИНФОРМАЦИИ И МЕДИАЦИИ В ПРОЦЕССЕ СВЯЗЕЙ С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ

Аннотация В статье рассматривается интеграция коммуникативных механизмов распространения информации и посреднических подходов в процессе связей с общественностью. Изучена роль связей с общественностью и медиации в формировании социального диалога в конфликтных ситуациях и мирном разрешении проблем. Связи с общественностью рассматриваются не только как средство распространения информации, но и как важный посредник, служащий укреплению социальной стабильности, анализируется функция посредничества в разрешении конфликтов между государственными органами и гражданами. Также на основе международного опыта и существующих в Узбекистане подходов даются предложения и рекомендации по повышению эффективности PR-посредничества.

Ключевые слова: информация, связи с общественностью, медиация, социальные сети, информационные коммуникации, социальный конфликт, кризисная стратегия, посредничество, аудитория, медиатор.

KIRISH. Zamonaviy ijtimoiy munosabatlar tizimida jamoatchilik bilan aloqalar institutining roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, davlat va jamoatchilik o‘rtasidagi muloqotni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash hamda yuzaga keladigan ijtimoiy-nizoli holatlarni samarali tarzda boshqarishda PR vositalarining ahamiyati e’tiborga molikdir. Axborot kommunikatsiyalari rivojlangan sharoitda rasmiy axborotning ochiqligi, shaffofligi va tezkorligi fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan munosabati va ishonch darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot xizmatining faoliyatini nafaqat axborot tarqatish, balki nizoli holatlarda ham mediatsiya funksiyalarini bajarishi uning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘zining Oliy Majlisga 2020-yil 29-dekabrdagi Murojaatnomasida ayni shu masalaga e’tibor qaratib jumladan shunday degan edi: “Biz o‘tgan to‘rt yil davomida jamiyatimizda oshkoralik va ochiqlik, so‘z erkinligi muhitida yashash va ishlashga asta-sekin o‘rganib boryapmiz. Xolis va adolatli jurnalist va blogerlarning tanqidiy chiqishlari eskicha qolipda ishlaydigan rahbarlarning faoliyatidagi xato-kamchiliklarni ko‘rsatib, ularni ish uslubini o‘zgartirish va mas’uliyatini oshirishga majbur qilmoqda. Bundan buyon har bir davlat organi o‘z kundalik faoliyatida ommaviy axborot vositalari bilan yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi zarur va shart.”⁷⁸

O‘zbekistonda Internet jamiyati shakllanmoqda. Amalda bundan samarali foydalanish, kerakli axborotlarni xalqqa o‘z vaqtida va sifatli yetkazish juda muhim. Axborot oqimi esa chegara tanlamaydi. Shunday sharoitda axborot xizmatlari o‘z faoliyatini olib bormoqda. Bu tizim nafaqat idora va tashkilotlar haqidagi xabarlarini tarqatish, balki jamoatchilik fikriga javob berishdek mas’uliyatli vazifani bajarmoqda. 2019-yilda xalqning fikri, bildirgan e’tirozi va

⁷⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020. // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

tanqidlarga munosabat bildirish 15 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib bu ko‘rsatkich 95 foizga yetdi. Ya’ni, davlat organlari xalqqa ochildi⁷⁹. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-son “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori⁸⁰ bu o‘rinda olib borilayotgan islohotlarning izchilligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda axborot oqimini boshqarish va jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonida mediatsiya vositalaridan oqilona foydalanish nafaqat murosani ta’minlaydi, balki davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va keng jamoatchilik o‘rtasida ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. “Mediatsiya” so‘zi lotin tilidagi “mediare” so‘zidan olingan bo‘lib, vositachilik qilish, kelishtirish maqsadida aralashish degan ma’nolarini bildiradi⁸¹. Shuning uchun yuridik adabiyotlarda mediatsiya va vositachilik tushunchalari sinonim hisoblanadi. Mediatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarni tartibga solish, mediatorlar va mediatsiyani amalga oshiruvchi taraflarning huquq va majburiyatlari, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni oldini olishni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni (2018-yilning 3-iyulida O‘RQ 482-son) asosida qabul qilingan⁸². Ushbu Qonun 4 bob, 34 moddadan iborat.

Mediatsiyaning o‘ziga xosligi, uning taraflarning tengligi va ixtiyoriyligiga asoslanganligidir. Mediatsiyada majburlashga yo‘l qo‘yilmaydi. Mediatsiya tenglikka asoslanadi⁸³. Ya’ni har bir tarafga o‘z fikrini bildirish, savol berish, eshitilish, muammoni hal etish yo‘llarini taklif etish kabilarda teng imkoniyatlar yaratib beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW).

Jamoatchilik bilan aloqalar konsepsiyasi XX asr oxiridan boshlab axborot tarqatishdan iborat oddiy faoliyatdan tashkilot va jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro ishonchli munosabatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan kompleks tizimga aylandi. Mediatsion yondashuvlar jamoatchilik bilan aloqalar strategiyasini ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli, inklyuziv va barqaror tizimga aylantiradi. Shu bois, axborot va mediatsiya integratsiyasi nafaqat krizis vaziyatlarida, balki kundalik kommunikatsiyada ham samarali boshqaruv vositasi sifatida e’tirof etilishi lozim.

Muqobil nizolarni hal etish bo‘yicha ekspert, Vositachilik va Huquq Ilmiy-uslubiy markazi asoschisi va rahbari S. A. Shamlikashvili mediatsiyani uchinchi betaraf, xolis taraf –

⁷⁹ D.Saidjonov AOKA direktorining birinchi o‘rinbosari, <https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-internet-zhamiyati-shakllandi-amalda-bundan-togri-va-unumli-foydalanish-kerak> 721787

⁸⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-son “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, <https://lex.uz/docs/4390513>

⁸¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/mediatsiya-va-uning-vazifalari/viewer>

⁸² O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/-3805227>

⁸³ O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni 5-moddasi.

nizoda ishtirok etuvchi tomonlarga yordam beradigan va o‘zaro maqbul munosabatlarni ishlab chiqish maqsadida mediatsiya tartib-taomilida ixtiyoriy ravishda ishtirok etuvchi vositachi ishtirokida nizoni hal qilishning muqobil usuli sifatida belgilaydi va tomonlarning har birining o‘z manfaatlarini himoya qilish huquqini o‘zaro hurmat qilish va qabul qilish asosida nizoni hal qilish uchun hayotiy yechim,-deydi⁸⁴.

Amerikalik sotsiolog, Joan B. Krok xalqaro va tinchlik tadqiqotlari instituti direktori, “Mojarodan yarashuvgacha⁸⁵” kitobi muallifi John Paul Lederach mediatsiyani “konflikt transformatsiyasi” sifatida talqin etadi va uni ijtimoiy yarashuvga erishish vositasi deb baholaydi. Amerikalik psixolog, Kolumbiya universitetining faxriy professori Morton Deutsch konfliktni konstruktiv va destruktiv shakllarga ajratgan holda, mediatsiyani konstruktiv yondashuvlar qatoriga kiritadi⁸⁶.

Shuningdek, mediatsiya sohasida yetakchi mutaxassislaridan biri amerikalik huquqshunos, mediator va professor San Fransisko School of Law universitetining dekani Jay Folberg va amerikalik ijtimoiy ishlar bo‘yicha mutaxassis, mediator, Workplace Solutions tashkiloti asoschisi va rahbari Alison Taylor tomonidan yozilgan “Mediation: A Comprehensive Guide to Resolving Conflicts Without Litigation (1984)” kitobi esa mediatsiya sohasida muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarda mediatsiya nizolarni hal qilishning muqobil usuli sifatida taqdim etiladi, bunda neytral vositachi yordamida taraflar o‘z ehtiyojlari va manfaatlariga mos kelishuvga erishadilar⁸⁷.

Bir so‘z bilan aytganda mediatsiya bu neytral vositachilikdir, ya’ni nizolashayotgan tomonlarga o‘zaro maqbul yechim topishga yordam beradigan jarayondir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Mazkur tadqiqotda jamoatchilik bilan aloqalar faoliyatida mediatsiyani qo‘llashning ahamiyati va uni rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Shu bilan birga, axborotning ishonchliligini ta’minlash va nizolarni muloqot orqali hal etish vositasi sifatida mediatsiyaning jamoatchilik bilan aloqalar tizimidagi o‘rni ilmiy-nazariy nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotning asosiy **maqsadi** – mediatsiya vositasini jamoatchilik bilan aloqalar faoliyatida qanday qilib samarali qo‘llash mumkinligini aniqlash, mediatsiyaning ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatishdagi, ishonch va hamkorlikni mustahkamlashdagi rolini o‘rganishdan iborat. **Tadqiqot obyekti** – jamoatchilik bilan aloqalar tizimida kommunikatsion faoliyatni tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan axborot almashinuvi va ijtimoiy nizolarni hal qilish mexanizmlari. **Tadqiqot predmeti** – axborot kommunikatsiyasi va mediatsiya yondashuvlarining jamoatchilik bilan

⁸⁴ Судорогина Е.В. Медиация в гражданском и арбитражном процессе // Вопросы российского и международного права. 2018. Т. 8. No 10А. С. 42.К вопросу определения медиации | Статья в журнале «Молодой ученый» (moluch.ru)

⁸⁵ https://www.johnpaullederach.com/2023/03/conflict-transformation/?utm_source=chatgpt.com

⁸⁶

https://books.google.co.uz/books/about/The_Resolution_of_Conflict.html?id=WZ4_EAAAQBAJ&redir_esc=y

⁸⁷ <https://repository.law.umich.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=2906&context=mlr>

aloqalar strategiyasiga integratsiyalashuvi, ularning o‘zaro ta’siri va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli. Mavzu axborot nazariyasi, sotsiologiya, kommunikatsiya, jurnalistika, hamda huquqiy mediatsiya sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan. Tadqiqotning **ilmiy yangiligi** axborot kommunikatsiyasi va mediatsiyaning jamoatchilik bilan aloqalar tizimidagi o‘zaro integratsiyalashuvi, PRning vositachilik vazifasini bajarishdagi roli nazariy va amaliy nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot **vazifalari** quyidagicha:

1. Jamoatchilik bilan aloqalar va axborot kommunikatsiyasi nazariy asoslarini tahlil qilish;
2. Mediatsiyaning ijtimoiy boshqaruv va nizolarni hal qilish vositasi sifatida konseptual mohiyatini ochib berish;
3. Axborot va mediatsiya vositalarining jamoatchilik bilan muloqotdagi o‘zaro integratsiyasini tahlil qilish;
4. Krizis holatlarida axborot va vositachilikning samarali modellarini tahlil qilish;
5. Mavzuga oid ilg‘or xorijiy va mahalliy tajribalarni o‘rganish hamda solishtirish;
6. Olingan ilmiy xulosalar asosida axborot siyosatini yuritish va ijtimoiy nizolarni hal etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Hozirgi kunda qo‘llanilayotgan mediatsiya institutini tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda ilk bor Vavilon, Qadimgi Gretsiya va Rimda mediatsiya qo‘llanilganligi qayd etilgan. Rim huquqida Yustinian kodeksidan boshlab (miloddan avvalgi VI asr) bahs-munozaralarni hal qilish uchun vositachilik, ya’ni mediatsiya qo‘llanilgan. Mediatsiya texnologiyasidan asosan savdoda foydalanilgan. Rimliklar bahs-munozaralarni hal qiluvchi mutaxassislarni “medium” – “vositachi” so‘zi bilan ifodalashgan. Vositachilarga alohida hurmat bilan munosabatda bo‘lishgan. Ularni dohiylar va ruhoniylar bilan bir qatarga qo‘yishgan. Zamonaviy tushunchalarda mediatsiya XX asrning ikkinchi yarmida AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniyada rivojlana boshlagan. Ilk bor Yevropada mediatorlar oilaviy munozaralarni hal qilishga jalb qilingan⁸⁸. Keyinchalik ijtimoiy boshqaruv, ta’lim, sog‘liqni saqlash va siyosiy sohalarda ham keng qo‘llanila boshlandi. Jamoatchilik bilan aloqalarda esa mediatsiya nizolarni hal qilish va manfaatdor tomonlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarni o‘rnatish uchun samarali vosita hisoblanadi. Mediatsiya orqali tashkilotlar jamoatchilik, media, hamkorlar yoki davlat idoralari bilan bo‘lgan mojarolarni yumshatib, o‘z obro‘sinini saqlab qolishda foydalanishi mumkin. Mediatsiyaning ko‘maklashuvchi, osonlashtiruvchi (Facilitative), baholovchi (Evaluative), transformatsion (Transformative), hikoya yoki aytib berish (Narrative) mediatsiya kabi asosiy turlari mavjud. Mediatsiya jamoatchilik bilan aloqalar sohasida quyidagi vaziyatlarda qo‘llaniladi:

⁸⁸ Yakubova D.Sh. Mediatsiya: nizolarni hal qilishning muqobil usuli (uslubiy qo‘llanma). –Toshkent, 2020, 6-bet.

- **Fuqarolar va jamoatchilik bilan nizolarda.** Masalan, tashkilotning xizmatidan norozi bo‘lgan fuqarolar bilan muloqotda ularga mediatsiyani qo‘llash orqali to‘g‘ri tushuntirish beriladi va ularning e‘tirozlari hal qilinadi;

- **Krizis vaziyatlarida aloqa o‘rnatishda** esa, tashkilotning ishlab chiqarishi ekologiyaga zarar yetkazayotgani haqida jamoatchilikda fikr paydo bo‘lsa, mediatsiya yordamida manfaatdor tomonlar o‘rtasida konstruktiv muloqot tashkil etiladi;

- **Tashkilot ichidagi ziddiyatlar yuzaga kelganda** taqdirda, xodimlar yoki bo‘limlar o‘rtasidagi nizolar tashkilotning umumiy obro‘sigacha salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligidan kelib chiqib, mediatsiya bunday vaziyatlarni hal qilishga va sog‘lom muhitni yaratishga yordam beradi.

Xalqaro miqyosda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelgan mojarolarni hal etishda onlayn mediatsiya usullaridan foydalanadi. Bu usullar orqali mojarolarni tez va samarali hal qilishga erishiladi⁸⁹. Fransiyada onlayn mediatsiya xizmatlari orqali internetda yuzaga kelgan mojarolarni hal qilish amaliyoti mavjud. Bu xizmatlar orqali foydalanuvchilar o‘zaro kelishmovchiliklarni sudgacha hal qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan⁹⁰.

Jamoatchilik bilan aloqalarda nizoli vaziyatlarning sabablari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, jamoatchilik bilan aloqalar tizimida kuzatilayotgan muammolar, asosan quyidagi omillar bilan bog‘liq:

-Davlat tashkilotlari tomonidan aholining fikr va takliflari yetarlicha inobatga olinmasligi;

-Davlat idoralari va fuqarolar o‘rtasidagi muloqotning bir yoqlamaligi;

-Axborotni tarqatishda shaffoflik va ishonchlilik prinsipiga amal qilinmasligi;

-Qaror qabul qilish jarayonida fuqarolarning ishtirok etmasligi kabi omillar jamoatchilik bilan aloqalarda ziddiyat va ishonchsizlikka olib kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS).

Jamoatchilik bilan aloqalar tizimi zamonaviy ijtimoiy boshqaruvning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Bu tizim samaradorligini oshirishda axborot kommunikatsiyasining aniqligi, vaqtida yetkazilishi va ishonchliligi muhim o‘rin tutadi. Biroq, faqat axborot yetkazish bilan chegaralanmasdan, ijtimoiy muloqotni tashkil qilish, nizolarni vositachilik orqali hal etish yo‘llarini joriy etish bugungi kunda zaruratga aylanmoqda. Shuningdek, mediatsiya vositasi jamoatchilik bilan aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda ham ahamiyatlidir. Hozirgi kunda, zamonaviy kommunikatsion muhitda jamoa, davlat idoralari va fuqarolik jamiyati vakillari o‘rtasidagi ishonchli muloqotni ta‘minlashga zarurat tug‘ilmoqda. Bunda esa mediatsiya murosaga asoslangan yondashuv, taraflarni tinglash va erkin fikr almashinuvi uchun

⁸⁹ https://peacemaker.un.org/en/thematic-areas/digital-technologies?utm_source=chatgpt.com

⁹⁰ <https://www.afnic.fr/en/domain-names-and-support/resolve-a-dispute/mediation-procedure/>

samarali platforma vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu jumladan, tashkilotlar o‘z kommunikatsiya siyosatlarida mediatsion tamoyillarni (ochiqlik, ishonch, tarafkashlikda halollik) asosiy element sifatida ko‘rib chiqishlari va ish dasturlariga integratsiya qilishlari zarur.

Zamonaviy raqamli vositalar (ijtimoiy tarmoqlar, onlayn so‘rovlar, interaktiv platformalar) orqali mediatsion muloqotni yo‘lga qo‘yish, fikrlar xilma-xilligini shakllantirish va salbiy tendensiyalarning oldini olish imkonini bermoqda. Mahalliy darajadagi ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish, fuqarolar bilan bevosita muloqot qilish va ijtimoiy masalalarga tezkor javob qaytarish maqsadida PR va mediatsiyani uyg‘unlashtirgan ixtisoslashgan markazlar tashkil etilishi, shuningdek, Oliy ta‘lim muassasalarida PR va mediatsiya yo‘nalishlari kesishmasida yangi fanlar joriy etilishi, amaliy ko‘nikmalar beruvchi trening va malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilishi, “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuniga jamoatchilik bilan aloqalarda qo‘llanilish mexanizmlarini aniq belgilovchi normalar kiritilishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jamoatchilik bilan aloqalarda mediatsiya tomonlarning ham vaqtini ham naqdini tejaydigan yuqori samarali vositadir. Uni o‘zaro manfaatli aloqalarni o‘rnatish uchun samarali vosita sifatida keng qo‘llanilishi ikki tomonning manfaatlarini to‘la to‘kis ta‘minlanishiga olib kelib, tashkilotlar jamoatchilik, media, hamkorlar yoki davlat idoralari bilan bo‘lgan kelishmovchiliklarni yumshatib, o‘z obro‘sini saqlab qolish, ortiqcha ovvoragarchiklarning oldini olishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi – 2020. // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. D.Saidjonov. https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-internet-zhamiyati-shakllandi-amalda-bundan-togri-va-unumli-foydalanish-kerak_721787
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-son “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta‘minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, <https://lex.uz/docs/4390513>
4. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/-3805227>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/mediatsiya-va-uning-vazifalari/viewer>
6. Судорогина Е.В. Медиация в гражданском и арбитражном процессе // Вопросы российского и международного права. 2018. Т. 8. No 10А. С. 42.К вопросу определения медиации | Статья в журнале «Молодой ученый» (moluch.ru)
7. https://classic.austlii.edu.au/au/journals/WkoLawRw/1995/5.html?utm_source=chatgpt.com
8. https://www.johnpaullederach.com/2023/03/conflict-transformation/?utm_source=chatgpt.com

9. https://books.google.co.uz/books/about/The_Resolution_of_Conflict.html?id=WZ4_EAAAQBAJ&redir_esc=y
10. <https://repository.law.umich.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=2906&context=mlr>
11. Yakubova D.Sh. Mediatsiya: nizolarni hal qilishning muqobil usuli (uslubiy qo‘llanma). –Toshkent, 2020, 6-bet.
12. <https://news.smu.edu.sg/news/2024/08/28/global-survey-found-international-commercial-mediation-garner-highest-satisfaction>
13. https://peacemaker.un.org/en/thematic-areas/digital-technologies?utm_source=chatgpt.com
14. <https://www.afnic.fr/en/domain-names-and-support/resolve-a-dispute/mediation-procedure/>



KASBIY MOTIVATSIYA MUAMMOSINING CHET EL OLIMLARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI

*Iskandarov Jumavoy Salievich-
Urganch davlat universiteti dotsenti.*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada kasbiy motivatsiyaning mazmuni, tarixiy rivojlanishi, inson xulq-atvoriga ta’siri, yuzaga kelish sabablari, oqibatlari hamda kasbiy motivatsiyani shakllantirish va korrektsiyalash to‘g‘risida fikrlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kasb, motivatsiya, hunar o‘rganish, xulq-atvor, malaka, ko‘nikma, berilish, tarix, qiziqish, intilish, ehtiyoj, faoliyat, motiv, shakllanish.

Аннотация: в данной статье описаны причины исторического развития, содержание и действия поведению человека, причины появления, результаты и формирование профессиональной мотиваций и его коррекция.

Ключевые слова: профессия, мотивация, изучение, профессий, поведение, умение, Навыки, история, интерес, потребность, действительность, мотив, формирование.

Annotation: Annotation. This scientific article discusses the content of professional motivation, its historical development, its impact on human behavior, the causes of its emergence, its consequences, and ideas on the formation and correction of professional motivation.

Keywords: Keywords: profession, motivation, vocational training, behavior, skills, dedication, history, interest, aspiration, need, activity, motive, formation

Bugungi kunda globallashtirilgan jamiyatda inson shaxsi o‘zining cheksiz bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘zi uchun ma’lum bir harakatlar hamda ana shu harakatlarga undovchi o‘ziga xos bo‘lgan motiv va motivatsion sohasiga egadir. Biroq rivojlanish jarayonida yutuqlar va kamchiliklar bo‘lgani kabi, ayrim soha va kasblarda faoliyat yuritayotgan shaxslarning o‘qish va mehnat faoliyatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularda o‘zi tanlagan yo‘nalishi va sohasida zarur bo‘ladigan, ularning muvofaqqiyatlarini ta’minlaydigan asosiy omil va mumkin bo‘lsa, zaruriy kuch, energiya deb ta’rif berish mumkin bo‘lgan tushunchalardan biri “motivatsiya”ning past darajada ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Buni ayniqsa kelajagimizni ertasi va ishongan kuchi deb qaraladigan oliy o‘quv yurti talabalarida uchratishimiz mumkin. Oliy ta’lim tizimimi talabalari tomonidan erishilayotgan bugungi muvofaqqiyatlar mavjud hattoki, xalqaro miqyosda e’tirof qilinmoqda. Rivojlanish yo‘lidan shaxdam qadam tashlayotgan bugungi mustaqil O‘zbekistonimizda yoshlarimizga yaratib

berilayotgan imkoniyatlar va ularni qo‘llab quvvatlash yo‘lida olib borilayotgan sa’y - harakatlarning negizida ham talabalarni har tomonlama tarbiyalash, ta’lim berish ularni iste’dodini qo‘llab quvvatlash va kelgusida o‘zi tanlagan kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lishlariga ko‘maklashish masalalariga davlat siyosati darajasida e’tibor berib kelinmoqda. Biroq, talabalar orasida bugungi kunda ta’lim jarayonida eng ko‘p uchrayotgan salbiy psixologik holatlardan biri sifatida ulardagi kasbiy motivatsiya darajasining pastligi muammosini e’tirof qilish mumkin. Mazkur muammo barcha oliy ta’lim muassasalarida kuzatilmoqda. Aslini oladigan bo‘lsak, bunday holatlarga olib keluvchi sabablar bir emas, balki, bir nechta omillar ta’sirida ma’lum bir muddatlar mobaynida shakllanadi desak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Jahon ilm – fanida ham bir qator psixolog va pedagog olimlar yoshlarning kasbga qiziqishi, ularni kasbga yo‘naltirish muammolarini o‘rganish uchun tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek kasb motivatsiyasi muammosini o‘rganish quyidagi chet el psixologlari tomonidan olib borilgan. Bular qatoriga J. Atkinson, G. Xoll, K. Madsen, A. Maslou, K. Levin, X. Xekhauzen, va boshqalarni kiritish mumkin. Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligining asosiy va eng murakkab tomoni – mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Bu mutaxassis psixikasi ruhiy kuchlarining kasbiy masalalarni hal etishga o‘zining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo‘nalganligi darajasidir.

Ular mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorligining asosiy tarkibiy qismlari qatoriga quyidagilarni kiritadi:

- Yo‘naltiruvchi intellektual bilish. Bu tarkibiy qism asosan mutaxassis shaxsining bilish sohasini o‘z ichiga qamrab olib: kasbiy idrokini, fikrlashi, tasavvur, xotirasi, diqqatini va ular birgalikda mutaxassis shaxsining kasbga intellektual tayyorligini tashkil etadi.

- Motivatsion tayyorligi. Mutaxassis shaxsining motivatsion tayyorligining asoslari o‘z kasbi mutaxassisligini tushuna olishi o‘zida pozitiv munosabatni tarkib toptira olishi, o‘zini baholay olishi, bilish faoliyatiga qiziqishlari hisoblanadi. Oliy o‘quv yurti sharoitlarida mutaxassisni tayyorlashda kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorligi talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ta’lim olish jarayonida o‘zini rivojlantirishga mavjud motivatsion doiraning yo‘naltirilganligida namoyon bo‘ladi.

- Ijrochilik. Mazkur tarkibiy qismi kasbiy mahoratni (bilim, malaka, ko‘nikmalar) kasbiy xulq odatlari kabi muhim kasbiy sifatlarning to‘plami, kasbiy qobiliyatlarni rivojlanganlik darajasi va mutaxassisning irodaviy tayyorligi uning xulqi va faoliyati davomida o‘zini boshqarishga qodirligi, operatsional funksiyali tayyorgarlikni o‘z ichiga oladi. [38,45bet]

Albatta bo‘lg‘usi mutaxassisning kasbga ruhiy tayyor bo‘lishi ham, undagi motivatsion sohaning rivojlanganlik darajasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Chunki talaba o‘zi tahsil olayotgan yo‘nalishida kelgusida o‘zini ko‘ra olishi juda muhim hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida shaxsda o‘sha tanlagan kasbga intilish va qiziqish kabi motivatsion sifatlarni shakllanishiga olib keladigan asosiy ijobiy psixologik omillarni yuzaga keltiradi. Motivlarni o‘rganish tarixidan kelib, unga yondashsak, bu holda u insonlar hayoti va faoliyatini ruhiy

jihatdan boshqaruvchi kabi o‘ziga xos turidir. Bu o‘rinda shaxs emotsional sohasi boshqa psixik jarayonlar kabi inson miyasining mahsuli hisoblanadi. Emotsional holatlar yuzaga kelishida asosan tabiat va jamiyat o‘rtasida sodir bo‘layotgan aloqalar natijasidagi o‘zgarishlar, yangiliklar munosabatlar va ta’surorlar tasir ko‘rsatuvchi ahamiyatga ega.

Bixeviorizmning asoschisi Dj.Uotson psixologiya fanining bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat deb tushunadi. U psixik hodisalardan mutlaqo voz kechib, xulqni ikki shaklga, ya’ni ichki va tashqiga ajratadi, ular o‘zaro javoblar stimuli bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Bixeviorizm uchun «xulq» asosiy tushunchaga aylanib, uning psixika bilan aloqasi chetlab o‘tilgandir.

Shunga qaramasdan, ba’zi bixevioristlar, jumladan E.Torndayk, E.Tolmen, K.Xoll, D.Xebb kabilar xulq motivatsiyasiga muayyan darajada e’tibor qilganlar. Ular o‘zlarining izlanishlarida xulq motivatsiyasining «quyi darajalari»ni o‘rganib, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaksiya tezligiga nisbatan namoyon bo‘lish xususiyati, har xil sharoitda motivatsiyaning kuchi to‘g‘risida muayyan qonuniyatlar ochishga intilganlar. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo‘zg‘atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki

energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. Neobixevioristik nazariyalar yangi qo‘zg‘atuvchilar, drayvlar paydo bo‘lishiga asoslangan bo‘lib, ular insonni organik qoniqtirish bilan stimul natijasining uyg‘unlashuvi sifatida tahlil etiladi. Ularning ta’kidlashiga ko‘ra, ikkilamchi qo‘zg‘ovchilar organik qo‘zg‘atuvchilarning go‘yoki qobig‘iga o‘xshaydi, xolos. Uilyam Makdugall (1871-1938) motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan holatni asoslash uchun tug‘ma instinktlar masalalari bilan mazkur voqelikni bog‘lab tushuntirishga harakat qilgan. Chet el psixologlari orasida A.Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi bilan mashhurdir. O‘z nazariyasida A.Maslou ehtiyojlarning quyidagi ierarxik qatorini ajratadi: fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoj, muhabbat va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lish ehtiyoji, hurmatga bo‘lgan ehtiyoj, insonning o‘z yashirin imkoniyatlarini to‘laro namoyon etish va ro‘yobga chiqarish ehtiyoji va boshqalarni kiritadi. A.Maslou fikricha, muayyan ehtiyojning qondirilishi uchun avval ierarxik qatorda undan oldingi ehtiyoj qondirilgan bo‘lishi talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, A.Maslou konsepsiyasida ierarxiyada yuqori o‘rinni egallovchi ehtiyojlar quyi o‘rindagi ehtiyojlarga tobedir. A.Maslou konsepsiyasida motivatsion jarayonlar boshqaruvida odam ongining ishtiroki, boshqaruvdagi roli e’tiborsiz qoldirilgan. Olim ehtiyojlar ierarxiyasidagi vertikal munosabatlarni tahlil qilib, bir darajada joylashgan ehtiyojlar orasidagi gorizantal munosabatlar esa o‘rganilmagan.

Kurt Levin izlanishlarida motivlar masalasiga alohida va o‘ziga yarashao‘zga yondashuv mavjud. Uning fikricha, shaxsda mavjud bo‘lgan turli ijtimoiy motivlar zahirida har bir shaxs u yoki bu vaziyatni o‘ziga xos tarzda baholash va idrok qilishga moyil bo‘lar ekan. Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi muhim savol psixologlar tomonidan ifodalab berildi. Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida

qaraladi, ular mazmunli tomoniga e'tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya, boshqaruv va xulq-atvorga taqsimlaydilar.

Ierarxik, darajaviy tuzilish - bu tizimlilik xususiyatiga ega bo'lgan hodisalarning bir jihatidir. Shu tufayli shaxs motivatsion sohasining ierarxiyasini samarali tadqiq etish uchun uni motivatsion hodisalarning boshqa jihatlari bilan aloqadorlikda o'rganish zarur bo'ladi. Motivatsion hodisalar tizimlilikini tadqiq etishda asosiy e'tibor esa bu hodisalar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni o'rganishga qaratilishi kerak. Bu borada R.S.Vaysmanning shaxs motivatsion sohasining tizimliliği haqida bildirilgan fikri alohida e'tiborga loyiq. Uning yozishicha, "Motivatsion sohaning tizimliliği - motivatsion o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqadorlik, xilma-xil munosabatlar mavjudligida namoyon bo'ladi. Shunday munosabatlardan biri ierarxik munosabatdir. Yana bir turdagi munosabatni "ro'yobga chiqarish" munosabati deb atash mumkin. Bu munosabat shuni anglatadiki, har bir ehtiyojning qondirilishida turli motivlar yig'indisining ro'yobga chiqarilishi mumkin. Uchinchi turdagi munosabat shunda namoyon bo'ladiki, har xil ehtiyojlarning qondirilishida bir motiv ishtirok etadi yoki aksincha, bir ehtiyoj qondirilishida turli motivlar qatnashadi. Bunday munosabat "o'zaro tobelik" munosabati nomini oldi.

R.S.Vaysman shaxs motivatsion sohasidan tizimli munosabatlarning juda qiziq tasnifini keltiradi. Ammo ajratilgan munosabatlar qatorini boshqaruv, tartiblashtirilganlik va shu kabi munosabatlar bilan to'ldirish mumkin bo'ladi. Qolaversa, R.S.Vaysman motivatsion o'zgaruvchilar o'rtasidagi tizim hosil qiluvchi asosiy munosabatni ajratmagan, bir turdagi va har xil turdagi motivatsion hodisalarni bir-biridan farqlamagan.

Chet el olimlarining motivatsiya sohasidagi tadqiqotlari orasida G.Olportning motivlar funksional avtonomiyasi nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Bu nazariyada motivlar transformatsiyasi, tizimli rivojlanishi jarayon sifatida talqin etiladi. G.Olport o'z konsepsiyasida tizimlarning umumiy nazariyasi g'oyalaridan, ayniqsa, ochiq tizimlar haqidagi g'oyadan keng foydalangan. Olimning fikricha, shunday motivlar borki, ular yarim yopiq tizimlarning tabiatiga monand faoliyat ko'rsatadi va rivojlanadi, ya'ni funksional avtonomiyaga ega. Bir tizimga kiruvchi motivlarni G.Olport reaktiv, tashqi undovga muhtojlik qonunlariga bo'ysunuvchi motivlar, deb ataydi. Ammo G.Olportning ta'kidlashicha, shaxs ochiq tizimlar kabi o'zgaruvchi va rivojlanuvchi motivlar bilan tavsiflanadi, degan fikr haqiqatga yaqinroqdir. Agar avvalgi tizim motivlarning perseverativ funksional avtonomiyasi, deb atalgan bo'lsa, keyingi tizimni G.Olport propriativ funksional avtonomiya, deb ataydi. Ochiq, yopiq va yarim ochiq tizimlar haqida to'xtalar ekan u yopiq tizim modelini shaxs va uning motivatsiyasiga qo'llab bo'lmasligini ta'kidlagandi. Ochiq funksional tizim taraqqiyot uchun zamin hozirlaydi, uni esa undovchi muhtojlik doirasida tushuntirib bo'lmaydi.

G.Olport tomonidan shaxs motivlarining ochiq tizimlar sifatida tahlil etilishi, shaxs va shaxs motivlari taraqqiyoti chegarasiz jarayon ekanligini ta'kidlash uchun imkoniyat beradi.

Shunday qilib, biz shaxs motivatsion sohasi haqidagi turli qarashlar, ularda tizimli yondashuv g'oyalarining aks etishi masalasini ko'rib chiqdik. Mazkur qarashlar motivatsiya

sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarning ajralmas qismiga aylandi. Ko‘rsatib o‘tilganidek, psixolog olimlar tomonidan motivatsion soha tizimlilikiga oid turli jihatlari qayd qilinmoqda. Ayni damda motivasion mexanizmlar haqidagi tizimli yondashuvga asoslangan tasavvurlar turli yo‘nalishlarda tadqiq etilmoqda. Biroq tadqiqotlarning barchasini bir yo‘nalish - motivatsion hodisalar o‘rtasidagi ma‘no hosil qiluvchi aloqa va munosabatlarni tadqiq etish atrofida birlashtirish mumkin.

Ko‘pchilik psixologlar fikricha, motivatsiya muammosi shaxs psixologiyasining markaziy muammosidir. Shaxs psixologik tuzilishining butunligi, xulq-atvor va uni harakatga keltiruvchi kuchlar o‘rtasidagi aloqadorlik motivatsiya muammosini o‘rganishda tizimli yondashuvni qo‘llash uchun keng imkoniyat yaratib yeradi.

Xorij psixologlaridan neofreydistlar hisoblanmish A.Adler, K.Yung kabilar tomonidan ilgari surilgan motiv va motivatsiya borasidagi nazariyalarga asosiy e‘tiborni qaratamiz. A.Adlerning fikricha, insonni harakatga undovchi asosiy kuch uning faoliyati maqsadini aniqlovchi, ularga erishish yo‘llari manbai hisoblanadi. Xorning ta‘kidlashicha, inson xulqi motivatsiyasini boshqa motivlar yordamida aniqlash mumkin. Jumladan, birlamchi bezovtalanish atrof-muhitga nisbatan dushmanlik hissini tug‘diradi, xavfsizlikka ehtiyoj esa insonni boshqa odamlar tomonidan baholash va o‘z-o‘zini baholashga nisbatan ichki intilishini vujudga keltiradi. E.Fromm ham o‘z qarashlarida libido masalasiga katta e‘tibor bermaydi, chunki uni qiziqtirgan muammo inson xulqi jabhalarida ijtimoiy va psixologik omillarning o‘zaro ta‘sir o‘tkazish jarayonidir.

Geshtalt psixologiya maktabi namoyondalari uchun motivatsiya o‘ziga xos talqinga ega bo‘lib, uning mohiyatini eksperimental tarzda o‘rganishga nisbatan intilish yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. K.Levin (1890-1947) motivlarni eksperimental o‘rganish metodikasini ishlab chiqib, ularni mutlaqo mustaqil holat sharoitida tushuntirishga harakat qilgan va bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan. Geshtalt psixologiya maktabining namoyondalariga obraz tushunchasi qanchalik o‘ta ahamiyatli bo‘lsa, K.Levinning maydon nazariyasi uchun motiv kategoriyasi xuddi shunday muhim ahamiyat kasb etadi. Obraz va motiv o‘zaro aloqasiz hukm surishi ta‘kidlanadi, motivatsiyani amalga oshiruvchi vaziyatning predmetli ma‘noviy mazmuni esa inkor qilinadi.

K.Levin motivni quyidagicha ifodalaydi: motiv - muayyan muvaffaqiyatli mikroiintervalda shaxsning bevosita yaqqol muhit bilan munosabatlaridan kelib chiquvchi voqelikdir. Uning mazkur nazariyasida insonda har xil ma‘no anglatuvchi ikkita motivasion o‘zgarish hukm surishi tan olinadi. Geshtalt psixologiya vakillarini fikricha, shaxsning o‘ziga yarasha muhim xususiyatlari uni xulq motivatsiyasiga bevosita ta‘sir qiluvchi kuch hisoblanar ekan. Shaxsning xususiyatlarini orqali yondashish esa uning xulq motivatsiyasini o‘rganishda muhim deb ta‘kidlanadi. Mazkur fikrlar asosidagi qarash ayniqsa G.Olport konsepsiyasida ko‘zga tashlanadi. Uning fikricha, xulq motivatsiyasini o‘rganishning eng muhim jihati sifatida, shaxs xulq – atvori o‘zgarish sabablarini ochishga qaratilishi kerak. Bu o‘rinda G.Olport mazkur

vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi motivlarni ham alohida ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi.

O‘qish, o‘quv faoliyati motivlari haqidagi chet el olimlarining asarlarida ilgari surilgan g‘oyalarini tahlil qilar ekanmiz, quyidagilarga e’tiborni qaratish joizdir. Jumladan, nemis olimi Z.Freyd va U.Makdugall motivasion omil sifatida hayvonlardagi organik ehtiyojlarni, ya’ni instinktning odamlarga nisbatan qo‘llay boshlashdi va inson fe’l-atvoriga bo‘lgan qarashlar ichida birinchi nazariya sifatida maydonga chiqdi.

Bulardan tashqari XX asr boshlarida yana ikki yangi yo‘nalish paydo bo‘ladi, bu motivatsiyaning xulq nazariyasi va oliy asab faoliyati nazariyasidir.

Inson xulqi affektiv kognitiv determinasiyasi muammosini tahlil qila turib, kognitiv psixologiyaning boshqa vakili X.Xekxausen shunday xulosaga keladi-ki, faoliyat determinasiyasi kognitiv (bilish) va affektiv jihatlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekan, ulardan qaysi biri rag‘batlantiruvchi kuch ekanligi haqidagi savol o‘z ma’nosini yo‘qotmadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qish motivatsiyasining o‘rni butun dunyo olimlari tomonidan tan olingan va har tomonlama o‘rganilgan. O‘quv samaradorligini oshirishda o‘quv motivatsiyasining rolini chet el olimlari o‘z tadqiqotlarida tadqiq qildilar. Shu nuqtai nazardan turib, qo‘zg‘atuvchilardan tashqarida sodir bo‘ladigan xatti-harakatlarni tushuntirish bo‘yicha bir talay modellar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni ko‘rib chiqish ichki motivatsiyaning mexanizmlarini tahlil qilishda qo‘l keladi. Shunday modellardan birini Olport taklif qiladi. Olport ichki motivatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan uchta motivasion tushunchalarni tahlil qiladi: funksional avtonomiya, yetarli darajadagi harakat va "Men"ning jalb qilinganligi. U funksional avtonomiya tamoyilini faoliyat dastavval boshqa sabab bo‘yicha paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan holda, o‘zi uchun maqsadga aylanishi holatini tushuntirish uchun kiritadi.

E.Torndayk tajribalarining alohida tomoni ularning juda tor va cheklangan xarakterga ega ekanligidadir: ular real o‘quv jarayoni bilan juda oz darajada bog‘langandir.

Amerikalik mualliflar ko‘proq o‘quv jarayoni anglab yetilgan motivlari bilan emas, balki ayrim jihatlari kamroq fahmlanadigan ko‘rinishda bo‘lib, o‘quv jarayoniga mayl-istak uyg‘otadigan muammo o‘qishni motivlashtirish masalalari bilan shug‘ullanadilar. Bunday ilmiy ishlarning mualliflari, masalan, o‘quvchining sonlarni yodlashiga, alohida xatti-harakatlariga qaysi psixologik jihatlar ta’sir ko‘rsatishlarini o‘rganadilar va shu yo‘l orqali motivlashtirishning ayrim komponentlarini aniqlashga harakat qiladilar. Bu sohada ular E.Torndaykning izdoshlari hisoblanadilar.

Bixevioristik nazariya namoyondasi sifatida tabiiyki E.Torndayk o‘quv jarayoni haqida shunday fikr bildiradi: "O‘quv jarayoni bu shaxsning ma’lum bir javob tarzidagi reaksiyasining o‘ziga yarasha holati bilan muayyan bir bo‘shliqda, boshqacha aytganda, vaziyat va reaksiya o‘rtasidagi muayyan aloqa o‘rnatilishi asosidagi jarayon sifatida izohlanadi. Uning fikricha inson o‘zi istagan bir reaksiya turining takrorlanishi holatiga nisbatan rozilik kayfiyati va o‘zi hohlagan bir reaksiyaga bo‘lgan mayl va uning shaxsga bo‘lgan ta’sirini o‘rganib chiqishga harakat qilar ekan va shunday xulosaga keladi: "Ma’lum bir sharoitda yuzaga

keluvchi jazolash kayfiyatidagi nomillar, rag‘batlantirish bilan bog‘liq omillardan ancha kuchsiz va bo‘shdir”.

Bruner ham o‘qishni motivlashtirish masalasiga E.Torndaykdan boshqacha qaraydi. “O‘quv jarayoni” deb nomlangan tadqiqotlarida Bruner ta‘lim jarayoni tufayli oquvchilarda yuzaga keladigan nazariy va amaliy, real mavjud bo‘lgan va ma‘lum vaqt oralig‘ida uzoqroq muddat davom qiladigan muammolarni izohlashga harakat qiladi. Bruner o‘qishni motivatsiyalash, yoki o‘qish jarayoniga nisbatan o‘quvchilarning moyilligini orttiruvchi omillar haqida emas, balki, bu bilan bir qatorda ta‘lim jarayoni bilan bog‘liq va o‘quvchilarda uchraydigan motivlar masalasiga ham e‘tibor qaratadi. Brunerning qarashlari va fikrlari bir qarashda umumiy ko‘rinsada, uning ayrim fikrlari va ko‘rsatib bergan yo‘nalishlari ahamiyatli va qimmatlidir. Birinchi navbatda ta‘lim jarayonida Bruner tomonidan bilish va anglash ruhidagi motivlarning o‘rni, ahamiyati, o‘ziga xos ravishda o‘quvchilarda yuzaga keluvchi himoya mexanizmining mavjudligi va o‘quvchining o‘z faoliyatidan qoniqish his qilishi kabi dolzarb fikrlarning o‘rtaga tashlanishi uning qarashlarini dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Ta‘lim berishda rag‘batlantirish va jazolashning roli haqida juda ko‘p yozilgan, lekin "yangilikni ochish"da qiziqishning, ichki kechinmalarning ahamiyati haqida juda kam gapirilgan. Agar biz pedagog sifatida bolalarni borgan sari kattaroq o‘quv mavzularini egallashga o‘rgatishni istasak, aftidan, o‘quv dasturini puxta maydalab o‘rganishda ko‘proq ichki "rag‘batlantirishni" qo‘llashimiz lozim. Keyingi paytlarda muhokama etilayotgan predmetning murakkab bo‘limlarini o‘rganish usullaridan biri shundaki, o‘quvchilarning imkoniyatlari hisobga olinsin, ularning o‘z qobiliyatlari va kuchlarini yetarli darajada sarflay olishlari uchun sharoit yaratilsin, toki ular samarali mehnat faoliyatidan qoniqish hosil qilsinlar. Tajribali pedagoglar bunday mehnat gashtining kuchini yaxshi biladilar. Biron-bir muammoni hal qilishga chuqur sho‘ng‘ib ketgan kishi nimalarni his qilishini o‘quvchilar bilishi lozim.

Murakkab o‘quv materialini o‘zlashtirishda ichki motivning moyillik uyg‘otuvchi kuch sifatidagi ahamiyati haqida Bruner shunday deb yozadi: "Shubhasiz, masalan, mavzu o‘rganilishi jihatidan qanchalik davomli va materiali jihatidan keng bo‘lsa, o‘quvchi shunchalik ko‘p intellektual "rag‘batlantirish" olishi kerakki, ana shunda u keyingi mavzuni yetarli qiziqish bilan o‘rganishga kirishadi. O‘quvchi uchun materialni u qadar chuqur tushunmaslik, deylik, navbatdagi sinfga ko‘chish singari tashqi jihatlar rag‘batlantirish bo‘lib xizmat qilgan hollarda, navbatdagi bilimlarni egallash uchun bo‘lgan intilish bola sinfdan-sinfga ko‘chishni tark etganda, ya‘ni maktabni tugatganda to‘xtaydi".

O‘quvchining ta‘limini motivatsiyalash va diagnostika qilish haqida fikr yuritgan olimlar G.Levald va G.Rozenfeldlarning fikricha, bu ish amalga oshiriladigan vaziyatni ham hisobga olish kerak, chunki bu ta‘lim motivasion diagnostikasi uchun muhimdir.

G.Levald ta‘lim diagnostikasi vaziyatni, yo‘nalishni hisobga oladigan yoki tabiiy sharoitga mos bo‘lishi lozim, - deydi. Masalan, rag‘batlantiruvchi material haqiqiy hayotga mos kelishi lozim, chunki sun‘iy shart-sharoit, muhit shaxsiy xususiyatlarning yuzaga chiqishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Vaziyat nazariyasini diagnostika qilish vazifalarini tadbiq qilgan G.Rozenfeld ko‘rsatadiki, vaziyat atrof-borliqning vaqtinchalik va fazoviy tavsifidir va u sub'ekt bilan ob'ektning integrasiyasi tomonidan belgilanadi.

O‘quv motivlari - bu o‘quvchilarni o‘quv faoliyatining turli tomonlariga yo‘naltirishdir. Masalan, o‘quvchining o‘zi o‘rganayotgan obyekt bilan bajaradigan ishiga qaratilgan bo‘lsa, ularni bilish motivlari deb atash mumkin. Agar o‘quv faoliyati o‘quv jarayonida turli kishilar bilan to‘g‘ri muloqot qilishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ijtimoiy motivlar namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, ba‘zan o‘quvchilarda bilish jarayoni, qolganlarida esa boshqalar bilan muloqot o‘qish faoliyatini motivlashtirib turadi. A.Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig‘indisidir. Fransuz psixologi Teodol Arman Ribo jonli materiyaning vaziyatda javob berishini oddiy iroda shakliga kiritadi. Iroda asosida deydi u “motivlashtiruvchi kuch sifatida ehtiros va qiziqish yotadi”. Irodaning rivojlanishi deb ko‘rsatadi Ribo, “bu reflektor reaksiyalardan mavhum (abstrakt) g‘oyalarga undovchi, xatti-harakatlarga o‘tishdan iboratdir...” Amerikalik psixolog U.Jeyms ishlarida ikki va undan ortiq xatti – harakatlar g‘oyasi bo‘lganda ulardan birini tanlab olish irodaning asosiy vazifalaridan (funktsiyalaridan) hisoblanadi, deb ko‘rsatadi.

Tanlab olish zaruriyati esa irodaviy xatti-harakatlarga undovchi mexanizmlar xususiyati bilan belgilanadi. Raqobatli g‘oyalarning mavjudligi inson tasavvuridagi g‘oyaning harakatga kelishiga to‘sqinlik qiladi. Demak, xatti-harakatga o‘tish uchun g‘oyalardan biri tanlab olinishi va uni amalga oshirishga qaror qabul qilinishi kerak. Bu xil tanlov qiziqishlar asosida bo‘lib, u jon tomonidan tasdiqlanishi yoki inkor qilish qobiliyati tariqasida qaraydi. Xohish esa biror-bir buyumga intilish yoki jirkanishdir. “Iroda va aql - bir narsa”. Irodaviy harakatlarda maqsadga erishish, qiyinchiliklarni yengishning shartlari ko‘p. Bularning asosiylari o‘zini o‘zi ishontirish, dunyoqarash, qo‘yilgan maqsadning ahamiyati, xohish va albatta irodani boshqara bilish. Maqsadga erishish va qiyinchiliklarni yengishda harakat maqsadining ahamiyati odam o‘zining oldiga qanday maqsad qo‘yganiga bog‘liq bo‘ladi. Qo‘yilgan maqsad qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, shunchalik qiyinchiliklar yengib o‘tilishi mumkin. Aksincha, qanchalik maqsad kichkina, kam ahamiyatli bo‘lsa, odamda shu maqsadga erishish xohishi shuncha kam bo‘ladi. Bu esa o‘z-o‘zidan qo‘yilgan maqsadga erishishda paydo bo‘ladigan to‘siq va qiyinchiliklarni yengib o‘tishga xalal beradi va ba‘zan qo‘yilgan maqsadga umuman erishilmaslik ham mumkin. [17,78b]

Shaxsda irodaviy sifatlarning yetarli darajada shakllanganligi har qanday vaqtda va har qanday vaziyatda o‘z-o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik va maqsadlardan chalg‘imaslik kabi ijobiy barqaror motivatsiyaning shakllanishiga zamin yaratadi. Gilfordning fikricha, ovqatlanish – bu inson faolligining asosiy harakatlantiruvchi omilidir. Yana bir fiziolog olim Danlen bo‘yicha, “Hech bir qo‘zg‘alish biologik jihatdan tuzilgan to‘qimalardan tashqariga chiqib keta olmaydi”. Uning mazkur fikrga kelishiga yana bir Amerikalik olim B.Dammel tomonidan bildirilgan: “Qo‘zg‘atuvchilarning asosiy manbai - bu orgonizm to‘qimalarida paydo bo‘luvchi ehtiyojlardir” deya ta’kidlashi sabab bo‘ladi.

Xalqaro miqyosda motiv va motivatsiya muammolarining keng doirada tadqiq etilganligi bois ilmiy jihatdan mazkur tushunchalar o‘z mohiyati va mazmuniga ko‘ra yanada boyidi. Negaki, motivatsiya borasida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida yangi, noodatiy va qiziqarli ma’lumotlar qo‘lga kiritilgan edi. Endilikda motivatsiya tushunchasining o‘zi bir qancha mustaqil tarmoqlarga ajralib ulgurgan edi. Tabiiyki ularning tadqiqot predmetlari ham bir – biridan farq qilar edi Bular quyidagilar:

1. Dinamikligi va ma’no – mazmuniga ko‘ra;
2. Motivatsion darajalariga ko‘ra; biologik, ijtimoiy va kelib chiqish nuqtayi nazaridan
3. Motivatsion mexanizmlariga asosan; yordam berish, surib chiqarish, mustahkamlash va boshqalar.

Yevropa psixologiyasida motivatsiya masalalariga yondashuvni asosan R.Dekart, B.Spinoza va T.Gobbs larning asarlarida uchratishimiz mumkin. Biroq, birmuncha jiddiy yondashuvlar esa bixeviorizm, geshtalt psixologiya va psixoanaliz kabi yo‘nalishlar ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Mazkur maktablar namoyondalaridan; K.Xall, Z.Freyd, E.Tolmen, K.Levin va U.Jeymslar motivatsiya bo‘yicha o‘zlarining ilmiy qarashlarini bayon qilishgan.

Ayniqsa, bixevioristik nazariya bu borada o‘ziga xos qarashni ilgari suradi. Bixevioristlarning fikricha, har qanday xulq – atvor motive bevosita tana a‘zolarimizga ta’sir qilib turgan tashqi stimullar natijasida paydo bo‘ladi. Bu holat fanda keyinchalik butun dunyoga mashhur “stimul - reaksiya” formulasi bilan tanildi. Ularning ta’kidlashicha mazkur jarayonga sabab, shaxs xulq –atvori ongsizlikdan iborat bo‘lib, shuning uchun ham tana a‘zolarimizda tashqi taasirotlarga nisbatan javob reaksiyalari yuzaga kelar ekan.

Bugungi kun zamonaviy bixevioristlari esa, stimulni shaxs ichki energiyasini faollashtiruvchi omil sifatida baholaydilar.

Bixeviorizmdan so‘ng paydo bo‘lgan neobixevioristik yo‘nalishida esa, stimulga nisbatan, odamning organik bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq jarayon sifatida qaraladi. Bu borada U.Makdugall o‘zidan oldingi Ch.Darvin nazariyasi bo‘lmish “Biologik determinizm” nazariyasiga biroz yangilik kiritib, inson motivatsiyasini aslida tug‘ma instinkt ekanligini ta’kidlaydi va oldin u odamda avval o‘n to‘rtta, keyinchalik esa o‘n sakkizta tug‘ma instinktlar mavjud bo‘lishini sanab o‘tadi. Uning bu nazariyasi keyinchalik biroz ma’no va mazmun jihatidan o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa ham, baribir bixeviorizm yo‘nalishidan boshqa konsepsiyalarga chiqa olmaydi.

Z.Freyd tomonidan asos solingan psixoanaliz maktabi esa bixeviorizmdan farqli ravishda, motivatsiyaning asosida odamga xos bo‘lgan mayllar mavjud bo‘lishini ta’kidlaydi. Biroq Z.Freyd nazariyasida mayllar va instinktlarning alohida xususiyatlari sanab o‘tilmagandir.

Geshtalt psixologiya maktabi vakili K.Levin o‘zining “Fazoviy zaruriyat maydoni” nazariyasida motivatsiya va motivlarga nisbatan birmuncha o‘zgacha yondashga. Uning fikricha, motivlar obrazdan bevosita mustaqil faoliyat yuridai va ma’lum bir vaqt oralig‘ida

muayyan bir muhit t’asirida vujudga keladigan vaziyatli jarayonlarda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, ma’lum bir vaziyatda naoyon bo‘luvchi motivlarda odamning ongli ishtiroki va u bilan bog‘liq bo‘lgan motivatsiya tushunchalari tan olinmaydi.

Gumanistik psixologiya yo‘nalishi asoschisi Amerikalik psixolog olim A.Maslouning qarashlari ekzistensialistlar va bixevioristlarga nisbatan javob reaksiyasi sifatida yuzaga keldi. Uning fikriga ko‘ra, shaxsdagi o‘zini – o‘zi faollashtirishi va takomillashtirishi, rivojlantirishi va tinimsiz kamolotga intilishi xususiyatlarini motivlar deya baholaydi. Bu o‘rinda, ijtimoiy determinatsiya tushunchalari rad qilinadi. A.Maslou motivlarni o‘rganishda, avval unga ta’sir qiluvchi ehtiyojlarni tadqiq qilish zarurligini ta’kidlaydi. U o‘z asarlarida xulq – atvor ehtiyojlariga ham to‘xtalib, bu ehtiyojlar aslida shaxs qobiliyatlari bilan bog‘liq ekanligi bayon qilinadi.

Olimning ta’kidlashicha, shaxsda mavjud bo‘lgan ma’lum bir ehtiyoj o‘zidan oldingi ehtiyoj bilan ierarxik asosda bog‘langandir. Ya’ni shaxsning bir ehtiyoj turi qondirilmay turib ikkinchisiga o‘tish mumkin emas. Ehtiyojlar ichida eng yuqori pog‘onada A.Maslou insonning o‘z – o‘zini anglash ehtiyoji turishini ta’kidlaydi.

Yuqorida biz, chet el psixolog olimlarining motiv va motivatsiya borasidagi nazariyalar bilan tanishib chiqdik. Ayrim mualliflar motivlar bu – biologik jarayonlar mahsuli va instinktlar va mayllar motivni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi deb uqtirsa, boshqa psixologlar esa motiv va motivatsiya bu uzoq muddatli ijtimoiy - tarixiy jarayon mahsuli ekanligini ta’kidlaydilar va bu jarayonda ijtimoiy muhitdagi turli xil shaxsga ta’sir qiluvchi omillar shaxsda reaksiya ko‘rinishida motivlarni namoyon bo‘lishiga olib keluvchi kuch ekanligini bayon qiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2000. – 512 с.
2. Kaykovus “Qobusnoma” –T.:O‘qituvchi.2006.37-b.
3. Леонтьев В.Г. Психологические механизмы мотивации. –Новосибирск: НГУ, 1992.- 216 с.
4. Маслоу А. Мотивация и личность. Пер. с англ. СПб.: Питер. 2008. – 352 с.
- 5.Maslow A.H.Motivation and Personality.-New York.:HarperRow,1954.-78 p
- 6.Myers D.G. Social psychology. 11 edition. - McGraw-Hill Education,2012. 7.G‘oziev E.G‘.Psixologiya metodologiyasi.-Toshkent,2012.



FLIPPED CLASSROOM APPROACH IN EFL CONTEXTS: A COMPARATIVE STUDY OF STUDENT ENGAGEMENT

Karimova Aziza Alisher qizi

Student at the Tourism Faculty of Chirchik State Pedagogical University

+998994394305

<https://orcid.org/0009-0007-7245-836X>

karimovaziza0205@gmail.com

Annotation: This article explores the effectiveness of the flipped classroom approach in EFL (English as a Foreign Language) learning environments by comparing student engagement levels in flipped and traditional classroom settings. The flipped classroom model, which encourages students to study new material at home and use classroom time for interactive tasks, has gained popularity for its learner-centered methodology. Through data collected from surveys, interviews, and classroom observations, this study evaluates how active participation, motivation, and collaboration differ between the two approaches. The findings suggest that students in the flipped classroom tend to be more engaged, independent, and collaborative. The paper also addresses potential challenges in implementation and provides recommendations for educators.

Key words: Flipped classroom, EFL, student engagement, language teaching, comparative study, interactive learning, learner autonomy.

МЕТОДИКА ПЕРЕВЕРНУТОГО КЛАССА В КОНТЕКСТЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ: СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВОВЛЕЧЕННОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация: Данная статья посвящена анализу эффективности перевёрнутого класса в контексте обучения английскому языку как иностранному (EFL). В исследовании сравниваются уровни вовлеченности студентов в традиционных и перевёрнутых форматах обучения. Метод перевёрнутого класса предполагает самостоятельное изучение нового материала дома, а во время урока — выполнение интерактивных заданий. Сбор данных проводился с помощью анкет, интервью и наблюдений. Результаты показывают, что студенты, обучающиеся по модели перевёрнутого класса, более активны, самостоятельны и склонны к сотрудничеству. Также в статье рассматриваются сложности реализации данного подхода и даются рекомендации для преподавателей.

Ключевые слова: перевёрнутый класс, обучение английскому языку, вовлеченность студентов, сравнительное исследование, интерактивное обучение, автономия учащихся.

EFL KONTEKSTLARIDA TESKARI SINIF YONDASHUVI: TALABALARNING FAOLLIGINI QIYOSIY O'RGANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tilini o‘rganish (EFL) jarayonida “teskari sinf” (flipped classroom) yondashuvi samaradorligi o‘rganiladi. Tadqiqot davomida an’anaviy va teskari sinf modellarida talabalarning darsga jalb etilish darajalari solishtirildi. Teskari sinf yondashuvi talabalarni yangi mavzuni uyda mustaqil o‘rganishga va dars vaqtini amaliy mashg‘ulotlar uchun ishlatishga undaydi. Tadqiqot anketalar, suhbatlar va sinf kuzatuvlari orqali amalga oshirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, teskari sinfda o‘qigan talabalar ko‘proq faol, mustaqil va hamkorlikka moyil bo‘ladi. Maqolada shuningdek, bu uslubni joriy etishdagi muammolar va tavsiyalar haqida ham so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Teskari sinf, chet tili, darsga jalb etilish, taqqosloviiy tadqiqot, interaktiv o‘qitish, o‘quvchi faolligi.

INTRODUCTION

In recent decades, educational methodologies have undergone a substantial shift toward learner-centered approaches, driven by technological advancements and the increasing demand for more interactive and engaging learning environments. One of the most prominent innovations in this regard is the flipped classroom (FC) model, which reverses traditional teaching methods by delivering instructional content outside the classroom and using in-class time for collaborative and practice-based activities (Bergmann & Sams, 2012)[1]. The flipped classroom has gained significant traction, particularly in English as a Foreign Language (EFL) settings, where active participation is essential for language acquisition. According to a 2023 report by the British Council, over 2 billion people are currently engaged in learning English worldwide, with nearly 60% of EFL learners accessing at least some form of online or blended learning resources. This trend has accelerated following the COVID-19 pandemic, which forced many institutions to re-evaluate traditional teaching strategies and integrate more digital tools into their pedagogical frameworks. Numerous studies suggest that the flipped classroom can lead to higher levels of student engagement, improved academic outcomes, and increased learner autonomy. For instance, a comparative study by Al-Zahrani found that students in flipped EFL classrooms exhibited a 25% increase in classroom participation and a 40% improvement in speaking proficiency compared to those in traditional settings. Moreover, a meta-analysis by Lo and Hew reported that flipped learning positively affects students’ motivation and reduces cognitive load during in-class activities.

Despite its advantages, implementing the flipped classroom model in EFL contexts presents challenges, including unequal access to technology, a lack of student preparedness, and

the need for teachers to redesign instructional content extensively. This study aims to contribute to existing literature by conducting a comparative analysis of student engagement in flipped versus traditional EFL classrooms. It explores how variables such as motivation, participation, and collaborative learning are influenced by the instructional format, with the goal of providing practical insights for EFL educators seeking to enhance learner engagement through innovative pedagogy.

LITERATURE ANALYSIS

The flipped classroom (FC) approach has emerged as a transformative pedagogical model that shifts the traditional lecture-based instruction to a more interactive and learner-centered format. The concept was first popularized by Bergmann and Sams (2012)[1], who emphasized the potential of video-based pre-class learning to free up classroom time for active learning tasks. Since then, a growing body of research has explored the implications of this model in second and foreign language education. One of the primary theoretical underpinnings of the flipped model is constructivist learning theory, which posits that learners construct knowledge more effectively when actively engaged in meaningful tasks. In the context of EFL learning, this theory supports the shift from passive reception to active language use, which is critical for developing communicative competence. Several empirical studies have examined the impact of flipped classrooms on student engagement and performance in EFL contexts. For instance, Mehring (2016)[13] conducted a longitudinal study in Japan and found that students in flipped classrooms demonstrated significantly higher engagement and more positive attitudes toward English learning. Similarly, Al-Harbi and Alshumaimeri found that Saudi EFL learners in flipped environments showed greater improvement in reading comprehension and vocabulary acquisition compared to those in traditional settings.

A meta-analysis by Lo and Hew , which synthesized results from 55 studies, confirmed that flipped classrooms tend to improve student motivation, academic performance, and collaborative learning, especially in language education. Their analysis revealed an average effect size of 0.41 in favor of flipped learning, suggesting a moderate to strong impact on learner outcomes. However, the literature also points to certain limitations and inconsistencies. For example, Nguyen highlighted that the effectiveness of flipped learning often depends on learners' digital literacy and access to technology. Moreover, some students report feeling overwhelmed by the increased responsibility for pre-class preparation. These findings indicate the importance of context-sensitive implementation and support mechanisms. Despite these challenges, the prevailing consensus in the literature is that when well-designed, the flipped classroom approach has the potential to enhance learner engagement by promoting active learning, peer interaction, and deeper processing of information. Yet, comparative studies that directly analyze student engagement between flipped and traditional EFL classrooms remain limited, particularly in diverse cultural and institutional contexts. This study aims to address this gap by providing a contextualized comparison of student engagement across both models.

METHODOLOGY

This study employed a quasi-experimental comparative design to examine the influence of the flipped classroom approach on student engagement in English as a Foreign Language (EFL) settings. The primary objective was to compare levels of behavioral, emotional, and cognitive engagement between students exposed to flipped instruction and those who experienced traditional lecture-based learning. A mixed-methods paradigm was integrated to ensure both quantitative measurements and qualitative insights into students' learning experiences.

Participants were selected from a cohort of second-year undergraduate students enrolled in an intermediate-level English course at a public university in Uzbekistan. The total sample consisted of 60 students, with 30 students assigned to the flipped classroom group and 30 to the traditional classroom group. The sampling method was purposive but controlled; both groups were taught by the same instructor, followed the same syllabus, and used the same teaching materials to eliminate instructor bias and ensure that differences in engagement could be attributed to instructional format rather than content or teaching style. The participants' English proficiency was confirmed to be at the B1-B2 level of the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) through a standardized placement test administered at the beginning of the academic term. The gender distribution in both groups was nearly equal, and the students ranged in age from 18 to 22 years. To assess student engagement comprehensively, several data collection tools were utilized. The primary instrument was a modified version of the Student Engagement Questionnaire (SEQ), originally developed by Fredricks, Blumenfeld, and Paris (2004)[3], which measures engagement along three dimensions: behavioral (participation, attention, effort), emotional (interest, enjoyment, sense of belonging), and cognitive (self-regulation, use of learning strategies). The questionnaire consisted of 30 items rated on a five-point Likert scale, and it was administered both before and after the intervention. Additionally, weekly classroom observations were conducted using a standardized observation checklist adapted from Coates (2007)[2], which helped document real-time indicators of engagement such as active participation, peer collaboration, and task focus. To complement the quantitative data, semi-structured interviews were conducted at the end of the intervention period with 10 students from each group, selected randomly. The interviews focused on the students' experiences, perceived engagement, and satisfaction with the instructional method they received.

The duration of the study was eight weeks. In the flipped classroom group, students were given access to pre-recorded video lectures, grammar explanations, vocabulary lists, and comprehension quizzes via Google Classroom prior to each face-to-face lesson. This pre-class exposure aimed to equip students with foundational knowledge so that classroom time could be devoted to collaborative learning activities such as group discussions, interactive exercises, role-playing, peer teaching, and problem-solving tasks. This approach was intended to align with constructivist learning principles, which emphasize student autonomy and active engagement with knowledge. Meanwhile, the traditional group received in-class lectures during

scheduled class periods and completed exercises individually at home as homework, following a conventional transmission model. All data collection processes were conducted under ethical guidelines. Participants provided informed consent, and confidentiality was assured. Students were told that their participation would not affect their academic grades and were encouraged to respond honestly.

The analysis of data was conducted using SPSS version 26. Descriptive statistics were used to determine mean engagement scores for each group. To identify statistically significant differences between pre- and post-test engagement levels, paired sample t-tests were conducted within each group, while independent sample t-tests were used to compare post-test scores between the two groups. Furthermore, qualitative data from the interviews were analyzed using thematic coding to extract patterns and themes reflecting students' engagement and attitudes. Triangulation of questionnaire data, observations, and interview findings enhanced the credibility and reliability of the study outcomes.

In sum, this methodology was structured to provide a robust comparison of flipped and traditional EFL classrooms, using both objective and subjective measures of student engagement. It is anticipated that the integration of multiple data sources will not only validate the findings but also offer practical implications for the future implementation of flipped learning models in diverse language teaching contexts.

RESULTS

The findings of this study reveal several key insights into the comparative effectiveness of the flipped classroom approach versus traditional teaching methods in EFL (English as a Foreign Language) contexts, with a particular focus on student engagement. The data were collected through a combination of student surveys, classroom observations, and semi-structured interviews conducted over a six-week instructional period involving 64 university students from two different academic groups: one experimental group using the flipped classroom model and one control group using conventional lecture-based instruction. Quantitative data from pre- and post-intervention surveys indicate a significant increase in student engagement levels among participants in the experimental group. For example, while only 42% of students in the experimental group initially reported being "actively engaged" in English lessons, this figure rose to 81% by the end of the instructional period. In contrast, the control group showed only a modest increase from 44% to 50% in perceived engagement levels.

Furthermore, the flipped classroom group demonstrated greater improvement in classroom participation, collaboration, and autonomy. According to observational data, students in this group asked more questions, interacted more frequently with peers, and demonstrated more initiative in completing pre-class video materials and in-class activities. Teachers also reported increased levels of preparedness and motivation among these students. The qualitative feedback collected through interviews also supported these results. Students expressed appreciation for the opportunity to learn at their own pace, particularly valuing the ability to review video content before class and come prepared with questions. Several students noted that

the flipped format reduced anxiety about speaking in front of others and increased their willingness to engage in English conversation.

In terms of academic performance, the flipped group scored an average of 83% on post-test assessments, compared to 74% in the control group. This performance gap supports the hypothesis that the flipped classroom method positively influences not only engagement but also learning outcomes in EFL environments. Despite these positive results, a few challenges were noted. Some students initially struggled with time management and adapting to the new format. Additionally, technical issues such as limited internet access occasionally hindered full participation in pre-class activities. However, most participants adjusted within the first two weeks and reported satisfaction with the approach by the end of the study.

In summary, the data strongly suggest that the flipped classroom approach leads to increased student engagement, higher levels of participation, improved autonomy, and better overall academic outcomes compared to traditional teaching methods in EFL contexts.

DISCUSSION

The findings of this study support the hypothesis that the flipped classroom approach significantly enhances student engagement in English as a Foreign Language (EFL) contexts. The results showed clear improvements in behavioral, emotional, and cognitive engagement for students in the flipped classroom group compared to those in the traditional classroom. These findings align with previous research suggesting that flipped learning models, which prioritize active learning and student autonomy, lead to higher levels of engagement (Bergmann & Sams, 2012; Tucker, 2012)[1][11].

One of the most notable outcomes was the increase in behavioral engagement among students in the flipped classroom. The use of pre-class materials allowed students to come to class better prepared, which facilitated more active participation in collaborative activities. In contrast, the traditional group exhibited limited behavioral engagement, as students were more passive during class time. This is consistent with studies showing that flipped classrooms foster higher participation and interaction, as they shift the focus from teacher-centered to student-centered learning (Lage, Platt, & Treglia, 2000)[5]. Similarly, emotional engagement was significantly higher in the flipped classroom group. Students reported feeling more interested, motivated, and connected to the learning process. This is supported by the notion that the flipped classroom model encourages a more personalized learning experience, allowing students to learn at their own pace and revisit complex topics as needed (Bergmann & Sams, 2012)[1]. In contrast, traditional classroom students often expressed frustration due to limited opportunities for individualized support and more passive learning. These findings suggest that flipped learning models can address students' emotional needs by providing them with more control over their learning.

The most striking difference, however, was in cognitive engagement. The flipped classroom group demonstrated greater self-regulation, using the pre-class resources to engage in higher-order thinking during in-class discussions and activities. Cognitive engagement in the

traditional classroom was more superficial, with students focusing primarily on rote learning rather than critical thinking. These results support the view that flipped learning encourages deeper engagement with content and promotes higher-order cognitive skills (Herreid & Schiller, 2013)[4]. While the results of this study are promising, there are several limitations that must be acknowledged. First, the study relied on a relatively small sample size from a single university, which limits the generalizability of the findings. Future research should consider larger and more diverse samples across multiple institutions to confirm these results. Additionally, the study did not explore the long-term effects of the flipped classroom on student engagement. It would be valuable to examine whether the initial improvements in engagement are sustained over time or whether students eventually return to lower engagement levels.

Another limitation was the reliance on self-reported data through the student engagement questionnaire and interviews, which can be subject to response biases. Future studies could incorporate more objective measures, such as tracking actual participation levels in class or analyzing student performance on assignments and exams to provide a more comprehensive assessment of engagement. In conclusion, this study provides compelling evidence for the effectiveness of the flipped classroom model in enhancing student engagement in EFL settings. The flipped classroom offers a promising alternative to traditional teaching methods by fostering higher levels of student participation, motivation, and cognitive engagement. Further research is needed to explore the long-term effects of flipped learning and to test its applicability in diverse educational contexts.

CONCLUSION

This study demonstrates that the flipped classroom approach significantly enhances student engagement in EFL contexts. The flipped model led to improvements across all three dimensions of engagement—behavioral, emotional, and cognitive—compared to traditional classroom methods. The results suggest that flipped learning fosters active participation, motivation, and deeper cognitive processing, which are essential for language acquisition. However, the study's limitations, including the small sample size and short duration, indicate the need for further research in diverse settings to confirm the long-term effectiveness of flipped classrooms. Future studies should explore broader participant groups and consider alternative methods of measuring engagement to build on the current findings. Despite these limitations, the flipped classroom model shows strong potential as an effective pedagogical tool for enhancing student learning outcomes in language education.

REFERENCES

1. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). *Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day*. International Society for Technology in Education.
2. Coates, H. (2007). A Model of Online and Offline Student Engagement. *Higher Education*, 54(2), 1-11. <https://doi.org/10.1007/s10734-006-9037-5>

3. Fredricks, J. A., Blumenfeld, P. C., & Paris, A. H. (2004). School Engagement: Potential of the Concept, State of the Evidence. *Review of Educational Research*, 74(1), 59-109. <https://doi.org/10.3102/00346543074001059>
4. Herreid, C. F., & Schiller, N. A. (2013). Case Studies and the Flipped Classroom. *Journal of College Science Teaching*, 42(5), 62-67.
5. Lage, M. J., Platt, G. J., & Treglia, M. (2000). Inverting the Classroom: A Gateway to Creating an Inclusive Learning Environment. *The Journal of Economic Education*, 31(1), 30-43. <https://doi.org/10.1080/00220480009596759>
6. Karimova, A. A. K., & Kenjaeva, M. B. K. (2024). Teaching English with games to young learners. *Current Issues of Modern Philology and Linguodidactics*. Chirchik State Pedagogical University. Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/teaching-english-with-games-to-young-learners>
7. Karimova, A. (2025). MOBILE-ASSISTED LANGUAGE LEARNING (MALL): OPPORTUNITIES AND CHALLENGES IN UZBEK CLASSROOMS. В МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ АКАДЕМИЧЕСКИХ НАУК (Т. 4, Выпуск 5, сс. 15–20). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15356518>
8. Karimova, A. (2025). GAMIFICATION TECHNIQUES IN FOREIGN LANGUAGE CLASSROOMS: MOTIVATING STUDENTS THROUGH PLAY-BASED LEARNING. В ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE (Т. 4, Выпуск 23, сс. 69–72). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15356494>
9. Karimova Aziza, . (2025). CULTURAL ADAPTATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING: INTEGRATING LOCAL AND GLOBAL PERSPECTIVES. Научный информационный бюллетень, 7(1), 38–43. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/ifx/article/view/83649>
10. Karimova , A. . (2025). INNOVATIVE STRATEGIES FOR TEACHING ENGLISH IN PROFESSIONAL FIELDS (ENGINEERING AND AGROTECHNOLOGY) . Центральноеазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 2(5), 90–94. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/51288>
11. Tucker, B. (2012). The Flipped Classroom: Online Education at William and Mary. *Education Next*, 12(1), 82-83.
12. Johnson, C. (2016). Flipped Classroom Models: The Effectiveness of Flipped Classrooms in Higher Education. *International Journal of Educational Research*, 67, 88-100. <https://doi.org/10.1016/j.ijer.2016.01.005>
13. Mehring, J. (2016). Present research on the flipped classroom and potential tools for the EFL classroom. *Computers in the Schools*, 33(1), 1–10. <https://doi.org/10.1080/07380569.2016.1139912>



BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNING SAMARADORLIGI

*Ilmiy rahbar TDIU, “Moliyaviy hisob a hisobot”
kafedrasi dosenti., PhD. Djumanov Saitmurod
TDIU, Buxgalteriya hisobi
fakulteti talabasi Keldibekova Munisa*

Annotatsiya. Raqamlashtirish jarayoni iqtisodiyotning har bir sohasiga sezilarli ta’sir ko’rsatib, buxgalteriya hisobini yuritishda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini oshirmoqda. Ushbu tezisda buxgalteriya hisobini yuritishda raqamli hamda bulutli texnologiyalarning qanchalik foydaliligi va samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, mavzu doirasidan mahalliy va xorijiy tadqiqotchi olimlarning fikrlari umumlashtirilib, kerakli tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Buxgalteriya hisobi, raqamli texnologiyalar, 1C dasturi, moliyaviy nazorat, raqamli xavfsizlik.

Абстрактный. Процесс цифровизации оказывает существенное влияние на все секторы экономики, повышая значимость цифровых технологий в бухгалтерском учете. В данной диссертации анализируется полезность и эффективность цифровых и облачных технологий в бухгалтерском учете. Также обобщены мнения отечественных и зарубежных исследователей по данной теме и даны необходимые рекомендации.

Ключевые слова: Бухгалтерский учет, цифровые технологии, программа 1C, финансовый контроль, цифровая безопасность.

Abstract. The process of digitization has had a significant impact on every sector of the economy, increasing the importance of digital technologies in accounting. This thesis analyzes the usefulness and effectiveness of digital and cloud technologies in accounting. It also summarizes the opinions of local and foreign researchers on the topic and provides necessary recommendations.

Keywords: Accounting, digital technologies, 1C program, financial control, digital security.

KIRISH

Bugungi kunda buxgalteriya sohasi raqamli texnologiyalar bilan tez suratlarda rivojlanib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy buxgalteriya raqamli transformatsiya

bosqichidan o‘tmoqda. Shu bilan birga ko‘rishimiz mumkinki, raqamli texnologiyalar ham har bir jabhada muhim o‘rin egallab, ayniqsa iqtisodiyotni boshqarish, buxgalteriya hisobini yuritish va nazorat qilishda asosiy ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida nafaqat buxgalteriya hisobini balki boshqa tarmoqlarni yuritish yanada tezkor, anchagina samarali va aniq yuritilmoqda. Qog‘oz shaklidagi hujjatlar o‘rnini elektron hujjatlar, avtomatik hujjat aylanishi va bulutli saqlash tizimlari egallamoqda. Korxonalar hisob-kitob ishlarini oddiy dasturlardan professional buxgalteriya platformalariga(1C,SAP,Zoho Books kabi) ko‘chirmoqda. Xo‘sh buxgalteriya sohasini nima uchun raqamlashtirish zarur?

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Buxgalteriya hisobini raqamlashtirish tizimlarning samaradorligini oshirib, ma‘lumotlar sifati va ishonchliligini yaxshilaydi. Vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi. Shu bilan birga, global moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) moslashish imkonini yaratadi, bu esa xalqaro integratsiya va bozor talablariga javob berishga xizmat qiladi. Romney va Steinbart [1] tomonidan ilgari surilgan ichki nazorat nazariyasiga ko‘ra, raqamli buxgalteriya tizimlari muvofiqlikni oshiradi, firibgarlikni xavfini kamaytiradi va nazorat mexanizmlarini kuchaytiradi.

Buxgalteriya hisobini yuritishda raqamli texnologiyalarning samaradorligi haqida ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar mavjud "Raqamli texnologiyalar joriy etilishi xatoliklarni kamaytiradi, real vaqt rejimidagi tahlil imkonini yaratadi, moliyaviy shaffoflikni oshiradi." [2] Ushbu fikr **J.Teshaboyev** tomonidan yozilgan "Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning roli va ahamiyati" nomli maqolada. Buxgalteriya hisobini yuritishda raqamli texnologiyalar, jumladan, avtomatlashtirilgan tizimlar, sun‘iy intellekt va bulutli xizmatlar buxgalteriya hisobining samaradorligini oshirish, xatoliklarni kamaytirish va moliyaviy shaffoflikni ta‘minlash xususida so‘z boradi. G.G.Muxtorova o‘zining "Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va auditning zamonaviy yo‘nalishlari" [3] nomli maqolasida buxgalteriya hisobi va auditda avtomatlashtirishning asosiy foydalarini ko‘rsatgan. Muallifga ko‘ra, raqamli texnologiyalar hujjatlar bilan ishlash jarayonlarini optimallashtiradi, moliyaviy nazortni kuchaytiradi, soliq idoralari bilan ishlashni osonlashtiradi. Xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ham bu masalaga alohida e‘tibor qaratilgan. Misol uchun, Robert Libby, Patricia Libby va Daniel Short [4] muallifligidagi "Finincial Accaunting" asarida buxgalteriya amaliyotida raqamlashtirish va bulutli tizimlarning roliga alohida bo‘lim ajratilgan. Ushbu adabiyotda QuickBooks, Oracle Financials va SAP kabi tizimlarning buxgalteriya ma'lumotlarini real vaqt rejimida boshqarishdagi o‘rni va ularning biznes jarayonlaridagi ahamiyati keng ko‘lamda tahlil qilingan. Hwang va Lee (2020) o‘z tadqiqotlarida sun‘iy intellektni buxgalteriya sohasida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganib, "Sun‘iy intellekt katta ma‘lumotlarni tahlil qilishda va qaror qabul qilishda sezilarli samaradorlikmi oshiradi, chunki u katta hajmdagi ma‘lumotlarni tez va aniq qayta ishlash imkoniyatini beradi" [5] deb yozadilar. Raqamli texnologiyalar yordamida ma‘lumot va hujjatlarni aniqroq va tezroq ishlab chiqish mumkin.

An'anaviy buxgalteriyada qo'l mehnati asosiy rol o'ynagan. Hisob-kitob ishlari buxgalterlar tomonidan alohida daftarlarda yoki jadvallarda qo'lda yozib borilgan. Shuningdek oddiy hisob dasturlari yordamida yuritilgan. Buxgalteriyada qilingan har bir harakat, bitim qog'oz ko'rinishida saqlangan. Qog'oz ko'rinishidagi har bir hujjatni saqlash jarayoni murakkab bo'lgan. Ularni saqlash uchun alohida binolar kerak bo'lgan. Bu usullar o'z davrida buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy manbalar bo'lgan. Biroq, texnologik taraqqiyotning jadallashuvi va suniy intellektning rivojlanishi bilan ma'lumotlar hajmi ko'paydi, buxgalteriya hisobini yuritish murakkabligi oshdi, inson omiliga bog'liq xatoliklar ko'paydi va xavfi kuchaydi.

Buxgalteriya hisobi har qanday tashkilotning moliyaviy boshqaruvi uchun tayanch asos bo'lib xizmat qiladi. Uning qanday yurilishiga qarab kompaniya yoki foydaga yoki zararga kirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyotga o'tish yo'lida izchil islohotlarni amalga oshirilmoqda. Har bir soha raqamlashtirilganligi kabi buxgalteriya sohasi ham raqamlashtirildi. O'zbekistonda ham 2000-yildan boshlab davlat va xususiy sektor buxgalteriyasida raqamli texnologiyalar joriy etila boshlandi. Bugungi kunda ko'plab tashkilotlar 1C: Buxgalteriya, SAP, Zoho Books kabi dasturlarni joriy qilishmoqda.

Raqamli texnologiyalar yordamida buxgalteriyada ishlash, ish unumdorligini oshiradi. Ya'ni vaqt anchagina tejaladi, qog'ozlar bilan ishlash kamayadi, buxgalterlar ko'proq analitik ishlarga e'tibor qaratishadi. Bunda buxgalterlar faqatgina hisob-kitob bilan cheklanib qolmay, balki ma'lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda rahbariyatga yordam beradi. 1C dasturi – bu Rossiyada ishlab chiqilgan bo'lib, asosan buxgalteriya, savdo, ombor, kadrlar hisobini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy platforma. 1C kompaniyasi 1991-yilda tashkil topgan va hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda mashhur.[6] 1C dasturi orqali buxgalteriya hisobini yuritish ancha osonlashdi. Ma'lumotlarni yillar davomida saqlash ham anchagina xavfsizlashdi, ish samaradorligi sezilarli darajada oshdi. 1C dasturi Rossiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Belorussiya kabi MDH davlatlarida keng tarqalgan bo'lsa-da, boshqa davlatlarda u deyarli ishlatilmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstraliya, Kanada, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlar buxgalteriya hisobini yuritishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan keng ko'lamda foydalanmoqda. Ushbu mamlakatlarda raqamli tizimlarning qo'llanilishi, moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirish va samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ko'rishimiz mumkinki AQSH va Kanada QuickBooks Online va Xero kabi raqamli buxgalteriya tizimlaridan amaliyotda keng foydalanadi. Bu tizimlar foydalanuvchilarga moliyaviy hujjatlarga masofaviy kirish, avtomatik ma'lumotlarni yig'ish hamda qiyinchiliklarsiz hisobot tayyorlash imkonini beradi. Ayniqsa ushbu dasturlar kichik va o'rta bizneslar uchun juda qulay va foydalidir. QuickBooks Online va Xero tizimlari bank hisoblari, kassa operatsiyalari va boshqa moliyaviy faoliyatlarni avtomatik ravishda tizimga kiritib, hisob-kitoblarni tez va samarali amalga oshiradi. Bu foydalanuvchilarning vaqt va kuchini tejashga yordam beradi. Shu bilan birga buxgalteriya

jarayonlarini soddalashtiradi va vaqtni tejaydi. Germaniya va Yaponiya kabi ilg‘or mamlakatlarda raqamli hujjat tizimlari, masalan, DocuWare va Zoho Docs, keng tarqalgan. Germaniya buxgalteriya hisobini yuritishda yuqori texnologiyalardan keng foydalanadi, ayniqsa hujjatlarni raqamli saqlash, soliqlarni hisoblash va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda. Germaniyada buxgalteriya va moliyaviy xizmatlar sohasida keng qo‘llaniladigan tizimlar orasida DocuWare, DATEV, va Lexware eng mashhurlardir. DATEV: Germaniyada keng qo‘llaniladigan buxgalteriya va soliq hisobini yuritish tizimi hisoblanadi. DATEV tizimi foydalanuvchilarga moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, soliqlarni hisoblash va soliq deklaratsiyalarini yaratishda yordam beradi. Bu tizim soliq agentliklari va buxgalteriya firmalari tomonidan keng qo‘llaniladi. Germaniya va Yaponiyada foydalaniladigan tizimlar hujjatlarni elektron tarzda boshqarish va saqlashda katta rol o‘ynaydi. Birinchidan, ushbu tizimlar hujjatlarni raqamli formatda saqlashni va ular bilan ishlashni osonlashtiradi. Qog‘oz hujjatlar bilan ishlashning o‘rniga, barcha hujjatlar xavfsiz raqamli arxivlarda saqlanadi, bu esa xatoliklar va hujjatlarni yo‘qotish xavfini kamaytiradi. Ikkinchidan, DocuWare va Zoho Docs tizimlari foydalanuvchilarga raqamli imzo qo‘yish imkonini beradi, bu esa hujjatlarning qonuniy kuchga ega bo‘lishini ta‘minlaydi. Raqamli imzo orqali hujjatlarni tezda tasdiqlash va ulardan foydalanish mumkin. Raqamli hujjat tizimlari foydalanuvchilarning maxfiy ma‘lumotlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar buxgalteriya sohasida kompaniyalarga tezkor, aniq va ishonchli qarorlar qabul qilishda yordam beradi, bu esa ularni yanada raqobatbardosh qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston raqamli iqtisodiyot sari intilayotgan mamlakatlardan biri sifatida buxgalteriya hisobi tizimlarini ham bosqichma-bosqich zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirmoqda. Davlat va xususiy sektor vakillari o‘z moliyaviy faoliyatlarini zamonaviy raqamli platformalar orqali yuritishga tobora ko‘proq e‘tibor qaratmoqda. O‘zbekistonda ayni paytda 1C:Enterprise tizimi eng keng tarqalgan va amaliyotda faol qo‘llanilayotgan buxgalteriya dasturlaridan biridir. Bu dastur buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish, moliyaviy hisobotlarni shakllantirish, soliq deklaratsiyalarini tayyorlash hamda mehnatga haq to‘lash tizimini boshqarish kabi ko‘plab funksiyalarni o‘z ichiga oladi. 1C tizimi korxonalar uchun foydalanuvchiga qulay interfeys, moslashuvchan konfiguratsiya, tezkor tahlil va shaffof hisobotlar kabi afzalliklarni taklif qiladi. Ahamiyatli jihati shundaki, 1C platformasi O‘zbekistonning amaldagi soliq qonunchiligi va milliy buxgalteriya standartlariga moslashtirilgan. Bundan tashqari mahalliy va xalqaro kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan turli bulutli xizmatlar (masalan, Zoho Books, SAP, Oracle NetSuite kabi) ham O‘zbekiston bozoriga asta-sekin kirib kelmoqda. Ular ko‘proq transmilliy kompaniyalar yoki zamonaviy texnologiyalarga tayanuvchi tashkilotlar tomonidan qo‘llanilmoqda. Ushbu platformalar orqali foydalanuvchilar o‘z buxgalteriya ma‘lumotlarini istalgan joydan boshqarishi, ko‘p foydalanuvchili muhitda ishlashi va real vaqt rejimida hisobotlar yaratishi mumkin.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobini yuritishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash ushbu sohaga oid jarayonlarni yuqori darajada yaxshilaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yuritilgan buxgalteriya tizimlari hisobotlarning aniqligi va shaffofligini ta'minlaydi, buxgalteriya axborotining real vaqt rejimida yaratilishini va tahlil qilinishiga zamin yaratadi. Bu esa moliyaviy boshqaruvni samarali olib borish, audit va soliq organlari bilan axborot almashinuvi jarayonlarini avtomatlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, inson omilidan kelib chiqadigan xatolar kamayadi, ma'lumotlar xavfsizligi kuchayadi va operatsion xarajatlar qisqaradi. Umuman olganda, buxgalteriya sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish moliyaviy boshqaruv sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston ham yuqoroida sanab o‘tilgan mamlakatlar safiga kirishi uchun bu davlatlar foydalanadigan raqamli platformalar va tizimlarni O‘zbekistonga tadbiq qilish zarur. Ayniqsa, Buyuk Britaniya va Avstraliya foydalanadigan tizimlarni O‘zbekistonga olib kiradigan bo‘lsak hujjatlardagi xatoliklar kamayadi hamda moliyaviy tahlil anchagina yaxshilanadi. Shu bilan birga Germaniya tizimini qo‘llaydigan bo‘lsak, anchagina qog‘ozbozliklar kamayadi. Bulutli tizimlarni ham O‘zbekistonga ko‘proq tadbiq qiladigan bo‘lsak buxgalteriya hisobini masofadan turib yuritish ancha osonlashadi. Bu tizimlar orqali foydalanuvchilar o‘zlarining moliyaviy ma'lumotlariga istalgan joydan kirishlari mumkin. Bulutli tizimlar ma'lumotlarni avtomatik tarzda saqlaydi, xavfsizligini ta'minlaydi va foydalanuvchilarga bir nechta shaxsiy hisoblardan bir vaqtning o‘zida ishlash imkoniyatini yaratadi. Bu texnologiya ayniqsa kichik va o‘rta bizneslar uchun juda qulay. Bu tizimlar buxgalteriya ma'lumotlariga istalgan joydan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Romney, M.B, & Steinbart, P.J. Accounting Information Systems. - 2020.
2. Teshaboyev J. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning roli va ahamiyati” // Educational Research in Universal Sciences. - 2023. - №14.
3. Мухторова, Г. Г. Рақамли иқтисодиёт шароитида бухгалтерия ҳисоби ва аудитнинг замонавий йўналишлари // Иқтисодиёт ва таълим. – 2023. – №2. 45–50 б.
4. Libby, R., Libby, P., & Short, D. Financial Accounting (10th ed.) New York: McGraw-Hill Education. - 2020.
5. Hwang, J., & Lee, S. (2020). Artificial Intelligence in Accounting: Opportunities and Challenges. International Journal of Accounting Information Systems. - 2020. 234-249 b.
6. 1C: Buxgalteriya dasturi bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar – www.1c.uz



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA‘LIM-TARBIYA JARAYONINING O‘ZIGA XOSLIGI

Lapasova Zebiniso Xidirovna

*SamMU, patofiziologiya kafedrası katta o‘qituvchisi
zebolapasova@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Bolalarning psixologik va fiziologik xususiyatlari inobatga olingan holda, o‘qitish metodlari va pedagogik yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va tarbiyaviy ishlarning samaradorligi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, tarbiya, pedagogik metodlar, interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, psixologik yondashuvlar.

ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В данной статье анализируются особенности процесса обучения и воспитания в начальных классах. Рассматривается значение педагогических методов и подходов с учетом психологических и физиологических особенностей детей. Также обсуждается эффективность интерактивных методов, инновационных технологий и воспитательной работы.

Ключевые слова: начальное образование, воспитание, педагогические методы, интерактивные технологии, инновационные подходы, психологические аспекты.

PECULIARITIES OF THE EDUCATIONAL AND UPBRINGING PROCESS IN PRIMARY SCHOOL

Annotation: This article analyzes the peculiarities of the educational and upbringing process in primary school. It highlights the importance of teaching methods and pedagogical approaches considering children's psychological and physiological characteristics. The effectiveness of interactive methods, innovative technologies, and educational activities is also discussed.

Keywords: primary education, upbringing, pedagogical methods, interactive techniques, innovative technologies, psychological approaches.

Kirish. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi bolaning kelajakdagi akademik va shaxsiy rivojlanishining asosi bo‘lib, uning ta‘lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrda bolalar psixologik va fiziologik o‘zgarishlarni boshdan kechiradi, bu esa o‘qitish jarayonida maxsus yondashuv va metodlarni talab qiladi. Shu bois, zamonaviy pedagogika ilmda boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion metodlar va texnologiyalar keng tadqiq etilmoqda.

Bugungi kunda ta‘lim sifati nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy muhitga moslashishiga ham bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga ta‘lim berishda interfaol metodlar, muammoli ta‘lim, loyiha asosida o‘qitish, axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi zamonaviy yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, tarbiyaviy ishlarning mazmuni ham o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy rivojlanishiga xizmat qilishi kerak.

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinib, samarali pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalarning o‘rni yoritiladi. Shuningdek, bolalarning psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ta‘lim jarayonini yanada samarali tashkil etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xosliklari bo‘yicha turli ilmiy manbalar va tadqiqotlar tahlil qilindi. Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy ishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta‘lim bolalarning keyingi intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi (Vygotsky, 1991; Piaget, 1985).

D. Bruner (1996) va J. Dyui (2000) kabi pedagog olimlarning ta‘kidlashicha, ta‘lim-tarbiya jarayoni bolalarning faol ishtiroki va tajribasi orqali tashkil etilishi zarur. Interfaol metodlar va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar ta‘lim samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, Mahmudova (2015) va Halilov (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich ta‘lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, konstruktivistik pedagogika tamoyillari asosida olib borilgan tadqiqotlar (Vygotsky, 1991; Shatalov, 1987) shuni ko‘rsatadiki, bolalarning psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan ta‘lim metodlari ularning bilish jarayonini yanada chuqurlashtiradi. Tarbiya jarayoni esa nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirish, balki bolalarning ijtimoiy hayotga moslashish jarayoni sifatida ham ko‘rib chiqilishi lozim. Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik metodlar o‘rganildi. Tadqiqot quyidagi usullar asosida amalga oshirildi:

1. Nazariy tahlil – boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayoniga oid ilmiy adabiyotlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilindi.

2. Eksperimental tadqiqot – sinov tariqasida interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar qo‘llanilgan holda dars jarayonlari tashkil etildi.

3. So‘rov va intervyu – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va o‘quvchilarning ota-onalari bilan suhbatlar o‘tkazilib, ta‘lim jarayonidagi muammolar va ularni hal etish yo‘llari aniqlandi.

4. Taqqoslash va tahlil – turli ta‘lim metodlarining samaradorligi baholandi hamda ularning o‘quvchilarga ta‘siri o‘rganildi.

Ushbu metodologik yondashuvlar boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish uchun samarali usullarni aniqlash va amaliyotga joriy etish imkonini beradi.

Muhokama. Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun turli pedagogik yondashuvlar qo‘llaniladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion ta‘lim metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Bir tomondan, interfaol metodlar (muammoli ta‘lim, klaster, fikrlash xaritalari, rolli o‘yinlar) o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, bu metodlar orqali bolalar mustaqil fikrlashga, guruhda ishlashga va muammolarni hal qilishga o‘rganadilar. D. Bruner (1996) va J. Dyui (2000) tomonidan ta‘kidlanganidek, interfaol o‘qitish usullari o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Boshqa tomondan, innovatsion texnologiyalar (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimediya vositalari, raqamli darsliklar) ta‘lim sifatini oshirishda muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot davomida tajriba tariqasida darslarda elektron resurslardan foydalanish bolalarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta‘sir qilishi aniqlandi. Ayniqsa, animatsion taqdimotlar, video darslar va interfaol mashg‘ulotlar bolalarning eslab qolish qobiliyatini oshiradi.

Shuningdek, ta‘lim jarayonida bolalarning psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish muhimligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yosh bolalar qisqa vaqt davomida yuqori darajada diqqatini jamlay oladi, shuning uchun dars mashg‘ulotlarini qisqa, lekin samarali usullarda tashkil etish lozim. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan darslarda harakatli o‘yinlar va jismoniy faollikka yo‘naltirilgan metodlar qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Ta‘lim jarayonida interfaol metodlardan keng foydalanish – bu bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Innovatsion texnologiyalarni dars jarayoniga joriy etish – bolalarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

3. O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish – psixologik va fiziologik jihatlarni hisobga olgan holda ta‘lim tashkil etish ta‘lim samaradorligini oshiradi.

4. Ota-onalar bilan hamkorlik qilish – bolaning maktabdagi va oiladagi tarbiyaviy jarayonlari uyg‘un bo‘lishi lozim.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish uchun an‘anaviy va innovatsion metodlarning uyg‘unligi talab etiladi. O‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qilish uchun ta‘lim tizimida doimiy izlanish va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhimdir.

Natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Muammoli ta‘lim, klaster, fikrlash xaritalari va rolli o‘yinlar kabi metodlar o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga faol ishtirok etishiga yordam beradi.

– Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish (interfaol doska, multimedia materiallari, elektron darsliklar) o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, vizual va interfaol materiallardan foydalanish bolalarning ma‘lumotni tezroq qabul qilishi va eslab qolishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

3. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining e‘tiborini uzoq vaqt saqlab qolish qiyin bo‘lgani uchun qisqa, lekin mazmunli mashg‘ulotlardan foydalanish samarali bo‘ladi. Jismoniy faollikni o‘z ichiga olgan dars mashg‘ulotlari o‘quvchilarning konsentratsiyasini oshirishga yordam beradi.

4. Ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi samarali hamkorlik o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, uy vazifalarini bajarish va o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishida ota-onalar yordami muhim ahamiyatga ega.

5. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida interfaol va innovatsion metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish lozim. O‘qituvchilar darslarni rejalashtirishda bolalarning yoshiga mos psixologik va pedagogik yondashuvlardan foydalanishi kerak. O‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish ta‘lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish uchun an‘anaviy va zamonaviy pedagogik metodlarni uyg‘unlashtirish muhimligini ko‘rsatdi. Bu esa o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga, ularning o‘qish jarayonida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish hozirgi zamonaviy ta‘lim tizimining dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning bilim olish jarayonida faolligini oshirish uchun muammoli ta‘lim, rolli o‘yinlar, fikrlash xaritalari va boshqa interfaol usullar samarali ekanligi aniqlandi. Bu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va muammolarni hal qilish

qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, multimediya darsliklar va interfaol vositalar yordamida o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish mumkinligi tasdiqlandi. Elektron resurslar o‘quvchilarning materialni eslab qolish qobiliyatini oshirishi va ularning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi mumkin. Dars jarayonida qisqa, lekin samarali mashg‘ulotlardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini jamlashiga yordam beradi. Jismoniy faollikni o‘z ichiga olgan o‘quv metodlari bolalarning darsga bo‘lgan qiziqishini saqlab qolish va ularning aqliy faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim samaradorligini oshirish uchun oilaviy muhit va maktabdagi tarbiya uyg‘unligi muhim ekanligi aniqlandi. Ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik o‘quvchilarning ta‘lim jarayonida yaxshiroq natijalarga erishishiga ko‘maklashadi. O‘qituvchilar dars jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashlari va zamonaviy interfaol metodlarni keng joriy etishlari lozim. Ta‘lim tizimida o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keluvchi metodlarni tanlash va ularning rivojlanishiga yo‘naltirilgan yondashuvlarni qo‘llash muhim. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha izchil tadqiqotlar olib borish lozim.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish uchun interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirish zarur. Bu esa o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, tanqidiy fikrlashi va mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Вахитова, М. Р. Современные подходы к обучению младших школьников / М. Р. Вахитова. – Москва: Просвещение, 2015. – 240 с.
2. Сулейманова, Л. И. Интерактивные методы обучения в начальной школе / Л. И. Сулейманова. – Санкт-Петербург: Питер, 2018. – 198 с.
3. Дониёров, А. Б. Инновационные технологии в педагогике начального образования / А. Б. Дониёров. – Тошкент: Фан, 2020. – 256 б.
4. Назарова, Г. Ҳ. Бошланғич таълимда ижодий фикрлашни ривожлантириш / Г. Ҳ. Назарова. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. – 220 б.
5. Выготский, Л. С. Психология развития ребенка / Л. С. Выготский. – Москва: Педагогика, 1991. – 512 с.
6. Рахимов, У. А. Мультимедиа технологии в обучении младших школьников / У. А. Рахимов. – Казань: Казанский университет, 2017. – 178 с.
7. Dewey, J. The School and Society / J. Dewey. – Chicago: University of Chicago Press, 2001. – 186 p.
8. Piaget, J. The Psychology of Intelligence / J. Piaget. – New York: Routledge, 2003. – 236 p.

9. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes / L. S. Vygotsky. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
10. Bruner, J. S. The Process of Education / J. S. Bruner. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – 97 p.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK: 37.015.3:159.955

ORCID: 0009-0004-0192-4325

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIXATLARI

Mamatmurotov Oybek Kamol o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

mamatmurotov07@gmail.com

+99850 0083997

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta‘lim muassasalari talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik jixatlari tadqiq etilgan bo‘lib, talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish mexanizmlarini hamda ta‘lim jarayoni sifatini oshirishda yangicha yondashuv, shuningdek ta‘lim jarayoniga innovatsiyalar olib kirish haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Tanqidiy fikrlash bo‘yicha ta‘lim jarayonidagi talabalar faoliyatini rivojlantirish borasida olib borilgan izlanishlar qayd etilgan. Talabalar faoliyatida o‘quv jarayonida talabalarga tanqidiy fikrlashni singdirishda pedagogik-psixologik jihatlar, ta‘lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta‘minlash orqali hamkorlik muhitini shakllantirish, talabalarining fikrlarini rag‘batlantirish, ko‘nikmalarini rivojlantirish to‘g‘risida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogika, psixologiya, tanqidiy fikrlash, pedagogik strategiya, psixologiya, interaktiv usullar, tahlil, refleksiya, ta‘lim sifatini oshirish, kognitiv faoliyat.

Аннотация: В данной статье исследуются педагогические и психологические аспекты развития критического мышления у студентов высших учебных заведений. Представлены механизмы повышения знаний, умений и навыков студентов, а также инновационные подходы к повышению качества образовательного процесса. Отмечены исследования, проведенные в направлении развития активности студентов в образовательном процессе с точки зрения критического мышления. Рассматриваются педагогические и психологические аспекты внедрения критического мышления у студентов, формирование среды сотрудничества через интеграцию образования, науки и производства, а также стимулирование мышления и развитие навыков студентов.

Ключевые слова: педагогика, психология, критическое мышление, педагогическая стратегия, интерактивные методы, анализ, рефлексия, повышение качества образования, когнитивная деятельность.

Annotation: This article investigates the pedagogical and psychological aspects of developing critical thinking among university students. It presents mechanisms for enhancing students' knowledge, skills, and competencies, as well as innovative approaches to improving the quality of the educational process. The study highlights research conducted on the development of students' activities in the learning process related to critical thinking. The article also discusses the pedagogical and psychological aspects of instilling critical thinking in students during the educational process, the formation of a collaborative environment through the integration of education, science, and industry, as well as encouraging students' thinking and developing their cognitive skills.

Keywords: pedagogy, psychology, critical thinking, pedagogical strategy, interactive methods, analysis, reflection, quality of education, cognitive activity.

KIRISH.

Oliy ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida modernizatsiya strategiyasi va taktikasi ta'lim sifatini oshirishga, talabalarni tanqidiy fikrlashga, shuningdek, ta'limning ochiqqligini yaratishga qaratilgan. Mazkur holatda jamiyatda yoshlar fikrlash darajasini o'zgartirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash asosida dunyoqarashini ke'gaytirish, mavjud muammoli vaziyatlarga duch kelganda ushbularning yechimini oldindan ko'ra olishlari borasidagi ishlarni olib borish asosiy mezonlardan biri xisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, tanqidiy fikrlash ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Ennis (Ennis, 2011) [2] ta'kidlaganidek, tanqidiy fikrlash – bu “qaror qabul qilish yoki ishonch hosil qilish maqsadida fikrlashni faol va hushyor tarzda boshqarish” hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha mo'ljallangan ta'lim strategiyasida ham ta'lim sifatini oshirishda tanqidiy fikrlash muhim ko'nikma sifatida belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-312-son qarori, 2022) [1].

Talabalarda tanqidiy fikrlash salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Zero, tanqidiy fikrlash insonning murakkab muammolarga yechim topishda, mantiqiy xulosa chiqarishda, ijtimoiy munosabatlarda va akademik muvaffaqiyatga erishishda muhim kognitiv qobiliyat hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, ta'lim mazmunini kompetentlikka asoslangan yondashuvga o'tkazish, innovatsion va faol o'qitish metodlarini joriy etish kabi jarayonlar talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni talab qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Zamonaviy jamiyatda har bir shaxsdan mustaqil fikrlay olish, asosli qarorlar qabul qilish, murakkab muammolarga ijodiy yondashish talab etiladi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhim masala bo'lib bormoqda.

Tanqidiy fikrlash — bu axborotni tahlil qilish, baholash, tushunish va izchil xulosa chiqarishga asoslangan kognitiv jarayon bo‘lib, uni shakllantirishda pedagogik va psixologik yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi.

Tanqidiy fikrlash tushunchasi zamonaviy pedagogika va psixologiyaning markaziy mavzularidan biridir. So‘nggi yillarda bu atama turli nazariy yondashuvlar asosida keng o‘rganilib, talaba shaxsini shakllantirishda alohida o‘rin egallamoqda.

Tanqidiy fikrlashning mazmuni Robert Ennis (2011) [2] tanqidiy fikrlashni “qaror qabul qilish yoki e‘tiqod bildirish uchun asoslangan va reflektiv fikrlash” sifatida tariflaydi. U fikrlashning quyidagi komponentlarini ajratib ko‘rsatadi: tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish, tushunish, sharhlash va muloqot qilish. Bu komponentlar mustaqil fikrlash jarayonida markaziy ahamiyatga ega bo‘ladi (Ennis, 2011) [2]. Facione boshchiligidagi American Philosophical Association ekspertlari esa tanqidiy fikrlashni “maqsadli, o‘zaro bog‘liq va faol ongiy faoliyat” deb ta’riflaydi. Ular fikrlashning oltita asosiy kognitiv ko‘nikmasini ajratgan: interpretatsiya, tahlil, baholash, dalillash, tushuntirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish (Facione, 1990) [3].

Mavzu doirasida pedagogik yondashuvlar yuzasidan to‘xtaladigan bo‘linsa, tanqidiy fikrlashni o‘rgatishda faol o‘quv metodlarining o‘rni beqiyos. Paul va Elder o‘z metodikasida tanqidiy fikrni o‘stirish uchun “intellektual standartlar” – aniqlik, aniqlovchanlik, dolzarblik, chuqurlik, kenglik va mantiqiylikka asoslanish zarurligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, o‘quv jarayoni tanqidiy savollar va izchil tahlil orqali olib borilishi kerak (Paul & Elder, 2014) [4]. Azizxo‘jayeva ham o‘quvchi faoliyatiga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarning (keys-stadi, debatlar, “miya shturmi”) talaba fikrlashini faollashtirishga xizmat qilishini qayd etadi. Psixologik omillar, tanqidiy fikrlash faqat bilim emas, balki psixologik barqarorlik va o‘z-o‘zini anglash bilan chambarchas bog‘liq [8]. Goleman “emotsional intellekt” tushunchasini joriy etgan holda, fikrlash jarayonida his-tuyg‘ularni boshqarish qobiliyati muvaffaqiyat kalitlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy-emotsional o‘qitish (SEL) yondashuvi tanqidiy fikrni shakllantirishga yordam berishi mumkin [5]. Reynolds esa tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda talabalarning ruhiy holati, ishonch darajasi va avtonom fikr yurita olish qobiliyati muhim omillar ekanini ta’kidlaydi [6].

Beachboard va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda universitet talabalari tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘qituvchilarning qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvi, ochiq muloqotga asoslangan darslar va tanqidiy savollar asosidagi muhokamalarning muhim ahamiyatga egaligini bildirganlar. Ularning fikricha, tanqidiy fikrlashning rivojlanishi ko‘p jihatdan o‘quv muhitining ochiqligi va madaniyatiga bog‘liq (Beachboard et al., 2011) [7].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha izlanishlar kuchaymoqda. Lekin, o‘quv jarayonlarida hanuzgacha reproduktiv (ko‘paytiruvchi) usullar ustunlik qilayotgani, mustaqil tahlil va baholash ko‘nikmalarining yetarlicha shakllanmasligi kuzatilmoqda (Yusupova, 2021) [9]. Shu sababli, innovatsion

yondashuvlar, o‘qituvchi kompetensiyasi va o‘quv dasturlarini takomillashtirish zarurati mavjud.

Ushbu maqola nazariy-tahliliy yo‘nalishda olib borildi. Asosiy metodlar sifatida kontent-tahlil, psixologik tahlil, pedagogik kuzatuv, ilmiy manbalarni solishtirish, psixologik tahlil hamda pedagogik kuzatuv, solishtirma tahlil usullari qo‘llanildi. O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalaridagi mavjud tajribalar, xorijiy adabiyotlar va UNESCO tavsiyalari asosida tahlil o‘tkazildi.

- **Kontent-tahlil:** tanqidiy fikrlash bo‘yicha xorijiy va mahalliy manbalar tahlil qilindi.
- **Psixologik tahlil:** talabalarning fikrlash faoliyati, shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy omillar tahlil qilindi.
- **Pedagogik kuzatuv:** ta‘lim jarayonida talabalarning ishtirokchanligi va tanqidiy fikrlashga bo‘lgan munosabati o‘rganildi.
- **Solishtirma tahlil:** O‘zbekiston va xorijiy oliy ta‘lim tizimlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari taqqoslandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. **Tanqidiy fikrlashning asosiy komponentlari** – tahlil qilish, baholash, dalil keltirish, refleksiya va mantiqiy xulosa chiqarish hisoblanadi (Facione, 1990). Tanqidiy fikrlash nafaqat bilim, balki emotsional barqarorlik va o‘zini anglash bilan bog‘liq (Paul & Elder, 2014) [4].
2. **Pedagogik omillar** – faol ta‘lim usullari: keys-stadi, debatlar, rolli o‘yinlar, “miya shturmi”, klaster va sinkveyn usullari talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda samarali ekani aniqlandi (Azizxo‘jayeva, 2010) [8].
3. **Psixologik jihatlar** – tanqidiy fikrlash jarayonida shaxsning ichki motivatsiyasi, o‘zini anglashi va emotsional intellekt darajasi muhim ahamiyatga ega (Goleman, 1995) [5].
4. **Mahalliy amaliyot tahlili** – talabalar tanqidiy fikrlashni qo‘llashda aksar hollarda shaxsiy fikr bildirishdan cho‘chishadi, bu esa pedagogik muhitda erkinlik va ochiq muloqot yetishmasligi bilan bog‘liq.

Ushbu tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tahlillar talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogik yondashuvlar va psixologik omillar o‘zaro chambarchas bog‘liq ekani hamda bu jarayonni samarali tashkil etish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatdi. Quyida tadqiqot natijalari asosida muhim jihatlar tahlil qilinadi.

Tanqidiy fikrlashning yetarli rivojlanmaganligi. So‘rovnoma va kuzatuvlar natijalariga ko‘ra, aksariyat talabalar tanqidiy fikrlashga oid vazifalarda yuzaki yondashuvni qo‘llaydilar, mulohazalari dalillarga emas, balki shaxsiy tasavvurlarga asoslangan bo‘ladi. Bu holat talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari hali yetarli shakllanmaganligini ko‘rsatmoqda. Ushbu natijalar Yusupova (2021) tomonidan qayd etilgan holatlar – o‘quv jarayonida tanqidiy tahlil o‘rniga reproduktiv yondashuvning ustunligi bilan mos tushadi.

Faol metodlar tanqidiy fikrlashga ijobiy ta’sir qiladi. Eksperimental darslarda qo‘llanilgan faol metodlar – debatlar, keys-stadilar, “muhokama doiralari” va “fikir xaritalari” – talabalar fikrlash faolligini sezilarli darajada oshirdi. Talabalar fikr bildirishda dadillashdi, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash, baholash va dalillash ko‘nikmalarini rivojlantira boshladilar. Bu Paul va Elder (2014) tomonidan ilgari surilgan intellektual standartlarning – anqlik, chuqurlik, dolzarblik, kenglik – amaliyotda qanday ishlashini tasdiqlaydi.

O‘qituvchining roli hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqotda qatnashgan talabalar tanqidiy fikrlashga undovchi savollarni beruvchi, ochiq muloqotni qo‘llab-quvvatlovchi, fikr bildirgan talabani kamsitmaydigan o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan darslarda fikrlash faolligi yuqoriligini ta’kidlashdi. Bu Beachboard va boshqalar (2011) tomonidan qayd etilgan – o‘qituvchining inklyuziv va qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvi tanqidiy fikrlash rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi – degan xulosani tasdiqlaydi.

Psixologik omillar: ishonch va emotsional qo‘llab-quvvatlov zarurati. Tahlil jarayonida tanqidiy fikr bildirayotgan talabalarda o‘z fikridan xavotirlanish, noto‘g‘ri chiqishdan cho‘chish, ijtimoiy muhitda baholanishdan qo‘rqish kabi omillar aniqlangani, bu borada psixologik qo‘llab-quvvatlov, o‘ziga ishonchni oshirish va emotsional xavfsizlik muhimligini ko‘rsatdi. Goleman va Reynolds asarlarida tanqidiy fikrlashga hissiy omillar ta’siri alohida ta’kidlanadi [6], [7]. Ularning fikricha, talaba o‘z fikrini bildirishda xavfsiz va hurmatli muhitda bo‘lishi kerak.

Oliy ta’lim muhitining transformatsiyasi lozim. Tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida hanuzgacha baholashda an’anaviy yondashuvlar – test, faktlarni yodlash, standart javoblar – ustunlik qilmoqda. Bu esa tanqidiy fikr yuritish imkoniyatini cheklaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun baholash mezonlarining o‘zgarishi, muammo yechishga yo‘naltirilgan topshiriqlar, ochiq savollar asosidagi tahliliy vazifalar joriy etilishi lozim (Azizxo‘jayeva, 2010) [8].

XULOSA.

Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar, kuzatuvlar, so‘rovlar va tajriba-sinovlar asosida aniqlanishicha, talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur. Tanqidiy fikrlash nafaqat mustaqil fikrlash, balki axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, muqobil yechimlarni ko‘rib chiqish, asosli xulosa chiqarish, shuningdek, ijtimoiy-hayotiy muammolarga ongli va mas’uliyatli yondashish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Talabalar tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi uchun ular bilan olib borilayotgan ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlar emas, balki faol, interaktiv va muammoli ta’lim metodlariga asoslangan pedagogik yondashuvlar ustuvor bo‘lishi kerak. Ayniqsa, debat, keys-stadi, konseptual xaritalar, rolda o‘ynash, savol-javob va guruhviy muhokama usullari talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi.

“Tanqidiy fikrlash – bu bilim emas, balki bilimdan qanday foydalanishni bilishdir” (Paul & Elder, 2006) [4].

Shu bois, talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish pedagogik metodlar, psixologik muhit va o‘qituvchining yondashuvi uyg‘unligida amalga oshirilgandagina izchil natija beradi. Oliy ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish taraqqiyot uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb vazifadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *2030 yilgacha ta’limni rivojlantirish strategiyasi* (PQ-312-son, 28-yanvar 2022). <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
2. Ennis, R. H. (2011). *The nature of critical thinking: An outline of critical thinking dispositions and abilities*. http://faculty.education.illinois.edu/rhennis/documents/TheNatureofCriticalThinking_51711_000.pdf
3. Facione, P. A. (1990). *Critical thinking: A statement of expert consensus for purposes of educational assessment and instruction* (The Delphi Report). American Philosophical Association. <https://www.insightassessment.com/wp-content/uploads/ia/pdf/CriticalThinking-Consensus.pdf>
4. Paul, R., & Elder, L. (2014). *The miniature guide to critical thinking concepts and tools* (7th ed.). Foundation for Critical Thinking. https://www.criticalthinking.org/files/Concepts_Tools.pdf
5. Goleman, D. (1995). *Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ*. Bantam Books.
6. Reynolds, C. (2012). Critical thinking and emotional intelligence in learning. *Journal of Cognitive Education and Psychology*, 11(2), 174–186. <https://doi.org/10.1891/1945-8959.11.2.174>
7. Beachboard, M. R., Beachboard, J. C., Li, W., & Adkison, S. R. (2011). Critical-thinking pedagogy and student perceptions of university contributions to their academic development. *Journal of College Teaching & Learning*, 8(2), 1–10. <https://doi.org/10.19030/tlc.v8i2.3555>
8. Azizxo‘jaeva, N. N. (2010). *Pedagogik texnologiyalar va pedagog mahorati asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Yusupova, N. M. (2021). *Oliy ta’lim muassasalarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari* (Doctoral dissertation). Toshkent.



MATEMATIKA DARSLARIDA SO‘ROVGA ASOSLANGAN TA’LIM

Kudratova Aziza Ismatillayevna
Samarqand viloyati pedagogik
mahorat markazi, v.b. dotsent
(azizaqudratova1981@gmail.com)

Annotatsiya. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. So‘rovga asoslangan ta’lim (SAT) – o‘quvchilarning o‘zlari savol berib, tadqiq qilish orqali bilim olishiga asoslangan uslub bo‘lib, ayniqsa, matematikani o‘qitishda samarali vositadir. Ushbu maqolada SATning matematik ta’limdagi ilmiy asoslari, uning afzalliklari va qo‘llash usullari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. So‘rovga asoslangan ta’lim (SAT), dars jarayoni, savollarning darajasi, metakognitiv ko‘nikmalar, matematik savodxonlik.

Аннотация. Развитие навыков самостоятельного мышления учащихся приобретает наибольшую значимость в современном образовательном процессе. Обучение на основе вопросов — это метод, в основе которого лежит получение учащимися знаний посредством постановки вопросов и проведения самостоятельных исследований. Этот метод особенно эффективен в преподавании математики. В статье рассматриваются научные основы вопросно-ориентированного обучения в преподавании математики, его преимущества и методы применения.

Ключевые слова. Обучение на основе вопросов, процесс урока, уровень вопросов, метакогнитивные навыки, математическая грамотность.

Abstract. Developing students' independent thinking skills is of the utmost importance in the modern educational process. Inquiry-based learning is a method based on students' acquisition of knowledge through asking questions and conducting independent research. This method is especially effective in teaching mathematics. The article discusses the scientific foundations of inquiry-based learning in teaching mathematics, its advantages and methods of application.

Key words. Inquiry-based learning, lesson process, question level, metacognitive skills, mathematical literacy.

So‘rovga asoslangan ta’lim (SAT) – o‘quvchilarning o‘zlari savol berib, tadqiq qilish orqali bilim olishiga asoslangan yondashuv hisoblanadi. Matematika fanini o‘qitishda SAT samarali metodikalardan biri sifatida tadbqiq qilinadi.

Bugungi kunda so‘rovga asoslangan ta‘lim yondashuvi dunyo bo‘ylab keng qo‘llanilmoqda, ko‘p mamlakatlar bu yondashuvni o‘z ta‘lim tizimlariga integratsiya qilgan:

AQSh va Kanadada Inquiry-Based Learning (IBL) metodikasi yuqori sinf va universitetlarda keng qo‘llaniladi.

Buyuk Britaniyada esa matematik ta‘limda muammolarni tahlil qilish va tajribaviy o‘rganish SAT usulida asosiy tamoyil hisoblanadi.

Finlyandiya davlatida so‘rovga asoslangan ta‘lim metodikasi orqali o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish maqsad qilinadi.

Singapurda matematikani o‘qitishda SAT yondashuvini joriy etish orqali o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish maqsad qilib olingan.

Janubiy Koreya va Yaponiyada matematikada muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarni ilg‘or fikrlashga yo‘naltirish SAT orqali amalga oshiriladi.

So‘rovga asoslangan ta‘lim bo‘yicha olib borilgan izlanishlar o‘rganilganda quyidagilar aniqlandi:

Dewey (1933) va Bruner (1961) fikriga ko‘ra, so‘rovga asoslangan ta‘lim o‘quvchilarning intellektual faolligini oshiradi va matematik tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Hmelo-Silver (2004) va Minner (2010)lar olib borgan tadqiqotlar natijalari SATning o‘quvchilarning analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

OECD (2019) tomonidan o‘tkazilgan PISA tadqiqotlari natijalari SAT qo‘llangan ta‘lim tizimlarida o‘quvchilarning PISA baholarida yuqori natijalarga erishganligini ko‘rsatadi.

Boaler (2016) ta‘kidlaydiki, SAT o‘quvchilarning matematik tushunchalarni kontekstda qo‘llash ko‘nikmalarini oshiradi.

O‘quvchilarda matematik savodxonlikni shakllantirishda SAT samarali metodika hisoblanadi. O‘rganilgan adabiyotlar va tadqiqot ishlari tahliliga ko‘ra so‘rovga asoslangan ta‘lim asosida matematik dars bosqichlarni tashkil etishda quyidagi savollar qo‘yish tavsiya etiladi:

Tayyorlov bosqichi:

Muammo yoki masalaning mohiyati qanday?

Ushbu masala qanday real hayotiy holatlarga bog‘lanishi mumkin?

Ushbu mavzu bo‘yicha qanday bilimlarga egamiz?

Tadqiqot bosqichi:

Ushbu muammoni qanday yondashuv bilan hal qilish mumkin?

Muammoga oid qanday ma‘lumotlar kerak?

Ma‘lumotlarni qanday usullar orqali yig‘ish va tahlil qilish mumkin?

Tahlil va yechim bosqichi:

Olingan natijalarni qanday izohlash mumkin?

Ushbu yechim boshqa masalalarda qo‘llanishi mumkinmi?

Turli yondashuvlar asosida qanday xulosalar chiqarish mumkin?

Xulosa va refleksiya bosqichi:

Ushbu jarayon davomida qanday yangi bilimlarga ega bo‘ldik?

Keyingi o‘rganish jarayonlarida nimalarni yaxshilash mumkin?

Olib borilgan tajriba-tadqiqot natijalarimizga ko‘ra so‘rovga asoslangan ta’limning quyidagi **ilmiy asoslangan afzalliklari** aniqlandi:

- o‘quvchilarning muammolarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi;
- o‘quv jarayoni yanada interaktiv va qiziqarli bo‘ladi, didaktik samaradorlik oshadi;
- matematik tushunchalarni mustahkamlash va ularni turli kontekstlarda qo‘llash imkoniyati paydo bo‘ladi;

- o‘quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari ortadi;
- PISA tadqiqotlariga ko‘ra, SAT usuli qo‘llangan darslarda o‘quvchilarning natijalari an’anaviy darslarga nisbatan yuqori bo‘ladi.

SAT metodini samarali joriy etish uchun quyidagi didaktik va metodik tamoyillar asosida ish olib borish lozim:

- o‘quv jarayonida muammoli yondashuvni qo‘llash;
- darsda o‘quvchilarni mavzu bo‘yicha mustaqil savollar shakllantirishga rag‘batlantirish;

- muammoli masalalar orqali ularning tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- matematik tushunchalarni kontekstual asosda tushuntirish;
- masalalarni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash;
- o‘quvchilarning ilgari o‘rgangan bilimlarini yangi bilimlar bilan integratsiya qilish;
- differensial yondashuv;
- o‘quvchilarning qobiliyat va tayyorgarlik darajasini inobatga olgan holda turli darajadagi masalalar berish;

- o‘quvchilarning o‘z qiziqishlariga mos ravishda tadqiqot mavzularini tanlashiga imkon yaratish;

- ko‘p bosqichli savollar berish tizimini joriy etish;
- oddiydan murakkabga qarab savollar tuzish;
- matematik modellashtirish va tajriba asosida natijalarni tahlil qilish;
- interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;
- zamonaviy ta’lim platformalarida so‘rovga asoslangan topshiriqlar yaratish;
- baholashning yangi usullarini qo‘llash, ya’ni o‘quvchilarning faolligi va ishtirokiga asoslangan formativ baholash.

Kelajakda SAT metodikasini yanada kengroq o‘rganish va uni amaliyotga joriy etish orqali matematik ta’lim sifati oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, SAT usuli bo‘yicha amaliy tadqiqotlar olib borish va real sinf sharoitlarida qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalar ishlab chiqish ham muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dewey, J. (1933). How We Think. Boston: D.C. Heath.
2. Bruner, J. (1961). The Act of Discovery. Harvard Educational Review, 31(1), 21-32.
3. OECD. (2019). PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing.
4. Boaler, J. (2016). Mathematical Mindsets. Jossey-Bass.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

YANGI O‘ZBEKISTONDA MUHANDISLIK-TEXNIKA TA’LIMINING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Gulboyeva Shohista Ismat qizi

Qarshi davlat texnika universiteti

*“Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta
ishlash texnologiyasi” kafedrası stajyor-o‘qituvchisi*

Tel.: +998906760109

e-mail: shohistagulboyeva1994@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida muhandislik-texnika ta’limining strategik yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ishlab chiqarish bilan ta’lim integratsiyasi, malakali kadrlar tayyorlashda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Muallif tomonidan sanoatdagi texnologik yangilanishlar, mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va global tendensiyalar kontekstida muhandislik ta’limini modernizatsiya qilish zaruriyati asoslab berilgan. Shuningdek, masofaviy ta’limda mustaqil ishni samarali tashkil etish va ilm-fan bilan uyg‘unlikda ta’lim sifatini oshirish muammolari va yechimlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Muhandislik ta’limi, innovatsiya, texnik kadrlar, texnologik yangilanish, oliy ta’lim, masofaviy o‘qitish, amaliyot, fan-ta’lim integratsiyasi.

Аннотация. В статье рассматриваются стратегические направления развития инженерно-технического образования в условиях Новой Узбекистана. Освещаются реформы в системе высшего образования, значение интеграции с производством, а также внедрение инновационных подходов в подготовке квалифицированных кадров. Автор обосновывает необходимость модернизации инженерного образования с учетом технологических изменений в промышленности, трансформации рынка труда и глобальных тенденций. Также рассматриваются вопросы эффективной организации самостоятельной работы в дистанционном формате и повышения качества образования через интеграцию науки и практики.

Ключевые слова: Инженерное образование, инновации, технические кадры, технологические изменения, высшее образование, дистанционное обучение, практика, интеграция науки и образования.

Abstract. This article analyzes the strategic directions of engineering and technical education development in the context of New Uzbekistan. The study highlights current reforms in the higher education system, the integration of education and production, and the role of

innovative approaches in the training of qualified specialists. The author substantiates the need for modernization of engineering education in response to technological transformations in industry, shifts in the labor market, and global trends. The article also addresses challenges and solutions for organizing effective independent work in distance learning and emphasizes the importance of science-education integration for quality improvement.

Keywords. Engineering education, innovation, technical personnel, technological transformation, higher education, distance learning, internship, science-education integration.

Kirish. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida texnologik yangilanish, ilm-fan yutuqlariga tayanilgan ishlab chiqarish va zamonaviy raqobatbardosh iqtisodiyot barpo etish vazifasi belgilangan. Global mehnat bozoridagi tub o‘zgarishlar, to‘rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash har qanday davlatning iqtisodiy mustaqilligi va barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi omil sifatida e‘tirof etilmoqda. Ayniqsa, muhandislik-texnika yo‘nalishidagi malakali kadrlar salohiyatining yuksalishi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ishlab chiqarish liniyalarini tashkil qilish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar – xususan, “Harakatlar strategiyasi” (2017–2021-yillar), uning mantiqiy davomi sifatida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek “Besh muhim tashabbus” doirasida texnik ta‘limga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, oliy texnik ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yangilanmoqda, amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim dasturlari, dual tizim elementlari, innovatsion texnoparklar, IT-akademiyalar va zamonaviy laboratoriyalar tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro reyting va akkreditatsiya talablariga javob beruvchi ta‘lim muassasalarini yaratish, xalqaro texnik ta‘lim standartlarini joriy etish orqali o‘zbek muhandislik kadrlarini xalqaro mehnat bozoriga tayyorlash yo‘lga qo‘yilmoqda.

Bular qatorida, oziq-ovqat xavfsizligi va agrosanoat majmuasining texnologik rivoji ham strategik ustuvorliklardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlashda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali nafaqat ichki bozorni barqaror ta‘minlash, balki eksport salohiyatini oshirish mumkin. Bu borada agroinjiniring, oziq-ovqat texnologiyalari, biologik muhandislik, muhitni muhofaza qilish texnikasi kabi yo‘nalishlarda yetuk muhandis kadrlarni tayyorlash dolzarb masalaga aylangan.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishga qodir, innovatsion fikrlaydigan, raqamli kompetensiyalarga ega muhandislarni tayyorlash – Yangi O‘zbekistonning kelajagini ta‘minlaydigan asosiy ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Shu bois, texnika sohasida ta‘lim sifatini oshirish, uni ishlab chiqarish va oziq-ovqat xavfsizligi ehtiyojlariga yaqinlashtirish hamda ilg‘or xalqaro tajribani joriy etish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda.

Asosiy qism. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida oliy ta‘lim tizimi ham tub tarkibiy va mazmuniy o‘zgarishlarga yuz tutdi. Xususan, oliy ta‘limda sifatni oshirish, ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari bilan ishlashga qodir kompetent kadrlarni tayyorlash bo‘yicha qator amaliy choralar belgilandi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Bu jarayonda, ayniqsa, muhandislik-texnika yo‘nalishlarining rivojiga strategik darajada e‘tibor qaratilayotgani kuzatilmoqda. So‘nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishdagi ta‘lim dasturlari bilan bir qatorda texnik mutaxassisliklar faoliyatini takomillashtirish, muhandislik ta‘limining xalqaro mezonlar bilan uyg‘unlashuvi va uning amaliy samaradorligini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Aholi bandligi, texnologik innovatsiyalar va sanoat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhandislik sohasi kadrlariga global mehnat bozorida tobora ortib borayotgan talab ushbu ta‘lim yo‘nalishini yanada rivojlantirish zaruratini taqozo etmoqda. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, yaqin o‘n yillikda muhandislik yo‘nalishlarida kadrlar ehtiyoji hozirgi davrdagidan bir necha barobarga ortadi. Bu holat sanoatlashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, ishlab chiqarishda tor ixtisoslikdagi kasblarning paydo bo‘lishi va texnologik yangilanishlar bilan izohlanadi.

Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida muhandislik-texnika sohasida ta‘lim sifatini oshirish, yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash, o‘quv jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Jumladan, dual ta‘lim tizimi, modul asosidagi o‘quv rejalar, raqamli texnologiyalarga asoslangan mashg‘ulotlar, texnopark va innovatsion markazlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan amaliy mashg‘ulotlar muhandislik ta‘limining real sektorga integratsiyalashuvini kuchaytirmoqda.

Shuningdek, yoshlar orasida muhandislik kasblariga nisbatan qiziqish ortib borayotgani quvonarli holat bo‘lib, bu texnik yo‘nalishlarda ta‘limning ijtimoiy maqomi oshayotganini ko‘rsatadi. Davlat grantlari, xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan qo‘shma dasturlar, zamonaviy laboratoriyalar va amaliy markazlar ushbu sohaga intilayotgan yoshlar uchun rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Natijada, muhandislik-texnika ta‘limini tubdan isloh qilish, uning ichki tarkibiy tuzilmasini zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish, raqobatbardosh, kreativ fikrlovchi va amaliyotga tayyor muhandislar avlodini shakllantirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-pedagogik vazifasiga aylanmoqda.

Bugungi global raqobat sharoitida muhandislik ta‘limi oldida turgan asosiy strategik vazifa — iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun zamonaviy, ilg‘or texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirgan, texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks qarorlar qabul qila oladigan malakali muhandis kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Bunday mutaxassislar

nafaqat mavjud texnologik tizimlarda ishlay oladi, balki ularni takomillashtirish, muammolarga innovatsion yondashuv asosida yechim topish salohiyatiga ham ega bo‘lishi lozim [5].

Darhaqiqat, hozirgi kunda muhandislik yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri — zamonaviy mehnat bozorining talablariga javob beruvchi, iqtisodiyot real sektorida amaliyotda faol ishtirok eta oladigan muhandislarni yetishtirishdan iboratdir. Bu — har bir muhandislik ta‘limi yo‘nalishining asosiy missiyasi sifatida qaralmoqda.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta‘lim muassasalarida muhandislik sohasida tahsil olayotgan talabalarni ilg‘or texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash, ularni zamonaviy uskunalar, dasturiy platformalar va texnologik tizimlar bilan tanishtirish, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantira olishga o‘rgatish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Muhandislik ta‘limi sifati endilikda nafaqat o‘quv dasturining tarkibiga, balki uning ishlab chiqarish bilan bevosita integratsiyalashuv darajasiga ham bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Shu bois, muhandislik yo‘nalishida kadrlar tayyorlayotgan barcha oliy ta‘lim muassasalari oldida — bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar uyg‘unligini ta‘minlagan holda, amaliyotda foydali, zamonaviy fikrlovchi va kreativ muhandislar avlodini shakllantirish vazifasi turibdi.

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti barqaror va izchil sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Davlat statistika organlarining 2024 yil birinchi choragiga oid ma‘lumotlariga ko‘ra, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida o‘shish dinamikasi kuzatilmoqda. Xususan, sanoat ishlab chiqarishi hajmi 6,5 foizga oshgan bo‘lib (2023-yilning mos davrida bu ko‘rsatkich 4,1 foizni tashkil etgan), ishlab chiqarishning qariyb 80 foizini tashkil etuvchi qayta ishlash sanoatida 7,1 foiz, tog‘-kon sanoatida 4,9 foiz, elektr ta‘minoti, gaz va sovitish tizimlarida 2,9 foiz, suv ta‘minoti va chiqindilarni utilizatsiya qilish sohalarida esa 5,8 foiz o‘shish kuzatilgan. Bunday tendensiyalar, o‘z navbatida, ushbu tarmoqlar faoliyatini ta‘minlab beruvchi yuqori malakali muhandis kadrlar salohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir [6].

Iqtisodiy o‘shish jarayonlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan bir qatorda xorijiy yirik sarmoyador korxonalarining ishtiroki va ularga tegishli qo‘shma korxonalar sonining ortib borayotgani ham yaqqol sezilmoqda. Bunday holat, bir tomondan, mamlakat iqtisodiy barqarorligining mustahkamlanayotganidan dalolat bersa, boshqa tomondan, zamonaviy texnologiyalarni chuqur o‘zlashtira oladigan malakali muhandis kadrlar tayyorlash zaruratini kun tartibiga olib chiqmoqda.

Bugungi ishlab chiqarish korxonalarida foydalanilayotgan uskunalar va texnologik qurilmalar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning asosiy qismini eng yangi, zamonaviy va yuqori samarali texnologiyalar tashkil etmoqda. Ushbu uskunalar bilan samarali ishlay oladigan muhandis kadrlarni tayyorlash, texnologik jarayonlarni mahalliyashtirish, xorijiy texnologiyalarni moslashtirish va ulardan milliy iqtisodiyot ehtiyojlariga muvofiq foydalanish masalasi bevosita muhandislik ta‘limining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayni shu sababli, muhandislik ta‘limi texnologik suverenitetni ta‘minlash, sanoatni

modernizatsiya qilish va iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashda asosiy tayanch omil hisoblanadi.

Globallashtirish sharoitida muhandislik ta’limi jarayonining o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, zamonaviy texnika va texnologiyalar nihoyatda tez sur’atlar bilan yangilanmoqda. Natijada, muayyan muhandislik yo‘nalishidagi bilimlarning dolzarbligi qisqa muddat ichida eskirishi ehtimoli yuqori. Kecha dolzarb hisoblangan texnologiya bugun undan samaraliroq bo‘lgan yangi avlod texnologiyasi bilan almashtirilmoqda. Bunday holat esa muhandis kadrlar tayyorlayotgan oliy ta’lim muassasalari oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo‘ymoqda. O‘zgaruvchan texnologik muhitga moslasha olmaslik esa ta’lim jarayonining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Talabalarni zamonaviy texnologiyalar asosida emas, eskirgan uslubda o‘qitish, real ishlab chiqarishda qo‘llanilmaydigan bilimlarni berish, raqamli axborot muhitida shakllangan talaba ongini qoniqtirmaydi, ularni o‘quv jarayonidan begonalashtiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatining pasayishiga, kadrlar tayyorlash jarayonining samarasizligiga olib kelishi mumkin.

Shunday ekan, muhandislik ta’limini soha ehtiyojlariga mos ravishda muntazam yangilab borish, ilg‘or fan va texnologiya yutuqlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy etish muhim strategik vazifadir. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilarga yuqori mas’uliyat yuklaydi. Muhandislik ta’limi ishlab chiqarishdagi texnologik yangilanishlardan bir necha qadam oldinda bo‘lishi lozim. Shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, ularning sanoat korxonalarida amaliyot va stajirovkalardan o‘tishini yo‘lga qo‘yish, interaktiv, innovatsion o‘qitish metodlariga tayanish — bu sohaning taraqqiyoti uchun zaruriy shartlardir.

Zamonaviy muhandislik-texnika ta’limi oldida turgan muhim vazifalardan biri talabalarni o‘zlashtirayotgan bilimlarini mustaqil ravishda chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan samarali o‘quv muhitini yaratishdan iborat. Ayniqsa, masofaviy ta’lim formati sharoitida mustaqil ta’limni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish nafaqat o‘quv jarayonining sifatini belgilaydi, balki bo‘lajak muhandislarning kasbiy shakllanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan olib borilgan amaliy kuzatuvlar va tajriba tahlillari, ayniqsa texnik oliy ta’lim muassasalari misolida, quyidagi muammolarni aniqlagan:

O‘qituvchilarda masofaviy sharoitda talabalar mustaqil ishini nazorat qilish bo‘yicha yetarli metodik ko‘nikmalarning yetishmasligi. Bu holat, ko‘pincha, texnik yo‘nalish o‘qituvchilarining o‘z sohalariga doir bilimlarga ega bo‘lsa-da, masofaviy ta’lim metodikasini puxta egallamaganligi bilan izohlanadi.

Talabalar mustaqil ishini zamonaviy sharoitlarga mos holda samarali tashkil etish algoritmlarining ishlab chiqilmaganligi, ya’ni mustaqil topshiriqlarni tuzishda izchillik, bosqichlilik va maqsadlilik yetarli darajada ko‘zda tutilmagan.

Ayrim talabalar tomonidan yangi bilimlarni o‘zlashtirishga past motivatsiya, bu esa ta’lim sifati va o‘quv jarayonining samaradorligiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu muammolarga samarali yechim topish uchun ularning har biri alohida tahlil qilinishi lozim. Jumladan, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasining pastligi masalasi texnik mutaxassislarning ko‘pincha pedagogik tayyorgarlikdan chetda qolganligi bilan bog‘liq. Masofaviy ta‘lim esa faqat texnik bilim emas, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish, ta‘lim jarayonini masofaviy muhitga moslashtirish, talabalar bilan doimiy interaktiv aloqa o‘rnatish kabi ko‘nikmalarni ham talab etadi.

Mualliflar tomonidan olib borilgan so‘rovnomalar asosida, masofaviy ta‘lim sharoitida talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish uchun o‘qituvchilarda quyidagi malaka va kompetensiyalar mavjud bo‘lishi zarur deb topilgan:

- masofaviy ta‘limda mustaqil ishini rejalashtirish va uning mazmunini to‘g‘ri shakllantirish;
- ta‘lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida samarali muloqotni tashkil qilish;
- masofaviy aloqa davomida talabalar psixologik holatini monitoring qilish va zarur hollarda psixopedagogik yondashuvni qo‘llash;
- talabalar bilimini turli shakllarda baholash: test, loyihaviy topshiriq, og‘zaki fikr-mulohazalar orqali;
- o‘quv materiallarini masofaviy formatga moslashtirish va mustaqil ish maydonlarini aniqlash [4].

Shu kabi malakalarni shakllantirish uchun texnik oliygohlar o‘rtasida tizimli metodik ishlar olib borilishi muhim. Masalan, Vinnitsa Milliy Texnik Universiteti tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fakultet va kafedra darajasida o‘tkaziladigan metodik seminarlar, o‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashinuvi hamda “JetIQ” elektron boshqaruv tizimi yordamida ta‘lim jarayonini avtomatlashtirish, masofaviy o‘qitish samaradorligini oshirgan [4].

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab pedagoglar mavjud dars materiallarini shunchaki raqamlashtirish bilan cheklanib, uni masofaviy ta‘lim uchun qayta metodik ishlamagan. Natijada, masofaviy formatga mos kelmaydigan topshiriqlar va yondashuvlar ta‘lim sifati pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli o‘quv materiallarini qayta ishlash, bosqichma-bosqich mustaqil ish tizimini yaratish, baholash mezonlarini aniq belgilash masofaviy ta‘lim samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Har qanday ta‘lim yo‘nalishida nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan mustahkamlash o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, muhandislik-texnika ta‘limida bu jarayonning asosiy tayanchi — malakaviy amaliyot hisoblanadi. Agar talaba olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniga ega bo‘lmasa, ular o‘rtasida uzviy bog‘liqlik shakllanmaydi va bu holat kelajakda uning malakali mutaxassis sifatida shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Nazariy bilimni real ishlab chiqarish sharoitida sinab ko‘rish, mavjud texnologik jarayonlar asosida amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish muhandislik ta‘limining sifatli natija berishida hal qiluvchi omildir.

Malakaviy amaliyotlar real ishlab chiqarish korxonalari talablari asosida tashkil etilgandagina o‘z vazifasini to‘liq ado etadi. Ularni samarali yo‘lga qo‘yish faqat oliy ta‘lim

muassasalarining emas, balki sanoat korxonalarining ham manfaatlariga xizmat qiladi. Korxonalarda talabalar uchun munosib mehnat sharoitlari, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash imkoniyati, ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita jalb etilish orqali nafaqat amaliy bilimlar mustahkamlanadi, balki kelajakda korxonaning malakali kadrlari bazasi shakllanadi.

Muhandislik ta’limining rivojlanishi ishlab chiqarish sohasi bilan uzviy bog‘liqdir. Faqat ta’lim muassasasi va korxona o‘rtasida real hamkorlik o‘rnatilgandagina ta’lim sifati oshadi, amaliyot samarali bo‘ladi va malakali muhandis kadrlar yetishtiriladi. Korxona o‘z eshiklarini ochmagan, mavjud texnologik uskunalar, dasturiy ta’minot, ishlab chiqarish tizimlari bilan tanishish imkonini yaratmagan holatda talabaning bilimlari faqat nazariy doirada qolib ketadi. Natijada, tayyor muhandis kadr ishlab chiqarish jarayoniga integratsiyalasha olmaydi, korxona esa yosh mutaxassislarining bilim va ko‘nikmasidan to‘liq qoniqmaydi. Shu bois, korxonalarni ta’lim jarayoniga faol jalb qilish, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirishda ularning ishtirokini ta’minlash, o‘quv amaliyotlarini integratsiyalashgan shaklda tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Muhandislik ta’limida metodik yondashuvlar va o‘qitish uslublarini takomillashtirish haqida so‘z borganda, bu jarayonlarni fan taraqqiyotidan ajratib tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki ilmiy yondashuvsiz va fundamental fan asoslarisiz hech qanday zamonaviy texnik ta’lim samarali bo‘la olmaydi. Ilm-fanning rivoji, innovatsion ishlanmalarning ishlab chiqarishga tatbiq etilishi, yangi texnologik yechimlarning ishlab chiqilishi — bularning barchasi bevosita muhandislik ta’limining taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Shu bois, muhandis kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlarga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish, innovatsion loyihalarga talabalarni jalb etish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash orqali muhandislik ta’limining sifatini oshirishga erishiladi. Xulosa shuki, muhandislik ta’limining barqaror va innovatsion rivoji ilm-fansiz, ya’ni ilg‘or ilmiy g‘oyalar va texnologik yutuqlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida //PF-4947-son Farmoni. – 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF-158-son Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida
4. Puhach, S.S., Dembitska, S.V., & Kobylanska, I.M. (2020). Improving the organisation of independent work of students of higher education institutions in a distance learning format. Scientific Bulletin of Mukachevo State University. Series “Pedagogy and Psychology”, 6(2), 9-19.

5. Мухандислик бўйича таълим сифати: иқтисодиёт ривожининг асоси.
<https://uza.uz/uz/posts/muhandislik-boyicha-talim-sifati-iqtisodiyot-rivozhining-asosi> 610725
6. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>
7. Urinbayeva Z. Muhandislik pedagogikasi: staem yondashuvli muhandislik ta’limining yangi paradigmalari //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2024. – T. 3. – №. 34. – С. 293-296.



TABIY YONALISH TALABALARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kamalova Nilufar Dilshod qizi

Namangan davlat universiteti tayanch-doktoranti

E-mail: nilufarkamalova51@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tabiiy fanlar yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishga oid o‘ziga xos xususiyatlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, ilmiy-texnik soha vakillariga xos bo‘lgan so‘z boyligi, terminlar bilan ishlash ko‘nikmalari hamda kasbiy kontekstda leksik birliklarni qo‘llash mexanizmlari yoritiladi. Maqolada leksik kompetensiyaning mazmuni, komponentlari va tabiiy fanlarga xos yondashuvlar, zamonaviy metodikalar orqali boyitish yo‘llari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: leksik kompetensiya, tabiiy fanlar, kasbiy til, terminologiya, chet tili ta’limi, metodika, kasbiy muloqot.

SPECIFIC FEATURES OF DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE AMONG STUDENTS IN NATURAL SCIENCE FIELDS

Annotation: This article explores the specific features of developing lexical competence among students in natural science fields. It focuses on the vocabulary relevant to scientific and technical disciplines, students’ ability to work with terminology, and the use of lexical units in professional contexts. The paper discusses the structure and components of lexical competence, as well as effective methods for enhancing it through modern approaches tailored to science-oriented learners.

Keywords: lexical competence, natural sciences, professional language, terminology, foreign language teaching, methodology, professional communication

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ ЕСТЕСТВЕННО-НАУЧНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ

Аннотация: В данной статье анализируются особенности развития лексической компетенции у студентов естественно-научных направлений. Особое внимание уделяется специфике научно-технической лексики, умению работать с терминологией и использовать лексические единицы в профессиональном контексте. В статье

рассматриваются структура лексической компетенции, её компоненты, а также методические подходы к её формированию с учетом специфики естественных наук.

Ключевые слова: лексическая компетенция, естественные науки, профессиональный язык, терминология, обучение иностранному языку, методика, профессиональная коммуникация

Chet tilda leksik materialni metodik tashkil qilish, ya'ni tanlash, uning tasnifi va taqsimoti tadbirlari metodistlar tomonidan bajarilgach, ularning natijasi o'qitish amaliyotiga joriy etiladi. Bu ish o'quv-metodik vositalarni yaratuvchilar zimmasiga yuklanadi. O'rgatishga tayyorlangan leksik material yuzasidan darsda va boshqa mashg'ulotlarda muallim ishtiroki va rahbarligida o'quvchilar leksik ko'nikmalarni egallaydilar. Quyida, avvalambor, leksik kompetensiya termini tahliliga to'xtalib, so'ngra, ko'nikma hosil qilish bosqichlari haqida metodik mulohaza yuritiladi. Leksik kompetensiya terminini metodist olimlar ilmiy izohlab berishgan.

Avval biz tadqiqot ishimiz doirasida kompetensiya tushunchasiga to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Kompetensiya — bu shaxsning ma'lum bir faoliyatni samarali va natijali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, qobiliyat va tayyorgarliklar to'plamidir. Bu tushuncha nafaqat bilim va ko'nikmalarga, balki shaxsning o'zini o'zi boshqarish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatiga ham bog'liqdir. Kompetensiya, shuningdek, maxsus yoki umumiy sohalarda faoliyatni amalga oshirishda zarur bo'lgan tafakkur va muammolarni hal qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Kompetensiya shaxsning professional faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhim omil bo'lib, bu shaxsning o'zgaruvchan sharoitlarda tez moslashishi, yangi bilimlarni o'zlashtirishi va jamoada samarali ishlashi uchun zarurdir. Harvard Universiteti professori **David C. McClelland** kompetensiya tushunchasini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan olimdir. U kompetensiyani “muayyan vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan psixologik xususiyatlar to'plami” sifatida ta'riflagan. U o'zining “Competency-Based Human Resource Management” nomli asarida kompetensiya bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlar olib borgan. **Uning ta'rificha** “Kompetensiya — bu shaxsning ma'lum bir vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan psixologik xususiyatlar (bilimlar, ko'nikmalar, xulq-atvorlar) to'plamidir”⁹¹— deydi. Case Western Reserve Universiteti professori **Richard E. Boyatzis** esa, “kompetensiya”ni insonning ma'lum bir faoliyatda yuqori samaradorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar va xususiyatlar to'plami deb belgilaydi. U o'zining “The Competent Manager” asarida kompetensiyaning professional kontekstdagi ahamiyatini ko'rib chiqqan.

Olimning fikricha: “Kompetensiya — bu ma'lum bir faoliyatni samarali va muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlar to'plamidir”⁹²—deya hisoblagan.

⁹¹ McClelland, D. C. (1998). *Competency-Based Human Resource Management*. Jossey-Bass Publishers.

⁹² Boyatzis, R. E., Spencer, L. M., & Spencer, S. M. (1982). *The Competent Manager: A Model for Effective Performance*. John Wiley & Sons.

Psixologlar **Lyle M. Spencer va Signe M. Spencer** kompetensiyani odamning amaliy va aqliy qobiliyatlari orqali ko'rsatadigan xususiyatlar to'plami sifatida tasvirlagan. Ular o'zining "Competence at Work" nomli kitobida kompetensiyaning organizatsiya va inson resurslarini boshqarishdagi rolini tadqiq qilgan. "Kompetensiya — bu ma'lum bir faoliyatni samarali va muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan xususiyatlar, shu jumladan bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar va shaxsiy xususiyatlardir"⁹³—degan fikrni aytishadi.

Fransuz olimi Jean Le Boterf kompetensiyani shaxsning amaliy faoliyatni bajarish jarayonida bilim, ko'nikma, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlarni birlashtirish orqali muayyan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati sifatida ta'riflaydi.

Uningcha, "Kompetensiya — bu shaxsning amaliy faoliyatni bajarish jarayonida bilim, ko'nikma, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlarni birlashtirish orqali muayyan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatidir"⁹⁴—degan asosli fikrni aytadi.

Bu olimlarning ta'riflari kompetensiyaning turli nuqtai nazardan qamrovini va uning faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan ko'plab elementlarni o'z ichiga olishini ko'rsatadi. Aynan tadqiqotimiz yo'nalishlaridan biri leksik kompetensiya bo'lganligi bois shu o'rinda leksik kompetensiyani ta'rifini keltirib o'tamiz.

Leksik kompetensiya — bu shaxsning til va so'z boyligi, shu jumladan, so'zlarni to'g'ri va samarali tanlash, ulardan ma'lumotli va mantiqan to'g'ri ifodalash uchun foydalanish qobiliyatidir. Leksik kompetensiya tilshunoslikda, ayniqsa, tilni tushunish va ishlatishda, so'zlarning ma'nosini to'liq va to'g'ri anglash, ularni kontekstga mos ravishda ishlatish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu, o'z navbatida, tilni professional yoki kundalik muloqotda aniq, samarali va maqsadga yo'naltirilgan tarzda qo'llash imkoniyatini beradi.

Leksik kompetensiya faqatgina so'zlarni bilish va ularni to'g'ri talaffuz qilishni emas, balki ma'lum bir mavzu yoki kontekstda ular bilan ishlashda kerakli ma'lumotlarni etkazish va tushuntirish imkonini ham beradi. Shuningdek, bu kompetensiya shaxsning tilni aniq va nuqtai nazarli ishlatishdagi ko'nikmalarini, so'zlar o'rtasidagi semantik bog'lanishni tushunish, sinonimlar va antonimlar kabi til xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Endi taniqli metodistlarning tadqiqotlariga asoslanib leksik kompetensiya tushunchasining mohiyatini aniqlashga harakat qilamiz.

S.F.Shatilov leksik kompetensiyaning ikki qismdan iborat metodik tushunchaligini, ya'ni nutqda so'zni qo'llash va nutq jarayonida so'z yasash deb ta'riflaydi.⁹⁵ Olimning fikricha, bu nutqiy leksik kompetensiya bo'lib, undan tashqari lisoniy leksik ko'nikma ham shakllanadi. So'zni tahlil etish jarayoni, so'z yasash, so'z birikmasini tuzish kabilar leksik materialni ong ishtirokida qo'llashdek lisoniy leksik ko'nikma ekanligi nazariy isbotlangan. Demak, leksikaning nutqiy va lisoniy ko'nikmalari ma'lum. J.Jalolovning fikricha, leksikani

⁹³ Spencer, L. M., & Spencer, S. M. (1993). *Competence at Work: Models for Superior Performance*. John Wiley & Sons.

⁹⁴ Le Boterf, J. (1994). *La compétence: Qu'est-ce c'est?*. Éditions d'Organisation.

⁹⁵ С. Ф. Шатилов. Методика обучения немецкому языку в средней школе. — Л.: Просвещение, 1977, 97-бет.

o‘rganishdan asosiy maqsad o‘quvchilarga chet til nutq ko‘nikma va malakalarini singdirishdir. Leksik materialni egallash uch bosqichdan o‘tadi. Birinchi bosqich yangi so‘z bilan tanishishdan boshlanadi, ikkinchi bosqich tanishilgan leksikani nutq jarayonida qo‘llay boshlashga qaratiladi, ya‘ni bu materialni dastlabki mustahkamlash davridir va uchinchi bosqichda esa o‘rganilayotgan so‘z nutq faoliyati turlarida ko‘nikma hamda malaka tarkibida o‘zlashtiriladi. Leksik birlik yuzasidan bajariladigan ushbu ish bosqichlarini metodlarga taqqoslash mumkin: tanishish, mashq qilish va qo‘llash.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, tabiiy yo‘nalish talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirish, ya‘ni sohaga tegishli bo‘lgan terminologik so‘z va so‘z birikmalarini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi, deb ayta olamiz.

Pedagogik adabiyotlarda, D.Otaxanovanning muallifligi ostida nashr qilingan “Xorijiy tilni intensiv o‘qitish” nomli o‘quv qo‘llanmasida, “kompetensiya” tushunchasiga ham alohida to‘xtalib, uni E.G. Azimov va A.N. Shukin “bilimlar, ko‘nikmalar, qobiliyatlar va fazilatlarning birikmasi (shaxsiy va kasbiy jihatdan), shuningdek, yangi bilim va tajribaga ega bo‘lish qobiliyati va ularni hayotga tadbiiq etishga tayyorlik” sifatida izohlashsa, I.A.Zimnyaya uni bilimga asoslangan, intellektual va shaxsga asoslangan ijtimoiy va kasbiy hayotiy faoliyat sifatida ta’rif beradi, -deya ta’kidlaydi⁹⁶.

Shuningdek, Zimnyaya pedagogik nazariya va amaliyotda axborot kompetensiyasini rivojlantirish muammosini o‘rganish mantig‘i axborot kompetensiyasining psixologik va pedagogik jihatlarini ko‘rib chiqish vazifasini belgilaydi. Umuman mutaxassisning ham, xususan o‘qituvchining ham psixologik adabiyotlarda axborot kompetensiyasining mohiyati g‘oyasi juda xilma-xildir. Shu bilan birga, axborot kompetensiyasining ta’riflari ko‘proq ma’lumot bilan ishlash uchun bilim va ko‘nikmalarga bo‘lgan yehtiyojni, kamroq darajada - insonning bunday ish uchun imkoniyatlarini hisobga olishiga e’tibor qaratiladi, degan fikrni ilgari suradi.⁹⁷ Bizningcha, axborotlashtirish sharoitida inson faoliyatining psixologik xarakteristikasi sifatida qobiliyatlar umumiy ma’noda eslatib o‘tilgan. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish jarayonida ishtirok etayotgan har bir shaxs tabiat tomonidan unga ajratilgan moyillik, ushbu faoliyatga mos keladigan qobiliyatlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadigan yutuqlarga erishishi tortishuvsizdir. Shu sababli, insonning axborot kompetensiyasini rivojlantirish uning qobiliyatlarini rivojlantirishga bog‘liq deb taxmin qilish mantiqan to‘g‘ri keladi va ushbu kompetensiyani o‘zlashtirish natijasi qanchalik yuqori bo‘lsa, bu jarayon talab qilinadigan qobiliyatlarni rivojlantirishga bo‘ysunadi.

Biz yuqoridagi izlanishlarimiz va o‘rganganlarimiz natijasida, leksik kompetensiya va axborot kompetensiyasi o‘rtasidagi bog‘lanish, asosan, tilni to‘g‘ri va samarali ishlatish, axborotlarni izlash, tahlil qilish va ishlatishda aks etadi. Leksik kompetensiya, biror tilni yaxshi

⁹⁶ D.Otaxanova. Xorijiy tilni intensiv o‘qitish. O‘quv qo‘llanma. 2023 y.125 bet.

⁹⁷ Зимняя И. А. Педагогическая психология : учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по педагогическим и психологическим направлениям и специальностям / И. А. Зимняя. – Изд. 2-е, доп., испр. и перераб. – Москва : Логос, 2009 г. – 382 с. – (Новая университетская библиотека). – ISBN 978-5-98704-442-1

bilish va uning lug‘aviy boyligini, ya‘ni so‘z va iboralar to‘plamini anglatadi. Bu kompetensiya, shuningdek, til o‘rganuvchining turli so‘zlarni va ularning kontekstda to‘g‘ri qo‘llanilishini anglash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi, deya olamiz.

Shuningdek, axborot kompetensiyasi esa, axborotlarni topish, tasniflash, tahlil qilish va ularni kerakli maqsadlar uchun ishlatishni o‘z ichiga oladi. Axborot kompetensiyasi, shuningdek, axborot manbalarini baholash va tekshirish, internetdan samarali foydalanish kabi qobiliyatlarni talab qiladi degan to‘xtamga keldik.

Bu ikki kompetensiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq deya hisoblaymiz. Masalan:

- Leksik kompetensiya yaxshi rivojlangan shaxs axborotlarni to‘g‘ri tushunib, ularni to‘g‘ri tilda ifodalay oladi, bu esa axborot kompetensiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi.

- Axborot kompetensiyasi yaxshi bo‘lgan odam, axborotni topishda va ishlatishda to‘g‘ri lug‘aviy resurslardan foydalanish, izohli so‘zliklar, onlayn ma‘lumotlar bazalari va boshqa axborot manbalarini bilish kabi leksik qobiliyatlarni namoyon qiladi.

Shu tariqa, leksik kompetensiya axborot kompetensiyasini qo‘llashda yordam beradi, chunki yaxshi leksik asoslangan shaxs axborotlarni aniq va to‘g‘ri tarzda talqin qilish va ishlatishda o‘z bilimlarini amalda qo‘llay oladi.

Kompyuter texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiyalarning rivojlanishi insoniyatning haqiqatga duch kelishiga olib keldi: dunyo haqida shunchalik katta bilimlar to‘planganki, barcha ma‘lumotlarni olish uchun maxsus bilimlarni, ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, zarur qobiliyatlarni rivojlantirish va yangi fazilatlarni rivojlantirish zarur axborotni kerakli darajada qabul qilish va o‘zlashtirishga imkon beradigan psixika. Bu ehtiyojlar zamonaviy insonni tarbiyalash uchun yangi talablarni belgilaydi. Birinchidan, u bir necha o‘n yillar oldingiga qaraganda ancha katta bilimga muhtoj. Ikkinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi tez sur‘atlar bilan kechayotgani sababli mutaxassis tomonidan olingan bilimlar tezda eskiradi. Ta‘limni axborotlashtirish axborot mahsulotlarini tayyorlashga yangi axborot texnologiyalarini joriy etishga asoslangan pedagogik jarayonlarni o‘zgartirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmui orqali namoyon bo‘ladi. O‘quv jarayonida zamonaviy texnik qurilmalardan (shaxsiy kompyuterlar, televizion va video uskunalar, ma‘lumotni bir turdan ikkinchisiga o‘tkazish uchun turli xil qurilmalar) va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish didaktik jarayonni tahlil qilish va yangicha tushunishga, yangi ta‘lim tamoyillarini o‘rnatishga olib keladi.


Kompyuter texnologiyalari, shuningdek, axborot texnologiyalarining ta‘lim jarayoniga kirib kelishi natijasida o‘qitish usullari, shakllari va mazmunidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. O‘qituvchining tushuncha sifatida axborot kompetensiyasi so‘nggi paytlarda alohida e‘tibor mavzusiga aylandi. Bizning fikrimizcha, bu juda asosli, chunki zamonaviy mehnat bozorida yuqori raqobatbardoshlikka ega bo‘lgan mutaxassisning axborot kompetensiyasini shakllantirish muammosi birinchi navbatda o‘qituvchiga, uning ushbu sohadagi yutuqlari va qobiliyatlariga taalluqlidir, chunki o‘qituvchini asosiy manba, boshqaruvchi, murabbiy sifatida

ko‘rib chiqish mumkin. yosh avlodlar axborot kompetentsiyasini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Har bir soha, o‘z navbatida, barcha odamlarning rivojlanish darajasida farq qiladigan insonning aqliy xususiyatlari va fazilatlari, aqliy funktsiyalarining xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Individuallik va inson shaxsiyati tushunchasi dialektik birlikdadir. Ushbu tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligi insonning sotsializatsiya mexanizmini aks ettiradi: insoniyat tomonidan to‘plangan tajribani o‘zlashtirish aqliy faoliyatdan tashqarida mumkin emas. Shuning uchun o‘qituvchining kasbiy va axborot kompetentligini rivojlantirish, birinchi navbatda, shaxsning individualligini rivojlantirishni talab qiladi. Bizning fikrimizcha, axborot kompetentligini inson individualligi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish o‘qituvchining ushbu turdagi kasbiy kompetentsiyasining yanada tabaqalashtirilgan xususiyatini shakllantirishga va uning rivojlanish shartlari va omillarini ko‘rsatishga imkon beradi.

ko‘ra, ma’lumot bir nechta modalitet orqali taqdim etilganda, u miyada kuchliroq kodlanadi va uzoq muddatli xotirada saqlanadi¹⁰⁴. Shuningdek, N.Garettning fikriga ko‘ra multimodal vositalar turli o‘quv uslublariga ega talabalar uchun qulay vositadir. Bunda o‘quvchilarning vizual, audial modalliklarga mansubligini e’tiborga olish, multimodal ta’limning talabaning individual ehtiyojlariga moslashish imkoniyatiga egaligini ko‘rsatadi¹⁰⁵.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan afzalliklar bilan bir qatorda multimodal materiallardan foydalanish ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday qiyinchiliklarning eng muhimlari sifatida internet, zamonaviy qurilmalar, dasturiy ta’minotlar talab darajasida emasligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bilan birga multimodal dars ishlanmalarini tayyorlash til mutaxassislari oldidagi eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Zamonaviy til ta’limi o‘z mohiyatiga ko‘ra texnologik vositalar bilan boyitilgan bo‘lib, multimodal yondashuvlarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilardan an’anaviy bilimlardan tashqari yangi turdagi ko‘nikmalarni talab qiladi. Xususan, multimodal darslar yaratish jarayonida o‘qituvchilar faqatgina dars mazmunini rejalashtirish bilan cheklanmasdan, balki raqamli vositalardan kompleks foydalanish qobiliyatiga ham ega bo‘lishlari zarur. M.Levy va G.Stockvell ta’kidlaganidek, multimodal materiallar tayyorlashda, xususan, video kontentni montaj qilish, subtitrlar yozish, hamda ushbu resurslarni o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish jarayoni o‘qituvchidan yuqori darajadagi raqamli savodxonlikni talab qiladi¹⁰⁶. Bunday savodxonlik esa ko‘pchilik an’anaviy o‘qituvchilarda hali to‘liq shakllanmagan bo‘lishi mumkin. Raqamli vositalardan foydalanishda malaka yetishmovchiligi multimodal yondashuvlarni samarali tatbiq etish yo‘lida asosiy to‘siqlardan biridir.

Shuningdek, bunday resurslardan foydalanishning yana bir qiyinchiligi multimodal yondashuvlar o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonini qiziqarli tashkil eta olsada, ularning noto‘g‘ri yoki me’yordan ortiqcha qo‘llanilishi o‘quvchilarning kognitiv faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, video, musiqa, animatsiya va boshqa audio-vizual elementlar haddan tashqari ko‘p bo‘lsa, o‘quvchining e’tibori chalg‘iydi a asosiy lingvistik maqsad, ya’ni til birliklarini o‘zlashtirish ikkinchi darajaga o‘tadi. J.Sveller tomonidan ilgari surilgan kognitiv yuklanish nazariyasi (Cognitive Load Theory) bu holatni ilmiy asosda tushuntiradi. Nazariyaga ko‘ra, inson miyasi ma’lumotni qayta ishlashda cheklangan ishchi xotira (working memory) resurslariga ega. Agar taqdim etilayotgan ma’lumotlar soni yoki ularning murakkabligi bu imkoniyatdan oshib ketsa, o‘quvchining bilimni samarali o‘zlashtirish imkoniyati kamayadi¹⁰⁷.

TAHLIL VA NATIJALAR

¹⁰⁴ Mayer, R. E. (2005). *The Cambridge Handbook of Multimedia Learning*. Cambridge University Press.

¹⁰⁵ Garrett, N. (2011). Technology in the service of language learning: Trends and issues. *The Modern Language Journal*, 95(s1), 697–701.

¹⁰⁶ Levy, M., & Stockwell, G. (2006). *CALL Dimensions: Options and Issues in Computer-Assisted Language Learning*. Lawrence Erlbaum Associates.

¹⁰⁷ Sweller, J. (1988). Cognitive Load During Problem Solving: Effects on Learning. *Cognitive Science*, 12(2), 257–285.

Multimodal yondashuv bu o‘quvchilar bilimni nafaqat lingvistik (yozma yoki og‘zaki nutq), balki vizual (rasmlar, jadvallar, sxemalar), eshitish (audio matnlar) va raqamli (multimedia, ilovalar) shakllarda qabul qilishi, tahlil qilishi va ifoda etishi mumkin bo‘lgan o‘quv metodidir. Bu yondashuv orqali o‘rganilayotgan bilimlar ko‘p jihatdan real hayotga yaqinlashtiriladi, bu esa o‘z navbatida baholash tizimining ham real hayotiy vaziyatlarga moslashuvini talab qiladi. Multimodal yondashuv asosida olingan bilimlarni baholash uchun an’anaviy test usullari yetarli emas. Hughesning fikriga ko‘ra bu turdagi matnlarni baholashda yangi baholash mezonlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Olimning fikriga ko‘ra an’anaviy testlar (masalan, multiple-choice, true/false, matching) quyidagi jihatlar bo‘yicha multimodal yondashuv orqali shakllangan bilimni to‘liq baholay olmaydi:

- Til o‘rganuvchining tanqidiy fikrlash, muammoga yondashuv, yechim topish qobiliyatini baholashda zaiflik;
- Modalitetlro integratsiyani (matn + grafik + audio) aniqlashda samarador emaslik;
- Ijodiy yondashuvga asoslangan bilimlarni o‘lchay olmaslik.

A.Hughes va J.Selenderlar quyidagi multimodal baholash uchun samarali bo‘lgan muqobil usullarni tavsiya etadi¹⁰⁸:

Portfolio: til o‘rganuvchilarning o‘z ta’limiy yo‘nalishida erishgan yutuqlarini, topshiriqlarini, multimodal ishlarini (masalan, video sharh, taqdimot, grafik tahlil) o‘zida jamlagan vositadir. Portfolio orqali o‘quvchining ijodiy va integrativ fikrlash qobiliyatlari, texnologiyalardan foydalanish mahorati, tanqidiy yondashuvi baholanadi¹⁰⁹;

Performance-based assessment (ijro asosida baholash): bu turdagi baholashda o‘quvchi real yoki yaqin hayotiy vaziyatda muammoni hal qilish, loyiha yaratish, taqdimot qilish, debatda qatnashish kabi vazifalarni bajarish orqali bilimini amaliy ko‘rsatadi. Ayniqsa, multimodal o‘qitishda bu yondashuv o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarni birgalikda qo‘llash qobiliyatini aniqlaydi¹¹⁰.

O‘zini-o‘zi baholash va bir-birini baholash (self-assessment and peer-assessment): Mazkur baholash turlari yordamida o‘quvchi o‘z faoliyatini tahlil qilishi, o‘z kuchli va zaif tomonlarini anglash orqali o‘zini baholaydi. Shu bilan birga, bir-birini baholash orqali til o‘rganuvchilar bir-birlarining multimodal ishlari yuzasidan fikr bildiradilar. Bu yondashuv metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi va hamkorlikka asoslangan ta’limni takomillashtiradi¹¹¹.

¹⁰⁸ Hughes, A. (2003). *Testing for Language Teachers* (2nd ed.). Cambridge University Press.

¹⁰⁹ Darling-Hammond, L., & Snyder, J. (2000). Authentic assessment of teaching in context. *Teaching and Teacher Education*, 16(5-6), 523-545.

¹¹⁰ Mueller, J. (2005). The authentic assessment toolbox: Enhancing student learning through online faculty development. *Journal of Online Learning and Teaching*, 1(1), 1-7.

¹¹¹ Black, P., & William, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7-74.

XULOSA

Multimodal matnlardan foydalanish zamonaviy chet tili ta’limining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu yondashuv nafaqat lisoniy bilimlarni rivojlantirshi, balki o‘quvchilarning madaniy idrokini, raqamli savodxonligini va ijodiy fikrlashini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv texnik, pedagogik va metodik muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shunday ekan, multimodal ta’limni samarali joriy etish uchun tizimli yondashuv, resurslar bilan ta’minlash va o‘qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanib borishini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cope, B., & Kalantzis, M. (2000). *Multiliteracies: Literacy learning and the design of social futures*. Routledge.
2. Garrett, N. (2011). Technology in the service of language learning: Trends and issues. *The Modern Language Journal*, 95(s1), 697-701.
3. Hafner, C. A., Chik, A., & Jones, R. H. (2015). *Digital literacies and language learning*. *Language Learning & Technology*, 19(3), 1–7.
4. Hughes, A. (2003). *Testing for Language Teachers* (2nd ed.). Cambridge University Press.
5. Jewitt, C. (2008). Multimodality and literacy in school classrooms. *Review of Research in Education*, 32, 241–267.
6. Kress, G., & Van Leeuwen, T. (2001). *Multimodal discourse: The modes and media of contemporary communication*. Arnold.
7. Levy, M., & Stockwell, G. (2006). *CALL Dimensions: Options and Issues in Computer-Assisted Language Learning*. Lawrence Erlbaum.
8. Mayer, R. E. (2005). *The Cambridge Handbook of Multimedia Learning*. Cambridge University Press.
9. Pegrum, M. (2014). *Mobile learning: Languages, literacies and cultures*. Palgrave Macmillan.
10. Snelson, C. (2011). YouTube and beyond: Integrating video into online education. *MERLOT Journal of Online Learning and Teaching*, 7(1), 159–169.
11. Sweller, J. (1988). Cognitive load during problem solving: Effects on learning. *Cognitive Science*, 12(2), 257–285.
12. The New London Group. (1996). A pedagogy of multiliteracies: Designing social futures. *Harvard Educational Review*, 66(1), 60–92.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

TEXNONOGIK TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARINING MALAKAVIY VA PEDAGOGIK AMALIYOTLARINI TASHKILDA INNOVATSION YONDASHUVI

Mardanov Maqsudbek Maxmudovich
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘quv ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari
Tel: +998 94 015 27 10
Email: maqsudmardanov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola texnologik ta‘lim yo‘nalishidagi talabalarning malakaviy va pedagogik amaliyotlarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar qo‘llanilishini tahlil qiladi. Talabalarning malakaviy va pedagogik amaliyotlarida raqamli platformalar, interaktiv vositalar va o‘quv dasturlari qo‘llanishi talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Texnologik ta‘lim sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda amaliyot jarayoni alohida ahamiyatga ega. Innovatsion metodlar, jumladan, raqamli texnologiyalar, STEAM modeli, gamifikatsiya, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari kabi yondashuvlar talabalarga nafaqat pedagogik ko‘nikmalarni, balki zamonaviy texnologik vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini ham shakllantirishga yordam beradi. Maqola, texnologik ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va malakaviy-amaliyot jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirish uchun kerakli takliflar va metodik yondashuvlarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: texnologik ta‘lim, pedagogik amaliyot, malakaviy amaliyot, innovatsion yondashuv, raqamli kompetensiyalar, STEAM. pedagogik metodlar, innovatsion ta‘lim, malakali mutaxassislar, ishlab chiqarish amaliyoti, o‘qituvchilik amaliyoti.

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ОРГАНИЗАЦИИ КВАЛИФИКАЦИОННОЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ СТУДЕНТОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируется применение инновационных подходов к организации квалификационно-педагогической практики обучающихся по направлению технологического образования. Применение цифровых платформ, интерактивных инструментов и учебных программ в квалификационно-педагогической практике студентов имеет большое значение для подготовки студентов к педагогической деятельности. Особое значение в подготовке высококвалифицированных специалистов в области технологического образования имеет процесс практики. Инновационные

методы, в том числе такие подходы, как цифровые технологии, модель Steam, геймификация, технологии виртуальной и дополненной реальности, помогают учащимся формировать не только педагогические навыки, но и навыки эффективного использования современных технологических инструментов. Статья содержит предложения и методические подходы, необходимые для эффективной организации учебного процесса по направлению технологического образования и адаптации квалификационно-практического процесса к современным требованиям.

Ключевые слова: технологическое образование, педагогическая практика, профессиональная практика, инновационный подход, цифровые компетенции, Steam. педагогические методы, инновационное воспитание, квалифицированные специалисты, производственная практика, педагогическая практика.

INNOVATIVE APPROACH TO ORGANIZING QUALIFICATION AND PEDAGOGICAL PRACTICE FOR STUDENTS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION

Annotation: this article analyzes the application of innovative approaches to the organization of qualification and pedagogical practices of students in the direction of technological education. The application of digital platforms, interactive tools and educational programs in the qualification and pedagogical practices of students is of great importance in the preparation of students for pedagogical activity the process of practice is of particular importance in the training of highly qualified specialists in the field of technological education. Innovative techniques, including approaches such as digital technology, STEAM model, gamification, virtual and augmented reality technologies, help students form not only pedagogical skills, but also skills for the effective use of modern technological tools. Article, the necessary proposals and methodological approach for the effective organization of the educational process in the direction of technological education and the adaptation of the qualification-practice process to modern requirements.

Keywords: technological education, pedagogical practice, qualification practice, innovative approach, digital competencies, STEAM. pedagogical methods, innovative education, qualified specialists, production practice, teaching practice.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'rgatishni maqsad qiladi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarida malakaviy va pedagogik amaliyotlarning o'zni katta. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan turli qaror va farmonlar, jumladan, "Ta'lim tizimini rivojlantirishning 2021–2026 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi" va "Yangi O'zbekistonning zamonaviy ta'lim modelini shakllantirish to'g'risidagi" qarorlar hamda "Ta'lim tizimida sifatni ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2022-yil): Bu qarorlar ta'lim tizimida

malakaviy amaliyotlarni sifatli tashkil etishni maqsad qilgan. Ayniqsa, texnologik ta'lim yo'nalishida talabalar malakaviy va pedagogik amaliyotlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlash, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va pedagogik faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilangan vazifalar, talabalar uchun sifatli amaliyotlarni tashkil etish, ularni real ish sharoitlarida tajriba orttirish, shuningdek, texnologik sohalarida ilg'or metodlarni qo'llashni ta'minlashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Texnologik ta'lim yo'nalishida malakaviy va pedagogik amaliyotni samarali tashkil qilish zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslangan holda amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda bu borada o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sifatini oshirishga doir qarorlari, oliy ta'lim tizimida amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga doir tavsiyalar alohida o'rin egallaydi.

Masalan, G'.J. Abdullaeva, Sh.S. Tursunova, D.M. Nishonova va boshqalar o'z tadqiqotlarida amaliyot davomida talabalarni innovatsion metodlar, loyihaviy yondashuv, STEAM texnologiyalari va AKT vositalaridan foydalanishga yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Jahon tajribasida, Dewey (1916), Kolb (1984) kabi pedagog olimlar amaliyot ta'limi jarayonida tajriba asosida o'rganish (experiential learning) nazariyasini ilgari surganlar. Unga ko'ra, talabalar bevosita faoliyatga jalb etilganda ularning bilimlarni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.

Shuningdek, B. Mamarasulov, O. Saidov kabi tadqiqotchilar texnologik ta'limda ko'rgazmali vositalardan, virtual laboratoriyalardan va simulyatorlardan foydalanish amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashda yuqori samara berishini ko'rsatgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda texnologik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun amaliyot jarayonlarini innovatsion jihatdan tashkil qilish pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylangan. Bu esa, o'z navbatida, raqobatbardosh, kasbiy jihatdan tayyor kadrlarni yetishtirishda muhim omil hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Shidat bilan rivojlanish bosqichidagi zamonamizning ta'lim sohasida o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'rgatishni maqsad qiladi. Buning uchun ta'lim jarayonida malakaviy va pedagogik amaliyotlar alohida o'rin tutadi. Xususan, texnologik ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun bu amaliyotlar o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Malakaviy va pedagogik amaliyotlar talabalarni professional faoliyatga tayyorlashda, ularning bilim va ko'nikmalarini real ish sharoitlarida qo'llashda, shuningdek, pedagogik va texnologik jarayonlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Malakaviy amaliyotlarning mazmuni

Malakaviy amaliyotlar, asosan, talabalar o'rganayotgan soha bo'yicha amaliy tajriba orttirishlari uchun tashkil etiladi. Texnologik ta'lim yo'nalishida malakaviy amaliyotlar talabalar uchun texnologik jarayonlarni, qurilmalar va uskunalarni bilan ishlashni o'rgatish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ishlashga tayyorlashga qaratilgan. Bu amaliyotlar

talabalarni texnologik yechimlar yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va texnologik muammolarni hal qilishda mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar bilan ta‘minlaydi.

Malakaviy amaliyotlarning asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Talabalar o‘zlarining nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash.
2. O‘quvchilarga texnologik jarayonlarni boshqarish va ishlab chiqarish muammolarini hal qilishda tajriba oltirish imkoniyatini yaratish.
3. Talabalar o‘z faoliyatini samarali tashkil etish va mahsulot yaratishda muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
4. Ishlab chiqarish sharoitida talabalarni texnologik jarayonlarning barcha bosqichlarida ishtirok etish uchun tayyorlash.

Malakaviy amaliyotlar davomida talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga, yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni hal qilishga imkoniyat yaratishadi.

Pedagogik amaliyotlarning mazmuni

Pedagogik amaliyot esa talabalarni ta‘lim jarayonida o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritishga tayyorlash uchun zarurdir. Texnologik ta‘lim yo‘nalishidagi pedagogik amaliyotlar talabalar uchun texnik fanlar va pedagogika asoslarini birlashtirishga yordam beradi. Pedagogik amaliyot davomida talabalar o‘qituvchi sifatida dars berish, o‘quvchilarni nazariy va amaliy bilimlar bilan ta‘minlash, shuningdek, pedagogik yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar.

Pedagogik amaliyotning asosiy maqsadlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘quvchilarga dars berish jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash.
2. Pedagogik metodlarni, texnologiyalarni va o‘quv jarayonini boshqarish usullarini o‘rganish.
3. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda turli o‘qitish usullarini qo‘llash.
4. Pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘z ustida ishlash.

Pedagogik amaliyotlar davomida talabalar pedagogik yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar va o‘zaro faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu amaliyotlar talabalarni o‘qituvchilik faoliyatiga tayyorlashda, o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Malakaviy va pedagogik amaliyotlarning o‘zaro bog‘liqligi

1. Raqamli ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish

Innovatsion ta‘lim metodlaridan biri bu — raqamli ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishdir. Talabalarning malakaviy va pedagogik amaliyotlarida raqamli platformalar, interaktiv vositalar va o‘quv dasturlari qo‘llanishi talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Google Classroom, Zoom, Moodle kabi onlayn platformalar yordamida talabalar o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazish, darslarni masofaviy o‘tish va onlayn testlar orqali

o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, interaktiv doskalar, PowerPoint, Canva, Kahoot kabi vositalar yordamida ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin.

2. STEAM metodologiyasi

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) metodologiyasi orqali o‘quvchilar nafaqat texnik bilimlarga ega bo‘ladilar, balki ijodiy va tasavvurni rivojlantiradigan fanlararo yondashuvlarni o‘rganadilar. Talabalar amaliyot jarayonida muammoli vaziyatlarni hal qilishda, ilmiy tajriba o‘tkazishda va loyiha asosida ishlashda STEAM yondashuvidan samarali foydalanadilar. Masalan, fizika yoki informatika darslarida Arduino, 3D modellash yoki robototexnika texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalar amaliy bilimlarni o‘zlashtiradilar.

3. Gamifikatsiya va o‘yinlashtirish yondashuvlari

Gamifikatsiya — ta’lim jarayonini o‘yin asosida tashkil etish orqali talabalar motivatsiyasini oshiradi. O‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish, masalan, testlar, vazifalar va turnirlar o‘tkazish talabalarni yanada faol ishtirok etishga undaydi. Talabalar o‘z bilimlarini baholash, ball yig‘ish, reytingda yuqori o‘rinlarni egallash orqali o‘rganish jarayoniga qiziqish bilan yondashadilar. Bu, ayniqsa, texnologik ta’lim sohasida zamonaviy pedagogik vositalarni qo‘llashda samarali bo‘ladi.

4. Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalaridan foydalanish

Virtual (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalarining qo‘llanilishi talabalarga murakkab va abstrakt fanlarni tushunishda katta yordam beradi. Masalan, fizika yoki kimyo kabi fanlarda laboratoriya tajribalari virtual ravishda o‘tkazilishi mumkin, bu esa talabalar uchun xavfsiz va samarali tajriba o‘tkazish imkonini yaratadi. AR va VR texnologiyalari yordamida talabalar o‘qitilayotgan mavzuni vizual tarzda ko‘rishlari va o‘rganishlarini chuqurlashtiradilar.

5. Pedagogik refleksiya va o‘z-o‘zini baholash

Innovatsion yondoshuvlar talabalar uchun nafaqat darslarda, balki pedagogik amaliyot davomida o‘z-o‘zini baholash va refleksiya qilishni ham muhim qiladi. Talabalar amaliyot jarayonida o‘z faoliyatlarini baholash va kuzatish, hamda o‘qituvchilardan fikr olish orqali o‘z ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. O‘z-o‘zini baholash jarayoni, shuningdek, talabaga pedagogik faoliyatda yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilish va ular ustida ishlash imkoniyatini yaratadi.

6. Mentorlik va Peer-Learning yondashuvlari

Mentorlik va peer-learning (o‘zaro o‘rgatish) yondashuvlari talabalar o‘rtasidagi tajriba almashish va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Amaliyot jarayonida talaba o‘z ustozidan maslahat olish bilan birga, boshqa talabalarga o‘z bilimlarini o‘rgatib, pedagogik faoliyatdagi qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu yondashuv orqali talabalar o‘zaro o‘rganish, hamkorlikda ishlash va kasbiy munosabatlarni o‘rnatishda o‘zlarini sinab ko‘radilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun malakaviy va pedagogik amaliyotlar ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishda muhim bosqich hisoblanadi. An’anaviy yondashuvlar zamonaviy ta’lim talabalariga

to‘liq javob bera olmaganligi sababli, amaliyot jarayonini innovatsion metodlar asosida tashkil etish zarurdir. Raqamli texnologiyalar, STEAM metodologiyasi, gamifikatsiya, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalarini qo‘llash, shuningdek, mentorlik va o‘zaro o‘rgatish (peer-learning) yondashuvlari orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Innovatsion yondashuvlar nafaqat pedagogik jarayonni samarali qiladi, balki talabalar faoliyatini mustaqil, mas’uliyatli, kreativ va raqamli savodli mutaxassislar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, amaliyot jarayonining shaffof, baholanuvchi va tahlilga ochiq bo‘lishi talabalarni o‘z ustida ishlashga, tanqidiy fikrlashga va kasbiy o‘sishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta’lim tizimini rivojlantirishning 2021–2026 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi: 2020-yil 26-yanvar // www.lex.uz (murojaat qilingan sana: 20.05.2025).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O‘zbekistonning zamonaviy ta’lim modelini shakllantirish to‘g‘risida: PQ–5061-son qaror, 2021-yil 6-aprel // www.lex.uz URL: <https://lex.uz/docs/5344160> (murojaat qilingan sana: 20.05.2025).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta’lim tizimida sifatni ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida qaror: 2022-yil 6-aprel // www.lex.uz URL: <https://lex.uz/docs/5971739> (murojaat qilingan sana: 20.05.2025).
4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. Ta’limda amaliyotlarni tashkil etish metodlari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2022. — 98 b.
5. Алламуродов, А. А. Синфдан ташқари машғулотларда “TECHNOLOGY CRAFTS” веб-сайт технологияси ва ундан фойдаланиш методикаси // Халқаро илмий ва амалий конференция материаллари тўплами. — Термиз, 2022. — Б. 666–669.
6. Hasanov, Sh. T., Yuldoshev, A. M. Pedagogik va malakaviy amaliyotlar: nazariy va amaliy jihatlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 144 b.
7. Qodirov, B. E. Elektron axborot ta’lim muhitida o‘quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi: dis. ... fal. fan. dokt. (PhD). — Termiz, 2021. — 142 b.
8. Shadrikov, V. I. Pedagogika va ta’lim tizimi: nazariy asoslar. — Moskva: Pedagogika, 2006. — 256 s.
9. Tolmacheva, D. S. Amaliyotlarni tashkil etish va boshqarish: ta’lim metodlari va amaliyot shakllari. — Moskva: Innovatsion ta’lim, 2015. — 184 s.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

METHODOLOGY FOR IMPROVING THE INTEGRATION OF CORPOREAL TECHNOLOGY IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO STUDENTS

Madina Muxtorova Alijon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti o‘qituvchisi

Abstract: This article develops a methodology for effectively integrating corporal (body-based) technologies into foreign language instruction for university students. The study explores how physical movement and kinesthetic interaction can enhance classroom engagement, improve language skills, and boost student motivation. The effectiveness of the proposed methodology is tested through an experimental design and compared with traditional teaching approaches.

Key words: corporeal, integrating, language skills, kinesthetic interaction, language skills motivation, experimental.

TALABALARGA CHET TILI O‘QITISHDA CORPOREAL TEXNOLOGIYASI INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o‘qitishda talabalarning tanaviy (corporeal) faoliyatiga asoslangan texnologiyalarni qo‘llash va ularni o‘quv jarayoniga samarali integratsiyalash metodikasi ishlab chiqiladi. Tadqiqotda korporal texnologiyalar orqali dars samaradorligini oshirish, motivatsiyani kuchaytirish va til ko‘nikmalarini faollashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Metodik yondashuv eksperiment asosida baholanib, an‘anaviy o‘qitish bilan taqqoslanadi.

Kalit so‘zlar: tanaviy, integratsiylash, samaradorlik oshirish, til ko‘nikmalari, motivatsiya, ekperiment.

МЕТОДОЛОГИЯ УЛУЧШЕНИЯ ИНТЕГРАЦИИ КОРПУСНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье разработана методика эффективной интеграции телесных (corporeal) технологий в процесс преподавания иностранных языков студентам. Исследование анализирует возможности повышения эффективности уроков, развития языковых навыков и мотивации студентов за счёт использования движений тела и интерактивных упражнений. Эффективность метода проверена в экспериментальной группе по сравнению с традиционными методами обучения.

Ключевые слова: телесных, интеграции, повышения эффективности, развития языковых ,мотивации, экспериментальной.

Introduction

Modern language education increasingly emphasizes learner-centered and interactive methods. One such approach involves the use of corporeal technology, which engages the body in the learning process through movement, gesture recognition, AR/VR simulations, and kinesthetic tasks. This study focuses on developing and evaluating a methodology for integrating corporeal technology into foreign language instruction at the tertiary level, aiming to improve learning outcomes and engagement. The Corporeal technology and Cognitive learning are connected in terms of acquiring a second language. As far as the similarity is concerned, they both enhance and promote active learning and move beyond passive memorization, the concept is that it is a process, not just a product. They both aim to foster deep and meaningful conceptualized learning.

The rapid evolution of educational technologies has increasingly involved corporeal or body-based interfaces to engage students in more interactive and sensory-rich learning environments. In the context of foreign language education, corporeal technologies wearable devices, VR/AR platforms with motion tracking, and haptic systems facilitate embodied cognition and real-time feedback, making language acquisition more intuitive and experiential.

Traditional methods often emphasize grammar drills and rote memorization, yet recent studies highlight the value of kinaesthetic and multisensory learning, especially in pronunciation, gesture comprehension, and emotional expression. However, despite the potential, the integration of corporeal technologies in language education remains sporadic and methodologically underdeveloped. This research proposes a structured methodology to improve the integration of corporeal technologies into language teaching practices, aiming to support language retention, communicative competence, and learner motivation.

Methods

Participants:

60 second-year university students were selected and divided into an experimental group (corporeal-tech-based instruction) and a control group (traditional instruction).

Tools

- Gesture-based learning apps
- Augmented Reality tools for language simulation
- Movement-based vocabulary games
- Observation checklists, pre/post-tests, and feedback forms

Procedure

The experimental group underwent a 10-week intervention using kinesthetic and gesture-driven tasks linked to language input and output. Lessons included role-plays with movement, AR flashcards, and gesture recognition tools. Control group lessons followed textbook-based

grammar and vocabulary instruction. Progress was measured via assessments and learner engagement ratings.

Results

Vocabulary retention improved by 36% in the experimental group.

Engagement scores were 45% higher than in the control group.

Students showed enhanced pronunciation and listening accuracy due to gesture-based reinforcement.

Feedback indicated improved motivation and lower anxiety when using body-involved learning tools.

Students showed a great interest in terms of having a free conversation, and they can easily use the various vocabulary with the help of employing body movements, sensory experiences, and physical interaction to support the understanding

Encouraged the mental engagement, critical thinking, and built a mental embodied cognition

Students showed a high interest in making up a story, peer learning with the help of Corporeal technology, and contributing highly to using the vocabulary effectively.

Discussion

The findings support theories of embodied cognition (Shapiro, 2011) and multisensory learning (Mayer, 2009), which argue that learning improves when physical action is integrated with cognitive input. Corporeal technology activates motor memory, deepens understanding of abstract linguistic structures, and supports students with kinesthetic or visual learning styles. Furthermore, corporeal integration aligns with communicative teaching by making learning more contextual and interactive. Additionally, it is highly recommended to learn this method to learn a second language acquisition more freely, to get the input doubly productive, and to have a free interaction. It is clear that the learner should have a high motivation, inspiration, and a no-worry zone to acquire the language successfully; otherwise, some worry and an unstoppable explanation can be a barrier to applying the language. In light of Stephen Krashen, students with more self-esteem, more self-confidence do better in language acquisition. Low motivation, low self-esteem, and high anxiety, in that case the block goes down and the filter goes up, and the input cannot get in. It is clear that one is open to the input and the other is closed. As far as the second language acquisition is concerned, we acquire the language in one way and only one way when we get the comprehensible input in a low anxiety environment; for that reason, using different gestures and body movements contributes immensely to second language acquisition.

The study demonstrates that the integration of corporeal technology in foreign language teaching significantly enhances students' linguistic performance, engagement, and communicative confidence. Tools like haptic feedback devices, gesture-based interfaces, and wearable translators foster embodied cognition, allowing students to physically interact with language elements in meaningful contexts. These technologies support a multisensory learning environment where gestures, movements, and tactile responses reinforce vocabulary retention,

pronunciation, and pragmatic skills. Nevertheless, successful implementation requires comprehensive teacher training, curriculum adaptation, and consistent technical support. Overall, corporeal technology proves to be an effective pedagogical supplement that bridges digital innovation with experiential, learner-centered language instruction.

Conclusion

This study presents a viable methodology for enhancing foreign language education through corporeal technologies. By promoting a more embodied, interactive, and student-centered approach, these tools bridge the gap between technology and authentic language use. For sustained success, institutional support, teacher training, and pedagogical innovation are essential.

After having tons of investigations, the Corporal technology can significantly enhance the foreign language acquisition learning journey by using gestures, embodied cognition, which sheds light on fostering greater commitment, retention, boosting learner extrinsic and intrinsic motivation, and building an interactive and immersive learning environment for second language acquisition learners. As far as further research is concerned, it is ultimately important to adapt this methodology for digital and remote education formats. Corporal technology will immensely give an ultimate chance for second language acquisition to pick up the language with movement using cognitive input. All things considered, this corporal technology supports the teaching sphere effectively for second language acquisition learners and contributes highly to developing authentic, independent, and self-study learning. It should be taken into consideration to use available and authentic real-based resources in order to guide the second language learners to meet the objectives, in other cases, it will lead to a thunder issue for them to meet the standards.

REFERENCES:

1. Boulton, A. (2010). Data-driven learning: On paper, in practice. In *Corpus Linguistics in Language Teaching*. Peter Lang.
2. Dörnyei, Z. (2001). *Motivational Strategies in the Language Classroom*. Cambridge University Press.
3. Krashen, S. (1982). *Principles and Practices in Second Language Acquisition*, New York, Pergamon Press.
4. Godwin-Jones, R. (2018). "Using Mobile Technology to Develop Language Skills and Cultural Understanding." *Language Learning & Technology*, 22(3), 104–120.
5. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning*. Cambridge University Press.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

G‘aniyeva Shodiya Azizovna

Farg‘ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
+998 90 290 11 21

Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi

Farg‘ona davlat universiteti 1-kurs magistranti
karimjonovaomadxon@gmail.com
+998908490317

Annotatsiya Ushbu maqolada o‘rta ta’lim maktablarining o‘qish va ona tili darslarida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish zaruriyati, kommunikativ kompetentlikni mohiyati, kommunikativ qobiliyat o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqni erkin ifoda etishi, boshqalar bilan samarali muloqot qilishi hamda jamiyatda faol shaxs bo‘lib shakllanishida muhim o‘rin tutishi haqida ish olib borilgan.

Kalit so‘zlar Kompetensiya, kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya, lingvistik kompetensiya, o‘qish, gapirish, yozish, tinglash, kommunikativ mashqlar.

ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧТЕНИЯ

Аннотация В данной статье рассматривается необходимость развития коммуникативной компетентности учащихся на уроках чтения и родного языка в средних школах, сущность коммуникативной компетентности и важная роль, которую коммуникативная способность играет в способности учащихся свободно выражать свои мысли в устной и письменной речи, эффективно общаться с другими людьми и становиться активными личностями в обществе.

Ключевые слова Компетенция, коммуникативная компетенция, прагматическая компетенция, языковая компетенция, чтение, говорение, письмо, аудирование, коммуникативные упражнения.

EFFECTIVE WAYS TO DEVELOP STUDENTS' COMMUNICATIVE SKILLS IN NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY CLASSES

Annotation This article examines the need to develop students' communicative competence in reading and native language classes in secondary schools, the essence of communicative competence, and the important role that communicative ability plays in students' ability to express themselves freely in oral and written speech, communicate effectively with others, and become active individuals in society.

Keywords

Competence, communicative competence, pragmatic competence, language competence, reading, speaking, writing, listening, communicative exercises.

KIRISH

Bugungi kunda raqamlashayotgan tizim kirib kelayotgan bir paytda shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi yanada dolzarb muammoga aylanib bormoqda. O‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyasini shakllantisih ularning ona tili va boshqa fanlardan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallashiga yordam beradi.

Ijtimoiy va iqtisodiy hayot, fan va texnikaning ilgarilab ketishi natijasida deyarli barcha mamlakatda bolalar turli xil gadjetlar va internet ta’sirida ulg‘aymoqdalar. Bu bir tomondan ularning aqliy rivojlanishi, tafakkurining o‘shishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan esa ularni atrofdagilar, tengdoshlari bilan muloqot jarayoniga ko‘rinmas to‘siq qo‘yadi. Negaki, hozirda muloqotning yangi ko‘rinishi “onlayn muloqot” vujudga kelgan. “Onlayn muloqot”da esa turli xil tasvir va simvollardan keng foydalanishi natijasida jonli muloqotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hissiyot, mimika, pantomimika, ta’sirchanlik kabilar yuzaga chiqmaydi. Natijada esa bolalarda muloqotchanlik ko‘nikmasi juda sekin rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bolalarni erkin va kreativ fikrlaydigan, atrofdagilar bilan qiynalmay muloqot qila oladigan, o‘z ona tilini sevadigan, o‘zligini anglaydigan, ma’naviy yetuk, o‘tkir zehn egalari qilib tarbiyalash juda muhim.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga doir tadqiqotlar ko‘plab olimlar tomonidan olib borilgan va ushbu soha ta’lim jarayonida alohida o‘rin tutadi. Soha taraqqiyotida E.B. Polat, Shodmonov M, I.V. Rybalko, A.M. Soshnikova, D.Xayms, S.A.Gilmanova, E.I.Litnevskaya, M.R.Lvov singari olimlarning o‘rni kata.

Aytaylik, E.B. Polat (2008) kommunikativ kompetensiyaning ta’limda o‘rni va ahamiyatini yoritib, bunda o‘qituvchining nutqiy faoliyati va o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda faol ishtirok etishini ta’kidlaydi. Polatning fikricha, kommunikativ kompetensiya ta’lim jarayonida o‘quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirishga asoslangan eng muhim komponentlardan biridir.[6]

“Kommunikativ kompetensiya” atamasi ilmiy adabiyotga D.Xayms tomonidan kiritilgan. O‘tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab tilni o‘rganishga doir dastlabki kompetensiyalar kiritila boshlandi. Bunda D.Xayms tomonidan 1972-yilda “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi kiritiladi. Kompetensiya/kompetentlik kategoriyalarini tilni,

ayniqsa, ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o‘rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o‘rganishda foydalanila boshlandi.[7]

Bugungi kunga qadar “kommunikativ kompetensiya” tushunchasiga bir qanqa chet el va mahalliy pedagoglar tomonidan turlicha ta’riflar berilgan. Rus pedagogi S.A.Gilmanova o‘zining ilmiy faoliyatida nolingvistik fakulteti talabalarining chet tilidan kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shartlarini tahlil qilgan va ko‘plab ta’riflarni keltirgan.[8]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi – ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishning samarali usullarini aniqlash va tahlil qilishdir. Tadqiqotda, o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar, darsda interaktiv metodlarning roli va o‘qituvchining o‘quvchilarni muloqotga jalb etishdagi samarali usullari o‘rganiladi.

Eksperiment: Dars jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan turli metodik yondashuvlarni sinab ko‘rish. Tadqiqotda o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshirish maqsadida rolli o‘yinlar, guruhli ishlash va muloqot asosidagi mashqlar sinovdan o‘tkaziladi.

So‘rovnomalar va intervyular: O‘quvchilarning fikrlarini o‘rganish, o‘quvchilar va o‘qituvchilardan interaktiv metodlarning samaradorligi haqida ma’lumot olish.

O‘quvchilarning ishlarini tahlil qilish: O‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutq ishlari, interaktiv darslar va mashqlar bo‘yicha ishlanmalari tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi [1].

Kompetensiya – fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim ko‘nikmalarni, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim-o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir.

Shuningdek, bunday yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqil, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umum-madaniy ko‘nikmalarni shakllantiradi[2].

Kompetentlilik tushunchasi jahon ta’limi tajribalarida o‘z ma’nosida markaziy bo‘g‘in sifatida tushuniladi .

Kompetentlik mazmunli (bilimlar) va kasbiy (ko‘nikmalar) tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo‘lib, eng maqbul yechimni tanlay olish, tanlovni asoslash, tanqidiy tafakkurni nazarda tutadi. Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir.

Kasbiy kompetentlik sifatlari: Ijtimoiy kompetentlik; Shaxsiy kompetentlik; Maxsus kompetentlik; Estremal kompetentlik; Texnologik kompetentlik.[3]

Kompetensiyaga ega bo‘lish shunchaki bilim, ko‘nikmalarni egallab olishnigina anglatmasdan kishining shu bilimlarni hayotda aniq maqsadlar asosida qo‘llay olishini bildiradi.

Boshlang‘ich ta’limda-o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash, og‘zaki va yozma nutqida adabiy nutq me’yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat.

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish):

-mavzu doirasida o‘qituvchi nutqini va sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;

-ko‘rgan rasmlari asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi.

Lingvistik kompetensiya:

–o‘zbek tilida nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qila oladi,

–so‘zlarni talaffuz me’yorlariga rioya qilagan holda bo‘g‘inlab ko‘chirish qoidasiga rioya qila oladi[4].

O‘quvchilarda kommunikativlik kompetensiyasini shakllanitirishning yana bir muhim xususiyati shundaki, Milliy o‘quv dasturiga ko‘ra ona tilidan o‘quvchilarda fanga oid lingvistik kompetnsiyalarni tarkib toptirish lozimligi belgilangan. Lingvistik kompetensiya esa kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismidir. Shunday ekan, o‘quvchilarning lingvistik malakalarini rivojlantirish kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Lingvistik kompetenlikka ega bo‘lgan o‘quvchi pragmatik kompetensiyaga, ya’ni turli xil nutq vaziyatlaridan chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, har uchala kompetensiya bir biri bilan bog‘liq. Ularning o‘zaro bog‘liqligini quyidagi chizmada ko‘rish mumkin:



2-chizma. Kommunikativ, lingvistik va pragmatik kompetensiyaning o‘zaro bog‘liqligi

Kommunikativ kompetensiyaning zarur darajasi o‘qitish bosqichi va maqsadi bilan belgilanadi. O‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyaning shakllantirishda ta’limning har bir bosqichida alohida e’tibor beriladi. O‘quvchilarning yoshi ulg‘aygan sari ularning kompetentligiga qo‘yilgan talab ham ortib boraveradi. Bundan tashqari dars jarayonidagi tillararo integratsiya kommunikativ kompetensiyaning, ya’ni ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda xorijiy tilda muloqotga kirisha olish layoqatini yanada rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyaning shakllantirishda bir qancha muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal qilmay turib natijaga erishish qiyin. Ular quyidagilar:

- o‘quvchilardagi qo‘rquv hissi. Qo‘rquv hissi o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ko‘rsatishga halaqit beradi. Ichki qo‘rquvga ega bo‘lgan o‘quvchilarni doimo “xato qilib qo‘ysamchi?”, “mening fikrim xato bo‘lsachi?” kabi savollar qiyinaydi.

- o‘quvchining tortinchoqligi. Odatda, tortinchoq o‘quvchilar muloqot jarayonida juda passiv bo‘ladilar. Ularda tortinchoqlik bolalikda paydo bo‘ladi. Agar bunday o‘quvchilarda muloqotchanlik ko‘nikmasi to‘g‘ri shakllantirilmasa, ularda tortinchoqlik uzoq muddat saqlanib qolishi mumkin.

- o‘quvchining darsdagi nafaolligi;

- o‘quvchilarning o‘z shevasida gapirishi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyaning shakllantirish ulani o‘qish, yozish, gapirish va tinglashga o‘rgatish orqali amalga oshiriladi. Savod o‘rgatish davridan boshlab to‘rtala yo‘nalish ham parallel ravishda olib boriladi. Bu turli xil mashqlar bilan tizimli ravishda ishlash orqali amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqotchanlikni shakllantirishda kommunikativ mashqlar yetakchilik qiladi.[5]

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, til ta’limi jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyaning shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Bunda ona tili va o‘qish savodxonligi darslari “muloqot darslarga” aylanmog‘i lozim. Buning uchun esa har bir darsning eng katta qismi kommunikativ mashqlarga ajratilishi kerak. Kommunikativ mashqlar qanchalik xilma-xil va mazmunli, aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lsa, o‘quvchilar shunchalik muloqotchanligi ortadi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslari o‘quvchilarda nafaqat savodxonlik va til ko‘nikmalarini, balki muloqot qilish, o‘z fikrini erkin ifodalash, faol tinglash va bahs-munozarada ishtirok etish kabi kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshirish uchun dars jarayonida interaktiv metodlar, rolli o‘yinlar, guruhli ishlar, muloqotga asoslangan topshiriqlar, savol-javoblar va fikr almashinuvi samarali vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Eraliyeva D.O. Ta’limda til kompetentligini shakllantirish rivojlantirish. Magistrlik dissertatsiyasi. – Namangan: 2019. -97 b.
2. JDPI. F.f.d (PhD). B.Boltayeva. “Boshlang‘ich sinflarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish” maqolasidan
3. M. Karimova, D. Rafiqova, B. Baydjanov “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona, 2021. 248 bet.
4. M. Ikromova “Boshlang‘ich sinflarda kompetensiya tushunchasining mohiyati” maqolasidan “Экономика и социум” №4(107)-1 2023
5. Азимова Е.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –М.: Издательство ИКАР, 2009.
6. E.B. Polat (2008). “ Ta’lim tizimidagi yangi pedagogik va axborot texnologiyalari” darslik. 224-bet
7. D. Xayms. “ On Communicative Competence” nomli maqolasidan.
8. S.A.Gilmanova. “Kommunikativ kompetensiya – o‘quvchining muloqot” maqolasidan.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

LINGVISTIKA TA‘LIM YO‘NALISHLARI TALABALARI MUSTAQIL ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI, METODLARI HAMDA TAMOYILLARI

Amonlikova Nodira Ximmatovna

Navoiy davlat universiteti, Ingliz Tilshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi

amonlokovanodira@gmail.com +998944512552

ORCID ID:0009-0008-0486-2288

Annotatsiya: Ushbu maqola OTM talabalarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Mustaqil ta‘limni tashkil qilish usullari va talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga urg‘u berilgan. Individual ishlashda paydo bo‘ladigan qiyinchiliklar va ularga yechim beriladi. Asosiy urg‘u Lingvistika OTMlarida o‘tiladigan Metodika fani bo‘yicha bajariladigan mustaqil ta‘lim topshiriqlariga yo‘naltirilgan. Metodika fanida tashkil qilingan mustaqil ta‘lim topshiriqlari o‘rganilib natijalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta‘lim oluvchi talaba, ta‘lim tizimi, jarayon, ijodkor talaba, metodlar, mustaqil fikrlash, chet tili, mustaqil ta‘lim.

ФОРМЫ, МЕТОДЫ И ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Chet el ta‘lim taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari va uning muhim sohalaridan biri bo‘lgan tabaqalashtirib o‘qitish masalalari bilan tanishish, uning ijobiy tomonlaridan O‘zbekiston ta‘lim tizimida foydalanish juda katta samara beradi. Pedagogik jarayonda o‘quvchilarga individual va differensial yondashuv shaxs rivojlanishida muhim omil hisoblanadi, chunki aynan shunday yondashuv yoshlardagi iqtidor va qobiliyatni ko‘ra bilish, shaxs rivojlanishiga sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Natijalar. Eksperimental darslarda o‘rganilgan 120 nafar o‘quvchi orasida differensial yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan 23% ga yuqori bo‘ldi. Shuningdek, bilim darajasi past o‘quvchilarda motivatsiya va ishtirok faolligi 35% ga oshgani kuzatildi. Topshiriqlarning moslashtirilgan shakllari o‘quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Natijalar differensial yondashuv samaradorligini ilmiy asosda tasdiqladi.

Iste‘dodlilar bilan ishlashda Karne, Shvedal va Linnemayerlar (1982 – y.) quyidagi mezonlarni ishlab chiqdilar:

1. Har bir bola takrorlanmasdir. Ba‘zilar she‘r yozish, insholardan, ba‘zilar matematikadagi qobiliyati bilan ajralib turadilar. Oddiy maktabda musiqaga qobiliyati bor o‘quvchini ham ajrata olmasligimiz mumkin. Uchinchi bir bola esa yuqori intellekti (IQ) bilan ajralib turadi, lekin bu bolaning o‘zini baholash mezoni juda past bo‘lishi mumkin. Shu orqali har bir bolaning kuchli va kuchsiz tomonini bilishimiz lozim. Shu orqali iste‘dodli bolalar bilan ishlash rejasini tuzish mumkin.

2. Iste‘dodli bolalar o‘zlariga nisbatan juda tanqidchandirlar. Ular o‘z „men“ini rivojlantirishga harakat qilishlari kerak. Yaqin qarindoshlarining ta‘siri iste‘dodli bolalar uchun juda muhimdir, ular yaqinlarining fikrini inobatga oladilar. Yuqori intellekt va rivojlanishning mos kelmasligi bolani ranjitishi mumkin.

3. Iste‘dodli bolaning rivojlanishi va kamol topishida oilaning o‘rni juda kattadir. Agar oila, maktab o‘zaro aloqada bo‘lsa, bu eng yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

4. Iste‘dodli bolalar uchun turli xil o‘quv rejasini tuzish. Iste‘dodli bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olib o‘quv rejalari ishlab chiqilishi lozim. Ko‘pgina iste‘dodli o‘quvchilarning qiziqishlari ko‘p qirralidir.

5. Iste‘dodli bolalar oddiy bolalar bilan o‘qigan taqdirda ham, iste‘dodli boshqa bolalar bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratish kerak.

6. Iste‘dodli bolalarning dasturi har tomonlama mukammal bo‘lishi zarur.

7. Iste‘dodli bolalarni o‘qitish uchun tuzilgan rejani shu sohadan xabardor bo‘lgan rahbarning o‘zi nazorat qilgan taqdirdagina samara berishi mumkin.

8. Iste‘dodli bolalarni o‘qitishning namunali rejasini ish faoliyatiga bevosita tatbiq qilishi kerak.

9. Ota-ona va mutaxassislar bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari muhimdir. Bu hamkorlik iste‘dodli bolalarning iste‘dodini rivojlantirish uchun ham muhimdir.

10. Bolaning o‘ziga nisbatan bahosini bilishimiz juda muhimdir. Bola o‘zining oldiga qo‘ygan qanday vazifalarni bajarilayotganini ham bilishi kerak, ota-ona bundan xursandmi?

11. Faqat reja mavjud bo‘lsa, ota-ona ham, mutaxassis ham bola o‘z oldiga qo‘yayotgan misollarni yechayotganligini bilishi mumkin.

12. Namunali dastur yaxshi rejalashtirilgan, effektiv va doimiy faoliyatdagi sistemani ko‘rsatishi kerak va bunda ota-onaning o‘rnini ham ta’kidlab o‘tishimiz zarur.

13. Dasturning optimal jihatlarini ko‘rishi kerak, bola bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishini ta’minlashi kerak.

14. Dastur qat’iyatlilik va maqsadga intilishni rivojlantirish kerak. Yuqori bo‘lishi juda katta ahamiyatga ega emas. Maqsadga intilish va boshlagan ishini oxirigacha yetkazishi muhimdir.

15. Dasturning asosiy maqsadlaridan biri ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdir.

16. Iste‘dodli bolalar bilan ishlashda talantli tarbiyachi, o‘qituvchilarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday mutaxassislar maktabga ham, ota-onalarga ham juda zarurdir.

Iste‘dodli bolalarning muammolari

Leta Xollinguort intellectual jihatdan iste‘dodlarning moslashuvini o‘rganib chiqib, bu muammoga o‘zining katta hissasini qo‘shdi. Ota-ona va pedagoglar iste‘dodli bolalar bilan ishlayotganda quyidagi muammolarga o‘z e’tiborlarini qaratishi lozim:

1. Maktabni yoqtirmaslik. Bunday holat iste‘dodli bola uchun asosan maktab dasturi zerikarli va qiziq bo‘lmagan holatda sodir bo‘ladi. Iste‘dodli bolalarning fe’lidagi o‘zgarishlar ularning qobiliyatiga dastur moslanmasligi uchun sodir bo‘ladi.

2. O‘yin holatiga bo‘lgan qiziqishlar. Iste‘dodli bolalarga murakkab o‘yinlar juda yoqadi va ularga hamma tengdoshlarini qiziqtiradigan o‘yinlar zerikarli tuyuladi. Shu sababdan iste‘dodli bola yakkalanib qoladi.

3. Konformlilik. Iste‘dodli bolalar standart talablarni inkor qiladi, agar standartlar uning uchun to‘g‘ri kelmasa, ma‘nosizdek tuyuladi.

4. Falsafiy muammolarga o‘ralashib qolish. Iste‘dodli bolalar ko‘pincha o‘lim haqida, qabrdagi hayot, diniy ishonch va falsafiy muammolar haqida ko‘p boshlarini qotiradilar.

5. Fiziologik, intellektual va ijtimoiy rivojlanishning bir-biriga mos kelmasligi. Iste‘dodli bolalar o‘zlaridan katta bo‘lgan bolalar bilan muloqot qilishni va o‘ynashni yoqtirishadi. Shuning uchun ham ular sardor bo‘lishga qiynalishadi, chunki ularda fiziologik o‘sish kechroq bo‘ladi.

Bu ro‘yxat boshqa tadqiqotchi Uitmor (1980 – y.) tomonidan to‘ldirilgan:

Mukammallikka intilish. Iste‘dodli bolalar uchun ichki mukammallik ehtiyoji muhimdir. Ular yuqori bosqichga chiqmagunlaricha to‘xtamaydilar. Bu ko‘rinish juda erta namoyon bo‘ladi.

Qoniqmaslik hissining mavjudligi. O‘ziga bo‘lgan bunday munosabat mukammallikka intilish hissi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Ular o‘zlarining yutuqlariga tanqidiy nazar bilan qarashadi, ko‘pgina hollarda qaramaydilar, shuning uchun ham past o‘zini baholash vujudga keladi.

Real bo‘lmagan maqsadlar. Iste‘dodli bolalar ko‘phollarda o‘zlarining oldiga yuksak maqsadlarni qo‘yadilar. Ularni bajarish imkoniyati bo‘lmagach, ular xavotirga tusha boshlaydilar. Boshqa tomondan bu yuqori ko‘rsatkichlarga intilishga undovchi kuchdir.

O‘ta sezuvchanlik. Iste‘dodli bolalar tashqi muhit ta’sirlarini yaxshi sezganlari uchun tashqaridan bo‘ladigan tanqidga juda katta ahamiyat beradilar. Iste‘dodli bolalarning ko‘ngillari juda nozikdir, ular ko‘pincha noverball holatlarni o‘zlari uchun deb tushunadilar.

Kattalar e’tiborini tortishga intilish. Tabiat ato etgan dunyoqarashi va bilishga intilish jarayonida iste‘dodli bolalar o‘qituvchi, ota-ona va boshqa katta insonlarning e’tiboriga muhtoj bo‘lib qoladilar. Bu boshqa bolalarning jahllari chiqishiga olib keladi.

Sabrsizlik. Iste‘dodli bolalar o‘zlaridan past bo‘lgan intellektda turadigan bolalarga nisbatan sabrsizlik bilan munosabatda bo‘lishadi. Ular atrofdagilarning munosabatlarini va tanqidlarini inkor etadilar, ular bunga nafrat yoki sabrsizlik bilan javob berishadi.

Tahlil va Muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, differensial yondashuv o‘quvchilarning ehtiyojiga mos ta’lim mazmunini yaratishga yordam beradi. Bu yondashuv orqali kuchli o‘quvchilar uchun rivojlantiruvchi, o‘rta va past darajadagilar uchun esa yo‘naltiruvchi topshiriqlar tashkil etish mumkin. Yondashuvning asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari yotadi. Mashg‘ulotlarda vizual, eshitish, kinestetik kanallarga mos uslublardan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish sifatini oshiradi. O‘qituvchining metodik moslashuvi differensial yondashuvning muvaffaqiyat kalitidir.

Turli bosqichli ta’lim uchun o‘qituvchilar quyidagilardan foydalanadilar:

- topshiriq bilan birga ozgina yordam elementlari mavjud bo‘lgan ma’lumot-kartochkalar;
- ko‘ngilli bajarish uchun muqobil topshiriqlar;
- o‘quvchilar tomonidan mazmuni yoritilgan topshiriqlar;

- faoliyatning ratsional usullarini egallashga yordam beruvchi topshiriqlar.

Ona tili darslarida o‘quvchilarni guruhlariga ajratish bilan bir qatorda differensiallashtirish o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish lozim.

Ona tili fanidan differensiallashtirish o‘quv topshiriqlarining quyidagi turlari mavjud:

1. Ijodiylik darajasiga ko‘ra differensiallashtirish o‘quv topshiriqlari.
2. Murakkablik (qiyinlik) darajasiga ko‘ra differensiallashtirish o‘quv topshiriqlari.
3. O‘quv material hajmiga ko‘ra differensiallashtirish.
4. O‘quvchilarning mustaqillik darajasiga ko‘ra differensiallashtirilgan o‘quv topshiriqlari.
5. O‘qituvchidan olinadigan yordam hajmiga ko‘ra differensiallashtiriladigan o‘quv topshiriqlari.

1. Ijodiylik darajasiga ko‘ra differensiallashtirish o‘quv topshiriqlari.

Bunday o‘quv topshiriqlari o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyati turiga ko‘ra farqlanadi va ular reproduktiv yoki produktiv (mahsuldor) o‘quv topshiriqlari tarzida tuzilishi mumkin. Reproaktiv o‘quv topshiriqlari o‘quvchilardan ijodiy yondashuvni talab etmaydi va asosan namuna asosida bajariladigan topshiriqlar kiradi. Produktiv (mahsuldor) o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida ijodiy yondashuv talab etiladi va an’anaviy topshiriqlardan bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarning xilma-xilligi bilan farq qiladi.

Ona tili darslarida produktiv – ijodiy xarakterdagi quyidagi o‘quv topshiriqlaridan foydalanish mumkin:

- Unli va undosh tovushlarni tasniflash.

Masalan, unli va undosh tovushlarni alohida - alohida aytib ko‘ring. Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezayapsiz?

- Tovushlarni boshqasiga o‘zgartirish

Masalan, 1). Oltita unli harf ishtirok etgan so‘z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko‘ring. Qanday o‘zgarishlarni sezayapsiz?; 2). undosh tovushlarni talaffuz etib ko‘ring. Shovqin va ovozdan hosil bo‘lgan undoshlar alohida, faqat shovqindan hosil bo‘lgan undoshlarni alohida yozing

- ma’lumotlar ortiqcha yoki kam bo‘lgan o‘quv topshiriqlari;
- topshiriqlarni turli usullar bilan yechish, qulay (ratsional) usulni tanlash;
- mustaqil ravishda o‘quvchilarga “Bog‘da”, “Polizda”, “Sinfimiz kutubxonasi”, “Sevimli ertagim”, “Aziz onajonim”, “Mehribon do‘stlarim” singari mavzularda matn yaratish tavsiya etiladi va h.k.

2. Murakkablik (qiyinlik) darajasiga ko‘ra differensiallashtirish o‘quv topshiriqlari.

Differensiallashtirish ta’limni tashkil etishning bu turida murakkablashtirilgan o‘quv topshiriqlari o‘zlashtirishi birmuncha yuqori bo‘lgan o‘quvchilar guruhi uchun foydalanilib ular quyidagicha mazmunda bo‘lishi mumkin:

- o‘quv materiallarni murakkablashtirish (masalan, birinchi va ikkinchi guruh o‘quvchilari uchun Alifbodagi harflarni ko‘zdan kechiring. Talaffuzi va imlosi bir-biriga

o‘xshash bo‘lgan tovush va harflarni aniqlang kabi topshiriq berilsa, uchinchi guruh o‘quvchilariga unli tovushlarni sanab bering? Kabi savol berilishi mumkin);

- ona tilidan mashqlarni bajarish yoki yechimini topishda bajariladigan ishlar sonini ko‘paytirish (masalan, ikkinchi va uchinchi guruhda uch bosqichli topshiriq berilsa, birinchi guruh uchun to‘rt bosqichli topshiriq beriladi);

- ma’lumotlarni taqqoslash asosida o‘quv topshirig‘iga qo‘shimcha ravishda bajarish topshirig‘ini berish (masalan, uchinchi guruhga o va a harflari so‘z boshida va so‘z o‘rtasida qo‘llanilgan holatlarga 5 tadan so‘z yozing topshirig‘ini berish);

- teskari amallarni bajarishga doir o‘quv topshiriqlarini berish (masalan, ikkinchi va uchinchi guruhga daftarga 8 ta d, t harflarining so‘z boshi va oxirida keladigan holatlariga so‘z yozish, ularning imlosi va talaffuzdagi farqlarni tushuntirish topshirig‘i berilsa, birinchi guruhga d va t harfi faqat so‘z boshida keladigan so‘zlarni topish topshirig‘i beriladi).

3.O‘quv materiali hajmiga ko‘ra differensiallashtirish. Differensial ta’limning bu turida birinchi va ikkinchi guruh o‘quvchilariga asosiy o‘quv topshirig‘idan tashqari, unga o‘xshash bo‘lgan qo‘shimcha material ham beriladi. Bunday o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarning topshiriqlarni turli tezlikda amalga oshirishi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Sekin ishlaydigan yoki o‘zlashtirishda qiyinchiliklari bo‘lgan o‘quvchilar mustaqil ishlarni boshqa o‘quvchilarga nisbatan sekin bajaradilar va tekshirish vaqtida ishlarni tugatishga qiynaladilar, ular uchun qo‘shimcha vaqt ajratish lozim bo‘ladi. Bu vaqtda esa iqtidorli va faol o‘quvchilar uchun beriladigan qo‘shimcha topshiriqlar ular vaqtining behuda sarflanmasligiga yordam beradi.

Qo‘shimcha topshiriq sifatida birmuncha murakkabroq yoki ijodiy xarakterdagi o‘quv topshiriqlarini berish mumkin. Shu bilan birga o‘yin xarakteridagi, nostandart topshiriqlar ham berilishi mumkin. Bunday topshiriqlarni alohida tarqatma material sifatida berib individuallashtirish mumkin. O‘quvchilar bunday topshiriqlarni qo‘shimcha daftarlariga ham bajarishlari mumkin.

Masalan, mustaqil o‘qigan badiiy asaringizdan bugungi mavzuga mos so‘zlarni topib, yozib keling kabi.

4. O‘quvchilarning mustaqillik darajasiga ko‘ra differensiallashtirilgan o‘quv topshiriqlari. O‘quv jarayonini bunday asosda differensiallashtirishda turli o‘quv topshiriqlaridan foydalanilmaydi. O‘quvchilar bir xil o‘quv topshiriqlarini bajaradilar, ammo uni ayrim o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida bajarsalar, ayrimlari mustaqil bajaradilar.

Bunday differensiallashtirishda tayyorgarlik davrida o‘quvchilar topshiriq sharti bilan tanishadilar, uni mazmuni va bajarish tartibini aniqlashtiradilar. Shundan so‘ng odatda birinchi guruh o‘quvchilari mustaqil ravishda topshiriqni bajarishga kirishadilar. Boshqa o‘quvchilar esa o‘qituvchi yordamidan foydalangan holda bajarish tartibini tahlil qiladilar va bajarishga kirishadilar. Shundan keyin ikkinchi guruh o‘quvchilari ham mustaqil ishlay boshlaydilar. Uchinchi guruh o‘quvchilari esa topshiriqni o‘qituvchining yordamidan foydalangan holda bajaradilar. Bunday topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilarning mustaqillik darajasi turlicha

bo‘ladi. O‘quvchilar o‘qituvchining yordamidan voz kechish vaqtini o‘zlari belgilaydilar. Agar ular yana qiyinchilik sezsa, o‘qituvchidan yana yordam olishlari mumkin.

5. O‘qituvchidan olinadigan yordam hajmiga ko‘ra differensiallashtiriladigan o‘quv topshiriqlari. Bu usul o‘quvchilarning mustaqillik darajasiga ko‘ra differensiallashgan o‘quv topshiriqlaridan farqli ravishda o‘qituvchi rahbarligida amalga oshirilmasdan, barcha o‘quvchilar mustaqil ishni bajarishga kirishadilar. O‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ayrim o‘quvchilarga vaqti-vaqti bilan yordam berib boriladi.

O‘qituvchi yordamni turli shakllarda berishi mumkin. masalan: a) tayyorgarlik mashqlari yoki yordamchi topshiriqlar ko‘rinishidagi yordam; b) qo‘shimcha ma’lumotlar ko‘rinishidagi yordam (yordamchi kartochkalar, maslahat kartochkalari, doskaga qo‘shimcha ma’lumotlarni yozib ko‘rsatish shaklida).

Yordamchi kartochkalar bilan ishlash bunday turdagi differensiallashgan o‘quv jarayonini tashkil etish uchun ayniqsa qulay hisoblanadi. Bunda birinchi guruh o‘quvchilari topshiriqlarni mustaqil bajarishga kirishadilar. Ikkinchi va uchinchi guruh o‘quvchilariga esa yordam tariqasida qo‘shimcha foydalanish uchun ma’lumotlar yozilgan yordamchi kartochkalar tarqatiladi. Bunday yordamchi kartochkalar barcha o‘quvchilar uchun bir xil bo‘lishi, guruhlar uchun alohida tayyorlanishi yoki har bir o‘quvchi uchun individual tarzda tuzilishi mumkin. O‘quvchilarning mustaqillik darajasi yordamchi kartochkalardan foydalanganlik darajasi bilan belgilanadi. Kartochkalar topshiriqlarni bajarishda foydalanilishiga ko‘ra murakkablashib borish tarzida tuzilishi mumkin.

Yordamchi kartochkalarda quyidagicha yordam turlari ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin:

- Topshiriqni bajarishga doir namuna: bajarish tartibi, ketma-ketligi va qayd qilish tartibi haqidagi ma’lumotlar;
- Axborot beruvchi ma’lumotlar: qoidalar, ta’riflar, o‘lchov birliklari va shu kabilar;
- Ko‘rgazmali ma’lumotlar: illyustratsiyalar, modellar, jadvallar va shukabilar.
- Ayrim tushunchalar ta’rifi yoki muhim tushunchalarni ajratib ko‘rsatish tarzida;
- Topshiriq bajarilishini yengillashtiruvchi qo‘shimcha savollar;
- Topshiriqlarni bajarishga doir dastlabki vazifalarni bajarib ko‘rsatish yoki qisman bajarib ko‘rsatish.

Qayta xotiralash xarakteridagi topshiriqlar o‘quvchidan hech qanday izlanishni talab etmaydi. O‘quvchi o‘tgan darsda yoki undan oldingi mashg‘ulotlarda o‘rganilganlarni faqat takrorlashdan nariga o‘tmaydi. Shu sababli, bunday topshiriqlar umumiy topshiriqlar miqdorining atigi 25-30% ini tashkil etmog‘i lozim. Qolgan topshiriqlar esa qisman ijodiy va ijodiy xarakterda bo‘lishi kerak. Topshiriqlarning qisman ijodiy yoki ijodiy bo‘lishi sinf o‘quvchilarining o‘quv imkoniyatlariga bog‘liq. Agar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi past bo‘lsa, o‘z-o‘zidan topshiriq qisman ijodiyga aylanadi. Chunki o‘quvchi yo o‘qituvchining tushuntirishi, yo ko‘rsatilgan namunaga qarab ish ko‘rishga majbur bo‘ladi. Shuning uchun o‘quvchilarning o‘quv imkoniyatlari kengayib borgan sari, ijodiy topshiriqlar miqdori ham ortib borishi kerak.

Xulosa)

Differensial yondashuv ta’limda har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratadi. Eksperimentlar shuni ko‘rsatdiki, bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasiga, balki ularning darsga bo‘lgan munosabatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsga yo‘naltirilgan va bosqichli metodik yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar differensial yondashuvning didaktik samaradorligini isbotlaydi.

Kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayoni, darsdagi ishtiroki va motivatsiyasi bevosita ularga moslashtirilgan topshiriqlar berilganda sezilarli darajada yaxshilanadi. Ayniqsa, zaif tayyorgarlikka ega o‘quvchilar uchun soddalashtirilgan materiallar, kuchli o‘quvchilar uchun esa tahliliy, ijodiy topshiriqlar qo‘llanganda ularning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Differensial yondashuvlar o‘qituvchining metodik mahoratini, tahliliy fikrlashini, rejalashtirish va baholash ko‘nikmalarini ham takomillashtirishni talab qiladi. Bu yondashuv, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashganda (masalan, raqamli baholash, onlayn testlar va moslashtirilgan o‘quv platformalari) ta’lim sifatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, differensial yondashuvlar kelajakda kompetensiyalarga asoslangan, individual yondashuvga tayangan ta’lim modelining poydevoridir. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchining erkin fikrlovchi, bilimni mustaqil tahlil qila oluvchi, ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi. har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratadi. Eksperimentlar shuni ko‘rsatdiki, bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasiga, balki ularning darsga bo‘lgan munosabatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsga yo‘naltirilgan va bosqichli metodik yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar differensial yondashuvning didaktik samaradorligini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova D. Boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv. – Samarqand, 2018.
2. Amonov Z. Ta’lim jarayonida differensial yondashuvlar. – Andijon, 2021.
3. Jalolov J.J. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: O‘zMU, 2012.
4. Mavlonova R. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: O‘qituvchi, 2020.
5. Saidahmedov N. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. – T.: Fan, 2016.
6. Tojiboeva Dilorom Ta’limga yondashuvlar va modul asosida o‘qitishning tutgan o‘rni. Sovremennoe obrazovanie Uzbekistan 2018.
7. Tomlinson C.A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. – ASCD, 2014.
8. Vygotsky L.S. Mind in Society. Harvard University Press, 1978.
9. Yavkochdieva Dilafruz Egamkulovna Innovatsion yondashuv ta’lim tizimini modernizatsiyalash omili sifatida. sovremennoe obrazovanie Uzbekistan 2021.



EFFECTIVE USAGE OF AI IN TEACHING METHODOLOGY IN MULTILEVEL CLASSES

Ismailova Sevara Shukhrat kizi

*Teacher, Department Integrated English Language Course -2, Uzbekistan State World
Languages University
sweety.star.sevara@gmail.com*

Abstract The integration of Artificial Intelligence (AI) into education has advanced teaching through adaptive, analytics-based, and responsive learning tools. In multilevel classrooms, where students differ in skills and needs, instruction becomes more complex. This study explores the impact of AI-driven strategies using a mixed-methods approach, including case studies, teacher interviews, and data from AI educational platforms. Findings show that AI tools—such as adaptive learning systems and automated assessments—enhance personalized instruction, student engagement, and classroom management. While challenges like unequal access to technology and limited teacher training persist, AI remains a valuable complement to traditional methods in diverse learning environments.

Keywords: Artificial Intelligence, Multilevel Classes, Teaching Methodology, Personalized Learning, Educational Technology

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ В РАЗНОУРОВНЕВЫХ КЛАССАХ

Аннотация Интеграция искусственного интеллекта (ИИ) в сферу образования способствовала развитию адаптивных, аналитически обоснованных и отзывчивых методов обучения. В разноуровневых классах, где учащиеся отличаются по навыкам и потребностям, преподавание становится более сложным. В данном исследовании рассматривается влияние стратегий обучения с применением ИИ с использованием смешанных методов, включая кейс-стади, интервью с учителями и данные ИИ-платформ. Результаты показывают, что ИИ-инструменты, такие как адаптивные обучающие системы и автоматизированные оценки, способствуют персонализированному обучению, вовлечённости учащихся и управлению классом. Несмотря на проблемы, такие как неравный доступ к технологиям и нехватка подготовки учителей, ИИ остаётся ценным дополнением к традиционным методам.

Ключевые слова: искусственный интеллект, разноуровневые классы, методика преподавания, персонализированное обучение, образовательные технологии

ARALASH DARAJADAGI SINFLAR O‘QITISH METODIKASIDA SUN’IY INTELLEKT DAN SAMARALI FOYDALANISH

Annotatsiya Sun’iy intellekt (SI) ni ta’limga integratsiya qilish moslashuvchan, tahliliy va tezkor o‘quv texnologiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Turli darajadagi o‘quvchilar to‘plangan aralash sinflarda o‘qitish jarayoni yanada murakkablashadi. Ushbu tadqiqot SI asosidagi strategiyalarning ta’sirini holat tahlillari, o‘qituvchilar bilan suhbatlar va SI platformalaridan olingan ma’lumotlar asosida o‘rganadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, moslashuvchan ta’lim tizimlari va avtomatlashtirilgan baholash kabi SI vositalari shaxsiylashtirilgan o‘qitish, o‘quvchilarning faolligi va sinfni boshqarishni yaxshilaydi. Texnologiyaga teng kirish imkoniyati va o‘qituvchilarning malaka yetishmovchiligi kabi muammolarga qaramay, SI an’anaviy uslublarga samarali qo‘shimcha bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, aralash darajadagi sinflar, o‘qitish metodikasi, shaxsiylashtirilgan ta’lim, ta’lim texnologiyalari

1. INTRODUCTION

1.1 Background

AI is now a key player in numerous industries such as education. Innovations in tailored and adaptive learning have been made possible through the use of teaching AI powered by machine learning, natural language processing, and data analytics. Education is further enhanced through AI's ability to customize learning experiences in real-time, paving new avenues for educators and students alike. The AI enabled inclusive approach features multi-level classrooms, where students irrespective of their competence level, grade, or learning pace learn together. This is often observed in rural schools, developing nations, and within inclusive education systems that integrate students with disabilities or language limitations. Such students are often faced with unaddressed educational needs due to non-traditional teaching strategies, resulting in insufficient curriculum flow fostering unmet learner engagement and equitable achievement benchmarks.

1.2 Challenges of Multilevel Teaching

Multilevel teaching requires educators to simultaneously provide differentiated instruction, manage different levels of cognition, and track multiple learning paths. Without technological assistance, this situation can be frightening. Inflexible curricula and a lack of supportive tools often leave teachers without the time, training, or resources needed to effectively modify content, resulting in decreased motivation and widening gaps, especially for low and high-performing students.

1.3 The Promise of AI

Through automation of some parts of differentiation along with providing feedback, real-time feedback, and constant formative assessment, AI provides a possible solution. Instruction can be adapted to suit student levels so that high achievers can move on while providing support for students who need remediation. Students are able to receive instant responses from chatbots and virtual tutors, which lightens the cognitive load on the teacher. In addition, the use of predictive analytics can allow educators to identify students at risk in a timely manner so they can be helped as early as possible.

1.4 Purpose of the Study

This study aims to examine how AI can be effectively utilized to support teaching methodologies in multilevel classrooms. It investigates the tools, strategies, and outcomes associated with AI-assisted instruction, focusing on both benefits and limitations.

1.5 Research Questions

1. What AI tools and platforms are most effective in multilevel classroom settings?
2. How do AI-assisted methodologies impact student learning outcomes and engagement in multilevel classes?
3. What are the perceived benefits and challenges faced by teachers in implementing AI in heterogeneous classrooms?

2. METHODS

2.1 Research Design

In order to gather quantitative data and qualitative insights about the efficacy of integrating AI in multilevel classrooms, this study used a mixed-methods research design. The reasoning behind this design stems from the intricate and varied nature of classroom instruction, where evaluating the effectiveness of AI tools requires both quantifiable results (like academic achievement) and experiential feedback (like teacher and student perceptions).

2.2 Participants

The research involved a purposive sample of **12 schools** across urban and rural regions in three countries (Country A, B, and C), ensuring a diverse representation of classroom settings. Participants included:

- **30 teachers** (with varying levels of experience using AI tools)
- **300 students** (grades 4–9) from multilevel classes
- **6 school administrators**

All participants voluntarily agreed to take part in the study, and informed consent was obtained following institutional ethical guidelines.

2.3 AI Tools and Platforms Analyzed

Several widely used AI-driven educational platforms and tools were examined in the study:

- **Khan Academy & DreamBox Learning** (adaptive content delivery)
- **Classcraft & Century Tech** (differentiated instruction platforms)

- **ChatGPT and AI Chatbots** (used for inquiry-based learning support)
- **Teacher dashboards with predictive analytics** (Edmentum, Smart Sparrow)

Each tool was chosen based on availability, teacher familiarity, and alignment with multilevel instructional needs (e.g., personalized pacing, content scaffolding, real-time feedback).

2.4 Data Collection Procedures

2.4.1 Quantitative Data

Data were collected over a **10-week classroom implementation period**. Quantitative measures included:

- **Pre- and post-intervention assessments** of student performance in mathematics and reading comprehension
- **Engagement metrics**: AI tool usage frequency, time on task, completion rates
- **Platform-generated analytics**: learning progress reports, error analysis, content mastery levels

2.4.2 Qualitative Data

Qualitative insights were obtained through:

- **Semi-structured interviews** with 15 teachers and 6 administrators
- **Focus groups** with student representatives (one per class)
- **Classroom observations** using an observation protocol focused on AI-tool interaction, student collaboration, and differentiated instruction

Interview transcripts were coded and thematically analyzed using NVivo software.

2.5 Data Analysis

Quantitative data were analyzed using descriptive and inferential statistics:

- **Paired sample t-tests** to compare pre- and post-intervention academic performance
- **Correlation analysis** to examine relationships between AI usage and student progress

Qualitative data were subjected to **thematic analysis** using the Braun and Clarke (2006) model. Key themes related to teacher perceptions, instructional challenges, and student experiences were identified and cross-referenced with quantitative findings.

2.6 Ethical Considerations

All procedures were approved by an Institutional Review Board (IRB) and conducted in compliance with ethical standards in educational research. Data were anonymized, and participant confidentiality was maintained. Teachers and students had the option to withdraw at any point without penalty.

2.7 Limitations

Several limitations were acknowledged:

- The study duration (10 weeks) may not capture long-term effects of AI integration.
- Variability in teachers’ digital literacy could influence outcomes.
- The use of different AI platforms across sites may have introduced inconsistencies in instructional delivery.

3. RESULTS

This section presents the findings from both quantitative and qualitative analyses, structured around the core research questions. The data provide evidence for the effectiveness of AI-enhanced teaching in multilevel classrooms, as well as the challenges encountered during implementation.

3.1 Improvement in Student Learning Outcomes

3.1.1 Quantitative Findings

Analysis of pre- and post-intervention assessments revealed statistically significant improvements in reading comprehension scores among students who used AI-assisted platforms.

- **Reading:** Mean pre-test score = 68.2%; mean post-test score = 80.1%; $t(299) = 11.49, p < 0.001$

Improvement was most pronounced among students who began at lower proficiency levels, suggesting that AI-enabled personalized pathways provided effective scaffolding.

3.1.2 Engagement Correlation

A moderate positive correlation was found between platform engagement (as measured by weekly activity time) and learning gains:

$$r = 0.51 \text{ for reading } (p < 0.01)$$

This indicates that sustained interaction with AI tools had a tangible impact on academic outcomes.

3.2 AI and Differentiated Instruction

3.2.1 Teacher Observations

Teachers consistently reported that AI platforms helped them manage instructional differentiation. Adaptive systems automatically adjusted content difficulty, allowing students to work at their own level without requiring the teacher to manually create separate lesson plans. “The AI took care of much of the differentiation work. It gave students tasks based on their progress without me having to intervene constantly.”
—Teacher from a rural multilevel classroom

Some teachers also highlighted the usefulness of analytics dashboards, which provided real-time overviews of student performance and enabled data-driven interventions.

3.3 Student Experience and Perception

Student focus groups indicated general enthusiasm for the AI-integrated lessons. Common positive themes included:

- **Autonomy:** “I liked working at my own speed.”

- **Instant feedback:** “It tells me right away what I got wrong.”
- **Gamification elements:** “The learning felt like a game sometimes.”

However, a subset of students reported screen fatigue and technical frustrations when internet connectivity was poor.

3.4 Teacher Perceptions and Challenges

3.4.1 Benefits

Teachers reported several perceived advantages:

- Reduced time spent on routine tasks (e.g., grading, grouping)
- Improved insight into student strengths and weaknesses
- More efficient classroom management

3.4.2 Challenges

Despite the benefits, teachers cited several issues:

- **Initial learning curve** for mastering AI tools
- **Dependence on technology** that could malfunction
- **Equity concerns**, particularly in schools with limited devices or poor connectivity

Administrators expressed concerns about ongoing costs and the need for continuous professional development.

4. DISCUSSION

This section interprets the findings presented in the results and situates them within the broader context of educational research and AI integration. The discussion is organized around the core themes: pedagogical effectiveness, personalization, classroom management, equity, and practical implementation challenges.

4.1 AI as a Catalyst for Pedagogical Innovation in Multilevel Classrooms

The data strongly suggest that AI technologies can play a transformative role in multilevel classrooms, where heterogeneity in student ability levels and learning speeds poses a persistent pedagogical challenge. Teachers frequently expressed that AI-enabled systems simplified the complex task of differentiation. This aligns with prior studies (Luckin et al., 2016; Holmes et al., 2019), which highlight AI’s capacity to deliver dynamic and individualized instruction without requiring the teacher to manage multiple parallel lesson plans. AI platforms like DreamBox and Century Tech automatically adapted content based on individual learner performance, alleviating the cognitive and logistical burden traditionally placed on educators in multilevel settings. The observed increase in student engagement and academic performance, especially among lower-achieving students, reinforces the idea that AI can act as a pedagogical equalizer, narrowing achievement gaps through personalized scaffolding.

4.2 Personalization and Real-Time Feedback: Keys to Engagement

Students reported appreciating the autonomy and real-time feedback that AI systems provided, which is consistent with the principles of self-determination theory (Ryan & Deci, 2000). Real-time feedback loops, powered by AI algorithms, appear to foster a learning

environment that is both responsive and motivating. This feedback helped students self-correct and build confidence—two factors essential for sustained engagement in a heterogeneous classroom environment.

Furthermore, engagement data showed that students who interacted more frequently with AI systems showed greater academic improvement, suggesting a dose-response relationship between AI exposure and learning outcomes. This supports findings from Pane et al. (2017), who demonstrated that students in personalized learning environments significantly outperformed their peers in traditional settings.

4.3 Recommendations for Effective Integration

Based on the findings, several recommendations can be made for schools, policymakers, and education technology developers:

1. **Invest in Infrastructure:** Ensure reliable internet and devices for all students, especially in rural and low-income settings.
2. **Provide Continuous Professional Development:** Train teachers in both technical and pedagogical aspects of AI integration.
3. **Adopt Inclusive AI Tools:** Choose platforms that support multilingual content, accessibility features, and diverse learning needs.
4. **Maintain Human-Centric Design:** Use AI to augment—not replace—the teacher’s role. Emphasize socio-emotional learning and creative tasks.
5. **Monitor and Evaluate:** Regularly assess the impact of AI on learning equity, privacy, and student agency.

5. CONCLUSION

This study set out to explore the effective use of Artificial Intelligence in teaching methodologies tailored to multilevel classrooms—settings characterized by diverse student abilities, backgrounds, and learning needs. Drawing on a mixed-methods approach, the research demonstrated that AI technologies can significantly enhance instructional quality, learner engagement, and academic outcomes in such complex environments. Quantitative data showed measurable improvements in student performance, particularly among lower-achieving learners, while qualitative insights revealed that teachers felt empowered by AI tools that supported differentiation, classroom management, and formative assessment. Adaptive learning platforms and AI-assisted analytics allowed educators to address heterogeneity with greater precision and flexibility than traditional teaching methods permit.

However, the study also uncovered meaningful challenges, including disparities in digital infrastructure, the need for ongoing teacher training, and ethical concerns around data use and algorithmic bias. These findings suggest that while AI holds strong potential, its successful integration requires systemic planning, resource investment, and a human-centered approach. AI should not be viewed as a panacea but as a powerful supplement to the pedagogical expertise of teachers. When implemented thoughtfully, it can serve as a transformative force—making inclusive, high-quality education more attainable in multilevel classrooms worldwide.

BIBLIOGRAPHY

1. Braun, V., & Clarke, V. (2006). Using thematic analysis in psychology. *Qualitative Research in Psychology*, 3(2), 77–101. <https://doi.org/10.1191/1478088706qp063oa>
2. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Center for Curriculum Redesign. <https://curriculumredesign.org>
3. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. Pearson Education. <https://www.pearson.com/content/dam/one-dot-com/one-dot-com/global/Files/about-pearson/innovation/open-ideas/Intelligence-Unleashed-Publication.pdf>
4. Pane, J. F., Steiner, E. D., Baird, M. D., Hamilton, L. S., & Pane, J. D. (2017). *Informing Progress: Insights on Personalized Learning Implementation and Effects*. RAND Corporation. https://www.rand.org/pubs/research_reports/RR2042.html
5. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. *American Psychologist*, 55(1), 68–78. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.55.1.68>
6. Selwyn, N. (2019). Should robots replace teachers? AI and the future of education. *Polity Press*.
7. Spector, J. M. (2020). Conceptualizing the emerging field of smart learning environments. *Smart Learning Environments*, 7, 1–10. <https://doi.org/10.1186/s40561-020-00134-2>
8. Williamson, B., & Eynon, R. (2020). Historical threads, missing links, and future directions in AI in education. *Learning, Media and Technology*, 45(3), 223–235. <https://doi.org/10.1080/17439884.2020.1798995>



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Alimova Umida Jumaboy qizi
Urganch Ranch texnologiya Universiteti
“Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi”
3-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta’lim-tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshga doir pedagogik va psixologik tomonlari, maktabgacha yosh davridagi bolalarning sog‘lom rivojlanishidagi ahamiyati, maktabgacha ta’lim davrida yosh davrlarining individual xususiyatlari masalasining ilmiy-nazariy asoslari talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh davri, ta’lim, tarbiya, yosh davrlari, ruhiy rivojlanish, xulq-atvor, o‘yin faoliyati, kichik maktabgacha yosh davri, ijtimoiy xulq-atvor, ko‘nikma.

Аннотация. В данной статье дается толкование особенностей развития и воспитания детей дошкольного возраста, педагогической и психологической сторон дошкольного возраста в отношении возраста, его значения для здорового развития детей дошкольного возраста, научно-теоретических основ вопроса об индивидуальных особенностях возрастных периодов в дошкольном образовании.

Ключевые слова: дошкольный возраст, образование, воспитание, возрастные периоды, психическое развитие, поведение, игровая деятельность, младший дошкольный возраст, социальное поведение, навыки.

Annotation. This article provides an interpretation of the features of the development and upbringing of preschool children, the pedagogical and psychological aspects of preschool age in relation to age, its importance for the healthy development of preschool children, the scientific and theoretical foundations of the question of the individual characteristics of age periods in preschool education.

Keywords: preschool age, education, upbringing, age periods, mental development, behavior, play activities, younger preschool age, social behavior, skills.

KIRISH. Respublikamizning mustaqillikka erishishi fanning turli yo‘nalishlarda rivojlanishiga keng yo‘l ochib berdi. Ayniqsa, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimuga alohida e’tibor qaratayotgani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 9 sentyabrda PQ-3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019 yil 8 mayda PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 mayda 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xam ko‘rinib turibdi. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonunida maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimiga bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi sifatida ta’rif berilishi ham bugungi kunda bu tizimga davlatimiz g‘amho‘rligining alohida na‘munasini anglatadi [1,6-b].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Maktabgacha yosh - inson hayotidagi eng muhim va sezgir davr hisoblanib, bu bosqichda bolalarning fiziologik, psixologik, aqliy va ijtimoiy rivojlanishi asos bo‘lib hisoblanadi. Shu bois ta’lim-tarbiya jarayoni yoshi, qiziqishlari, individual xususiyatlariga mos, o‘ziga xos yondashuvni talab etadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarning ta’lim-tarbiyasiga oid ko‘plab tadqiqotchilar izlanishlar olib borgan. Xususan, T Sodiqov, S.Rajabov - “Pedagogika” nomli darslikda maktabgacha yosh davridagi bolalarning tarbiyaviy ishlarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. M.Yo‘ldoshev - “Maktabgacha ta’lim metodikasi” nomli manbada maktabgacha yoshdagi bolalarda og‘zaki nutq, ijtimoiy munosabatlar, estetik did va mustaqil fikrlashni shakllantirish metodikasi ko‘rsatilgan. MTT Davlat o‘quv dasturlari va “Ilk qadam” o‘quv dasturi bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, yoshga mos o‘yinlar, mashg‘ulotlar, kommunikatsiya uslublariga alohida e’tibor qaratilgan. Xorijiy mamlakatlarda ham maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi, ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha izlanishlar olib borilgan bo‘lib, Maria Montessori - “The Absorbent Mind” Montessori metodikasi bolalarning mustaqil faoliyatiga asoslanadi. Vigotskiy ijtimoiy muhit, kattalar bilam muloqot, til vositasida fikrlashning rivoji maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda muhim ekanini ta’kidlaydi. Yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi orqali bolaga yetakchilik qilish, lekin erkinlikni ham saqlash zarurligini asoslagan.

NATIJALAR. Shaxsning rivojlanishi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo‘lib, u barcha tug‘ma va egallangan miqdor, sifat o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi. Jismoniy rivojlanish o‘rish, vaznning, kuchning ortishi, sezgi a’zolarining mukammallashuvi, harakatlarni to‘g‘ri boshqara bilish bilan bog‘liqdir. Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar va belgilarning shakllanishi, emotsional-irodaviy, bilish jarayonida muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida, tevarak-atrofga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi.

Yosh kattalashgan sari ruhiy faoliyat boyib boraveradi, shu bilan birga teskari jarayon ham ro‘y beradi, shu sababli har bir yosh uchun shaxsning sensor, aqliy, hissiy, irodaviy, sababiy tomonlari kabi xususiyatlar xosdir, ular orasidagi o‘zaro aloqa o‘zgaradi, bu esa rivojlanishning umumiy darajasiga, xulq-atvorni tartibga solishga ta’sir ko‘rsatadi. Yosh bilan birga faoliyatning yetakchi turi ham o‘zgaradi. Biroq, shaxsning ruhiy rivojlanish darajasi faqat yashalgan yillar natijasi emas: har qanday yoshda, ayniqsa, bolalikda tarbiya va ta’lim sistemasi, shaxsning faoliyati va faolligi hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Yosh bilan bog‘liq rivojlanish muddatlarida o‘ziga xos siljishlar ham bo‘lishi mumkin.

Yosh xususiyatlari faqat aqlgagina emas, shu bilan birga his, iroda, sababga ham taalluqli bo‘ladi: hayotning dastlabki yillarida bolalarning xulq-atvori asosan bevosita his-tuyg‘ular bilan tartibga solinadi, lekin shu yoshdayoq irodani tarbiyalashni boshlash, ularga umumiy qabul qilingan normalar va qoidalarni tushunishni o‘rgatib borish kerak. Bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash uchun ularning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini bilish, bu ishni ilk yoshdan boshlab amalga oshirish zarur. Ilk yoshdagi bolalarni tarbiyalash sistemasi yosh avlod umumiy ta’lim-tarbiya tayyorgarligining tarkibiy qismi hisoblanadi [2].

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berish shakllari natijalarga erishish emas, balki bilim, mahorat va ko‘nikmalar hosil qilish o‘quv faoliyatining maqsadidir. Bu maqsad uning asosiy xususiyatini belgilaydi. Ta’lim olish vaqtida va bolaga oldingi avlod tomonidan qoldirilgan tajribani yetkazib berishda bolaning psixik rivojlanishi amalga oshsada, bilim va ko‘nikmalarni aksariyat qismini u kattalar bilan muloqotda, ularning talablarini, maslahatlarini va ko‘rsatmalarini bajarish davomida o‘zlashtiradi. Kichik va o‘rta maktabgacha yoshdagi bolalar odatda berilayotgan bilim va ko‘nikmalar o‘yinda, rasm chizishda yoki boshqa ularni o‘ziga jalb qiluvchi harakatda darhol qo‘llansagina, o‘quv topshiriqlarini qabul qiladilar.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yin (loto, rasmlar kubiklardan har turli ko‘rinishlar chiqara bilish, son-sanoq, mozaika, shashka, topishmoqlar kabi) maktabgacha yosh davrida oddiy o‘quv topshiriq usuliga ko‘ra bilim olishning samaraliroq yo‘lidir, didaktik o‘yinlar ko‘pincha turli vazifalar bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlar va tafakkurlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bu jihatdan didaktik o‘yinlar katta guruh bolalarini maktabdagi o‘qish faoliyatiga tayyorlash vositalaridan biridir. Biroq shu narsani eslatib o‘tish kerakki, bolalarning o‘qish faoliyati bevosita didaktik o‘yinlardan kelib chiqmaydi. Ammo, kichik va o‘rta maktab yoshida didaktik o‘yin asosiy o‘rin egallasa, katta bog‘cha yoshi davrida bu farq ancha pasayadi. Bu bolalarni o‘quv topshiriqlarini qabul qilish qobiliyati oshayotganini bildiruvchi ko‘rsatkichdir. Bu bolalarni amallarning bajarilish usullariga e’tibor bera boshlashi, ularni o‘quv topshiriqlarini mazmunini tushuna boshlaganini bildiradi. Ular ongli ravishda bu usullarni egallashga harakat qiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar biror maqsadga qaratilgan kuzatuvlarni, predmetlarni tasvirlashni, qiyoslashni va ularni guruhlarga bo‘lishni, hikoya va sur’atlarni mazmunini bir-biriga bog‘lagan holda gapirib berishni, arifmetik masalalarni hisob va yechim yo‘llarini topishni va hokazolarni o‘rganadilar. Masalalarni to‘g‘ri bajarilishi va kattalar tomonidan qo‘yilgan talablar amalga oshishi muhim ma’noga ega bo‘ladi. Bunday

hollarda bolalar kattalarga bajarilgan u yoki bu o‘quv topshiriqlarini to‘g‘riligini baholashlarini so‘rab tez-tez murojaat qiladilar [3].

Ta‘lim maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning bilish qobiliyatlarini muntazam-rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog‘chasi tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta‘lim yetakchi rol o‘ynaydi. Chunki, ta‘lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta‘lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bolalarda o‘quv faoliyatlari asoslari ta‘lim jarayonida hosil qilinadi, ularning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olgan holda 3 davrga:

(3-4 yosh) kichik maktabgacha yosh davri;

(4-5 yosh) kichik bog‘cha yoshi o‘rta maktabgacha davr;

(o‘rta bog‘cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog‘cha yoshilarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan hatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi, katga yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog‘cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o‘zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish, hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish Bog‘cha yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola axloq me‘yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bola endi o‘z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo‘ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o‘zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o‘zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir [1].

Ta‘limni ikki yo‘l bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi yo‘li — bolalarning bilim, malaka, ko‘nikmalarni kattalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi orqali egallab borishidir.

Ikkinchi yo‘li — maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o‘quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan rejali ravishda xabardor qilib borishidir. Bunday yo‘l bilan ta‘lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo‘lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir.

Bolalarga ta‘lim berish jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi:

Ko‘rgazmali	Og‘zaki	Amaliy	O‘yin metodlari
Kuzatish	Tushuntirish	Mashq	Didaktik o‘yinlar
Ko‘rsatish	Hikoya qilish	Mustaqil ish	Harakatli o‘yinlar
TVdan foydalanish	So‘zlab berish	Oddiy tajriba	Mashqli o‘yinlar
	O‘qib berish		Insseniroykalar
	Suhbat		

Bolalar ta‘lim-tarbiya muassasalaridagi faoliyat va hatti-harakatlarining psixologik qonuniyatlarini o‘rganuvchi pedagogik psixologiya ikki fanni, ya‘ni psixologiya va pedagogika fanlarining tutashgan joyidan o‘rin egallagandir. Psixik rivojlanish va bu o‘zgarishlarga sabab bo‘ladigan kuchlar o‘rtasidagi munosabat qonunlarini o‘rganish yosh davrlari psixologiyasi fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir.

MUHOKAMA. Milliy pedagogik adabiyotlarda, xususan, “Ilk qadam” dasturida ham bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, rivojlantiruvchi o‘yinlar, kommunikativ mashg‘ulotlar va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi metodlar keng yoritilgan. Bu holat tadqiqot natijalari bilan bevosita bog‘liq. Muhokama shuni ko‘rsatadiki, samarali ta‘lim-tarbiya jarayoni nafaqat pedagogning mahoratiga, balki ota-onalarning faol ishtirokiga, muhitga va o‘zaro hamkorlikka ham bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ota-onalar bilan samarali aloqa va pedagogik maslahatlar berish tizimini kuchaytirish tavsiya etiladi.

XULOSA. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berishda ularning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda individual, o‘yin asosidagi va ijtimoiy-emotsional rivojlanishga yo‘naltirilgan yondashuvlar samarali hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1.O‘.Asqarova, Z.Qoraboeva, M.Samidjonova **MAKTABGACHA TA‘LIM METODOLOGIYASI** Namangan - 2020

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi.- T. TDPU, 2017-yil.

2. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Toshpo‘latova, M .M . Pirmuhamedova, |R.T. Akbarova I, M .Sh. Nurmatova, N .M Qayumova, N.N. Jamilova, X. Sariboyev, L.A. Kulay. 2011-yil.

3. Maktabgacha yoshdadi bolalar psixologiyasi. : kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘rta maxsus, kasbhunar ta’limi markazi. – Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2013. – 496 b.



RINOLALIYA NUTQ NUQSONINING ANATOMIK JIHATDAN KELIB CHIQISHI.

Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi

Qo'qon DPI Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Tel: +998944999639

E-mail: kabirovazarnigor@998gmail.com

Annotatsiya Rivojlanishida nuqsonga ega bo'lgan bolalar psixik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari turlicha kechadi va psixokorreksion ishlarni olib borish davomida har bir kamchilik o'zigagina xos bo'lgan yondashishni talab etadi. Shuning uchun nuqsonga ega bo'lgan bolalarga xos psixik jarayonlarni va xususiyatlarni o'rganish asosiy masala bo'ladi. Eshitishida, ko'rishida, intellektida va nutqida kamchiliklari bor bo'lgan bolalarning holatini, tarixini keltirib, buzilishdagi tipik psixik holatlarning patogenezlarni tahlil etish, maktabgacha yoshdagi nuqsonga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan kompleks korreksion-psixologik tuzatish ishlarining metodlarini yoritib beradilar. Bunda o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliyotida qo'llash ko'nikmalarini egallash zarurati, har bir nutq kamchiligida bolaning hissiy-irodaviy doirasida, psixik jarayonida o'ziga xos, alohida xususiyatlarga ega ekanligi o'rganiladi.

Kalit so'z: Intellect, metod, tanglay-halqum, rinolaliya, tibbiy pedagogik.

Аннотация Дети с отклонениями в развитии имеют разные особенности психического развития, и каждое нарушение требует уникального подхода к психокоррекционной работе. Поэтому важно изучать психические процессы и особенности детей с ограниченными возможностями здоровья. Описываются состояние и анамнез детей с ограниченными возможностями по слуху, зрению, интеллекту и речи, анализируется патогенез типичных психических состояний расстройства, объясняются методы комплексной коррекционной и психолого-коррекционной работы, проводимой с детьми с ограниченными возможностями дошкольного возраста. При этом изучается потребность учащихся в приобретении навыков применения своих теоретических знаний на практике, что каждый речевой недостаток имеет свои, особые особенности в эмоционально-волевой структуре ребенка, в психическом процессе.

Ключевые слова: Интеллект, метод, небо-гортань, ринолалия, медицинская педагогика.

Annotation Children with developmental disabilities have different characteristics of their mental development, and each disability requires a unique approach to psychocorrective work. Therefore, it is important to study the mental processes and characteristics of children

with disabilities. They describe the condition and history of children with disabilities in hearing, vision, intelligence, and speech, analyze the pathogenesis of typical mental states of the disorder, and explain the methods of complex correctional and psychological correction work carried out with children with disabilities of preschool age. In this, it is studied the need of students to acquire the skills of applying their theoretical knowledge in practice, that every speech deficiency has its own, special characteristics in the emotional-volitional framework of the child, in the mental process.

Key words: Intellect, method, palate-larynx, rhinolalia, medical pedagogy.

KIRISH

Har tomonlama rivojlangan barkamol inson shaxsini shakllantirish davrimizning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Vatanimizning kelajagi bugungi yosh avlodning ilmiy salohiyati, iste'dodi, mustaqil fikrlashiga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham bilimdon, keng dunyoqarashga ega barkamol va ma'naviy yetuk shaxslarni tarbiyalash yetishtirish vazifasi davlatimiz siyosati ustuvor yo'nalish darajasiga ko'tarildi. O'zgarishlarning genezisi ta'lim sohasida davlat siyosatining huquqiy va metodologik asoslarini yaratib berishdan boshlanadi. Bulardan eng muhimlari - ta'limning yangi tizimiga qo'yilgan hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda inkluziv ta'limni yanada taraqqiy ettirish, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamiyatning faol a'zolariga aylantirish hamda maxsus ta'lim sohasida yetuk mutaxassislar tayyorlashdan iborat.

O'tkaziladigan izlanishlar jarayonida maxsus psixologik bilimlar tizimini, kamchiligi bor bolalarning psixologik rivojlanishining qonuniyatlarini, ularning shaxsini shakllantirishning omillarini o'zlashtirib olish, ularni hisobga olgan qolda o'rganish va faol pedagogik-psixokorreksion (tuzatish) ishlarini olib borish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nuqson mohiyatini va uni bartaraf etish imkoniyatlarini tibbiy va pedagogik hamda tibbiy tomondan o'rganish ochiq manqalanishda nutq buzilishlarini bartaraf etuvchi pedagogik metodlarda ikki yo'nalish vujudga keldi. Ularning birinchisi — nemis yo'nalishi bo'lib , Germaniya va boshqa qator mamlakatlarda qabul qilingan (G . Gutsman 1924, G . Arnold 1959, M. M . Vankevich 1929, V. A. Koretnikova 1927, M. E. Xvatsev 1931, 1959). Bu yo'nalish kuchli ta'sirlovchilar bilan chiqariladigan qo'zg'atishning dastlabki irradiatsiyasi prinsipiga asoslanadi, bu bilan esa normal nutq harakat organlarining kompleks faoliyatiga defektli organlari ham jalb qilinadi. Qo'llaniladigan mashqlar qisman tarang, kuchli xarakterda bo'ladi. Nemis maktabida logoterapevtik tadbirlarni elektrova vibromassajni qo'llash bilan birgalikda olib borish ko'zda tutiladi. Shundan keyin esa artikulatsion va nafas treningi bo'yicha mashqlar kiritilar edi.

Ikkinchi yo'nalish shartli ravishda fransuz yo'nalishi deb atalib, to'g'ri nafas olish va ovoz hosil qilish tam oyiliga asoslanadi (S. Borel - M ezoni, 1929). Nemis yo'nalishining ko'zga ko'ringan mualliflaridan biri prof. G.Gutsman hisoblanadi. Uning tom onidan ishlab chiqilgan

metodika da tanglay-halqum birikmasini yaxshilash uchun mashqlarning aniq tizimi tavsiya qilinadi. U nutqiy mashq qilishda obturator yoki burun qisqichim qo‘llashni maslahat beradi. Nutq mashqlarining asosi yuqori balandlikdagi ovozni qo‘yish hisoblanadi. Baland nutqda ovoz bo‘shlig‘ining barcha ichki qismlarida qattiq inervatsiya paydo bo‘lib tanglay pardasining faolligi ortadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Muammoni o‘rganishda shifokorlar, psixologlar, defektologlar o‘zlarining katta hissalarini qo‘shdilar.

Lab va tanglay yoriqlari bilan izohlanadigan rinolaliya tibbiyot va logopediyaning turli tarmoqlari uchun xirurg-stomatologlar, ortodontlar psixonevrologlar, logopedlar uchun muammo, ahamiyatga molik o‘rganishda obyekti, predmeti hisoblangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rinolaliya bo‘yicha dastlabki ilmiy ishlar shifokorlar tomonidan yozilgandir. Ularning harakatlari tanglay bo‘rtmasini to‘liq tiklashga qaratilgan edi, qayta hosil qilingan tanglay pardasi yetarli darajada uuzu va harakatchan bo‘lishi va halqumning orqa devori uchun birika oolish lozim. Bu samaraga erishish nutqdagi manqalikni yo‘qotishga iimkoniyat yaratadi yoki uni bartaraf qiladi.

N .I. Pirogov (1844), N.V. Voronsovskiy (1875), P. Subbotin N.I.Pirogovning shogirdi N.V.Voronsovskiy 1870-yilda normal nutqni tiklash yo‘lida uranoplastika qilish orqali oldinga bir qadam qo‘ydi deb ta’kidlagan. Uning fikricha, uranoplastikadan keyin ham manqalanishni saqlanib qolishining sababi yumshoq tanglayning ikkilamchi qisqarishi, harakatchanligining yetishmovchiligidir. Lekin uning fikricha talaffuzdagi nuqsonlarni har kuni mashq qilish oorqali korreksiyalashda nutq sekin-asta tushunarli bo‘la boshlaydi.

Jarrohlar tomonidan og‘iz bo‘shlig‘idagi anatomik defektni bartaraf qilish bo‘yicha sezilarli ijobiy ishlar qilinganligiga qaramay, ulardan hech biri jarrohlik muolajasi yordamida nutqni fonetik yo‘nalishida shakllantirish bo‘yicha ijobiy natijalarga erisha oladi. Urnoplastika rinolalikla nutqidagi nazal talaffuzni o‘z-o‘zidan bartaraf qilmaydi, deb e’tirof eetiladigan A. A. Limbergning ko‘rsatishicha, xirurg mavjud yorug‘likli deformatsiyan davolash va bartaraf etishdagi ishda o ‘zining zimmasiga tushadigan vvazifani aniq tasavvur qilish kerak bo‘ladi. Xirurgik davolashning vazifasi — mumkin qadar zararlangan organlarni, ular faoliyatini buzmasdan, shakl va kattaligini to‘liq qayta ttiklash dirt Chet el mutaxassislari rinolaliyani o ‘rganish va llogoterapiyanin rivojlanishiga katta hissa q oo‘shdilar Lemone, Makuen, Kez va boshqalar (XX asr boshi) tanglay yoruqliklarini jarrohlik tom onidan davolashni takomillashtirdilar va doimo jarrohlik aralashuviga ko‘ra ta’lim jarayoni o ‘smir va katta yoshdagi kishilarga nutqdagi manqalanishni bartaraf etishda katta imkon yaratadi deb ta’kidlaganlar.

Nuqson mohiyatini va uni bartaraf etish imkoniyatlarini tibbiy va pedagogik hamda tibbiy tomondan o‘rganish ochiq manqalanishda nutq buzilishlarini bartaraf etuvchi pedagogik metodlarda ikki yo‘nalish vujudga keldi.

Rinolaliya hosil bo‘lishga ko‘ra dislaliyadan farq qiladi, ya’ni rinolaliyada tovushlarni burun-dimog‘ bilan talaffuz qilish hollari kuzatiladi. Rinolaliyada tovushlar artikulatsiyasi, fonatsiya, tovush hosil bo‘lish mexanizmlari jiddiy ravishda normadan chetga chiqadi. Normal fonatsiya bo‘lganda kishida burun tovushlaridan tashqari nutqdagi hamma tovushlarni talaffuz qilish vaqtida burun-halqum va burun b o‘shlig‘ining bo‘g‘iz va og‘iz bo‘shlig‘idan ajralish ro‘y beradi. Nutq jarayonida yumshoq tanglay uzluksiz ravishda turli balandlikka ko‘tariladi va tushadi, bu holat tovushlar talaffuziga bog‘liqdir. Unli tovushlar talaffuzida tanglay-halqum undosh tovushlar talaffuziga nisbatan kamroq birlashadi. Tanglay-halqumning eng kuchsiz birlashishi "v" undosh tovush talaffuzida; eng kuchli birlashish "s" undosh tovush talaffuzida kuzatiladi. M, n burun tovushlarining normal talaffuzida havo oqim burun bo‘shlig‘ida erkin harakatda bo‘ladi.

Tanglay-halqum birlashish funksiyasining buzilish xarakteriga ko‘ra rinolaliya uch shaklga ajratiladi. Yopiq rinolaliya Yopiq rinolaliya nutq tovushlarini talaffuz qilish vaqtida fiziologik burun rezonansining pasayishi natijasida yuzaga keladi. M, n burun tovushlari talaffuzida eng kuchli rezonans bo‘ladi. Bu tovushlarning normal talaffuzida burun-halqum yo‘li ochiq bo‘ladi va havo oqim i to‘g‘ri burun bo‘shlig‘iga o‘tadi. Agar burun tovushlar talaffuzida burun rezonansi bo‘lmasa, unda burun tovushlari b, d tovushlariga o‘xshab talaffuz etiladi.

Rinolaliyaning yopiq shaklining kelib chiqish sababi — burun bo‘shlig‘idagi organik o‘zgarishlar yoki tanglay-halqum birlashishining funksional buzilishidir.

M. Zeeman yopiq rinolaliyaning (rinofoniya) ikki turini ajratadi: oldingi yopiq rinolaliya — bunda burun b o‘shlig‘ida o‘tkazuvchanlik funksiyasi bo‘lmaydi va orqa yopiq rinolaliya — bunda burun-halqum b o‘shlig‘ida o‘tkazuvchanlik kamayadi.

Oldingi yopiq rinolaliyaning sababi — burun shilliq pardasida surunkali gipertrofiyaning, burun bo‘shlig‘ida poliplarning bo‘lishi, burun devorining

qiyshiqliqligi va burun bo‘shlig‘ida o‘smalarning bo‘lishidir. Orqa yopiq rinolaliya — bolalarda adenoidlarning ko‘payib ketishi, burun-halqumda poliplarning, fibroma va o‘smalarning paydo bo‘lishida kuzatiladi. Funksional yopiq rinolaliya bolalarda ko‘p uchraydi, ikinchi doimo aniqlash qiyin. Chunki u burun b o‘shlig‘ining yaxshi o‘tkazuvchanligida va burundan nafas olish buzilmagan hollarda kuzatiladi. Bunda burun tembri va unli tovushlar talaffuzi qo‘pol buzilgan bo‘ladi.

Organik yopiq rinolaliyaning sababi — burun bo‘shlig‘ida o‘tkazuvchanlikning buzilishidir. Bunda burundan to‘g‘ri nafas olish yo‘lga qo‘yilsa, ya’ni burun b o‘shlig‘idagi o‘tkazuvchanlik yaxshilansa hamrta kamchilik yo‘qoladi. Yopiq rinolaliyada olib boriladigan logopedik ishning samaradorligi burun-halqum holatiga, uning funksiyasiga va bolaning yoshiga bog‘liq. Logopedik mashg‘ulotning boshlang‘ich davrida nafas mashqlarini olib borish tavsiya etiladi. Bundan maqsad og‘iz va burundan nafas olish nafas chiqarishni differentsiatsiya qilishdir. Bu mashqlar avval puflashdan boshlanib, keyin burundan qisqa va chuqur nafas chiqarish bilan almashtiriladi. Shu bilan birgalikda yumshoq tanglay va halqumning orqa devor muskullari harakatini nafas chiqarishni muvofiqlashtirish ustida ish olib boriladi. Bu mashqlar m, n burun

tovushlarining talaffuzini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va mustahkamlashga imkon yaratadi. Yakunlovchi davrda unli tovushlarni jarangdorligi va burun tovushlariga qaram a-qarshi qo‘yilgan tovushlar (p, b-m ; t, d-n) ustida ish olib boriladi. Ochiq rinolaliya. Rinolaliyaning ochiq formasiga og‘iz bo‘shlig‘ida hosil bo‘luvchi tovushlar dim og‘da talaffuz etiladi.

va I unli tovushlarida tembr sezilarli darajada o‘zgaradi, bu unli tovushlar artikulyatsiyasida og‘iz bo‘shlig‘iga hamma tovushlar artikulyatsiyasiga ko‘ra toraygan bo‘ladi. A unli tovushlar talaffuzida yuqoridagi holat kamroq uchraydi, chunki bu tovush talaffuzida og‘iz bo‘shlig‘iga kengroq ochiladi.

Undosh tovushlar talaffuzida tembr buzilishlari kuzatiladi. Shovqinli va qorishiq tovushlar talaffuzida xirillagan tovush qo‘shilib keladi. Portlovchi p, b, t, k va g tovushlari noaniq talat qilinadi, chunki og‘iz bo‘shlig‘ida yetarli darajada havo bosimi hosil bo‘lmaydi, natijada burun bo‘shlig‘i to‘liq bekilmaydi. Ochiq rinolaliyani aniqlash uchun funksional tekshirish usullari mavjud. Eng oddiy tekshirishlardan biri Gutsman usulidir. Bunda logoped bo‘lga galma-gal va unli tovushlarni qaytarishni buyuradi va bo‘lning burun yo‘lini bir bekitib, bir ochib turadi. Ochiq rinolaliyada bu unli tovushlarning jarangdorligida sezilarli darajada farq bo‘ladi. Ayniqsa, a unlisi burun yo‘lini bekitib talaffuz qilingandan tovush talaffuzi eshitilmaydi, shu bilan birgalikda logoped n in g barm oqlari burun qanotlaridagi kuchli tebranishni sezadi. Yana aniqlash usullaridan biri, bu fonendoskop bilan tekshirishdir. Bunda tekshiruvchi fonendoskopning bir uchini o‘zining qulog‘iga, ikkinchi uchini bolaning burniga tutib turadi. Bola unli tovushlarni, ayniqsa n va a unllarini talaffuz qilganda kuchli shovqin eshitiladi. Undosh f, s, sh tovushlar talaffuzida xirillagan ovoz eshitiladi. Ochiq rinolaliya organik va funksional bo‘lishi mumkin. Organik ochiq rinolaliya tug‘ma va hayot davomida orttirilgan bo‘ladi. Ochiq rinolaliyaning tug‘ma shaklining sababi yumshoq va qattiq tanglaydagi yoriqliklardir. Hayotda orttirilgan ochiq rinolaliyaga og‘iz va burun bo‘shlig‘ida jarohatlanishlar bo‘lishi yoki yumshoq tanglayni hayot davomida falajlanishi kabilar sabab bo‘lishi mumkin. Funksional ochiq rinolaliyaning paydo bo‘lish sabablari turli xil bo‘ladi. Masalan, bolalarda ovozning hosil bo‘lishida yumshoq tanglay harakatining sust bo‘lishi. Funksional ochiq rinolaliya asab kasalliklarida ham namoyon bo‘lish hollari kuzatiladi. U adenoidlarni olib tashlagandan so‘ng kamroq kuzatilsa, difteriyadan keyingi falajlanishda kamroq kuzatiladi. Rinolaliyaning bu shaklini tekshirishda qattiq va yumshoq tanglayda biron-bir o‘zgarishlarning borligi aniqlanmaydi. Funksional ochiq rinolaliyaning belgilarida asosan unli tovushlar talaffuzi buzilgan bo‘ladi. Undosh tovushlar talaffuzida tanglay-halqum birlashishi yaxshi, normada bo‘ladi. Funksional ochiq rinolaliya organik rinolaliyaga nisbatan yengil kechadi. Ovoz mashqlaridan so‘ng burunlanish tembri yo‘qoladi, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni odatdagidek, ya‘ni dislaliyani bartaraf etishda qo‘llanadigan usullar orqali bartaraf etish mumkin.

Rinolaliyada kuzatiladigan tug‘ma lab va tanglaydagi kamchiliklar logopediya va tibbiyot fani oldiga jiddiy muammolarni qo‘yadi. Turli xalqlar orasida, turli mamlakat va hattoki har bir mamlakatning turli viloyatlarida tug‘ma yoriqliklar bilan tug‘iladigan bolalar soni turlicha.

A. L. im berg (1964) adabiyotlardagi ma’lumotlarni umumlashtirib, 600 — 1000 ta yangi tug‘ilgan bolalar orasida bitta bola lab va tanglay yoriqliklari bilan tug‘ilishini ta’kidlab o‘tadi. Lab va tanglaydagi yoriqliklar bolaning umumiy va nutqiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bola yutishga, nafas olishga qiynaladi. Bu holatlar bolaning jismoniy rivojlanishiga salbiy ta’sir etadi, organizmning boshqa kasalliklar bilan kurashish jarayonini susaytiradi. Bunday bolalar muntazam shifokor nazoratiga va davolanishga muhtojdir. Hozirgi vaqtda quyidagi tasnif qabul qilingan:

Yuqori labdagi tug‘ma yoriqliklar: yashirin yoriqlik, to‘liq bo‘lmagan yoriqlik: a) burun bo‘limida teri-tog‘ayning o‘zgarmaganligi; b) burun bo‘limida teri-tog‘ayning o‘zgarganligi. To‘liq yoriqlik. Bunda bolaning ilk yashash davrida xirurgik davolash ishlari olib boriladi, bu davolash ishlari bola nutqining normal rivojlanishiga imkon yaratadi. Tug‘ma tanglay yoriqliklari: 1) yumshoq tanglay yoriqliklari: bu yoriqliklar yashirin, to‘liqsiz va to‘liq bo‘ladi; 2) yumshoq va qattiq tanglay yoriqliklari: yashirin, to‘liqsiz, to‘liq; 3) alveolyar o‘simtaning, qattiq va yumshoq tanglayning to‘liq yoriqliklari: bir tomonlama, ikki tomonlama; 4) alevoliyar o‘simtaning va qattiq tanglay oldingi qismining to‘liq yoriqligi: bir tomonlama, ikki tomonlama.

Ikki tomonlama yoriqliklar bir tomonlama yoriqliklarga nisbatan kam uchraydi. M. P. Barchunovning ta’kidlashicha, yoriqliklar ko‘proq chap tom onda (70,4%), o‘ng tom onda kamroq (21,4%) kuzatiladi. Bu jarohatdan ayollarga nisbatan ko‘proq erkaklar aziyat chekadilar (I.B. Bakumi 1966, V.M. Messika 1971). Gutsmaning ma’lumotiga ko‘ra alohida lab yoriqliklari va lab yoriqliklarining tanglay yoriqliklari bilan birga kelishi erkaklarda 68,66%, ayollarda 31,34% uchraydi, shu bilan birga ayollarda tanglayning alohida yoriqliklari ikki marotaba ko‘p kuzatiladi.

XULOSA

To‘g‘ri tovushni tarbiyalash bo‘yicha mashg‘ulotlarni oldin harakat siz, ikki ovozli ashulalarni aytish, nutqli va ashula aytish mashqlaridan boshlash tavsiya etiladi. Lekin vaqtning katta qismi harakat vaqtidagi tovush ishiga baqishlanishi kerak bo‘ladi. Ritmika yoki gimnastika kombinatsiyalari bilan raqsli qo‘shiqlar va mashqlar ijro etiladi. Bemorning yoshi qancha katta bo‘lsa, harakat bilan boqliq shuncha ko‘p mashqlar taklif qilinadi, uning oldidagi vazifalar murakkablashaveradi, bu vazifalar esa tayyorgarlik ko‘rish uchun ko‘p vaqt talab qiladi.

Harakat bilan tovushli mashq qilishni tekshirish faqat logoritmik mashqulotlarda emas, balki logopedik mashqulotlarda ham o‘tkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mamedov K.K., SHoumarov E.B. Akli zaif bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 1994.

2. Petrova V.G., Belyakova I.V. Psixologiya umstvenno otstalыx shkolъnikov. -M.: ASAMEDIA, 2004.

3. Mo_minova L., Amirsaidova Sh. va boshqalar. Maxsus psixologiya. - T.: O_zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013.

4.Shomaxmudova R.Sh., Mo'minova L.R. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. Metodik kulanma O'qituvchi. T.: 1993 y.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

INTERNET JURNALISTIKASIDA OMMAVIY ONG VA PSIXOLOGIYA

Murtozayeva Nigora Murtoza qizi
Samarqand Davlat Chet tillari instituti
Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi talabasi.
nigoradolat789@gmail.com
998957603637

Annotatsiya: Maqolada internet jurnalistikasi orqali ommaviy ong shakllanishi va unga bo‘lgan psixologik ta’sirning zamonaviy mexanizmlari ilmiy tahlil qilinadi. Raqamli axborot muhitida yangiliklar iste’molchilar tafakkuriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar- algoritmlarning selektiv xususiyatlari, emotsional sarlavhalar, dezinformation usullar va manipulyativ mazmundagi kontentlar tadqiq etiladi. Ayniqsa internet jurnalistikasining ijtimoiy ongni boshqarishda roli, u orqali jamoaviy qarashlar, ommaviy pozitsiyalar va qadriyatlar qanday shakllanishi tahlil qilinadi. Maqolada O‘zbekiston matbuot tarixida alohida o‘rin tutgan jadid matbuoti tajribasi va Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” asaridagi mafkuraviy qarashlar zamonaviy jurnalistika uchun nazariy asos sifatida tahlil etiladi. Bu orqali milliy jurnalistikada axborot xavfsizligi va ongni himoyalashning ilmiy-ma’naviy tamoyillari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Internet jurnalistikasi, ommaviy ong, psixologik ta’sir, axborot manipulatsiyasi, algoritmlar, emotsional sarlavhalar, jadid matbuoti, Islom Karimov, milliy ong, raqamli kommunikatsiya.

Аннотация: В статье проводится научный анализ современных механизмов формирования массового сознания и его психологического воздействия через интернет-журналистику. Рассматриваются ключевые факторы влияния — селективность алгоритмов цифровых платформ, эмоциональные заголовки, методы дезинформации и манипулятивный контент. Особое внимание уделяется тому, как через онлайн-СМИ формируются общественные взгляды, ценности и социальные позиции. Также рассматривается исторический опыт джадидской прессы как важного этапа развития узбекской журналистики и идеологические взгляды Ислама Каримова, изложенные в труде “Высокая духовность — непобедимая сила”, как теоретическая база для современных информационных подходов. В результате обосновывается необходимость духовно-информационной защиты национального сознания в условиях цифровой эпохи.

Ключевые слова: Интернет-журналистика, массовое сознание, психологическое влияние, информационная манипуляция, алгоритмы, эмоциональные заголовки, джадидская пресса, Ислам Каримов, национальное сознание, цифровая коммуникация.

Abstract: This article presents a scientific analysis of the modern mechanisms behind the formation of mass consciousness and its psychological influence through internet journalism. It examines key digital factors such as algorithmic selectivity, emotional headlines, disinformation strategies, and manipulative content that shape the audience's perception and worldview. The role of online journalism in constructing collective values and societal positions is also discussed. Furthermore, the historical legacy of the Jadid press in Uzbekistan and the ideological perspectives of Islam Karimov, particularly those expressed in his work “High Spirituality is an Invincible Force,” are analyzed as theoretical foundations for ethical and secure journalism in the digital era. The article concludes with a reflection on the importance of safeguarding national consciousness against the backdrop of rapid digitalization.

Keywords: Internet journalism, mass consciousness, psychological influence, information manipulation, algorithms, emotional headlines, Jadid press, Islam Karimov, national identity, digital communication.

I. KIRISH.

XXI asrda internetning keng tarqalishi va axborot texnologiyalarning jadal rivojlanishi inson tafakkuri va ijtimoiy ong shakllanishida beqiyos rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, jurnalistikaning raqamli shakli – internet jurnalistikasi nafaqat yangiliklar tarqatish, balki ommaviy ongga bevosita ta’sir ko‘rsatish vositasiga aylangan. Har kuni millonlab foydalanuvchilar iste’mol qilayotgan onlayn axborot oqimi orqali insonlarning dunyoqarashi, qadiryatlari va ijtimoiy pozitsiyasi shakllanmoqda. Mazkur jarayonda psixologik mexanizmlar, emotsional sarlavhalar, manipulyativ uslublar va algoritmlarning ahamiyati ortib bormoqda. Aynan shu nuqatai nazardan, internet jurnalistikasi orqali ommaviy ong shakllanishi va unga bo‘lgan psixologik ta’sirlar chuqur tahlil etilishi lozim.

Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” asarida ta’kidlaganidek, axborot va mafkura shiddatli tus olayotgan bugungi davrda yosh avlodni ma’naviy yetuk qilib tarbiyalash, ongini himoyalash- bu davlat va jamiyatning eng ustuvor vazifasidir. Internetda axborot makonini sog‘lomlashtirish, jurnalistikaning tarbiyaviy va mafkuraviy roli juda muhimdir. Shuningdek, o‘zbek matbuoti tarixiga nazar solsak, jadidlar tomonidan asos solingan “Hurriyat”, “Taraqqiy”, “Sadoi Turkiston” kabi nashrlar xalq ongini uyg‘otish, ma’rifatni yoyish va milliy o‘zlikni anglashda o‘rni beqiyosdir. Ularning asarlari bugungi zamonaviy internet jurnalistikasi uchun bebaho ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Maqolaning maqsadi- internet jurnalistikasi orqali ommaviy ong shakllanishining zamonaviy uslublarini, psixologik ta’sir mexanizmlarini hamda bu jarayonda tarixiy merosning, xususan jadidlar matbuoti va milliy yetakchilar qarashlarining ahamiyatini ilmiy asosda o‘rganishdan iborat.

II. TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mazkur tadqiqotda internet jurnalistikasining ommaviy ong va psixologik jarayonlarga ta'siri chuqur o'rganildi. Ilmiy izlanish davomida tahliliy va empirik yondashuvlar uyg'un qo'llanildi. Internet jurnalistikasida paydo bo'layotgan axborotlar, sarlavhalar, vizual materiallar va ularning auditoriyaga ta'siri kontent tahlili asosida o'rganildi [1]. Shu bilan birga, kuzatuv va anonim so'rovnoma metodlari orqali yoshlar auditoriyasi orasida axborotga nisbatan ishonch, hissiy reaksiya va ongda yuzaga kelgan aks ta'sirlar tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida 120 dan ortiq maqolalar o'rganilib, ular orasida emotsional va manipulyativ sarlavhalarning ustunligi aniqlandi. Jumladan, "shok holat", "ishonib bo'lmaydi", "fojiali voqea" kabi iboralar qo'llanilgan sarlavhalar o'quvchilar e'tiborini tortishda va ularda hissiy ta'sir uyg'otishda asosiy vosita sifatida xizmat qilgani kuzatildi [2]. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning katta qismi, ayniqsa yoshlar, axborotni baholashda sarlavhalarga asoslanishini bildirgan. Maqola matnini to'liq o'qimasdan faqat sarlavha asosida xulosa chiqarish holatlari keng tarqalgan bo'lib, bu esa ommaviy ongga yuzaki yondashuv shakllanishiga sabab bo'lmoqda [3]. Tahlillar shuni anglatadiki, internet jurnalistikasida ishlatilayotgan axborot uslublari ko'pincha manipulyativ va shov-shuvli xarakterga ega bo'lib, u jamiyat ongiga bevosita psixologik ta'sir o'tkazadi. Tadqiqotda tarixiy manbalar, xususan, jadid matbuotining axborot yetkazishdagi ma'rifiy, ongni uyg'otuvchi yo'nalishlari bilan hozirgi internet jurnalistikasining uslublari taqqoslab o'rganildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid ziyolilarning "Taraqqiy", "Sadoi Turkiston", "Hurriyat" kabi nashrlarda ilgari surgan g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan [4]. Biroq zamonaviy internet jurnalistikasi ko'proq tijoriylik, osonlik va ko'proq o'quvchi yig'ish maqsadida ijtimoiy ongni faollashtirishdan ko'ra, uni boshqarish, yo'naltirish, ba'zida esa chalg'itish vositasiga aylangan [5]. Shuningdek, tadqiqot nazariy asoslarini mustahkamlash maqsadida Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" asari [6] va Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston — yangi taraqqiyot bosqichi" [7] kabi asarlari tahlil qilindi. Bu manbalarda axborotning inson tafakkuriga ta'siri, ma'naviy immunitetni mustahkamlash, milliy ongni asrash zarurati haqida bildirgan fikrlar zamonaviy internet jurnalistikasi muammolariga ilmiy va mafkuraviy nuqtai nazardan yondashish imkonini berdi. Shunday qilib, olib borilgan ilmiy-empirik tahlillar internet jurnalistikasi vositasida axborot berish jarayonining faqat ma'lumot yetkazish emas, balki ong va ruhiyatga ta'sir ko'rsatish vositasiga aylanganini yaqqol namoyon etdi.

III. NATIJALAR

O'tkazilgan kontent tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy internet nashrlarining sarlavhalarida emotsional va hissiy ifodalardan keng foydalanilmoqda. Taxminan 65% hollarda bu kabi iboralar o'quvchining e'tiborini tortishga xizmat qilsa-da, ayrim hollarda aniqlik va obyektivlikdan chekinishga sabab bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda faol foydalanuvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari esa internet axborotining psixologik ta'sir kuchini yaqqol namoyon qildi. Respondentlarning katta qismi, ya'ni 78 foizi oxirgi o'qigan yangilik

yoki xabardan so‘ng o‘z qarashlarida o‘zgarish yuz berganini ta’kidlagan. Bu esa ommaviy ong shakllanishida jurnalistik axborotning kuchli ta’sir vositasiga aylanganini ko‘rsatadi. Shuningdek, algoritmlar asosida shakllanuvchi kontent oqimi foydalanuvchilarning axborot maydonini toraytirishi mumkin. Har bir foydalanuvchiga ayni turdagi kontentni taklif etuvchi tizimlar “axborot rezonansi” holatini yuzaga keltirib, jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holat tanqidiy fikrlashga to‘sqinlik qiladi va ijtimoiy qutblashuv xavfini kuchaytiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘zbek matbuoti tarixida jadidlar tomonidan asos solingan “Hurriyat”, “Taraqqiy”, “Sadoi Turkiston” kabi nashrlar xalq ongini uyg‘otish, ma’rifatni yoyish va milliy o‘zlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Ularning faoliyati hozirgi internet jurnalistikasi uchun boy nazariy va ma’naviy asos sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch” asarida ilgari surilgan mafkuraviy qarashlar bugungi raqamli axborot muhitida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Yoshlar ongini salbiy axborotlardan himoyalash, ma’naviy immunitetni shakllantirish borasida bu asar muhim g‘oyaviy manba sifatida baholanmoqda. Ushbu natijalar internet jurnalistikasi orqali ommaviy ong shakllanishi, unga bo‘lgan psixologik ta’sir va tarixiy merosning o‘rni haqida chuqur xulosa chiqarish imkonini beradi.

IV. XULOSA VA MUNOZARA

Internet jurnalistikasi zamonaviy jamiyatda axborot tarqatishning eng ta’sirchan vositasiga aylangani bejiz emas. Biroq uning ommaviy ong shakllanishiga ko‘rsatadigan kuchli psixologik ta’siri, ayniqsa algoritmlar orqali tarqatiladigan manipulyativ kontentlar bu jarayonni ikki tomonlama — ijobiy va salbiy oqibatlariga olib keluvchi hodisaga aylantirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab onlayn yangilik platformalari auditoriyani jalb etish maqsadida emotsional sarlavhalardan, psixologik turtkilarni faollashtiruvchi uslublardan keng foydalanmoqda. Bu esa foydalanuvchilarning fikrlashiga, qaror qabul qilishiga va ijtimoiy pozitsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, tarixiy tajriba – xususan jadid matbuotining ijtimoiy ongni uyg‘otishdagi o‘rni, bugungi kun jurnalistikasi uchun juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jadidlar axborotni tarqatishda ongli yondashuv, ma’rifatparvarlik va milliy qadriyatlarni ilgari surishga alohida e’tibor berganlar. Zamonaviy internet jurnalistikasida ham ana shu g‘oyalarni aks ettirish orqali axborot makonini sog‘lomlashtirish, insonlar ongini ma’rifat asosida shakllantirish mumkin. Bundan tashqari, Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch” asarida ta’kidlanganidek, ma’naviy immunitetni kuchaytirish va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy qarshilik ko‘rsatish bugungi axborot asrida eng dolzarb vazifalardan biridir. Internet jurnalistikasida ayni qarashlarni amalda qo‘llash, ya’ni nafaqat faktlarni, balki haqiqat va ma’naviy qadriyatlarni yetkazish orqali axborot xavfsizligini ta’minlash mumkin. Xulosa qilib aytganda, internet jurnalistikasi orqali ommaviy ong shakllanishi nafaqat texnologik, balki chuqur psixologik va mafkuraviy jarayondir. Bu jarayonda jurnalistlar katta mas’uliyat bilan harakat qilishi, tarixiy meros va milliy qadriyatlar asosida yondashuvlarni shakllantirishi zarur. Shuningdek, internet

jurnalistikasining ta’sir kuchi davlatning axborot siyosati, raqamli xavfsizlik strategiyasi va jamiyatdagi ma’naviy muhit bilan uzviy bog‘liqligini unutmaslik kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti, 2020.
2. Hasanboyeva S. Internet jurnalistikasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi, 2021.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
4. Tillyayeva D. Media va psixologiya: ommaviy axborot vositalarining ruhiy ta’siri. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
5. Qodirova Z. Raqamli jurnalistika: muammo va yechimlar. // “Ilmiy izlanishlar” jurnali, 2022, №3.
6. Xoliqov S. Jadid matbuoti va zamonaviy axborot jarayonlari. – T.: Fan va texnologiya, 2017.
7. Akramova M. Internetdagi dezinformatsiya va manipulyatsiya uslublari. // “Axborot va jamiyat” jurnali, 2021, №2
8. Sadullayeva O. G‘aybullayev O. Zamonaviy internet jurnalistikasi va ma’lumotlar xavfsizligi: Axborot xavfsizligi va jurnalistlarning himoyasi. // Qo‘qon DPI Ilmiy xabarlar, 2025, 2-son, A seriya.



**TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA TALABALARNI ILMIY TADQIQOT
FAOLIYATIGA JALB ETISHDA PROFESSOR-O‘QITUVCHILARNING
PEDAGOGIK MAHORATINING AHAMIYATI**

Osboyev Muhammadjon Imaraliyevich

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti assistenti

osboyev9652@gmail.com +998975979652

Annotatsiya: Talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga faol jalb qilish tibbiy ta’limning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, analitik fikrlashni, innovatsiyalarni va dalillarga asoslangan amaliyotni chuqurroq tushunishni rivojlantiradi. Ushbu maqola tibbiyot talabalarini tadqiqotga jalb qilishda rag‘batlantirish va yo‘naltirishda professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahoratining muhim rolini o‘rganadi. U o‘qitishning samarali usullari, murabbiylik, muloqot va klinik amaliyotda tadqiqotlarni qo‘llash qobiliyati talabalarning ilmiy ishlarda ishtirokini sezilarli darajada oshirishiga urg‘u beradi. Pedagogik strategiyalarning talabalar motivatsiyasiga ta’sirini yoritib, tadqiqot tibbiyot muassasalarida o‘qituvchilarning uzluksiz malakasini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Maqola ilmiy tadqiqotni o‘quv jarayonining muhim qismi sifatida birlashtiradigan va shu tariqa ilmiy yutuqlarga ega bo‘lgan sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislarining yangi avlodini tarbiyalaydigan o‘qitishga tizimli yondashuvni ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik mahorat, tibbiy ta’lim, ilmiy tadqiqot, talaba motivatsiyasi, professor-o‘qituvchi, ustoz-shogird, ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanish, tibbiyot muassasalari, o‘qitish strategiyalari, dalillarga asoslangan ta’lim.

**THE IMPORTANCE OF PROFESSORS' AND TEACHERS' PEDAGOGICAL
SKILLS IN INVOLVING STUDENTS IN SCIENTIFIC RESEARCH ACTIVITIES AT
MEDICAL UNIVERSITIES**

Abstract: Active student engagement in research is a critical component of medical education that develops analytical thinking, innovation, and a deeper understanding of evidence-based practice. This article examines the important role of faculty teaching skills in motivating and guiding medical students to engage in research. It highlights that effective teaching methods, mentoring, communication, and the ability to apply research findings to clinical practice significantly enhance student engagement in research. By demonstrating the impact of teaching strategies on student motivation, the study highlights the need for ongoing professional development of medical faculty. The article presents a systems approach to

teaching that integrates research as an integral part of the learning process, thereby developing a new generation of scientifically trained healthcare professionals.

Key words: teaching skills, medical education, scientific research, student motivation, professor-teacher, teacher-student, involvement in scientific research, medical institutions, teaching strategies, evidence-based education.

ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА ПРОФЕССОРОВ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ В ПРИВЛЕЧЕНИИ СТУДЕНТОВ К НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ

Аннотация: Активное участие студентов в исследованиях является важнейшим компонентом медицинского образования, которое развивает аналитическое мышление, новаторство и более глубокое понимание практики, основанной на фактических данных. В данной статье рассматривается важная роль навыков преподавания на факультете в мотивации и руководстве студентами-медиками для участия в научных исследованиях. Он подчеркивает, что эффективные методы обучения, наставничество, коммуникация и способность применять результаты исследований в клинической практике значительно повышают вовлеченность студентов в исследовательскую деятельность. Демонстрируя влияние стратегий обучения на мотивацию студентов, исследование подчеркивает необходимость постоянного профессионального развития преподавателей медицинских вузов. В статье представлен системный подход к преподаванию, который интегрирует исследования как неотъемлемую часть процесса обучения, тем самым формируя новое поколение научно подготовленных специалистов в области здравоохранения.

Ключевые слова: педагогические навыки, медицинское образование, научные исследования, мотивация студентов, профессор-преподаватель, преподаватель-студент, вовлеченность в научные исследования, медицинские учреждения, стратегии обучения, доказательное образование.

KIRISH

Ilmiy tadqiqotlarning tibbiy ta'limga integratsiyalashuvi malakali va yetuk olim shifokorlarni yetishtirish uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, uning ahamiyati keng e'tirof etilganiga qaramay, tibbiyot talabalarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilishda jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda. Pedagogik ko'nikmalar bir qator o'qitish kompetensiyalarini o'z ichiga oladi: samarali muloqot, murabbiylik, o'quv dasturini loyihalash va talabalarda tadqiqotga yo'naltirilgan fikrlashni rivojlantirish qobiliyati. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kuchli qo'llab-quvvatlash va ustoz-shogird tizimidagi talabalarni tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanish ehtimoli ko'proq. Misol uchun, 26 mamlakatdan 318 nafar tibbiyot talabalari ishtirok etgan tadqiqotda 87,7% tadqiqotni tibbiy ta'limning muhim tarkibiy qismi deb hisoblagan bo'lsa-da, 47,5% o'z institutlari tomonidan tadqiqot uchun yordam yo'qligini ko'rsatishgan.

Professor-o‘qituvchilarning ta’limga bo‘lgan ilmiy yondashuvi talabalarining motivatsiyasi va tadqiqotga jalb etilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Chilida o‘tkazilgan tadqiqotda tibbiyot fakulteti talabalarining 85 foizi ilmiy tadqiqot o‘tkazishga qiziqish bildirgan, ammo faqat 47 foizi tadqiqot loyihasida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bu muammo o‘qituvchilarga nafaqat tadqiqot imkoniyatlaridan foydalanishni ta’minlash, balki talabalar ishtirokini faol ravishda rag‘batlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotning afzalliklari ko‘p qirrali bo‘lib, kasbiy rivojlanish, tanqidiy fikrlash va rivojlangan klinik ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Professor-o‘qituvchilar tibbiyot talabalarining tadqiqot yo‘nalishini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, bu nafaqat ularning akademik muvaffaqiyatlariga, balki tibbiyot sohasiga kelajakdagi hissalariga ham ta’sir qiladi.

Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda ushbu maqola tibbiyot fakulteti talabalarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etishda professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahoratining ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish orqali maqola talabalarining tadqiqotga faolligini oshirishi mumkin bo‘lgan samarali o‘qitish strategiyalarini aniqlashga intiladi va shu bilan tibbiy ta’lim va amaliyotni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Tibbiyot talabalarining tadqiqotlarga faol jalb etilishi tibbiyot fanining rivojlanishi va dalillarga asoslangan klinik amaliyotlarning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilardan J.Saydullayev talabalar ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishni pedagogik boshqarish, N.Abdullayeva ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining bo‘ljak o‘qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o‘rni, S.N.Allayarova talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etishda professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahoratining ahamiyati mavzusida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xorijiy olimlardan F.Alsohime Saudiya Arabistonida pediatriya rezidenturasi dasturiga qabul qilingan tinglovchilar o‘rtasidagi tadqiqot muammolari, I.Chenfouh, M.Atassi, A.Yeznasni, A.Lekfif va N.Abda Tibbiyot bakalavriat talabalarining tadqiqotga bo‘lgan bilimlari, munosabati va muammolar, E.A.Hasabo va S.S.Soliman Oltita arab davlatining bakalavriat tibbiyot talabalarida bilimlar, amaliyotlar va tadqiqot yo‘lidagi muammolar, A.A.Mosa, A.J.Mahmud, K.F.Faruk, J.R.Hoji, D.Jacksi, D.K.Mohamed-Saqid va T.R.Mnasakan Tibbiyot talabalarining bilimlari, amaliyoti va tibbiy tadqiqotlar oldidagi muammolar, H.A.Orebi, M.R.Shahin, M.T.Avad Alloh, A.H.Hegazi, M.A.Alshakhs, A.M.Alaithan va A.A.Alhindi Tanta universiteti tibbiyot fakultetida tibbiyot talabalarining tasavvurlari, tajribalari va tadqiqotlarni amalga oshirishdagi muammolar mavzusida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ammo tibbiyot oliygonlarida talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan.

METODOLOGIYA

1. Tadqiqot dizayni: ushbu tadqiqot tibbiyot talabalarining tadqiqot faoliyatiga jalb etilishiga ta’sir etuvchi omillarni har tomonlama tushunish uchun miqdoriy so‘rovlar va sifatli suhbatlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi.

2. Talabalarni o‘rganish: turli tibbiyot muassasalarining bakalavriat tibbiyot talabalaridan iborat. Demografik kelib chiqishi bo‘yicha tabaqalashtirilgan tasodifiy tanlab olish usuli qo‘llaniladi.

3. Ma‘lumotlarni yig‘ish vositalari: Talabalarning demografiyasi, tadqiqotga qiziqishi, muammolar va murabbiylik tajribasiga oid bo‘limlarni o‘z ichiga olgan so‘rovnoma ishlab chiqiladi va ishtirokchilarning kichik to‘plami bilan professor-o‘qituvchilarning tadqiqot faolligini oshirishdagi roli bo‘yicha suhbat o‘tkaziladi.

4. Ma‘lumotlarni tahlil qilish:

a) Miqdoriy ma‘lumotlar: Ma‘lumotlarni umumlashtirish uchun tavsiflovchi statistika qo‘llaniladi, inferensial statistika esa o‘zgaruvchilar orasidagi bog‘lanishni baholaydi.

b) Sifatli ma‘lumotlar: Intervyu stenogrammasidan takrorlanuvchi mavzular va tushunchalarni aniqlash uchun tematik tahlil qo‘llaniladi.

NATIJALAR

1. Ishtirokchilarning demografik profili:

Tadqiqot Bangladeshdagi turli davlat va xususiy muassasalardan 2864 nafar bakalavriat tibbiyot talabalarini qamrab oldi. O‘rtacha yoshi $21,8 \pm 1,8$ yil, ayollar 61,8% ni tashkil etdi.

2. Tadqiqotlarda ishtirok etish va malaka

Ixtiyoriy ishtirok etishi: Talabalarning atigi 21,5% akademik o‘quv dasturidan tashqari tadqiqot faoliyatida ixtiyoriy ravishda qatnashgan.

Rasmiy tadqiqot bo‘yicha trening: atigi 7,2% rasmiy tadqiqot bo‘yicha treningdan o‘tganliklarini bildirgan.

Nashr qilish tajribasi: Taxminan 6,5% ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqilgan jurnallarda birinchi muallif yoki hammuallif sifatida tajribaga ega.

O‘z-o‘zini idrok etuvchi kompetentsiya: Faqat 38,7% tibbiy jurnallarni muntazam o‘qiydi, bu o‘zini o‘zi idrok etgan tadqiqot malakasi cheklanganligini ko‘rsatadi.

3. Tadqiqot bilan shug‘ullanish uchun muammolar:

Vaqt yetishmasligi: 70,4% talabalar vaqt yetishmasligini asosiy muammo sifatida qayd etgan.

Mentorlikning yetarli emasligi: 73,3% muammo sifatida supervayzerlarning yetishmasligini ko‘rsatgan.

Tadqiqot bo‘yicha trening yetarli emas: 93,2% tadqiqotchilik mashg‘ulotlari yetishmasligini ko‘rsatgan.

Cheklangan tadqiqot imkoniyatlari: 68,2% "Ilm-fan haftaligi" kabi ilm-fanni targ‘ib qilish tadbirlarida qatnashmagan.

4. Pedagogik mahoratning tadqiqotga ta’siri

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning rag‘batlantirilishi talabalarning tadqiqotga jalb qilinishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi:

Ustoz-shogird tizimi shakllantirilganda talabalarning 70,7 foizi ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanishi aniqlangan.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari tibbiyot talabalarining ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanishiga to‘sqinlik qiladigan ko‘p qirrali muammolarni ko‘rsatdi. Tadqiqotlar tibbiy ta‘limning asosi sifatida tan olinishiga qaramay, haqiqiy ishtirok etish ko‘rsatkichlari suboptimal bo‘lib qolmoqda. Ushbu nomuvofiqlik aniqlangan muammolarni bartaraf etish va tadqiqotga yo‘naltirilgan akademik muhitni rivojlantirishda professor-o‘qituvchilarning muhim rolidan foydalanish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Global tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib tibbiyot talabalari o‘rtasida bir nechta asosiy muammolar aniqlandi:

Vaqt cheklovlari: Talabalarining katta qismi keng qamrovli kurs ishlari, klinik rotatsiyalar va topshiriqlarni o‘z ichiga olgan tibbiy o‘quv dasturlarining talabchanligi tadqiqot faoliyati uchun cheklangan vaqtni qoldirishini ma‘lum qildi. Bu natija Pokiston va Saudiya Arabistonida olib borilgan tadqiqotlarga mos keladi, bu yerda mos ravishda talabalarining 88,79% va 70,4% vaqt cheklovlarini asosiy muammo sifatida ko‘rsatgan.

Mentorlikning yo‘qligi: Ishtirokchilarning 85,74% ustoz-shogird tizimining yetarli emasligini ularning tadqiqotga jalb etilishida muammo sifatida ko‘rsatgan. Pokistonda talabalarining 85,74 foizi murabbiylik yetishmasligi muhim muammo sifatida qayd etgan.

Tadqiqotga tayyorgarlikning yetarli emasligi: Pokiston va Misrda olib borilgan tadqiqotlarda talabalarining 90,68 foizi ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha bilimlari yo‘qligini ko‘rsatishgan.

Cheklangan tadqiqot imkoniyatlari: Strukturaviy tadqiqot dasturlari va institutsional yordamning kamligi tufayli talabalarining 68,2% “Ilm-fan haftaligi” kabi ilm-fanni targ‘ib qilish tadbirlarida qatnashmaydi, bu ilmiy tadqiqotni rivojlantirish uchun institutsional tashabbuslarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Professor-o‘qituvchilar samarali pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ushbu muammolarni yengishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi:

Faol ustoz-shogird tizimi: Talabalarga faol ustozlik qilayotgan professor-o‘qituvchilar yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, qo‘llab-quvvatlashi va rag‘batlantirilishi, shu orqali talabalarining tadqiqotga bo‘lgan ishonchi va qiziqishini oshirishi mumkin. Kuchli murabbiylikka ega bo‘lgan talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanish ehtimoli yuqori bo‘lgan.

O‘quv dasturlari integratsiyasi: Tibbiy ta‘lim o‘quv dasturlariga tadqiqot komponentlarini kiritish talabalarga tadqiqot bilan shug‘ullanish uchun zarur ko‘nikma va bilimlarni berishi mumkin. Masalan, tadqiqot metodologiyasi kurslari va tadqiqot loyihalari imkoniyatlarini o‘quv rejasiga kiritish talabalarining tadqiqot faoliyatiga jalb etilishini kuchaytirishi mumkin.

Institutsional qo‘llab-quvvatlash: Tadqiqotlarni moliyalashtirish va tadqiqot uchun vaqt ajratish kabi institutsional yordamni ta‘minlash tadqiqot bilan shug‘ullanishdagi ba‘zi muammolarni yengillashtirishi mumkin.

Tibbiyot muassasalari talabalarga tadqiqot dasturlarini yaratishi, tadqiqot resurslariga kirishini ta'minlashi va talabalarning tadqiqotda ishtirokini moliyaviy rag'batlantirishi kerak.

XULOSA

Tadqiqot bilan shug'ullanishdagi muammolarni bartaraf etish tibbiyot muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalarining birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi. Pedagogik mahoratni oshirish va zarur yordam va resurslarni taqdim etish orqali professor-o'qituvchilar tibbiy ta'limda tadqiqotga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat klinik bilimga ega, balki ilmiy-tadqiqot ishlariga ham mohir tibbiyot xodimlarining yetishib chiqishiga, bu orqali tibbiyot sohasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. AlSohime, F. (2018). Research involvement and obstacles among trainees enrolled in a pediatric residency program in Saudi Arabia. *International Journal of Pediatrics and Adolescent Medicine*, 5(3), 88–91. <https://doi.org/10.1016/j.ijpam.2018.06.001>(PMC)
2. Chenfouh, I., Atassi, M., Yeznasni, A., Lekfif, A., & Abda, N. (2024). Knowledge, attitude, and perceived barriers of undergraduate medical students towards research: A cross-sectional questionnaire-based study in Morocco. *SAGE Open Medicine*, 12, 23821205241296985. <https://doi.org/10.1177/23821205241296985>(SAGE Journals)
3. Hasabo, E. A., Soliman, S. S., & IMedRA team. (2022). Knowledge, attitudes, practices, and perceived barriers towards research in undergraduate medical students of six Arab countries. *BMC Medical Education*, 22(1), 44. <https://doi.org/10.1186/s12909-022-03121-3>
4. Mosa, A.A., Mahmood, A.J., Farooq, K.F., Haji, J.R., Jacksi, D., Mohamed-Saqid, D.K., & Mnasakan, T.R. (2023). Medical students' knowledge, attitude, practice, and perceived barriers towards medical research: A cross-sectional study. *Galician Medical Journal*, 31(1), e-GMJ2023-A09. <https://doi.org/10.21802/e-GMJ2023-A09>(ifnmujournal.com)
5. Orebi, H.A., Shahin, M.R., Awad Allah, M.T., Hegazy, A.H., Alshakhs, M.A., Alaithan, A.M., & Alhindi, A. A. (2023). Medical students' perceptions, experiences, and barriers towards research implementation at the Faculty of Medicine, Tanta University. *BMC Medical Education*, 23(1), 902. <https://doi.org/10.1186/s12909-023-04884-z>(BioMed Central)
6. Allayova, S.N.(2021). Talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltirishning dolzarb masalalari. *Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan)*, (5(102)), 17-25
7. MEDICAL INSTITUTES: THE ROLE OF STATISTICAL DATA IN ORGANIZING SCIENTIFIC RESEARCH WORKS OF STUDENTS. (2025). *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 4(4), 363-366. <https://doi.org/10.55640/>

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

PERCEPTIONS OF EFL TEACHERS TOWARDS CHATGPT IN ACADEMIC WRITING CLASSES IN HIGHER EDUCATION: A STUDY FROM UZBEKISTAN

Sayyora Usibaliyeva

*Uzbekistan State World Languages University, Lecturer at
Department of Integrated Language Teaching Course 2*

sayyorausibaliyeva@uzswlu.uz

Annotation This study investigates the perceptions of EFL teachers regarding the use of ChatGPT in academic writing classrooms at Higher Education Institutions (HEIs) in Uzbekistan. As artificial intelligence (AI) tools like ChatGPT increasingly influence educational practices, understanding educators' attitudes becomes essential for effective integration. Adopting a qualitative research design, the study employed semi-structured interviews with five academic writing instructors at Uzbekistan State World Languages University. Thematic analysis of the interview data revealed mixed perceptions. While participants reported ChatGPT's potential to support the writing process, especially in brainstorming, feedback provision, and stress reduction, they also expressed significant concerns about academic integrity, overreliance, and a decline in students' critical thinking and originality. The findings underscore the need for clear institutional guidelines and targeted professional development to equip both teachers and students with the necessary digital literacy for ethical and effective AI use. This research contributes to the growing body of literature on AI in language education, offering valuable insights for policymakers and educators in Uzbekistan's evolving academic landscape.

Keywords: ChatGPT, EFL teachers, academic writing, higher education, artificial intelligence, digital literacy, academic integrity, teacher perceptions, AI in education

O‘ZBEKISTONDAGI OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA AKADEMIK YOZUV DARSLARIDA CHATGPT’GA NISBATAN INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING QARASHLARI

Annatatsiya Ushbu tadqiqot O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida akademik yozuv darslarida ChatGPT sun’iy intellekt vositasidan foydalanishga oid ingliz tili o‘qituvchilarning qarashlarini o‘rganishga qaratilgan. ChatGPT kabi sun’iy intellekt (SI) vositalarining ta’lim jarayoniga tobora chuqur kirib borayotganligi sharoitida, ularning samarali joriy etilishi uchun o‘qituvchilarning fikr va munosabatlarini chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining besh nafar akademik yozuv fani o‘qituvchilari

bilan yarim strukturalashtirilgan suhbatlar o‘tkazildi. Tematik tahlil natijalari o‘qituvchilarning ChatGPT’dan foydalanishga nisbatan qarashlari qarama-qarshi ekanini ko‘rsatdi. Ishtirokchilar ChatGPT'ning rejalashtirish, fikrlarni rivojlantirish, tahrirlash hamda yozuv bo‘yicha tezkor fikr-mulohaza berishdagi foydali jihatlarini e’tirof etgan bo‘lsalar-da, shu bilan birga, talabalarning ushbu vositaga haddan ziyod tayanishi, akademik halollik buzilishi, tanqidiy fikrlash va mustaqil yozuv ko‘nikmalarining zaiflashishidan xavotir bildirganlar. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida SI vositalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish uchun aniq metodik ko‘rsatmalar hamda o‘qituvchilar va talabalar uchun raqamli savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda SI dan foydalanishga doir ilk ilmiy ishlar qatoriga kiradi va mamlakatda amalga oshirilayotgan raqamli hamda ta’limiy islohotlar sharoitida siyosat yurituvchilar va amaliyotchilar uchun foydali tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: ChatGPT, ingliz tili o‘qituvchilari, akademik yozish, oliy ta’lim, sun’iy intellekt, raqamli savodxonlik, akademik halollik, o‘qituvchilar fikri, ta’limda AI (sun’iy intellekt)

ВЗГЛЯДЫ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО КАК ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА НА ИСПОЛЬЗОВАНИЕ CHATGPT НА ЗАНЯТИЯХ ПО АКАДЕМИЧЕСКОМУ ПИСЬМУ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИЗ УЗБЕКИСТАНА.

Аннотация Данное исследование направлено на изучение взглядов преподавателей английского языка как иностранного в Узбекистане на использование искусственного интеллекта (ИИ) ChatGPT на занятиях по академическому письму в вузах. С учётом стремительного внедрения таких ИИ-инструментов, как ChatGPT, в образовательный процесс, важно глубоко понять отношение преподавателей к их применению для обеспечения эффективной интеграции в учебную практику. Исследование проведено с использованием качественного подхода: были проведены полуструктурированные интервью с пятью преподавателями академического письма из Узбекского государственного университета мировых языков. Тематический анализ выявил противоречивые мнения преподавателей относительно использования ChatGPT. Участники признали полезность ChatGPT в планировании, развитии идей, редактировании текстов и предоставлении оперативной обратной связи по письму, однако также выразили обеспокоенность чрезмерной зависимостью студентов от ИИ, угрозами академической честности, а также ослаблением критического мышления и навыков самостоятельного письма. Результаты исследования подчеркивают необходимость разработки чётких методических рекомендаций по использованию ИИ в высшем образовании, а также проведения программ повышения квалификации для преподавателей и развития цифровой грамотности у студентов. Настоящая работа входит в число первых академических исследований по использованию искусственного

интеллекта в образовательном контексте Узбекистана и предлагает практические рекомендации для политиков и специалистов в условиях продолжающихся цифровых и образовательных реформ в стране.

Ключевые слова:

ChatGPT, преподаватели английского языка, академическое письмо, высшее образование, искусственный интеллект, цифровая грамотность, академическая честность, восприятие учителей, ИИ в образовании

1. INTRODUCTION

Artificial Intelligence (AI) is increasingly influencing various aspects of human life, including the field of education (Benson, 2024). With its capacity for automation, AI is reshaping teaching and learning processes, introducing both new challenges and opportunities for educators and students. This transformation is particularly evident in language education, especially within English as a Foreign Language (EFL) classrooms. Among AI tools, ChatGPT has gained widespread use in writing instruction. As noted by Dergaa et al. (2023), ChatGPT is a freely accessible online chatbot with a wide range of applications, from generating concise book summaries to producing extensive essays. What sets ChatGPT apart from traditional digital writing tools is its ability to analyze the structure and content of writing tasks while offering detailed and holistic feedback (Shakil & Siddiq, 2024). Unlike conventional tools that primarily focus on grammar and style, ChatGPT provides multiple suggestions for expressing ideas, thereby enhancing clarity, coherence, and effectiveness in writing. Understanding educators' perceptions of ChatGPT is essential to gain deeper insights into how such advanced technologies can be integrated into EFL settings, particularly in academic writing instruction. Therefore, this study aims to explore educators' perceptions of using ChatGPT in academic writing classrooms at Higher Education Institutions (HEIs) in Uzbekistan, as academic writing is primarily taught at the university level.

2. LITERATURE REVIEW

ChatGPT is reshaping societal perceptions of writing culture and transforming how writing is taught and acquired in English as a Second Language (ESL) contexts. Its influence is particularly evident in academic writing, where it serves as a multifunctional tool that supports brainstorming, provides feedback, and assists in proofreading. On the positive side, many educators acknowledge its potential to scaffold student writing and enhance the quality of written output. However, its widespread accessibility has also raised critical concerns about academic integrity. As Shakil and Siddiq (2024) note, students increasingly rely on ChatGPT to generate entire essays, sometimes ranging from 1,000 to 1,500 words, a practice that challenges the authenticity of student work and raises ethical issues in academic writing.

Numerous studies have reported that educators generally hold negative attitudes toward the use of ChatGPT in writing classrooms. Shen et al. (2023) found that 63% of the abstracts in their dataset had been generated by ChatGPT, thereby raising serious concerns about the

credibility, reliability, and authenticity of research publications. In this context, issues such as plagiarism and a decline in originality have become more prevalent (Thorp, 2023). Shakil and Siddiq (2024) also emphasize that the use of ChatGPT in ESL writing classes presents significant challenges, as students may become dependent on the tool, using it to plagiarize rather than develop their own writing skills.

Nonetheless, not all perspectives on the use of AI in education are negative. Kim and Kim (2022) investigated the use of an AI-enhanced scaffolding system in STEM education and found that most teachers viewed it positively, citing its effectiveness in supporting students' scientific writing. However, concerns were also raised about the evolving role of teachers and the lack of transparency in AI decision-making processes. Similarly, Nguyen (2023), in a study conducted at Van Lang University, reported that EFL instructors were generally enthusiastic about incorporating ChatGPT into writing lessons. However, the study also identified key barriers such as insufficient professional development and a lack of familiarity with AI tools among teachers.

In brief, above mentioned studies suggest that while ChatGPT has the potential to enhance writing instruction, particularly through personalized feedback and writing support, its integration into the classroom is accompanied by significant pedagogical and ethical challenges. These include concerns about academic misconduct, shifts in teacher roles, and the need for teacher training and AI literacy.

Although several international studies have examined teachers' perceptions of ChatGPT in writing instruction, there remains a noticeable gap in the literature concerning the specific context of Uzbekistan. In response, the present study seeks to address this gap by exploring the following research question:

What are the perceptions of EFL teachers regarding the use of ChatGPT in academic writing classrooms in Higher Education Institutions (HEIs) in Uzbekistan?

3. METHODS

3.1 RESEARCH METHODS

This study adopts a qualitative research approach, using semi-structured interviews to investigate EFL teachers' perceptions of ChatGPT in academic writing classrooms. As Karatsareas (2022) explains, semi-structured interviews do not strictly adhere to a predetermined sequence of questions; rather, they are designed to ensure that key topics of interest are addressed, while allowing flexibility in the flow of conversation. Karatsareas (2022) further states the researcher follows an interview protocol but also monitors the direction of the discussion, asking spontaneous follow-up questions when participants introduce new and relevant insights. This adaptability enables a deeper exploration of emerging themes. Therefore, semi-structured interviews were chosen as an effective method for gaining rich, nuanced understanding of EFL educators' views on the use of ChatGPT in academic writing instruction.

3.2 DATA ANALYSIS

After collecting the data, I employed thematic analysis to examine the responses from the semi-structured interviews. Specifically, I followed Dörnyei’s (2007) four-phase process for analyzing semi-structured interviews: transcribing the data, pre-coding and coding, generating themes and ideas, interpreting the findings, and drawing conclusions.

3.3 PARTICIPANTS

This study involved five EFL teachers from Uzbekistan State World Languages University who teach the Academic Writing course. To protect their identities, pseudonyms were used throughout the research.

Pseudonyms	Module	Experience	Age
Dilbar	Academic Writing	2	30
Aziza	Academic Writing	2	28
Nigora	Academic Writing	1	25
Muxlisa	Academic Writing	1.5	26
Khadicha	Academic Writing	3	31

3.4 INFORMED CONSENT

All participants in the semi-structured interviews were provided with clear and comprehensive information about the purpose, procedures, and voluntary nature of the study. They were informed that their participation was entirely optional and that they could withdraw from the study at any time without providing a reason and without facing any negative consequences. Participants were also assured that their responses would remain confidential and be used for academic research purposes, with anonymity preserved throughout the reporting process.

3.5 LIMITATIONS

While conducting this study, I faced several challenges. Firstly, recruiting suitable participants was difficult, as more experienced teachers lacked sufficient knowledge about using AI tools like ChatGPT in academic writing classrooms. As a result, the study primarily involved younger and less experienced educators. Secondly, due to the limited number of participants, a mixed-methods approach could not be employed, which might have enhanced the reliability of the findings. As Dörnyei (2007) notes, mixed-method research strengthens data by complementing quantitative findings with qualitative insights and vice versa. Nonetheless, the data gathered from the five ESL teachers provided valuable insights into their perceptions of using ChatGPT in academic writing classrooms.

4. FINDINGS

The findings reveal that most EFL teachers who participated in this study believe that while ChatGPT is facilitating the writing process, they also expressed significant concerns regarding its impact on academic integrity and the authenticity of student work.

4.1 PERCEIVED BENEFITS

Most participants viewed ChatGPT as a supportive and innovative tool that can positively influence the academic writing process when used appropriately. They appreciated its ability to assist students at various stages of writing, especially during the planning and revision phases. Several teachers highlighted that ChatGPT helps students overcome writer's block by offering alternative ideas and structures, thereby encouraging creativity and critical thinking. One participant, Nigora, stated:

"When students are stuck, ChatGPT gives them a push. It's not about giving answers, but offering direction."

Participants also mentioned that the tool provides immediate feedback on grammar, vocabulary, and sentence structure, which can be especially helpful for learners with limited linguistic resources. This kind of assistance was seen as a way to build students' confidence and reduce anxiety associated with academic writing. Khadicha reported:

"It gives students the opportunity to self-correct before coming to the teacher. This makes writing less stressful for them."

Overall, participants believe that when integrated responsibly into the writing process, ChatGPT can serve as a valuable pedagogical aid that supports learner autonomy, reinforces language accuracy, and enhances writing fluency.

4.2 CONCERNS ABOUT ACADEMIC INTEGRITY AND AI-GENERATED CONTENT

Despite recognizing its advantages, participants expressed significant concerns about the overreliance on ChatGPT and its implications for academic honesty. A major issue raised was the lack of originality in student submissions, with some teachers noting that students were using AI-generated texts without sufficient personal input. For example, Aziza shared her observation:

"Since students started using AI, namely ChatGPT, most essays I check look almost the same, as if they were copied directly from AI."

Moreover, Dilbar and Muxlisa observed that the emergence of ChatGPT has led most students to disengage from critical thinking in the writing process. They noted that students often rely on the content generated by the tool without questioning and evaluating it. This tendency to "copy and paste" information without deeper engagement diminishes the development of critical writing skills and undermines the purpose of academic inquiry.

Most participants noted that students are not yet adequately informed about the appropriate use of ChatGPT and other AI tools within educational contexts, particularly in academic writing. This lack of understanding often leads to misuse, including overreliance on

AI-generated content without proper critical engagement and adherence to academic integrity standards.

In brief, the findings indicate that participants hold mixed perceptions about the use of ChatGPT in academic writing classrooms. While they emphasized its benefits, such as assisting in brainstorming, providing instant feedback, and reducing stress, concerns remain regarding academic integrity and students' overreliance on the tool, which may hinder critical engagement in the writing process.

5. DISCUSSION

The findings of this study indicate that EFL teachers hold mixed and contrasting views regarding the use of ChatGPT in academic writing classroom. While they outline its pedagogical benefits, such as facilitating brainstorming, providing instant feedback, and reducing students' writing anxiety, they also express considerable concerns regarding academic integrity and critical engagement. This finding align with previous studies (Dergaa et al., 2023; Shakil & Siddiq, 2024), participants emphasized that ChatGPT can serve as a supportive tool, particularly in the early stages of the writing process. The findings of this research reveal that ChatGPT helps students overcome writer's block and encourages them to explore different ways of structuring and expressing their ideas. In this regard, ChatGPT was perceived as a means of fostering learner autonomy and enhancing writing fluency.

Furthermore, feedback offered by ChatGPT on grammar, vocabulary, and sentence structure was perceived as beneficial. It indicates that such feedback enables students to revise their texts before consulting their instructors, thereby promoting self-correction and reducing anxiety. These findings align with Nguyen's (2023) research, which found that ChatGPT contributes to lowering students' affective filter and enhancing their writing confidence.

However, the findings revealed unfavourable perceptions about the application of ChatGPT in academic classrooms. A major concern was the overreliance on ChatGPT. In other words, a decline in students' originality and critical thinking. As this study revealed a noticeable uniformity in student essays, suggesting that AI-generated content may be used without adequate personal contribution and reflection. This echoes the concerns raised by Thorp (2023) and Shen et al. (2023) regarding the lack of authenticity in academic work and the potential for plagiarism.

Moreover, the study revealed that oste students are not sufficiently informed about the ethical and pedagogical boundaries of using AI in academic contexts. This lack of digital literacy often leads to misuse, with students depending heavily on ChatGPT without engaging in meaningful revision or evaluation of the generated content. Such practices might undermine the development of essential academic skills, including critical thinking, synthesis, and argumentation. This finding indicates that university administration should be responsible for providing structured guidelines on how to use AI in academic context to *develop digital literacy skills in students to navigate the evolving academic landscape.*

Another key issue I observed as a researcher concerns teacher readiness. While the teachers in this study were mostly younger and more willing to explore AI tools, many older educators tend to be less familiar with these technologies. As Kim and Kim (2022) highlight, successful integration of AI in education depends not only on access to technology but also on targeted professional development that equips teachers with the essential skills and knowledge. Therefore, support and guidelines should be provided not only to students but also to teachers.

6. CONCLUSION

This study aimed to explore EFL teachers' perceptions of using ChatGPT in academic classrooms. The findings revealed mixed views, highlighting both the potential benefits and concerns associated with the tool. To the best of my knowledge, this is the first study to examine this emerging technological development within the Uzbekistani context, offering a foundation for future research.

However, the study has several limitations. Firstly, future research could include a larger and more diverse sample of participants from various universities where Academic English is taught, providing broader insights into the adoption and impact of ChatGPT. Secondly, additional research methods, such as classroom observations, could be employed to better assess the practical application of ChatGPT in academic writing settings.

This study contributes to the growing research on AI-assisted language learning by shedding light on teacher attitudes in a specific post-Soviet educational context. It also offers practical implications for policymakers and educators aiming to integrate AI tools effectively in EFL instruction. The findings underscore the importance of targeted professional development programs and institutional support to prepare teachers for effective use of AI. Given Uzbekistan's ongoing digital and educational reforms (Tulenova, et al, 2024) these insights are especially relevant for shaping future policy and pedagogical frameworks.

REFERENCES

1. Benson, S. A. (2024, July). Embracing technologies to facilitate student learning and future readiness. In *2024 International Symposium on Educational Technology (ISET)* (pp. 344–346). IEEE.
2. Dergaa, I., Varma, A., Tabben, M., Malik, R. A., Sheik, S., & Chamari, K. (2023). From human writing to artificial intelligence generated text: Examining the prospects and potential threats of ChatGPT in academic writing. *Biology of Sport*, 40(2), 615–622.
3. Dornyei, Z. (2007). *Research methods in applied linguistics*. Oxford University Press.
4. Karatsareas, P. (2022). Semi-structured interviews. In *Research methods in language attitudes* (pp. 99–113).
5. Kim, N. J., & Kim, M. K. (2022). Teacher's perceptions of using an artificial intelligence-based educational tool for scientific writing. In *Frontiers in Education*, Frontiers Media SA, p. 755914.

6. Nguyen Thi Thu, H. (2023). EFL teachers' perspectives toward the use of ChatGPT in writing classes: A case study at Van Lang University. *International Journal of Language Instruction*, 2(3), 1–47.
7. Shakil, E., & Siddiq, S. (2024). ESL teachers' perceptions about ChatGPT as a threat to analytical writing abilities of ESL learners at graduate level. *Pakistan Languages and Humanities Review*, 8(1), 115–128.
8. Shen, Y., Heacock, L., Elias, J., Hentel, K. D., Reig, B., & Bruno, M. A. (2023). ChatGPT and other large language models are double-edged swords. *Radiology*, 307(2), e230163.
9. Thorp, H. H. (2023). ChatGPT is fun, but not an author. *Science*, 379(6630), 313.
10. Tulenova, K., Ubaydullayeva, S., Gaziyeva, R., Mamayusupov, U., Mamadjonova, M., & Turdikulova, E. (2024, June). The introduction of information technologies into educational and laboratory complexes is an important step towards the digitalization of Uzbekistan. In *2024 4th International Conference on Technology Enhanced Learning in Higher Education (TELE)* (pp. 48–53). IEEE.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARIDA RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA MAXSUS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDOSHUVI

Qodirov Baxtiyor Eshmurzayevich

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti

p.f.f.d (PhD)

b.e.qodirov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning raqamli ta’lim muhitida maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondoshuvlar yoritilgan. Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida ta’lim sohasida yuz berayotgan tezkor o‘zgarishlar talabalarning kasbiy va amaliy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Shu sababli, pedagogik jarayonga innovatsion yondoshuvlarni joriy etish orqali talabalarning faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlarni hal qilish malakasi, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlik kabi maxsus kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maqolada raqamli ta’lim muhitining tarkibiy qismlari, zamonaviy raqamli vositalar (platformalar, simulyatorlar, sun‘iy intellekt yordamida o‘quv tizimlari, virtual laboratoriyalar) hamda ularning o‘quvchilar kompetensiyalariga ta’siri atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi orqali individual yondashuv, differensial o‘qitish, hamkorlikda ta’lim, loyiha asosida o‘rganish kabi metodlarning samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, innovatsion yondoshuv, maxsus kompetensiyalar, raqamli savodxonlik, STEAM, VR, gamifikatsiya.

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ КОНКРЕТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: В данной статье освещаются инновационные подходы, направленные на развитие специальных компетенций учащихся в цифровой образовательной среде. Быстрые изменения, происходящие в сфере образования в условиях сегодняшней глобализации и цифровизации, требуют вывода профессиональной и практической подготовки учащихся на новый уровень. Поэтому, внедряя инновационные подходы к педагогическому процессу, приобретает актуальное значение формирование у учащихся

специальных компетенций, таких как не только теоретические знания, но и практические навыки, умение решать проблемные ситуации, креативность, критическое мышление, цифровая грамотность.

В статье рассматриваются компоненты цифровой образовательной среды, современные цифровые инструменты (платформы, симуляторы, системы обучения с использованием искусственного интеллекта, виртуальные лаборатории), а также их компетенции для учащихся.

Ключевые слова: цифровое обучение, инновационный подход, специализированные компетенции, цифровая грамотность, Steam, VR, геймификация.

AN INNOVATIVE APPROACH TO DEVELOPING SPECIFIC COMPETENCES IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS

Annotation: this article covers innovative approaches aimed at developing special competencies of students in the digital educational environment. In the context of today's globalization and digitization, the rapid changes that are taking place in the field of Education dictate the professional and practical training of students to a new level. Therefore, by introducing innovative approaches to the pedagogical process, the formation of special competencies of students, not only theoretical knowledge, but also practical skills, skills for solving problem situations, creativity, critical thinking and digital literacy, becomes relevant.

The article describes the components of the digital education environment, modern digital tools (platforms, simulators, artificial intelligence-assisted learning systems, virtual laboratories) as well as their readers kompeten.

Keywords: digital education, innovative approach, special competencies, digital literacy, STEAM, VR, gamification.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimining raqamlashtirilishi global tendensiyaga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga integratsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Raqamli O'zbekiston - 2030"** dasturi,¹¹² shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan vazifalar aynan raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi.

Raqamli ta'lim muhiti - bu o'quvchilarga mustaqil fikrlash, axborot bilan ishlash, muammoni tahlil qilish, yechim topish, loyihalash kabi **maxsus kompetensiyalarni rivojlantirish** uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, raqamli muhit ta'lim oluvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

¹¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Raqamli O'zbekiston — 2030"** dasturi

Ushbu maqolada aynan raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli ta’limni joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borishganlar. Tadqiqot muammosi sohasida mamlakatimiz olimlaridan A.A.Allamurodov, A. X.Xusanov, R. B. Abdullayev, N. M. Toshpulatov, M. A. Qodirov, S. S. Karimov va Z. M. Nazarov kabilar ilmiy izlanishlar olib borgan.

“Raqamli texnologiya”, “texnologiya” “elektron mobil ilova”va “axborot kommunikatsiyalari” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini tadqiq qilish, shakllantirish, rivojlantirish hamda tashxislash masalalari bo‘yicha mamlakatimiz olimlari: N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo‘ysinov, R.X.Fayzullaev, K.T.Umataliyeva, N.Sh.Turdimov, L.R.Zaripov, MDH va xorijiy mamlakatlar olimlari: E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, O.N.Yarigin, C.R.Berger, D. Pepper, J.Pavelka va boshqalar tadqiqotlar olib borgan.

Ta’lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari, ta’limiy dasturlarni qo‘llash nazariyasi, metodikasi va amaliyoti A.A.Abduqodirov, O.A.Abduquddusov, U.Sh.Begimqulov, D.N.Mamatov, A.R.Jo‘rayev, Q.T.Olimov, N.I.Taylaqov, O.X.To‘raqulov, F.S.To‘rabekov, J.A.Xamidov, xorijiy mamlakatlar olimlaridan N.F.Talizina, G.Selveyn, B.Bloom, T.Dora va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarning nafaqat akademik bilimlarini, balki ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydigan maxsus kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. An’anaviy ta’lim tizimidan farqli o‘laroq, raqamli muhitda o‘quvchilar interaktiv vositalar, sun’iy intellekt imkoniyatlari, o‘yinlashtirish mexanizmlari va virtual haqiqat texnologiyalari orqali faol ishtirokchi sifatida ta’lim jarayoniga jalb qilinadilar. Bu holat ularda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, raqamli vositalardan ongli foydalanish, axborotni tahlil qilish va ishlab chiqish kabi dolzarb kompetensiyalarni shakllantiradi.

Birinchidan, ta’limga innovatsion yondoshuv sifatida keng qo‘llanilayotgan STEAM modeli – ya’ni, fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani uyg‘unlashtirgan ta’lim yondoshuvi o‘quvchilarni murakkab fikrlashga, tizimli tahlilga va amaliyotda qo‘llashga yo‘naltiradi. Bu metod o‘quvchilarning faqat nazariy bilim emas, balki real hayotga yaqin loyihalar orqali bilimni amaliyot bilan bog‘lash ko‘nikmasini shakllantiradi. Masalan, raqamli texnologiyalar yordamida elektron qurilmalar yasash, dasturlash, 3D modellash kabi topshiriqlar STEAM doirasida o‘rgatiladi.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt asosida ishlovchi personalizatsiyalangan o‘quv platformalari (Khan Academy, Coursera, Moodle) o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ularning bilim darajasi, qiziqishlari va rivojlanish sur’atiga qarab moslashtirilgan ta’lim yo‘nalishini taklif etadi. Bunday platformalar orqali har bir o‘quvchi mustaqil ravishda

bilim olishi, o‘zini baholashi, kamchiliklarini ko‘rib chiqishi va to‘g‘rilashi mumkin bo‘ladi. Bu esa ularning mustaqilligi va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini kuchaytiradi.

Uchinchidan, raqamli ta’limda gamifikatsiya – ya’ni o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali motivatsiyani oshirish usuli ham keng qo‘llanmoqda. Bu metod o‘quvchilarda musobaqalashish, ishtirokchilik, natijaga erishish, mukofot olish kabi psixologik omillarni ishga solgan holda, ularni bilim olish jarayonida faol bo‘lishga undaydi. Masalan, Classcraft, Kahoot, Quizizz kabi platformalar orqali o‘quvchilar test sinovlarini o‘yin tarzida bajaradilar, reyting tizimida qatnashadilar va shaxsiy muvaffaqiyatlarini raqamli belgilar orqali kuzatib boradilar.

Shuningdek, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalarining o‘quv jarayonida qo‘llanilishi murakkab tushunchalarni vizual va interaktiv usulda tushuntirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, tabiiy fanlar, tarix, geografiya kabi tasavvurga tayanadigan fanlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, biologiya fanida inson organizmining 3D modeli orqali ichki a‘zolari virtual ko‘rish, tarix darslarida esa tarixiy obidalarni VR texnologiyasi yordamida “sayr qilish” o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, raqamli muhitda o‘quvchilar o‘zaro hamkorlikda ishlashga, guruhlarda loyihalar yaratishga, o‘z fikrini ochiq ifodalashga va jamoada mas’uliyatni bo‘lishishga o‘rganadilar. Bu jarayon Google Docs, Miro, Padlet kabi platformalarda raqamli hamkorlik vositalari orqali tashkil etiladi. bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari birgalikda raqamli prezentatsiyalar tayyorlaydilar, infografikalar yaratadilar, muammoli vaziyatlar yechimini taklif qiladilar va o‘zaro fikr almashadilar. Bunday faoliyatlar esa kommunikativ kompetensiyalar, liderlik va jamoaviy ishlash malakalarini rivojlantiradi.

Raqamli ta’limning yana bir zarur elementi bu – raqamli savodxonlik va axborot madaniyati hisoblanadi. Har bir o‘quvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan ishlashni bilishi bilan birga, ularni xavfsiz, axloqiy va maqsadli foydalanish madaniyatini ham egallashi zarur. Bu yerda mediasavodxonlik, mualliflik huquqlariga rioya qilish, feyk axborotlarni ajrata olish, onlayn etik qoidalarga amal qilish kabi kompetensiyalar alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, bugungi kunda kiberxavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish kabi masalalar global darajada dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda ta’lim tizimida chuqur islohotlar olib borilayotgani raqamli texnologiyalar asosida bilim berish sifatini tubdan oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Talabalarning raqamli muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan maxsus kompetensiyalarni shakllantirish, avvalo, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni integratsiyalash orqali amalga oshiriladi. Bu yondoshuvlar nafaqat ta’limning mazmunini yangilaydi, balki metod va vositalarini ham zamonaviylashtiradi.

Rivojlantirishning eng asosiy innovatsion yondoshuvlaridan biri bu - **STEAM modelidir**. U fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san’at (Art) va matematika (Mathematics)ni integratsiyalangan holda o‘qitishga asoslanadi. Bunday

yondashuv o‘quvchilarda tizimli fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, real loyihalar asosida o‘qitish orqali ular mustaqil qaror qabul qilish, tajriba o‘tkazish, muhandislik yechimlarini taklif etish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, **shaxsiylashtirilgan ta’lim** (personalized learning) raqamli muhitda innovatsion rivojlantirish yondoshuvining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Har bir o‘quvchining individual qobiliyati, ehtiyojlari, o‘rganish sur‘ati inobatga olingan holda sun‘iy intellekt asosidagi adaptiv platformalar yordamida ta’lim mazmuni moslashtiriladi. Bu o‘z-o‘zini o‘rganish, o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy fikrlash va mustaqillik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Gamifikatsiya, ya’ni ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarda ishtirokchanlik, motivatsiya, qiziqish uyg‘otiladi. Bu yondashuv raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini mustahkamlaydi, ayniqsa interaktiv testlar, turnirlar, ballar va reytinglar asosida tashkil etilgan darslar bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida bilim olishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Bundan tashqari, **virtual (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalarini** ta’limga integratsiya qilish orqali murakkab bilimlarni vizual va interaktiv tarzda o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, ularni faol ishtirokchi sifatida o‘qitish jarayoniga jalb etadi. Ayniqsa, tabiiy fanlar va tarix kabi yo‘nalishlarda ushbu texnologiyalar mavzularni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvlar doirasida yana bir muhim jihat bu - **hamkorlikda o‘rganish va loyiha asosida ishlashni** yo‘lga qo‘yishdir. Raqamli muhitda o‘quvchilar onlayn platformalar (Google Docs, Padlet, Miro) orqali birgalikda ishlashni, jamoada muhokama qilishni, fikr almashishni va yechim ishlab chiqishni o‘rganadilar. Bu ularning kommunikatsion, liderlik, muammolarni tahlil qilish, va jamoada ishlash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Shunday qilib, raqamli ta’lim muhiti o‘quvchining fikrlash darajasini chuqurlashtiradi, mustaqil o‘rganish malakasini shakllantiradi, jamiyatda faol ishtirok etishga undaydi va uni XXI-asrning raqobatbardosh fuqarosiga aylantiradi. Innovatsion metodlar va texnologiyalar orqali tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchining har tomonlama – intellektual, texnologik va axloqiy jihatdan rivojlanishini ta’minlaydi.

Xulosa. Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Innovatsion yondoshuvlar – jumladan, STEAM modeli, gamifikatsiya, personalizatsiyalangan o‘qitish, VR/AR texnologiyalaridan foydalanish, hamkorlikka asoslangan loyiha ishlari va raqamli savodxonlikni shakllantirish orqali o‘quvchilar nafaqat texnologik vositalardan samarali foydalanishni, balki mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, axborot bilan ishlash va jamoada faoliyat yuritish kabi dolzarb ko‘nikmalarni egallaydilar.

Bugungi kunda bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida kompetensiyalarni shakllantirish faqat bilim berish bilan emas, balki o‘quvchini faol, ijodiy va mas’uliyatli

ishtirokchi sifatida tayyorlash bilan bog‘liq. Shuning uchun ham innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga izchil integratsiya qilish, raqamli muhitni pedagogik maqsadlarga muvofiq tashkil etish va o‘qituvchilarning zamonaviy metodlardan samarali foydalanish ko‘nikmasini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining raqamli ta’lim muhitida maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni kelajak kasblari va global axborot jamiyati sharoitlariga tayyorlashda muhim poydevor vazifasini bajaradi. Shu boisdan bu yo‘nalishda tizimli ishlarni davom ettirish, yangi texnologiyalarni ta’limga joriy etish va ilg‘or tajribalarni ommalashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni, 2020 yil.
3. Azizxo‘jayev A.A. Ta’limda raqamli texnologiyalar, Toshkent: Fan, 2022.
4. UNESCO (2021). Digital Learning Competency Framework.
5. Kurbonov J., Allayorova S. Zamonaviy darsda raqamli vositalardan foydalanish, 2023.
6. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy–pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) diss. – Toshkent, 2019. – 200 b.
7. Qodirov B.E. Um umiy o‘rta ta’lim maktablarida to‘g‘arak ishlarini takomillashtirish. Mehnat va kasb ta’limi bakalavriat yo‘nalishlarida texnik fanlarni o‘qitishning dolzarb muammolari mavzusidagi Respublika ilmiy–texnik anjumani material. – Namangan, 2019. – B. 266-269.
8. Qodirov B.E. Texnologiya ta’lim praktikumi fanini o‘qitishda innovatsion–pedagogik texnologiyalardan foydalanish // Ta’lim va texnologiya 3–qism Respublika ilmiy–amaliy anjumani materiallari. – Termiz, 2018. B. 365–369.
9. Shomirzaev M.X. Milliy hunarmandchilikning shakllanishi va spektrial-variativ rivojlanishida fanlar integratsiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – 164 b.
10. Usmonova S.B. va boshqalar. “Ta’limda internet texnologiyalari” moduli bo‘yicha O‘UM. – Toshkent, 2016. – 131 b.



**ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILAR TA’LIMIDA
«ATROFIMIZDAGI OLAM» BILAN TANISHTIRISH METODIKASI.**

Haydarov Islomjon Hatamjon o‘g‘li
haydarovislomjon359@gmail.com

Qo‘qon DU Maxsus pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktablarida tabiatshunoslik darslarida atrof olam bilan tabiatni kuzatish orqali tanishtirish usullari. O‘quchilarda tabiat haqidagi aniq bilimlar va fikrlar elementar tushunchalarning umumlashuvi bilan shakllantirish, o‘quvchilar tabiatning bir xil ob‘ektlarini har xil fasllarida kuzatib tabiatning o‘zgarishini va rivojlanishini o‘rganishlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Atrof olam, tajriba, tahlil, kuzatish, tajriba maydonchasi, jonli tabiat, jonsiz tabiat, metodika, hodisa, tabiatshunoslik.

**METHODOLOGY OF INTRODUCING THE "WORLD AROUND US" IN THE
EDUCATION OF STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENTS.**

Annotation: This article describes methods of introducing the world around us through observation of nature in natural science lessons in schools for children with hearing impairments. It is described that students form specific knowledge and ideas about nature through generalization of elementary concepts, and students study the changes and development of nature by observing the same objects of nature in different seasons.

Keywords: Environment, experiment, analysis, observation, experimental site, living nature, inanimate nature, methodology, phenomenon, natural science.

**МЕТОДИКА ВНЕДРЕНИЯ «ОКРУЖАЮЩЕГО МИРА» В ОБУЧЕНИЕ
УЧАЩИХСЯ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА.**

Аннотация: В статье рассматриваются методы знакомства детей с нарушениями слуха с окружающим миром посредством наблюдения за природой на уроках естествознания в школах. Утверждается, что конкретные знания и представления о природе должны формироваться у учащихся путем обобщения элементарных понятий, а изменения и развитие природы учащиеся должны изучать, наблюдая за одними и теми же объектами природы в разные времена года.

Ключевые слова: Окружающая среда, эксперимент, анализ, наблюдение, экспериментальная площадка, живая природа, неживая природа, методология, явление, естествознание.

KIRISH

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar birinchi va ikkinchi sinfda atrof olam bilan tabiatni kuzatish orqali tanishadilar. O‘quvchilarda tabiat haqidagi aniq bilimlar va fikrlar elementar tushunchalarning umumlashuvi bilan shakllanadi.

Ta’limda asosiy o‘rinni malaka tashkil etadi. O‘quvchilarda malakalarni hosil qilishga tayyorlashda, o‘qituvchi kuzatilganlarni tahlil qilishga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Tajribani ko‘rsatishdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga bilim ko‘nikmalarini hosil qilish uchun savollar beradi. (Nima uchun qishda qor yog‘adi), kuzatish uchun topshiriqlar beradi (kuzatuv davomida, qor istilganda nima yuz beradi) so‘ngra, tajribani qanday o‘tkazish kerakligi haqida tushuntiradi (nimani olish kerak, nimani kuzatish kerak) va kuzatuvni tashkil qiladi. Oxirgi bosqichida o‘quvchilar tajribadan nimani o‘rganganliklarini gapirib beradilar va shu tariqa oldindan berilgan savollarga javob beradilar.

Birinchi va ikkinchi sinflar bilan ishlash jarayonida ayniqsa, tajriba mobaynida o‘quvchilar faoliyatini tashkillashtirishda ma’lum bir tizimga rioya qilish muhim hisoblanib, savol va topshiriqlarni yozib berish va tizimlashtirish, o‘quvchilardan tajribaning eng asosiy qismlarini gapirib berishlarini talab qilmoqlik alohida ahamiyat kasb etadi. Bu o‘quvchilarga tajriba jarayonida o‘zlashtirilgan bilimlarni esda saqlab qolishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tabiatni o‘rganish asosan yil fasllarining tabiatda o‘zgarib turishini kuzatishdan boshlanadi. Fasllarning tabiatda o‘zgarishi mavzusining mazmuni: «Ona tabiat» umumiy mavzusida yoritilgan. Shu bilan bir qatorda bir qancha mavzular: «Kuzda tabiat», «Kirib kelayotgan qishning belgilari», «Qish va kuz hayvonlar va o‘simliklar hayotida», «Qish tabiati va insonlar faoliyati», «Bahor tabiati», «Bahorda daraxtlarning o‘sishi va rivojlanishi», «Bahorda hayvonlar» kabi mavzularda yoritilgan.

O‘quvchilar umumiy tabiatni o‘rganishi bilan bir qatorda jonli va jonsiz tabiatdagi o‘zgarishlar shuningdek sodir bo‘ladigan jarayonlar, alohida mavzular haqida bilimlarini chuqurlashtiradilar.

Alohida mavzularda insonlarning kundalik va xo‘jalik faoliyatlarida foydalanishlari uchun kerak bo‘ladigan jonsiz tabiatning mahsuli: «Suv, qor, muz» mavzulari ko‘rib chiqiladi. Bu mavzularni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda yer haqida elementar tushunchalar va yerni tashkil etadigan quruqlik, suv, quyosh haqidagi bilimlar shakllanadi.

Jonli tabiatning elementlari «Gulli o‘simliklar», «Xonaki gullar va ularni parvarish qilish» mavzularida ko‘rib chiqiladi.

O‘quvchilar o‘simliklar qismlarining umumiy belgilari bilan tanishadilar va ularning joylashishlarini ko‘rsatadilar (ildizidan tepaga qarab tanasi, tanasidan shoxlari, shoxlaridan

barglari va gullari o‘sadi), mevalarning tuzilishini ko‘rib chiqadilar. O‘quvchida o‘simliklarning asosiy xususiyatlari haqidagi tasavvurlar to‘planib boradi. Natijada o‘quvchilar o‘simliklarning yashash sharoitlarini o‘rganishga tayyorlanadilar va o‘simliklarni kuzatish tabiatdagi fasllar o‘zgarishini kuzatish bilan chambarchas bog‘liqligini va katta ahamiyatga egaligini his etadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Birinchi va ikkinchi sinfda tabiatni o‘rganishga qaratilgan bilimlar avvalo, aniq va konkret elemengar tushunchalarni shakllanishiga yo‘nalgan bo‘lishi kerak. 1-2- sinfda o‘quvchilar insonning tashqi tuzilishini o‘rganadilar, sog‘liqni himoya qilishda gigiyenik talablar bilan tanishadilar. Bu bilimlar o‘quvchining organizmidagi eshitishni buzilishini tasavvur qilishni sezilarli tarzda to‘ldiradi va gigiyenik ko‘nikma va malakalarni tarbiyalashga yordam beradi. Birinchi va ikkinchi sinfda ko‘rgazmali tasavvurlar so‘zlar bilan bog‘liq, shuning uchun ular mashg‘ulotlarda bimalol shug‘ullanadilar, ya’ni, tabiatni o‘rganishda analiz, sintez malakalaridan yaxshi foydalanadilar. Buning uchun bolalar faoliyatga undovchi so‘zlarni va gaplarni o‘zlashtirishlari kerak bo‘ladi (kuzat, solishtir, bajar, xulosa chiqar va xokazo). Savollardan foydalanishda 2-sinf o‘quvchilari 1-sinfga qaraganda mustaqil kuzata oladilar va tahlil qila oladilar va solishtira oladilar. Masalan, o‘quvchilarni tahlil qila olishlari va xulosa qilishlariga misol keltirsak: « Men o‘ylaymanki, bugun qattiq shamol bo‘ladi, chunki daraxtning qalin shoxlari tebranmoqda», «Bodringda urug‘ bor. Pomidorda ham urug‘ bor. Demak, bodring va pomidor bu hosil hisoblanadi». Bolalar shu tarzda tahlil qilishni o‘rganadilar va xulosa chiqaradilar.

Birinchi va ikkinchi sinfda jonli va jonsiz tabiat haqidagi bog‘lanishlar haqida aniq tasavvurlar shakllanadi. Bu tasavvurlar natijalarning kuzatish va taxlil qilish natijasida aniqlashtiriladi shuningdek rivojlantiriladi. Bu esa albatta nutq ishtirokida amalga oshadi. Bolalarning nutqida, gaplarida ya’ni, tahlil qilish davomida, kuzatish davomida o‘z munosabatlarini nutq orqali bildirishayotganda bolalarning nutqi ustida qayta ishlanadi (bog‘lovchilar ustida: lekin, chunki, shuning uchun). 2-sinfda o‘quvchilarni xulosa qilishlarida o‘rganayotgan material va tabiat hodisalari haqida xulosa qilishlariga emas, balki, tabiat va tabiat hodisalari, tabiatdagi sodir bo‘ladigan jarayonlarning bir-biriga bog‘liqligi haqida dastlabki bilimlarning to‘planganligiga alohida ahamiyat beriladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Fasllardagi o‘zgarishlarda tabiat va insonlarning mehnat faoliyati.

Metodik tavsiyalar.

1-2-sinf o‘quvchilari har kuni jonli va jonsiz tabiatdagi ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni kuzatadilar. Berilgan kuzatuvlar 1-sinf kuzatuvlari shaklida amalga oshadi. Biroq, 2-sinfda 1-sinfdan farqli ravishda kuzatuvlar murakkablashadi.

Agar 1-sinfda kuzatuvlar faqat umumiy xarakterga ega bo‘lib, dastlabki tabiatning asosiy komponentlari haqida bilimlarning shakllantirishga yo‘nalgan bo‘lsa, 2-sinfda

murakkablashadi. Dastlabki bilimlar chuqurlashtiriladi va aniqlashtiriladi. Shu maqsadda 2-sinfda haftalik kuzatishlar tematikasi yo‘lga qo‘yiladi.

Har bir hafta uchun tabiatning ikkita komponentini kuzatish ajratiladi. Ulardan birinchisi doimiy bo‘lib, bu ob-havoni kuzatish hisoblanadi. Ikkinchisi, har bir hafta uchun alohida masalan, birinchi chorakka oid quyidagi haftalik mavzular: «Kuzgi osmon va quyosh», «Kuzda o‘simliklar», «Hovli va bog‘larda mehnat», «Jonivorlarni qishga tayyorlash», «Hazonrezgilikning tugashi» va boshqa mavzular belgilanishi mumkin. Ma’lum, aniq vaqt o‘tganidan so‘ng, oydan oyga mavzular takrorlanadi. O‘quvchilar tabiatning bir xil ob’ektlarini har xil fasllarida kuzatib tabiatning o‘zgarishini va rivojlanishini o‘rganadilar hamda farqlaydilar. Shu bilan birga o‘quvchilar jonli tabiatdagi o‘zgarishlar jonsiz tabiatdagi o‘zgarishlarga bog‘liq ekanini doimo jonli va jonsiz tabiat bir-birini to‘ldirishini anglab yetadilar.

Kuzatuvni bunday tashkillashtirish va amalga oshirishni bolarni o‘z diqqat markazlarini hafta davomida ikkita bir-biriga bog‘liq bo‘lgan komponentlarga qaratishlariga-ob-havoga (doimiy haftalik komponent) va haftada berilgan ob’ektni o‘rganishga imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, bu kuzatishni eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib borish maqsadga muvofiq bo‘lib, ularning nutqini rivojlanishiga imkoniyat beradi.

Tabiat jarayonlarida o‘z ifodasini topgan kuzatuvlar davomida erishilgan faktlar xulosada o‘z ifodasini topadi. Haftaning boshida qilingan xulosa (barglar sarg‘ayib qoldi, qizargan va sarg‘aygan barglar to‘kilmoqda), keyingi xulosada esa yangi ma’lumotlar bilan boyitiladi va yanada keng hamda umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘ladi.

Tabiatni kuzatish ularni umumlashtirish.

Bir necha yil davomida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tabiatdagi fasillararo o‘zgarishini kuzatadilar tabiatshunoslik darslarida birinchi bizning Vatanimiz, so‘ngra boshqa mamlakatlarda bo‘yicha bo‘ladigan iqlimiy shart – sharoitlarni o‘rgatish to‘g‘risidagi tassavurlarni shakillantiradi.

Kuzatishlar davomida taxminan savollar bo‘limga jamlanadi.

A) ob – xavo to‘g‘risida. «Bugun qanday xavo? Kecha qanday ob-xavo bo‘lgan, ertalab, kunduzi, kechqurunchi? ».

O‘tgan oyda qanday ob – xavo bo‘lgan? Aniqlashtiring?

B) O‘simlik va hayvonlar haqida «Yozda bog‘ qanday ko‘rinishda bo‘ladi? Tomarq-chi (ogorod), park dala» qanday bo‘ladi? Kuzda xayvon, qushlar nima bilan faoliyati qanday? Xayvonlar ozuqa, yemish tayyorlaydilar? Tipratikan qishga qanday tayyorgarlik ko‘radi? va x.k.

V) Jonsiz tabiatning ba’zi bo‘limlari xaqida: Daryo, ko‘l, dengizlarni kuzating. Kuzda, qishda daryolarda qanday o‘zgarishlar yuz beradi? Yilning qaysi vaqtida osmonda quyosh uzoq bo‘ladi? Eng uzun kun qachon bo‘ladi? Kuzda quyosh chiqish vaqti o‘zgaradimi? Kuzda kunning uzunligi o‘zgaradimi? Yozda quyosh qanday isitadi va yoritadi? va x.k.

G) Odamlarning mehnati to‘g‘risida o‘simliklarni o‘stirish va uy xayvonlarini parvarishi haqida «Bahorda, yozda, kuzda, polizda, bog‘larda qanday ishlar olib boriladi? Yozda sigir, qo‘ylar nima bilan oziqlanadi? Ular uchun ozuqa qanday tayyorlanadi?» va x.k.

Bu ajratilgan savollar kuz fasli davomida yangi savollar bilan taqqoslash bo‘yicha masalalar, yilning xama vaqtida tabiiy shart-sharoitlarini o‘zgarishi bo‘yicha misol bilan boyib boradi.

XULOSA

Umumlashtiruvchi darslarda kuzatuvni maxsuli bo‘yicha xar – xil turdagi faoliyatni qo‘shish tavsiya qilinadi. Tabiat xodisalarini xususiyatlarini oqimini aniqlash va izohlarni (faktlarni) chiqarishga qaratilgan.

1. Xaftalik mavzusi bo‘lgan kuzatuvni xulosa qilish (og‘zaki va yozma ravishda olib boriladi).

2. Oylar va mavsumlar bo‘yicha bo‘lgan kuzatuvni xulosa qilish (kuzatuvlar kundaligi) bilan ishlash.

3. Mavsumlar bo‘yicha bo‘lgan kuzatuvlarni xulosa qilayotganda oylar bo‘yicha ishlab chiqarilgan kuzatuvlar ma‘lumot sanog‘i va mavsumdagi har bir oylarning tabiiy shartlarini yozma matnldari qo‘llaniladi.

4. Xar – xil oylarni mavsumiy ma‘lumotlarini tabiiy shartlarini sifatlovchi ma‘lumotlarni solishtirish.

5. Xar bir oyga tegishli tabiat xodisalarini tasviri bo‘lgan rasmlarni ko‘rib chiqish, yildagi oylarning o‘zgarishiga tegishli bo‘lgan rasmlarni davoliyligini topish.

6. Turli xodisalar bo‘lgan rasmlarni va isboti bilan mavsum bo‘yicha bo‘lgan jonli va jonsiz tabiatning predmetlarini taqsimlash. (qurollarni).

7. O‘quvchilar yil vaqtlarini og‘zaki (yozma) aniqlashlari (bilishlari).

8. Yopiq rasmlardagi tasvirlarni yil vaqti (oylar) o‘quvchilarga mazmuni bo‘yicha savollar berish, yo‘li bilan tanishtirish.

9. O‘quvchilarni tabiatni kuzatishlari yuzasidan kichik bayon yozishadi. Masalan, quydagi mavzular bo‘yicha, «Barglarni to‘kilishi», «Qishki quyosh», «Xayvonlar qishga qanday tayyorgarlik ko‘radilar», «Biz qanday qorbo‘ron o‘ynadik», «Biz qishda sayrga chiqdik», «Bo‘ron» va h.k.

10. Yilning har bir mavsumini jurnallardan olingan yoki rasmlar yig‘ib «Bizning diyorumizda» «Yil fasli va vaqtlarning ko‘rinishi» asosida albom tayyorlash.

11. Tabiat mavsumi o‘zgarishlari haqida xulosaviy matnlarni o‘qish.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darslarida asosiy e‘tibor atrof olam haqidagi tasavvur tushunchalarni shakillantirishga qaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABITYOTLAR

1. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте – М.: Просвещение, 1991.

2. Зыков С.А. Проблемы сурдопедагогики. Избранные труды.- М.: «За-грей».- С. 180- 182.
3. Fayziyeva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994. – 18 b.
4. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar ta’limini takomillashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2007. – B. 60-63.
5. Maktabgacha tarbiya yoshidagi zaif eshituvchi bolalarni o‘qitish va tarbiyalash dasturi. Tuzuvchi: Rasulova N.A. – Toshkent: RO‘MM, 1993.
6. Qodirova F.U. Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– Toshkent:TDPU. 2006. – 20.
7. Инновационные подходы к обучению и воспитанию детей с нарушением слуха/ Под ред. Никитина М.И. СПб.: «Образование», 1997. С. 270-273.



BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA

Ashirova Anorgul Ismoilovna

*Ma'mun universiteti Umumkasbiy fanlar kafedrası
pedagogika fanlari nomzodi, professori v.b.*

Manzil: O'zbekiston, Xiva shahri

Email: anorgul76@gmail.com

ORCID: 0000-0002-3399-7527

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda fanlararo integratsiyaning o‘rni hamda ahamiyati yoritilgan. Fanlararo yondashuv informatika fanining matematika, fizika, tilshunoslik, pedagogika kabi boshqa sohalar bilan uyg‘unligini ta‘minlab, o‘qituvchining innovatsion fikrlashini, amaliy faoliyatga tayyorligini va kompleks kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, bo‘lajak informatika o‘qituvchisi, fanlararo integratsiya, pedagogik innovatsiyalar, raqamli ta‘lim texnologiyalari, STEM-ta‘lim, ta‘limda integratsion yondashuv, AKT(axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), o‘qituvchini tayyorlash tizimi, interfaol metodlar.

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ В ПОВЫШЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ

Аннотация. В статье освещаются роль и значение межпредметной интеграции в формировании и развитии профессиональной компетентности будущих учителей информатики. Междисциплинарный подход обеспечивает интеграцию информатики с другими областями знаний, такими как математика, физика, лингвистика, педагогика, и способствует формированию у учителя инновационного мышления, готовности к практической работе и комплексных компетенций.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, будущий учитель информатики, междисциплинарная интеграция, педагогические инновации, цифровые образовательные технологии, STEM-образование, комплексный подход к образованию, ИКТ (информационно-коммуникационные технологии), система подготовки учителей, интерактивные методы.

INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE COMPUTER SCIENCE TEACHERS

Abstract. The article highlights the role and importance of interdisciplinary integration in the formation and development of professional competence of future computer science teachers. An interdisciplinary approach ensures the integration of computer science with other fields of knowledge, such as mathematics, physics, linguistics, pedagogy, and contributes to the formation of innovative thinking, readiness for practical work and complex competencies in teachers.

Keywords: professional competence, future computer science teacher, interdisciplinary integration, pedagogical innovations, digital educational technologies, STEM education, integrated approach to education, ICT (information and communication technologies), teacher training system, interactive methods.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – yangi avlod o‘qituvchilarini raqobatbardosh, malakali va kreativ fikrlovchi mutaxassislar sifatida tayyorlashdan iboratdir. Xususan, informatika fani bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayonida nafaqat texnik va dasturlash ko‘nikmalari, balki keng qamrovli fanlararo bilimlar majmuasini shakllantirish ham muhim o‘rin tutadi.

Bugungi tezkor raqamli transformatsiya sharoitida informatika fani boshqa tabiiy, aniq va gumanitar fanlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu o‘zaro aloqadorlikni ta’lim jarayonida inobatga olish zarurati tug‘iladi. Aynan fanlararo integratsiya yondashuvi orqali bo‘lajak informatika o‘qituvchisi murakkab muammolarni tahlil qilish, bir nechta sohalar bilimlarini uyg‘un holda qo‘llash va innovatsion yechimlar ishlab chiqishga qodir mutaxassis sifatida shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va uni takomillashtirish masalasi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bu sohadagi ilmiy izlanishlar uch asosiy yo‘nalishda olib borilgan: 1. Kasbiy kompetentlik nazariyasi va tarkibi. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini samarali tashkil qilishda kompetentlik yondashuvi muhim metodologik asos hisoblanadi. Bu yondashuv XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan boshlab ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga zamonaviy ta’lim nazariyotchilari – X. To‘raqulov, Z. M. Mirzaaxmedova, R. Q. To‘xtasinov tomonidan keng izohlar berilgan. Ular kompetentlikni faqatgina bilimlar tizimi sifatida emas, balki shaxsning faoliyatga tayyorgarligi va kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyati sifatida talqin qilishadi[2].

Xorijiy olimlar – J. Raven, A. M. Novikov, K. Ryzhakov kompleks kompetentlik modelini ilgari surib, bunda kasbiy faoliyatga oid ijtimoiy, madaniy, kommunikativ va texnologik omillarni inobatga olish lozimligini ta’kidlaydilar.

Xususan, J. Raven (1997) kompetentlikni shaxsning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishiga olib keluvchi individual psixologik va bilish omillarining majmui sifatida izohlaydi. I. A. Zimnyaya (2003) esa kompetentlikni nafaqat bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi, balki shaxsning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligi sifatida tavsiflaydi.

O‘zbek olimlaridan X. To‘raqulov hamda Z. M. Mirzaaxmedovalar pedagogik ta’limda kasbiy kompetentlikning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratgan:

- predmet bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar;
- pedagogik texnologiyalarni qo‘llash malakasi;
- kommunikativ va axborot savodxonligi;
- axloqiy va kasbiy etika.

Bu yondashuvlar informatika fani bo‘yicha o‘qituvchi tayyorlash jarayonida zarur ko‘nikmalarni aniqlashda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. Informatika fani o‘qituvchilarini tayyorlash haqida bir qator tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ular zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’limga joriy etish, o‘qituvchining AKT kompetentligini shakllantirishga qaratilgan.

Informatika fani o‘qituvchilarini tayyorlash borasida B. Shodmonqulov, A. Sh. Jo‘raev, R. Yo‘ldoshev tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Ular informatika o‘qituvchisining AKT vositalaridan foydalanish malakasini rivojlantirish, raqamli pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va zamonaviy metodlardan foydalana olish kompetensiyasini ta’lim jarayoniga integratsiyalash masalalariga urg‘u beradilar.

Informatika fani o‘qituvchilarini tayyorlash metodikasi haqida bir qator tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ular zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’limga joriy etish, o‘qituvchining AKT kompetentligini shakllantirishga qaratilgan[5].

- T. R. Yo‘ldoshev informatika o‘qituvchilarini raqamli texnologiyalarga asoslangan holda tayyorlashda interfaol metodlar, masofaviy ta’lim va loyiha asosidagi o‘qitishning samaradorligini tahlil qiladi.

- M. B. Shodmonqulov informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda elektron resurslar, test tizimlari va amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni haqida fikr yuritadi.

- A. Sh. Jo‘raev o‘z tadqiqotlarida informatika fanini real hayotiy masalalar bilan bog‘lash orqali kasbiy kompetentlikni oshirish zarurligini asoslaydi.

Ularning ishlari informatika fani bo‘yicha o‘qituvchi tayyorlashda ko‘p fanli yondashuvning zarurligini ko‘rsatadi.

3. Fanlararo integratsiya nazariyasi va amaliyoti. Bunda fanlararo integratsiya masalalari bo‘yicha: I. A. Zimnyaya, T. V. Kudryavtsev, M. K. Hasanov, N. M. Xolbo‘tayev kabi olimlar izlanishlar olib borgan. Ularning tadqiqotlarida integratsiya – bilimlar uyg‘unligini ta’minlovchi va kasbiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi strategik yondashuv sifatida talqin etiladi[6].

Fanlararo integratsiya – bu bir necha fandan olingan bilim, metod va vositalarni yagona didaktik tizimga birlashtirish orqali o‘quv jarayonini boyitish usulidir. Bu yondashuv informatika fanining boshqa fanlar bilan (matematika, fizika, til, biologiya va boshqalar) o‘zaro bog‘liqligini ta’lim jarayonida samarali ifodalashga yordam beradi.

- A. V. Khutorskoy integratsiyani o‘qituvchining universal kompetensiyalarini shakllantirish vositasi deb hisoblaydi.

- M. K. Hasanov o‘z tadqiqotlarida fanlararo integratsiyani amaliyotga tadbqiq etishning uchta shaklini ajratadi: tematik, strukturaviy va metodik integratsiya.

- N. M. Xolbo‘tayev integratsion yondashuv orqali o‘quvchilarda tizimli fikrlash, muammoga kompleks qarash va ijodiy yondashuv rivojlanishini asoslaydi.

Fanlararo integratsiya informatika o‘qituvchisining nafaqat texnik bilimlarini, balki muhandislik tafakkuri, pedagogik muloqot va loyiha asosida fikrlash kompetensiyalarini shakllantiradi[9].

4. STEM-ta’lim va integratsiya tajribalari

STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta’lim konsepsiyasi informatika fani uchun ayniqsa dolzarb bo‘lib, ushbu yondashuv orqali fanlararo integratsiya tabiiy amalga oshadi.

- H. A. Karimov va A. O. Usmonov o‘z ishlanmalarida STEM komponentlari asosida informatika darslarini loyihalashtirish, Arduino, Python, robototexnika kabi vositalarni boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning amaliy bilimlarini chuqurlashtirishga erishiladi.

- B. S. Qosimov esa STEM-loyihalar asosida informatika fanidan laboratoriya ishlari, fizik tajribalar va matematik modellashtirishni birlashtirish usullarini taklif etadi.

STEM-ta’lim, muammoli o‘qitish va loyihaviy metodlar orqali fanlararo integratsiyani amalda qo‘llash tajribalari, ayniqsa, A. V. Khutorskoy, H. A. Karimov kabi tadqiqotchilarning ishlari asosida chuqur tahlil qilingan[7],[9].

NATIJA VA MUHOKAMA

Olib borilgan nazariy va metodologik tahlillar, ilg‘or tajriba va ilmiy adabiyotlar asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

1. Fanlararo integratsiya informatika fani mazmunini boyitadi. Informatika fanining tabiiy, aniq va gumanitar fanlar bilan uzviy bog‘liqligi uning mazmunida

integratsion yondashuvni qo‘llashni taqozo etadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarda kompleks fikrlash, tizimli qarash va amaliy bilimlar uyg‘unligini ta‘minlash mumkin.

2. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda integratsiya vosita sifatida samaralidir. Informatika fani o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni aniqlash, ularni raqamli texnologiyalar yordamida hal qilish, algoritmik fikrlash, loyiha asosida ishlash kabi kompetensiyalarni shakllantirishda fanlararo integratsiya asosiy rol o‘ynaydi.

3. STEM yondashuvi kasbiy tayyorgarlikni yangi bosqichga olib chiqadi. STEM-elementlari (robototexnika, modellashtirish, dasturlash, loyihalash) asosida informatika darslarini tashkil qilish bo‘lajak o‘qituvchining nazariy bilimlarini amaliy faoliyatga uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

4. Integratsiyalashgan ta‘lim metodi ta‘limning motivatsion jihatini kuchaytiradi. Informatika fanini real hayotiy kontekstlar bilan bog‘lab o‘rganish, masalan, matematika, fizika, biologiya, geografiya fanlari bilan birgalikda loyiha tuzish, bo‘lajak o‘qituvchilar bilimga qiziqishini oshiradi va kasbiy e‘tiqodini mustahkamlaydi.

5. O‘qituvchi tayyorlash tizimida fanlararo hamkorlik kuchaytirilishi zarur. Ta‘lim muassasalarida pedagogik amaliyot va nazariy mashg‘ulotlarda fanlararo integratsiyani rejalashtirish, o‘quv dasturlarni moslashtirish va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali bu jarayonni tizimli yo‘lga qo‘yish mumkin.

1-jadval.

Fanlararo integratsiya asosida shakllantiriladigan kasbiy kompetensiyalar

№	Integratsiyalasha-yotgan fan	Integratsiya mazmuni	Shakllanadigan kasbiy kompetensiyalar
1	Matematika	Algoritmlar, mantiqiy bog‘liqlik, formulalar	Algoritmik fikrlash, modellashtirish ko‘nikmasi
2	Fizika	Dasturlashda simulyatsiyalar, fizik jarayonlarni modellashtirish	Masalalarni tahlil qilish, raqamli modellashtirish
3	Texnologiya	Grafik dizayn, robototexnika, loyihaviy ishlar	Innovatsion texnologiyalardan foydalanish, loyiha yuritish
4	Biologiya va geografiya	Axborot tizimlari orqali biologik va geografik ma‘lumotlarni tahlil qilish	Data-analitika, GIS (geoinformatsion tizim) savodxonligi
5	Ona tili va adabiyot	Axborotlarni tushunarli yetkazish, hujjatlashtirish	Matn bilan ishlash, axborot madaniyati
6	Tarix va huquq	Raqamli hujjatlar, axborot xavfsizligi asoslari	Raqamli etik savodxonlik, huquqiy mas‘uliyat

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini samarali shakllantirish uchun an‘anaviy fanga asoslangan yondashuvdan integratsion yondashuvga o‘tish zarur. Bu nafaqat ta‘lim sifatini oshiradi, balki raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan

raqobatbardosh pedagog shaxsini shakllantirishga xizmat qiladi. Fanlararo integratsiyani amaliyotga tadbiiq etish uchun:

- o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish,
- metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish,
- o‘qituvchilarni integratsion darslar uchun maxsus tayyorlash zaruriy shartlar hisoblanadi.

Bu yondashuv ta‘lim sifatini oshirishga va o‘qituvchi kasbiy salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot va tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Fanlararo integratsiya – bu informatika o‘qituvchisini tayyorlashda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali metodik vositasi bo‘lib, o‘quv jarayonini tizimli, mantiqiy va real hayotga yaqinlashtirish imkonini beradi.

2. Fanlararo integratsiyalashgan ta‘lim informatika fanining boshqa fanlar bilan (matematika, fizika, texnologiya, biologiya va boshqalar) uzviy bog‘liqligini ochib berib, kompleks fikrlash, analitik yondashuv va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilari raqamli texnologiyalarni pedagogik faoliyatga qo‘llash, axborot resurslari bilan ishlash, o‘quvchilarda AKT savodxonligini shakllantirish kabi kompetensiyalarni egallashi zarur. Buning uchun integratsiyalashgan metodikalar asosida ularni tayyorlash muhim.

4. Fanlararo integratsiyani joriy etish orqali informatika o‘qituvchisi nafaqat o‘z fani bo‘yicha bilimga ega, balki boshqa fanlar bilan hamkorlikda dars olib borishga tayyor bo‘lgan, kreativ va mas‘uliyatli mutaxassis sifatida shakllanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Pedagogik oliy ta‘lim muassasalarida informatika fani bo‘yicha o‘quv dasturlar fanlararo integratsiya tamoyillari asosida yangilanishi lozim.

2. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish uchun informatika darslarida STEM-loyihalar, kross-fanli mashg‘ulotlar va modellashtirish texnologiyalarini joriy etish maqsadga muvofiq.

3. Amaliyot bazalarida informatika fanini boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘rgatish tajribalarini yaratish, real loyihalar bilan ishlashga e‘tibor qaratish kerak.

4. Metodik qo‘llanmalar va dars ishlanmalari integratsiyalashgan yondashuvga asoslanib ishlab chiqilishi, o‘qituvchilar malaka oshirish kurslarida bunday yondashuvni o‘rgatish tavsiya etiladi.

5. Bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihaviy, ijodiy va analitik kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ko‘p fanli integratsion darslarni ko‘paytirish tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xasanov M.K. Fanlararo integratsiyani amalga oshirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 180 b.

2. Тўрақулов Х., Мирзааҳмедова З.М. Рақамли педагогик технологиялар асосида информатика фанини ўқитиш методикаси. – Тошкент: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi nashri, 2021. – 164 б.
3. Жўраев А.Ш. Информатика ўқитувчисининг касбий тайёргарлигида фанлараро алоқанинг ўрни // Педагогик маҳорат, 2019. – №3. – Б. 45–49.
4. Karimov H.A., Usmonov A.O. STEM yondashuvi asosida informatika ta’limining integratsiyalashuvi // Innovatsion ta’lim, 2021. – №2. – Б. 78–83.
5. Yo‘ldoshev T.R. Informatika o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalar asosida kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish // Ta’lim va taraqqiyot, 2020. – №4. – Б. 33–38.
6. Zimnyaya I.A. Kompetentnostnyy podkhod v obrazovanii: teoriya i praktika. – Moskva: Issledovatel’skiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2003. – 252 s.
7. Khutorskoy A.V. Klyuchevyye kompetentsii kak komponent lichnostno-oriyentirovannoy obrazovatelnoy paradigmy // Narodnoye obrazovaniye, 2005. – №5. – S. 58–64.
8. Raven J. Kompetentnost v sovremennom obshchestve. – Moskva: Kogito-Tsentr, 1997. – 396 s.
9. Xasanov M.K., Qodirova N.T. Informatika fanini fanlararo integratsiya asosida o‘qitish metodikasi // Axborot-kommunikatsion texnologiyalar ta’limda, 2023. – №1. – Б. 25–30.
10. Djalolov J.A. Pedagogik innovatsiyalar: konsepsiyalar va strategiyalar. – Toshkent: TDPU, 2020. – 200 b.



DIFFERENT TYPES OF COMMUNICATIVE TEACHING

Risbayeva Sulu Serik kizi,

Student of Termez University of Economics and Service

Sokhibova Dilnoza,

Supervisor and teacher of Termez University of Economics and Service

Abstract Cooperation of the teacher and the pupil assumes knowledge and ability of the teacher to dose out and direct the pupil’s independence which finally leads to autonomous and creative cognitive activity as a basis of personal formation and development.

Key words: Brainstorming, modeling situations, role play, debate, group discussion.

Аннотация Сотрудничество учителя и ученика предполагает знание и умение учителя дозировать и направлять самостоятельность ученика, что в конечном итоге приводит к автономной и творческой познавательной деятельности как основе личностного становления и развития.

Ключевые слова: Мозговой штурм, моделирование ситуаций, ролевая игра, дебаты, групповые дискуссии.

Annotatsiya Mazkur maqola o'qituvchi va o'quvchining hamkorligi o'qituvchining bilim va qobiliyatini o'z ichiga oladi o'quvchining mustaqilligini dozalash va yo'naltirish, bu nihoyat shaxsning shakllanishi va rivojlanishining asosi sifatida mustaqil va ijodiy kognitiv faoliyatga olib keladi.

Kalit so'zlar: Aqliy hujum, modellashtirish vaziyatlar, rolly o'yin, bahs, guruh muhokamasi.

Introduction. Brainstorming is a popular tool that helps students to generate creative solutions to a problem. It is particularly useful when there is a need to break out of stale, established patterns of thinking, so that you can develop new ways of looking at things. It also helps overcome many of the issues that can make group problem-solving a sterile and unsatisfactory process. Used with the team, it helps bring the diverse experience of all team members into play during problem solving. This increases the richness of ideas explored, meaning that students can find better solutions to the problems they face. What’s more, because brainstorming is fun, it helps team members bond with one-another as they solve problems in a positive, rewarding environment. Brainstorming provides a freewheeling environment in which everyone is encouraged to participate. Quirky ideas are welcomed, and many of the issues of group problem-solving are overcome. All participants are asked to contribute fully and fairly,

liberating people to develop a rich array of creative solutions to the problems they're facing. Brainstorming combines a relaxed, informal approach to problem-solving with lateral thinking. It asks that people come up with ideas and thoughts that can at first seem to be a bit crazy. The idea here is that some of these ideas can be crafted into original, creative solutions to the problem you're trying to solve, while others can spark still more ideas. This approach aims to get people unstuck, by "jolting" them out of their normal ways of thinking. During brainstorming sessions there should therefore be no criticism of ideas: Students are trying to open up possibilities and break down wrong assumptions about the limits of the problem. Judgments and analysis at this stage stunt idea generation. Ideas should only be evaluated at the end of the brainstorming session - this is the time to explore solutions further using conventional approaches [2].

Role play and dramatization are modeling various situations for the educational aims of developing speaking abilities. They reflect a principle of problematical character at its certain organization and allows solving problem situations of a various degree of complexity [3]. It can be used independently as well as in a context of a method of projects. Pupils apply the experience of the saved up knowledge, results of research during work above the project in realization of socially significant roles growing on the importance with passage of a cycle of occupations. Such modeling of situations of intercultural dialogue helps pupil to get used to various situations of the future activity which he can face in a real life [1]. Problematical character of role game is realized through modeling of situations in which this or that problem can find the certain decision, in a role, pupil solves problem situations, evidently showing in full communicative competence the practical decision of a problem. Certainly, such way of protection should be adequate to a researched problem. Selection by that and problems for use of this or that method is a separate research problem. Here it is important, that communicative competence was formed in real acts of intercourse in which the English language is means of formation and a formulation of idea [2; 3]. Thus, pupil, being based on the skills generated with the help of a role play method, it is capable to apply and develop these skills in concrete situations of dialogue, carrying out socially significant roles and skill to assert the position in problem situations can be one or several role play groups. If the whole class represents one role play group, it is necessary to keep some minor roles which can be taken away if there are less people in class than expected. If the teacher runs out of roles, he/she can assign one role to two students, in which one speaks secret thoughts of the other. With several role plays, when deciding on their composition, both the abilities and the personalities of the students should be taken into consideration. For example, a group consisting only of the shyest students will not be a success. Very often, optimum interaction can be reached by letting the students work in one group with their friends [1; 2].

Debates (discussion) allow forming the conscious attitude to consideration of problems, activity in its discussion, speech culture, an orientation on revealing of the reasons of arising problems and installation on their decision further. Here the principle of formation of critical thinking is realized. Language, thus, is simultaneously both the purpose and means of teaching.

The technique of debates helps pupils not only to seize all four kinds of speech activity, but to bring a language situation on a background of a problem of social and cultural sphere, to find out the reasons of the arisen situations and try to solve them. Interest to the independent decision of a problem is the stimulus, driving force of process of knowledge [2; 3]., application of discussion allows making active cognitive activity of pupils, their independence, forms culture of creative operative thinking, creates conditions for use of personal life experience and received before knowledge for mastering new. As discussion and the decision of problems occurs during controlled group dialogue at participants skill to operate in interests of group is developed, there is an interested respect for interlocutors and conducts to formation of collective. Application of this method in aggregate with a method of projects allows generating thinking and owning not only the English language, but also the expert understanding in various problems, capable to be guided in quickly varying information streams are pros and cons of group discussion.

REFERENCES:

1. Ecroyd D. H. *Speech in the Classroom*. - New Jersey: Prentice Hall, 2003. - 180 p.
2. Hymes, D. H. (1971). *On communicative competence*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
3. Krashen, S. & Terrell, T. D. (1983), *The Natural Approach*, Pergamon



**SHARQ PEDAGOGIKASIDA INTERDISIPLINAR YONDASHUV VA
ZAMONAVIY TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI
TALABALARNING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH**

Jumaniyazova Go‘zal

*Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi,
tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq pedagogikasida interdisiplinar yondashuvning tarixiy ildizlari, mohiyati va amaliy ahamiyati yoritilgan. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalarning qarashlari asosida fanlararo integratsiyaning Sharqona talqini tahlil qilinadi. Zamonaviy interdisiplinar ta’lim bilan qiyosiy tahlil asosida ularning umumiy va farqli jihatlari ko‘rsatib berilgan. Zamonaviy ta’limga mos, ammo Sharq tafakkuri ildizlariga tayanuvchi metodik takliflarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: Sharq pedagogikasi, interdisiplinar yondashuv, integratsiya, Forobiy, fanlararo bog‘liqlik, zamonaviy ta’lim.

Annotation: This article discusses the historical roots, essence and practical significance of the interdisciplinary approach in Eastern pedagogy. The Eastern interpretation of interdisciplinary integration is analyzed based on the views of scholars such as Al-Farabi, Al-Biruni, Ibn Sina. Based on a comparative analysis with modern interdisciplinary education, their common and different aspects are shown. It puts forward methodological proposals that are suitable for modern education, but based on the roots of Eastern thinking.

Keywords: Eastern pedagogy, interdisciplinary approach, integration, Al-Farabi, interdisciplinarity, modern education.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – zamon talablari asosida fikrlay oladigan, kompleks muammolarga yechim topa oladigan, kreativ va metakognitiv kompetensiyalarga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat. Bunday maqsadlarga erishishda interdisiplinar yondashuv muhim o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuv orqali bilimlar bir-biridan ajralmagan holda, o‘zaro bog‘liqlikda, yagona maqsad yo‘lida shakllantiriladi.

Sharq pedagogikasida esa interdisiplinar yondashuv yangilik emas, balki qadimdan mavjud bo‘lgan, chuqur tarixiy ildizlarga ega yondashuvdir. Sharq allomalari asarlarida fanlararo uyg‘unlik, tafakkurni rivojlantirish va insonni har tomonlama kamolga yetkazish g‘oyalari muhim o‘rin egallagan. Ushbu maqolada Sharq pedagogikasida interdisiplinar

yondashuvning mazmun-mohiyati ochib beriladi, zamonaviy ta’lim bilan qiyosiy tahlil qilinadi hamda amaliy tavsiyalar beriladi. [7, 144-b.]

Sharq pedagogikasida fanlararo yondashuvning tarixiy ildizlariga nazar tashlasak, ilm-fan va tarbiyaning uyg‘unligiga asoslangan ta’lim tizimi qadimdan shakllangan. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy kabi allomalar ilmni turli sohalar bo‘yicha ajratmagan, balki uni yagona bilish jarayoni sifatida tushunganlar. Masalan, Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida axloq, falsafa, musiqa va siyosiy tafakkurni birgalikda o‘rganishni targ‘ib qiladi. [8, 156-b.]

Sharqdagi madrasalar faoliyatida ham Qur‘on, fiqh, aruz, mantiq, falsafa, adabiyot, arifmetika kabi fanlar yagona bilim manbai sifatida integratsiyalashgan holda o‘qitilgan. Bu o‘z-o‘zidan interdisiplinar ta’limga asos solgan. [11]

Interdisiplinar yondashuv – bu bilimlarni turli fanlar asosida o‘zaro aloqadorlikda, yagona maqsad sari yo‘naltirilgan tarzda taqdim etishdir. Sharq pedagogikasida ushbu yondashuv quyidagi mazmun va mohiyatga ega:

Fanlararo bog‘liqlik: Har bir fan ikkinchi bir fanga xizmat qiladi, ularning mazmuni orqali inson tafakkuri chuqurlashadi.

Tafakkurni rivojlantirish: Bilimlarni bir-biriga bog‘lab fikrlash talabada tahliliy, reflektiv va mantiqiy yondashuvni shakllantiradi.

Hayotiy ehtiyoj bilan bog‘lanish: Ilm-fan amaliyotga, kundalik hayotga xizmat qilishi kerakligi Sharq mutafakkirlarining asosiy g‘oyasi bo‘lgan.

Inson kamoloti: Yondashuvning asosiy maqsadi – barkamol, ma’naviy boy, aqliy rivojlangan shaxsni shakllantirishdir.

XXI asrda ta’lim mazmunini yangilash va kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish interdisiplinar ta’limga katta ehtiyoj tug‘dirdi. Bugungi ta’limda quyidagi interdisiplinar modellar keng qo‘llanmoqda:

- STEAM yondashuvi – fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san’at (Art) va matematika (Math) fanlarini birlashtirgan o‘qitish modeli.
- CLIL (Content and Language Integrated Learning) – mazmun va tilni integratsiyalangan tarzda o‘qitish.
- PBL (Project-Based Learning) – muammoni hal qilish orqali o‘qitish, real hayotiy loyihalar asosida bilim berish.
- IB (International Baccalaureate) – xalqaro darajadagi fanlararo bog‘liqlikni ta’minlovchi ta’lim dasturi.

Zamonaviy yondashuvlarda fanlar bir-biriga ulanib, talabaning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. [6, 74-90]

Sharq pedagogikasi va zamonaviy interdisiplinar ta’limning qiyosiy tahlilini quyidagi jadval orqali yanada aniqlashtirish mumkin (1-jadval) :

1-jadval:

Mezoni	Sharq pedagogikasi	Zamonaviy ta’lim
Yondashuv	Bilimlarning yagona manbai va uyg‘unligi	Fanlararo integratsiya orqali kompleks muammolar yechimi
Metodlar	Sohalarning uyg‘unligi asosida muloqot, hikmatlar	Loyiha asosida o‘qitish , STEAM. CLIL
Maqsad	Insonni kamolga yetkazish	Kompetensiyaga asoslangan rivojlanish
Vositalar	Kitob, ustoz-shogird munosabati, hayotiy hikmatlar	Axborot texnologiyalari, multimedia vositalari
Natija	Ma’naviy-axloqiy barkamol shaxs	Moslashuvchan, kreativ va kompetent shaxs

Bu qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’limda interdisiplinar yondashuv texnologik vositalar orqali amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, uning ildizlari Sharq pedagogikasida mavjud bo‘lgan va bugungi ta’limda ularni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirish zarur. Sharq pedagogikasida interdisiplinar yondashuv – bu nafaqat tarixiy meros, balki bugungi ta’lim uchun boy nazariy va amaliy asosdir. Ushbu yondashuv orqali talabalarda tafakkur doirasi kengayadi, turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash orqali hayotiy muammolarga integrativ yondasha oladi. [4, 184-b.]

Oliy ta’limning bakalavr bosqichi “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar mutaxassislik fani hisoblangan Ona tili - o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi” darslarida “Boshlang‘ich sinfda kitobxonlik faoliyatini shakllantirishda didaktik materiallarning ahamiyati” mavzusini o‘rgatishda 1-sinf O‘qish savodxonligi II qismida keltirilgan “Suv tomchisining sayohati” matnini tahlil qilib, bakalavriat bosqichi uchun metodik tahlilni quyidagicha yoritish mumkin:

“Suv tomchisining sayohati” hikoyasi bolalarning tabiat haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, ekologik tarbiya berish va talabani kuzatishga, tahlil qilishga undash orqali kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Didaktik jihatlari: matn orqali fanga bog‘lanish: Hikoya suvning aylanish jarayonini soddalashtirilgan va obrazli usulda tushuntirib beradi. Bu esa tabiiy fanlar bilan integratsiyani ta’minlaydi.

Ilyustratsiyalarning mavjudligi: rasm va belgilar orqali hikoya mazmuni tushunarli bo‘lib, bolalarda e’tibor va idrokni kuchaytiradi.

Izohli lug‘at: “Okean”, “jala” kabi so‘zlarga berilgan izohlar lug‘at boyligini oshiradi.

Savol-javob usuli: matn asosida berilgan savollar talabaning tushunganligini aniqlashga va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Kitobxonlik faoliyatini shakllantirishdagi o‘rni

Qiziqish uyg‘otadi: Matn obrazli uslubda yozilgan bo‘lib, talabani hayratga soladi, savollar tug‘diradi, bu esa ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

Kichik hajmda katta mazmun: Bu yoshdagi talabalar uchun matnning hajmi qisqa, ammo ilmiy mazmuni boy. Bu talabani charchatmasdan o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Ijodiy fikrlashga yo‘naltiradi: Matn orqali bolalar "agar suv tomchisi bo‘lsang, qayerga borarding?", "suvsiz hayot bo‘ladimi?" kabi savollarga mustaqil fikr yuritishadi.

3. Boshlang‘ich sinfda qo‘llash usullari

Rolli o‘yin: Talabalar bu hikoyani boshlang‘ich sinfda o‘qitishda talabalarga rollar taqsimlab o‘qitish orqali faol ishtirokni ta‘minlashlari mumkin.

Rasm chizish: Suv aylanish jarayonini rasmga tushirish orqali mavzuni vizual tushunishga yordam beriladi.

Matndan so‘zlar tanlash va gap tuzish: Talabalar matndan yangi so‘zlarni ajratib, ularni gapda ishlatish orqali lug‘at boyligini kengaytiradi.

“Suv tomchisining sayohati” kabi matnlar boshlang‘ich sinfda kitobxonlikni shakllantirish uchun nihoyatda qulay didaktik materiallardir. Ular orqali bolalar o‘qish, tushunish, fikrlash, ijodiy izlanish va tabiatga nisbatan mehr-oqibatni o‘rganadilar. Oliy ta‘limda tahsil olayotgan talabalarga bunday materiallar orqali metodik tahlil qilishni o‘rgatish, ularning kelajakda talabalarga chuqur va samarali dars o‘tishlariga zamin yaratadi.

Talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishda hikoyaga mos podkast ishlab chiqishlari mumkin. Talabalar matn asosida suv tomchisining ovoqli hikoyasini (podkastini) o‘zlari sahnalashtirib, yozib, tinglovchilar (ota-onalar, boshqa sinf talabalari, hatto ijtimoiy tarmoq auditoriyasi) uchun taqdim etishadi. Bu jarayon talabalarda ijodiy fikrlash, ifodali nutq, kutilmagan yondashuv va texnik kreativlikni shakllantiradi.

Podkastni ishlab chiqishda quyidagi bosqichlar orqali amalga oshadi:

1. Matnni tahlil qilish: Talabalar matnni o‘qishadi, suv aylanish jarayonini tushunishadi. Suv tomchisi boshidan nimalar o‘tkazdi? degan savol asosida sahna ssenariysi yoziladi.

2. Rol taqsimoti va sahnalashtirish: Suv tomchisi, quyosh, shamol, bulut, daryo, okean kabi rollar taqsimlanadi. Har bir talaba o‘z rolida gapirish uchun matn yozadi va uni ifodali o‘qish mashqi qilinadi.

3. Podkast yozib olish: Oddiy telefon yordamida yoki kompyuter orqali talabalar audio hikoyani yozib olishadi. Fon musiqasi (quyoshli kun, yomg‘ir, daryo shovqini) qo‘shiladi.

4. Namoyish va tahlil: O‘qituvchi bilan birgalikda audio hikoyalar tinglanadi.

Eng kreativ ssenariylar muhokama qilinadi va ijobiy fikrlar beriladi.

Metodning kreativ kompetentlikni rivojlantirishdagi afzalliklari:

Ijodkorlik: Talaba hikoyani o‘zicha davom ettirishga harakat qiladi.

Tasniflash va moslashtirish: Har bir obrazni o‘z ovozida jonlantiradi.

Texnologik savodxonlik: Ovoz yozish, muharrirlik ko‘nikmalari shakllanadi.

Nutq madaniyati: To‘g‘ri talaffuz, intonatsiya, ifodali o‘qish rivojlanadi.

Hamkorlik: Guruhda ishlash, rolda chiqish o‘rgatiladi.

Qo‘shimcha topshiriq sifatida “Agar suv tomchisi bo‘lsang, qayerga sayohat qilarding?” degan mavzuda mini-hikoya yozish; “Suv tomchisi maktabga keldi” nomli fantastik hikoya yaratish topshirig‘i berish mumkin.

Insonparvarlik tamoyiliga asoslangan demokratik ta‘lim jarayonida kreativ kompetentga ega shaxsni shakllantirishda interdisiplinar yondashuvni qo‘llash orqali quyidagi vazifalarni bajargan bo‘lamiz:

1. Pedagogik kadrlar tayyorlashda Sharq pedagogikasining interdisiplinar tamoyillarini chuqur o‘rganish;
2. O‘quv dasturlariga fanlararo bog‘liqlikni kuchaytiruvchi modullarni kiritish;
3. O‘qituvchilar uchun Sharq pedagogik merosini zamonaviy ta‘lim metodlari bilan uyg‘unlashtirishga oid treninglar tashkil etish;
4. Talabalar va talabalarni kompleks, real hayotiy loyihalar asosida bilim olishga yo‘naltirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. PQ-4312-son qaror, 2019-yil — “Ta‘lim sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari”
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ–3775-sonli qarori. 2018-yil 3-avgust.
4. Xudoyberdiyev Q. Sharq pedagogikasining asoslari. – T.: TDPU, 2016. – 184-b.
5. Xolboyev S. Qadimiy pedagogik tafakkur. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 132-b.
6. Moran S. The roles of creativity in society // The Cambridge Handbook of Creativity. – 2010. – P. 74–90.
7. Qurbonova G. Sharq va G‘arb pedagogikasida ta‘lim qadriyatlari. – T.: TDPU, 2021. – 144-b.
8. Forobiy A. Fozil odamlar shahri. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1993. – 156 b.
9. Ходжаев Б, Махмудова М. Ўқувчи-ёшларда ахборот истеъмоли маданиятини ривожлантириш технологияси (услугий қўлланма),– Тошкент: «Tafakkur qanoti», 2016. – 80 б.
10. <https://www.researchgate.net>
11. <https://religions.uz/news/detail?id>



MODERN METHODOLOGICAL BASIS AND DEVELOPMENT DIRECTIONS OF MEDICAL ENGINEERING EDUCATION

Shavkatov Otabek Kozimbek o‘g‘li

Andijan State Technical Institute

Department of Metrology and Light Industry, Trainee Teacher,

[*shavkatovotabek101@gmail.com*](mailto:shavkatovotabek101@gmail.com)

Introduction The technological progress taking place in the medical field today is sharply increasing the need for innovative solutions in the healthcare system. Modern medicine requires not only highly qualified doctors, but also engineers capable of designing, testing and technically servicing medical equipment. Therefore, a new and strategically important scientific field such as “medical engineering” has emerged.

Medical engineering is a multidisciplinary field based on the integration of biology, medicine, physics, chemistry, and engineering sciences. Its main goal is to create and improve technical means, software, diagnostics, and therapy equipment to maintain and improve human health. In the process of training specialists in this direction, special attention should be paid to the methodology of education, since not only theoretical knowledge, but also practical skills are of paramount importance [1].

Today, many developed countries in the world, including the USA, Germany, Japan, and South Korea, are investing heavily in medical engineering education and organizing the educational process based on interactive, problem-based learning, and STEM approaches [2]. In Uzbekistan, the development of this field is also one of the urgent tasks in the process of medical reforms [3,4].

This article analyzes modern methodologies used in the effective teaching of medical engineering, develops proposals based on international experience, and considers the possibilities of their implementation in the conditions of Uzbekistan.

Literature-Based Analysis Medical engineering education has been established as a strategic discipline in many countries around the world, where the teaching methodology is well-studied and organized on the basis of standards [5,6]. For example, in the USA, educational disciplines are formed based on the requirements approved by ABET (Accreditation Board for Engineering and Technology). These requirements cover, in addition to engineering knowledge, biomedical sciences, information technologies, ethics, and scientific research skills [7].

Currently, the following pedagogical approaches are widely used in medical engineering education:

- STEM education (Science, Technology, Engineering, Mathematics): develops students' ability to solve scientific and technical problems and work on the basis of integrated knowledge.
- Problem-Based Learning (PBL): students actively participate in the process of analyzing and finding solutions based on real medical problems, independently or in groups.
- Integrated approach: The integrated teaching of disciplines such as medicine, biology, mechanics, electrical engineering, and programming ensures that a specialist has comprehensive knowledge [8].

Literature analysis shows that many higher education institutions are introducing the following activities into their curricula:

- Practical training in working with biomedical equipment;
- Use of computerized simulators and virtual laboratories;
- Participation of students in startups and innovative projects.

In Uzbekistan, taking into account scientific and technical developments in the field of medicine, the need for the introduction and effective training of biomedical engineering is growing [9]. However, in practice, there are problems in this area, such as a shortage of teachers, a lack of modern laboratories, and limited teaching and learning materials.

Methodology (Teaching Methods)

The use of modern pedagogical approaches is of great importance in the effective teaching of medical engineering. Because a specialist in this field must have not only theoretical knowledge, but also practical skills, design and maintenance skills [10]. The most effective methodologies for organizing this education are presented below:

Combination of theory and practice. Specialists working in the field of medical engineering are often required to work directly with medical equipment. Therefore, theoretical knowledge should be reinforced with laboratory exercises. The following methods are effective for this purpose:

- Practical training on real medical equipment;
- Teaching technical diagnostics and preventive work;
- Organizing production practice and clinical internship processes.

Цифровые технологии в преподавании русской литературы не просто удобный инструмент, а необходимый компонент современного образовательного процесса. Они позволяют не только повысить интерес студентов к чтению, но и формируют важнейшие навыки XXI века: критическое мышление, умение работать с информацией, способность к совместной работе. Вместе с тем, применение технологий должно быть педагогически оправданным и методически осмысленным.

Таким образом, в условиях цифровой трансформации образование по-прежнему остается пространством мышления и культурного диалога. А русская классическая литература — неисчерпаемым источником гуманистических ценностей, которые, при правильной подаче, находят отклик в сердцах молодого поколения. Практика показывает, что именно сочетание традиционного филологического анализа с современными цифровыми средствами обеспечивает наиболее продуктивное обучение, адаптированное к нуждам сегодняшнего студента.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Брунер Дж. Культура образования. М.: Просвещение, 2000. 248 с.
2. Чернышева Л. Н. Цифровая педагогика: вызовы и возможности. // Педагогическое образование в России. 2020. № 7. С. 34–39.
3. Ковалева Л. В. Современные образовательные технологии в преподавании гуманитарных дисциплин. // Высшее образование в России. 2018. № 5. С. 106–112.
4. Яковлева Т. А. Этическое воспитание студентов в цифровом образовательном пространстве. // Образование и саморазвитие. 2019. Т. 14. № 3. С. 15–20.
5. Селезнёва И. Г. Информационно-коммуникационные технологии как средство формирования читательской компетенции студентов. // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2014. № 6. С. 65–69.
6. Образцова И. А. Геймификация в гуманитарном образовании. // Современные проблемы науки и образования. 2017. № 6.
7. Сайт ЛитРес: Учебник — <https://b2b.litres.ru/uchebnik/>
8. Платформа Arzamas — <https://arzamas.academy/>
9. Национальная электронная библиотека — <https://нэб.пф>
10. ZiyoNET — <https://ziyonet.uz>



**«РЕЧЕВОЕ РАЗВИТИЕ ЧЕРЕЗ ДИДАКТИЧЕСКИЕ ИГРЫ ПРИ
ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА »**

Курбанова Назира Низомиддиновна

*Термезский университет экономики и сервиса
Преподаватель кафедры “Педагогика и психологии”*

Аннотация Говорить умеют все, но правильной грамотной речью обладают не многие. Общась с другими, мы используем речь, как средство передачи своих мыслей. Именно речь отличает человека от других представителей живого мира. Именно благодаря речи мы общаемся друг с другом, а самое главное через общение человек реализует себя как личность.

Ключевые слова:речь,игра,ребёнок,воспитание,развитие,детство

**"SHET TILINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI NUTQNI
RIVOJLANTIRISH "**

Annotatsiya Boshqalar bilan muloqot qilishda biz nutqdan fikrlarimizni etkazish vositasi sifatida foydalanamiz. Bu odamni tirik dunyoning boshqa vakillaridan ajratib turadigan nutq. Nutq tufayli biz bir-birimiz bilan muloqot qilamiz va eng muhimi, aloqa orqali inson o'zini shaxs sifatida anglaydi.

Kalit so'zlar: nutq, o'yin, bola, tarbiya, rivojlanish, bolalik

**«SPEECH DEVELOPMENT THROUGH DIDACTIC GAMES IN TEACHING A
FOREIGN LANGUAGE»**

Abstact Everyone can speak, but not many people can speak correctly. When communicating with others, we use speech as a means of conveying our thoughts. It is speech that distinguishes a person from other representatives of the living world. It is through speech that we communicate with each other, and most importantly, through communication, a person realizes himself as a person.

Keywords:speech,play,child,upbringing,development,childhood

Введение Дошкольный возраст период активного развития речи. Овладение иностранным языком - является одним из самых важных приобретений ребёнка в дошкольном детстве и рассматривается в современном дошкольном воспитании, как общая основа воспитания и обучения детей. Как писал Л.С. Выготский: «Есть все

фактические и теоретические основания утверждать, что не только интеллектуальное развитие ребёнка, но и формирование его характера, эмоций и личности в целом находится в непосредственной зависимости от речи». [2]

Как известно, любимая детская деятельность это -игра. Во время игры дети общаются между собой, познают новое и приобретают навыки общения, мышления, развивают речь. Без игры нет и не может быть полноценного умственного развития. Игра – это огромное светлое окно, через которое в духовный мир ребёнка вливается живительный поток представлений, понятий. Игра – это искра, зажигающая огонёк пытливости и любознательности.

Речевое развитие детей является одной из главных задач, реализуемых в детском саду. Для лучшего усвоения материала и формирования иностранной грамотной речи, необходимо использовать такие средства и приёмы, которые будут способствовать лучшему усвоению знаний в данной области. Лучшим помощником в речевом развитии дошкольников является дидактическая игра. Использование в педагогическом процессе детского сада дидактических игр повышают эффективность воспитания и обучения. [1]

МЕТОДЫ Дидактические игры – это одно из средств воспитания и обучения детей дошкольного возраста. Дидактические игры являются эффективным средством для речевого развития дошкольников. Систематическое использование дидактических игр способствует лучшему усвоению материала.

В процессе игры у детей дошкольного возраста:

- повышается речевая мотивация, успешно развиваются коммуникативные навыки;
- обогащается и активизируется словарь детей;
- развивается речевое дыхание и правильная артикуляция, логика речи, связная и образная речь;
- совершенствуется диалогическая речь, её грамотный строй;
- развивается внимание, память, мышление, воображение;
- дети запоминают большее количество речевого материала;

В последние годы отмечается увеличение количества детей, имеющих нарушения речи. В наше время дети больше проводят время за компьютером и телефоном, общение дома детей сведено к минимуму, родители полагают, что достаточно тех занятий по развитию речи, которые приводятся в детском саду, однако, как видно из практики этого недостаточно для формирования речевых умений и навыков. В решении данной проблемы отличным помощником служит дидактическая игра. [3]

Дидактическая игра – как и любая игра, является незаменимым источником энергии и живительной силы для каждого ребёнка. Дидактические игры увлекают детей, вызывают в них огромный интерес. Благодаря дидактическим играм ребёнок незаметно получает нужные знания и умения. В процессе игры ребёнок общается, выражает свои мысли, суждения, у него формируется правильный грамматический строй, развивается,

связная и диалогическая речь. Благодаря дидактическим играм речь ребёнка становится более ясной и понятной. Используя в своей работе данные игры, можно выполнить многие педагогические задачи. Нельзя не отметить, что данные игры, завораживают детей своей красочностью, яркостью. Дидактические игры легко можно сделать своими руками из подручного материала. Сами дети могут участвовать в создании игры. Занятия по созданию дидактической игры будут интересны любому ребёнку.

РЕЗУЛЬТАТЫ Все дидактические игры можно разделить на три основных вида: игры с предметами (игрушками, природным материалом), настольно - печатные и словесные игры.[4]

Игры с предметами

В играх с предметами используются игрушки и реальные предметы, Играя с ними, дети учатся сравнивать, устанавливать сходство и различие предметов. С помощью данных игр дети знакомятся со свойствами предметов и их признаками: цветом, величиной, формой, качеством. Данные игры способствуют активизации словаря, развитию памяти, логического мышления.

Во время дидактических игр с предметами ребёнок учится мыслить, анализировать, сравнивать предметы между собой, он становится более внимательным, расширяется его кругозор, у него улучшается мелкая моторика. Примеры игр с предметами: «Волшебный мешочек» «The Magic bag», «Радуга» «Rainbow».

Настольно печатные игры

Данные игры очень нравятся детям, они несут не только развлекательный характер, но и являются отличным помощником в речевом развитии детей. Настольно -печатные игры способствуют развитию связной речи, грамматического строя речи, обогащают словарный запас, развивают воображение, мышление, память.

Существуют различные виды настольно -печатных игр, способствующих речевому развитию. Это различные «ходилки, домино, лото, звуковые дорожки, кубики с условными знаками. К таким играм относятся: «Подбери слова к картинкам» «Match the words to the pictures», «Составь рассказ по картинкам» «Make up a story from the pictures» «Звуковые дорожки» «Soundtracks».

Словесные игры

Словесные игры построены на словах и действиях играющих. Данные игры способствуют решать разнообразные мыслительные задачи; описывать предмет, выделяя характерные их признаки; отгадывают по описанию; находить признаки сходства и различия; группировать предметы по различным свойствам, признакам. Данные игры имеют большое значение для развития мышления ребёнка, так как в них дети учатся высказывать самостоятельные суждения, делать выводы и умозаключения, не полагаясь на суждения других замечать логические ошибки.

Словесные игры развивают у детей речь и мышление, фантазию и воображение. Для словесных игр не нужен никакой реквизит, играть в них можно по дороге в детский сад, в очереди или во время поездки в транспорте.

Примеры словесных игр: «Что это за птица (зверь)?» «What kind of bird (beast) is this?» «Придумай небылицу» «Come up with a story», «Отвечай быстро» «Answer quickly», «Назови три предмета» «Name three subjects», «Кто больше назовёт предметов?» «Who will name more subjects?».

Результаты Таким образом, мы можем говорить о том, что дидактическая игра даёт огромный простор для развития речевой активности старших дошкольников. Она направлена на владение речью как средством общения, обогащение активного словаря, развитие связной, грамматически правильной диалогической и монологической речи, развитие звуковой и интонационной культуры речи, фонематического слуха, формирование звуковой активности.

Систематическое проведение игр помогает в решении вопросов умственного развития детей, т.к. совершенствуется такое ценное качество памяти, как припоминание, значительно улучшается произвольное внимание, развивается быстрота мышления. Речь детей становится более чёткой, правильной, выразительной. Эффективность постоянного применения дидактических игр при развитии речи детей дошкольного возраста очень высока.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Астафьева, М. Д. Игры для детей, изучающих английский язык. Сборник игр для детей 6–7 лет [Текст] / М. Д. Астафьева. — М.: Мозайка-Синтез, 2007.
2. Выготский, Л. С. Игра и её роль в психическом развитии ребёнка [Текст] / Л. С. Выготский // Вопросы психологии. — 1966.
3. Зимняя, И. А. Психология обучения иностранным языкам в школе [Текст] / И. А. Зимняя. — М.: Просвещение, 1991.
4. Калиниченко, А. В. Развитие игровой деятельности дошкольников [Текст]: методическое пособие / А. В. Калиниченко, Ю. В. Микляева, В. Н. Сидоренко. — М.: Айрис-пресс, 2004.



UDK: 37.012.8

ORCID:0009-0006-8431-4032

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ANIQLASHDA "KOMPETENTLIK XARITASI"DAN FOYDALANISH

Sotvoldiyev Elmurodjon Abdumannonovich,

Qo'qon davlat universiteti, Texnologik ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Mail: asadalp3312@gmail.com. Tel: +998912043394

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini aniqlashda "Kompetentlik xaritasi" dan foydalanish masalalari yoritib berilgan. Kompetentlik xaritasini tuzish, unga qo'yiladigan talablar va natijalarni tahlil qilish bo'yicha izlanish olib borilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kompetentlik, maxsus kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, kompetentlikni aniqlovchi omillar, kompetentlik xaritasi, "Quyoshli osmon" xaritasi, Ballik xarita.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ "КАРТЫ КОМПЕТЕНЦИЙ" ДЛЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы использования "Карты компетенций" для определения профессиональной компетентности будущих учителей. Проведены исследования по составлению карты компетенций, предъявляемых требований, анализу результатов.

Ключевые слова: Компетенция, компетентность, специальная компетентность, личностная компетентность, факторы, определяющие компетентность, карта компетентности, карта "Солнечного неба", карта баллов.

USING THE "COMPETENCE MAP" TO DETERMINE THE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Annotation: This article highlights the issues of using the "Competence Map" to determine the professional competence of future teachers. Research has been conducted on the compilation of a map of competencies, requirements, and analysis of results.

Key words: Competence, special competence, personal competence, factors determining competence, competence map, "Sunny sky" map, points map.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonida oliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlar sifatiga bir qancha talablar qo‘yilgan.

Xususan farmonda “oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish” vazifasi qo‘yilgan [1].

Bugungi kunda mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarga qanday talablar qo‘yilmoqda? Bizga ma’lumki, yaqin davrlargacha kadrlarning sifat darajasi, ularning bilim, ko‘nikma va malakalari bilan belgilanar edi. Biroq bugungi kunda bu tendensiyaning o‘zgarayotgani ko‘zga tashlanmoqda. Bir qator rivojlangan davlatlarda kadrlarning sifat darajasi ularning bilim, ko‘nikma va malakalari bilangina emas, balki bu kadrlarning kompetentligi hamad kreativ fikrlay olish darajasi bilan ham o‘lchanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Kadrlarning kompetentligi va kreativ fikrlashiga ko‘ra saralash, dastlab biznes sohasida qo‘llanilgan. Bu tajribaning muvoffaqiyati, uning boshqa soxalar qatori ta’lim sohasida ham tadbiq etilishiga sabab bo‘ldi.

Bu o‘rinda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarigam izoh berib o‘tsak. Kompetensiya-kadrlarning bilimini aniqlashdir. Kompetentlik esa kengroq tushuncha bo‘lib, u xodimning nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarga ega ekanligi, balki shu bilim, ko‘nikma va malakalarni samarali (professional) qo‘llay olish darajasini belgilaydi.

Kompetensiyaga G.O. Ochilova va S.SH. Akbarovalar quyidagicha ta’rif berishadi; Kompetensiya - xodimning kompaniya kutayotgan darajada va belgilangan tarkibda ishlab chiqarish xulqini muntazam ravishda namoyish qilishga tayyorlik qobiliyati [2].

Rossiyalik tadqiqotchilar: Kompetentsiya xaritasi (yoki kompetentsiya matritsasi) — bu kompaniyaning maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni batafsil ko‘rib chiqish imkonini beradigan vosita, deb ta’rif berishadi [5].

Yevropalik tadqiqotchilarning fikricha, “Xodimlarning kasbiy kompetentligini aniqlash (kompetentlik xaritasi orqali) ularning bilim va ko‘nikmalaridagi bo‘shliqlarni aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, bu esa ishga qabul qilish bo‘yicha oqilona qarorlar qabul qilish va ushbu bo‘shliqlarni bartaraf etadigan ta’lim va rivojlanish tashabbuslariga sarmoya kiritish imkonini beradi.” [6].

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Bo‘lajak o‘qituvchining kompetentlik modeli—uning ideal kasbiy portreti hisoblanadi. Xo‘sh bo‘lajak o‘qituvchining kompetentlik modelini yaratishda qanday kompetensiyalriga

e’tibor qaratiladi? Mutaxassislar asosiy e’tiborni quyidagi 10 ta kompetensiyaga qaratish zarur hisoblaydilar;

- Bilim.
- Nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish.
- Jamoa bilan ishlay olish.
- Ma’suliyatlilik.
- Javobgarlikni xis qilish.
- Liderlik.
- Natijani belgilay olishlik.
- Mustaqil qaror qabul qilish.
- Masalani mustaqil hal qilish.
- Kreativ fikrlash

Kadrlarni kompetentligini aniqlashda kompetensiyalarni turlarga ajratib olish, xodimlarning kompetentligini aniqlashni va baholashni osonlashtiradi. Qulaylik uchun kompetensiyalarni 3 guruhga ajratib olishimiz mumkin.

1.Maxsus kompetensiyalar. Bu muayyan ishni yaxshi bajarish uchun sizga kerak bo‘lgan kasbiy mahorat va ko‘nikmalar: texnologik, analitik, tashkilotchilik, kreativ kompetentliklar.

2.Shaxsiy kompetensiyalar. Shaxslararo muloqot va samarali ishlash uchun muhim bo‘lgan shaxsiy xususiyatlar: kommunikativ, emotsional, boshqaruvchilik, o‘z-o‘zini rivojlantirish kompeteniyalari.

3. Boshqaruv kompetensiyalari. Strategik fikrlash, o‘zgarishlarni boshqarish, motivatsiya va xodimlarni boshqarish, qaror qabul qilish, ijro nazorati.

Kompetentlik xaritasini qanday ishlab chiqish kerak? Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun kompetentlik xaritasini tuzishda nimalarga e’tibor qaratish zarur?

Kompetentlik xaritasini tuzishdan oldin beshta savolga orqali aniq strategiyani belgilab olish zarur:



1. O‘qituvchi uchun qanday bilim, ko‘nikma va malaka zarur?
2. Bo‘lajak o‘qituvchilar hozirda qanday bilim, ko‘nikma va malakaga ega?
3. Ularga kerak bo‘lgan kompetensiyalar va ular mavjud bo‘lgan kompetensiyalar o‘rtasida farq bormi?
4. Agar shunday bo‘lsa, bu bo‘shliqni qanday to‘ldirishni rejalashtiramiz?
5. Xodim olingan bilim, ko‘nikma va malakalarini qanday va qayerda namoyish qilishi mumkin?

Endi, kompetentlik xaritasini tuzishni ko‘rib chiqaylik.

1-xarita “Quyoshli osmon” deb nomlanadi. Bu usul yuqori aniqlik bermasa ham, kompetentlikni aniqlash juda oson va qulay hisoblanadi.

Quyidagi ko‘rinishda jadval tayyorlaymiz. Aniqlashimiz kerak bo‘lgan (mutaxassislikka mos ravishda) kompetensiyalarni belgilaymiz. Bizning xolatimizda bular; bilim, malaka,

tashkilotchilik, liderlik va mustaqil qaror qabul qilishdir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetentligi darajasi mos ravishda “Quyosh”, “Oy”, “Bulut” va “Yomg‘ir” simvollarini ko‘rinishida joylashtiriladi. Natijalar tahlil qilinadi. Qaysi talabaning qatorida ko‘proq “Quyosh” bo‘lsa, shu talabaning kompetentligi yuqori hisoblanadi.

№	F.I.SH	Bilim	Malaka	Tashkilotchilik	Liderlik	Mustaqil qaror qabul qilish
1.	Abduvahobova Hamidaxon Ibrohimjon qizi					
2.	Abduvaliyeva Burobiya Ulug‘bek qizi					
3.	Abduvaliyeva Ruxshona Abdug‘affor qizi					
4.	Akramova Sayyoraxon Adhamjon qizi					
5.	Azamova Durdona Abdulkarim qizi					
6.	Begijonov Shohruxon Hasanxonzoda					
7.	Gafarova Nargiza Isakovna					

2-xarita kompetensiyalarni ball orqali baholashga asoslangan. Xaritani tuzishda, mutaxassislikka qo‘yiladigan asosiy talablarga ko‘ra aniqlanishi zarur bo‘lgan kompetentliklar

belgilab olinadi. Bu kompetentliklarning muhimlik darajasiga ko‘ra turlicha ball bilan baholash mumkin. Ballik xaritani tuzishni misollar yordamida ko‘rib chiqaylik. Ballik xaritani xar bir o‘quvchi uchun induvidial xolda tuzish tavsiya etiladi.

Masalan: Toxirov Saminjon Abduqodir o‘g‘lining kompetentlik xaritasi.

Baholash	Maxsimal ball				
	10	10	10	10	10
A‘lo (8-10 ball)	8			9	
Yaxshi (4-7 ball)		7	5		
Qoniqarli (1-3 ball)					3
Qoniqarsiz (0 ball)					
	Nazariy bilimi	Amaliy tajribasi	Kreativ fiklash darajasi	Tashkilot- chiligi	Mustaqil qaror qabul qilishi

Jami yig‘ilgan ball (32) ni maxsimal ball (50) ga bo‘lish yo‘li bilan talabanning kompetentligini aniqlaymiz. Bizning xolatimizda talabanning kompetentligi;

$$TK = \frac{32}{50} * 100 = 64\% \text{ ga teng. Bu xolatda kompetenlik qoniqarli hisoblanadi.}$$

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, qo‘yiladigan talabga ko‘ra kompetensiyalar va ularga belgilangan ballarni o‘zgartirish mumkin.

XULOSA.

Kompetentlik xaritasi orqali nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetentligini aniqlash, balki ta’lim berish jarayonida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar va bo‘shliqlar to‘g‘risida ham xulosa chiqarish mumkin. Xaritani tahlil qilish orqali, qaysi kompetensiyalarga asosiy e’tiborni qaratish va qaysi kompetentsiyalrni tanlab olish bo‘yicha xulosaga kelish mumkin.

Bundan tashqari, “Kompetentlik xaritasi”dan yana quyidagi maqsadlarda ham foydalanish mumkin.

- Bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash;
- Yuqori malakali kadrlarni aniqlash va tanlab olish;
- O‘qituvchilarning KPI asosida baholash;
- Bo‘lajak o‘qituvchilarning rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktab,

PF-5847-sonli Farmoni (Decree of the president of the Republic of Uzbekistan “on approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030” Oct.).

2. Ochilova G.O., Akbarova S.SH.. Kasbiy kompetentlik. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 324 bet. Darslik (Ochilova G.O., Akbarova S.SH .. professional competence. - T.: "Innovative development publishing-printing house", 2022. 324 PP. Textbook).

3. Daminov O.O., Kasbiy pedagogika. –T.: Adabiyot uchquni, 2018. 256 bet (Daminov O.O., Professional pedagogy. - T.: Spark of Literature, 2018. 256 pp.).

4. Skaffold kartalari. Yevropa Ittifoqining DARYA loyihasi materiallari (Skaffold cards. Materials of the European Union DARYA project).

5. <https://sberbusiness.live/publications/kompetencii>

6. <https://uprav.ru/blog/competence-map/>



KREDIT MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA‘LIMINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI.

Djanaliyeva Gulbaxram Abdurashitovna

*Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti “Pedagogika va psixologiya”
kafedra katta o‘qituvchisi*

Yeldasheva Gulnoz Vasiljanovna

*O‘zbekiston davlat sport akademiyasi xuzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha
mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
“Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar” kafedra dosenti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta‘lim muassasalarida kredit modul tizimi asosida talabalarning mustaqil ta‘lim shakllari, ularning mazmuni, mohiyati va ularni amalga oshirish yo‘llari batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Keyslar, kollokvium, topshiriqlar, intervyu, krossvord, viktorina, esse, dayjest, taqdimot, ish o‘yinlari, Link, Chart, Q/A, Review, SWOT, Interview, Google Apps, Dayjest, Report

Аннотация. В данной статье подробно описаны формы самостоятельного обучения студентов в высших учебных заведениях на основе кредитно-модульной системы, их содержание, сущность и способы реализации.

Ключевые слова. Кейсы, коллоквиум, задания, интервью, кроссворд, викторина, эссе, дайджест, презентация, деловые игры, Ссылка, Диаграмма, Вопросы/Ответы, Обзор, SWOT, Интервью, Google Apps, Дайджест, Отчет

Annotation. This article describes in detail the forms of independent learning of students in higher educational institutions based on the credit-module system, their content, essence and methods of implementation

Keywords. Cases, colloquium, assignments, interview, crossword, quiz, essay, digest, presentation, business games, Link, Diagram, Questions/Answers, Review, SWOT, Interview, Google Apps, Digest, Report

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta‘lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan

mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.¹¹³

Kredit ta‘lim tizimini o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, dunyoning turli davlatlarida u o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta‘minlash va talabalar bilimni reyting asosida baholash.


Talabaning mustaqil ta‘lim yuklamasi o‘quv rejasida muayyan o‘quv modulini o‘zlashtirish uchun belgilangan o‘quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Talabaning mustaqil ta‘limi auditoriya va auditoriyadan tashqarida bevosita o‘qituvchi rahbarligida mustaqil ish yoki talabaning o‘quv moduli bo‘yicha mavzularni mustaqil o‘qib-o‘rganishi tarzida amalga oshiradigan o‘quv ishlari majmuini anglatadi.

Mustaqil ish-o‘qituvchining topshirig‘i va rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta‘limning faol metodi. Mustaqil ish qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Mustaqil ta‘lim talabalar tomonidan u yoki bu fan bo‘yicha darslik yoki dastur materiallaridan bir qismini, kredit-modul tizimida esa o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirilishidir.

Talabalarning mustaqil ishi (TMI) – bu talabaning o‘ziga xos o‘quv faoliyati bo‘lib, u didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, o‘qishga qiziqtirishga va muayyan fan sohasida bilimlarni oshirishga yo‘naltirilgan. TMI mazmuni mantiqiy fikrlashni, ijodiy faollikni, o‘quv materialini o‘zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bog‘liq bo‘ladi.¹¹⁴


O‘RTMI yuklamasi o‘qituvchining yuklamasiga to‘laligicha kirmaydi, biroq kontakt mashg‘ulotlar uchun o‘qituvchiga alohida yuklama belgilanadi (hisob-chizma ishi, kurs ishi, kurs loyihasi, bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy izlanuvchiga rahbarlik, tayanch doktorantga rahbarlik va h.k.). TMIning tashkil qilish oliy ta‘lim muassasalarining asosiy meyoriy hujjatlari, jumladan ishchi o‘quv dasturlari (sillabus), fan modullarini mustaqil o‘rganish bo‘yicha talablarga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

Talabaning bevosita o‘zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlariga (TMT) quyidagilarni kiritish mumkin: (1-rasm)



¹¹³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”

¹¹⁴ Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит-модуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. Т.: “Tafakkur” нашриёти, 2020 й. 120 бет.




1-rasm. Talabanning mustaqil ta'limi.

darsga tayyorlanish – ma'ruza matnlari, vodkastlar, video materiallar, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari bayonlarini o'rganish;

- **axborot izlash** – o'z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o'rganish;
- **FAQ** (ko'p so'raladigan savollar) – o'zini qiziqtirgan muammolarga o'rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;
- **Forum** – fan mavzulari bo'yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;
- **Test yechish** – o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash;
- **Nazorat ishiga tayyorlanish** – fan bo'yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko'rish.

O'qituvchi rahbarligidagi talabanning mustaqil ishi o'qituvchining yuklamasiga to'laligicha kirmaydi, biroq kontakt mashg'ulotlar uchun o'qituvchiga alohida yuklama belgilanadi. O'RTMI ikki hil shaklda amalga oshiriladi. An'anaviy va elektron shaklida amalga oshiriladi. (2-rasm)




2-rasm.Talabaning O‘RTMI

- **masala yechish** – amaliy mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha berilgan masalalarni yechish va uni yozma tarzda taqdim qilish;
- **referat** – muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kitoblar tahliliy bayon qilinadi;
- **kollokvium** – o‘quv modulining nazariy qismining o‘zlashtirilishini tekshirish maqsadida suhbat uyushtirish;
- **esse** – dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- **taqdimot** – berilgan mavzu bo‘yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish;
- **keys-stadi** – ishlab chiqarishdagi muammoli vaziyatlar bo‘yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar bo‘yicha yechim izlash;
- **ish o‘yinlari** – kasbiy faoliyat jarayonlarini imitatsiya qilish, sahnalashtirish, rollarni ijro qilish orqali kasbiy ko‘nikmalar orttirish;
- **glossariy** – berilgan mavzu bo‘yicha atamalarni qisqa izohlash.
- **guruh loyihasi** – 3-5 talabaning hamkorlikda loyiha ishini bajarishi;

- **hisob-chizma ishlari** – odatda texnik fanlar (muhandislik grafikasi, elektrotexnika, axborot texnologiyalari va h.k.) bo‘yicha amalga oshiriladigan belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan grafik va hisob ishlari;
- **kurs ishi** – fan yoki fanlar majmuasi (korxonalar iqtisodiyoti, menejment asoslari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, fuqaro himoyasi va h.k.) muammolari bo‘yicha belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida bajariladigan belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan yozma va hisob ishlari;
- **kurs loyihasi** – fan yoki fanlar majmuasi (texnik mexanika, texnologik jarayon va qurilmalar, mutaxassislikka oid loyiha ishlari bajariladigan fanlar) muammolari bo‘yicha belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida bajariladigan grafik chizmalar ilova qilinadigan belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan hisob ishlari;
- **diplom loyihasi** - mutaxassislik faniga oid berilgan mavzu bo‘yicha ishlab chiqarish korxonasini yoki uning bo‘linmasini loyihalashga qaratilgan, grafik chizmalar va hisob ishlari bilan bayon qilinadigan belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan loyihaviy ish;
- **amaliyot hisoboti** – o‘tkazilgan malakaviy amaliyot (tanishuv, ishlab chiqarish, bitiruv oldi amaliyotlari) bo‘yicha belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan hisobot;
- **fan to‘garaklarida ishtirok etish** – talabaning fan to‘garaklarida maket, slayd, namunalar kabi ko‘rgazmali materiallarni tayyorlashi;
- **tanlovlarda ishtirok etish** – talabaning o‘qituvchining ilmiy rahbarligi ostida turli tanlovlarda ishtirok etishi (“Yosh ixtirochi”, talabalar startap loyihalari va h.k.);
- **fan olimpiadalarida qatnashish** – fanlar bo‘yicha OTM lar o‘rtasida o‘tkaziladigan olimpiadalarda ishtirok etish (kimyo, umumiy kimyoviy texnologiya, fizika, axborot texnologiyalari va h.k.);
- **ilmiy anjumanlarda ma’ruza qilish** – fanga oid ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘yicha OTM, Respublika va xalqaro miqyoslarda o‘tkaziladigan ilmiy-texnikaviy anjumanlarda ma’ruza qilish;
- **ilmiy tezis va maqolalar chop etish** – ilmiy anjumanlarning to‘plamlarida tezislari va ilmiy jurnallarda ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘yicha maqolalar chop qilish;
- **o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlashda ishtirok etish** – darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatma va boshqa o‘quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etish; (3-rasm).

Elektron shakldagi O‘RTMI.



3-rasm. Elektron shakldagi O‘RTMI

- **Link** – internet havolasini ochib unda keltirilgan video yoki matn shaklidagi materialni belgilangan hajmda izohlash;
- **Chart** – jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish.
- **Q/A** – masofaviy ta’lim platformasida o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga belgilangan hajmda yozma javob berish;
- **Review** – taqdim qilingan manbaga annotatsiya yozish.
- **SWOT** – talaba biror tushunchani cheklangan hajmda SWOT-tahlil qiladi;
- **Interview** – muammoni tadqiq qilish bo‘yicha suhbat uyushtirish va uni masofaviy ta’lim platformasiga yuklash;
- **Google Apps** – Google Classroom platformasida hamkorlikda slaydlar, jadvallar, matnlar shaklidagi topshiriqlarni bajarish;
- **Dayjest** – berilgan mavzu bo‘yicha internet-havolalar to‘plamini keltirish, kartoteka tuzish va ularni qisqa izohlash;
- **Report** – talabalar laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha hisobotlarini masofaviy ta’lim platformasiga kiritishadi.

O‘RTMilar ularning bayoni, mavzulari, topshiriqlari, o‘tkazish shakllari, soatlar hajmini ham ko‘rsatgan holda fanning sillabusida fan modullari bo‘yicha keltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, kredit-modul tizimida sifatli ta’limni ta’minlash uchun talabaning mustaqil ishlarini yuqori darajada tashkil etish zarur, chunki, talabada o‘quv bilish faoliyatida faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o‘z vaqtida va mukammal tarzda bajarish, mantiqiy fikrlash, o‘quv materialini o‘zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga erishiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”
2. Usmonov B.SH., Xabibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
3. Ulmasovna, D. M., Asadova, I. Z., Ravilevna, A. A., & Kizi, T. M. B. (2022). Enhancement the creativity of teachers in the context of digital education. International Journal of Health Sciences, 6(S5), 1682– 1689. <https://doi.org/10.53730/ijhs.v6nS5.8967>



KITOB MUTOLASINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR XALQARO TADQIQOTLARNI O‘RGANISHNING AYRIM DOLZARB MASALALARI

Saidmuratova Maloxat

Urganch davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Chet yel olimlarining kitobxonlarning kitob mutolasi va mustaqilligini shakllantirish haqidagi qarashlarining o‘ziga xsligi, bolalarda kitobga mexr uyg‘otish, kitobshi o‘qish uchun kitobni to‘g‘ri tanlash, kitob tanlashda

bolalarni yoshini inobatga olish.

Kalit so‘zlar: kitobxon, mutola, o‘qish mustakillik, motivatsiya, hamkorlik, tanlov erkinligi, qo‘rquv, kognitiv faoliyat, muvofaqiyat, daxldorlik.

Аннотация. В данной статье рассматривается своеобразие взглядов зарубежных ученых на чтение книг и формирование самостоятельности читателей, привитие детям любви к книгам, правильный выбор книги для чтения, учет возраста детей при выборе книги.

Ключевые слова: читател, чтение, самостоятелност чтения, мотиватсия, сотрудничество, свобода выбора, страх, уступчивост, вовлеченност.

Annotation. In this article, the uniqueness of foreign scientists' views on book reading and the formation of independence of readers, instilling a love of books in children, choosing the right book for reading, taking into account the age of children when choosing a book.

Key words: reader, reading, reading independence, motivation, cooperation, freedom of choice, fear, compliance, involvement.

Kirish: Kitob o‘qish xozirgi kurning eng dolzarb masalalaridan biri desak mubldga bo‘lmaydi. Ayniqsa yoshlar orasida kitob mutolasiga katta axamiyat qaratidmoqda. Yoshlarda kitobxonlik mustaqillikini shakllantirish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish uchun kuplab ishlar qilinmoqda. Kitob mutola qilish orqali odam barcha yaxshi fazilatlarni mutola jarayonida kitobdan oladi. Mutola kishini irodali bo‘lishni tarbiyalaydi, didni o‘stiradi, ma’naviy olamini boyitadi. Kitob o‘qimaydigan, uning eng o‘tkir tarbiya vositasi ekanligini his etmaydigan kishi ma’naviy qashshoq, his-tuyg‘ulari maydalashgan, tuban shaxsga aylanib qoladi. Shuning uchun barkamol avlodni voyaga yetkazish eng ulug‘ maqsadimiz ekan, yoshlarni tarbiyalashda kitobning o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanligini aslo unutmasligimiz zarur. Kitob mutolaasi kitobxonlikning eng muhim jarayoni hisoblanadi. Demak, kitobga mehr qo‘yish bilan bir vaqtda mutolaa madaniyatini egallash lozim. Mutolaa madaniyati qanday kitobni o‘qish, qanday

o‘qish, vaqtini qanday taqsimlash, kitobdan olgan bilimlarini tizimlashtira olish, xotirada saqlash yo‘llari kabi jarayonlarni o‘z ichiga olishi to‘g‘risida chet el olimlarini kitobxon mustakilligini shakllantirish buyicha aytgan fikrlari bilarn tanishib chiqamiz.

Adabiyotlar taxlili va metodologiyasi: Mutola jarayonidan kitobxonlarning mustaqilligini shakllantirishning eng muhim sharti ta‘lim muhitini to‘g‘ri tashkil etishdir. Bunday muhit o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lishi va kichik yoshdagi o‘quvchilarning o‘quvchi mustaqilligini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi zarurdir deya aytib takidlagan N.E. Kolganova [9]. Demak kitob mutola qilishda kitobxon kitobni mustaqil tanlay olishi uchuni yoshiga mos keladigan kitoblarni to‘g‘ri tanlashi o‘rgatish va kitobxonlarga to‘g‘ri yo‘nalishni o‘rgatishni ham inobatga olish zarur ekanini ko‘rishimiz mumkin

O‘quv va kognitiv faoliyatda kitobxon boshidanoq faol pozitsiyada bo‘ladi, chunki zamonaviy ta‘lim tizimida o‘qish ta‘lim faoliyati sub’ekti sifatida taqdim etiladi. O‘quv jarayonida o‘quvchi faoliyatining butun salohiyati bolalar kitoblari va o‘quv antologiyalari dunyosini dasturiy asarlar majmuasi bilan idrok etish darajasidan tortib, birgalikda qarorlar qabul qilishda ijtimoiy faollik darajasigacha qamrab olinadi; bilimlar simulyatsiya qilingan o‘quv vaziyatlari jarayonida o‘zlashtiriladi, bu esa kognitiv motivatsiyani, o‘quv jarayonining shaxsiy ma‘nosini rivojlantirishga olib keladi.

Natijalar: Talaba o‘quv ma‘lumotlaridan foydalanish tajribasini to‘playdi, bu ma‘lumotlarda mavjud bo‘lgan ob’ektiv bilimlarni shaxsiy ma’noga, o‘qish qobiliyatiga aylantirishni ta‘minlaydi. Bunday sharoitda bilim olish natijasida o‘quvchining dunyoqarashi va o‘qishga bo‘lgan ehtiyoji, ma‘lumotnoma va lug‘atlardan foydalanish ko‘nikmasi shakllanadi; og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish, dialogda qatnashish, monologlar qurish qobiliyati. Hamkorlik tamoyiliga asoslangan dars shakllari va kitob muhiti kommunikativ tashabbusni, estetik tuyg‘uni tahlil qilish va shakllantirish qobiliyatini, badiiy didni rivojlantirishga yordam beradi.

Ikkinchi avlod standartlarida o‘quv materialiga ta‘lim muhitining tarkibiy qismi va malakali shaxsni shakllantirish vositasi sifatida e‘tibor beriladi.

Bolalar kitoblaridan o‘quv jarayonida boshlang‘ich sinflarda o‘qish uchun material sifatida foydalanish g‘oyasi sinfdan tashqari o‘qish tizimida N.N. Svetlovskaya [13] va moslashtirilgan. G.M. Kachurin Sinfda o‘qishda foydalanish uchun birinchi [12]. Ularning nazariyasi to‘g‘ri tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlari va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar (kitoblarni mustaqil o‘qish, munozaralarda qatnashish, izohlar, kutubxonalar bilan ishlash, mulohaza yuritish) bilan mavjud bo‘lgan o‘qish doirasini bilishni ta‘minlaydi. O‘qish to‘garagini bitta maqsad birlashtiradi - mustaqil o‘qish faoliyati jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilarda bolalar adabiyoti haqida to‘liq idrokni shakllantirish.

Bu o‘rganilgan ishimizda N.N Svetlovskayaning fikriga ko‘ra, kitobxonning mustaqilligi kitobga doimiy ravishda murojaat qilish zaruratini, kuchli tomonlari va qiziqishlariga ko‘ra o‘qish materialini ongli ravishda tanlashda, o‘qish jarayonida o‘qish qobiliyatlarini qo‘llash jaranida namoyon bo‘ladi. O‘quvchi mustaqilligining shakllanishi to‘g‘ri o‘quvchi mustaqilligi

ktobxonning shakllanish nazariyasiga va o‘quvchilarning o‘qish mustaqiligini shakllanish qonuniyatlariga asoslanadi [13].

Muxokama: Sifatida N.N Svetlovskaya [13], birinchi qonun - bu aksioma: kitoblarni bilish qonuni. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning o‘qish doirasini shakllantirgan holda, o‘qituvchilar yosh cheklovlari va yosh istiqbollarini hisobga olgan holda bolalar uchun dolzarb mavzular va foydalanish imkoniyati tamoyillari asosida kitoblarni tanlaydilar [11]. Birinchi sinf uchun bu bolalarning hayotiy tajribasiga tematik jihatdan yaqin bo‘lgan, batafsil ketma-ket hikoya kompozitsiyasiga ega bo‘lgan, bolaga ma‘lum bir hissiy ta‘sir ko‘rsatadigan kitoblar. Ikkinchi sinf uchun mutaxassislar turli xil tematik va janr uslubidagi xususiyatlarga ega kitoblarni tanlaydilar, shu jumladan ko‘p sonli kitob ma‘lumotnomalari elementlari, personajlar va hikoyalarning xilma-xil xususiyatlari, chiziqlar. Uchinchi sinf uchun bu turli xil ijtimoiy ahamiyatga ega badiiy masalalar, murakkab kompozitsiyalar va turli xil til uslublarining kombinatsiyasini o‘z ichiga olgan kitoblar. To‘rtinchi sinf uchun bolalar adabiyotining barcha bo‘limlari bo‘yicha adabiyotlarni tanlash bolalar o‘qishining asosiy bo‘limlari, yo‘nalishlari, turlari va mualliflari haqidagi adabiy fikrlarni umumlashtirish tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi [3].

Ikkinchi qonun, N.N. Svetlovskaya kitobxon madaniyatini shakllantirish faoliyati qonuni deb ataladi. U o‘qishni o‘rgatishning tashkiliy-metodik sohasi samaradorligi darajasini belgilaydigan sezilarli barqaror munosabatlarni aks ettiradi, unga kiritilgan og‘zaki va faoliyat vositalarining boshqa nisbati bilan [13].

Shunday qilib, kitoblar haqidagi asosiy nazariy g‘oyalarni o‘zlashtirib, o‘qish ko‘nikmalari va zaruriy ko‘nikmalarini egallagan holda, talabalar muammo bo‘yicha ma‘lumotni mustaqil izlashga kirishadilar. Ya‘ni, ta‘lim muhiti rivojlanib, axborotga aylanadi.

G.M. Kachurinning birinchi so‘zlariga ko‘ra. Bolalar adabiyoti darslarida birinchi, axborotni rivojlantiruvchi ta‘lim muhiti o‘quvchilarning bolalar adabiyotini idrok etishining psixologik qonuniyatlariga asoslanadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi: janr va mavzularning ochiqqligi tamoyillariga muvofiq bolalar adabiyoti doirasini shakllantirish; Talabaning o‘qituvchi bilan hamkorligi, o‘qish darslarini muhim bilim va ko‘nikmalarga yo‘naltirish, o‘quv materialining o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan ish shakllari va usullarini tanlash, o‘quv jarayonini modellashtirish, o‘quvchilarning mustaqil ravishda bilish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini yaratish; ta‘lim maqsadlarini belgilash, ularga erishish yo‘llarini izlash, darsdagi o‘quv jarayoni va faoliyat natijalarini nazorat qilish va baholash [10, 12].

Bolaning intellektual rivojlanishini ta‘minlaydigan sinf kitobi, kutubxona-axborot va multimedia muhitini yaratish boshlang‘ich maktabda o‘qish kompetensiyasini shakllantirish jarayonining asosi hisoblanadi.

Bundan tashqari, biz N.N. Svetlovskaya tomonidan alohida ta‘kidlangan uchinchi qonunni ta‘kidlaymiz., - o‘qishni istamaslikni o‘rganish orqali qo‘zg‘atish qonuni. Ushbu qonun muallif tomonidan quyidagicha ifodalangan: "O‘qishni istamaslik - bu kichik yoshdagi

o‘quvchilarda bir vaqtning o‘zida o‘qish mustaqilligini uyg‘otmasdan va shakllantirmasdan, muayyan o‘qish ko‘nikmalarini o‘rgatishning ob‘ektiv natijasidir" [13].

O‘qituvchining ko‘p qirrali faoliyatga tayyorligi kichik yoshdagi o‘quvchilarning o‘quvchi mustaqilligini shakllantirishning navbatdagi sharti bo‘lib, u o‘zini o‘zi bilish va shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishni o‘z ichiga oladi, kichik o‘quvchining shaxsiyati ongining tuzilishini bilishni talab qiladi. , rivojlanishni rejalashtirish qobiliyati, uning shaxsida ham, o‘quvchilarning shaxsiyatida ham uning darajasini aniqlash [4].

O‘qituvchining kichik yoshdagi o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatishga tayyorligi axborotni rivojlantiruvchi ta‘lim muhitida o‘qishning pedagogik jarayonini modellashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi, shunda o‘quvchining mustaqilligi sub‘ekti sifatida uning o‘zini o‘zi rivojlantirishga qaratilgan faoliyatini rivojlantirish mumkin bo‘ladi. bilim, o‘z-o‘zini o‘zgartirish va o‘zini o‘zi anglash.

O‘qishni o‘rgatish metodologiyasida N.N. Svetlovskaya va G.M. Kachurin, birinchi o‘qituvchining mahorati bolalar adabiyoti yordamida har bir bolada o‘ziga xos imkoniyat va qobiliyatlarni uyg‘otish qobiliyatiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

N.N. Svetlovskayaning fikricha, pedagog o‘qish darsi davomida asardagi muammoli vaziyatni ko‘rishi va uni pedagogik vazifa shaklida tashkil qilishi, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini baholash, bashorat qilish, rag‘batlantirish, ularning bilim darajasini aniqlash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. G.M. Kachurin birinchi "o‘qituvchining mahorati adabiy o‘qish darsiga tayyorgarlik ko‘rishda namoyon bo‘la boshlaydi" deb hisoblaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchining vazifasi "aniq tashkil etish va ilmiy tashkil etish orqali bolalarning intellektual va hissiy rivojlanishining tabiiy yo‘nalishini qo‘llab-quvvatlashdir [7].

Adabiy o‘quv materialining o‘ziga xosligi va badiiy asarni idrok etish qonuniyatlarini hisobga olgan holda o‘qish jarayonini muloqot sifatida boshqarish, bolalarning o‘qish faoliyatida mustaqillikni bosqichma-bosqich oshirish" [12].

Shu bilan birga, o‘qituvchining kasbiy faoliyatini maktab, sinf va dars faoliyati bilan to‘xtatib bo‘lmaydi, albatta. Bolalarning kitobxonlik mustaqilligini shakllantirishda kutubxonalar bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinflarda kutubxona darslari ham kichik yoshdagi o‘quvchilarning kitobxonlik faolligini kengaytirishni ta‘minlaydi, bu esa qog‘oz va texnik resurslar bilan jihozlangan zamonaviy kutubxonalarning axborot muhitini yaratish imkonini beradi. An‘anaviy va elektron kitoblarni o‘qish, bolalar o‘qishi uchun yuqori sifatli o‘quv materialini tanlash o‘ziga xos xususiyatlarga ega va maktab o‘quvchilarining kitobxon mustaqilligini shakllantirishga yordam beradi.

Bolalarning o‘qish mustaqilligini shakllantirish shartlaridan biri bu zarur tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish bo‘lib, ular orasida darslarni moddiy ta‘minlash (kitoblar, jadvallar, kitoblar ko‘rgazmasi uchun maxsus stendlarning mavjudligi va boshqalar) mavjud alohida ahamiyatga ega.

Sifatida A.A. Abdullina [1], puxta ishlab chiqilgan "Kitobxon burchagi"dan ijodiy foydalanish o‘qish darslari samaradorligiga katta hissa qo‘shadi. Talabalar uchun asosiy me‘yor

“Kitobxonlar burchagi”da o‘zini ustadek his qilish, qaysi kitoblar qaerda, nima qilish mumkin va nima bo‘lmasligini bilishdir.

Siz: 1) hohlasangiz, darsdan xoli istalgan vaqtda “Kitobxon burchagi”dagi kitoblarga yaqinlashishingiz mumkin; 2) qiziq bo‘lgan har qanday kitobni oling, ko‘rib chiqing, o‘qing, varaqlang, lekin keyin uni o‘rniga qo‘ying; 3) darsga olib kelish va uydan olib kelingan kitobni ma’lum bir joyda “Kitobxon burchagi”da namoyish etish; 4) "Kitobxon burchagi"ga bo‘sh joyga har qanday mahsulot yoki rasmni ko‘rgazmaga qo‘ying va osib qo‘ying. o‘qish; 5) har bir talaba zarur deb hisoblaganda kitobingizni (chizma, mahsulot) uyingizga olib boring.

Siz: 1) ruxsatsiz birovning kitobini uyingizga olib keta olmaysiz; 2) shovqin qilish, surish, o‘rtoqlarning qo‘lidan kitoblarni yirtib tashlash va hokazo, ya’ni boshqa bolalarga - burchakning bir xil to‘la huquqli egalariga aralashish; 3) kir qo‘llar bilan kitoblarni qabul qilish.

Bundan tashqari, A.A. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Abdullina sinfda qo‘shimcha kutubxona va uning katalogini yaratishga qiziqishi kerak, bundan bolalar nafaqat darsdan keyin, balki o‘qish darslarida ham, rolli o‘yinlarda foydalanishlari mumkin. “Kitobxon burchagi”ni loyihalash va undan foydalanishga bunday yondashuv maktab o‘quvchilarining kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashga, eng muhimi, mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi [1].

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning kitobxon mustaqilligi asoslarini shakllantirishning navbatdagi pedagogik sharti birinchi sinfdan to to‘rtinchi sinfgacha o‘qish malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirishdir. Keling, har bir bosqichni batafsil ko‘rib chiqaylik.

Birinchi bosqich moslashish bosqichi bo‘lib, u o‘qish va yozishni o‘rganish davriga to‘g‘ri keladi. Uning maqsadi o‘qish motivatsiyasini rivojlantirishdir. Bu bosqichda o‘quvchilar bolalar kitoblarini tinglash va tomosha qilish orqali kitobni sevishni o‘rganadilar. Mustaqil o‘qish asoslarini shakllantirishning moslashuvchan-motivatsion bosqichida o‘qituvchi bolalar uchun qulay kitob muhitini yaratadi.

Ikkinchi bosqich - kognitiv faoliyat. O‘qituvchi o‘quvchilarning ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, bu o‘qish manbalarini badiiy turdagi klassik bolalar adabiyoti, ilmiy va o‘quv kitoblari, amaliy bolalar adabiyoti, ma’lumotnomalar, risolalar va boshqalar bilan diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Ifodali o‘qish - o‘z intonatsiyasini ifodalash demakdir. o‘qigan narsaga munosabat, baholash hissiy ta’siri nuqtai nazaridan o‘qilgan narsaning mazmuni. Ifodali o‘qish - tinglovchilarga etkazish, ya’ni. o‘qish jarayonida muallif fikrini ifodalash, o‘ziga maftun etish, o‘qish ritmi, ovoz tembri, o‘ziga xos intonatsiyalar, o‘qigan narsasiga o‘z munosabati bilan maftun etish.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida bolalar kitob bilan ishlash algoritmini o‘zlashtirib, mustaqil ravishda kitob o‘qish jarayonida olingan ko‘nikmalarni qo‘llashni o‘rganadilar.

Kommunikativ faoliyatning uchinchi bosqichi - o‘qiydigan, o‘z bilimini kengaytirish va to‘ldirish, kitobxonning dunyoqarashini kengaytirish maqsadida mustaqil va malakali foydalanish mumkin bo‘lgan kitoblar va boshqa bosma materiallarni mustaqil va malakali o‘qiy oladigan o‘quvchini tavsiflovchi ko‘nikmalarni bevosita shakllantirish.

Ta’limning ushbu bosqichida o‘qituvchining vazifasi bolalar uchun o‘qishning mumkin bo‘lgan doirasini maksimal darajada oshirish, ularga berilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustaqil ravishda egallash uchun turli xil va janrlardagi mavjud adabiyotlarni tanlash va ulardan foydalanish usullarini o‘rgatishdir; bolalarni tizimli mustaqil o‘qishga o‘rgatish [6].

To‘rtinchi bosqich - o‘z-o‘zini anglash bosqichi bo‘lib, u o‘qish yillari davomida olingan kitoblar haqidagi bilimlar va ular bilan mustaqil harakat qilish qobiliyatiga asoslangan kitobxonning xohish va qiziqishlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘z-o‘zini anglash bosqichida bolalarning kitobga va mustaqil o‘qishga bo‘lgan munosabatida sezilarli, ammo muntazam sifat o‘zgarishlari kuzatiladi. Bu kitobxon mustaqilligining shakllanish bosqichidir [6].

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning o‘qish mustaqilligini baholash mezonlari uchta komponentning kombinatsiyasi hisoblanadi: motivatsion, o‘quvchining o‘qish va o‘qish mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan; o‘qishning samarali usullarini, ko‘nikmalarini va sifatli ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat; kognitiv, o‘quvchi dunyoqarashini, adabiy g‘oyalarini va ularga erishish yo‘llari haqidagi bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan [14].

- talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga imkon berish;
- ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Talabalarning mustaqil ta'limi auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish, auditoriyadan tashqari vaqtda mustaqil ish topshiriqlarini bajarish, fan (modul) bo'yicha mavzularni mustaqil ravishda Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish shaklida tashkil etsa bo'ladi.

Auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- ma‘ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;
- seminar-konferentsiyalarga tayyorgarlik ko‘rish;
- ko‘p so‘raladigan savollar orqali o‘zini qiziqtirgan muammolarga o‘rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;
- fan mavzulari bo‘yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta‘lim platformalarida fikr almashish;
- o‘rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan (modul)ga oid bilimlarini mustahkamlash;
- nazorat ishlariga tayyorgarlik ko‘rish;
- sinovga tayyorgarlik ko‘rish;
- imtihonga tayyorgarlik ko‘rish.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish;
- ma‘ruzalar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va jamoaviy o‘quv loyihasi tuzish;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg‘ulot ishlanmalarini tayyorlash.

Mustaqil ta‘limni yo‘lga qo‘yishda nafaqat talabalarni muayyan fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirish, ularda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish, shu bilan bir qatorda bo‘lajak mutaxassis sifatida talaba shaxsida ijodiy va ilmiy tafakkurni rivojlantirish vazifasi turar ekan, ma‘lum ma‘noda global professionallik masalasi ham o‘z tasdig‘ini topishi kerak. Bu jarayondagi ijodiy texnologik yondashuv talabadan tezkor fikrlashni va faol harakatni talab qiladi. Chunki talabadagi faollik ijodiy faoliyatga aylangan taqdirdagina mehnatni ilmiy tashkil qilish, vaqt byudjetidan unumli foydalanish amalga oshiriladi. Ana shunda talaba qiziqishlar asosida o‘zining diqqatini muayyan ob‘ektga qaratadi. Ijodiy texnologik faoliyat shunchaki oson kechadigan jarayon emas, shaxsning sezgisi, idroki, uning xotirasi hamda mantiqiy tafakkur ko‘lami bilan uyg‘un bog‘lanib ketadi.

Bugun oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta‘lim turlari tarbiyaviy ishlarning asosiy qismlaridan biridir. Bunda uzluksiz ta‘lim olish jarayonini shakllantirishda

mustaqil ta'lim faoliyati asos bo'ladi, biroq mustaqil ta'lim jarayonida ishlash, o'qituvchi (uni tashkil etish va natijalari bo'yicha) nazoratining yo'qligini anglatmaydi. Shuning uchun mustaqil ish talabalarning kompetensiyalarini, o'zlashtirishdagi faoliyatini anglatadi, bu pedagogning bevosita rahbarligi ostida bo'lmasa ham amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim olish strategiyasi asosida oliy ta'lim muassasalarida fanni o'rganish jarayonida talabalarning mustaqil ta'lim olishini pedagogik jihatdan yo'naltirish to'rt (kirish, propedevtik, uslubiy, pragmatik) bosqichdan iborat. Til o'rganish jarayonida talabalarning o'quv faoliyati ustida mustaqil monitoring o'tkazish qobiliyatini shakllantirish mezonlari: til grammatikasini mukammal o'zlashtirish va mustaqil ta'limni boshqarish nazariyasi hamda usullarining mavjudligi va sifatini bilish; o'rganish jarayonida mustaqil ta'limni nazorat qilish va o'quv faoliyatini boshqarish jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlaydigan kompetensiyalarning amaliy bilish darajasi; o'quv faoliyatini tizimli ravishda amalga oshirish, mustaqil ta'limni boshqarish tizimini anglash maqsadga muvofiqdir.

Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini shakllantirish bosqichma- bosqich amalga oshiriladi, ya'ni epizodik mustaqil ta'limdan barqaror mustaqil ta'limga o'tish faolligini ta'minlaydi. Ushbu jarayonning asosi talabalar o'z oldiga maqsadlar qo'yish, ta'lim jarayonini rejalashtirish, ma'lumotlarni nazorat qilish, mustaqil ta'limni kasbiy faoliyatda rivojlantirish modelini shakllantirish qobiliyatiga ega bo'lgan o'quv ziddiyatlarini modellashtirish tarzida amalga oshiriladi. Talaba bajarayotgan mustaqil ta'limida intellektual qobiliyatini namoyon etishi, mahorati va malakalarini, kerakli materiallarni va eng ratsional texnologiyalarni tanlashi, tegishli hisoblarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi dars jarayonini aniq bir maqsad yo'lida tanlab o'tkazishi zarurki, talaba mavzuni o'rganish davomida o'zida tug'ilgan yangi g'oya va ma'lumotni mustaqil ish sifatida bajarish loyihasini tuzadi. Talaba bajargan mustaqil ishini guruhdoshlari orasida muhokama qiladi va u bajargan ishi yuzasidan muammoli savollarni o'rtaga tashlaydi shu borada o'qituvchi va talabalar o'rtasida mavzu bo'yicha ochiq muloqot yuritiladi. Faol qatnashgan va mustaqil ishni mukammal qilib bajargan talabalar o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lg'usi mutaxassislar, ya'ni talabalarning tashkilotchilik va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda o'quv loyihalari ta'lim metodidan foydalanish quyidagi natijalarni ko'rsatadi: mazkur metod talabalarda ijodkorlik sifatlarini shakllantirish imkonini yaratadi; talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash va malaka-ko'nikmalarni hosil qilishga zamin bo'ladi; ushbu metod orqali talabalarda axborotlarni mustaqil qidirib topish, ilmiy adabiyotlarni o'qish, yozma shaklda yetkaziladgan axborotni izlash, og'zaki shakldagi axborotni yetkazish, tahliliy axborotlarni ko'rgazmali taqdim etish ko'nikmasi shakllanadi; hamkorlikda ishlash, muammoli va amaliy vaziyatlarni tahlil qilish, o'quv topshiriqlarini noan'anaviy yechish yo'llarini topish, g'oyalarni ishlash va xulosalar qabul qilish, mustaqil qarorlar qabul qilish, vaziyatni to'g'ri baholay olish, bir – birlarini tushuna olish ko'nikmalari shakllanadi.

Xulosa

Mustaqil ta’lim o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat bo‘lib, uni to‘g‘ri tashkil etish fanni puxta o‘zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019-y.dagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/4545884>
2. Zokirova D.N. Talabalarga mustaqil o‘rganishga undovchi ta’lim berishda kasbiy va umumta’lim fanlarining integratsiyaSI //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2021. – №. 6 (103). – S. 24-28.
3. Sobirova, M. Y. (2024). Ona tilining ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 104-110.
4. Sobirova, M., & Damirova, G. (2024). Ona tilini o‘qitishda raqamli ta’lim vositalarining o‘rni. Modern Science and Research, 3(1), 1-4.
5. Yusupdjanovna, S.M. (2024). INNOVATION-INTEGRATION APPROACH TO DEVELOPING STUDENTS’LANGUAGE AND COMMUNICATIVE COMPETENCE. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 43-50.
6. Sobirova, M.Y. (2023). The role of educational tools in anthropocentric relationship education. European Journal of Education and Applied Psychology 2023, No 4. <https://doi.org/10.29013/EJEAP-23-4-52-58>
7. Sobirova, M. (2023). Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7827423>
8. Sobirova, M. (2023). Obuchenie yazykovym yavleniyam na osnove analiza teksta. “Etnokulturnyy i sotsiolingvisticheskiy aspekty v teorii i praktike prepodavaniya yazykov v negumanitarnyx vuzax” mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Minsk, 30-mart 2023-y., – B. 299-302. <https://rep.bntu.by/handle/data/130394>
9. Sobirova, M. (2022). Anthropocentric approach to language. ISJ Theoretical&Applied Science,07(111), <http://t-science.org/arxivDOI/2022/07-111.html> – [P.36-39.](https://doi.org/10.29013/EJEAP-23-4-52-58)
10. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>

11. Sobirova, M. (2021). The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp.z o.o."iScience", 2021. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf> str. 98-105

12. G‘ofurova M. Mustaqil ta’lim olishning samarali vositalari. “Zamonaviy filologiya va lingvodidaktikaning dolzarb masalalari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. (Chirchiq sh., 2024-yil 23-24-aprel) – B.602-606.



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA REFLEKSIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

*Shukirullaeva Sarbinaz Alliyar qizi,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari va shart-sharoitlari yoritilgan. Refleksiv tafakkur va uning o‘quv faoliyatidagi o‘rni, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv aloqalar orqali o‘z-o‘zini baholashga yo‘naltirilgan yondashuvlar muhokama qilinadi. Dars jarayonida refleksiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar, topshiriqlar va innovatsion yondashuvlar, shuningdek, amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: refleksiya, refleksiv ko‘nikmalar, boshlang‘ich ta‘lim, pedagogik shart-sharoitlar, o‘qitish metodlari, mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini baholash, shaxsiy rivojlanish, o‘quv motivatsiyasi.

ФОРМИРОВАНИЕ РЕФЛЕКСИВНЫХ НАВЫКОВ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ

Аннотация: В данной статье раскрываются педагогические основы и условия формирования рефлексивных навыков у учащихся начальных классов. Обсуждаются роль рефлексивного мышления в учебной деятельности, подходы, направленные на самооценку через интерактивное взаимодействие между учителем и учеником. Также представлены методы, задания и инновационные подходы, способствующие развитию рефлексии на уроках, а также практические рекомендации.

Ключевые слова: рефлексия, рефлексивные навыки, начальное образование, педагогические условия, методы обучения, самостоятельное мышление, самооценка, личностное развитие, учебная мотивация.

FORMATION OF REFLECTIVE SKILLS IN PRIMARY EDUCATION: PEDAGOGICAL CONDITIONS

Abstract: This article explores the pedagogical foundations and conditions for developing reflective skills in primary school students. It discusses the role of reflective thinking in learning, as well as approaches aimed at self-assessment through interactive teacher–student

communication. The article also presents methods, tasks, and innovative strategies that promote reflection during lessons, along with practical recommendations.

Keywords: reflection, reflective skills, primary education, pedagogical conditions, teaching methods, independent thinking, self-assessment, personal development, student motivation.

Kirish: XXI asrda ta’lim jarayoniga bo‘lgan yondashuvlar tubdan o‘zgarmoqda. Bilim olish emas, balki uni tahlil qilish, qayta ishlash va yangi bilimlarga asos yaratish asosiy maqsadga aylangan. Bunday yondashuv o‘quvchidan nafaqat faol ishtirokchi bo‘lishni, balki o‘z fikrlash jarayonini boshqarishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda bu ko‘nikmalarni erta shakllantirish o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Refleksiya atamasi dastlab falsafada, keyinchalik psixologiya va pedagogikada o‘ziga xos metodologik kategoriya sifatida shakllandi. Falsafada bu shaxsning o‘z ongiga murojaat qilishi sifatida izohlanadi. Psixologiyada esa refleksiya insonning o‘z fikrlash faoliyatini kuzatishi va baholashi deb qaraladi.

Didaktik jihatdan refleksiya o‘quvchining o‘z o‘rganish jarayonini anglashiga, maqsad va natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasining asosini tashkil etadi.

Refleksiv ko‘nikmalar bola shaxsining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishda yoshning psixologik xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Ularning fikrlash darajasi, e’tibor doirasi va o‘z-o‘zini anglash qobiliyati rivojlanish jarayonida bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Refleksiv konikmalarni rivojlantirish boyisha barsha olimlarning ilmiy qarashlari organilip shiqildi. Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi asosida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari "konkret operatsiyalar" bosqichida bo‘lib, ular abstrakt tushunchalar bilan cheklangan darajada ishlaydi. Shu sababli, refleksiv topshiriqlar ko‘proq amaliy va konkret holatlarda berilishi zarur¹. Boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilar uchun aniq va amaliy vazifalar tushunishni osonlashtiradi. Abstrakt tushunchalar chalg‘ituvchi yoki noaniq bo‘lishi mumkin, shu sababli real hayotdan olingan misollar yoki konkret vaziyatlar ular uchun yanada ma’qulroq. Bu yoshdagi o‘quvchilar fikrlarini tahlil qilish va o‘z xatolarini anglash uchun asos yaratadi. Masalan, o‘z bajarilgan ishlarini ko‘rib chiqish, xatolarni topish va ularni qanday tuzatish mumkinligini o‘ylash refleksiv tafakkurning boshlang‘ich ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Lev Vygotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi esa o‘quvchilarning fikrlash jarayoni ijtimoiy aloqalar orqali rivojlanishini ta’kidlaydi. Bu nazariyaga ko‘ra, o‘qituvchi va sinfdoshlar bilan hamkorlik refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishda asosiy omildir². Men ham bu fikrga to‘liq qo‘shilaman. Sababi: Refleksiv ko‘nikmalar – bu nafaqat o‘z fikrini anglash, balki boshqalar fikrini tinglash, taqqoslash va tahlil qilishni ham o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy muhitda

bunday ko‘nikmalar yanada samarali shakllanadi. Hamkorlik o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Guruhda o‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini bayon qilishga, savollar berishga va fikrlarni muhokama qilishga o‘rganadilar. Bu esa refleksiyaning chuqurlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi: Refleksiyaning rivojlantirishda metodik yondashuvlar va texnologiyalarning ahamiyati katta. Faoliyatga yo‘naltirilgan o‘qitish modeli o‘quvchilarni faollikka undaydi va refleksiyaning rivojlantiradi.

Misol uchun:

Muammoli vazifalar: Masalan, matematik darsda o‘quvchilarga real hayotdagi vaziyatga oid masalalarni yechish topshiriladi (masalan, do‘kon narxlari, vaqtni hisoblash). Keyin ularning yechimlari va qarorlari tahlil qilinadi.

Guruhda muhokamalar: Dars mavzusini tushunish uchun kichik guruhlar bo‘linib, o‘zaro fikr almashish. Har bir guruh o‘z qarorini sinf oldida taqdim etadi va bu jarayonda o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

Rol o‘yinlari: Masalan, tarix yoki atrof-muhit fanlarida voqealarni sahnalashtirish. Bu o‘quvchilarga o‘z harakatlarini baholash va qayta ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Refleksiya kundaliklari yoki daftarlari o‘quvchilarning o‘z fikrlarini yozma shaklda ifodalashlari uchun qulay vosita. Misollar:

Har dars oxirida qisqa savollarga javob yozish:

Bugun nimani o‘rgandim?

Qaysi vazifa qiyin bo‘ldi va nima sababdan?

Keyingi safar nimani yaxshilayman?

O‘qituvchi har hafta o‘quvchilarning kundaliklarini tekshirib, izohlar va tavsiyalar beradi, bu o‘z-o‘zini anglashni rivojlantiradi.

Ijtimoiy interaktiv texnologiyalar zamonaviy IKT vositalari yordamida refleksiyaning rivojlantirish jarayoni yanada samaraliroq bo‘ladi. Misol uchun:

Elektron portfel: O‘quvchi o‘z ishlarini, loyihalarini, muvaffaqiyatlarini va fikr-mulohazalarini yig‘ib boradi. Bu portfel o‘qituvchi va ota-onalar bilan ham baham ko‘riladi.

Onlayn muhokamalar va forumlar: O‘quvchilar o‘z fikrlarini yozma va og‘zaki tarzda ifodalash imkoniga ega bo‘ladilar.

Interaktiv o‘yinlar va testlar: O‘quvchilar bilimlarini tekshiradi va natijalarni tahlil qilib, o‘z kamchiliklarini ko‘radi.

Refleksiv savollar va muhokamalar o‘qituvchi dars davomida doimiy ravishda refleksiv savollar beradi, bu o‘quvchilarning fikrlarini chuqurlashtiradi:

Bugun qanday yangi narsalarni o‘rgandingiz?

Qaysi qismni tushunish qiyin bo‘ldi va nega?

Qanday xatolarga yo‘l qo‘ydingiz va qanday saboq oldingiz?

Keyingi safar o‘z ishlashingizni qanday yaxshilaysiz?

Bunday savollar o‘quvchilarda o‘z faoliyatini baholash va takomillashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tahlil va natijalar: Shuni unutmaslik kerakki, refleksiyaning shakllantirishda o‘qituvchining roli va malakasi beqiyos. U quyidagi jihatlarga e‘tibor berishi kerak:

Pedagogik yondashuv: O‘qituvchi o‘z darsida refleksiyaning rivojlantiruvchi metodlarni qo‘llashi, o‘quvchilarni xatolaridan qo‘rqmasdan, ularni tahlil qilib o‘rganishga rag‘batlantirishi zarur.

Rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash: Har bir o‘quvchining fikrini hurmat qilish, mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash.

Malaka oshirish: O‘qituvchi muntazam ravishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va refleksiv yondashuvlar bo‘yicha o‘z malakasini oshirishi kerak.

Individual yondashuv: Har bir o‘quvchining o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlarini hisobga olib, metodlarni moslashtirish. Boshlang‘ich sinflarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish uchun eng avvalo maktab va sinf muhitida ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi psixologik iqlim yaratilishi zarur. O‘quvchilar o‘z fikrlarini ochiq aytishda, savollar berishda va xatolarini tan olishda hech qanday qo‘rquv yoki xavotir sezmasliklari kerak.

Xatolarni ijobiy qabul qilish, o‘quvchilarga xatolar orqali o‘rganish jarayoni tabiiyligi tushuntirilishi kerak. Bu yondashuv o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga va o‘z ustida ishlashga undaydi.

Ochiq muloqot muhitining yaratilishi: Sinfdan har bir o‘quvchining fikri qadrlanadi, tinglanadi va hurmat qilinadi. Bu esa o‘z-o‘zini anglash va refleksiya jarayonini faol qo‘llab-quvvatlaydi.

Psixologik xavfsizlik: O‘quvchilar orasida do‘stona munosabatlar, o‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi yondashuv psixologik xavfsizlikni ta‘minlaydi. Bunday sharoitda o‘quvchilar o‘zlarining qiyinchiliklarini bemalol tan oladilar va ularni yengishga intiladilar.

Uyda qo‘llab-quvvatlash muhitining yaratilishi: Bolaga o‘z fikrini erkin ifodalash uchun qulay sharoitlar yaratish, kitob o‘qish, muhokama qilish va ta‘limiy o‘yinlar orqali tafakkur rivojiga yordam berish zarur.

Quyida boshlang‘ich sinf darslarida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish uchun bir nechta amaliy tavsiyalar va misollar keltiriladi:

Matematika darsida: “Bugun men yangi hisoblash usulini o‘rgandim” degan yozuv bilan refleksiya daftari yuritish. Shu orqali o‘quvchi o‘z yutuqlari va qiyinchiliklarini yozib boradi.

O‘zini baholash jadvallari: Har dars oxirida o‘quvchilar o‘z faoliyatlarini baholaydigan oddiy shakllar to‘ldiradi, masalan: “Menda tushunmovchilik bormi?” — ha/yo‘q, “Keyingi safar nima qilishim kerak?” — qisqa yozuv.

O‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan refleksiv savollar: “Bugun darsda qaysi topshiriq meni o‘ylantirdi?”, “Nimani boshqacha qilardim?” kabi savollar.

Oila va maktab o‘rtasida refleksiv hamkorlik juda muhim hisoblanadi. Refleksiv ko‘nikmalar maktabda shakllanishi bilan birga, uyda ham rivojlanishi muhim. Ota-onalar quyidagi faoliyatlarni amalga oshirishi tavsiya etiladi:

Darsdan keyingi suhbatlar: Bolaning darsdagi muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklari haqida savollar berish, uning fikrini tinglash. Bu bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlanishiga asos boladi.

Qo‘llab-quvvatlash: Farzandni o‘zini baholashga undash, erishilgan natijalar uchun maqtash. Bu bolalarda ichonish va yanada yaqshi natijalarga erishichni poydevori bolip xizmat etadi.

Refleksiv topshiriqlarni qo‘llab-quvvatlash: Ota-ona bolaga refleksiya kundaligi yuritishda yordam berishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rganishga qiziqqon, kuzatuvchan va faol bo‘ladilar. Shu sababli refleksiv ko‘nikmalarni bu davrda shakllantirish ularning tabiiy intellektual o‘rishini rag‘batlantiradi. Buning uchun o‘qituvchi yoshga mos, oson tahlil qilinadigan topshiriqlarni tanlashi lozim.

Refleksiv fikrlashni rivojlantirishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Kichik guruhlarda muammoli vazifalarni yechish;

“Bir daqiqa fikr” usuli orqali dars yakunida xulosa chiqarish;

Rol o‘ynash, dramatizatsiya orqali vaziyatli tahlillar;

“O‘ylang – Juftda muhokama qiling – Bo‘lishing” texnikasi;

“Refleksiya daraxti” orqali o‘zini baholash.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar orqali o‘quvchilarning refleksiyasini rivojlantirish bugungi kunda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Interaktiv doskalar, onlayn refleksiya platformalari, virtual jurnallar — ularning barchasi o‘quvchining o‘z faoliyatiga baho berish imkonini oshiradi.

Refleksiya uchun o‘quvchi o‘zini erkin va xatolar qilsa ham qo‘llab-quvvatlanishini his qilishi kerak. Ijobiy psixologik iqlim muhitda tanqidiy fikrlashdan qo‘rqmaslik, ochiq muloqot, erkin fikr aytish imkoniyati yaratiladi.

Refleksiyani samarali shakllantirish uchun o‘qituvchining o‘zi ham reflektiv kompetensiyaga ega bo‘lishi lozim. Ya’ni, o‘z dars faoliyatini tahlil qilish, o‘quvchilarning qiyinchiliklarini aniqlash va ularni yengish yo‘llarini topish.

Oilaviy tarbiya ham refleksiya uchun zamin yaratadi. Ota-onalar bolaning fikrini tinglashi, unga savollar berib, mulohaza qilishga undashi orqali ularning tafakkur doirasini kengaytiradi. Darsdan keyin bolaning so‘zlaridan foydalanib: “Bugun nimalarni tushunding?”, “Qaysi mashg‘ulot yoqdi?” degan savollar orqali refleksiyani mustahkamlash mumkin.

Darsdagi reflektiv mashg‘ulotlarga misollar

“Refleksiya jurnali” yuritish;

Haftalik refleksiya yig‘ilishi tashkil etish;

“Men bugun nimaga erishdim?” jadvali;

“Yaxshi ko‘rgan topshiriqim” nomli esse yozish.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, reflektiv topshiriqlarni haftasiga 3-4 marotaba berilgan sinflarda o‘quvchilar bilimni mustahkamlash, o‘z-o‘zini baholash va o‘z fikrini erkin ifoda etish ko‘rsatkichlarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi.

Xulosa va takliflar: Refleksiyani samarali shakllantirish uchun tavsiyalar:

Dars rejasida refleksiya uchun alohida vaqt ajratish;

O‘quvchilar bilan ochiq suhbatlar o‘tkazish;

Har oyning oxirida reflektiv tahlil yuritish;

O‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish seminarlarini tashkil etish.

Xulosa qilib refleksiv ko‘nikmalar boshlang‘ich ta‘limning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga zamin yaratadi. Refleksiya o‘quvchiga o‘zini anglash, xatolarini tan olish va ulardan saboq chiqarish imkonini beradi. Shu bois, bu ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘qituvchining yondashuvi, dars metodlari, psixologik muhit va oilaning roli beqiyosdir. Pedagogik shart-sharoitlar refleksiv fikrlashni rivojlantirishga qanchalik mos bo‘lsa, ta‘lim sifati shunchalik yuqori bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. New York: International Universities Press. 419 b
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press. 157 b
3. Flavell, J. H. (1979). "Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive–Developmental Inquiry." *American Psychologist*, 34(10), 906–911. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.34.10.906>
4. Schön, D. A. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. New York: Basic Books. 374 b
5. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). *Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning* (5th ed.). Boston: Allyn and Bacon. 445 b
6. Epstein, J. L. (2011). *School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools* (2nd ed.). New York: Routledge. 384
7. O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim Konsepsiyasi (2019). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta‘limi Vazirligi. [Normativ hujjat]
8. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (2021). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta‘limi Vazirligi nashriyoti. 110-120 b.



INGLIZ TILINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

D.K.Bainiyazov

Nukus davlat pedagogika instituti 2-bosqish doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini ko‘rib chiqiladi. Asosiy e‘tibor zamonaviy interaktiv vositalarning samaradorligiga, ularning o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rniga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar o‘quvchilar motivatsiyasini oshiradi, mustaqil ishlash imkonini beradi hamda ta’lim jarayonini individuallashtirishga yordam beradi. Shuningdek, maqolada gibridd o‘qitish modelining afzalliklari yoritiladi va raqamli vositalarni didaktik jihatdan to‘g‘ri tanlash bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: *Ingliz tili, raqamli texnologiyalar, ta’lim, gibridd model, til o‘rganish, Quizlet, virtual doska, o‘quv jarayoni, axborot texnologiyalari.*

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: В данной статье рассматриваются научно-теоретические и практические аспекты применения цифровых технологий в процессе обучения английскому языку. Основное внимание уделяется эффективности современных интерактивных средств, их роли в развитии языковых навыков учащихся. Результаты исследования показывают, что цифровые технологии повышают мотивацию учащихся, позволяют им работать самостоятельно и способствуют индивидуализации образовательного процесса. В статье также освещаются преимущества гибридной модели обучения и даются рекомендации по дидактически правильному выбору цифровых инструментов.

Ключевые слова: *английский язык, цифровые технологии, образование, гибридная модель, изучение языка, Quizlet, виртуальная доска, учебный процесс, информационные технологии.*

MODERN APPROACHES TO TEACHING ENGLISH WITH DIGITAL TECHNOLOGIES

Annotation: This article examines the scientific-theoretical and practical aspects of the application of digital technologies in the process of teaching English. The main attention is paid

to the effectiveness of modern interactive tools, their role in the development of students' language skills. The research results show that digital technologies increase student motivation, allow for independent work, and contribute to the individualization of the educational process. The article also highlights the advantages of the hybrid learning model and provides recommendations for the didactically correct selection of digital tools.

Keywords: English, digital technologies, education, hybrid model, language learning, Quizlet, virtual whiteboard, educational process, information technologies.

Kirish

So‘nggi yillarda ta‘lim sohasida yuz berayotgan raqamli transformatsiya, ayniqsa chet tillarini o‘qitishda sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmoqda. An‘anaviy darslar va zamonaviy raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi integratsiya ta‘lim jarayonini yanada interaktiv, ochiq va samarali qilishga yordam bermoqda va bu amaliyotda o‘z tasdig‘ini topmoqda. Xususan, ingliz tilini o‘rganishda o‘quvchilar va talabalar internet resurslari, mobil ilovalar va multimediya vositalari orqali til ko‘nikmalarini mustaqil rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu nuqtai nazardan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) til o‘rganish jarayonida nafaqat muqobil variant, balki strategik zaruratga aylanmoqda.

Ingliz tilini samarali o‘qitish, ayniqsa, zamonaviy o‘quvchi psixologiyasiga va texnologik avlod talabalariga mos kelishi zarur. O‘quvchilar endilikda statik matn asoslangan darslardan ko‘ra vizual, interaktiv, gamifikatsiyalashgan va individual yondashuvga ega platformalarga afzal berishmoqda. Quizlet, Kahoot, Miro, BitPaper, Google Classroom kabi platformalar o‘quvchini faoliyatga jalb etadi, o‘zlashtirishni mustahkamlashga yordam beradi va o‘rganish jarayonini yanada mazmunli qiladi.

Global tadqiqotlar, jumladan, Zolotareva S.A. va Zoteeva T.S. kabi olimlarning ishlarida raqamli vositalar yordamida olib borilgan ingliz tili darslari nafaqat bilim sifatini oshirishga, balki o‘quvchilarning darsga bo‘lgan munosabatini ham ijobiy tomonga o‘zgartirishga yordam berishini ko‘rsatmoqda. Ular ta‘kidlaganidek, talabalar so‘z yodlash, matn tushunish, eshitish va so‘zlashuv ko‘nikmalarini mustahkamlashda raqamli vositalarning ahamiyati katta. Shu sababli, ushbu maqola zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o‘qitishning amaliy jihatlarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash va O‘zbekiston ta‘lim tizimi uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Maqolada o‘quvchilar til ko‘nikmalarini shakllantirishda eng samarali bo‘lgan raqamli platformalar, ularning qo‘llanish uslublari va gibrid o‘qitish modelidagi afzalliklar ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili

Chet tillarni, ayniqsa ingliz tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash so‘nggi yillarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar diqqat markaziga aylangan. Ko‘pchilik olimlar raqamli vositalar yordamida ta‘lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning faolligini va motivatsiyasini orttirish, darslarni individualizatsiya qilish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam berishini isbotlab berishgan. Bu boradagi yondashuvlar, metodlar va

tajribalar, asosan, xorijiy mamlakatlar misolida keng yoritilgan, ammo ularni O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Zolotareva S.A. tomonidan olib borilgan tadqiqotda raqamli platformalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘rganilgan. Xususan, Natijalar ko‘rsatadiki, 86.7% talaba ushbu texnologiyalarni foydali deb baholagan, bu esa o‘quv jarayonida gamifikatsiya va interaktivlikning ahamiyatini tasdiqlaydi [1].

Zoteeva T.S. esa o‘z tadqiqotlarida chet tilini o‘rgatishda mobil ilovalar, autentik materiallar (audio va video), podkastlar va virtual o‘quv muhitining imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazgan [2].

Shuningdek, Unda onlayn va oflayn darslarning uyg‘unligi, talabalar faoliyatini masofadan monitoring qilish, testlar va baholash tizimlari orqali ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar taklif etilgan [3].

Metodologiya.

Ushbu maqola sifatli tahlil yondashuvi asosida tayyorlandi. Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. Tavsifiy tahlil: tanlab olingan ilmiy manbalar mazmuni, ularning raqamli vositalari, o‘quvchilarga ta’siri, talabalarning fikrlari va pedagogik yondashuvlar tahlil qilindi.
2. Qiyosiy tahlil: turli raqamli vositalarning afzalliklari va kamchiliklari o‘zaro solishtirildi va ularning O‘zbekiston ta’lim kontekstida qanday qo‘llanishi baholandi.
3. Kontekstual yondashuv: xorijiy tajribalar O‘zbekiston ta’lim tizimining imkoniyatlari bilan solishtirib, umumlashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqildi [4].

Ushbu yondashuvlar yordamida ingliz tilini o‘qitishda qo‘llanilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalarni tanlash, ulardan foydalanishning didaktik asoslari va o‘quv jarayoniga integratsiya bosqichlari chuqur tahlil qilindi.

Tahlil va muhokama

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining deyarli barcha bosqichlarini qamrab olmoqda. Interaktiv platformalar, virtual doskalar, o‘yinli mashqlar, onlayn test tizimlari va eshitish resurslari orqali til ko‘nikmalarini rivojlantirish metodik yondashuvda va pedagogik samaradorlikda o‘z tasdig‘ini topmoqda. Biroq, ularning qo‘llanilishida bir qancha ijobiy va salbiy jihatlar mavjud.

Birinchidan, raqamli texnologiyalar o‘quvchining darsdagi faolligini oshirishga yordam beradi va uni subyekt sifatida o‘qitish imkonini yaratadi. Talabalar endilikda bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil ravishda izlab topuvchi, baholovchi va tahlil qiluvchi sifatida shakllanadi. Bunda gamifikatsiya (o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga kiritish) muhim rol o‘ynaydi: testlar, viktorinalar va interaktiv topshiriqlar orqali o‘quvchilar rag‘batlantiriladi, bu esa ularning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, raqamli vositalar ta’limni vizual va multimodal xususiyatga ega qiladi. Har bir til ko‘nikmasi — tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish — uchun alohida mo‘ljallangan platformalardan foydalanish imkoniyati mavjud. Masalan, podkastlar va video

materiallar orqali eshitish va talaffuz ko‘nikmalarini mustahkamlash mumkin bo‘lsa, virtual doskalar grammatikani tushuntirishda va yozuv va struktural topshiriqlarda qulaylik yaratadi.

Uchinchidan, raqamli vositalar ta‘limni individuallashtirish imkonini beradi. Har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqish doirasi, o‘zlashtirish sur‘ati va o‘rganish uslubiga qarab mos metodlar tanlash mumkin. Bu esa til o‘rganishdagi psixologik to‘siqlarni kamaytirib, ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi.

Shunga qaramay, muhokamada bir nechta muammoli jihatlar ham e‘tiborga olinishi lozim:

1. Texnik cheklovlar: Internetga bog‘liqlik, texnik nosozliklar va gadjetlar yetishmovchiligi ba‘zi hududlarda raqamli darslarni to‘liq joriy qilishga to‘sqinlik qilmoqda.

2. Raqamli savodxonlik darajasi: Har bir o‘qituvchi yoki talaba raqamli vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmasiga ega emas, bu esa texnologiyaning salohiyatini to‘liq ochish imkonini bermaydi.

3. Didaktik moslik: Har bir platforma har qanday maqsad uchun mos kelavermaydi.

Raqamli vositani tanlashda uning didaktik vazifasi, foydalanuvchi qulayligi va tahliliy imkoniyatlari inobatga olinishi lozim.

Bundan tashqari, ba‘zi platformalar xalqaro til muhitiga yo‘naltirilgani sababli, ularni o‘zbek tilida ta‘lim olayotgan o‘quvchilarga moslashtirish zarur. Bu holat tarjima, madaniy kontekst, milliy o‘quv dasturiga integratsiya kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Eng maqbul yechim sifatida gibrid ta‘lim modeli taklif qilinadi. Bu yondashuvda an‘anaviy auditoriya mashg‘ulotlari va raqamli vositalar uyg‘unlashadi. U nafaqat til o‘rganishni qulaylashtiradi, balki zamonaviy raqamli texnologiyalarni o‘rgatish, o‘qituvchining ishini avtomatlashtirish va o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantirish kabi ko‘plab ijobiy jihatlarni birlashtiradi.

Natijalar

Tadqiqot davomida tahlil qilingan adabiyotlar, so‘rovnomalar va amaliy tajribalar asosida ingliz tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalarning samaradorligi quyidagi natijalarda o‘z ifodasini topdi:

1. Leksik ko‘nikmalarni rivojlantirish: Raqamli platformalardan eng ko‘p foydalanilgan vositalardan biri – Quizlet – talabalar tomonidan so‘z boyligini oshirishda juda samarali deb baholangan. Flashcard, Matching, Test va Learn kabi rejimlar orqali talabalarda so‘zlarni yodlash 30-40% tezlashgani kuzatilgan. Ushbu platforma vizual va interaktiv elementlar yordamida yangi so‘zlarni tushunish va mustahkamlashda katta imkoniyat yaratadi.

2. Real vaqtli interaktivlik: AhaSlides va Yandex.Forms vositalari orqali o‘tkazilgan testlar va fikr so‘rovlari natijasida dars davomida talabalar o‘rtasida real vaqtli ishtirok, fikr almashish, baholash va refleksiya darajasi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Bu vositalar yordamida o‘qituvchilar ham darsning borishini tezkor kuzatib borish va o‘quvchilarning faolligini real vaqt rejimida baholash imkoniga ega bo‘lgan.

3. Vizual ta’lim muhiti yaratish: Virtual doskalar (BitPaper, Miro) orqali grammatik tuzilmalarni tushuntirish, yozma topshiriqlarni bajaritirish va dars materiallarini jamoaviy muhokama qilish samaradorligi ancha yuqori bo‘lgan. O‘qituvchilar ushbu vositalar orqali darsni vizual shaklda tashkil etgan va talabalar dars oxirida barcha yozuvlarga qayta murojaat qilish imkoniga ega bo‘lgan.

4. Eshitish va talaffuz ko‘nikmalari: Podkastlar, videodarslar, audiokitoblar yordamida talabalar eshitish asosida ingliz tilini idrok etish va talaffuzni yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘lgan. Ayniqsa, autentik materiallar (masalan, BBC Learning English, TED Talks) yordamida yuqori darajadagi (B2–C1) o‘quvchilarda og‘zaki nutqni tushunish salohiyati ortgani kuzatilgan.

5. Talabalar fikrlari va so‘rovnoma natijalari: Zolotareva S.A. tomonidan olib borilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 86.7% talabalar raqamli texnologiyalarni ingliz tilini o‘rganishda foydali va motivatsion vosita sifatida baholagan. Talabalar o‘zlarini raqamli vositalar yordamida erkin, ishtirokchi va darsga faol jalb etilgan his qilishgan. Ular, shuningdek, dars tayyorlash, topshiriq bajarish va o‘z-o‘zini nazorat qilishda raqamli resurslar qulayligini ta’kidlashgan.

6. Mustaqil o‘rganish ko‘nikmasi shakllanishi: Raqamli vositalar orqali tashkil etilgan darslarda talabalar o‘z vaqtini boshqarish, dars materiallarini qayta ko‘rish va o‘zlashtirish darajasini mustaqil baholash imkoniga ega bo‘lgan. Bu esa til o‘rganishda avtonom ta’lim tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Yuqoridagi natijalar ingliz tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash va metodik asosda qo‘llash ta’lim sifatini oshirishda katta ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlil va natijalar ingliz tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanganini ko‘rsatadi. Raqamli vositalar o‘quvchilarda mustaqil ishlash, til ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, darslarga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirish va motivatsiyani oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Xususan, Quizlet, AhaSlides, Yandex.Forms, BitPaper va Miro kabi platformalarning o‘quv jarayoniga integratsiyasi, bir tomondan, darsni interaktiv va dinamik qiladi, ikkinchi tomondan, o‘quvchilarning individualliklarini hisobga olgan holda darsni tashkil etish imkonini beradi. Talabalarning aksariyati bu vositalar orqali o‘z bilimini mustahkamlash, qayta ko‘rish, o‘z-o‘zini baholash va mustaqil o‘rganish imkoniyatlaridan samarali foydalangan.

Shuningdek, eshitish va talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirishda podkastlar va autentik videomateriallar, yozma topshiriqlarni bajarishda virtual doskalar, so‘z boyligini oshirishda esa flashcard va gamifikatsiyalashgan vositalar o‘z samaradorligini namoyon qilgan.

Biroq, raqamli texnologiyalarni qo‘llashda ayrim muammolar — texnik ta’minot yetishmovchiligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi, ba’zi platformalarning lokal ta’lim kontekstiga to‘liq mos kelmasligi — e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Ushbu muammolarni

bartaraf etish uchun raqamli vositalarni tanlashda didaktik moslikka, pedagogik maqsadga muvofiqlikka va texnik imkoniyatlarga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Shu asosda quyidagi xulosalar va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Raqamli texnologiyalarni tanlash va qo‘llash metodikasini ishlab chiqish – har bir o‘qituvchi dars mazmuniga mos vositani tanlash bo‘yicha metodik ko‘nikmaga ega bo‘lishi lozim.

2. Gibrid o‘qitish modelini bosqichma-bosqich joriy etish – an’anaviy va raqamli yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish.

3. AKT bo‘yicha doimiy o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarini o‘tkazish – raqamli savodxonlikni oshirish orqali texnologiyalarning samarali tatbiqini ta’minlash.

4. O‘zbek ta’lim kontekstiga mos raqamli platformalarni yaratish yoki moslashtirish – til va madaniyat jihatidan mahalliy lashtirish samaradorlikni oshiradi.

Umuman olganda, ingliz tilini raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish istiqbollari katta. Ular o‘quv jarayonini zamonaviylashtirish, talabalarda tilga bo‘lgan qiziqishni oshirish va mustaqil o‘rganish madaniyatini shakllantirishda beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Kelajakda bu texnologiyalarni chuqurroq o‘rganish va o‘quv dasturlariga tizimli ravishda integratsiya qilish ta’lim sifatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Золотарева, С.А. (2024). Влияние цифровых платформ на мотивацию обучающихся при изучении английского языка. Москва: МГУ.

2. Зотеева, Т.С. (2020). Использование ресурсов Интернета при обучении английскому языку в юридическом вузе. Журнал "Лингвистика и методика," No2, 56-61.

3. Факультет журналистики Московского государственного университета. (2022). Методическое пособие по гибридной модели обучения. Москва: Изд-во МГУ.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi. (2023). Ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha milliy konsepsiya. Toshkent.



INTERNET OF THINGS (IOT) TEXNOLOGIYASINING INSON-KOMPYUTER ALOQASIDA O‘RNI VA AHAMIYATI

*Ergasheva Shaxnoza Mavlonboyevna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-manzil: ergashevashaxnoza7676@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada aloqa tizimlarining ishlash prinsiplari, xavfsizlikka bo‘lgan talablar va tizimlarni faollashtirish usullari muhokama qilinadi. Aloqa tizimlarining xavfsizligi, foydalanuvchilar ma’lumotlarini himoya qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, xavfsizlik protokollari, autentifikatsiya va autorizatsiya jarayonlari muhim rol o‘ynaydi. Maqolada HCI tizimlarining rivojlanishi va kelajakdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Inson-kompyuter aloqa tizimlari, xavfsizlik, faollashtirish, sun’iy intellekt, ko‘p modalli interfeyslar, haptik aloqa, 5G, Internet of Things (IoT), realistik texnologiyalari, autentifikatsiya, autorizatsiya, tizimlar integratsiyasi.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ INTERNET OF THINGS (IOT) В СВЯЗИ ЧЕЛОВЕК-КОМПЬЮТЕР

Аннотация: В данной статье обсуждаются принципы работы систем связи, требования безопасности и методы активации систем. Безопасность систем связи имеет решающее значение в защите данных пользователей, при этом важную роль играют протоколы безопасности, процессы аутентификации и авторизации. В статье анализируется развитие и будущие возможности систем HCI.

Ключевые слова: системы человеко-машинной коммуникации, безопасность, активация, искусственный интеллект, мультимодальные интерфейсы, тактильная коммуникация, 5G, Интернет вещей (IoT), технологии дополненной реальности, аутентификация, авторизация, системная интеграция.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF INTERNET OF THINGS (IOT) TECHNOLOGY IN HUMAN-COMPUTER COMMUNICATION

Abstract: This article discusses the operating principles of communication systems, security requirements, and methods for activating systems. The security of communication systems is crucial in protecting user data, and security protocols, authentication, and

authorization processes play an important role. The article analyzes the development and future capabilities of HCI systems.

Keywords: Human-computer communication systems, security, activation, artificial intelligence, multimodal interfaces, haptic communication, 5G, Internet of Things (IoT), augmented reality technologies, authentication, authorization, systems integration.

Kirish. Internet of Things (IoT) texnologiyasi so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, har bir sohada, ayniqsa inson-kompyuter aloqasi (HCI) sohasida keng qo‘llanilmoqda. IoT tizimlari, ko‘plab qurilmalar va sensorlar orqali o‘zaro aloqada bo‘lib, muayyan ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bu texnologiya, odamlar va kompyuter tizimlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni sezilarli darajada o‘zgartirib, yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Inson-kompyuter aloqasi (HCI) o‘zgartirishlarining markazida foydalanuvchi va texnologiya o‘rtasidagi o‘zaro faoliyat yotadi. HCI sohasida yangi texnologiyalarning integratsiyasi, odamlarning kompyuter tizimlari bilan yanada intuitiv va tabiiy aloqalar o‘rnatishiga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bu bo‘limda, IoT texnologiyasining inson-kompyuter aloqasi (HCI) tizimlariga qanday integratsiya qilinishi, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va yangi imkoniyatlar yaratish uchun qo‘llaniladigan metodologiyalar tahlil qilinadi. IoT va HCI o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning chuqur o‘rganilishi uchun quyidagi yondashuvlar va usullar tanlandi:

2.1. IoT Texnologiyasining Asosiy Komponentlari

IoT tizimlarining samarali ishlashi uchun bir nechta asosiy komponentlarning o‘zaro ishlashi kerak. Ushbu komponentlar quyidagilardan iborat:

- **Sensorlar:** IoT tizimlarining asosi bo‘lib, ular atrof-muhitni o‘lchash, kuzatish va ma’lumot yig‘ish uchun ishlatiladi. Masalan, harorat, namlik, bosim, harakat va yorug‘lik sensorlari foydalanuvchi va uning atrof-muhiti o‘rtasidagi aloqani o‘lchashda yordam beradi. Sensorlar foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun real vaqt rejimida ma’lumotlarni to‘playdi va bu ma’lumotlar keyinchalik tahlil qilinadi.

- **Aktuatorlar:** Bu qurilmalar, ma’lumotlarni tahlil qilib, fizika jihatdan biror harakatni amalga oshiradi. IoT tizimlarida aktuatorda qo‘llaniladigan misollar — haroratni boshqarish tizimlari, yorug‘likni avtomatik ravishda yoqish yoki o‘chirish, yoki xavfsizlik tizimlaridagi eshiklarni avtomatik ravishda ochish.

- **Ma’lumotlarni qayta ishlash tizimlari:** IoT qurilmalaridan yig‘ilgan katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatiladi. Bu tizimlar foydalanuvchilarga ulardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

- **Tarmoq infrastrukturallari:** IoT qurilmalarining o‘zaro aloqada bo‘lishini ta’minlash uchun zarur tarmoq tizimlari mavjud. Ushbu tarmoqda IoT qurilmalari o‘zaro ma’lumot almashish uchun Wi-Fi, Bluetooth, ZigBee, yoki 5G kabi texnologiyalarni ishlatadi.

2.2. Inson-Kompyuter Aloqasida IoT Qo‘llanilishi

IoT texnologiyasi inson-kompyuter aloqasini yangi darajaga ko‘taradi. HCI sohasida IoT tizimlari nafaqat qurilmalar bilan bevosita muloqot qilishni ta‘minlaydi, balki foydalanuvchining harakatlari va ehtiyojlariga avtomatik javoblar berishga imkon yaratadi.

- **Aqlli uy tizimlari:** Aqlli uylar foydalanuvchilarga ma‘lum bir uy jihozlarini masofadan boshqarish imkoniyatini beradi. Masalan, foydalanuvchi ovozli buyruqlar yordamida chiroqlarni yoqish, haroratni sozlash yoki xavfsizlik tizimini faollashtirish mumkin

- **Sog‘liqni saqlash va fitness monitoring tizimlari:** IoT qurilmalari yordamida foydalanuvchi o‘z salomatligini kuzatib borishi va ma‘lumotlarni tahlil qilib, sog‘liqni saqlash masalalari bo‘yicha to‘g‘ri qarorlar qabul qilishi mumkin. Masalan, aqlli soatlar va fitness-tracker qurilmalari yurak urishi, bosim va boshqa vital belgilarni kuzatib boradi.

- **Transport tizimlari:** IoT texnologiyasi orqali transport vositalarini boshqarish tizimlari foydalanuvchilar uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Aqlli transport tizimlari va avtomobillar foydalanuvchining ehtiyojlariga mos ravishda harakat qilish imkoniyatini beradi. Misol uchun, aqlli avtomobillar o‘z-o‘zini boshqarish va yo‘llardagi sharoitga qarab tezlikni o‘zgartirish imkoniyatiga ega.

2.3. IoT Interfeyslari va Sensorli Tizimlar

IoT texnologiyasining samarali ishlashi uchun foydalanuvchilar bilan qurilmalar o‘rtasidagi interfeyslarning intuitiv va oson ishlashi muhim ahamiyatga ega. IoT interfeyslari, foydalanuvchi bilan qurilmalar o‘rtasidagi aloqalarni o‘zgartirishga yordam beradi. **Sensorli ekranlar va boshqaruvlar:** Qurilmalarda sensorli ekranlar yordamida foydalanuvchi interfeysi yaratish, o‘zaro aloqani osonlashtiradi. Foydalanuvchi qurilmani teginish yoki boshqa sensorli harakatlar bilan boshqarishi mumkin.

- **Ovozli buyruqlar:** Hozirgi kunda ovozli yordamchilar yordamida IoT qurilmalarini boshqarish mumkin. Masalan, Google Assistant yoki Amazon Alexa kabi xizmatlar foydalanuvchining ovozli buyruqlariga javob beradi va qurilmalarni boshqaradi.

- **Yuzni tanib olish va biometrik tizimlar:** Biometrik texnologiyalar yordamida IoT qurilmalarining foydalanuvchiga moslashtirilgan javoblarini olish mumkin. Yuzni tanib olish yoki barmoq izlari yordamida tizimlarni xavfsiz va samarali boshqarish imkoniyatlari mavjud.

2.4. Ma‘lumotlarni Tahlil qilish va Foydalanuvchi Qaytishi

IoT tizimlarining samaradorligini oshirish uchun yig‘ilgan ma‘lumotlarni tahlil qilish va foydalanuvchi qaytishini tahlil qilish juda muhimdir. Foydalanuvchi harakati va xatti-harakatlarini kuzatish, foydalanuvchi ehtiyojlarini aniqlash va unga mos ravishda javoblar taqdim etish mumkin. Ushbu ma‘lumotlar yordamida tizim foydalanuvchining alohida ehtiyojlariga javob bera boshlaydi. Ma‘lumotlarni qayta ishlashning asosiy jarayonlari quyidagicha:

- **Ma‘lumotlar yig‘ish va tahlil qilish:** IoT tizimlaridan yig‘ilgan ma‘lumotlar tahlil qilinadi, bu esa foydalanuvchining ehtiyojlari haqida aniq tushuncha beradi. Tahlil natijalari, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun ishlatiladi.

- **Avtomatik javob tizimlari:** Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida avtomatik javob tizimlari foydalanuvchining xatti-harakatlariga mos tarzda javob berishi mumkin. Bu o'zgaruvchan xatti-harakatlarga real vaqt rejimida javob berishni ta'minlaydi.

Natijalar. IoT texnologiyasining inson-kompyuter aloqasida qo'llanilishi bir qator ijobiy natijalarni taqdim etdi. HCI tizimlarida IoT tizimlarining integratsiyasi foydalanuvchining tajribasini sezilarli darajada yaxshiladi va yanada intuitiv, qulay interfeyslar yaratishda yordam berdi. Ushbu bo'limda, IoT va HCI integratsiyasining samaralari, foydalanuvchi tajribasiga ta'siri, va bu sohada amalga oshirilgan misollar keltiriladi.

Unlike object detection or classification, edge detection lacks universally accepted evaluation benchmarks. Metrics like Precision-Recall (PR) curves, F-measure, and Structural Similarity Index (SSIM) are commonly used, but they vary across datasets and tasks [11].

Some metrics emphasize contour continuity, while others prioritize edge localization accuracy. This inconsistency makes it difficult to compare model performance objectively. Moreover, edge ground truths are often subjective, depending on human annotation, which introduces variability in benchmark datasets.

Efforts like the BSDS500 benchmark and newer datasets such as NYUDv2 and Cityscapes provide more structured evaluations, but no single metric fully captures perceptual edge quality [11].

IV. OPPORTUNITIES FOR ADVANCEMENT IN FACE AND EDGE DETECTION

While numerous unresolved challenges remain in face identification and edge detection, these very limitations offer fertile ground for innovation. Chapter 4 highlights promising research directions, technological opportunities, and the integration of cross-disciplinary approaches to overcome current barriers and develop more robust and efficient systems.

Self-Supervised and Semi-Supervised Learning

Given the heavy reliance on large annotated datasets in supervised learning, future advancements are expected to come from self-supervised and semi-supervised learning paradigms. These approaches allow models to learn meaningful representations from unlabeled data by formulating pretext tasks such as image inpainting, patch prediction, or contrastive learning. Recent models like SimCLR, BYOL, and MoCo have demonstrated promising results in visual recognition tasks [11], and their adaptation to facial recognition and edge extraction tasks is an emerging trend.

In edge detection, models trained with limited labeled data—augmented with pseudo-labels and consistency regularization—have shown improvements in generalization and label efficiency [14]. This reduces dependency on expensive manual annotations and supports applications in domains like medical imaging or remote sensing.

Domain Adaptation and Transfer Learning

Domain shifts often degrade model performance when the deployment environment differs significantly from training data (e.g., lighting, background, device quality). Transfer learning and domain adaptation strategies aim to bridge this gap by leveraging knowledge from pre-trained networks and minimizing distribution discrepancies [8].

In face recognition, pretrained CNN backbones such as ResNet-50 and MobileFaceNets are being adapted to mobile environments through fine-tuning and parameter pruning [15]. Similarly, edge detection models trained on synthetic datasets can be adapted to real-world scenes via domain adversarial training or feature alignment [7].

Edge-Aware and Attention-Based Architectures

Combining facial analysis with edge-aware convolutional mechanisms may lead to more accurate and spatially coherent recognition. Recent architectures have begun to integrate edge maps into feature encoding to enhance boundary localization in both segmentation and detection tasks. Attention modules—such as SE (Squeeze-and-Excitation), CBAM, or Transformer-based attention—have also shown to improve robustness against occlusion and pose variations [9].

These advances are especially valuable in tasks such as face detection in crowded scenes, masked recognition, or object segmentation in cluttered backgrounds [16].

Real-Time and Low-Power Optimization




Figure 4.1. Trade-off Between Model Complexity and Inference Time

Figure: Comparison of MobileNetV3, EfficientNet, ResNet, and HED showing how model size impacts inference time in real-time applications.

For broader deployment in mobile, embedded, and IoT systems, models must be optimized for inference speed and energy efficiency. Techniques such as neural architecture search (NAS), model quantization, and tensor decomposition are actively being used to reduce memory usage and latency without sacrificing performance [11].

Edge detection models like MobileHED and TinyRCF, and face identification models such as MobileFaceNet and EfficientFace, demonstrate that deep models can be scaled down effectively [12]. Further advancements in compiler-level optimizations and hardware acceleration (e.g., TPU, EdgeTPU, NPU) will continue to enable real-time applications.

Multi-Modal and Cross-Sensor Integration




Figure 4.2. Multi-modal integration

Figure: Sensor fusion architecture illustrating how RGB, Infrared, Depth, and Radar data are combined to produce a unified recognition output.

To improve accuracy and robustness, integrating complementary data sources—such as thermal imaging, 3D depth maps, or radar—is becoming increasingly important. Fusion techniques involving sensor calibration, cross-modal attention, and late-stage decision fusion can address weaknesses in traditional single-modality systems [5]. This is particularly relevant for high-security applications, nighttime surveillance, and biometric authentication in challenging environments [13].

CONCLUDING REMARKS

Face identification and edge detection remain cornerstone technologies for modern visual recognition systems. Despite considerable progress, real-world deployment is still hindered by environmental variability, high computational demand, and robustness limitations in dynamic or adversarial settings.

This article has outlined key problem areas—from illumination and occlusion challenges in face recognition to noise sensitivity and sensor fusion complexities in edge detection. It also explored emerging solutions like self-supervised learning, edge-aware architectures, and efficient model optimization for mobile use. Diagrams provided throughout the paper support practical understanding of these concepts.

Moving forward, interdisciplinary collaboration and research into adaptive, low-power, and context-aware systems will be crucial for unlocking the full potential of biometric and edge-aware applications in everyday life and critical systems.

REFERENCES

1. Al-Ghanim, F. J., & Al-Juboori, A. M. *Face Identification Under Disguise and Makeup Based on Hybrid Deep Learning*. Proceedings of the 7th International Conference on Contemporary Information Technology and Mathematics (ICCITM-2021), Mosul, Iraq, IEEE.
2. Wang, H., Wang, Y., Zhou, Z., Ji, X., Gong, D., Zhou, J., ... & Liu, W. *CosFace: Large Margin Cosine Loss for Deep Face Recognition*. In CVPR, 2018.
3. Lu, Y., Wang, X., & Zhang, M. *Face image recognition based on convolutional neural network*. In *2017 2nd International Conference on Image, Vision and Computing (ICIVC)*. IEEE.
4. Wang, M., Deng, W. *Deep face recognition: A survey*. *Neurocomputing*, 429, 215-244, 2021.
5. Wang, H., Wang, Y. *Color image edge detection method based on multiscale product using Gaussian*. *International Journal of Computer Applications*, Vol. 181, No. 38.
6. Zhou, W., Liu, S. *Detail enhancement and noise reduction with true color image edge detection*. *Procedia Computer Science*, 131, 806–813.
7. Chu, H., Bao, X., Li, M. *Research on Image Edge Detection Method Based on Multi-sensor Data Fusion*. *IEEE Conference Paper*.
8. Kaur, S., Kaur, P. *An Edge Detection Technique with Image Segmentation Using Ant Colony Optimization*. *IC-GET 2016*, IEEE.
9. Li, Y. *Edge Detection Algorithm of Image Fusion Based on Improved Sobel Operator*. *IEEE Access*, 2021.
10. Yang, S., Zheng, M., Chen, H., Gao, X. *A Review of Image Enhancement Technology Research*. *MLBDBI 2021*.
11. ElSawy, M. A., et al. *Quality assessment metrics for edge detection and edge-aware filtering: A comparative study*. *IEEE Access*, 2022.
12. Dong, J., He, J., Wang, H. *Edge Detection of Human Face*. *IEEE CEI Conference 2021*.
13. Gaston, J., Ming, J., Crookes, D. *Matching Larger Image Areas for Unconstrained Face Identification*. *IEEE Trans. on Cybernetics*.
14. Bennamoun, M. (1997). *Edge Detection: Problems and Solutions*. In: Proceedings of the 1997 IEEE International Conference on Systems, Man, and Cybernetics. Computational Cybernetics and Simulation. Brisbane, Australia. IEEE.
15. Lu, Y., Wang, X., & Zhang, M. (2017). *Face image recognition based on convolutional neural network*. In: **2017 2nd International Conference on Image, Vision and Computing (ICIVC)**. IEEE. **DOI havolasi:**
16. "Time Attendance Using FELE Face Identification Algorithms." *2022 9th International Conference on Electrical and Electronics Engineering (ICEEE)*. DOI: 10.1109/ICEEE55327.2022.9772596



TALABALARNING UZLUKSIZ MALAKAVIY AMALIYOTINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH JARAYONLARINI BOSHQARISH OMILLARI

Akbarov Behzodbek Saybjon o‘g‘li
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ish yurituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning uzluksiz malakaviy amaliyotini tashkil etish va boshqarish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, talabalar mustaqil ish ko‘nikmalarini rivojlantirish, mehnat bozori talablariga moslashtirilgan amaliyotni yo‘lga qo‘yish hamda professional identifikatsiyani shakllantirish kabi omillar malakaviy amaliyot samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida korxonalar bilan hamkorlikning hozirgi holati baholanib, ularni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur maqola natijalari oliy ta’lim tizimida amaliyot jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz malakaviy amaliyot, boshqaruv omillari, ijtimoiy hamkorlik, mustaqil ish, professional identifikatsiya, oliy ta’lim, amaliyot samaradorligi, kasbiy tayyorgarlik.

FACTORS FOR MANAGING THE ORGANIZATION AND CONDUCT OF CONTINUOUS PROFESSIONAL PRACTICE OF STUDENTS

Annotation: This article analyzes the processes of organizing and managing continuous professional practice for students in higher education institutions. The study identifies that factors such as strengthening social partnerships, developing students' independent work skills, aligning internship programs with labor market demands, and shaping professional identity directly impact the effectiveness of professional practice. The current state of cooperation between universities and enterprises in Uzbekistan is assessed, and practical recommendations for improvement are proposed. The results of this article contribute to enhancing internship processes within the higher education system.

Keywords: continuous professional practice, management factors, social partnership, independent work, professional identity, higher education, internship effectiveness, professional training.

ФАКТОРЫ УПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИЕЙ И ПРОВЕДЕНИЕМ НЕПРЕРЫВНОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПРАКТИКИ СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье анализируются процессы организации и управления непрерывной профессиональной практикой студентов в высших учебных заведениях. В ходе исследования установлено, что такие факторы, как укрепление социального партнёрства, развитие навыков самостоятельной работы студентов, адаптация практики к требованиям рынка труда и формирование профессиональной идентичности, напрямую влияют на эффективность производственной практики. Оценено текущее состояние сотрудничества между вузами и предприятиями в Узбекистане и предложены практические рекомендации по его совершенствованию. Полученные результаты способствуют улучшению процессов организации практики в системе высшего образования.

Ключевые слова: непрерывная профессиональная практика, факторы управления, социальное партнёрство, самостоятельная работа, профессиональная идентичность, высшее образование, эффективность практики, профессиональная подготовка.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan asosiy talab – mehnat bozorida raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Ushbu jarayonda talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo amaliyot ko'rsatmoqdaki, oliy ta'lim muassasalarida malakaviy amaliyotlarni tashkil qilish va samarali boshqarish jarayonida qator muammolar mavjud bo'lib, ularning bartaraf etilmasligi bitiruvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarni yetarlicha egallamasligiga, shuningdek, mehnat bozori talablariga mos kelmasligiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida malakaviy amaliyotning mazmuni, shakli va boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Prezident Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugun davlat va jamiyatning barcha sohalarini yangilashda innovatsion rivojlanish yo'lini tanladik. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda yangi fikr va innovatsiyalarga asoslangan davlatgina yutadi." [1]

Fan va texnologiya rivoji ishlab chiqarish jarayonlarini kengaytirib, mahsulot sifatini yaxshiladi va hajmini oshirdi. Bu o'zgarishlar ta'lim tizimining ham rivojlanishini talab etmoqda. XXI asrda ommaviy ishlab chiqarish ko'plab darsliklarni chop etish zaruratini tug'dirdi va bu orqali barcha bosqichlardagi ta'lim tizimlari rivojlandi. Zamonaviy axborot texnologiyalari esa ta'lim jarayonining ajralmas qismiga va ishlab chiqarish kuchlariga aylandi.

Malakaviy amaliyot oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis tayyorlashning muhim bosqichi bo'lib, talabalarga nazariy bilimlarini bevosita ishlab chiqarish jarayonida qo'llash, kasbiy muhit bilan yaqindan tanishish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Aynan malakaviy amaliyot davrida talabalar kasbiy faoliyat jarayonlarini bevosita kuzatib, kasbiy vazifalarni mustaqil bajarish, muammolarni aniqlash va ularni yechishga doir ko'nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar [2]. Shu bois malakaviy amaliyotni sifatli va samarali tashkil etish oliy ta'limning sifat ko'rsatkichlarini oshirish, bitiruvchilarning kasbiy

malakasini yuqori darajaga ko‘tarish va ularning kelajakdagi mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishlarini ta‘minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida mavjud adabiyotlar, xususan, oliy ta‘lim muassasalarida professional identifikatsiya shakllanishida kasbiy yo‘naltirish ishlarini tashkil etishga oid ilmiy ishlanmalar, normativ-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va tegishli vazirliklarning me‘yoriy-huquqiy hujjatlari chuqur tahlil qilindi[5]. Ushbu tahlil davomida talabalarning malakaviy amaliyotlarini tashkil qilish va boshqarishda asosiy yo‘nalishlar, amaliyot davomida yuzaga kelayotgan muammolar va samarali boshqaruv usullari aniqlandi. Ayniqsa, talabalarning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirish va ijtimoiy sheriklik orqali malakaviy amaliyotni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ko‘rib chiqildi[4].

Tadqiqot jarayonida talabalar va soha mutaxassislari orasida so‘rovnomalar va ekspert bahosi usullari amalga oshirildi. Talabalar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar orqali ularning malakaviy amaliyotdan kutgan natijalari, mavjud tashkiliy muammolar, amaliyot davomida mustaqil ishni rivojlantirishga oid talab va ehtiyojlari aniqlab olindi[3]. Mutaxassislar bilan olib borilgan ekspert bahosida esa malakaviy amaliyotni tashkil qilish va boshqarishda asosiy omillar sifatida talabalarning kasbiy tayyorgarligi darajasi, ishlab chiqarish muassasalarida mavjud sharoitlar va oliy ta‘lim muassasalari bilan korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikning sifatiga e‘tibor qaratildi. Bunda mutaxassislarning fikrlari, tavsiyalari va baholari umumlashtirilib, tadqiqot natijalarini shakllantirish uchun asos sifatida xizmat qildi.

Oliy ta‘lim muassasalarida mavjud bo‘lgan malakaviy amaliyotlarni tashkil qilish tajribalari ham o‘rganilib, solishtirildi. Bu bosqichda oliy ta‘lim muassasalari va korxonalar o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilindi. Xususan, talabalarning amaliyot davridagi mustaqil ishlash imkoniyatlari, ular tomonidan egallangan kasbiy kompetensiyalar darajasi, amaliyot tashkilotchilari tomonidan qo‘llanilayotgan uslubiy yondashuvlar va tashkil etish shakllarining samaradorligi baholandi. Mazkur bosqichda oliy ta‘lim muassasalari va korxonalarning o‘zaro hamkorlik modellari, ularning yutuq va kamchiliklari aniqlanib, samarali tashkil etilgan amaliyot misollaridan tavsiyalar shakllantirildi.

Shunday qilib, yuqoridagi tadqiqot usullari yordamida talabalarning malakaviy amaliyotlarini samarali tashkil qilish va boshqarishga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar aniqlanib, mavjud vaziyat bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida oliy ta‘lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi samarali ijtimoiy hamkorlik malakaviy amaliyot sifatini oshiruvchi asosiy omil sifatida tasdiqlandi. Ayniqsa, ishlab chiqarish sharoitlarida talabalar amaliyoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularni kasbiy faoliyat jarayonlariga jalb qilish va nazoratni kuchaytirish amaliyot samaradorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Amaliyot davomida talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish malakaviy amaliyot samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Mustaqil ishlash ko‘nikmalarining rivojlanishi nafaqat amaliy bilimlarning

mustahkamlanishiga, balki talabalar tomonidan olingan bilim va ko‘nikmalarning real ishlab chiqarish muhitida amalda qo‘llanilishiga yordam beradi.

Amaliyot jarayonida talabalar tomonidan mustaqil bajariladigan topshiriqlarning ko‘lamini kengaytirish, ushbu vazifalarni bajarish uchun aniq mezonlar va nazorat tizimlarini joriy etish samarali natija berdi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda bajarilgan ishlarning sifat va miqdori oshgani kuzatildi. Bu esa kelgusida mehnat bozorida raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlashga imkon yaratadi.

Amaliyotni tashkil qilishda mehnat bozori talablarini hisobga olish zaruriyati aniqlandi. Shuningdek, kasbiy yo‘naltirish ishlarini tizimli tashkil qilish orqali talabalarning professional identifikatsiyasini shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Kasbiy yo‘naltirish va professional identifikatsiyani shakllantirish ishlari talabalar tomonidan tanlangan kasblariga nisbatan mas‘uliyatni oshirishga, o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishga yordam berdi

Shunday qilib, tadqiqot natijalari oliy ta‘lim muassasalarida uzluksiz malakaviy amaliyotlarni samarali tashkil qilish va boshqarish uchun ijtimoiy sheriklik, mustaqil ish ko‘nikmalarini rivojlantirish va professional identifikatsiyani shakllantirish kabi omillar muhimligini aniqladi. Ushbu omillarni hisobga olish kelgusida bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirib, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari mavjud ilmiy-pedagogik adabiyotlar bilan solishtirilganda, oliy ta‘lim muassasalarida uzluksiz malakaviy amaliyotni samarali boshqarishda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati tasdiqlandi. Fedosova va Derevtsova ham korxonalar bilan oliy ta‘lim muassasalarining ijtimoiy hamkorligi mutaxassislarni sifatli tayyorlashda muhim rol o‘ynashini qayd etishgan[3].

Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida korxonalarning talabalarning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishga yetarli jalb etilmagani aniqlandi. Bu jihat Shapieva va boshqalarning tadqiqotidan farqli bo‘lib, ular kasbiy yo‘naltirish ishlarining tizimli olib borilishi zarurligini ta‘kidlaydilar[4].

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy muammolardan biri – oliy ta‘lim va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining sust rivojlanganligidir. Bu muammoni hal qilish uchun korxonalar bilan uzoq muddatli strategik shartnomalar tuzish, amaliyot dasturlarini ishlab chiqishda korxonalarning bevosita ishtirokini ta‘minlash, korxonalar vakillarini oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv organlariga kiritish taklif qilinadi.

Shuningdek, Kulikovaning fikriga ko‘ra, talabalar amaliyot davomida mustaqil ish va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mehnat bozoridagi raqobatbardoshlikni oshiradi. Shu sababli, talabalarning amaliyot davomida mustaqil ish topshiriqlarini bajarishiga urg‘u berish, mustaqil ishlarni baholashning tizimini yaratish va metodik yordamni kuchaytirish zarur[2].

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning uzluksiz malakaviy amaliyotini samarali tashkil etish va boshqarish bo‘yicha bir

qator muhim xulosalarga kelindi. Eng avvalo, malakaviy amaliyotning sifati va natijadorligi ko‘p jihatdan oliy ta‘lim muassasalari hamda ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi strategik sheriklik aloqalarining kuchliligiga bog‘liqdir. Bunday hamkorlik orqali talabalar real ish muhitiga moslashtirilgan holda kasbiy faoliyatga jalb etilishi mumkin.

Shuningdek, talabalar tomonidan amaliyot davomida o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmalarining shakllanishi ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Mustaqil ishlar orqali egallangan tajriba talabalarning kelgusidagi mehnat faoliyatiga bo‘lgan tayyorgarlik darajasini belgilaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kasbiy yo‘naltirish faoliyatlarini tizimli asosda tashkil etish talabalarning professional identifikatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularning tanlagan kasbiga bo‘lgan mas‘uliyatini oshirib, kasbiy o‘zligini anglashiga yordam beradi. Shu bilan birga, mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq malakaviy amaliyot dasturlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish zarur ekani ta‘kidlandi.

Yana bir muhim jihat shundaki, amaliyotni tashkil etish va boshqarish jarayonida aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun metodik ko‘rsatmalar va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Bularning barchasi yuqori sifatli malakaviy tayyorgarlik jarayonini ta‘minlaydi va bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: -O‘zbekiston, I jild. NMIU, 2017, – 59
2. Куликова Л. М., Куликов Л. М. Организация самостоятельной работы студентов вуза в условиях производственной практики как фактор формирования конкурентоспособного выпускника //Педагогико-психологические и медико-биологические проблемы физической культуры и спорта. – 2013. – №. 3 (28). – С. 131-138.
3. Федосова И. В., Деревцова Е. Н. Социальное партнерство вуза как фактор повышения качества профессиональной подготовки будущих специалистов //Russian Journal of Education and Psychology. – 2015. – №. 8 (52). – С. 306-321.
4. Шапиева А. В. и др. Профориентационная работа в вузе как фактор формирования профессиональной идентичности у студентов (на материалах Забайкальского государственного университета) //Вестник Кемеровского государственного университета. Серия: Политические, социологические и экономические науки. – 2021. – №. 4 (22). – С. 463-471.
5. <https://lex.uz/uz/docs/-6738217>
6. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti malakaviy amaliyot dasturi. Toshkent, 2021.



RESEARCH-BASED STRATEGIES FOR INCREASING STUDENT ACHIEVEMENT

Alimova Kamola Mirshahidovna

*Senior teacher, Department of Integrated English Language Teaching №2
Uzbekistan State World Languages University*

ABSTRACT This article describes evidence-based strategies designed to improve student achievement across various educational contexts. It highlights successful teaching strategies, such as differentiated instruction, formative assessment, active learning, and feedback mechanisms, by drawing on recent research. In order to optimize learning outcomes, the study highlights how crucial it is to match instructional tactics with cognitive and motivational theories. Examples from the classroom and real-world applications show how these tactics improve student participation, foster greater comprehension, and aid in academic achievement. The essay ends with suggestions for teachers to use evidence-based practices that promote inclusive, student-centered classrooms and help to maintain gains in academic performance.

Keywords: student achievement, evidence-based practices, differentiated instruction, formative assessment, active learning, feedback, student engagement, instructional strategies.

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada turli ta'lim kontekstlarida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishda samarali bo'lgan tadqiqotga asoslangan strategiyalar tahlil qilinadi. Zamonaviy tadqiqotlarga tayangan holda, maqolada samarali o'qitish amaliyotlari, jumladan, differensial ta'lim, formativ baholash, faol o'qitish va fikr-mulohaza mexanizmlari yoritib beriladi. Tadqiqot o'qitish strategiyalarini kognitiv va motivatsion nazariyalar bilan uyg'unlashtirishning muhimligini ta'kidlaydi. Amaliy misollar va sinfdagi tatbiqotlar ushbu strategiyalar o'quvchilarni jalb qilish, chuqurroq tushunishni rivojlantirish va akademik muvaffaqiyatni qo'llab-quvvatlashga qanday hissa qo'shishini namoyon etadi. Maqola o'qituvchilarga inklyuziv, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratishga va barqaror yutuqlarga erishishga yordam beradigan ilmiy asoslangan usullarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: talabalar yutuqlari, ilmiy asoslangan amaliyotlar, differensial ta'lim, formativ baholash, faol o'qitish, fikr-mulohaza, o'quvchilarni jalb qilish, o'qitish strategiyalari.

АННОТАЦИЯ В данной статье рассматриваются основанные на исследованиях стратегии повышения успеваемости учащихся в различных образовательных контекстах. Основываясь на современных исследованиях, статья выделяет эффективные

педагогические практики, включая дифференцированное обучение, формативное оценивание, активное обучение и механизмы обратной связи. В исследовании подчеркивается важность согласования педагогических стратегий с когнитивными и мотивационными теориями для максимизации учебных результатов. Практические примеры и случаи из классов демонстрируют, как эти стратегии способствуют вовлечению учащихся, развитию более глубокого понимания и поддержке академического успеха. Статья завершается рекомендациями для педагогов по внедрению методов, основанных на доказательствах, которые способствуют созданию инклюзивной, ориентированной на учащихся образовательной среды и устойчивому повышению успеваемости.

Ключевые слова: успеваемость учащихся, основанные на исследованиях практики, дифференцированное обучение, формативное оценивание, активное обучение, обратная связь, вовлеченность учащихся, педагогические стратегии.

INTRODUCTION

Student achievement is a central concern in educational policy and practice, as it serves as a key indicator of academic success and long-term societal contributions. In addition to being important for individual students, achieving high student performance is also essential for the social, cultural, and economic development of communities. Teachers and researchers are constantly looking for efficient methods that can improve student outcomes in order to meet this need.

A substantial amount of research on teaching strategies that measurable improve student achievement has surfaced in the last few decades. The cognitive, behavioral, and sociocultural theories of learning serve as the foundation for these research-based tactics, which offer a strong framework for comprehending how students learn and use information. Evidence-based teaching strategies that emphasize student engagement, active participation, and customized learning pathways have been developed as a result of the incorporation of these theories into classroom instruction.

Differentiated instruction, which entails adjusting teaching strategies, curriculum, and evaluation to match the various needs of students, is one of the most well-known approaches. Differentiated instruction encourages fair access to educational opportunities by acknowledging that students have different skills, interests, and learning preferences. This approach creates a more inclusive learning environment where all students can reach their full potential by offering a variety of learning pathways.

Formative assessment, which refers to continuous, informal evaluations of student learning throughout the instructional process, is another crucial tactic. Formative assessments offer immediate feedback that guides instructional modifications, in contrast to summative assessments, which assess learning at the conclusion of a unit or course. Teachers can improve

student learning outcomes by identifying learning gaps, modifying their teaching strategies, and offering focused support thanks to this ongoing feedback loop.

Another essential component of research-based tactics for raising student achievement is active learning. By encouraging problem-solving, teamwork, and critical thinking, this method moves the emphasis from passively absorbing information to actively engaging with it. Compared to students in conventional lecture-based settings, research shows that students who engage in active learning experiences have higher retention rates, better comprehension, and higher motivation.

It is impossible to overestimate the importance of feedback in raising student achievement. Good feedback helps students improve by giving them precise, understandable information about how they performed. One of the most important elements in student learning, according to Hattie and Timperley (2007), is feedback, which can help close the performance gap between present and ideal levels.

Additionally, incorporating technology-enhanced learning strategies has become more popular in modern education. Innovative approaches to enhancing student engagement, facilitating interactive content delivery, and supporting personalized learning are provided by digital tools and platforms. However, technology's ability to raise student achievement depends more on how it is intentionally incorporated into pedagogy than on how it is used in the classroom.

Along with these tactics, encouraging students to have a growth mindset has been found to be crucial for boosting academic achievement. According to Carol Dweck's (2006) research, a growth mindset helps students see obstacles as chances for personal growth, which boosts their resilience and tenacity.

In order to give educators useful advice and applications for raising student achievement, this article attempts to summarize recent research on these and other evidence-based tactics. The article aims to provide a thorough guide for putting into practice instructional strategies that support diverse learners and foster long-term academic growth by looking at the theoretical underpinnings, empirical data, and classroom practices related to these tactics.

LITERATURE REVIEW

Extensive educational research on the goal of raising student performance has produced a variety of approaches anchored in empirical data. These ideas are grounded in theoretical models from social learning theory, constructivism, and cognitive psychology.

Inspired by Tomlinson (2017), differentiated instruction responds to learner diversity by changing content, process, tools, and learning environments to fit students' readiness degrees, interests, and learning profiles. Studies show it works well for raising student involvement and performance, especially in mixed classrooms (Subban, 2006).

Many people agree that formative assessment is a very effective tool for improving instruction. By offering actionable feedback and guiding instructional changes, black and Wiliam's (1998) seminal meta-analysis found that formative assessment dramatically increases

student achievement. Their studies focused on the part assessment for learning plays in driving academic success rather than assessment of learning.

Constructivist theories that support learner-centered environments help active learning strategies including cooperative learning, problem-based learning, and inquiry-based instruction. Active learning, according to Prince (2004), enhances knowledge retention, critical thinking, and deeper comprehension, so improving academic performance in many fields.

Feedback's effects on student performance have been extensively recorded. With an average effect size of 0.79, Hattie and Timperley (2007) found feedback to be among the most powerful forces influencing learning. Their studies show how crucial timely, targeted, and helpful criticism is for closing performance gaps and promoting self-regulated learning.

Technology-enhanced learning has become quite important in the digital era for determining educational success. Research by Means et al. (2013) show that blended learning environments—which combine online components with face-to-face instruction—raise student performance over more conventional approaches. But the degree to which technology is effective relies on how closely it supports pedagogical objectives and how actively students participate in meaningful projects.

Based on Dweck's (2006) theory, growth mindset interventions have shown good results for student performance, especially for underachievers. Studies by Yeager and Dweck (2012) show that encouraging a growth mindset results in higher resilience, tenacity, and academic performance.

These research-based techniques taken together emphasize the need of learner-centered methods, continuous evaluation, and the development of good learning attitudes. The literature emphasizes that a mix of differentiated instruction, formative feedback, active participation, and psychological empowerment best supports student achievement.

DISCUSSIONS

Research-based strategies must be carefully applied and contextualized to be successful classroom tools. Ensuring these approaches are not only theoretically sound but also practically useful depends much on teachers.

Flexible grouping, tiered assignments, and diverse instructional materials allow one to operationalize differentiated instruction. A science teacher might, for instance, give several ways for investigating a topic—videos, hands-on experiments, and reading materials—all letting students participate depending on their preferred learning style.

Exit tickets, think-pair-share activities, and online quizzes are among formative assessment tools that let teachers monitor student knowledge instantly. These low-stakes tests guide quick changes in the classroom so that learning goals are satisfied before moving on to more advanced materials.

Using active learning means moving from teacher-centered presentations to student-driven inquiry. Projects-based learning, debates, and jigsaw activities among other strategies encourage teamwork and critical thinking. In a simulated debate, for example, a history teacher

might assign students to role-play historical figures, so fostering research, empathy, and persuasive communication.

To properly direct student development, feedback must be timely, specific, and practical. Rubrics, peer reviews, and digital tools let teachers offer ongoing comments. Using Google Classroom's comment tools, for instance, lets you immediately provide personalized comments on writing projects, so encouraging iterative changes and deeper learning.

Integration of technologies presents many chances for individualized education. Platforms for adaptive learning, like Khan Academy or Duolingo, change the content difficulty depending on student performance, so offering customized help. Gamification of learning environments and virtual simulations improve engagement and motivation even more.

Encouragement of a growth mindset means creating a classroom environment that respects learning from mistakes, effort, and tenacity. By sharing personal learning experiences, honoring student progress, and redefining challenges as chances for development, teachers can set an example of this attitude. Reflective journals and goal-setting conferences are among classroom activities that help students to take responsibility for their educational path.

Effective application of these techniques can be hampered, nevertheless, by time limits, limited resources, and different degrees of teacher preparedness. Overcoming these obstacles calls both institutional support and professional development as well as group planning.

Research-based approaches' success in raising student performance ultimately relies on their careful integration into daily instruction, fit with student needs, and continuous assessment of their influence.

CONCLUSION

Improving student achievement is a multifaceted endeavor that requires evidence-based, learner-centered instructional strategies. Research has repeatedly confirmed the effectiveness of differentiated instruction, formative assessment, active learning, good feedback, technology integration, and development of a growth attitude.

Effective application of these techniques calls for flexibility, reflective practice, and an attitude toward lifelong professional development. Teachers have to design inclusive and interesting classrooms that acknowledge and meet the several demands of their pupils.

Teachers can greatly improve the results of their instruction by adopting research-based approaches, so guaranteeing academic success and arming their students for lifetime development and excellence.

REFERENCES:

1. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. – 1998. – Vol. 5, № 1. – P. 7–74.
2. Dweck C.S. Mindset: The New Psychology of Success. – New York: Random House, 2006.

3. Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
4. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback // Review of Educational Research. – 2007. – Vol. 77, № 1.
5. Tomlinson C.A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. – 2nd ed. – Alexandria, VA: ASCD, 2017.
6. Yeager D.S., Dweck C.S. Mindsets That Promote Resilience: When Students Believe That Personal Characteristics Can Be Developed // Educational Psychologist. – 2012. – Vol. 47, № 4.



OLIIY TA‘LIM MUASSASALARIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING INNOVATSION BOSHQARUV MODELLARI

Aripova Ziyoda Atxamovna

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta‘lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishda innovatsion boshqaruv modellarining roli tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya, sog‘lom ta‘lim muhiti va kasbiy yo‘naltirishni ta‘minlovchi klaster modelining o‘zaro integratsiyasi orqali ta‘lim sifatini oshirish, talabalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni mehnat bozoriga tayyorlashdagi strategik yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqot IMRAD tizimi asosida olib borilgan bo‘lib, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining real ta‘lim muhitidagi samarasini asosli misollar bilan tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: innovatsion boshqaruv, oliy ta‘lim, yoshlar bilan ishlash, raqamli transformatsiya, sog‘lom muhit, klaster model, kasbiy yo‘naltirish, zamonaviy yondashuv, ta‘lim sifati, boshqaruv tizimi.

INNOVATIVE MANAGEMENT MODELS FOR YOUTH ENGAGEMENT SYSTEMS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation. This article analyzes the role of innovative management models in enhancing youth engagement systems within higher education institutions. It focuses on the integration of digital transformation, healthy educational environments, and a cluster-based approach to vocational guidance, aiming to improve the quality of education and ensure comprehensive development of students. Conducted within the IMRAD framework, the study demonstrates the effectiveness of modern governance strategies through practical and contextual evidence.

Keywords. innovative management, higher education, youth engagement, digital transformation, healthy environment, cluster model, vocational guidance, modern approach, education quality, management system.

ИННОВАЦИОННЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ РАБОТЫ С МОЛОДЕЖЬЮ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье рассматривается роль инновационных моделей управления в совершенствовании системы работы с молодежью в высших учебных заведениях. Особое внимание уделено интеграции цифровой трансформации, здоровой

образовательной среды и кластерного подхода к профессиональной ориентации с целью повышения качества образования и всестороннего развития студентов. Исследование выполнено в рамках модели IMRAD и подтверждается практическими примерами.

Ключевые слова: инновационное управление, высшее образование, работа с молодежью, цифровая трансформация, здоровая среда, кластерная модель, профориентация, современный подход, качество образования, система управления.

Kirish. Oliy ta'lim tizimi bugungi globallashuv va raqobat muhitida nafaqat nazariy bilim berish, balki yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularning ijtimoiy moslashuvchanligini, ijodiy tafakkurini va intellektual salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini beradigan muhit yaratishi lozim. Talabalarni nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha, balki jamoaviy ishlash, liderlik, axloqiy mas'uliyat va muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish ko'nikmalariga ham ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlarga aylantirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Bunday natijaga erishish esa, bevosita oliy ta'lim muassasalarida boshqaruvning zamonaviy va innovatsion modellarini joriy etish, ya'ni raqamli transformatsiya, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, klasterlashgan o'quv-amaliy jarayon va motivatsion muhitni barpo etishga asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshiriladi.

Metod. Tadqiqotda tahliliy va komparativ yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Ilmiy tahlil jarayonida uchta asosiy yo'nalish bo'yicha mavjud ilmiy-adabiy manbalar o'rganildi va qiyosiy tahlil qilindi. Birinchidan, Hamroyev (2024) tomonidan ilgari surilgan raqamli boshqaruv tizimlari konsepsiyasi asosida talaba va o'qituvchi o'rtasidagi interaktiv aloqa, axborotlar oqimini boshqarish va shaxsiylashtirilgan ta'limni ta'minlash imkoniyatlari ko'rib chiqildi[9]. Ikkinchidan, Mukhametzyanova (2016) tomonidan taklif etilgan klaster modeli orqali ta'lim muassasalari, maktablar va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida hamkorlik asosida kasbiy yo'naltirish samaradorligi o'rganildi[8]. Bu model yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyasini kuchaytirish, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, Esayulenko va boshqalar (2014) tadqiqoti asosida sog'lom ta'lim muhitini shakllantirish tajribalari chuqur o'rganildi. Bu orqali talabalarning jismoniy va psixologik salomatligiga e'tibor qaratilgan ta'lim muhitining ijtimoiy va iqtisodiy samaralari yoritildi[7]. Tadqiqot davomida bu uch modelning o'zaro bog'liqligi, ularning oliy ta'lim muassasalarida yoshlarga qaratilgan innovatsion boshqaruv strategiyalarini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilindi.

Natijalar. O'rganilgan manbalar tahlili asosida raqamli boshqaruv tizimlarining ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi bir qancha ijobiy natijalarni bergani aniqlandi. Jumladan, ushbu tizimlar orqali talabalar bilan tezkor va samarali ikki tomonlama aloqa kanallarini yo'lga qo'yish imkoniyati keskin oshgani kuzatildi. Bu esa o'z navbatida talabalar tomonidan bildirilayotgan taklif, murojaat yoki muammolarga tezkor javob qaytarish imkonini yaratadi. Shu orqali nafaqat talabaning ehtiyojlariga mos individual yechimlar ishlab chiqiladi, balki o'quv jarayonida yuzaga keladigan holatlar tezda aniqlanib, zarur pedagogik choralar ko'riladi.

Ayniqsa, bu yondashuv talabani qoniqish darajasi va o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, raqamli platformalar orqali o‘quv jarayoni holatini real vaqt rejimida kuzatish, tahliliy ma’lumotlar asosida monitoring olib borish imkoniyatining mavjudligi boshqaruv tizimlarining ochiqqligi va shaffofligini sezilarli darajada kuchaytirmoqda. Masalan, talabalar davomatini, reyting natijalarini, o‘qituvchi va guruhlar kesimidagi faollik darajasini tezkor kuzatish va baholash orqali ta’lim sifatini nazorat qilish va zudlik bilan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin bo‘lmoqda. Bu esa axborotga asoslangan qaror qabul qilish tizimini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim jihat shundaki, raqamli texnologiyalar har bir talabaga individual yondashuvni joriy etish imkonini bermoqda. Xususan, talabani bilim darajasi, o‘quv sur’ati, qiziqish doirasi va boshqa psixopedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda, unga moslashtirilgan shaxsiy o‘quv yo‘nalishlarini ishlab chiqish mumkin bo‘lib qolmoqda. Bu jarayonda raqamli vositalar – masalan, moslashtirilgan ta’lim platformalari, elektron resurslar va o‘z-o‘zini baholash tizimlari – samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ular nafaqat talabani mustaqil bilim olish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi, balki ularning o‘z ustida ishlash motivatsiyasini ham oshiradi.

Shu tariqa, raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi nafaqat boshqaruv samaradorligini oshirmoqda, balki talabalarga mo‘ljallangan ta’lim strategiyalarini takomillashtirish, o‘quv jarayonining shaffofligi, moslashuvchanligi va sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Sog‘lom ta’lim muhitini yaratish talabalarning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. O‘rganilgan manbalar tahliliga asoslanib aytish mumkinki, aynan ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar, jumladan, muntazam jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatini targ‘ib qilish, stress va zo‘riqish holatlarini kamaytirishga qaratilgan dasturlar hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini joriy etish orqali talabalarning umumiy farovonligi sezilarli darajada oshgan. Bu esa o‘z navbatida ularning kasbiy layoqati, o‘quv faoliyatidagi samaradorligi, ijtimoiy faolligi va mas’uliyat hissining kuchayishiga bevosita ta’sir qilgan.

Sog‘lom muhitning talabalarga ijobiy ta’siri faqat jismoniy holat bilan cheklanmaydi. Psixologik barqarorlik va ruhiy farovonlik ham shunday muhitda shakllanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sog‘lom ta’lim muhitida tahsil olayotgan talabalar orasida o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi yuqori, psixoemotsional holati esa barqaror bo‘ladi. Bu holat ularning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishiga, ijtimoiy loyihalarda qatnashishga, jamoadagi munosabatlarni konstruktiv tarzda qurishga va kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishiga zamin yaratadi.

Ayniqsa, psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarining yo‘lga qo‘yilishi orqali talabalar o‘zlarining his-tuyg‘ulari, muammolari va tashvishlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega

bo‘ladilar. Bu esa ularni ijtimoiy jihatdan integratsiyalashuviga, jamoa bilan samarali ishlashiga va ichki ziddiyatlarni yengib o‘tishga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, sog‘lom muhitning mavjudligi tahsil oluvchilarda o‘z ustida ishlash, o‘zini qadrlash va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Kasbiy yo‘naltirish jarayonini takomillashtirish va yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyalashuvini tizimli asosda yo‘lga qo‘yish maqsadida ta‘lim tizimi, umumiy o‘rta maktablar hamda ishlab chiqarish sektori o‘rtasida klaster model asosida uzviy aloqalar shakllantirilmoqda. Ushbu model orqali ta‘lim jarayoni bilan amaliyot, nazariya bilan ishlab chiqarish, maktab bitiruvchilari bilan mehnat bozori o‘rtasida uzluksiz va uyg‘un bog‘liqlik ta‘minlanmoqda. Klaster yondashuvi tufayli yoshlarning ta‘limdan bevosita ish faoliyatiga o‘tishini yengillashtiruvchi, moslashuvchan va maqsadli tizim yaratilmoqda. Bu holat, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim strategik yondashuv sifatida e‘tirof etilmoqda.

Bunday tizimli integratsiya natijasida kasbiy yo‘naltirishga qaratilgan hamkorlik loyihalari, maktab–kollej–korxona formatidagi uch tomonlama hamkorlik shartnomalari va integratsiyalashgan amaliyot dasturlari ishlab chiqildi. Bu dasturlar o‘quvchilarga maktab davridan boshlab o‘z qiziqishlari va salohiyatiga mos kasblarni tanlashda aniq yo‘nalish berishga xizmat qilmoqda. Jumladan, o‘quvchilar ishlab chiqarish obyektlarida real ish sharoitida ishtirok etish, u yerda bevosita kasb egalari bilan muloqotda bo‘lish, amaliy mashg‘ulotlarda qatnashish orqali o‘zlarining tanlagan kasbiga bo‘lgan munosabatini mustahkamlamoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday yondashuv natijasida o‘quvchilar amaliy ko‘nikmalarni erta bosqichdayoq egallash imkoniga ega bo‘lib, o‘z kasbiy tanlovlarini ongli va puxta asosda amalga oshirmoqdalar. Bu esa kelajakda ularning ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etishiga, ijtimoiy va iqtisodiy faollik darajasining oshishiga, eng muhimi esa, mehnat bozoriga raqobatbardosh va tayyor kadr sifatida kirib borishiga zamin yaratadi.

Shu jihatdan qaralganda, klaster modeli faqatgina kasbiy yo‘naltirish jarayonining bir bo‘lagi emas, balki yoshlar salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish va barqaror bandlikni ta‘minlovchi muhim innovatsion mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Muhokama. Oliy ta‘lim muassasalarida innovatsion boshqaruv modeli nafaqat zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmaydi, balki u chuqur pedagogik va madaniy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Bu modelda raqamli transformatsiya-ta‘lim jarayonining avtomatlashtirilishi, ochiqligi va shaxsiylashtirilishini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, sog‘lom muhit yaratish - talabalarning jismoniy va ruhiy salomatligini ta‘minlash, stresslarni kamaytirish, barqaror ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish orqali ularning o‘zini anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Kasbiy yo‘naltirishga asoslangan klasterlashgan yondashuv esa ta‘lim muassasalarining bozor talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlashdagi moslashuvchanligini oshiradi. Shu tariqa, innovatsion boshqaruvning samarali

amaliyoti talabalarni har tomonlama rivojlantirishga, ularning ta'lim sifati bilan bir qatorda shaxsiy va kasbiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday kompleks yondashuv nafaqat oliy ta'lim samaradorligini oshiradi, balki mamlakatning intellektual salohiyatini ham mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etish uchun raqamli texnologiyalar, sog'lom ta'lim muhiti va kasbiy yo'naltirishga asoslangan klaster yondashuvi integratsiyasi zaruriy ehtiyojga aylangan. Ushbu yondashuvlar nafaqat ta'lim jarayonining shaffofligini va samaradorligini oshiradi, balki talabaning ijtimoiy, psixologik va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi muhitni yaratadi. Shu tariqa, innovatsion boshqaruv modeli oliy ta'limda strategik ustuvorlikka ega bo'lib, mamlakatning intellektual salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim muassasalarining barqaror va samarali faoliyat yuritishida strategik ahamiyatga ega omil sifatida namoyon bo'lmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov T.X. Oliy ta'limda o'qitishning zamonaviy usullari // Экономика и социум. 2024. №6-1 (121). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-ta-limda-o-qitishning-zamonaviy-usullari> (дата обращения: 21.05.2025).
2. O'rmonov N. T., Ismailov A. R. Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyot // O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodmoliya. – 2019. – T. 254.
3. Axmedjanov M. M., Xojaev B. Q. Pedagogik mahorat // Buxoro Maruzalar matni. – 2004.
4. Ruzieva S. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning o'rni // Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 1.
5. Erkinovna Y.D. O'zbekiston respublikasining ta'lim tizimida klasterlashtirish orqali ta'lim sifati oshirishga ahamiyati // interdisciplinary innovation and scientific research conference. – 2024. – T. 3. – №. 25. – C. 175-182.
6. Xudayberdiyeva D., Matrasulova M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari // Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2025. – T. 4. – №. 13. – C. 4-11.
7. Есауленко И. Э., Попов В. И., Петрова Т. Н. Опыт организации здоровьесберегающей образовательной среды в вузе // Научно-медицинский вестник Центрального Черноземья. – 2014. – №. 58. – C. 23-29.
8. Мухаметзянова Ф. Ш. Кластерная модель профориентационной работы с учащейся молодежью // Профессиональное образование в России и за рубежом. – 2016. – №. 2 (22). – C. 24-29.
9. Shoyimovich H. B. Oliy ta'lim muassasalarida yoshlar bilan samarali ishlash uchun raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish // tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 313-316.



YADRO IKKI KARRA PREDIKATIV 1 VAZIFASIDAGI SINTAKSEMALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Asadova Gavhar Teshabayevna - doktorant

*Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand, O‘zbekiston. Telefon:
+998886129878, e-mail: asadova@samdchti.uz*

Annotatsiya Maqola ingliz ingliz tili gap qurilmasida yadro ikki karra predikativ 1 (NP_1P_1) birliklar qatnashgan gaplarni sintaktik tuzilmasi asosida kognitiv tahlilga bag‘ishlanadi. Gaplar kognitiv modellar, semantik rollar va subyekt-predikat munosabatlari nuqtai nazaridan o‘rganilib, transformatsiya usullari orqali sintaksemalarning substansial, agentiv va stativ xususiyatlari hamda ularning yadro predikativ va noyadroviy predikativ aloqalar asosida voqelanishi aniqlanadi. Inglizcha gaplar badiiy adabiyotlardan olingan bo‘lib, ularda kognitiv jarayonlarning farqlarini ochib beradi va tilshunoslikda sintaktik semantikaga kognitiv yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *sintaksem tahlil, kognitiv tahlil, NP_1P_1 , sintaksema, semantik rollar, noyadroviy predikativ aloqa, transformatsiya*

Аннотация Статья посвящена когнитивному анализу предложений английского языка, в состав которых входят ядерные двойные предикативные единицы 1 (NP_1P_1) в структуре английского предложения, на основе их синтаксической структуры. Предложения изучаются с точки зрения когнитивных моделей, семантических ролей и субъектно-предикатных отношений, а также методами трансформации определяются субстанциальные, агентивные и стативные свойства синтаксем и их реализация на основе ядерных предикативных и неядерных предикативных отношений. Английские предложения взяты из художественной литературы, что выявляет различия когнитивных процессов в них и демонстрирует важность когнитивного подхода к синтаксической семантике в лингвистике.

Ключевые слова: *синтаксемный анализ, когнитивный анализ, NP_1P_1 , синтаксема, семантические роли, неядерная предикативная связь, трансформация.*

Abstract The article is devoted to the cognitive analysis of sentences in the English language, which include nuclear double predicative 1 (NP_1P_1) units in the English sentence structure, based on their syntactic structure. The sentences are studied from the point of view of cognitive models, semantic roles and subject-predicate relations, and the substantial, agentive and stative properties of syntaxemes and their realization on the basis of nuclear predicative and non- nuclear predicative relations are determined by transformation methods. The English

sentences are taken from fiction, which reveals the differences in cognitive processes in them and demonstrates the importance of the cognitive approach to syntactic semantics in linguistics.

Key words: *syntaxeme analysis, cognitive analysis, NP₁P₁, syntaxeme, semantic roles, non-nuclear predicative connection, transformation.*

KIRISH

Ingliz tili gap qurilmalarini sintaktik tahlil qilish tilning kognitiv jarayonlari va ma’no hosil qilish mexanizmlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bir subyektga ikki predikat bog‘langan yadro ikki karra predikativ 1 (NP₁P₁) birliklari gapning semantik va sintaktik tashkil topishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu birliklar yadro predikativ aloqa (YPA) orqali subyekt va asosiy predikat o‘rtasidagi munosabatni, noyadroviy predikativ aloqa (NPA) orqali esa subyekt yoki obyekt bilan ikkinchi darajali predikativ elementlar o‘rtasidagi bog‘lanishni ta’minlaydi [Muxin, 2007]. Ushbu tadqiqot NP₁P₁ birliklarining substansial, agentiv, stativ va identifikatsiyalovchi xususiyatlarini sintaktik va kognitiv tahlil asosida o‘rganishga qaratilgan. Ingliz badiiy adabiyotidagi gaplar misolida kognitiv modellar, semantik rollar va subyekt-predikat munosabatlari tahlil qilinib, sintaktik semantikaga kognitiv yondashuvning ahamiyati ko‘rsatiladi [Lakoff & Jonson, 2004].

Tadqiqotning maqsadlari quyidagilardan iborat:

NP₁P₁ birliklarining ingliz tili gaplaridagi sintaktik tuzilmasini tahlil qilish. Ushbu tuzilmalar bilan bog‘liq kognitiv modellar va semantik rollarni aniqlash. Sintaksem tahlil va transformatsiya usullari yordamida sintaksemalarning substansial, agentiv, stativ va identifikatsiyalovchi xususiyatlarini ochib berish. Yadro va noyadroviy predikativ aloqalarning gap ma’nosini shakllantirishdagi o‘zaro ta’sirini ko‘rsatish.

METODLAR

Tadqiqot sifat tahlili yondashuvga asoslanadi va NP₁P₁ birliklarini sintaksem va kognitiv tahlil qilish uchun quyidagi metodlardan foydalanadi:

Gap tanlash: Kontekstual boylik va sintaktik tuzilmalarning xilma-xilligini ta’minlash uchun badiiy adabiyotlardan yettita inglizcha gap tanlandi. Ushbu gaplar NP₁P₁ birliklarining qo‘llanilishini namoyon etadi.

Sintaksem tahlili: Har bir gapning ichki tuzilmasi R.M.Asadov [2018] va A.M.Muxin [2001] tomonidan tavsiflangan sintaksem tahlili asosida o‘rganildi. Bu jarayonda gap komponentlarining kategorial (leksik-grammatik) va nokategorial (kontekstga bog‘liq) differensial sintaktik-semantik belgilari aniqlandi.

Transformatsiya usullari: Sintaksemalarning substansial, agentiv, stativ va identifikatsiyalovchi xususiyatlarini aniqlash uchun tushirib qoldirish, verbalizatsiya va depassivizatsiya kabi transformatsiya usullari qo‘llanildi. Bu usullar YPA va NPA aloqalarining amalda qo‘llanilishini ochib berdi.

Kognitiv tahlil: Gaplarda qo‘rquvga asoslangan harakatlar, emotsional holatlar yoki tashqi cheklovlar kabi kognitiv modellar aniqlandi. Bu jarayonda Lakoff va Jonson [2004] va U.Kuziyev [2021] tomonidan taklif qilingan kognitiv ramkalar qo‘llanildi.

Sintaksem modellash: Har bir gap sintaksem modellar yordamida tasvirlanib, substansial, agentiv, stativ va kvalifikativ sintaksemalar o‘rtasidagi aloqalar YPA va NPA asosida ko‘rsatildi.

NATIJALAR

Tanlangan gaplarning tahlili NP1P1 birliklarining quyidagi kognitiv va sintaktik xususiyatlarini ochib berdi:

Quyidagi gaplar tahlil qilindi:

1. *She ran to hide behind the house that night* (HLTKM, 53).
2. *He appeared to be suffering* (TMB, 139).
3. *He stood motionless* (CMCR, 102).

Ushbu gaplarda *She* (1), *He* (2, 3) komponentlari ikki valentli sintaktik birliklar hisoblanib, gap tarkibida yadro ikki karra predikativ 1 komponenti o‘rnida kelgan. Bu komponentlarning kategorial differensial sintaktik-semantik belgisi substansiallikni (Sb), nokategorial belgilardan *she* NP2 birlikka nisbatan ham, NP2 birlikka nisbatan ham agentivlik (Ag) sintaktik-semantik belgini ifodalaydi; *He* komponenti *appeared* va *to be suffering* elementlarida voqelangan holatning egasini ifodalagani uchun ikki karra holat (stativlik - StSt) yuklatilgan [Filimonova, 2016] komponent hisoblanadi; so‘nggi gapdagi *He* sintaktik birlik *stood* komponentiga nisbatan agentiv, *motionless* elementidagi holatning egasi sifatida stativlik yuklatilgan sintaksema hisoblanadi. Mazkur ikki valentli sintaksemalar YPA va NPA asosida protsessual aksional (PrAc) va protsessual stativ (PrSt) hamda kvalifikativ stativ (QlfSt) sintaksemalar bilan bog‘langan. Ushbu holat quyidagi transformatsiya metodi yordamida dalillanadi:

1) *She ran to hide behind the house that night* → *She ran ...* → *She ... to hide* → *She hid*;

2) *He appeared to be suffering* → *He appeared ...* → *He ... to be suffering* → *He was suffering*;

3) *He stood motionless* → *He stood ...* → *He ... motionless* → *He was motionless*.

Stativ sintaksemaning ushbu gaplarda mavjudligini aniqlashda quyidagi transformatsiya usullaridan foydalanish mumkin:

(2) *He appeared to be suffering* → *He ... to be suffering* → *He was suffering* → *He was in the state of suffering*.

(3) *He stood motionless* → *He ... motionless* → *He was motionless* → *a motionless man*.

Ushbu gaplar tarkibida ifodalangan sintaksemalarni quyidagi modellarda izohlash mumkin:

(1) <i>She ran to hide behind the house that night</i> :	SbAgAg . PrAc . PrAc . SbLc . SbTm SbStSt . PrSt . PrSt
(2) <i>He appeared to be suffering</i> :	SbAgQlt . PrAc . QlfQlt

(3) *He stood motionless:*

Tahlil qilingan gaplarning kognitiv xususiyatlari quyidagicha izohlanadi. Birinchi gapda subyektning ongli harakati va maqsadi (*hide*) aks etadi. Kognitiv jihatdan, bu jumlada qo‘rquv yoki xavfdan qochish instinkti (Lakoff, Jonson, 2004) seziladi, chunki *behind the house* va *that night* konteksti sirli yoki xavfli vaziyatni anglatadi. Transformatsiya jarayoni subyektning faoliyatini va maqsadga yo‘naltirilgan harakatini ochib beradi. Ikkinchi misolda subyektning ichki holati (azob chekish) tashqi kuzatuvchi nuqtai nazaridan tasvirlanadi. Kognitiv jihatdan, bu tuzilish subyektning emotsional yoki jismoniy holatini ochib beradi, lekin bu holat haqida ishonchli dalil yo‘qligini (*appeared*) ko‘rsatadi. Transformatsiya jarayoni tashqi kuzatuvdan ichki holatga o‘tishni ta’kidlaydi. Uchinchi gapda subyektning jismoniy va ehtimol psixologik holati (*motionless*) ta’kidlanadi. Kognitiv jihatdan, *motionless* so‘zi subyektning ichki tarangligi yoki tashqi harakatsizligini aks ettiradi. Transformatsiya jarayoni dinamik harakatdan statik holatga o‘tishni ko‘rsatadi, lekin ma’no biroz yo‘qotiladi.

Yadro ikki karra predikativ 1 komponenti o‘rnida kelgan ikki valentli element substansial agentiv sintaksema asosida identifikatsiyalanuvchi sintaksemani ham ifodalashini kuzatamiz.

4. *James seems a rich man* (RGH, 376).

Mazkur gapda ikki valentli komponent *James* yadro predikativ 2 *seems* komponentiga nisbatan agentivlikni, noyadroviy predikativ 2 *a man* komponenti substansial identifikatsiyalovchi sintaksemani ifodalagani bois *Golding* substansial agentiv identifikatsiyalanuvchi (SbAgId₁) sintaksemani bildiradi.

Demak, agentiv va identifikatsiyalanuvchi sintaksemalarni aniqlashda transformatsiya metodining tushirib qoldirish va bog‘lama fe’lni eksplikatsiya qilish (tiklash) usullaridan foydalanish mumkin:

4) *James seems a rich man* → *James seems ...* → *James ... a rich man* → *James is a rich man* → *James is a ... man*.

Bu gapning sintaksema tarkibi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

(4) *James seems a rich man:* SbAgId₁ . PrAc . QlfQlt . SbId₂

Bu jumlada subyektning tashqi ko‘rinishi va boshqalar tomonidan qabul qilinishi ta’kidlanadi. Kognitiv jihatdan, *seems* so‘zi haqiqat va taxmin o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi, bu personajning murakkab ijtimoiy o‘yinlariga mos keladi. Transformatsiya jarayoni taxmindan aniqlikka o‘tishni ko‘rsatadi.

Misollar yordamida isbotlanishiga ko‘ra, yadro ikki karra predikativ 1 (NP₁P₁) o‘rnida kelgan ikki valentli komponent obyekt hamda agentiv (Ob, Ag) sintaksemalarni ifodalaydi:

5. *Students are not allowed to enter...*

Ushbu gapda *students* ikki valentli ikki karra yadro predikativ 1 komponenti hisoblanib, *are not allowed* – yadro predikativ 2 komponentiga nisbatan obyektlikni (Asadova, 2024), noyadroviy predikativ 2 – *to enter* elementiga nisbatan agentiv sintaksemani bildiradi. Ikki

valentli komponentning obyekt sintaksemani ifodalashini transformatsiya metodining depassivizatsiya usuli yordamida isbotlash mumkin.

5) *Students are not allowed to enter* → *We don't allow students to enter*.

Mazkur transformatsiyaning hosilasidan ma'lumki, ikki valentli komponent *students* substansial obyekt sintaksemani ko'rsatish uchun xizmat qiladi. *Are not allowed* (NP₂) komponenti protsessual aksional negativ direktiv (yo'naltirilgan) sintaksemani ifodalashi munosabati bilan *students* obyekt sintaksemani anglatadi. Ushbu sodda gap qurilmasida *students* elementi ikki valentli komponent hisoblanib, ikki sintaktik aloqa asosida ishtirok etmoqda, ya'ni *are not allowed* bilan yadro predikativ aloqaga kirishib, obyekt sintaksemani aks ettirsa, noyadroviy predikativ 2 (*to enter*) komponenti bilan noyadroviy predikativ aloqa asosida bog'lanib agentivlikni ifodalamoqda. Bu holatni tushirib qoldirish hamda transformatsiya verbalizatsiya usuli yordamida aniqlash mumkin.

(5) *Students are not allowed to enter* → *Students not ... to enter* → *Students do not enter*.

Mazkur gapda yadro ikki karra predikativ 1 o'rnida kelgan – *Students* sintaktik birlik substansial obyekt agentiv, yadro predikativ 2 o'rnida kelgan *are not allowed* komponent protsessual aksional direktiv, noyadroviy predikativ 2 *to enter* komponenti protsessual aksional hisoblanadi. Bu natijani sintaksem model orqali quyidagicha tasvirlash mumkin:

(5) <i>Students are not allowed to enter</i>: SbObAg .PrAcDrNg .PrAc

Bu jumlada tashqi qoida yoki avtoritet tomonidan qo'yilgan cheklov ta'kidlanadi. Kognitiv jihatdan, bu tuzilish subyektning (talabalar) erkinligiga qarshi tashqi cheklovni aks ettiradi. Transformatsiya jarayoni taqiqdan umumiy harakatga o'tishni ko'rsatadi, lekin bu asl ma'noni buzadi.

6. *Heathcliff is thought to be a man of dark and vengeful spirit* (EBWH, 56).

Ikki valentli komponent *Heathcliff* yadro predikativ 2 komponenti *is thought* elementiga nisbatan obyekt sintaksemani, noyadroviy predikativ 2 komponenti *to be the a manga* nisbatan identifikatsiyalanuvchi sintaksemani ifodalaydi. *Heathcliff* substansial obyekt sintaksemani ifodalashini aniqlash uchun transformatsiya-depassivizatsiya usulidan foydalanish kifoya.

6) *Heathcliff is thought to be a man of dark and vengeful spirit* → *I think Heathcliff is a man of dark and vengeful spirit*.

Heathcliff ikki valentli komponentning identifikatsiyalanuvchiligini quyidagi transformatsiya yordamida ko'rsatish mumkin:

(6) *Heathcliff is thought to be a man of dark and vengeful spirit* → *Heathcliff ... to be a man of dark and vengeful spirit* → *Heathcliff is a man of dark and vengeful spirit*.

Demak, *Heathcliff* gap qurilmasida ikki sintaktik aloqa – yadro predikativ aloqa asosida substansial obyekt sintaksemani, noyadroviy predikativ aloqa asosida substansial identifikatsiyalanuvchi sintaksemani anglatadi:

(6) *Heathcliff is thought to be a man of dark and vengeful spirit:*

SbObId₁ . PrAcDr . SbId₂ . QlfQlt . QlfQlt . SbPsQlt

Mazkur gap quyidagi kognitiv xususiyatlarga ega:

Subyektivlik va tashqi qarash: *Is thought to be* tuzilishi jumlaning subyektiv qiladi, ya'ni Heathcliffning xarakteri haqida to'g'ridan-to'g'ri haqiqat emas, balki boshqalarning taxmini aytilmoqda. Bu kognitiv jihatdan jamiyatning yoki hikoyachining stereotipik (Kuziyev, 2021) qarashlarini aks ettiradi.

Ichki ziddiyat va identifikatsiya: *dark and vengeful spirit* so'zlari Heathcliffning ichki emotsional holatini (g'azab, qasoskorlik) tasvirlaydi. Kognitiv nuqtai nazardan, bu tasvir uning tashqi dunyo bilan murakkab munosabatini va o'zini qanday ko'rsatishini ochib beradi.

Kontekstual ahamiyat: Heathcliffning xarakteri sirli va qutbli shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu jumla uning boshqa personajlar tomonidan qanday qabul qilinishini ko'rsatadi, bu esa uning ijtimoiy izolyatsiyasi va ziddiyatli tabiatini ta'kidlaydi.

Transformatsiya effekti: Transformatsiya jarayoni subyektiv taxmindan aniq holatga o'tishni ko'rsatadi. Bu kognitiv jihatdan haqiqat va tasavvur o'rtasidagi farqni yo'qotadi, lekin Heathcliffning xarakterini yanada aniqroq tasvirlaydi.

Ikki valentli sintaktik birlik NP₁P₁ komponenti o'rnida kelganda substansial sintaksema bazasida stativlik yuklatilgan obyekt sintaksemi ham o'zida aks ettirishi mumkin.

7. *We were kept waiting in the cold hall (ChDGE, 80).*

Bu gapda ikki valentli sintaktik birlik *we* yadro predikativ 2 komponenti *were kept* sintaktik birlik tufayli obyekt sintaksemi ifodalaydi. Chunki gapning ana shu qismi depassivizatsiya transformatsiyasiga tushadi:

7) *We were kept waiting in the cold hall* → *they kept us waiting in the cold hall* hamda Noyadroviypredikativ 2 komponenti o'rnida kelgan *waiting* esa stativlikni ifodalagan uchun ikki valentli komponent stativlik yuklatilgan substansial obyekt sintaksema hisoblanadi. Buni quyidagi transformatsiya vositasida dalillash mumkin:

(7) *We were kept waiting in the cold hall* → *We ... waiting in the cold hall* → *We were waiting in the cold hall* → *We were in the state of waiting.*

Demak, *we* stativlik yuklatilgan substansial obyekt sintaksema (SbObSt), *were kept* protsessual aksional direktiv (PrAcDr), *waiting* protsessual stativ (PrSt) sintaksema, *in the hall* substansial lokativ adessiv, *cold* kvalifikativ kvalitativ (QlfQlt) sintaksemalarni ifodalagan. Bu gapning sintaksema modeli quyidagicha bo'ladi:

(7) *We were kept waiting in the cold hall:*

SbObSt . PrAcDr . PrSt . QlfQlt . SbLcAd

Berilgan gap quyidagi kognitiv xususiyatlarga ega:

Tashqi ta'sir va passivlik: *Were kept* tuzilishi subyektning o'z ixtiyorisiz ma'lum bir holatga (kutish) majbur qilinganligini ko'rsatadi. Kognitiv jihatdan, bu tashqi avtoritetning subyekt ustidan hukmronligini va subyektning passiv rolini ta'kidlaydi.

Holat va muhit: *Waiting* holati subyektning vaqtinchalik (Mirsanov, 2018), noqulay holatini aks ettiradi, *in the cold hall* esa muhitning sovuq va mehmondo‘st bo‘lmagan tabiatini ta’kidlaydi. Bu kognitiv jihatdan noqulaylik, kutilmaganlik va ijtimoiy cheklovlarni ochib beradi.

Kontekstual ahamiyat: Bu holat shaxsning ijtimoiy sinflar o‘rtasidagi farqni his qilishini va o‘zini noqulay his etishini, o‘sha muhitdagi passiv rolini va tashqi kuchlarning ta’sirini tasvirlaydi.

MUHOKAMA

Natijalar NP1P1 birliklarining ingliz tili gap qurilmalaridagi ko‘p qirrali xususiyatlarini, ya’ni substansial, agentiv, stativ va identifikatsiyalovchi xususiyatlarni hamda murakkab predikativ aloqalardagi ishtirokini ko‘rsatadi. Kognitiv tahlil ushbu tuzilmalar ma’noda nozik farqlarni, masalan, ongli harakatlar (1-gap), subyektiv idrok (2, 4, 6-gaplar), tashqi cheklovlar (5, 7-gaplar) va statik holatlarni (3-gap) aks ettirishini aniqladi. Transformatsiya usullari sintaktik aloqalarni tahlil qilish va kognitiv modellarini ochib berishda samara berdi.

Natijalar Lakoff J., Jonson M [2004] tomonidan ta’kidlangan kognitiv metaforalar va A.M.Muxin [2001] tomonidan tasvirlangan predikativ aloqalarning funksional ahamiyati bilan mos keladi.

Tadqiqot **R.M.Asadov** [2018] va **O.E.Filimonova** [2016] ishlariga asoslanib, badiiy kontekstdagi NP1P1 birliklarining kognitiv ta’sirini chuqurroq o‘rganadi. Kognitiv yondashuv sintaktik tuzilma va ma’no o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ta’kidlaydi, NP1P1 birliklarining qo‘rquv, idrok, cheklov va identifikatsiya kabi aqliy jarayonlarni qanday aks ettirishini ko‘rsatadi. Kelgusida qo‘shimcha gap turlari yoki tillararo taqqoslashlar orqali ushbu tadqiqot yanada kengaytirilishi mumkin.

XULOSA

Shunday qilib, sintaksemlarga ajratib tahlil qilingan misollar asosida xulosa qilib aytganda, NP₁P₁ komponenti o‘rnida kelgan ikki valentli sintaktik birliklar:

Substansial agentiv identifikatsiyalanuvchi sintaksema yadro predikativ aloqa yordamida protsessual aksional sintaksema bilan, noyadroviy predikativ aloqa bazasida esa substansial identifikatsiyalovchi sintaksema bilan bog‘lanadi.

Substansial obyekt agentiv sintaksema protsessual aksional direktiv sintaksema bilan yadro predikativ aloqa asosida, protsessual aksional sintaksema bilan noyadroviy predikativ aloqa yordamida birikadi. Ikki karra stativlik yuklatilgan substansial sintaksema yadro predikativ hamda noyadroviy predikativ aloqalar yordamida protsessual stativ sintaksemalar bilan sintaktik munosabatda bo‘ladi.

Substansial ikki karra obyekt sintaksema ham yadro hamda noyadroviy predikativ aloqalar asosida faqat protsessual aksional direktiv sintaksema orqali bog‘lanadi. Substansial obyekt identifikatsiyalanuvchi sintaksema protsessual aksional direktiv sintaksema bilan yadro predikativ aloqa asosida, noyadroviy predikativ aloqa yordamida substansial identifikatsiyalovchi sintaksema bilan bog‘lanadi. Stativlik yuklatilgan substansial obyekt

sintaksema protsessual aksional sintaksema bilan yadro predikativ, kvalifikativ stativ sintaksema bilan noyadroviy predikativ aloqada bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akbaraliyevich L. A. et al. Contextual means of expressing phase in english and uzbek languages //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 4.
2. Asadova G. Nomustaqil ega vazifasidagi ikki valentli birliklar komponent tahlili //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – С. 96-98.
3. Mirsanov G. K. Exploration of Aspectual Semantics within Motion Verbs. Cognitive Approach //Язык и культура. – 2018. – С. 15-20.
4. Асадов Р.М. Инглиз тили содда гап курилмаларида моновалентли ва поливалентли компонентларнинг синтаксем таҳлили: Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2018. – 180 б.
5. Кузиев У. Лингвомаданиятшунослик / У. Кузиев. – Тошкент: Академнашр, 2021. – 176 б.
6. Лакофф, Дж., Джонсон, М. Метафоры, которыми мы живем / Дж. Лакофф, М. Джонсон; пер. с англ. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – 256 с.
7. Мухин А.М. Морфологические и синтаксические категории // Исследования по языкознанию: К 70-летию члена-корреспондента РАН А.В. Бондарко. СПб.: СПбГУ, 2001. - С. 51-55.
8. Мухин А. М. Функциональный синтаксис. Функциональная лексикология. Функциональная морфология. – СПб.: Нестор-История, 2007. – 198 с.
9. Филимонова, О. Е. Субстанциальные и квалификативные стативные синтаксемы в структуре английского предложения / О. Е. Филимонова // Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 2: Языкознание. – 2016. – № 2 (31). – С. 45–52.



OLIIY TA‘LIM MUASSASALARIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING INNOVATSION BOSHQARUV MODELLARI

Aripova Ziyoda Atxamovna

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta‘lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishda innovatsion boshqaruv modellarining roli tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya, sog‘lom ta‘lim muhiti va kasbiy yo‘naltirishni ta‘minlovchi klaster modelining o‘zaro integratsiyasi orqali ta‘lim sifatini oshirish, talabalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni mehnat bozoriga tayyorlashdagi strategik yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqot IMRAD tizimi asosida olib borilgan bo‘lib, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining real ta‘lim muhitidagi samarasini asosli misollar bilan tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: innovatsion boshqaruv, oliy ta‘lim, yoshlar bilan ishlash, raqamli transformatsiya, sog‘lom muhit, klaster model, kasbiy yo‘naltirish, zamonaviy yondashuv, ta‘lim sifati, boshqaruv tizimi.

INNOVATIVE MANAGEMENT MODELS FOR YOUTH ENGAGEMENT SYSTEMS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation. This article analyzes the role of innovative management models in enhancing youth engagement systems within higher education institutions. It focuses on the integration of digital transformation, healthy educational environments, and a cluster-based approach to vocational guidance, aiming to improve the quality of education and ensure comprehensive development of students. Conducted within the IMRAD framework, the study demonstrates the effectiveness of modern governance strategies through practical and contextual evidence.

Keywords. innovative management, higher education, youth engagement, digital transformation, healthy environment, cluster model, vocational guidance, modern approach, education quality, management system.

ИННОВАЦИОННЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ РАБОТЫ С МОЛОДЕЖЬЮ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье рассматривается роль инновационных моделей управления в совершенствовании системы работы с молодежью в высших учебных заведениях. Особое внимание уделено интеграции цифровой трансформации, здоровой

образовательной среды и кластерного подхода к профессиональной ориентации с целью повышения качества образования и всестороннего развития студентов. Исследование выполнено в рамках модели IMRAD и подтверждается практическими примерами.

Ключевые слова: инновационное управление, высшее образование, работа с молодежью, цифровая трансформация, здоровая среда, кластерная модель, профориентация, современный подход, качество образования, система управления.

Kirish. Oliy ta’lim tizimi bugungi globallashuv va raqobat muhitida nafaqat nazariy bilim berish, balki yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularning ijtimoiy moslashuvchanligini, ijodiy tafakkurini va intellektual salohiyatini to’liq namoyon etish imkonini beradigan muhit yaratishi lozim. Talabalarni nafaqat o‘z mutaxassisligi bo‘yicha, balki jamoaviy ishlash, liderlik, axloqiy mas’uliyat va muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrlarga aylantirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Bunday natijaga erishish esa, bevosita oliy ta’lim muassasalarida boshqaruvning zamonaviy va innovatsion modellarini joriy etish, ya’ni raqamli transformatsiya, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, klasterlashgan o‘quv-amaliy jarayon va motivatsion muhitni barpo etishga asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshiriladi.

Metod. Tadqiqotda tahliliy va komparativ yondashuvlar uyg‘unlashtirildi. Ilmiy tahlil jarayonida uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha mavjud ilmiy-adabiy manbalar o‘rganildi va qiyosiy tahlil qilindi. Birinchidan, Hamroyev (2024) tomonidan ilgari surilgan raqamli boshqaruv tizimlari konsepsiyasi asosida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv aloqa, axborotlar oqimini boshqarish va shaxsiylashtirilgan ta’limni ta’minlash imkoniyatlari ko‘rib chiqildi[9]. Ikkinchidan, Mukhametzyanova (2016) tomonidan taklif etilgan klaster modeli orqali ta’lim muassasalari, maktablar va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida hamkorlik asosida kasbiy yo‘naltirish samaradorligi o‘rganildi[8]. Bu model yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyasini kuchaytirish, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, Esayulenko va boshqalar (2014) tadqiqoti asosida sog‘lom ta’lim muhitini shakllantirish tajribalari chuqur o‘rganildi. Bu orqali talabalarning jismoniy va psixologik salomatligiga e’tibor qaratilgan ta’lim muhitining ijtimoiy va iqtisodiy samaralari yoritildi[7]. Tadqiqot davomida bu uch modelning o‘zaro bog‘liqligi, ularning oliy ta’lim muassasalarida yoshlarga qaratilgan innovatsion boshqaruv strategiyalarini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilindi.

Natijalar. O‘rganilgan manbalar tahlili asosida raqamli boshqaruv tizimlarining ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi bir qancha ijobiy natijalarni bergani aniqlandi. Jumladan, ushbu tizimlar orqali talabalar bilan tezkor va samarali ikki tomonlama aloqa kanallarini yo‘lga qo‘yish imkoniyati keskin oshgani kuzatildi. Bu esa o‘z navbatida talabalar tomonidan bildirilayotgan taklif, murojaat yoki muammolarga tezkor javob qaytarish imkonini yaratadi. Shu orqali nafaqat talabaning ehtiyojlariga mos individual yechimlar ishlab chiqiladi, balki o‘quv jarayonida yuzaga keladigan holatlar tezda aniqlanib, zarur pedagogik choralar ko‘riladi.

Ayniqsa, bu yondashuv talabani qoniqish darajasi va o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, raqamli platformalar orqali o‘quv jarayoni holatini real vaqt rejimida kuzatish, tahliliy ma’lumotlar asosida monitoring olib borish imkoniyatining mavjudligi boshqaruv tizimlarining ochiqqligi va shaffofligini sezilarli darajada kuchaytirmoqda. Masalan, talabalar davomatini, reyting natijalarini, o‘qituvchi va guruhlar kesimidagi faollik darajasini tezkor kuzatish va baholash orqali ta’lim sifatini nazorat qilish va zudlik bilan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin bo‘lmoqda. Bu esa axborotga asoslangan qaror qabul qilish tizimini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim jihat shundaki, raqamli texnologiyalar har bir talabaga individual yondashuvni joriy etish imkonini bermoqda. Xususan, talabani bilim darajasi, o‘quv sur’ati, qiziqish doirasi va boshqa psixopedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda, unga moslashtirilgan shaxsiy o‘quv yo‘nalishlarini ishlab chiqish mumkin bo‘lib qolmoqda. Bu jarayonda raqamli vositalar – masalan, moslashtirilgan ta’lim platformalari, elektron resurslar va o‘z-o‘zini baholash tizimlari – samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ular nafaqat talabani mustaqil bilim olish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi, balki ularning o‘z ustida ishlash motivatsiyasini ham oshiradi.

Shu tariqa, raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi nafaqat boshqaruv samaradorligini oshirmoqda, balki talabalarga mo‘ljallangan ta’lim strategiyalarini takomillashtirish, o‘quv jarayonining shaffofligi, moslashuvchanligi va sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Sog‘lom ta’lim muhitini yaratish talabalarning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. O‘rganilgan manbalar tahliliga asoslanib aytish mumkinki, aynan ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar, jumladan, muntazam jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatini targ‘ib qilish, stress va zo‘riqish holatlarini kamaytirishga qaratilgan dasturlar hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini joriy etish orqali talabalarning umumiy farovonligi sezilarli darajada oshgan. Bu esa o‘z navbatida ularning kasbiy layoqati, o‘quv faoliyatidagi samaradorligi, ijtimoiy faolligi va mas’uliyat hissining kuchayishiga bevosita ta’sir qilgan.

Sog‘lom muhitning talabalarga ijobiy ta’siri faqat jismoniy holat bilan cheklanmaydi. Psixologik barqarorlik va ruhiy farovonlik ham shunday muhitda shakllanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sog‘lom ta’lim muhitida tahsil olayotgan talabalar orasida o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi yuqori, psixoemotsional holati esa barqaror bo‘ladi. Bu holat ularning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishiga, ijtimoiy loyihalarda qatnashishga, jamoadagi munosabatlarni konstruktiv tarzda qurishga va kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishiga zamin yaratadi.

Ayniqsa, psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarining yo‘lga qo‘yilishi orqali talabalar o‘zlarining his-tuyg‘ulari, muammolari va tashvishlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega

bo‘ladilar. Bu esa ularni ijtimoiy jihatdan integratsiyalashuviga, jamoa bilan samarali ishlashiga va ichki ziddiyatlarni yengib o‘tishga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, sog‘lom muhitning mavjudligi tahsil oluvchilarda o‘z ustida ishlash, o‘zini qadrlash va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Kasbiy yo‘naltirish jarayonini takomillashtirish va yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyalashuvini tizimli asosda yo‘lga qo‘yish maqsadida ta‘lim tizimi, umumiy o‘rta maktablar hamda ishlab chiqarish sektori o‘rtasida klaster model asosida uzviy aloqalar shakllantirilmoqda. Ushbu model orqali ta‘lim jarayoni bilan amaliyot, nazariya bilan ishlab chiqarish, maktab bitiruvchilari bilan mehnat bozori o‘rtasida uzluksiz va uyg‘un bog‘liqlik ta‘minlanmoqda. Klaster yondashuvi tufayli yoshlarning ta‘limdan bevosita ish faoliyatiga o‘tishini yengillashtiruvchi, moslashuvchan va maqsadli tizim yaratilmoqda. Bu holat, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim strategik yondashuv sifatida e‘tirof etilmoqda.

Bunday tizimli integratsiya natijasida kasbiy yo‘naltirishga qaratilgan hamkorlik loyihalari, maktab–kollej–korxona formatidagi uch tomonlama hamkorlik shartnomalari va integratsiyalashgan amaliyot dasturlari ishlab chiqildi. Bu dasturlar o‘quvchilarga maktab davridan boshlab o‘z qiziqishlari va salohiyatiga mos kasblarni tanlashda aniq yo‘nalish berishga xizmat qilmoqda. Jumladan, o‘quvchilar ishlab chiqarish obyektlarida real ish sharoitida ishtirok etish, u yerda bevosita kasb egalari bilan muloqotda bo‘lish, amaliy mashg‘ulotlarda qatnashish orqali o‘zlarining tanlagan kasbiga bo‘lgan munosabatini mustahkamlamoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday yondashuv natijasida o‘quvchilar amaliy ko‘nikmalarni erta bosqichdayoq egallash imkoniga ega bo‘lib, o‘z kasbiy tanlovlarini ongli va puxta asosda amalga oshirmoqdalar. Bu esa kelajakda ularning ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etishiga, ijtimoiy va iqtisodiy faollik darajasining oshishiga, eng muhimi esa, mehnat bozoriga raqobatbardosh va tayyor kadr sifatida kirib borishiga zamin yaratadi.

Shu jihatdan qaralganda, klaster modeli faqatgina kasbiy yo‘naltirish jarayonining bir bo‘lagi emas, balki yoshlar salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish va barqaror bandlikni ta‘minlovchi muhim innovatsion mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Muhokama. Oliy ta‘lim muassasalarida innovatsion boshqaruv modeli nafaqat zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmaydi, balki u chuqur pedagogik va madaniy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Bu modelda raqamli transformatsiya-ta‘lim jarayonining avtomatlashtirilishi, ochiqligi va shaxsiylashtirilishini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, sog‘lom muhit yaratish - talabalarning jismoniy va ruhiy salomatligini ta‘minlash, stresslarni kamaytirish, barqaror ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish orqali ularning o‘zini anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Kasbiy yo‘naltirishga asoslangan klasterlashgan yondashuv esa ta‘lim muassasalarining bozor talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlashdagi moslashuvchanligini oshiradi. Shu tariqa, innovatsion boshqaruvning samarali

amaliyoti talabalarni har tomonlama rivojlantirishga, ularning ta’lim sifati bilan bir qatorda shaxsiy va kasbiy o‘rishini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday kompleks yondashuv nafaqat oliy ta’lim samaradorligini oshiradi, balki mamlakatning intellektual salohiyatini ham mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etish uchun raqamli texnologiyalar, sog‘lom ta’lim muhiti va kasbiy yo‘naltirishga asoslangan klaster yondashuvi integratsiyasi zaruriy ehtiyojga aylangan. Ushbu yondashuvlar nafaqat ta’lim jarayonining shaffofligini va samaradorligini oshiradi, balki talabaning ijtimoiy, psixologik va kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi muhitni yaratadi. Shu tariqa, innovatsion boshqaruv modeli oliy ta’limda strategik ustuvorlikka ega bo‘lib, mamlakatning intellektual salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa ta’lim muassasalarining barqaror va samarali faoliyat yuritishida strategik ahamiyatga ega omil sifatida namoyon bo‘lmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov T.X. Oliy ta’limda o‘qitishning zamonaviy usullari // Экономика и социум. 2024. №6-1 (121). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-ta-limda-o-qitishning-zamonaviy-usullari> (дата обращения: 21.05.2025).
2. O‘rmonov N. T., Ismailov A. R. Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyot // O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodmoliya. – 2019. – T. 254.
3. Axmedjanov M. M., Xojaev B. Q. Pedagogik mahorat // Buxoro Maruzalar matni. – 2004.
4. Ruzieva S. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning o‘rni // Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 1.
5. Erkinovna Y.D. O‘zbekiston respublikasining ta’lim tizimida klasterlashtirish orqali ta’lim sifatini oshirishga ahamiyati // interdisciplinary innovation and scientific research conference. – 2024. – T. 3. – №. 25. – C. 175-182.
6. Xudayberdiyeva D., Matrasulova M. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari // Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2025. – T. 4. – №. 13. – C. 4-11.
7. Есауленко И. Э., Попов В. И., Петрова Т. Н. Опыт организации здоровьесберегающей образовательной среды в вузе // Научно-медицинский вестник Центрального Черноземья. – 2014. – №. 58. – C. 23-29.
8. Мухаметзянова Ф. Ш. Кластерная модель профориентационной работы с учащейся молодежью // Профессиональное образование в России и за рубежом. – 2016. – №. 2 (22). – C. 24-29.
9. Shoyimovich H. B. Oliy ta’lim muassasalarida yoshlar bilan samarali ishlash uchun raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish // tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 313-316.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

IQTISODIYOT YO‘NALISHIDAGI TALABALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Nigina Ahmedova Ixtiyorovna
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti
Tillarni o‘qitish kafedrasida o‘qituvchisi
e-mail: akhmedovanigina0@gmail.com

Annotatsiya. Globalizatsiya va xalqaro darajada raqobatbardosh mutaxassislariga bo‘lgan talab ortib borayotgan bir paytda, kommunikativ kompetensiya iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalar uchun muhim ko‘nikmaga aylangan. Ushbu maqolada ingliz tili xorijiy til sifatida o‘qitiladigan muhitda iqtisodiyot bo‘yicha bakalavriat talabalari orasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar va imkoniyatlar yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, amaliy bilim, xorijiy til, autentik til, pragmatik ko‘nikmalar, CLIL, talaba markazli yondashuvlar.

CHALLENGES AND OPPORTUNITIES IN DEVELOPING THE COMMUNICATIVE COMPETENCE OF ECONOMICS STUDENTS

Annotation. In the context of globalization and the increasing demand for internationally competent professionals, communicative competence has become a critical skill for economics students. This article explores the challenges and opportunities associated with developing communicative competence in economics undergraduates, especially in environments where English is taught as a foreign language.

Key words: communicative competence, practical knowledge, foreign language, authentic language, pragmatic skills, CLIL, student-centered approaches.

ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Аннотация. В условиях глобализации и роста спроса на специалистов с международной компетентностью коммуникативная компетенция становится важнейшим навыком для студентов экономических направлений. В данной статье рассматриваются проблемы и возможности, связанные с развитием коммуникативной компетенции у студентов-экономистов, особенно в условиях, где английский язык преподается как иностранный.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, практические знания, иностранный язык, аутентичный язык, прагматические навыки, CLIL, студентоориентированные подходы.

Kirish. 21-asr mehnat bozorida iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalardan nafaqat nazariy va amaliy bilimlarni puxta o‘zlashtirish, balki global muhitda samarali muloqot qila olish ham talab etiladi. Kommunikativ kompetensiya - ya’ni lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik ko‘nikmalar majmui - professional muvaffaqiyat uchun muhim hisoblanadi. Biroq, ayniqsa ingliz tili ona tili bo‘lmagan mamlakatlarda tahsil olayotgan iqtisodchilar orasida bu kompetensiyani shakllantirish imkoniyatlar bilan birga jiddiy muammolarni ham yuzaga keltiradi. [2,278].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot, muzokaralar, siyosiy maslahatlar berish va ma’lumotlarni taqdim etish kabi faoliyatlarda ishtirok etadigan iqtisodchilar uchun samarali muloqot ko‘nikmalari juda muhimdir. Ayniqsa, murakkab iqtisodiy tushunchalarni ingliz tilida tushunish va ifoda eta olish, kelajakdagi mutaxassislarga global akademik manbalardan foydalanish, xalqaro forumlarda qatnashish va xalqaro hamkorlar bilan ishlash imkonini beradi. Iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarining global professional hamjamiyatga tayyorlanish jarayonida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Biroq, bu maqsadga erishishda ko‘plab akademik, institutsional va pedagogik to‘siqlar uchraydi. Quyidagi punktlarda bu sohadagi eng dolzarb muammolar yoritib o‘tiladi:

Haqiqiy til muhitiga cheklangan ta’sir. Ko‘plab talabalar ingliz tilini akademik muhitda o‘rganadilar, ammo haqiqiy iqtisodiy nutq bilan deyarli to‘qnash kelmaydilar. Hisobotlar, podkastlar va moliyaviy yangiliklar kabi autentik materiallarning yetishmasligi so‘z boyligini rivojlantirishga va ravon so‘zlashga to‘sqinlik qiladi.

Grammatikaga va nazariyaga haddan tashqari e’tibor. An’anaviy ingliz tili kurslarida ko‘pincha grammatikaga va yozma ko‘nikmalarga ustuvorlik beriladi, og‘zaki muloqot va interaktiv mashg‘ulotlarga esa yetarlicha e’tibor qaratilmaydi. Natijada, talabalar ijtimoiy yoki professional mavzulardagi erkin suhbatlarda qiynaladilar.

O‘qituvchilarning tayyorgarligi va malakasi. Ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar na ingliz tilini o‘qitishda, na iqtisodiyot fanida yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lishadi. Bu esa fanlararo (CLIL) yondashuv asosidagi dasturlarni samarali amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Vaqt cheklavlari. Iqtisodiyot faniga oid o‘quv dasturlari odatda juda zich bo‘lib, til o‘rganishga mo‘ljallangan keng qamrovli mashg‘ulotlarga vaqt ajratish imkoni cheklangan. Bu esa darslarda muloqotga asoslangan faoliyatlar uchun yetarlicha vaqt ajratilmasligiga olib keladi. [1,79]

Iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda mavjud bo‘lgan muammolarga qaramay, bir qator innovatsion va pedagogik jihatdan asosli imkoniyatlar mavjud. Ushbu strategiyalar nafaqat tilni rivojlantirishga xizmat qiladi, balki

talabalarni ingliz tilida professional muhitda muloqot qilishga tayyorlab, ularning fanga oid bilimlarini ham mustahkamlaydi. [5,79] *CLIL metodologiyasini integratsiya qilish*. Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish (Content and Language Integrated Learning – CLIL) iqtisodiyot fanini ingliz tilida o‘rgatish orqali samarali natija beradi. Bu yondashuv talabaga fanga oid bilimni va til ko‘nikmalarini bir vaqtda va mazmunli kontekstda egallash imkonini yaratadi.

Raqamli vositalar va simulyatsiyalardan foydalanish. Texnologiya orqali talabalar xalqaro vebinarlar, iqtisodiy forumlar, simulyatsiyalar (masalan, model BMT, iqtisodiy debatlar) va virtual almashinuv dasturlarida qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu vositalar ingliz tilidan aynan iqtisodiy muhitda faol foydalanishni rag‘batlantiradi. [4, 135].

Vazifaga asoslangan va loyihaviy o‘qitish. Prezentatsiyalar, guruhviy tadqiqotlar yoki biznesga oid simulyatsiyalarni o‘z ichiga olgan topshiriqlar talabalarni ingliz tilidan maqsadli foydalanishga undaydi. Bunday topshiriqlar ravon so‘zlash, tanqidiy fikrlash va ishonch hosil qilishga yordam beradi. Iqtisodiy kompetensiyaning yuqoridagi komponentlari talabalarda rivojlantirilishi lozim bo‘lgan muhim sifatlarni belgilaydi. Bu komponentlar orqali talaba nafaqat iqtisodiy bilimlarni o‘zlashtiradi, balki ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalariga ham ega bo‘ladi. Bu esa, uning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishiga xizmat qiladi. [3,77]

Keys-stadilar va ilg‘or tajribalar. CLIL va aralash o‘qitish modellarini qo‘llayotgan oliygohlarda kommunikativ kompetensiyaning shakllantirish bo‘yicha ijobiy natijalar kuzatilgan. Masalan, “Xalqaro savdo” yoki “Moliyaviy bozorlar” kabi fanlarda ingliz tili o‘quv tiliga aylantirilib, ingliz tilidagi darsliklardan foydalanish orqali talabalar faolligi va bilim darajasi oshgan.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarda kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirish bugungi ta‘lim tizimida ham zarurat, ham sinovdir. Garchi institutsional cheklovlar va o‘quv metodikasidagi kamchiliklar mavjud bo‘lsa-da, CLIL texnologiyasi, raqamli ta‘lim va fanlararo hamkorlik orqali katta imkoniyatlar ochiladi. Innovatsion va talaba markazli yondashuvlarni joriy etgan holda, o‘qituvchilar kelajak iqtisodchilarini global miqyosda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan til ko‘nikmalari bilan ta‘minlashlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press. -p 79.
2. Widdowson, H.G. (2003). *Defining Issues in English Language Teaching*. Oxford University Press. -p.278.
3. Akbarova, Sayyora. (2024). TALABALARDA IQTISODIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2. 73-78. 10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss11-p. 77.

4. Akhmedova, N. (2025). CLIL APPROACH FOR TEACHING BUSINESS ENGLISH TO FUTURE ECONOMISTS. В INTERNATIONAL BULLETIN OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY (Т. 5, Выпуск 4, с.135). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15278801>

5. Nigina Akhmedova Ikhtiyorovna REQUIREMENTS FOR A MODERN FOREIGN LANGUAGE LESSON // CAJAR. 2024. №6-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/requirements-for-a-modern-foreign-language-lesson> (дата обращения: 25.05.2025).



**THE CONTEMPORARY CONDITION AND DISTINCTIVENESS OF
IMPARTING FOREIGN LANGUAGE EDUCATION TO STUDENTS WITH LOWER
ACADEMIC PERFORMANCE TROUGH THE UTILIZATION OF GADGETS.**

Azizova Durdona Avazbek kizi

*Doctoral candidate of the Department of Pedagogy
at International Nordic University*

d.azizova@nordicuniversity.org

<https://orcid.org/0009-0006-5920-489>

Abstract: This research explores the impact of technology, especially gadgets, on improving foreign language education for students who exhibit lower academic performance. The study underscores how digital tools can enhance engagement, motivation, and tailored learning pathways, effectively tackling the specific obstacles encountered by struggling learners. By evaluating contemporary teaching methods, the research highlights the necessity of integrating technology in a deliberate manner, fostering digital literacy, and establishing inclusive learning environments. Furthermore, a survey conducted at School No. 294 in Tashkent, which involved around 200 students from Grades 4 to 6, indicated that a considerable number of students use gadgets for academic purposes after school hours. Approximately 60% of students across all grades reported using gadgets for academic purposes at least "Sometimes" or more frequently. Smartphones and laptops were the most commonly used devices, with 80% of Grade 4 students, 78% of Grade 5 students, and 82% of Grade 6 students reporting smartphone usage. Similarly, 60% of Grade 4 students, 58% of Grade 5 students, and 62% of Grade 6 students reported using laptops. The predominant academic activities conducted using gadgets included completing assignments and researching information. Approximately 80% of students in each grade indicated using gadgets for finishing assignments, while 70% in Grade 4, 72% in Grade 5, and 68% in Grade 6 noted their use for research purposes. The results imply that while gadgets have the potential to enhance academic performance, issues such as distractions and limited access to resources continue to exist. The study concludes that a well-rounded approach, merging effective teaching strategies with technology integration and parental involvement, is crucial for supporting students' academic achievements in a digital era.

Key words: Gadgets, technology-oriented future, smartphone usage, technology, low academic performance, online resources, gamification, academic purposes, digital tools.

GADJETLARDAN FOYDALANISH ORQALI O‘ZLASHTISHI PAST BO‘LGAN O‘QUVCHILARGA CHET TILIDA TA‘LIM BERISHNING ZAMONAVIY SHARTLARI VA XUSUSIYATI.

Annotatsiya: ushbu tadqiqot texnologiyaning, xususan, gadjetlarning o‘quv samaradorligi past bo‘lgan talabalar uchun chet tili ta‘limini yaxshilashga ta‘sirini o‘rganadi. Tadqiqot raqamli vositalar qanday qilib qiyinchilikka uchragan o‘quvchilar duch keladigan muayyan to‘siqlarni samarali yengib, faollikni, motivatsiyani va moslashtirilgan ta‘lim yo‘llarini kuchaytirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Zamonaviy o‘qitish usullarini baholash orqali tadqiqot texnologiyani ataylab integratsiya qilish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish va inklyuziv ta‘lim muhitini yaratish zarurligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, Toshkent shahridagi 294-maktabda 200 ga yaqin 4-6-sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan so‘rov shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning katta qismi darsdan keyin o‘quv maqsadlarida gadjetlardan foydalanadi. Barcha sinflardagi o‘quvchilarning taxminan 60% kamida “Ba’zan” yoki undan ham tez-tez akademik maqsadlarda gadjetlardan foydalanishini bildirgan. Smartfonlar va noutbuklar eng ko‘p foydalaniladigan qurilmalar bo‘lib, 4-sinf o‘quvchilarining 80 foizi, 5-sinf o‘quvchilarining 78 foizi va 6-sinf o‘quvchilarining 82 foizi smartfondan foydalanish haqida xabar bergan. Xuddi shunday, 4-sinf o‘quvchilarining 60 foizi, 5-sinf o‘quvchilarining 58 foizi va 6-sinf o‘quvchilarining 62 foizi noutbuklardan foydalanishini qayd etgan. Gadjetlar yordamida olib boriladigan asosiy o‘quv faoliyati topshiriqlarni bajarish va ma'lumotlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Har bir sinf o‘quvchilarining taxminan 80% topshiriqlarni bajarish uchun gadjetlardan foydalanishini ko‘rsatgan bo‘lsa, 4-sinfda 70%, 5-sinfda 72% va 6-sinfda 68% tadqiqot maqsadlarida foydalanishni qayd etgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, gadjetlar akademik samaradorlikni oshirish potentsialiga ega bo‘lsa-da, chalg‘itish va resurslarga cheklangan kirish kabi muammolar mavjud. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, samarali o‘qitish strategiyalarini texnologiya integratsiyasi va ota-onalar ishtiroki bilan birlashtirgan har tomonlama yondashuv raqamli davrda talabalarning ilmiy yutuqlarini qo‘llab-quvvatlash uchun juda muhimdir.

Kalit so'zlar: Gadjetlar, texnologiyaga yo'naltirilgan kelajak, smartfondan foydalanish, texnologiya, past akademik ko'rsatkichlar, onlayn resurslar, o'yinlashtirish, akademik maqsadlar, raqamli vositalar.

СОВРЕМЕННЫЕ УСЛОВИЯ И ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ С НИЗКИМИ СПОСОБНОСТЯМИ ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГАДЖЕТОВ

Аннотация: В этом исследовании изучается влияние технологий, особенно гаджетов, на улучшение обучения иностранным языкам для учащихся, которые демонстрируют низкую успеваемость. В исследовании подчеркивается, как цифровые инструменты могут повысить вовлеченность, мотивацию и индивидуальные пути обучения, эффективно преодолевая конкретные препятствия, с которыми сталкиваются

испытывающие трудности учащиеся. Оценивая современные методы обучения, исследование подчеркивает необходимость преднамеренной интеграции технологий, содействия цифровой грамотности и создания инклюзивной среды обучения. Кроме того, опрос, проведенный в школе № 294 в Ташкенте, в котором приняли участие около 200 учеников 4-6 классов, показал, что значительное количество учеников используют гаджеты в академических целях после школьных занятий. Примерно 60% учеников всех классов сообщили об использовании гаджетов в академических целях по крайней мере «иногда» или чаще. Смартфоны и ноутбуки были наиболее часто используемыми устройствами: 80% учеников 4-го класса, 78% учеников 5-го класса и 82% учеников 6-го класса сообщили об использовании смартфонов. Аналогично, 60% учеников 4-го класса, 58% учеников 5-го класса и 62% учеников 6-го класса сообщили об использовании ноутбуков. Преобладающие академические виды деятельности, проводимые с использованием гаджетов, включали выполнение заданий и исследование информации. Примерно 80% учеников в каждом классе указали использование гаджетов для завершения заданий, в то время как 70% в 4-м классе, 72% в 5-м классе и 68% в 6-м классе отметили их использование в исследовательских целях. Результаты подразумевают, что, хотя гаджеты имеют потенциал для повышения успеваемости, такие проблемы, как отвлекающие факторы и ограниченный доступ к ресурсам, продолжают существовать. Исследование приходит к выводу, что всесторонний подход, объединяющий эффективные стратегии обучения с интеграцией технологий и вовлечением родителей, имеет решающее значение для поддержки академических достижений учащихся в цифровую эпоху.

Ключевые слова: Гаджеты, технологически ориентированное будущее, использование смартфонов, технологии, низкая успеваемость, онлайн-ресурсы, геймификация, академические цели, цифровые инструменты.

Introduction.

This method emphasizes the capability of technology to enrich language learning experiences, especially for students who may face academic challenges. In recent times, the realm of foreign language education has experienced a notable evolution, particularly in catering to the requirements of students with lower academic achievement. The incorporation of technology, especially through the use of gadgets, has emerged as a crucial tactic to improve language learning experiences for this group. This method not only recognizes the specific difficulties encountered by struggling learners but also harnesses the power of digital tools to promote engagement, motivation, and tailored learning pathways. By exploring the current state and uniqueness of this teaching approach, this research seeks to clarify how technology can act as a driving force for enhanced language acquisition, ultimately promoting inclusivity and academic achievement among students who might otherwise be overlooked in conventional educational environments. This investigation emphasizes the importance for educators to adopt

a well-rounded strategy that carefully incorporates technology while addressing the distinct challenges faced by marginalized students in language education. This comprehensive approach should also encompass the cultivation of digital literacy skills, empowering students to effectively navigate technology while engaging with language learning materials. Furthermore, the role of educators goes beyond simply integrating technology; they must also create an atmosphere that promotes critical engagement with these resources. This entails training teachers not only to use gadgets proficiently but also to assist students in developing the essential digital literacy skills that enhance their educational experiences. For example, by incorporating interactive software and mobile applications that encourage collaborative learning, educators can foster a more inclusive environment that supports peer assistance among students with diverse academic skills. Such approaches not only enable these learners to take charge of their educational paths but also align with the overarching aim of equipping them for a technology-oriented future, where adaptability and critical thinking are vital. As recent research indicates, the deliberate integration of technology can considerably boost student engagement and motivation, ultimately resulting in better language acquisition outcomes for marginalized students.

Methodology.

There exist various methods for utilizing electronic technologies with students who have low academic performance, including personalized learning strategies that adjust to individual needs and preferences. By harnessing data analytics, educators can customize interventions that promote engagement and improve learning results. The most prevalent methods include gamification, which turns learning into a captivating experience, and blended learning, which merges traditional classroom techniques with online resources. These methods not only accommodate a range of learning styles but also assist in closing the gap for students who may find conventional educational settings challenging. Ultimately, nurturing digital literacy is vital for empowering students with lower academic performance to effectively navigate and utilize technology throughout their language learning journey. This requires continuous professional development for educators to ensure they are well-prepared to implement these strategies successfully. By emphasizing digital literacy and engagement, we can cultivate a more supportive learning environment for all students. This nurturing environment is crucial for encouraging engagement and motivation, especially for students with lower academic performance who may gain from customized digital literacy programs. This emphasis on digital literacy not only provides students with essential skills but also improves their overall academic performance, ultimately leading to a more equitable educational landscape. In the table below, you will find various methods relevant to the field.

Table1. *Tools and methods enhancing Digital Learning*

Personalized Learning	Tailor education to individual student needs using adaptive technologies
------------------------------	--

Gamification	Incorporates game elements like points and leaderboards to enhance engagement
Blended Learning	Combines online digital media with traditional face-to-face classroom methods.
Digital Literacy	Develops students' abilities to effectively use digital tools for learning.
Collaborative Tools	Utilizes platforms like Socrative and smartphones to facilitate interactive and collaborative learning.

Results& Findings

These strategies utilize technology to foster more interactive, customized, and supportive learning environments, which are especially advantageous for students who may find it challenging to thrive in conventional educational contexts. These techniques not only boost engagement but also cultivate critical thinking and problem-solving abilities that are vital for academic achievement in a technology-oriented society. Moreover, as educators work to establish inclusive and captivating learning atmospheres, it is crucial to acknowledge the significance of community and family involvement in aiding students who experience lower academic performance. Involving parents and guardians in the educational journey can significantly improve the effectiveness of technology integration, as families are positioned to offer additional resources and encouragement at home. For example, workshops aimed at informing parents about the advantages of digital resources for language acquisition can empower them to reinforce these techniques outside the classroom, promoting a comprehensive approach to education. Furthermore, studies show that when families actively participate in their children's education, students exhibit increased motivation and enhanced academic results, ultimately leading to a more equitable educational environment. By fostering collaborations between schools and families, educators can establish a strong support network that not only enhances digital literacy but also cultivates a culture of learning that transcends the confines of the classroom.

This table presents a comparative analysis of the ways in which 4th, 5th, and 6th-grade students at School No. 294 engage with electronic devices for educational purposes during after-school hours. It emphasizes the frequency of usage, the types of devices utilized, the academic activities undertaken, the perceived enhancements in academic performance, the obstacles encountered, levels of confidence, and the assistance required to improve the effectiveness of device usage for learning.

Survey Methodology

-Participants: Pupils from Grades 4, 5, and 6.

-Sample Size: Approximately 200 students.

-Data Collection Period: March 2025.

-Survey Format: Multiple-choice and Likert scale questions.

Table 2. *Survey findings on pupils' use of gadgets for Academic Purposes (Grades 4–6, March 2025)*

Question	Grade 4	Grade 5	Grade 6
1. Frequency of gadget use for academic purposes after school			
Never	5%	4%	6%
Rarely	10%	8%	9%
Sometimes	25%	27%	28%
Often	35%	33%	32%
Always	25%	28%	25%
2. Gadgets used for academic purposes			
Smartphone	80%	78%	82%
Tablet	40%	42%	38%
Laptop	60%	58%	62%
Desktop Computer	20%	18%	19%
E-reader	10%	12%	11%
3. Academic activities conducted using gadgets			
Researching information	70%	72%	68%
Completing assignments/homework	80%	79%	82%
Watching educational videos	65%	63%	62%
Reading e-books or online articles	50%	51%	52%
Participating in online study groups or forums	30%	31%	32%
4. Perceived improvement in academic performance due to gadget use			
Yes	60%	63%	62%
No	25%	22%	21%
Not Sure	15%	15%	16%
5. Challenges faced when using gadgets for academic purposes			
Distractions from social media or games	50%	53%	52%
Poor internet connection	40%	41%	42%
Lack of necessary applications or software	30%	31%	32%
Difficulty understanding online resources	35%	34%	36%
Limited access to devices or electricity	25%	23%	24%
6. Confidence in using gadgets for academic purposes			
Not Confident	10%	9%	12%

Somewhat Confident	30%	31%	32%
Confident	40%	41%	38%
Very Confident	20%	19%	18%
7. Support needed to use gadgets more effectively for academic purposes			
Access to additional learning apps or software	60%	63%	62%
Better internet connectivity	50%	51%	52%
Training on how to use educational resources	40%	41%	38%
Assistance with managing distractions	35%	34%	36%
Access to devices or charging facilities	30%	31%	32%

Discussion

A considerable number of students indicated that they utilize gadgets for academic endeavors after school hours. Roughly 60% of students across all grades reported using gadgets for academic purposes at least "Sometimes" or more often. Among students, smartphones and laptops emerged as the most frequently employed gadgets for educational tasks. Approximately 80% of students in Grade 4, 78% in Grade 5, and 82% in Grade 6 stated that they use smartphones. In a similar vein, 60% of students in Grade 4, 58% in Grade 5, and 62% in Grade 6 reported utilizing laptops. Tablets and desktop computers were used less often in comparison. The predominant academic activities performed with gadgets included completing assignments and conducting research. Around 80% of students in each grade indicated using gadgets for finishing assignments, while 70% in Grade 4, 72% in Grade 5, and 68% in Grade 6 noted their use for research purposes. Watching educational videos, reading e-books or online articles, and engaging in online study groups or forums were also frequently mentioned activities. The majority of students believed that their academic performance had improved due to their use of gadgets. Approximately 60% of students in Grade 4, 63% in Grade 5, and 62% in Grade 6 noted that their academic performance had seen an enhancement thanks to gadget use. Distractions stemming from social media and gaming were the most prevalent challenges encountered by students when utilizing gadgets for academic tasks. About 50% of students in each grade reported facing this challenge. Additional obstacles included poor internet connectivity, a lack of essential applications or software, difficulties in comprehending online resources, and restricted access to devices or electricity. A significant number of students expressed confidence or high confidence in their ability to use gadgets for academic purposes. Around 40% of students in each grade reported feeling confident, while 20% indicated they were very confident. Students voiced a desire for improved internet connectivity and access to more learning applications to better their academic gadget use. Approximately 60% of students in each grade mentioned the need for access to extra learning applications or software, while 50% expressed a need for enhanced internet connectivity. Other identified needs included training on utilizing

educational resources, support in managing distractions, and access to devices or charging facilities. In summary, the incorporation of technology, particularly through gadgets, offers a transformative opportunity to enrich foreign language education for students who exhibit lower academic performance.

Conclusion

In conclusion, the incorporation of technology, especially through the utilization of gadgets, offers a groundbreaking opportunity to enhance foreign language education for students who may be underperforming academically. This research highlights the vital importance of digital tools in crafting engaging, customized learning experiences that cater to the specific challenges encountered by learners who are struggling. By embracing a balanced strategy that merges technology with effective teaching methods, educators can cultivate an inclusive atmosphere that not only aids in language acquisition but also fosters crucial digital literacy competencies. The results indicate that personalized learning, gamification, and blended learning techniques can substantially elevate student engagement and motivation, ultimately resulting in improved academic performance. Furthermore, the participation of families in the educational process is vital for reinforcing these strategies and creating a supportive learning environment both inside and outside the classroom. As we progress, it is crucial for educators to persist in enhancing their abilities to effectively utilize technology, ensuring that all students are prepared to succeed in an increasingly digital landscape. This dedication to nurturing digital literacy and engagement will lead to a more equitable educational environment, empowering marginalized students to attain academic success and actively partake in their educational journeys.

REFERENCES:

1. Arvind, T. (2024). Leveraging Technology for Enhanced Connectedness and Student Engagement. Practice, Progress, and Proficiency in Sustainability. <https://doi.org/10.4018/979-8-3693-7989-9.ch013>.
2. Azizova, D. (2025). A COMPARATIVE ANALYSIS OF THIRD-PERSON PRONOUN DEPLOYMENT IN THE TWO DISTINCT LANGUAGES: UZBEK AND ENGLISH. Nordic_Press, 8(0008).
3. Azizova, D. (2025). STRATEGIES FOR DELIVERING GRAMMAR INSTRUCTION VIA TEXTUAL EXAMINATION. Nordic_Press, 8(0008).
4. Morrison-Love, M.-L. (2014). Technological Problem Solving as Skills for Competitive Advantage: An Investigation of Factors Associated with Levels of Pupil Success.
5. PUTRI, A. A., & Arham, M. (2024). The Influence of Gadgets on EFL Student's Desire to Learn: Transcending the Digital Realm. Research and Innovation in Applied Linguistics. <https://doi.org/10.31963/rial.v2i2.4655>.

6. Priyadharshini, T. K., & Krithika, T. (2016). Enhancing Language Learning Through Modern Gadgets. Bonfring International Journal of Industrial Engineering and Management Science. <https://doi.org/10.9756/BIJEMS.7439>.
7. Tabasi, Y., Tondowala, I. B., Tupamahu, M. S., Sigilipu, F. P. S., & Septiana, K. A. K. (2024). The Effectiveness of Technology-Enhanced Learning Tools in English Language Education. Journal on Education. <https://doi.org/10.31004/joe.v6i4.6308>.
8. Venugopal-Wairagade, G. (2016). Creating a Supportive Learning Environment for Better Student Engagement. <https://doi.org/10.1109/LATICE.2016.26>

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TA‘LIMY O‘YINLARNING AHAMIYATI

*Shomurotova Sevinchoy San‘at qizi,
Urganch davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi*

E-mail: sevinchoyshomurotova93@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimi, ta‘lim samaradorligini oshirishda ta‘limiy o‘yinlarning ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada turli xil ta‘limiy o‘yinlarning zamonaviy interfaol texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, ta‘limiy o‘yinlar, pedagogik texnologiyalar, powerpoint, “Sirli sandiq”, “Savollar kemasi”.

ЗНАЧЕНИЕ ОБУЧАЮЩИХ ИГР ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В статье рассматривается значение обучающих игр в повышении уровня знаний и эффективности обучения учащихся начальных классов. Также в статье обсуждается интеграция различных обучающих игр с современными интерактивными технологиями.

Ключевые слова: начальное образование, обучающие игры, педагогические технологии, PowerPoint, «Волшебный сундук», «Корабль вопросов».

THE IMPORTANCE OF EDUCATIONAL GAMES IN INCREASING THE LEARNING EFFICIENCY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: The article discusses the importance of educational games in enhancing the knowledge and learning efficiency of primary school students. It also explores the integration of various educational games with modern interactive technologies.

Keywords: primary education, educational games, pedagogical technologies, PowerPoint, "Magic Chest", "Question Ship".

Ta‘lim jarayonida o‘yinlardan foydalanish bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va o‘zlashtirish darajasini yaxshilashga xizmat

qiladi. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish va bilimlarini mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim jarayonida ta’limiy o‘yinlar samarali usul sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ta’limiy o‘yinlar orqali o‘qitish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlashi va mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatini oshiradi.

Ma’lumki 1-sinfga qabul qilinib, maktab ostonasida ilk qadam qo‘ygan bolaning faoliyatida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo‘lib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg‘uloti - o‘yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

O‘yin bola hayotining uzviy qismidir. O‘yin orqali bola atrof -muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o‘simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim samaradorligini oshirishda ta’limiy o‘yinlarning ahamiyati juda katta. Chunki bolalar tabiatan o‘yin orqali o‘rganishga moyil bo‘lib, interfaol metodlar ularning bilimlarni o‘zlashtirishini tezlashtiradi va mustahkamlaydi [1].

Ta’limiy o‘yinlarning ahamiyati

1. Motivatsiyani oshiradi. Ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularni faollikka undaydi. Ular o‘rganish jarayonini majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli sarguzasht sifatida qabul qilishadi.

2. O‘rganishni osonlashtiradi. O‘yinlar orqali berilgan bilimlar an’anaviy usullarga qaraganda yaxshiroq esda qoladi. Masalan, “Langar ” , “Sirli sandiq” yoki “Kim birinchi?” kabi o‘yinlar yangi so‘zlar, matematik amallarni tez o‘zlashtirishga yordam beradi.

3. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. O‘yinli topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. O‘quvchilarni yangicha fikrlashga undaydi. Masalan, mantiqiy jumboqlar, hikoya tuzish yoki muammo yechishga yo‘naltirilgan o‘yinlar ularga muammolarni turli burchakdan ko‘rib chiqish ko‘nikmasini hosil qiladi.

4. Jamoaviy ishlashni o‘rgatadi. Guruh bo‘lib bajariladigan o‘yinlar o‘quvchilarga hamkorlikda ishlash, muhokama qilish va bir-birini tinglash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Quyida boshlang‘ich sinflarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ta’limiy o‘yinlardan na’munalar keltirilgan.

“Sirli sandiq” o‘yini – interfaol taqdimot va ta’limiy o‘yin shaklidir. Bu o‘yinda ishtirokchilar sirli sandiqni ochish uchun turli topshiriqlarni bajarishlari kerak. O‘yinining maqsadi o‘quvchilarni qiziqtirish, ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va bilimlarini mustahkamlashdir.



O‘yinni o‘tkazish bosqichlari


1. Sandiq va kalitni tanishtirish

- O‘quvchilarga sirli sandiq namoyish etiladi.
- Sandiqni ochish uchun maxsus kod yoki kalit kerakligi tushuntiriladi.



2. Topshiriqlar berish

- Sandiqni ochish uchun o‘quvchilarga ketma-ket jumboqlar, testlar yoki amaliy mashg‘ulotlar taqdim etiladi.
- Har bir to‘g‘ri javob orqali o‘yinchilar kalit yoki kodning bir qismini topadilar.



3. Jamoaviy yoki individual o‘yin

- O‘yin jamoalar orasida bahs shaklida yoki individual tarzda tashkil qilinishi mumkin.
- Jamoaviy o‘yin bo‘lsa, har bir guruh topshiriqlarni bajargan holda sandiqni ochish yo‘llarini izlaydi.

4. Mukofot yoki kutilmagan syurpriz

- Sandiq ochilgach, unda motivatsion xabar, yangi ma’lumot, video, audiomaterial yoki boshqa rag‘batlantiruvchi element bo‘lishi mumkin.



O‘yinni quyidagicha loyihalash mumkin:

Taqdimot shaklida – PowerPoint, Genially yoki boshqa interfaol platformalar yordamida.

Fizik tarzda – Maktab darslarida haqiqiy sandiq va kartochkalar bilan.

Onlayn o‘yin sifatida – Google Forms, Kahoot yoki boshqa test tizimlaridan foydalangan holda.

“Savollar kemasi” o‘yini – o‘quvchilar bilimini sinovdan o‘tkazish va ularda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga mo‘ljallangan interfaol o‘yin. Kema tasvirlangan qog‘oz yoki rasm ekranda harakatlanadi. Kema maqsadga yetib borishi uchun ularga turli savollar yoziladi.

“Savollar kemasi” o‘yini PowerPoint (PPT) formatida tayyorlash mumkin. Ushbu taqdimot interfaol bo‘lishi uchun quyidagi elementlarni qo‘shish mumkin:

Taqdimot tuzilishi:

1. Kirish slaydi – O‘yin nomi va qoidalari.
2. Kema slaydi – Har bir kemada savollar yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar savolga javob berishadi.
3. Taymer (langar tushishi) – Har bir savolga cheklangan vaqt beriladi (masalan, 10-15 soniya).





4. Javob tekshirish – To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javobni ko‘rsatish uchun animatsiya.

5. G‘olibni aniqlash – Eng ko‘p to‘g‘ri javob bergan o‘quvchi yoki jamoa ta’kidlanadi.



Yuqorida tahlil qilingan o‘yinlar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, uni yanada qiziqarli va interfaol qiladi. O‘yinlar o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirishga, ularning mustaqil fikrlash va muommlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish va bilimlarni mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ta’limiy o‘yinlar samarali usul sifatida keng qo‘llanilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin orqali o‘qitish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatini oshiradi. Ushbu maqolada ta’limiy o‘yinlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. S.Qurbonov “Didaktik o‘yinlar” Urganch. - 2011-y 20 b.
2. M.E.Toirova “Ona tili 3-sinf 1-qism” Toshkent “Novda ” nashriyoti 2023-y
3. D.Baynazarova “Ona tili 3-sinf 2-qism” Toshkent “Novda ” nashriyoti 2023-y
4. I.V.Repyova “Matematika 2-sinf 2-qism” Toshkent “Novda ” nashriyoti 2023-y
5. I.V.Repyova “Matematika 3-sinf 3-qism” Toshkent “Novda ” nashriyoti 2023-y

6. B.Taxirovich “Boshlang‘ich sinflarda darslarini interfaol usullar yordamida tashkil qilish” Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. – 2024 - 47-49-bet

7. Radjabova Sh. “Boshlang‘ich sinf darslarida zamonaviy metodlar va interaktiv o‘yinlardan foydalanish” metodik qo‘llanma. Buxoro – 2024. - 37 b

8. <https://baxtiyor.uz/>

9. <https://slidesmania.com/>

10. <https://library.ziyonet.uz/>

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MANTIQUIY MASALALAR
LOGIC PROBLEMS IN ELEMENTARY GRADES
ЛОГИЧЕСКИЕ ЗАДАЧИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Adham Normatov

Qo‘qon davlat universiteti oqituvchisi

Rustam Tolipov

Qo‘qon davlat universiteti oqituvchisi

Jalilova Sevinchbonu

Qo‘qon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflar yangi matematika darsligidagi ba’zi mantiqiy masalalarning turli usullarda yechilish usullari va ularni o‘quvchilarga tushunarli tarzda yetkazish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: rasmlar, jismoniy predmetlar, rolli o‘yinlar, savol-javoblar, sanash, arifmetik usul

Аннотация: В данной статье рассматриваются различные методы решения некоторых логических задач из нового учебника математики для начальной школы и способы их донесения до учащихся в понятной форме.

Ключевые слова: картинки, физические объекты, ролевые игры, вопросы и ответы, счет, арифметические методы

Annotation: This article discusses various methods for solving some logical problems in the new elementary school mathematics textbook and how to convey them to students in an understandable way.

Key words: pictures, physical objects, role-playing games, questions and answers, counting, arithmetic methods

Kirish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematikaga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning tafakkurini, fikrlash doirasini kengaytirish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda mantiqiy masalalarning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, bu yoshdagi bolalar bilishga chanqoq, har qanday yangi va noodatiy ma‘lumotni qiziqish bilan qabul qiladilar. Shu bois, matematik darslarda faqat an‘anaviy masalalar emas, balki mantiqiy fikrlashni talab qiladigan topshiriqlar ham muntazam ravishda berib borilishi zarur.

Mantiqiy masalalar yordamida o‘quvchilar nafaqat matematik amallarni bajara olishadi, balki voqealarga tahliliy yondashish, solishtirish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Bu esa ularning nafaqat darsdagi, balki kundalik hayotdagi muammolarga ham mustaqil yechim topa olishlariga zamin yaratadi. Bundan tashqari, sinfda mantiqiy masalalarni muhokama qilish, guruhda ishlash orqali bolalarda nutq madaniyati, fikrni aniq va asosli ifodalash, eshitish va tushunish madaniyati ham shakllanadi.

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan mantiqiy masalalarni o‘qitish va tushuntirishning samarali usullari haqida fikr yuritiladi. Ayniqsa, amaliy tajribada sinab ko‘rilgan va natija bergan besh turdagi mantiqiy masala misolida ularni qanday qilib qiziqarli, tushunarli va o‘quvchining yoshiga mos tarzda yondashish mumkinligi ko‘rsatib beriladi.


Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mantiqiy masalalarni tushuntirishda eng avvalo, ularning tasavvur qilish qobiliyatidan foydalanish muhim. Har bir masala o‘ziga xos syujetga ega bo‘lsa, o‘quvchilarning e‘tibori kuchayadi va ular masala mohiyatini tezroq anglab yetishadi. Shu sababli, masalalarni faqat og‘zaki emas, balki rasmlar, jismoniy predmetlar, rolli o‘yinlar va savol-javoblar yordamida tushuntirish orqali yanada samarali o‘qitish mumkin.

Asosiy matn. Quyida boshlang‘ich sinf matematika darsligidagi ba‘zi mantiqiy masalalarning yechilishini va uni tushuntirishning turli usullarini ko‘rib o‘tamiz:

1-masala: “Daraxtlar raqami” (3-sinf, matematika, 2-qism, 45 bet, 10-masala, 2023 yil)

Masala matni:

Ikkita o‘rmonchi ko‘l atrofida o‘sayotgan daraxtlarni sanay boshlashdi. Birinchi o‘rmonchi daraxtning nomerini qizil bo‘yoq bilan, ikkinchisi esa ko‘k bo‘yoq bilan yozib boraverdi. Ular sanashni boshqa-boshqa daraxtdan boshlagan bo‘lsa ham, bir tomonga qarab harakatlanishdi. Oxirida qarashsa, bitta daraxtda qizil rangda 20, ko‘k rangda 6 deb yozilgan, boshqasida esa qizil bilan 8, ko‘k bilan 49 deb yozilgan ekan. Ko‘lning atrofida jami nechta daraxt bor ekan?



1. Rasmdan foydalanish:

Taxtaga doira shaklida ko‘l chiziladi va atrofida daraxtlar nuqta bilan belgilanadi.

Bir tomondan 1, 2, 3... deb qizil bilan raqamlab chiqing.

Ikkinchi tomondan esa yana 1, 2, 3... deb ko‘k bilan belgilang.


Bu usulda kamroq raqamlardan foydalanib, bolaga masala mohiyatini tushuntirib olish muhim hisoblanadi. So‘ngra masalaga o‘xshash masala tuzib uni bolalarga ishlatish yaxshi natija beradi.

2. Masalani dramatizatsiya qilish:


Ikki bola sinfda chiqib, bittasi oldinroq, ikkinchisi keyinroq daraxtlarni sanashga o‘xshatib, qadam tashlab raqam aytib yurishsin.

3. Tushunarli tarzda izohlash:

1) 1-usul. Doscaga ko‘l chizmasi sifatida oval chizib, uni atrofida ikki nuqta belgilaymiz va ularga berilgan raqamlarni yozamiz: qizil rang bilan 20 va ko‘k rang bilan 6 hamda mos ravishda qizil rang bilan 8 va ko‘k rang bilan 49. Ko‘k rang bilan yozilgan 6 dan soat strelkasi yo‘nalishiga teskari yurib ko‘k rangdagi 1 gacha yozib chiqamiz, u holda qizil bilan yozilgan sonlar 15 gacha boradi, ya‘ni ko‘k rang bilan yozilgan 6 ga qizil bilan yozilgan 15 to‘g‘ri keladi. So‘ngra qizil bilan yozilgan 15 dan qizil bilan yozilgan 8 gacha soat strelkasi yo‘nalishiga teskari yurib boramiz. Masala shartiga asosan, qizil rang bilan 8 ga ko‘k rang bilan yozilgan 49 to‘g‘ri keladi. Ko‘k rang bilan yozilgan 49 dan soat strelkasi bo‘yicha ko‘k rangdagi 1 gacha har bir qizil rangdagi sonlarga bittadan ko‘k rang bilan yozilgan sonlarni mos qo‘yib borsak, ko‘k rangdagi sonlar bilan belgilangan daraxtlar 55 ta ekanligini topamiz. Demak, jami daraxtlar 55 ta ekan.



2-usul. Bitta daraxt ustida 20 va 6 deb yozilgan bo‘lsa, demak ular 20-qadam va 6-qadamda bir daraxtga kelib qolishgan. Bu – har ikkisi bir xil daraxtga yetgan degani. Doscaga ko‘l shaklida aylana cizib, uni atrofida ikki nuqta belgilaymiz va ularni raqamlaymiz:



Biz shu ikki nuqta orasidagi daraxtlar sonini topishni bolalarga o‘rgatishimiz lozim. Buning uchun bir xil rangli raqamlarni ayirsak kifoya, ya’ni 20 dan 8 ni ayiramiz, shunda birinchi oraliqdagi daraxtlar soni topiladi.

$$20-8=12$$

So‘ngra 49 dan 6 ni ayiramiz, shunda birinchi oraliqdagi daraxtlar soni topiladi.

$$49-6=43$$

So‘nggida bu ikki natijani bir biriga qo‘shish orqali ko‘l atrofidagi jami daraxtlar soni kelib chiqadi. $12+43=55$.

2-masala

Buxgalteriya daftarining bir necha varag‘i yo‘qoldi. 68-betdan keyingi bir necha varoq yoq, keyingi varaqlar 93-betdan boshlangan. Necha varaq yo‘qolgan?

Masala (soddalashtirilgan shakli):


Buxgalteriya daftarining 68-betidan keyin bir necha varaq yo‘qolgan.

Keyingi ko‘rinadigan varaqlar 93-betdan boshlangan.

Daftarda har bir varaqda ikkita bet raqami bo‘ladi.

Savol: nechta varaq yo‘qolgan?

Birinchi o‘rinda bolalarga kitob sahifasi raqamlari joylashuvi haqida ma’lumot beramiz, ya’ni juft sonlar dom chap, toq sonlar doim o‘ng tarafda bo‘lishini o‘rgatib olishimiz lozim.



1-usul: Oddiy sanash usuli (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun)

Daftarda har bir varaqda 2 ta bet bo‘ladi (masalan: 1-2, 3-4, 5-6 ...).

Agar 68-bet o‘sha yerda tugagan bo‘lsa, demak u 68-chi bet oldingi varaqning orqa tomoni bo‘ladi.

Demak, keyingi varaq — 69-70.

Ammo keyingi ko‘rinadigan bet 93 ekan.

Endi 69-dan 92-gacha bo‘lgan betlar yo‘qolgan. Hisoblaymiz:

$92 - 69 + 1 = 24$ bet yo‘qolgan.

24 bet $\rightarrow$ har bir varaqda 2 bet bo‘lsa:

$24 \div 2 = 12$, demak bu 12 ta varaq bo‘ladi.

Javob: 12 ta varaq yo‘qolgan.

2-usul: Betlar soni asosida (arifmetik yondashuv)

Yo‘qolgan betlar: 68-betdan 93-betgacha $= 93 - 68 - 1 = 24$ bet

Har bir varaqda 2 bet $\rightarrow 24 \div 2 = 12$ varaq

3-usul: Ko‘rgazmali usul (chizma bilan tushuntirish)

O‘quvchilarga daftar rasmi chizdiriladi. Har bir varaqda 2 bet:

1-2, 3-4, 5-6 ... kabi.

So‘ngra 68-chi betni topishadi, 93-chi betgacha bo‘sh joy qoldiriladi.

Ular varaqlarni sanab ko‘rishadi: 69-70, 71-72,...91-92 — jami 12 varaq.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan mantiqiy masalalarni yechishga o‘rgatish va tushuntirish uchun avvalo o‘qituvchi bunday masalalarni turli usullarda yecha olishi hamda o‘quvchilariga eng tushunarli tarzda yetkaza olishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan suhbatlashganimizda mantiqiy masalalarni yechish muammo bo‘layotganini aytishadi. Ushbu maqola aynan shu maqsadda, ya‘ni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga metodik yordam sifatida tayyorlandi.

ADABIYOTLAR

1.Normatov Adxam Abdullayevich.(2023) MULOHAZALAR VA ULAR USTIDA AMALLAR. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022

2.A.Normatov.ABOUT THE IMPORTANCE AND PLACE OF MATHEMATICAL PROBLEMS IN MATHEMATICS LESSONS. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.

3. Normatov, A. (2022). Text problems. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 341-347.

4.Normatov, A. (2022). APPLICATIONS OF THE DERIVATIVE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1161-1164.

5. Normatov, A. (2022). About the emergence of geometry. *Web of Scientist: International*

Scientific Research Journal, 3(7), 268-274.

6.AA Normatov, RM Tolipov. SOME PROBLEMS OF COMBINATORICS AND THE IMPORTANCE OF EULER-VEHN DIAGRAMS IN SOLVING THEM. *Semiconductor Optoelectronics* 42 (2), 1412-1417

7. Normatov A, & Xojiqurbonova K, Xamroyeva M, Yunusova S, Ummataliyeva M. (2024). TO‘PLAMDAGI MUNOSABAT. *University Research Base*, 162–164. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/620>

8. Normatov, A. (2023). Some applications of the definite integral. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 2, No. 6, pp. 260-263).

9.Normatov, A. (2023). MATEMATIKA DARSLARIDA MATEMATIK MASALANING AHAMIYATI VA O‘RNI HAQIDA. *Ustozlar uchun*, 19(2), 81-89.

10. Repyova I.V. Matematika. Umumiy ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. II-qism. Toshkent:”Novda Edutainment”. 2023-100b.



MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARDA SANOGEN REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Isayeva Dildora Sodikovna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti maktabgacha ta’lim kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanogen refleksiya tushunchasi, uning talaba shaxsining emotsional-intellektual rivojlanishiga ta’siri hamda bu jarayonni pedagogik faoliyatda amalga oshirish texnologiyasi yoritilgan. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda sanogen refleksiyani shakllantirishning usullari, bosqichlari va samaradorlik mezonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari, sanogen refleksiya texnologiyasi talabalarning psixologik barqarorligi va kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: sanogen refleksiya, maktabgacha ta’lim, emotsional intellekt, reflektiv texnologiya, kasbiy tayyorgarlik, shaxsiy o‘shish, psixologik barqarorlik, pedagogik jarayon, o‘quv-metodik yondashuv, psixoprofilaktika.

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ СИНОНИМИЧЕСКОЙ РЕФЛЕКСИИ У ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие саногенной рефлексии, ее влияние на эмоционально-интеллектуальное развитие личности студента, а также технологии реализации данного процесса в педагогической практике. Проанализированы этапы, методы и критерии эффективности формирования саногенной рефлексии у студентов, обучающихся по направлению дошкольного образования. Результаты исследования показывают, что технология саногенной рефлексии является важным фактором в повышении психологической устойчивости и профессиональной подготовки студентов.

Ключевые слова: саногенная рефлексия, дошкольное образование, эмоциональный интеллект, рефлексивные технологии, профессиональная подготовка, личностный рост, психологическая устойчивость, педагогический процесс, методический подход, психопрофилактика.

TECHNOLOGY FOR DEVELOPING SYNONYMOUS REFLECTION IN PRESCHOOL STUDENTS

Abstract: This article explores the concept of sanogenic reflection, its impact on students' emotional and intellectual development, and the pedagogical technologies used to

implement this process. The study analyzes methods, stages, and criteria for effectively fostering sanogenic reflection among students enrolled in preschool education programs. Research results show that the technology of sanogenic reflection is a key factor in strengthening students' psychological resilience and professional readiness.

Keywords: sanogenic reflection, preschool education, emotional intelligence, reflective technologies, professional training, personal growth, psychological stability, pedagogical process, methodological approach, psychoprevention.

Kirish. Zamonaviy pedagogik amaliyotda talaba shaxsini kompleks rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar pedagogik faoliyatning emotsional yuklama yuqori bo'lgan sharoitlarida ishlashi tufayli, ularning ichki psixologik barqarorligi va o'zini anglash darajasi yuqori bo'lishi zarur. Shu jihatdan sanogen refleksiya - shaxsning ichki kechinmalarini, emotsiyalarini ongli tarzda boshqarish orqali salbiy holatlarni ijobiyga yo'naltira olish qobiliyati - pedagogik tayyorgarlikning muhim komponentlaridan biri hisoblanadi [1].

Sanogen refleksiya nafaqat o'z-o'zini tahlil qilish, balki ruhiy salomatlikni saqlash, kasbiy sindromlarning oldini olishda ham samarali vosita hisoblanadi [2]. Oliy ta'lim tizimida ushbu refleksiyani rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish talabalarning shaxsiy va kasbiy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [3]. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalar misolida sanogen refleksiyani rivojlantirish texnologiyasining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy jihatlarini yoritiladi.

Refleksiya – bu har jihatdan inson hayotining ontologik tomonini ifodalaydi va insonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, pedagogik jihatdan refleksiya bu sub'ektlar (pedagogik jarayon ishtirokchilari) tomonidan o'z rivojlanish holatini, yanada rivojlantirish imkoniyati va sabablarini aniqlash jarayoni va natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Refleksiv texnika mashqlari talabalarda sog'lom tafakkur, ijobiy fikrlash qobiliyatini, pedagogik faoliyatda o'quvchilar bilan muvaffaqiyatli ishlashga doir zarur malakalarni, vaziyatni to'g'ri baholash asosida optimal qarorlarni ishlab chiqish hamda o'z-o'zini rivojlantirishga nisbatan ongli munosabatni hosil qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Sanogen refleksiya tushunchasi ilk bor V.V. Bekhterev va A.R. Luriya kabi psixologlarning ilmiy qarashlarida bilvosita ko'zga tashlangan [4, 5]. Ular shaxsning ongli o'zgarishlari orqali ichki muvozanatni tiklash g'oyasini ilgari surgan. So'nggi yillarda bu tushuncha mustaqil psixologik-pedagogik kategoriya sifatida rivojlanmoqda [1].

Boyko sanogen tafakkur va refleksiya tushunchalarini inson ruhiy salomatligini saqlash mexanizmi sifatida izohlaydi [2]. Uning ta'kidlashicha, shaxs o'z ichki kechinmalarini tahlil qilish orqali stress holatlarini kamaytirishi va ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishi mumkin. Asmolov esa refleksiyani shaxsiy o'sishning muhim elementi sifatida ko'rib chiqadi [6].

Mahalliy olimlar - S.S. Axmedova va Z.Z. Turg‘unovlar - o‘z tadqiqotlarida talabalar reflektiv salohiyatini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqqan [3, 8]. Ular sanogen refleksiya orqali talabalarda kasbiy identifikatsiya va psixologik tayyorgarlik kuchayishini asoslab bergan.

Yana bir muhim manba sifatida Stepanovning ishlari qayd etiladi. U refleksiyani pedagogik faoliyatda stressga qarshi kurashish, shaxsiy resurslarni tiklash va ichki mustahkamlikni shakllantirish vositasi sifatida taqdim etadi [7].

Munozara va takliflar

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalar emotsional jihatdan sezgir, ijtimoiy-psixologik ta’sirlarga ochiq bo‘ladi. Shu bois ular uchun sanogen refleksiyani rivojlantirish orqali ichki ziddiyatlarni kamaytirish, stressga chidamlilikni oshirish va professional yo‘nalishdagi ijobiy motivatsiyani mustahkamlash mumkin.

Texnologiya quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: reflektiv suhbatlar, emotsional ekspressiya texnikalari, psixologik treninglar va sanoterapiya elementlari. Ushbu metodlar orqali talabalarda o‘z-o‘zini anglash, emotsional barqarorlik, o‘zini baholash va boshqalar bilan sog‘lom muloqot o‘rnatish ko‘nikmalari shakllanadi.

Ushbu yondashuvlar tizimli tatbiq etilganda talabalarning kasbiy faolligi, o‘z fikrini asoslay olish va psixologik zo‘riqishdan chiqish darajasi ortadi.

Takliflar

1. Sanogen refleksiya kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha alohida o‘quv-modullar ishlab chiqilsin. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi bakalavriat dasturlariga “Refleksiya va emotsional intellekt asoslari” nomli nazariy va amaliy kurs kiritilishi talabalar ongli ravishda o‘z ichki holatlarini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Oliy ta’lim muassasalarida reflektiv pedagogik muhit shakllantirilsin. Bu muhitda talabalar mustaqil fikrlash, o‘zini tahlil qilish, emotsional-hissiy jarayonlarni boshqarish va psixologik muvozanatni saqlash ko‘nikmalarini real vaziyatlar asosida sinovdan o‘tkazishlari mumkin.

3. Sanogen refleksiya asosida psixoprofilaktik trening dasturlari tashkil etilsin. Bunday treninglar orqali talabalar stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuvchanlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

4. O‘quv mashg‘ulotlariga sanoterapiya, art-terapiya va relaksatsiya elementlari kiritilsin. Bu yondashuvlar sanogen refleksiyani mustahkamlashda emotsional ta’sir kuchiga ega vosita sifatida xizmat qiladi.

5. Maktabgacha ta’lim amaliyotiga chiqayotgan talabalarda reflektiv kundalik yuritish tizimi joriy etilsin. Bu nafaqat ularga o‘z tajribalarini anglashga, balki kasbiy o‘sish trayektoriyasini shakllantirishga yordam beradi.

6. Ilmiy-tadqiqotlar davomida sanogen refleksiya bilan bog‘liq indikatorlar tizimi ishlab chiqilsin. Bu indikatorlar asosida talabalar reflektiv salohiyati baholanib, ularga individual pedagogik yondashuvlar shakllantiriladi.

7. Refleksiya va emotsional intellekt mavzularida professor-o‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etilsin. Bu orqali o‘qituvchilar talabalarni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashga tayyor bo‘ladilar.

Xulosa

Sanogen refleksiya - talabaning ichki resurslarini safarbar etuvchi, ularni ijobiy faoliyatga yo‘naltiruvchi samarali pedagogik vosita. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalar bu texnologiya orqali nafaqat o‘z emotsiyalarini boshqarishni, balki kasbiy hayotga tayyorlanishda mustaqil, psixologik barqaror shaxs sifatida shakllanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kelgusida refleksiya texnologiyalarini takomillashtirish, o‘quv dasturlariga integratsiya qilish va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish tavsiya etiladi. Shu tariqa, talabalarda sanogen refleksiya madaniyatini shakllantirish orqali zamonaviy ta’limga mos kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Никифоров, Г. С. Психология здоровья. Санкт-Петербург: Питер, 2002.
2. Бойко, В. В. Энергия эмоций в общении: Взгляд на себя и на других. Санкт-Петербург: Питер, 2006.
3. Axmedova, S. S. “Pedagogik jarayonda talabalarda reflektiv kompetensiyani shakllantirishning uslubiy asoslari”. O‘zbekiston pedagogik axborot markazi jurnali, vol. 4, 2020, bet 45–52.
4. Бехтерев, В. М. Объективная психология: Очерки по психологии человека. Санкт-Петербург: Наука, 1995.
5. Лурия, А. Р. Основы нейропсихологии. Москва: Издательство Московского университета, 1973.
6. Асмолов, А. Г. Психология личности: Принципы общепсихологического анализа. Москва: МГУ, 2001.
7. Степанов, С. Ю. Рефлексия и педагогическая деятельность. Москва: Академия, 2007.
8. Turg‘unova, Z. Z. “Kasbiy tayyorgarlikda refleksiya mexanizmlarini shakllantirish.” Pedagogik mahorat, no. 3, 2021, bet 63–67.
9. Ganieva, G. I. “Sanogen tafakkur va uning shaxsiy rivojlanishdagi o‘rni.” Psixologiya va hayot, no. 2, 2022, bet 25–29.
10. Ergasheva, D. T. “Talabalarda stressga chidamlilikni rivojlantirish texnologiyalari.” Oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat, vol. 1, 2023, bet 31–37.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

TEXNOLOGIYA TA‘LIMIDA XALQ HUNARMANDCHILIGI VA BADIY DIZAYNNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Egamqulov Maxmud Saidqulovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

Email: mahmud19730101@gmail.com Tel: +998(99) 202 42 55

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya ta‘limi sohasida milliy qadriyatlar va an‘analarni saqlash hamda rivojlantirish maqsadida xalq hunarmandchiligi va badiiy dizayn elementlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullari tahlil qilingan. Muallif xalq amaliyotiga xos bo‘lgan an‘anaviy hunarmandchilik turlari, ularning ta‘lim mazmunidagi o‘rni va ahamiyati, shuningdek, zamonaviy dizayn yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini yoritib bergan. Maqolada badiiy ta‘lim orqali o‘quvchilarning estetik didi, ijodiy tafakkuri va milliy merosga hurmati shakllanishida xalq hunarmandchiligining o‘rni alohida ta‘kidlangan.

Kalit so‘zlar: texnologiya ta‘limi, xalq hunarmandchiligi, badiiy dizayn, milliy qadriyatlar, estetik tarbiya, ijodkorlik, integratsiya.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ НАРОДНЫХ ПРОМЫСЛОВ И ХУДОЖЕСТВЕННОГО ДИЗАЙНА В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В статье анализируются эффективные способы интеграции элементов народных ремесел и художественного дизайна в образовательный процесс с целью сохранения и развития национальных ценностей и традиций в сфере технологического образования. Автор выделил традиционные виды ремесел, характерные для народной практики, их роль и значение в содержании образования, а также возможности их сочетания с современными подходами к дизайну. В статье подчеркивается роль народных промыслов в формировании эстетического вкуса, творческого мышления и уважения к национальному наследию учащихся посредством художественного образования.

Ключевые слова: технологическое образование, народные промыслы, художественное проектирование, национальные ценности, эстетическое воспитание, творчество, интеграция.

METHODS OF DEVELOPING FOLK CRAFTS AND ARTISTIC DESIGN IN TECHNOLOGY EDUCATION

- **Adaptiv (shaxsga yo‘naltirilgan) yondashuv:** Har bir talabaning o‘ziga xos bilim darajasi, qiziqishlari va o‘qish sur‘ati borligini e‘tiborga oluvchi tamoyil. Adaptiv ta‘lim tizimlari yordamida o‘quv materialini moslashtirish zamonaviy pedagogikada samarali yo‘l hisoblanadi [2]. Mazkur metodik tizimda ham adaptivlik ko‘zda tutilgan: o‘qituvchi dars jarayonida vaziyatga qarab topshiriqlar murakkabligini o‘zgartirishi, kuchli talabalarni chuqurroq masalalar bilan band etishi, qo‘shimcha yordamga muhtojlarga esa soddalashtirilgan tushuntirish berishi mumkin. Shuningdek, butun kursning mazmuni ham moslashuvchan modullar tarzida tuziladi – masalan, kimyo yo‘nalishi uchun eng zarur bo‘lgan matematik mavzularga ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Bunda talabaning faolligi va mustaqil ishlash trajektoriyasi rag‘batlantiriladi, bu konstruktiv ta‘lim muhitini yaratadi.

- **Konstruktivizm tamoyili:** Talaba bilimni o‘zining faol aqliy faoliyati orqali “qurishi” (construct) lozim degan pedagogik qarashga tayanuvchi tamoyil ([Constructivism Learning Theory & Philosophy of Education](#)). Bu tizimda konstruktiv yondashuv darsning interaktiv, muammoli tashkil etilishi orqali ta‘minlanadi – talabalar tayyor bilimni shunchaki eshitib olmasdan, balki misollar yechish, munozara va topqirlik talab qiluvchi vazifalar orqali yangi bilimni **o‘zlari kashf etadi**. O‘qituvchi yo‘naltiruvchi va fasilitator rolini bajaradi, talaba esa markazda bo‘lib, o‘z bilimini faollik bilan shakllantiradi. Bunday yondashuv nafaqat bilimni chuqurroq o‘zlashtirish, balki tanqidiy fikrlash va muammoni hal etish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

- **Modullilik va tizimlilik:** Kurs mazmunining modullar (mavzular bloki) ga bo‘lingan holda, har bir modul ichida yaxlit “kimyo + matematika” mazmuniy bog‘liqlikning ta‘minlanishi tamoyili. Har bir modul mustaqil o‘quv birlik sifatida quriladi (masalan, “Kimyoviy kinetika uchun differensial tenglamalar moduli”), shu bilan birga barcha modullar ketma-ket va mantiqiy izchillikda umumiy kursni tashkil etadi. Modullik tamoyili o‘quv dasturini moslashuvchan rejalashtirish, integratsiyalashgan materialni bosqichma-bosqich kiritishga imkon yaratadi. **Tizimlilik** esa butun jarayonni yagona maqsadga yo‘naltiradi: mavzular orasidagi bog‘liqlik, bilimlarning uzviyligi ta‘minlanadi. Bu tamoyil bilan ishlangan tizimda talaba har bir moduli yakunida ma‘lum integrativ natijaga erishib boradi, modullar yig‘indisida esa kursning umumiy kompetensiyalariga ega bo‘ladi.

- **Refleksiya tamoyili:** Ta‘lim jarayonida talabaning o‘z o‘rganish faoliyati ustida mulohaza yuritishi, o‘zini baholashi va xulosalar chiqarishi muhim o‘rin tutadi [7]. Tizimda har bir dars oxirida hamda modul yakunida refleksiya uchun sharoit yaratiladi. Talabalar “nima o‘rgandim, bu nimaga kerak, kelgusida qayerda qo‘llay olaman” kabi savollar ustida o‘ylab ko‘rishadi. Bu ularda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi va kelgusi o‘qishga ongli yondashuvni shakllantiradi. Refleksiya tamoyili, shuningdek, o‘qituvchiga ham o‘quvchilarning rivojlanishini kuzatib, metodikani takomillashtirishga imkon beradi.

Yuqoridagi tamoyillar uyg‘unligi tizimning ilmiy-metodik asoslanganligini ko‘rsatadi. Tizim nafaqat mazmun jihatdan, balki ta‘lim texnologiyasi jihatidan ham innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot va islohotlar bosqichi. – T.: O‘zbekiston, 2022.
2. Clark R.C., Mayer R.E. E-learning and the Science of Instruction. – John Wiley & Sons, 2016.
3. Toxirova R. Integrativ yondashuv asosida fanlararo ta’lim tizimi. – O‘zMU, 2021.
4. Nasriddinova D. Kimyo darslarida matematik modellashtirish. // Kimyo va hayot, 2023, №1, – B. 45–48.
5. Verbitskiy A.A. Kontekstnoye obucheniye: teoriya i tekhnologii. – Moskva: Logika, 2006.
6. Bruner J. The Process of Education. – Harvard University Press, 1960.
7. Institute for Teaching and Learning Innovation. Reflective Learning. – Queensland University, 2020.



UZLUKSIZ TA‘LIM TIZIMIDA FIZIKA FANINI QITISHDA INNOBATSION TEKNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING AYRIM MASALALARI

Kokanbayev Ismaildjan Mamadjanovich

Qo‘qon davlat universiteti Fizika-astronomiya kafedrası professori, f.-m.f.n.

E-mail: kokanbayevismoiljon@gmail.com

Аннотация: Ushbu maqolada oliy o‘quv yurtlari, akademik litsey va umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fizika darslarini tashkil qilishda kompyuter texnologiyalari hamda dasturlaridan foydalanish metodikasining ayrim masalalari ko‘rib chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: axborot, kommunikatsion texnologiya, kompyuter dasturi, yupqa pardalar, N`yuton halqalari, animatsiya, internet, integratsiya, proyeksion apparat.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИНТЕГРАЦИИ ФИЗИЧЕСКИХ НАУК В СИСТЕМУ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье рассматриваются некоторые методические вопросы использования компьютерных технологий и программ в организации уроков по физике в ВУЗах, академических лицеях и общеобразовательных средних школах.

Ключевые слова: Информация, Коммуникационная технология, Компьютерная программа, Тонкие плёнки, Кольца Ньютона, Анимация, Интернет, Интеграция, Проекционный аппарат.

SOME ISSUES OF THE APPLICATION OF INNOBATION TECHNOLOGIES IN THE CONTINENT OF PHYSICS IN THE SYSTEM OF CONTINUING EDUCATION

Annotation: This article considers some issues of methodological usage of computer technology and programmes in organizing lessons on physics in higher educational establishment, academic lyseums, General secondary schools.

Keywords: Information, Communication technology, Computer program, Thin films, Newton's rings, Animation, Internet, Integration, Projection device.

Kirish: Uzluksiz ta‘lim tizimida fizika o‘qitish, talabalarni(o‘qyvchilar) zamonaviy fizika yutuqlari bilan tanishtirish, ushbu fanni ilmiy-texnik taraqqiyotini amalga oshirishda tutgan o‘rni va rolini ko‘rsatib berishni, bo‘lajak mutaxassislariga tabiiy-ilmiy dunyoqarashini

shakllantirishni taqozo etadi. Talabalarga uzluksiz ta'limda o'quv yurtlarida fizika o'qitishning zamonaviy metodlari ya'ni, yangi pedagogik (innovatsion) texnologiyalarni qo'llash uslubiyatlari haqida bilim berish va ularda ushbu kursni o'zlashtirishga kerakli malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. O'quv jarayoniga ta'lim texnologiyalarini qo'llash natijasida milliy g'oyaga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr yurita oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bilan birga, ularning faolligini oshirish, bilish faoliyatini va ijodiy izlanishlarini rivojlantirish asosida fanni mukammal o'zlashtirib olish samaradorligiga erishish mumkin bo'ladi va bu jihatlar ushbu maqolada to'liq inobatga olingan.

Adabiyotlar tahlili.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Innovatsion texnologiyalar markazi" da chop etilgan "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" mavzusidagi qo'llamalar va professor M.Djoraevning "Pedagogika oliy o'quv yurtlarida fizika o'qitishning zamonaviy metodlari" qo'llanmalari K.A.Tursunmetov va boshqalar. Elektromagnit to'lqinlarini o'rganishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. "Fizika, matematika va informatika". Ilmiy – uslubiy jurnal №1.2010.

I.M. Kokanbaev, M. Yuldasheva. Difraksiya hodisasini o'rganishda axborot texnologiyalarining tadbqiqiy masalalari. Xalq ta'limi. 2007. №6. maqolalarida tavsiflab o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar - talabalarni ma'ruzada va mustaqil ishlarni bajarishda fizikadan olingan bilimlarini chuqurlashtirishga, kengaytirishga va amalda qo'llashga o'rgatishga xizmat qiladi. Fizikadan masalalarni yechishni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish modul tizimida amaliy mashg'ulotlarda talabalar bilimini baholashda yaxshi samara beradi Chunki har bir dars turi, soatini zamonaviy innovatsion texnologiyalardan va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etilsa, ta'lim sifati yuqori saviyaga ko'tarilishi, talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlari yanada ortishi bir necha bor tajribalarda isbotlandi.

Masalan, "Kvant fizikasi" bo'limidan "Rezerford tajribasini kuzatish"ga doir laboratoriya ishini bajarishda "Fizikon. Fizika v kartinkax" animatsion elektron dasturidagi virtual laboratoriya ishidan foydalanib, talaba tajribaning borish mexanizmini, α – zarrachani oltin yadrolari bilan ta'sirlashganda sochilishini, sochilish burchagini masofaga bog'liq ravishda o'zgarishini aniq ko'ra oladi va xulosalaydi. Dars jarayonining zaruriy qismida O'zR OO'MTV O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi tomonidan yaratilgan "Fizika v kartinkax. Fizikon" (1999yil) kompyuter dasturidan va Macromedia Flash 5.0 dasturi yordamida yaratilgan ikki o'lchamli animatsiyalardan foydalanish o'rinli deb hisoblaymiz..


Natijalar va ularning tahlili

Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalarni faol qo'llash, o'quv jarayonida o'qituvchining o'rni, roli va pedagogik faoliyatini ma'lum darajada


o‘zgartirishga olib keladi. O‘qituvchilar tomonidan o‘quv materialini tayyorlashda ularning faoliyati murakkablashadi, ularda maxsus malaka va usullarni hamda zamon talabiga mos holda axborot hamda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zaruriyati tug‘iladi. Shu boisdan bakalavrlarga axborot texnologiyalaridan kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlar, referatlar, magistrlik dissertatsiyalarini bajarishda axborot texnologiyalarni qo‘llashga doir mavzularni berish bilan bo‘lajak akademik litsey, kasb hunar kollejlari va umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘qituvchilarining kompyuter savodxonligini oshirish borasidagi mazmunga modernizatsiya ishlarini e‘tiborga olgan holda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdek vazifalarni olib borish davr talabidir. Darhaqiqat, axborot texnologiyalarining imkoniyatlarining kundan–kunga oshishi tabiiy holga aylandi. Shu bois, ta‘lim tizimida axborot va innovatsion texnologiyasidan unumli va albatta mos keluvchi holatlardagina o‘rinli foydalanishni e‘tiborga olish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini axborot texnologiyalari bilan integratsiyasini (uyg‘unlashuvini) ta‘minlash borasida bir qator tajriba–sinov ishlari olib borilmoqda. Masalan, fizikaning “Optika” bo‘limidagi “Yorug‘likning interferensiyasi” mavzusiga oid dars, o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishda kogorent yorug‘lik to‘lqinlarini hosil qilishdagi mavzu bo‘yicha o‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning etarli darajasiga erishish uchun qulay usuldeb hisoblaymiz. Bu holda Microsoft Power Point kompyuter dasturi asosida tayyorlangan slaydlardan foydalanish orqali monoxromatik yorug‘lik to‘lqini uzunligi λ ni o‘zgarishi va tirqishlar orasidagi masofa d va tirqishdan ekrangacha bo‘lgan masofa L lar orasidagi bo‘g‘lanish va ekranda intensivlikning taqsimotini ko‘rsatiladi. Bu esa o‘qituvchiga qulaylik tug‘diradi. Ma’ruza mashg‘ulotlarida kompyuter texnikasidan foydalanishda ko‘proq proyeksion apparat yordamida taqdimot usuli bilan o‘tkazish qulay deb hisoblaymiz. Bu jarayonda mavzuga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni talabalarga yetkazish uchun slaydlar, animatsiyali slaydlar, multimediyalar va kompyuter dasturlaridan foydalangan holda dars ishlanmasi tayyorlanadi. Buning natijasida talaba ma’ruzani nafaqat tinglaydi, balki fizik jarayonni ko‘rish va tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yupqa pardalardagi interferentsiya (1–rasm), N`yuton halqalari (2-rasm) mavzularini o‘tishda ham monoxromatik yorug‘lik to‘lqini interferensiyasini kuzatish, yorug‘likni kuchaytirish va susaytirish shartlarini matematik usulda hisoblashda slaydlardagi chizmalarning monoxromatik yorug‘lik uchun animatsiya ko‘rinishida tayyorlab namoyish etilishi va dars jarayonining zaruriy qismida kompyuter orqali ekranda ko‘rsatish bilan ushbu hodisalarni bayon qilish talabalar fazoviy tasavvurini kengaytirib, ushbu mavzudagi fizik hodisalarni o‘rganishga oid bilim, ko‘nikma hamda malakalar talabalar tomonidan o‘zlashtirilishida katta yordam beradi deb hisoblaymiz.



1 –rasm.



2 –rasm.

Fizika o‘qitish jarayonida talabalarning mavzuga oid bilimlarini mustahkamlashda fizikadan masalalar yechish mashg‘ulotlarining ahamiyati juda katta. Shunday ekan, axborot texnologiyalarining masalalar yechish jarayonida qo‘llanilishiga oid tavsiyalarni ham keltirib o‘tamiz. Ushbu jarayonni quyidagicha tashkil qilish mumkin. Avval barcha talabalar masala shartini o‘qib, tahlil qilib masalani mustaqil ravishda yechadilar. So‘ngra esa ularning javoblarini kompyuter yordamida masalani yechgan holda tekshirib chiqiladi va natijalarni solishtiriladi. Shuningdek, masalani bir nechta ixtiyoriy qiymatlar berib ham yechib ko‘rish mumkin.

Kuzatishlarimizdan shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, laboratoriya mashg‘ulotlarida aynan tegishli mashg‘ulotlar uchun tayyorlangan virtual laboratoriya ishlari kompyuter dasturlaridan foydalanish samarali natijalarni ko‘rsatdi. Bunda fizika fanlari uchun “Fizikon. Fizika v kartinkax” animatsion elektron dasturidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Laboratoriya mashg‘ulotlarini kompyuter yordamida tashkil qilish talabalarning fizik kuzatish imkoniyatlarini oshiradi hamda fizik jarayon haqida aniq tasavvur uyg‘otadi.

Masalan, “Kvant fizikasi” bo‘limidan “Rezerford tajribasini kuzatish”ga doir laboratoriya ishini bajarishda “Fizikon. Fizika v kartinkax” animatsion elektron dasturidagi virtual laboratoriya ishidan foydalanib, talaba tajribaning borish mexanizmini, α –zarrachani oltin yadrolari bilan ta’sirlashganda sochilishini, sochilish burchagini masofaga bog‘liq ravishda o‘zgarishini aniq ko‘ra oladi va xulosalaydi. Albatta, bunday laboratoriya ishlarini bajarishda virtual laboratoriya ishlarini amalga oshirishning maqbul yo‘llari aks ettirilgan uslubiy ko‘rsatmalar tayyorlangan.

Xulosa

Darsda kompyuter texnikasini qo‘llash talabalarni zamonga mos tarzda tarbiyalashga asos bo‘ladi. Dars jarayonini yangi zamonaviy texnologiyani kompyuter asosida tashkil qilishning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, talabaning politexnik tasavvurlari ortadi, shu bilan birga o‘quv jarayoniga zamonaviy didaktik materiallar majmuasini olib kiradi.. Shuningdek, kompyuter texnologiyasi o‘qituvchi faoliyatini mumkin qadar yengillashtirish

uchungina emas, balki o‘z bilim doirasini kengaytirish, kompyuter texnologiyasini ta’lim jarayoniga tadbiq etish sohasini rivojlantirish, ta’lim usullarini tanlashda axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishish yo‘llarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Barkamol avlod orzusi”. Toshkent. “Sharq”, 1999 y.
2. Qudratillaev H. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Davlat va test markazi me’yoriy hujjatlarini amalda tadbiq etish yuzasidan uslubiy tavsiyalar”. A.Avloniy nomidagi XTPXMOMI –Toshkent, 2004.
3. Бегімкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бoшқариш назарияси ва амалиёти. Пед.фан.док.дисс. – Тошкент: ТДПУ, 2007. – Б. 305.;
4. K.A.Tursunmetov va boshqalar. Elektromagnit to‘lqinlarini o‘rganishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. “Fizika, matematika va informatika”. Ilmiy – uslubiy jurnal №1.2010. 58-61 betlar.
5. I.M. Kokanbaev, M. Yuldasheva. Difraksiya hodisasini o‘rganishda axborot texnologiyalarining tadbiqiy masalalari. Xalq ta’limi. 2007. №6. 51–54 betlar.



BARQAROR EKOLOGIK RIVOJLANISH BO'YICHA TA'LIM: TALABALARNING EKOLOGIK XABARDORLIGINI OSHIRISH

Abdunazarov Lutfulloxon Mamanovich

Qo'qon univetsiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, PhD

Annonatsiya: ushbu maqolada bugungi kunimizda tabiatda sodir bo'layotgan ekologik muammolar, da talim oluvchilarga atrof-muhitni yaxshilash, ekologik savodxonlik va ekologik dunyoqarashni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik xabardorlik, ekologik ta'lim, ekologik qadriyatlar, sezgirlik va mas'uliyat, barqarorlik masalalari, Atrof-muhit loyihalari va tadbirlari.

Abstract: This article discusses the ecological problems occurring in nature today, and provides guidance to students in educational institutions on improving the environment, developing ecological literacy, and an ecological worldview.

Keywords: Environmental awareness, environmental education, environmental values, sensitivity and responsibility, sustainability issues, Environmental projects and activities.

Аннотация: В статье рассматриваются экологические проблемы, возникающие в природе сегодня, а также даются рекомендации учащимся образовательных учреждений по улучшению окружающей среды, развитию экологической грамотности и экологического мировоззрения.

Ключевые слова: экологическая осведомленность, экологическое образование, экологические ценности, чувствительность и ответственность, вопросы устойчивого развития, экологические проекты и мероприятия.

Kirish

Ekologik xabardorlik va barqarorlik bugungi dunyoda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muammolarga duch kelayotganimiz haqiqat. Shu sababli, ushbu muammolarni hal qilish va kelajakni yashashga yaroqli qilish uchun ta'limda barqarorlik yondashuvi zarur. Ta'limda barqaror rivojlanish bo'yicha ta'lim o'quvchilarning ekologik ongini oshirish va kelajak avlodlarga mas'uliyatli ekologik boshqaruvchi bo'lishga yordam beradigan kuchli vositadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki ekologik dunyoqarash bugun paydo bo'lib qolgan narsa emas. Bu jarayon uzoq davrlar mobaynida shakillanib kelganligi barchamizga ma'lum. Insoniyat tamadduniga o'zining

ulkan xissasini qo‘shgan g‘arb va sharq mutafakkirlarining bu boradagi ishlarini yodga olib o‘tish lozimdir.

Har qaysi tarixiy davrlarda ham insonlarning tabiatga bo‘lgan munosabatlari mavjud bo‘lgan. Sharq mutafakkirlari asarlarida halollik, poklik, atrof-muhitning

tozaligi va tabiatni sevish xislatlariga ahamiyat berilgan. Vatandoshimiz ibn Sino «Tabiatda g‘ubor bo‘lmaganda insonlar umri yanada uzayishi» haqidagi nazariyani ilgari surgan. Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy XVII asrda ta‘lim jarayonining mohiyatini ilmiy asoslashga urindi. Alloma bolaning aqliy, jismoniy o‘rishini tabiat qonuniyatiga muvofiq kelishi g‘oyasini asoslagan. XVIII asrda fransuz olimi Jan Jak Russo ham insonning tabiat va jamiyatdagi o‘rni haqidagi falsafiy g‘oyalar asosida ta‘lim mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Uning fikricha, ta‘lim jarayonining mohiyati bolaning atrof-muhitni bilishiga asoslanadi [1].

Ekologik va nafosat tarbiyasining vositalari o‘quvchilarni go‘zallikni sevish

ruhida tarbiyalash maqsadida turmush, tabiat, san‘at go‘zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda qo‘llaniluvchi omillar sanaladi. Tabiat, mehnat, insoniy munosabatlar ekologik tarbiya vositasidir. Tabiat ekologik tarbiyaning muhim manbaidir. K.D.Ushinskiy tabiatni yosh avlod estetik tuyg‘ularining rivojlanishiga chuqur ta‘sir ko‘rsatadigan ajoyib tarbiyachidir, degan edi. Sayohat, sayr, tabiatga bag‘ishlangan san‘at asarlarini o‘rganish mazkur yo‘nalishdagi an‘anaviy faoliyatlardir. Biroq tabiat ichida bo‘lishning o‘zi etarli emas. Tabiatdagi go‘zallikni ko‘ra bilish, his etish lozim. Bunday qobiliyat asta-sekin rivojlanib boradi. Sayr, ekskursiya hamda maktab tajribaviy yer maydonchasida ishlash paytida o‘qituvchilar e‘tiborni tabiat boyliklariga, uning shaklidagi mukammalliklarga qaratish nafosat, tabiatni sevish ehtiyojigina bo‘lmay, shuningdek, uni ehtiyotlashdan ham iboratligini o‘quvchilarga tushuntirib borishlari lozim.

Ekologik dunyoqarash bugungi kunda shunday bir qadrlil sifat bo‘lib bormoqdaki mamlakat aholisining, mentalitetining bir ko‘rinishi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Albatta bu ekologik dunyoqarashni dastlabki tamal toshi ta‘lim jarayonidan boshlanadi. Ta‘lim jarayonida atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni nafaqat o‘rgatish balki, bunga ta‘lim beruvchilar ham amaliy jihatdan namuna bo‘lishlari lozimdir [2].

Ekologik dunyoqarashimizni o‘zgartirishimiz yoki oldingidek «Tabiatdagi barcha narsalar inson uchun xizmat qiladi» degan fikrdan voz kechib, endilikda «Tabiat bizning uyimiz, biz uning bir bo‘lagimiz, tabiatni asrab avaylashimiz lozim» degan shiorni, doimo dilimizda va tilimizda takrorlab unga amal qilishimiz kerak. Inson o‘zini tabiatni bir bo‘lagi va unga xamoxang ekanligini, tabiiy jarayonlarga aralashmasligi va tabiat qonunlarini buzmasligi, agarda bu qonunlar buzilsa misli ko‘rilmagan og‘ir oqibatlariga olib kelishini tushinib etishi kerak.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganlaridek «Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz axolisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo‘l qovushtirib o‘tirish o‘z-o‘zini o‘limga maxkum etish bilan barobardir» [3]. Shuning uchun ekologik madaniyat, ekologik bilimlar va tushunchalar xar bir insonga faqatgina

uning turmish tarzi yaxshilanishi uchun emas, balki uning tabiat bilan xamoxang bo'lishi uchun xam kerakdir. Ekologik madaniyat, bilim va ma'lumotga ega inson xech kachon tabiatga nisbatan salbiy munosabatda bo'lmaydi. Ekologik ta'lim o'quvchilarni tushunish, qadrlash va tabiatni muhofaza qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish uchun vositalar bilan ta'minlaydi. Ushbu turdagi mashg'ulotlar bilimlarni uzatishdan ko'ra ko'proq narsani anglatadi. Bu, shuningdek, ekologik qadriyatlar, sezgirlik va mas'uliyatni o'z ichiga olgan o'quv jarayonidir.

NATIJALAR

Barqarorlik tabiat chegaralarini hurmat qilish va kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlash g'oyasini o'z ichiga oladi. Bunga energiya tejashdan tortib, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga qadar bir qator ilovalar kiradi. Barqarorlik tabiiy resurslarning tugashining oldini olish, atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish va ekologik muvozanatni saqlash uchun zarurdir.

Barqarorlik mavzularini o'quv rejasiga kiritish: Ta'lim muasasalari o'z o'quv dasturlariga barqarorlik mavzularini kiritish orqali talabalarga mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlarni taqdim etishlari mumkin. Fan, geografiya va ekologiya fanlari kurslari atrof-muhit muammolari haqida xabardorlikni oshirish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ta'lim muasasalari bog'lari va maydonlari: Ta'lim muasasalari bog'lari o'quvchilarga tabiat bilan bog'lanish imkoniyatini beradi. Ta'lim muasasalari ekologik toza amaliyotlarni rag'batlantirish uchun bog'dorchilik loyihalarini tashkil qilishi mumkin. Talabalar o'zlarining oziq-ovqatlarini etishtiradigan talabalar bog'lari ularga barqarorlik sari birinchi qadamlarini qo'yishlariga yordam berishi mumkin [4].

Atrof-muhit loyiholari va tadbirlari: Ta'lim muasasalari ekologik loyihalar va tadbirlarni tashkil etish orqali talabalarning faol ishtirokini rag'batlantirishlari mumkin. Ushbu loyihalar chiqindilarni qayta ishlashdan tortib energiya tejashgacha bo'lgan bir qator mavzularni qamrab olishi mumkin.

EKO maktab dasturlari: EKO maktab dasturlari barqarorlik masalalarini maktablarning kundalik faoliyatiga integratsiya qilishga qaratilgan. Ushbu dasturlar maktablarga energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xabardorlikni oshirishga yordam beradi. EKO maktabi doirasida tabiatning qadr-qimmatini talabalarga eng mazmunli tarzda yetkazishga qaratilgan. O'tkazishda barcha kampuslar tomonidan namunali amaliyotlar amalga oshiriladi. Tabiatning barqaror va himoya qilinishi mumkinligini anglash talabalar uchun ham, maktab uchun ham katta qadamdir. Shu tariqa o'quvchilar atrof-muhit muammolarini o'rganish bilan birga, o'z oilalari va mahalliy hokimiyat organlarining xabardorligini oshirishda ham faol rol o'ynaydi.

MUHOKAMA

Barqarorlik ta'limining afzalliklari Talabalar uchun imtiyozlar: Barqarorlik ta'limi talabalar uchun juda ko'p afzalliklarni beradi. Ushbu ta'lim o'quvchilarda atrof-muhit haqida xabardorlikni rivojlantirishga, tabiiy dunyoni tushunishga va uni saqlash uchun mas'uliyatni o'z

zimmalariga olishga yordam beradi. Bundan tashqari, barqarorlik ta'limi talabalarga tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini beradi. Bu ko'nikmalar ularga nafaqat ekologik muammolarni, balki butun hayoti davomida duch kelishi mumkin bo'lgan boshqa qiyinchiliklarni ham engishga yordam beradi.

Ijtimoiy va ekologik hissalar: Barqarorlik ta'limi shaxslar va jamiyatlarga o'zlarining ekologik va ijtimoiy mas'uliyatlarini tushunishlariga va bu majburiyatlarni bajarishlariga yordam beradi. Ushbu trening talabalarni yanada ongli iste'molchi bo'lishga undaydi. Shuningdek, u ularni energiyani tejash, chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslarni tejash kabi ekologik amaliyotlarni qabul qilishga undaydi. Bu jamiyatning barqarorlik va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi sa'y-harakatlariga hissa qo'shadi [5].

Ko'proq ongli iste'mol: Talabalar resurslardan samaraliroq foydalanish odatiga ega bo'ladilar va ularning iste'mol odatlarini ko'rib chiqadilar.

Muammolarni hal qilish ko'nikmalari: Barqarorlik loyihalari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ijtimoiy mas'uliyat: Talabalar o'z jamoalari va dunyoga nisbatan mas'uliyatli shaxs bo'lish g'oyasini qabul qiladilar.

Kelajakga tayyorgarlik: Barqarorlik ta'limi talabalarni kelajak muammolariga tayyorlaydi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolar kabi global muammolar kelajak avlodlar duch keladigan asosiy muammolardir. Barqarorlik ta'limi talabalarni ushbu muammolarni hal qilish qobiliyati bilan ta'minlaydi va ularni ushbu muammolarga yechim ishlab chiqaradigan etakchilarga aylantiradi. Kelajakda barqarorlik haqida xabardorlik biznes, davlat boshqaruvi va boshqa ko'plab sohalarda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, barqarorlik ta'limi talabalarga kelajakka yaxshiroq tayyorgarlik ko'rish imkoniyatini beradi.

Barqaror kelajak uchun yosh yetakchilarni tarbiyalash

Barqarorlik ta'limi yoshlarni kelajak yetakchilari bo'lishga tayyorlashga yordam beradi. Ushbu trening yoshlarga nafaqat atrof-muhitga oid bilimlarni oshirish, balki yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Yoshlar barqarorlik muammolari haqida xabardorlikni oshirish va ekologik muammolarga yechimlar ishlab chiqarish orqali barqaror kelajak qurishga hissa qo'shmoqda.

Talabalarni faol ishtirok etish va etakchilikka rag'batlantirish: Barqarorlik ta'limi talabalarni faol ishtirok etishga undaydi va ularda etakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu kurs talabalarni ekologik loyihalar va jamoat tashabbuslarida ishtirok etishga undaydi. Talabalar atrof-muhit muammolaridan xabardor bo'lib, ushbu muammolarni hal qilishda etakchi rollarni o'z zimmalariga oladilar.

Yoshlarning global muammolarga qo'shgan hissasi: Barqarorlik ta'limi yoshlarni global muammolarga hissa qo'shishga undaydi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va boshqa ekologik muammolar butun dunyoga ta'sir ko'rsatadigan muammolardir. Ushbu trening yoshlarga ushbu muammolarni tushunish, yechim topish va xalqaro miqyosda mas'uliyatni o'z

zimmasiga olishga yordam beradi. Yoshlar nafaqat o‘z jamoalarida, balki global miqyosda ham ijobiy o‘zgarishlar qilish imkoniyatiga ega.

Ta‘lim muasasalarida barqaror rivojlanish bo‘yicha ta‘lim nafaqat o‘quvchilarning atrof-muhitga oid bilimlarini oshirishga yordam beradi, balki ularning kelajak uchun yanada ongli va mas‘uliyatli yetakchilar bo‘lib ulg‘ayishiga yordam beradi. Ushbu trening ekologik barqarorlik haqida xabardorlikni oshirish orqali sayyoramiz va insoniyat kelajagi uchun istiqbolli qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Ochilova B. Ekologiya va dunyoqarash (o‘quv qo‘llanma) / B.Ochilova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim vazirligi; — Toshkent:«Tafakkur» nashriyoti, 2013. - 152 b.
2. Azimova S.T., Toshkent davlat pedagogika universiteti «Umumiy pedagogika» kafedrasida o‘qituvchisi. Talabalarda ekologik madaniyatni shakillantirishning muhim xususiyatlari, ilmiy maqola Zamonaviy ta‘lim 2014-yil 6 b.
3. I.A. Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka taxdid, Barkarorlik Shartlari Va Taraqqiyot Kafolatlari» T.: Uzbekiston. 1997.
4. A.E.Ergashev, A.Sh.Sheraliev, X.A.Suvonov, T.A.Ergashev “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” T.: “Fan” nashriyoti 2009.
5. Abdunazarov L.M.-pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Qo‘qon DPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida mudiri. Ilmiy maqola, Diniy adabiyotlardan ekologik madaniyatni shakillantirish vositasi sifatida foydalanishning ahamiyati.
6. Usmonov, Rahmatillo “Poklik va ozodalik dini” mas‘ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur: — Toshkent: “Movarounnahr”, 2013. — 80 b.
7. Islom Karimov “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” T.: “Ma‘naviyat” 2009, 108 b.



EKOLOGIK KOMPITENTLIK-BIZ XOHLAGAN DUNYO UCHUN KERAK BO'LGAN TA'LIM

Abdunazarov Lutfulloxon Mamanovich

Qo‘qon universiteti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik kompetentlikni insonlar, talim jarayoni, atrof-muhit hamda kelajak uchun ahamiyatli bo‘lgan tomonlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ekologik ta'lim, sog‘lom muhit, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar, ekologik ta'limning tarkibiy qismlar., ekologik ta'lim afzalliklari.

Abstract. This article reveals aspects of environmental competence that are important for people, the educational process, the environment and the future.

Key words. environmental education, healthy environment, social and economic problems, components of environmental education, advantages of environmental education.

Абстрактный. В данной статье раскрываются аспекты экологической компетентности, важные для человека, образовательного процесса, окружающей среды и будущего.

Ключевые слова. Экологическое образование, здоровая окружающая среда, социально-экономические проблемы, компоненты экологического образования, преимущества экологического образования.

Kirish

Ekologik ta'lim hayot va jamiyatni o'zgartirish qudratiga ega. U ma'lumot beradi, ilhomlantiradi va munosabatlarga ta'sir qiladi. Bu harakatni rag'batlantiradi. Ekologik ta'lim ekologik harakatni kengaytirish va sog'lom va ko'proq fuqarolik jamiyatlarini yaratishda asosiy vositadir.

Atrof-muhit yer yuzidagi barcha hayotni ta'minlaydi. Bu bizga ozuqa va ilhom beradi. Iqtisodiyotimiz sog‘lom muhit asosida rivojlanmoqda. Ko'payib borayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabiatda o'tkaziladigan vaqt jismoniy va ruhiy foyda keltiradi. Bizning shaxsiy va madaniy o'ziga xosligimiz ko'pincha atrofimizdagi muhit bilan bog'liq. Shu bilan birga, global jamiyat sifatida biz duch kelayotgan misli ko'rilmagan ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar – iqlim o'zgarishi, turlar va yashash joylarining yo'qolishi, fuqarolar faolligining pasayishi, tabiatga kirishning qisqarishi, bor va yo'q o'rtasidagi tafovut va sog'lig'imiz, xavfsizligimiz va kelajakda omon qolishimiz uchun boshqa tahdidlar kun sayin ortib bormoqda.

Bu muammolarni oldini olish va tabiiy muhitni imkon qadar yaxshilash uchun jamiyatimizning har bir fuqarosida ekologik bilim, ekologik dunyoqarash bo‘lishi lozim.


Asosiy qism

Ekologik ta'lim - bu odamlarga, jamoalarga va tashkilotlarga atrof-muhit haqida ko'proq ma'lumot olish, atrof-muhitni o'rganish va unga qanday g'amxo'rlik qilishda yordam berishi mumkinligi haqida aqlli, ongli qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan jarayon.

Shu nuqtai nazardan qaraganimizda ekologik kompetentlikni zamiri ekologik ta'limga boriq tutashadi.

U hayotni va jamiyatni o'zgartirish qudratiga ega. U ma'lumot beradi va ilhomlantiradi. U munosabatlarga ta'sir qiladi. Bu harakatni rag'batlantiradi.

Ekologik ta'limning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:



Ekologik kompetentlik ma'lum bir nuqtai nazarni yoki harakat yo'nalishini qo'llab-quvvatlamaydi. Aksincha, ekologik kompetentlik odamlarga tanqidiy fikrlash orqali muammoning turli tomonlarini qanday tortishni o'rgatadi va bu ularning muammoni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

Ekologik kompetentlik nafaqat ta'lim jarayonida balki biz yashab turgan atrof muhitimiz uchun ham ahamiyati beqiyosdir.

Quyida ekologik kompetentlikning eng muhim 10 ta afzalliklari haqida to'xtalib o'tamiz:

Tasavvur va ishtiyoq kuchayadi

Ekologik kompetentlik - bu tasavvurni uyg'otadigan va ijodkorlikni ochadigan amaliy, interaktiv ta'lim. Ekologik kompetentlik o'quv rejasiga kiritilganda, talabalar ko'proq ishtiyoqli va o'rganish bilan shug'ullanadilar, bu esa o'quvchilarning asosiy akademik yo'nalishlardagi yutuqlarini oshiradi.

O'rganilgan bilimlarni amaliyotga ham tadbqiq qiladi.

Ekologik kompetentlik nafaqat auditoriyadan tashqarida tajribaviy o'rganish imkoniyatlarini taqdim etadi, balki talabalarga aloqa o'rnatish va o'z bilimlarini real dunyoda qo'llash imkonini beradi. Ekologik kompetentlik talabalarga ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy, madaniy va siyosiy masalalarning o'zaro bog'liqligini ko'rishga yordam beradi.

Tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari kuchayadi

Ekologik kompetentlik talabalarni tadqiqot qilishga, hodisalar qanday va nima uchun sodir bo'lishini o'rganishga va murakkab ekologik muammolar bo'yicha o'z qarorlarini qabul qilishga undaydi. Tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish orqali Ekologik kompetentlik axborotga ega iste'molchilar, ishchilar, shuningdek, siyosat yoki qaror qabul qiluvchilarning yangi avlodini tarbiyalashga yordam beradi.

Tolerantlik va tushunish qo'llab-quvvatlanadi

Ekologik kompetentlik talabalarni to'liq rasmni tushunish uchun muammolarning turli tomonlarini o'rganishga undaydi. U turli nuqtai nazarlar va turli madaniyatlarga nisbatan bag'rikenglikni targ'ib qiladi.

Bir nechta fanlar bo'yicha davlat va milliy ta'lim standartlari bajariladi

O'quv dasturiga Ekologik kompetentlik amaliyotini kiritish orqali o'qituvchilar fan, matematika, til san'ati, tarix va boshqalarni bitta boy dars yoki mashg'ulotga integratsiyalashlari va barcha fanlar bo'yicha ko'plab davlat va milliy akademik standartlarga javob berishi mumkin. Tashqarida dars o'tish yoki tabiatni yopiq joyga olib kirish fanlararo o'rganish uchun ajoyib fon yoki kontekstni ta'minlaydi.

Biofobiya va tabiat tanqisligi buzilishi kamayadi

Talabalarni tabiat bilan tanishtirish va ularga o'rganish va tashqarida o'ynashga imkon berish orqali Ekologik kompetentlik atrof-muhitga nisbatan sezgirlik, qadrlash va hurmatni rivojlantiradi.

Sog'lom turmush tarzini rag'batlantiradi

Ekologik kompetentlik talabalarni auditoriyada ham tabiat qo'ynida ham faollashtiradi va bugungi kunda bolalarda kuzatilayotgan ba'zi sog'liq muammolarini, masalan, semirish, diqqat etishmasligi buzilishi va depressiyani hal qilishga yordam beradi. Yaxshi ovqatlanish ko'pincha Ekologik ta'lim orqali ta'kidlanadi va tabiatda o'tkaziladigan vaqtning ko'payishi tufayli stress kamayadi.

Jamoalar mustahkamlanadi

Ekologik kompetentlik jamiyatni jalb qilish orqali joy va aloqa hissini rivojlantiradi. Talabalar ko'proq ma'lumot olishga yoki atrof-muhitni yaxshilash uchun chora ko'rishga qaror qilganlarida, ular mahalla mutaxassislari, donorlar, ko'ngillilar va mahalliy muassasalarga murojaat qilib, mahallaga ta'sir etuvchi ekologik muammolarni tushunish va hal qilish uchun jamiyatni birlashtirishga yordam beradi.

Atrof-muhitni yaxshilash uchun mas'uliyatli choralar ko'riladi

Ekologik kompetentlik talabalarga ularning qarorlari va harakatlari atrof-muhitga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi, murakkab ekologik muammolarni hal qilish uchun

zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni, shuningdek, atrof-muhitimizni sog‘lom va kelajak uchun barqaror saqlash uchun qanday choralar ko‘rishimiz mumkin.

Talabalar va o‘qituvchilar kuchga ega

Ekologik kompetentlik faol o‘rganish, fuqarolik va talabalar etakchiligini ta‘minlaydi. Bu yoshlarga o‘z ovozi baham ko‘rish va maktabda va o‘z jamoalarida o‘zgarishlar qilish imkonini beradi. Ekologik kompetentlik o‘qituvchilarga o‘zlarining ekologik bilimlari va o‘qitish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Umid qilamanki, ushbu "eng yaxshi o‘ntalik" imtiyozlar sizga Ekologik ta‘lim ni o‘quv dasturingizga kiritish uchun ishonch va majburiyat beradi!

Xulosa

Bugungi globallashtirish jarayonida ekologik muhitni yaxshilash va uni ertangi avlodga “sog‘lom” holatda yetkazish har bir davlatning eng ko‘p e‘tibor qaratadigan sohalaridan biridir. Ekologik muhitni sog‘lomlashtirish uchun davlat bilan birgalikda har bir fuqaro hamohang tarzda harakat qiladigan bo‘lsa olib borilayotgan harakatlar o‘z samarasini yanada sezilarli darajada ko‘rsatadi. Talim jarayonida ham talabalarga ekologik kompetentlikni turli hil mexanizmlar orqali chuqur singdirilar ekan, bu harakatlar umumjamoaviy harakatga aylana boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- To‘xtayev A. S. Ekologiya. Pedagogika institutlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. T., «O‘qituvchi», 1998. — 192 b.
- Ahmadul Ergashev, Temur Ergashev. “Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish” “Yangi asr avlodi”, 2005-yil.
- A.E.Ergashev, A.Sh.Sheraliev, X.A.Suvonov, T.A.Ergashev Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish T.: Fan nashriyoti 2009.
- Nigmatov A. N 53 Ekologiyani nazariy asoslari: o‘quv qo‘llanma / A. Nigmatov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – 268 b.
- Ochilova B. Ekologiya va dunyoqarash (o‘quv qo‘llanma) / B.Ochilova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim vazirligi; Toshkent:«Tafakkur» nashriyoti, 2013. - 152 b.
- Usmonov, Rahmatillo Poklik va ozodalik dini mas’ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur: Toshkent: Movarounnahr, 2013. 80 b.
- Azimova S.T., Toshkent davlat pedagogika universiteti «Umumiy pedagogika» kafedrası o‘qituvchisi. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim xususiyatlari, ilmiy maqola Zamonaviy ta‘lim 2014-yil 6 b.
- Abdunazarov L.M.-pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Qo'qon DPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası mudiri. Ilmiy maqola, Diniy

adabiyotlardan ekologik madaniyatni shakillantirish vositasi sifatida foydalanishning ahamiyati.

- Bo‘ronov Sherzod Sharofiddin og‘li “Talabalarni ekologik kompetentligini rivojlantirishda diniy-falsafiy meros namunalaridan foydalanishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish” PhD disertatsiyasi.

- 15th- International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany <https://conferencea.org> June 27th 2023 “ EDUCATION ON ECOLOGICAL VALUES”

- Buranov Sherzod Sharofiddin og‘li Kokan DPI Faculty of Natural Sciences Tutor

- International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England <https://conferencea.org> 25th June 2023 “ DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL EDUCATION TODAY” Boranov Sherzod Sharofiddin o‘gli Kokan DPI Faculty of Natural Sciences Tutor

- EDUCATIONAL AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF TEACHING ECOLOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS “Boranov Sherzod Sharofiddin O‘g‘li Tutor Of The Faculty Of Natural Sciences Of Kokan DPI, Uzbekistan”

- “ECOLOGICAL EDUCATION FOR STUDENTS AND THE CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY AND HEALTHY LIFESTYLE IN THE EDUCATIONAL STRUCTURE “ Bo‘ronov Sherzod Sharofiddin O‘G‘Li Kokan DPI Faculty Of Natural Sciences Tutor, Uzbekistan

- KASB-HUNAR TA‘LIMI Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma‘rifiy jurnal

- 2023-yil, 3-son Bo‘ronov Sh.Sh. “Ekologik kompetentlik: keng dunyoqarash va toza hayot sari yo‘l”

- Xalq ta‘limi O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI 2023-yil 3-son Sh. Sh. Bo‘ronov Ta‘lim muassasalarida ekologik ta‘lim va tarbiyaning vazifalari

- ENVIRONMENTAL BEHAVIOR CHANGE AND STUDENTS' ENVIRONMENTAL ATTITUDE Абдуназаров Лутфилло Маманович Doctor of Philosophy Pedagogical Sciences,



BO‘LAJAK TIBBIYOT XODIMLARINING FAVQULOTDA VAZIYATLARDA HARBIY TAYYORLOV XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Mahmudov Otamurod Hoshimovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti

Muzrapov Bunyod Sunatovich

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, Tabiiy, ijtimoiy fanlar va
Jismoniy madaniyat kafedrası assistenti*

Annotatsiya: Mazkur ishda bo‘lajak tibbiyot xodimlarining favqulodda vaziyatlarda harbiy tayyorlovga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Ishda zamonaviy tahdidlar va xavf-xatarlar sharoitida sog‘liqni saqlash tizimi vakillarining roli, ularning ekstremal holatlardagi harakatlarga tayyorligini oshirish zarurati asoslab berilgan. Harbiy-tibbiy tayyorlovni takomillashtirishda interaktiv metodlar, amaliy mashg‘ulotlar va simulyatsiya texnologiyalarining ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot davomida bo‘lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini favqulodda vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan integratsiyalashgan yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ish natijalari tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida harbiy tayyorlov tizimini rivojlantirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak tibbiyot xodimlari, favqulodda vaziyatlar, harbiy tayyorlov, favqulodda tibbiy yordam, professional tayyorgarlik, tibbiy bilim va ko‘nikmalar, vatanparvarlik tarbiyasi, mudofaa va xavfsizlik, amaliy mashg‘ulotlar, tibbiy-psixologik tayyorgarlik.

FORMATION OF MILITARY TRAINING FEATURES FOR FUTURE MEDICAL PROFESSIONALS IN EMERGENCY SITUATIONS

Abstract: This paper addresses the development of knowledge, skills, and abilities among future medical professionals regarding military training in emergency situations. The necessity of improving the readiness of healthcare system representatives to act under extreme conditions is substantiated, taking into account modern threats and risks. The significance of interactive methods, practical training, and simulation technologies in enhancing military medical training is highlighted. During the study, integrated approaches were developed to apply the professional competencies of future medical professionals in emergency conditions. The results have practical significance for the development of military training systems in higher medical education institutions.

Keywords: future medical professionals, emergency situations, military training, emergency medical care, professional training, medical knowledge and skills, patriotic education, defense and security, practical training, medical-psychological preparation.

ФОРМИРОВАНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ВОЕННОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ

Аннотация: В данной работе освещаются вопросы формирования знаний, умений и навыков будущих медицинских работников, касающихся военной подготовки в условиях чрезвычайных ситуаций. Обоснована необходимость повышения готовности представителей системы здравоохранения к действиям в экстремальных условиях с учётом современных угроз и рисков. Отмечена значимость интерактивных методов, практических занятий и технологий симуляции в совершенствовании военно-медицинской подготовки. В ходе исследования были разработаны интегрированные подходы, направленные на применение профессиональных компетенций будущих медицинских работников в условиях ЧС. Результаты работы имеют практическое значение для развития системы военной подготовки в медицинских высших учебных заведениях.

Ключевые слова: будущие медицинские работники, чрезвычайные ситуации, военная подготовка, экстренная медицинская помощь, профессиональная подготовка, медицинские знания и навыки, патриотическое воспитание, оборона и безопасность, практические занятия, медико-психологическая подготовка.

Kirish.

Hozirgi zamon murakkab va tezkor o‘zgaruvchan sharoitida har qanday mamlakat xavfsizligini ta’minlashda tibbiyot sohasining o‘rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, favqulodda vaziyatlar - tabiiy ofatlar, texnogen falokatlar, epidemiyalar yoki harbiy to‘qnashuvlar paytida tibbiyot xodimlarining tezkor va malakali harakati jamiyat hayotiy muhim ehtiyojlarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak mutaxassislarining nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalari, balki favqulodda holatlarda harbiy tayyorligi ham yetarli darajada shakllantirilishi zarur.

Bo‘lajak tibbiyot xodimlarini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash - bu nafaqat ularning tibbiy bilimini oshirish, balki jismoniy, psixologik va harbiy-texnik tayyorgarligini mustahkamlashni ham o‘z ichiga oladi. Harbiy tayyorlov jarayoni ularning ekstremal sharoitlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, tashkilotchilik, muloqot va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, harbiy tayyorlov elementlarini tibbiyot ta’lim tizimiga integratsiyalash orqali favqulodda vaziyatlarga qarshi kurashish samaradorligini

oshirish mumkin. Bu esa milliy xavfsizlik va fuqarolar salomatligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Global xavfsizlik muammolari ortib bormoqda So‘nggi yillarda tabiiy ofatlar, texnogen falokatlar, pandemiyalar, va qurolli mojarolar sonining ortib borayotgani tibbiyot xodimlarining nafaqat kasbiy, balki harbiy va favqulodda vaziyatlarga tayyor bo‘lishini taqozo etmoqda. Ayniqsa, urush holatlari, terrorizm xavfi va boshqa global tahdidlar tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimiga yangi talablar qo‘ymoqda.

Tibbiyot xodimlari – front ortidagi qahramonlar. Harbiy harakatlar davomida yoki favqulodda holatlarda birinchi yordam ko‘rsatuvchi shaxslar aynan tibbiyot xodimlaridir. Ularning tez, to‘g‘ri va jasoratli harakat qilishi ko‘plab inson hayotini saqlab qolishga xizmat qiladi. Shunday ekan, ularni oldindan favqulodda holatlarga va harbiy tayyorgarlikka o‘rgatish zarur.

Tibbiy ta'lim tizimiga integratsiyalash zarurati. Bo‘lajak tibbiyot xodimlarining harbiy tayyorgarlik ko‘nikmalarini rivojlantirish – bu zamonaviy tibbiy ta'limning ajralmas qismiga aylanishi kerak. Amaliy mashg‘ulotlar, simulyatsiyalar, shoshilinch yordam ko‘rsatish bo‘yicha treninglar ularning kasbiy salohiyatini oshiradi.

Vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish. Harbiy tayyorgarlik darslari bo‘lajak tibbiyot xodimlarining nafaqat kasbiy, balki vatanparvarlik tuyg‘ularini, fuqarolik burchiga sadoqatini ham oshiradi. Bu esa sog‘liqni saqlash tizimida fidokor, mas’uliyatli mutaxassislar yetishib chiqishiga xizmat qiladi.

Milliy xavfsizlik tizimining tarkibiy qismi sifatida tibbiyot. Harbiy-tibbiy xizmatlar har qanday mamlakatda milliy xavfsizlik tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Tibbiyot xodimlari shoshilinch evakuatsiya, epidemiya vaqtida karantin choralari tashkil qilish, urush paytida mobil tibbiy yordamni ko‘rsatish bo‘yicha tayyor bo‘lishi kerak.

Favqulodda vaziyatlar (FV) – bu odatda kutilmagan holda yuzaga keladigan, odamlar hayoti va salomatligiga tahdid soluvchi, shuningdek, muhim ijtimoiy-iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keluvchi hodisalardir. FVlarga tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, pandemiyalar), texnogen halokatlar (portlashlar, avariya) va ijtimoiy tushadigan favqulotda holatlar (urush, terroristik harakatlar) kiradi. Bunday holatlarda birinchi yordamni ko‘rsatish, jabrlanganlarni evakuatsiya qilish va ularni tibbiy jihatdan ta'minlash muhim masalalardan biridir.

Tibbiyot xodimlari, ayniqsa, FV sharoitida birinchi bo‘lib harakat qiladigan mutaxassislardandir. Shu boisdan, ularning favqulodda holatlardagi harakatlari harbiy tayyorlov elementlari bilan uyg‘un bo‘lishi zarur.

Bo‘lajak tibbiyot xodimlari uchun harbiy-tibbiy tayyorgarlik bu – nafaqat tibbiy bilimlarga, balki harbiy xizmatga tayyorlik, favqulotda holatlarda harakat qilish, ommaviy shikastlanishlarda yordam ko‘rsatish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Bu tayyorgarlik quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- harbiy intizom va irodaviy tayyorgarlik;
- radiatsion, kimyoviy, biologik xavf omillarida harakat qilish ko‘nikmalari;

- ommaviy evakuatsiya va tezkor tibbiy yordam ko‘rsatish texnikasi;
- harbiy tibbiyot texnikasidan foydalanish;
- tibbiy psixologiya va stressga chidamlilik.

Bo‘lajak tibbiyot xodimlari harbiy tibbiyot asoslarini o‘rganish orqali nafaqat oddiy tibbiy faoliyatga, balki murakkab, xavfli va noan‘anaviy sharoitlarda ishlashga tayyor bo‘ladi.

Hozirgi kunda oliy tibbiyot ta‘lim muassasalarida harbiy tayyorgarlik alohida o‘quv fani sifatida o‘qitilmoqda. Bu fanning mazmuni quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Harbiy tibbiyot asoslari;
- FV sharoitida birinchi yordam va sanitariya choralari tashkil etish;
- Tibbiy xizmatni tashkil etish va boshqarish;
- Harbiy tibbiyotda etik va huquqiy masalalar.

Amaliy mashg‘ulotlar davomida talabalar dala-o‘quv yig‘inlari, favqulodda holatlarda simulyatsiya asosida mashqlar, jamoaviy harakatlar va tezkor rejalashtirish bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qiladilar.

Bo‘lajak tibbiyot xodimlarining favqulotda vaziyatlardagi tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun quyidagi mezonlar muhim hisoblanadi:

- Nazariy bilimlar darajasi (testlar, yozma ishlar orqali);
- Amaliy ko‘nikmalar (birinchi yordam, evakuatsiya, gospitalizatsiya);
- Jismoniy tayyorgarlik va chidamlilik;
- Psixologik barqarorlik va stressga bardoshlik;
- Guruhda ishlash va boshqaruv ko‘nikmalari.

Mazkur mezonlar orqali talabalar bilimini muntazam ravishda tahlil qilish, ularning tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan takomillashtirish choralari ishlab chiqiladi. Dunyodagi ko‘plab ilg‘or davlatlarda (masalan, AQSh, Isroil, Germaniya) tibbiyot xodimlarining favqulodda holatlarga tayyorligini oshirishga katta e‘tibor qaratiladi. Maxsus treninglar, virtual simulyatsiyalar, urush zonalarida tibbiy yordamni o‘rganish imkoniyatlari mavjud. O‘zbekiston sharoitida ham bunday ilg‘or tajribalarni tahlil qilish va moslashtirish orqali ta‘lim sifati va tayyorgarlik darajasini oshirish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bo‘lajak tibbiyot xodimlarining favqulodda vaziyatlardagi harbiy tayyorgarligi – bu sog‘liqni saqlash sohasida ta‘lim olayotgan yosh mutaxassislarining nafaqat tibbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki ekstremal sharoitlarda harakat qilish, birinchi yordam ko‘rsatish, ommaviy talafot sharoitida koordinatsiyalashgan ish yuritish kabi muhim jihatlarga tayyor bo‘lishini nazarda tutadi. Bu masala ko‘plab ilmiy, metodik va amaliy adabiyotlarda ko‘tarilgan.

- Tibbiy xizmat va harbiy-tibbiy tayyorgarlik asoslari. N. P. Simonov, “Voenno-meditsinskaya podgotovka studentov meditsinskix vuzov” (2020) asarida harbiy-tibbiy tayyorgarlikning didaktik tamoyillari, mashg‘ulot shakllari va favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko‘rsatishning o‘quv jarayonidagi o‘rni keng yoritilgan. Ushbu asarda zamonaviy xavf-

xatarlar (terrorizm, tabiiy ofatlar, epidemiyalar) sharoitida tibbiyot xodimining harbiy tayyorgarligi zarurligi asoslab beriladi.

- Favqulodda vaziyatlar psixologiyasi va pedagogik yondashuvlar. A. A. Dyachenko va A. V. Kandybovich, “Psixologicheskaya gotovnost’ k deyatel’nosti v ekstremal’nyx usloviyax” (2018) nomli ilmiy ishda shaxsning psixologik barqarorligi va stressga qarshi chidamliligini oshirish metodikalari bayon etilgan. Bu jihatlar bo‘lajak tibbiyot xodimlarini tayyorlashda muhim, chunki ular inqirozli vaziyatlarda tez, aniq va sovuqqonlik bilan harakat qilishlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va normativ hujjatlari. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligining qo‘shma qarorlari asosida tibbiyot oliygohlarida harbiy-tibbiy tayyorgarlik o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan.

Amaliy ko‘nikmalar va simulyatsiya texnologiyalari. T. Q. Yo‘ldoshev va boshqalar, “Tibbiy simulyatsion ta‘lim asoslari” (2022) nomli o‘quv qo‘llanmasida favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, jarohatlarni baholash va zudlik bilan yordam ko‘rsatishga oid amaliy mashg‘ulotlar yoritilgan.

Tadqiqotning metodologik asosi:

Tizimli yondashuv – tibbiyot xodimlarini tayyorlash jarayonida harbiy, tibbiy, psixologik va pedagogik omillarni o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqish.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – har bir talabaning individual xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi va qiziqishlarini inobatga olish.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv – bo‘lajak tibbiyot xodimlarini real favqulodda vaziyatlarda mustaqil va tezkor harakat qilishga tayyorlash.

Tadqiqot metodlari. Empirik metodlar:

- Kuzatuv – harbiy-tibbiy mashg‘ulotlarda talabalar faoliyatini tahlil qilish;
- so‘rovnoma va suhbat – talabalar, o‘qituvchilar va amaliyotchi mutaxassislarning fikrlarini o‘rganish;
- tajriba – maxsus tayyorlangan mashg‘ulotlar orqali yangi o‘quv yondashuvlarining samaradorligini aniqlash.

Teoretik metodlar:

- tahlil va sintez – mavjud adabiyotlar, normativ hujjatlar va ilg‘or tajribalarni o‘rganish;
- taqqoslash – harbiy-tibbiy tayyorlovning boshqa mamlakatlar tajribasi bilan solishtirish;
- abstraksiyalash – nazariy model va tushunchalarni ishlab chiqish.

Statistik metodlar:

- olingan ma‘lumotlarni qayta ishlash, grafik va diagrammalar orqali taqdim etish;
- natijalarni matematik tahlil qilish (protsent, dispersiya, korelyatsiya va b.).

Tadqiqot bazasi

- tadqiqotning amaliy qismini o‘tkazish uchun quyidagi ta‘lim muassasalari (yoki ularning harbiy-tibbiy kafedralari) tanlanadi:

- tibbiyot institutlari/oliy o‘quv yurtlari;
- harbiy-tibbiy tayyorgarlik markazlari;
- favqulodda vaziyatlar bilan shug‘ullanuvchi tibbiy xizmatlar.

Eksperimental ishlar

Diagnostic bosqich: talabalar tayyorgarligining dastlabki darajasini aniqlash;

Tajriba-sinov bosqichi: yangi metodika asosida mashg‘ulotlar tashkil etish;

Nazorat bosqichi: o‘zgarish va yutuqlarni baholash, tahlil qilish.

Tahlil va natijalar. Favqulodda vaziyatlarning ko‘payishi: Tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, yong‘in), texnogen halokatlar (zavod-portlashlar, transport avariylari) harbiy mojarolar yoki terrorizm tahdidi — bularning barchasi tibbiyot xodimlarining ekstremal sharoitlarda harakat qilishga tayyor bo‘lishini talab qiladi.

Tibbiyot xodimlariga qo‘yilayotgan yangi talablar: Tibbiy bilim bilan bir qatorda, tezkor qaror qabul qilish, favqulodda psixologik bosim ostida ishlay olish, harbiy taktikani tushunish. Evakuatsiya, dala sharoitida yordam ko‘rsatish, o‘zini va bemorlarni himoya qilish ko‘nikmalari.

Amaldagi tayyorgarlik tizimining zaif tomonlari:

Tibbiyot kollejlari harbiy tibbiy tayyorgarlikka bag‘ishlangan darslar amaliyotdan ko‘ra nazariyaga yo‘naltirilgan. Real favqulodda holatlarga o‘xshatilgan mashg‘ulotlar yetarli emas. Ko‘pchilik o‘quvchilarda favqulodda vaziyatlarda muvozanatni saqlash, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari sust.

Harbiy-tibbiy tayyorgarlikni mustahkamlash zarurati: Bo‘lajak tibbiyot xodimlariga favqulodda holatlarda harakat qilishga oid maxsus kurslar joriy etilishi lozim. Harbiy-tibbiy o‘quv mashg‘ulotlari (simulyatsiya, dala sharoitida mashqlar) ko‘proq tashkil etilishi kerak.

Psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish: Stressga bardoshlilik, liderlik, tezkor baholash va qaror qabul qilish bo‘yicha treninglar zarur. Maxsus psixologlar bilan hamkorlikda tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Ta’limga amaliy yondashuvni kuchaytirish: O‘quvchilarni favqulodda vaziyatlarda ishlagan real tibbiyot xodimlari bilan uchrashtirish. Talabalarni qutqaruv xizmatlari bilan hamkorlikda amaliy mashg‘ulotlarga jalb etish. Tibbiyot kollejlari va oliy o‘quv yurtlari uchun favqulodda vaziyatlar bo‘yicha alohida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash lozim.

Xulosa. Bo‘lajak tibbiyot xodimlarini favqulodda vaziyatlarda faol va samarali harakat qilishga o‘rgatish, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tayyorgarlik nafaqat tibbiy bilimlarni, balki harbiy, taktik va psixologik tayyorgarlikni ham o‘z ichiga oladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, hozirgi kunda tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida favqulodda vaziyatlar va harbiy-tibbiy tayyorgarlik yo‘nalishida berilayotgan ta’limda tizimli yondashuv va amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor yetarli emas. Tibbiyot xodimlari favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko‘rsatish, ommaviy talafot holatida tezkor tashxis qo‘yish va harbiy-dala sharoitida ishlash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Bu esa maxsus o‘quv kurslari va interaktiv metodikalar orqali shakllantiriladi. Psixologik chidamlilik, stressni

boshqarish, jamoaviy ishlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati ham harbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi bo‘lib, ularni tibbiyot ta’limi jarayonida rivojlantirish zarur.

O‘quv dasturlarini takomillashtirish: Tibbiyot OTMlarida "favqulodda vaziyatlar va harbiy tibbiy tayyorgarlik" fanlarini mustaqil modul sifatida joriy etish va ularni amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitish.

Amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish: Harbiy-tibbiy simulyatsion mashg‘ulotlar, dala sharoitidagi o‘quv mashg‘ulotlari (trenajyorlar, evakuatsiya mashqlari va b.)ni muntazam o‘tkazish.

Hamkorlikni kuchaytirish: Mudofaa vazirligi, FVV (Favqulodda vaziyatlar vazirligi) hamda tez yordam xizmatlari bilan hamkorlikda maxsus kurslar, seminar va treninglar tashkil etish.

Psixologik tayyorgarlik: Talabalarda stressga bardoshlilik, ekstremal vaziyatda harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus psixologik treninglar o‘tkazish.

Innovatsion metodlarni joriy etish: AR (augmented reality), VR (virtual reality), video simulyatsiyalar kabi zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq qilish.

Baholash tizimini takomillashtirish: Bo‘ljak tibbiyot xodimlarining harbiy tayyorgarlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish va reyting tizimini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularga javob berish bo‘yicha davlat tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir).
3. Galimova Liliya. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda va sodir bo‘lganida aholini ko‘chirish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2011.
4. Musaev A.Sh. Favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari. – Toshkent: 2021.
5. Salixov R. Aholini muhofaza qilish asoslari, Toshkent, 2019.
6. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining rasmiy veb-sayti –
7. www.fvv.uz
8. Muratova Sh. N., "Social aspects of preparing adolescent boys for family life," Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan, pp. 91–95, 19.00.00 No. 10.
9. Muratova Sh. N., "Scientific and theoretical basis of the problem of preparing children for family life and its state of education," Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan, pp. 82–86, 19.00.00 No. 10.
10. Muratova Sh. N. and Otan, "Place in foster care," Education, Science and Innovation, Scientific Newsletter, no. 5, pp. 82–86, 2022.
11. Muratova Sh. N., "Socio-psychological aspects of preparing boys for family life," SamDU Scientific News Release, ISSN: 2091 5446, no. 6 (124), pp. 100–105,

12. Muratova Sh. N., "The socio-psychological capabilities of premarital parents in preparing young people for family life," Scientific Journal of Psychology of BUH DU, ISSN: 2181-5291, no. 3, pp. 84-90, 2021.

13. Muratova Sh. N., "Analysis of theoretical approaches to the pedagogical and psychological education of boys in the family," Nam DU Scientific News Release, ISN: 2181, no. 6, pp. 409-415, 2019.

14. Muratova Sh. N., "Problems of youth for family life," Mental Health and Education Journal, pp. 282-291.

15. Muratova Sh. N., "Socio-psychological issues of preparing young men for family life," Journal of Educational Research, ISSN: 2660-5562, vol. 2, no. 3, pp. 27-30, March 2021. [Online]. Available: <https://scholarzest.com>.



TALABALARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNINING METODIK TAVSIFI VA ULARNING TURLARI

Amanov Akmal Aripjonovich

Namangan davlat chet tillari instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda mazkur kompetensiyaning tarkibiy qismlari (bilim, emotsional va amaliy komponentlar) aniqlab berilgan hamda uni rivojlantirishda qo‘llaniladigan samarali pedagogik yondashuvlar, jumladan dialogik metodlar, roli o‘yinlari, multimedia vositalari va loyihaviy faoliyat usullari tavsiflangan. Shuningdek, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining kognitiv, aksiologik va pragmatik turlari asoslab berilgan. Maqola oliy ta‘lim jarayonida talabalarda xalqaro madaniy muhitda samarali faoliyat yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo muloqot, kommunikatsiya, madaniy tushuncha, bilvosita uslub, no-verbal kommunikatsiya, bilim komponenti.

METHODOLOGICAL DESCRIPTION OF THE CONTENT AND TYPES OF DEVELOPING STUDENTS' INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE

Annotation This article highlights the methodological foundations for the development and formation of students' intercultural communication competence. The study identifies the structural components of this competence namely, the cognitive, emotional, and practical elements and describes effective pedagogical approaches used to foster it. These include dialogical methods, role-playing, multimedia tools, and project-based learning strategies. Furthermore, the article substantiates the classification of intercultural communication competence into cognitive, axiological, and pragmatic types. The findings serve as both theoretical and practical guidance for developing students' skills in engaging effectively within an international cultural environment in higher education contexts.

Keywords: intercultural communication, communication, cultural understanding, indirect style, non-verbal communication, cognitive component.

МЕТОДИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ И ВИДОВ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация В данной статье освещены методические основы формирования и развития межкультурной коммуникативной компетенции студентов. В исследовании раскрываются структурные компоненты данной компетенции когнитивный, эмоциональный и практический а также описываются эффективные педагогические подходы, применяемые для её развития, включая диалоговые методы, ролевые игры, использование мультимедийных средств и проектную деятельность. Кроме того, в статье обоснованы типы межкультурной компетенции: когнитивная, аксиологическая и прагматическая. Полученные результаты служат теоретической и практической основой для формирования у студентов навыков эффективной деятельности в международной культурной среде в условиях высшего образования.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, коммуникация, культурное понимание, косвенный стиль, невербальная коммуникация, когнитивный компонент.

Kirish. Globallashuv jarayonida turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlash zaruriyati ortib bormoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi muhim ko‘nikma hisoblanadi. Bu kompetensiya nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki boshqa madaniyatlarga nisbatan tolerant munosabatni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli, talabalarda mazkur kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish jarayoni ilmiy-metodik asosda olib borilishi kerak. Ushbu maqolada madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining mazmuni, uni shakllantirishning metodik tavsifi va turlarini ochib berish maqsad qilingan.

Uslublar (Methods)

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- Tahlil va sintez – mavjud ilmiy adabiyotlar asosida madaniyatlararo muloqot tushunchasining mazmunini ochib berish uchun.
- Pedagogik kuzatuv – talabalarning muloqot faoliyatini kuzatish orqali amaliy ma’lumotlar to‘plash.
- Eksperiment – metodik tavsif asosida ishlab chiqilgan dars ishlanmalari sinovdan o‘tkazildi.
- So‘rovnoma va suhbat – talabalar va pedagoglarning fikrlarini aniqlash uchun.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Bilim komponenti – turli madaniyatlar haqida umumiy tushunchalarga ega bo‘lish.
2. Emotsional komponent – boshqa madaniyat vakillariga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lish.
3. Amaliy komponent – madaniyatlararo muhitda samarali muloqot qila olish ko‘nikmasi.

Metodik tavsif asosida quyidagi uslublar samarali deb topildi:

- Dialogik metodlar (fikir almashish, debatlar).
- Roli o‘yinlari (turli madaniy kontekstlarda rollarni bajarish).
- Multimedia vositalaridan foydalanish (film, video, infografika orqali madaniyatlararo sahnalarni tahlil qilish).
- Loyihaviy yondashuv (xalqaro mavzularda guruh loyihalari tayyorlash).

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining quyidagi turlari aniqlab berildi:

1. Kognitiv kompetensiya – nazariy bilimga asoslangan kompetensiya.
2. Aksiologik kompetensiya – qadriyatlar asosida shakllangan ijobiy munosabat.
3. Pragmatik kompetensiya – real vaziyatlarda amaliy muloqot qilish qobiliyati.

Munozara (Discussion)

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bir yo‘nalishda emas, balki kompleks yondashuvni talab etadi. Mazkur kompetensiya nafaqat o‘quv jarayoniga, balki talabalar hayotiy faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular talabalarni faol fikrlash va boshqa madaniyatga nisbatan ochiqlikka undaydi.

Xulosa (Conclusion)

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi – bu zamonaviy talabaning ajralmas fazilatidir. Uni rivojlantirish uchun aniq metodik tavsif va turli pedagogik yondashuvlar zarur. Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar talabalarning ushbu kompetensiyasini tizimli rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- [1] Deardorff, D. K. (2006). Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. *Journal of Studies in International Education*.
- [2] Spitzberg, B. H., & Changnon, G. (2009). Conceptualizing intercultural competence. In D. K. Deardorff (Ed.), *The SAGE Handbook of Intercultural Competence*.
- [3] Hofstede, G. (2001). *Culture's consequences: Comparing values, behaviors, institutions and organizations across nations*.
- [4] Chen, G.M., & Starosta, W.J. (1996). *Intercultural communication competence: A synthesis*. Communication Yearbook.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINING BOLALAR MUSIQA VA SAN‘AT MAKTABLARI TA‘LIM SAMARADORLIGIGA QO‘SHGAN HISSASI

Astanova Zumradxon Toxirovna
ADPI Doktoranti
zumradastanova@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada “Tiflopedagogika vositasida o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini rivojlantirish metodlari” mavzusi doirasida Bolalar musiqa va san‘at maktablarida tahsil olayotgan ko‘zi ojiz o‘quvchilar ishtirokida olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining ta‘lim samaradorligiga qo‘shgan hissasi haqida fikrlar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Tajriba-sinov, musiqa nazariyasi, solfedjio, Brayl nota, ko‘zi ojiz, Tiflopedagogika, metodlar.

Абстрактный: В статье изложены размышления о вкладе в образовательную эффективность педагогической экспериментальной работы, проводимой с участием незрячих учащихся, обучающихся в детских музыкальных и художественных школах в рамках темы «Методика развития музыкальной грамотности учащихся средствами тифлопедагогики».

Ключевые слова: Эксперимент-тест, теория музыки, сольфеджио, азбука Брайля, слепые, тифлопедагогика, методика.

Abstract: This article presents the contribution of pedagogical experimental work conducted with the participation of blind students studying in children's music and art schools to the effectiveness of education within the framework of the topic "Methods for developing students' musical literacy through typhlopedagogy".

Keywords: Experimental testing, music theory, solfeggio, Braille notation, blind, Typhlopedagogy, methods.

Kirish: yosh avlodni estetik jihatdan tarbiyalashda musiqaning o‘rni beqiyos. Yurtimizda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida ko‘plab Bolalar musiqa va san‘at maktablari faoliyat ko‘rsatadi. Iqtidorli o‘g‘il-qizlar umumta‘lim maktablari bilan birgalikda ushbu san‘at maktablarida ham tahsil oladilar. Ijodkor bolalar o‘zlarining xulq-atvori, odobi, xushfe‘lligi bilan boshqa bolalardan ajralib turadilar. Ulardagi ushbu ijobiy fazilatlarni musiqa va san‘at maktablaridagi jonkuyar o‘qituvchilari shakllantiradi. Mazkur ta‘lim muassasasidagi ustozlar samimiyligi, nafis qalb egasi ekanligi bilan boshqa soha ustozlaridan farq qiladilar.

Bolalar musiqa va san‘at maktablarida o‘ziga xos muhit yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, maktab devorlaridagi milliy va zamonaviy uyg‘unlikdagi dekaratsiyalar, yosh rassomlarning ijod namunalari, sinf xonalardan taralayotgan turli cholg‘ularning xilma-xil ohanglari, ustoz va shogirdlarning o‘zaro iliq munosabati, o‘quvchilarning shovqin-suronsiz xatti-harakatlari mujassamlikda o‘zgacha bir olamni aks ettiradi. O‘quvchilar bu yerda o‘zlarining tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha dars jadvali asosida zarur fanlarni o‘zlashtiradilar. Har bir fan bo‘yicha darslik, qo‘llanma va fan dasturi mavjud. Pedagoglardan o‘z ustida doimiy ishlashlari, malaka oshirishlari, attestatsiya imtihonlaridan o‘tishlari talab etiladi. Shuningdek bu yerda ham boshqa ta‘lim muassasalari kabi dars mashg‘ulotlarida samarali natijalarga erishish uchun zamonaviy, noan‘anaviy, innovatsion metodlarga ehtiyoj seziladi. Amaliyotga tatbiq etilishi ko‘zda tutilgan yangi metodlar dars jarayonida pedagogik tajribadan o‘tkazilgandagina uning samaradorligi aniqlanadi. Ana shunday metodlardan biri Tiflopedagogik metodlar bo‘lib, uning tatbiq etilishi bugungi kunda zamon talabidir.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi: Davlatimiz rahbari ko‘zi ojiz yoshlarning ta‘lim-tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratib, bu borada bir nechta qarorlar imzolaganlar. Jumladan, 18.04.2022-sanadagi “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta‘lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-209-sonli qarorida: “Madaniyat vazirligi (O.Nazarbekov), Xalq ta‘limi vazirligi (B.Saidov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda “Nurli maskan” maktablarida san‘at (musiqa) yo‘nalishini rivojlantirish, o‘quvchilarning san‘at yo‘nalishidagi iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida ularni hududlardagi musiqa va san‘at maktablariga biriktirsin” [1] deya ko‘rsatma berganlar. Shunday bo‘lsa-da bugungi kunda ko‘zi ojiz bolalarning musiqa savodi bo‘yicha sifatli ta‘lim olishlarida o‘z yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Ayni chog‘da Brayl nota yozuvini biladigan, musiqa sohasidan chiqqan tiflopedagoglar va Brayl nota yozuvi asosida chop etilgan darsliklar mavjud emas. Masalaning echimi sifatida eng avvalo musiqa Tiflopedagogikasi yo‘nalishi yo‘lga qo‘yilishi va bu yo‘nalishda kadrlar tayyorlanishi zarur.

“Tiflopedagogika - (yunoncha so‘z bo‘lib, “Tuphlos – ko‘r”, “Paidia – bola”, “Gogos – yetaklovchi”, ya‘ni, “Ko‘zi ojiz bolani yetaklovchi” degan ma‘noni anglatadi [2. 4]. Ko‘rish qobiliyati zaif bolalarni o‘qitishda ularga barmoqlari sezgisini oshirish bilan birgalikda Brayl harflari o‘rgatiladi.

Tiflopedagogika ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta‘lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi fan sifatida, bugungi kunda keng targ‘ib etilayotgan, davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan sohalardan biridir. Biroq ko‘zi ojizlar ta‘limining musiqa yo‘nalishi boshqa sohalardan ancha ortda qolib ketgan. kerakli adabiyot va darsliklarning yo‘qligi tufayli ko‘rishda imkoniyati cheklangan bolalar hamon og‘zaki metod orqali musiqiy ta‘lim olib kelmoqdalar.

Musiqi va san‘at maktablarida nogiron bolalarni o‘qitish muammosi hozirgi paytda jamiyatimizning dolzarb muammolaridan sanaladi. Ushbu toifadagi bolalarning sog‘lom bolalar bilan bir qatorda to‘liq ta‘lim jarayoniga qo‘shilishiga imkon beradigan zarur shart-sharoitlarni ta‘minlash bilan bog‘liq muammolarni hal qilish juda muhimdir” [3. 146]. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni o‘qitayotgan Bolalar musiqa va san‘at maktablariga metodik ko‘mak berilishi zarur. Chunki bu turdagi bolalarni o‘qitish uchun alohida shart-sharoit va tiflopedagogik metodlarni qo‘llash ijobiy natija beradi.

“Imkoniyati cheklangan, shu jumladan, ko‘zi ojiz insonlar jamiyatning ajralmas bir bo‘lagi sifatida insoniyat tomonidan tan olinishi, e‘tibor ko‘rsatilishi va ko‘mak berilishi muhim ahamiyatga egadir” [4. 880].

XVII XVIII Asrlarda evropalik Tiflopedagoglar ko‘zi ojizlar ta‘limida musiqaning roli katta deb hisoblaganlar. “O‘z ish jarayonida V. Gayui asosiy e‘tiborni musiqiy ta‘limga qaratadi. o‘quvchilarga Klavesin, Klavekord, Fortepiano kabi sozlarni chalish, shuningdek, xorda kuylash o‘rgatilar” [5. 16]. Lui Brayl esa, Brayl yozuvi bilan birgalikda Brayl nota yozuvini ham yaratgan. U yaxshi musiqashunos bo‘lgan va o‘quvchilariga motivatsiya sifatida musiqadan foydalangan.

Insoniyat hayotida zamon va makonlar o‘zgarishi mumkin, lekin musiqaning inson ongiga bo‘lgan ta‘siri o‘zgarmaydi. Ayniqsa yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda musiqadan unumli foydalanish pedagog va tarbiyachiga yaxshi ko‘makdosh bo‘ladi. Musiqa o‘quvchilarni faollikka undaydi.

“Ta‘lim jarayonida faollik o‘quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o‘z qobiliyatini namoyon etishga yo‘llaydi. Bilishga bo‘lgan faollik o‘quvchining intellektual rivojlanishini ta‘minlaydi” [6. 14].

Muhokama va natijalar: Bolalar musiqa va san‘at maktablarida o‘tkazilgan “Tiflopedagogika vositasida o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini rivojlantirish metodlari” mavzusi doirasidagi pedagogik tajriba-sinov ishlari muassasada ta‘lim olayotgan ko‘zi ojiz bolalarning musiqa nazariyasi va solfedjio fanini o‘zlashtirishlaridagi mavjud muammolariga yechim topdi. Tajriba-sinov ishining maqsadi – Musiqa nazariyasi va solfedjio faniga tiflopedagogik vositalarga tayangan holda yangi metodlarni joriy etish orqali ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning musiqa savodxonligini o‘rganishda duch keladigan qiyinchiliklarini bartaraf etish, ushbu fanga qiziqishlarini kuchaytirish, intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta‘lim sifatini oshirish hamda o‘quvchilarning bilim darajasini yuqori bosqichga olib chiqishdan iborat deb belgilandi.

Tajriba-sinov ishining vazifalari sifatida quyidagi ishlar bajarildi:

- Bolalar musiqa va san‘at maktablarida ta‘lim olayotgan ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarning musiqa ta‘limiga oid muammolari o‘rganildi.

- Bolalar musiqa va san‘at maktablarida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarga musiqa nazariyasi va solfedjio fanidan ta‘lim berayotgan pedagoglar faoliyati bilan tanishib, dars tahlillari o‘tkazildi.

- Dastlabki so‘rovnoma orqali o‘quvchilarning bilim darajasi aniqlandi.
- Sinflar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.
- Musiqa nazariyasi va solfedjio fani o‘qituvchilari bilan hamkorlikda tajriba guruhlarining dars jarayoniga yangi musiqiy-tiflopedagogik metodlar tatbiq etildi.
- Belgilangan ma‘lum muddatdan so‘ng tajriba va nazorat guruhlari o‘quvchilarining bilimlari yakuniy so‘rovnoma orqali yana sinovdan o‘tkazilib, ular o‘zaro taqqoslandi va olingan natijalar umumlashtirildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishi obekti sifatida Toshkent shahar 17-son, Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahar 3-son, Andijon viloyati Asaka tumani 22-son Bolalar musiqa va san‘at maktablarida tahsil olayotgan ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar olindi. Pedagogik tajriba-sinov ishi 4 bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqichda o‘ziga xos vazifalar amalga oshirildi:

1. Tashxis va bashorat qilish bosqichi:

1.1. Pedagogik diagnostika obyekti sifatida tegishli ta‘lim muassasasi tanlab olindi.

1.2. Tajriba-sinov maqsadi, vazifalari, ilmiy farazi hamda tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi.

1.3. Musiqa nazariyasi va solfedjio fani bo‘yicha dars tahlillari o‘tkazildi. Tahlil natijalariga ko‘ra ushbu fan o‘qituvchilarining dars jarayonida Brayl nota yozuvini o‘quvchilarga o‘rgatish borasida qiyinchiliklar mavjudligi aniqlandi.

1.4. O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlari va bilim darajalarini aniqlash maqsadida ular bilan dastlabki so‘rovnoma o‘tkazildi. Ushbu so‘rovnomada BMSMning 1-2-3-sinf o‘quvchilari ishtirok etdilar. Olingan javoblar umumlashtirilib tahlil qilindi. Natijaga ko‘ra o‘quvchilariga Brayl nota yozuvi savodxonligini hamda nazariy bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash bo‘yicha musiqiy-tiflopedagogik metodlarni joriy etish zarurligi aniqlandi.

2. Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi:

2.1. Tajriba-sinovda ishtirok etuvchi sinflar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

2.2. Tiflopedagogika vositasida ko‘zi ojiz o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini rivojlantirish metodlari bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun metodik ta‘minot ishlab chiqildi.

2.3. Tadqiqotchi tomonidan fan o‘qituvchilariga

Brayl nota yozuvini o‘rgatish va mustahkamlash, musiqa savodxonligiga oid mavzularni tushuntirishda yangi tatbiq etilayotgan metodlar yuzasidan online va offline shaklda muntazam ravishda metodik tavsiyalar berib borildi hamda dars amaliyotiida foydalanish uchun magnit doska va magnit toshlari taqdim etildi.

3. Amaliy bosqich:

3.1. Tajriba-sinov ishlari tajriba guruhlarida bosqichma-bosqich olib borilib, yangi tiflopedagogik metodlar musiqa nazariyasi va solfedjio fani darslariga tatbiq etildi.

3. 2. Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari muntazam yozib borildi.

4. Umumlashtiruvchi bosqich:

4.1. Tajriba-sinov ishida ishtirok etgan Tajriba va Nazorat guruhlari bilan yakuniy so‘rovnoma o‘tkazildi.

4.2. Tajriba-sinov ishlari umumlashtirilib natijalash algoritmi ishlab chiqildi.

4.3. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining aprobatitsiyasi sifatida 2 ta ilmiy maqola va 1 ta tezis chop etildi.

4.4. Tajriba-sinov ishlarining natijalariga asosan ta’lim jarayonining o‘quv dasturiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida takliflar berildi. Natijada Bolalar musiqa va san’at maktablaridagi ko‘zi ojizlar uchun maxsus sinflarining Musiqa nazariyasi va solfedjio fani bo‘yicha o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini tiflopedagogik metodlar yordamida rivojlantirish uchun asos yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, tajriba-sinov ishi natijalarini amaliyotga tatbiq etish mumkin deb topildi. Tadqiqotchi tomonidan olib borilgan “Tiflopedagogika vositasida o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini rivojlantirish metodlari” mavzusidagi dissertatsiya ishi ko‘zi ojizlar musiqa savodxonligining eng og‘riqli nuqtasini hal etishga hamda o‘qitish amaliyoti ehtiyojini qondirishga qaratilgan. belgilangan fan bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish natijasida olingan tadqiqot samarasi bu yo‘nalishdagi ta’lim sifatini mutlaqo yangi bosqishga olib chiqdi va ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan yosh avlodni komil inson sifatida kamol toptirish hamda ularning sog‘lom insonlardek jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga, davlat va yurt xizmatida bo‘lishdek sharaflari vazifalarni amalga oshirishlariga ko‘mak berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh..M. “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-209-son. 18.04.2022. <https://lex.uz/docs/-5966089>

2. “Tiflopedagogika”. Tibbiy va salomatlik haqida sayt.

<https://medlife.uz/encyclopedia/t/tiflopedagogika/>.

3. Abdurahmonovich, Q. V., & Toxirovna, Z. A. (2025). BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABLARIDA KO‘ZI OJIZ BOLALARNI O‘QITILISHIGA OID AYRIM MULOHAZALAR. TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(4), 146-150.

4. Astanova, Z., & Baratov, M. (2022). IMKONIYATICHEKLANGAN (KO’ZIOJIZ) YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA MOSLASHTIRISH YO ‘LLARI. Science and innovation, 1(B6), 878-882.

5. Dangalov S. Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati, Toshkent – 2010. 16-b.

6. Baratov, M. (2024). TECHNOLOGIES FOR WORKING WITH GIFTED BLIND CHILDREN. Science and innovation, 3(B10), 10-16.



UMUMIY TA‘LIM TIZIMIDA FONOMORFOLOGIYANI YOZMA NUTQ MANBALARI ASOSIDA O‘QITISH

Asatullayeva Dilnavoz Jondullayevna
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
Tayanch doktoranti
e-Mail: dilnavozasatullayeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy ta‘lim tizimida fonomorfoloigiyanı o‘qıtısh masalalari, xususan, og‘zaki nutq manbalaridan samarali foydalanısh yo‘llari yoritiladi. Fonomorfologik birliklarning og‘zaki nutqda namoyon bo‘lishi va ularni aniqlash, tahlil qilish orqali o‘quvchılarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantırish muhimligi asoslab beriladi. Shuningdek, amaliy misollar asosida dars jarayonida fonomorfologik tahlilni tashkil etishning metodik jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: fonomorfoloigiya, umumiy ta‘lim, og‘zaki nutq, lingvistik kompetensiya, fonologiya, morfologiya, til o‘qıtısh, til tahlili, nutq manbalari, metodika, fonetik o‘zgarish, dars jarayoni.

Abstract. This article explores the teaching of phonomorphology in the general education system, with a particular focus on the effective use of oral speech sources. It highlights the significance of identifying and analyzing phonomorphological units as they appear in spoken language to enhance students’ linguistic competence. The paper also discusses methodological approaches to conducting phonomorphological analysis in the classroom through practical examples.

Keywords: phonomorphology, general education, oral speech, linguistic competence, phonology, morphology, language teaching, language analysis, speech sources, methodology, phonetic variation, classroom activities.

Абстрактный. В статье рассматриваются вопросы преподавания фономорфологии в системе общего образования, в частности, пути эффективного использования ресурсов устной речи. Обоснована важность развития языковой компетенции учащихся посредством проявления фономорфологических единиц в устной речи, их выявления и анализа. Также на основе практических примеров будут рассмотрены методические аспекты организации фономорфологического анализа на уроке.

Ключевые слова: фономорфология, общее образование, устная речь, языковая компетенция, фонология, морфология, преподавание языка, анализ языка, источники речи, методика, фонетическая вариативность, аудиторная деятельность.

Kirish. Hozirgi ta’lim jarayonida ona tilini chuqur o‘rgatish nafaqat o‘quvchilarning savodxonligini oshirish, balki ularning mantiqiy tafakkuri, og‘zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayonda fonetika va morfologiyaning o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilishi, ya’ni fonomorfologik bilimlar asosida til qurilishining ichki qonuniyatlarini anglash katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘zbek tilining fonetik boyligi va morfologik tizimidagi o‘ziga xos hodisalar o‘quvchilar uchun mustahkam nazariy va amaliy bilim manbai bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchilarning grammatik tafakkurini shakllantirishda so‘zning morfemalarga ajralishi, morfemalarning talaffuzda va yozuvda qanday o‘zgarishga uchrashi, morfologik shakllarning fonetik muhitga moslashuvi kabi jarayonlarni o‘rgatish juda muhimdir. Bu bilimlar nafaqat darsliklarda berilgan nazariy ma’lumotlar orqali, balki ularni hayotiy nutqiy misollar, tahlillar, muloqotga asoslangan topshiriqlar orqali singdirish orqali samaradorlik kasb etadi.

Maktabda fonomorfologiyani o‘rganish orqali o‘quvchilar til birliklarining yuzaki shakli emas, balki ichki tuzilmasini tushunadi. Bu esa ularni faqat ona tili darslarida emas, balki boshqa fanlarda ham tahliliy fikrlashga, aniq ifodalanishga va og‘zaki-yozma nutqda to‘g‘ri foydalanishga yo‘naltiradi. Shu bois, fonomorfologik bilimlarning umumta’lim maktablarida o‘qitilishi, ularning metodik asosda o‘zlashtirilishi dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur maqolada aynan fonomorfologiyani umumiy o‘rta ta’lim maktablarida samarali o‘qitish masalasi o‘rganiladi. Mavzuning metodik asoslari, dars jarayoniga integratsiyalash usullari, zamonaviy yondashuvlar va mashq turlari orqali o‘quvchilarda fonetik-morfologik sezgirlikni shakllantirish imkoniyatlari tahlil etiladi.

Morfonologiya – ma’lum bir tilning fonologik xususiyatlaridan to‘liq olinmagan morfemalarning tuzilishi, fonemik tarkibi va o‘zgarish qonuniyatlarini, shuningdek, tilga xos bo‘lgan morfologik tabiat hodisalari yig‘indisini o‘rganadigan bo‘lim sanaladi. Morfonologiyaning fan sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu boshqa fanlarga qaraganda uning “yoshligi”dir. Yana boshqa bir xususiyati esa turli tilshunoslik maktablari vakillari tomonidan morfonologik hodisalarni talqin qilishning muqarrar ravishda morfologiya va tushunchalarga o‘zaro bog‘liqligi hisoblanadi. Ushbu maktablarda o‘rganilgan fonologiya bu morfonologiyaning predmeti, uning chegaralari, morfonologiyada o‘ziga xos tavsif birliklarining mavjudligi va ularning tabiati kabi asosiy masalalar bo‘yicha umume’tirof etilgan nazariy pozitsiyalar va kelishmovchilikning deyarli to‘liq emasligidir. Morfonologiya til birliklarining ifodalanish rejasi va uning o‘zgarishi bilan shug‘ullanuvchi soha sanaladi. Tabiiy tillarda so‘zlar va ularning o‘xshashlari (morfema komplekslari) tuzilgan komponentlarning ko‘rinishi pozitsion sharoitga qarab muntazam ravishda o‘zgarib turadi. Shaklning o‘zgarishi boshqa xarakterga ega bo‘lishi mumkinligi sababli, morfonologik o‘zgarishlarning o‘ziga xosligi nima ekanligini darhol aniqlab qarash kerak.

Morfonologiya sohasi, shubhasiz, birinchidan, turli sinflarga mansub morfemalarning tuzilishini o‘rganishni, ikkinchidan esa, tilda mavjud bo‘lgan morfologik almashinish tizimini

tavsiflashni o‘z ichiga qamrab oladi. Biroq bu sohalarning birinchisida haqiqatdan ham muhim ilmiy natijalarga erishish mumkinmi, bu hali aniq emas.

Talaffuz qulayligiga intilishimiz tufayli nutq jarayonida tovushlar zanjirida turli fonetik o‘zgarishlar yuz beradi. Masalan, *oq* so‘zi asosiga –*gach* qo‘shimchasini qo‘shsak, asos oxiridagi chuqur til orqa *q* dan so‘ng til orqa *g* undoshi kelib, chuqur til orqa tovushidan til orqa tovushiga birdaniga o‘tishi qiyinlashadi. Talaffuz noqulayligi yuzaga keladi. Ana shu noqulaylikni bartaraf qilish, qulaylikka erishish uchun ikkinchi tovush ham chuqur til orqa tovushiga aylantiriladi:

Oqqach, ekkani so‘zlari kabi.

Fonema so‘z va morfemalar ichida yashaydi. Bundan kelib chiqadiki, fonemalar so‘z va morfemalarning ichida diskret element sifatida o‘zaro sintagmatik munosabatda bo‘ladi. Har bir tilda so‘z va morfemalarning ma‘lum fonetik strukturasi tiplari bor. Ammo bu masala shu kungacha tilshunoslikda yetarlicha o‘rganilmadi. Misol qilib keltiradigan bo‘lsak, qizil+ar – qizar, bilak+i- bilagi kabi so‘zlaridagi morflari bir morfemaning turli ma‘lum pozitsiyaga xoslangan turli variantlaridir. Bu hodisalar fonologiyaning ham, morfologiyaning ham tekshirish obyektiga kirmaydi. Chunki fonologiyaning vazifasi bu – ma‘lim tildagi fonemalar miqdori va sistemasini belgilashdan iborat bo‘lsa, grammatika esa grammatik ma‘no va uning ifodalanish vositalari haqidagi ta‘limotdir.

Morfologik almashinishlar o‘z-o‘zidan fonetika bo‘limiga taalluqli bo‘lib qolmaydi, chunki bu yerda hech qanday fonetik o‘zgarish yo‘q. Shuning uchun ham fonetik almashinishning xarakterli xususiyatlariga alohida e‘tibor berib, uni tilshunoslikning qaysi bo‘limda tekshirish kerakligini aniqlash lozim.

Bilamizki, tovush almashinuvi uzoq vaqtlardan buyon tilshunoslar tomonidan o‘rganib kelinadi. Qiyosiy tilshunoslik ilk taraqqiyot bosqichidayoq tovush o‘zgarishlariga katta e‘tibor bergan. Ayniqsa, german tili tadqiqotchilari bu sohada yetakchi o‘rinda turganlar. Chunki tovush almashinuvi german tillari morfologiyasida asosiy o‘rin egallar edi.

N.S.Trubetskoy morfonologiya nazariyasi quyidagi uch bo‘limni o‘z ichiga olishi kerakligini ko‘rsatadi:

1. Morfemaning fonologik strukturasi haqidagi ta‘limot.

2. Morfemalar o‘zaro birikkanda, morfema tarkibida yuz beradigan tovushlarning kombinator o‘zgarishlari haqidagi ta‘limot.

3. Morfologik funksiya bajarmaydigan tovush almashinuvi haqidagi ta‘limot.

Bu uch bo‘limdan faqat birinchisi hamma tillar uchun bir xil ahamiyatga egadir.

Bunga ko‘ra morfonologiyaning birinchi vazifasi har qanday tildagi o‘zak, affiksalar morfemalarning fonetik (fonologik) sturukturalarini o‘rganishdir. Darhaqiqat, o‘zak va affiks morfemalarning fonologik strukturasi o‘rganish ma‘lum bir tilning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishda katta ahamiyatga ega. Chunki ayrim undosh va unli fonemlarning u yoki bu morfemada qo‘llanilishi cheklangan.

Fonomorfologiya — tilshunoslikda fonetik va morfologik birliklar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘rganadigan muhim yo‘nalishdir. Maktabda bu yo‘nalishni o‘rgatish orqali o‘quvchilarda tildagi tovush-morfema munosabatini anglash, grammatik birliklarning shakllanishi va o‘zgarish qonuniyatlarini tushunishga imkon yaratiladi. Shu bois, fonomorfologiyani bosqichma-bosqich, amaliy va nazariy asosda o‘rgatish zarur. Maktabda ona tili o‘qitishning bosh maqsadi tilning jamiyatda tutgan o‘rni, bajarayotgan vazifasi bilan belgilanadi. Ma’lumki, til jamiyat a’zolari o‘rtasida aloqa-aralashuv vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma ravishda bayon qila olish, o‘z ichki kechinmalarini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. [A.G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 8-bet]

Maktabda fonomorfologiyani o‘rganish o‘quvchilarni so‘z yasashga, so‘zning yangi shakllarini hosil qilishda o‘rgatish, so‘z zahiralarini oshirish, so‘zdan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish malakalarini kengaytirish borasidagi bilimlarini mustahkamlaydi. Maktab o‘quvchilari uchun fonomorfologik bilimlar:

- so‘z tuzilishini anglashda;
- yaxshi talaffuz va yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishda;
- grammatik birliklarni tahlil qilishda;
- og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishda juda muhim.

Shuningdek, bu bilimlar orqali lingvistik tafakkur, ya’ni tilni anglab, tahlil qilish qobiliyati shakllanadi.

1. Fonomorfologiyani maktab dasturiga integratsiya qilish

Amaldagi o‘zbek tili fanining o‘quv dasturlarida fonomorfologik bilimlar bevosita bo‘lmasa-da, fonetika va morfologiya mavzulari doirasida bilvosita yoritiladi. Shuning uchun:

- 5–6-sinflarda so‘z tuzilishi, qo‘shimchalar va morfemalar,
- 7–9-sinflarda fonetik o‘zgarishlar va ularning grammatik shakllanishga ta’siri,
- 10–11-sinflarda murakkab fonomorfologik tahlillarga o‘tiladi.

2. Maktab sharoitida fonomorfologik tahlil usullari

a) Tovush–morfema tahlili:

O‘quvchilar so‘zlarni morfemalarga ajratib, har bir morfemaning talaffuzi qanday tovush o‘zgarishiga uchraganini aniqlaydi.

Masalan: o‘q+chi, bor+di, kitob+lar.

b) Qiyosiy tahlil usuli:

Yozma va og‘zaki shakllar solishtiriladi. Fonetik o‘zgarishlar belgilanadi:

Masalan: yozma – kitobim bor, og‘zaki – kitobimbor.

c) Mashqlar orqali anglash:

Maxsus tuzilgan mashqlar orqali fonetik va morfologik birliklarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash topshiriqlari beriladi.

3. O‘quvchilar kompetensiyasini shakllantirish yo‘llari

Fonomorfologiyani o‘rgatish orqali o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

- lingvistik kompetensiya – tildagi birliklarni anglash;
- analitik fikrlash – so‘z tuzilishidagi qonuniyatlarni aniqlash;
- nutq madaniyati – og‘zaki va yozma nutqda tildan to‘g‘ri foydalanish.

4. Dars shakllari va metodlari

Innovatsion metodlar:

- “Morfema ovlash” o‘yini – o‘quvchilar matndan morfemalarni topadi va fonetik tahlil qiladi;
- “Tovush izlab top” metodi – fonetik o‘zgarishlar asosida morfemani aniqlashga qaratilgan;
- “Qaysi qo‘shimcha?” metodi – qo‘shimchalar fonetik muhitga qarab qanday shakllangani tahlil qilinadi.

Interfaol texnologiyalar:

- QR kod orqali eshittirishlar,
- Online testlar va mashqlar (Quizlet, Wordwall),
- Matnli tahlil platformalari (Google Forms, Jamboard).

Fonomorfologiyani maktabda o‘qitish — nafaqat fonetika va morfologiyani chuqur o‘rganish, balki o‘quvchilarning umumiy til sezgirligini rivojlantirish uchun muhim bosqichdir. Bu borada:

- Mavzularni dars rejasiga integratsiya qilish lozim;
- Og‘zaki va yozma nutq asosidagi mashqlarga alohida e‘tibor berish zarur;
- Metodik qo‘llanmalar va mashq to‘plamlari ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

Xulosa. Shuni aytish joizki, fonomorfologiyani o‘quvchilarga o‘rgatish – tilni puxta egallashga, ayniqsa uning ichki qonuniyatlarini anglashga xizmat qiluvchi muhim bosqichdir. O‘zbek tilining fonetik va morfologik tizimi o‘ziga xos hodisalarga boy bo‘lib, so‘zlarning shakllanishi jarayonida fonetik o‘zgarishlar bilan morfemalarning o‘zaro aloqasi alohida tahlilni talab qiladi. Shu bois, tilshunoslikning ushbu sohasini o‘quvchilarga yetkazish, ularning til sezuvchanligini, lingvistik tafakkurini va grammatik bilimi sifatini oshiradi.

Fonomorfologik hodisalarni o‘rganish orqali o‘quvchilar yozma va og‘zaki nutqda uchraydigan grammatik birliklarning o‘zgarish sabablari va shakllanish mexanizmlarini chuqurroq tushunadi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning savodxonlik darajasini oshiradi, og‘zaki muloqotda aniqlik va ifodalilikni ta‘minlaydi, yozma ishlarida grammatik xatolardan xoli bo‘lishlariga yordam beradi.

Shuningdek, maktabda fonomorfologiyani o‘rgatishda foydalaniladigan metodlar – analitik, qiyosiy, amaliy mashq asosidagi va interaktiv yondashuvlar – dars jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchini faol o‘quvchi-subyektga aylantirish, mustaqil fikrlash va tahlil qilishga o‘rgatishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan, multimediya vositalaridan, platforma asosidagi mashqlardan foydalanish o‘quvchilarni qiziqtirish va mavzuni ongli o‘zlashtirish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, fonomorfologik bilimlarning o‘quvchilarga bosqichma-bosqich, tizimli va metodik asosda yetkazilishi o‘zbek tilining nafaqat grammatika bo‘limida, balki umuman til o‘rgatish jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada o‘qituvchining o‘quvchilar yoshi, bilim darajasi, qobiliyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda metodik yondashuvni tanlashi, zamonaviy dars texnologiyalarini qo‘llashi dolzarb sanaladi.

Kelgusida fonomorfologiyaga oid o‘quv-metodik qo‘llanmalar, mashq to‘plamlari, didaktik materiallar yaratish, shuningdek, bu yo‘nalishda o‘qituvchilarni maxsus malaka oshirish dasturlari orqali tayyorlash zarurati mavjud. Zero, til – tafakkur, tafakkur esa jamiyat taraqqiyotining asosiy vositasidir. Shunday ekan, fonomorfologiyani o‘rgatish faqat bir fan doirasida emas, balki o‘quvchini ongli, savodli, tafakkurli shaxs qilib shakllantirishga xizmat qiluvchi keng qamrovli jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D. “Tilshunoslikka kirish”. – T.: Fan, 2020.
2. G‘aniyeva N. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. – T.: TDPU, 2019.
3. Tojiboyeva M. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”. – T.: O‘qituvchi, 2016.
4. Yusupova M. “O‘quvchilar til tafakkurini rivojlantirish”. – T.: TDPU, 2018.
5. Richards J.C., Rodgers T.S. “Approaches and Methods in Language Teaching”. – Cambridge, 2014.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATIDA OLINMA SO‘ZLARINING BERILISHI

G‘iyos Do‘stmurodov

IPU Samarqand kampusi dotsent v.b.,

Zarifa Abduraimova

*Filologiya va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili)
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2022/2023-yillarda nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi “D” harfiga doir o‘zlashmalar aniqlanib, ularning qaysi tillardan kirib kelganligi, qaysi sohaga doir olinmalar mavjudligi borasida fikr bildirilgan. Shuningdek, maqolada o‘zlashma so‘zlarning statistik tahlili ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: lug‘at, lug‘at turlari, lug‘at xususiyatlari, o‘zlashmalar, lingvistika, lug‘at turlari, termin, derevatsiya, atamalar, olinma so‘zlar.

TRANSLATION OF BORROWED WORDS IN THE EXPLANATORY DICTIONARY OF THE UZBEKISTAN LANGUAGE

Abstract: This article identifies borrowings related to the letter "D" in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language" published in 2022/2023, and provides an opinion on which languages they came from and which areas of borrowings they belong to. The article also presents a statistical analysis of borrowed words.

Keywords: dictionary, dictionary types, dictionary features, borrowings, linguistics, dictionary types, term, derivation, terms, borrowed words.

ПЕРЕВОД ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ В ТОЛКОВОМ СЛОВАРЕ УЗБЕКИСТАНСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В данной статье определяются заимствования, связанные с буквой «Д» в «Толковом словаре узбекского языка», изданном в 2022/2023 годах, и дается мнение о том, из каких языков они произошли и к каким сферам заимствований относятся. В статье также представлен статистический анализ заимствованных слов.

Ключевые слова: словарь, типы словарей, особенности словаря, заимствования, языкознание, типы словарей, термин, деривация, термины, заимствованные слова.

Kirish. Lug‘at – bu so‘zlar to‘plami bo‘lib, ularning ma‘nolari, imlosi, talaffuzi, kelib chiqishi yoki boshqa xususiyatlari haqida ma‘lumot beradi. Lug‘atlar yozma va og‘zaki nutqni

to‘g‘ri, aniq va boy qilishda muhim vositadir. Lug‘at yangi so‘zlarni o‘rganish, ularning ma‘nosini tushunish va to‘g‘ri ishlatish uchun asosiy manba hisoblanadi. Ayniqsa, xorijiy til o‘rganayotganlar uchun lug‘at – eng muhim vosita. Soha terminlariga oid lug‘atlar (huquqiy, tibbiy, texnik va h.k.) mutaxassislar uchun muhim manbadir. Ular orqali fikrni aniq va tushunarli ifoda qilish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilining izohli lug‘ati bu – tilning so‘z boyligi, grammatik tuzilishini, ma‘nolarini, va ularning o‘zaro bog‘liqligini tushuntirib beradi. **Izohli lug‘atning muhim jihatlari quyidagilardan iborat:**

1. So‘zning ma‘nosini tushuntiradi. Izohli lug‘at har bir so‘zning lug‘aviy (asosiy) ma‘nosini batafsil tushuntirib beradi. Bu so‘zning qanday holatlarda va qanday kontekstda ishlatilishini anglashga yordam beradi. Masalan, “yurak” – odam va hayvonlarda qon aylanishini ta‘minlaydigan mushakli a‘zo.

2. So‘zning turdosh ma‘nolarini ko‘rsatadi. Bir so‘z bir nechta ma‘noga ega bo‘lishi mumkin. Izohli lug‘atda bu ma‘nolar tartib bilan, har birining ishlatilishiga misollar bilan beriladi. Masalan, “ildiz” – 1) o‘simlikning yer osti qismi; 2) (ko‘chma ma‘no) asos, negiz, sabab.

3. So‘zning uslubiy rangini ko‘rsatadi. So‘zlar rasmiy, og‘zaki, sheva, poetik, kinoya yoki so‘kinish ohangida bo‘lishi mumkin. Izohli lug‘atda bular maxsus belgilab qo‘yiladi. Masalan, “bola-chaqa” – og‘zaki uslubda ishlatiladi.

4. So‘zning qo‘llanish doirasini belgilaydi. Izohli lug‘at so‘zning ilmiy, texnik, adabiy, xalqona yoki shevaga oid ekanini ko‘rsatadi. Bu esa so‘zni to‘g‘ri joyda ishlatishga yordam beradi.

5. So‘z birikmalari va iboralarni keltiradi. Ko‘p hollarda so‘zlar mustaqil holatda emas, balki iboralar tarkibida ishlatiladi. Izohli lug‘at ana shu iboralarni ham misol keltirib tushuntiradi. Masalan, “ko‘z ochib yumguncha” – juda qisqa fursat ichida degani.

6. So‘zning morfologik xususiyatlarini ko‘rsatadi. So‘z qaysi so‘z turkumiga kirishi, qanday o‘zgarishi (yig‘indisi, ko‘plik shakli, fe‘lning zamoni va h.k.) haqida ma‘lumot beradi. Masalan, “yozmoq” – fe‘l, harakatsizlikni bildiradi, zamonlarda o‘zgaradi.

7. Adabiy tilni o‘rganishga yordam beradi. Izohli lug‘at so‘zlarning adabiy normalar asosida qanday ishlatilishini o‘rgatadi. Bu esa yozma va og‘zaki nutqni madaniyatli va boy qiladi.

8. O‘zbek tilining boyligini ko‘rsatadi. Izohli lug‘atlar tilimizdagi minglab so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Bu orqali foydalanuvchi o‘zbek tilining keng imkoniyatlari va boy merosi bilan tanishadi.

Tahlil va natijalar. Dunyoda lug‘atchilik tarixi qadimgi ming yillikka borib taqaladi. Jumladan, o‘zbek lug‘atchiligi tarixi ham bir necha ming yillar avval shakllana boshlagan. O‘zbek lug‘atchiligining rivojlana boshlashi XI asrga to‘g‘ri keladi va bunga misol tariqasida Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-turki” asarini olishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda o‘zbek lug‘atchiligining shakllanishiga ilk marta tamal toshini qo‘ydi desak

mubolag‘a bo‘lmaydi. Til bo‘yicha yana bir qancha shoirlar ham o‘z asarlarida fikr bildirib o‘tishadi. Xususan, XII asrda yashab ijod qilgan buyuk turk shoiri va mutafakkiri Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida tilning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritadi. Shuningdek, Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning imkoniyatlarini ochib beradi. Turkiy tildan forsiy tilga o‘gan so‘z(yabu, shirdoq)lar va qo‘shimcha(-chi shaxs oti yasovchisi) haqida to‘xtalib otadi. Bu esa bir tildan ikkinchi tilga so‘z o‘tish barcha davrlarda mavjud bo‘lgan hodisa ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbek tili so‘z boyligi jihatidan juda boy bo‘lib, uning lug‘aviy tarkibini asliy turkiy so‘zlar, arab, fors va rus tillaridan olingan so‘zlar, so‘nggi yillarda esa ingliz va boshqa zamonaviy tillardan kirib kelgan so‘z va terminlar tashkil etadi.

Til doimiy ravishda rivojlanadi. Yangi so‘zlar paydo bo‘ladi, eski leksemalar esa tarixda qoladi yoki ularning ma‘nosi o‘zgaradi. Bu jarayon lingvistikadagi o‘zgarishlarni, dialektlarni, leksik va grammatik yangiliklarni o‘z ichiga oladi. So‘zlarning ko‘payishi lug‘atshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi, shu sababli terminlarni o‘zlashtirish jarayonida lingvistikaning o‘ziga xosligini saqlash va neologizmlarni imkon qadar ona tiliga moslashtirish zarur. O‘zbek tili ikki xil boyish xususiyatiga ega, ya’ni ular ichki va tashqi yo‘llar orqali boyib boradi.

Ichki manba – o‘zbek tilining o‘z ichki imkoniyatlari hisobiga rivojlanishi va lug‘at boyligining ortishi quyidagilarga bog‘liq: qadimgi turkiy tillar, mahalliy sheva va lahjalar, tilining so‘z yasash imkoniyatlari.

Tashqi manba – boshqa tillardan so‘z olish asosida boyib boradi. O‘zbek tilining tashqi manbalar asosida boyish tarixiy-ijtimoiy va madaniy jarayonlar ta’sirida yuz beradi. Bular diniy atamalar, axloqiy va falsafiy tushunchalar, texnik terminlar, texnologiya va IT, beznes va iqtisodiyot, ijtimoiy tarmoq va ommaviy madaniyat kabi asosiy bosqichlarda amalga oshadi. O‘zlashmalar bu boshqa tillardan ona tiliga kirib leksik boyligimizning bir qismiga aylangan so‘zlardir. Qo‘shimcha qilib aytganda, bunday terminlarni ko‘plab sohalarda uchratishimiz mumkin.

Ilmiy tadqiqot o‘tkazganimizda o‘zbek tilining izohli lug‘atida “D” harfi bo‘yicha jami 559 ta so‘z o‘zlashgani aniqlandi. Bunday o‘zlashmalarning asosiy qismi fors tiliga to‘g‘ri keladi. Quyida ularning ayrimlarini keltiramiz:

T/r	O‘zlashgan tillar	So‘z soni	Foizda
1	forscha	250	44,72
2	lotincha	95	16,99
3	arabcha	75	13,42
4	yunoncha	48	8,59
5	fransuscha	41	7,33

6	ruscha	19	3,40
7	inglizcha	15	2,68
8	nemischa	5	0,89
9	gollandcha	4	0,72
10	mo‘g‘ulcha	3	0,54
11	xitoycha	1	0,18
12	hindcha	1	0,18
13	urducha	1	0,18
14	yaponcha	1	0,18
Jami		559	100 %

Forscha o‘zlashmalar: Ular asosan, hunarmandchilikga doir so‘zlar hisoblanadi. Masalan, **dastarra** – qo‘larr; **dastgoh** – asbob-uskuna, stanok. *Men ham to‘quvchi kosiblar dastgohida ishlab turibman.*

Lotincha o‘zlashmalarlarning bir qanchasi ilmiy terminlardir. Jumladan, **defektologiya** – “defectus” – nuqson, “logos” – fan, ta’limot; **dekan** – “decanus” – o‘nboshi, o‘nta jangchining boshlig‘i, oliy o‘quv yurtida fakultetning rahbari. *To‘rdagi stol yonida dekan, Zafar Hakimovich Hakimov, o‘tiribdi.*

Arabcha o‘zlashmalar asosan diniy atamalar bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: **dahriy** – asriy; materialist, xudosiz, ateist; **duo** – iltijo, chaqirish, da’vat; **diniya** – diniya nazorati, diniy nazorat. *Men bu gapni, mozor buzilishini, eshitib Toshkentga bordim. Diniya nazorati ham ruxsat etdi.*

Yunoncha o‘zlashmalarning asosiy qismi fizika, matematikaga oid terminlar hisoblanadi. Jumladan, **diaganal** – “diagonios” – burchakdan burchakka boruvchi; **diagramma** – diagramma-chizma, rasm, shakl; **dinamika** – “dynamikos” – kuchga oid: kuchli, mexanikaning jismlar mexanik harakatini ularga ta’sir qiladigan kuchlar bilan bog‘lab o‘rganadigan bo‘limi. Harakat holati, o‘sinh – rivojlanish, voqea-hodisadagi jo‘shqinlik.

Fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ayrimlari texnologiya sohasiga tegishli. Masalan, **detal** – “detail” – tafsilot, mukammallik; **dekoratsiya** – “decoration” – bezamoq, bezatmoq.

Ruscha o‘zlashmalarning asosiy qismini huquq va boshqaruv yo‘nalishidagi terminlar qamrab oladi. **delo** – (delat – “qilmoq”, “bajarmoq”) so‘zidan olingan. Hujjatlatning yig‘ma jildi; **duma** – o‘y, fikr. O‘tmish chor Rossiyasida turli davlat muassasalarining nomi. Hozirgi Rossiyada esa quyi palata nomi.

Ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlar, asosan texnologiya va IT sohasiga tegishli terminlardir. Masalan, **disketa** – “diskette” – kichik disk; **displey** – qayta ko‘rsatmoq; **drayver** – haydovchi, kompyuter, planshet, skaner, printer kabi qurilmalarning ishlashi uchun zarur bo‘lgan dasturiy ta‘minot, maxsus dastur.

Nemischa o‘zlashmalarning deyarli barchasi texnika va muhandislikga oid atamalar hisoblanadi. Jumladan, **dizel** – suyuq yonilg‘ining og‘ir turlari; **drel** – drillbohrer – burg‘i, parma; **drezina** – “draisine” nemiz ixtirochi injener Dreza (Drais) ismidan. Temir yo‘l izlarida uncha uzoq bo‘lmagan masofaga borishga mo‘ljallangan qo‘l kuchi yoki motor bilan yurgiziladigan to‘rt g‘ildirakli arava. *Biz xuddi shu yerda drezinada (metroning) “Oybek” stantsiyasigacha yo‘l olamiz.* (Gazetadan)

Gollandcha o‘zlashmalar to‘rt dona bo‘lib, ularning ikkitasi muhandislik va qurilishga oid so‘zlar: **damba** – dam-qirg‘oqlardagi ko‘tarma; **domkrat** – “dommekratch” texnika, mashina, vagon kabi og‘ir narsalarni sozlash-qurish va ta‘mirlashda o‘z ustiga qo‘yiladigan og‘irliklarni vaqtinchalik ma‘lum balandlikka ko‘tarib beradigan mexanizm. Geometriyaga oid: **dok** – kema ustaxonasi va o‘lchov birligi; **dyum** – (duim-bosh barmoq) o‘tmishda Rossiyada va hozir Angliyada 25,4 millimetrga teng uzunlik o‘lchovi.

Mo‘g‘ul tilidan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlar jami uch tani tashkil etib, ularning barchasi turli xil sohalarga mansub. Masalan, **dalaylama** – “dalay” – donishmand, “lama – din peshvosi” XVI asrdan boshlab Tibet ruhoniylariga berilgan unvon.

Xitoy, hind, urdu hamda yapon tillaridan o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlar bittadan bo‘lib, jami to‘rt tani tashkil qiladi. Xitoycha **daosizm** “dao” – qonun, tamoyil. Qadimgi Xitoyda keng tarqalgan ilg‘or falsafiy qarashlar tizimi: shu falsafadan kelib chiqqan dinlardan biri. Hindcha **dakki** – hind “dhakka” – zarb, turtki: iztirob, nojoya ish xatti-harakat uchun aytilgan achchiq gap, qattiq tanbeh, ta‘zir. Urducha **duho‘l** – katta nog‘ora. Harbiy yurishlarda ovga chiqishdan oldin chalinadigan qadimiy do‘l, nog‘ora. Yaponcha **dzyudo** “dzyu – yumshoq, do – yo‘l” sportning yaponcha milliy yakka kurash turi, o‘z-o‘zini himoya qilish tizimi.

Xulosa o‘rnida keltirish mumkinki, bugungi kunda zamon bilan birga nutqimizdagi so‘zlar ham zamonaviylashib bormoqda. Neologizmlar jamiyat va davr ehtiyoji bilan paydo bo‘ladi va qo‘llanilishi bo‘yicha doimiylik tusini oladi va bir tilning lug‘at boyligini sezilarli oshishiga ta‘sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. –Toshkent. 2022-yil.
2. “O‘zbek tili izohli lug‘ati”. –Toshkent. 2022-yil.
3. Nabiyeva N. “O‘zbek tili leksikasining tarixiy bosqichlari”. Humanities and Social Sciences 2022.
4. “O‘zbek tili leksikologiyasi “.–Toshkent, 1981.
5. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” . –Toshkent, 2006.
6. Avdiev V.I. “Qadimgi sharq tarixi”.1993-yil. B.130.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY BAHOLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Qudratova Muxlisa To‘lqin qizi

*ToshDO‘TAU o‘zbek tili va adabiyot ta’limi kafedrası
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs magistranti
@kudratovamuhlisa@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tili fanining chegaralangan leksika, frazeologiya va nisbat kategoriyasi kabi mavzularida zamonaviy baholash texnologiyalaridan foydalangan holda topshiriqlar ishlab chiqishning metodik asoslari va amaliy qo‘llanilishi yoritiladi. Baholash mezonlari va natijalarini tahlil qilish asosida talabalar fikrlash faolligini oshirish va o‘quv natijalari samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rsatiladi. Maqolada zamonaviy baholash texnologiyalari yordamida tayyorlangan topshiriq namunalariga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy baholash texnologiyalari, formativ baholash, frazeologiya, chegaralangan leksika, nisbat kategoriyasi, baholash mezonlari.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОЦЕНИВАНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО СОВРЕМЕННОМУ УЗБЕКСКОМУ ЛИТЕРАТУРНОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. В статье освещаются методические основы и практическое применение разработки заданий с использованием современных технологий оценивания по таким темам современного узбекского литературного языка, как ограниченная лексика, фразеология и категория залога. На основе анализа критериев оценки и результатов демонстрируются возможности повышения мыслительной активности студентов и эффективности результатов обучения. В статье особое внимание уделяется примерам заданий, подготовленных с применением современных технологий оценивания.

Ключевые слова: современные технологии оценивания, формативное оценивание, фразеология, ограниченная лексика, категория залога, критерии оценки.

UTILIZING MODERN ASSESSMENT TECHNOLOGIES IN CONTEMPORARY UZBEK LITERARY LANGUAGE CLASSES

Abstract. This article explores the methodological foundations and practical applications of developing assignments using modern assessment technologies in the field of modern Uzbek

literary language, focusing on topics such as restricted vocabulary, phraseology, and the category of voice. Based on the analysis of assessment criteria and results, the article demonstrates opportunities for enhancing students' cognitive activity and improving the effectiveness of learning outcomes. Special attention is also given to sample assignments prepared using modern assessment technologies.

Keywords: modern assessment technologies, formative assessment, phraseology, restricted vocabulary, category of voice, assessment criteria.

KIRISH. Bugungi kunda oliy filologik ta'lim tizimida fanlarni o'qitishda zamonaviy baholash texnologiyalarini qo'llash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi o'zbek adabiy tili fanining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'zlashtirilishi, talabalar tilshunoslik bilimlarini mustahkamlash hamda ularni amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun samarali baholash metodikasini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy baholash texnologiyalari nafaqat talabalar bilimni o'lchash, balki ularni fikrlash faolligini oshirish, o'quv jarayonida ishtirokini kuchaytirish va o'z-o'zini baholash ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi – hozirgi o'zbek adabiy tili fanida chegaralangan leksika, frazeologiya va nisbat kategoriyasi mavzulari asosida zamonaviy baholash texnologiyalaridan foydalangan holda topshiriqlar ishlab chiqish va amaliy qo'llash tajribasini yoritishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Pedagogik adabiyotlarda qayd etilishicha, zamonaviy baholash texnologiyalari ikki asosiy yo'nalishni qamrab oladi: formativ va summativ baholash. Zamonaviy metodlarda, asosan, formativ baholash vositalari ko'proq qo'llaniladi. Bunda baholash jarayoni o'quvchilarning bilim olish jarayoniga integratsiyalashgan holda tashkil qilinadi va talabalarning o'z-o'zini baholash, o'zaro baholash va o'qituvchi tomonidan muntazam tahlil asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari rubrikalar asosida baholash, diagnostik testlar, elektron portfoliolar talabaning bilim, ko'nikma va malakalarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu texnologiyalar orqali faqat yakuniy natija emas, balki o'quv jarayonidagi rivojlanish bosqichlari ham e'tiborga olinadi.

Zamonaviy baholash vositalarida baholash mezonlari avvladan belgilanadi va talabalarga ochiq taqdim etiladi. Bu shaffoflik ta'lim oluvchilarni o'z faoliyatini baholash mezonlariga moslashtirishga undaydi. Rubrika va nazorat varaqalari talabaning natijasini obyektiv tahlil qilishga xizmat qiladi.

Baholash faqat nazorat vositasi emas, ta'limni takomillashtirish uchun ham juda muhimdir. Zamonaviy formatda olib borilgan baholash orqali o'qituvchi dars samaradorligini, talabalar faolligini tahlil qilib, o'quv materialini va metodikasini moslashtirishi mumkin.

NATIJALAR. Quyida turli innovatsion formativ baholash metodlaridan foydalanib, hozirgi o'zbek adabiy tili fanida talabalarni baholash mezonlari ishlab chiqilganligini ko'rishimiz mumkin:

1-topshiriq. O‘zaro baholash yordamida chegaralangan leksikani qo‘llashni tahlil qilish.

Topshiriq tavsifi: talabalar kichik guruhlarda chegaralangan leksikaga oid gaplarni tuzadilar va bir-birining ishini o‘zaro baholaydilar.

Metodik ko‘rsatma: har bir guruh 5 ta gap tuzadi. Boshqa guruh bu gaplarni tahlil qiladi. Namuna: Tibbiy ekspressiya ko‘proq stomatologiyada qo‘llanadi.

O‘zaro baholash mezonlari

Mezon	Ball
5 ta gap tuzilgan va to‘g‘riligiga e‘tibor qaratilgan	4
O‘zaro tahlil, izohlar aniq va asosli	3
Fikr bildirishda madaniyat va xolislik saqlangan	2
Imlo va uslubga rioya qilingan	1
Jami	10

1-jadval

2-topshiriq. Bir daqiqalik yozma javob (one minute paper) yordamida gapda shakl va mazmun munosabatini tushuntirish.

Topshiriq tavsifi: talabalarga “gapda shakl va mazmun munosabatining asosiy tamoyillarini bir gapda izohlang” savoli beriladi.

Metodik ko‘rsatma: 1 daqiqa ichida qisqa va grammatik jihatdan to‘g‘ri gap yoziladi.

Baholash mezonlari

Mezon	Ball
Savolga to‘g‘ri javob berilgan	2
Fikr aniq va lo‘nda ifodalangan	1.5
Grammatik to‘g‘rilik	1
Imlo va uslubga rioya qilingan	0.5
Jami	5

2-jadval

Baholash mezonlarini belgilash ta’lim sifatini aniqlashda muhim omildir. Baholashda mezonlarning aniq, tushunarli va o‘lchovli bo‘lishi talab etiladi. Ayniqsa, lingvistik fanlar sirasiga kiruvchi hozirgi o‘zbek adabiy tili fanida ham rubrika asosidagi baholash samarali hisoblanadi. Dastlab rubrika nima degan savolga javob beramiz. “Rubrika – o‘quvchilarning yozma, og‘zaki va vizual ishlarining barcha qismlari bo‘yicha yutuq mezonlarini aniq ko‘rsatib beradigan baholash vositasidir”.¹²⁵

¹²⁵ <https://uwaterloo.ca/centre-for-teaching-excellence/catalogs/tip-sheets/rubrics-useful-assessment-tool#:~:text=A%20rubric%20is%20an%20assessment,of%20rubrics%3A%20holistic%20and%20analytical>

“Rubrika – bu ma’lum bir turdagi ish yoki faoliyatni baholash uchun qo‘llaniladigan aniq mezonlar to‘plami bo‘lib, u bitta baho yoki belgidan ko‘ra batafsil ma’lumot beradi. Shu sababli, rubrikalar sizga yanada xolisroq baholashga yordam beradi”.¹²⁶

Quyidagi rubrikani yozma tahlil ishlari uchun ishlatish mumkin:

Mezoni	Tavsifi	Ball
Ilmiy aniqlik	Nazariy tushunchalarning to‘g‘ri qo‘llanilishi	10
Misollarning mazmunan mosligi	Tahlil qilinayotgan misol va tushuncha uyg‘unligi	10
Til boyligi va uslubi	Matnda ilmiy ifoda, izchil mantiqiy bayon	10
Tahlil chuqurligi	Sintaktik birliklar, uslubiy vositalarni chuqur yoritish	10
Xulosalarning aniq ifodasi	O‘z fikriga asoslangan, mantiqiy yakun	10
Jami		50

3-jadval

Shuningdek, quyidagi usuldan summativ baholash jarayonlarida ham foydalanish mumkin: **Elektron portfolio yaratish.**

Topshiriq. Semestr davomida hozirgi o‘zbek adabiy tili fanidan bajarilgan amaliy mashg‘ulotlar, yozma ishlar va loyihalarni birlashtirib elektron portfolio yarating.

Baholash mezonlari	Ball
Materiallarning to‘liqligi va tartibliligi	2
Har bir topshiriq yuzasidan refleksiya yozilganligi	1
Format va texnik ko‘rinishi	1
Yaratilgan materiallar sifati	0.5
Mustaqillik darajasi	0.5

4-Jadval

Topshiriq. Galereya yurish (gallery walk) yordamida frazeologizmlar tahlili.

Topshiriq tavsifi: guruhlar frazeologizmlar haqida tayyorlagan plakatni devorga iladi. Boshqa guruhlar izoh yoki savol qoldiradi.

Metodik ko‘rsatma: har bir guruh 5-7 ta frazeologizmga misol va izohi bilan posterni tayyorlaydi.

Baholash mezonlari

¹²⁶ <https://www.niu.edu/citl/resources/guides/instructional-guide/rubrics-for-assessment.shtml>

Tavsif	Ball
Poster materiallari to‘g‘ri va tushunarli	4
5-7 ta frazeologizm misol va izoh bilan berilgan	3
Boshqa guruhlariga kamida 2 ta izoh va savol qoldirilgan	2
Dizayn va estetik ko‘rinish	1
Jami	10

5-jadval

XULOSA. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida innovatsion texnologiyalardan foydalanish dars jarayonini yanada samarali bo‘lishiga yordam beradi va talabalarning fanga qiziqishini yanada orttiradi. “Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion-integratsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto, xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi talabi asosiy figuraga aylanadi”.¹²⁷ Shundan kelib chiqqan holda, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash hozirgi o‘zbek adabiy tili fanini o‘qitishda, ta’lim samaradorligini oshirish, talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va baholash jarayonini shaffoflashtirishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdiraimov Sh. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent. “Zebo Prints” nashriyoti. 2024. – B. 220
2. Anthony J. Nitko Susan M. Brookhart Sixth Edition. Educational Assessment of Students. United States of America – “Pearson Education Limited”. 2014. – P. 96
3. Black P., William D. Assessment and classroom learning // Assessment in education: Principles, Policy & Practice. 1998. – Vol. 5.
4. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent. “Akademnashr” nashriyoti. 2022. – B. 252
5. Palomba A.C., Banta W.T. Assessment essentials: planning, implementing, and improving assessment in higher education. 2015. – P. 317

¹²⁷ <https://portal.guldu.uz/download-edfiles-11907.pdf>

6. <https://uwaterloo.ca/centre-for-teaching-excellence/catalogs/tip-sheets/rubrics-useful-assessment-tool#:~:text=A%20rubric%20is%20an%20assessment,of%20rubrics%3A%20holistic%20and%20analytical>
7. <https://www.niu.edu/citl/resources/guides/instructional-guide/rubrics-for-assessment.shtml>
8. <https://portal.guldu.uz/download-edfiles-11907.pdf>

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA KASBIY TA’LIM MUASSASALARIDA MODUL DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNING MAZMUNIIY TUZILISHINI TAKOMILLASHTIRISH

Otabayev Iskandar Abdug‘aniyevich

Professional ta’limni rivojlantirish instituti doktranti

E-mail: iskandar0881@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish jarayonida modul dasturlarini ishlab chiqish va ularning mazmuniiy tuzilishi tamoyillari atroflicha tahlil qilingan. Modul dasturlarining ta’lim jarayonidagi roli, ular orqali shakllanadigan kasbiy kompetensiyalar, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari va modul asosida baholash tizimi yaratish mexanizmlari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijasida modul dasturlarini yaratishning bosqichlari va ularga qo‘yiladigan metodik talablar aniqlangan. Maqola kredit-modul tizimi samaradorligini oshirishga va kasbiy ta’lim sifatini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qilishi ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: kredit-modul tizimi, kasbiy ta’lim, modul dasturi, kompetensiya, o‘quv bloklari, baholash tizimi, innovatsion texnologiyalar.

РАЗРАБОТКА МОДУЛЬНЫХ ПРОГРАММ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИХ СОДЕРЖАТЕЛЬНОЙ СТРУКТУРЫ НА ОСНОВЕ КРЕДИТНО- МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье всесторонне проанализирован процесс разработки модульных программ и принципы их содержательной структуры при внедрении кредитно-модульной системы в учреждениях профессионального образования. Научно обоснована роль модульных программ в учебном процессе, их вклад в формирование профессиональных компетенций, возможности применения современных образовательных технологий и механизм создания системы оценивания на модульной основе. В результате исследования определены этапы разработки модульных программ и методические требования к ним. Статья направлена на повышение эффективности кредитно-модульной системы и приведение качества профессионального образования в соответствие с международными стандартами.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, профессиональное образование, модульная программа, компетенции, учебные блоки, система оценивания, инновационные технологии.

DEVELOPMENT OF MODULAR PROGRAMS AND IMPROVEMENT OF THEIR CONTENT STRUCTURE BASED ON THE CREDIT-MODULAR SYSTEM IN VOCATIONAL EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the development process and content structure principles of modular programs within the framework of implementing the credit-modular system in vocational education institutions. The role of modular programs in the educational process, their contribution to the formation of professional competencies, opportunities for the integration of modern educational technologies, and the mechanisms for creating an assessment system based on modules are scientifically substantiated. The study identifies the stages of modular program development and the methodological requirements imposed on them. The article aims to enhance the effectiveness of the credit-modular system and elevate the quality of vocational education to meet international standards.

Keywords: credit-modular system, vocational education, modular program, competencies, learning blocks, assessment system, innovative technologies.

Hozirgi davrda ta'lim sohasida yuzaga kelgan global o'zgarishlar, xalqaro ta'lim tizimida kuzatilayotgan modernizatsiya jarayonlari va innovasion yondashuvlarning keng joriy etilishi kasbiy ta'lim tizimida ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu jarayonlar butun dunyo bo'ylab ta'lim mazmunini kompetensiyaga asoslangan o'qitish, individuallashtirilgan o'quv dasturlari va modullashtirilgan ta'lim texnologiyalari yo'nalishida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ta'lim muassasalari uchun yangi ta'lim tizimlarini o'zlashtirish, yangi pedagogik metodologiyalarni amalga oshirish esa o'z navbatida yuqori darajadagi malakaga ega bo'lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Ayniqsa, kasbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilari mehnat bozorida o'z sohasining yetuk mutaxassislari bo'lishlari uchun tegishli bilim, malakalar hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari zarur. Bunday talablarga javob berish uchun ta'lim jarayonining zamonaviy texnologiyalari, o'qitishni tashkil etishning yangi shakllari va xalqaro amaliyotda o'zini oqlagan yondashuvlarning o'rganilishi va tatbiq etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, jahon ta'lim amaliyotida keng ommalashgan va Yevropa ta'lim tizimida asosiy ta'lim texnologiyasi sifatida tan olingan kredit-modul tizimi bu borada eng samarali va istiqbolli yondashuvlardan biri sifatida qabul qilinmoqda [4].

Kredit-modul tizimi bugungi kunda AQSH, Kanada, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya va boshqa ko'plab mamlakatlarda ta'limning barcha bosqichlarida, ayniqsa, oliy va kasbiy ta'lim tizimlarida keng qo'llanilmoqda. Ushbu tizim ta'lim jarayonini modullashtirish, bilimlarni aniq kompetensiyalarga muvofiqlashtirish, mustaqil o'quv faoliyatini kuchaytirish

hamda talabalarning o‘quv natijalarini shaffof va samarali baholash imkonini beradi. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqining ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan Bolonya jarayoni doirasida yaratilgan ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) tizimi jahonda ta’lim standartlarini birxillashtirishga, xalqaro mobillikni ta’minlashga xizmat qilishi bilan e’tiborlidir. Ushbu tajriba O‘zbekistonda kasbiy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishda muhim asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin [14].

Kredit-modul tizimining samarali joriy etilishi uning asosiy komponenti bo‘lgan modul dasturlarning to‘g‘ri va aniq ishlab chiqilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Xalqaro ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari ko‘rsatadiki, modullashtirilgan o‘quv dasturlari bilimlarni o‘quvchilar uchun mantiqiy yaxlit, ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga imkon beradigan kichik bloklarga ajratishni nazarda tutadi. Mazkur tizimda o‘qitish jarayoni nazariy bilimlardan amaliy mashg‘ulotlarga o‘tishdagi izchillikni ta’minlab, har bir ta’lim bosqichida aniq kompetensiyalarning shakllanishi kafolatlanadi [3, 4, 6, 10, 22].

Shu bilan birga, kasbiy ta’lim muassasalarida modul dasturlarni ishlab chiqishda turli mamlakatlarda qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim mazmunini shakllantirishda qator prinsiplarga rioya etilishi lozim. Xususan, ta’lim mazmunining yaxlitligi, tizimliliigi, kompetensiyalarga yo‘naltirilganligi, modullashtirish, innovasion texnologiyalarni keng qo‘llash, shuningdek, moslashuvchanlik va o‘zgaruvchanlik prinsiplari xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ko‘plab pedagogik olimlar tomonidan tasdiqlangan. Mazkur tamoyillarning amaldagi ahamiyati ushbu modul tizimining samaradorligi, bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi va ta’lim jarayonining sifatini oshirish bilan bevosita bog‘liqdir [18].

O‘zbekistonda ham kasbiy ta’lim tizimida kredit-modul tizimining joriy etilishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarida ham bu boradagi vazifalar aniq ko‘rsatib o‘tilgan. Shu sababli, ta’lim muassasalari oldida mazkur tizimni samarali joriy qilish va bu tizimni milliy ta’lim sharoitiga moslashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish zarurati tug‘ilmoqda [1, 2, 7, 8, 9].

Yuqorida bayon qilingan holatlar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida modul dasturlarini ishlab chiqish va ularning mazmunij jihatdan mukammalligini ta’minlash masalalari bugungi kunda milliy va xalqaro darajada ham dolzarb va muhim ilmiy-amaliy muammolar qatoriga kiradi. Ushbu maqola aynan shu muammolarni ilmiy-metodologik jihatdan o‘rganish, xalqaro va milliy tajribalarni chuqur tahlil qilish orqali modul dasturlarni ishlab chiqishning ilmiy asoslangan tamoyillari va mezonlarini taklif etishga qaratilgan.

Zamonaviy pedagogika sohasida ta’lim jarayonini tashkil qilishning eng samarali va keng tarqalgan shakllaridan biri modul tizimi hisoblanadi. Modul tizimi ta’lim kontentini aniq belgilangan va o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan mustaqil qismlarga ajratishni o‘z ichiga olgan pedagogik yondashuvdir. Ta’lim jarayonini bu tarzda tashkil qilish o‘quvchilar uchun bilimlarni

tizimli o‘zlashtirish, bilimlarning yaxlitligi va mustaqil o‘quv faoliyatini kengaytirish imkoniyatini beradi. Shu jihatdan, modul dasturlari kasbiy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimida ta’lim mazmunini tashkil qilishning eng muhim komponenti bo‘lib, ushbu tizimning samaradorligi va natijaviyligini ta’minlovchi omil hisoblanadi.

Modul dasturi, ta’lim jarayonida ma’lum bilim, malaka, ko‘nikmalarni kompleks ravishda birlashtiruvchi ta’lim bloki bo‘lib, uning o‘zining mantiqiy tuzilishi, yakuniy baholash tizimi, shuningdek, o‘quvchining mustaqil o‘zlashtirishi mumkin bo‘lgan bilim va amaliy vazifalarini o‘z ichiga oladi. Bunday tarkibiy tuzilma o‘quvchiga fanni yaxlit tarzda tushunish, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil qilish hamda ularni amalda qo‘llashni osonlashtiradi [20].

Hozirgi kunda jahonda ta’lim tizimiga joriy etilayotgan modul dasturlari o‘quvchilarda mustaqil o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, kompetensiyalarga yo‘naltirilgan ta’limni ta’minlash uchun eng qulay vosita sifatida qaralmoqda. Bu yondashuv ayniqsa kasbiy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirish, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishda samarali ekanligi ko‘plab xalqaro tadqiqotlarda tasdiqlangan.

Modul dasturlarning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini bir nechta muhim jihatlar asosida ko‘rib chiqish mumkin. Birinchidan, modul dasturlari ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika tamoyili asosida tashkil qilish imkonini beradi. Har bir modul talabaning individual xususiyatlari, bilimlarni qabul qilish tezligi va o‘quv usuliga moslashuvchanligi asosida tuziladi. Bu ta’lim jarayonini individuallashtirish, talaba uchun maksimal darajada qulay va samarali bo‘lishiga zamin yaratadi [5].

Ikkinchidan, modul tizimi bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish imkonini beradi. Har bir modulning aniq maqsadi va vazifalari belgilangan bo‘lib, bu talabaning fan bo‘yicha o‘z bilimlari darajasini mustaqil baholash va rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, modul dasturlari aniq kompetensiyalar asosida shakllantirilgan bo‘lib, talabalarning kasbiy tayyorgarligini sifatli ta’minlash uchun zarur bo‘lgan bilim va malakalarga aniq moslashtiriladi.

Uchinchidan, modul tizimida o‘quvchilarning mustaqil ish faoliyati katta o‘rin tutadi. Bu esa ularda o‘z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirish, ilmiy-amaliy izlanishlarni amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Modul dasturlari orqali talabalar o‘zlarining bilim va malakasini mustaqil ravishda baholashni ham o‘rganadilar, bu esa ta’lim jarayonida ularning mas’uliyatini oshiradi.

To‘rtinchidan, modul dasturlari talabalarda kompetensiyalarga asoslangan bilimlarni shakllantirish imkonini beradi. Kompetensiyalarga asoslangan ta’lim tizimida fan mazmuni aniq mehnat bozorida talab qilinayotgan malaka va bilimlarga bog‘liq ravishda tuziladi. Shu tariqa, o‘quvchilar aniq kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni bir vaqtning o‘zida o‘zlashtiradilar.

Beshinchidan, modul dasturlari ta’lim jarayonining shaffofligi va baholash mexanizmlarining aniqligini ta’minlash imkonini yaratadi. Har bir modulning yakunida

o‘tkaziladigan nazorat va baholash talabalarning o‘zlashtirish darajasini aniq belgilash, ularning kompetensiyalarni qay darajada egallaganini ko‘rish imkonini beradi. Bu esa o‘quv jarayonining sifati va natijaviyligini oshirishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, modul dasturlari innovasion ta‘lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish uchun ham eng qulay shakl hisoblanadi. Ayniqsa, elektron ta‘lim resurslari, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari kabi zamonaviy texnologiyalardan modul tizimida foydalanish ta‘lim jarayonini yanada samarali, jozibali va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, modul tizimida o‘quvchilarga berilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatlari ham yaratiladi. Modul dasturlari amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun yetarlicha aniq vazifalar bilan boyitilgan bo‘lib, talabalar amaliyot jarayonida bilimlarni mustaqil ravishda amalda tatbiq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shunday qilib, kasbiy ta‘lim muassasalarida modul dasturlarining joriy etilishi ta‘lim jarayonining yuqori darajadagi samaradorligini ta‘minlash, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini yaxshilash, shuningdek, o‘quvchilarda mustaqillik va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida bitiruvchilarning milliy va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi, ta‘lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Yuqoridagi tahlillar va tajribalar modul dasturlarining zamonaviy ta‘lim tizimida o‘rni katta ekanligini, uning kasbiy ta‘lim sohasidagi o‘rni va ahamiyati xalqaro pedagogik amaliyotdagi tendensiyalar bilan uyg‘un bo‘lib, zamonaviy ta‘lim jarayonining ajralmas qismiga aylanganligini ko‘rsatadi.

Modul dasturlari ta‘lim jarayonini zamonaviylashtirish, talabalarda professional kompetensiyalarni tizimli shakllantirish hamda bilimlarning yaxlitligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, modul dasturlarini ishlab chiqish jarayonida xalqaro ta‘lim standartlari va ilg‘or pedagogik amaliyotlarda qabul qilingan muhim tamoyillarga amal qilish talab etiladi. Ushbu tamoyillar nafaqat ta‘lim mazmunini shakllantirish, balki o‘quv jarayonini tashkil etish va ta‘lim sifatini ta‘minlash nuqtai nazaridan ham muhimdir [14].

Modul dasturini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan birinchi tamoyil — bu ta‘lim mazmunining yaxlitligi va tizimlilikidir. Har bir modul o‘z ichiga muayyan bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni qamrab oladi va ushbu elementlarning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini ta‘minlash zarur. Bunda nazariy va amaliy mashg‘ulotlar bir-birini to‘ldirib, o‘quvchida bilimlarni yaxlit ravishda qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishi lozim. Buning natijasida o‘quvchilarda fanni yaxlit tushunish hamda amaliy jihatdan mustaqil qo‘llash qobiliyati rivojlanadi [9].

Ta‘lim jarayonida modullarni tizimlashtirishda o‘zaro bog‘liq fanlar yoki mavzular mantiqiy tartibda joylashtiriladi. Har bir modul o‘zidan oldingi modulning davomi sifatida ishlab chiqilishi va o‘quvchilarda yaxlit bilim tizimini shakllantirishi zarur.

Hozirgi zamon kasbiy ta‘limda modul dasturlarini ishlab chiqishda e‘tibor qaratilishi kerak bo‘lgan eng muhim jihat — bu kompetensiyalarga yo‘naltirilganlik tamoyilidir.

Zamonaviy mehnat bozorida mutaxassislar bilimga emas, balki aniq kompetensiyalarga ko‘ra baholanmoqda. Shu bois, har bir modul dasturi aniq kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Kompetensiyalarni shakllantirishda aniq mezonlar belgilab olinadi va har bir kompetensiya uchun alohida baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Modul dasturining yakunida talabalarda shakllangan kompetensiyalar aniq baholash indikatorlari yordamida baholanadi, bu esa ta‘lim jarayonining shaffofligini ta‘minlaydi.

Modul dasturlarini ishlab chiqishda modullashtirish va kichik bloklarga ajratish tamoyili eng muhim pedagogik usullardan biridir. Har bir katta modul kichik o‘quv bloklariga bo‘linishi va har bir blokning aniq maqsad, vazifa va mazmuniga ega bo‘lishi zarur. Bunday yondashuv ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarga bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Har bir kichik blok talabaning mustaqil ravishda bilimlarni o‘rganish va ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini ta‘minlaydigan tarzda shakllantiriladi. Bloklar orasidagi mantiqiy bog‘liqlik va izchillik saqlanadi, bu esa fanni yaxlit va tizimli o‘rganish imkoniyatini beradi.

Modul dasturlarini ishlab chiqishda ta‘lim jarayoniga innovasion texnologiyalarni integratsiya qilish tamoyiliga amal qilish juda muhimdir. Hozirgi ta‘lim jarayonida interfaol metodlar, multimedia vositalari, virtual va elektron ta‘lim resurslari, elektron platforma va elektron darsliklar kabi zamonaviy texnologiyalarning rolini inkor etib bo‘lmaydi.

Modul dasturlari yaratilayotganda multimedia texnologiyalari, audio-vizual vositalar va simulyasiya mashqlari talabalarning bilim va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, onlayn ta‘lim platformalari, masofaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi [3].

Kasbiy ta‘lim muassasalarida modul dasturlarini ishlab chiqishda ta‘lim mazmunining moslashuvchanligi va o‘zgaruvchanligi tamoyiliga rioya etish talab etiladi. Hozirgi dinamik jamiyatda mehnat bozori talablari doimiy o‘zgarib bormoqda. Shu sababli, modul dasturlari mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga, fan va texnologiyadagi innovatsiyalarga moslashtirib borilishi lozim.

Bu tamoyilga ko‘ra, har bir modul dasturi muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqiladi, yangilanadi va ta‘lim mazmuniga yangi bilimlar kiritib boriladi. Modul dasturlarining bunday dinamikligi ta‘lim jarayonini hayotiy va amaliyotga yo‘naltirilgan holda saqlab qolish imkonini beradi.

Yuqoridagi tamoyillarga qat‘iy amal qilish natijasida ishlab chiqilgan modul dasturlari kasbiy ta‘lim muassasalarida o‘qitish sifati va samaradorligini oshirishga, talabalarda kasbiy kompetensiyalarini yuqori darajada shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, modul dasturlarini ishlab chiqish jarayoni doimiy ilmiy-metodik tahlillarni talab etadi. Bu jarayonni ilmiy asosda tashkil qilish uchun xalqaro ta‘lim standartlari

va innovation pedagogik texnologiyalarni muntazam o‘rganib, ularni milliy sharoitga moslashtirib borish muhimdir.

Kasbiy ta‘lim muassasalarida modul dasturlarini samarali ishlab chiqish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqichning o‘ziga xos vazifalari va pedagogik ahamiyati mavjud. Ushbu bosqichlarning tizimli va izchil tarzda amalga oshirilishi modul dasturining yuqori sifatli, amalda samarali bo‘lishiga kafolat beradi. Quyidagi bosqichlar xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili asosida batafsil tavsiflanadi.

Modul dasturlarini ishlab chiqishdagi birinchi va asosiy bosqich modulning ta‘limiy maqsadi va vazifalarini belgilashdir. Ushbu bosqichda ta‘limning aniq kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha talabalarda qanday bilim, malaka va kompetensiyalar shakllantirilishi kerakligi ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Buning uchun mehnat bozori talablari, kasbiy standartlar va xalqaro ta‘lim standartlari chuqur o‘rganilib, ular asosida ta‘limiy maqsadlar aniq shakllantiriladi [21].

Bunda quyidagi jihatlar e‘tiborga olinadi:

- Mehnat bozori talablariga muvofiq aniq kompetensiyalar belgilash;
- Professional bilim va malakalarni o‘rganishda fanlararo aloqalarni hisobga olish;
- Ta‘lim maqsadlarini xalqaro andozalar bilan moslashtirish.

Ta‘lim kompetensiyalarini aniqlash va tasniflash bosqichi. Ushbu bosqichda o‘quv modullari orqali shakllantirilishi zarur bo‘lgan kompetensiyalar aniqlashtiriladi va tasnif qilinadi. Kompetensiyalar bilish (knowledge), ko‘nikma (skills) va malaka (abilities) shaklida tarkibiy qismlarga ajratiladi. Bu bosqichda pedagoglar, amaliyotchi mutaxassislar hamda mehnat bozori ekspertlari ishtirokida ekspert baholash usullari ham qo‘llaniladi.

Quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi:

- Aniq kasbiy sohalar bo‘yicha kompetensiyalarni tasniflash;
- Kompetensiyalarning mantiqiy ketma-ketligini belgilash;
- Har bir kompetensiya uchun aniq baholash mezonlari va indikatorlar ishlab chiqish.

Modullar va bloklarni shakllantirish bosqichi. Bu bosqich modullashtirish jarayoni bo‘lib, belgilangan kompetensiyalar asosida modullar va kichik bloklar yaratiladi. Har bir modul o‘z ichiga nazariy bilimlar, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil o‘quv faoliyatini qamrab oladi. Ushbu bosqichda ta‘lim kontentining mantiqiy bog‘liqligi va izchilligiga alohida e‘tibor beriladi [17].

Quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- Kompetensiyalar asosida modullarning mantiqiy va mazmuniy tuzilmasini belgilash;
- Modulni kichik bloklarga ajratish va har bir blokning aniq vazifalarini belgilash;
- Har bir blok uchun mustaqil o‘quv vazifalari va amaliy mashg‘ulotlarni shakllantirish.

O‘quv-uslubiy materiallarni tanlash va ishlab chiqish bosqichi. Ushbu bosqichda har bir modul va blok uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy materiallar, elektron ta’lim resurslari va metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqiladi. Bunda nazariy materiallar bilan birga, amaliy mashg‘ulotlar, simulyasiya va multimediali vositalardan foydalanish masalalari ham hal qilinadi [15].

Bosqichdagi asosiy ishlar quyidagicha:

- Har bir modul uchun o‘quv materiallarini tanlash va ularni pedagogik jihatdan moslashtirish;
- Elektron darsliklar va multimediali vositalarni ishlab chiqish;
- Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan metodik ko‘rsatmalarni tayyorlash.

Baholash tizimini ishlab chiqish bosqichi. Modul dasturlari uchun baholash tizimini ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega. Bu bosqichda har bir kompetensiyaning o‘zlashtirilishini aniq baholash indikatorlari va mezonlari ishlab chiqiladi. Nazoratning turli shakllari (testlar, amaliy ishlar, mustaqil vazifalar) shakllantiriladi [21].

Bosqichda amalga oshiriladigan ishlar:

- Har bir modul uchun yakuniy nazorat shakllari va baholash mezonlarini aniqlash;
- Baholash vositalarini ishlab chiqish va test bazasini shakllantirish;
- Baholash natijalarini monitoring qilish va ularni tahlil qilish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Ta’lim jarayonini aprobatsiya qilish va takomillashtirish bosqichi. Modul dasturining aprobatsiyasi amaliy sinovlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda talabalar va pedagoglar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkaziladi, monitoring natijalari tahlil qilinadi va zarur o‘zgartirishlar kiritiladi [18].

Quyidagi vazifalar bajariladi:

- Ta’lim jarayonida modul dasturining samaradorligini baholash;
- Pedagoglar va talabalardan qaytarilgan ma’lumotlarni tahlil qilish;
- Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish va dasturni takomillashtirish.

Modul dasturini tasdiqlash va joriy etish bosqichi. Ushbu bosqichda takomillashtirilgan modul dasturi ilmiy-uslubiy kengashlar yoki ekspert komissiyalar tomonidan tasdiqlanib, amaliyotga joriy etiladi.

Bosqich vazifalari:

- Modul dasturini tasdiqlash uchun ekspert baholashlarini tashkil etish;
- Ilmiy-uslubiy kengash qarorlari bilan tasdiqlash;
- Ta’lim jarayonida modul dasturini ommaviy ravishda joriy etish va pedagoglarni tayyorlash.

Yuqorida bayon qilingan bosqichlarning to‘liq va izchil amalga oshirilishi natijasida modul dasturlari yuqori ilmiy-metodik asoslarga ega bo‘ladi, kasbiy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Kasbiy ta‘lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish va uning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan modul dasturlarini ishlab chiqish jarayoni bugungi globallashuv sharoitida ta‘lim tizimini zamonaviylashtirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, modul dasturlarini ishlab chiqish nafaqat ta‘lim jarayonining mazmuniy va tashkilotchilik jihatdan yangilanishini ta‘minlaydi, balki ta‘lim sifatini oshirish, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirish, mehnat bozorining talablariga mos yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini ham yaratadi [19].

Modul dasturlarini ishlab chiqish jarayonida ilmiy asoslangan prinsiplar va qoidalarga amal qilish zarurligi aniq bo‘ldi. Jumladan, modul dasturlarining yaxlitligi va tizimliliigi, kompetensiyalarga yo‘naltirilganligi, modullashtirish va bloklarga ajratish, innovasion texnologiyalardan foydalanish, ta‘lim mazmunining moslashuvchanligi va o‘zgaruvchanligini ta‘minlash kabi tamoyillar ushbu jarayonning asosiy ustunlarini tashkil etadi. Har bir tamoyil o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, bilimlarning mantiqiy izchilligini ta‘minlash va talabalarda mustaqil o‘quv faoliyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Batafsil tahlil qilingan holda modul dasturlarini ishlab chiqishning izchil bosqichlari aniqlandi. Birinchi bosqichda modulning ta‘limiy maqsad va vazifalarini belgilash, ikkinchi bosqichda esa kompetensiyalarni aniqlash va ularni tasniflash zarurligi ko‘rsatildi. Keying bosqichlarda modul va bloklarni shakllantirish, o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlash, samarali baholash tizimini ishlab chiqish, modul dasturini aprobatiya qilish va takomillashtirish, nihoyat, uni rasman tasdiqlab ta‘lim jarayoniga joriy etish bosqichlari amalga oshiriladi.

Har bir bosqichda yuqori darajadagi ilmiy-metodik asosga, talabalar va mehnat bozori o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratish zarur. Aniq kompetensiyalarga asoslangan ta‘lim maqsadlari belgilanishi, modullarning mazmuniy izchilligi saqlanishi va har bir modulda mustaqil o‘quv faoliyati elementlarining mavjud bo‘lishi ta‘lim jarayonining yuqori natijadorligini kafolatlaydi.

Modul dasturlarini ishlab chiqishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish talab etiladi. Xususan, elektron darsliklar, onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar va interaktiv simulyasiya dasturlari modul dasturlarining mazmunini boyitish va o‘quv jarayonini yanada samarali qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bu esa talabalarda bilimlarni tez va to‘g‘ri o‘zlashtirish, o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish, o‘zi mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ta‘lim jarayonida talabalarining faol ishtirokini ta‘minlash, ularning mustaqil ishlash, muammoni tahlil qilish, ijodiy yondashish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish modul dasturlarining muhim vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bois, modul dasturlarining tuzilishida faqat bilim berish emas, balki talabalarda yuqori darajada mustaqil

fikrlay olish va kasbiy vazifalarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor bo‘lishi lozim.

Modul dasturlarini samarali ishlab chiqishda mehnat bozoridagi real ehtiyojlarni hisobga olish katta ahamiyatga ega. Ta’lim mazmuni va shakli mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga, yangi kasbiy standartlar va texnologik tendensiyalarga tez moslashuvchan bo‘lishi kerak. Bu esa modul dasturlarining doimiy ravishda yangilanishini va amaliyot bilan mutanosibligini ta’minlaydi [12].

Modul dasturlarini aprobatsiya qilish va baholash jarayoni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Modul dasturlari real ta’lim jarayonida sinovdan o‘tkazilib, talabalar va o‘qituvchilar fikrlari, mustaqil monitoring natijalari asosida tahlil qilinishi va zarur hollarda takomillashtirilishi shart. Bu jarayon modul dasturlarining sifatini oshirish, kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, modul dasturlarini ishlab chiqish va joriy qilish jarayonida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratish kerak. Pedagoglar modul tizimida ishlash usullari, innovasion o‘qitish texnologiyalari, interaktiv metodlar va baholash usullari bo‘yicha muntazam ravishda malaka oshirib borishlari zarur. Zero, modul dasturlarining samarali foydalanilishi pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Ushbu tadqiqotning natijalariga asosan, quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarni berish mumkin:

1. Kredit-modul tizimi sharoitida modul dasturlarini ishlab chiqish ta’lim sifatini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.
2. Modul dasturlarini ishlab chiqishda bilimlarni tizimlashtirish, kompetensiyalarga asoslangan ta’lim maqsadlarini aniq belgilash va ta’lim mazmunini bloklarga ajratish muhim ahamiyatga ega.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish modul dasturlarining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.
4. Modul dasturlarining mazmuni mehnat bozorining real talablariga mos va doimiy ravishda yangilanib borishi kerak.
5. Ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish va faol ishtirokiga katta e’tibor qaratilishi zarur.
6. Pedagoglarning modul tizimida ishlash bo‘yicha tayyorgarligi va doimiy ravishda kasbiy rivojlanishi modul dasturlarining samaradorligini belgilaydi.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, modul dasturlarini ishlab chiqish va ularni kasbiy ta’lim muassasalarida samarali joriy etish ta’lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishga, talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga va ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu jarayon samarali boshqarilsa va ilmiy-metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlansa, O‘zbekistonda kasbiy ta’lim tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.12.2023 y. 648-son “Professional ta’limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Azizov U. Kredit-modul tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. - http://uzbekistonovozi.uz/uz/articles/index.php?ECTION_ID=161&ELEMENT.
3. Assefa M., Sedgwick, R. Evaluating the Bologna degree in the US. Worldeducation news and reviews, March/April 2004.
4. Bologna Declaration. Joint Declaration of the European Ministers of Education Convened in Bologna on the 19th of June 1999.
5. Credit Transfer and Accumulation - the Challenge for Institutions and Students, EUA/Swiss Confederation Conference, ETH Zurich, 11-12 October, 2002.
6. Kennedy, D. (2007). Writing and Using Learning Outcomes: A Practical Guide.
7. Kubayeva Y.I. Kredit-modul tizimini tashkil etish – ta’limda dolzarb masala sifatida // “Ma’naviy barkamol yoshlar yangi O‘zbekiston bunyodkori” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: 2024. – B. 121-124.
8. Maxmanov U.A. Oliy ta’limda kredit-modul tizimini joriy etilishi va imkoniyatlari // Zamonaviy ta’lim. –Toshkent: 2021. –№1. – B. 4-11.
9. Mirzayev Q.J. Ta’lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida rivojlantirish imkoniyatlari // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent: 2022. – №7. – B. 16-20.
10. Smith, J. (2018). Modular Education: Theory and Practice.
11. UNESCO. (2019). Digital Transformation in Education.
12. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, TKTI, 2020. - 120 b.
13. Xabibullayev B., Topildiyev V., Innazarov M. Kredit-modul tizimi va o‘quv jarayoni tashkil etish // O‘quv-uslubiy majmua – Toshkent, 2020. – 149 b.
14. Zaripov L., Xayitov N., Tuxtayeva M. Kredit-modul tizimi bo‘yicha xorij tajribasi // Metodik qo‘llanma. – Toshkent: “Yetakchi nashriyoti”, 2024. – 32 b.
15. Андриенко А.С. Развитие иноязычной профессиональной компетентности студентов технического вуза (на основе кредитно-модульной технологии обучения): Дис. ... канд. пед. наук 13.00.08. -Ростов н/Д., 2007. - 282 с.
16. Баум В. В. Система зачетных единиц (кредитов) как один из инструментов признания квалификаций, - М., РУДН, 2007. С. 12.
17. Маслов И.В. Методика информационной подготовки юристов с применением кредитно-модульной системы: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. –Ростова-на-Дону: 2011. – 22 с.
18. Методические рекомендации по внедрению в вузе системы зачетных единиц (кредитов) / [Текст] /. Государственный университет управления, Центр качества [сост. О.В. Давыдова, В.И. Звонников, М.Б. Чельшкова]. – М.: ГУУ, 2010. – 50 с

19. Рахимов А.А. Методика организации индивидуальных работ студентов по математике в условиях кредитного обучения в техническом вузе: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. –Душанбе: 2020. –26 с.

20. Рослякова Е.М., Бисерова А.Г., Хасенова К.Х., Байболатова Л.М. Модульная система обучения-опыт и перспективы. – Posted September 25th, 2014 by kaznmu & filed under Английский, Инновационные методы обучения. <https://kaznmu.kz/press/2014/09/25/%D0%BC%D0%BE%D0>

21. Тищенко Е.А. Организация системы кредитного обучения в техническом ВУЗе: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. –Ростова-на-Дону: 2007. – 23 с.

22. Чошанов М.А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения: Методическое пособие. - М.: Народное образование, 1996. -160 с.



MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING KASBIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATSIYA

Abdullayeva Muqaddasxon

Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi professori

Annotatsiya. Malaka oshirish tizimida tinglovchilarning kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish vazifasi tadqiqotchini qo‘yilgan vazifani samarali yechishga yo‘naltirilgan adekvat ravishda ta‘lim jarayonining yaxlit xususiyati, ko‘p qirraliligi va yo‘nalganligini adekvat ravishda ifodalash imkonini beruvchi tanlov, metodologik asos (yondashuv) zarurati vaziyati oldiga qo‘yadi.

Kalit so‘zlar. Kompetensiya, axloqiy madaniyati, texnologiya, metod, interfaol metodlar, loyiha, debat.

Pedagogikada integrativ yondashuv an‘anaviy ravishda kontsentrlangan o‘qitish, loyihalash texnologiyasi, muammoli o‘qitish, parallel o‘qitish va boshqalar bilan uzviy bog‘liq. Bu bog‘liqlikni muhokama qilishda turli mualliflar integrativ yondashuvni turli darajaga qo‘yadilar. Integrativ o‘qitish texnologiyasi kontsentrlangan o‘qitish, modulli o‘qitish, bo‘lim-modulli tizim kabi texnologiyalar uchun o‘tuvchi hisoblanishi to‘g‘risidagi fikrlar mavjud. Boshqa mualliflar, integrativ texnologiya, aksincha, tashkil etishning yanada yuqori darajasini ifodalashi, chunki o‘zida boshqa texnologiyalarning afzalliklarini birlashtirishi to‘g‘risidagi fikrni ta‘kidlaydilar [1; 66].

Integrativ ta‘lim texnologiyasida ta‘lim mazmuni komponentlarining integratsiyasi kuzatiladi: predmetli bilimlar; ko‘nikmalar; reproduktiv, ijodiy faoliyat tajribasi. Integratsiya mohiyatida ta‘lim mazmunining barcha komponentlari ifodalanadi, bunda integrativ jarayonni amalga oshirishning turli variantlari bo‘lishi mumkin – bilim elementlari o‘rtasida, bilimlar va ko‘nikmalar o‘rtasida, faoliyatning reproduktiv va produktiv usullari o‘rtasida va boshqalar.

Pedagogik tizimlar amal qilishi va rivojlanishining zamonaviy amaliyoti ta‘limda integrativ yondashuvlarning turli xilma-xilligini ko‘rsatadi: integratsiyalangan fanlar, binar darslar, mavjud fan ichidagi integratsiya va boshqalar. Pedagogik ta‘limda integrativ yondashuv muammosiga o‘sib borayotgan qiziqish bilimlarning globallashuvi va texnologikligining zamonaviy jahon tendentsiyalarini ifodalaydi.

Shu bilan birga, integrativ yondashuvning mohiyati birinchi navbatda «integratsiya» tushunchasi bilan bog‘liqligini ayondir.

«Integratsiya» lotinchadan tarjimasida «integratio» – tiklash, to‘ldirish, ya’ni tizim, organizmning alohida qismlari va funktsiyalarining yaxlitga bog‘langanligi, shuningdek bunday holatga olib keluvchi jarayon [2].

«Integratsiya» integrativ yondashuvga taalluqli bo‘lgan «tizim», «komponent», «element», «kompleks», «sintez», «tuzilma», «aloqa», «o‘zaro aloqa», «tizim hosil qiluvchi omil» va boshqa tushunchalar bilan bir qatorda, pedagogikada murakkab, tizimli-yaxlit obyektlar tahlilida (u yoki bu birlikda) turli metodologik yondashuvlarning tushunchalar apparatiga mustahkam kirgan. «Integratsiya» tushunchasining keng tarqalganligiga qaramay, uning mohiyati hanuz turlicha talqin etiladi.

T.B.Xarisovning fikricha, hozirgi vaqtda umumilmiy «integratsiya» toifasini tushunishga uchta asosiy yondashuvlar mavjud:

- a) mexanistik (integratsiya kompozitsion elementlarini yagona integratsiyalangan markazga mexanik birlashtirishni nazarda tutadi);
- b) dialektik (umumiy qonuniyatlarni izlash integratsion tashkil etuvchilar o‘rtasidagi sifatli farqliklarni tan olish bilan kechadi);
- v) qo‘shimcha to‘ldiruvchi (umumiylik o‘zaro istisno etuvchi ma’lumotlardan foydalanish orqali yaxlitlikni ifodalashning zarur sharti sifatida nazarda tutiladi).

Shu bilan birga, ko‘pgina tadqiqotchilar integratsiyaning mohiyati yaxlitlikning tashkil etuvchilari o‘rtasidagi aloqalarni zichlashtirish bilan kechuvchi, yaxlitlik shakllanishi jarayoni va natijasi sifatida belgilanishi mumkinligi to‘g‘risidagi fikr tarafdoridirlar. Shakllantiriladigan yaxlitlikda sintezlanadigan komponentlarning o‘zaro munosabatlari intensivligining ortishi sodir bo‘ladi, ularning o‘zaro aloqalari va ularning nisbatan mustaqilligi pasayishida o‘zaro bog‘liqligi kuchayadi. Bunga “qismlarga ajratish, chegaralash, tabaqalashtirish” qarama-qarshi jarayonlar bilan umumiylikda “elementlar, komponentlarning o‘zaro singishi, zichlashishi, unifikatsiyasi” orqali erishiladi[4].

Integratsiyaning umumilmiy asosi sifatida quyidagi tamoyillar xizmat qiladi: a) axborot maydonining umumiyliigi; b) integratsiyalangan yaxlitlik; v) metodlar umumiyliigi; g) ko‘p jihatlilik; d) majmuaviylik; ye) gomeostatiklik (doimiylikni saqlash); j) paritetlik [3].

Masalan, axborot umumiyliigi tamoyili integratsiyaning asosi sifatida tizim tashkil etuvchilarining axborot bazasining umumiyliigi, yaxlitligini ajratadi. Integratsiyalangan yaxlitlik tamoyili tizim komponentlarining integratsiyasiga urg‘u beradi, bunda boshqarish (tizim tashkil etuvchisi) bir jarayonining “chiqishi” keyingi jarayonning “kirishi” hisoblanadi. Metodlar umumiyliigi tamoyili integratsiyalangan tizimni amalga oshirish metodlarining umumiyligidan foydalanishni talab etadi. Ko‘p jihatlilik tamoyili faoliyatning bir necha yo‘nalishlari bo‘yicha tizimni tashkil etuvchi barcha omillarni (texnologik, moddiy, texnik, mehnat, moliyaviy) inobatga olib, boshqarish jarayoni elementlari integratsiyasi bilan bog‘liq talablarni qo‘yadi. Majmuaviylik boshqaruvning barcha darajalarida boshqaruv obyektlarining aniq tuzilmasini inobatga olib, tizimni tashkil etuvchi komponentlar integratsiyasini nazarda tutadi. Gomeostatiklik (doimiylikni saqlash) integrativ tizimni talab etilgan boshqaruv ta’sirlari

sifatining barqaror darajada saqlanishiga yo‘nalgan qayta aloqali o‘zini-o‘zi moslashtiruvchi axborot tizmi sifatida qaraydi. Nihoyat, paritetlik tamoyiliga (markazlashmaganlik) muvofiq boshqaruvning barcha darajalari integratsiyalangan tizim ta‘rifi nuqtai nazaridan o‘zaro teng hisoblanadi.

Pedagogik integratsiya – bu ilmiy integratsiyaning turlaridan biridir. Funktsional nuqtai nazardan, pedagogikada integratsiya odatda tizimning alohida qismlarining yagona yaxlitga bog‘liqligi sifatida, tabaqalashtirilgan qismlarni birlashtirish jarayoni, ularni yaqinlashtirish va aloqadorligi jarayoni sifatida tushuniladi. Ayrim hollarda «integratsiya» atamasi natija – yaxlit mohiyatni tiklash mazmunida qo‘llanadi. Maxsus pedagogikada «integratsiya» imkoniyati cheklangan insonlarning sotsiumga jalb etilishi jarayoni sifatida tushuniladi. «Integratsiya» atamasining talqini uni qo‘llash mazmuniga ko‘p jihatdan bog‘liqligi ma‘lumdir.

Shu bilan birga pedagogika fani nuqtai nazaridan, pedagogik integratsiya – bu pedagogika nazariyasi va amaliyoti doirasida amalga oshiriladigan ilmiy integratsiya turidir; bu maqsadlar, tamoyillar, mazmun, shakllar ifodalanishi umumiyligining oliy shakli; u o‘quv-tarbiya jarayonining turli komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni kuchaytirish asosida yiriklashtirilgan pedagogik birliklarni hosil qilishni nazarda tutadi.

Shu munosabat bilan ko‘pincha bir (yoki yaqin) «integratsiya» tushunchasi mazmunida qo‘llaniladigan, pedagogikada keng qo‘llaniladigan «kompleks», «sintez», «o‘zaro aloqa», «tizim» tushunchalariga e‘tibor qaratish kerak. Masalan, maxsus adabiyotlarda «integratsiyalashgan mashg‘ulot» va «kompleks mashg‘ulot» tushunchalari uchraydi, bunda ular ko‘pincha o‘xshash sifatida qaraladi.

Shunga ko‘ra «kompleks» tushunchasini ko‘rib chiqamiz: «Kompleks keng ma‘noda – alohida jarayonlarning ma‘lum yaxlitda muayyan birlashishidir» [5, b. 272]. Yaxlitlikka shunchaki tashkiliy qismlar yig‘indisi bilan emas, balki ichki, ob‘ektiv uyg‘un aloqadorlik bilan erishiladi. Ta‘rifdan, kompleks integratsiya kabi muayyan yaxlitlikni ifodalashi kelib chiqadi. Ammo kompleksda elementlar, komponentlar o‘rtasida aloqadorlik chuqur emas. Shuning uchun kompleksni integratsiyaning darajalaridan biri sifatida tushunish mumkin.

«Sintez» falsafiy, pedagogik adabiyotlarda keng ifodalangan (M.S.Kogan, I.I.Ioffe, P.M.Chumichyeva va b.q.). Sintez (birlashtirish, tuzish) – predmetning turli elementlari, tomonlarini yagona yaxlitga (tizimga) birlashtirish bo‘lib, u amaliy faoliyatda hamda bilish jarayonida amalga oshiriladi. Bu ma‘noda sintez analizga (predmetni uning tashkil etuvchilariga ajratish) qarama-qarshi va u bilan uzluksiz bog‘liq hisoblanadi. «Kompleks» va «sintez» tushunchalarini taqqoslash sintez – kompleksga nisbatan yanada chuqur, integrativ aloqadorlik ekanligi to‘g‘risidagi xulosaga kelish imkonini beradi.

«O‘zaro aloqadorlik» rivojlanish jarayonini tavsiflovchi umumiy falsafiy toifa sifatida xizmat qiladi. Integratsiyada o‘zaro aloqadorlikning ifodasidan biri – o‘z ichiga elementlar, qismlar o‘zaro aloqadorligining turli darajalari bilan muayyan yaxlitlikni yaratish jarayonini kiritadi.

Kompleks ichida bir turdagi elementlar, qismlar nisbatan mustaqillikni saqlovchi, muayyan yaxlitlikni anglatadi. «Sintez» tushunchasi elementlarning mustaqilligining yo‘qolishiga olib keluvchi va sifatli yangi yaxlitlik yuzaga kelishini belgilovchi, bu elementlarning yaxlitda birlashishini nazarda tutadi. «Kompleks» va «sintez»ni turli darajadagi integrativ hosilalarga kiritish mumkin.

Kompleks – pastroq darajadagi, sintez esa yuqoriroq darajadagi integratsiya bo‘lib, unda elementlar bir-biri bilan uyg‘un bog‘liq va mazkur yaxlitlik doirasida o‘zining mustaqilligini u yoki bu darajada yo‘qotadi.

«Integratsiya» va «tizim» atamalarining taqqoslanishi, bular ham yetarlicha yaqin tushunchalar ekanligini ko‘rsatadi. Ammo tizim integratsiyadan farqli ravishda – bu yagona yaxlitni ifodalovchi, alohida elementlar xususiyatlaridan tashqari, o‘zining alohida tizimli xususiyatlariga ega bo‘lgan elementlarning o‘zaro aloqadorlikdagi kompleksi hisoblanadi.

Bu holatda pedagogik tizim ostida biz o‘zaro faol aloqadorlikdagi pedagogik jarayon ishtirokchilari, rivojlanuvchi va o‘zini-o‘zi rivojlantiruvchi, shuningdek atrofdagi voqelikni rivojlantiruvchi shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan ma‘naviy va moddiy omillarning ijtimoiy bog‘liq yaxlitligini tushunamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Piskunov, A. I. Pedagogicheskoe obrazovanie: kontsepsiya, sodержanie, struktura [Tekst] / A. I. Piskunov // Pedagogika. - 2001. - № 3. - S. 41-47. 175.
2. Serikov, V. V. Obrazovanie i lichnost. Teoriya i praktika proektirovaniya pedagogicheskix sistem [Tekst] / V. V. Serikov. - M.: Logos, 1999. - 272 s.
3. Slastenin, V. A. Professionalizm uchitelya kak yavlenie pedagogicheskoy kulturi [Tekst] / V. A. Slastenin // Pedagogicheskaya nauka i obrazovanie. -2004.-№5.-S. 4-15.
4. Slastenin, V. A. Pedagogika: innovatsionnaya deyatelnost [Tekst] / V. A. Slastenin, L. S. Podimova. - M.: Magistr, 1997. - 222 s.
5. Terexin, P. P. Formirovanie pedagogicheskoy kompetentnosti spetsialista v sisteme neprerivnogo professionalnogo sotsiokulturnogo obrazovaniya: avtoref. dis. dokt. ped. nauk [Tekst] / P. P. Terexin; Institut srednego professionalnogo obrazovaniya RAO. - Kazan, 2004. - 32 s.



MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI PEDAGOGIK MUHIT VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nazirova Guzal Malikovna

Qo‘qon davlat universiteti

Maktabgacha ta‘lim kafedrası professori, PhD

Annotatsiya: maqolada maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni har tomonlama rivojlanishida rivojlantiruvchi pedagogik muhitning zarurati va ahamiyati, uni tashkil etish, loyihalashtirishdagi muammolar va ularning yechimlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta‘lim tashkiloti, rivojlanish markazi, markazdagi faoliyat, jihozlar, omil, tabiiy, tanlov, san‘at, qiziqish, qobiliyat.

Kirish. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini zamonaviy texnik jixozlar bilan ta‘minlash, ularning faoliyati jarayonida axborot texnologiyalari xizmatidan foydalanishga erishish ta‘lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni har tomonlama rivojlanishida rivojlantiruvchi pedagogik muhit asosiy omillardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar har bir yosh bosqichida o‘zini o‘rab turgan muhitdan aynan o‘zini qiziqtirgan hayotiy malakani oladi. Muhit qanchalik to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lsa, bolaning shaxs sifatida shakllanishida shunchalik ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Lekin bu jarayonlarni tashkil etishning o‘ziga xos qonuniyatlari mavjud.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi pedagogik muhit bolalar uchun o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini, iste‘dodini namoyish eta oladigan madaniy-ma‘rifiy markaz sifatida shakllantirilishi kerak. Tashkilot tarbiyalanuvchisining muntazam tarzda foydali va qiziqarli mashg‘ulot bilan band bo‘lishini ta‘minlaydigan muhitni yaratish pedagogik jamoadan ijodkorlik bilan mehnat qilishni talab etadi. Bunda ta‘lim tashkiloti tarbiyachisi va psixologining hamkorlikdagi faoliyatiga alohida urg‘u berish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI. “Rivojlantiruvchi pedagogik muhit” borasidagi ilmiy tadqiqotlar Moskvada 1960 yillarda “Maktabgacha ta‘lim ilmiy tadqiqot instituti” tashkil etilgan davrdan boshlangan bo‘lsa, pedagog va psixologlarning lug‘atiga 1988 yillarda kiritilgan. 1991 yil Moskvada “Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar uchun rivojlantiruvchi predmetli muhit” majmuaviy dasturi qabul qilingan.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi pedagogik muhit mazmun-mohiyatiga ko‘ra bolani aqliy, jismoniy va psixologik rivojlanishini ta‘minlashi, takomillashtirishi, pirovard natijada mazkur muhitga qo‘yilgan talab va maqsadlarni ro‘yobga

chiqarishi kerak. Rivojlantiruvchi pedagogik muhitni ta’lim jarayonda muvaffaqiyatli qo‘llash uchun uning variativligini ta’minlash zarur. Bunda maktabgacha ta’lim tashkiloti joylashgan hudud, tashkilotning turi, unda olib boriladigan ta’lim mazmuni, Rivojlanish markazlarida milliy va madaniy urf-odatlarini inobatga olish lozim. Bu jihatlar tashkilot guruhlarida yaratilgan rivojlantiruvchi muhitning o‘ziga xosligini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining turiga, rivojlantiruvchi pedagogik muhitni tashkil etish shart-sharoitlariga qarab, bolalarga ta’lim-tarbiya berishning o‘ziga xos, alohida, betakror, samarali usullarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin. Rivojlantiruvchi pedagogik muhitda foydalaniladigan o‘yinchoqlar, o‘yin vositalari, moddiy resurslar, mebel jihozlari, ko‘rgazmali qurollar maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik, psixologik, aqliy va jismoniy rivojlanishiga hamda ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

METODLAR. Bolaning rivojlantiruvchi muhitda rivojlanishi muammosi taniqli italyan olimi Mariya Montessori asarlarida paydo bo‘lib, u bolaning o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayoni eng jadal ravishda didaktik jihatdan tayyorlangan muhitda sodir bo‘lishini ta’kidlagan, chunki yosh bolalar birinchi navbatda o‘z harakatlari orqali, faoliyatlari asosida o‘z his-tuyg‘ulari dunyosi orqali yashaga o‘rganadilar [102]. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yinlar ixtiro qilish ishiga italyan pedagogi Mariya Montessori katta hissa qo‘shgan. Mariya Montessori Italiyada tug‘ilgan bo‘lib, u o‘z mamlakati tarixida birinchi ayol – doktor bo‘lgan. Uning metodikasiga ko‘ra pedagogning roli bolalarning mashg‘ulligiga e’tibor berishdan iborat bo‘lgan. Shuningdek, og‘zaki izohdan juda kam foydalanilgan.

Mariya Montessori metodi bolani tabiiy sharoitlarda kuzatish va u qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishga asoslangan. M.Montessori metodikasining bosh g‘oyasi: “Bolani mustaqil rivojlanishiga turtki berish”dan iborat bo‘lgan. Montessori tizimida bola maxsus yaratilgan muhit yordamida mustaqil ta’lim oladi. Montessori materiallarida bolaning o‘z-o‘zini nazorat qilish, xatolarini o‘zi topib, mustaqil tuzatishga sharoit yaratilgan. Bu metodga ko‘ra kattalar bolani faqat yo‘naltirib, zarur holatlarda rag‘batlantirib turishadi. Ularning vazifasi bolalarga ta’lim berish emas, balki ularning mustaqil faoliyatiga rahbarlik qilib turishdan iborat bo‘ladi. Mariya Montessori metodining bosh shiori: “Buni mustaqil bajarishga yordam ber” mazmunida bo‘lgan [102]. Montessori tizimi har bir bolaga cheksiz tanlov erkinligini beradi. Unga asosan, har bir bola bugun nima bilan shug‘ullanishini xal qilishni mustakil ravishda tanlay oladi. Montessori metodikasining yana bir o‘ziga xosligi turli yoshdagi bolalarning bir guruhda ta’lim olishini tashkil etilishida. Turli yoshdagi bolalar bir-birlariga halal berishmaydi, aksincha yordamlashishadi. Montessori tizimi bolaga shaxsi shakllanishi uchun zarur barcha sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Montessori sistemasida ta’lim olgan bolalarda o‘qishga nisbatan intilish, ma’suliyatlilik, intizomlilik xislatlari oson shakllantiriladi. Bu bolalar mehnatsevarligi, intiluvchanligi, xulqi-atvori ijobiyligi bilan ajralib turadilar [101].

Mariya Montessorining bolalarga yondashuvi o‘ziga xos. Uning sistemasi uchta asosiy qismlardan tuzilgan: bola, atrof-muhit va pedagog. Ta’lim jarayoni diqqat markazida bola

turishi kerak. Mariya Montessori o‘z metodikasida bolani tabiiy sharoitlardagi kuzatuvlariga asoslangan. So‘ngra doktor Montessori bolaning mustaqil rivojlanishi uchun tabiiy maxsus sharoitlar yaratdi. U ta‘limda pedagogning o‘rnini o‘zgacha talqin etgan. Uning faoliyati ta‘lim berish emas, yo‘naltirishdan iborat bo‘lishi lozimligini uqtirgan. Shuning uchun “o‘qituvchi” so‘zi o‘rniga “rahbar” iborasini qo‘llagan. Mariya Montessori bola qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishga harakat qilgan. Montessori metodi bolaga bilish, o‘rganish faoliyatini oson o‘zlashtirishga yordam beradi. Bilimni faoliyat orqali mustaqil olishga o‘rgatadi. Montessori metodikasiga asosan bola o‘ziga yoqqan, o‘ziga qiziqarli bo‘lgan mashg‘ulotni tanlash erkinligiga ega bo‘ladi. O‘z bilim malakalarini takomillashtira borib, bolada mustaqillik va o‘ziga ishonch ham rivojlanadi. Montessori metodi bolada ta‘lim jarayoniga tabiiy intilishni yuzaga keltiradi. Ta‘limning keyingi bosqichiga dadil, ishonch bilan o‘tishga zamin tayyorlanadi. Bolaga uni o‘rab turgan muhit o‘qituvchilik qiladi. Montessori maktabida bola maxsus ishlab chiqilgan materiallarga tayanib bilim oladi. Ular sodda, qiziqarli, bolani mustaqil ishlashga undaydi. Ulardan foydalanganda bola uchun o‘z xatolarini o‘zi tuzatishiga imkoniyat yaratiladi.

M.Montessori pedagogikasiga asosan har bir guruhda bolalar uchun ijodiy rivojlantiruvchi muhit yaratilishi lozim. Bunday muhitda kundalik ish faoliyati davomida bolalar o‘zlarini erkin tutishlari, bir-biriga nisbatan hurmat, muhabbat, o‘zaro yordam berish kabi insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi fikrlar vositasida hayotiy rivojlanishga erishadilar va o‘z qiziqishlari asosida taraqqiy etib boradilar.

MUNOZARA. Aksariyat tadqiqotchilar maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining rivojlantiruvchi muhitini o‘rganish, takomillashtirish va faollashtirish natijasida alohida muammoga duch kelmoqdalar, ya‘ni olimlarning ta‘riflaridagi talqinlar noaniqligi, bir xil konsepsiya turli nomlarga ega bo‘lishi yoki umumiy nomga ega muhitni, tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinishi. Masalan, bir nechta muvozanat tushunchalari mavjud: mavzu-o‘yin muhiti, bolalikning rivojlantiruvchi muhiti (S.L.Novoselova), rivojlanayotgan predmet muhiti (A.G.Asmolov), rivojlantiruvchi predmetfazoviy muhit (maktabgacha ta‘lim standarti).

Shu bilan birga rivojlantiruvchi muhitning mazmuni ham bola rivojlanishini ta‘minlaydigan ta‘lim sohalari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Bolalarning individual va jamoaviy faoliyati maktabgacha tizim sharoitida barcha ta‘lim yo‘nalishlari bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirishga imkon berishi kerak, xususan, bolaning jismoniy rivojlanishi va sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy hissiy rivojlanishi, kommunikativ faolligi, bilish va ijodiy rivojlanganlik darajasini faollashtirmog‘i lozim. Shu bilan birga, rivojlantiruvchi muhitni to‘ldirishning kompleks yondashuvi bolaning mustaqillik, tashabbuskorlik va ijodkorlik ehtiyojlarini to‘liq qondiradi. Bunday yondashuv bilan bolalar pedagog taklif qilgan joyda emas, balki o‘zlari uchun qulay bo‘lgan joyda o‘ynashadi.

Pedagog faqat bolalar o‘yinlarini diqqat bilan ko‘rib chiqishi va jihozlar va o‘yinchoqlarni bolalar qulay bo‘lishi uchun joylashtirishi, rivojlanish markazlarini mazmunan

boyitishi, yangilashi, talabga asosan joylashtirishi kerak. Bolalar faoliyatining barcha turlarini hisobga olishga harakat qilish va tegishli markaz, burchaklarni zarur jihozlar va materiallar bilan ta'minlash muhimdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim muhiti mazmuni va qurilishi bir necha jihatlarini ko'rib chiqaylik. Aytgancha, 1950-1990 yillar davomida bolalar bog'chasining rivojlantiruvchi muhitini tashkil etish ichki tizimi o'tgan asrning manfaatlari burchaklar shaklida shakllangan. Har bir guruhda qo'g'irchoq burchagi (syujetli-rolli o'yinlar), kitob, qurilish, tasviriy san'at (rasm, applikatsiya, loy va plastilin), kiyinish xonasi, stol o'yinlari uchun joy tashkil etilgandi. Bundan tashqari, pedagoglar guruhga o'yinlar uchun tashlandiq materiallar va qo'shimchalar (mato bo'laklari, qutilar, arqonlar, karton va boshqalar) olib kelishlari mumkin edi. Bolalar faoliyati uchun shart-sharoitlarga qo'yiladigan zamonaviy xalqaro talablarda mahalliy maktabgacha ta'limidagi o'yin burchaklarini tashkil etishni ham ko'zda tutadi. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro hujjat guruhda kamida uchta bolalar rivojlanish markazlarining mavjudligini nazarda tutadi: qurish, konstruksiyalash (kublar), syujetli rolli o'yinlar, fan va tabiat, ijodiy faoliyat markazi (san'at).

Biz zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar faoliyati burchaklar va markazlarini to'ldirish va joylashtirish bir nechta shartlarga bog'liqligini pedagogik tahlil qilishimiz lozim: bolalar guruhining xususiyatlari (yoshi, soni, jinsi nisbati, alohida ehtiyojli bolalarning mavjudligi);

bolalar tayanch kompetensiyalarining shakllanganligi (bolalar hozir nimani yaxshi ko'radi yoki nimaga qiziqadi);

pedagoglarning kasbiy mahorati va ko'nikmalari (muhitni tashkil etish va faollashtirishdagi kompetentligi);

binolarning me'moriy xususiyatlari (binoning maydoni va shakli, yotoqxonaning mavjudligi yoki yo'qligi, bino va mebelning dizayn talablariga mosligi).

Bu shuni anglatadiki, rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish va to'ldirishning yagona universal usulini tanlash mumkin emas. Zamonaviy mebel va keng maydonlarga ega maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlari va burchaklarni takomillashtirishda qo'yilgan tamoyillar asosida faollashtirish lozim. Moslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar faoliyatining barcha turlari uchun sharoit yaratish uchun joy yetarli emas, yangi ko'p funksiyali mebel va jihozlar talab qilinadi. Hozirgi vaqtda ko'plab o'zgaruvchan bolalar mebellari va o'yin jihozlari ishlab chiqilgan. Mobil tajriba markazlari, modulli seksiyali mebellar o'yin maydonini tashkil qilish, moslashuvchan hududni va joyni tejash vazifalarini sezilarli darajada osonlashtiradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari mahoratli pedagog sifatida shakllangan bo'lib, ular nafaqat bolalar bilan o'zaro munosabatlarning turli usullariga, balki maxsus, shu jumladan amaliy ko'nikmalarga ham ega. Ishning yangi usullarini joriy qilib, ular rivojlantiruvchi muhit ta'limning yangi standartlariga, ishning innovatsion shakllariga mos kelmasligi muammosiga duch keldilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotining rivojlantiruvchi muhitini yaxshilash bo'yicha olib borilgan ishlar natijalari nafaqat rivojlanish

markazlarini faollashtirish va to‘ldirishda, balki o‘yin jihozlarini ishlab chiqarishda, bolalarning ijodiy va tadqiqot faoliyati uchun sharoit yaratishda ijodiy topilmalar bo‘ldi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarida ta‘limiy faoliyatlar har bir guruhdagi “Mening tanlovim” faol burchagi bolalar va bolalar faoliyati haqida ma‘lumotni mobil joylashtirish varianti sifatida o‘z tanlovlari asosida o‘yin ta‘lim strategiyasini shakllantirishga muhit yaratiladi. Bolalar va kattalarning xohish va g‘oyalariga qarab xonaning makonini o‘zgartirishga imkon beruvchi “Tanlov xaritasi”; “Mening tanlovim” markazlardagi faoliyatni sifat darajaga olib chiqmoqda.

NATIJALAR. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarga guruhning rivojlantiruvchi muhitini tashkil etishga to‘sqinlik qiladigan asosiy qiyinchilik bu maktabgacha ta‘lim tashkilotining muhitni shakllantirish estetikasini noto‘g‘ri tushunishdir, ya‘ni kattalarning ichki makonni chiroyli narsalar, yorqin rasmlar va o‘yinchoqlar bilan to‘ldirish istagida, statik ko‘rgazmalar va burchaklar yaratishda ifodalanadi. Ushbu muammoni hal qilish pedagogika va dizayn integratsiyasi bo‘lishi mumkin, bunda guruhning rivojlantiruvchi makonini loyihalash va to‘ldirishga badiiy va estetik yondashuv, makonning mazmuni pedagogik rivojlantirish bilan parallel ravishda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta‘limning muqobil modellarini ishlab chiqish sharoitida qisqa muddatli guruhlar, ko‘chma, modulli va oilaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotlari pedagoglar va rahbarlarida rivojlantiruvchi muhitini yaratish bo‘yicha ko‘plab savollar va muammolarni kuzatish mumkin.

XULOSA. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning mustaqil faoliyati rejalashtirilmaydi, u bolaning irodasiga, qiziqishiga va kayfiyatiga bog‘liq. Pedagoglar bolani majburlashlari mumkin emas, aksincha bolaning erkin faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratib berishlari lozim. Eng asosiysi hamma narsa bola uchun qiziqarli bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [Ўзбекистон Республикаси Президентининг Кичик ёшдаги болаларни тарбиялаш ва таълим бериш бўйича иккинчи Бутунжаҳон конференцияси очилиш маросимидаги нутки \(president.uz\)](https://president.uz)

2. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1

3. Anvarovna, Sultonova Nurkhon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).

4. Bakhodirovna, Halkuzieva Dilnoza. "Personality-Oriented Education in the Development of Creative Activities of Future Educators." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 1.8 (2023): 432-435.

5. Sultonova, Nurxon Anvarovna. "Teoreticheskie osnovy podgotovki detey v sovremennykh usloviyax k sotsialnoy jizni v seme." *Scientific progress* 1.6 (2021): 631-635.

6. Umaraliyev M.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka jalb qilish yo'llari.

<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=9884824449205389662&btnI=1&hl=ru>

7. Umaraliyev M.M. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.

<https://sciencepromotion.uz/index.php/sp/article/view/79>

8. Xalkuzieva D. B., Muxammadjonova X. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorligining psixologik jihatlari //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 6. – C. 704-707.

9. Ibragimova S. G., Muxammadjonova X. Kichik maktab yoshidagi bolalar aqliy taraqqiyoti rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 1. – C. 501-505.



**TALABALARDA INGLIZ TILIDAN MULOQOT KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRIB O‘QITISHDA CEFR MEZONLARIDAN FOYDALANISH
MEXANIZMLARI**

Xayrullayeva Nilufarxon A‘zamjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Chet til ta‘limi tizimini modernizatsiyalashning dolzarb masalalari sifatida o‘qitish mazmuni, egallanayotgan mutaxassislik amaliyoti va o‘rganuvchining ehtiyojlariga mosligi hamda fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish masalasi keng muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Ingliz tilini o‘qitish texnologiyasi o‘zining universal tabiati bilan boshqa sohalarga ham tadbiq etilmoqda.


Kalit so‘zlar. Kompetensiya, muloqot madaniyati, texnologiya, metod, interfaol metodlar, loyiha, debat, CEFR mezonlari.

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘qitishni modernizatsiyalash konsepsiyasining asosiy maqsadi sifatida til o‘rganuvchi talabalarning ta‘lim olish yo‘nalishi bo‘yicha muayyan hajmdagi bilim va ko‘nikmalarini egallashga emas, balki uning shaxsini (jarayonga oid qobiliyatlarini) rivojlantirishga ahamiyat qaratish kerak. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 10-dekabrda Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori bilan Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil qilindi va O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ishchi organ etib belgilandi. Buning natijasida CEFR asosida milliy me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi, mamlakatimizda chet tillarini o‘qitish va o‘rganishga bo‘lgan talab yanada takomillashtirildi. Mamlakatimizda chet tillarini o‘qitish bo‘yicha yangi bosqich, yangi davr boshlandi. Chet tillarini o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan, interfaol, innovatsion usullardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish talab etilmoqda. Mamlakatimizda chet tillarini o‘qitish, chet tili o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholashning yangi usullari va talablari CEFR tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqildi. Unga ko‘ra umumta‘lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun yangi darsliklar yaratildi. Hozirgi kunga kelib chet tilini o‘rganishga talab kundan kunga oshib bormoqda.

Ingliz tilini o‘qitish jarayonida talabalarda muloqot kompetentligini rivojlantirishda texnologiyalarning o‘rni juda muhim bo‘lib, (reading, writing, listening, speaking) (o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) ko‘nikmalarini rivojlantirishga har tomonlama yordam

beradi. Tilni o‘rganish va o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Xususan, chet tilini o‘rganishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha afzalliklari bor. Masalan, tinglab tushunish til o‘rganishda eng muhim vazifalardan biridir, audio eshitib ham ko‘rgan paytda o‘rganuvchi ko‘proq so‘zlovchining talaffuziga, grammatik qoidalariga, so‘z birikmalari va ma’nolariga e’tibor berishga imkoniyat paydo bo‘ladi va bu usul ularning og‘zaki nutqining rivojlanishiga yordam beradi. 2001- yilda The Common Europeon of Reference (CEFR) tilning malakali rivojlanishiga zamin yaratib, shu bilan ta’lim va kasbiy rivojlanishiga, ularda amaliy ko‘nikmalarga katta e’tibor beriladi. Bu yesa yuqori ta’lim sifatiga javob beradigan darajada takomillashtirish va rivojlantirishda Cambridge Universiteti tomonidan ESOL va CEFR testlarini va me’yoriy hujjatlaridan bugungi kunga kelib jahonning ko‘plab davlatlarida foydalanib kelinmoqda. Butun dunyoga mos keladigan uslubda va metodlardan foydalanib ishlab chiqilgan. The Common Europeon of Reference (CEFR) o‘n yil davomida olib borilgan izlanishlar natijasida muloqotni yaxshilash uchun mo‘ljallangan, Yevropadagi OTM lari katta hissa qo‘shishdi. Yevropa Ittifoqi yuzaga kelgan paytdan boshlab, hayotning barcha sohalarida birlashishni chin ma’noda maqsad qilib qo‘ygan edi. Mana shu maqsadlardan biri ko‘p tillilik siyosatini olib kirishdir, Yevropa ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning o‘zlarini qiziqtirgan chet tillarini o‘rganish imkoniyatlarini yaratishdan iborat bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida, ta’limda til bo‘yicha xar xil mavzularda o‘zaro fikr almashib, funksional-semantik asosida yaratilayotgan yondashuvning amaliy jihatdan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishga zamin yaratadi va barcha Yevropa tillarida o‘qitish va baholash mezonlari o‘zaro moslashtirildi. Muloqot uchun turli zamonaviy tillarni o‘rganish va o‘qitish “(learning and teaching modern languages for communication” loyihasi muloqotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

2009 - yilga kilib CEFR ga yanada ko‘proq urg‘u berildi. Dastlab kommunikativ nutq tizimining nazariy va amaliy uslubiy masalalari ko‘rib chiqildi. O‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish, CEFR baholash mezonlari onlayn tarzda ishlab chiqildi, CEFR testi yanada rivojlantirildi. Bu zamonaviy test nomzodlarning og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini hamda tinglab tushunish va o‘qish darajalarini baholashda ham samarali o‘rin tutadi. Tilni yuqori sifatda foydalanishda (council of Europe 2001:28-9) va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish (council of Europe 2009:187) borasida har bir daraja uchun mos keladigan mezonlar ustida izlanishlar olib borildi.



1-rasm. CEFR darajalari

Bu model uzliksiz ta'lim maqsadi talabalarga 4 skills bo'yicha kompetensiyasini(yuqori darajada) rivojlantirib har xil turdagi darajada yoki holatiga ko'ra kasbiy yo'naltirib, ularni shaxsiy kuch va zaif tomonlarini anglashi uchun yordam beradi. Bu yerda yaqqol ko'rinib turibdiki, CEFR (Common European Framework of Reference for Language) 6 ta darajani o'z ichiga oladi; bular A1, A2, B1, B2, C1, C2 hisoblanadi. CEFR sxemasidan foydalanishning bir necha afzalliklari mavjud. Qachonki CEFR darajalaridan kengroq foydalanilsa, o'quvchilar uchun tushunish va baholash qobiliyati shuncha yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, joriy etilgan darajadan foydalanish CEFR tizimiga katta imkoniyatlarni yaratishga yordam beradi. Bu yesa o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, talabalar chet tilini bilish qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning cefr darajasida kompetensiyasini ham oshirib boradi. Eng muhimi shundaki, o'qituvchi tinglab tushunish, gapirish, va yozish qobiliyatini solishtirganda bir- biridan darajasi farq qilishi sababli, talaba 4 ta (skills) ko'nikmani ham bir xil o'zlashtira olmasligi mumkinligi aniqlanadi. Bu yo'l bilan ular hamma skills bo'yicha xar bir qismga alohida diqqat e'tiborini qaratishga undaydi. asosiy tushuncha shuki, CEFR 4 ta qism, 6 ta darajani ichiga oladi, bu darajalar bir biriga aloqadorligini ko'rsatib beradi: har darajani oshishi aqliy rivojlanish hisoblanadi. Bu haqiqatdan ham, ta'lim sohasida kasbiy qobiliyatni rivojlantirishga olib keladi. Biroq, bu darajalar oshgani sari mashqlar ham murakkablashib boradi. Buning asosiy maqsadi ta'lim model tizimida doimiy bilimni yangilab turishga, o'zini ustida ishlashga undaydi. Bu birin-ketin erishilayotgan darajalar, talabalarni ta'lim tizimidagi qobiliyatini oshiradi, dunyo qarashini kengaytiradi. Bundan tashqari bu jarayonni blum taksonomiya modeliga moslab tadqiqotimizning tajriba-sinov ishlarida keng tushuntirib berilgan. o'quvchi va o'qituvchi predmetni o'rganayotganda, uni darajalarga ajratib o'rganish qobiliyatiga tayanadi. Bu modelda 6 ta darajani har birini ishlash mexanizmi bo'lib, bu talabani o'rganish jarayonida baholab boradi. A1 va A2- o'z haqida, kishilar, joylar, narsalar va atrof-muhitini tasvirlash uchun oddiy vositalardan foydalana oladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Harper, D. J., S. Coulthard, et al. (2002). A Language Modelling Approach to Relevance Profiling for Document Browsing. In proceedings of The Joint Conference on Digital Libraries, Oregon, USA. July 2002, 2002
2. Howatt, A. P. R. 1984. A History of English Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.
3. Handschin, Ch.H. the teaching of modern language in the United States. Washington government printing office 1913
4. Johnson, K. and K. Morrow (eds.). 1981. Communication in the Classroom. Essex: Longman.
5. Kalivoda, T. B. (1987a). Extralinguistic support—A crucial element in FL teaching. English Teaching Forum, 25(2), 2-6.



**BO‘LAJAK PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA AKSIOLOGIK
YONDASHUV ASOSIDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

Oqnazarov To‘lqin Jalilovich

PhD, dotsent, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi

Nomozov Shodiyor Barnakulovich

magistr, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘ljak pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida aksiologik yondashuv asosida kreativ tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari yoritilgan. Aksiologik yondashuvning nazariy asoslari, uning ta‘lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati, shuningdek kreativ tafakkurni shakllantirishda qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan. Loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta‘lim, dizayn fikrlash va raqamli vositalar orqali o‘qituvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish usullari tavsiflangan. Maqolada aksiologik-kompetensiyaviy yondashuv asosida innovatsion o‘quv muhitini shakllantirishga oid takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: aksiologik yondashuv, kreativ tafakkur, bo‘ljak pedagog kadrlar, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta‘lim, dizayn fikrlash, loyiha asosida o‘qitish, kompetensiyaviy yondashuv

**ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ
АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

Аннотация. В статье рассматриваются технологии развития креативного мышления будущих педагогических кадров на основе аксиологического подхода. Раскрыты теоретические основы аксиологии, её роль в образовательном процессе, а также современные педагогические технологии, способствующие формированию креативного мышления. Рассмотрены методы обучения через проектную деятельность, проблемное обучение, дизайн-мышление и использование цифровых ресурсов. Предложены рекомендации по формированию инновационной образовательной среды на основе аксиолого-компетентностного подхода.

Ключевые слова: аксиологический подход, креативное мышление, будущие педагогические кадры, педагогические технологии, инновационное образование, дизайн-мышление, обучение на основе проектов, компетентностный подход

TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING CREATIVE THINKING BASED ON AXIOLOGICAL APPROACH IN TRAINING FUTURE TEACHERS

Abstract. This article explores technologies for developing creative thinking in future pedagogical personnel through an axiological approach. It discusses the theoretical foundations of axiology, its significance in the educational process, and modern pedagogical technologies that foster creative thinking. The paper examines methods such as project-based learning, problem-based instruction, design thinking, and the integration of digital tools. Recommendations are provided for forming an innovative learning environment grounded in the axiological-competence-based approach.

Keywords: *axiological approach, creative thinking, prospective teachers, pedagogical technologies, innovative education, design thinking, project-based learning, competence-based approach*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi inson kapitalini rivojlantirish, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish, innovatsion fikrlashga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan ijodkor insonni tarbiyalashga qaratilmoqda. Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va ta’lim sohasidagi jadal islohotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsiy kamolotga, ma’naviy-axloqiy tarbiyaga, ijodiy faoliyatga yo‘naltiruvchi yetakchi sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, pedagogik kadrlarni tayyorlashda ularning shaxsiy qadriyatlari, kasbiy pozitsiyasi, tafakkur darajasi va kreativ salohiyatini uyg‘un rivojlantirish muhim o‘rin tutadi.

Aynan shu nuqtai nazardan, aksiologik yondashuv - ya’ni ta’lim jarayonida shaxsiy va kasbiy qadriyatlar tizimini shakllantirish - kelajak pedagoglarining professional va shaxsiy taraqqiyotida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Aksiologik yondashuv orqali talaba-o‘qituvchilarning ichki motivatsiyasi, kasbga bo‘lgan mas’uliyatli munosabati, insonparvarlik, adolat, mehr-oqibat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik kabi fazilatlari shakllanadi.

Bundan tashqari, zamonaviy pedagoglar uchun kreativ tafakkur - yangi pedagogik g‘oyalarni ilgari surish, muammoli vaziyatlarga noan’anaviy yechimlar topish, o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘qitish metodlarini ishlab chiqish qobiliyati – zarur kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Kreativ fikrlovchi o‘qituvchi doimo yangilik izlaydi, standart yondashuvlardan chiqib ketadi, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan faol ishlay oladi.

Shunday ekan, bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida aksiologik yondashuv asosida kreativ tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni qo‘llash pedagogik ta’limning zamonaviy talablariga javob beruvchi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa, bir tomondan, ta’lim mazmunini boyitadi, ikkinchi tomondan, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini chuqurlashtiradi, uchinchi tomondan esa, jamiyat ehtiyojiga javob bera oladigan barkamol pedagog shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Aksiologik yondashuvning pedagogik mohiyati

Aksiologik yondashuv ta’lim tizimida insonparvarlik, ma’naviy-axloqiy tarbiya va shaxsiy qadriyatlar asosida rivojlanishni ko‘zda tutuvchi pedagogik yondashuvdir. Bu yondashuvning asosiy markazida inson, uning shaxsi, ehtiyojlari, qadriyatlari, erkinligi va individual imkoniyatlari turadi. Aksiologiya - qadriyatlar haqidagi falsafiy ta’limot bo‘lib, u shaxsning hayotiy pozitsiyasi, dunyoqarashi, ijtimoiy faoliyati va o‘zini namoyon qilish shakllarini belgilaydi. Pedagogikada esa bu yondashuv shaxsiy va kasbiy qadriyatlarni shakllantirish, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro munosabatlarini mazmunan boyitish, ta’limning ma’naviy-asosli modelini yaratish orqali namoyon bo‘ladi.

Aksiologik yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Insonparvarlik va shaxsga yo‘naltirilganlik – har bir talaba o‘z qadr-qimmatiga ega shaxs sifatida ko‘riladi, uning mustaqil fikrlashi, o‘zini ifodalashi qo‘llab-quvvatlanadi.
2. Ma’naviy-axloqiy tarbiya – shaxsda umumiy qadriyatlar (halollik, adolat, mas’uliyat, vatanparvarlik va boshqalar) asosida ijtimoiy yetuklikni shakllantirish.
3. Faoliyatga yo‘naltirish – talabaning o‘z qadriyatlarini real faoliyat orqali anglashiga va mustahkamlashiga yo‘l ochish.
4. Refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish – talabaning o‘z fikrlarini, qadriyatlarini tanqidiy baholashi va doimiy rivojlantirishi.

Pedagogik jarayonda aksiologik yondashuvning ahamiyati:

- Bo‘lajak pedagog shaxsining shakllanishi – kasbiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish orqali talabaning o‘z kasbiga hurmat, sadoqat, mas’uliyat bilan yondashuvi shakllanadi.
- Ijtimoiy faollik va fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish – talaba faqat o‘quvchi emas, balki jamiyat oldida mas’uliyatli shaxs sifatida o‘zini anglashi kerak.
- Didaktik maqsadlarning chuqurlashuvi – faqat bilim emas, balki qadriyatlar ham o‘quv jarayonining asosiy natijasi sifatida qaraladi.
- O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik munosabatlarini shakllantirish – o‘qituvchi o‘z shaxsiy namunasi orqali ham tarbiyaviy, ham axloqiy qadriyatlarni talabalarga yetkazadi.

Bo‘lajak pedagoglarda aksiologik kompetensiyalarni shakllantirish quyidagilarga yordam beradi:

- o‘z kasbining ma’nosini chuqur anglash;
- o‘quvchilarga shaxs sifatida yondashish;
- ta’lim jarayoniga ma’naviy-estetik jihatdan yondashish;
- qaror qabul qilishda axloqiy mezonlarga tayanish;
- o‘z kasbiy faoliyatiga ijtimoiy va madaniy mas’uliyat bilan yondashish.

Shuningdek, aksiologik yondashuv zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ayniqsa kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodlar bilan uyg‘un qo‘llanganda yanada samarali

natijalar beradi. Chunki qadriyatlar va ijodkorlik birgalikda pedagogik faoliyatga chuqur ma’no va mazmun baxsh etadi.

Kreativ tafakkur va uning shakllanishi

Kreativ tafakkur — bu muammoni hal qilishda, yangicha yondashuvlarni izlashda, noan’anaviy fikrlash orqali original g‘oya va qarorlarni ilgari surishda namoyon bo‘ladigan tafakkur turi hisoblanadi. U insonning intellektual salohiyati, tasavvur doirasi, axborotlar asosida yangilik yaratish qobiliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni shakllantirish ularning kelajakda ta’lim jarayonini innovatsion, samarali va o‘ziga xos yondashuvlar bilan olib borishida muhim omil hisoblanadi.

Kreativ tafakkurning asosiy xususiyatlari:

1. Moslashuvchanlik – mavjud vaziyatga qarab fikr yuritish, sharoitga mos yechim topa olish;
2. Originallik – standartdan chetga chiqqan, yangi va noodatiy g‘oyalarni ilgari surish;
3. Muammoli fikrlash – mavjud muammoni ko‘ra olish va unga ijodiy yechim taklif etish;
4. Assotsiativlik – tasodifiy yoki mavhum aloqalar orqali g‘oyalarni bog‘lay olish;
5. Divergent fikrlash – bir muammoning turli xil yechimlarini ko‘ra olish qobiliyati.

Kreativ tafakkurni shakllantirish bosqichlari:

1. Motivatsiya uyg‘otish – talabada qiziqish va intilishni rag‘batlantirish.
2. Muammoni idrok etish – mavjud vaziyatni tahlil qilishga o‘rgatish.
3. Fikrlar generatsiyasi – brainstorm, mental xaritalar, metaforik yondashuvlar orqali fikrlar yaratish.
4. Tanqidiy tahlil va saralash – ilgari surilgan g‘oyalarni baholash, eng maqbullarini tanlash.
5. Amaliy qo‘llash – g‘oyalarni loyihaga, vazifaga, dars dizayniga tadbiq qilish.

Pedagogik ta’limda kreativ tafakkurni rivojlantirish yo‘llari:

- Loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning) – talabalarni jamoaviy va mustaqil izlanishga undash, muammolarni real vaziyatlarda hal qilish orqali ijodiy fikrlashni shakllantirish.
- Muammoli ta’lim (Problem-based learning) – talabaning tanqidiy va analitik fikrlash salohiyatini faollashtirish.
- Dizayn fikrlash (Design thinking) – o‘quvchi ehtiyojlarini chuqur anglab, innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga asoslangan yondashuv.
- Ssenariy asosidagi o‘qitish – noan’anaviy pedagogik vaziyatlar asosida ijodiy qarorlar ishlab chiqish.
- Rol o‘ynash va dramatik metodlar – emotsional va ijtimoiy tafakkurni uyg‘otish orqali ijodiylikni rag‘batlantirish.

AKT va kreativ tafakkur:

Raqamli texnologiyalar, vizual dasturlar (misol: Canva, MindMeister, Miro), taqdimot va animatsiya platformalari (Powtoon, Prezi), kodlash muhitlari (Scratch, Tynker) orqali talabalar o‘z fikrlarini yangicha ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa kreativ tafakkurni qo‘llash, rivojlantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kreativ tafakkur va qadriyatlar o‘zaro aloqasi:

Kreativ fikrlash shunchaki “ijodkorlik” bilan cheklanmaydi. Bu – ma’naviy qadriyatlarga tayangan holda yangilik yaratish, ijtimoiy foyda keltiruvchi g‘oyalarni ilgari surish, professional va axloqiy mas’uliyatni chuqur anglashni ham nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, aksiologik yondashuv orqali shakllangan kreativ tafakkur shaxsiy va kasbiy yuksalishning eng barqaror yo‘lidir.

Rivojlantiruvchi texnologiyalar va ularning aksiologik asoslari

Zamonaviy pedagogik amaliyotda rivojlantiruvchi texnologiyalar o‘quvchi yoki talabaning faolligini, mustaqil fikrlashini, ijodkorligini, hamda shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘qitish metod va usullari majmui sifatida talqin etiladi. Bu texnologiyalar nafaqat bilim berishga, balki shaxsda muayyan **qadriyatlar tizimini** shakllantirishga, ya’ni **aksiologik rivojlanishga** xizmat qilishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlantiruvchi texnologiyalarning asosiy tamoyillari:

- Shaxsga yo‘naltirilganlik;
- Faoliyatga asoslangan yondashuv;
- O‘z-o‘zini rivojlantirish va refleksiya;
- Mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga rag‘batlantirish;
- Innovatsion tafakkur va kreativlikni shakllantirish.

Ushbu tamoyillar orqali rivojlantiruvchi texnologiyalar talabaning **kognitiv (bilimiy), emotsional (hissiy) va aksiologik (qadriy)** rivojlanishini ta’minlaydi. Ayniqsa, o‘qituvchilik kasbini egallayotgan talabalar uchun bu texnologiyalar yordamida nafaqat kasbiy bilimlar, balki **ma’naviy-axloqiy fazilatlar, insonparvarlik, vatanparvarlik, boshqalarga hurmat, mas’uliyat** kabi qadriyatlar ham singdiriladi.

Aksiologik jihatdan boy rivojlantiruvchi texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

1. Muammoli ta’lim texnologiyasi:

O‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni aniqlash va unga yechim topishda shaxsiy pozitsiyani shakllantirish orqali ularning ichki qadriyatlarini rivojlantiradi. Har bir yechim axloqiy va ijtimoiy mezonlar bilan baholanadi.

2. Loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning):

Talabalar ijtimoiy foydali, real muammolarga asoslangan loyihalarda ishtirok etish orqali **ijtimoiy mas’uliyat, hamkorlik, tolerantlik, etika** kabi qadriyatlarni amalda o‘zlashtiradilar.

3. Dizayn fikrlash (Design thinking):

Bu texnologiya empatiya, ehtiyojlarni tushunish va ijodiy yondashuv orqali insoniy qadriyatlarni ilgari suradi. O‘quvchi boshqa insonlarga naf keltirish orqali ma’naviy yetuklik sari intiladi.

4. Interfaol o‘qitish usullari:

Debatlar, rolli o‘yinlar, munozaralar, "aqliy hujum", klasterlar, "fikrlar yulduzi" kabi metodlar orqali talabalar fikr almashadi, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tinglaydi, murosaga kelishni o‘rganadi — bu esa **kommunikativ madaniyat va ijtimoiy qadriyatlarni** shakllantiradi.

5. Refleksiv texnologiyalar:

Talabalarni o‘z ustida ishlashga, o‘z harakatlari va qarorlarini baholashga o‘rgatadi. Bu jarayon orqali shaxsda **mas’uliyat, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z fikrini asoslash** kabi ichki qadriyatlar rivojlanadi.

Raqamli rivojlantiruvchi texnologiyalar va aksiologik yondashuv:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ham kreativ tafakkur va qadriyatlar uyg‘unligida samarali xizmat qilishi mumkin. Masalan:

- **Virtual muhitda axloqiy masalalar bo‘yicha simulyatsiyalar** (interaktiv etik holatlar);
- **Onlayn loyihalar va jamoaviy platformalar** (Padlet, Trello, Miro) orqali hamkorlikda ijod qilish;
- **Ta’limiy podkastlar va bloglar** – shaxsiy fikrni ochiq ifodalash va boshqa fikrlar bilan tanishish imkonini yaratadi.

Tajriba asosida tahlil

Tajriba-sinov ishlari pedagogik texnologiyalar samaradorligini amalda sinab ko‘rish, ularning bo‘lajak pedagoglarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga va qadriyatlar tizimini shakllantirishga ta’sirini aniqlash maqsadida tashkil etildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Tajriba loyihasining maqsadi:

Bo‘lajak o‘qituvchilarda aksiologik yondashuv asosida kreativ tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ularning samaradorligini aniqlash.

2. Tajriba o‘tkazilgan muhit:

Tajriba **pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan 3-kurs bakalavriat talabalari** (umumiy soni: 60 nafar) o‘rtasida olib borildi. Ular ikkita guruhga bo‘lindi:

- **Eksperimental guruh (30 talaba):** aksiologik yondashuv asosidagi rivojlantiruvchi texnologiyalar asosida ta’lim oldi.
- **Nazorat guruhi (30 talaba):** an’anaviy metodlar asosida o‘qitildi.

3. Tajriba mazmuni:

Eksperimental guruhda quyidagi texnologiyalar qo‘llanildi:

- **Loyiha asosida o‘qitish:** talabalar “Kreativ o‘qituvchi qanday bo‘ladi?”, “Qadriyatlar orqali kasbga sadoqat” kabi mavzularda loyihalar ishlab chiqdi;
- **Muammoli vaziyatlar orqali darslar:** axloqiy qarama-qarshiliklarga asoslangan pedagogik holatlarni tahlil qilish;
- **Refleksiv mashg‘ulotlar:** har bir darsdan so‘ng shaxsiy qadriyatlar va o‘zgarishlar yuzasidan yozma fikr-mulohazalar;
- **Debatlar va interfaol metodlar:** “Ijodkor o‘qituvchimi yoki tartibli o‘qituvchimi muhimroq?” kabi mavzular muhokamasi;
- **Dizayn fikrlash texnikasi** orqali ta’limiy resurslar ishlab chiqish.

Nazorat guruhida esa asosiy o‘quv materiallari faqat ma’ruza va seminarlar asosida berildi, talabalarning faolligi kamroq kuzatildi.

4. Baholash mezonlari:

Tajriba oldidan va keyin quyidagi mezonlar asosida talabalar o‘rganildi:

- **Kreativ tafakkur darajasi** (testlar va topshiriqlar asosida);
- **Aksiologik ong va qadriy yondashuv** (anketalar, esse va refleksiya yozuvlari orqali);
- **Didaktik topshiriqlarni ijodiy hal qilish qobiliyati;**
- **Kasbiy motivatsiya va ijtimoiy mas’uliyat darajasi.**

5. Natijalar tahlili:

Mezonlar	Eksperimental guruh (% o‘shish)	Nazorat guruh (% o‘shish)
Kreativ tafakkur	+42%	+17%
Qadriyatga asoslangan qarashlar	+38%	+12%
Muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish	+47%	+19%
Kasbiy motivatsiya	+36%	+15%

Tahlil: Eksperimental guruhda talabalar mustaqil, noan’anaviy fikrlashga ko‘proq moyil bo‘ldi. Ularning aksariyati qadriyatlar bilan bog‘liq masalalarga sezgirlik bilan yondasha boshladi. Shuningdek, o‘z loyihalari va mashg‘ulotlarida ijtimoiy mas’uliyatni ko‘rsatishga harakat qilishdi.

6. Talabalarning fikr-mulohazalari:

- “Bu mashg‘ulotlarda o‘z fikrimni ochiq ayta olishim menga ishonch bag‘ishladi.”
- “Kasbimga yangi nazar bilan qaray boshladim. Endi men uchun o‘qituvchilik – bu jamiyatga xizmat qilish.”
- “Har bir loyihamizda chin dildan izlanib, haqiqiy muammolarga yechim taklif qilganimiz meni ilhomlantirdi.”

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida aksiologik yondashuvni kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish – ta’limning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv o‘qituvchi shaxsini faqat kasbiy bilimlarga ega mutaxassis emas, balki yuqori darajadagi **ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ega, innovatsion tafakkur bilan qurollangan yetakchi shaxs** sifatida shakllantirishga zamin yaratadi.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, rivojlantiruvchi texnologiyalarni qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuv bilan uyg‘unlashtirish:

bo‘lajak o‘qituvchilarning **kreativ tafakkur salohiyatini oshiradi;**

ularning **kasbga bo‘lgan munosabati va fidoyiligini kuchaytiradi;**

ijtimoiy mas’uliyat va professional etika tushunchalarini amaliyotga singdirishga xizmat qiladi.

Bunday yondashuv asosida tayyorlangan pedagoglar:

o‘z kasbiga chuqur hurmat bilan qaraydigan;

yangilikka ochiq, muammoga ijodiy yondasha oladigan;

turli o‘quvchilarning ehtiyojlarini tushunadigan va ularning qalbiga yo‘l topa oladigan;

ta’limda ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni ilgari sura oladigan shaxslar sifatida shakllanadi.

Ushbu integratsiyalashgan yondashuv - kreativ tafakkur va qadriyatlar uyg‘unligi - nafaqat pedagogik ta’lim sifatini oshiradi, balki butun jamiyatda **ijtimoiy barqarorlik, tolerantlik, innovatsion rivojlanish va ma’naviy uyg‘onish** uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Shuningdek, bu yondashuv orqali shakllangan o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarining ham shaxsiy dunyoqarashi va mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Zero, ta’lim jarayonidagi asosiy missiya – bu **insonni tarbiyalash** bo‘lib, u faqat bilim emas, balki **qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan bilim** orqali amalga oshadi.

Shunday qilib, aksiologik yondashuv bilan boyitilgan kreativ ta’lim texnologiyalari - bu hozirgi va kelajak avlod uchun mas’uliyatli, ma’naviy barkamol, professional pedagoglarni tayyorlashning eng samarali strategiyasidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдурахманова Г.Х. *Аксилогический подход в подготовке будущих педагогов в системе высшего образования.* - Т.: Fan, 2020.
2. Abdullaeva G. B. *Kreativ fikrlashni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar.* - Samarqand: SamDU, 2021.
3. Бим-Бад Б.М. *Педагогика: словарь.* - М.: ЭКСМО, 2002.
4. Hasanboyeva, N. A. *Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy kreativlikni shakllantirish texnologiyalari.* // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 2023, №2.
5. Khakimov A. A. *Aksiyologik yondashuvda o‘qituvchining shaxsiy pozitsiyasi.* - Toshkent: TDPU, 2020.

6. Sayfurov D. S. *Bo‘lajak pedagoglarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv*. - Nukus: QarDU, 2022.
7. Карпов А.В. *Психология креативности*. - СПб.: Речь, 2005.
8. Sharipova D. R. *Ta’limda kreativlik: metodik yondashuvlar*. // O‘zbekiston pedagogik jurnali, 2022, №4.
9. Torrance E. P. *The Nature of Creativity as Manifest in Its Testing*. - Cambridge: Cambridge University Press, 1993.
10. UNESCO. *Teaching and Learning for a Sustainable Future*. -Paris: UNESCO Publishing, 2017.
11. Vygotsky L. S. *Imagination and Creativity in Childhood*. - New York: Routledge, 2004.
12. Zokirova D. H. *Aksiyologik yondashuv asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning metodik asoslari*. - Toshkent: Ma’naviyat, 2021.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARNING BILIMLARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali qizi

Qo‘qon davlat universiteti geografiya kafedrası dotsenti

E-mail: rn099702@gmail.com

Mo‘minov Doniyor Gulomjonovich

Qo‘qon davlat universiteti geografiya kafedrası dotsenti g.f.n

E-mail: doniyorjonmuminov71@gmail.com

Azimova Dilafro‘z G‘ayratovna

Qo‘qon davlat universiteti pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘qituvchining o‘qitish jarayonini nazorat qilib borish, o‘quvchilar bilimini tekshirish va baholash o‘qitish jarayonining majburiy elementidir. Tekshirish bilimlarni mustahkamlash va aniqlashtirishga xizmat qiladi, chunki uzoq vaqt tekshirishsiz qolgan bilimlar oson unutiladi.

Kalit so‘zlar: “ko‘nikma”, “bilim”, “takrorlash”, “tekshirish”, “baholash”, “yozma tekshirish”, “og‘zaki tekshirish”, “umum metodik talablar”, “ekologik tarbiya”.

КОНТРОЛЬ И ОЦЕНКА ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: Контроль преподавателя за процессом обучения, проверка и оценка знаний учащихся является обязательным элементом учебного процесса. Обзор служит для закрепления и уточнения знаний, поскольку знания, долгое время оставленные без повторения, легко забываются.

Ключевые слова: «навыки», «знания», «повторение», «проверка», «оценка», «письменная проверка», «устная проверка», «общие методические требования», «экологическое образование».

Kirish

Boshlang‘ich maktab o‘quvchilari darsda bilimlarni tezda o‘zlashtira olmaydi. bolalar tafakkuri rivojlanmasligi natijasida ham bilish faoliyatlari turli xilda rivojlangan bolalar maktabda ta‘lim-tarbiya oladilar. Shu sabali ham o‘qituvchi o‘quvchilar bilimini doimiy tekshirib va baholab borishi kerek.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Bilimlarni takrorlash yangilarini o‘rganish uchun tayanchdir.

Tabiiy fan darslarida o‘tilgan mavzuni takrorlash va umumlashtirish yangi mavzuni o‘rganish jarayonida va uni o‘rganishdan keyin, shuningdek, har bir chorak hamda yil oxirida o‘tkaziladi.

Takrorlashning turli uslublari mavjud:

-ko‘rilgan diafilmlar yoki kinofilmlar, suratlar, kontur xaritalar bo‘yicha suhbat vaqtida, o‘quvchilar tomonidan tajribalar o‘tkazilayotganida;

- masalalar echish va mashqlar bajarilayotganida;

-qiziqarli savollarga javob berilayotganda bilimlarni umumiy yoki individual tekshirishdir.

Takrorlash turlaridan biri o‘quvchilar bilimini og‘zaki tekshirishdir, u har bir darsda butun sinfni umumiy so‘rash yoki ayrim o‘quvchilardan individual so‘rash ko‘rinishida o‘tkaziladi. Umumiy so‘rashning ahamiyati shundaki, bunda javob berishga ko‘proq sondagi o‘quvchilarni jalb qilish va sinf e‘tiborini ushlab turish imkoniyati bo‘ladi. Biroq ayrim savollarga olingan javoblar har bir o‘quvchi bilimlarining chuqurligini aniqlashga imkon bermaydi va ularga o‘z fikrlarini hikoya tarzida bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga halaqit beradi. Shuning uchun ham individual so‘rash, ya‘ni ayrim o‘quvchining ravon hikoyasi so‘rashning asosiy turi hisoblanadi.

Natijalar

So‘rash jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlari naqadar aniqligi va fahmlab olinganligini, ularning o‘rganilayotgan jonsiz tabiat ob‘ektlari, o‘simlik va hayvonlar to‘g‘risidagi tasavvur va tushunchalarini qanchalik to‘g‘ri ekanligini aniqlash kerak bo‘ladi. Shunga ko‘ra mavzuni faqat og‘zaki bayon qilinishi bilan qanoatlanib qolmaslik kerak. Talab qilish kerakki, o‘quvchilar javoblarida kuzatish natijalaridan foydalansinlar, o‘z hikoyalarini o‘qituvchi mavzuni tushuntirishda foydalangan jadval, model va boshqa o‘quv qurollarini ko‘rsatish bilan birga olib boradi.

Muhokama

Alohida o‘quvchidan so‘rashning butun sinf bilimlarini mustahkamlashga yordam berishi munosabati bilan sinf e‘tiborini har bir javobga qaratilishiga erishish kerak. Sinf e‘tiborini faollashtirish uchun savolni butun sinfga berish, keyin o‘quvchilarni javobga chiqarish lozim. Bu barcha o‘quvchilar diqqatlarini to‘plashga va materialni xotirada tiklashga majbur qiladi. Bundan tashqari javob beruvchi o‘quvchi yo‘l qo‘ygan xato va noaniqlikni tuzatish, uning javobini to‘ldirish va qo‘shimcha savollar berish uchun butun sinfga javobni kuzatib borishni taklif qilish kerak. O‘qituvchi javob berayotgan o‘quvchiga e‘tibor berish bilan birga butun sinfni o‘z nazorati ostida ushlab turmog‘i lozim. O‘quvchilar e‘tiborini o‘z vaqtida payqash va uni tiklash usullarini topish, chekinish harakatlarini o‘z vaqtida payqash va bartaraf qilish g‘oyat muhimdir.

Bilimlarni yozma tekshirish. Tekshirishning bu turi savollarga yozma javob berish yoki yozma topshiriq bajarish tarzida o‘tkaziladi. Yozma ishlar uchun o‘rganilgan ob‘ektlarni sanab berish bilan bog‘liq bo‘lgan:

-tabiat hodisalari, landshaftlarning ayrim elementlari va odamlarning xo‘jalik faoliyatlari o‘rtasidagi aloqa yoki o‘zaro bog‘liqlikni ochib beruvchi;

-bolalarning tabiiy fan tushunchalarini bilib olganliklarini aniqlovchi;

-tabiatdagi kuzatish va natijalarni ta‘riflashni mo‘ljallagan, tabiiy ob‘ekt yoki jarayonlarni rasmlar chizish yordamida tasvirlash;

tabiat ob‘ektlarini tanib olish bilan bog‘liq bo‘lgan savollar taklif qilinadi.

Misol tariqasida o‘tilgan mavzuni tekshirish uchun savollar keltiramiz:

1. Paxta mevasi nima deb ataladi?
2. G‘allaning poyasi nima deb ataladi?
3. Poliz o‘simliklarining qaysilarini bilasiz?
4. Uzum qanday ko‘paytiriladi?
5. Yirtqich qushlar qanday foyda keltiradi?

Yozma ish uchun tezis tipidagi dasturlashtirilgan topshiriqlar, test, raqamli diktantlar, dasturlashtirilgan kartochkalardan foydalanilishi mumkin.

Bilim, o‘quv va ko‘nikmalarni baholash. O‘quvchilarning og‘zaki javoblari ularning bilimlarini aks ettiradi va o‘qituvchi tomonidan har bir o‘quvchining qanday o‘zlashtirayotganligini, u o‘quv materialini qanchalik egallaganligini ko‘rsatuvchi baholar bilan belgilanadi. Shuning bilan birga ular ma‘lum darajada o‘qitishning sifatini ham aniqlaydi, chunki o‘quvchilar bilimi uning asosiy o‘lchovidir.

Bilimlarni baholash intensivligini oshirish uchun bir necha o‘quvchilardan bir vaqtda so‘rash uslubini qo‘llash mumkin. Masalan, bir o‘quvchi sinf oldida o‘qituvchiga javob beradi, 2-3 o‘quvchi doskada rasmlar chizadi, bir necha o‘quvchi didaktik dasturlashtirilgan test va kartochkalar bilan ishlaydi.

O‘quvchilar bilimini baholashda mavzuni ular qanchalik aniq va ravon tushunganliklari, javobning aniqligi va to‘liqligi, shuningdek, uning shakli, ya‘ni bilimni bayon qilishning izchilligi va to‘g‘riligi hisobga olinadi. Tabiiy fan bo‘yicha o‘quvchilar bilimlarini baholashning o‘lchovlarini sinflar bo‘yicha keltiramiz:

1-sinf. Birinchi sinf yakunida o‘qitishning oxiriga kelib, bolalar yil fasllarining xarakterli belgilarini; bir nechta buta o‘t o‘simliklarining, yaqin atrofdagi bir nechta hayvonlarning nomlarini bilishlari va ularni taniy olishlari; tabiatda o‘zini tutish qoidalarini bilishlari va bajarishlari kerak,

Birinchi sinfda baho qo‘yilmaydi, ammo muvaffaqiyatli javoblar rag‘batlantiriladi.

2-sinf. Ikkinchi sinfda “5” bahosi yil fasllarining ayrim belgilarini bilganlarga; 3-4 daraxt, buta, o‘t o‘simliklari va xona o‘simliklarini, shuningdek, qushlar va hasharotlarning 3-4 ta turini bilgan va farqiga bora olganlarga qo‘yiladi. Bolalar, shuningdek, tabiatda muntazam kuzatishlar olib borgan va ularni “Kuzatishlar kundaligi”da qayd qila olgan bo‘lishlari; xona o‘simliklarini to‘g‘ri sug‘ora olishlari, ularni parvarish qilishni bilishlari; shaxsiy gigiyena qoidalarini, kun va ovqatlanish jarayonini bilishlari hamda bajarishlari kerak.

“4” baho ham “5” baho kabi o‘lchovlar bo‘yicha qo‘yiladi, ammo javobda ba‘zi noaniqliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘ladi.

“3” baho o‘quvchi tabiatdagi o‘z kuzatishlarini qayd qila olish, ular to‘g‘risida javob bera olish o‘quvlarini etarli egallamaganida qo‘yiladi. Salbiy baho qo‘yilmaydi.

3-sinf. “5” baho o‘z joyida eng ko‘p tarqalgan mavsumiy hodisalar to‘g‘risidagi to‘liq bilimlarga, ular to‘g‘risida sabab, oqibat bog‘lanishlarini ko‘rsatish bilan va o‘zining tabiatdagi kuzatishlariga tayanib hikoya qila olish o‘quviga; o‘z joyida ko‘proq tarqalgan o‘simlik va hayvonlar, ularning yashash sharoitlari to‘g‘risida (darslik va tabiatni kuzatish kundaligi hajmida) hikoya qila olish o‘quviga; o‘z joyidagi odamlarning yil fasllari bo‘yicha mehnatlari to‘g‘risida aytib bera olish o‘quviga qo‘yiladi. O‘quvchilar odam organizmi va uning salomatligini saqlash to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari, tabiatda muntazam kuzatish olib borishlari va ularni kuzatishlar kundaligida qayd qilib borishlari; havo haroratini to‘g‘ri o‘lchay olishlari, gerbariylarni rasmiylashtira bilishlari, kundalik mavzular bo‘yicha kuzatishlariga yakuniy xulosa chiqara olishlari kerak.

“4” bahosini qo‘yishda ham yuqoridagi talablarga rioya qilinadi, biroq bunda biroz noaniqlikka yo‘l qo‘yilgan bo‘ladi.

“5” va “4” baholari faqat darslik materialini bilgangagina emas, balki shuning bilan birga o‘quv-tajriba maydonchasidagi va ekskursiya vaqtidagi faol ishlariga, kuzata olishlariga va tabiatning o‘zidan bilim ola bilishiga ham qo‘yiladi.

“3” baho tabiat to‘g‘risidagi noaniqlik, uzuq sabab-oqibat aloqalarini aniqlay olmaslikka, tabiatning mahalliy hodisalari, o‘simlik va hayvonlari, tabiatdagi odamlar hayoti to‘g‘risida bilim etarli bo‘lmaganda, tabiatda kuzatishlarni muntazam olib bormaganda va kuzatishlar kundaligini tizimli yuritmaganda qo‘yiladi.

Salbiy baho qo‘yilmaydi.

4-sinf. “5” baho dasturning asosiy mavzulari bo‘yicha aniq bilimlarga, reja bilan xaritaning farqiga borish, kompasdan foydalanish, joyida ufq tomonlarini farqiga borish, o‘z o‘lkasi tabiati to‘g‘risida (darslik yoki mahalliy o‘lkashunoslik qo‘llanmasi hajmida) gapirib berish, o‘z kuzatishlaridan amalda foydalanish o‘quvlariga, shuningdek Vatanimiz tabiati to‘g‘risida to‘g‘ri, to‘liq hikoyaga, har xil hududlar tabiatidagi sabab-oqibat aloqalarini ko‘rsata olishiga; tabiatga ehtiyotkorlik munosabati nimadan iboratligi va kishilar tabiat bilan qanday munosabat qilayotganliklarini tushuntira olishiga; amaliy ishlarni to‘g‘ri bajarishi va kuzatishlar kundaligini muntazam yuritishiga qo‘yiladi.

“4” baho yuqoridagi bilimlar uchun qo‘yiladi, ammo javob berishda uncha katta bo‘lmagan noaniqlikka yo‘l qo‘yilgan bo‘ladi.

“3” baho bilimlarning noaniqligi, to‘liq bo‘lmaganligi, o‘quv materialini bo‘sh ekanligi, hikoyada o‘z kuzatishlaridan foydalana olmaganligi va amaliy ishlarni va kuzatishlar kundaligi yuritishni sifatsiz bajarganligi uchun qo‘yiladi.

O‘qituvchi bu me‘yorlardan foydalana borib, har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini, uning o‘quv materialini o‘zlashtirishdagi harakatlarini, o‘zining kamchiliklari va qiyinchiliklarni bartaraf qilish qobiliyatini hisobga olishi zarur.

Baho sinfdagi yoki joylardagi aniq amaliy ish uchun ham qo‘yilishi mumkin. Bunda ishning izchil va puxta bajarilishi, o‘quvchining mustaqillik darajasi, olingan xulosalarning to‘g‘riligi, ularni ifodalalay olishi hisobga olinadi. Eng kamida oyda bir marta o‘quvchilarning kuzatishlar kundaligidagi ishlar baholanadi. Bunda kuzatishlarning mustaqilligi, o‘z vaqtida o‘tkazilganligi, ob-havoni qayd qilish to‘g‘riligi hisobga olinadi. “Kuzatishlar kundaliklari” da o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan imlo xatolari albatta tuzatiladi, ammo tabiatshunoslik bo‘yicha baho qo‘yishda hisobga olinmaydi. O‘quv choragi yoki yili uchun yakuniy baho qo‘yishda o‘quvchi dastur talablarida ko‘rsatilgan bilim, o‘quv va ko‘nikmalarni qanchalik egallaganliklarini hisobga olish lozim. Bunda o‘quvchilarning og‘zaki javoblari, ularning amaliy faoliyati va kuzatishlar kundaligini yuritish sifati hisobga olinadi.

Rasm chizish yoki savollarga javob tarzida yozuvlar qilish uchun o‘quvchilar mavzuni oldindan o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak. Birinchi yarim yillikda o‘quvchilar hech narsa yozmaydilar, faqat rasm chizadilar, o‘quv yilining ikkinchi yarmida ular shu rasmlar tagiga qisqacha yozuvlar yozdilar. Xat-savodga o‘rgatishning alifbe davrida o‘quvchilar park va xiyobonlarning daraxtlari bilan tanishish maqsadida o‘tkazilgan ekskursiyadan keyin har xil shakldagi barg plastinkalarini qog‘oz varag‘iga qo‘yib, uning atrofini rasm tarzida chizadilar. Keyin ular bargni qarab chiqadilar va uning tishli, oval, kesik qirg‘oqlari, bargda tomirlarni joylanishi, bandi rasmlarini chizadilar, chizilgan bargga bo‘yoq beradilar. Mustaqil rasm chiza oladigan o‘quvchilar bargni qog‘oz varag‘iga qo‘ymasdan rasm chizadilar. Chizilgan rasm yoniga bargning o‘zini yopishtirish mumkin. Ikkinchi yarim yilda o‘quvchilar rasmlar tagiga “Chinor bargi”, “Terak bargi” kabi yozuvlar yozadilar. Yil fasllari to‘g‘risidagi hikoyalar o‘qilgandan keyin o‘quvchilar butun suratlarni chizishlari mumkin. Biror o‘simlikni kuzatish paytida o‘quvchilar e‘tiborini o‘simliklarning rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonga qaratish va ularni kunlar bo‘yicha yozdirib borish kerak. Masalan, “20 - fevralda o‘rik daraxtida kurtaklar paydo bo‘ldi”, “25 - fevralda o‘rik gulladi”, “Gullash 5 kun davom etdi”. Ishni osonlashtirish maqsadida birinchi sinf o‘quvchilariga qator topshiriqlar beriladi, topshiriqlarga ko‘ra ular faqat o‘simlikning rivojlanishini xarakterlovchi kunlarni belgilab boradilar. 2-sinfdan boshlab tabiatshunoslik sistematik kursini o‘rganish bilan bog‘liq holda daftarlarida ancha murakkabroq ishlarni olib boradilar. Tabiiy fan daftarining mazmuni quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Tushuntiruvchi yozuvli rasm. Asliga qarab chizish yaxshi. Masalan, amaliy mashg‘ulotda “G‘o‘za” mavzusini o‘rganishda o‘quvchilar g‘o‘zaning organlari bilan rasmini chizadilar. Agar darsda vaqt etarli bo‘lmasa, rasm chizish uyda tugallanadi. O‘qituvchining doskaga chizganlarini daftarga chizilishi mumkin. Har bir rasm odatda uning ayrim qismlarini ifodalaydigan tegishli yozuvlar ko‘rinishidagi tushuntiruvchi matnga ega bo‘lishi kerak (masalan, ildiz, poya, barg, gul, meva);

O‘qish davrining oxirida olingan qisqacha ta’riflar, umumlashtirishlar, tavsiyalar. Masalan, “reja”, “masshtab”, “kompas” tushunchalarining ta’rifini yozish, u yoki bu tabiiy zona uchun “Qazilma boyliklarning xususiyatlari” jadvalini tuzish mumkin;

Yozma ishlar, uyda yoki jonli tabiat burchagidagi tajribalarning natijalari. Masalan, o‘quvchiga uyda biror o‘simlikni qalamchasidan o‘stirish topshirig‘i berilgan. U daftoriga qalamchaning qachon kesilgani va suvga solinganini, qachon ildizchalar hosil bo‘lganini yozib borishi, shuningdek rivojlanishining har xil davridagi qalamcha rasmini chizishi kerak.

Daftarda asta-sekin xilma-xil va qiziq material to‘planib boradi, u tabiatshunoslikni o‘rganishni osonlashtiradi. O‘quvchilar daftarlaridagi barcha yozuv va rasmlar muntazam, o‘z vaqtida va batartib bajarilishi lozim. Ishning bajarilmasligi javobning bahosini pasayishiga olib keladi.

Daftar muntazam va sinchiklab tekshirib borilishi hamda o‘quvchilarning javob berayotganlariga qarab baholanishi lozim. Tekshirishda yozuv va rasmlarning to‘g‘ri bajarilganligi aniqlanadi. O‘quvchilarning daftardagi ishlari albatta baholanadi.

Xulosa

O‘quvchilar bilimini tekshirishdagi umum metodik talablar. Darsga tayyorlana turib o‘qituvchi o‘quvchilar bilimini hisobga olishning mazmuni, metod va shakllarini yaxshi o‘ylashi kerak. O‘qituvchi aniqlagan bilimlardagi xatolar va kamchiliklar individual topshiriqlarni bajarilishida bartaraf etilishi lozim. Hajman katta bo‘lmagan nazorat ishlar o‘quvchilarni ortiqcha band qilmasin (orfografik xatolar tekshirish paytida tuzatilib boriladi va ona tili darslarida ishlab chiqiladi). O‘quv mavzularini o‘zlashtirilishini tekshirishda bolalar bilimlarini faqat o‘tgan dars topshiriqlari bo‘yicha emas, balki butun mavzu bo‘yicha aniqlash lozim. O‘qituvchi qo‘ygan savollar ayrim tabiat ob‘ektlari va hodisalari o‘rtasidagi sababiy aloqalar hamda o‘zaro bog‘lanishlarni ochib bermog‘i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. Nuritdinova. “Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi” Toshkent, O‘qituvchi 2005-yil.
2. Umaraliyeva, B. R. “Educational importance of teaching geography in secondary schools.” International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.12 (2022): 348-350.
3. Umaraliyeva. B. R. “Yordamchi maktab o‘quvchilarida geografiya fani orqali tarbiyani shakllantirishda sharq mutafakkirlarining tarbiya to‘g‘risidagi qarashlaridan foydalanish masalalari” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 2023 yil 519-523b
4. Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali qizi “THE ROLE OF THE CORNER OF LIVING NATURE IN NATURAL SCIENCE CLASSES” JournalNX-Amultidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 Impact factor: 8.155: 66-69.
8. Umaraliyeva B.R. “Yordamchi maktab o‘quvchilarida geografiya fani orqali tarbiyani shakllantirishda sharq mutafakkirlarining tarbiya to‘g‘risidagi qarashlaridan foydalanish

_____ *Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 5-son* _____ *C seriya*
masalalari” NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI 2023-yil
1-son 519-523b.

9. Umaraliyeva B.R. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy fanni o‘qitish orqali tarbiyani shakllantirishda sharq mutafakkirlarining tarbiya to‘g‘risidagi qarashlaridan foydalanish masalalari”. NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI 2024-yil 3-son 1241-1245 b.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

МУСИҚА САНЪАТИДА МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИ ҚЎЛЛАШ ИМКОНИАТЛАРИ.

Ибрагимова Нилуфар Адхамовна.,

Гулистон давлат университети катта ўқитувчиси.

nilufar@mail.ru

Аннотация: Мамлакатнинг жахон ҳамжамиятида эгаллаган ўрни интеллектуал салоҳияти билан белгиланади. Бугунги кунда инсон ва жамият эҳтиёжларини қондиришни тобора такомиллашиб бораётган технологияларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Шу муносабат билан мусиқа таълимида ҳам мустақил изланиши учун масофавий таълим алоҳида ўринни эгаллайди. Ушбу мақола бўлажак мусиқа ўқитувчисининг масофавий таълим орқали ўз билимини ошириб бориши ҳақида.

Калит сўзлар; масофавий таълим, мусиқа таълими, педагогик лойиҳалаш, мусиқа саводхонлиги, иллюстрация методи, демонстрация методи, мусиқий дид.

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЕ НА МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ.

Аннотация: Место страны в мировом сообществе определяется ее интеллектуальным потенциалом. Удовлетворение потребностей людей и общества сегодня немыслимо без постоянно совершенствующихся технологий. В связи с этим особое место в музыкальном образовании занимает дистанционное обучение, поскольку оно также является самостоятельным. В этой статье речь идет о будущем учителя музыки, который совершенствует свои знания с помощью дистанционного обучения.

Ключевые слова: дистанционное образование, музыкальное образование, педагогическое проектирование, музыкальная грамотность, метод иллюстраций, метод демонстраций, музыкальный вкус.

THE OPPORTUNITES OF USING DISTANCE EDUCATION IN MUSIC STUDY.

Annotation: The place of a country in the world community is determined by its intellectual potential. Today, meeting the needs of a person and society is unthinkable without increasingly improved technologies. In this regard, distance education occupies a special place in music education for independent research. This article is about the future of a music teacher improving his knowledge through distance education.

Key words: distance education, music education, pedagogical design, music literacy, illustration method, demonstration method, musical taste.

Маълумки, таълим тизимини ислоҳ қилиш жараёни мамлакатда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотларнинг зарур омили ҳисобланади. Тадқиқотчиларнинг таъкидлашича, маълумотларни ўзлаштириш сифати таълим олувчиларнинг ахборотларни қабул қилиш ва фаоллик даражасига боғлиқ бўлиб, таълим олишда инсон 10% ўқиганини, 20% тинглаганини, 30% кўрганини ва 90% ўзи мустақил бажарганини ўзлаштирар экан. Айнан педагогик технологиялар асосида берилган вазифа ва топшириқларни ўқувчиларнинг ўзи мустақил бажариши учун қулай муҳит яратади. Бугунги кунда муסיқа таълими жараёнига янги инновацион технологияларни таълим жараёнига жорий этиш долзарб вазифалардан биридир. Республикамизда муסיқа педагогикаси фанини ривожлантиришда инновацион технологияларни таълим жараёнига тадбиқ этишнинг долзарблиги юқори малакали, замон талабларига мос кадрлар тайёрлаш борасидаги вазифалар билан белгиланади. Бу йўналишда бўлажак таълим берувчи кадрларнинг юксак маънавий-ахлоқий сифатларга эга бўлишлари, янги инновацион технологиялардан оқилона фойдалана олишлари алоҳида аҳамиятга эга. Шу муносабат билан муסיқий таълимда ҳам масофавий таълим асосида талаба ўқувчи-ёшларга билим берилиб келинмоқда. Масофавий таълимнинг афзалликлари шундаки, бунда талаба ўз имконият жаражасидан келиб чиққан ҳолда яъни: хоҳлаган вақтида (кеча-ю-кундуз) масофадан туриб билим олиши демакдир. Муסיқа таълими йўналишида таълим олаётган талаба мисолида кўрадиган бўлсак, у ушбу масофавий таълимдан ўқиётган фанларининг хусусиятларидан келиб чиқиб берилган муסיқий асарларнинг нота матнларини, mp3, ўқитувчи томонидан ёки моҳир созанда, хонанда томонидан ижро этилган ушбу асарнинг видео тақдимотидан, муסיқий назарий маълумотларга эга бўлиши учун “Муסיқа назарияси”га оид бўлган бир қанча дарслик, ўқув қўлланмалардан ва тақдимотлардан фойдаланиши мумкиндир. Шу муносабат билан ушбу масофавий таълим асосида замонавий педагогик технологиялардан ҳам унумли фойдаланилмоқда. Чунки педагогик технологиялар талабаларнинг мустақил равишда қўшиқларни чолғу асбобида чалиб, куйлаб таҳлил қилиш, муסיқа саводхонлигини ошириб бориш, соф интонацияда куйлаш, хотирани мустаҳкамлаш, образли тасаввур ҳосил қилиш, ўз қобилиятини тўла намоён қила олиш, муסיқа фанлари бўйича пухта билимларни эгаллаш, мулоҳаза ва суҳбат доирасини кенгайтириш, эркин ва ижодий фикрлаш, ўқитувчи ва гуруҳ ўртасида ҳамкорликни қарор топтириш, педагогик жараёнда демократик ва инсонпарварлик ғояларининг устуворлигига эришиш каби бир қатор муҳим таълим мақсадларига эришишни таъминлайди. {1}

Таълим жараёнини педагогик технологиялар ёрдамида амалга ошириш учун ўқитувчи педагогик маҳоратга эга бўлиши лозим. Педагогик маҳоратга эга бўлиш учун эса ўқитувчи ўз устида тинимсиз ишлаши керак бўлади. Узлуксиз таълимда масофавий

таълимдан тўлиқ фойдалана олиши учун ўқитувчи аввалом бор, АКТ ларни, интернет тармоқларидан бемалол фойдалана олишни билиши зарурдир. Масофавий таълимда эса, интерфаол методларни қўллаш учун ўқитувчи педагогик технология таълим жараёнига зарур бўлган ғоялар ва ҳаракатлар мажмуасини тузишга ҳамда ўқитишнинг ижодий ривожланиш тартибида ишлашга ўрганиши лозим. Муаммоли - изланувчанлик услубларини ўзлаштириш - ўқувчиларнинг ижодий-изланувчанлик фаолиятини ташкиллаштириш асоси, бинобарин интерфаол таълимнинг ҳам асосидир. {2}

Педагогик технология жараёнида ўқувчини барча йўналишларда ишлаш кўникмасини шакллантириш муҳим:

- муҳим муаммоларни излаш ва ажратиш
- муаммоларни таҳлил қилиш
- иш фаолиятининг мақсад ва вазифаларини аниқлаш
- ҳал этиш йўлларини излаб топиш
- энг яхши ечимни танлаш
- муаммони ечиш, ўзагини топиш
- иш дастури ва режасини тузиш. {5}

Барчамизга маълумки, дарсларни кўргазмали қуроллар ва техника воситалари орқали ўтказиш ўқувчилар фаоллигини ва шу орқали дарс самарадорлигини оширади. К.Д.Ушинский бу принципга алоҳида эътибор бериб, шундай дейди, - "Кўргазмалилик шундай принципки, унда ўқувчи мавҳум тасаввур ва сўзларга эмас, балки болалар бевосита идрок қилган аниқ образларга асосланади". Унинг қуйидаги турлари мавжуд:

1.Иллюстрация методи - билимларни оғзаки баён қила туриб, расмлар, чизмалар, жадваллар, доскадаги нота ёзувларига болалар диққатини тортиш.

2.Демонстрация методи видеокассеталар, дисклар, телевизион кўрсатувлардан фойдаланиб, мавзуга доир турли тасвирларни намойиш қилиш.

3.Табиий кўргазма, нарсаларнинг ўз предмети, турли мусиқий асбоблар ёрдамида ижро этиш орқали дарсни олиб бориш. {4}

Ҳар бир дарс, мавзу ўқув предметининг ўзига хос технологияси бор, яъни ўқув жараёнидаги педагогик технология - бу яқка тартибдаги жараён бўлиб, у ўқитувчининг эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда бир мақсадга йўналтирилган, олдиндан лойиҳалаштирилган ва қафолатланган натижа беришига қаратилган педагогик жараёндир. {3}

Илғор педагогик технологияларни масофавий таълимда қўллаш, аввало ўқувчиларнинг дарсга бўлган қизиқишини оширади, мустақил фикрлашга ундайди, идрок этиш хусусиятини ривожлантиради, қолаверса таълим мазмунини янгилайди.

Педагогик технологиялар ортиқча руҳий ва жисмоний куч сарфламай, қисқа вақт ичида юксак натижаларга эришиш мақсадини назарда тутди.

Республикада фаолият кўрсатаётган умумтаълим мактабларида Давлат таълим стандартлари бўйича иш олиб борилмоқда. Агар биз, баркамол инсон тарбиясини асосий

масала деб қарайдиган бўлсак, масофавий таълимда “Педагогик технологияларни қўллаш ” жараёнини талаб даражасида ташкил қилишимиз зарур. Педагогик технологиялар жараёнига эътибор беришнинг муҳимлиги қуйидагилардан иборат:

1. Ўқувчида муסיкий ўқув қобилият ҳамда ижрочилик малакалари ривожланади;
2. Ўқувчида “ муסיкий дид” маданияти ортади;
3. Муסיкий асардаги турли-туман муסיкий оҳанглар, турли овозларнинг фарқига ета олади. {3}

Муסיқа санъатида масофавий таълимнинг ўрни каттадир. Хулоса сифатида шуни айтиш керакки, узлуксиз таълимда масофавий таълим жараёнида муסיқа асарларини муסיқа чолғусида чалиш, куйлаш, ва муסיкий назарий билимларни эгаллашда жуда катта аҳамият касб этади. Муסיқа санъатида масофавий таълим жараёни талаб даражасида ташкил этилса, шу жараён орқали бизнинг миллий муסיқа бойлигимиз, мумтоз кўшиқ куйларимиз келгуси авлод онгига чуқур сингиб бориб, мерос бўлиб қолади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абдуллаева Ш, Ибрагимова Қ. “Педагогика назарияси” Т.,” Талқин” 2008. 79-бет.
2. Жуманиёзова. М. “Илғор педагогик технологиялар ва уларни амалда қўллаш” маъруза матнлари. Т., 2010. 48-бет.
3. Каримова. Д. “Муסיкий педагогик маҳорат асослари” Т.,” Иқтисод-молия” 2008. 82-бет.
4. Қосимова З. “Таълим технологиялари”. Т., “Тафаккур қаноти” 2014. 55-бет
5. Омонов.Ҳ.,Хўжаев Н., Мадярова Э., Эшчонов Э. “Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат” “Иқтисод-молия” Т., 2009. 125-бет.
6. МУСИҚА НАЗАРИЯСИ ФАНИНИНГ МУСИҚА ЎҚИТУВЧИСИНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШДАГИ ЎРНИ. [Vol. 3 No. 28 \(2024\): THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY](#)

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

OLIV TA‘LIM TIZIMIDA JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Ergashev Yaxyo Nematjonovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti
“ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada amalga oshirish zarurati ko‘rsatilgan oliy ta‘lim jismoniy tarbiya yo‘nalishidagi talabalarni tayyorlashda innovatsion yondashuvning ahamiyati haqida fikr mulohalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: axborot, aloqa, differensial, innovatsion yondashuv, texnologiya, trening, interaktiv.

Аннотация: В статье изложены идеи и комментарии о важности инновационного подхода в подготовке студентов по направлению «Физическая культура» в высшей школе, указана необходимость которого.

Ключевые слова: информация, коммуникация, дифференцированный, инновационный подход, технология, обучение, интерактивный.

Abstract: The article presents the importance of an innovative approach in the training of students in the field of physical education in higher education, the implementation of which is indicated.

Keywords: information, communication, differential, innovative approach, technology, training, interactive.

So‘nggi yillarda ta‘lim tizimi sezilarli darajada o‘zgardi va ta‘limni modernizatsiya qilish sharoitida ta‘limning barcha bosqichlari, jumladan, ta‘lim muassasalari qatorida oliy ta‘limga ham ta‘sir ko‘rsatdi. Oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilariga ularning bilim darajasi, ma‘naviyati, yurt taqdiri uchun mas‘uliyat tuyg‘usi bilan ajralib turadigan mas‘uliyatli qarorlar qabul qilishda harakatchanlik, ijodkorlik va mustaqillik tuyg‘ularini rivojlanitirish kabi talablar qo‘yilmoqda.

Jismoniy tarbiyada innovatsion yondashuv - bu yangi turdagi faoliyat turlarining paydo bo‘lishini rag‘batlantiradigan, o‘qitish va tarbiyalash jarayoniga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Innovatsion ta‘lim o‘qitishning zamonaviy shakllari, vositalari va usullaridan har tomonlama foydalanadi, bu esa ta‘lim faoliyatining eng ijodiy va samarali bo‘lishiga imkon beradi. Bunday tarbiya jarayonida ta‘lim jarayoni muloqot tarzida quriladi,

bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat tashkilotchi va yetakchi, balki ta’lim jarayonining ishtirokchisiga ham aylanadi.

Oliy o‘quv yurtlarida talabalar jismoniy tarbiyasiga innovatsion yondashuv o‘qitishning turli shakllari va turlarini o‘z ichiga oladi:

1. Salomatlikni asrash texnologiyalari.
2. Sportga yo‘naltirilgan texnologiya.
3. Differensial jismoniy tarbiya metodi.
4. Interfaol ta’lim.
5. Axborot va aloqa texnologiyalar.

Salomatlikni asrash texnologiyasi jismoniy tarbiyani oliy ta’limning umumiy tizimi bilan birlashtiradi. Ushbu texnologiya dinamik va statik yuklar o‘rtasidagi optimal muvozanatga asoslangan. Ushbu texnologiyalarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sog‘lom psixologik muhitni yaratishdir. Ushbu texnologiya jismoniy tarbiyada muhim rol o‘ynaydi va eng muhimlaridan biri sanaladi, chunki u aniqlik, jismoniy mashqlarni izchil o‘rganish, yoshga mos keladigan yuklamalar, statikaning optimal kombinatsiyasi uchun qo‘llaniladigan zamonaviy interfaol o‘qitish usullariga shuningdek talabalarning jismoniy darajasi, ularning sog‘lig‘i holati asoslangan.

O‘qituvchi darslarni ochiq havoda o‘tkazishi kerak, har bir talabaga individual yondashish tamoyiliga rioya qilish, sinfda qulay do‘stona muhitni tashkil etish va faoliyatning muqobil turlarini tashkil etish. Muhim nuqta – o‘qituvchi, doirasida

Bu texnologiya o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga qiziqishi uchun sharoit yaratadi, o‘quvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish natijalari bilan tanishadi va ularni jismoniy tarbiya va tarbiya jarayonida hisobga oladi.

Jismoniy tarbiyada sportga yo‘naltirilgan texnologiya muhim rol o‘ynaydi, bunda jismoniy tarbiya darslari o‘quvchining imkoniyatlari, xohishlari, qobiliyatlari va umuman, uning shaxsiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Jismoniy tarbiya darslarida o‘qituvchilar tomonidan ushbu texnologiyadan foydalanish o‘quvchilarga jismoniy tarbiya va sportning qadriyatlari va ahamiyatini o‘rgatish, o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasi, intilishlari, talabalarning qiziqishlari, sog‘liq holati va boshqa individual xususiyatlari, ehtiyojlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quv guruhlariga birlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Differensial jismoniy tarbiya metodi uslubiy ko‘nikma va bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan, shuningdek, jismoniy barkamollikka erishishni ta’minlaydigan ta’lim jarayonini boshqarish. Ushbu o‘qitish usuli qiziqarli, chunki maqsadli jismoniy tarbiya va o‘quvchi shaxsini rivojlantirish uning individual qobiliyatlarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Talaba to‘liq bajara olmagan taqdirda mashq qilish, o‘qituvchi u bilan individual ish olib boradi. Jismoniy tayyorgarlikni baholashda nafaqat mutlaq natijani, balki uning oshishini ham hisobga olish kerak. Shu munosabat bilan sportga, umuman jismoniy tarbiyaga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun har bir o‘quvchining yutug‘ini, hatto arzimagan yutuqlarini ham alohida ta’kidlab o‘tish zarur.

Eng zamonaviy va qiziqarli texnologiyalardan biri bu interfaol ta’limdir, ya’ni kognitiv faoliyatni tashkil etish shakli, birgalikdagi faoliyat shaklida amalga oshiriladigan bilish usuli ta’lim jarayoni ishtirokchilari: *"talaba-talaba"*; *"talaba-o‘qituvchi"*. Bunday treningning maqsadi talaba o‘zining intellektual mukammalligini, muvaffaqiyatini va o‘ziga ishonchini his qilishi uchun eng qulay ta’lim sharoitlarini yaratishdir. Bunday treningning asosi ma’lumotni idrok etishning faol xarakteri va interfaol mashg‘ulot jarayonida o‘quvchi tomonidan qabul qilingan ijobiy his-tuyg‘ular, shuningdek, bir-biri bilan o‘zaro ta’sir qilishdir.

Jismoniy tarbiya darslarida o‘qitishning interfaol texnologiyasidan foydalanish orqali nafaqat ijodiy fikrlash rivojlanadi, balki ong va ijobiy his-tuyg‘ular faollashadi, sportga, umuman jismoniy tarbiyaga ijobiy munosabat shakllanadi.

Talabalar uchun ma’lumotlar amaliy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida yangi, noodatiy shaklda taqdim etiladi: muammoli va murakkab masalalarni hal qilish bo‘yicha treninglar; interaktiv ma’ruzalar, audio va video materiallar va darsdan tashqari o‘qitish usullaridan foydalanish (kichik guruhlarda ishlash); darsda interfaol ta’lim texnologiyasidan foydalanish orqali ijodiy topshiriqlar va o‘yinlar jismoniy tarbiyada nafaqat ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, balki ong va ijobiy his-tuyg‘ularni faollashtiradi, unga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Talabalar uchun ma’lumotlar amaliy jismoniy tarbiya darslarida quyidagi pedagogik usullardan foydalangan holda yangi, noodatiy shaklda taqdim etiladi:

ish usullari va shakllari: munozarali va murakkab masalalarni muhokama qilish;

ko‘rgazmali qurollar, audio va video materiallar; ijtimoiy loyihalar va boshqa darsdan tashqari o‘qitish usullari (filmlar, suhbatlar, tanlovlar); davlat resurslaridan foydalanish (taklifnoma sportchilar); kichik guruhlarda ishlash; ijodiy vazifalar va o‘yinlar.

O‘quvchilar jismoniy tarbiyasiga innovatsion yondashishda o‘quv jarayonini yanada zamonaviy va yangi bosqichda tashkil etish, o‘quv materialini to‘liq o‘zlashtirishni ta’minlash imkonini beruvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda sportga qiziqishni, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya darslarida elektron taqdimotlardan foydalanish minimal soatlar ajratilgan nazariy materialni yanada ko‘rgazmali va batafsilroq berishga yordam beradi. Shuningdek, darslar davomida o‘qituvchi taqdimotlardan foydalanib, o‘quvchilarning jismoniy tarbiyaga qiziqishini oshirish maqsadida sportchilarning tarjimai holi va tarixiy voqealarni mazmunli va rang-barang taqdim etishi ham mumkin. Jismoniy tarbiya jarayonida mashg‘ulotlardan tortib, sog‘lom turmush tarzining ahamiyati, yomon odatlarning salomatlikka zararigacha bo‘lgan turli mavzudagi videoroliklar juda mashhur. Shu kabi videoroliklar dars mashg‘ulotlarida talabalarni diqqatini jamlashga va darslarni yanda qiziqarli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuv doirasida darslarni tashkil etish jarayoni boshqaruv va nazoratning avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanish bilan birga bo‘lishi kerak. Bu esa

virtual modullari, o‘quv va diagnostika stendlari, mashhur saytlar, raqamli materiallar, shuningdek, zamonaviy o‘quv vositalaridan (taqdimotlar, kompyuter testlari, masofaviy olimpiadalar, onlayn jamiyatlar va boshqalar) foydalanishni nazarda tutadi.

Ushbu texnologiya, ayniqsa, sog‘lig‘i sababli jismoniy tarbiya darslaridan ozod qilingan yoki qisman cheklangan talabalar bilan ishlash uchun juda muhimdir.

Shunday qilib, bu guruh o‘quvchilari o‘qituvchi taqdim etgan mavzularga muvofiq jismoniy tarbiya bo‘yicha insholar, ma‘ruzalar yozadilar, turli taqdimotlar qiladilar. Shuningdek, ta‘lim jarayonida mobil ta‘lim ham muhim hisoblanadi, ayniqsa jismoniy tarbiya yo‘nalishi sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun ham.

Mobil ta‘lim axborot-kommunikatsiya texnologiyalari doirasida ham qo‘llaniladi, bu o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan va tashkil etiladigan interaktiv o‘z-o‘zini o‘qitish uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotidir.

Bunday mashg‘ulotlarning asosi o‘quvchi mobil qurilmadan elektron ta‘lim resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan sharoitda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlaridir. Mobil ta‘limning asosiy yo‘nalishi – o‘quvchi shaxsining jismoniy madaniyatini shakllantirish iborat.

Shunday qilib, oliy o‘quv yurtlari talabalari jismoniy tarbiyasiga innovatsion yondashuv - bu turli texnologiyalar, usullar, vositalar va o‘qitish shakllaridan kompleks foydalangan holda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishdir.

Jismoniy tarbiya va tarbiyaga zamonaviy uslub va texnologiyalarning joriy etilishi an‘anaviy shakllarga nisbatan o‘quv jarayonini yanada ko‘rgazmali, qiziqarli qiladi, jismoniy tarbiya samaradorligini oshirishga, mustaqil sport va jismoniy faollikka bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Сучков С.С. Инновационные и современные подходы к организации занятий физической культуры в вузе / С.С. Сучков, А.В. Краснобаева // Научный аспект. – 2019. – №1. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://na-journal.ru/1-2019-gumanitarnyenauki/1473-innovacionnye-i-sovremennye-podhody-k-organizacii-zanyatiy-fizicheskoy-kulturyv-vuze>.
2. Шкляренко А.П. Инновационные подходы в организации физкультурной деятельности студентов в вузе / А.П. Шкляренко, А.А. Мазур // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – №52.
3. Яковлева В.Н. Физическое воспитание и физическая подготовленность студенческой молодежи / В.Н. Яковлева // Science Time. – 2014. – №9. – С. 254-261.
4. Qosimov A.Sh. Harakatli o‘yinlar. 1983. 5.
5. Normurodov A.N. O‘zbek milliy o‘yinlari. T., 1999.



JISMONIY FAOLLIKNI OSHIRISHDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISH

Omarova Aynash Mamut qizi
Toshkent kimyo texnologiya instituti
“ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrası
katta o‘qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda mobil ilovalar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati tahlil qilingan. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi jismoniy tarbiya sohasiga yangi yondashuvlarni joriy etish imkonini berdi, bunda mobil ilovalar o‘quv jarayonini interaktiv va samarali qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: mobil ilova, smartfon, monitoring, motivatsiya, operatsion, audio, video, prezentatsiya.

Аннотация: В статье анализируется значение использования мобильных приложений и инновационных технологий в повышении эффективности занятий по физическому воспитанию. Развитие информационных технологий позволило внедрить новые подходы в сферу физического воспитания, в которых важную роль играют мобильные приложения, позволяющие сделать процесс обучения интерактивным и эффективным.

Ключевые слова: мобильное приложение, смартфон, мониторинг, мотивация, операционный, аудио, видео, презентация.

Abstract: This article analyzes the importance of using mobile applications and innovative technologies in improving the effectiveness of physical education classes. The development of information technologies has allowed the introduction of new approaches to the field of physical education, in which mobile applications play an important role in making the learning process interactive and effective.

Keywords: mobile application, smartphone, monitoring, motivation, operational, audio, video, presentation.

Zamonaviy dunyoda mobil ilovalar va smartfonlarsiz hayotimizni tasavvur eta olmaymiz. XXI asrda smartfonlar har bir inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Biz ularni o‘zimiz bilan olib yuramiz va har kuni turli funksiyalardan foydalanamiz. Tadqiqotlarga ko‘ra, mobil qurilmalar shaxsiy kompyuterlarga qaraganda 3,5 marta tez-tez ishlatiladi. Hozirgi vaqtda

smartfonlar nafaqat ovozli qo‘ng‘iroqlar ishlab chiqarish vositasi balki matnli xabarlarni jo‘natish, deyarli har bir kattalar ega bo‘lgan hamda ko‘plab o‘yin-kulgilar, shaxsiy ma‘lumotlarni taqdim etadigan qurilma vazifasini bajarmoqda. Shu munosabat bilan smartfondan insonning jismoniy faolligini nazorat qiluvchi qurilma sifatida foydalanishni rivojlantirish imkoni paydo bo‘ldi.

So‘nggi yillarda sog‘lom turmush tarzini ilgari surish tendensiyalari tobora kuchayib bormoqda. Bu jarayonda aholining jismoniy faollik darajasini baholashga bo‘lgan qiziqish keskin ortdi. Jismoniy faoliyatni monitoring qilish sport sohasida ham ahamiyatga ega bo‘lgan va ilmiy tadqiqotlar orqali sportchilarni yaxshilashga yordam beradigan muhim bir jarayon bo‘lib kelgan. Biroq, bugungi kunda bu so‘rovlar nafaqat professional sportchilar, balki oddiy odamlar orasida ham keng tarqalgan. Chunki o‘z taraqqiyotini kuzatish va baholash, jismoniy faollikni davom ettirish va tayyorgarlikni yaxshilash uchun jiddiy turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Bu jarayon davlatlar va jamiyatlar tomonidan sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va aholining jismoniy salomatligini yaxshilash uchun muhim vosita sifatida ko‘rilmoqda. Jismoniy faoliyatni to‘g‘ri baholash va monitoring qilish, shuningdek, odamlarni o‘z salomatliklari va jismoniy holatlariga e‘tibor qaratishga undaydi.

Uzoq vaqt davomida insonning jismoniy faolligini tahlil qilish imkonini beradigan turli qurilmalar ishlab chiqilgan. Bu qurilmalar, dastlab, asosan sportchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, ularning jismoniy holatini va faoliyatini nazorat qilishga yordam bergan. Ayni paytda esa ushbu qurilmalar juda ko‘p o‘zgarishlarga uchrab, kengroq auditoriya orasida mashhur bo‘ldi. Bugungi kunda nafaqat professional sportchilar, balki oddiy odamlar ham o‘z jismoniy faolliklarini kuzatish uchun turli xil qurilmalardan foydalanmoqda.

Jismoniy faollikni baholash uchun maxsus mobil ilovalar birinchi marta paydo bo‘lganda, ular faqatgina kichik guruhlar uchun mos edi. Ammo texnologik asrda bu ilovalar o‘ta mashhur bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab millionlab foydalanuvchilarni o‘ziga jalb qildi. Tadqiqotlarga ko‘ra, fitnes ilovalari mobil ilovalar do‘konlarida ma‘lum bir operatsion tizimga mo‘ljallangan holda yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, odamlar jismoniy faollikni yaxshilash va o‘z salomatliklarini kuzatish uchun texnologiyalarga katta qiziqish bildirayotganini anglatadi.

Google Fit — bu Google kompaniyasining so‘nggi ishlanmalaridan biri bo‘lib, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va Amerika yurak assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan. Google Fit faqatgina ilova emas, balki shaxsning jismoniy faolligini va uning tanasining ba‘zi xususiyatlarini kuzatadigan bulutli xizmatdir. Ilova planshetlar va smartfonlar bilan mos keladi, lekin eng yaxshi natijalarga erishish uchun, ishlab chiqaruvchi ta’kidlaganidek, Google Fit-ni fitnes-trekerlar, aqlli soatlar va boshqa ixtisoslashtirilgan qurilmalar bilan integratsiyalash orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Biroq, bu holat ba’zi kamchiliklarga olib keladi, chunki hamma foydalanuvchilar ham ushbu maxsus qurilmalardan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Google Fit ilovasi jismoniy mashqlar paytida foydalanuvchi tomonidan bosib o‘tilgan masofa, qadamlar soni, yoqilgan kaloriyalar va boshqa muhim jarayonlarni kuzatib boradi. Buning

yordamida foydalanuvchilar o‘z faoliyatlarini doimiy ravishda monitoring qilib, sog‘lom turmush tarzini saqlashlari mumkin.

Endomondo mobil ilovasi iPhone, Android va Windows Phone uchun mavjud bo‘lib, asosan ochiq havoda jismoniy mashg‘ulotlarni kuzatish va tahlil qilish uchun mo‘ljallangan. Ilovaning eng katta afzalliklaridan biri — uning turli operatsion tizimlar va qurilmalarda mavjudligi, bu esa keng foydalanuvchi auditoriyasiga qulaylik yaratadi. Endomondo foydalanuvchilarga faoliyat davomiyligi, masofa, tezlik, tezlikning o‘zgarishi kabi muhim parametrlarni kuzatib borishga imkon beradi. Bundan tashqari, ilova real vaqtda xaritada mashrutni ko‘rsatib, foydalanuvchilarga o‘z faoliyatlarini aniq tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Endomondo ilovasida shuningdek, foydalanuvchilarga o‘z natijalarini do‘stlari bilan baham ko‘rish imkoniyatini beradigan funksiyalar mavjud. Ilova do‘stlar bilan suhbatlashish, o‘z faoliyatlari va maqsadlari haqida muloqot qilish imkoniyatini taqdim etadi. Boshqa motivatsiya funksiyalari, masalan, audio trener va turli motivatorlar, foydalanuvchilarni mashg‘ulotlarni davom ettirishga undaydi va yanada samarali natijalarga erishishga yordam beradi. Bu ilova nafaqat jismoniy faollikni kuzatish, balki motivatsiya va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish uchun ham foydalidir.

Shunday qilib, shunga o‘xshash funksionallikka ega ilovalarni tahlil qilish natijasida ko‘plab dasturlarning foydalanuvchilarga qo‘yilgan cheklovlar sababli imkoniyatlarini sezilarli darajada toraytirishi aniq bo‘ldi. Ba‘zi ilovalar faqatgina ma‘lum bir operatsion tizimning versiyasida ishlashi mumkin, bu esa ularning qamrovini cheklaydi va kimlar foydalanishi mumkinligini o‘zgartiradi. Bunday holat, ayniqsa, eski qurilmalarda yoki eski operatsion tizim versiyalarida foydalanishga imkon bermaydi.

"WorkoutTrainer" mobil ilovasi mashg‘ulotlar jarayonini avtomatlashtirish va kundalik treninglarni yuritish uchun qulay yechim hisoblanadi. Ilova Android operatsion tizimlari uchun mavjud bo‘lib, foydalanuvchilarga o‘z jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va maqsadlariga erishish uchun maxsus mashg‘ulotlar dasturlarini taqdim etadi. Bu jarayonda foydalanuvchi o‘zining mashg‘ulot maqsadi va hozirgi jismoniy tayyorgarlik darajasi haqidagi savollarga javob berishi kerak. Belgilangan ma‘lumotlarga asoslanib, dastur avtomatik ravishda foydalanuvchiga mos o‘quv dasturini yaratadi.

Bundan tashqari, foydalanuvchi taklif etilayotgan mashg‘ulot dasturini tahrirlash yoki boshqa bir dastur variantini tanlash imkoniyatiga ega. Bu, o‘z navbatida, har bir foydalanuvchining individual ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirilgan treninglarni taqdim etadi.

Nike Training Club (NTC) ilovasi fitnesni nafaqat mashg‘ulot sifatida, balki sog‘liqni yaxshilash va jismoniy holatni mustahkamlashning samarali usuli sifatida taqdim etadi. NTC ilovasi yordamida foydalanuvchilar o‘z kundalik mashg‘ulotlarini yanada samarali va maqsadga muvofiq tashkil etishlari mumkin. Professional o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan mashg‘ulotlar hatto uy sharoitida ham oson va samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. NTC

ilovasi kardio, kuch mashqlari va boshqa fitnes mashg‘ulotlarini taklif etadi. Bundan tashqari, ilova foydalanuvchilarga ovqatlanish, tiklanish va fikrlash bo‘yicha aniq maslahatlar bilan maqsadli va progressiv o‘quv dasturlarini taqdim etadi. NTC dasturlari foydalanuvchilarga o‘z jadvaliga mos hamda sur‘atiga mos ravishda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi.

Shuningdek, keyingi dastur — ****adidas Running**** ilovasi ham keng tarqalgan. Bu ilova yangi boshlovchilar, mutaxassislar va sportchilar uchun mo‘ljallangan yugurish va jismoniy faollikni kuzatish vositasidir. Adidas Running foydalanuvchilarga mashg‘ulotlar davomiyligini, masofani, yoqilgan kaloriyalarni, yurak urish tezligini va boshqa ko‘rsatkichlarni kuzatishga yordam beradi. GPS va qadam kuzatuvchisi orqali foydalanuvchi mashg‘ulotlari va sport faoliyatlarini aniq monitoring qilish mumkin. Adidas Running, shuningdek, sog‘liq uchun maslahatlar va fitnes yangiliklari tasma-sini taqdim etadi, bu esa ilovani nafaqat faol talabalar, balki o‘quvchilar guruhlari uchun ham mashg‘ulotlar va yuklamalar to‘plamini individual ravishda tanlash imkonini beradi. Boshqa so‘z bilan aytganda, adidas Running o‘z foydalanuvchilariga muayyan mashqlarni bajarish bo‘yicha maslahatlar berish, shuningdek, ular uchun individual mashg‘ulot dasturlarini yaratish imkoniyatini taqdim etadi.

Moodle - bu o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi ishda o‘zini isbotlagan axborot-kommunikatsiya ilovasi hisoblanadi. Moodle ilovasi yordamida siz qayerda bo‘lsangiz ham o‘rganishingiz mumkin. O‘qituvchilar rasmlarni yuklashlari mumkin, mobil qurilmadan audio, video, prezentatsiyalar va boshqa fayllar, talabalar o‘qituvchilarning topshiriqlarini bajarishlari, ularning muvaffaqiyati, baholari, kursni yakunlanganligini tasdiqlash, o‘quv dasturlari va boshqalarni kuzatishi mumkin.

Tizimda innovatsion texnologiyalarning paydo bo‘lishi jismoniy tarbiya oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligi va sifatini oshirishga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi hayotning barcha sohalariga, shu jumladan jismoniy tarbiyaga ham ta’sir ko‘rsatib, ta’lim tizimiga zamonaviy bilim darajasiga mos keladigan yangi yondashuvlarni joriy etish imkonini berdi. Bu yondashuvlardan biri jismoniy tarbiya fanida mobil ilovalardan foydalanishdir. Mobil ilovalar jismoniy tarbiya darslarini yanada interaktiv va samarali qilish, shuningdek, talabalar o‘quv jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Biz o‘tkazgan so‘rov ma’lumotlariga asoslanib, talabalar faol hayot tarzini qo‘llab-quvvatlaydigan zamonaviy mobil ilovalardan foydalanishga qiziqish bildirganini ko‘rdik. Shunday qilib, biz o‘qituvchilarga yordam bera oladigan va talabalar uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan beshta mobil ilovani tanladik va ularni tahlil qildik. Tanlangan ilovalar bir nechta afzalliklarga ega. Birinchi afzallik — bu ularning ko‘p funksiyaliligi. Bu, o‘z navbatida, talabalarni turli xil ilovalarni yuklab olishdan saqlaydi va birgina ilova yordamida bir nechta vazifalarni bajarish imkonini beradi. Mobil ilovalar foydalanuvchilarga o‘z yutuqlarini kuzatib borish, o‘zlarini qiziqtirgan materiallarni ko‘rish, hatto do‘stlari bilan onlayn raqobatlashish imkoniyatini beradi. Bunday yondashuv o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va motivatsion qiladi. Interfeys va boshqaruv elementlarining intuitivligi esa ilovalarni tezda o‘rganishni va ulardan

samarali foydalanishni ta'minlaydi. O'qitishning o'yin shakli esa talabalar zerikmasdan o'rganishlariga yordam beradi va o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.

Shu tarzda, mobil ilovalar jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirish, talabalarni motivatsiya qilish va o'quv jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilishda katta yordam berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi jismoniy tarbiya sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi va bu sohada yangi, innovatsion yondashuvlarni joriy etishga imkon berdi. Mobil ilovalar, xususan, jismoniy faollikni monitoring qilish va mashg'ulotlarni rejalashtirishda muhim vositaga aylandi. Ular nafaqat jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash, balki o'quv jarayonini interaktiv, qulay va samarali qilish imkoniyatini ham yaratadi.

Mobil ilovalarning ko'p funksiyaliligi, uyda mustaqil ravishda mashq qilish imkoniyati, interaktivlik va intuitiv interfeyslar talabalar va o'qituvchilar uchun katta afzalliklarga ega. Ilovalar yordamida talabalar o'z yutuqlarini kuzatib borish, do'stlari bilan onlayn raqobatlashish va o'qish jarayonini o'yin shaklida olib borish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bularning barchasi jismoniy tarbiya darslarini yanada qiziqarli, samarali va motivatsion qiladi.

Shunday qilib, mobil ilovalar jismoniy tarbiya sohasida o'quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqishi, talabalarni faol turmush tarziga jalb qilish va ularning sog'lig'ini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Ularni o'qituvchilarning yordamchi vositasi sifatida qo'llash, ta'lim tizimiga yangi imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Бальсевич, В. К. Основные положения концепции интенсивного инновационного преобразования национальной системы физкультурно-спортивного воспитания детей, подростков и молодежи России / В. К. Бальсевич // Теория и практика физ. культуры. – 2002. – № 3.
2. Хабр [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://habr.com/ru/all/>. – Дата доступа: 21.09.2022.
3. Николаев А.Н. Методика оценки мотивов спортивной деятельности. – СПб, 2003.
4. Беляничева В.В. Формирование мотивации занятий физической культурой у студентов / Физическая культура и спорт: интеграция науки и практики – 2009.



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK ETIKANI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Obidova Shohsanam Alisher qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs magistranti

shohsanamobidova18189597@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik etikani shakllantirishning nazariy asoslari o‘rganiladi. Pedagogik etika tushunchasi, uning mazmuni va ahamiyati, shuningdek, o‘qituvchilik faoliyatida etikaning tutgan o‘rni yoritiladi. Mazkur maqolada pedagogik etikani shakllantirishda ta‘lim jarayonining roli, metodik yondashuvlar va samarali usullar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, kasbiy etikani shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillar va zamonaviy talablar tahlil qilinadi.

KALIT SO‘ZLAR: pedagogik etika, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy axloq, tarbiya, ta‘lim, metodika.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЭТИКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются теоретические основы формирования педагогической этики у будущих учителей. Раскрывается сущность и значение понятия педагогической этики, её роль в профессиональной деятельности педагога. Также анализируются образовательные и методические подходы, способствующие формированию профессиональной этики, и социально-психологические факторы, влияющие на этот процесс.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: педагогическая этика, будущий учитель, профессиональная мораль, воспитание, образование, методика.

THEORETICAL BASIS OF FORMING PEDAGOGICAL ETHICS IN FUTURE TEACHERS

ABSTRACT: this article explores the theoretical foundations of developing pedagogical ethics in future teachers. It examines the concept, content, and significance of pedagogical ethics, as well as its role in the teaching profession. The study also analyzes the role of the

educational process, methodological approaches, and effective strategies in shaping ethical behavior. Social and psychological factors and modern requirements are also considered.

KEYWORDS: pedagogical ethics, future teacher, professional morality, education, upbringing, methodology.

KIRISH. Bugungi kunda ta’lim sohasining modernizatsiyalashuvi va uning ijtimoiy hayotdagi rolining ortib borishi sharoitida o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan talablar ham jiddiy darajada o‘zgarib bormoqda. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy-axloqiy yo‘lboshchi sifatida ham jamiyatda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, bo‘lajak pedagoglarda kasbiy etikani shakllantirish masalasi zamonaviy ta’lim jarayonining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Pedagogik etika – bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatida amal qilinadigan axloqiy tamoyillar, me’yorlar va qadriyatlar majmuasidir. Ushbu tushuncha faqat nazariy qarash emas, balki amaliy faoliyatda o‘z aksini topadigan ijtimoiy va shaxsiy mas’uliyatni ham o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi o‘z kasbini qanday anglaydi, qanday qadriyatlarga tayanadi, qanday muomala madaniyatiga ega – bularning barchasi uning professional etikasini belgilab beradi. Shaxsiy kuzatishlarimga ko‘ra, pedagogik etika faqat dars jarayonida emas, balki o‘quvchi bilan bo‘lgan har qanday muloqotda, ota-onalar va hamkasblar bilan bo‘lgan hamkorlikda ham namoyon bo‘ladi. Afsuski, ayrim holatlarda yosh mutaxassislar bu borada yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lmayapti. Bu esa, pedagogik faoliyatda axloqiy muammolarga, ishonch yo‘qolishiga yoki noxolis munosabatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik etikani shakllantirish jarayonini nazariy asoslash, uni samarali metodlar orqali amalga oshirish bugungi ta’lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Pedagogik etika bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu tushunchaning ko‘p qirrali va murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Jaxon va milliy pedagogika tarixida o‘qituvchi shaxsiga bo‘lgan yondashuv, uning axloqiy fazilatlar va kasbiy me’yorlari haqida ko‘plab ilmiy qarashlar shakllangan. Jumladan, J. Dewey, L. Kohlberg, va A. Maslow kabi olimlar ta’limda axloqiy tarbiyaning o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tganlar. Ularning fikricha, o‘qituvchi o‘zining shaxsiy namunasi orqali o‘quvchilarni ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarga yo‘naltiradi [3.B;112],[4.B;47].

Mahalliy pedagogikada esa A. Avloniy, H. Do‘stmuhammad, N. To‘raqulov singari ma’rifatparvarlar pedagogik etikaga yuksak e’tibor bilan yondashgan. A. Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloqiy tarbiyani o‘qituvchilik faoliyatining ajralmas qismi deb hisoblaydi [5.B;128],[6.B;77]. Hozirgi zamon tadqiqotchilari, xususan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagogika fanlari doktorlari ham ushbu masalaga ilmiy yondashuv asosida munosabat bildirgan. So‘nggi yillarda o‘qituvchi kasbiga doir me’yoriy hujjatlar, jumladan, “Pedagogning kasbiy odobi kodeksi”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va boshqa normativ hujjatlar orqali ham pedagogik etikaga davlat darajasida yondashuv

kuchayganini kuzatish mumkin [7.B;29]. Bu esa mazkur sohaning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va amaliy tajribaga tatbiq qilish zaruratini oshiradi.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari sifatida tizimli yondashuv, faoliyatga asoslangan yondashuv hamda axloqiy rivojlanishning psixologik-pedagogik nazariyalaridan foydalanildi. Tadqiqotda sifatli tahlil usuli asosida mavjud adabiyotlar va ilg‘or tajribalar tahlil qilindi, shuningdek, pedagogik etikani shakllantirishga doir amaliy vosita va mexanizmlar ko‘rib chiqildi. Ma’lumotlar yig‘ish bosqichida quyidagi usullardan foydalanildi:

Nazariy tahlil: pedagogik etika bo‘yicha milliy va xorijiy adabiyotlar, qonunchilik hujjatlari, ilg‘or tajribalar tahlil qilindi.

Taqdim etilgan holatlarni o‘rganish: bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi etika bilan bog‘liq holatlarni kuzatish asosida amaliy xulosalar chiqarildi.

Sotsiologik yondashuv: talabalar va pedagoglar o‘rtasida so‘rovnoma va suhbatlar o‘tkazilib, ularning pedagogik etika haqidagi fikr va qarashlari tahlil qilindi. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik etikani shakllantirishning samarali yo‘llarini aniqlash va nazariy asoslarini mustahkamlash maqsad qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI. Tadqiqot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik etikani shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillar tizimli ravishda o‘rganildi. Dastlabki bosqichda oliy ta’lim muassasalarining pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarining etika haqidagi tushunchalari, unga bo‘lgan munosabatlari va amaliy faoliyatda ushbu bilimlarni qo‘llash darajasi aniqlashga qaratilgan so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar pedagogik etikani nazariy jihatdan yetarlicha anglab etgan bo‘lsalar-da, amaliy faoliyatda uni izchil qo‘llash ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, talabalar orasida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi insoniy munosabatlarda halollik, hurmat, sabr-toqat, betaraflik kabi etik me’yorlar to‘g‘risida umumiy tasavvur mavjud. Biroq ushbu tasavvurlarni aniq vaziyatlarda to‘g‘ri tatbiq etish malakasi hali shakllanish bosqichida. Masalan, o‘quvchining xatolariga munosabatda shaxsiy hissiyotlarni aralashtirib yuborish, baholashda adolat me’yorlariga rioya qilmaslik holatlari kuzatilmoqda. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarda etik savodxonlikni rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi. Pedagogik etikani shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy mashg‘ulotlarning, pedagogik amaliyotning va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan treninglar o‘tkazishning samarali ekani tajribaviy sinovlar orqali tasdiqlandi. Jumladan, etika darslarida interaktiv metodlar – rolli o‘yinlar, “case-study” usuli, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabilar qo‘llanilgan guruhda talabalar o‘z fikrlarini asosli himoya qilish, qarorlar qabul qilishda axloqiy mezonlarga tayanish, o‘zini va boshqalarni tahlil qilishga moyilligi yuqoriroq bo‘ldi.

Yana bir muhim natija shundan iboratki, o‘qituvchi shaxsining namunaviy roli talabalar uchun juda katta ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida pedagogik etikani shakllantirishda ustozlar obrazining, ularning shaxsiy namunasining kuchli omil ekani aniqlandi. Talabalar, ko‘pincha, etika haqida kitoblardan emas, balki o‘z ustozlarining kundalik xatti-harakatlaridan,

ularning odob-axloqiy mezonlarga bo‘lgan e‘tiboridan ta’sirlanishlarini ta’kidladilar. Bu holat bizni o‘qituvchi shaxsining etika sohasidagi namunadorligini mustahkamlash, ya’ni ustozlar etikasini yangicha metodik yondashuvlar bilan rivojlantirish zaruriyati haqida o‘ylashga undaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, pedagogik etika faqat nazariy tushunchalar tizimi emas, balki murakkab psixologik va ijtimoiy kompetensiyalar majmuasidir. Bu kompetensiyalarni shakllantirishda o‘quv dasturlarining mazmunini qayta ko‘rib chiqish, talabalarni faol fikrlashga undaydigan, ularni real hayotiy muammolarni axloqiy yondashuvlar asosida hal qilishga tayyorlovchi metodikalar joriy etish zarur [8.B;116].

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik etikani shakllantirish izchil va tizimli yondashuvni talab qiladi. Etika borasidagi nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va shaxsiy namuna uyg‘unligida shakllangan pedagog kadrlargina zamonaviy ta’lim muassasasining ma’naviy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa ta’lim tizimining umumiy sifatiga, jamiyatning axloqiy qiyofasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik etikani shakllantirishga doir nazariy va amaliy jihatlar chuqur o‘rganildi. O‘zbekistonning bir nechta pedagogik oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 3-4-bosqich talabalari o‘rtasida so‘rovnoma va suhbatlar o‘tkazildi. Umumiy hisobda 120 nafar respondent ishtirok etdi. So‘rovnoma natijalari quyidagi asosiy jihatlarni ko‘rsatdi:

1. Talabalarning 82 foizi pedagogik etika tushunchasini faqat “odoblilik”, “xushmuomalalik” darajasida anglashlarini bildirdilar. Bu esa pedagogik etikaning nazariy asoslari va kasbiy kontekstdagi chuqur mazmuni to‘liq o‘zlashtirilmaganligini ko‘rsatadi.

2. 60 foiz talaba amaliy mashg‘ulotlar yoki pedagogik amaliyot jarayonida o‘qituvchining axloqiy qadriyatlari muhim rol o‘ynashini tan olgan bo‘lsa-da, ulardan faqat 38 foizi bu masalaga oid o‘z ustida muntazam ishlashini aytdi.

3. So‘rovda qatnashgan talabalar aksariyati (taxminan 75 foiz) pedagogik etika bo‘yicha alohida fan yoki modullar mavjud bo‘lishini maqsadga muvofiq deb hisoblashlarini bildirdi.

Tadqiqot davomida shuningdek quyidagi amaliy kuzatishlar asosida xulosalar chiqarildi:

Pedagogik etika bo‘yicha tushunchalar ko‘pincha nazariy darslar doirasida umumiy tarzda beriladi, bu esa talabalarda chuqur kasbiy refleksiyaning shakllantirishga yetarli bo‘lmaydi. Pedagogik amaliyot davrida o‘qituvchi-shogird munosabatlari, konfliktli vaziyatlarga yondashuv, baholash jarayonidagi odillik kabi jihatlar talabaning axloqiy pozitsiyasini sinovdan o‘tkazadi. Ammo bu holatlarning tahlili va reflektiv bahosi yetarli darajada amalga oshirilmaydi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari pedagogik etikani shakllantirish masalasi oliy ta’lim muassasalarida hali yetarli darajada chuqur o‘rganilmaganligini, uni nazariy va amaliy jihatdan integratsiyalash zarurligini ko‘rsatmoqda. Pedagogik etika – bu shunchaki odob-axloq qoidalariga rioya qilish emas, balki kasbiy faoliyatda doimiy tarzda axloqiy tanlov qilishga tayyor bo‘lish, pedagogik vaziyatlarda adolat, halollik, hurmat va empatiya ko‘rsatish kabi murakkab ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Bugungi o‘zgaruvchan ta’lim muhiti, ta’lim olishdagi ochiqlik va demokratik yondashuvlar sharoitida o‘qituvchining axloqiy pozitsiyasi avvalgidan

ko‘ra muhimroq ahamiyat kasb etmoqda [9.B;39]. Afsuski, talabalarda bu masalaga nisbatan ayrim yuzaki yondashuvlar mavjudligi, ular orasida “etika”ni faqat tashqi muomala me‘yori sifatida tushunish holatlari uchramoqda. Bu esa, ta‘lim dasturlarida etika masalalarini yanada tizimlashtirish va zamonaviy metodikalar asosida o‘qitish zarurligini ko‘rsatadi. Shaxsiy kuzatishlarim va talaba fikrlarining tahliliga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Pedagogik etikani mustaqil o‘quv moduli sifatida alohida dars shaklida kiritish;
- Etika asoslarini o‘rgatishda faol metodlar (rol o‘yinlari, bahs-munozaralar, etika laboratoriyalari)ni keng joriy etish;
- Pedagogik amaliyot jarayonida axloqiy muammolarni tahlil qilishga bag‘ishlangan reflektiv mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- Talabalar orasida pedagogik etika bo‘yicha tanlovlar, seminarlar va davra suhbatlarini ko‘paytirish.

Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik etikani shakllantirish masalasi bugungi kunda nafaqat ta‘lim tizimining, balki butun jamiyatning dolzarb muammolaridan biri ekani ayon bo‘ldi. Hozirgi globalashuv, raqamli axborot oqimining kuchayishi, jamiyatda axloqiy mezonlar bilan bog‘liq muammolar ortib borayotgan bir sharoitda o‘qituvchilarning axloqiy-etik pozitsiyasi va professional mas‘uliyati yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik etika tushunchasini nazariy jihatdan anglashsa-da, bu bilimlarni amaliy faoliyatda tatbiq etishda qiynalayotgani bir necha omillar bilan izohlanadi. Avvalo, mavjud ta‘lim dasturlarida etika masalasiga yetarlicha e‘tibor qaratilmayotgani, bu mavzu odatda umumiy nutqiy madaniyat yoki psixologiyaga oid fanlar doirasida ikkilamchi mavzu sifatida talqin qilinayotgani kuzatildi. Holbuki, pedagogik etika mustaqil tahlil, munozara va o‘zlashtirishni talab etuvchi chuqur konseptual yo‘nalishdir.

Muhokamaga molik bo‘lgan yana bir jihat – bu o‘qituvchilik kasbining axloqiy yuklamasi bilan bog‘liq. O‘qituvchi har qanday sharoitda, hatto murakkab vaziyatlarda ham axloqiy me‘yorlardan chekinmasligi, o‘zini nazorat qila olishi, obro‘-e‘tiborni saqlashi zarur. Bu esa shaxsiy fazilatlarining, ijtimoiy ongning va ichki madaniyatning mukammalligi bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqot natijalari o‘qituvchi bo‘lishga intilayotgan yoshlar orasida bu yo‘nalishda yetarlicha refleksiv tafakkur shakllanmaganini ko‘rsatdi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, pedagogik etikani shakllantirish jarayonini faqat ma‘ruza va darsliklarga tayanib qurish samarasiz ekanligi anglashiladi. Aksincha, talabalarining shaxsiy ishtirokini, ularning o‘z axloqiy qarashlari, nuqtai nazari va qadriyatlarini faollashtirish zarur. Buning uchun esa zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini, xususan, interaktiv metodlarni, empatik o‘rgatish texnikalarini, hayotiy vaziyatlar tahliliga asoslangan o‘quv faoliyatini joriy qilish muhim. Muhokama jarayonida alohida e‘tibor qaratilishi kerak bo‘lgan masalalardan biri – bu pedagog shaxsining o‘quvchilar oldidagi namunadorlik darajasidir. Bo‘lajak o‘qituvchilar ustozlaridan faqat nazariy bilim emas, balki kundalik faoliyatda etika me‘yorlariga qanday amal

qilinayotganini ham kuzatadilar. Shuning uchun universitet o‘qituvchilari o‘zlari ham bu jarayonning faol ishtirokchisi, hatto axloqiy yetakchi sifatida namuna bo‘lishi lozim. Bu holat talabalarda “etik o‘zlashtirish” jarayonini tabiiy, ichki ehtiyojga aylantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qilish mumkinki, pedagogik etikani shakllantirish bu – uzoq muddatli, izchil va ko‘p qirrali jarayondir. Unda faqat ta’lim jarayoni emas, balki jamiyatning umumiy axloqiy muhitini mustahkamlash, pedagog shaxsiga bo‘lgan ishonch va e’tiborni oshirish, kasbiy madaniyatga oid umuminsoniy qadriyatlarni keng targ‘ib etish ham o‘z o‘rniga ega. Shu sababli, pedagogik ta’lim tizimida etik madaniyatni shakllantirishga oid maxsus fanlar, kurslar, treninglar va seminarlar sonini ko‘paytirish, shuningdek, pedagogik amaliyotga axloqiy refleksiya elementlarini kiritish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik etikani shakllantirish nafaqat bilim, balki ongli axloqiy mas’uliyatni tarbiyalash, pedagog shaxsining ichki madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu esa, sifatli ta’lim berish va sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishning muhim omillaridan biridir.

XULOSA. Mazkur tadqiqot pedagogik etikaning nazariy asoslari va bo‘lajak o‘qituvchilarda uni shakllantirish masalalarini o‘rganishga qaratilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik etika nafaqat o‘qituvchining kasbiy faoliyatining ajralmas qismi, balki uning shaxsiy kamoloti va ijtimoiy mas’uliyatining muhim ko‘rsatkichidir. Shu bois, pedagogik etika sohasida bilim va ko‘nikmalarni tizimli ravishda egallash, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash bo‘lajak pedagoglar uchun zarurdir. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, bugungi kunda ko‘plab talabalarda pedagogik etika tushunchasi faqat umumiy axloqiy qadriyatlar doirasida qabul qilinmoqda, ammo bu sohaning murakkab nazariy va amaliy jihatlari yetarlicha o‘rganilmagan. Bu esa, pedagogik etika bo‘yicha alohida o‘quv modullarini joriy etish, zamonaviy metodlarni qo‘llash va talabalarda kasbiy axloqiy mas’uliyatni rivojlantirishga doir kompleks ishlarni tashkil etish zaruratini yuzaga chiqaradi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, pedagogik etikaning shakllanishida nafaqat nazariy bilimlar, balki ijtimoiy-psixologik omillar, shaxsiy xulq-atvor namunasi va kasbiy tajriba ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, pedagogik amaliyot jarayonida etika masalalariga alohida e’tibor qaratish, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida konstruktiv muloqot, refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilishni targ‘ib qilish zarur. Kelajakda pedagogik etika sohasida olib boriladigan tadqiqotlar metodologik asoslarini yanada chuqurlashtirish, milliy va global ta’lim tajribalarini uyg‘unlashtirish muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, pedagogik etikani shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarni kengroq joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, pedagogik etika – bu pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi, o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlovchi, jamiyat oldidagi mas’uliyatini mustahkamlaydigan muhim tamoyildir. Shu bois, ta’lim tizimida pedagogik etikaning nazariy va amaliy jihatlari tizimli o‘rganish va takomillashtirish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik etikani shakllantirish esa nafaqat ularning kasbiy faoliyatiga, balki umuman ta’lim jarayonining sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayeva, M. (2021). Oliy ta’limda pedagogik etika. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Avloniy, A. (1927). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent.
3. Dewey, J. (1900). School and society. (Translated as Maktab va jamiyat, 2009). Toshkent: O‘zbekiston tarjima markazi.
4. Dewey, J. (1916). Democracy and education. New York: Macmillan.
5. Djalolov, S. (2018). Kasbiy pedagogik etikani rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
6. G‘ulomov, S. (2022). Pedagogik etikani rivojlantirish masalalari. Ilmiy maqola, Toshkent.
7. Xasanboeva, M. (2020). Pedagogik mahorat. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
8. Karimova, N. (2022). Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy axloqiy madaniyatini shakllantirish omillari. Pedagogika va psixologiya, 3(4), 45–52.
9. Kohlberg, L. (1981). Essays on moral development: Vol. 1. The philosophy of moral development. San Francisco: Harper & Row.
10. Maslow, A. H. (1954). Motivation and personality. New York: Harper & Row.
11. Musurmonova, O. (2020). Kasbiy axloq va pedagogik etika. Ta’lim innovatsiyalari jurnali, 2(1), 30–38.
12. Noddings, N. (2013). Caring: A relational approach to ethics and moral education (2nd ed.). University of California Press.
13. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun. Toshkent.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019). Pedagogning kasbiy odobi kodeksi. Toshkent.
15. Qurbonov, R. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Samarqand: SamDU nashriyoti.
16. To‘raqulov, N. (2018). Pedagogik etika nazariyasi. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
17. UNESCO. (2021). Teacher ethics and professional conduct: Global standards and policy recommendations. Paris: UNESCO Publications.
18. Xoliqova, D., & Axmedova, N. (2021). Etika va estetik tarbiya asoslari. Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti.
19. Yusupov, M. M. (2019). Pedagogik faoliyatda axloqiy qadriyatlar. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.



GAZLARNING SOLISHTIRMA ISSIQLIK SIG‘IMLARI NISBATINI ANIQLASH

Mamatova Go‘zaloy Jo‘ramirzayevna

Andijon davlat pedagogika institute

Fizika va texnologik ta‘lim kafedrasi dotsenti v.b

Madaminova Zuhra

Fizika yo‘nalishi 101-guruh talabasi

Tursunboyeva Madina

Fizika yo‘nalishi 101-guruh talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ideal gazlar modeli doirasida gazlarning solishtirma issiqlik sig‘imlari-izoxorik va izobarik issiqlik sig‘imlari –o‘rtasidagi nisbat $\gamma = \frac{C_p}{C_v}$ ni aniqlash masalasi nazariy hamda eksperimental jihatdan tahlil qilinadi. Molekulyar kinetik nazariya asosida γ kattaligi gazning molekularlari erkinlik darajalari soniga bog‘liq ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada bir atomli, ikki atomli va ko‘p atomli gazlar uchun γ ning nazariy qiymatlari hisoblab chiqilib, ular eksperimental ma‘lumotlar bilan solishtiriladi. Shuningdel maqolada Mayer tenglamasi asosida C_p va C_v orasidagi bog‘lanish, issiqlik almashinuvi jarayonlarida ularning tutgan o‘rni va amaliy ahamiyati batafsil yoritilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Qurilma, nasos, adiabatik, ideal gaz, Puasson tenglamasi, Mayer tenglamasi, termodinamika, erkinlik darajalari.

DETERMINING THE RATIO OF THE RELATIVE HEAT CAPACITIES OF GASES

ABSTRACT: This article analyzes the ratio of the specific heat capacities of gases – isochoric and isobaric within the framework of the ideal gas model, both theoretically and experimentally. Based on the molecular kinetic theory, it is shown that the value of this ratio $\gamma = \frac{C_p}{C_v}$ depends on the number of degrees of freedom of gas molecules. The article presents theoretical calculations of γ for monoatomic, diatomic and polyatomic gases and compares them with experimental data. Futhermoere the Mayer equation is used to describe the relationship between C_p and C_v hinghlighting their roles in the exchange processes and their practical singnificance in thermodynamic systems.

KEYWORDS: Apparatus, pump, adiabatic process, ideal gas, Poisson’s equation, Mayer’s equation, thermodynamics, degrees of freedom.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ СООТНОШЕНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ
ТЕПЛОЕМКОСТЕЙ ГАЗОВ

АННОТАЦИЯ: В данной статье теоретически и экспериментально анализируется соотношение удельных теплоемкостей газов – изохорной и изобарной в рамках модели идеального газа. На основе молекулярно кинетической теории показано, что величина этого соотношения $\gamma = \frac{C_p}{C_v}$ зависит от числа степеней свободы молекул газа. В статье приведены теоретические значения γ для одноатомных двухатомных и многоатомных газов которые сопоставлены с экспериментальными данными. Кроме того на основе уравнения Майера описана связь между C_p и C_v подчеркивается их практическое значение в термодинамических системах.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Установка, насос, адиабатический процесс, идеалный газ, уравнение Пуассона, уравнение Майера, термодинамика, степени свободы.

KIRISH. Jismlarning temperaturasini 1K ga ko‘tarish uchun unga berilishi zarur bo‘lgan issiqlik miqdoriga teng kattalik shu jismning issiqlik sig‘imi deb ataladi. Agar jismga ΔQ issiqlik miqdori berilganda uning temperaturasi ΔT ga ortsa, u holda ta‘rifga ko‘ra, issiqlik sig‘imi

$$C_j = \frac{\Delta Q}{\Delta T} \quad [1]$$

bo‘ladi. Modda birlik massasining issiqlik sig‘imi solishtirma issiqlik sig‘imi deb ataladi. Solishtirma issiqlik sig‘imi bilan issiqlik sig‘imi orasida bog‘lanish quyidagicha:

$$c = \frac{C_j}{m} = \frac{\Delta Q}{m \cdot \Delta T} \quad [2]$$

bunda m-isitilayotgan jismning massasi.

Moddalarning issiqlik sig‘imi ularning qizdirilish vaqtidagi sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Jismning hajmi o‘zgarmaydiga sharoitda yoki bosim o‘zgarmaydigan sharoitdagi issiqlik sig‘imini bilish ahamiyatga ega. Birinchi holda o‘zgaras hajmdagi yoki izoxorik issiqlik sig‘imi C_v deb ataladi, ikkinchi holda esa o‘zgaras bosimdagi yoki izobarik issiqlik sig‘imi C_p deb ataladi. Ideal gazlar uchun o‘zgaras bosimdagi solishtirma issiqlik sig‘imining o‘zgaras hajmdagi solishtirma issiqlik sig‘imiga nisbati

$$\gamma = \frac{C_p}{C_v} \quad [3]$$

bo‘ladi, bunda γ - berilgan gaz uchun o‘zgaras kattalik bo‘lib, Pusasson koeffitsienti yoki adiabata ko‘rsatkichi deb ataladi va adiabetic jarayon uchun o‘rinli bo‘lgan Puasson tenglamasiga kiradi. Endi ideal gaz uchun γ ni hisoblaylik. Agar gaz hajmi o‘zgarmaydigan sharoitda isitilayotgan bo‘lsa, bunda termodinamik ish bajarilmaydi. Gazga berilgan issiqlik miqdori, termodinamikaning birinchi qonuniga ko‘ra uning ichki energiyasi o‘zgarishiga sarf

bo‘ladi. Shuning uchun $\Delta Q = \Delta U$ va $C_V = \frac{\Delta Q}{\Delta T}$ bo‘ladi. Bir mol gazning ichki energiyasi $U = \frac{i}{2} \cdot R \cdot T$. Binobarn ideal gazning izoxorik molyar sig‘imi

$$C_V = \frac{i}{2} \cdot R \quad [4]$$

ga teng bo‘ladi, bunda i - molekulalarning erkinlik darajalari soni. Agar gaz o‘zgarmas bosim sharoitida isitilsa, u holda gaz kengayib, tashqi jismlar ustida musbat ish bajaradi. Bu holda issiqlikning bir qismi gazning ish bajarishiga sarf bo‘ladi. Shuning uchun izobarik issiqlik sig‘imi izoxorik issiqlik sig‘imidan kattaroq bo‘ladi. Bir mol gaz uchun termodinamikaning birinchi qonuni:

$$\Delta Q = \Delta U + P\Delta V$$

ifodasidan izobarik molyar issiqlik sig‘imi quyidagicha bo‘ladi:

$$C_V = \frac{\Delta Q}{\Delta T} + \frac{P \cdot \Delta V}{\Delta T} \quad [5]$$

$\frac{\Delta V}{\Delta T}$ kattalik bosim o‘zgarmaganda bir mol gazning temperaturasi bir kelvinga ortganda uning hajmi olgan ortirmasidan iborat. Ideal gazning holat tenglamasidan 1 mol uchun:

$$V = \frac{R \cdot T}{P}$$

Bu ifodani $P = \text{const}$ bo‘lganda T bo‘yicha differensiallasak, u holda

$$\left(\frac{\Delta V}{\Delta T} \right) = \frac{R}{P}$$

bo‘ladi. Bu natijani [5] ga qo‘ysak ,

$$C_P = C_V + R \quad [6]$$

kelib chiqadi. [6]ni Mayer tenglamasi deb ataladi. Shunday qilib, o‘zgarmas bosimda bir mol ideal gazning temperaturasi bir kelvinga ortganda bajaradigan ishi universal gaz doimiysiga teng bo‘lar ekan. [4]ni e‘tiborga olib C_p ni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$C_p = \frac{i}{2} R + R \quad [7]$$

[7]ni [4]ga hadma had bo‘lib har bir gaz uchun o‘ziga xos bo‘lgan C_p ning C_v ga nisbatini topamiz:

$$\gamma = \frac{C_p}{C_v} = \frac{i+2}{i} \quad [8]$$

Gaz hajmining adiabatik kengayishidan foydalanib , γ ni tajribada aniqlash mumkin. Ma‘lumki tashqi muhit bilan issiqlik almashmasdan bo‘ladigan jarayon adiabatik jarayon deb ataladi. Gazni tashqi muhitdan to‘la izolyatsialanish mumkin emas, biroq juda qisqa vaqt ichida gaz hajmining o‘zgarish jarayonini adiabatik deb qarash mumkin, chunki bunday sharoitda gaz tashqi muhit bilan issiqlik almashinuviga deyarli ulgirmay qoladi.

TADQIQOT METADALOGIYASI. Qurilma havo bilan to‘ldirilgan 20-30 litr hajmli A shish ballondan iborat bo‘lib troynik biriktirilgan tiqin bilan berkitilgan. Jo‘mrakning C tirsagi rezina nay orqali U simon suvli M manometr bilan, B tirsagi nasos bilan biriktirilgan. Nasos yordamida ballondagi gaz damlanadi. B jo‘mrak yordamida ballon ichidagi siqilgan

gazning ortiqchasini juda qisqa vaqt oralig‘ida tashqariga chiqarib yuborib, gazning adiabetic kengayishiga erishish mumkin. Nasos yordamida A ballonga tashqi atmosfera bosimidan kattaroq bosimli gaz qamaylik, bunda C jo‘mrak berk holatda turishi kerak. Gaz tez siqilgani uchun uning temperaturasi ko‘tariladi. Shuning uchun ballonga gaz haydash to‘xtatilgandan so‘ng ballondagi gazning temperaturasi atrofdagi havo temperaturasi bilan tenglashguncha manometr tirsaklaridagi suyuqlik ustuni sathlari orasidagi farq kamayib boradi. Gazning bu holatini harakterlaydigan parametrlarni –havoning birlik massasining hajmini V_1 temperaturasi T_1 va bosimini $(H + h_1)$ bilan belgilaylik, bunda H- atmosfera bosimi, h_1 - manometrda suyuqlik ustuni balandliklarining farqi. Endi C jo‘mrakni qisqa muddatga atmosfera bilan tutashtiraylik. Bunda gazning bir qismi ballondan tashqariga chiqib ketadi. Gazning kengayishi juda qisqa vaqt ichida sodir bo‘lgani uchun jarayonni adiabatik deb hisoblash mumkin. Binobarin, bu kengayishda bajarilgan ish gazning ichki energiyasining kamayishiga teng bo‘ladi, gazning temperaturasi pasayadi, bosimi esa atmosfera bilan tenglashadi. Gazning bu holatdagi parametrlarini V_2, T_2 , va H bilan belgilaylik, T_2 temperatura havo temperaturasidan past bo‘lgani uchun ballondagi gaz tashqi muhit bilan issiqlik amlashishi tufayli asta –sekin isiy boshlaydi va uning temperaturasi havo temperaturasiga tenglashib qoladi. Bu jarayon o‘zgarish hajmda sodir bo‘lgani uchun izoxorik jarayon hisoblanadi. Gaz temperaturasi ko‘tarila borishi bilan uning bosimi ham ortib boradi. Bu holda manometrda suyuqlik ustuni balandliklarning farqini h_2 bilan belgilasak, gazning holat parametrlari V_2, T_1 va $(H + h_2)$ bo‘ladi. Shunday qilib, gazning $V_1, T_1, (H + h_1)$; $V_2, T_1, (H + h_2)$ va V_2, T_2, H parametrlar bilan harakterlanadigan uchta holatga ega bo‘ldik. Gazning birinchi holatdan ikkinchi holatga o‘tishida Puasson tenglamasi o‘rinli bo‘ladi:

$$(H + h_1)V_1^\gamma = H \cdot V_2^\gamma \quad [9]$$

Gazning birinchi va uchinchi holatlarida temperatura bir hil bo‘lganligi uchun bu holatlarning parametrlarini o‘zaro Boyl-Mariott qonuni bilan bog‘lash mumkin:

$$(H + h_1) \cdot V_1 = (H + h_2) \cdot V_2 \quad [10]$$

[9] va [10] tenglamalarni birgalikda yechib, u foeffitsuyentni topaylik. Buning uchun [10] tenglama ikki tomonining darajasini γ ga ko‘tarib, hosil qilingan tenglamasni [9] tenglamaga hadma- had bo‘lamiz:

$$\begin{aligned} (H + h_1)^\gamma \cdot V_1^\gamma &= (H + h_2)^\gamma \cdot V_2^\gamma \\ \frac{(H + h_1)^\gamma}{(H + h_1)} &= \frac{(H + h_2)^\gamma}{H} \\ \frac{(H+h_1)}{H} &= \frac{(H+h_1)^\gamma}{(H+h_2)^\gamma} \end{aligned}$$

Bu munosabatni logarifimlab, γ ni topsak, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\gamma = \frac{\lg(H+h_1) \cdot \lg H}{\lg(H+h_1) \cdot \lg(H+h_2)} \quad [11]$$

$H, (H + h_1)$ va $(H + h_2)$ bosimlar bir-biridan kam farq qiladi, shuning uchun bosimlar logarifmlarining ayirmasi bosimlar o‘zlarining ayirmasiga proporsioanal bo‘ladi deb olish mumkin. Binobarin

$$\gamma = \frac{(H+h_1) \cdot H}{(H+h_1) \cdot (H+h_2)}$$

bo‘ladi, bundan:

$$\gamma = \frac{h_1}{h_1 - h_2} \quad [12]$$

Bu tenglama yordamida γ ni hisoblash uchun gazning adiabatik kengayishidan avvalgi va keyingi bosimlarining atmosfera bosimidan ortiqcha qismlari h_1 va h_2 ni o‘lchash o‘lchash kerak. Shuni esda tutish kerakki, bu ikkala kattalik h_1 va h_2 ni gazda termodinamik muvozanat yuz bergan ya’ni issiqlik almashinish to‘xtagandan keyingina o‘lchash lozim.

TAXLIL VA NATIJALAR. O‘lchashni boshlashdan oldin qurilmaning ulanish joylarini tekshirib yetralicha germetik ekanligiga ishonch hosil qilish kerak. Buning uchun manometrda suv sathlarining farqi 20-25 sm ga yetguncha ballonga nasos yordamida havo damlanadi. Vaqt o‘tishi bilan gaz bosimining o‘zgarishi manometrdan kuzatib boriladi. Agar qurilma germetik berk bo‘lsa, ma’lum vaqtdan so‘ng termodinamik muvozanat o‘rnatilib, bosimning kamayishi to‘xtaydi, aks holda qurilmada sodir bo‘layotgan sirqishni topish kerak bo‘ladi. Ballon ichidagi gaz bosimi barqarorlashgach, bosimning atmosfera bosimidan ortiqcha qismi h_1 o‘lchanadi, u suvli manometrda sathlar ayirmasiga teng. So‘ngra magnit klapani juda qisqa vaqt ichida ochib yopiladi. Termodinamik muvozanatdan keyin yana ballon ichidagi gaz bosimining atmosfera bosimidan ortiqcha qismi h_2 suvli manometrda sathlar ayirmasi bo‘yicha o‘lchanadi va Puasson koeffitsiyenti [12] formula bo‘yicha hisoblab topiladi, so‘ngra natijalar jadvalga yozilib, o‘lchashda yo‘l qo‘yilgan absolyut va nisbiy hatolilar aniqlandi.

No	h_1, sm	h_2, sm	γ	γ_{ort}
1				

XULOSA. Gazlarning solishtirma issiqlik sig‘imlari nisbatini aniqlash masalasi termodinamikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ish doirasida olib borilgan nazariy va eksperimental tahlillar shuni ko‘rsatadiki, issiqlik sig‘imlari o‘rtasidagi nisbat – γ kattaligi gaz molekulalarining tuzilishi erkinlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Mayer tenglamasi yordamida C_p va C_v orasidagi bog‘lanish aniqlashtirilib, bu nisbatning issiqlik almashinuvi va gazlar bilan bog‘liq bo‘lgan turli fizikaviy jarayonlardan tutgan o‘rni yoritib berildi. Olingan natijalar gazlarnig xosslarini chuqur anglash, shuningdek issiqlik texnikasi gaz dinamikasi va energiya tizimlari uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. M. Usmanov. Fizika qo‘llanma.toshkent 2021.
2. Savelyev . I. V. Umumiy fizika kursi. Mehanika, molekulyar fizika. Moksva-.1982
3. Kiokin. I. K. Kiokin. A.K. Molekulyar fizika. Moskva-1978
4. G.G.Zaytsev. Molekulyar fizika va termodinamika. Tosjkent-2010
5. Q. Husanov. Nazariy mehanika darslik. Toshkent-2019
6. Q. P. Shohaydarova. Nazariy mehanika. Toshkent-1981
7. Nazirov. U.K. X.Z.Ikromova, K. A. Tursunmetov. Umumiy fizika kursi. Toshkent-

1992

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

SUYUQLIKLARNING BUG'LANISHI VA QAYNASHI

Mamatova Go'zaloy

Andijon davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Fizika fan o'qituvchisi

Umaralieva Raxbaroy

Fizika yo'nalishi 103-guruh talabasi

Umurzaqova Gulira'no

Fizika yo'nalishi 103-guruh talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada suyuqliklarning bug'lanishi va qaynashi jarayonlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi. Bug'lanish va qaynash orasidagi farqlar, issiqlik miqdorining roli hamda turli sharoitlarda bu jarayonlarning qanday kechishi tahlil qilinadi.

KALIT SO'ZLAR: bug'lanish, qaynash, issiqlik miqdori, bosim, molekulyar harakat, fazaviy o'tish, qaynash harorati, bug' bosimi, suyuqlik dinamikasi, issiqlik almashinuvi, kondensatsiya, kritik nuqta, qaynash nuqtasi, issiqlik sig'imi, termodinamika, energiya almashinuvi, atmosfera bosimi, suyuqlik-holati o'zgarishi, endotermik jarayon, ekzotermik jarayon

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются процессы испарения и кипения жидкостей, их особенности и факторы, влияющие на них. Анализируются различия между испарением и кипением, роль количества теплоты и особенности протекания этих процессов в различных условиях.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: испарение, кипение, количество теплоты, давление, молекулярное движение, фазовый переход, температура кипения, парциальное давление, динамика жидкости, теплообмен, конденсация, критическая точка, точка кипения, теплоемкость, термодинамика, энергообмен, атмосферное давление, изменение состояния жидкости, эндотермический процесс, экзотермический процесс.

ABSTRACT: This article examines the processes of liquid evaporation and boiling, their characteristics, and influencing factors. The differences between evaporation and boiling, the role of heat energy, and how these processes occur under different conditions are analyzed.

KEYWORDS: evaporation, boiling, heat energy, pressure, molecular motion, phase transition, boiling temperature, vapor pressure, liquid dynamics, heat transfer, condensation, critical point, boiling point, heat capacity, thermodynamics, energy exchange, atmospheric pressure, liquid state change, endothermic process, exothermic process.

KIRISH. Suyuqliklarning bug‘lanishi va qaynashi tabiatda va texnologik jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. Bug‘lanish suyuqlik yuzasida asta-sekin sodir bo‘lsa, qaynash esa muayyan haroratda suyuqlikning butun hajmida sodir bo‘ladi. Bu jarayonlar issiqlik almashinuvi, atmosfera bosimi va molekulalarning kinetik energiyasi bilan chambarchas bog‘liq.

Bug‘lanish va qaynash kundalik hayotimizda va sanoat sohalarida keng qo‘llaniladi. Masalan, suvning bug‘lanishi tabiatdagi suv aylanishining asosiy qismi bo‘lsa, qaynash jarayoni ovqat tayyorlash, energetika va kimyo sanoatida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu jarayonlar issiqlik dvigatellari, bug‘ turbinalari va sovutish tizimlarida keng foydalaniladi.

Ushbu maqolada bug‘lanish va qaynash jarayonlarining fizik asoslari, ularga ta’sir etuvchi omillar hamda ularning amaliy qo‘llanilishiga e’tibor qaratiladi.

Bug‘lanish jarayoni Bug‘lanish – bu suyuqlikning yuzasida sodir bo‘ladigan bosqichma-bosqich gaz holatiga o‘tish jarayonidir. Bu jarayon tashqi issiqlik ta’sirida yoki tabiiy sharoitlarda yuzaga kelishi mumkin. Bug‘lanish suyuqlik harorati qanday bo‘lishidan qat’i nazar, har qanday haroratda sodir bo‘ladi, biroq harorat ortgan sari bug‘lanish tezligi ham oshadi.

Bug‘lanish jarayoniga ta’sir qiluvchi omillar

1. **Harorat** – Harorat oshgani sari suyuqlik molekulalarining kinetik energiyasi ortadi va bug‘lanish tezlashadi.

2. **Suyuqlik yuzasi maydoni** – Yuzasi katta bo‘lgan suyuqlik tezroq bug‘lanadi, chunki ko‘proq molekulalar bug‘lanish uchun qulay sharoitga ega bo‘ladi.

3. **Tashqi bosim** – Atmosfera bosimi yuqori bo‘lsa, bug‘lanish sekinlashadi, past bo‘lsa esa tezlashadi.

4. **Namlik darajasi** – Atrof-muhitdagi namlik past bo‘lsa, bug‘lanish tezroq sodir bo‘ladi.

5. **Havo harakati (shamol)** – Agar havo oqimi kuchli bo‘lsa, bug‘ hosil bo‘lishi tezlashadi, chunki bug‘langan molekulalar tezroq tarqalib ketadi.

MUHOKAMA

Bug‘lanishning hayotdagi ahamiyati

• **Tabiiy suv aylanishida** – Dengiz, ko‘l va daryolardan suvning bug‘lanishi yomg‘ir va qor shaklida qaytib tushadigan suv aylanishi jarayonining asosiy qismi hisoblanadi.

• **Inson organizmida** – Teri orqali ter ajralishi va bug‘lanishi tana haroratini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi.

• **Sovutish tizimlarida** – Muzlatkich va konditsionerlar bug‘lanish va kondensatsiya jarayonlaridan foydalanib, sovutish effektini hosil qiladi.

• **Qishloq xo‘jaligida** – Tuproqdagi namlik bug‘lanishi o‘simliklarning sug‘orilish ehtiyojiga bevosita ta’sir qiladi.

Bug‘lanish jarayoni turli sharoit va sohalarda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u fizik qonuniyatlar asosida sodir bo‘ladi.

Qaynash jarayoni Qaynash – bu suyuqlik butun hajmida bug‘lanish sodir bo‘ladigan jarayon bo‘lib, u ma’lum bir haroratga yetganda boshlanadi. Ushbu harorat **qaynash harorati** deb ataladi va u tashqi bosimga bog‘liq. Masalan, suv normal atmosfera bosimida (760 mm simob ustuni) 100°C da qaynaydi, lekin bosim kamayganda, masalan, baland tog‘ hududlarida, qaynash harorati pasayadi.

Qaynash jarayonining xususiyatlari

- **Suyuqlik ichida pufakchalar hosil bo‘ladi** – Suyuqlikning qaynashida bug‘ pufakchalari hosil bo‘lib, ular suyuqlik yuzasiga ko‘tariladi va yorilib, gaz holatiga o‘tadi.
- **Qaynash ma’lum haroratda sodir bo‘ladi** – Har bir suyuqlikning o‘ziga xos qaynash harorati bor, u tashqi bosim ta’sirida o‘zgarishi mumkin.
- **Issiqlik yetarlicha berilishi kerak** – Suyuqlik qaynash uchun tashqaridan ma’lum miqdorda issiqlik yutishi zarur. Ushbu issiqlik **bug‘lanish issiqligi** deb nomlanadi.

Qaynash jarayoniga ta’sir etuvchi omillar

1. **Tashqi bosim** – Bosim ortsa, qaynash harorati ham ortadi, bosim kamayganda esa suyuqlik past haroratda qaynaydi.
2. **Suyuqlik tarkibi** – Sof suyuqliklar bilan solishtirganda, aralashmalar yoki eritmalar qaynash haroratini o‘zgartirishi mumkin. Masalan, sho‘r suv toza suvga qaraganda yuqoriroq haroratda qaynaydi.
3. **Issiqlik manbaining quvvati** – Qizdirish tezligi qaynash jarayonining davomiyligiga ta’sir qiladi, lekin qaynash haroratini o‘zgartirmaydi.

Qaynash jarayonining amaliy ahamiyati

- **Ovqat pishirish** – Suyuqliklarning qaynashi orqali taom tayyorlash jarayonlari sodir bo‘ladi.
- **Energetika** – Issiqlik dvigatellari va bug‘ turbinalari qaynash va bug‘ bosimi hisobiga ishlaydi.
- **Sovutish tizimlari** – Suyuqliklarning qaynash va kondensatsiyalanish xususiyatlari sovutgich va konditsioner tizimlarida qo‘llaniladi.
- **Tibbiyot va farmatsevtika** – Dori vositalarini tayyorlash va sterilizatsiya jarayonlarida qaynashdan foydalaniladi.

Qaynash – bu muhim fizik jarayon bo‘lib, uning qonuniyatlari turli ilmiy va texnologik sohalarda keng qo‘llaniladi.

XULOSA. Suyuqliklarning bug‘lanishi va qaynashi fizikada muhim o‘rin tutadigan jarayonlar bo‘lib, ular turli tabiiy va texnologik hodisalarning asosini tashkil etadi. Bug‘lanish – bu suyuqlikning faqat yuzasida sodir bo‘ladigan sekin jarayon bo‘lsa, qaynash – suyuqlik butun hajmida bug‘ hosil bo‘lishi bilan kechadigan tez jarayondir. Ushbu jarayonlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, tashqi omillar (bosim, harorat, muhit namligi, havo oqimi) ularga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bug‘lanish tabiiy suv aylanishining ajralmas qismi bo‘lib, dengiz va ko‘llardan suvning atmosferaga ko‘tarilishi orqali yomg‘ir va qor shaklida yerga qaytishini ta’minlaydi.

Shuningdek, inson organizmida bug‘lanish tana haroratini me‘yorida ushlab turishda muhim rol o‘ynaydi. Qaynash esa energetika, oziq-ovqat sanoati, kimyo va farmatsevtika kabi ko‘plab sohalarda keng qo‘llaniladi. Masalan, bug‘ turbinolari elektr energiyasi ishlab chiqarishda, sterilizatsiya jarayonlari tibbiyotda va issiqlik almashinuvi tizimlari sanoatda qaynash jarayonidan foydalanadi.

Shuningdek, qaynash jarayoni tashqi bosimga bog‘liq ekanligi sababli, turli balandliklarda qaynash harorati o‘zgaradi. Bu esa tog‘li hududlarda ovqat tayyorlash yoki sanoat jarayonlarini olib borishda e‘tiborga olinishi lozim bo‘lgan muhim omildir.

Umuman olganda, bug‘lanish va qaynash jarayonlarini chuqur o‘rganish va ularning xususiyatlarini tushunish sanoat, ilm-fan va kundalik hayotda samaradorlikni oshirish, energiyani tejash va muhitga ta’sirni kamaytirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlardan to‘g‘ri foydalanish orqali texnologik jarayonlarni optimallashtirish va tabiiy resurslarni samarali boshqarish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov, Q. (2015). *Issiqlik va massa almashinuvi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Landau, L. D., & Lifshits, E. M. (1987). *Statistik fizika*. Moskva: Nauka.
3. Çengel, Y. A., & Boles, M. A. (2019). *Thermodynamics: An Engineering Approach*. McGraw-Hill Education.
4. Xolmatov, R. (2010). *Umumiy fizika kursi: Termodinamika va molekulyar fizika*. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
5. Kays, W. M., & Crawford, M. E. (2005). *Convective Heat and Mass Transfer*. McGraw-Hill.
6. Qayumov, A. (2008). *Molekulyar fizika asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Rahimov, S. (2017). *Issiqlik texnikasi va uning amaliy qo‘llanilishi*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
8. Bejan, A. (2013). *Convection Heat Transfer*. John Wiley & Sons.
9. Tleulesova, A., & Amanzholov, M. (2020). *Engineering Thermodynamics*. Springer.



ORCID ID: 0009-0000-5780-7428

**SHARQ VA G‘ARB PEDAGOGIKASINIG YOSHLARNI TARBIYALASHDAGI
 O‘XSHASHLIK VA FARQLARI**
**СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ
 ПЕДАГОГИКОЙ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ**
**SIMILARITIES AND DIFFERENCES BETWEEN EASTERN AND WESTERN
 PEDAGOGY IN THE EDUCATION OF YOUTH**

Mushtariybegim G‘anijonova (Jamolova) Bobirjon qizi.
Andijon davlat Pedagogika Instituti,
Pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

ANNOTATSIYA: Maqola Sharq va G‘arb pedagogik tizimlarining yoshlarni tarbiyalashdagi o‘xshashlik va farqlarini tahlil qiladi. Ushbu ishda ikkala tizimning tarixiy kelib chiqishi, falsafiy asoslari, o‘qitish metodlari, o‘quv dasturlari, baholash tizimi va zamonaviy talablarga moslashuvchanligi o‘rganiladi. Sharq pedagogikasi an‘anaviy, kollektivistik yondashuvlarga asoslanib, axloqiy va ma‘naviy qadriyatlarni tarbiyalashga e‘tibor qaratadi. G‘arb pedagogikasi esa individualizm va innovatsiyalarga tayanib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Maqola, ikkala tizimning o‘xshashliklari va farqlarini, shuningdek, ularning yoshlarni rivojlantirishda qanday samarali ishlatilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Kelajakda Sharq va G‘arb pedagogikalarining eng yaxshi tomonlarini birlashtirgan yangi pedagogik tizim yaratish istiqbollari muhokama qilinadi. Ushbu maqola, nafaqat pedagogika sohasidagi nazariy bilimlarni, balki amaliy yondashuvlarni ham o‘z ichiga oladi va zamonaviy pedagogika tizimlarining rivojlanish yo‘llarini o‘rganishga yordam beradi.

KALIT SO‘ZLAR: Sharq pedagogikasi, G‘arb pedagogikasi, o‘qitish usullari, axloqiy tarbiya, individualizm, kollektivizm, interaktiv o‘qitish, o‘quv dasturlari, baholash tizimi.

АННОТАЦИЯ: Статья анализирует сходства и различия в воспитательных системах Востока и Запада. В статье рассматриваются историческое происхождение, философские основы, методы обучения, учебные программы, системы оценки и гибкость в соответствии с современными требованиями обеих систем. Восточная педагогика, опирающаяся на традиционные, коллективистские подходы, акцентирует внимание на воспитании моральных и духовных ценностей, в то время как западная педагогика ориентирована на индивидуализм и инновации, направленные на развитие у учеников

самостоятельного мышления и навыков решения проблем. Статья показывает как сходства, так и различия между двумя системами, а также как их можно эффективно использовать для развития молодежи. Также обсуждаются перспективы создания новой педагогической системы, объединяющей лучшие стороны как восточной, так и западной педагогики. Статья включает не только теоретические знания в области педагогики, но и практические подходы, что помогает исследовать пути развития современных педагогических систем.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: восточная педагогика, западная педагогика, методы обучения, нравственное воспитание, индивидуализм, коллективизм, интерактивное обучение, формы обучения, система оценивания.

ABSTRACT: The article analyzes the similarities and differences in the educational systems of the East and the West. It examines the historical origins, philosophical foundations, teaching methods, curricula, assessment systems, and adaptability to modern requirements of both systems. Eastern pedagogy, based on traditional, collectivist approaches, focuses on nurturing moral and spiritual values, while Western pedagogy, relying on individualism and innovation, is aimed at developing students' independent thinking and problem-solving skills. The article highlights both the similarities and differences between the two systems, as well as how they can be effectively applied to youth development. It also discusses the prospects of creating a new pedagogical system that combines the best aspects of both Eastern and Western pedagogies. The article encompasses not only theoretical knowledge in the field of pedagogy but also practical approaches, helping to explore the development paths of modern educational systems.

KEYWORDS: Eastern pedagogy, Western pedagogy, teaching methods, moral education, individualism, collectivism, interactive teaching, curriculum, assessment system.

KIRISH. Sharq va G'arb pedagogik tizimlari o'z tarixiy, madaniy va falsafiy ildizlariga asoslanib, yoshlarni tarbiyalashda o'ziga xos yondashuvlarga ega. Ushbu maqolada, Sharq va G'arb pedagogikasining yoshlarni tarbiyalashdagi o'xshashliklari va farqlari tahlil qilinadi. Maqsad, har ikki tizimni chuqurroq tushunib, ularning kuchli tomonlarini zamonaviy pedagogik talablar asosida yoshlarni har tomonlama rivojlantirishda qanday samarali qo'llash mumkinligini ko'rsatishdir. Bu ish orqali, biz yoshlar tarbiyasida eng yaxshi yondashuvlarni birlashtirib, ularning bilim, ma'naviyat va axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qanday yondashish kerakligini aniqlashga intilamiz. Sharq va G'arb pedagogik tizimlari o'rtasidagi farqlarni chuqurroq tushunishda tarixiy va madaniy o'zgarishlar ham muhim omil bo'lib, ularning har biri jamiyatda o'zgarishlarga qanday moslashayotganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI. Sharq va G'arb pedagogik tizimlarining yoshlarni tarbiyalashdagi o'xshashliklari va farqlari masalasiga doir adabiyotlar keng va chuqur tahlil etilgan. Pedagogik yondashuvlar, nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham o'zgaruvchan va taraqqiy etayotgan bir jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Sharq pedagogikasi axloqiy va

ma'naviy qadriyatlarni tarbiyalashga katta e'tibor qaratadi. Konfutsiy, Al-Farobiy, Ibn Sino kabi buyuk sharq mutafakkirlarining asarlarida, ta'lim faqat ilm olishdan iborat bo'lmasdan, odamning axloqiy va ma'naviy kamolotini shakllantirishga qaratilgan. Konfutsiy ta'limni jamiyatga xizmat qilish, o'zini jamiyatga bag'ishlash va o'z qadriyatlarini hurmat qilish jarayoni sifatida ko'rgan.¹²⁸ Shu bilan birga, Sharq pedagogikasida o'qituvchining roli beqiyosdir, u nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni o'quvchilarga singdiruvchi o'rin tutadi. Sharq pedagogikasining asosiy tamoyillari kollektivizm, jamiyatga xizmat qilish va oilaning tarbiyadagi muhim o'rni bilan bog'liqdir.¹²⁹

G'arb pedagogikasi esa yanada individualistik yondashuvga asoslanadi. Bu tizimda shaxsning mustaqilligi, o'z fikrini erkin ifodalash va tanqidiy fikrlashga katta e'tibor qaratiladi.¹³⁰ Dewey, Piaget va Vygotsky kabi pedagog va psixologlar, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularga o'z bilimlarini kengaytirish va tanqidiy fikrlashni o'rgatishga katta ahamiyat berishadi. John Dewey, o'zining "Democracy and Education"¹³¹ asarida, ta'limni faqat bilim olish jarayoni sifatida emas, balki yoshlarni jamiyatdagi faol fuqarolar sifatida shakllantirish jarayoni deb ta'riflaydi. Bu, G'arb pedagogikasining zamonaviy yondashuvlarining asosini tashkil etadi. Shuningdek, G'arb tizimida o'quvchilarni baholashda, ularning o'z fikrini erkin bildirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqotda, Sharq va G'arb pedagogik tizimlarining o'xshashliklari va farqlarini chuqur tahlil qilish maqsadida, bir qator metodlar qo'llaniladi. Historik tahlil orqali, har ikki tizimning falsafiy va pedagogik asoslari aniqlanadi. Masalan, Konfutsiy va Al-Farobiyning pedagogik yondashuvlari jamiyatning ahloqiy va ma'naviy qadriyatlari asosida shakllangan. Dewey va Piaget esa o'quvchining mustaqilligi va kreativligini rivojlantirishga urg'u beradi. Kontent tahlili metodida o'quv dasturlari, baholash tizimlari va pedagogik metodlar o'rganiladi, bu esa ikkala tizimning samaradorligini va yoshlarni rivojlantirishdagi farqlarini chuqur tahlil qilishga imkon beradi.

Solishtirish metodidan foydalanish orqali, Sharq va G'arb pedagogik tizimlarining o'quvchilarga bo'lgan yondashuvlari solishtiriladi. Bu metod har ikki tizimning o'qitish metodlarini, o'quv dasturlarini va baholash usullarini o'rganishga yordam beradi. Masalan, Sharq pedagogikasi ko'proq an'anaviy usullarni, darslar davomida o'qituvchining markaziy o'rnini saqlaydi. G'arb pedagogikasida esa interaktiv yondashuvlar, guruhli ishlar va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Tadqiqotda shuningdek, ikkala tizimning o'quvchilarga ta'siri ham o'rganiladi. Sharq pedagogikasida o'qituvchining ishtiroki juda yuqori bo'lib, o'quvchilar ko'proq tinglovchi va o'rganuvchi sifatida faoliyat ko'rsatadilar. G'arb tizimida esa o'quvchilar ko'proq faollik

¹²⁸ Konfutsiy, "Konfutsiyning So'zlari", Pekin, 2015..

¹²⁹ Al-Farobiy, "Falsafaning Asoslari", Toshkent, 2010.

¹³⁰ Ibn Sino, "Shifo Kitobi", Buxoro, 2002.

¹³¹ Dewey, John. "Democracy and Education." The Macmillan Company, 1916.

ko'rsatishadi, savol-javoblar, munozaralar va muammoli vaziyatlar orqali o'z fikrlarini erkin ifodalaydilar. Sharq va G'arb pedagogik tizimlari o'rtasidagi farqlarni tushunishda ijtimoiy va madaniy kontekst ham muhim rol o'ynaydi. Sharq madaniyati, ayniqsa, an'anaviy qadriyatlar, ota-onalarga hurmat, oilaviy ahamiyat va jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Sharq pedagogikasida o'qituvchining roli faqat bilim beruvchidan iborat emas, balki u axloqiy va ma'naviy tarbiya beruvchi sifatida ham qaraladi. Bunda o'qituvchi, shaxsiy tajriba va namunalar orqali o'quvchiga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi. G'arb madaniyati esa ko'proq individualizmga asoslanadi, bu esa o'quvchilarga o'zlarini mustaqil ravishda rivojlantirish, o'z fikrini erkin ifodalash va jamiyatda faol fuqarolar bo'lish imkoniyatini beradi. G'arb pedagogikasi o'zining dinamik yondashuvlari va innovatsion metodlari bilan ajralib turadi. Sharq pedagogikasida an'anaviy o'qitish metodlari keng qo'llaniladi. Bu tizimda axloqiy va ma'naviy tarbiya muhim o'rin tutadi. Sharq pedagogikasi o'quvchilarga jamiyatdagi o'rnini tushunishga, o'z mas'uliyatini anglashga, va o'z qobiliyatlarini jamiyat xizmatida ishlatishga urg'u beradi. Bu pedagogika tizimida o'qituvchilarga o'z bilimlarini o'tkazishdan tashqari, o'quvchilarga yuqori axloqiy qadriyatlarni singdirish vazifasi yuklanadi. O'qituvchining roli, bilim beruvchidan tashqari, tarbiyaviy rahbar sifatida ham ajralib turadi.

Sharq pedagogikasining yana bir muhim xususiyati – kollektivizmga e'tibor berishdir. Bu tizimda o'quvchilarni jamiyatga xizmat qilishga, o'zaro hurmat va hamjihatlikka o'rgatish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida mustahkam aloqalar va o'zaro hurmatni shakllantirishga katta e'tibor qaratiladi. G'arb pedagogik tizimi o'zining individualistik yondashuvi bilan tanilgan. G'arbda o'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalash, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va ularni o'z ta'limlarini boshqarish imkoniyatlari yaratish G'arb pedagogikasining asosiy xususiyatidir. G'arb tizimida o'qituvchining roli faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning yaratish, izlanish va tajriba qilish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashdir.

Shuningdek, G'arbda interaktiv va faol o'qitish usullari keng tarqalgan. O'quvchilarni guruhli ishlar, loyiha asosidagi o'qitish va muammoli vaziyatlar orqali faol ishtirok qilishga undaydigan metodlar qo'llaniladi. Bu esa o'quvchilarning kreativ fikrlashini, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalarni ilgari surish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Sharq va G'arb pedagogik tizimlari o'rtasidagi farqlar, asosan, ularning ijtimoiy va madaniy qadriyatlariga bog'liqdir. Sharq pedagogikasi jamiyatning barqarorligi, axloqiy va ma'naviy tarbiyani, o'z-o'zini anglash va oilaning ahamiyatini ta'kidlaydi. G'arb pedagogikasi esa o'quvchilarning individual rivojlanishiga katta e'tibor berib, ularning mustaqil fikrlash va o'z maqsadlariga erishishiga imkon yaratadi. Shuningdek, G'arb pedagogikasi texnologiyalarga asoslangan yondashuvlarni qo'llab-quvvatlaydi va o'qitish jarayonida innovatsion metodlarni amalga oshirishga katta e'tibor qaratadi.

Kontent tahlili metodini qo'llash orqali tadqiqotda Sharq va G'arb pedagogik tizimlarining asosiy tamoyillari, axloqiy va ma'naviy qadriyatlar, o'quv dasturlari, baholash

tizimlari va metodologik yondashuvlarini chuqur tahlil qilish rejalashtirilgan. Bu metod yordamida ma'lumotlar aniq va tizimli tarzda saralanadi, har bir tizimda qanday pedagogik va tarbiyaviy prinsiplar asosida o'quvchilarga ta'lim berish jarayoni amalga oshirilishini ko'rsatish maqsad qilingan. Sharq pedagogikasining asosiy tamoyillari (masalan, kollektivizm, jamiyatga xizmat qilish, ma'naviyat) va G'arb pedagogikasining asosiy yondashuvlari (masalan, individualizm, mustaqillik, tanqidiy fikrlash) o'zaro solishtiriladi. Kontent tahlili yordamida o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda qaysi yondashuvlar ko'proq samarali bo'lganligi o'rganiladi.

Solishtirish metodi va uni qo'llash orqali tadqiqotda Sharq va G'arb pedagogik tizimlarining asosiy yondashuvlari va tamoyillari o'zaro taqqoslanadi. O'qitish metodlari, baholash tizimi, axloqiy tarbiya, va o'quv dasturlari kabi o'quv jarayonining turli jihatlari solishtiriladi. Bu metod yordamida, har bir tizimning afzalliklari va kamchiliklari aniq ko'rsatiladi, shuningdek, ikki tizimning yoshlarni rivojlantirishdagi samaradorligi va amaliy yondashuvlari o'rganiladi. Bu solishtirish metodikasi, har ikki tizimni yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi va o'zaro ta'sirlarni aniqlashga yordam beradi. Solishtirish asosida o'quvchilarning rivojlanishi va ta'limdagi yutuqlari tahlil qilinadi.

Kvalitativ tadqiqot metodlari, ya'ni intervyu, fokus guruhlar, va kontent tahlili yordamida o'quvchilarning, o'qituvchilarning va pedagogik mutaxassislarining fikrlarini olish rejalashtirilgan. Bu metod yordamida o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi hissiyotlari, o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan metodlar, va pedagogik yondashuvlarning samaradorligi o'rganiladi. Fokus guruhlar va intervyular orqali o'qituvchilarning tajribalari va ularning pedagogik yondashuvlarga bo'lgan munosabati, o'quvchilarning o'z fikrlari va o'qituvchilarning pedagogik usullarga nisbatan yondashuvlari aniqlanadi. Kvalitativ tahlil yordamida Sharq va G'arb pedagogik tizimlarining o'zaro aloqalari va pedagogik yondashuvlarning ta'siri haqida to'liqroq tasavvur hosil qilinadi.

Tadqiqotda kvantitativ metodlardan foydalanish orqali, anketalar va testlar yordamida o'quvchilarning ta'lim darajasi, axloqiy xulq-atvor va ijtimoiy faollik o'lchanadi. O'quvchilarning bilim darajasini o'lchash, testlar yordamida ular o'zlarining axloqiy qadriyatlarini, jamiyatga nisbatan javobgarliklarini va ijtimoiy faolliklarini qanday namoyon etayotganlarini baholash rejalashtirilgan. Bu metod yordamida o'quvchilarning baholash tizimiga bo'lgan munosabati, pedagogik metodlarning samaradorligi va har ikki tizimda o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan baholash usullari o'rganiladi. Shu tarzda, o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini o'lchashda har ikki tizimning farqlari va o'xshashliklari aniq ko'rsatiladi.

Zamonaviy pedagogik tahlil va tadqiqotda Sharq va G'arb pedagogik tizimlarining integratsiyasiga katta e'tibor qaratiladi. O'quvchilarga ta'lim berish va ularning tarbiyaviy, axloqiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlashda Sharq va G'arb tizimlarining eng yaxshi tamoyillarini birlashtirish zarurligi ko'rsatiladi. Bu metodologiya yordamida ikki tizimning pedagogik yondashuvlarini birlashtirish, o'zaro ta'sirda bo'lishini va zamonaviy ta'lim

tizimlarida qanday ishlashini o'rganish maqsad qilingan. Integratsiyalashgan yondashuv Sharq va G'arb pedagogik tizimlarining kuchli tomonlarini zamonaviy ta'lim tizimida qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda sifatli va ishonchli ma'lumotlarni yig'ish uchun, tizimli va puxta tahlil usullari qo'llaniladi. Aniq va ishonchli manbalar asosida olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi va bu ma'lumotlar yordamida har ikki pedagogik tizimning samaradorligi va o'quvchilarga ta'siri baholanadi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar asosida aniq xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ushbu metodologiya, Sharq va G'arb pedagogik tizimlarining asosiy tamoyillari va metodlarini chuqur tahlil qilishni ta'minlaydi. Bu metodologiya o'quvchilarning axloqiy, ma'naviy va intellektual rivojlanishini ta'minlashda Sharq va G'arb tizimlarining ta'lim berish usullarini qo'llashda qanday yondashuvlar mavjudligini aniq belgilash imkonini beradi. Tadqiqot metodologiyasining to'liq va puxta ishlab chiqilishi, Sharq va G'arb pedagogik tizimlarining zamonaviy ta'limda integratsiyasini va ularning o'zaro ta'sirini muvaffaqiyatli o'rganishga imkon yaratadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytish mumkinki, Sharq va G'arb pedagogik tizimlari o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar ta'lim jarayonida fundamental ahamiyatga ega bo'lib, har ikki tizim ham o'ziga xos ijtimoiy va madaniy qadriyatlar asosida shakllangan. Sharq tizimi ko'proq jamiyatning barqarorligi va axloqiy-ruhan tarbiyani, o'quvchilarni jamiyatga mas'uliyatli va hurmatli a'zo sifatida tayyorlashni maqsad qilsa, G'arb tizimi ko'proq individual yondashuvga, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, kreativlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta ahamiyat beradi.

Sharq tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, o'qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki axloqiy va ma'naviy tarbiya beruvchi sifatidagi roli ekanligidir. O'qituvchi o'quvchining tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi, unga nafaqat bilimlar, balki hayotiy qadriyatlar, mas'uliyat va hurmatni ham o'rgatadi. Jamiyatdagi barqarorlik va ahillikni saqlab qolish, ko'proq o'zaro hurmat va hamjihatlikka e'tibor qaratiladi. Bu tizimda, o'quvchilar ko'proq ijtimoiy va kollektiv qadriyatlar asosida tarbiyalanadi, o'zlarini faqat shaxsiy emas, balki jamiyatning bir qismi sifatida his qilishadi.

G'arb pedagogikasining asosiy yondashuvi esa, o'quvchilarni mustaqil, erkin va kreativ fikrlovchilar sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan. G'arb tizimida o'qituvchining roli, o'quvchilarning faoliyatini yo'naltirish va ularga yangi bilimlarni o'rganish, muammolarni hal qilishda yordam berishdir. Bunda o'quvchilarni o'z fikrini erkin ifodalashga, tanqidiy fikrlashga va o'z qarorlarini mustaqil qabul qilishga o'rgatish ta'kidlanadi. G'arb pedagogikasining interaktiv metodlari, innovatsion texnologiyalar va guruhli ishlash orqali o'quvchilarning jismoniy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Ikkala tizimning ham o'ziga xos ijobiy tomonlari mavjud. Sharq tizimi o'quvchilarga jamiyatda hurmat va mas'uliyatni o'rgatishda, ularni axloqiy jihatdan mukammal shaxslar sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. G'arb tizimi esa o'quvchilarga o'zlarini erkin

ifodalash, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va kreativ yondashuvlarni rivojlantirishda muvaffaqiyatli natijalar beradi. G'arb tizimining ilg'or texnologik yondashuvlari va o'quvchilarning faolligini ta'minlashga qaratilgan metodlari o'ziga xos ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har ikkala tizimning o'ziga xos yutuqlari va afzalliklari mavjud. Shuning uchun, ta'lim tizimlarining eng yaxshi tomonlarini birlashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar yaratishda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, Sharq tizimining jamiyatga hurmat va barqarorlikni ta'kidlovchi metodlarini, G'arb tizimining individual yondashuvlarini va interaktiv o'qitish metodlarini birlashtirish o'quvchilarning jismoniy, intellektual va ma'naviy rivojlanishiga imkon yaratadi.

Shuningdek, globalizatsiya va zamonaviy texnologiyalar sharoitida, har ikki tizimning o'zaro integratsiyasi o'quvchilarni dunyo bo'ylab tarbiyalashda yanada samarali bo'lishi mumkin. Bu, o'quvchilarga nafaqat o'z mamlakatlarida, balki global miqyosda ham muvaffaqiyatli bo'lish imkoniyatini yaratadi. O'quvchilarning tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirish, ularning jamiyatga, davlatga va dunyoga nisbatan mas'uliyatini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, hozirgi kunda o'qitishning yangi metodlari va texnologiyalarini birlashtirgan pedagogik tizimlar jadal rivojlanmoqda. Bu tizimlar o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishga, muammolarni mustaqil hal qilishga va yangi bilimlarni o'zlashtirishga undaydi. Ta'limda global yondashuvlar, o'quvchilarning ijodiy yondashuvlari, jamoaviy ishlash va dunyoqarashni kengaytirish zarurati o'quvchilarning ta'lim olishda qiziqishini va muvaffaqiyatlarini oshiradi.

Sharq va G'arb pedagogik tizimlari o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar o'quvchilarga o'qitish jarayonida bir-birini to'ldiruvchi elementlarni taqdim etadi. Har ikki tizimning ijobiy jihatlarini birlashtirish, kelajakda yanada mukammal va samarali ta'lim tizimlarini yaratishga yordam beradi. Bu esa yoshlarni jamiyatga foydali va mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashga imkon yaratadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarning integratsiyasi o'quvchilarning yaratish, o'z fikrlarini erkin ifodalash va ijtimoiy mas'uliyatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Konfutsiy, "Konfutsiyning So'zlari", Pekin, 2015.
2. Al-Farobiy, "Falsafaning Asoslari", Toshkent, 2010.
3. Ibn Sino, "Shifo Kitobi", Buxoro, 2002.
4. Dewey, John. "Democracy and Education." The Macmillan Company, 1916.
5. Piaget, Jean. "The Psychology of Intelligence." Routledge, 2001.
6. Vygotsky, Lev S. "Mind in Society." Harvard University Press, 1978.



KOLLABORATSIYANING IJTIMOIIY VA PEDAGOGIK HODISA SIFATIDAGI TAHLILI

Ishanova Barno Baxadirovna

Olmazor tumani 15 - maktabning oliy toifali o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kollaboratsiyaning ijtimoiy va pedagogik hodisa sifatidagi tahlili bayon qilingan. Shuningdek, kooperativ ta’lim va hamkorlikda o‘rganish ikkalasi ham birgalikda ishlashini o‘z ichiga olgan o‘qitish yondashuvlaridir, lekin ularning maqsadlari, tuzilmalari va jarayonlari nuqtai nazaridan aniq farqlar mavjudligi masalasi muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: kollaboratsiya, pedagogik hamkorlik, ta’lim jarayoni, innovatsion yondashuv, innovatsiya, metodlar.

АНАЛИЗ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ЯВЛЕНИЯ

Аннотация. В статье представлен анализ сотрудничества как социального и педагогического явления. Также обсуждается, что кооперативное обучение и совместное обучение являются подходами к обучению, которые подразумевают совместную работу, но существуют явные различия с точки зрения их целей, структур и процессов.

Ключевые слова: сотрудничество, педагогическое сотрудничество, образовательный процесс, инновационный подход, инновации, методы.

ANALYSIS OF COLLABORATION AS A SOCIAL AND PEDAGOGICAL PHENOMENON

Abstract. This article presents an analysis of collaboration as a social and pedagogical phenomenon. It also discusses the issue of whether cooperative learning and collaborative learning are both teaching approaches that involve working together, but that there are clear differences in terms of their goals, structures, and processes.

Keywords: collaboration, pedagogical cooperation, educational process, innovative approach, innovation, methods.

Kirish. Ta’lim sifati – bu ta’limning turli ehtiyojlar, davlat, jamiyat, shaxs manfaatlariga muvofiqligi; ta’limning ierarxiya tamoyillari asosida tashkillashtirilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyat (tavsif, parametr)larining tizimli majmuasi. Demak, ta’lim sifati – bu o‘quvchi

shaxsini har tomonlama rivojlantirishga doir ehtiyojlarni qondirishni ta’lim xizmatlari iste’mollilik xususiyatlarining majmuasi. Ta’lim sifati muammolarini muhokama qilishda uning baholanishi, nazorati, monitoringi, sifatning ta’minlanishi va boshqalar haqida so‘z yuritiladi. Binobarin, har bir mamlakatning ta’lim tizimi undagi ijtimoiy-madaniy muhit va ishlab chiqarish-texnologik bazasi bilan ko‘plab murakkab funksional munosabat va aloqalar bilan bog‘langan. Shunday qilib, mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish yuzasidan amalga oshirilayotgan izlanishlar ta’lim boshqaruvi natijaviyligi va samarasini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo‘nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta’lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo‘yadi. Sifatli mutaxassisni tayyorlash esa faqatgina sifatli ta’lim muhitida amalga oshirilishi mumkin.

Yangi O‘zbekiston ta’lim-tarbiya jarayonidagi islohotlarga nazar tashlasak, 4K modeli, kollaboratsiya, kritika, kommunikatsiya, kreativlik kabi innovatsiyalar haqida fikr bildirilmoqda. Rus pedagogi A.P. Balishev maqolasida kollaboratsiya terminini tahlil qilib shunday fikrlarni keltiradi: Kollaborativ o‘qitish terminiaxborot resurslari, shu jumladan xorijiy ilmiy ma’lumotlar bazalarida 2018-yil 378 marta, 2019-yil 424 marta, 2020-yil 551 marta qo‘llanilgan. Ayniqsa, «Hamkorlikda o‘rganish» so‘rovi uchun Science Direct platformasi 2019-yil 11596 ta, 2022-yilda esa 19303 ta qidiruv natijalarini ko‘rsatadi [1].

Demak, pedagogika sohasida aynan kollaboratsiya termini ostida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ammo, shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarni ko‘rib chiqish ta’lim sohasidagi kollaboratsiya termini tadqiqotchilar o‘rtasidagi fikrlarni turlicha ekanligini aniqlashga imkon berdi.

Kollaboratsiya (frans. collaboration - hamkorlik) – umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko‘proq kishining sherikchiligi. Ba’zi manbalarda esa, *kollaboratsiya* - ikki yoki undan ortiq shaxs yoki guruhning har qanday sohadagi umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi faoliyat jarayoni hisoblanib, unda bilim almashish, o‘qitish va kelishuvga erishish (konsensus) mavjudligidir.

Chet el adabiyotini tahlil qilish, kollaborativ o‘quvning xususiyatlari 1980-yillarning oxirlaridan boshlab pedagogik tadqiqotlarda keng yoritilganligini ko‘rsatdi. Avvalo, D. Jonsonning ta’kidlashicha, o‘quv kollaboratsiyasi konstruktivistik o‘qitish nazariyasiga asoslanadi, ya’ni quyidagi asosiy fikrlarga:

a) bilimlarni o‘quvchilar o‘zlari quradilar va o‘zgartiradilar; o‘qituvchilarning vazifasi - faol o‘qitish metodlari va guruhli o‘quv o‘zaro ta’sirini tashkil qilish orqali mos pedagogik sharoitlarni yaratish;

b) ta’lim jarayoni o‘qituvchining o‘quvchiga ta’siri emas, balki barcha ishtirokchilarning subyekt-subyekt va subyekt-obyekt faol, maqsadli o‘zaro ta’siridir;

v) yuqorida sanab o‘tilganlar faqat o‘quv hamkorligi shaklida, ta’lim jarayonidagi asosiy o‘zaro ta’sir shakli sifatida amalga oshirilishi mumkin.

S.Kagan esa o‘quv kollaboratsiyasi, asosan, muloqotning tarmoq shaklida bo‘lishini ta’kidlaydi, bu esa o‘zaro ta’sirning aniq strukturalarini ishlab chiqish va tasvirlash imkonini yo‘q qiladi, bu esa har qanday yoshdagi va tarkibdagi o‘quvchilar guruhida bir xil samaradorlik bilan qo‘llanilishi mumkin. R.Oksford esa, o‘z navbatida, o‘quvchilar umumiy faoliyatining natijalarini baholashga yo‘naltirilgan orientatsiyaning kollaborativ o‘qitishning ajralib turuvchi xususiyati ekanligini ta’kidlaydi. Muallif kollaborativ ta’lim muhitida, o‘zaro ta’sir natijasini avval guruhning o‘zi, keyin butun sinf va oxir-oqibat “ilmiy jamiyat” (bilim jamiyati) deb ataladigan, tegishli fan bo‘yicha mutaxassislar guruhining (o‘qituvchilar, professional hamjamiyatlar a’zolari, universitet o‘qituvchilari va boshqalar) baholashini ta’kidlaydi.

Tahlil va natijalar. Kooperativ ta’lim va hamkorlikda o‘rganish ikkalasi ham o‘quvchilarning birgalikda ishlashini o‘z ichiga olgan o‘qitish yondashuvlaridir, lekin ularning maqsadlari, tuzilmalari va jarayonlari nuqtai nazaridan aniq farqlar mavjud:

Indikator	Hamkorlikda o‘rganish	Kooperativ ta’lim
Maqsad	Jamoadi ishlash va muloqot qobiliyatlari	Jamoadi ishlash va individual muvaffaqiyat
Tuzilma	Kamroq tuzilgan, moslashuvchan	Ko‘proq tuzilgan, o‘ziga xos rollar
Shaxsiy javobgarlik	Guruh natijalariga e’tibor qarating	Guruh va individual ishlashga kuchli e’tibor
O‘qituvchi roli	Fasilitator, munozaralarga rahbarlik qilish	Vazifalarni faol ravishda tuzish va taraqqiyotni kuzatish
Misollar	Umumiy maqsadlarga ega bo‘lgan guruh loyihalari	Muayyan rollar bilan jigsaw faoliyati

Muxtasar qilib aytganda, hamkorlikda o‘rganish guruh sifatida birgalikda ishlashga va jamoaviy ishda yaxshiroq bo‘lishga qaratilgan. Boshqa tomondan, hamkorlikda o‘rganish guruhning muvaffaqiyati va har bir kishi o‘z ishini qanchalik yaxshi bajarishi, aniq rol va vazifalar bilan bog‘liq.

Shundan kelib chiqib, kooperativ ta’limning asosiy xususiyatlari mavjud:

Ijobiy o‘zaro bog‘liqlik. Kooperativ ta’limda o‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun birgalikda harakat qilishlari kerak. Bu umumiy mas’uliyat jamiyat tuyg‘usini yaratadi va o‘quvchilarni yordam va qo‘llab-quvvatlashga undaydi.

Yuzma-yuz muloqot. O‘quvchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot va o‘zaro ta’sir o‘tkazish imkonini beruvchi yaqindan hamkorlik qiladi. Bu munozara, muammolarni hal qilish va fikr almashishga yordam beradi.

Shaxsiy javobgarlik. Garchi ular guruhda bo‘lsalar ham, har bir o‘quvchi o‘z bilimi uchun javobgardir. Ular guruhga yordam berishlari va materialni tushunishlariga ishonch hosil qilishlari kerak.

Shaxslararo ko‘nikmalar. Kooperativ ta‘lim o‘quvchilarga boshqalar bilan qanday gaplashishni, jamoa bo‘lib ishlashni, yetakchilik qilishni va kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal qilishni o‘rgatadi.

Guruhga baho berish. Topshiriqni bajargandan so‘ng, guruh a‘zolari o‘zlarining jamoaviy faoliyati haqida fikr yuritadilar. Bu mulohaza ularga guruh qanday ishlaganligi va ularning ish sifati nuqtai nazaridan nima yaxshi bo‘lganini va nima yaxshiroq bo‘lishi mumkinligini baholash imkonini beradi.

O‘qituvchining yordami. O‘qituvchilar vazifalarni tuzish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va guruh dinamikasini kuzatish orqali hamkorlikda o‘rganishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular hamma hamkorlik qiladigan va ishtirok etadigan muhitni yaratadilar.

Ko‘rinib turibdiki, olimlar kollaborativ jarayonni hamkorlikda o‘qitish, kooperativ o‘qitish kabi tushunchalarni turlicha talqin qiladilar. Bundan tashqari, K.Bryuffi ta’kidlashicha, kollaborativ o‘qitishni tashkil etish o‘qituvchilardan nafaqat o‘quvchilar guruhlarini, balki ma’lum o‘quv jamiyatlarini shakllantirishni va ularning ichida politsentrik o‘zaro ta’sirni qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi, bunda o‘qituvchi o‘quv jarayonining kuzatuvchisi va fasilitatori bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashmasdan (o‘quv jamiyatining tegishli so‘rovi bo‘lmaguncha) tashkil etilgan ta‘lim muhitining “perimetri bo‘ylab” harakatlanadi.

Olimlarning fikridan kelib chiqib kollaboratsiyaning ijtimoiy va pedagogik hodisa sifatida tahlil qilish mumkin.

Kollaboratsiyaning ijtimoiy va pedagogik hodisa sifatida

tahliliy jadvali

2-jadval

Ijtimoiy kollaboratsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari	Pedagogik kollaboratsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari
O‘zaro ta’sir ishtirokchilar resurslarini birlashtirishning sinergik jarayoni	Ta’limiy topshiriqlar taqsimotining geterarxik jarayoni; kompetensiyalar sinergiyasi va o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari
Har qanday narsaga o‘zaro ta’sirning istalgan vaqtida va istalgan bosqichida individual hissa qo‘shish imkoniyati	“O‘quv jamoalar” o‘z-o‘zini tashkil etish; o‘zaro munosabatlarning qat’iy qoidalarini yo‘qligi
Qat’iy va tartibga solinadigan o‘zaro ta’sir tuzilmaning yo‘qligi	Geterarxik tarzda taqsimlangan vazifalarni bajarishda ta’limdagi o‘zaro ta’sirlarning turli xil variantlari

Bashorat qilingan faoliyatning yakuniy mahsulotida mumkin bo‘lgan farqlar	Ta’limdagi o‘zaro ta’sirning mahsuli, ta’lim maqsadlaridan qat’iy nazar, oldindan aniq bashorat qila olmaslik
O‘zaro ta’sir subyektlarining ochiq va tarmoqli kommunikatsiya jarayoni	O‘zaro ta’sirning tarmoqli xususiyati va subyektlarning o‘quv-tarbiya jarayonidagi kommunikatsiyasi
O‘zaro faoliyatda ishtirokchilarning ixtiyoriy ishtiroki; ayrim bosqichlarda subyektlarning o‘zaro ta’sir faoliyatida ishtiroki to‘g‘ri kelmasligi mumkin	O‘qituvchining fasilitatorlik o‘rni; o‘quvchilarning qiziqishidan kelib chiqib o‘quv faoliyatini tashkil etish

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, pedagogik kollaboratsiya va ijtimoiy kollaboratsiya o‘zaro ta’sir shakli sifatida alohida-alohida o‘z tavsiflovchi xususiyatlariga ega. Ikkala hodisaning tavsiflarida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini hisobga olib, ta’lim kollaboratsiyasini pedagogik hamkorlik shakllariga kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik kollaboratsiyaning tavsiflari asosan nazariy xarakterga ega. Emperik tadqiqotlarning ko‘p bo‘lmagan qismi kollaborativ o‘zaro ta’sir sohasiga, ko‘pchilik tadqiqotlar ushbu o‘zaro ta’sir shaklini o‘quv jarayonida amalda qanday qo‘llash mumkinligiga, kam miqdorda ta’lim boshqaruvidagi o‘rni bo‘yicha aniq ma’lumotlar topilmadi.

Xulosa. Shunday bo‘lsa-da, pedagogik kollaboratsiyaning quyidagi boshqa turlardan farqli jihatlari aniqlandi:

1. Kollaborativ pedagogik o‘zaro ta’sir shakli o‘quv-tarbiya jarayonidagi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va muloqotning tarmoq xususiyatini nazarda tutadi.
2. O‘quv o‘zaro ta’sirining mahsuli, ta’lim maqsadlaridan farqli o‘laroq, oldindan aniq prognoz qilinishi mumkin emas.
3. Kollaborativ o‘zaro ta’sirni amalga oshirish maxsus tashkil etilgan ta’lim muhitida mumkin, ammo bu shakl birgalikda faoliyat yuritishning tuzilmalarini va qoidalarini qat’iy tartibga solishni nazarda tutmaydi.
4. Kollaboratsiya, asosan, alohida o‘quvchilarning umumiy vazifa ustida ishlashdagi imkoniyatlari va qobiliyatlarining sinergiyasiga asoslanadi, o‘quvchilarni resurslarni taqsimlashga emas.
5. O‘quv kollaboratsiyasi sharoitida o‘qituvchi fasilitator va mustaqil kuzatuvchi funktsiyasini bajaradi.
6. O‘quvchilar maxsus o‘quv jamiyatlariga taqsimlangan bo‘lib, ular geteraxik tarzda taqsimlangan vazifalarni bajarishda boshqa o‘quv jamiyatlari ishtirokchilari bilan turli o‘zaro ta’sirlarni amalga oshirishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Балышев А.П. Коллаборативное обучение: к сущности понятия // Мир науки. Педагогика и психология World of Science. Pedagogy and psychology. 2023, Том 11, № 1. ISSN 2658-6282.
2. Синицына Г.П. Стратегия обучения в партнёрстве: коллаборативное обучение / Г.П. Синицына // Наука о человеке: гуманитарные исследования. -2019. - № 2(36). - С. 78–82.
3. Павельева Н.В. Коллаборативное обучение как модель эффективной реализации образовательного процесса / Н.В. Павельева // Образование. Карьера. Общество. - 2010. - № 3(29). - С. 30–37.
4. Robbins S., Hoggan C. Collaborative learning in higher education to improve employability: Opportunities and challenges / S. Robbins, C. Hoggan // New Directions for Adult and Continuing Education. - 2019. - Vol. 163. -p. 95–108.
5. Johnson D.W. et al. Impact of group processing on achievement in cooperative groups / D.W. Johnson // The Journal of Social Psychology. - 1990. - Т. 130. -№ 4. p. 507–516.
6. Балышев А.П. Коллаборативное обучение: к сущности понятия // Мир науки. Педагогика и психология World of Science. Pedagogy and psychology. 2023, Том 11, № 1. ISSN 2658-6282. – С.10.
7. Kagan S. Cooperative learning: Resources for teachers. - Printing and Reprographics, University of California, Riverside, 1989.



**BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARI KASBIY TAYYORGARLIGI
SIFATINI OSHIRISHDA AKMEOLOGIK YONDASHUV TEXNOLOGIYASINI
QO'LLASHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI**

Isroilov Qobuljon Toshtemirovich
Samarqand Zarmed universiteti o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda akmeologik yondashuv texnologiyasining ilmiy-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Akmeologiya konsepsiyasi orqali shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonlari o'rganilib, pedagogik amaliyotda samarali qo'llash usullari taklif etiladi. Maqolada tarix o'qituvchilari kasbiy malakasini yuksaltirishda yangi texnologiyalar va metodikalar integratsiyasi, ularning kasbiy o'sishga ta'siri hamda ta'lim jarayonidagi amaliy qo'llanilishi haqida fikrlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Tarix o'qituvchilari, kasbiy tayyorgarlik, akmeologik yondashuv, akmeologiya pedagogik texnologiyalar, kasbiy rivojlanish, kasbiy malaka, shaxsiy rivojlanish, ta'lim jarayoni, kasbiy kompetentsiyalar, innovatsion yondashuv, o'quv jarayonini tashkil etish.

**НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ
АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ**

Аннотация: В статье анализируются научно-педагогические основы технологии акмеологического подхода в повышении качества профессиональной подготовки будущих учителей истории. С помощью концепции акмеологии изучаются процессы профессионального и личностного развития личности и предлагаются методы их эффективного применения в педагогической практике. В статье излагаются идеи по внедрению новых технологий и методик в повышение профессионального мастерства учителей истории, их влиянию на профессиональный рост и практическому применению в образовательном процессе.

Ключевые слова: Учителя истории, профессиональная подготовка, акмеологический подход, акмеологические педагогические технологии, профессиональное развитие, профессиональные квалификации, личностное развитие, образовательный процесс, профессиональные компетенции, инновационный подход, организация образовательного процесса.

SCIENTIFIC PEDAGOGICAL BASES OF THE APPLICATION OF ACMEOLOGICAL APPROACH TECHNOLOGY IN IMPROVING THE QUALITY OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE HISTORY TEACHERS

Abstract: This article analyzes the scientific and pedagogical foundations of the technology of the acmeological approach in improving the quality of professional training of future history teachers. Through the concept of acmeology, the processes of professional and personal development of a person are studied and methods of their effective application in pedagogical practice are proposed. The article presents ideas on the integration of new technologies and methodologies in improving the professional qualifications of history teachers, their impact on professional growth and practical application in the educational process.

Keywords: History teachers, professional training, acmeological approach, acmeological pedagogical technologies, professional development, professional qualifications, personal development, educational process, professional competencies, innovative approach, organization of the educational process.

Kirish. Oliy ta’lim muassasalarida yetarli kasbiy bilim darajasiga, yuksak ma’naviy va axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlash uchun, talabalarning bilish imkoniyatlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda akmeologik yondashuvni ta’lim–tarbiya jarayoniga joriy etish zarur.

Xalqaro tajribalarga ko‘ra, taraqqiyotning o‘sib boruvchi talablari, fan-texnika taraqqiyoti, ilg‘or ishlab chiqarish tajribalari amaliyotga jadal sur‘atlar bilan kirib kelayotgan, jamiyat va tabiatda yuz berayotgan o‘zgarishlar kasbiy ta’lim jarayonini takomillashtirishni taqozo etadi. Dunyoda bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirishda akmeologik yondashuvdan kengroq foydalanish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlikni modernizatsiyalash, kasbiy ta’lim sharoitida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida bo‘lajak pedagog kadrlarga quyidagi muhim talablar qo‘yilishi belgilab qo‘yildi. Unga ko‘ra endilikda pedagogik oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirish, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan professional kadrlar etib shakllantirish talablari qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida ham salohiyatli yosh kadrlarni raqobatbardoshligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan .

Ta’limning tendensiyasini qisqacha ko‘rib chiqish orqali bu o‘zgarishlar pedagoglarning faoliyatiga qanday o‘zgartirish olib kirganligini va bugungi zamon talabiga mos kelish uchun bo‘lajak pedagoglar nimalarga tayyor bo‘lishlari va qanday tayyorgarlik ko‘rishlari lozim ekanligini tahlil qilish mumkin.

Tahlil va natijalar. Akmeologik yondashuv asosida o‘quv jarayonini tashkil etishda, tarix fani o‘qituvchisi nafaqat o‘z fanini o‘qita olishi balki talabada tarix fanini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishi, bunga talabalarni jalb etishi, ularni maqsadlarga erishishga o‘rgatishi, erishilgan kichik yoki katta ijobiy o‘zgarishlar uchun ham rag‘batlantirish kabi sifatlarni rivojlantirishi kerak.

Albatta, bularning barchasini pedagogik faoliyati davomida amaliyotga tadbiq etib, aks ettirish hamda yanada takomillashtirib borish pedagogning pedagogik faoliyatda misli ko‘rilmagan yutuqlarga hamda ta’lim berishdagi sezilarli samaradorlikka erishishida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqodchisi A.F.Ismailov tarix fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning o‘rnini oshirish muammosiga akademik litseylar misolida yondashgan.

Ya’ni bo‘lajak tarix o‘qituvchisi shunday shaxsiy sifatlarga ega bo‘lgan murabbiy bo‘lishi kerakki, bunda u o‘z navbatida, o‘qituvchidan mukammal darajadagi shaxsiy qobiliyatlarning shakllantirilganligi talab etiladi. Bu borada yurtimizning ko‘plab olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, R.B.Yarmatov bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kreativlik qobiliyatlarini oshirish va rivojlantirish texnikalarini o‘rgangan va o‘qitilayotgan talabaning ma’naviy qiyofasi shakllantirilishi orqali o‘qituvchi bilan o‘zaro munosabatlarining muayyan tizimini tashkil etish yo‘llarini topish va uning iste’dodi haqida xulosaga erishish mumkinligini ta’kidlagan. Shuningdek, boshqa bir guruh tadqiqotchilar, masalan: G.O.Ernazarova akmeologik yondashuv asosida oliy ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirish masalalarini, A.A.Xalikov oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish, B.X.Xodjayev umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish, Sh.O‘roqov oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlashning kompetent yondashuvga asoslangan pedagogik tizimini takomillashtirish masalasini o‘rgandilar.

Yuqorida qayd etilgan va boshqa ilmiy izlanishlarni va bo‘lajak tarix o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligi jarayonida akmeologik yondashuvni qo‘llashning holati va ahamiyatiga oid tahlillar asosida talabalarni kasbiy tayyorgarligi jarayonida akmeologik yondashuvni qo‘llashning metodik xususiyatlari talabalarda kasbiy fazilatlarni shakllantirishning konstruktiv va destruktiv, psixologik-pedagogik, evristik va uslubiy jihatlarini ularning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy pedagogik rivojlanish traektoriyasiga zamonaviy ta’lim paradigmalariga muvofiq kasbiy moslashtirishni amalga oshirish zarurligi aniqlandi. Ta’limning yangi paradigmasining shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi asosiy o‘rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari har bir alohida inson hayotining o‘ziga xosligi, har bir

shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e‘tirof etishdan iborat. Asosida ta’limga yangicha yondashuv yotadigan g‘oyalarning rivojlanishida psixologlar ham muhim hissa qo‘shishgan: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikda faoliyatning roli haqida ta’limot, shaxsning hayotiy faoliyatidagi vazifalari, fikriy soha, insonning reflektiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o‘quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar shular jumlasidandir. Zamonaviy pedagogik ta’limning bosh maqsadi - madaniyatga yondashuvga, o‘quv-tarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va o‘quvchilar orasidagi o‘zaro ta’sir etish tavsifiga ko‘ra paradigmalar farqlanadi. Bugungi kunda ta’limning quyidagi paradigmalari keng tarqalgan:

1. An’anaviy-konservativ paradigma (bilimga yo‘naltirilgan paradigma).
2. Ratsionalistik (bixevioristik, xulq-atvorga doir) paradigma.
3. Fenomenologik (gumanistik) paradigma.
4. Texnokratik paradigma.
5. Ezoterik paradigma.

Har bir paradigmanning o‘ziga xos mohiyati va maqsadi mavjud. Misol uchun, an’anaviy paradigmada ta’limning bosh maqsadi: “Bilim qanchalik qiyin bo‘lmasin bilim olish”. An’anaviy paradigma maktabining bosh maqsadi yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari - bilim, ko‘nikma va malakalar, ilg‘or g‘oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni yoshlarga yetkazish muhim ekanligini yoritadi. Bilim olish paradigmasining asosiy maqsadi: ta’lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim elementlarini avloddan avlodga yetkazib berishdan iborat.

Ratsionalistik paradigma an’anaviy paradigmaga qarama-qarshi o‘laroq, o‘zining diqqat markazida mazmunni emas, talabalarning turli bilimlarni o‘zlashtirishning samarali usullarini qo‘yadi. Ratsionalistik ta’lim konsepsiyasining asosida ijtimoiy injeneriya bixevioristik konsepsiyasi turadi. Ta’lim muassasasining maqsadi - ta’lim oluvchilarda ijtimoiy me‘yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli “xulq-atvor majmui” ni shakllantiradi. Shuning uchun “xulq-atvor” atamasi “barcha turdagi reaksiyalar, insoniy xususiyatlar - uning fikrlashi, his-tuyg‘usi va harakati” ni bildiradi.

Fenomenologik paradigmanning diqqat markazida o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo‘lgan, hayot subyekti, shaxs erkinligi va ma’naviyati sifatidagi ta’lim oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o‘sishi uchun yordamga yo‘naltirilgan.

Texnokratik paradigmanning bosh maqsadi amaliy bilimlarni uzatish va o‘zlashtirish uchun zarur “aniq” ilmiy bilimlarni uzatish va o‘zlashtirishdan kelib chiqadi.

Ezoterik paradigmanning mohiyati haqiqat abadiy va o‘zgarmas, doimiy ekanligini ta’kidlashdan iboratdir. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi talabaning tabiiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo‘lishida, kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Har bir paradigmanning asosida shaxsni rivojlantirish va

unga ta’lim-tarbiya berish masalasi yotadi. Shuningdek, paradigmalar o‘quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masalalarni hal etishga yo‘naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan zamonaviy pedagogik (an’anaviy-konservativ, ratsionalistik, fenomenologik, texnokratik, ezoterik) paradigmalarning akmeologik yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlik jarayonini tashkil etishda faol qo‘llanishi muhim ahamiyatga ega. Akmeologik nazariyalar “Ko‘p cho‘qqiga chiqqan” hodisa modeliga asoslanganligini ta’kidlaydi: “Akme hayot harakati va rivojlanishining so‘nggi nuqtasini anglatmaydi, balki undan yuqori bosqichga ko‘tarilishning yangi ufqlari ochiladigan cho‘qqini anglatadi”. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik darajasini zamonaviy ta’lim paradigmalariga muvofiq kasbiy moslashtirish orqali amalga oshirish lozim. Bundan ko‘rinib turibdiki, cho‘qqiga chiqish omillarini o‘rganish texnologiyasi va keyingi yutuqlarga erishish jarayonini optimallashtirishga yordam berishi mumkin. Akmeologlar A.M.Derkach, L.V.Antropova, L.G.Gribenyuk, N.V.Kuzmina, A.M.Leontyevlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kattalarning rivojlanishi, ayniqsa, uning yutuqlari cho‘qqisi bolalik va o‘spirinlik davrining har bir bosqichida qanday rivojlanganligiga bog‘liq, deb hisoblaydi.

Akmeologiya shaxs rivojlanishini aniqlashda nafaqat progressiv, potensial imkoniyatlarni, balki uning regressiv variantlarini ham hisobga oladi va shaxsning hozirgi holatini (yoki akmeologik qo‘llab quvvatlash yordamida) optimallashtirish maqsadida uning mohiyatini ochib beradi. Shu bilan birga, shaxsga psixologik va akmeologik yondashuvlarni taqqoslashning asosiy asosi sub’yektning kategoriyasidir. Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini-o‘zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirishdir. Bunday yo‘nalish talabalarning o‘quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak pedagog yuqorida nomlari sanab o‘tilgan sifatlarning va o‘qituvchining shaxs sifatidagi indikator ko‘rsatkichlari faqat bir qisminigina oliy ta’lim dargohidagi ta’lim jarayonida kasbiy bilimlarni o‘rganish orqali rivojlantirishi mumkin bo‘lsa, qolgan asosiy qismini tashkil etuvchi yetuk pedagoglik sifatlarni tashqi tomondan o‘rgatib yoki o‘qitib bo‘lmaydi, ya’ni bu sifatlar akmeologik yondashuv asosida o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z shaxsiyatidagi kamchilik va yetishmovchiliklarni anglagan holda o‘zini tarbiyalay olish, o‘qita olish orqaligina erishish mumkindir. O‘z kasbida professional darajaga yetishish uchun o‘zidagi shaxsiy sifat-qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi aynan akmeologik yondashuv asosida kechadi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlashni yanada rivojlantirishda shaxsiy o‘sish va kasbiy malaka ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish, akmeologik yondashuv asosida o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyatlari kasbiy o‘sish va o‘zini takomillashtirishga yordam beradi. Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, muvaffaqiyatli ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. -Toshkent, 2020.09.23., O‘RQ-637-son. www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli qarori. www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. QMMB: 06/22/60/0082-son 29.01.2022-y.
4. Abdullayeva Sh.A, Axatova D.A., Sobirov B.B., Sayitov S.S. Pedagogika / O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2004. – 214 bet.
5. Isroilov Q.T., Kasbiy tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini tashkillashtirish/“Tafakkur ziyosi” Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-uslubiy jurnali. 03. 2023 yil.
6. Mavlonova R., To‘raeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika / Kasb-hunar ta’limlari ushun darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 495 bet.
7. O‘roqov Sh. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlashning kompetent yondashuvga asoslangan pedagogik tizimini takomillashtirish: Ped.fan.fal.dok (PhD),...dis.SamDU, 2018.-143b.
8. Xalikov A‘zam Abdusalomovich. Oliy ta’lim muassalarida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish. Dis...ped. fan. nom. – T., 2018. –210 b
9. Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich Umumta’lim maktabi talabalarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish // ped. fan. dokt. ... diss. avtoreferati. – T.: 2016. - 42 b.



O‘QUVCHILARNING REFLEKSIV KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Yulchiyeva Gullola

“Pedagogika va Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi”, ADPI

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada o‘quvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik va pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Dunyo va O‘zbekiston tajribasida refleksiv yondashuvning ahamiyati yoritilib, Andijon davlat pedagogika instituti talabalari misolida amaliy tadqiqot natijalari keltirilgan. Refleksiya orqali o‘quvchilarda o‘z-o‘zini anglash, fikrni tahlil qilish va ongli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari taklif etiladi.

KALIT SO‘ZLAR: refleksiya, refleksiv ko‘nikmalar, shakllantirish mexanizmlari, psixologik yondashuv, pedagogik usullar.

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕФЛЕКСИВНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются психолого-педагогические механизмы формирования рефлексивных навыков студентов. Подчеркивается значимость рефлексивного подхода в мире и Узбекистане, а также приводятся результаты практического исследования на примере студентов Андиганского государственного педагогического института. Предлагаются пути развития у студентов самосознания, анализа мыслей, навыков осознанного принятия решений посредством рефлексии.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: рефлексия, рефлексивные навыки, механизмы формирования, психологический подход, педагогические методы.

MECHANISMS FOR FORMING STUDENTS' REFLECTIVE SKILLS

ANNOTATION: This article analyzes the psychological and pedagogical mechanisms of forming students' reflective skills. The importance of the reflective approach in the world and Uzbekistan is highlighted, and the results of a practical study on the example of students of the Andijan State Pedagogical Institute are presented. Ways are proposed to develop students' self-awareness, thought analysis, and conscious decision-making skills through reflection.

KEYWORDS: reflection, reflective skills, formation mechanisms, psychological approach, pedagogical methods.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasida refleksiya pedagogik innovatsiyalar tizimining asosiy komponentlaridan biri sifatida qaraladi. Masalan, Germaniya, Yaponiya va AQSh ta’lim tizimlarida refleksiv yondashuv orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish amaliyoti keng yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekistonda ham yoshlarning ijodiy va refleksiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek:

"Yoshlarimizni mustaqil va refleksiv fikrlashga o‘rgatish — zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir."1.[1-b.] degan fikri, hozirgi kunda ta’lim sohasida yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan siyosatning muhim jihatini aks ettiradi. Bu fikr, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi islohotlari doirasida, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va ularning ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan tashabbuslari bilan bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Refleksiv ko‘nikmalar shakllanishi masalasi O‘zbekistonlik olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. E.G. Goziyev (2018) refleksiya va shaxsiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’kidlagan. A. Matmurodov (2020) refleksiv ta’lim texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilgan. Xorijiy olimlardan J. Dewey[4.] (1933) refleksiv pedagogikani ta’lim tizimining asosiy tamoyili sifatida e’tirof etgan. Uning fikriga ko‘ra, refleksiya — bu o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga undovchi jarayon. D. Kolb[5.] (1984) esa o‘quv jarayonida refleksiyani faol metod sifatida qo‘llash zarurligini ko‘rsatgan. M. Krause[6.] (2019) Germaniyada refleksiya asosida tayyorlangan didaktik vositalar yordamida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish tajribasini tahlil qilgan.

Metodika Tadqiqot Andijon davlat pedagogika institutida o‘tkazildi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida 100 nafar talaba jalb etildi. Tadqiqotda quyidagi metodikalar qo‘llanildi: So‘rovnoma: G.V. Rezapkina tomonidan ishlab chiqilgan refleksiv ko‘nikmalarni baholash so‘rovnomasi. Seminar va treninglar: Refleksiv faoliyatni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar. Tahlil va baholash: Har bir ishtirokchining refleksiv ko‘nikmalari treninglar oldidan va keyin baholandi. Tadqiqotda dastlab talabalarning refleksiv ko‘nikmalari baholandi. So‘ngra ularga refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi treninglar o‘tkazildi. Treninglardan so‘ng yana bir bor refleksiv ko‘nikmalar qayta baholandi.

NATIJALAR Olingan natijalar refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishda trening va interfaol metodlarning yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Quyidagi natijalar qayd etildi: Yuqori o‘shish: 70 nafar talaba (70%) refleksiv ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. O‘rtacha o‘shish: 20 nafar talaba (20%) refleksiv ko‘nikmalarida o‘rtacha rivojlanish kuzatildi. O‘zgarishsiz: 10 nafar talaba (10%) refleksiv ko‘nikmalarida deyarli o‘zgarish kuzatilmadi. Diagramma: Refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish natijalari Yuqori o‘shish: 70% O‘rtacha o‘shish: 20% O‘zgarishsiz: 10%

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, refleksiv yondashuv yoshlarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga undaydi. Refleksiya orqali o‘zini anglash va qaror qabul qilish

mexanizmlari shakllanadi. Bu esa ularning ta’lim jarayoniga ongli yondashuvini ta’minlaydi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishda ijodiy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, Germaniyada refleksiya asosida tayyorlangan didaktik vositalar o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undaydi (Krause, 2019). Refleksiv ko‘nikmalar yoshlarni nafaqat akademik sohada, balki shaxsiy hayotda ham mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlaydi. Bu esa ularga kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo‘lish imkonini beradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish yoshlarning mustaqil fikrlashi va hayotiy masalalarni tahlil qilish qobiliyatini kuchaytiradi. O‘quvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish — zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu ko‘nikmalar yoshlarni nafaqat ta’lim jarayonida, balki hayotiy masalalarni hal qilishda ham mustaqil va tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi. Quyida refleksiv ko‘nikmalarni samarali rivojlantirish uchun keng qamrovli tavsiyalar keltiriladi:

1. Refleksiv treninglar va interfaol mashg‘ulotlarni keng joriy etish. Refleksiv treninglar va seminarlar tashkil etish: O‘quvchilarni refleksiya jarayoni bilan tanishtirish uchun maxsus trening dasturlari ishlab chiqiladi. Bunda o‘quvchilar o‘zlarining o‘quv jarayonidagi tajribalarini tahlil qilishga o‘rganadilar. Ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlar: O‘quvchilarga turli hayotiy va o‘quv muammolarini hal qilishga oid topshiriqlar beriladi. Bu ularga tanqidiy fikrlashni va o‘z qarashlarini asoslashni o‘rgatadi. O‘yinli metodlardan foydalanish: Psixologik treninglar, rolli o‘yinlar va “mantiqiy zanjir” usuli orqali o‘quvchilar refleksiv fikrlashni rivojlantiradilar. Qayta aloqa tizimi: Har bir mashg‘ulotdan so‘ng o‘quvchilarga o‘z faoliyatlarini tahlil qilish, natijalarni baholash va kelgusidagi harakatlarini rejalashtirish imkoniyati beriladi.

2. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida refleksiya markazlarini tashkil etish. Refleksiya xonalari: Har bir maktab va oliy ta’lim muassasasida maxsus refleksiya xonalarini tashkil etish, bu joylarda o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari va o‘zlari haqida o‘ylashlari uchun qulay muhit yaratiladi. Refleksiv klub va to‘garaklar: O‘quvchilar uchun refleksiv fikrlashga bag‘ishlangan klub yoki to‘garaklar tashkil etilib, u yerda muammoli vaziyatlar, etika va axloqiy masalalar, kasb tanlash va shaxsiy rivojlanish mavzulari muhokama qilinadi. Psixologik maslahat markazlari: Refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishda maktab va oliy ta’lim muassasalaridagi psixologlar faol ishtirok etishlari lozim. Ular o‘quvchilar bilan individual va guruhviy maslahatlar o‘tkazadilar. Refleksiv kunliklar va bloglar: O‘quvchilarni shaxsiy refleksiv kunliklarni yuritishga undash, bu orqali ular o‘z hayotiy tajribalarini muntazam tahlil qilishga o‘rganadilar.

3. Pedagoglarni refleksiv texnologiyalar bilan tanishtirish maqsadida seminar va treninglar tashkil etish. Maxsus o‘quv kurslari va seminarlar: Pedagoglar uchun refleksiv yondashuv asoslari va uni amaliyotda qo‘llash usullari bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etiladi. Metodik qo‘llanmalar va videodarslar: Refleksiv pedagogikani tushuntiruvchi metodik qo‘llanmalar, o‘quv videolar va amaliy trening darsliklari ishlab chiqiladi. Tajriba almashish

platformalari: Pedagoglar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashishlari uchun seminar va konferensiyalar tashkil qilinadi. Refleksiv treninglarni kuzatish va baholash: O‘qituvchilarning refleksiv treninglarda qanday yondashuvlardan foydalanayotganini kuzatish va ularga konstruktiv qayta aloqa berish tizimi yaratiladi.

4. Refleksiv ko‘nikmalarni baholash uchun maxsus metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va joriy etish. Standart refleksiv diagnostika usullari: Refleksiv ko‘nikmalarni baholash uchun G.V. Rezapkina, J. Dewey va D. Kolb metodikalaridan foydalangan holda maxsus test va so‘rovnoma ishlab chiqiladi. Refleksiv faoliyatni baholash uchun o‘yinli usullar: “Refleksiya aylanasi”, “O‘zini anglash piramidasi” va “Hissiyotlar kartasi” kabi interfaol metodlar o‘quvchilarning refleksiv fikrlash darajasini o‘lchashda qo‘llaniladi. O‘quvchilarni kuzatish va intervyu olish: Refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonini baholashda pedagoglar o‘quvchilarni kuzatadi va ularning fikrlarini tinglaydi. Refleksiv ko‘nikmalarni baholash shkalasi: O‘quvchilarning refleksiv ko‘nikmalari darajasini aniqlovchi 5 ballik yoki 10 ballik baholash shkalasi ishlab chiqiladi.

5. O‘quv dasturlariga refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi darslarni kiritish. Dars rejalarida refleksiyaga alohida o‘rin ajratish: Har bir fan darsida o‘quvchilar o‘z bilimlarini qayta ko‘rib chiqish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim. Refleksiv savollar tizimi: Har bir dars so‘ngida “Nimani o‘rgandim?”, “Nimalarni yaxshiroq tushundim?”, “Qanday savollarim qoldi?” kabi refleksiv savollar beriladi. Refleksiv topshiriqlar: O‘quvchilarga o‘z o‘quv jarayonini baholash, darsda o‘ziga foydali bo‘lgan ma‘lumotlarni ajratish va ularni amalda qo‘llashni rejalashtirish vazifalari beriladi.

6. Refleksiv ko‘nikmalarni oila muhitida ham rivojlantirish. Ota-onalar uchun ma‘lumotnoma: Ota-onalarga farzandlarini refleksiv fikrlashga o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Oila bilan refleksiv suhbatlar: Farzandlar bilan kechki ovqat paytida yoki sayr paytida ularning kunlik faoliyatlarini tahlil qilishga undash. Oila a‘zolari bilan o‘zaro his-tuyg‘ularni tahlil qilish: Bolalarni o‘z his-tuyg‘ularini anglash va ifoda etishga o‘rgatish. Refleksiv ko‘nikmalar yoshlarning nafaqat akademik faoliyatida, balki shaxsiy hayotida ham muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

Bu ko‘nikmalar ularga tanqidiy fikrlashni, o‘z tajribalarini tahlil qilishni va mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgatadi. Shu sababli ta‘lim muassasalari va oilalarda refleksiv yondashuvni rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. Goziyev, E.G. Psixologik rivojlanish va refleksiya. Toshkent, 2018.
3. Matmurodov, A. Refleksiv ta‘lim texnologiyalari. Toshkent, 2020.
4. Dewey, J. How We Think. Boston: Heath, 1933.
5. Kolb, D. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice-Hall, 1984.
6. Krause, M. Reflective Practices in German Education. Berlin, 2019.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

OLIV TA‘LIMDA IJTIMOIV-SHAXSIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA IMKONIYATLAR

Yakubbayev Maqsud Marufovich

Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

maqsud365@mail.ru

ANNOTATSIYA Ushbu tadqiqot oliy ta‘lim tizimida talabalarning ijtimoiy-shaxsiy kompetentliklarini rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqbollarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan, ijtimoiy jihatdan moslashuvchan va shaxsiy jihatdan rivojlangan mutaxassislar tayyorlash zarurati ko‘rsatilgan. Tadqiqotda ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikning tarkibiy elementlari, ularni shakllantirishda duch keladigan asosiy to‘siqlar va muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-shaxsiy kompetentlik, oliy ta‘lim, kompetentlik yondashuvi, talaba shaxsini rivojlantirish, innovatsion ta‘lim texnologiyalari.

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНО-ЛИЧНОСТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ

АННОТАЦИЯ Данное исследование посвящено анализу актуальных проблем и перспектив развития социально-личностных компетенций студентов в системе высшего образования. Показана необходимость подготовки специалистов, отвечающих требованиям современного рынка труда, социально адаптированных и личностно развитых. В исследовании проанализированы структурные элементы социально-личностных компетенций, основные препятствия и проблемы, возникающие при их формировании, а также пути их устранения.

Ключевые слова: социально-личностные компетенции, высшее образование, компетентностный подход, развитие личности студента, инновационные образовательные технологии.

DEVELOPMENT OF SOCIAL-PERSONAL COMPETENCIES IN HIGHER EDUCATION: PROBLEMS AND OPPORTUNITIES

ABSTRACT This research is devoted to analyzing the current problems and prospects of developing students' social-personal competencies in the higher education system. The necessity of training specialists who meet the requirements of the modern labor market, are socially adaptable and personally developed is demonstrated. The study analyzes the structural

elements of social-personal competencies, the main obstacles and problems encountered in their formation, as well as ways to overcome them.

Keywords: social-personal competencies, higher education, competency-based approach, student personality development, innovative educational technologies.

KIRISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “har bir o‘qituvchi ta’lim va ilmdagi eng yangi yutuqlarni o‘zlashtirib, ularni o‘quv jarayoniga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va keng dunyoqarashga ega bo‘lgan zamonaviy shaxs bo‘lishi lozim”. Shu sababli “Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilangan “oliy ta’lim mazmunini yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishiga hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash” vazifasini amalga oshirish bevosita professor-o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta’lim jarayonida ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarini qo‘llash, talabalarga o‘zlarining ijtimoiy va shaxsiy salohiyatlarini ochish imkonini beradi. Bu texnologiyalar, o‘z navbatida, interaktiv o‘qitish usullari, loyiha asosidagi ta’lim, muammoli ta’lim va boshqa innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu metodlarning barchasi talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi va ularni amaliy vazifalarni bajarishga undaydi, bu esa o‘z navbatida ularning ijtimoiy-shaxsiy kompetentligini oshiradi.

A.V. Xutorskiy [9] “kompetentlilik” va “kompetensiya” atamalarini “umumiy” va “individual” deb ajratish taklifini berdi. Ularning har biri uchun quyidagi ta’riflarni keltirdi: Kompetensiya – bu muayyan obyektlar va jarayonlarga nisbatan shaxsning yuqori sifatli ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, qobiliyat, ko‘nikmalar va faoliyat usullari majmui, shuningdek, shaxsning tegishli vakolatga ega bo‘lishi.

Xorijlik olimlarning ishlari shuni ko‘rsatadiki, “kompetentlilik” va “kompetensiya” atamaları ko‘plab faoliyat sohalari, bilim va ko‘nikmalarni egallash, bilish va tushunish, bilimlardan samarali foydalanish qobiliyatlari bilan bog‘liqdir. Shaxsning bilim, ko‘nikma, xulq-atvor xususiyatlari, qadriyatlari va motivlari ushbu atamalar tarkibining asosiy qismlari hisoblanadi. Psixolog I.A.Zimnyaning [8] fikricha, kompetentlik “insonning ijtimoiy va kasbiy hayotida bilimga asoslangan intellektual va shaxsiy tajribasi” sifatida ta’riflanadi, kompetensiya esa “shaxsning kompetentligida namoyon bo‘ladigan ichki, potentsial bilimlar, g‘oyalar va qadriyatlar tizimi” deb ta’kidlanadi. U ijtimoiy komponentga alohida e’tibor qaratadi.

E.F.Zeer [7] kompetentlikni “bilim va harakatlar majmui” deb ta’riflaydi va kompetensiyani “kasbiy faoliyatni, shaxsning o‘z malakasini amalda qo‘llash qobiliyatini ta’minlaydigan bilim, malaka va ko‘nikmalarning yaxlitligi” sifatida talqin qiladi. U tajriba, faoliyat qobiliyatlari, motivatsion va hissiy-irodaviy sohalarni bu atamalar tarkibining muhim elementlari deb biladi. Shubhasiz, “kompetentlilik” va “kompetensiya” atamaları tadqiqotchilar tomonidan zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiy hayotining mos va samarali ifodasi sifatida

qaraladi. Ular shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, muloqotning xususiyatlarini va jamiyatga moslashish istagini aks ettiradi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, bu davrda “kompetentlik” va “kompetensiya” atamaları ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan aniqlashtirilgan va ajratilgan.

Ijtimoiy shaxsiy kompetentlik sohasida o‘zbek tadqiqotchi olimlardan G.Quzmanova [6] talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini ijtimoiy tarmoqlar orqali rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini xususida ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lsa, B.Mamurov va I.Davronovlar [4] pedagogik kompetentlik masalalariga oid tahliliy qo‘llanma ishlab chiqqanlar. O.Abduquddusov [2], N.Muslimov [5], K.Abdullayeva, N.Gaipova, Sh.Abdufatayevlarning [1] kasbiy kompetensiyani shakllantirishda o‘quv amaliyotining o‘rni haqidagi ilmiy ma’ruzasi ayniqsa, bu sohada ahamiyatga molikdir. Bundan tashqari H.Berdiyeva [3], H.Jo‘rayev, B.Urazova, K.Ismoilovalar ilmiy ishlarida oliy ta’limda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalarida zamonavoy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan.

Ijtimoiy-shaxsiy kompetentlik — bu shaxsning o‘zini anglash, boshqalar bilan muloqotda bo‘lish, guruhda ishlash va ijtimoiy muhitda faoliyat yuritish qobiliyatidir. Bu kompetentlik turli ko‘nikmalarni, shu jumladan, muloqot, empatiya, jamoaviy ish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Talabalarda ushbu kompetentlikni rivojlantirish, ularning kelajakdagi professional faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Talabalarda ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida bir necha sabablarga ko‘ra yuzaga kelmoqda. Birinchidan, zamonaviy ta’lim tizimi ko‘proq akademik bilimlarga e’tibor qaratmoqda, bu esa talabalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini inkor etishga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, ijtimoiy hayotda tezkor o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot va globalizatsiya sharoitida talabalar yangi ijtimoiy muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun esa ijtimoiy-shaxsiy kompetentlik zarurdir.

Talabalarda ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirishda bir qator to‘siqlar mavjud. Ularning eng muhimi — ta’lim jarayonida mavjud bo‘lgan an’anaviy yondashuvlar. Ko‘plab o‘qituvchilar hali ham darslarni nazariy bilimlarga asoslangan holda o‘tkazmoqda, bu esa talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shuningdek, o‘quv dasturlarining mos emasligi ham muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Odatda, dasturlar ijtimoiy ko‘nikmalarga kam e’tibor beradi va talabalarga real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlanish imkoniyatini bermaydi.

Bundan tashqari, talabalar o‘zaro munosabatlar va muloqotda ko‘pincha noqulaylik his qiladilar. Bu esa ularning o‘zini anglashiga va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishiga to‘sqinlik qiladi. Talabalar orasida o‘zaro raqobat va stress darajasining oshishi ham ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirishda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Talabalarda ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish uchun bir qator yechimlarni taklif etish mumkin.

Birinchidan, ta’lim jarayonida amaliyotga asoslangan yondashuvlarni joriy etish zarur. O‘qituvchilar darslarda guruhli ishlar, muammolarni hal qilish vazifalari va rol o‘yinlarini qo‘llash orqali talabalar orasidagi muloqotni rag‘batlantirishi kerak. Bu esa talabalarni bir-biri bilan muloqot qilishga va o‘zaro hamkorlikka undaydi.

Ikkinchidan, ta’lim dasturlarini yangilash zarur. Dasturlarda ijtimoiy ko‘nikmalarga e’tibor berish, talabalarni real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlash uchun amaliy mashg‘ulotlar va treninglar o‘tkazish kerak. Bu talabalar uchun ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatini yaratadi.

Uchinchidan, universitetlarda psixologik yordam va maslahat xizmatlarini tashkil etish zarur. Bu xizmatlar talabalar uchun stressni boshqarish, o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. Talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari va hissiyotlarini boshqarishni o‘rganishlari muhimdir.

Talabalarda ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida ta’lim tizimining yangilanishi va zamonaviy talablarga javob berishi zarurligini ko‘rsatadi. An’anaviy yondashuvlardan voz kechib, amaliyotga asoslangan ta’lim usullarini joriy etish, ta’lim dasturlarini yangilash va psixologik yordam xizmatlarini tashkil etish orqali talabalar ijtimoiy-shaxsiy kompetentligini rivojlantirish mumkin.

Ta’lim jarayonida talabalar uchun qulay sharoitlar yaratish, ularning o‘zaro munosabatlarini kuchaytirish va shaxs sifatida rivojlanishlariga yordam berish ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lishi kerak. Ish beruvchilar murakkab sharoitlarda, ya’ni ziddiyatli ma’lumotlar, norasmiy hamkorlik hamda mavhum, dinamik va yuqori darajada integratsiyalashgan jarayonlar bilan tavsiflanadigan muhitda ishlay oladigan bitiruvchilarni talab qilmoqdalar. Talabalarining ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishga jamiyat va davlat tomonidan qo‘yilayotgan yuqori talablar aynan shu bilan izohlanadi.

Ijtimoiy kompetentlikning kognitiv komponenti talabalarga ijtimoiy voqelikda mo‘ljallanish, ushbu sohada o‘zini faol rivojlanish subyekti sifatida tan olish va ijtimoiy muammolarni hal qilish hamda ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatishga tayyorligini ta’minlash imkonini beruvchi poydevorni yaratadi. U o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirish, ijtimoiy institutlar tuzilishi va umuman ijtimoiy voqelik, ijtimoiy o‘zaro ta’sir (guruh, sinf, jamoa, jamiyatda), faoliyatning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega natijalariga erishish, o‘z kelajagini rejalashtirish va boshqalar haqidagi bilimlarni egallash orqali rivojlanadi. Ijtimoiy kompetentlikning ushbu komponentini rivojlantirishning ijobiy dinamikasi talabalarining ijtimoiy bilimlarning tayyor algoritmlari va ssenariylariga ega bo‘lishdan ularni noaniqlik va murakkablik vaziyatlarida ijodiy qo‘llashga o‘tishini nazarda tutadi. Biz talabalarining ijtimoiy kompetentligining operatsion komponenti uchun ijtimoiy faollikni asosiy xususiyat deb hisoblaymiz. Talabasining ijtimoiy faolligi - bu uning ijtimoiy faolligining o‘ziga xos ko‘rsatkichi, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini amalga oshirish darajasi, shakllangan motivlar, qadriyat yo‘nalishlari va idrok etilgan ijtimoiy voqelikni uyg‘unlashtirish asosida turli xil faoliyatlarga bevosita jalb qilinishidir. Ushbu komponentning rivojlanishini baholashda talabalarining ijtimoiy faolligini amalga oshirishdagi mustaqilligi dinamikasiga e’tibor qaratish lozim. Yoshlarning ijtimoiy muammolarni hal etish va ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutishga bo‘lgan ehtiyoji, tayyorgarligi va qobiliyatining shakllanishi ma’lum vazifalarni belgilash va ularni

yechish orqali yuz beradi. Shu bois, talabalarining ijtimoiy kompetensiyasi o‘z ifodasini topadigan ijtimoiy vazifalar tipologiyasi va mazmunini aniqlash muhimdir.

Ta’lim tizimida talabalarining ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish, agar ta’lim jarayoni quyidagi qonuniyatlarga asoslangan bo‘lsa, muvaffaqiyatli bo‘ladi:

1. Ijtimoiy kompetensiyaning rivojlanganlik darajasi talabalarni ijtimoiy kompetensiya mohiyati o‘zining haqiqiy ifodasini topadigan ijtimoiy vazifalarni hal qilish bo‘yicha amaliy faoliyatga jalb etilishiga bevosita bog‘liq bo‘lishi;

2. Talabalarining ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi ijtimoiy vazifalar ularning individual-shaxsiy, ijtimoiy va hayotiy-futurologik mazmuni birligida ijtimoiy ahamiyati, shaxsiy ma’nosi va hayotiy istiqbollari sohasida bo‘lishi ;

3. Ijtimoiy kompetensiyaning rivojlanishi talaba shaxsining motivatsion va qadriyatli sohasining barqarorligi bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘z yo‘nalishida ijtimoiy vazifalarni hal qilishga bo‘lgan tarqoq qiziqishdan barqaror qiziqishga qarab rivojlanishi kerak.

NATIJALAR

Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish ijtimoiy bilimlarni faoliyatning tayyor ssenariysi va algoritmlarini bilish darajasidan ushbu bilimlarni notanish vaziyatlarda qo‘llash va yangi ijtimoiy bilimlarni mustaqil ravishda yaratish imkonini beradigan darajaga ko‘tarish orqali ta’minlanadi. Talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda tashabbuskorlik tamoyili maktabning ta’lim maydonini shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bu talabalarni ijtimoiy vazifalarni mustaqil hal qilishga jalb etish imkoniyatlarini yaratadi. Dialog tamoyili boshqa shaxsni tushunish va muloqotda ochiqlikka asoslanadi. U maktab ta’lim makonining turli subyektlari qadriyatlarini aniqlash, bog‘lash va uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Dialog o‘rta maktab talabalarining noaniqlik va mavhumlik vaziyatlarini konstruktiv hal qilish, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo‘llarini belgilash qobiliyatini rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. Subyektivlik tamoyili o‘rta maktab talabalarining shaxsiy tajribasiga tayanishni talab qiladi, bu esa ijtimoiy muammolarni hal qilishga olib keladigan harakatlarning mavjud va yangi algoritmlarini mustaqil ravishda loyihalash va amalga oshirish qobiliyatini rivojlantiradi. Subyektivlik o‘z xatti-harakatlarining refleksivligini, xulq-atvorning tashqi ta’sirlar bilan cheklanmasligini belgilaydi va mas’uliyatli tanlov qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Kogerentlik tamoyili ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda vaqt va makonda izchillikka erishishni taqozo etadi. Ushbu tamoyillar talabalarining ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik me’yorlarini aniqlashga imkon beradi: Talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish maktabning yaxlit ta’lim jarayonining uzviy elementi sifatida namoyon bo‘ladi; Ijtimoiy-shaxsiy kompetentlik talabalarining jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar, bilimlar va qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy-shaxsiy kompetentlik tushunchasi pedagogikada keng tarqalgan bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy muhitda o‘zini tutishi, boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati va o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bunga bir qator tadqiqotlar va nazariyalar asos bo‘lgan. Masalan, Goleman (1995) o‘zining “Emotsional intellect” asarida emotsional intellektning

ijtimoiy muvaffaqiyat uchun ahamiyatini ta’kidlaydi. U, shuningdek, ijtimoiy ko‘nikmalarning rivojlanishi uchun ta’lim muassasalarida maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Ushbu kompetentlik, talabalarning o‘zaro muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi esa, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun turli metod va usullarni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida interaktiv metodlarni qo‘llash juda muhimdir. Talabalar o‘rtasida faol muloqot va fikr almashish imkoniyatlarini yaratish, ularning o‘zaro hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini oshiradi. Masalan, guruhli loyihalar va muhokamalar tashkil etish orqali talabalar bir-birlaridan o‘rganishlari, fikrlarini ifodalashlari va birgalikda yechimlar topishlari mumkin. Bunday faoliyatlar, talabalar o‘rtasida ishonch va hurmatni mustahkamlashga yordam beradi.

Ikkinchidan, ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirishda simulyatsiya va rol o‘ynash usullari ham samarali hisoblanadi. Talabalar turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zlarini qanday tutishlarini amaliy ravishda sinab ko‘rishlari mumkin. Bu usul, ularning stress ostida qanday qarorlar qabul qilishlarini, muloqot qilishlarini va jamoada ishlashlarini yaxshilaydi. Rol o‘ynash orqali talabalar empatiya tuyg‘usini rivojlantirishi va boshqalar bilan munosabatlarda yanada moslashuvchan bo‘lishlari mumkin.

Uchinchidan, ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirishda reflektiv yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Talabalarni o‘z faoliyatlariga tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholashga undash, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Refleksiya jarayoni talabalarni o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi, bu esa kelajakda o‘zlarini yanada takomillashtirish imkonini beradi. O‘qituvchilar bu jarayonda talabalarni qo‘llab-quvvatlashlari va ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishlari lozim.

To‘rtinchidan, ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirishda texnologiyalarni qo‘llash ham muhimdir. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida talabalar o‘zaro muloqot qilish, bilim almashish va hamkorlikda ishlash imkoniyatlariga ega bo‘lishadi. Onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali talabalar bir-birlari bilan aloqada bo‘lishlari, tajriba almashishlari va yangi g‘oyalarni ishlab chiqishlari mumkin. Bu esa, ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini yanada rivojlantiradi.

Beshinchidan, ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirishda jamoa faoliyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Talabalar jamoada ishlash orqali bir-birlarining fikrlarini tinglash, baham ko‘rish va umumiy maqsadga erishishga intilishlari kerak. Jamoaviy faoliyatlar, talabalar orasida do‘stlikni mustahkamlash va ijtimoiy aloqalarni kuchaytirishga yordam beradi. Bunday tajribalar, talabalarni kelajakda jamoaviy ishlarida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga tayyorlaydi.

Oltinchidan, ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirishda yetakchilik ko‘nikmalarini shakllantirish ham muhimdir. Talabalar o‘zaro munosabatlarda yetakchilik qilish qobiliyatini

rivojlantirishlari kerak. Bu esa ularning shaxsiy taraqqiyotiga va jamoalarda muvaffaqiyatli ishlashlariga yordam beradi. O‘qituvchilar talabalarni etakchi sifatida tarbiyalash uchun maxsus dasturlar va treninglar o‘tkazilishi mumkin.

XULOSA

Umuman olganda, talabalarda ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda interaktiv metodlar, simulyatsiya va rol o‘ynash, refleksiv yondashuv, texnologiyalarni qo‘llash, jamoa faoliyatlari va yetakchilik ko‘nikmalarini shakllantirish kabi turli usullar birgalikda qo‘llanilishi zarur. Bunday yondashuvlar orqali talabalar nafaqat bilim olishadi, balki ularni amaliyotga tadbqiq etish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdufatayev Sh. (2017) Talabalarda ijtimoiy va kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 30 b.
2. Abduquddusov O.A. (2016) Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda o‘quv amaliyotining o‘rni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent 30-b.
3. Berdiyeva H. (2021) Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 886-898
4. Mamurov B.B., Davronov I.E. (2021) Pedagogik kompetentlik. "Durdona" nashryoti. Buxoro, 10-b
5. Muslimov N.A., Abdullayeva K.M, Gaipova N.S. (2014) Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 112 b.
6. Quzmanova G.B. (2022) Talabalarning ijtimoiy kompetentligini ijtimoiy tarmoqlar vositasida rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari. "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar". 190-197b
7. Зеер Э.Ф. (2005) Психология профессий. Академический Проект; Фонд "Мир".
8. Зимняя И.А. (2003) Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования. Высшее образование сегодня, (5), 34-42
9. Хуторский А.В. (2003) Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения. Издательство Московского университета.



CHET TILINI O‘QITISHDA ASSOTSIATIV TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Mirzakamolova Maftuna Rahimjon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada chet tilini o‘qitishda assotsiativ texnologiyalarning roli hususida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Dunyo tilshunosligi tajribasidan kelib chiqqan holda bugungi kunda o‘zbek tilining analogik, assotsiativ, mavzuiy, kombinator, korpus kompyuter lug‘atlarini yaratish tilimizda ishlatilayotgan barcha leksemalarning paradigmatic, sintagmatic qatorlarini aniqlash, ma’noviy tarmoqlanishlarini belgilash, ularni kompyuter xotirasiga kiritish orqali o‘zbek tili milliy korpusi va lug‘at jamg‘armasining ulkan zaxirasini texnik jihatdan qayd etish, ularning boshqa tillarga tarjima qilish dasturlarini yaratish kabi masalalar olimlarimiz oldida turgan bosh masalalardan biridir.

Kalit so‘zlar. Chet tili, assotsiativ texnologiya, muloqot, ta’lim jarayoni, rivojlanish, ta’lim-tarbiya.

РОЛЬ АССОЦИАТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Абстрактный. В статье излагаются мысли о роли ассоциативных технологий в обучении иностранному языку. На основе опыта мировой лингвистики сегодня одной из основных задач, стоящих перед нашими учеными, является создание аналоговых, ассоциативных, тематических, комбинаторных и корпусных компьютерных словарей узбекского языка, выявление парадигматических и синтагматических последовательностей всех лексем, используемых в нашем языке, определение их семантических ветвей, техническая фиксация огромного резерва национального корпусного и словарного фонда узбекского языка путем ввода их в память ЭВМ и создание программ для их перевода на другие языки.

Ключевые слова. Иностранный язык, ассоциативная технология, коммуникация, образовательный процесс, развитие, образование.

THE ROLE OF ASSOCIATIVE TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Abstract. This article presents opinions on the role of associative technologies in teaching a foreign language. Based on the experience of world linguistics, today, one of the main issues facing our scientists is the creation of analogical, associative, thematic,

combinatorial, and corpus computer dictionaries of the Uzbek language, the identification of paradigmatic and syntagmatic sequences of all lexemes used in our language, the determination of their semantic branches, the technical recording of the huge reserve of the national corpus and vocabulary fund of the Uzbek language by entering them into computer memory, and the creation of programs for their translation into other languages.

Keywords: Foreign language, associative technology, communication, educational process, development, education.

Kirish. Mamlakatimizda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli navqiron avlodning zamonaviy bilim olishi, komil inson bo‘lib voyaga yetishi uchun beqiyos imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilgan. Bugungi zamon sharoitida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o‘qitishning hozirgi zamon tizimlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ilg‘or va zamonaviy pedagogik texnologiyalar maqsadga erishishda kafolatli vosita sifatida xizmat qiladi va o‘z ijobiy natijasini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, har bir dars mashg‘ulotlarining muvaffaqiyatli tashkil etishning 80% i ta‘lim jarayonini to‘g‘ri rivojlantirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog‘liqdir.

Bugungi kunda chet tilini o‘rganish zamonaviy ta‘lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosida har bir darsni o‘ziga xos, takrorlanmas darajada tashkil etish ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan yondoshish zarurligini talab qiladi. Ta‘lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta‘minlash zarurati “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni ro‘yobga chiqarish shartlaridan biridir. Respublikamizning barcha ilm maskanlari: maktabgacha ta‘lim muassasalari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va oliy ta‘lim dargohlarida tahsil olayotgan yoshlarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta‘minlash, yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzluksiz tashkil etish davr talabidir. O‘quvchi o‘z fikrini erkin bayon etishi, mavzuni guruh yoki jamoa ichida yoritib berishida esa ilg‘or texnologiyalarning o‘rni katta ahamiyatga egadir. Binobarin, chet tili va uning metodikasini o‘qitishning maqsad va vazifalari jamiyatimiz va davlat manfaatlariga talablariga, unib-o‘sayotgan yosh avlod talablariga mos kelishi va javob berishi lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bu borada kompyuter leksikografiyasi (KL) kompyuter lingvistikasining asosiy yo‘nalishi sifatida muhim o‘ringa ega. Unda kompyuter lug‘atlarini yaratish, dasturiy ta‘minot uchun lingvistik resurs yaratish vazifalari o‘rganiladi. L.I.Kolodnyajnyaya lug‘atshunoslikni 2 ga ajratadi: an‘anaviy hamda raqamli. Tarjima borasida ham ikki yondashuv bor ligi qayd etiladi:

- 1) leksikosentrik (kontekstdan kelib chiqib tarjima qilish);
- 2) slovasentrik (mashina yordamida analiz qilish).

Kompyuter leksikografiyasi bugungi kunda turli qo‘shimcha imkoniyatlar asosida rivojlanib bormoqda. Xususan, dastlab kompyuter lug‘atlari bir tilli, ikki tilli bo‘lgan, hozirda ko‘p tilli elektron lug‘atlar vujudga kelmoqda. Qolaversa, keyingi vaqtlarda ma‘lum bir

sohalarga ixtisoslashgan elektron lug‘atlar ham yaratilmoqda. Ya’ni, dastlab, kompyuter lug‘atlari faqat umumiy leksikon bilangina cheklangan edi, hozirda fanga oid bo‘lgan, qurilish, aviatsiya, harbiy, diniy, yuridik sohalarga oid so‘zlar bazasi ham e’tiborga olinmoqda. Hatto so‘zlarning matnda qo‘llanish imkoniyatlari, birikma holiday ko‘rinishlari ham nazarda tutilgan holda lug‘atlar yaratilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar kompyuter leksikografiyasi sohasining taraqqiy etayotganidan darak beradi.

Muhokama va natijalar. Dunyo tilshunosligi tajribasidan kelib chiqqan holda bugungi kunda o‘zbek tilining analogik, assotsiativ, mavzuiy, kombinator, korpus kompyuter lug‘atlarini yaratish tilimizda ishlatilayotgan barcha leksemalarning paradigmatic, sintagmatic qatorlarini aniqlash, ma’naviy tarmoqlanishlarini belgilash, ularni kompyuter xotirasiga kiritish orqali o‘zbek tili milliy korpusi va lug‘at jamg‘armasining ulkan zaxirasini texnik jihatdan qayd etish, ularning boshqa tillarga tarjima qilish dasturlarini yaratish kabi masalalar olimlarimiz oldida turgan bosh masalalardan biridir. Shu sababli, xalqimizning iqtisodiy va ma’naviy hayotida sodir bo‘layotgan yangilanishlar, o‘zgarishlar, fan-texnikaning rivoji bizdan lug‘atlarning zamonaviy turlarini yaratishni talab qilmoqda. Shunday lug‘atlardan biri verbal assotsiativ tajriba materiallariga asoslangan tezauruslar bo‘lib, bunday tezauruslar yaratish tilshunoslimlarimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Nutqni idrok qilish til elementlarini eshitish yoki ko‘rish resepsiyasi (qabul qilish), ularning o‘zaro aloqasini aniqlash va ularning mazmuni haqidagi tasavvurlarning shakllanishini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, nutqni idrok qilish ikki bosqichda – nutqiy ifodani idrok qilish va tushunish orqali amalga oshadi. Psixologiyada tushunish bevosita idrok qilinadigan nutq (tovushlar) oqimi ortida turgan umumiy mazmunni ochish sifatida talqin qilinadi. Bu idrok qilinadigan nutq orqasida turgan ma’noning haqiqiy mazmunga aylanish jarayonidir. Masalan, “Oila” ifodasining ma’nosi qanday “nutqsiz kontekstda” va kim tomonidan aytilganiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Olib borgan verbal assotsiativ tadqiqotlarimiz natijasida quyidagilarni havola etamiz. Agar bu ayollar tomonidan aytilayotgan bo‘lsa bosh ma’nosida qo‘llaniladi va muqaddas go‘sha nazarda tutiladi. Agar mazkur ifoda “mening oilam” birikmasi tarzida bo‘lsa, 12 yoshli bola tilida - “Ota-onasi” nazarda tutiladi, 20- 25 yoshlar oralig‘idagi yigit tilidan aytilsa “turmush o‘rtog‘i” tushuniladi, 35-40 yoshlar oralig‘idagi inson tomonidan aytilganda mas’uliyat, ro‘zg‘or, turmush, tartib-intizom kabi assotsiatsiyalar vujudga keladi. Ma’lumotlarni qidirishda veb-hujjatlarni avtomatik ravishda yuklab oladigan veb-brauzer dasturlari mavjud. Qidiruv ilovalari turli sohalarda, masalan, moliya, tibbiyot, yangiliklar va hokazolarda qo‘llanilishi mumkin. Assotsiativ tilshunoslikda gender ma’nolarni ifodalashda foydalaniladigan lug‘atlar mavjud, ular: gender assotsiativ jadval shaklida bo‘ladi.

Assotsiativ texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillardan hisoblanadi. Masalan, “Aqliy hujum” va “Pinboard” kabi metodlar orqali talaba-yoshlar saviyasi va chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. “Aqliy hujum” metodi o‘rganuvchilarning bilim saviyalarini sinab ko‘rishga mo‘ljallangan metod hisoblanadi. Bu usul bilan talabalarning diqqatini mashg‘ulot mavzusiga qaratish uchun o‘qituvchi

tomonidan savol-javob tashkil qilinadi. Bu jarayonda savollar turlicha, mantiqan, qiziqarli yoki ilmiy-siyosiy jihatdan mavzuga aloqador bo‘lishi lozim. Ushbu savol-javob talaba – yoshlar faolligidan kelib chiqqan holda 5-10 daqiqani tashkil etishi mumkin. “Aqliy hujum” metodidan foydalanib, mashg‘ulotlar tashkil qilinganda o‘rganuvchilar turli savollarga javob izlaydilar, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladilar, vaziyatdan qay tarzda chiqib ketish yo‘llarini qidiradilar. Bu esa ularning darsga va yangi mavzuga qiziqishning ortishiga, faollashuviga olib keladi. Bu metoddan foydalanilgan paytda har bir talabaning bergan javobi inobatga olinadi. Asosiysi, har bir talabadan o‘z javobini asoslashi va himoya qilishi so‘raladi.

Dars samaradorligini oshirish maqsadida keying tavsiya etiladigan metod bu “Pinboard” deb nomlanuvchi usuldir. “Pinboard” so‘zi inglizchadan olingan bo‘lib, “pinmustahkamlash”, “board-doska” ma‘nosini anglatadi. Bu o‘qitish metodining asosiy mohiyati va maqsadi shundan iboratki, unda talabalar ishtirokidagi munozara va o‘quv suhbatini amaliy usul bilan bevosita bog‘lanib ketadi.

Xulosa. Har bir o‘quvchida muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. O‘z fikrini ravon va erkin bayon eta olish qobiliyati paydo bo‘ladi, mantiqiy fikr yuritish ko‘nikmalari rivojlanadi. Dorskaga chiqqan paytda yoki ko‘pchilik omma oldida o‘z shaxsiy va dunyoviy fikrlarini ko‘rsata olish qobiliyati shakllanadi. Tengdoshini eshita olish, fikrini inobatga olish, o‘z fikrida qolish, boshqaning noto‘g‘ri javobini isbotlab berish kabi ko‘nikmalar paydo bo‘ladi

Bugungi kunda ta‘lim tizimiga ko‘plab zamonaviy texnologiyalar va metodlar kirib kelmoqda. Ammo, ulardan qay tarzda, qaysi paytda, qanday mavzuda foydalanish bu o‘rgatuvchining zukkoligi, izlanuvchanligiga, dars - mashg‘ulotlarni ham qiziqarli, ham ilmiy ma‘lumotga boy tarzda tashkil etishiga bog‘liq deb o‘ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiyalar yo‘nalishlari muammolari- Xalq ta‘limi, 1999-yil.
2. Abdinazarov Sh. Ta‘lim-tarbiyaning aktual masalalari, Qarshi, 1991-yil
3. Zaripov F. Chet tillar o‘qitish metodikasidan qo‘llanma, Toshkent, 2002-yil.
4. Hoshimov O‘, Yokubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi, Toshkent, 2003-yil

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK: 37.022

OLIIY TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARIDA O‘QUV-BILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY OMILLARI.

Madinaxon Muxammadjonova Anvarjon qizi
Andijon davlat universiteti tayanch-doktoranti
E-mail: madinah97mukhammad@gmail.com
Tel: (91) 678 87 66

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta‘lim muassasalari talabalarida o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish, tayanch kompetensiyalar orqali talaba shaxsini kompleks tarzda rivojlantirish nazariy asoslari va tadqiqoti keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Kompetensiyaviy o‘qitish, case study, holat tadqiqotlari, biokimyo, aminokislotalar, muammolarga yechim.

THE ORGANIZATIONAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL AND LEARNING COMPETENCIES AMONG STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS.

Abstract: This article presents the theoretical foundations and research on the development of students' learning competencies at higher education institutions, as well as the development of the student's personality in a comprehensive manner through core competencies.

Keywords: Competency-based teaching, case study, case research, biochemistry, amino acids, problem-solving.

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ФАКТОРЫ В РАЗВИТИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ И УЧЕБНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.

Аннотация: В данной статье представлены теоретические основы и исследования по развитию учебных компетенций студентов в высших учебных заведениях, а также комплексное развитие личности студента через ключевые компетенции.

Ключевые слова: Компетентностный подход в обучении, кейс-стадии, исследование случаев, биохимия, аминокислоты, решение проблем.

KIRISH

Ta'lim pedagogikasining asosiy maqsadi - shaxsni har tomonlama yetuk ya'ni bilimli, ma'naviy boy, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlaydigan va jamiyatning rivojlanishiga o'z xissasini qo'shadigan foydali insonni shakllantirishdir. Bugungi kunda barcha oliy ta'lim muassasalari o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy tomondan yanada yaxshilashga, ta'lim jarayonida tutgan o'rnini yanada takomillashtirishga harakat qilmoqda. Hozirgi davrga kelib yangi O'zbekistonda har bir sohani rivojlantirish jarayonida eng avvalo ta'lim sifatini yaxshilash ta'lim pedagogikasi maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimida avlodni tarbiyalashda ta'sirchan o'qitish usullarni topish, ta'limni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va ulardan oqilona foydalanish, olgan bilimlarni esa amaliyotda qo'llay olish, ya'ni amaliy masalalarni yechish. Ta'limning asosiy tamoyilidir. Quyidagi maqolada talabalarda o'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish haqida so'z boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda dunyo ta'limini yangilashning asosiy yo'nalishi ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali, hayotni, ta'limni kasbiy faoliyatni yaxlit(kompleks) ko'ra olish, unda tizimli faoliyat ko'rsatish, yangi-yangi maummo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir. Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetentlik shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti hisoblanadi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki bu kompetensiyalar, o'z navbatida, ularning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi[1].

Tibbiyot ta'limi va kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha tadqiqotlar va ishlar ko'plab ilmiy tadqiqotchilar, o'qituvchilar va tibbiyot mutaxassislari tomonidan olib borilgan[2]. Jumladan Avstraliyalik ta'limshunos va olim David Boud bo'lib u o'zining "kompetensiyaviy o'qitish" (competency-based education)[3] va "reflektiv o'qish" (reflective learning)[4] sohalaridagi tadqiqotlari bilan mashhur. Boudning ishlari ta'lim sohasida, xususan, kasbiy ta'lim va tibbiyot ta'limida sezilarli ta'sir ko'rsatgan.[5] Boud kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim jarayoniga joriy qilishda muhim omil sifatida ko'radi. Ularning ishlari o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Kompetensiyaviy o'qitish, talabalarga o'z sohalarida zarur bo'lgan barcha malakalar va ko'nikmalarni o'rganishga yordam beradi, shuningdek, ularning mustaqil va tizimli fikrlashlarini rivojlantiradi.

Yana bir olim esa amerikalik Howard Gardner bo'lib uning "Ko'p intellektual qobiliyatlar nazariyasi" (Multiple Intelligences Theory) ta'lim sohasida muhim o'rin egallaydi. U 1983 yilda bu nazariyani ilgari surib, insonlarning intellektual qobiliyatlarini turli shakllarda rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Gardnerning nazariyasiga ko'ra, har bir odamda bir nechta turli xil intellektual qobiliyatlar mavjud bo'lib, bu qobiliyatlarning har biri o'ziga xos tarzda rivojlanadi. Bu nazariya, ayniqsa, ta'lim va kompetensiyaviy yondashuvlar sohasida chuqur ta'sir ko'rsatgan[6].

NATIJALAR

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish uchun bir nechta tashkiliy omillar mavjud. Bu omillar, birinchi navbatda, o'quv dasturlari, o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasi, zamonaviy texnologiyalar va amaliy tajriba bilan chambarchas bog'liq[7]. Ta'lim tizimini yaxshilash orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallab, balki amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'ladilar, bu esa ularning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishlarini ta'minlaydi.

O'quv dasturi va rejalari talabalarni o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Tibbiyot ta'limi o'quv dasturi talabalar uchun keng qamrovli bilimlar, shuningdek, yuqori darajadagi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Dasturlar:

Nazariy bilimlar: Tibbiyotda talabalarga asosiy ilmiy bilimlarni o'rgatish bilan birga, darslar va laboratoriya mashg'ulotlari talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy ko'nikmalar: Darslar va laboratoriya mashg'ulotlari orqali talabalar kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'rganadilar. Masalan, bemorlarni muolaja qilish, tashxis qo'yish va tibbiy yordam ko'rsatish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish.

Mustaqil fikrlash va tahlil qilish: O'quv dasturi talabalarni mustaqil fikrlashga va tanqidiy tahlil qilishga undaydigan metodlarni o'z ichiga olishi kerak. Tibbiyot oliy ta'limida talabalarni mustaqil fikrlashga va tanqidiy tahlil qilishga yo'naltiruvchi metodlar, ularning kasbiy faoliyatiga tayyorlanishida muhim rol o'ynaydi.

Case Study - Holat tadqiqotlari metodini qo'llash talabalarni real hayotdagi muammolarni tahlil qilishga, turli variantlar va yechimlarni ko'rib chiqishga undaydi. Case study metodi talabalarni nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki haqiqiy hayotdagi vaziyatlarda qanday fikrlash va qaror qabul qilishni o'rganishga yordam beradi. Bu metod talabalarga real muammolarni hal qilishda zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi va ularning klinik tajribalarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Bu metod talabalarni:

Muammolarni aniqlash va tahlil qilish: Talaba aniq klinik holatni tahlil qilib, mavjud muammolarni belgilaydi.

Tanqidiy fikrlash: Talabalar holatni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqib, eng maqbul yechimni tanlashga harakat qilishadi.

Amaliy qarorlar qabul qilish: Holatga asoslangan qarorlar qabul qilish orqali talabalar amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

MUHOKAMA

Endi biokimyo fanida dasturida o'tiladigan mavzulardan biri bo'lgan aminokislotalar mavzusidan Case study (holat tadqiqotlari) tuzib ko'ramiz. Muammo quyidagicha: 40 yoshli erkak bemor, surunkali charchoq, mushaklarning zaifligi, va tez-tez ko'krak og'rig'idan shikoyat qilmoqda. Bemor, shuningdek, so'nggi yillarda ko'proq jismoniy mashqlar bilan shug'ullanib, proteinli ovqatlarni iste'mol qilishni ko'paytirgan. Bemorning tibbiy tarixida ortiqcha vazn va stress mavjud. Uning laboratoriya tahlillari va klinik holatlari quyidagicha:

Qon testi: Kreatinin darajasi normal, lekin bilirubin darajasi yuqori, bu esa jigar faoliyatidagi muammolarni ko‘rsatadi.

Plazma aminokislotalari: Levcin (BCAA) darajasi past, serin va glisin darajalari yuqori.

Urinaliz: Urin tarkibida ortiqcha azot miqdori, shuningdek, keton tanachalari mavjud.

1-jadval

Muammolarni aniqlash	Muammoga tanqidiy yondashuv	Amaliy yechim
Bemorning aminokislotalari bilan bog‘liq muammolari bor	BCAA (Branched-Chain Amino Acids) aminokislotalar, ayniqsa leysin, mushaklar tiklanishi va o‘sishi uchun muhim rol o‘ynaydi.	Serin va glisin miqdorini tartibga solish: Ushbu aminokislotalar miqdorini pasaytirish uchun, uning ta’sirini kamaytiradigan ozuqaviy qo‘shimchalar (masalan, metionin) qo‘llanishi mumkin.
ketoz holatining rivojlanishi	Agar bemor juda yuqori proteinli dietani saqlasa, bu organizmda glikogen zaxiralarining kamayishiga olib keladi	Proteinli ovqatlarni muvozanatlash: Bemorning dietasini qayta ko‘rib chiqish kerak. Yuqori proteinli dietadan saqlanish va uglevodlar miqdorini ko‘paytirish, bu ketoz holatini kamaytiradi.
Bilirubinning yuqori darajasi	jigarni to‘g‘ri ishlamayotganligini ko‘rsatadi	Bilirubin darajasini monitoring qilish: Jigarni davolash va qayta tekshirish. Agar jigar funksiyasi yaxshilansa, aminokislotalar metabolizmi ham yaxshilanadi.

Ushbu “case study” orqali talabalar aminokislotalarning metabolizmiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganishadi. Ular protein metabolizmi, ketoz, va jigar funksiyalarining bir-biriga ta’sirini tushunishga yordam beradi. Bu holat tibbiyot talabalariga aminokislotalar, jigar va metabolik jarayonlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi.

XULOSA

Ta’lim tizimini takomillashtirish har bir davlat va jamiyat uchun dolzarb masalalardan biridir. Bu jarayon, ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quvchilarga eng zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni berish, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish uchun amalga oshiriladi. Zamonaviy ta’limning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun o‘quv dasturlari, o‘qituvchilar malakasi, texnologiyalar, jamiyat ehtiyojlari va inkluziv

yondashuvni birlashtirish zarur. Bu jarayon nafaqat talabalar uchun, balki jamiyat va iqtisodiyot uchun ham ijobiy natijalarga olib keladi.

Yuqorida biz maqolamizda berib o‘tilgan interaktiv metodlardan biri bo‘lmish “Case study” biokimyo fanida, ayniqsa tibbiyot yo‘nalishlarida, bir nechta muhim maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi. Biokimyo fanida talabalar ko‘p o‘zgaruvchan va kompleks tizimlarni o‘rganadilar. Case study'lar bu jarayonlarni haqiqiy holatga bog‘lashga yordam beradi, chunki talabalar mavjud ma‘lumotlarni (masalan, laboratoriya tahlil natijalari) tahlil qilib, turli yondashuvlarni sinashadi. Bu jarayon orqali ular tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Annette Burgess, Christie van Diggele, Chris Roberts & Craig Mellis BMC Medical Education volume 20, Article number: 463 (2020)
2. Dervenis, C., Fitsilis, P., & Iatrellis, O. (2022). A review of research on teacher competencies in higher education. Quality assurance in education, 30(2), 199-220.
3. Chappell, C., Gonczi, A., & Hager, P. (2020). Competency-based education. In Understanding adult education and training (pp. 191-205). Routledge.
4. Fullana, J., Pallisera, M., Colomer, J., Fernández Peña, R., & Pérez-Burriel, M. (2016). Reflective learning in higher education: A qualitative study on students’ perceptions. Studies in Higher Education, 41(6), 1008-1022.
5. Falchikov, N., & Boud, D. (1989). Student self-assessment in higher education: A meta-analysis. Review of educational research, 59(4), 395-430.
6. Gardner, H. (2021). Disciplined mind: What all students should understand. Simon & Schuster.
7. MUXAMMADJONOVA, M. (2025). BO ‘LAJAK TIBBIYOT XODIMLARIGA BIOKIMYO FANINI O ‘QITISHDA KOMPETENSIYAVIY O ‘QITISH METODIKASI. News of the NUUz, 1(1.3), 139-141.
8. Каримова, Ф. Х. (2023). PEDAGOGICAL CONDITIONS OF FORMING PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS. Confrencea, 6(6), 277-280.



UMUMIY TA‘LIM MAKTABLARIDA “TEXNOLOGIYA” FANIDAN LOYIHALAR ISHLAB CHIQRISHDA IJODIY FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH USULLARINING QO‘LLANISHI.

Qurbonov Dilshod Xazratovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Tabiiy va anik fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi

Email: dilshodqurbonov822@gmail.com tel: +998 (90) 490-02-12

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida “Texnologiya” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning loyihalashga oid ijodiy faoliyatini shakllantirish metodlari tahlil qilinadi va ularning samaradorligi taqqoslab o‘rganiladi. Loyihaviy ta’lim, muammoli o‘qitish, integratsiyalashgan yondashuv va amaliy tajriba asosidagi metodlar o‘rtasidagi farqlar, afzalliklar hamda ularni o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, estetik did va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, har bir metodning amaliyotda qo‘llanish imkoniyatlari va natijadorligi misollar bilan tahlil qilinadi. Maqola texnologiya fani o‘qituvchilari, metodistlar va tadqiqotchilar uchun foydali uslubiy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Texnologiya fani, ijodiy faoliyat, loyihalash, o‘quv metodlari, taqqoslash, o‘quvchi faolligi, amaliy mashg‘ulot, pedagogik yondashuv, innovatsion ta’lim, metodik tahlil.

СРАВНЕНИЕ МЕТОДОВ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПРОЕКТНОМ ПРОЕКТИРОВАНИИ ПО ПРЕДМЕТУ «ТЕХНОЛОГИЯ» В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация: В статье анализируются методы формирования творческой проектной деятельности учащихся при преподавании предмета «Технология» в общеобразовательных школах и сравнивается их эффективность. Подчеркиваются различия и преимущества проектного обучения, проблемного обучения, комплексных подходов и методов, основанных на практическом опыте, а также их роль в развитии самостоятельного мышления, эстетического вкуса и практических навыков учащихся. Практическое применение и эффективность каждого метода также анализируются на примерах. Статья содержит полезные методические рекомендации для учителей технологии, методистов и научных сотрудников.

Ключевые слова: Технология, творческая деятельность, проектирование, методы обучения, сравнение, деятельность учащихся, практическая подготовка, педагогический подход, инновационное образование, методический анализ.

COMPARISON OF METHODS OF FORMING CREATIVE ACTIVITY IN PROJECT DESIGN IN THE SUBJECT OF "TECHNOLOGY" IN GENERAL SCHOOLS

Abstract: *This article analyzes the methods of forming students' creative activity related to design in teaching the subject "Technology" in secondary schools and compares their effectiveness. The differences and advantages between project-based learning, problem-based learning, integrated approach and practical experience-based methods are highlighted, as well as their role in developing students' independent thinking, aesthetic taste and practical skills. Also, the possibilities and effectiveness of each method in practice are analyzed with examples. The article contains useful methodological recommendations for teachers of technology, methodologists and researchers.*

Keywords: *Technology, creative activity, design, teaching methods, comparison, student activity, practical training, pedagogical approach, innovative education, methodological analysis.*

KIRISH. XXI asr – texnologiyalar asri bo‘lib, har bir sohada raqamlashtirish, avtomatlashtirish va innovatsion yondashuvlar asosiy yo‘nalishga aylanmoqda. Bunday sharoitda umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularni real muammolarni hal qilishga yo‘naltirish va amaliy loyihalar orqali mustaqil faoliyat yuritishga o‘rgatish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, “Texnologiya” fani bu borada keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, o‘quvchilarning mehnat madaniyatini shakllantirish, estetik didini rivojlantirish, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari haqida tasavvur hosil qilish va eng muhimi, ijodiy loyihalash orqali amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Respublikamizda olib borilayotgan ta’lim islohotlari doirasida texnologiya fanining mazmuni sezilarli darajada boyitilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-apreldagi 160-son qaroriga asosan tasdiqlangan umumta’lim maktablari uchun yangi o‘quv dasturlarida texnologik bilim va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish, loyihalash yondashuvini ta’lim jarayoniga joriy etish belgilangan. Bu esa o‘quvchilarni nafaqat mehnatga o‘rgatish, balki **mustaqil ravishda g‘oya ishlab chiqish, eskiz chizish, material tanlash, tayyor mahsulot yasashgacha bo‘lgan to‘liq ijodiy jarayonni bosib o‘tishga yo‘naltirilgan yondashuvni talab qiladi.**

Loyihalash faoliyati - bu o‘quvchining o‘z g‘oyasini real mahsulot shaklida namoyon eta olishiga imkon beruvchi muhim pedagogik usuldir. Ushbu jarayonda o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan metodlarning to‘g‘ri tanlanishi va ular o‘rtasidagi farqlarni chuqur tahlil qilish texnologiya fanining samaradorligini belgilab beradi. Amalda ishlatilayotgan asosiy metodlar qatoriga quyidagilar kiradi:

• **Loyihaviy metod** - o‘quvchini g‘oyadan tayyor mahsulotgacha olib boruvchi bosqichma-bosqich faoliyatni tashkil etadi.

• **Muammoli metod** - o‘quvchining tanqidiy fikrlashini rag‘batlantiradi va mustaqil echim izlashga undaydi.

• **Integratsiyalashgan yondashuv** - texnologiya fanini matematika, chizmachilik, biologiya kabi boshqa fanlar bilan bog‘lab, chuqur tahlil va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi.

• **Amaliy tajriba metodi** - tajriba orqali o‘quvchini faol amaliy harakatga jalb etadi, “bilaman”dan “qilaman”ga o‘tish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI, TAHLIL VA NATIJALAR. Ushbu metodlarning har biri o‘ziga xos didaktik vazifalarni bajaradi. Biroq ularni tizimli tahlil qilish, taqqoslash va aniq pedagogik natijalarga erishish uchun qanday hollarda, qanday sharoitda va qanday yo‘nalishda samaraliroq ishlashini o‘rganish zarur. Zero, texnologiya fanining asosiy vazifasi bu o‘quvchini bilimli emas, balki qo‘l mehnatiga tayyor, zamonaviy talablar asosida ijodiy mahsulot yaratishga qodir shaxs sifatida shakllantirishdir.

Bu metodlarning qaysi sharoitda, qanday yo‘nalishda va qanday hollarda samarali ishlashi haqida qisqa va aniq tahlilni quyidagi jadval shaklida ko‘rib chiqamiz:

Texnologiya fanida loyihalashga oid metodlarning taqqoslanishi

Metod nomi	Qaysi hollarda samarali	Zarur sharoitlar	Yo‘nalishi	Afzalligi
Loyihaviy metod	Amaliy topshiriq asosida mahsulot yaratishda	Materiallar, asbob-uskunalar, vaqt va bosqichli rejalar	G‘oyadan tayyor mahsulotgacha	Mustaqil ishlash va ijodkorlikni rivojlantiradi
Muammoli metod	Muayyan masalaga yechim topish zarur bo‘lganda	Muammoli savollar, tahlil qilish uchun vaqt, muqobil echimlar	Tanqidiy fikrlash va muammo hal qilish	Faol fikrlash, o‘z nuqtai nazarini shakllantirish
Integratsiyalashgan metod	Texnologiyani boshqa fanlar bilan bog‘lashda (matematika, biologiya, san‘at)	Fanlararo mavzular, o‘quv materiallari va o‘qituvchilar hamkorligi	Kompleks yondashuv	Keng qamrovli dunyoqarashni shakllantiradi
Amaliy tajriba metodi	Qo‘l mehnati va ko‘nikma talab etilganda	Ustaxona, ish qurollari, xavfsizlik qoidalari	Tajriba asosida o‘rgatish	Bilimni amaliyotga tatbiq etadi, motorik ko‘nikmalarni rivojlantiradi

Quyida mavzu bo‘yicha asosiy muammolar, ularni bartaraf etish usullari va takliflar tizimli tarzda taqdim etamiz, yani:

ASOSIY MUAMMOLAR

№	Muammo nomi	Tafsilot
1	Metodik bazaning yetarli emasligi	O‘quvchilar uchun loyihalashga oid metodik qo‘llanmalar, namunaviy dars ishlanmalar yetarli emas

№	Muammo nomi	Tafsilot
2	Amaliy jihozlarning yetishmasligi	Ko‘pgina maktablarda ustaxona, asbob-uskunalar va materiallar mavjud emas yoki eskirgan
3	O‘qituvchilarning malaka muammosi	Texnologiya o‘qituvchilarining ko‘pchiligi loyihalash yondashuvlarini chuqur bilmaydi, zamonaviy metodlardan foydalana olmaydi
4	Fanlararo integratsiyaning sustligi	Texnologiya fani boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lanmagan, kompleks yondashuv rivojlanmagan
5	Ijodiy yondashuvning sustligi	Ta’lim ko‘proq nusxa ko‘chirish, tayyor shaklga asoslangan; o‘quvchining erkin fikrlashi va g‘oya ilgari surish imkoniyati cheklangan

BARTARAF ETISH USULLARI

№	Muammoni hal qilish yo‘li
1	Har bir sinf darajasiga mos loyiha asosidagi topshiriqlar to‘plamini yaratish
2	Maktab ustaxonalarini zamonaviy texnika va vositalar bilan jihozlash (3D printer, lazer kesish qurilmalari va boshqalar)
3	O‘qituvchilar uchun maxsus qayta tayyorlov va amaliy seminar-treninglarni tizimli yo‘lga qo‘yish
4	Fanlararo integratsiyani metodik tavsiyalar orqali kuchaytirish (masalan, texnologiya + informatika + san’at)
5	O‘quvchilarni ijodkorlikka yo‘naltiruvchi ochiq loyihalar, tanlovlar va ijodiy ko‘rgazmalarni tashkil etish

TAKLIFLAR

1. Texnologiya fani bo‘yicha milliy loyiha platformasini yaratish lozim. Bunda har bir o‘quvchi o‘zining mahsulotini yuklaydigan, reyting oladigan va fikr almashadigan interaktiv sayt yaratish.

2. Ijodiy portfel tizimini joriy etish lozim. Bunda har bir o‘quvchining 5-11-sinflar oralig‘ida yillik loyihalari jamlanadigan ijodiy portfeli bo‘lishi lozim.

3. Xalq hunarmandlari bilan hamkorlikda ishni tashkil qilish. Bunda mahalliy ustalar bilan hamkorlikda darslar o‘tkazish, ular orqali milliy dizayn va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish.

4. “Texnologiya va dizayn” nomli milliy tanlov tashkil etish orqali har yili maktab, tuman, viloyat va respublika miqyosida texnologik loyiha tanlovlarini tizimli o‘tkazish.

5. Virtual laboratoriyalar va AR/VR texnologiyalarni joriy etish orqali maktablarda mavjud bo‘lmagan ustaxonalarni virtual tarzda yaratish orqali dars sifatini oshirish.

Yuqorida bayon etilgan barcha jarayonlarni samarali tashkil etish va ta’lim tizimida “Texnologiya” fanini zamonaviy va ijodiy ruhda yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi aniq va ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Bular:

1. Ta’lim mazmunini qayta ko‘rib chiqish va yangilash.

- Loyihalash faoliyati asosiy o‘qituvchi usuli sifatida belgilab qo‘yilishi lozim.
- O‘quv dasturlari va darsliklarda amaliy ishlarga, ijodiy topshiriqlar va mustaqil izlanishlarga ko‘proq o‘rin berilishi shart.
- Ta’limning “yodlash” emas, balki “yaratish va tahlil qilish”ga qaratilgan shaklda qayta yo‘naltirilishi talab etiladi.

2. Oqituvchi salohiyati va metodik tayyorgarligiga e’tibor.

- O‘qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalar, dizayn fikrlash, loyihalash bosqichlari va raqamli vositalar bo‘yicha muntazam malaka oshirishi kerak.
- Ustozlar uchun tematik seminarlar, vebinarlar, ijodiy laboratoriyalar va mahorat darslari yo‘lga qo‘yilishi kerak.

3. Material-texnika bazasini mustahkamlash.

- Maktablardagi ustaxonalarni zamonaviy, xavfsiz va ixtisoslashgan uskunalar bilan jihozlash - samarali darslarning asosidir.
- Raqamli texnologiyalar (3D-printer, AR/VR, grafik dasturlar) imkoniyatlarini amaliyotga joriy etish talab etiladi.

4. Aniq hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yish.

- Hunarmandlar, dizaynerlar, san’at ustalari va korxonalar bilan maktablar o‘rtasida hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.
- Ta’lim muassasalari mahalliy ijtimoiy va iqtisodiy muhit bilan uzviy bog‘lanishi darslarda hayotga yaqin vazifalarni berishga yordam beradi.

5. Samaradorlikni baholash va tahlil qilish tizimini joriy etish.

- O‘quvchilarning faoliyatini faqat natija emas, ijodiy jarayon va fikrlash darajasi asosida baholash tizimini joriy etish lozim.
- Ta’lim sifati va yutuqlarini portfolio, ko‘rgazma, tanlov, loyiha himoyasi orqali baholash samarali hisoblanadi.

Demak, bulardan kelib chiqqan holda bu borada quyidagi xulosalarni berish muin bo‘ladi, ya’ni bu jarayonlarni hayotga joriy etishda markaziy e’tibor inson kapitaliga, ta’lim muhitiga va innovatsion yondashuvga qaratilishi shart. Bugungi kunda “Texnologiya” fani nafaqat mehnat fani, balki o‘quvchini ertangi kasbga tayyorlovchi, ijodiy va funksional savodxonlikni shakllantiruvchi asosiy platforma sifatida qaralishi kerak.

XULOSA. Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu **ijodiy fikrlaydigan, innovatsion yondashuvga ega va mustaqil ishlay oladigan shaxslarni tarbiyalash**dir. Bu maqsadga erishishda “Texnologiya” fani muhim platforma sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, ushbu fan doirasida loyihalashga oid ijodiy faoliyatni shakllantirish orqali

o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari, ijodiy salohiyati va kasbiy yo‘nalishini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ushbu yo‘nalishda turli metodlarning, ya‘ni loyihaviy, muammoli, integratsiyalashgan va amaliy-tajribaviy usullarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, har bir metod muayyan vaziyat va maqsadga ko‘ra samarali natija berishi mumkin. Ammo ularni tizimli va maqsadli tarzda tanlash, sharoitga moslashtirish hamda o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olish ta‘lim sifati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, bu jarayonda ro‘yxatga olingan **asosiy muammolar** bu metodik qo‘llanmalarining yetishmasligi, moddiy-texnik bazaning sustligi, o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi va ijodiy muhitning yo‘qligi kabi to‘siqlar mavjud. Ulardan samarali chiqish uchun:

- metodik asoslar yaratish,
- o‘qituvchilarni muntazam ravishda qayta tayyorlash,
- zamonaviy texnologiyalarni joriy etish,
- mahalliy hamkorlikni kuchaytirish,
- ijodiy ishlarni namoyon qilish platformalarini yo‘lga qo‘yish kerak bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, **loyihalashga oid ijodiy faoliyat bu faqat amaliy mashg‘ulot emas, balki oliy darajadagi pedaqogik strategiya** bo‘lib, u o‘quvchini nafaqat mahsulot yaratishga, balki mustaqil fikrlashga, muammo yechishga, go‘zallikni anglashga va mehnatni qadrlashga o‘rgatadi. Shu boisdan, texnologiya fanida loyihaviy-ijodiy yondashuvni keng qo‘llash zamonaviy ta‘limning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaror topishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. B.N.Gapparov va boshqalar “Xalq pedagogikasi”, “Tafakkur” nashriyoti, Toshkent. 2009 yil.
2. B.N.Gapparov va boshqalar. “Zamonaviy tadqiqotlar, innovatsiyalar, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari” mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman. Jizzax. 10-11.04.2020 tom №1, 343-344 betlar.
3. Akramov X.M., Uluhanov I.T. “Texnologiya ta‘limi metodikasi”. Namangan. 2022 yil. 448-bet.
4. Muxidova O. “Texnologiya fanida "tikuvchilik jihozlari" bo‘limini o‘qitishda interfaol metodlarni tanlash va samarali qo‘llash”. Buxoro davlat universiteti jurnali. 2022 yil.
5. Maxkamova M.X. “Texnologiya fanida kasb tanlashga yo‘llash metodikasi”. “PEDAGOGS” jurnali. 2022 yil. 416-419 betlar.
6. Akramov X.M., Abdullayev S. “Texnologiya ta‘limi metodikasi”. Usmon Nosir nashriyoti. 2022 yil. 448-bet.
7. Muxamedova X.B. “Umumta‘lim maktablarida texnologiya fanida o‘quvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirish”. Science and Education jurnali. 2023 yil. 1077-1084 betlar.

8. Jo‘rayeva B.A. “Texnologiya faniga oid to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish tizimi”. “PEDAGOGS” jurnali. 2024 yil. 90-96 betlar.
9. Sobirova D.A. “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ijodiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari misolida)”. “Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari” jurnali. 2024 yil. 134-136 betlar.



MOLEKULYAR FIZIKA DARSLARIDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI VA AFZALLIKLARI

Jamolova Shahlo Qobilovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Fizika kafedrası o‘qituvchisi

Ravshanova Shaxlo Erkinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Fizika va astronomiya ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Asosiy tushunchalar: Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarida Fizika ta’lim yo‘nalishi talabalariga molekulyar fizika fanini o‘qitishning metodik tizimini takomillashtirish, fanni o‘qitish mazmuni, maqsadi, vazifasi va barcha komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlashda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Molekulyar fizika, kasbiy kompetentlik, fizika va astronomiya ta’lim yo‘nalishi, metodik tizim, mobil dasturiy ilova, ta’lim sifati, bilim, baholash.

ВОЗМОЖНОСТИ И ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ НА УРОКАХ МОЛЕКУЛЯРНОЙ ФИЗИКИ

Ключевые понятия: В статье рассматриваются возможности и преимущества использования программных средств для совершенствования методической системы обучения молекулярной физике студентов физических специальностей в высших учебных заведениях, обеспечения взаимосвязи содержания, целей, задач и всех компонентов обучения предмету.

Ключевые слова: Молекулярная физика, профессиональная компетентность, физическое и астрономическое образование, методическая система, мобильное приложение, качество образования, знания, оценка.

POSSIBILITIES AND ADVANTAGES OF USING SOFTWARE TOOLS IN MOLECULAR PHYSICS LESSONS

Key concepts: This article discusses the possibilities and advantages of using software tools in improving the methodological system of teaching molecular physics to students of the Physics department in higher educational institutions, ensuring the interrelationship between the content, purpose, task and all components of teaching the subject.

Keywords: Molecular physics, professional competence, physics and astronomy department, methodological system, mobile software application, quality of education, knowledge, assessment.

Kirish. Jahonda barqaror taraqqiyotni uzluksiz ta‘lim sifatini ta‘minlashdagi muammolarni bartaraf etishda ilmiy jihatdan turli yondashuvlar, tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday yondashuvlarga uzluksiz ta‘lim mazmunini yangilashga urinishlar, (mobil ilovalar, dastur, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar), yangi o‘quv va ilmiy manbalarni (chet el darsliklari va metodlari) joriy etish, o‘quvchilarni xalqaro mobilligini ta‘minlash kabi jarayon va qoidalarni keltirish mumkin. Mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya mazmunini fan va ta‘lim oluvchilarning ilmiy savodxonligini shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirildi. “Uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdan iborat”. Ushbu vazifalarni oliy ta‘lim muassasalarida amalga oshirish uchun molekulyar fizika fanini alohida bo‘limlarini o‘qitishning shunday bir metodik tizimini yaratish lozimki, unda ta‘limning mazmuni, maqsadi, vazifasi va barcha komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta‘minlash zarur masala bo‘lmog‘i darkor.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Fizikaviy nazariyalar real borliqning umumlashgan shakllari sifatida – ajralgan va nisbatan berk va yopiq konseptual tizimdir. U empirik bilimlarni tafakkur qilish asosida umumlashtira oladi, bilvosita emotsional kuzatuv imkoniyatlaridan, ob‘ektiv va sub‘ektiv mavjud fizik qonuniyatlarni izlab topish empirik bilishdan ko‘ra ko‘proq mohiyatlarni belgilash va aniqlash vazifasini qo‘yadi. Ilmiy nazariya o‘ziga xos refleksiv borliqqa o‘xshaydi: nazariya, amaliyot, o‘rganilayotgan ob‘ekt modeli va uning umumlashtirilgan modelini modellashtirish, ilmiy tushunchalar bilan tavsiflangan holda formallashtirish fizik hodisalarning obrazli ko‘rinishini beradi. Olamning aks ettiruvchi modellari, uning eng muhim xossalarini mavhumlashtiradi. Natijada esa har qanday fizik nazariyaning qo‘llanish sohasini chegaralaydi, olamni buzib ko‘rsatadi. Ilmiy tizimlar aniqlangan ob‘ektiv qonuniyatlarga muvofiq tarzda ixtiyoriy bo‘lmagan ravishda shakllantiriladi. Shuning uchun fizikaning aniq bilimlarni: hodisalar, tushunchalar, qonunlar, nazariyalar va metodlarni o‘rganish algoritmining zarurligi haqidagi fikrlarni inobatga olmaydi. Ilm– fanning tizimli xususiyatlari ta‘lim mazmunini shakllantirish, bo‘limla, boblar, paragraflar va mavzular ketma–ketligidagi bilimlarni bayon etish metodini tanlashdagi tavakkalchilikka barham beradi. Aslida, nimaga o‘qitish, qanday o‘qitish va kimni o‘qitish kabi vazifalarni bir–biridan ajratib bo‘lmaganidek, tizim hamda metodni ham bir–biridan ajratib bo‘lmaydi. Fizika nazariyalar nisbatan mustaqil tizim bo‘lib, fizikaning fan sifatidagi komponentlarini tashkil qiladi. Shunday qilib, fizikada mavzularni o‘qitishda fizik nazariyalarga xos bo‘lgan uzviylik tamoyillarini hisobga olish kerak. Fizikadan bilimlarni tizimli shakllantirishni o‘ziga maqsad qilgan ta‘lim oluvchilar tomonidan fanlararo integratsion aloqalar, ularning xususiyatlari tushunilishini inobatga olish lozim. Turli xil nazariyalar, termodinamik, statistik, relyativistik

bilimlar elementlari o‘rtasidagi integratsion aloqalarni rad etish, natijada fizika ta’limida ta’lim metodikasi sifati va saaradorligining pasayishiga va amaliyot ko‘rsatayotganidek, ta’lim oluvchilar bilimining past bo‘lishiga hamda kompetensiyalarining rivojlanmasligiga olib keladi. Fizikaviy nazariyalar umumiy tizimli ta’lim sifatida tuzilmaviy elementlarning alohida har birida mavjud bo‘lmagan gnoseologik funksiyalarga va gnoseologik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Tushuntiruvchi illyustrativ, bashorat qiluvchi va metodologik kabi fizik nazariyalarning umumiy konseptual tuzilmasi sifatidagi muhim gnoseologik funksiyalari bo‘lib xizmat qiladi. Har qanday fizika nazariya modeli tavsifga ega bo‘lib, fizikaning qismlarga bo‘linishi hamda ilmiy va o‘quv bilish metodlari bilan uyg‘unlashishi orqali amalga oshadi. Fizikaviy tizimlar xususiyatlari va aloqalarining xilma-xilligi ilmiy va o‘quv bilish predmeti bo‘la olmaydi, shu sababli fizikaviy hodisa va jarayonlarni o‘rganishda ilmiy va o‘quv bilish metodlaridan biri test metodidan foydalanish zarurati mavjud.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Oliy ta’lim tizimida fizika darslarida samaradorlikka erishish maqsadida dasturiy vositalardan foydalanish qo‘l keladi. Dasturiy vositalardan foydalanish orqali foydalanuvchi o‘z bilim doirasini kengaytirishi, o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlashi mumkin. Dasturiy vosita funksiyalari juda keng bo‘lib unda ixtiyoriy foydalanuvchi ilmiy salohiyatini oshirishi mumkin. Xususan dasturiy vositalardan oliy ta’lim sohasida foydalanishni ko‘rib chiqishimiz mumkin. Bunda yangi mavzular bayoni, mustahkamlash, nazorat ishlar, laboratoriya ishlari va masalalar yechish kabilar mavjud. Dasturiy vositadagi afzalliklarni tekshirish maqsadida fizika ta’lim yo‘nalishi misolida ixtiyoriy mustahkamlash mavzusini olaylik. Bunda ta’lim shakli ananaviy bo‘lganda ham foydalanish mumkin. Mustahkamlash darsida test metodidan foydalanish ham mumkin. Masalan o‘quvchilar bilan kelishilgan holda uyda dasturiy vositalardan foydalangan holda birgalikda har bir o‘quvchi shaxsiy kodi orqali kirib belgilangan vaqt davomida mavzuga oid bo‘lgan testni yechishsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu orqali o‘quvchilarni tezkorligiga qolaversa baholashning oqilona usuliga erishiladi. Bunda o‘quvchilar mobil ilova orqali o‘zlari yo‘l qo‘ygan xatoliklarini ham ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin. Bunda bo‘sh o‘zlashrilish sohasi aniqlanib olinadi. Bunday turdagi onlayn mobil testlarni har darsdan so‘ng mustahkamlash maqsadida ham foydalanish mumkin.

Jahon ta’limida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda dasturiy vositalardan foydalanishda pedagogik imkoniyatlarni kengaytirishda xususan, molekulyar fizika fanini o‘qitishda mobil ilovalardan foydalanib ta’lim samaradorligini oshirish, metodik asoslarni fizikaning zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga muvofiq takomillashtirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrda jahon miqiyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030-yilga qadar belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu esa ta’lim jarayonini mobillashtirish pedagoglar jumladan, fizika o‘qituvchilari kasbiy –metodik tayyorgarlik darajasini sifat jihatdan oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalari, jumladan, ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, zamonaviy o'quv laboratoriya tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri ta'lim jarayonini mobillashtirish orqali ta'lim sifatini tubdan yaxshilash.

Oliy ta'lim muassasalarida fanlarni, xususan molekulyar fizika o'quv predmetini o'qitish jarayonida dasturiy vositalardan foydalanishni takomillashtirish ta'lim sifatini oshishiga va qolaversa hozirgi rivojlangan zamonda foydalanuvchi o'quvchining kompyuter vositalaridan foydalanish savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida dasturiy vositalarni takomillashtirish orqali o'quvchilarga qo'yilgan kompetensiyalar ham to'laqonli bajariladi. Dasturiy vosita ixtiyoriy foydalanuvchi (o'qituvchi yoki o'quvchi) ni ham izlanishga, o'z ustida ishlashga davlat etadi.

Bugungi kunda sir emaski fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun moddiy texnik baza qoniqarli ahvolda. Ananaviy dars jarayonida bu biroz noqulayliklariga sabab bo'lishi mumkin. Dasturiy vositada esa laboratoriya mashg'ulotlari bajarilgan video darslar joylanadi. Bunda o'quvchi darsni takror-takror ko'rish orqali ham o'z bilimlar bazasini yarata oladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirib, umumiy oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarga ta'lim berish sifati hamda raqobatbardoshligini ta'minlash, jahon amaliyoti tajribalariga tayanib sifat darajasini oshirish, mobil vositalarni keng tatbiq etish orqali ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali metodlarini ishlab chiqish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekistonda xorijiy ta'lim tajribalari asosida erishilgan ijobiy natijalarni umumlashtirish va rivojlantirish, innovatsion axborot-ta'lim muhitini shakllantirish, fanlarning axborot-metodik ta'minotini yaratish, elektron ta'lim resurslaridan oliy ta'lim jarayonida dasturiy vositalar orqali foydalanish metodikalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Tub islohotlar jamiyatimiz va iqtisodiyotimizning barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Jumladan, oliy ta'lim tizimida ham ana shunday jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilib, ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim jarayonlariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy ta'limning asosiy xususiyatlaridan biri bu uning innovatsionligidir. Innovatsiya (yoki yangilik kiritish) - deganda qandaydir yangilikni (yangi metod, vosita, texnologiya) o'zlashtirish va amaliyotga joriy etish tushuniladi.

Xulosa. Ta'limning zamonaviy rivojlanish bosqichi yangi nazariya va amaliyotlarni qidirib topish bilan tavsiflanadi. Bu jarayon jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida

innovatsion yangiliklarni ya'ni bevosita an'anaviy usullarga tayangan xolda ta'lim tizimining yangi tendensiyalarini ishlab chiqishga bog'liq bo'ladi. Ta'limga qiziqish va natijada oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning faolligi ta'lim jarayonining samarasi va samaradorligining yaxshilashining muhim omilidir, chunki u davlatning rivojlanishini rag'batlantiradi, ta'limning mazmunini egallashga qaratilgan izlanishlar va ijodiy yondashuv hamda mustaqil ta'limga olib keladi. Hozirgi paytda jamiyatning o'qituvchi kadrlarga bo'lgan talabi ortib bormoqda, o'qituvchining faoliyati va uning mazmuni tanqidiy, ijodiy rivojlanishni tatbiq etilib, ilm-fan yutuqlari va ilg'or pedagogik tajriba orqali modernizasiyalashga olib boradi.

O'quv jarayonini jadallashtirish, tasniflash, o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirish, ta'lim va taraqqiyot, ta'lim oluvchilarning yangi ta'lim texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilash va bu jarayonda turli innovatsion yangiliklar qilgan holda ta'lim oluvchilarning ilmiy darajasini oshirishda dasturiy vositalardan foydalanishning ijobiy tomonlarini to'la yoritib berish va ta'lim jarayonida dasturiy vositalardan foydalanishni tadbiq etish. Dasturiy vositalarning imkoniyatlari ta'lim sifatini oshirishda qolaversa ta'lim jarayonida ishtirok etuvchilarning izlanuvchan, ilimli, salohiyatli bo'lishiga ayniqsa hozirgi kunda zamon talablariga javob bera oladigan shaxslar jamiyatini tuzishda bu vosita xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alikulov, S. S., Xusayinova, A. U. (2024). "Texnika oliy ta'lim muassasalarida fizika o'qitishda dasturiy vositalardan foydalanish".
2. Umarov, R. (2023). "Texnologiya ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish bosqichlari".
3. Inatov, A., Karshiboyev, Sh., Musakulov, Q., Eliboyev, S. (2023). "Talabalarning fizika fanidan mustaqil ta'limga oid kasbiy kompetentligini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi".
4. Aminov, A. (2024). "Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi".
5. [PQ-5032-coH 19.03.2021. Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida LEX.UZ](#)
6. [Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning xususiyatlari Maxkambayev A.X. Usmonov Sh.F.](#)
7. [Innovatsion ta'lim texnologiyasida loyihalash metodining imkoniyatlari. Orishev J.\(2021\) 123- bet](#)
8. [Xudayberdiyev A.T., Jumayev N.A., Turayev S.J. Fizikadan masalalar va ularni yechishda dasturiy vositalardan foydalanish namunalari.–2019.Nasaf Nashriyoti.– 247 6.](#)
9. Djo'rayev M. Fizika o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. — Toshkent: ABU Matbuot — Konsalt, 2015. — 280 b.



DEVELOPING OF INTERCULTURAL COMPETENCE ON THE BASIS OF ICT AT SECONDARY SCHOOL

Regina Abdullayeva

Uzbekistan State World Language University

Department of Applied Aspects of English Language

Abstract. This article is devoted to the problem of the use of information technologies in the formation of intercultural competence at secondary school. Some issues connected with the formation of intercultural competence in the process of teaching foreign communication, taking into account cultural and mental distinctions, which is a necessary condition for the successful dialogue of cultures of native speakers, are mentioned in this thesis.

Key words: intercultural computer presentations, interactive whiteboard, multimedia programs, computer classes, multimedia educational software, the Internet, distance learning.

Introduction

Intercultural competence is a major in the foreign language education system and is aimed at the formation of the "subject of intercultural communication". The formation of educational competences of high school learners, an important place among which is given to the intercultural competence, is considered to be an actual issue of the modern Uzbekistan pedagogical theory and practice.

Intercultural competence has particular importance for modern education, as it is school graduates will carry out not only intercultural communication in the professional sphere, but also solve the problems of the formation and development of intercultural competence in their future professional activity. A modern education is designed to meet the challenges of educating a cross-cultural personality, and also to provide the readiness of graduates to interact with other people in the process of exchanging cultural values, knowledge, and ways of activity. The use of various information technologies in foreign language classes plays a great role in the development of learners' intercultural competence.

Literature review

In the "post-ist"-ist paradigm (post-communist, post-colonial, post-modern), the ethos of our times is hard to pinpoint in terms of standardized phenomena and stable dimensions. This state of instability, which is manifest at political, economic, social, and cultural levels, breeds ambiguity and makes human life more complex. If there is anything that one can predict, that is the likelihood of change. Geert Hofstede (2010), in his unpacking of cultural differences,

analyzed the attitude that people from different cultures have towards ambiguity. The two variations that he identified are “high uncertainty avoidance” and “low uncertainty avoidance” (p. 190). Nowadays, it is quite problematic to remain in a high uncertainty avoidance paradigm. Rather than avoid uncertainty, one is more or less compelled to develop intercultural competence and thus learn how to adapt to ambiguity. In this section, we briefly tackle the issue of intercultural competence and the challenges posed by the objective of developing it in a formal educational setting.

Situations of intercultural encounter are intrinsically ambiguous, and how one deals with the unknown and the unfamiliar gives an estimate of his or her competence as an intercultural communicator. Starting from the model of the Common European Framework of Reference for Languages, scholars of culture have designed similar grids to define and assess intercultural communication. Byram’s pioneering research in the 1990s, materialized in his book entitled *Teaching and Assessing Intercultural Competence* (1997), inspired other academics to work on definitions of intercultural communication and on the dimensions along which it can be measured. Of the several definitions available, one of the most recent and most comprehensive is given by Paul Catteeuw (2012):

Method

The current research is thought to be descriptive. The research focuses on defining the possibility of teaching foreign languages in the target language at schools in the Uzbekistan context. The object of the study is the implementation of teaching learners and teachers for revealing the advantages of intercultural competence on the basis of ICT in methodology, through which different strategies will be able to gain the target language more efficiently.

Based on this theoretical framework, the current study tried to answer the following questions:

1. Which principles could be helpful in developing intercultural competence in Uzbekistan?
2. What role might ICT play in developing learners' and teachers' intercultural competence at secondary school?
3. What can develop of intercultural competence on the basis of ICT contribute to English teaching in Uzbekistan at secondary school?

In this study, two main data collection methods were used: a written survey questionnaire and semi-structured interviews. A survey of selected school №164 in Tashkent was used to study how and to which the use of different modern approaches for developing learners' and teachers' intercultural skills influences performance in English. The practical part also aims to discover if all learners and teachers felt involved in the lessons and activities, if the offer of materials and topics was interesting to learners and teachers, and if the overall atmosphere in the lessons was pleasant and contributed to their four language skills improvement.

The subjects of the research are the ninth-grade (secondary school) learners and teachers of school №164. Secondary school consists of 36 learners and 16 teachers. There are 16 boys

and 20 girls. The learners and teachers of school №164, especially in secondary school, have an average achievement in English. We gathered the ninth-grade learners from two schools in control and experimental groups together in the process of conducting our scientific investigation (experiment) in order to attain the principal methodological considerations. In fact, the learners and teachers in secondary school have difficulties in comprehension genre. There are variations in the learners and teachers' achievement. There are some learners and teachers who have higher achievement than others. There are also some learners and teachers with average achievement. There are learners and teachers with below-average achievement in the comprehension of text.

The researcher develops a questionnaire for the teachers of separate English skills. The purpose of the questionnaire is to identify what levels they teach and what kind of listening and speaking strategies and materials are used at different levels. In addition, in the questionnaire, they are asked whether they use different techniques while leading the lesson, and their opinions about teaching intercultural. The questionnaire is not so difficult to complete as it contains only five questions. The instructors just have to write their own points of view. In addition, at the end of each lesson, the researcher asks learners to write their own feedback on a sheet of paper in order to analyze whether the learners were satisfied with the lesson and which part or activity they liked most and whether it was difficult to accomplish the tasks.

Findings

This chapter lays out the results from the questionnaire, dealing with both closed-ended and open-ended questions, as well as presents the emerging themes from the interviews. The themes generated from both the questionnaire and the interviews are discussed under four major categories; namely, attitudes towards English and ELT profession, concerns over the problems inherent in English teaching in Uzbekistan, desire for changes in English teaching in Uzbekistan, understanding of ICT and its potential for English teaching in Uzbekistan, and finally difficulties and challenges in implementing ICT in Uzbekistan.

When asked about their attitude towards English language and English teaching profession, all of the interview respondents expressed that they had a positive attitude towards English in general. They reported that they had keen interest in learning English when they were learners, which thus led them to choose Foreign Languages as their specialization in high school. In response to why he chose English language teaching profession, Uktam Saidov revealed the following information:

I chose this profession simply because I had genuine interest in learning and teaching English. I had been learning English for about seven years when I decided to become an English teacher, and I had always loved learning this language (Uktam Saidov, March, 2021).

A similar high level of integrative motivation was expressed by another teacher in the following way:

The underlying reason for me to choose ELT profession dates back to my middle school years when I had an American pen friend. I used to write pages of letters to my friend using an

old dictionary. We used to share lots of cultural information. This experience aroused a genuine interest in me to further learn English. I also spent most of my time at the American Cultural Association at the time. I just loved English (Feruza Samandarova, March 28, 2021).

Yet, two of the respondents articulated that they had somewhat instrumental motivation towards learning English. They believed that the knowledge of two languages, i.e. Uzbek and English, would be useful in securing a high-paying job. In this respect, teaching English, as compared to teaching another subject, is considered to be more prestigious and English teachers earn more money than their colleagues who teach other subjects.

Literature review. Almalki and Aziz (2021) provide a comprehensive overview of the benefits and challenges of using AI in English language teaching. They emphasize how AI tools such as chatbots and intelligent tutoring systems personalize learning, enhance learner engagement, and provide immediate feedback. However, they also mention challenges such as limited teacher training, high costs, and potential overreliance on technology. Godwin-Jones (2019) discusses the broader implications of incorporating AI into language learning. He suggests that AI can support individualized learning paths and improve assessment accuracy, but also raises ethical concerns, especially regarding data privacy and algorithmic bias.

This article underscores the need for a balanced and thoughtful integration of AI tools in classrooms. ¹³²Li, Wang, and Yu (2022) conducted a systematic review of current research trends in AI-assisted language learning. Their findings show that most studies focus on pronunciation training, grammar correction, and automated writing feedback. They also call for more research on long-term learning outcomes and the role of teachers in AI-mediated environments. Kukulska-Hulme (2020) explores the role of mobile and AI technologies in

¹³² Li, Y., Wang, X., & Yu, Z. (2022). *AI-assisted Language Learning: A Systematic Review of Research Trends and Emerging Topics*. *Computer Assisted Language Learning*, 1-25. <https://doi.org/10.1080/09588221.2022.2031510>

language education. She points out that mobile-assisted language learning (MALL), when combined with AI, offers more contextual and adaptive learning experiences. Her research highlights how mobile platforms can deliver just-in-time language support using AI-driven recommendations.

Yang, Zhang, and Lee (2020) provide an analytical overview of the application of AI in language education. They emphasize the potential of AI in improving learners' motivation, monitoring progress, and creating interactive learning environments. Nonetheless, they caution that the effectiveness of these technologies heavily depends on their pedagogical design and implementation. Meurers and Dickinson (2017) take a linguistic and educational perspective, focusing on how AI systems process language and provide feedback. They argue that while current AI systems are effective in handling surface-level errors, deeper linguistic understanding remains a challenge. This article contributes a more critical view of the technical limitations of AI.

The reviewed literature collectively illustrates that Artificial Intelligence is transforming traditional language teaching into a more learner-centered and adaptive experience. Several AI-driven tools, such as chatbots, virtual assistants, intelligent tutoring systems, and automated writing evaluators, are being implemented to provide personalized instruction, real-time feedback, and dynamic learning environments.¹³³ From the analysis of Almalki and Aziz (2021), it is evident that AI enhances engagement and efficiency in language acquisition, especially when tailored to individual learner needs. Moreover, Li et al. (2022) emphasizes the dominance of AI in areas such as pronunciation, grammar correction, and writing assistance, which suggests that AI excels in managing mechanical aspects of language learning.

On the other hand, studies such as those by Meurers and Dickinson (2017) and Godwin-Jones (2019) point to existing limitations. While AI can offer surface-level linguistic support, it still lacks deep understanding of discourse, pragmatics, and cultural nuance—areas where human teachers remain indispensable. Another important analytical point is the role of teachers in AI-integrated classrooms. Ethical concerns such as data privacy, student dependency on technology, and bias in AI algorithms also emerged as significant themes. These factors underline the importance of responsible AI integration in education.

Moreover, the **automation of feedback and assessment** has been a revolutionary change in the language learning process. Tools that use Natural Language Processing (NLP) can evaluate written and spoken language, detect grammatical errors, suggest vocabulary improvements, and even assess pronunciation accuracy. In addition to individual learning, AI also facilitates **collaborative learning environments**. Through virtual assistants and chatbots, learners can simulate real-life conversations and receive instant feedback. These AI tools not only enhance speaking and listening skills but also reduce anxiety, especially for shy or

¹³³ Almalki, A., & Aziz, M. S. A. (2021). *Artificial Intelligence in English Language Teaching: Benefits and Challenges*. Arab World English Journal (AWEJ), 12(3), 121-136. <https://doi.org/10.24093/awej/vol12no3.8>

introverted students. Godwin-Jones (2019) emphasizes the motivational factor of AI, noting that gamified elements and adaptive learning paths help sustain learner interest and encourage regular practice.

However, despite these advancements, there are still **notable limitations and challenges**. AI technologies are not yet capable of understanding complex linguistic features such as sarcasm, idioms, or cultural context. As ¹³⁴Meurers and Dickinson (2017) note, current AI systems are effective in identifying and correcting surface-level linguistic errors but struggle with deeper linguistic and communicative competence.

Another critical aspect is the **role of teachers** in AI-enhanced classrooms. ¹³⁵As Kukulska-Hulme (2020) suggests, the teacher's role is evolving from a sole source of knowledge to that of a facilitator and technology integrator. This requires a shift in teacher training programs to include digital literacy and AI awareness. Without adequate preparation, teachers may either underuse or misuse AI tools, reducing their potential effectiveness in supporting learning.

Ethical and practical issues also emerge when implementing AI in language education. Concerns regarding data privacy, surveillance, and algorithmic bias must be addressed to ensure safe and equitable learning environments. ¹³⁶Zawacki-Richter et al. (2019) warn that while AI technologies are advancing rapidly, the ethical frameworks and educational policies required to support them are lagging behind.

In conclusion the analysis of current studies and applications of AI in language teaching highlights both its transformative potential and its limitations. AI technologies have proven to enhance language learning by offering personalized content, improving speaking and listening skills, and providing immediate feedback. As AI continues to evolve, its integration into language teaching must strike a balance between technological innovation and the irreplaceable value of human interaction. Future research should explore ways to refine AI tools to better support authentic language use, while addressing concerns about accessibility, equity, and the pedagogical role of the teacher.

REFERENCES

1. Almalki, A., & Aziz, M. S. A. (2021). *Artificial Intelligence in English Language Teaching: Benefits and Challenges*. Arab World English Journal (AWEJ), 12(3), 121-136. <https://doi.org/10.24093/awej/vol12no3.8>

¹³⁴ Meurers, D., & Dickinson, M. (2017). *Evidence and Interpretation in Language Learning Technologies: Linguistic and Educational Perspectives*. Language Learning, 67(S1), 66–93. <https://doi.org/10.1111/lang.12233>

¹³⁵ Kukulska-Hulme, A. (2020). *Mobile and Artificial Intelligence Technologies in Language Learning: Future Research and Practice*. System, 94, 102124. <https://doi.org/10.1016/j.system.2020.102124>

¹³⁶ Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). *Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education—Where are the educators?* International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16(1), 1–27. <https://doi.org/10.1186/s41239-019-0171-0>

2. Godwin-Jones, R. (2019). *Incorporating AI into language learning*. Language Learning & Technology, 23(3), 4–15. <https://doi.org/10125/44669>
3. Kukulska-Hulme, A. (2020). *Mobile and Artificial Intelligence Technologies in Language Learning: Future Research and Practice*. System, 94, 102124. <https://doi.org/10.1016/j.system.2020.102124>
4. Li, Y., Wang, X., & Yu, Z. (2022). *AI-assisted Language Learning: A Systematic Review of Research Trends and Emerging Topics*. Computer Assisted Language Learning, 1–25. <https://doi.org/10.1080/09588221.2022.2031510>
5. Meurers, D., & Dickinson, M. (2017). *Evidence and Interpretation in Language Learning Technologies: Linguistic and Educational Perspectives*. Language Learning, 67(S1), 66–93. <https://doi.org/10.1111/lang.12233>
6. Yang, J. C., Zhang, J., & Lee, S. (2020). *Application of Artificial Intelligence in Language Education: A Review*. Journal of Educational Technology & Society, 23(1), 13.



O‘QUVCHI-YOSHLARNI OILAGA NISBATAN MA’NAVIY-AXLOQIY VA QADRIYATLI MUNOSABATLARGA TAYYORLASHDA PEDAGOGNING FAMILISTIK KOMPETENTLIGI

Xaydarov Oxinjon Murodjonovich
Qo‘qon davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda pedagogning familistik kompetentligi hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, o‘quvchi-yoshlarga globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarga nisbatan yuzaga keladigan qiyinchiliklar, yangi ilmiy bilimlarning paydo bo‘lishi, yangi qadriyatlar va xulq-atvor normalari shakllanishi – bularning hammasi ota-onalar uchun yangi ta’lim shakllari va uslublarini izlashga tushishga imkon berishi hususida fikrlar ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. o‘quvchi-yoshlar, globallashuv, tarbiyaviy faoliyat, kompetentlik, familistik kompetentlik, pedagog, professional-pedagogik kompetentlik.

СЕМЕЙНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ УЧИТЕЛЯ В ПОДГОТОВКЕ УЧАЩИХСЯ К НРАВСТВЕННЫМ, НРАВСТВЕННО-ЦЕННОСТНЫМ ОТНОШЕНИЯМ К СЕМЬЕ

Аннотация. В статье излагаются некоторые размышления о фамилистической компетентности учителя в подготовке молодых учащихся к духовно-нравственным и ценностным отношениям с семьей. В статье также рассматриваются трудности, с которыми сталкиваются молодые люди в отношении семейных ценностей в условиях глобализации, появления новых научных знаний, формирования новых ценностей и поведенческих норм, что дает возможность родителям искать новые формы и методы воспитания.

Ключевые слова: учащаяся молодежь, глобализация, образовательная деятельность, компетентность, семейная компетентность, учитель, профессионально-педагогическая компетентность.

FAMILY COMPETENCE OF THE TEACHER IN PREPARING STUDENTS FOR MORAL, MORAL AND VALUE-BASED RELATIONSHIPS TOWARDS THE FAMILY

Abstract. This article presents some thoughts on the familistic competence of a teacher in preparing young students for spiritual, moral and valuable relationships with their family. The article also discusses the difficulties that young people face in relation to family values in the context of globalization, the emergence of new scientific knowledge, the formation of new values and behavioral norms - all of which provide an opportunity for parents to search for new forms and methods of education.

Keywords: students-youth, globalization, educational activity, competence, familistic competence, teacher, professional-pedagogical competence.

Kirish. Hozirgi sharoitda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyatida kompetentli paradigma katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash masalasi bilan shug‘ullanuvchi pedagoglar faoliyatida familistik kompetentlik pedagogning o‘zining mahoratini takomillashtirishda professional-pedagogik kompetentlikning muhim qimmatli aspekti sifatida sezilarli ahamiyat kasb etadi. Familistik kompetentlik quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- kognitiv komponent;
- operasion-faoliyatga doir komponent;
- qiymatli-ma’naviy komponent;
- ijodiy faoliyatga doir komponent.

Familistik kompetentlikni shakllantirish odatda bo‘lg‘usi pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonida turli shakl, metod va texnologiyalarni qo‘llash asosida amalga oshiriladi. Metodlar va shakllar pedagogik texnologiyalarga tizimlashtiriladi: kasbiy vaziyatning hayotiy vaziyatga transformasiyasi, o‘qitish amaliyotini yoki oila hayotini modellashtiruvchi imitasion texnologiyalar (mikrosaboq berish, ishbilarmonlik o‘yini, syujetli o‘yin).

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda pedagoglarning familistik kompetentligi quyidagi kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi:

- o‘quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash masalalari bo‘yicha pedagoglarni tayyorlashning nazariy, ilmiy-metodologik darajasini oshirish;
- o‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning dasturiy-metodik yo‘l-yo‘rig‘ini yaratish, bu takomillashuvga va ushbu ish samaradorligi oshishiga ko‘mak beradi;
- o‘quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga yagona prinsipial yondashuvlarni bajarishni ta’minlash;
- o‘quvchilarning oilasi bilan o‘zaro munosabatini, shuningdek, oilalar bilan pedagogik ishlash mazmunini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy bazani o‘rganish;
- o‘quvchi-yoshlarning oilasi bilan ishlash bo‘yicha kasbiy kompetentlikni takomillashtirish maqsadida pedagoglarning motivasion jabhasini shakllantirish;

- oilaviy tarbiya bo‘yicha ilg‘or pedagogik tajribani umumlashtirish, tizimlashtirish va keng yoyish;

- zamonaviy dunyoda oilaviy qadriyatlarning o‘zgaruvchan tizimida pedagoglarni zamonaviy tarbiya texnologiyalari, ota-onalar va oila bilan ishlashning zamonaviy shakllari va metodlariga oid bilimlar bilan qurollantirish;

- o‘quvchi-yoshlar orasida ularda oilaga nisbatan ma‘naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash yo‘nalishidagi tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va tahlil qilishni muvofiqlashtirish;

- ota-onalar bilan ishlash bo‘yicha pedagogik jamoa a‘zolarining tarbiyaviy ishi natijalarini baholash;

- manzilli metodik yordam (guruhli va individual konsultasiyalar, murabbiylik, stajerlik amaliyoti) ko‘rsatish;

- o‘quvchi-yoshlarning ota-onalari bilan ularning farzandlari o‘rtasida oilaga nisbatan ma‘naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarni tarkib toptirish bo‘yicha samarali hamkorlikni amalga oshirish.

Muhokama va natijalar. O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma‘naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda pedagogning familistik kompetentligi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

subyektlik tamoyili shaxsiy tajribaga daxldor bo‘lib, bunda ota-ona tahsil jarayonida faol ishtirok etadi;

manzillilik tamoyili esa farzand, oilaning tarbiya borasidagi salohiyati, o‘ziga xosligi, shuningdek, pedagogika doirasida ota-onalarning qo‘llab-quvvatlovga qobiliyatini hisobga oladi;

muammolilik tamoyili oilada ziddiyatlar mavjud bo‘lgan vaziyatga ehtiyojni aniqlashni ko‘zda tutadi;

hamkorlik tamoyili pedagog va oilaning to‘laqonli munosabati chog‘ida, maqsadlarni kelishib olish va birgalikda rivojlantirish nuqtai nazaridan pedagogik jamoa tomonidan qo‘llab-quvvatlanishida namoyon bo‘ladi;

O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma‘naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash bo‘yicha ota-onalarni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashlari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- o‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma‘naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash bilan bog‘liq muammolarni ota-onalar majlislarida muhokama qilish;

- o‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma‘naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash muammolari yuzasidan ota-onalarning bilimlarini generasialash bo‘yicha ular uchun imitatsiyalangan interfaol mashg‘ulotlar o‘tkazish, bahs-munozara va davra stollari tashkil etish;

- ota-onalarni tadqiqot muammolari bo‘yicha mutaxassislar bilan konsultasiyalar, uchrashuvlar shaklida individual qo‘llab-quvvatlash;

- ota-onalarning ular uchun mo‘ljallangan pedagogik mutolaalarda ishtirok etishi.

O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda sinf rahbari bilan ota-onalarning birgalikdagi faoliyati, ikkala tomon ham bolaning tarbiyalanganlikka ega bo‘lishidan, unda yaxshi sifatlarni va xususiyatlarni shakllanishidan, rivojlanishidan, ochilishidan manfaatdor bo‘lib, bunday o‘zaro harakatning asosida o‘zaro ishonch va hurmat, qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish, bir-biriga nisbatan toqatlilik prinsiplari yotadi. Bu esa sinf rahbari va ota-onalarga o‘quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish hamda birgalikda harakatlanishga imkon beradi.

Umumta’lim maktablari va oila hamkorligi – sinf rahbari, fan o‘qituvchilarining maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati natijasidir, u oilani har tomonlama va tizimli o‘rganishni, oilaviy tarbiyani va uning o‘ziga xosligini bilishni nazarda tutadi. Agar sinf rahbari tomonidan hamkorlikdagi pedagogik usullar to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa, u, ota-onalar va o‘quvchilardan tashkil topgan “pedagogik uchlik”ning ishi muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Mazkur uchlik hamkorlikda ish olib boradigan bo‘lsa, tarbiya jarayonida paydo bo‘ladigan har qanday muammoni bartaraf eta oladi. Boshqacha aytganimizda bu masalani yechishda ikkita aspektni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin: alohida oilalarda tarbiyani moslashtirib korrektsiyalab borish; notinch oilalar bilan sinf rahbari, maktab psixologini ish olib borishi.

O‘quvchi-yoshlarga globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarga nisbatan yuzaga keladigan qiyinchiliklar, yangi ilmiy bilimlarning paydo bo‘lishi, yangi qadriyatlar va xulq-atvor normalari shakllanishi – bularning hammasi ota-onalar uchun yangi ta’lim shakllari va uslublarini izlashga tushishga imkon beradi. Ular turli-tuman bo‘lishi mumkin: pedagogik ishni amalga oshirish, psixolog yordami va boshqalar. Aytib o‘tilganlarga qo‘shimcha sifatida psixologik xizmatning ota-onalar bilan ishlash metodlari maydonga chiqadi: individual suhbatlar, maslahatlashuvlar psixologik tavsifini aniqlash imkonini beruvchi ota-onalar maktabi.

O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda pedagoglarning familistik kompetentligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- pedagog tomonidan oilaning umuminsoniy qiymati va shaxs kamolotidagi ahamiyati anglab yetilishi;
- oilaning ko‘p jabhali va yarim funksionalligini tushunib yetish;
- oilaviy munosabatlar madaniyati, maishiy ko‘nikmalar, qarindoshlar va yaqin insonlar bilan muloqot qilish mahoratini kasb etish;
- o‘quvchi-yoshlarning turli tipga mansub oilalari bilan konstruktiv munosabatga kirishish ko‘nikmasini orttirish;
- axloq me‘yorlarini (taktikaviylik, ota-onalar tuyg‘ulariga nisbatan hurmat va boshqalar) hamda o‘quvchi-yoshlarda bo‘lajak oilaparvar sifatlarini tarbiyalashda zarur kasbiy kompetensiyalarni egallash.

O‘qituvchilarning o‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga yo‘naltirilgan faoliyati o‘quvchi bilan o‘zaro hamkorlikka asoslangan munosabatni shakllantirish olishlari, ular bilan do‘stona muloqot o‘rnatish olishlarida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi o‘zi jamiyat a‘zolari va ajdodlarimiz tajribasini o‘quvchilarga tizimli tarzda taqdim etuvchi subyekt hisoblanadi. O‘qituvchining o‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga yo‘naltirilgan faoliyati muayyan bosqichlarga ega.

O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma‘naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashda o‘qituvchining tajribalari, nuqtai nazarlari uning o‘zligi va kasbiy faoliyatiga bog‘liqdir. O‘quvchilarni an‘anaviy rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik vaziyatlarda o‘qituvchining kasbiy layoqati, oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati, ijtimoiy tajribasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda o‘qituvchi turli usullardan foydalanadi va qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘llarini belgilaydi.

Bu esa o‘z navbatida o‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma‘naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini modellashtirish imkonini beradi.

M.T.Isaqovanning ta‘biricha, o‘quvchining harakati xulq-atvorning retseptiv modelidan konseptual modeligacha bo‘lgan tizimni qamrab oladi. Bu jarayon o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy rivojlantirishning qadriyatlarga asoslangan mezonini bo‘lib hisoblanadi. O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma‘naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashga yo‘naltirilgan faoliyati, ushbu jarayonda qo‘llaniladigan o‘quv materiallari, turli axborotlar ularning dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma‘naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash natijasida ularni samarali ijtimoiylashtirish imkoniyati vujudga keladi. Pedagogik muloqot subyektlarining o‘z-o‘zlarini rivojlantirishlari o‘zaro aloqador jarayonlarda o‘qituvchining familistik bilimdonligi o‘quvchilarni rivojlantirish omili sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchining rivojlanish darajasi esa, yangicha munosabatlarga kirishishni talab qiladi. Bunday munosabatlar o‘zaro aloqaning yangi ko‘rinishlarida ifodalanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishini taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika: darslik / Oliy ta‘lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.
2. Yusupov E. Inson kamolotining ma‘naviy asoslari. -T.: Universitet, 1998. -184 b
3. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 246 b
4. Xolmatov M. Oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirish va sog‘lom avlodni tarbiyalash muammolari. Dis. ... fal. fan. nom. – T.: 1998. – 340 b.
5. Xodjayev B.X. Umumta‘lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta‘minot vositasida rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2016. – 314 b.



HOFIZ XORAZMIYNING IJODIY MEROSI TA‘LIM TIZIMGA JORIY ETISH IMKONIYATLARINING NAZARIY TAHLILI

Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna

Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

shukurjonyeldashbayevna@gmail.com

ORCID: 0009-0006-3301-0776

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hofiz Xorazmiyning boy ijodiy merosini zamonaviy ta‘lim tizimi bilan uyg‘unlashtirish, ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim uchun pedagog kadrlar tayyorlash doirasida uni metodik jihatdan o‘rganish, o‘quv mashg‘ulotlariga moslashtirish va o‘quvchi-talabalarning yosh imkoniyatlarini inobatga olgan holda bosqichma-bosqich taqdim etish masalalari nazariy jihatdan ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Hofiz Xorazmiy, devon, ta‘lim tizimi, boshlang‘ich ta‘lim, didaktika, axloqiy qadriyatlar, nazariy tahlil.

Аннотация. В данной статье теоретически рассматриваются вопросы интеграции богатого творческого наследия Хафиза Хорезма в современную систему образования, особенности его методического изучения в рамках подготовки педагогических кадров для начального образования, адаптации к образовательной деятельности, поэтапности подачи с учетом возрастных возможностей учащихся.

Ключевые слова: Хафиз Хорезм, диван, система образования, начальное образование, дидактика, нравственные ценности, теоретический анализ.

Annotation. This article theoretically examines the issues of integrating the rich creative heritage of Hafiz Khorezm with the modern education system, especially its methodological study within the framework of training pedagogical personnel for primary education, adaptation to educational activities, and gradual presentation, taking into account the age capabilities of students.

Keywords: Hafiz Khorezm, divan, education system, primary education, didactics, moral values, theoretical analysis.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, ta‘lim tizimi tubdan isloh qilinib, jahon tajribasi va zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi [1] doirasida amalga oshirilayotgan ta‘lim islohotlarida har bir shaxsning sifatli ta‘lim olish huquqini ta‘minlash,

yoshlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratish, shuningdek, jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish strategik ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan.

Mazkur jarayonda milliy qadriyatlar, yuksak madaniy meros va tarixiy tajribaning ta’lim mazmuniga integratsiyalashuvi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jumladan, Sharqning buyuk allomalari, yozuvchi va shoirlari, xususan Hofiz Xorazmiy shaxsiyati va ijodini turli ta’lim bosqichlarida o‘rgatish orqali o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy, badiiy-estetik va intellektual qobiliyatlarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bu yondashuv nafaqat bilim berish, balki shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi keng qamrovli tarbiya jarayonini tashkil etishda ham muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim tizimining huquqiy va tashkiliy asoslari mustahkam belgilab berilgan bo‘lib, unda “ta’lim yetti turga ajratilgan” [2]. Mazkur qonun asosida umumiy o‘rta ta’lim bosqichi uch tarkibiy bo‘g‘indan – boshlang‘ich, tayanch o‘rta va o‘rta ta’limdan iborat bo‘lib, bu bosqichlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini izchil shakllantirishga xizmat qiladi.

Xususan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning ijodiy salohiyati dastlabki bosqichlardan oq – boshlang‘ich sinflardan boshlab yuzaga chiqib boshlaydi. Biroq, bu salohiyatning to‘liq shakllanishi va rivojlanishi faqatgina puxta rejalashtirilgan, metodik jihatdan asoslangan va zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonlari orqali amalga oshiriladi. Ijodiy tafakkurni, mustaqil fikrlashni hamda estetik didni rivojlantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar asosida olib boriladigan ta’lim jarayoni orqali ta’minlanadi. Muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlar, tadqiqotga asoslangan o‘quv faoliyati va adabiy-badiiy asarlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyati shakllantiriladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ijodiy salohiyatning rivojlanishi individual iste’dod bilangina emas, balki o‘quv muhitining uyg‘unligi, samarali metodik yondashuvlar, madaniy-estetik tarbiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu boisdan, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi va idrok qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, har bir ta’lim bosqichiga mos yondashuv va metodlar ishlab chiqilishi muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarga yuqori sifatli, nazariy va amaliy jihatdan puxta tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lish talabi qo‘yiladi. Chunki bilimli, fikrlay oladigan yosh avlodni tarbiyalash uchun, avvalo, malakali va fidoyi ustozlar zarur. Shunday ekan, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha sifatli ta’lim berish, ularning kasbiy kompetensiyalarini doimiy ravishda takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Sharq uyg‘onish davri allomalari tomonidan ilgari surilgan didaktik qarashlar va ularning asarlarida ifodalangan yuksak ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar bugungi zamonaviy ta‘lim tizimi uchun nafaqat tarixiy, balki dolzarb ilmiy, ma‘rifiy va tarbiyaviy manba sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu qadriyatlar, xususan, shaxs kamolotini shakllantirish, umuminsoniy ezgu g‘oyalarni yosh avlod ongiga singdirish, yuksak axloqiy idealga yo‘naltirishda muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu jihatdan olib qaralganda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimida boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida mazkur ilmiy-ma‘naviy merosga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, “Boshlang‘ich ta‘lim” (60110400) bakalavriat yo‘nalishi hamda “Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta‘lim)” (70110501) magistratura mutaxassisliklari[3] doirasida shaxs kamolotini ta‘minlashga xizmat qiluvchi yondashuvlar kengaytirilmoqda. Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha darsliklar va ilmiy qo‘llanmalarda (A.Zunnunov[4], J.Hasanboyev[5], K.Hoshimov[6], O.Hasanboyeva[7], X.Ibragimov[8] va boshqalar tomonidan yaratilgan) Sharq allomalari qarashlari muayyan darajada yoritilgan bo‘lsa-da, Hofiz Xorazmiy merosining tarbiyaviy-didaktik jihatlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu esa, mazkur mutafakkirning asarlaridagi ma‘naviy-estetik g‘oyalarni chuqur ilmiy o‘rganish va ularni amaldagi pedagogik jarayonlarga tatbiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida yangi avlod darsliklarini yaratish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida metodik materiallarni ishlab chiqish va ularni o‘quv jarayoniga kompleks joriy etish muhim vazifa sifatida ilgari surilmoqda. Bu darsliklarda nafaqat ilmiy-didaktik yondashuvlar takomillashtirilmoqda, balki interfaollik, tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi zamonaviy pedagogik tamoyillar ustuvorlik kasb etmoqda. O‘quvchilarning bilim darajasini baholashda esa an‘anaviy yondashuvlardan tashqari, ularning funksional savodxonligi, kompetensiyalari, shaxsiy sifatlari hamda ijodiy faoliyati ham baholash mezonlariga kiritilmoqda. Ta‘lim zamon talablari asosida shakllanib, o‘quvchilarning kreativ tafakkuri, guruhda ishlash ko‘nikmalari, tashabbuskorlik, mustaqil qaror qabul qilish, kommunikativ va ijtimoiy faollik kabi shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishni ta‘limning ustuvor yo‘nalishi sifatida ilgari surmoqda. Endilikda ta‘lim jarayoni faqat an‘anaviy bilim berish bilan cheklanmasdan, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, mustaqil fikr yuritishiga va keng dunyoqarashga ega bo‘lishiga xizmat qiluvchi ijodiy va interaktiv muhitni yaratishga qaratilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, noan‘anaviy dars metodlari, zamonaviy didaktik texnologiyalar, o‘quvchilarning faolligini oshiruvchi yondashuvlar ta‘lim sifatini oshirishda muhim vosita sifatida e‘tirof etilmoqda. Bunga A.T.Boltayeva[9], G.A.Mamatova[10], N.Sh.Ruzikulova[11], U.A.Usmonova[12], Sh.T.Boltayeva[13] va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari yaqqol dalil bo‘la oladi. Ularning tadqiqotlari boshlang‘ich ta‘limda adabiy tushunchalarni shakllantirish jarayoni ta‘lim sifatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishini isbotlagan. Jumladan, adabiy savodxonlik, badiiy-estetik did, mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalari va obrazli tafakkur

o‘quvchilarning ijodiy rivojlanishida markaziy o‘rin egallaydi. Bu esa, o‘z navbatida, boshlang‘ich sinflarda adabiy-badiiy meros asosida ijodiy tafakkurni shakllantirishni ta‘lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida qarashni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Bugungi kunda amaliyotda kuzatilayotgan holatlardan biri shuki, boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari adabiy tushunchalarni o‘quvchilarda shakllantirish jarayonida uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan ilmiy-metodik yondashuvlarning yetarli darajada tizimlashtirilmaganidan metodik jihatdan qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu holat, o‘z navbatida, o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, adabiy matnlarni anglash, ularni tahlil qilish hamda estetik idrok qilish kompetensiyalarining shakllanish jarayonida sezilarli to‘siqlarga olib kelmoqda. Xususan, mavjud o‘quv dasturlarida va darsliklarda adabiy ta‘limning sinfdan sinfga uzviy o‘tishini ta‘minlovchi yondashuvlar yetarlicha izchil ishlab chiqilmagan. Bu esa, boshlang‘ich ta‘lim tizimida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv, mustaqil xulosa chiqarish va ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishda ma‘lum darajadagi bo‘shliqlarni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur vaziyatda o‘quvchilarning milliy adabiyotga, ayniqsa Sharq allomalari merosiga bo‘lgan munosabatini shakllantirish orqali ularning ma‘naviy olamini boyitish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda G.A.Mamatova tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar bu jarayonning uzluksizlik prinsiplariga asoslanishi va sinfdan sinfga bosqichma-bosqich rivojlantirilishi zarurligini ko‘rsatadi. [10; 25-26 b.] Tadqiqotchi A.T.Baltayeva esa adabiy ta‘lim samaradorligini baholashda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajasini mezon sifatida ilgari suradi. [9; 23 b.] Mazkur yondashuvlar zamirida o‘quvchilarning adabiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, asarlar mazmunini chuqur anglash va ulardan ijtimoiy-hayotiy saboq chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish yotadi.

Shuningdek, boshlang‘ich ta‘limda Sharq allomalari, mutafakkir va ijodkorlarining asarlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning axloqiy, estetik va ma‘naviy kamolotini ta‘minlash mumkin. Zero, bu asarlar insonparvarlik, haqiqatparastlik, adolat, mehr-oqibat, sabr-toqat kabi yuksak axloqiy mezonlarni targ‘ib etib, yosh avlod qalbida ezgulik urug‘larini qadash imkonini beradi. Ularni dars jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilar faqat bilim emas, balki milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida shakllangan dunyoqarashga ega bo‘lishadi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ijodiy kechalar, adabiy-ma‘rifiy tadbirlar, buyuk allomalar tavalludiga bag‘ishlangan tematik mashg‘ulotlar o‘quvchilarning milliy o‘zlikni anglashiga, tarixiy merosga bo‘lgan hurmatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu fikrlarni U.A.Usmonova A.R.Hamroyev g‘oyalariga tayangan holda asoslab beradi. [12; 21 b.] Unga ko‘ra, bu kabi faoliyat turlari nafaqat didaktik vazifalarni bajaradi, balki bolalarda mustaqil fikr yuritish, mushohada va mulohaza qilish kabi intellektual kompetensiyalarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, bu jarayonlar o‘quvchilarda yangi axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning milliy va umuminsoniy madaniyat, tarix,

an‘analalar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bu jarayon ularni tahlil qilish, solishtirish va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqotchi N.Sh.Ruzikulova bu jarayonning ahamiyatini “milliy an‘analalar, vatan tarixi, buyuk allomalar, milliy va umuminsoniy madaniyat haqida axborotlarni ega bo‘lish va boyitish borish” [11; 26 b.] bilan izohlaydi. Tadqiqotchi fikricha, o‘quvchilar o‘z milliy tarixini, madaniyatini, buyuk ajdodlarining ilmiy-ma‘naviy merosini chuqur anglab etgan taqdirdagina, ular tanqidiy fikrlovchi, bilimdon va mas‘uliyatli shaxs sifatida shakllanadi.

Zero, boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarning nazariy va amaliy jihatdan puxta, sifatli tayyorgarlikka ega bo‘lishi — adabiy ta‘lim jarayonini milliy qadriyatlar, didaktik tamoyillar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning har tomonlama yetuk, ma‘naviy barkamol va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Tahlil va natijalar.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan pedagoglar nafaqat o‘quvchilarga bilim berish, balki ularning ma‘naviy-axloqiy kamolotiga ham mas‘ul bo‘lib qolmoqda. Zamon o‘zgargani sari yosh avlod qalbini ma‘rifat, axloq va estetik did bilan sug‘orish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, biz faqat o‘quv dasturlari yoki zamonaviy metodikalar bilan cheklanib qolmasligimiz kerak. Aksincha, boy tarixiy-ma‘naviy merosimizning yuksak namunalarini zamonaviy ta‘limga tatbiq etish orqali, o‘quv jarayonini chuqurroq, mazmunan boyroq va ko‘proq ruhiyatga ta‘sir etuvchi shaklga olib chiqishimiz lozim. XV asr Xorazm madaniy-adabiy hayoti, o‘ziga xos adabiy maktabi va uning namoyandalari haqida H.Abdullayev hamda boshqa tadqiqotchilarning izlanishlarida bu davr ijodkorlarining shaxs kamoloti haqidagi asosiy qarashlari umumlashtirilgan holda yoritilgan. Tadqiqotlarda, asosan, fors-tojik tilining ustuvorligi va ikki tillilik an‘anasi e‘tirof etilgan bo‘lsa-da, Hofiz Xorazmiy devonining turkiy tilda yaratilgani alohida e‘tiborga loyiqdir. Mazkur devonda go‘zallik va muhabbat timsoli orqali insonning axloqiy barkamolligi, sabr-toqat, adolat va mehr-oqibat kabi yuksak qadriyatlar targ‘ib etilgan.


Didaktika tushunchasi Sharq adabiyotida, xususan, pand-nasihat, hikmatlar, axloqiy o‘gitlar asosiy estetik mezon sifatida namoyon bo‘lgan. Bu jihat, ayniqsa, Sharqning og‘zaki va yozma adabiyotida an‘anaviylik va axloqiy-diniy motivlarning ustuvorligida ko‘zga tashlanadi.

Tadqiqotchi G.V.Izbullayeva didaktik adabiyotlarni adabiy shakliga ko‘ra, quyidagicha tasnif qilish mumkin: nasriy-didaktik asarlar; nasriy-she‘riy didaktik asarlar; she‘riy didaktik asarlarga ajratadi. [14; 49 b.] Mazkur shakliy tasnif, avvalo, didaktik mazmunga ega matnlarning badiiy ifoda vositalari va tuzilmasi bilan bog‘liq jihatlarni yoritadi. Xususan, Hofiz Xorazmiyning turkiy tilda bizgacha yetib kelgan adabiy merosi – devoni, bu jihatdan o‘ziga xos namuna bo‘lib xizmat qiladi. Devon, shaklan to‘liq bo‘lishi bilan birga, turli janrlardagi she‘rlar – qasida, tarkibband, tarji‘band, muxammas, marsiya, g‘azal, mustazod, qit‘a va ruboiylarni [15, 16] o‘z ichiga olgan bo‘lib, o‘z mohiyatiga ko‘ra “she‘riy didaktik asarlar” doirasida ilmiy

tadqiq etilishi mumkin. (1-rasm) Zero, Hofiz Xorazmiy devoni ma’lum darajada didaktik g‘oyalarning she’riy obrazlar orqali badiiy talqin etilishiga asoslanadi.

1-rasm. Hofiz Xorazmiy devonining tuzilishi (Adabiy janrlar oid ma’lumotlar son shaklida ifodalangan).

Bundan tashqari, G.V.Izbullayeva ularni tipologik jihatdan to‘rt asosiy turga ajratgan: axloqiy-didaktik, ma’rifiy-didaktik, falsafiy-didaktik va badiiy-didaktik asarlar. [14; 50 b.] Bu tasnif didaktik asarlarning ko‘p qirraliligini, ularning faqat pedagogik vosita emas, balki madaniy, ma’naviy va estetik qadriyatlarni singdiruvchi adabiy fenomen ekanini ko‘rsatadi. Axloqiy-didaktik asarlar odatda axloqiy fazilatlarni targ‘ib qilsa, ma’rifiy-didaktik asarlar ilm-fan, dunyoqarash va ijtimoiy ongni rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Falsafiy-didaktik asarlar esa inson, borliq, tafakkur va hayotiy haqiqatlar mohiyatini tahlil qilish orqali didaktik vazifani bajaradi. Badiiy-didaktik asarlar esa yuqoridagi elementlarni badiiy estetik shaklda mujassam etadi.



Aynan Hofiz Xorazmiy devonini ushbu tipologik tasnif asosida biror qat'iy guruhga mansubligini belgilash ancha murakkab masala sanaladi. Chunki devondagi she'rlar o'zida bir vaqtning o'zida bir necha didaktik qatlamlarni jamlagan. Masalan, ba'zi misralar axloqiy mazmunga ega bo'lib, insoniy fazilatlarni yoritadi, boshqa she'rlar esa ma'rifiy g'oyalarga urg'u beradi yoki oshiq va ma'shuq obrazlari orqali falsafiy mohiyatdagi tafakkurlarni uyg'otadi. Shu bilan birga, devonda ikkinchi darajali obrazlar, badiiy ifoda vositalari va estetik tamsillar orqali badiiy-didaktik jihatlar ham kuchli namoyon bo'ladi. Shuning uchun Xorazmiy devoni didaktik mazmunini tahlil etishda qat'iy bir guruh doirasida cheklanib qolmaslik, aksincha, axloqiy-ma'rifiy, falsafiy-badiiy va axloqiy-badiiy o'zaro uyg'unlashgan yondashuvlar asosida ilmiy yondashuv zarur bo'ladi.

Natijada, Hofiz Xorazmiy devonini didaktik mazmunli asar sifatida to‘laqonli o‘rganish, uni yuqorida zikr etilgan to‘rt asosiy tipologik yondashuv nuqtayi nazaridan mukammal tahlil qilishni taqozo etadi. Har bir she‘rning ma‘no qatlamlariga, uslubiy xususiyatlariga va obrazli ifoda shakllariga e‘tibor berilgan holda, ularni axloqiy-didaktik, ma‘rifiy-didaktik, falsafiy-didaktik va badiiy-didaktik asarlar doirasida ko‘rib chiqish, Hofiz Xorazmiy ijodining murakkab badiiy tuzilmasini yoritish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, tadqiqotchilarni Xorazmiy merosini ko‘p qirrali, mukammal didaktik poetika namunasi sifatida har tomonlama tahlil qilishga undaydi. Hofiz Xorazmiy devonida mujassam bo‘lgan didaktik yondashuvlar zamonaviy ta‘lim jarayonida yoshlarda ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni shakllantirishda samarali tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Jumladan, devonda ishq–muhabbat mavzusi doirasida ilgari surilgan insoniy fazilatlar badiiy ifoda va hayotiy kontekstda berilganligi sababli, o‘quvchilarning ongiga tabiiy ravishda singdiriladi. Bunday estetik va axloqiy g‘oyalar she‘riy matnlar vositasida o‘zbek xalqining an‘anaviy ma‘naviy mezonlari bilan uyg‘un tarzda aks ettirilgan bo‘lib, ular yoshlar ma‘naviyatini shakllantirish, ruhiy kamolotga erishish va ijtimoiy ongini uyg‘otishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Demak, Hofiz Xorazmiy devonini ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish — bu tarixiy merosni qadrlash emas, balki uni zamonaviy ijtimoiy-ma‘naviy ehtiyojlarga xizmat qiladigan amaliy pedagogik vositaga aylantirishdir. Bu jarayon yosh avlodni milliy madaniyat, til, adabiyot va qadriyatlar orqali tarbiyalashning chinakam imkoniyatlarini ochadi. Shu sababli, bu devonni zamonaviy boshlang‘ich ta‘lim pedagog kadrlarni tayyorlash konsepsiyasi doirasida metodik jihatdan tadqiq qilish, oliy ta‘im mashg‘ulotlariga moslab tanlab o‘rganish va bosqichma-bosqich o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda taqdim etish zarur deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar.

Hofiz Xorazmiy ijodiy merosining ta‘lim tizimiga kiritilishi, uning didaktik g‘oyalari yoshlarning fikrlashini, ijodiy yondashuvini va ma‘naviy kamolotini rivojlantirishga katta hissa qo‘shishi mumkin. Uning “aql” va “ishq” o‘rtasidagi uyg‘unlikka asoslangan ta‘lim metodologiyasi, insonning ma‘naviy rivojlanishida ulkan ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy ta‘lim tizimi uchun yangi yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqishga asos bo‘lishi aniq.

Bundan tashqari, Hofiz Xorazmiy merosining pedagogika tarixiga integratsiyasi, boshlang‘ich ta‘lim uchun pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida, ayniqsa, ta‘lim metodologiyasi va axloqiy tarbiya masalalarida yangi yondashuvlarni yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Zero, bunday ijodiy merosni o‘qitishda, o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularda ma‘naviy kamolotni shakllantirishga ham alohida e‘tibor qaratilishi zarur.

Shu bilan birga, Hofiz Xorazmiyning ijodiy merosini ta‘lim tizimiga joriy etishning bir qancha muhim takliflari mavjud:

– Hofiz Xorazmiyning didaktik qarashlarini “Pedagogika tarixi” fanining tarkibiy qismi sifatida o‘rganishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bu orqali XV asr Xorazm madaniy-adabiy

muhitining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, pedagogik tafakkur tarixida Hofiz Xorazmiyning tutgan o‘rni va ahamiyatini chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi.

– Hofiz Xorazmiyning “aql” va “ishq” o‘rtasidagi uyg‘unlikka asoslangan falsafiy-didaktik yondashuvlarini zamonaviy ta’lim jarayoniga, xususan, boshlang‘ich ta’limda axloqiy-estetik tarbiyani rivojlantirishga yo‘naltirish, pedagogik jarayon uchun samarali metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

– Mazkur integratsiya orqali pedagog kadrlar tayyorlash tizimida axloqiy qadriyatlar va milliy-ma’naviy mezonlar asosida tarbiya berish yo‘nalishlarini mustahkamlashga erishish mumkin.

– Hofiz Xorazmiyning pedagogik va falsafiy merosini chuqur o‘rganishga qaratilgan fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar doirasini kengaytirish, ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida qaralishi zarur. Shu bilan birga, ilmiy-pedagogik hamkorlikni kuchaytirish va o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

– Hofiz Xorazmiyning devonida aks etgan falsafiy va axloqiy g‘oyalarni o‘quvchilarga hayotiy qadriyatlar sifatida singdirish, ularni ma’naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishda samarali manba sifatida foydalanish, ta’lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar kiritilishiga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, Hofiz Xorazmiyning ijodiy merosi orqali ta’lim tizimining tarbiyaviy tamoyillari rivojlantirish, yoshlarni nafaqat intellektual, balki ma’naviy yetuk insonlar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Zero, uning devoni yoshlar tarbiyasida ulkan o‘rin tutishga qodir bo‘lgan boy madaniy merosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoniga 1-ILOVA. Veb-manba: <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 7-moddasi. Veb-manba: <https://lex.uz/docs/-5013007>

3. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori. Veb-manba: <https://gov.uz/oz/edu/news/view/12707>

4. Зунунов А. Ўзбек педагогикаси тарихи: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. - Т.: Ўқитувчи, 1997. - 272 б.

5. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Alqarov I., Usmonov N., Is‘yanov R., Yuzlikaev F. Pedagogika nazariyasi (Didaktika): Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2011. – 105 b.

6. Хошимов К., Очилов С. Ўзбек педагогикаси антологияси: Икки жилдлик. Ж. 1. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 464 б.

7. Ҳасанбоева О. Педагогика тарихидан хрестоматия: Педагогика олий билимгоҳлари талабалари учун ўқув кўлл. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 208 б.
8. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. История педагогики и образования. Учебник для магистрантов. – Т.: Fan va texnologiya, 2008.- 240 с.
9. Балтаева А.Т. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни бадиий асар қаҳрамонларини танқидий баҳолашга ўргатиш технологияси: Пед. фан. бўйича фалсафа доктори(PhD) ... дисс. – Тошкент., 2020., – 166 б.
10. Маматова Г.А. Бошланғич синф ўқиш дарсларида ўқувчиларда адабий тушунчаларни шакллантириш методикаси: Пед. фан. бўйича фалсафа доктори(PhD) ... дисс. – Тошкент., 2020., – 179 б.
11. Рузикулова Н.Ш. Бошланғич синф ўқувчиларининг ахборотлар билан ишлаш компетенциясини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш: Пед. фан. бўйича фалсафа доктори(PhD) ... дисс. – Тошкент., 2020., – 175 б.
12. Усмонова У.А. Бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий тасаввурини ривожлантириш: Пед. фан. бўйича фалсафа доктори(PhD) ... дисс. – Наманган., 2019., – 152 б.
13. Болтаева Ш.Т. Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини ташкил этиш технологияси // Современное образование (Узбекистан). 2017. №6. – 49 б.
14. Izbullayeva G.V. Didaktik asarlarda madaniyat, maktab va pedagogik qarashlarni o‘rganish tizimi (XII asr oxiri XIV asrning birinchi yarmigacha Movarounnahr va Xuroson). Monografiya. – Buxoro: Durdona nashriyoti, 2022. – 320 b.
15. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. – 304 б.
16. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 2-китоб. – Т.: ЎзКПМК, 1981. – 312 б.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK:3713

YOUTUBE AS A CATALYST: ENHANCING SPEAKING SKILLS IN ESL LEARNERS

Dusanova Dilafruz Abduraufovna

Student of UZSWLU

E-mail dilafruzdusanova167@gmail.com

Tel: (91) 7102004

Bahodirova Rayhona Suhrob qizi

Student of UZSWLU

E-mail: rayhonabahodirova15@gmail.com

Tel: (94) 4426904

Dilnoza Shamuratova Jamolovna,

Senior teacher, Department of English Applied Disciplines, Uzbekistan State World Languages University

E-mail: dizamura5@gmail.com

Tel: (97) 7676787

G. Makhkamova

Based on the review of TSPU professor, Doctor of Philosophy ,

Abstract This study explores the impact of YouTube as a tool to enhance speaking skills among English as a Second Language (ESL) learner. With the growing integration of digital platforms in language learning, YouTube has emerged as a prominent source of authentic language input and communicative practice. Through a qualitative and quantitative analysis involving ESL learners from different proficiency levels, the research investigates how YouTube videos contribute to improved pronunciation, fluency, and vocabulary use. The findings suggest that YouTube offers substantial benefits in fostering self-directed learning and providing real-life language exposure, which in turn enhances oral communication abilities.

Keywords: ESL, speaking skills, YouTube, digital learning, language acquisition, fluency, pronunciation, authentic materials.

YOUTUBE КАК КАТАЛИЗАТОР: УЛУЧШЕНИЕ НАВЫКОВ РЕЧИ У ИЗУЧАЮЩИХ ESL

Аннотация В этом исследовании изучается влияние YouTube как инструмента для улучшения навыков говорения среди изучающих английский как второй язык (ESL). С ростом интеграции цифровых платформ в изучение языка YouTube стал важным источником аутентичного языкового ввода и коммуникативной практики. С помощью качественного и количественного анализа, включающего изучающих ESL с разным уровнем владения языком, исследование изучает, как видео YouTube способствуют

улучшению произношения, беглости речи и использованию словарного запаса. Результаты показывают, что YouTube предлагает существенные преимущества в содействии самостоятельному обучению и предоставлении реального языкового опыта, что, в свою очередь, улучшает устные коммуникативные способности.

Ключевые слова: ESL, навыки говорения, YouTube, цифровое обучение, усвоение языка, беглость речи, произношение, аутентичные материалы.

YOUTUBE KATALIZATOR SIFATIDA: IKKINCHI TILNI O‘RGANUVCHILAR SIFATIDA INGLIZ TILIDAGI NUTQ MAHORATINI OSHIRISH.

2) Yer yuzasida quyosh radiatsiyasi energiyasiga ta’sir qiluvchi astronomik omillar: quyosh va yer orasidagi masofa, quyosh egilishi va quyosh soati burchagi. Geografik omillar: geografik joylashuv, balandlik. Jismoniy omillar: quyosh nurlanishini qabul qiluvchi sirtning fizik va kimyoviy xossalari, shu jumladan, sirt qoplamining xususiyatlari;

Geometrik omillar: quyosh nurlanishini qabul qiluvchi sirtning moyillik burchagi va azimuti. Atmosferaning quyosh radiatsiyasiga susaytiruvchi ta’siri atmosferaning susayishi deyiladi. Atmosferadagi turli gazlar, suv tomchilari, chang va boshqa aralashmalar quyosh nurini susaytiradi Atmosfera quyosh nuri uchun shaffof bo‘lmagan muhit bo‘lib, asosiy susaytirish effektlari yutilish, tarqalish va diffuz aks etishni o‘z ichiga oladi. Atmosferaning zaiflashishi quyosh nurining atmosfera bo‘ylab o‘tadigan yo‘lining uzunligi bilan bog‘liq, yo‘l qanchalik uzoq bo‘lsa, zaiflashuv shunchalik katta bo‘ladi va yo‘lning uzunligi quyosh balandligi bilan bog‘liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Quyosh nurlanishining fizik xossalarini chuqur tahlil qilish quyosh energiyasidan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Quyidagilar taklif qilinadi:

1. O‘zbekistonning turli geografik hududlarida quyosh radiatsiyasi intensivligini monitoring qilish va kartalashtirish.
2. Ta’lim muassasalarida quyosh energiyasining fizik asoslarini o‘rgatish bo‘yicha eksperimental-uslubiy qo‘llanmalar yaratish.
3. Energetik qurilmalarni joylashtirishda quyosh doimiysi va mahalliy nurlanish intensivligini inobatga olish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Li Tianfu, Qian Bin, Pan Qiyong va Xu Leyzhen, 2017 yil. “Yangi energiya fotovoltaik energiya ishlab chiqarish va boshqarish”. Pekin: Basakaku nashriyoti.
2. Shao Litang, Li Yinlun, 2016 yil. Yangi energiya konversiyasi tamoyillari va texnologiyalari - quyosh energiyasi. Zhenjiang: Jiangsu universiteti nashriyoti.
3. X. Xasanov – "Fizika asoslari", Toshkent, 2016
4. A. Abduraxmonov, R. Yusupov – "Atmosfera fizikasi", Toshkent, 2018
5. S. Sobirov – "Ekologik fizika", 2015

6. T. G‘ofurov – "Quyosh energiyasidan foydalanish usullari", Toshkent, 2020

7. Z. Komilov – Ilmiy maqola: "Quyosh doimiysi va O‘zbekiston hududidagi radiatsion resurslar", *Ilmiy Amaliy Fizika*, 2021

8. Erkinova M.M., “Umumta’lim maktablarida fizika faniga kirishda pedagogik yondashuv”, Qo‘qon , 2024

9. Erkinova M.M., “O‘zbekistonda fizika va texnika fanlari bo‘yicha, kreativ fikrlovchi yoshlar sonini oshirish omillari”, respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2025.



РАЗВИТИЕ САМОСОЗНАНИЯ У ДОШКОЛЬНИКОВ

Назирова Гузал Маликовна

доктор философии по педагогическим наукам (PhD), профессор кафедры дошкольного образования Кокандского государственного университета.

Аннотация. В статье анализируется проблемы изучения самосознания дошкольников. Проанализированы также работы ученых-психологов, проводящих научно-исследовательскую работу в этой области, изучены особенности самосознания дошкольников.

Ключевые слова: дошкольный возраст, ребенок, самосознание, психология, сознание, “Я”, познание, оценка, управление, проблема.

DEVELOPING SELF-AWARENESS IN PRESCHOOLERS

Annotation. The article analyzes the problem of studying the self-awareness of preschoolers. The work of psychological scientists conducting research in this field is also analyzed, and the features of self-awareness of preschoolers are studied.

Keywords: preschool age, child, self-awareness, psychology, consciousness, “I”, cognition, assessment, management, problem.

ВВЕДЕНИЕ. В настоящее время проблема обучения самосознанию у дошкольников очень актуальна. Дошкольный возраст — это начальный период, когда начинает формироваться самосознание. Именно в этот период ребенок осознает себя, свои мотивы и потребности в мире человеческих отношений. Поэтому в этот период необходимо заложить фундамент для формирования самосознания. Это позволяет ребенку правильно оценить себя, свои возможности. Фактически, «самосознание»-один из самых сложных терминов, не имеющий четкого толкования. Однако самосознание часто рассматривается как система представлений человека о себе.

«Дошкольный возраст-основной период формирования личности ребенка в физическом, психологическом и социальном плане».

На основе эмоциональных переживаний и интересов формируется умение ребенка познавать, понимать, определять в процессе различных видов деятельности, понимать и выражать содержание различных эмоций, дифференцировать их при поддержке взрослых, оценивать и контролировать собственное эмоциональное состояние, формируется эмоционально-позитивное отношение к миру, другим людям, самому себе.

В результате ребенок чувствует себя свободным в коллективе, общается с окружающими и вступает в отношения, условия для проявления творческих возможностей становятся шире. Проще говоря, через самосознание ребенок начинает проявлять себя.

Под самосознанием в психологии понимается психическое явление, осознание индивидом себя как субъекта деятельности, в результате чего представления индивида о себе формируются в психический «образ-я». Ребенок не сразу осознает себя как "я"; в первые годы он называет себя по имени-так его называют окружающие; он считает, что существует прежде всего для себя, как объект для них, а не как самостоятельный субъект по отношению к другим людям.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ. Психологическое изучение самосознания тесно связано с изучением содержания индивидом реального самосознания как субъекта процесса развития самосознания как части генеза личности.

С.Л.Рубинштейн считал, что источником и движущей силой развития самосознания является растущая самостоятельность индивида. Он утверждает, что сознание возникает не из самосознания, а из самосознания, которое происходит в ходе развития сознания человека.

По своей структуре самореализация состоит из трех сторон - познавательной (самосознание), эмоционально-оценочной (отношение) и волевого контроля (самоконтроль).

В зарубежной психологии больше внимания уделялось практическому изучению самосознания. Такие исследователи, как У. Джемс, К. Роджерс, Розенберг, выделяют различные формы своих представлений о себе. («социальное Я», «семейное Я», «реальное Я», «идеальное Я» и т. д.).

Личностно-ориентированный подход к изучению особенностей самосознания прежде всего ориентирован на личностно-мотивационную направленность изменения образа себя и самооценки. Например, исследования А.И. Обозного и Б.Н. Катарского у учащихся средних и старших классов показали, что уровень их требовательности зависит от самооценки подростка, а не от реального выполнения задания и экспериментальной оценки. Исследования Е.И. Совонко показывают, что взаимосвязь между оценкой окружающих и ориентацией на самооценку зависит от возраста.

Как известно, самосознание начинает формироваться в дошкольном возрасте, оно является центральным новообразованием дошкольника. Поэтому важнейшим условием его формирования будет своевременное выявление психологических условий наилучшего развития самосознания и учет нежелательных причин его отклонений у ребенка».

Сознание — это высший уровень развития психики, свойственный только человеку " -так трактуется это понятие в специальных словарях, но такое определение не отражает его полного многообразия.

Конечно, существуют и более сложные, трудные для понимания определения этого термина, в которых можно выделить важнейшие признаки сознания. Например, в определениях русского философа и психолога А.Г.Спиркина говорится: «сознание — это высшая функция мозга, присущая только человеку и связанная с речью, первоначальным умственным построением действий и ожиданием их результатов».

МЕТОДЫ И РЕЗУЛЬТАТЫ. Самосознание формируется к концу дошкольного возраста благодаря интенсивному, интеллектуальному и личностному развитию, которое обычно является центральной проблемой дошкольника. Самооценка возникает во второй половине периода на основе первоначальной чисто эмоциональной самооценки («я в порядке») и рациональной оценки чужого поведения. Ребенок сначала приобретает умение оценивать поступки других детей, а затем и собственные поступки, нравственные качества и навыки. Его самооценка почти всегда совпадает с внешней оценкой, в первую очередь с оценкой близкого взрослого.

Таким образом, у ребенка уже в дошкольном возрасте появляется такая форма самосознания, как гордость за достижения, самооценка ребенка на данном этапе развития зависит от степени его успешности в освоении предметного мира и оценки его взрослыми. Поэтому очень важно в этом возрасте грамотное, мудрое руководство взрослых, близких ребенку, помощь в совместной предметной деятельности, поддержка его инициативы и растущей самостоятельности, положительная оценка достигнутых успехов. Также одним из важных моментов изучения самосознания является характеристика особенностей самосознания у дошкольников. Основным фактором возникновения и развития самосознания ребенка в первые семь лет жизни является развитие межличностных отношений, в том числе общения со взрослыми.

Изучение особенностей самосознания дошкольников также является актуальным звеном в нашей теме, так как самосознание дошкольников является очень важным достижением в развитии, которое влияет на дальнейшее формирование и развитие личности детей.

Н. Карташова утверждает, что самосознание не передается нам генетически от рождения, оно развивается с возрастом, с приобретением опыта и так далее. Кроме того, зачатки сознания появляются уже в младенчестве, а осознание «Я» появляется в конце третьего года жизни дошкольника.

Именно в этот период ребенок совершает различные предметные действия без помощи взрослых. Появляются особенно важные достижения этого возраста самостоятельно встать, речь, объектно-манипулятивная деятельность, чувство гордости и стыда. По окончании этого периода ребенок впервые начинает самоутверждаться как личность. Дошкольник начинает сравнивать себя со взрослым. Он хочет быть похожим на взрослого человека, стараясь вести себя как взрослый. У ребенка появляется стремление к волеизъявлению: он стремится к самостоятельности, противопоставляет свои желания желаниям взрослых. Именно в этот период наступает кризис раннего

возраста. Наблюдаются серьезные трудности в общении со взрослыми, упрямство, негативизм, реализация собственной воли, неудовлетворенность настроением, обесценивание взрослых, стремление к деспотизму. Л.С.Выготский назвал это явление семью звездами симптомов.

ВЫВОД. Таким образом, мы пришли к выводу, что самосознание начинает формироваться уже в дошкольном возрасте, поэтому для наилучшего развития ребенка необходимо своевременно выявлять психологические условия и изучать это явление, чтобы не допустить нежелательных причин отклонений. Для разных возрастов характерны определенные этапы развития самосознания.

СПИСОК ИСТОЧНИКОВ

1. Из речи Президента Ш. Мирзиёева на торжественной церемонии, посвященной годовщине обретения независимости Узбекистаном. "Узбекистан вступает в эпоху нового возрождения - третьего возрождения" / / <https://kun.uz/news/2020/08/31/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonda-yangi-bir-uygonish-uchinchi-renessans-davriga-poydevor-qoyilmoqda>

2. Бахриева Наргиза Ахмадовна Педагого-психологические особенности социально-эмоционального развития детей дошкольного возраста / / современное образование (Узбекистан). 2020. №11 (96). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-izhtimoiy-issiy-rivozhlantirishning-pedagogik-psihologik-hususiyatlari>.

3. Жураева, Ш. С. психологические факторы саморазвития у детей школьного возраста / / молодой ученый. — 2022. — № 22 (417). С. 675-677. - URL: <https://moluch.ru/archive/417/92418/>

4. Кон. И. С. Открытие я [текст]: учебное пособие. / И.С. Кон. М.: Политиздат, 1978. 367 С.

5. Нижегородцева Н.В. Психолого-педагогическая готовность ребенка к школе, Нижний Новгород, В. Д. Шадриков. Москва: Владос, 2014. 256с.

6. Спиркин А.Г.. Сознание и самосознание [текст]: монография. / Автор А.Г. Спиркин. М.: Политиздат, 1972. 303 С.

7. Сухова Е. И. Формирование личностной компетентности у детей старшего дошкольного возраста / / Воспитание дошкольников. 2012. №4. Страница 410.

8. <https://muhaz.org/reja-kirish-asosiy-qism-i-bob-iroda-togrisida-umumiyy-tushuncha.html?page=3>

9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ;Se3iqnhoufwC

10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ;Tyk-4Ss8FVUC

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

PSIXOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Alieva Kamola Saidnegmatovna

Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti PhD

Psychology.kamola@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologiya fanlarini o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (ZAMT) pedagogik imkoniyatlari, ta’lim sifati va o‘quvchilarning faolligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Yondashuv sifatida interaktiv va raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayoniga integratsiyasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Psixologiya, zamonaviy texnologiyalar, pedagogika, raqamli ta’lim, interaktiv usullar.

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING PSYCHOLOGY SUBJECTS

Abstract. This article analyzes the pedagogical potential of modern information and communication technologies (ICT) in teaching psychology, focusing on improving educational quality and student engagement. It explores the integration of interactive and digital tools into the learning process.

Keywords: Psychology, modern technologies, pedagogy, digital education, interactive methods.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические возможности современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в преподавании психологии, их роль в повышении качества образования и активности студентов. Рассматривается интеграция интерактивных и цифровых инструментов в учебный процесс.

Ключевые слова: Психология, современные технологии, педагогика, цифровое образование, интерактивные методы.

Kirish (Introduction):

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-noyabrdagi PQ–4507-sonli qarori (“Ta‘lim sohasini raqamlashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”) hamda 2020-yil 23-iyundagi PF–6017-sonli farmoni (“Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”)da ta‘lim jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlarni joriy etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Ayniqsa, oliy ta‘lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari kuchaytirilmoqda. Raqamli platformalar, masofaviy ta‘lim vositalari, virtual laboratoriyalar va interaktiv simulyatsiyalar psixologiya fanlari kabi murakkab, ko‘proq nazariy bilimlar asosida o‘qitiladigan yo‘nalishlarda ham qo‘llanilmoqda. Bu esa talabalar ongida mavzularni chuqurroq anglash, abstrakt tushunchalarni vizual qabul qilish va mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini bermoqda.

Psixologiya fanlari, o‘z mohiyatiga ko‘ra, inson psixikasi va xulq-atvorini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Bu jarayonda o‘qituvchining metodik mahorati bilan birga, texnologik yondashuvlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, virtual eksperimentlar, psixologik testlar, modellashtirilgan stsenariylar yordamida o‘quvchilarda mavzuga nisbatan nafaqat qiziqish, balki tushunish, idrok etish va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Bugungi kunda ta‘lim sohasiga tatbiq etilayotgan “Digital Education for All”, “Raqamli universitet”, “Bilim.uz” kabi loyihalar psixologiya fanlarini ham innovatsion yondashuvlar asosida o‘qitishga imkon yaratmoqda. Ta‘limdagi bu islohotlar, shubhasiz, pedagogika va psixologiya yo‘nalishida ta‘lim sifatini oshirish, talabalar salohiyatini ro‘yobga chiqarish va zamonaviy raqamli jamiyatga mos mutaxassislar tayyorlashda muhim o‘rin egallaydi.

Mazkur maqolada aynan psixologiya fanlarini zamonaviy texnologiyalar orqali o‘qitishning pedagogik ahamiyati, mavjud imkoniyatlar, tajriba asosidagi natijalar va istiqbolli takliflar ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili (Literature Review):

So‘nggi o‘n yilliklarda ta‘lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash masalasi xalqaro va milliy ilmiy tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biriga aylangan. Xususan, interaktiv, raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida ta‘lim sifatini oshirish, talabalar motivatsiyasini kuchaytirish, ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.

M. Prensky (2001) o‘zining mashhur “Digital Natives, Digital Immigrants” asarida zamonaviy yosh avlod texnologiyalar bilan uyg‘un holda ulg‘ayayotganini, ularning o‘rganish uslubi klassik ta‘lim modellari bilan emas, balki raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirilgan metodlar orqali samaraliroq bo‘lishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, ta‘lim tizimi yoshlarning yangi fikrlash uslublariga moslasha olmasa, ularning intellektual salohiyati to‘liq ochilmay qoladi.

J. Dewey (1938) esa ta’limni “tajriba asosidagi faoliyat” sifatida talqin qilib, interaktiv va kontekstual o‘rganish jarayonining o‘quvchi ongida chuqur iz qoldirishini ta’kidlagan. Deweyning qarashlari bugungi zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, tajriba va interaktivlikka tayangan raqamli ta’lim uslublarining nazariy negizini tashkil etadi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar orasida X. Xolboev (2020) zamonaviy ta’lim texnologiyalarining psixologik va pedagogik asoslarini o‘rganib, ayniqsa, vizualizatsiya, test tizimlari, elektron darsliklar va virtual laboratoriyalar psixologiya fanlarida ta’lim samaradorligini sezilarli oshirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Xolboevning izlanishlari milliy ta’lim kontekstida raqamli texnologiyalarni o‘qituvchilik amaliyotiga to‘g‘ri integratsiya qilish bo‘yicha muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Anderson va Dron (2011) tomonidan ilgari surilgan “Uch avlodli masofaviy ta’lim pedagogikasi” modeli raqamli ta’lim vositalari asosida o‘qituvchining roli, o‘quvchining faolligi va texnologik vositalarning o‘zaro aloqasi orqali samarali ta’lim muhitini yaratish mumkinligini asoslab beradi.

Mahalliy tajriba nuqtai nazaridan qaraganda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tayyorlangan va nashr etilgan “Raqamli pedagogika” o‘quv qo‘llanmalarida psixologik fanlarni o‘qitishda AKT vositalarining qo‘llanilishi bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan. Unda ta’lim oluvchilarning didaktik ehtiyojlari, vizual va kinestetik uslublarga yo‘naltirilgan o‘quv usullarining afzalliklari ko‘rsatib o‘tilgan.

Xorijiy tadqiqotlar, masalan, Selwyn (2016) tomonidan ta’lim va texnologiya o‘zaro munosabatlari haqida olib borilgan tahlillar, raqamli vositalar orqali fanlarni, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi fanlarni o‘rgatish o‘quvchining emotsional va ijtimoiy intellektini faollashtirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu esa aynan psixologiya fanlari uchun dolzarb hisoblanadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalarning psixologiya fanlari o‘qitilishidagi roli – bu nafaqat ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, balki o‘quvchilarda mustaqil o‘ylash, amaliyotga yo‘naltirilgan tahliliy fikrlash va zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish kompetensiyalarini shakllantirishdir. Bu yondashuvlar fanlararo integratsiyani ham kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology):

Ushbu ilmiy tadqiqot 2024-yil davomida O‘zbekistonning uchta yetakchi pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida olib borildi. Maqsad — psixologiya fanlari o‘qitilishida raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi va uning pedagogik samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Metodlar:

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Empirik metodlar: mavjud ta’lim jarayonini kuzatish, texnologik vositalarning qo‘llanilishini monitoring qilish;
- Kuzatuv va kontent-tahlil: dars jarayonlari videokuzatuv asosida tahlil qilindi;

• So‘rovnoma va intervyu metodlari: 150 nafar talabalar va 45 nafar o‘qituvchilar ishtirokida o‘tkazildi.

Tadqiqot bosqichlari:


1. Boshlang‘ich bosqich — mavjud texnologiyalarning tahlili (Google Classroom, Moodle, Zoom, Kahoot, va boshqalar);
2. Asosiy bosqich — dars jarayonlarida texnologiyalarning qo‘llanishi va ularning samaradorligi haqida ma‘lumot yig‘ish;
3. Yakuniy bosqich — sifatli (intervyular) va miqdoriy (so‘rovnomalar) tahlil natijalarini umumlashtirish.

Natijalar:

Quyidagi diagramma talaba va o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar psixologiya fanida o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatganiga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi:

Diagramma: Raqamli texnologiyalar samaradorligini tasdiqlagan respondentlar (%)

- 82% talabalar texnologiyalar yordamida fanni yaxshiroq o‘zlashtirishganini bildirdi;
- 76% o‘qituvchilar texnologiyalar darsga qiziqishni oshirganini ta’kidladi.



Tahlil va natijalar (Analysis and Results):

Tadqiqot natijalari zamonaviy texnologiyalarning psixologiya ta’limidagi amaliy ahamiyatini yaqqol tasdiqladi. Olingan ma‘lumotlar asosida quyidagi asosiy jihatlar aniqlangan:

1. Talabalar tajribasi: So‘rovnoma qatnashgan talabalar orasida 82% nafari raqamli texnologiyalar — xususan, videodarslar, interaktiv testlar va simulyatsion mashg‘ulotlar yordamida murakkab psixologik tushunchalarni chuqurroq tushunganini ta’kidladi. Bunday vositalar mavzularni vizual anglash, eslab qolish va tahlil qilishni sezilarli darajada yengillashtirgan.

2. O‘qituvchilar bahosi: O‘qituvchilarning 76%i raqamli platformalar (Moodle, Kahoot, Mentimeter) yordamida dars jarayonida talabalar faolligi, savol-javoblardagi ishtirok darajasi va muhokama sifatining oshganini bildirgan. Ayniqsa, real vaqtda fikr bildirish imkoniyati beruvchi texnologiyalar psixologik tushunchalarni bahs-munozara orqali o‘rganishga katta hissa qo‘shgan.

3. Modellashtirishning ta’siri: Psixologik eksperimentlar va holatlarni virtual muhitda modellashtirish orqali bilim o‘zlashtirish darajasi 35% ga oshgani kuzatildi. Bu, ayniqsa, eksperimental psixologiya, emotsional intellekt va psixodiagnostika kabi mavzularda muhim bo‘ldi.

Quyidagi jadval psixologiya fanlarini zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitishda olingan empirik natijalarni umumlashtiradi. Har bir ko‘rsatkich yuzasidan talabalar yoki o‘qituvchilarning fikrlari asosida aniqlangan foizli baho va izohlar keltirilgan.

Ko‘rsatkich	Natija (%)	Izoh
Psixologiya fanini chuqur tushungan talabalar	82%	Raqamli testlar, grafiklar va videodarslar orqali anglash yengillashdi
O‘qituvchilar baholagan faollik oshishi	76%	Moodle va interaktiv platformalar yordamida dars ishtiroki kuchaydi
Bilim o‘zlashtirish darajasi oshgan (modellashtirish)	35%	Virtual tajribalarda ishtirok etish orqali tushunish kuchaydi

Misol tariqasida:

Mentimeter platformasida real vaqtda berilgan savollarga talabalar 98% ishtirok bilan javob bergan, bu esa an’anaviy darslardagi 65–70% faollikdan sezilarli yuqori ko‘rsatkichdir.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations):

Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, psixologiya fanlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish nafaqat o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki mavzularni chuqur anglash, tahliliy fikrlash va ilmiy asosda fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Raqamli vositalar — ayniqsa interaktiv platformalar, modellashtirish dasturlari va multimedia kontentlari orqali o‘quv jarayoni yanada samarali va tushunarli bo‘lib bormoqda.

Shuningdek, o‘qituvchilar va talabalar fikriga ko‘ra, ta’limda texnologiyalardan oqilona foydalanish darslarning sifati va natijadorligini oshirgan. Bu esa psixologiya fanining zamonaviy mehnat bozorida amaliyotga yo‘naltirilgan kompetensiyalar bilan uyg‘unlashuvini ta’minlaydi.

Tavsiyalar:

Kelajakda ta’lim jarayonini yanada mukammallashtirish va texnologiyalarning samaradorligini ta’minlash maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Psixologiya fanlari uchun moslashtirilgan interaktiv modullar yaratish:

Maxsus elektron platformalar (Moodle, Google Classroom, Canvas) doirasida psixologiyaga xos topshiriqlar, testlar, holatli o‘yinlar va vizual kontentlar asosida modullar ishlab chiqilishi zarur.

2. O‘qituvchilar uchun raqamli pedagogika bo‘yicha doimiy malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish:

Texnologiyalarni puxta va pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llay oladigan mutaxassislarni tayyorlash bugungi kun ta’limining strategik vazifalaridandir.

3. Talabalar uchun virtual laboratoriyalar tashkil etish:

Eksperimental psixologiya, kognitiv jarayonlar va emotsional intellekt sohalarini amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatishga xizmat qiladigan virtual muhitlar yaratish zarur.

4. Ta’lim samaradorligini baholashda raqamli tahlil vositalaridan foydalanish:

O‘quv natijalarini avtomatlashtirilgan platformalar orqali real vaqtda monitoring qilish, tahlil qilish va individual yondashuvni ta’minlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-noyabrdagi PQ–4507-sonli qarori “Ta’lim sohasini raqamlashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”

2. 2020-yil 23-iyundagi PF–6017-sonli farmoni “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”

3. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon.

4. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.

5. Холбоев X. (2020). Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

6. Anderson, T. & Dron, J. (2011). Three Generations of Distance Education Pedagogy.

7. Salomova, D. (2022). Psixologik fanlarda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Ilm Ziyo.



MUHANDISLIK TA‘LIMIDA KOMPETENSIYALARNI KLASTERLASH XARITASINING AHAMIYATI

Alimov A‘zam Anvarovich

*Toshkent shahridagi Belarus-O‘zbekiston
qo‘shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar
instituti, Pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), professor*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy muhandislik ta‘limida kompetensiyalarni klasterlash xaritasini joriy etishning ilmiy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Kompetensiyalar klasterlash yondashuvi kognitiv fazalar, neyropedagogik nazariya va integrativ ta‘lim tamoyillari bilan uyg‘unlashtirilgan holda tahlil qilinib, uning kognitiv yuklama balansini ta‘minlash, fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish va raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot doirasida klasterlash kognitiv tartibga solish, metakognitiv tahlil va kognitiv evolyusiyani ta‘minlovchi asosiy mexanizm sifatida tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: Klasterlash xaritasi, muhandislik ta‘limi, kognitiv yuklama, kognitiv fazalar, raqamli kompetensiyalar, fanlararo integratsiya.

ЗНАЧЕНИЕ КАРТЫ КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОМПЕТЕНЦИЙ В ИНЖЕНЕРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В статье рассматривается значение внедрения карты кластеризации компетенций в современном инженерном образовании. Подход кластеризации анализируется в контексте когнитивных фаз, нейропедагогических принципов и интегративной модели обучения. Обоснована его роль в оптимизации когнитивной нагрузки, усилении междисциплинарных связей и повышении конкурентоспособности выпускников. Исследование представлена как система, поддерживающая когнитивную регуляцию, метакогнитивный анализ и эволюцию компетенций.

Ключевые слова: карта кластеризации, инженерное образование, когнитивная нагрузка, когнитивные фазы, цифровые компетенции, междисциплинарная интеграция.

THE IMPORTANCE OF THE COMPETENCE CLUSTERING MAP IN ENGINEERING EDUCATION

Abstract: *This article analyzes the importance of implementing a competency clustering map in modern engineering education. The clustering approach is examined through the lens of cognitive phases, neurodidactic principles, and the integrated model. Its impact on balancing cognitive load, enhancing interdisciplinary connections, and increasing graduate competitiveness is substantiated. Within the new model, clustering is described as a key mechanism for cognitive regulation, metacognitive analysis, and competence evolution.*

Keywords: *clustering map, engineering education, cognitive load, cognitive phases, digital competencies, interdisciplinary integration.*

XXI asr muhandislik ta’limi nafaqat texnik bilimlarni berish, balki talabalarning murakkab masalalarni hal qilish, innovatsion fikrlash va metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etmoqda. Bu jarayonda kognitiv jarayonlarni tartibga solish, fanlar o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish va ta’limni raqamli muhitga moslashtirish muhim vazifalardan sanaladi. Zamonaviy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, fragmentlangan bilim tizimi va kognitiv yuklama disbalansi muhandislik ta’limidagi samaradorlikka to‘sqinlik qilmoqda.

Shu bois, ta’lim jarayonida kompetensiyalarni kognitiv tarzda klasterlash zarurati tug‘ilmoqda. Kognitiv-kompetensiyaviy-integrativ model doirasida kompetensiyalar klasterlarining aniq xaritasini tuzish ta’lim mazmunini kognitiv evolyusiyaga mos ravishda transformatsiya qilishga yordam beradi. Bu yondashuv fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlash, kognitiv yuklama balansini saqlash, raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash kabi maqsadlarga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada muhandislik ta’limida kompetensiyalarni klasterlash xaritasini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari, uning asosiy klasterlari, joriy etish bosqichlari va istiqboldagi imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Zamonaviy muhandislik ta’limi global raqamlashtirish, texnologik innovatsiyalar va sanoatning tez o‘zgaruvchan talablari sharoitida muhim transformatsiyalarga duch kelmoqda. Bugungi kunda muhandislik ta’limi nafaqat texnik bilimlarni, balki murakkab muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishni talab etadi.

Muhandislik ta’limining asosiy muammolari

1. **Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilish:** Nazariy bilimlar real muhandislik amaliyoti bilan yetarlicha bog‘lanmaganda bitiruvchilarning ish bozoriga moslashish qiyinchiliklari yuzaga keladi.

2. **Bilim tizimining fragmentatsiyasi:** Fanlar va kompetensiyalar o‘rtasida integratsiyalashmagan yondashuv murakkab tizimlarni tushunishda cheklovlar olib keladi.

3. **Kognitiv yuklama disbalansi:** O‘quv dasturlari talabalarning kognitiv imkoniyatlarini hisobga olmaganda ishchi xotirada zo‘riqish va murakkab konsepsiyalarni tushunishda qiyinchiliklar paydo bo‘ladi.

4. **Eskirgan o‘quv dasturlari:** World Economic Forum (2020) tadqiqotlari bo‘yicha, texnologik sohadagi ko‘nikmalar har 2-3 yilda eskiradi, bu esa muhandislik ta‘limini doimiy yangilab turishni talab qiladi.

5. **Pedagogik yondashuvlardagi kamchiliklar:** An‘anaviy ma‘ruza-amaliyot formatining ustunligi motivatsiyaning pasayishiga va tanqidiy fikrlashning yetarli rivojlanmasligiga olib keladi.

6. **Raqamli kompetensiyalar yetishmasligi:** Zamonaviy raqamli vositalar va muhandislik dasturiy ta‘minotidan foydalanish kompetensiyalarining yetishmasligi raqobatbardoshlikning pasayishiga olib keladi.

7. **Kasbiy kontekstning yetarli emasligi:** Real muhandislik muammolari kontekstida o‘qitishning yetishmasligi motivatsiyaning pasayishiga sabab bo‘ladi.

Muhandislik ta‘limidagi muammolarni hal qilishning samarali yondashuvlaridan biri — kompetensiyalar klasterlash xaritasidan foydalanishdir. Bu metodologiya kompetensiyalarni tizimli ravishda guruhlashtirish va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga asoslangan.

Kompetensiyalar klasterlash xaritasining afzalliklari:

1. **Tizimli yondashuv:** Muhandislik kompetensiyalarini o‘zaro bog‘liq klasterlar sifatida o‘rganish bilim tizimining fragmentatsiyasini bartaraf etishga yordam beradi.

2. **Sanoat talablari bilan uyg‘unlik:** Kompetensiyalar xaritasi texnik va notexnik kompetensiyalarning muvozanatini ta‘minlaydi.

3. **O‘quv dasturlarining moslashuvchanligi:** Bu yondashuv o‘quv dasturlarini muntazam ravishda yangilab turish mexanizmini ta‘minlaydi.

4. **Metakognitiv rivojlanish:** Talabalarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini klasterlar doirasida tahlil qilish imkonini beradi.

Asosiy kompetensiyalar klasterlari

1. **Texnik kompetensiyalar klasteri:** Muhandislikning maxsus sohasiga oid fundamental bilimlar, texnik tizimlarni loyihalash va tahlil qilish.

2. **Raqamli kompetensiyalar klasteri:** CAD/CAM tizimlari, simulyatsiya vositalari, raqamli modellash, dasturlash, sun‘iy intellekt bilan ishlash.

3. **Innovatsion kompetensiyalar klasteri:** Kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, innovatsion loyihalashtirish.

4. **Boshqaruv kompetensiyalari klasteri:** Loyihalarni boshqarish, resurslarni rejalashtirish, sifatni nazorat qilish.

5. **Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar klasteri:** Jamoada ishlash, muloqot, liderlik, taqdimot ko‘nikmalari.

6. **Global kompetensiyalar klasteri:** Xalqaro standartlar, turli madaniyatlar bilan ishlash, global muammolarni hal qilish.

7. **Barqaror rivojlanish kompetensiyalari klasteri:** Ekologik muhandislik, resurslarni tejash texnologiyalari, yashil texnologiyalar.

8. **O‘rganish kompetensiyalari klasteri:** Uzluksiz ta‘lim, mustaqil o‘rganish, kritik fikrlash, bilimlarni integratsiyalash.

Muammolarni hal qilish uchun samarali strategiyalar

1. **STEM integratsiyasi va multidissiplinar yondashuv:** Muhandislik, matematika, fizika va informatika fanlarini yaxlit tizim sifatida o‘rganish.

2. **Loyihaga asoslangan ta‘lim (PBL):** Real muhandislik muammolarini hal qilish orqali nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash.

3. **Kognitiv yuklamani optimallashtirish:** O‘quv materiallarini talabalarning kognitiv imkoniyatlariga moslashtirish.

4. **Sanoat bilan hamkorlik:** Talabalarni real muhandislik muhiti bilan tanishtirish, amaliyot imkoniyatlarini kengaytirish.

5. **Innovatsion pedagogik texnologiyalar:** Teskari ta‘lim (flipped classroom), simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar orqali faol o‘rganish muhitini yaratish.

6. **Raqamli vositalar integratsiyasi:** Muhandislik dasturiy ta‘minoti, CAD/CAM tizimlari, simulyatsiya vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

7. **Metakognitiv va refleksiv amaliyotlar:** Talabalarning o‘z o‘rganish jarayonlarini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kompetensiyalar klasterlash xaritasini joriy etish qadamlari

1. Sanoat vakillari bilan hamkorlikda zamonaviy muhandis uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar klasterlarini aniqlash.

2. Har bir klaster doirasida aniq kompetensiyalarni ta‘riflash va ularni baholash mezonlarini ishlab chiqish.

3. O‘quv dasturlarini kompetensiyalar klasterlariga muvofiq qayta loyihalash, fanlararo aloqalarni kuchaytirish.

4. Kompetensiyalarni baholash uchun innovatsion usullarni joriy etish (portfolio, loyihaga asoslangan baholash, simulyatsiya).

5. Kompetensiyalar rivojlanishini muntazam monitoring qilish tizimini yaratish.

Muhandislik ta‘limida ijobiy natijalarga erishish uchun oliy ta‘lim muassasalari va sanoat o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, zamonaviy pedagogik va texnologik innovatsiyalarni joriy etish, kognitiv omillarni hisobga olgan holda o‘quv dasturlarini qayta loyihalash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar natijalari (Li va hammualliflar, 2021; Crawley et al., 2014; Felder & Brent, 2016) kompetensiyalar klasterlash yondashuvi va boshqa innovatsion metodlarning muhandislik ta‘limida samaradorligini tasdiqlaydi. Bu yondashuvlar muhandislik ta‘limi tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, fanlar integratsiyasini ta‘minlash va bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagi strategiyalarni kompleks ravishda amalga oshirish muhandislik ta‘limining sifatini sezilarli darajada oshirib, mamlakatning innovatsion salohiyatini va texnologik raqobatbardoshligini kuchaytirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Crawley, E., Malmqvist, J., Ostlund, S., Brodeur, D., & Edstrom, K. (2007). *Rethinking engineering education. The CDIO approach*, 302(2), 60-62.
2. Felder, R. M., & Brent, R. (2024). *Teaching and learning STEM: A practical guide*. John Wiley & Sons.
3. Graham, R. (2018). *The global state of the art in engineering education*. Massachusetts Institute of Technology (MIT) Report, Massachusetts, USA.
4. Johri, A., & Olds, B. M. (Eds.). (2014). *Cambridge handbook of engineering education research*. Cambridge University Press.
5. Sweller, J., van Merriënboer, J. J. G., & Paas, F. (2019). *Cognitive architecture and instructional design: 20 years later*. *Educational Psychology Review*, 31(2), 261-292.
6. Kamp, A. (2023). *Engineering education in the rapidly changing world: Rethinking the vision for higher engineering education*. TU Delft, WL/Delft Hydraulics.
7. Committee on Understanding the Engineering Education-Workforce Continuum. (2019). *Understanding the educational and career pathways of engineers*. National Academies Press.
8. Sheppard, S. D., Macatangay, K., Colby, A., & Sullivan, W. (2009). *Educating engineers. Designing for*.
9. World Economic Forum. (2020). *The future of jobs report 2020*. World Economic Forum.
10. Yadav, A., Subedi, D., Lundeberg, M. A., & Bunting, C. F. (2011). *Problem-based learning: Influence on students' learning in an electrical engineering course*. *Journal of Engineering Education*, 100(2), 253-280.
11. Li, J., Yin, Y., Fortino, G., Shen, Y., & Zhang, H. (2021). *A competency cluster-based education model for engineering students in the era of industry 4.0*. *IEEE Transactions on Education*, 64(3), 243-253.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK: 303.643.23

Orcid: 0009-0003-0758-6825

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYLARI FANINI O‘QITISH JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING MEDIASAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH.

Alimov Mirkamol Mengliboyevich

Termiz davlat Pedagogika instituti

matematika va informatika kafedrası katta o‘qituvchisi.

E-mail: mirkamol197727@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada asosan informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mediasavodxonligini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Zamonaviy axborot muhitida yosh avlodni yolg‘on va noto‘g‘ri axborotlardan himoya qilish, ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, raqamli xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Mediata’limning rivojlanishi va informatika va axborot texnologiyalari (AT) fanining imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘quvchilarda axborotni tahlil qilish, fakt va feykni ajratish, manbalarni baholash kabi mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikalari ishlab chiqilgan. Shuningdek, dars jarayonlariga innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar integratsiyasi orqali bu jarayonni samarali tashkil etish usullari taklif etilgan. Mazkur ish o‘qituvchilarga mediasavodxonlikni fan bilan uyg‘unlashtirishda amaliy yordam berishi mumkin.

Kalit so‘zlar: ta’lim texnologiyasi, smart ta’lim, aqilli jamiyat, meditehnologiya, axborot tizimlari, sun‘iy intellekt, zamonaviy ta’lim.

РАЗВИТИЕ МЕДИАГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНФОРМАТИКЕ И ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.

Аннотация: В статье в основном рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования медиаграмотности учащихся в процессе обучения информатике и информационным технологиям. В современной информационной среде защита подрастающего поколения от ложной и неточной информации, развитие у него навыков критического мышления, обучение правилам цифровой безопасности являются одними из актуальных задач сегодняшнего дня. Используя развитие медиаобразования и возможности компьютерных наук и информационных технологий (ИТ), были

разработаны методики развития у учащихся навыков медиаграмотности, таких как анализ информации, различение фактов от фейков и оценка источников. Также предлагаются инновационные подходы к процессам обучения и методы эффективной организации этого процесса посредством интеграции цифровых инструментов. Данная работа может оказать практическую помощь учителям в интеграции медиаграмотности с наукой.

Ключевые слова: образовательные технологии, умное образование, умное общество, медиатехнологии, информационные системы, искусственный интеллект, современное образование.

DEVELOPING STUDENTS' MEDIA LITERACY IN THE PROCESS OF TEACHING COMPUTER SCIENCES AND INFORMATION TECHNOLOGIES.

Annotation: The article mainly covers the theoretical and practical aspects of developing students' media literacy in the process of teaching computer science and information technology. In the modern information environment, protecting the younger generation from false and inaccurate information, forming their critical thinking skills, and teaching digital security rules are one of the urgent tasks of today. Using the development of media education and the capabilities of computer science and information technology (IT), methodologies have been developed to develop media literacy skills in students, such as analyzing information, separating fact from fake, and evaluating sources. Also, innovative approaches to teaching processes and methods for effectively organizing this process through the integration of digital tools are proposed. This work can provide practical assistance to teachers in combining media literacy with science.

Keywords: educational technology, smart education, smart society, media technology, information systems, artificial intelligence, modern education.

Kirish. Dunyo haqidagi yangiliklarni ega bo'lish, estetik g'oyalarni egallab olish, axloqiy me'yorlarni o'rganish ko'pincha shaxsiy xayotda emas, balki ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar materiallari asosida shakllanadi.

O'zbekistonda oxirgi besh yil mobaynida umumta'lim maktablarda axborot texnologiyalari (AT) bo'yicha quyidagi muhim o'zgarishlar va yutuqlarga erishildi:

1. Raqamli ta'lim platformalari joriy qilindi. "Online maktab" (<https://onlinemaktab.uz>) platformasi ishga tushirildi — darslar videodarslar shaklida Internetda joylashtirildi. Elektron kundaliklar (masalan, my.maktab.uz) keng joriy qilindi.

2. Maktablar texnik jihozlandi. 2021–2023 yillarda umumta'lim maktablari kompyuterlar, printerlar, interaktiv doskalar bilan jixozlandi. Har bir hududda yangi axborot texnologiyalari markazlari (IT Parklar) bilan maktablar hamkorligi yo'lga qo'yildi.

3. Kodlash va dasturlash ta'limi kengaydi. Maktablarda Scratch, Python, robototexnika kabi fanlar tanlab o'qitila boshlandi. IT-yo'nalishidagi ixtisoslashgan maktablar ochildi.

4. O‘qituvchilarni raqamli savodxonlikka o‘rgatish. O‘qituvchilar uchun "*Raqamli pedagogika*" bo‘yicha maxsus kurslar tashkil qilindi. Natijada o‘qituvchilar Google Classroom, Zoom, Teams kabi platformalarda dars o‘tish ko‘nikmalariga ega bo‘ldilar.

5. Sun‘iy intellekt va innovatsion loyihalarga e‘tibor. Ko‘pkina maktablarda sun‘iy intellekt asoslari haqida tushunchalar berilmoqda. O‘quvchilarning startap loyihalari va IT tanlovlari orqali texnologiyaga qiziqishini oshirishga urinishlar qilinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Yurtimizda bu kabi yaratilayotgan sharoit va imkoniyatga qaramasdan, axborot jamiyati davrida yosh avlodni to‘liq hayotga tayyorlash muammosi maktab ta‘limi tizimi muammoligicha qolmoqda. Umumta‘lim maktab bitiruvchilari global axborot muhitiga samarali moslashish ko‘nikmalariga to‘liq ega emas.

Zamonaviy o‘quvchi uchun OAV va internet orasida asosiy axborot manbasini tanlash oson kechmaydi.

Xozirgi davrda “O‘qituvchi — bilim beruvchi emas, yo‘naltiruvchi va maslahatchi”. O‘quvchi — faol ishtirokchi, muammoni o‘zi hal qila oladigan. Aksar olimlar o‘qituvchining vazifasini faqat dars berish bilangina cheklamay, uni tarbiyachi va maslahatchi sifatida ham baholaydilar. Ammo o‘quvchi dunyo va rivojlanish haqidagi g‘oyalarining muhim qismini faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri suhbat orqali etkazish mumkin bo‘lgan ochiq bo‘lmagan ma‘lumotlarga suyanganda holda oladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Maktab informatika va AT fani o‘quvchilarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni raqamli savodxonlikka, dasturlash asoslari, algoritmik tafakkur va axborot xavfsizligi bo‘yicha boshlang‘ich bilimlar bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan.

O‘quvchilarda mediasavodxonlikni rivojlantirish yoki media ta‘lim bu qarama-qarshiliklarni hal qilishga zamin yaratadi.

Media-ta‘lim - bu ommaviy axborot vositalari bilan muloqot qilish madaniyatini, ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarni, tanqidiy fikrlashni, media matnlarini izohlash, tahlil qilish va baholash qobiliyatini shakllantirish maqsadida ommaviy axborot vositalari yordamida shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish jarayoni.

Media-ta‘limning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- media ta‘lim pedagogik sohasidagi yangi ilmiy tadqiqot uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda - o‘qituvchi va o‘quvchi olingan ma‘lumotlar bo‘yicha tengdir, o‘qituvchi o‘rgatmaydi, balki dunyoni tushunishga yordam beradi, turli darajadagi tushunish darajasida olingan ma‘lumotlarni tahlil qilishni taklif qiladi;

- media-ta‘lim fan o‘qituvchilarini zamonaviy o‘quv vositalaridan, shu jumladan multimedia vositalaridan foydalanishning yuqori madaniyatiga ega bo‘lishi kerakligini nazarda tutadi;

- o‘quvchi zamonaviy ommaviy axborot vositalarining texnik jihatlarini bilishda o‘qituvchidan oldinda bo‘lishi mumkin, o‘qituvchi ham o‘qitish samaradorligini optimallashtirish va oshirish manfaatlarida foydalana olishi kerak.

Maqsad media ta'lim va informatika va ATni integratsiyalashgan holda o'quvchilar va o'qituvchilarning mediasavodxonlik darajasini oshirishdan iborat.

O'quv jarayonida media ta'lim va informatika va ATni integratsiyalashgan holda quyidagilar amalga oshirish rejalashtirilgan:

- umumiy axborot bilan ishlash madaniyati, ommaviy kommunikatsiyalar borasidagi muloqot etikasi va estetikasi shakllantirish;
- media ta'limni universal ta'lim ko'nikmalari va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida qo'llash;
- xar bir mavzuga shaxsiy yondashuv orqali e'tibor qaratish, ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarish;
- amaliy va ijodiy faoliyatni faollashtirish;
- o'quvchilarda axloqiy ongini, vatanparvarlikni va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish.

Media ta'lim dastlab ommaviy axborot vositalarining salbiy ta'siri va nojo'ya yo'nalishlaridan himoyalaniish vositasi sifatida yuzaga kelgan. Ushbu konsepsiyani amaliyotga birinchi bo'lib tatbiq etgan davlat 1930-yillarda Buyuk Britaniya edi. Bugungi kunda Buyuk Britaniya va Avstraliyada mediasavodxonlik gumanitar fanlar majmuasining alohida kursi hisoblanadi. Yevropa mamlakatlarida media-ta'lim turli shakllarda bo'lgan. Finlyandiyada 1970-yilda o'rta maktablarda, 1977-yilda esa universitetlarda fanlar ro'yxatiga kiritilgan. Ammo bu kurs 90-yillarning boshlaridagina zamonaviy ma'noda media-ta'limga aylantirildi. Shvetsiyada bu 1980 yildan beri majburiy bo'lib kelgan.

Media ta'limning shakllanishi 1920-yillarga borib taqaladi va bu jarayon kino sanoatining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. 1950-yillarning oxiri hamda 1960-yillarning boshlarida esa media ta'lim o'rta maktablar, oliy ta'lim muassasalari va maktabdan keyingi bolalar markazlarida faol joriy etila boshlandi.

Tajribalar-sinov ishlari shuni ko'rsatadiki media-ta'lim va informatika va AT integratsiyasidir. Informatika va media ta'lim fanlarining kesishishi o'quvchilarning mediasavodxonligini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi.

Informatika va mediasavodxonlikni integratsiyalash jarayonining asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Axborotni tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirish. Informatika va AT darslarida o'quvchilar texnik ko'nikmalarni o'rganadi (masalan, kompyuter savodxonligi, internetdan foydalanish, ma'lumotlar bazasi bilan ishlash), mediasavodxonlik esa bu axborotlarning ishonchliligini, izchilligini, manbasini tahlil qilishni o'rgatadi. Bu ikkalasining uyg'unligi o'quvchini axborotga nisbatan tanqidiy yondashishga o'rgatadi.

2. Raqamli xavfsizlik va axborot madaniyatini rivojlantirish. Informatika va AT raqamli texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatga, mediasavodxonlik bu texnologiyalardan xavfsiz va mas'uliyatli foydalanishni tushuntiradi (shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, soxta xabarlarini aniqlash, internet etikasi).

3. Yaratuvchanlik va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish. Informatika va AT orqali o‘quvchilar turli vositalar yordamida kontent yaratishni (video, prezentatsiya, veb-sahifa) o‘rganadi, mediasavodxonlik esa bu kontentning maqsadga muvofiqligi, ijtimoiy ta’siri va axloqiy jihatlariga e’tibor qaratadi.

4. O‘quvchilarning zamonaviy axborot makonida ijtimoiy faol ishtirokini ta’minlash. Integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarga media va texnologiyalar vositasida jamiyatdagi muammolarni tushunish, o‘z fikrini ifoda etish va ijtimoiy muhokamalarda ishtirok etish imkonini beradi.

Media-ta’lim — bu ta’lim jarayonida zamonaviy metod va texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarda mafkuraviy qarashlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvdir.

O‘qituvchi o‘zining an’anaviy pozitsiyasini yangilab, ta’lim jarayonida yagona axborot manbai bo‘lmasdan, o‘quvchilarga o‘z tajribasi va shaxsiyati orqali axborotlarni qayta ishlashni, o‘z ichki borlig’ini uyg‘unlashtirishni va zamonaviy jamiyatda o‘z o‘rnini topishni o‘rgatadigan yetakchiga aylanadi.

Raqamli simulyatsiyalarni fizikani o‘qitish jarayoniga keng joriy etish muhandislik yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishning muhim vositasidir. Ular bilimni chuqur anglash, amaliy qo‘llash va mustaqil fikrlashni shakllantirishda samarali bo‘lib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimida alohida o‘rin tutadi. Shu bilan birga, raqamli simulyatsiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish pedagogik yondashuvlarni ham o‘zgartirishni talab qiladi. O‘qituvchi endilikda dars davomida faqatgina bilim beruvchi emas, balki **yo‘naltiruvchi, maslahatchi va tahlilchi** sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa o‘qituvchidan raqamli texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirish va didaktik jihatdan to‘g‘ri qo‘llashni talab qiladi.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy-metodik tahlil va tajriba asosida raqamli simulyatsiyalarning muhandislik yo‘nalishidagi talabalar uchun fizika fanini o‘qitishda samarali o‘quv vositasi ekanligi aniqlandi. Simulyatsiyalar orqali tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalar bilimni chuqurlashtirish, mavzuni tushunishga qaratilgan faoliyatni individuallashtirish, hamda o‘quv jarayonini vizual, interaktiv va tajriba asosida tashkil etishga imkon yaratadi.

Muhandislik yo‘nalishidagi talabalar uchun fizikani o‘qitishda raqamli simulyatsiyalardan foydalanish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki talabalarda zamonaviy texnologiyalar asosida ilmiy fikrlash, tahlil qilish va muammoga yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, bo‘lajak muhandislarning raqobatbardosh va malakali mutaxassislar sifatida yetishishlariga zamin yaratadi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalari tomonidan raqamli simulyatsiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalash jarayoni izchil va tizimli ravishda olib borilishi lozim.

Raqamli texnologiyalar vositasida o‘qitish imkoniyatlari hozirda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kengayib bormoqda. Shu bois, ushbu vositalarning metodikasini chuqur ishlab chiqish, o‘qituvchilarni raqamli kompetensiyalar bilan ta’minlash va raqamli laboratoriyalarni mahalliyashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Raqamli simulyatsiyalarni fizikani o‘qitish jarayoniga keng joriy etish muhandislik yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, ularda amaliy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv nafaqat o‘quv jarayonini

_____ ***Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 5-son*** _____ *C seriya*
zamonaviylashtiradi, balki raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlash
imkonini ham beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Kadirova M. Fizik ta’limda raqamli texnologiyalar. – T.: Fan, 2022.

Tursunova N. Muhandislik fanlarida innovatsion metodlar: amaliy yondashuvlar // Ta’lim va innovatsiyalar. – 2023. – №2. – B. 43–49.

Azimov A. Vizual texnologiyalar yordamida fizikani o‘qitish samaradorligini oshirish // O‘zMU ilmiy axborotnomasi. – 2021. – №4. – B. 101–106.

Xolmurodov Sh. Raqamli pedagogika asoslari. – T.: Ilm Ziyo, 2020.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

INKLYUZIV TA'LIMNING DOLZARBLIGI VA RAQAMLI TA'LIM MUHITI IMKONIYATLARI

Atabayeva Nargisa Nabijonovna

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

E-mail: : atabayevanargisa085@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning dolzarbligi va raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muallif inklyuziv ta'limni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyatini o'rganadi. Maqolada raqamli texnologiyalarning inklyuziv ta'lim jarayoniga ta'siri, jumladan moslashuvchanlik, interaktivlik, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, masofaviy ta'lim imkoniyatlari va ijtimoiy tarmoqlar hamda hamkorlik platformalari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, raqamli texnologiyalar, maxsus ehtiyojli o'quvchilar, virtual reallik, kengaytirilgan reallik, masofaviy ta'lim, individual yondashuv.

АКТУАЛЬНОСТЬ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОЗМОЖНОСТИ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

АННОТАЦИЯ В данной статье анализируется актуальность инклюзивного образования и возможности цифровой образовательной среды. Автор исследует роль и значение цифровых технологий в развитии инклюзивного образования. В статье анализируется влияние цифровых технологий на процесс инклюзивного образования, включая адаптивность, интерактивность, технологии виртуальной и дополненной реальности, возможности дистанционного обучения, а также социальные сети и платформы сотрудничества. Кроме того, даются рекомендации по развитию инклюзивного образования и использованию цифровых технологий в системе образования Узбекистана.

Ключевые слова: инклюзивное образование, цифровые технологии, учащиеся с особыми потребностями, виртуальная реальность, дополненная реальность, дистанционное обучение, индивидуальный подход.

THE RELEVANCE OF INCLUSIVE EDUCATION AND THE OPPORTUNITIES OF THE DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

ABSTRACT This article analyzes the relevance of inclusive education and the possibilities of the digital educational environment. The author explores the role and importance of digital technologies in the development of inclusive education. The article analyzes the impact of digital technologies on the inclusive education process, including adaptability, interactivity, virtual and augmented reality technologies, distance learning opportunities, as well as social networks and collaboration platforms. In addition, recommendations are given for the development of inclusive education and the use of digital technologies in the education system of Uzbekistan.

Keywords: inclusive education, digital technologies, students with special needs, virtual reality, augmented reality, distance learning, individual approach.

KIRISH. Zamonaviy jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida inklyuziv ta'lim konsepsiyasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta'lim – bu barcha o'quvchilarning, jumladan, jismoniy, psixologik yoki intellektual rivojlanishida muayyan cheklovlarga ega bo'lgan bolalarning ham ta'lim jarayoniga to'liq jalb qilinishini ta'minlaydigan yondashuvdir. Bu konsepsiya har bir bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqini tan olishga va ta'lim tizimini barcha toifadagi o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-apreldagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizdagi har bir fuqaro, jumladan alohida ehtiyojga ega bolalar uchun ham sifatli va adolatli ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi[1]. Ayniqsa ushbu strategiyada inklyuziv ta'limga oid innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalarining kiritilishi ushbu sohaga e'tiborni yanada oshirdi.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar ta'lim sohasini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli ta'lim muhiti maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ularning ta'lim olishini qulaylashtirmoqda. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning dolzarbligi va raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlari tahlil qilinadi, shuningdek inklyuziv ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning samarali qo'llanilishi bo'yicha tavsiyalar beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Inklyuziv ta'lim bugungi kunda global miqyosda dolzarb bo'lib, har bir bola uchun sifatli ta'limning muhimligini ta'kidlaydi. Bu yo'nalishda bir qator olimlar va mutaxassislar tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, professor G. Shoumanova inklyuziv ta'limni "ta'lim tizimining barcha o'quvchilarning har xil ehtiyojlariga munosib javob berish qobiliyati" deb ta'riflaydi[2]. Uning tadqiqotlarida inklyuziv ta'lim nafaqat maxsus ehtiyojli o'quvchilar, balki butun jamiyat uchun ham foydali ekanligi isbotlab berilgan. Chunki inklyuziv ta'lim muhitida o'sib-ulg'aygan bolalar kelajakda insonlarning xilma-xilligini osonroq qabul qiladigan va bag'rikeng bo'lib shakllanadi.

Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari Lev Vigotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga tayanadi. Vigotskiy fikriga ko'ra, ta'lim jarayoni bolaning hozirgi bilimi bilan u erishishi mumkin bo'lgan potensial bilim darajasi o'rtasidagi masofani qamrab olishi kerak. Bu

borada muallif shunday yozadi: "Bola malakali rahbarlik, kattalarning yo'llanmasi yoki tengdoshlar bilan hamkorlik natijasida o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradi"[3]. Inklyuziv ta'limda aynan shu tamoyil muhim bo'lib, har bir o'quvchining individual rivojlanish yo'lini belgilashga yordam beradi.

Ta'limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati haqida so'z yuritar ekan, professor M. Tojiyevning tadqiqotlariga e'tibor qaratish muhim. Uning fikriga ko'ra, "raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini individuallashtirishga, o'quvchilarga materiallarni o'zlari uchun qulay tarzda o'zlashtirishga imkon beradi"[4]. Bu ayniqsa inklyuziv ta'lim uchun muhim bo'lib, raqamli texnologiyalar maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun ta'lim materiallarini moslashtirishga yordam beradi.

A. Leontyev tomonidan ilgari surilgan differensial yondashuv ham inklyuziv ta'limda muhim ahamiyatga ega. U o'zining tadqiqotlarida "ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish zarur"ligini ta'kidlaydi[5]. Bu tamoyil inklyuziv ta'limning asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga qaratilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni haqida gapirganda, J. Brayson va U. Loujning "Raqamli ta'lim platformalari: imkoniyatlar va cheklovlar" nomli tadqiqotini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu tadqiqotda mualliflar "raqamli ta'lim platformalari o'quvchilarga individual yondashuv, adaptiv ta'lim va real vaqtda qayta aloqa imkoniyatlarini beradi" deb ta'kidlashadi[6]. Bu esa inklyuziv ta'limda har bir o'quvchining ehtiyojlarini qondirish uchun juda muhimdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Inklyuziv ta'limning dolzarbligi ko'plab omillar bilan belgilanadi.

Birinchidan, bu har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash zaruratidir. BMTning "Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"sigamuvofiq, barcha bolalar ta'lim olish huquqiga ega, va bu huquq hech qanday kamsitishlarsiz amalga oshirilishi kerak[7].

Ikkinchidan, inklyuziv ta'lim jamiyatni insonparvarlashtirish va bag'rikenglikni tarbiyalashga yordam beradi. Inklyuziv sinflarda o'qiydigan bolalar o'zaro hurmat, hamkorlik va bir-birini qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. YUNESKO tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, inklyuziv ta'lim muhitida o'sib-ulg'aygan o'quvchilar kelajakda ijtimoiy mas'uliyatli va bag'rikeng insonlar bo'lib yetishadi[8].

Uchinchidan, inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuviga yordam beradi, bu esa ularning kelajakda jamiyatga to'liq integratsiya bo'lishini osonlashtiradi. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun alohida ta'lim muassasalari ularni jamiyatdan ajratib qo'yadi, bu esa ularning keyinchalik moslashishini qiyinlashtiradi.

Raqamli ta'lim muhiti inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Raqamli texnologiyalar quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

1. **Moslashuvchanlik va individual yondashuv** - raqamli texnologiyalar har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim materiallarini yaratish imkonini beradi.

Masalan, ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun audio kitoblar va ekranni o'qiydigan dasturlar, eshitish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun esa videolarga subtitrlar qo'shish mumkin. 2023-yilda O'zbekistonda "Inclusive Education" nomli mobil ilova ishlab chiqilgan bo'lib, u maxsus ehtiyojli o'quvchilarga moslashtirilgan ta'lim materiallarini taqdim etadi. Ilova ishga tushgandan beri uni foydalanuvchilar soni 15 000 dan oshdi, bu esa bunday texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj yuqori ekanligini ko'rsatadi[9].

2. **Interaktivlik va qiziqarlilik** - raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beradi. Bu esa maxsus ehtiyojli o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularga materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Turli xil o'quv o'yinlari, viktorinalar va simulyatorlar o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadi va o'quv jarayoniga faol jalb qiladi.

3. **Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalari** - bu texnologiyalar o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan bog'lashga yordam beradi. Masalan, geografiya darslarida VR texnologiyalari yordamida o'quvchilar turli joylarga virtual sayohat qilishlari mumkin. Bu ayniqsa jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun foydalidir. G.Xudoyqulov o'zining tadqiqotlarida virtual reallik texnologiyalari maxsus ehtiyojli o'quvchilarning "o'rganish tajribasini sezilarli darajada boyitishi"ni ta'kidlaydi[10].

4. **Masofaviy ta'lim imkoniyatlari** - raqamli texnologiyalar masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa jismoniy imkoniyati cheklangan va uzoq hududlarda yashovchi o'quvchilar uchun muhimdir. 2022-yilda Samarqand viloyatida o'tkazilgan tajriba loyihasi doirasida 120 nafar maxsus ehtiyojli o'quvchi masofaviy ta'lim orqali bilim oldi. Natijada ularning 85% o'zlashtirish darajasi 15-20% ga oshganini ko'rsatdi[11].

5. **Ijtimoiy tarmoqlar va hamkorlik platformalari** - bu platformalar o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi va inklyuziv ta'lim muhitini yaratishga hissa qo'shadi. Masalan, hamkorlik loyihalarida turli qobiliyatga ega o'quvchilar birgalikda ishlashlari, bir-birlarining kuchli tomonlarini to'ldirishlari va yangi ko'nikmalarni o'rganishlari mumkin.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchilarga ham katta yordam beradi. Masalan, o'qituvchilar elektron jurnal va monitoring tizimlari yordamida o'quvchilarning rivojlanishini kuzatib borishlari, ularning individual ehtiyojlarini aniqlash uchun ma'lumotlarni tahlil qilishlari mumkin. Bu esa har bir o'quvchi uchun individual ta'lim yo'lini belgilash imkonini beradi.

Biroq, inklyuziv ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashda bir qator qiyinchiliklar ham mavjud:

1. **Texnik jihozlanish muammolari** - barcha ta'lim muassasalari zarur raqamli texnologiyalar bilan jihozlanmagan. Ayniqsa qishloq joylardagi maktablarda internet tezligi past bo'lishi va zamonaviy kompyuterlar yetishmasligi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil holatiga respublika bo'yicha maktablarning

68% i yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlangan, qolgan 32% esa hali ham to'liq qamrab olinmagan[12].

2. **O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining yetishmasligi** - ko'p o'qituvchilar zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga ega emas. Bu muammoni hal qilish uchun o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

3. **Raqamli ta'lim materiallarining yetishmasligi** - maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun moslashtirilgan raqamli ta'lim materiallarining yetishmasligi ham jiddiy muammo hisoblanadi. Bu materiallarga nafaqat elektron darsliklar, balki interaktiv dasturlar, o'quv o'yinlari va boshqa raqamli resurslar ham kiradi.

4. **Axborot xavfsizligi masalalari** - raqamli texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish masalalari ham dolzarb. O'quvchilarning ma'lumotlarini himoya qilish uchun maxsus chora-tadbirlar ko'rish zarur.

Inklyuziv ta'limda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. **Kompleks yondashuv** - Inklyuziv ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoniga kompleks yondashish zarur. Bu jarayon nafaqat texnik jihozlar bilan ta'minlash, balki o'qituvchilarni o'qitish, o'quv dasturlarini moslashtirish va kerakli dasturiy ta'minotni yaratishni ham o'z ichiga oladi.

2. **O'qituvchilarni tayyorlash** - O'qituvchilarni zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga o'rgatish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etish. Bu kurslarda nafaqat texnologiyalardan foydalanish, balki ularni inklyuziv ta'lim jarayoniga qo'llash usullari ham o'rgatilishi kerak.

3. **Raqamli ta'lim resurslarini yaratish** - Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun moslashtirilgan raqamli ta'lim resurslarini yaratish va ularni barcha ta'lim muassasalari uchun taqdim etish.

4. **Hamkorlik aloqalarini o'rnatish** - Ta'lim muassasalari, IT kompaniyalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ota-onalar o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish. Bu hamkorlik inklyuziv ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini tezlashtirishi va samaradorligini oshirishi mumkin.

5. **Monitoring va baholash tizimini yaratish** - Raqamli texnologiyalarning inklyuziv ta'lim jarayonidagi samaradorligini doimiy ravishda monitoring qilish va baholash tizimini yaratish. Bu tizim orqali qaysi texnologiyalar yaxshi natija berayotganini va qaysilarini takomillashtirish kerakligini aniqlash mumkin.

XULOSA. Inklyuziv ta'lim bugungi kunda ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U barcha o'quvchilar, jumladan maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun ham sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan. Raqamli texnologiyalar esa inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini individuallashtirishga, o'quvchilarning qiziqishini oshirishga va ularning ehtiyojlariga moslashgan ta'lim materiallarini yaratishga yordam beradi. Biroq, inklyuziv ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashda bir qator qiyinchiliklar ham mavjud, jumladan texnik jihozlanish muammolari, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining yetishmasligi va raqamli ta'lim materiallarining yetishmasligi.

Bu qiyinchiliklarni hal qilish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bu yondashuv nafaqat texnik jihatlarni, balki pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlarni ham hisobga olishi kerak. Shuningdek, o'qituvchilarni tayyorlash, raqamli ta'lim resurslarini yaratish, hamkorlik aloqalarini o'rnatish va monitoring tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha keltirilgan tavsiyalar ta'lim tizimini yanada samaraliroq va inklyuzivroq qilishga yordam beradi. Bu esa barcha o'quvchilar, jumladan maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun ham sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga va ularning jamiyatga to'liq integratsiya bo'lishiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-apreldagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

[2] Shoumanova G.B. Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent, "Ta'lim", 2021. 45-b.

[3] Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq. Toshkent, "O'qituvchi", 1990. 167-b.

[4] Tojiyev M.N. Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2022. 123-b.

[5] Leontyev A.A. Ta'lim jarayonini differensial tashkil etish asoslari. Toshkent, "O'qituvchi", 2018. 87-b.

[6] Bryson J., Low U. Raqamli ta'lim platformalari: imkoniyatlar va cheklovlar // Xalqaro ta'lim jurnali. 2023. №2. 45-52-b.

[7] BMTning "Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"si. 1989-yil 20-noyabr.

[8] YUNESKO. Inklyuziv ta'lim: barcha o'quvchilar uchun sifatli ta'lim. Hisobot. Parij, 2020. 36-b.

[9] O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hisoboti. Toshkent, 2023. 54-b.

[10] Xudoyqulov G.X. Virtual reallik texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni // Zamonaviy ta'lim jurnali. 2022. №3. 78-84-b.

[11] Samarqand viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi hisoboti. 2022. 28-b.

[12] O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi statistik ma'lumotlari. Toshkent, 2023. 17-b.

[13] Н. А Абдухоликова Жамият ахборотлашувининг ижобий салбий хусусиятлари Conferencea, 125, 2022.

[14.] НА Абдухоликова [Талаба ёшларнинг интернет қарамлигини олдини олишда таълим маърифати](#). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2022.



TEACHING STRATEGIES TO INCREASE NEW LEARNER STUDENT’S LISTENING SKILLS: A REVIEW OF LITERATURE

Aziza SHAMSIYEVA

Teacher of the Uzbekistan National University

E-mail: ashamsiyeva01@gmail.com

Tel: +998970170067

Based on review of associate professor Sh. A. Kenjaboyev

Annotatsiya Listening skills are vital not only in academic settings but also in everyday life. While reading, writing, and language skills are emphasized in schools, listening often takes a back seat. However, it is crucial for educators to recognize the significance of listening comprehension and to incorporate strategies to develop these skills alongside other language abilities. By emphasizing active listening techniques and providing support for students with hearing impairments, educators can help enhance overall learning and comprehension in English and other subjects.

This article review underscores the importance of supporting students in developing effective learning strategies and strengthening their English listening skills, particularly for those struggling in other subjects who may also be learning English as a foreign language. The researcher offers suggestions for educational activities that both students and instructors should engage in to facilitate learning. This holistic approach aims to address the diverse needs of students and enhance their overall academic performance.

Key words: listening, English, language, student, skill, activities, information, vocabulary, Foreign Language.

СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ УСПЕШНОСТИ НОВЫХ СТУДЕНТОВ НАВЫКИ СЛУШАНИЯ: ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация Навыки слушания жизненно важны не только в академической среде, но и в повседневной жизни. Хотя в школах уделяется особое внимание чтению, письму и языковым навыкам, аудирование часто отходит на второй план. Тем не менее, преподавателям крайне важно признать важность понимания речи на слух и внедрить стратегии развития этих навыков наряду с другими языковыми способностями.

В обзоре этой статьи подчеркивается важность поддержки учащихся в разработке эффективных стратегий обучения и укреплении их навыков аудирования на английском языке, особенно для тех, кто испытывает трудности с другими предметами и, возможно,

также изучает английский как иностранный. Исследователь предлагает предложения по образовательной деятельности, которыми должны заниматься как студенты, так и преподаватели, чтобы облегчить обучение. Этот целостный подход направлен на удовлетворение разнообразных потребностей студентов и повышение их общей академической успеваемости.

Ключевые слова: аудирование, английский язык, язык, студент, умение, деятельность, информация, словарный запас, иностранный язык.

TALABALARNING TINGLASH MALAKASINI OSHIRISH UCHUN O‘RGATISH STRATEGIYASI: ADABIYOTNI TAHLILI ASOSIDA

Annotatsiya Tinglash qobiliyatlari nafaqat akademik sharoitlarda, balki kundalik hayotda ham juda muhimdir. Maktablarda o‘qish, yozish va til ko‘nikmalariga urg‘u berilsa-da, tinglash ko‘pincha ikkinchi o‘rinda turadi. O‘qituvchilar tinglash usullarini rivojlantirish orqali eshitib, anglash qobiliyati zaif o‘quvchilarni ingliz va boshqa fanlarni umumiy o‘rganish va tushunishni yaxshilashga yordam beradi.

Ushbu maqola sharhi talabalarni ingliz tilida tinglash ko‘nikmalarini mustahkamlashning samarali o‘rgatish strategiyalarini ishlab chiqish muhimligi ta’kidlandi, ayniqsa ingliz tilini chet tilini sifatida o‘rganayotgan o‘rganuvchilar uchun. O‘rganishni osonlashtirish uchun talabalar va o‘qituvchilarga kerakli bo‘lgan ta’lim faoliyati bo‘yicha turli xil xorijiy adabiyotlarni tahlili asosida takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: tinglash, ingliz tili, til, talaba, malaka, faoliyat, ma’lumot, lug‘at, chet tili.

Introduction

Listening is regarded as one of the four essential practical competencies for communicating in English, reading, writing, and speaking. Out of these four skills, listening is the most crucial one. Given that this skill can significantly improve one's success in other areas, this investigation aims to determine the substantial value of having this ability. This talent has the potential to significantly improve one's performance in other areas (Darti & Asmawati, 2017). To attain their aim of speaking English fluently, students of English as a Foreign Language (EFL) need to spend a significant amount of time daily immersed in the English language (Darti & Asmawati, 2017). Improving listening skills is essential for acquiring a second language (L2) in one's lifetime (Kajiura et al., 2021, p.1). The skill to listen does not require active engagement and can be cultivated on one's own, as stated by Osada (2004). According to Rost (2002), listening is the most crucial skill for effective language acquisition.

The study emphasizes the importance of listening as the most frequently used skill in daily life, which also tends to improve more rapidly than other abilities, making it easier to acquire new talents. Specifically, for students of English as a Foreign Language (EFL), listening poses both significant challenges and promising opportunities for progress. Challenges include difficulties in controlling the pace of speech, limited vocabulary, trouble perceiving signals or

cues, analyzing auditory information quickly, maintaining focus, and established patterns of comprehension. Addressing these challenges through targeted strategies and practice can lead to substantial improvement in English listening proficiency for EFL students.

In this review study, the researchers began by reviewing some of the strategies employed for listening comprehension. Afterwards, they focused on some of the students' challenges while listening to oral passages. This study aimed to improve educators' understanding of these challenging listening comprehension aspects to encourage effective teaching strategies. It is intended that the results of this literature review will provide instructors and students with insightful and instructional perspectives on the method of instructing and developing listening comprehension.

Academics have developed various conceptualizations to describe the act of listening. According to Chastain (1971), listening is the ability to take in native speech when presented at a regularly timed tempo. Morley (1972) defines hearing as aural grammar, auditory discrimination, the selection of important information, the maintenance of that information, and the coupling of that information to the relationship between sound and meaning form. Hearing is a sense that allows humans to communicate with one another. According to Postovsky (1975), who formulated this argument, listening differs from sound detection and auditory understanding in terms of the meaning conveyed by each activity.

According to the definition of "listening" provided by Goss (1982), parsing the information taken in by hearing into lexical parts so that it may be given meaning. This is done so that the information can be interpreted. Hearing and comprehending spoken language is essentially the same thing, according to a study that Bowen, Madsen, and Hilferty carried out in 1985. The students will begin by listening to spoken language and then segment it to dissect its meaning by deconstructing it into its lexical and syntactic components. Listening is an action that should be done since it is a crucial skill for gaining knowledge in one's day-to-day life (Nushi & Orouji, 2020). Purdy (1997) suggests that the process of hearing may be broken down into three distinct stages: receipt, interpretation, and reaction to spoken and nonverbal stimuli. According to Rost (2002), hearing is a complicated process that requires one to grasp what they have heard to appreciate what they have heard fully.

The initial step towards accurately comprehending and retaining cognitive techniques involves incorporating information stored in either short-term or long-term memory. Cognitive strategies, as described by Derry and Murphy (1986), serve as learning tools for problem-solving and directly utilize or modify learning resources. In the context of listening, cognitive approaches involve absorbing, retaining, and recalling recently learned material through strategies like top-down and bottom-up processing.

According to the claims made by Azmi Bingol, Celik, Yidliz, and Tugrul Mart, a school of thought contends that it is not too challenging for students to grasp listening texts that make use of vocabulary that is already familiar to those students (2014). This is because evidence suggests that children do not need excessive effort to grasp hearing materials.

During their research, one of the topics that they brought up was precisely this. If children have a better understanding of the meanings of the words they hear and read, it may be simpler for them to participate in activities and keep their motivation up over time. It is more probable that pupils will get confused when they are given the task of using terms in situations when such words would not be acceptable since they may have more than one meaning. Since many words have the potential to indicate many meanings simultaneously, this is the case.

Some Effective Tips Can Help Students Who Struggle with Listening Comprehension

Students might benefit from the following advice, which will assist them in overcoming some of the difficulties they now have with their ability to comprehend what they have heard. Several examples of these are as follows:

1. Teachers should give fundamental listening tools for learners to use to support learners in a more precise grasp of native speakers' speech. Students must be able to listen to activities customized to their needs.

2. The teacher is responsible for preparing listening activities for the class that will attract the pupils' attention and assists them in developing listening skills and strategies. These activities test the student's capability to comprehend what they have heard and urge them to use a broad array of listening strategies to benefit as much as possible from the tasks.

3. To properly prepare their students to hear the wide distinct varieties of short natural speech, tutors must familiarize their pupils with pronunciation conventions. Teachers can also push their pupils to mimic native speakers' pronunciation.

4. Educators have to expose pupils to a wide variety of information through a variety of media, including but not limited to lectures, broadcast newscasts, movies, plays, notifications, ordinary discussions, and interviews.

5. It is important to encourage pupils in a teacher's class to get familiar with regional and national accents worldwide.

6. Exercises in listening should range in difficulty from simple readings to more challenging material for students with more expertise.

7. During the time students spend listening to various listening materials, their teachers should offer them background information and linguistic understanding.

8. It is the responsibility of teachers to offer appropriate feedback on their students' performances since doing so may inspire students to correct their mistakes, enhance their excitement, and help students grow their self-confidence when engaging in listening activities.

Conclusion

In conclusion, listening comprehension often receives insufficient emphasis in English language programs, despite its vital role in understanding detailed auditory information. Effective listening involves applying multiple comprehension techniques simultaneously, including comprehending, remembering, linking information to context, and adjusting understanding based on prior knowledge and new revelations. It's essential for classrooms to

teach students how to listen effectively, recognizing that there isn't a one-size-fits-all approach. As students progress in their English studies, listening exercises should become increasingly challenging to foster continued improvement. Beyond language acquisition, listening is essential for everyday conversation and communication. Thus, prioritizing and enhancing listening skills is crucial in English language education.

REFERENCES

1. Abdalhamid, F. (2012). Listening comprehension strategies of Arabic-speaking ESL learners (Unpublished Master's dissertation). Department of English, Colorado State University, Fort Collins, Colorado.
2. Bingol, M. A., & Celik, B. (2014, April). Importance of listening in language learning and planning a listening lesson properly. In *vltal 2014 conference* (Vol. 13, p. 267).
3. Darti, D., & Asmawati, A. (2017). Analyzing students' difficulties toward listening comprehension. *English, Teaching, Learning, and Research Journal*, 3(2) 211-228. <https://doi.org/10.24252/Eternal.V32.2017.A9>
4. Derry, S. J., & Murphy, D. A. (1986). Designing systems that train learning ability: From theory to practice. *Review of educational research*, 56(1), 1-39.
5. El-Dali, M. (2017). L2 listening comprehension: is it a language problem or listening problem. *English Linguistics Research*, 6(1), 14-37.
6. Goh, C. (2000). A Cognitive Perspective on Language Learners' Listening Comprehension Problems. *System*, 28, 55-75. Retrieved from [http://dx.doi.org/10.1016/S0346-251X\(99\)00060-3](http://dx.doi.org/10.1016/S0346-251X(99)00060-3).
7. Hamouda, A. (2013). An Investigation of Listening Comprehension Problems Encountered by Saudi Students in the EL Listening Classroom.
8. Mohseny, A., & Raeisi, N. (2009). The Relationship between Language Proficiency of EFL Students and Their Strategy Use in Listening Comprehension. *TEFLL*, 1(4), 111-132.
9. Munro, M. J., & Derwing, T. M. (1999). Foreign accent, comprehensibility, and intelligibility in the speech of second language learners. *Language learning*, 49, 285-310.
10. Nadig, A. (2013). Listening comprehension. *Encyclopedia of autism spectrum disorders*, 1743.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ALOHIDA EHTIYOJLI O'QUVCHILARNING TA'LIM Olish IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH

Badalov Avazbek Rustamjanovich

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti o'qituvchisi,

E-mail: avazbek.badalov 280319855@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada inkluziv ta'lim sharoitida yuzaga keladigan nizolarning o'ziga xos xususiyatlari va ularni hal qilish metodlari, shuningdek, ijobiy psixologik muhitni shakllantirish yo'llari tadqiq etiladi. Inkluziv sinf muhitidagi nizolar tipologiyasi, kelib chiqish sabablari va nizolarni hal qilishning zamonaviy metodologik yondashuvlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Inkluziv ta'lim muassasalarida ijobiy psixologik muhitni yaratishning pedagogik-psixologik mexanizmlari, tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlarni boshqarish strategiyalari, o'qituvchi-o'quvchi va o'qituvchi-ota-ona munosabatlarini rivojlantirish metodlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, inkluziv ta'lim muhitida nizolarni hal qilish va ijobiy psixologik muhitni shakllantirishning samarali metodlari va texnologiyalari aniqlangan hamda ularni ta'lim amaliyotiga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: inkluziv ta'lim, nizolarni hal qilish, ijobiy psixologik muhit, mediatsiya, hamkorlikdagi o'qitish, alohida ehtiyojli o'quvchilar, tengdoshlar munosabatlari, ijtimoiy-emotsional o'qitish, qo'llab-quvvatlash tizimi, inkluziv madaniyat.

РАСШИРЕНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С ОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: В данной статье исследуются особенности конфликтов, возникающих в условиях инклюзивного образования, методы их разрешения, а также пути формирования позитивной психологической среды. Теоретически и практически проанализированы типология конфликтов в инклюзивной образовательной среде, причины их возникновения и современные методологические подходы к разрешению конфликтов. Рассмотрены педагогико-психологические механизмы создания позитивной психологической среды в инклюзивных образовательных учреждениях, стратегии управления взаимоотношениями между сверстниками, методы развития отношений между учителем и учеником, а также между учителем и родителями. По результатам исследования определены эффективные методы и технологии разрешения конфликтов и формирования позитивной психологической среды в инклюзивном образовательном

пространстве, а также разработаны рекомендации по их внедрению в образовательную практику.

Ключевые слова: инклюзивное образование, разрешение конфликтов, позитивная психологическая среда, медиация, совместное обучение, учащиеся с особыми потребностями, отношения сверстников, социально-эмоциональное обучение, система поддержки, инклюзивная культура.

EXPANDING EDUCATIONAL OPPORTUNITIES FOR STUDENTS WITH SPECIAL NEEDS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

Abstract: This article examines the specific features of conflicts that occur in inclusive education settings, methods for resolving them, and ways to create a positive psychological environment. The typology of conflicts in inclusive classroom environments, their causes, and modern methodological approaches to conflict resolution are analyzed from both theoretical and practical perspectives. The pedagogical and psychological mechanisms for creating a positive psychological environment in inclusive educational institutions, strategies for managing peer relationships, and methods for developing teacher-student and teacher-parent relationships are examined. Based on the research results, effective methods and technologies for conflict resolution and creating a positive psychological environment in inclusive education have been identified, and recommendations for their implementation in educational practice have been developed.

Keywords: inclusive education, conflict resolution, positive psychological environment, mediation, collaborative learning, students with special needs, peer relationships, social-emotional learning, support system, inclusive culture.

KIRISH. Inkluziv ta'lim — barcha o'quvchilarning, shu jumladan alohida ehtiyojli o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan ta'lim tizimi bo'lib, u ta'limning barcha ishtirokchilari o'rtasida o'zaro hurmat, tenglik va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni shakllantirish orqali samarali amalga oshirilishi mumkin. Inkluziv sinflarda turli xil rivojlanish xususiyatlari, imkoniyatlari va ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar birgalikda ta'lim olishadi, bu esa o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni yaratadi[1].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inkluziv ta'lim sharoitida nizolar va muloqot qiyinchiliklari ko'p kuzatiladi, ular o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, inkluziv sinflarda alohida ehtiyojli o'quvchilar tengdoshlarining noto'g'ri munosabatiga duch kelish ehtimoli 2-3 barobar yuqori[2]. Bu nizolarni hal qilish va ijobiy psixologik muhitni yaratish masalasi inkluziv ta'limning eng muhim jihatlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Ta'lim muhitidagi nizolarni hal qilish va ijobiy psixologik muhitni shakllantirish nafaqat o'quvchilarning akademik yutuqlariga, balki ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham

sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, sog'lom psixologik muhitga ega bo'lgan inkluziv sinflarda o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlari o'rtacha 18-20% ga yuqori bo'lishi aniqlangan[3].

O'zbekistonda so'nggi yillarda inkluziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. 2020 yilda qabul qilingan "2020-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida inkluziv ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasi" doirasida inkluziv ta'limni joriy etishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi[4]. Biroq, inkluziv ta'lim sharoitida nizolarni hal qilish va ijobiy psixologik muhitni shakllantirish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Inkluziv ta'lim sharoitida nizolar masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Masalan, Booth va Ainscow inkluziv ta'lim muhitidagi nizolarni uch guruhga ajratadi: o'quvchilar o'rtasidagi nizolar, o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi nizolar va o'qituvchi-ota-ona o'rtasidagi nizolar[5]. Ularning fikricha, bu nizolarning aksariyati o'zaro tushunmovchilik, stereotiplar va inkluziv madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi tufayli yuzaga keladi.

Mitchell (2014) inkluziv ta'lim sharoitida yuzaga keladigan nizolarning sabablarini chuqurroq o'rganib, ularning quyidagi asosiy omillarini ajratib ko'rsatadi:

- Kommunikatsiya to'siqlari;
- Alohida ehtiyojli o'quvchilar va ularning tengdoshlari o'rtasidagi ijtimoiy masofaning mavjudligi;
- O'qituvchilarning alohida ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlashga tayyorgarligining yetarli emasligi;
- Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikning sustligi[6].

O'zbekistonlik olimlardan Abdurahmanova va Tursunov (2021) o'z tadqiqotlarida inkluziv ta'lim sharoitida nizolarning oldini olish va hal qilishning milliy xususiyatlarini o'rganib, o'zbek oilasi va jamiyatidagi an'anaviy qadriyatlar (mehmonnavozlik, kattalarga hurmat, o'zaro yordam) bu jarayonda ijobiy rol o'ynashi mumkinligini ta'kidlaydilar[7].

Ijobiy psixologik muhitni shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar ham sezilarli darajada rivojlangan. Carrington va Macarthur (2012) ijobiy psixologik muhitni yaratishning asosiy omillari sifatida quyidagilarni ajratadilar:

- Inkluziv madaniyatni shakllantirish;
- O'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
- Hamkorlikdagi o'qitish metodlarini joriy etish;
- Tengdoshlar o'rtasida o'zaro yordam tizimini yaratish[8].

Raximova inkluziv ta'lim sharoitida ijobiy psixologik muhitni yaratishda o'qituvchining rolini tadqiq etib, pedagogning kasbiy va shaxsiy sifatlari (empatiya, toqatlilik, kreativlik, refleksivlik) alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi[9].

Inkluziv ta'lim sharoitida nizolarni hal qilish metodlari bo'yicha tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yondashuvlar asosan mediatsiya, hamkorlikdagi muammolarni hal qilish va pozitiv xulq-atvorni qo'llab-quvvatlash kabi metodlarga asoslanadi.

Fisher va Ury tomonidan ishlab chiqilgan "Prinsipial muzokaralar" modeli inkluziv ta'lim sharoitida nizolarni hal qilishda samarali hisoblanadi. Bu model muammoni shaxslardan ajratish, manfaatlarga e'tibor qaratish, yechim variantlarini yaratish va obyektiv mezonlarga asoslanish kabi tamoyillarga asoslanadi[10].

Colvin ijobiy xulq-atvorni qo'llab-quvvatlash (Positive Behavior Support) metodikasini inkluziv ta'lim muhitiga moslashtirib, uni nizolarni profilaktika qilish va hal qilishning samarali vositasi sifatida taklif etadi. Bu metodika o'quvchilarning ijobiy xulqini rag'batlantirish, aniq qoidalar va kutishlarni belgilash, konsekvant javob reaksiyalarini qo'llash va o'quvchilarning individuallashtirilgan ehtiyojlarini qondirish orqali amalga oshiriladi[11].

NATIJARLAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot davomida inkluziv sinflarda yuzaga keladigan nizolarning o'ziga xos xususiyatlari va tipologiyasi aniqlandi. So'rovnoma va kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, inkluziv sinflarda quyidagi turdagi nizolar eng ko'p uchraydi:

O'quvchilar o'rtasidagi nizolar - barcha nizolarning 46% ini tashkil etadi. Bu nizolar asosan quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- Tushunmovchiliklar (alohida ehtiyojli o'quvchilarning xulq-atvorini noto'g'ri talqin qilish);
- Ijtimoiy izolyatsiya (alohida ehtiyojli o'quvchilarni jamoa faoliyatidan chetlashtirish);
- Verbal va noverbal zo'ravonlik (masxara qilish, hazil-mutoyibalar, jismoniy kontaktdan qochish).

O'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi nizolar - barcha nizolarning 28% ini tashkil etadi. Bu nizolarning asosiy ko'rinishlari:

- Pedagogik tazyiq (haddan tashqari talablar yoki aksincha, past kutishlar);
- Kommunikativ to'siqlar (o'qituvchining alohida ehtiyojli o'quvchilar bilan samarali muloqot qila olmasligi);
- O'quv jarayoniga moslashtirishning yetishmasligi.

O'qituvchi-ota-ona o'rtasidagi nizolar - barcha nizolarning 18% ini tashkil etadi. Bu nizolar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- Kutishlar noto'g'riligi (ota-onalarning haddan tashqari yuqori yoki past kutishlari);
- Mas'uliyatni taqsimlash muammolari (kimning zimmasiga qanday mas'uliyat yuklatilishi borasidagi kelishmovchiliklar);
- Kommunikatsiya sustligi (muntazam va samarali muloqotning yo'qligi).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, inkluziv ta'lim sharoitida ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga ta'sir etuvchi quyidagi asosiy omillar aniqlandi:

1. Sinfda inklyuziv madaniyatning shakllanganligi - bu omil inkluziv ta'lim qadriyatlarini qabul qilish, teng huquqlilik va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qilish darajasini aks ettiradi. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, inklyuziv madaniyati yuqori bo'lgan sinflarda nizolar soni sezilarli darajada kam (o'rtacha 62% ga).
2. O'qituvchining inkluziv kompetensiyasi - bu omil o'qituvchining alohida ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlash bilim va ko'nikmalari, differentsial o'qitish metodlarini qo'llash

mahorati, nizolarni hal qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Inkluziv kompetensiyasi yuqori bo'lgan o'qituvchilar sinflarda ijobiy psixologik muhit shakllanganlik darajasi ham yuqori.

3. Teng huquqlilikka asoslangan sinf qoidalari - bu omil sinfda barcha uchun tushunarli va adolatli qoidalarining mavjudligi, ularning izchil qo'llanilishi va bajarilishini nazorat qilish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Aniq belgilangan qoidalarga ega sinflarda nizolar soni o'rtacha 34% ga kam.
4. Ijtimoiy-emotsional o'qitish dasturlarining joriy etilganligi - bu omil o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini (o'z emotsiyalarini boshqarish, empatiya, muloqot, hamkorlik) rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarning mavjudligi va samaradorligini aks ettiradi. Ijtimoiy-emotsional o'qitish dasturlari joriy etilgan sinflarda ijobiy psixologik muhit darajasi o'rtacha 40% ga yuqori.
5. Ota-onalar va jamoatchilik ishtiroki - bu omil ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki, ular bilan muntazam va samarali kommunikatsiya, jamoatchilik va mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi. Ota-onalar faol ishtirok etadigan sinflarda ijobiy psixologik muhit ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori (korrelyatsiya koeffitsienti $r=0.62$).

Inkluziv ta'lim sharoitida nizolarni hal qilishning beshta samarali metodi aniqlandi va tajribada tasdiqlandi. Mediatsiya usuli neytral vositachi orqali o'quvchilar orasidagi nizolarni hal qilish samaradorligini 58% ga oshiradi. Muntazam o'tkaziladigan sinf yig'ilishlari ijobiy psixologik muhitni 36% ga yaxshilanadi. Hamkorlikda muammolarni hal qilish usuli qo'llanilganda, nizolarning 72% i ijobiy natija bilan yakunlandi. Ijobiy xulq-atvorni qo'llab-quvvatlash (PBS) tizimi nizo holatlarini 44% ga kamaytiradi. Ijtimoiy hikoyalar metodi esa, ayniqsa autizm spektri buzilishi bo'lgan o'quvchilar uchun samarali bo'lib, 63% hollarda ijobiy natija beradi. Bu metodlarning barchasi bir-birini to'ldiradi va inkluziv sinflarda nizolarni samarali hal qilish hamda oldini olish uchun kompleks yondashuv sifatida qo'llanilishi mumkin.

XULOSA. Inkluziv ta'lim sharoitida nizolarni hal qilish va ijobiy psixologik muhitni shakllantirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, inkluziv sinflarda yuzaga keladigan nizolar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning kelib chiqish sabablari va hal qilish yo'llari ham maxsus yondashuvlarni talab etadi. Ta'lim muhitidagi nizolarning asosiy qismi o'quvchilar o'rtasida, o'qituvchi-o'quvchi va o'qituvchi-ota-ona munosabatlarida kuzatilib, ularning samarali hal etilishi ijobiy psixologik muhitni shakllantirishning muhim shartidir. Sinfidagi inkluziv madaniyat darajasi, o'qituvchining inkluziv kompetensiyasi, teng huquqlilikka asoslangan qoidalar, ijtimoiy-emotsional dasturlar va ota-onalar ishtiroki ijobiy muhitni yaratishning asosiy omillari hisoblanadi. Mediatsiya, sinf yig'ilishlari, hamkorlikda muammolarni hal qilish, ijobiy xulq-atvorni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy hikoyalar metodlari nizolarni hal qilishda eng samarali yondashuvlar sifatida o'zini oqladi. Bu metodlarni kompleks qo'llash inkluziv ta'lim muhitida nizolarni samarali hal etish va oldini olish imkonini beradi.

Inkluziv ta'lim muhitida ijobiy psixologik muhit yaratish va nizolarni hal qilish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarni amaliyotga joriy etish alohida ehtiyojli o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi, bu esa, o'z navbatida, inklyuziv ta'limning asosiy maqsadlariga to'liq mos keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Florian, L. & Ainscow, M. (2011). Effective inclusive schools: designing successful schoolwide programs. San Francisco: Jossey-Bass Publishers.
2. Rose, C. A., Monda-Amaya, L. E., & Espelage, D. L. (2018). Bullying perpetration and victimization in special education: A review of the literature. *Remedial and Special Education*, 32(2), 114-130.
3. Hattie, J. (2019). *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. Routledge.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydagi 291-son qarori "2020-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
5. Booth, T. & Ainscow, M. (2011). *Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools*. Centre for Studies on Inclusive Education.
6. Mitchell, D. (2014). *What Really Works in Special and Inclusive Education: Using Evidence-Based Teaching Strategies*. Routledge.
7. Abdurahmanova, A. & Tursunov, I. (2021). Inklyuziv ta'lim sharoitida nizolarning oldini olish va hal qilishning milliy xususiyatlari. *Pedagogik mahorat*, 3, 42-49.
8. Carrington, S. & Macarthur, J. (2012). *Teaching in Inclusive School Communities*. Wiley & Sons Australia.
9. Raximova, D. (2020). Inkluziv ta'lim sharoitida ijobiy psixologik muhitni yaratishda o'qituvchining roli. *Maktab va hayot*, 5, 34-42.
10. Fisher, R. & Ury, W. (2011). *Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In*. Penguin Books.
11. Colvin, G. (2010). *Defusing Disruptive Behavior in the Classroom*. Corwin Press.
12. Н. А Абдухоликова Жамият ахборотлашувининг ижобий салбий хусусиятлари Conferencea, 125, 2022.
13. Н. А Абдухоликова Талаба ёшларнинг интернет қарамлигини олдини олишда таълим маърифати. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2022.



FIZIKA VA UNI O'QITISHDA EMPIRIK VA NAZARIY METODLAR

Begzod Shukurov

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Inson o'zini o'rab turgan olamga bo'lgan munosabatlaridan biri — bilishdir. Inson hayoti davomida faqat tashqi dunyoni, ya'ni tabiat va jamiyatnigina bilib qolmasdan, balki o'zini, o'zining ruhiy-ma'naviy dunyosini ham anglab boradi.

Kalit so'zlar: analiz, sintez, induksiya, deduksiya, umumlashtirish, abstraktlashtirish, oydinlashtirish, tasniflash, statistic, faraz, gipoteza, iqtisodiyot

ФИЗИКА И ЭМПИРИЧЕСКИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ЕЁ ПРЕПОДАВАНИЯ

Аннотация. Одним из отношений человека к окружающему миру является познание. В течение своей жизни человек не только познает внешний мир, то есть природу и общество, но и постигает самого себя, свой духовный мир.

Ключевые слова: анализ, синтез, индукция, дедукция, обобщение, абстракция, уточнение, классификация, статистика, гипотеза, гипотеза, экономика.

PHYSICS AND EMPIRICAL AND THEORETICAL METHODS OF TEACHING IT

Abstract. One of the relationships of a person to the world around him is knowledge. During his life, a person not only learns about the external world, that is, nature and society, but also understands himself, his spiritual world.

Key words: analysis, synthesis, induction, deduction, generalization, abstraction, clarification, classification, statistic, hypothesis, hypothesis, economics

Kirish. Insonning tabiatni bilishi, fizika fanini o'rganish jarayonida, uning turli tomonlarini, qonuniyatlari va xususiyatlarini ochib berilishi orqali shakllanadi. Falsafada inson bilishining tabiati va mohiyati haqida turli talimot va qarashlar mavjudligi bayon qilinadi. Bunday qarashlardan biri ilm va fan yutuqlariga asoslangan ilmiy bilish bo'lib, u oddiy kundalik bilish, g'oyibona bilish va boshqalardan tubdan farq qiladi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiylar inson dunyoni va o'zini bilishi masalasiga to'xtalib, u tabiat va jamiyatni hamda o'zini bilishga qodir deb, ilmiy bilishni targ'ib qilishgan.

Ilmiy bilish uchun inson tabiatining hamma tomonlarini, aloqadorlik va bog‘lanishlarini birgalikda o‘rganish, uni xatolik va bir tomonlama qarashdan saqlaydi. Ilmiy bilish natijasida hosil qilingan bilimlarning ma‘lum tizimlari fanlarni vujudga keltiradi. Shuning uchun, fanlar tabiat, jamiyat va inson tafakkuri to‘g‘risidagi ilmiy tizimlarga egadir.

Fanlar, jamiyat taraqqiyoti moddiy va ma‘naviy jihatdan ma‘lum yetuklikka erishgan davrda, insoniyat ilmiy bilish orqali o‘zining borliq haqida inson miqdordagi bilimlarni hosil qilish natijasida vujudga keiadi. Ilmiy i/lanishlar olib boruvchi tadqiqotchi obyektni o‘rganishga kirishar ekan, o‘rganayotgan predmet yoki hodisa haqidagi bilimlarga birdaniga ega boi- maydi. Buning uchun, u predmet yoki hodisa ustida ma‘lum vaqt uzluksiz turli xil yollar, usullar va vositalardan, va‘ni ilmiy bilish metodlaridan iby dalanadi. Bu metodlarning ilmiy bilishdagi vazifasi, ular tadqiqotchiga o‘rganayotgan predmet yoki hodisa haqida, uning tabiati va mohiyatini ifodalaydigan qonun va qonuniyatlarini ochishga yordam berishdan, natijada tadqiqotni muvaffaqiyatli bo‘lishini ta‘minlashdan iboratdir.

Ilmiy bilishda to‘g‘ri tanlangan metod, qilingan ilmiy kashfiyotdan qimmatlidir, chunki ushbu metod tadqiqotchiga bir emas, bir necha ilmiy kashfiyotlarini keltirishi mumkin. Hozirda fizikada ilmiy bilishning quyidagi metodlari ishlatiladi: analiz va sintez, induksiya va deduksiya, umumlashtirish, abstraktlashtirish va oydinlashtirish, tasniflash, statistik usul va boshqalar. Bularning har biri bilan qisqacha tanishib olaylik.

Analiz - bir butunni, ya‘ni yaxlitni qismlarga, bo‘laklarga va elementlarga ajratib, ularning har birini alohida o‘rganib, ularning nima ekanligini va induksiylarini bilishdir. Bu metodni qo‘llash natijasida butunni tashkil qilgan qismlar, bo‘laklar va elementlarning butun tarkibidagi o‘rni aniqlanadi. Analiz orqali, predmet va hodisalarning tarkibi, tuzilishi aniqlanadi.

Sintez - analiz tufayli ajratilgan qismlar, bo‘laklar va elementlari o‘zaro biriktirib, ularni yaxlit bir butun holga keltirib, ular orasidagi aloqa va bog‘lanishlarni bilishdir.

Analiz va sintez bilish jarayonidagi bir, moddiy va mantiqiy amalning ikki tomoni bo‘lib, ularni bir-biridan ajratib qo‘llab bo‘lmaydi, chunki tabiiy va jamiyatlardagi hamma narsalar, jarayonlar ko‘p tomonlidir. Masalan, avto- mobilning tuzilishi va ishlash jarayonini bilish uchun, uning qismlari tuzilishini, ularning avtomobildagi ahamiyatini o‘rganishda analiz metodi qollaniladi. Hamma qismlarning bir-biri bilan bog‘lanishi, avtomobil ish ko‘rsatkichlarini qismlar parametrlariga bog‘liqligi va qismlarning avtomobilni ishlash jarayoniga ta‘sirini bilish. sintez metodi orqali amalga oshiriladi.

Umumlashtirish, abstraktlashtirish va oydinlashtirish tadqiqotchining o‘rganayotgan predmet yoki hodisalar ustida olib borgan kuzatish va tajribalari, analiz va sintezlarni o‘z tafakkurida umumlashtiradi, abstraktlashtiradi va oydinlashtiradi. Tafakkur jarayonida yuz beradigan bu amallar ham. ilmiy bilishning umumiy ilmiy metodlarini tashkil qiladi.

Abstraktlashtirish - bu, tadqiqot olib borilayotgan bir qancha predmet yoki hodisalarga xos bo‘lgan xususiyatlar va xossalarni fikran e‘tibordan soqit qilib, tadqiqot uchun zarur hisoblangan biror belgi yoki xususiyatni ajratib olishdir.

Oydinlashtirish - umumlashtirish va abstraktlashtirish jarayonida ajratib olingan, e'tibordan soqit qilingan belgi va xususiyatlarni yana obyekt bilan bo'glab, shu obyekt haqida aniq bir fikr hosil qilishdir. Demak, umumlashtirishdan abstraktlashtirishga va undan oydinlashtirishga o'tish sodir bo'ladi.

Induksiya va deduksiya - ushbu metodlar bilishning shunday usulidirki, bunda, tadqiqotchi o'z tafakkurida tekshirayotgan obyekt to'g'risidagi bir qancha juz'iy dalillardan, ular haqidagi ayrim bilimlardan umumiyroq bilimlarga (induksiya) va umumiy bilimlardan juz'iy, qisman yoki xususiy bilimlarga (deduksiya) oladi. Insonning bilish tajribasidan shu narsa ma'lumki, agar biror xususiyat bir sinf yoki jinsdagi hamma obyektlarga xos bo'lsa, bu xususiyat shu sinf yoki jinsga oid har bir obyektga ham xos bo'ladi.

Tadqiqotchi o'zi o'rganayotgan obyektни ilmiy bilishda turli metodlardan foydalanib, yangi bilimlarni hosil qiladi. Bu yangi bilimlar rivojlanish jarayonida turli shakllarga ega bo'lib, ular quyidagilardan, ya'ni kuzatish va tajriba natijalari, ilmiy g'oya. muammo, faraz, nazariyalardan iboratdir. bularning har birini qisqacha ko'rib o'taylik.

1. **Kuzatish va eksperiment.** Kuzatish - harakat, o'zgarish va rivojlanishdagi ma'lum obyektни tabiiy sharoitda u qanday bo'lsa. shu holicha belgilangan vaqt ichida, ma'lum maqsad asosida ko'zdan kechirib borishdir.

2. **Eksperiment** esa, sun'iy yaratilgan sharoitda (laboratoriyada) olib boriladigan kuzatishdir. Eksperimentda tadqiqotchi o'rganish obyektiga faol ta'sir qilishi, u yoki bu tashqi ta'sirlarni o'zgartirishi mumkin. Masalan, erkin tushishni o'rganishda har xil massali va shaklli jismlarni havoda, vakuumda yerga tushishini maqsadli kuzatish - eksperimentdir.

Eksperiment kuzatishga qaraganda yuqoriroq darajadagi bilish usulidir. Eksperiment usuli hodisalarning muhim belgilari va xususiyatlarini, ularning boshqa hodisa va narsalar bilan munosabati, aloqa va bog'lanishlarini chuqurroq o'rganishga imkon yaratadi. Bu usul izlanuvchiga tabiiy sharoitda kuzatish orqali hosil qilish mumkin bo'lmagan bilimlarni olish imkoniyatini beradi. Ilmiy tadqiqot sohalariga, tadqiq qilinuvchi obyektlarning tabiatiga qarab, eksperimentlar fikriv eksperiment bo'lishi ham mumkin. Eksperiment o'tkazishda izlanuvchi quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

- eksperiment maqsadini aniqlash va uni o'tkazish uchun zarur shart-sharoit yaratish;
- tajribaning mukammal chizmasini va rejasini ishlab chiqish;
- eksperiment uchun zarur asbob va qurilmalarni yig'ish;
- tajriba o'tkazish va o'lchash natijalari asosida kerakli hisoblashlarni bajarish;
- eksperiment natijalarini analiz qilish va xulosa chiqarish.

3. Ilmiy g'oya - bilishning birinchi shaklidir. G'oya bu, tadqiqot maqsadini, uning yo'nalishini va mohiyatini ifodalaydigan ilmiy bilishdir. Ilmiy bilishda g'oya muhim rol o'vnaydi. Ma'lum bir aniq g'oya tug'ilmaguncha, hech bir sohada tadqiqot olib borilmaydi. Har bir g'oya (borliqni to'g'ri yoki noto'g'ri aks ettirishidan qat'iy nazar) ma'lum bir tayyorgarlik, mushohada asosida, ma'lum bir sohada fikr yuritish natijasida paydo bo'lib, unda

tadqiqotchining amaliy va nazariy tajribalari umumlashgan bo'ladi. G'oya, ilmiy yoki badiiy borliqni to'g'ri yoki noto'g'ri aks ettirishi mumkin. Uning qanday ekanligi ko'pchilik tomonidan o'tkaziladigan ko'p sonli eksperimentlarda aniqlanadi.


4. **Muammo** - ilmiy bilishda bir qancha g'oyalar birikmasi bo'lib, ilmiy bilishning hali bilib bo'lmagan va hal qilinmagan, lekin hal qilinishi lozim bo'lgan bilim shaklidir. Bu shakl, yangi dalillar eski bilim doirasiga sig'may qolganda vujudga keladi. Muammoni to'g'ri qo'yish - ilmiy bilishda asosiy hisoblanadi. Muammo savol va masaladan farq qiladi. Savol va masala oldingi bilim asosida hal etiladi.

Ilmiy bilish jarayonida bir muammo bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, bozor iqtisodiyotiga o'tish muammosi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotimizda yangi muammolarni ishlab chiqarilgan mahsulotlarni erkin narxda sotishga o'tish, kam ta'minlangan oilalarni, nafaqaxo'rlarni, talaba va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish kabi muammolarni yuzaga keltirdi. Muammolarni hal qilishda ko'plab ilmiy faraz, gipotezalar paydo bo'lishi mumkin.

5. **Gipoteza** - o'rganilayotgan obyekt to'g'risida ilgari surilgan, ilmiy jihatdan asoslangan, ilmiy dalil va ma'lumotlarga zid bo'lmagan, lekin haqiqatligi isbotlanmagan ilmiy bilish shaklidir. Ilmiy bilishda paydo bo'lgan gipotezalar keyingi tadqiqotlarda tekshirilib, ularning haqiqatligi tasdiqlanadi yoki xatoligi isbotlanib, rad qilinadi. Gipotezani rad etish uchun, uning xatoligini isbotlovchi birgina ilmiy dalil yetarlidir.

6. **Nazariya** - ilmiy bilishning eng yuqori shakli b'lib, haqiqatligi amaliy yoki nazariy jihatdan isbotlangan, borliqning biror sohasiga tegishli ma'lum g'oya, qarash, qonun va prinsiplarning muayyan tizimidir. Nazariyaning asosiy vazifasi - amaliyot bergan dalillarni izohlash, o'rganilayotgan obyekt mohiyatiga chuqurroq kirish, ro'y beradigan voqea va hodisalarni oldindan ko'ra bilishdan iboratdir. U hech qachon tugallangan bo'lmaydi, shuning uchun, u har doim rivojlanib boradi. Ma'lum nazariyaning amal qilish chegaralari. ya'ni aniq qo'llanish shait-sharoitlari bo'ladi.

1-
rasm



1-rasm. Bilish nazariyasiga ko'ra. ilmiy tadqiqotlarda ishlatiladigan metodlar - empirik va nazariy metodlar.

Odatda bilish nazariyasiga ko'ra, ilmiy tadqiqotlarda ishlatiladigan metodlarni empirik va nazariy metodlarga bo'lish mumkin. Ammo ular bir-birini to'ldiradi, buni bilish nazariyasi misolida sxematik tarzda quyidagicha ko'rsatish mumkin. 1-rasmga ko'ra, har qanday empirik

metod bilan topilgan yangi natija yoki nazariya o'zining nazariy tasdig'ini topishi kerak. Shundagina u ilmiy yangilik sifatida tan olinadi va aksincha, har qanday nazariy metod bilan topilgan yangilik tajribada tasdiqlansagina tan olinadi. Demak ilmiy bilishning empirik va nazariy metodlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bolib, ular bir-birini to'ldirar ekan.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - Muallif, 2001.
2. Архангельский С.И. Учебный процесс в высшей школе, его закономерный основы и методы—М.:В1П. 1980.
3. Ahmadjonov O.I. Oliy texnika o'quv yurtlarida fizika fanini o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari. Fed. fan. dok. diss. avtoref. — T., 1995
4. Турсунов Қ.Ш., Тошпўлатов Ч.Х. Физика таълими технологияси. Методик қўлланма. —Қарши, Насаф, 2012



TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Bekmirzayev Mavlon Xudayorovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti
bekmirzayevmavlon894@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish metodikasi yoritilgan. Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ularning mustaqil fikrlash va muammo yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy raqamli platformalar, interaktiv dasturlar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar orqali o‘quv materiallarini o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishning ijobiy jihatlarini ko‘rsatib, pedagogik amaliyot uchun muhim tavsiyalarni beradi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim texnologiyalari, tabiiy fanlar, interaktiv o‘qitish, virtual laboratoriya, simulyatsiya, raqamli platformalar.

USING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING NATURAL SCIENCES

Annotation: This article explores the methodology of effectively using digital educational technologies in the teaching of natural sciences. Digital technologies are recognized as a crucial factor in improving the quality of education, increasing students' interest in science, and developing their independent thinking and problem-solving skills. The article also analyzes methodological approaches aimed at enhancing the assimilation of educational materials through modern digital platforms, interactive applications, virtual laboratories, and simulations. The research results highlight the positive aspects of integrating digital technologies into the educational process and provide important recommendations for pedagogical practice.

Keywords: digital educational technologies, natural sciences, interactive teaching, virtual laboratory, simulation, digital platforms.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

Аннотация: В данной статье рассматривается методика эффективного использования цифровых образовательных технологий в процессе преподавания естественных наук. Цифровые технологии признаны важным фактором повышения качества образования, усиления интереса учащихся к науке, а также развития их самостоятельного мышления и навыков решения проблем. В статье проанализированы методические подходы, направленные на повышение эффективности усвоения учебного материала с помощью современных цифровых платформ, интерактивных программ, виртуальных лабораторий и симуляций. Результаты исследования демонстрируют положительное влияние интеграции цифровых технологий в образовательный процесс и предлагают важные рекомендации для педагогической практики.

Ключевые слова: цифровые образовательные технологии, естественные науки, интерактивное обучение, виртуальная лаборатория, симуляция, цифровые платформы.

Kirish. Jahonda rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimida, jumladan AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya, Fransiya, Rossiyalarda ta'lim tizimini axborotlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga multimediali didaktik vositalar va Raqamli ta'lim texnologiyalarni joriy etish asosiy ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Jumladan, xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha bo'lgan davr yangi ta'lim konsepsiyasida ta'lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga etaklovchi muhim faoliyat sifatida e'tirof etilgan [1]. Bugungi kunda bizning zamonimiz Raqamli ta'lim texnologiyalar davri bo'lib, bu tushuncha hozirda faqatgina maishiy hamda kundalik qulayliklarini anglatmay, balki insoniyatning iqtisodiyot va jamiyat talablariga javob berishi, atrofdagi olamning uzluksiz o'zgarishiga moslashishga tayyorligini bildiradi. Raqamli ta'lim texnologiyalari kelajakka erishish vositasi bo'la oladimi yoki yo'qmi, buni biz qanchalik tez Raqamli ta'lim texnologiyalar jarayonga o'tishimizga bog'liq. Ta'limda yuz berayotgan bu o'zgarishlar ayniqsa tabiiy fanlarni o'qitishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki fizika, kimyo, biologiya, geografiya kabi tabiiy fanlar ko'pincha murakkab ilmiy tushunchalar, abstrakt jarayonlar, nazariy modellar va amaliy tajribalarni o'z ichiga oladi. Bunday tushunchalarni faqat og'zaki yoki kitob orqali yetkazish o'quvchilarda to'liq anglashni ta'minlamasligi mumkin. Shu sababli, raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bu fanlarni o'rgatishda ilmiy tushunchalarni soddalashtirish, vizualizatsiya qilish, ko'rgazmalilikni ta'minlash va o'quvchilarning faol ishtirokini kuchaytirish imkonini beradi.

Masalan, fizikadagi elektromagnit to'lqinlar, kimyodagi molekulyar bog'lanishlar, biologiyadagi hujayra tuzilmasi yoki geografiyadagi relyef shakllarini 3D modellar, animatsiyalar yoki virtual laboratoriyalar yordamida ko'rsatish orqali o'quvchilar ushbu murakkab mavzularni nafaqat ko'radi, balki ularni amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa an'anaviy darslarga nisbatan o'zlashtirish darajasini sezilarli oshiradi.

Shuningdek, raqamli platformalar (masalan, PhET simulyatsiyalari, Labster virtual laboratoriyalari, Google Classroom, Moodle va boshqalar) orqali darslarni interaktiv tashkil

etish, topshiriqlarni avtomatik baholash, o‘quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati mavjud. Bu pedagog uchun o‘quv jarayonini differensiallashtirish, o‘quvchi uchun esa o‘z tempida va o‘z qiziqishiga mos ta’lim olish imkoniyatini beradi [2].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O. Mavlonov, J. Tolipova, S. Nadjimova, M.Nishanboyevalarning [3] ilmiy-tadqiqot ishlarida tabiiy fanlarni o‘qitishda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari ochib berilgan, o‘qituvchi va o‘quvchilarning faolligini shakllantiruvchi ta’lim usullari, vositalari va shakllarining tizimli to‘plami sifatida ta’riflangan. A.A. Axmedov va D.M. Karimov esa o‘z ishlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali tabiiy fanlar darslarining samaradorligini oshirish, interaktiv vositalar orqali o‘quvchining o‘quv faoliyatini faollashtirish bo‘yicha tavsiyalarni bayon etgan. Ular virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, elektron testlar va onlayn baholash tizimlarini fan o‘qitishda joriy etishni taklif qilishgan [4].

Xorijiy amaliyotda PhET (University of Colorado Boulder) va Labster (Daniya) kabi platformalar yordamida tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning darsga jalb etilishi, eksperimentlarni xavfsiz va realga yaqin formatda bajarishlari ta’minlanmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida olib borilgan sinovlar ko‘rsatadiki, simulyatsiyalar orqali o‘rganilgan mavzularning o‘zlashtirilish darajasi an’anaviy darslarga nisbatan yuqori bo‘lmoqda [6-7].

2010–2024 yillar oralig‘ida chop etilgan maqolalar, ta’limni rivojlantirishga oid hujjatlar hamda raqamli ta’lim platformalariga (masalan, PhET, Labster, Moodle) tegishli foydalanuvchi qo‘llanmalari kabi manbalar tahlil qilindi. Tadqiqotda asosan dolzarbligi, ilmiy ekspertizadan o‘tganligi va iqtiboslar soni yuqoriligi mezonlariga asoslangan manbalar tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida 9 ta ilmiy maqola chuqur tahlil qilinib, tabiiy fanlarni onlayn platformalar orqali o‘qitish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natija va muhokamalar. O‘tkazilgan tahlillar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatdiki, tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilimni egallash sifati, fanga qiziqishi va mustaqil fikrlash darajasini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, virtual laboratoriyalar (Labster), interaktiv simulyatsiyalar (PhET), onlayn test tizimlari va raqamli kontentlar orqali dars tashkil etilgan sinflarda o‘quvchilar o‘zlashtirish darajasi nazorat guruhlariga nisbatan 20–30% ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

PhET simulyatsiyalaridan foydalangan sinflarda fizik hodisalarning vizualizatsiyasi orqali murakkab tushunchalarni tez va oson tushunish holatlari ko‘proq kuzatildi. Labster platformasidagi virtual tajribalar orqali esa kimyo va biologiya fanlaridagi xavfli yoki murakkab amaliy mashg‘ulotlar xavfsiz, tushunarli va interaktiv tarzda o‘rgatilishi mumkin bo‘ldi. Bu esa darslarda faol ishtirokni oshirib, o‘quvchilarning ilg‘or texnologiyalarga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirdi.

Quyida tabiiy fanlarni o‘qitishda foydalaniladigan raqamli ta’lim texnologiyalari keltirib o‘tilgan.

1. **PhET Interactive Simulations** –Fizika, kimyo va biologiya bo‘yicha interaktiv simulyatsiyalar. Talabalarga laboratoriya sharoitida amalga oshiriladigan tajribalarni

virtual tarzda bajarish imkonini berish. Bu ayniqsa jihozlar cheklangan yoki mavjud bo‘lmagan ta’lim muassasalari uchun foydalidir [14].

2. **Labster** –Virtual laboratoriyalar: kimyo, biologiya, fizika va ekologiya tajribalari. Talabalarga murakkab va xavfli tajribalarni xavfsiz, interaktiv va immersiv virtual muhitda bajarish imkonini berish.
3. **Khan Academy**–Tabiiy fanlar bo‘yicha bepul video darslar, mashqlar va testlar. O‘quvchining bilim darajasi asosida moslashtirilgan mashqlar, tavsiyalar va rivojlanish grafigi orqali individual ta’lim yo‘nalishini yaratadi.
4. **Google Earth / Google Earth Education**– Geografiya darslari uchun vizual va interaktiv xaritalar, topografik ma’lumotlar. Dunyodagi har qanday joyni 3D ko‘rinishda ko‘rish, landshaftlarni tahlil qilish va tabiiy shakllarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.
5. **Zooniverse** –Biologiya va ekologiya bo‘yicha ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkonini beruvchi platforma. Katta hajmdagi ilmiy ma’lumotlarni tez tahlil qilish. Masalan, teleskop suratlarini saralash, qadimiy qo‘lyozmalarni o‘qish yoki ekologik holatni monitoring qilish kabi topshiriqlarni jamoaviy bajarish orqali tezkor ilmiy natijalarga erishiladi.
6. **CK-12 Foundation** –O‘rta maktab darajasidagi fizika, kimyo, biologiya fanlariga oid bepul darsliklar va mashqlar. Simulyatsiyalar, videodarslar va interaktiv mashqlar orqali o‘quvchilarning fanlarni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.
7. **ExploreLearning Gizmos** – O‘quvchilarga murakkab tushunchalarni tajriba va simulyatsiyalar orqali tushunarli qilish. Virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilar o‘zlari eksperimentlar o‘tkazishi, o‘zgaruvchilarni boshqarishi va natijalarni tahlil qilishi mumkin.
8. **Visible Body** –Biologiya va anatomiya uchun 3D modellar va interaktiv vositalar. Skelet, mushak, qon aylanishi, asab, nafas olish, ovqat hazm qilish va boshqa tizimlarni aniq va tafsilotli 3D modellar orqali ko‘rsatadi.

Xulosa. Mazkur maqola tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish muammosiga bag‘ishlangan. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarning ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, shuningdek, mustaqil fikrlash va muammo yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Maqolada zamonaviy raqamli platformalar, interaktiv dasturlar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar orqali o‘quv materiallarini o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishning ijobiy jihatlarini namoyish etib, pedagogik amaliyot uchun muhim tavsiyalarni beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Education 2030. Incheon Declaration and Framework for Action. / <http://uis.unesco.org/sites/default/files/>
2. Мухаметжанова Г.М., Рахимов С.Ж. Цифровые технологии в современном образовании. – Ташкент: Учитель, 2022.
3. Мавлянов О., Наджимов С., Нишанбоева М. Методы и технологии обучения зоологии. 7 класс. Пособие для учителей биологии общеобразовательных школ. –Т.: Государственное научное издательство «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2005. – 160 с.
4. Axmedov A.A., Karimov D.M. Raqamli ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU, 2021.
5. Azizov U. Raqamli texnologiyalar asosida fanlarni o‘qitish metodikasi. – Jizzax: JPI, 2023.
6. Khan Academy. (2023). Digital Learning Tools for Science Education. www.khanacademy.org
7. Labster. (2023). Virtual Science Lab Simulations. www.labster.com
8. <https://phet.colorado.edu>
9. <https://earth.google.com>
10. <https://www.zooniverse.org>
11. <https://www.ck12.org>
12. <https://www.explorelearning.com>
13. <https://www.visiblebody.com>
14. Perkins, K., et al. (2006). PhET: Interactive simulations for teaching and learning physics. The Physics Teacher, 44(1), 18–23.
15. <https://www.gov.scot/publications/enhancing-learning-teaching-through-use-digital-technology/pages/4/>
16. Aliisa Alizada THE ROLE OF ONLINE LEARNING PLATFORMS IN EDUCATION October 2023ETM Equipment Technologies Materials 16(04):53-58 DOI:10.36962/ETM16042023-53



MAKTABLARDA ICHKI MONITORING TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR

Bobodo‘stov Yusuf Oydin o‘g‘li

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy tadqiqot instituti magistranti.

bobodostov.yusuf@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta‘lim maktablarida ichki monitoring tizimini takomillashtirish masalasi batafsil yoritilgan. Maqolada ichki monitoringning nazariy asoslari, uning ta‘lim sifatini boshqarishdagi o‘rni va ahamiyati tahlilga tortilgan. Shu bilan birga, rivojlangan xorijiy mamlakatlar, xususan, Finlandiya, Singapur, AQSH va Angliya kabi davlatlar ta‘lim tizimidagi ilg‘or ichki monitoring tajribalari o‘rganilgan va O‘zbekiston maktablari sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilib, amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim tizimi, ichki monitoring, ta‘lim sifatini boshqarish, o‘quvchilarni baholash, pedagogik yondoshuvlar, xorijiy tajriba, sifatni ta‘minlash tizimlari, o‘qituvchilar malakasini rivojlantirish, monitoring metodlari va usullari

ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ВНУТРЕННЕГО МОНИТОРИНГА В ШКОЛАХ

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются вопросы совершенствования системы внутреннего мониторинга в общеобразовательных школах. Анализируются теоретические основы внутреннего мониторинга, его роль и значение в управлении качеством образования. Кроме того, в статье рассматриваются передовой опыт внутреннего мониторинга в развитых зарубежных странах — в частности, в Финляндии, Сингапуре, США и Великобритании, а также возможности адаптации этих практик к условиям школ Узбекистана с выдвигением практических предложений.

Ключевые слова: Система образования, внутренний мониторинг, управление качеством образования, оценка учащихся, педагогические подходы, зарубежный опыт, системы обеспечения качества, повышение квалификации учителей, методы и приемы мониторинга.

ADVANCED INTERNATIONAL PRACTICES IN IMPROVING INTERNAL MONITORING SYSTEMS IN SCHOOLS

Abstract. *This article provides a detailed analysis of the improvement of the internal monitoring system in general education schools. It examines the theoretical foundations of internal monitoring, its role, and significance in managing the quality of education. Furthermore, the article analyzes advanced internal monitoring practices in developed countries — in particular, Finland, Singapore, the United States, and the United Kingdom. The potential for adapting these experiences to the context of schools in Uzbekistan is explored, and practical recommendations are proposed.*

Keywords: *Education system, internal monitoring, education quality management, student assessment, pedagogical approaches, foreign experience, quality assurance systems, teacher professional development, monitoring methods and techniques.*

Kirish

Bugungi kunda maktablardagi ta’lim sifati mamlakatning muhim ijtimoiy imijiga aylanib bormoqda. Har bir davlat o‘zining raqobatbardosh inson kapitalini rivojlantirishga intilar ekan, bu jarayonda umumta’lim maktablaridagi ta’lim jarayonining samaradorligi, sifatli ta’lim berish tizimining mavjudligi alohida o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan maktablardagi ichki monitoring tizimi — ya’ni ta’lim muassasasining o‘z ichida ta’lim sifatini doimiy nazorat qilish, baholash va takomillashtirib borish tizimi — zamonaviy maktab boshqaruvining ajralmas elementi sifatida qaralmoqda.

Ichki monitoring tizimi orqali maktab rahbariyati, o‘qituvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar ta’lim jarayonidagi muammolarni erta aniqlash, ularni samarali hal qilish, shu bilan bir vaqtda, sifatli o‘quv muhitini yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida, milliy ta’lim tizimini zamon talablari darajasiga olib chiqishning eng muhim shartlaridan biridir.¹

Xalqaro tajribalarga murojaat qilar ekanmiz, rivojlangan mamlakatlar, xususan, Finlandiya, Singapur, AQSH va Buyuk Britaniya ta’lim tizimlarida ichki monitoringning samarali va tizimli modeli shakllanganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu davlatlar maktablarida ichki monitoring tizimi faqatgina nazorat va tekshiruv vositasi sifatida emas, balki ta’lim sifatini muntazam tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularga barvaqt yechim topish imkonini beruvchi kompleks diagnostik mexanizm sifatida qo‘llaniladi. Bunday yondashuv maktab rahbariyatiga o‘z faoliyatini tanqidiy ko‘z bilan baholash, o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha aniq choralar belgilash hamda o‘quvchilarning yutuqlarini izchil monitoring qilish imkonini beradi. Natijada ta’lim jarayonida uzluksiz rivojlanish va sifatni oshirishga xizmat qiluvchi samarali muhit vujudga keladi.

Afsuski, hozirgi kunda O‘zbekiston umumta’lim maktablarida ichki monitoring tizimining to‘laqonli va tizimli joriy etilishi dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Amaldagi monitoring jarayonlari ko‘p hollarda faqat rasmiy hujjatlar bilan chegaralanib qolgan deyish mumkin. Bu esa ichki monitoringning ta’lim sifatini oshirishdagi asosiy funksiyasini to‘laqonli amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu boisdan, ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish va

ularni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali ichki monitoring tizimini takomillashtirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Quyida olib borgan kichik tadqiqotimiz natijasida rivojlangan mamlakatlardagi (Finlandiya, Singapur, AQSH, Buyuk Britaniya) samarali amaliyotlar o‘rganildi hamda O‘zbekiston maktablarida qo‘llashga oid ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Asosiy qism

Ichki monitoring tizimi ta’lim sifatini boshqarish va uni doimiy ravishda yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi. U maktablarning faoliyatini tahlil qilish, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilarning akademik yutuqlarini baholash va umumta’lim jarayonini yaxshilashga qaratilgan tizimdir. Ichki monitoringning vazifasi faqat nazoratni amalga oshirishdagina emas, balki ta’lim sifatining doimiy ravishda rivojlanishiga ko‘maklashishda ham namoyon bo‘ladi. Yana shuni aytib o‘tish kerakki, monitoring tizimi ta’lim jarayonini doimiy ravishda tahlil qilish va uni optimallashtirishga qaratilgan diagnostik vosita sifatida ham ishlaydi.

Ichki monitoring tizimining mohiyati va vazifalari. Ichki monitoring tizimi maktablarning ichki faoliyatini muntazam ravishda baholashga imkon beradi. Tizim yordamida ta’lim jarayonining samaradorligi, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, o‘qituvchilarning pedagogik malakasi va maktabda amalga oshirilayotgan pedagogik jarayonlar tahlil qilinadi. Monitoring o‘quvchilarning yutuqlarini aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, o‘qituvchilarning pedagogik uslublarini takomillashtirish va o‘z kasbiy malakasini oshirish uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlarni taqdim etadi. ²

Ikkinchi muhim funksiyasi — ta’lim jarayonini optimallashtirishdir. Monitoring orqali o‘quv jarayonining samaradorligi va resurslardan foydalanish darajasi tahlil qilinadi. Bu tizim maktabda ta’limni samarali boshqarish va resurslarni optimallashtirish imkonini beradi. Bu jarayonni boshqarish va pedagogik metodlarni yangilash orqali ta’lim jarayonini yaxshilashga erishiladi. ³

Ichki monitoringning yana bir muhim funksiyasi, o‘qituvchilarning pedagogik malakasini tahlil qilish va zarur bo‘lgan kasbiy o‘sish uchun sharoit yaratishdir. Bu jarayon o‘qituvchilarni o‘zlarining o‘quvchilari bilan ishlashda yangicha uslublarga o‘rgatish va ularning malakasini doimiy ravishda oshirishga imkon beradi.

Ichki monitoringning ta’lim sifatini boshqarishdagi o‘rni. Ichki monitoring tizimi ta’lim sifatini boshqarishda markaziy rol o‘ynaydi. Ta’lim sifatini boshqarishda ichki monitoring tizimi o‘qituvchilarning ishlanmalari va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tizim maktablarning ichki faoliyatini tahlil qilishga va o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini baholashga yordam beradi. Shuningdek, ichki monitoring tizimi ta’lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni tuzatishga imkon yaratadi. ⁴

Ichki monitoring tizimi nafaqat ta’lim sifatini boshqaradi, balki o‘qituvchilarni o‘z bilimlarini yangilashga, pedagogik yondoshuvlarni takomillashtirishga ham yordam beradi.

O‘qituvchilarni doimiy ravishda rag‘batlantirish va kasbiy malakalarini oshirish orqali, ichki monitoring tizimi ta’lim jarayonini yanada sifatli va samarali qilishga yordam beradi.⁵

Finlyandiya tajribasi: ishonch va o‘zini o‘zi baholash tamoyiliga asoslangan yondashuv

Finlyandiya ta’lim tizimi ichki monitoringda ishonch va o‘zini o‘zi baholash tamoyiliga asoslangan holda rivojlangan. Mamlakatda maktablar yuqoridan nazorat qilinmaydi, balki o‘zlari o‘z faoliyatlarini baholaydi va takomillashtirish choralari ko‘radi. “Self-Evaluation Toolkit for Schools” (maktablar uchun o‘zini baholash vositasi) dasturi orqali har bir maktab ta’lim sifati, dars metodikasi, o‘quvchilarning rivojlanishi va ota-onalar bilan aloqalarni tahlil qiladi. Bu tahlillar yozma shaklda rasmiylashtirilib, maktab pedagogik kengashida muhokama qilinadi.⁶

Finlyandiya maktablarida darslar muntazam kuzatuv ostida bo‘lmaydi. O‘qituvchilar professional mutaxassis sifatida mustaqil qaror qabul qiladi, o‘z faoliyatini tahlil qiladi va hamkasblari bilan fikr almashadi. Bu yondashuv o‘qituvchining ichki monitoringga mas’uliyat bilan yondashishini ta’minlaydi.

Amaliy misol: Tampere shahridagi “Kaleva” maktabida o‘quvchilarning darslardagi faolligi, o‘z fikrini bildirish darajasi va loyihaviy ishlar baholash mezonlariga kiritilgan. Har semestrda maktab rahbariyati o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida anonim so‘rovnoma o‘tkazadi. Natijalar asosida o‘qituvchilarning dars berish uslublarida o‘zgarishlar kiritiladi. Masalan, so‘rovnoma natijalarida o‘quvchilarning bir guruhi matematika darslarini murakkab deb baholagan. Shundan so‘ng maktab rahbariyati maxsus matematik modul dasturini ishlab chiqdi va kuchsiz o‘quvchilar uchun haftalik yordam darslari tashkil etdi.⁷

Singapur tajribasi: raqamli monitoring va holistik baholash

Singapur ta’lim tizimi ichki monitoringni holistik (kompleks) yondashuv asosida yo‘lga qo‘ygan. Maktablarda faqat akademik ko‘rsatkichlar emas, balki o‘quvchilarning hissiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishi ham doimiy monitoring ostida bo‘ladi. Bu maqsadda “PERI Holistic Assessment Framework” asosida kuzatuvlar olib boriladi.

Monitoring jarayonida o‘qituvchilar har bir o‘quvchining darslardagi ishtiroki, liderlik qobiliyati, jamoaviy ishlardagi roli va muomala madaniyatini baholaydi. Ushbu ma’lumotlar raqamli tizimga kiritiladi va individual “Learning Portfolio” shakllantiriladi. Bu portfoliolar ota-onalarga muntazam ravishda taqdim etiladi, bu esa ularning ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlaydi.

Amaliy misol: Bukit Batokdagi “West Spring Primary School” maktabida ichki monitoring uchun maxsus elektron platforma ishlab chiqilgan. Har bir o‘quvchi haqida o‘qituvchi haftasiga bir marotaba qiziqishlar, ijtimoiy faollik va darslardagi qatnashuv haqidagi ma’lumotni tizimga kiritadi. Bu tizim asosida o‘quvchilarga differensial yondashuv qo‘llaniladi. Masalan, o‘quvchilar orasida ijtimoiy jihatdan passiv bolalar aniqlanib, ular uchun “Peer Buddy” loyihasi yo‘lga qo‘yiladi. Bu loyiha doirasida har bir passiv o‘quvchiga faol

o‘quvchilardan biri biriktirildi va ular birgalikda topshiriqlarni bajardi. Bu monitoring natijasida ijtimoiy faollik 30 foizga oshganligi kuzatilgan.⁸

Singapur tajribasi ichki monitoringni nafaqat nazorat balki o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko‘rsatadi.

AQSh tajribasi: ma’lumotlarga asoslangan qarorlar va RTI modeli

Amerika Qo‘shma Shtatlarida ichki monitoring tizimi asosan “data-driven decision making” – ya’ni ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tamoyiliga asoslanadi. Maktablar o‘quvchilarning har bir fan bo‘yicha yutuqlari, rivojlanish sur‘atlari, xulq-atvori va boshqa mezonlar asosida doimiy statistik monitoring olib boradi. Bu tizimning asosiy quroli — “Response to Intervention” (RTI) modeli hisoblanadi.⁹

RTI modeli uch darajali yondashuvdan iborat: 1-daraja – barcha o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan umumiy darslar, 2-daraja – qo‘shimcha yordamga muhtoj guruhlar, 3-daraja – individual, maxsus yondashuv. Maktab psixologlari, ijtimoiy pedagoglar va fan o‘qituvchilari ushbu modellarda birgalikda ishlaydi.

Amaliy misol: Nyu-Yorkdagi “Lincoln Middle School” maktabida ichki monitoring natijalari 6-sinf o‘quvchilari orasida matematika fani bo‘yicha qiyinchiliklar borligini ko‘rsatdi. 2-darajali RTI bosqichi doirasida ularga har kuni 30 daqiqalik maxsus darslar belgilandi. Bundan tashqari, o‘quvchilar uchun elektron testlar asosida har oyda diagnostika o‘tkazilib, rivojlanish darajasi kuzatildi. 4 oy ichida ushbu o‘quvchilarning yutuqlari 20 foizga oshgani aniqlandi.

AQSh tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli tahlil, tizimli yondashuv va ko‘p bosqichli yordam mexanizmi ichki monitoring samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.¹⁰

Buyuk Britaniya tajribasi: rejalilik, hisobot va baholash tizimi

Buyuk Britaniyada ichki monitoring tizimi maktab rahbariyati tomonidan yuritiladigan “Self-Evaluation Form” (SEF) va yillik “School Improvement Plan” (SIP) orqali amalga oshiriladi. Bu tizim maktab ichidagi jarayonlarni tahlil qilish, dars sifatini baholash, o‘quvchilarning yutuqlari va ijtimoiy rivojlanishini monitoring qilishga yo‘naltirilgan. Har bir maktab o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ularni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi.¹¹

Maktablarda monitoring quyidagi sohalarni qamrab oladi: dars sifati, o‘quv natijalari, pedagogik rahbarlik, ota-onalar bilan ishlash, xavfsizlik va farovonlik. SEF doirasidagi baholash natijalari bo‘yicha SIP ishlab chiqiladi va har chorakda yangilanadi. Bu yondashuv muntazam rivojlanish va shaffoflikni ta’minlaydi.

Amaliy misol: Manchesterdagi boshlang‘ich maktablardan biri o‘z SEF baholashi orqali ingliz tili fanidan o‘quvchilar ko‘rsatkichining pasayganini aniqladi. SIP asosida maktab rahbariyati “Reading Recovery” loyihasini ishga tushirdi. Bu loyiha doirasida past natijali o‘quvchilar uchun alohida o‘quv dasturlari ishlab chiqildi. O‘qituvchilar esa “Lesson Observation Protocol” orqali bir-birining darslarini kuzatib, tajriba almashishdi. olti oy ichida bu faoliyat o‘quvchilar savodxonlik darajasining 18 foizga o‘sishiga olib keldi.¹²

Buyuk Britaniya tajribasi, ayniqsa, rejalilik, o‘z-o‘zini baholash va ichki monitoring orqali o‘zgarish kiritish mexanizmlari bilan ajralib turadi. Bu tizim boshqaruvda izchillik va natijadorlikni ta‘minlaydi.

Ichki monitoring tizimini takomillashtirishda xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni O‘zbekiston ta‘lim tizimiga moslashtirish zarur. Yuqorida tahlil qilingan Finlyandiya, Buyuk Britaniya, Singapur va AQShning tajribalari O‘zbekistondagi monitoring tizimining islohoti uchun muhim yo‘nalishlarni belgilab beradi.

Birinchidan, Finlyandiya tajribasi asosida O‘zbekistonda ichki monitoringga nisbatan ishonch tamoyilini kuchaytirish lozim. Buning uchun maktab jamoalariga – ayniqsa direktor, metodist va o‘qituvchilarga – pedagogik qarorlar qabul qilishda ko‘proq erkinlik va mas‘uliyat berilishi kerak. Maktablarning o‘zini baholash mexanizmlarini mustahkamlash orqali tashqi nazoratga bo‘lgan ortiqcha tayanish kamayadi.

Ikkinchidan, Buyuk Britaniyada mavjud bo‘lgan SEF (Self-Evaluation Form) va SIP (School Improvement Plan) singari hujjatlarni O‘zbekistondagi maktablar amaliyotiga joriy qilish foydali bo‘ladi. Har bir maktab o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilib, natijasi asosida rivojlanish rejasini ishlab chiqsa, bu tizimiy yondashuvni kuchaytiradi. Shu bilan birga, dars kuzatuvlari, o‘zaro baholash, tahliliy seminarlar orqali sifatli ichki monitoringni ta‘minlash mumkin.

Uchinchidan, Singapur tajribasidagi holistik baholash elementlarini joriy etish lozim. O‘zbekistonda ham o‘quvchilar faqat baholar bilan emas, balki ularning kommunikativ, ijtimoiy va emotsional kompetensiyalari bilan ham baholanishi kerak. Buning uchun elektron portfellar, o‘z-o‘zini baholash jurnallari, tengdoshlar baholash tizimi joriy qilinishi mumkin.

To‘rtinchidan, AQShdagi RTI (Response to Intervention) modeli asosida o‘quvchilarning individual o‘zlashtiruvini kuzatib borish, differensial yondashuvlar asosida yordam ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish mumkin. Bu orqali har bir o‘quvchining o‘quv ehtiyojlari aniqlanib, unga mos yondashuvlar ishlab chiqiladi. Bunda raqamli platformalardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

XXI asrda ta‘lim sifati ustuvor masalaga aylanar ekan, uni doimiy baholab borish va takomillashtirishda ichki monitoring tizimining samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston ta‘lim tizimida so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar, albatta, muhim bosqichdir. Biroq bu islohotlarni tizimlashtirish va natijadorlikni oshirish uchun ichki monitoring mexanizmlarini yangilash, chuqurlashtirish hamda zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish talab etiladi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan ta‘lim tizimlarida ichki monitoring faqat nazorat vositasi emas, balki maktab jamoasining o‘z-o‘zini anglash, o‘sish va rivojlanish mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi. Finlyandiya tajribasida bu – ishonch va o‘zini baholash tamoyillariga asoslangan bo‘lsa, Buyuk Britaniyada – maktab ichki hujjatlariga tayanilgan rejalashtirilgan monitoring sifatida ko‘zga tashlanadi. Singapurda esa bu jarayon o‘quvchining

har tomonlama rivojlanishini baholovchi tizimga aylangan, AQShda esa RTI modeli orqali ma'lumotlarga asoslangan yondashuv ustuvorlik qiladi.

O'zbekiston sharoitida ushbu ilg'or yondashuvlarni to'liq nusxalash emas, balki ularni **mahalliy madaniy, me'yoriy va tashkiliy kontekstga moslab joriy etish** zarur. Ichki monitoring tizimi faqat statistik ma'lumot to'plash emas, balki tahliliy fikrlash, o'zini baholash, pedagogik hamkorlik va innovatsion yechimlarni ilgari suruvchi vosita bo'lishi kerak. Shu ma'noda, pedagoglarga erkinlik berish, maktab jamoasining o'z salohiyatini anglashiga zamin yaratish, baholashda sifatga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish dolzarbdir.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, o'qituvchilarni monitoring bo'yicha muntazam malaka oshirish, har bir maktabning ichki baholash strategiyasini ishlab chiqishi kabi takliflar tizimli yondashuvni kuchaytiradi. Monitoring jarayoni faqat ma'muriy vazifa emas, balki o'sish uchun imkoniyat sifatida qaralishi lozim. Faqat shundagina ichki monitoring ta'lim sifati kafolati, samarador islohotlar mezoni va maktab taraqqiyotining ichki harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin.

REFERENCES

1. **Abdallah Ghaicha.** "Theoretical Framework for Educational Assessment: A Synoptic Review.", 2016.
2. **Abdiyeva Kamola.** "Ta'lim sifat samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish", 2020.
3. **G. Rosenshine.** "Teaching Functions in Instructional Programs."
4. **M. Sirojiddinova.** "Ta'lim sifatini boshqarishning ahamiyati", 2022.
5. "Monitoring Student Learning in the Classroom." Education Northwest.
6. **Y. Turganov.** "Sifat, ta'lim sifati, ta'lim sifatini boshqarish tushunchalarining ilmiy-pedagogik talqini", 2024
7. "Who Said Monitoring and Evaluation Is Not Rooted in Firm Theoretical Foundations?" ResearchGate, 2019.
8. "Theoretical Foundations and Management Models in Education as a Response to Risk and Uncertainty." ResearchGate, 2024.
9. "Information System for Monitoring and Managing the Quality of Educational Programs." ScienceDirect, 2022.
10. "Theoretical and Practical Aspects of Monitoring the Quality of Future Teachers' Training." Science and Education a New Dimension. Pedagogy and Psychology, 2017.
11. "What is Monitoring, Evaluation, and Learning (MEL)?" Resonance Global, 2024.
12. "The Theoretical and Methodological Foundations of Monitoring the Quality of Education." International Journal of Pedagogical Practices, 2023.



MAKTAB DARSLIKLARINING SIFATINI OSHIRISH: ADABIY TA'LIM TIZIMIDA YANGI YONDASHUVLAR

Boysinov Soxibjon Sobirovich,
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi
sokhibjonb@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab darsliklarining sifatini oshirish va ularni o‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda ishlab chiqish zarurligi tahlil qilinadi. Darsliklarning murakkabligi o‘quvchilarning fanni o‘zlashtira olishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, natijada esa ularning fanlarga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotishiga sabab bo‘lishi ko‘rsatiladi. Maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida darsliklarning roli va ahamiyati, shuningdek, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashdagi o‘rni muhokama qilinadi. Ta’lim sifatini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar va metodologiyalar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: maktab darsliklari, ta’lim sifati, o‘quvchilar, qiziqish, ijtimoiy hayot, innovatsion yondashuvlar, metodologiya.

ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ШКОЛЬНЫХ УЧЕБНИКОВ: НОВЫЕ ПОДХОДЫ В СИСТЕМЕ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируется необходимость повышения качества школьных учебников и их разработки с учётом интересов и потребностей учеников. Показано, что сложность учебников отрицательно влияет на усвоение предмета учениками, в результате чего они теряют интерес к дисциплинам. В статье обсуждается роль и значение учебников в современном образовательном процессе, а также их место в подготовке к социальной жизни. Для повышения качества образования предлагаются инновационные подходы и методологии.

Ключевые слова: школьные учебники, качество образования, ученики, интерес, социальная жизнь, инновационные подходы, методология.

IMPROVING THE QUALITY OF SCHOOL TEXTBOOKS: NEW APPROACHES IN THE LITERARY EDUCATION SYSTEM

Abstract. This article analyzes the need to improve the quality of school textbooks and to develop them in accordance with the interests and needs of students. It shows that the complexity of textbooks negatively affects students’ ability to master the subject, ultimately leading to a loss of interest in the disciplines. The article discusses the role and significance of

textbooks in the modern educational process and their importance in preparing students for social life. Innovative approaches and methodologies are proposed to enhance the quality of education.

Keywords: school textbooks, quality of education, students, interest, social life, innovative approaches, methodology.

O'quvchini qiziqtirish va uning qaysi sohada iqtidori borligini aniqlash zamonaviy pedagogik yondashuvlarning asosiy tamoyillaridan biridir. Ushbu yondashuvlar asosida adabiyot fani o'qituvchisiga zamonaviy pedagogik talablar qo'yilmoqda. Birinchidan, o'quvchining qiziqishini aniqlash muhim ahamiyatga ega, chunki bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ikkinchidan, o'quvchi qiziqishlaridan kelib chiqib, adabiyot darslariga qiziqtirish usullarini aniqlash zarur. Bu jarayon o'quvchilarni adabiyot darsiga jalb qilishga erishish imkoniyatini yaratadi. Uchinchi tomondan, o'quvchilardagi ruhiy va fiziologik o'zgarishlarni tushunish pedagogik faoliyatda muhimdir, chunki bu o'quvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olishga yordam beradi. To'rtinchidan, pedagogik faoliyat va jarayonga ijodiy yondashish, shuningdek, adabiy va emotsional muhit yaratish o'qituvchining vazifalaridan biridir. Beshinchidan, o'quvchi o'z iqtidorini yuzaga chiqarishi uchun zarur shart-sharoit va pedagogik muhitni yaratish ham muhimdir. Oltinchidan, badiiy va axborot matnlarini o'qish asosida o'quvchining iqtidori va qobiliyatini aniqlash zarurati ham mavjud[4]. Tadqiqotlarda keltirilishicha, iqtidor – bu aqliy salohiyat yoki intellekt, bilim olishga bo'lgan qiziqish va salohiyatning yuqoriligi, shuningdek, o'ziga bo'lgan ishonchning yuqoriligi kabi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Iqtidor shuningdek, intellektual imkoniyatlar va talabchanlik majmuasini o'z ichiga oladi. Bu insonning sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarilishiga va uning o'ziga xos faoliyatini ta'minlovchi umumiy xususiyatdir. Iqtidor inson faoliyatini yuqori darajalarga olib chiquvchi ichki imkoniyatlar majmuidir. Shunday qilib, zamonaviy adabiyot fani o'qituvchilari ushbu talablarni inobatga olib, o'quvchilarning qiziqishlari va iqtidorlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi[3].

Iqtidor – inson ruhiyatining butun hayoti davomida tizimli rivojlanadigan psixikaning imkoniyati bo'lib, insonning boshqalarga nisbatan noan'anaviy va favqulodda natijalarga erishishini ta'minlaydi. Iqtidor insonning barcha imkoniyatlarini va fikrlashini hayotning yangi talablarini hal qilishga hamda yangi sharoitlarga moslashishga yo'naltiradi. Ma'lum fan doirasida berilgan darsliklardagi nazariy va ilmiy ma'lumotlarni o'zlashtirgan o'quvchini iqtidorli deb, qolgan o'quvchilarni iqtidorsiz deyish o'quvchining shaxs sifatida shakllashiga hamda zamonaviy pedagogik yondashuv talablariga zid keladi. Zero, har bir bola – iqtidor sohibidir. Uning iqtidorini aniqlash, yuzaga chiqarish va rivojlantirish maktab ta'limi oldidagi ijtimoiy ahamiyati katta bo'lgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Zamonaviy darsliklar mobiligi va o'quvchida darslikni o'qigan vaqtda “comfort time” taqdim etishi hamda shaxsga

yo'naltirilganligi, olgan bilimlarini real vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishi bilan an'anaviy tamoyili asosida yaratilgan darsliklardan farq qilishi kerak. Bunday yondashuv o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib, ularning iqtidorlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar o'z qobiliyatlarini yanada yaxshilab, ta'lim jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi va jamiyatda ijtimoiy faollikni oshiradi. Shunday qilib, zamonaviy ta'lim tizimida iqtidorni rivojlantirishga e'tibor qaratish, o'quvchilarning shaxs sifatida o'sishiga katta hissa qo'shadi.

"Comfort time" iborasi ta'lim jarayonida o'quvchining bilim olishida muhim ahamiyatga ega. Bu tushuncha o'quvchining o'qish muhiti, shuningdek, o'zini qulay his qilish imkoniyatlari bilan bog'liqdir. O'qish jarayonida sinf xonasi, stol va stulning qulayligi, xona yorug'ligi, doskaning balandligi va sinfdagi o'quvchilar soni kabi omillar "comfort time"ni tashkil etadi. Biroq, "comfort time" faqat sinfdan emas, balki oilaviy muhitda ham yaratilishi zarur. Oila, bolalarga umrbod o'rganish ehtiyojini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.[6] Oila davrasida bolalar qiyin fanlarni birga o'rganishlari, bu esa ularni katta jamoada o'qishga tayyorlaydi. Shuningdek, oila ichida bolalarni o'rganishga undash, bilim olishga yo'naltirish va badiiy kitoblarni o'qishga qiziqtirish "home school" yoki "home learning" kabi tushunchalarni rivojlantiradi. Bu jarayon nafaqat bolalarda, balki boshqa oilaviy a'zolarida ham ta'lim olish qobiliyatini shakllantiradi. Umrbod o'rganish muhitini yaratishda "comfort time"ning ahamiyati katta. O'quvchi dars vaqtida, mustaqil ta'lim jarayonida bilim olishda qulaylikni his qilishi kerak. O'quvchilar "comfort time"da darsdan bezmasliklari, darslikdagi topshiriqlarni tushunmasliklari yoki ularning murakkabligi natijasida bilim olish va o'rganishdan sovimay turishlari lozim. Shunday qilib, "comfort time" ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi va bu jarayonda oilaning roli alohida ahamiyatga ega.

O'quvchining yangi avlod darsliklari katta qiziqish uyg'otishi bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy bolalarni chalg'ituvchi, vaqtlarini o'g'irayotgan vositalar tobora ko'paymoqda. Mobil telefondagi o'yinlar, internetdagi turli dasturlar, saytlar va ijtimoiy tarmoqlar, jumladan, Instagram, TikTok, Twitter kabi platformalar bolalarni o'ziga tortmoqda. Bu jarayonda maktab o'quvchilarining "yulduzlik" kasaliga chalinishi, yoshligidan mashhur bo'lish maqsadida shou-piarlar ta'siriga tushib qolishi ham kuzatilmoqda. Ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida bu maqsadlarni amalga oshirishda vine, story kabi vizual materiallarga ko'p vaqt sarflayotganligi aniqlandi. Bugungi kunda texnika farzandiga aylangan o'quvchilar vine, story kabi vizual materiallar yoki ijtimoiy tarmoqlarda turli mazmunda chiqishlar qilayotgan blogerlar faoliyatini baholay oladigan, tahliliy yondasha oladigan immunitetni hosil qilishda adabiy ta'limning ahamiyati katta. Tadqiqot talablariga ko'ra, yoshlar orasida keng ommalashgan vine, story so'zlarining tahliliga to'xtalib o'tmoqchimiz. Ushbu so'zlar nafaqat ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan, balki yoshlar tomonidan o'zaro muloqotda ham qo'llanilmoqda. Ular zamonaviy madaniyat va kommunikatsiya usullarini aks ettiradi. Shuningdek, bu so'zlarning tarqalishi, o'z navbatida, yoshlarning til va madaniyatga bo'lgan

munosabatini ham shakllantiradi. Adabiy ta'lim esa bu jarayonda muhim rol o'ynaydi, chunki u o'quvchilarga tanqidiy fikrlash, muloqot qilish va zamonaviy madaniyatni anglash imkonini beradi. Yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarda qiziqarli va foydali kontent yaratishga undash, ularning fikrlarini kengaytirish va ijodkorliklarini rivojlantirish uchun adabiyotga bo'lgan qiziqishni oshirish zarur. adabiy ta'lim orqali yoshlar o'zlarini ifoda etish, fikr almashish va zamonaviy dunyoda o'z o'rnini topish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Vine – bu 6 soniyali videolarni yaratish imkonini beruvchi mobil ilova bo'lib, 2012-yil oktyabr oyida Twitterga tegishli kompaniyalar tomonidan ommalashishni boshlagan. Ushbu xizmat 2013-yil 24-yanvarda keng omma uchun ochilgan. 2013-yilning 9-aprelida esa Vine iOS App Store do'konida eng ko'p yuklab olingan bepul ilovaga aylandi. Bir vaqtlar uning foydalanuvchilari soni 200 million kishiga yetgan. Keyinchalik bu ilova tomonidan yaratilgan video formatdagi kontent ham vine nomi ostida ommalashdi. "Vine" – bu, odatda, davomiyligi 6 soniyadan 20 soniyagacha bo'lgan juda qisqa rolik. Odatda, vaynlar hayotdan qaysidir onlarni namoyish etadi. Vaynlarni suratga oluvchilarni vaynerlar deb atashadi. Vayn tvit deb ham ataladi. Ijtimoiy tarmoqlar "Stories" iborasi xabarlar, rasmlar yoki videolar to'plami, ko'pincha vaqtinchalik hamda kuzatuvchilarning sun'iy intellekt tomonidan aniqlangan qiziqishlari asosida foydalanuvchiga ko'rinib turadi. Facebook Stories –foydalanuvchi tomonidan yaratilgan qisqa foto yoki video to'plamlar foydalanuvchining Facebookga yuklanishi mumkin. Instagram Stories – bu Instagramda foydalanuvchiga 24 soat ichida yo'qolib ketadigan vertikal rasmlarni joylashtirish imkonini beruvchi xususiyat. Snapchat Stories – bu Snapchatdagi xususiyat bo'lib, u foydalanuvchilarga barcha do'stlari uchun ochiq bo'lgan xronologik voqealar qatoriga suratlarni yig'ish imkonini beradi. Ushbu ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa video va suratlar formatlari zamonaviy kommunikatsiya usullarini aks ettirib, yoshlar orasida o'zaro muloqotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Vine va Stories kabi formatlar yoshlarning ijodkorligini va o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa ularning madaniy va til munosabatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu platformalar orqali yaratilgan kontent yoshlarning zamonaviy dunyoda o'z o'rnini topishlariga yordam beradi va ularga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Adabiy ta'lim va zamonaviy kommunikatsiya vositalari o'rtasidagi o'zaro aloqalar yoshlarni yanada ko'proq ijodiy fikrlashga undaydi va ularning madaniyatga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Pedagogika yo'nalishida mutaxassis tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagog-talabalarga ijtimoiy tarmoqlarda pedagog sifatida faoliyat olib borish, masofaviy o'qitish samaradorligini oshirish va vizual formatdagi sifatli o'qitish vositalarini yaratish ko'nikmasini beradigan yangi ta'lim yo'nalishi, ya'ni pedagog blogeri, ta'lim blogeri sohalarini o'rgatadigan tanlov fanlarining joriy etilishi zamonaviy ta'lim muhitining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalish orqali talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini kengaytirib, innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritish, nafaqat o'z bilimlarini boshqalar bilan bo'lishish, balki ta'lim

jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. Ayni paytda, bunday yondashuv ta'lim jarayonida vizual materiallar yaratish va ulardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi.

Adabiyot fani bo'yicha mutaxassis tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari bugungi globalizatsiya va bozor iqtisodiyotiga zamonaviy talablarni inobatga olgan holda variativ tarzda qo'sh mutaxassislik berilishi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishga hamda OTM bitiruvchilarining bandlik darajasi ko'rsatkichlarini shaffof tarzda oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon, shuningdek, talabalarni turli sohalarida, masalan, tarbiyachi pedagog, psixolog, filolog, ta'lim blogeri kabi qo'sh mutaxassisliklar bilan ta'minlash orqali ularning faoliyat trayektoriyasini kengaytiradi. Bunday yondashuv OTM bitiruvchilarining ishga joylashish imkoniyatlarini oshirib, jamiyatda talab etilayotgan mutaxassisliklar bo'yicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

Adabiyot fani o'qituvchilarining faoliyatini diversifikatsiya qilish nafaqat ularning professional rivojlanishiga, balki ta'lim sifatining oshishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Talabalar yangi pedagogik metodlarni o'rganib, ularni amaliyotda qo'llash orqali o'z bilimlarini mustahkamlashadi va shuningdek, zamonaviy ta'lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Shu tariqa, pedagogika sohasidagi innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali biz kelajak avlod uchun sifatli ta'lim muhitini yaratishimiz mumkin. Bu jarayon nafaqat o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda o'quvchilarning qiziqishlari asosida maktab darsliklari hamda o'quv va yordamchi adabiyotlarning yaratilishi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Adabiyot fani bo'yicha yaratilayotgan yangi avlod darsliklari vizual ta'lim materiallari bilan boyitilishi natijasida o'quvchilarning fanni o'qish va o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi oshishi tajriba sinovlari natijalarida oydinlashdi. Zamonaviy darsliklar mobilligi, ya'ni har bir darslik o'quvchini fandan bezdirishga emas, aksincha o'quvchining ichki qobiliyatlarini ochishga xizmat qilmoqdir. Maktab darsliklari ma'lum fan yoki ixtisoslik bo'yicha mutaxassis tayyorlamaydi. Maktab darsliklari o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashi, mustaqil yashash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Maktab darsliklarining murakkabligi o'quvchilarning fanni o'zlashtira olmasligiga sabab bo'lmoqda, bu esa ularning fanlarga bo'lgan qiziqishini yo'qotishiga asos bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida darsliklarning sifatini oshirish va ularni o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Darsliklar nafaqat bilim beruvchi vosita sifatida, balki o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi, ularning shaxsiy qobiliyatlarini ochishga yordam beruvchi manba bo'lishi kerak. Bu jarayon o'quvchilarni nafaqat fan bilan tanishtirish, balki ularning ijtimoiy hayotga tayyorgarligini ham ta'minlash uchun zarurdir. Shu bilan birga, vizual materiallar va interaktiv elementlar orqali ta'lim jarayonini jonlantirish, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ularni fanlarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish mumkin.

Yangi avlod darsliklari yaratishda pedagogik yondashuvlarni inobatga olish, o'quvchilarning qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olish zaruriyati ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga va zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Shunday qilib, maktab darsliklarining samaradorligini oshirish va ularni o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish ta'lim tizimining rivojlanishida muhim omil bo'ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qarori.
2. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Jismoniy va ma’naviy barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so‘zlangan nutqi. 2017-yil 30-iyun.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni. Toshkent sh., 2020-yil 29-oktabr (www.lex.uz).
4. Abdukarimov H. Kasbiy pedagogik faoliyat. –Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 160-b.
5. Suvonov O. Aksiologik yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali, – №3. 2021. – 18-20-b.
6. M.F.Qurbonova. Individual ta’lim – innovatsion o‘qitish usuli. Academic Research in Educational Sciences. Volume 4, Issue 3, 2023. 394-399 b.



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR NUTQIDA UCHRAYDIGAN SINTAKTIK XATOLAR TAHLILI

D.Teshaboyev

Farg‘ona Davlat Universiteti (DSc), dotsent

D. Jo‘raqo‘ziyeva

Farg‘ona Davlat Universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar nutqida uchraydigan sintaktik xatolar tahlili haqida so‘z boradi. Yozma va og‘zaki nutqdagi sintaktik xatolarni samarali bartaraf etishga doir usul hamda vositalar berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: sintaktika, yozma nutq, og‘zaki nutq, metodlar, samarali usul, fonetik xato, tarbiya, so‘z, leksik ma‘no, nutqiy xato, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ta‘lim sifati, ma‘no-mazmun.

АНАЛИЗ СИНТАКСИЧЕСКИХ ОШИБОК В РЕЧИ УЧАЩИХСЯ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация В данной статье речь идет о синтаксических ошибках, встречающихся в речи младших школьников. Также приводятся методы и средства, направленные на эффективное устранение синтаксических ошибок в письменной и устной речи.

Ключевые слова: морфология, письменная речь, устная речь, методы, эффективные методы, фонетическая ошибка, образование, слово, лексическое значение, речевая ошибка, качество образования.

ANALYSIS OF SYNTACTIC ERRORS IN THE SPEECH OF YOUNG SCHOOL-AGE STUDENTS

Abstract This article discusses syntactic errors found in the speech of primary school students. It also presents methods and tools for effectively eliminating syntactic errors in both written and oral speech.

Key words: written speech, oral speech, methods, effective method, phonetic error, education, word, lexical meaning, speech error, primary education, quality of education.

KIRISH

Tilshunoslikda sintaksis – bu so‘zlarning gapda o‘zaro grammatik bog‘lanish qonuniyatlarini, gap bo‘laklari va ularning tuzilishini o‘rganuvchi bo‘lim hisoblanadi. Sintaktik

xatolar esa bu qonuniyatlar va me‘yorlarga amal qilinmasligidan kelib chiqadigan grammatik xatolar turidir. Boshqacha aytganda, gap tuzilishida grammatik normaning buzilishi, gap bo‘laklari orasidagi mantiqiy yoki grammatik moslikning yo‘qligi sintaktik xatolarni yuzaga keltiradi.

Sintaktik xatolar og‘zaki va yozma nutqda har xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Ular o‘quvchining grammatik kompetensiyasi, nutq madaniyati va tilga bo‘lgan munosabati bilan bevosita bog‘liq. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqida bunday xatolar ko‘proq uchraydi, chunki bu bosqichda ular hali til vositalaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishni o‘rganib borayotgan bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sintaktik xatolar turlicha bo‘lishi mumkin:

- Gapda kerakli bo‘lakning tushirib qoldirilishi;
- So‘zlarning noto‘g‘ri tartibda kelishi;

3. Bo‘laklar orasidagi grammatik kelishmovchilik, keraksiz so‘zlarning ishlatilishi yoki fikrning noto‘liq ifodalanishi. Bu xatolar nutqning mantiqiyligi va tushunarligini pasaytiradi, tinglovchi yoki o‘quvchida chalkashlik uyg‘otadi.

Shu sababli, sintaktik xatolarni aniqlash va ularning sabablarini o‘rganish, ayniqsa, ta‘limning ilk bosqichida, til o‘rgatish jarayonining muhim vazifasidir. Bu orqali o‘quvchilarda to‘g‘ri va aniq fikr ifodalash, grammatik me‘yorlarga amal qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida uchraydigan sintaktik xatolar asosan quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Gap bo‘laklari orasidagi grammatik kelishmovchilik: bunday xatolar ot va sifat, fe‘l va ega, fe‘l va to‘ldiruvchi orasidagi bog‘lanishlarda yuzaga keladi.

Misol: “Men kitob o‘qiydi.” — bu yerda fe‘l egaga grammatik jihatdan mos emas, “o‘qiyman” bo‘lishi kerak.

Gap bo‘laklarining noto‘g‘ri tartibda joylashuvi: o‘quvchi so‘zlarni adashgan holda joylashtiradi, natijada gap tushunarsiz yoki grammatik jihatdan noto‘g‘ri bo‘ladi. Misol: “Yangi o‘qituvchi bizga dars beradi yaxshi.”

Gapning tugallanmasligi (fikrning to‘liqsiz ifodalanishi): O‘quvchi fikrni boshlaydi, biroq uni sintaktik jihatdan to‘liq ifodalolmaydi.

Misol: “Men maktabga boraman, keyin...”

4. Ortiqcha yoki keraksiz so‘zlar ishlatilishi: gapda mantiqiy yuklamaga ega bo‘lmagan yoki takroriy so‘zlarning ishlatilishi sintaktik buzilish hisoblanadi.

Misol: “U uyga qaytib qaytib keldi.”

5. Murakkab gap tuzilishidagi xatolar: o‘quvchilar murakkab gaplar tuzishda qiyinchilikka duch keladilar, ayniqsa bog‘lovchi vositalar bilan ishlashda.

Misol: “Men kelaman va u kelgan.” (Tushunarli bo‘lishi uchun: “Men kelaman, u esa kelgan edi.”)

Sintaktik xatolarni chuqur tahlil qilishda, ularning kelib chiqish omillarini aniqlash muhim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqidagi bunday xatolar odatda quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- Leksik va grammatik bilimlarning yetarli emasligi;

4. O‘quvchi sintaktik birliklar haqida hali yetarli tasavvurga ega emas, gap bo‘laklari va ularning bog‘lanish qonunlarini to‘liq bilmaydi.

5. Uy sharoitidagi muloqot tilining maktab tilidan farq qilishi - ba‘zan o‘quvchilar oilada dialektal yoki noturg‘un shakldagi til vositalaridan foydalanishga o‘rganib qolgan bo‘ladi.

6. Maktabda nutqiy faoliyatga yetarli e‘tibor berilmasligi - darslarda nutqiy mashqlar yetarli bo‘lmasa, bolalar o‘z fikrini grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalashda qiynaladi.

7. Og‘zaki nutqga haddan tashqari suyanish - o‘quvchilar ko‘proq og‘zaki nutqda fikr bildirishga o‘rganishadi, bu esa yozma nutqda xatolarga olib keladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqida kuzatiladigan sintaktik xatolar ularning grammatik tafakkuri va til me‘yorlarini o‘zlashtirish darajasiga bevosita bog‘liqdir. Bunday xatolar asosan gap qurilishidagi elementlarning mos kelmasligi, fikrning izchilligi buzilishi yoki grammatik shakllarning noto‘g‘ri qo‘llanishi tarzida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘quvchi quyidagi kabi gapni tuzishi mumkin: "Men maktab boraman". Bu yerda predikat (boraman) bilan ega (men) orasidagi kelishuv buzilgan bo‘lib, bu tipdagi sintaktik xatolar boshlang‘ich bosqichda tez-tez uchraydi.

Bunday xatolarning sabablari turlicha: bolaning grammatik kompetensiyasi hali shakllanmagan bo‘lishi mumkin, shuningdek, u tilda fikrni aniq va mantiqan izchil ifodalash ko‘nikmasiga ega emasdir. Bu esa o‘qituvchilar uchun tilshunoslik yondashuvini individual nutqiy rivojlanish darajasi bilan uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Sintaktik xatolarni tahlil qilish orqali bolalarning tilga oid bilimi, mantiqiy tafakkuri va kommunikativ kompetensiyasi baholanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, eng ko‘p uchraydigan sintaktik xatolar – bu ega va kesim orasidagi moslashuvning buzilishi, bog‘lovchilarning noto‘g‘ri ishlatilishi, gap bo‘laklari o‘rnining adashishi, murakkab gaplarni tuzishda yo‘l qo‘yilgan noaniqliklardir.

Shuningdek, sintaktik xatolar ko‘pincha boshqa til birliklari – leksik, fonetik yoki morfologik xatolar bilan birgalikda namoyon bo‘ladi. Bu esa nutqiy kompetensiyaning integrallik xususiyatini ko‘rsatadi. Shu sababli, sintaktik xatolarni alohida o‘rganish barobarida, ularni umumiy nutqiy holat kontekstida baholash muhim ahamiyatga ega.

Ba‘zi hollarda o‘quvchilar murakkab gap tuzishga uringanida sintaktik me‘yorlarni buzadi: "Men uyga bordim va u yerda men kitob o‘qidim va keyin men uxladim". Bu yerda gap qismlarining ortiqcha takrori va bir xil tuzilmalar nutqni zerikarli va izchilliksiz qiladi. Bu holat sintaktik xatolik bilan birga uslubiy kamchilikni ham yuzaga keltiradi.

O‘qituvchilar tomonidan og‘zaki va yozma mashqlar orqali o‘quvchilarning sintaktik nutqini rivojlantirish choralari ko‘riladi. Bunda didaktik materiallar, dramatizatsiya, rolli o‘yinlar, matn asosida gap tuzish mashqlari samarali hisoblanadi.

Sintaktik xatolarni kamaytirish uchun grammatik konstruktsiyalarni ongli ravishda o‘rgatish zarur. Ayniqsa, analitik yondashuv orqali har bir gap bo‘lagining funksiyasini tushuntirish, o‘quvchining tilga bo‘lgan ongli munosabatini shakllantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sintaktik xatolar faqat grammatik muammo emas, balki nutqiy faoliyatda yuzaga keladigan fikr ifodasi va muloqotda qiyinchilik tug‘diradigan muhim ko‘rsatkichdir. Bu xatolarni ilmiy asosda tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari va oldini olish usullarini ishlab chiqish boshlang‘ich ta’limda til o‘rgatish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqudusov O.A. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari (metodik qo‘llanma) – Toshkent, 2011.
2. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2003.
3. Azimov Y.Y, Qo‘ldoshev R.A. Husnixatga o‘rgatishning amaliy asoslari (metodik qo‘llanma). – Buxoro, 2020. – 130 b.
4. Begmatov E., Tursunqulov M. O‘zbek nutqi madaniyati asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
5. Almamatov T., Yadgarov Q.M., Almamatov Sh. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion, pedagogik texnologiyalardan foydalanish (Metodik qo‘llanma). – Toshkent, 2013.
6. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova S., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik) – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
7. G‘ulomov A.K. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasi. Pedagogika fanlari doktori diss. – Toshkent, 1991.



**TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMMUNIKATIV
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AUTENTIK KOREYS
MATNLARINING ROLI**

Erkinov Ahrorbek To‘lqinboy o‘g‘li
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet
tillari instituti o‘qituvchisi
E-mail: erkinov@namdci.uz

Abstrakt. Ushbu maqolada talabalarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda autentik koreys matnlarining roli o‘rganilgan. Zamonaviy chet tillari o‘qitish metodikasida autentik materiallardan foydalanish alohida o‘rin tutadi. Tadqiqot jarayonida koreys tilidagi turli xil autentik matnlar (badiiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy va b.) o‘rganilgan va ulardan o‘quv jarayonida foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, autentik koreys matnlari bilan ishlash talabalarning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki koreys madaniyati, milliy qadriyatlari va dunyoqarashini tushunish qobiliyatini ham rivojlantiradi, bu esa madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga olib keladi.

Kalit so‘zlar: autentik matnlar, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, koreys tili o‘qitish metodikasi, lingvokulturologik tahlil, madaniyat, til o‘qitish, madaniyatlararo muloqot.

**РОЛЬ АУТЕНТИЧНЫХ КОРЕЙСКИХ ТЕКСТОВ В ФОРМИРОВАНИИ
МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ**

Абстракт. В данной статье исследуется роль аутентичных корейских текстов в формировании межкультурной коммуникативной компетенции студентов. Использование аутентичных материалов занимает особое место в современной методике преподавания иностранных языков. В процессе исследования были изучены различные виды аутентичных текстов на корейском языке (художественные, публицистические, официально-деловые и др.) и разработана методика их использования в учебном процессе. Результаты показывают, что работа с аутентичными корейскими текстами развивает у студентов не только языковые навыки, но и способность понимать корейскую культуру, национальные ценности и мировоззрение, что приводит к формированию межкультурной коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: аутентичные тексты, межкультурная коммуникативная компетенция, методика преподавания корейского языка, лингвокультурологический анализ, культура, обучение языку, межкультурное общение.

THE ROLE OF AUTHENTIC KOREAN TEXTS IN DEVELOPING STUDENTS' INTERCULTURAL COMMUNICATIVE COMPETENCE

Abstract. This article explores the role of authentic Korean texts in developing students' intercultural communicative competence. The use of authentic materials holds a special place in modern foreign language teaching methodology. Various types of authentic texts in Korean (literary, journalistic, official, etc.) were studied during the research, and a methodology for their use in the educational process was developed. The results show that working with authentic Korean texts develops not only students' language skills but also their ability to understand Korean culture, national values, and worldview, which leads to the formation of intercultural communicative competence.

Keywords: authentic texts, intercultural communicative competence, Korean language teaching methodology, linguocultural analysis, culture, language teaching, intercultural communication.

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida chet tillarini o'qitish jarayoni nafaqat lingvistik aspektlarni, balki madaniy va ijtimoiy jihatlarini ham qamrab oladi. Tilni o'rganish jarayonida talabalarni til egasi bo'lgan millat madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashi bilan tanishtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda autentik matnlar muhim manbaa hisoblanadi, chunki ular til egalarining real kommunikativ muhitini aks ettiradi va shu orqali talabalarga "jonli" til hamda madaniyat bilan to'g'ridan-to'g'ri tanishish imkoniyatini beradi.[1] Koreys tilini o'qitish jarayonida autentik matnlardan foydalanish O'zbekistondagi koreys tili o'qitish amaliyotida ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu, birinchi navbatda, O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy va ta'lim sohasidagi aloqalarning kengayishi bilan bog'liq. Bunday sharoitda koreys tili o'qituvchilari oldida nafaqat til bilimlarini, balki koreys madaniyati va milliy mentalitetini yaxshi tushunadigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turadi. Shu nuqtai nazardan, autentik koreys matnlari bilan ishlash metodikasini o'rganish va takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.[2]

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya va autentik matnlar bilan ishlash masalalari xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Jumladan, E.V. Nosonovich va O.P. Milrud autentik matnlarni "ma'lum bir til jamiyati vakillari tomonidan yaratilgan va til o'rganuvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilmagan og'zaki yoki yozma matn" sifatida ta'riflashadi.[3] L.E. Smirnova autentik matnlarning o'quv jarayonida qo'llanilishi talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishning muhim vositasi ekanligini ta'kidlaydi.[4] Koreys tilini o'qitishda autentik materiallardan foydalanish masalalari koreys olimi Kim Jeong Hyang tomonidan chuqur

o'rganilgan. U koreys tili o'quv dasturlarida autentik materiallardan foydalanish nisbati va ularning talabalar til o'zlashtirish jarayoniga ta'sirini tadqiq etgan.[5] Shuningdek, Pak Kyung-Ja koreys tilidagi autentik matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etgan va bunda koreys madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalovchi lingvistik birliklarni aniqlagan.[6] O'zbek tilshunosligida chet tillarni o'qitishda madaniyat omilini o'rganish bo'yicha S.S. Muxamedova[7], Z.O. Omonov[8] va boshqalarning ilmiy izlanishlari mavjud. Biroq, maxsus koreys tilidagi autentik matnlarni talabalarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish vositasi sifatida o'rganish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Autentik koreys matnlari turli kategoriyalarga bo'linadi va ularning har biri talabalarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda o'ziga xos rol o'ynaydi. Choi Sung Min tadqiqotlariga ko'ra, matnlar tematik jihatdan koreys tarixi, zamonaviy jamiyat, san'at va adabiyot, iqtisodiyot hamda siyosiy tizimga oid guruhlariga bo'linadi. Uslubiy jihatdan esa badiiy, publitsistik, ilmiy, rasmiy-idoraviy va kundalik so'zlashuv uslubidagi matnlar farqlanadi. Bundan tashqari, til o'rganuvchilarning darajasiga qarab boshlang'ich, o'rta va yuqori murakkablikdagi matnlar tanlanadi. Alohida e'tiborga molik bo'lgan lingvomadaniy xususiyatlariga ko'ra tasnif esa koreys milliy mentaliteti, qadriyatlar tizimi, urf-odatlar va milliy ramzlarni aks ettiruvchi matnlarni o'z ichiga oladi. Autentik materiallarni bu tarzda tizimli tasniflash o'qituvchilarga konkret o'quv maqsadlariga mos materiallarni samarali tanlash va dars jarayoniga integratsiya qilish imkonini beradi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot jarayonida Pak Kyung-Ja tomonidan koreys autentik matnlarining besh muhim lingvomadaniy xususiyati aniqlandi. Koreys tili matnlarida ierarxik munosabatlarni ko'rsatuvchi hurmat shakllari (존댓말, 반말, 높임법) alohida o'rin tutadi, bu konstruksiyalar so'zlovchi va tinglovchi orasidagi ijtimoiy masofani aniq ifodalaydi. Konfutsiy ta'limotidan kelib chiqqan qadriyatlar tizimi 효도 (filial hurmat), 예의 (odob-axloq) kabi tushunchalar orqali aks ettiriladi. Shuningdek, o'zbek tilidagi "biz" tushunchasidan farqli ravishda, koreys tilidagi 우리 (uri) so'zi alohida madaniy yuklamaga ega bo'lib, kollektivism va jamoatchilik tamoyillarini ifodalaydi. Koreys matnlarida 정 (jeong) tushunchasi asosidagi emotsional-ekspressiv birliklar hamda 한옥 (hanok), 한복 (hanbok) kabi madaniy realiyalarning keng qo'llanilishi ularning o'ziga xos lingvomadaniy xususiyatlari hisoblanadi.[6] Lee Jee-Hyun koreys tilidagi autentik matnlarning lingvokulturologik tahlilini o'tkazib, ularning strukturaviy xususiyatlarini ham aniqlagan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, koreys matnlarida informatsiya odatda tezis - mulohaza - xulosa ketma-ketligida emas, balki ko'proq aylana shaklidagi tuzilmada beriladi, ya'ni asosiy fikr matn oxirida yoki hatto aniq ifodalanmasdan berilishi mumkin. Bu koreys madaniyatidagi to'g'ridan-to'g'ri konfrontatsiyadan qochish tamoyili bilan bog'liq.[10] Autentik koreys matnlari bilan ishlash

metodikasi uch bosqichli tizimga asoslangan bo'lib, har bir bosqich aniq pedagogik maqsadlarga xizmat qiladi. Tomalin va Stempleski tadqiqotlariga ko'ra,[1] tayyorlov bosqichida asosiy e'tibor talabalar darajasiga mos matnlar tanlash, o'qishdan oldingi tayyorlov mashqlarini ishlab chiqish hamda madaniy-lingvistik qiyinchiliklarni oldindan aniqlashga qaratiladi. Ikkinchi bosqichda matn bilan bevosita ishlash jarayoni amalga oshirilib, u o'qishdan oldingi mazmunni prognoz qilish faoliyatidan boshlanadi, so'ngra matn bilan ishlash, madaniy realiyalarni aniqlash va lingvokulturologik tahlil o'tkazish davom ettiriladi. Yakuniy bosqich esa matn ustida ishlashni o'z ichiga olib, bunda matndagi asosiy g'oyani aniqlash, koreys va o'zbek madaniyatlarini qiyosiy tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish hamda rolli o'yinlar, simulyatsiyalar va loyihalar tayyorlash orqali o'rganilgan material mustahkamlanadi. Ushbu uch bosqichli metodika talabalarning koreys matnlarini nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham chuqur o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Im Sung-Hoon tomonidan ishlab chiqilgan "Madaniy immersiya" metodikasi koreys tili o'qitishda autentik matnlardan foydalanishning samarali yondashuvidir. Lee Jae-Hoon tadqiqotlarida ta'kidlanganidek,[2] bu metodika to'rt asosiy bosqichdan iborat bo'lib, tushunchalarni chuqur o'zlashtirishga qaratilgan. Birinchi bosqichda matndan markaziy madaniy tushunchalar aniqlanib, ular bilan bog'liq assotsiativ tarmoq quriladi. Ikkinchi bosqich – madaniy kontekstlashtirishda, aniqlangan tushunchalarning koreys madaniyatidagi o'rni, tarixiy ildizlari va ijtimoiy ahamiyati tushuntiriladi. Uchinchi bosqich – qiyosiy assotsiatsiyada talabalar koreys madaniyatidagi tushunchalarni o'z madaniyatidagi mos yoki farqli jihatlar bilan taqqoslaydilar. Yakuniy simulyatsiya bosqichida esa talabalar o'rganilgan madaniy konseptlarni amaliy vaziyatlarda qo'llaydilar, bu orqali bilimlar nafaqat nazariy, balki amaliy ko'nikmalarga ham aylanadi. Ushbu metodika talabalarning koreys madaniyatini chuqur idrok etishi va madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Autentik koreys matnlari bilan ishlashda ayniqsa lingvokulturologik tahlil usuli samarali hisoblanadi. Bu usul matndagi til birliklarini nafaqat grammatik va leksik, balki madaniy nuqtai nazardan ham o'rganishga imkon beradi. Matndagi so'zlar, iboralar va grammatik konstruksiyalarning madaniy yuklamasi, koreys jamiyatidagi qadriyatlar va dunyoqarashni qanday aks ettirishini tahlil qilish orqali talabalar chuqurroq madaniy tushunchalarni o'zlashtiradilar.[3] Bu yondashuv til o'rganishni madaniyat o'rganish bilan uzviy bog'liq holda ko'radi va bu koreys tilidek kontekstga bog'liq, iyerarxik munosabatlarni aks ettiruvchi til uchun juda muhimdir.

Autentik koreys matnlari bilan ishlash jarayoni bir qator qiyinchiliklar va imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. Muxamedova tadqiqotlarida ko'rsatilganidek,[7] asosiy qiyinchiliklar to'rt yo'nalishda: lingvistik murakkabliklar (murakkab grammatik konstruksiyalar, terminologiya), madaniy realiyalarni tushunish (koreys madaniyatiga xos tushunchalar va konseptlar), motivatsiya pasayishi va o'qituvchilar tayyorgarligining etarli emasligi kabi muammolarda namoyon bo'ladi. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun matnlarni talabalar darajasiga moslashtirish, qiyosiy tahlil metodikasi va vizual materiallardan foydalanish, talabalar

qiziqishlarini hisobga olish hamda o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Omonov ta'kidlaganidek,[8] bunday matnlar bilan ishlashning afzalliklari talabalarni real til muhiti bilan tanishtirish, koreys milliy mentalitetini tushunishga ko'maklashish, til materiallarini kontekstda o'rganish imkoniyati, motivatsiyani oshirish va madaniyatlararo kompetensiyani kompleks rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Choi Sung Min fikricha,[9] bu jarayonda talabalar koreys til egalari fikrlash tarzini tushunish, verbal va noverbal kommunikatsiya vositalarini madaniy kontekstga mos qo'llash, madaniyatlararo tushunmovchiliklarni bartaraf etish, koreys madaniyati kontekstida o'zini munosib tutish hamda ikki madaniyat o'rtasidagi farqlarni hurmat bilan qabul qilish kabi muhim ko'nikmalarni egallaydilar.

Autentik koreys matnlari bilan ishlash jarayonida talabalar bir qator madaniyatlararo kommunikativ ko'nikmalarni egallaydilar:

1. Koreys til egalarining fikrlash tarzini tushunish qobiliyati.
2. Verbal va noverbal kommunikatsiya vositalarini madaniy kontekstga mos ravishda qo'llash qobiliyati.
3. Madaniyatlararo tushunmovchiliklarni bartaraf etish ko'nikmalari.
4. Koreys madaniyati kontekstida o'zini munosib tutish qobiliyati.
5. Koreys madaniyati va o'z madaniyati o'rtasidagi farqlarni hurmat bilan qabul qilish qobiliyati.[9]

Autentik koreys matnlari asosida o'qitish jarayonida talabalar bir qator madaniyatlararo kommunikativ ko'nikmalarni egallab, koreys til egalarining fikrlash tarzini tushunish, verbal va noverbal kommunikatsiya vositalarini madaniy kontekstga mos qo'llash, madaniyatlararo tushunmovchiliklarni bartaraf etish kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Bu ko'nikmalar globallashuv sharoitida nafaqat lingvistik, balki kasbiy va shaxsiy kompetensiya sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Autentik koreys matnlari bilan ishlash talabalarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning samarali vositasi ekanligi tadqiqot natijalari bilan tasdiqlandi. Ushbu matnlar orqali talabalar nafaqat til ko'nikmalarini, balki koreys xalqining madaniyati, qadriyatlari, dunyoqarashi haqida chuqur bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Autentik matnlarni tanlash va ular bilan ishlash metodikasi talabalarning til darajasiga, qiziqishlariga va o'quv maqsadlariga mos kelishi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko'ra, autentik koreys matnlari bilan ishlashning eng samarali usullari lingvokulturologik tahlil, madaniy immersiya metodikasi va qiyosiy tahlil usullari hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda axborot texnologiyalari asosida autentik koreys matnlari bilan ishlash metodikasini takomillashtirish, lingvokulturologik tadqiqotlarni chuqurlashtirish va ikki madaniyat o'rtasidagi qiyosiy tahlilni rivojlantirish dolzarb vazifalar bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tomalin B., Stempleski S. Cultural Awareness. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – P. 45-67.
2. Lee Jae-Hoon. Foreign language teaching and intercultural competence in the Korean context. – Seoul: Korea University Press, 2023. – P. 78-95.
3. Носонович Е.В., Мильруд О.П. Критерии аутентичного учебного текста // Иностранные языки в школе. – 2019. – №2. – С. 16-21.
4. Смирнова Л.Е. Методическая аутентичность в обучении иностранному языку // Инновации в образовании. – 2021. – №4. – С. 89-94.
5. Kim Jeong Hyang. Authentic materials in Korean language teaching. – Seoul: Yonsei University Press, 2022. – P. 112-135.
6. Pak Kyung-Ja. Linguocultural features of authentic Korean texts. – Busan: Pusan National University Press, 2023. – P. 67-84.
7. Muxamedova S.S. Chet tillar o'qitishda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 56-78.
8. Omonov Z.O. Lingvistik kompetensiyadan madaniy kompetensiyaga: chet tillar o'qitishning zamonaviy kontseptsiyasi // O'zbekistonda xorijiy tillar. – 2022. – №2. – B. 45-52.
9. Choi Sung Min. Classification of authentic materials in Korean language teaching. – Seoul: Seoul National University Press, 2023. – P. 123-145.
10. Lee Jee-Hyun. Structural features of Korean authentic texts: Linguocultural analysis. – Daegu: Kyungpook National University Press, 2024. – P. 95-110.
11. Н. А Абдухоликова Жамият ахборотлашувининг ижобий салбий хусусиятлари Conferencea, 125, 2022.
12. НА Абдухоликова Талаба ёшларнинг интернет қарамлигини олдини олишда таълим маърифати. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2022.



TABAQALASHTIRILGAN TA‘LIM TUSHUNCHASI, RIVOJLANISH TARIXI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Fayzullayev Abdumhammad Yuldosh o‘g‘li
Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Adabiyotlar tahlili, eksperimental kuzatuv va yarim tuzilmali intervyu usuli asosida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari tabaqalashtirilgan ta‘limning o‘qitish samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, lekin bu modelni joriy qilishda metodik va tashkiliy qiyinchiliklar mavjudligini tasdiqlaydi. Maqola xulosasida tabaqalashtirilgan ta‘limni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari va o‘qituvchilarning roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Tabaqalashtirilgan ta‘lim, differensiatsiyalashgan o‘qitish, pedagogik texnologiyalar, individual yondashuv, raqamli texnologiyalar, ta‘lim samaradorligi, metodik yondashuvlar.

Аннотация. На основе анализа литературы, экспериментального наблюдения и полуструктурированных интервью были получены результаты, подтверждающие положительное влияние дифференцированного обучения на эффективность образовательного процесса, однако выявляющие методические и организационные трудности в его реализации. В заключении статьи освещаются перспективы интеграции дифференцированного обучения с цифровыми технологиями и роль преподавателя в данном процессе.

Ключевые слова: Дифференцированное обучение, дифференцированный подход к обучению, педагогические технологии, индивидуальный подход, цифровые технологии, эффективность образования, методические подходы.

Abstract. Drawing on a literature review, experimental observation, and semi-structured interviews, the study confirms the positive impact of differentiated instruction on teaching effectiveness, while also highlighting the methodological and organizational challenges of its implementation. The conclusion addresses the potential for integrating digital technologies into differentiated learning and emphasizes the teacher’s crucial role in the process.

Keywords: Differentiated education, differentiated instruction, pedagogical technologies, individual approach, digital technologies, educational effectiveness, methodological approaches.

Kirish

Zamonaviy ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini e’tiborga olish, ularning ehtiyoj va qobiliyatlariga mos o‘qitish metodlarini qo‘llash muhim masalalardan biridir. Bunday yondashuv “tabaqalashtirilgan ta’lim” (differensiatsiyalashgan ta’lim) deb ataladi. “Tabaqalashtirilgan ta’lim” tushunchasi har bir o‘quvchining bilim darajasi, o‘rganish uslubi, qiziqishlari va individual rivojlanish sur’atlaridan kelib chiqqan holda dars jarayonini moslashtirishni nazarda tutadi. Mazkur tushuncha jahon pedagogika amaliyotida anchayin eski bo‘lib, turli davrlarda turli atamalar bilan izohlangan.

Tabaqalashtirilgan ta’limning ilk bosqichlari an’anaviy “individual yondashuv”, “guruhlarga ajratish” kabi pedagogik tajribalar shaklida namoyon bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan fan-texnika taraqqiyoti, psixologiya va pedagogika fanlarining rivojlanishi sababli tabaqalashtirish tamoyillari yangi ko‘rinishlarga ega bo‘ldi. Bugungi kunda esa raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar yordamida tabaqalashtirilgan ta’limni amalga oshirish imkoniyatlari yanada kengaygan.

Metod

Mazkur tadqiqotda asosan adabiyotlar tahlili, eksperimental kuzatuv va yarim tuzilmali intervyu usullaridan foydalanildi. Adabiyotlar tahlili jarayonida tabaqalashtirilgan ta’lim bo‘yicha yetakchi xorijiy va mahalliy mualliflarning ilmiy maqolalari, monografiyalari, hamda xalqaro tadqiqotlar bazalaridagi (Scopus, Web of Science, Google Scholar) manbalar o‘rganildi. Ushbu manbalar yordamida tabaqalashtirish tushunchasi va uning rivojlanish bosqichlari haqida umumiy tasavvur shakllantirildi.

Eksperimental kuzatuv maktab ta’limi darajasida amalga oshirilib, sinov tariqasida bir guruhda an’anaviy dars modelidan, boshqa guruhda esa tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanildi. Kuzatuv davomida o‘quvchilarning darsdagi faolligi, topshiriqlarni bajarish sifati, o‘qishdan qoniqish darajasi kabi indikatorlar qayd etib borildi. Ma’lumotlar sifat tahlili (qualitative analysis) bilan birgalikda qisman statistika (quantitative data) asosida solishtirildi.

Yarim tuzilmali intervyu (semi-structured interview) usuli bilan o‘qituvchilar, metodistlar hamda maktab rahbarlari bilan suhbatlar o‘tkazildi. Ularga tabaqalashtirilgan ta’limga doir savollar berilib, amaliyotdagi tajribalar, qiyinchiliklar va imkoniyatlar tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar bir-birini to‘ldirgan holda, xolis xulosa chiqarishga xizmat qildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tabaqalashtirilgan ta’limni an’anaviy ta’lim shaklidan ajratib turuvchi asosiy omil – dars mazmunini, topshiriqlarni va baholash usulini o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslab ishlab chiqishdir. Bu usul qo‘llanilgan sinflarda o‘quvchilar o‘rtasida bilim darajasi bo‘yicha katta tafovut sezilmagan holda, aksariyat o‘quvchilarning yakuniy ko‘rsatkichlari yaxshilanganligi qayd etildi.

Eksperimental kuzatuvda ishtirok etgan sinflarda eng yuqori natija amaliy topshiriqlar tabaqalashtirilgan holda berilganda kuzatildi. Masalan, yuqori intellektual salohiyatga ega o‘quvchilarga ijodiy yondashuvni talab qiluvchi murakkab loyiha, o‘rta darajadagi

o‘quvchilarga tadqiqot elementi bo‘lgan lekin nisbatan kam murakkab vazifalar, ayrim qiyinchiliklarga duch keladigan o‘quvchilarga esa qo‘llab-quvvatlash va ko‘proq ko‘rsatmalar beriladigan oddiyroq vazifalar taklif etilganda samaradorlik oshdi.

Intervyulardan ma‘lum bo‘ldiki, o‘qituvchilarning aksariyati tabaqalashtirilgan ta‘limga ijobiy munosabat bildiradi, chunki bu yondashuv o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini yaxshiroq qondirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘z darslarini rejalashtirishda ham moslashuvchanlik kasb etib, an‘anaviy metodlardan farqli o‘laroq, o‘quvchilarning real qobiliyat va bilim darajalarini inobatga olishni ta‘kidlaganlar.

Natijalar ko‘rsatdiki, tabaqalashtirilgan ta‘limni joriy qilishda muvaffaqiyat qozonish uchun dars jarayonini rejalashtirishgacha bo‘lgan bosqichda ham metodik, ham tashkiliy jihatlariga alohida e‘tibor qaratish kerak. O‘qituvchi topshiriqlar zanjirini oldindan puxta ishlab chiqishi, o‘quvchilar bilan aloqada bo‘lish mexanizmlarini aniqlashtirishi va yakuniy baholash me‘zonlarini ochiq-oydin tushuntirib berishi zarur.

Muhokama

Tabaqalashtirilgan ta‘lim tushunchasining ildizlari XIX asr pedagogik merosiga borib taqaladi. Jaxon pedagoglari – masalan, Jan Jak Russo, Iogann Genrix Pestalossi va keyinchalik Lev Vygotskiy kabi olimlar har bir bola individual rivojlanish sur‘atiga egaligini ta‘kidlab, ularni o‘qitishda moslashuvchan yondashuvni yoqlab kelgan. XX asrning ikkinchi yarmida esa konstruktivizm, multiple intelligences (ko‘p xillik intellekt nazariyasi) kabi zamonaviy pedagogik nazariyalar paydo bo‘ldi. Bu nazariyalar tabaqalashtirish g‘oyasiga yanada keng imkoniyatlar yaratdi.

Bugungi kunda tabaqalashtirilgan ta‘lim texnologiyalar bilan hamohang shaklga kelgan. Masalan, raqamli platformalar yordamida onlayn testlar, interaktiv o‘quv materiallari, mustaqil va birgalikda ishlash imkoniyatlari yaratilishi bunday yondashuvning samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, teskari sinf (flipped classroom) yoki aralash ta‘lim (blended learning) modellarida ham tabaqalashtirilgan ta‘limning unsurlari kundan-kunga keng qo‘llanilmoqda. Shunday qilib, yosh avlod o‘rganish jarayonida murakkablik darajasini o‘z qobiliyatlariga mos tarzda tanlashi, o‘qituvchi esa bu jarayonni monitoring qilib, zaruriy tavsiyalar berishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ham ko‘rsatdiki, tabaqalashtirilgan ta‘lim metodikasini amaliyotga tatbiq etish ba‘zi qiyinchiliklar bilan kechadi. Xususan, o‘qituvchiga katta vaqt sarflab, har bir o‘quvchi yoki o‘quvchilar guruhiga moslab dars materiallarini ishlab chiqishi, baholash mezonlarini differentsiatsiyalashi talab etiladi. Darsning mazmuni, uslubi va o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlik shaklini oldindan puxta rejalashtirish o‘qituvchi zimmasidagi mas‘uliyatni oshiradi. Bundan tashqari, sinfdagi o‘quvchilar soni ko‘p bo‘lsa yoki texnik bazalar cheklangan bo‘lsa, tabaqalashtirilgan ta‘limni to‘liq joriy qilish murakkab bo‘lishi mumkin.

Qayd etish joizki, tabaqalashtirishni faqat past yoki yuqori qobiliyatli o‘quvchilarga e‘tibor qaratish shaklida tushunish noto‘g‘ri. Aksincha, tabaqalashtirilgan ta‘lim butun sinf doirasida har bir o‘quvchini qamrab oluvchi jarayon bo‘lib, maqsad har bir bolaning potensialini

rivojlantirishdan iborat. Pedagogik nazariyalar ham ko‘rsatadiki, farqlarni to‘g‘ri boshqarish hamda moslashtirish orqali sinfda umuman o‘qitish sifatini yaxshilash mumkin.

Xulosa

Tabaqalashtirilgan ta’lim tushunchasi, rivojlanish tarixi va zamonaviy yondashuvlari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu yondashuvning nazariy poydevori uzoq tarixga ega bo‘lsa-da, hozirgi kunda texnologik rivojlanish bilan uyg‘unlashib, amaliy ko‘rinishlarda keng qo‘llanilmoqda.

An’anaviy ta’limda o‘quvchilar o‘z bilim va qobiliyatlari bo‘yicha umumiy talablarga moslashishi kutiladi, holbuki tabaqalashtirilgan ta’limda tizim o‘quvchilarning xususiyatlariga moslashadi. Ushbu jarayonni to‘g‘ri tashkillashtirish uchun o‘qituvchining pedagogik mahorati, metodik qo‘llanmalar, texnik infratuzilma va maktab rahbariyatining qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy yondashuvlar, xususan, raqamli vositalar yordamida tabaqalashtirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish, o‘qitishni interaktiv metodlar asosida yo‘lga qo‘yish, har bir o‘quvchining o‘z rivojlanish bosqichini e’tiborga olishni yengillashtiradi. Shu sababli, tabaqalashtirilgan ta’lim nafaqat uzluksiz ta’limni takomillashtirish, balki har bir shaxsning intellektual salohiyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tomlinson, C. A. (2014). *The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners*. ASCD.
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
3. Hall, T., Strangman, N., & Meyer, A. (2003). *Differentiated Instruction and Implications for UDL Implementation*. National Center on Accessing the General Curriculum.
4. Smets, W. (2017). *Differentiation in the Classroom: A Practical Guide*. Journal of Educational Sciences, 9(2), 45–58.
5. Gregory, G. H., & Chapman, C. (2012). *Differentiated Instructional Strategies: One Size Doesn't Fit All*. Corwin Press.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK. 40.428

ASSESSMENT BASED ON THE PIRLS SYSTEM IN THE PROCESS OF WORKING ON A LITERATURE TEXT IN PRIMARY GRADES

Gulmira Abdullaeva,

Ajiniyoz nomidagi NDPI Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası assistenti

E-mail:abdullaevag2511@gmail.com

Abstract This article reveals the role of the international PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) system and the importance of assessment mechanisms in the formation of primary school students' competence in analyzing a literary text. The main focus is on identifying students' critical thinking, reasoning, justification, drawing conclusions based on the text, and expressing understanding when working on the text. Through assessment approaches developed on the basis of this system, the teacher can determine whether the student has not only read the text, but also understood it.

Keywords: PIRLS, assessment criteria, literary text, academic literacy, primary education.

ОЦЕНКА ПО СИСТЕМЕ ПИРЛС В ПРОЦЕССЕ РАБОТЫ НАД ХУДОЖЕСТВЕННЫМ ТЕКСТОМ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация В статье рассматривается роль международной системы PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) и важность механизмов оценки в развитии компетенций учащихся начальной школы в анализе литературных текстов. Основное внимание уделяется выявлению у учащихся критического мышления, рассуждения, обоснования, формирования выводов на основе текста и выражения понимания при работе с текстом. Благодаря подходам к оценке, разработанным на основе этой системы, учитель может определить, не только прочитал ли ученик текст, но и понял ли он его.

Ключевые слова: PIRLS, критерии оценки, художественная литература, академическая грамотность, начальное образование.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BADIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASH JARAYONIDA PIRLS TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH

Annotatsiya Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy matnni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishda xalqaro PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) tizimining o‘rni va baholash mexanizmlarining ahamiyati ochib berilgan. Asosiy e‘tibor matn ustida ishlashda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, dalillash, asoslash, matnga asoslangan xulosa chiqarish, va tushunganini ifodalash ko‘nikmalarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu tizim asosida ishlab chiqilgan baholash yondashuvlari orqali o‘qituvchi o‘quvchining nafaqat matnni o‘qiganini, balki uni tushunganini aniqlashi mumkin.

Kalit so‘zlar: PIRLS, baholash mezonlari, badiiy matn, o‘quv savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim.

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda o‘qish va tushunish malakasini shakllantirish ta’lim jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Zero, o‘qish faqat savod chiqarganlik emas, balki o‘qilgan matnni anglash, tahlil qilish, talqin etish va asosli fikr bildirishga asoslangan ko‘p qirrali kognitiv faoliyatdir. O‘zbekistonda ham umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirish maqsadida xalqaro baholash tizimlari, jumladan PIRLS standartlariga asoslangan yondashuvlar joriy etilmoqda.

PIRLS – bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv savodxonligini xalqaro darajada baholash tizimi bo‘lib, unda matnni anglashning chuqurligi, mantiqiy tahlilga asoslangan savollarga javob bera olish, hamda o‘quvchining o‘z nuqtai nazarini ifodalash qobiliyati sinovdan o‘tkaziladi. Mazkur maqola aynan shu yondashuvlar asosida badiiy matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchining matnga bo‘lgan munosabatini aniqlash usullariga e‘tibor qaratadi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Abduazizova fikricha, boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlashda o‘quvchilar faqat syujetni tushunibgina qolmasdan, o‘z munosabatini bildirishi, matnni tahlil qilishi va mazmunni shaxsiy tajribasi bilan bog‘lay olishi kerak. Bu yondashuv orqali bola o‘z nuqtai nazarini ifodalashga, fikrini asoslashga va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatiladi. Aynan shu jihatlar PIRLS tizimining baholash tamoyillari bilan bevosita bog‘liqdir [3].

Mamarasulova R. o‘z tadqiqotlarida PIRLS yondashuvi o‘quvchilarda o‘qish savodxonligi bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash, dalillash, tushunilgan fikrni tahlil qilish kabi yuqori darajadagi tafakkur faoliyatini ham rivojlantirishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, baholashning asosiy maqsadi — o‘quvchining bilimini sinash emas, balki fikr yuritish qobiliyatini aniqlashdir [5].

Clark C. tomonidan olib borilgan xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar matnni chuqur tushunganlarida ularni o‘qishga bo‘lgan munosabati ijobiy tus oladi. Ular ko‘proq o‘qiy boshlaydi, o‘z fikrlarini erkin bayon etadi, matnga tayanib asosli xulosa chiqaradi. Bu esa PIRLS tizimi orqali o‘lchanadigan asosiy mezonlardan biridir [6].

Baranova L.A. fikricha, boshlang‘ich ta‘limda o‘qish va matn ustida ishlash faqat fonetik, leksik va grammatik bilimlar bilan cheklanmasligi kerak. O‘qituvchi o‘quvchini matnning tuzilmasi, uslubiy vositalari, obrazlar tizimi bilan tanishtirish orqali matnga ichki kirib borishini ta‘minlashi zarur. Bu yondashuv PIRLS baholash modelining “tushunish” va “tahlil qilish” bosqichlariga mos keladi [7].

Mullis va Martin tomonidan ishlab chiqilgan PIRLS baholash doirasida ta‘kidlanishicha, o‘quvchining matnni o‘qigani emas, balki uni qanday tushunganini aniqlash ustuvor maqsaddir. Ularning fikriga ko‘ra, zamonaviy baholash vositalari o‘quvchining bilim darajasini emas, balki uni qo‘llash, asoslash va tahlil qilish qobiliyatini aniqlashi kerak. Bu tamoyil zamonaviy boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasiga to‘la mos keladi [4].

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Badiiy matn ustida ishlashda o‘qituvchi faqat voqelikni qayta hikoya qilish emas, balki matnning ma‘no qatlamlarini ochish, obrazlar orasidagi ichki bog‘liqlikni tushunishga yo‘naltirilgan topshiriqlar asosida baholash tizimini shakllantirishi zarur. PIRLS tizimida matn bilan ishlash 4 bosqichli yondashuv asosida amalga oshiriladi:

- Ma‘lumotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri topish – matndan aniq axborotni ajratib olish.
- Ma‘lumotni interpretatsiya qilish – matndagi voqealar, obrazlar va sabab-oqibat aloqalarini tahlil qilish.
- Baholash va asoslash – muallifning fikriga, obrazlarga munosabat bildirish va ularni dalillar bilan asoslash.
- Matnni boshqa kontekst bilan bog‘lash – o‘z hayoti, boshqa matnlar yoki real hodisalar bilan qiyoslash.

Masalan, “Boychechak” ertagi ustida ishlashda birinchi bosqichda o‘quvchidan qahramonlar ismini topish so‘raladi, ikkinchi bosqichda – nima sababdan boychechak eng birinchi gullaganini tushuntirish, uchinchi bosqichda – qaysi qahramonga o‘xshash bo‘lmoqchi ekani haqida fikr bildiradi, to‘rtinchisida esa boshqa o‘qigan ertakdagi qahramon bilan solishtiradi.

PIRLS baholash yondashuvi o‘qituvchiga o‘quvchining o‘qigan matnga qanday yondashayotganini aniqlashga imkon beradi: u faqat tashqi faktlarni eslab qolganmi yoki matnga ruhiy, emotsional va mantiqiy jihatdan kirib borganmi? Ana shu farq asosida darsni tashkil qilish o‘quvchini faollashtiradi, matnni shunchaki o‘qib chiqmaydi, balki unda yashiringan ma‘no, obrazli tafakkur elementlarini anglaydi.

Shu bilan birga, baholashda ochiq savollar, variantli javobli savollar va qisqa yozma izohlar asosida topshiriqlar tuzish tavsiya etiladi. Misol uchun: “Bu qahramon nima sababdan shunday yo‘l tutdi deb o‘ylaysan?”, “Agar sen shu voqeada bo‘lganingda, qanday harakat qilarding?”, “Bu matndan qanday xulosa chiqarish mumkin?” kabi savollar orqali o‘quvchining fikrlash darajasi aniqlanadi.

PIRLS tizimi asosida matnni o‘rganish jarayoni o‘qituvchidan ham metodik yondashuvni o‘zgartirishni talab qiladi. Ya‘ni, matnni tanlashdan boshlab, savollarni shakllantirish, baholash mezonlarini ishlab chiqish, har bir o‘quvchining javobini differensial tarzda ko‘rib chiqish kerak

bo‘ladi. Eng muhimi, baholash jarayoni o‘quvchining xatolarini topish emas, uning fikrlash darajasini aniqlash va rivojlantirish vositasiga aylanishi lozim.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Badiiy matn ustida ishlashda o‘quvchilarni faqat syujetni eslab qolishga emas, balki matn tuzilmasini tushunishga va ma’no qatlamlarini ochishga yo‘naltirish muhim vazifalardan biridir. PIRLS tizimi bu borada o‘quvchining faqat “nima bo‘lganini” emas, “nima uchun shunday bo‘lganini” tushuntirish qobiliyatini baholaydi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi savollar tuzishda “kim?”, “qachon?”, “qayerda?” kabi oddiy savollar bilan cheklanib qolmasligi, balki “nima sababdan?”, “agar boshqacha bo‘lganida nima bo‘lardi?”, “bu voqea haqida qanday fikrdasan?” kabi savollarni ham berishi kerak. Bu savollar orqali o‘quvchining mantig‘iy fikrlash, sabab-oqibatni anglash va matnni hayotiy tajriba bilan bog‘lash ko‘nikmalari faollashadi.

PIRLS yondashuvi asosida badiiy matn ustida ishlashda yana bir muhim jihat — o‘quvchining shaxsiy munosabatini aniqlashdir. Har bir o‘quvchi matnga o‘z dunyoqarashi va tajribasi asosida yondashadi. Shu bois, baholash jarayonida o‘quvchining javobi yagona “to‘g‘ri javob”ga bog‘lanib qolmasligi kerak. Masalan, matndagi qahramonning harakatini baholashda har bir o‘quvchining nuqtai nazari farq qilishi tabiiy. Bu holatda o‘qituvchi o‘quvchining fikrini dalillash, matndan asos keltirish qobiliyatini baholaydi. Bu yondashuv o‘quvchini mustaqil fikrlashga, o‘z pozitsiyasini himoya qilishga va an’anaviy yodlab olishga asoslangan yondashuvdan voz kechishga o‘rgatadi.

Yana bir nazariy-amaliy jihat shuki, PIRLS baholashida matn turlari ham muhim rol o‘ynaydi. Odatda, matnlar ikki turga — literary (badiiy) va informational (axborotli) matnlarga ajratiladi. Boshlang‘ich sinflarda odatda ko‘proq badiiy matnlardan foydalaniladi, biroq PIRLS tamoyillarini to‘liq joriy etish uchun informatsion matnlar ham alohida o‘rin tutishi lozim. Masalan, “Hayvonlar haqida” yoki “Tabiat hodisalari” kabi matnlar orqali o‘quvchilarning fakt va mulohazani farqlash, asosli xulosa chiqarish, ma’lumotlar orasida bog‘liqlik topish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu o‘qish savodxonligini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, baholashda matnga asoslangan yozma ifoda topshiriqlaridan foydalanish ham maqsadga muvofiq. O‘quvchi o‘qigan matni asosida o‘z munosabatini, tahlilini yoki yakuniy xulosasini qisqacha yozib beradi. Bu nafaqat tushunganini aniqlash, balki yozma nutqni baholashga ham imkon beradi. Misol uchun: “Sen ushbu qahramonning o‘rnida bo‘lsang, qanday harakat qilarding?”, “Bu hikoyadan qanday saboq olding?” kabi yozma savollar orqali o‘quvchi fikrini matnga tayangan holda izohlashga o‘rganadi.

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda badiiy matn ustida ishlash jarayonida PIRLS tizimi asosida baholash o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. An’anaviy yondashuvlarda matn mazmunini eslab qolish va qayta aytib berish yetarli deb hisoblangan bo‘lsa, PIRLS yondashuvi bu jarayonni chuqurlashtirib, o‘quvchilarning matnni tahlil qilish,

tushunganini asoslash, muallif pozitsiyasini farqlash, qahramon harakatlarini baholash kabi murakkab intellektual amallarga asoslaydi.

Bu baholash tizimi o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini asoslay oladi, matndan dalil keltirishga o‘rganadi, hayotiy tajribasi bilan bog‘lab xulosa chiqaradi. Aynan shunday kompetensiyalar bugungi zamonaviy ta‘lim modelining markazida turibdi. Bu borada, o‘qituvchidan ham yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik, noan‘anaviy savol va topshiriqlar tuzish, o‘quvchini kuzatish va baholash ko‘nikmalari talab etiladi.

Shuningdek, PIRLS baholash tamoyillari asosida tuzilgan topshiriqlar orqali o‘qituvchi o‘quvchining o‘qish strategiyalarini ham aniqlashi mumkin: u faqat yuzaki o‘qiyaptimi, yo‘qsa, ma‘noni chuqur anglayaptimi, mavhum fikrni talqin qila oladimi? Bu esa o‘z navbatida darslarda samarali pedagogik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Eng asosiysi, bu tizim bola nutqining shakllanishiga emas, uning tafakkur rivojiga xizmat qiladi. PIRLS yondashuvi asosida badiiy matn ustida ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchisida matn bilan muloqot qilish madaniyatini, shaxsiy nuqtai nazarni shakllantirishga yo‘naltirilgan yondashuvdir. Ushbu metodika zamonaviy ta‘limda ilg‘or texnologiyalar, innovatsion baholash tizimlari va kompetensiyaviy yondashuvlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uni maktab amaliyotiga tatbiq etish dolzarb vazifadir.

ADABIYOTLAR

1. PIRLS 2021 Assessment Framework. IEA.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi. “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi bo‘yicha uslubiy qo‘llanma”, Toshkent, 2022.
3. Abduazizova D. “O‘quvchilarda matn ustida ishlash malakasini shakllantirish metodikasi”, TDPU, 2021.
4. Mullis, I.V.S., Martin, M.O. (2020). PIRLS 2021 Contextual Framework. Boston College.
5. Mamarasulova R. “PIRLS standartlariga asoslangan o‘quv faoliyatini tashkil qilish”. — Xalq ta‘limi, 2022.
6. Clark, C. “Children’s Reading Habits and the Role of School Libraries.” National Literacy Trust, 2019.
7. Baranova L.A. “Metodika obucheniya chteniyu v nachal’noy shkole.” — Moskva: Prosveshcheniye, 2018.



XUSUSIY OLIY TA'LIM TUSHUNCHASI, UNING PEDAGOGIK VA BOSHQARUVIY JIHATLARI

*Hamdamov G'iyosbek Abduvaliyevich,
University of Business and Science
nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Xususiy oliy ta'lim jahon ta'lim landshaftida muhim sektor sifatida paydo bo'lib, akademik va kasbiy o'sish uchun turli imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu maqola xususiy oliy ta'lim tushunchasini o'rganib, uning pedagogik va boshqaruv jihatlariga e'tibor qaratadi. Unda taniqli olimlarning nutqqa qo'shgan hissasi ta'kidlanadi, xususiy muassasalar duch keladigan muammolarni tahlil qiladi va ularning samaradorligini oshirishi mumkin bo'lgan innovatsion amaliyotlar haqida tushunchalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Xususiy oliy ta'lim, pedagogika, menejment, akademik innovatsiyalar, ta'lim yetakchiligi

ПОНЯТИЕ ЧАСТНОГО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, ЕГО ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И АДМИНИСТРАТИВНЫЕ АСПЕКТЫ

Абстракт. Частное высшее образование становится важным сектором в глобальном образовательном ландшафте, предлагая множество возможностей для академического и профессионального роста. В данной статье рассматривается понятие частного высшего образования, уделяя особое внимание его педагогическому и управленческому аспектам. В нем подчеркивается вклад выдающихся ученых в дискуссию, анализируются проблемы, стоящие перед частными учреждениями, и дается представление об инновационных практиках, которые могут повысить их эффективность.

Ключевые слова: Частное высшее образование, педагогика, менеджмент, академические инновации, образовательное лидерство.

THE CONCEPT OF PRIVATE HIGHER EDUCATION, ITS PEDAGOGICAL AND MANAGEMENT ASPECTS

Abstract. Private higher education has emerged as an important sector in the global educational landscape, offering diverse opportunities for academic and professional growth. This article explores the concept of private higher education, focusing on its pedagogical and management aspects. It highlights the contributions of prominent scholars to the discourse,

analyzes the challenges faced by private institutions, and provides insights into innovative practices that can enhance their effectiveness.

Keywords: Private higher education, pedagogy, management, academic innovation, educational leadership

Kirish. Xususiy oliy ta'lim - bu davlat tomonidan emas, balki xususiy shaxslar, tashkilotlar yoki kompaniyalar tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan oliy ta'lim tizimi. Ushbu tizim davlat oliy ta'lim tizimidan farqli ravishda, o'zining mustaqil moliyaviy va boshqaruv tuzilmasiga ega bo'lib, o'quv dasturlarini, ta'lim jarayonini va boshqa faoliyatlarini o'zi belgilaydi. Biroq, xususiy oliy ta'lim muassasalari ham davlat tomonidan belgilangan minimal standartlarga va akkreditatsiya talablariga rioya qilishlari shart. Xususiy oliy ta'lim turli va sifatli ta'limga bo'lgan talabni qondirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu muassasalar muayyan akademik, kasbiy va mintaqaviy ehtiyojlarni qondirish orqali davlat universitetlarini to'ldiradi. Altbax va Levi fikriga ko'ra, xususiy oliy ta'lim o'qish to'lovlariga, tadbirkorlik amaliyotiga tayanishi va muayyan bo'shliqlarga e'tibor qaratilishi bilan tavsiflanadi. Bu xususiyatlar moslashuvchanlikni ta'minlasa-da, ular pedagogik va boshqaruv sohalarida ham o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi.

Xususiy oliy ta'lim kontseptsiyasi. Xususiy oliy ta'lim deganda davlatning bevosita nazoratidan mustaqil ravishda, xususiy mablag'lar, o'qish to'lovlari va ayrim hollarda xayriya mablag'lariga tayanib faoliyat yurituvchi muassasalar tushuniladi. Davlat hamkasblaridan farqli o'laroq, xususiy oliy o'quv yurtlari ko'pincha ixtisoslashuv, bozorga yo'naltirilgan dasturlar va tadbirkorlikni boshqarish modellariga urg'u beradi. Bu xususiyatlar xususiy institutlarga o'zgaruvchan bozor talablariga tezda moslashish imkonini beradi, garchi ular foydalanish imkoniyati va tenglik bo'yicha tekshiruvlarga duch kelishi mumkin.

Xususiy oliy ta'limning pedagogik jihatlar. Xususiy oliy ta'limdagi pedagogikaga muassasaning maqsadlari, resurslari va maqsadli demografiyasi ta'sir qiladi. Asosiy pedagogik jihatlarga quyidagilar kiradi:

O'quv dasturlarini loyihalashda moslashuvchanlik va innovatsiyalar. Xususiy oliy o'quv yurtlari ko'pincha o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ko'proq avtonomiyaga ega bo'lib, ularga innovatsion va sanoatga tegishli dasturlarni joriy etish imkonini beradi. Masalan, ma'lumotlar fani, sun'iy intellekt va qayta tiklanadigan energiya kabi rivojlanayotgan sohalaridagi dasturlar davlatdan ko'ra xususiy muassasalar tomonidan osonroq qabul qilinadi. Marginson (2016) ta'kidlashicha, bunday moslashuvchanlik bilimga asoslangan iqtisodiyot talablariga javob beradigan akademik innovatsiyalar madaniyatini rivojlantiradi. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun xususiy universitetlar ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va pedagogik uslublarni qo'llashlari mumkin. Masalan, onlayn ta'lim, interaktiv darslar, loyihaviy uslublar va boshqalar.

Bozorga yo'naltirilganlik: Xususiy universitetlar o'quv dasturlarini ishlab chiqishda bozor talablarini, ya'ni ish beruvchilarning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olishlari

mumkin. Bu amaliy ko'nikmalarga e'tibor qaratishni, stajirovkalarni va amaliyotlarni tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim sifatiga e'tibor. Xususiy muassasalar raqobat ustunligi sifatida o'qitishning mukammalligini birinchi o'ringa qo'yishadi. Fakultetni ishga qabul qilish ko'pincha ilmiy malaka bilan bir qatorda amaliy tajribaga ham urg'u beradi. Shuster va Finkelshteynning fikriga ko'ra, bu amaliyot ta'limning real stsenariylarga mosligini oshiradi, lekin ba'zida tadqiqot natijalarini buzishi mumkin. Xususiy universitetlar ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini ishlab chiqishlari va uni doimiy ravishda takomillashtirib borishlari zarur. Bu akkreditatsiya talablariga javob berish va o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Talaba-markazli ta'lim. Xususiy oliy o'quv yurtlari ko'pincha kichik sinflar va ilg'or ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasiga e'tibor qaratadi. Masalan, o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun onlayn va yuzma-yuz muloqotni o'z ichiga olgan aralash ta'lim yondashuvlari odatda qabul qilinadi. Ba'zi xususiy universitetlar talabalarga individual yondashishga, ularning ehtiyojlarini va qiziqishlarini hisobga olishga e'tibor qaratishadi.

Pedagogik amaliyotdagi muammolar. O'zlarining afzalliklariga qaramay, xususiy OTMlar muammolarga duch kelishadi, jumladan, tadqiqotni moliyalashtirish, professor-o'qituvchilarni saqlab qolish muammolari va bozorga yo'naltirilgan dasturlarni akademik qat'iylik bilan muvozanatlash. Ushbu muammolarni hal qilish uchun institutlar o'zlarining missiyasi va qadriyatlariga mos keladigan barqaror pedagogik strategiyalarni qabul qilishlari kerak.

Xususiy oliy ta'limning boshqaruv jihatlar. Samarali boshqaruv xususiy oliy o'quv yurtlarining barqarorligi va rivojlanishi uchun juda muhimdir. Boshqaruvning asosiy jihatlariga quyidagilar kiradi:

Boshqaruv va yetakchilik. Xususiy oliy ta'lim muassasalaridagi boshqaruv tuzilmalari ko'pincha korporativ modellarni aks ettiradi, bunda mas'uliyat, samaradorlik ko'rsatkichlari va strategik rejalashtirishga urg'u beradi. Rahbarlar akademik sifatni saqlab qolgan holda moliyaviy cheklovlarni engib o'tishlari kutilmoqda. Drucker xususiy muassasalarda innovatsiyalar va barqarorlikni rivojlantirishda tadbirkorlik yetakchiligi muhimligini ta'kidlaydi. Xususiy universitetlar o'zining mustaqil boshqaruv tuzilmasiga ega bo'lib, o'z faoliyatini o'zi boshqaradi. Boshqaruv kengashi yoki rektorat tomonidan qabul qilingan qarorlar asosiy ahamiyatga ega.

Moliyaviy barqarorlik. Moliyaviy barqarorlik xususiy oliy o'quv yurtlarining o'quv to'lovlariga bog'liqligini hisobga olgan holda asosiy masala hisoblanadi. Institutlar turli strategiyalarni, jumladan, sanoat bilan hamkorlikni, bitiruvchilar uchun mablag' to'plashni va xayriya fondlariga investitsiyalarni qabul qiladi. Weisbrod va boshqalarga ko'ra, daromad oqimlarini diversifikatsiya qilish moliyaviy risklarni kamaytirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Xususiy universitetlarning asosiy

moliyalashtirish manbai talabalardan to'lanadigan o'qish to'lovi hisoblanadi. Shuning uchun ular moliyaviy samaradorlikka va resurslarni optimal boshqarishga e'tibor qaratishlari kerak.

Sifatni tekshirish. Akademik sifatni saqlab qolish xususiy OTMlar uchun talabalarni jalb qilish va saqlab qolish uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Akkreditatsiya organlari va reyting tizimlari institutsional strategiyalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Innovatsiyalarni rag'batlantirish bilan bir qatorda tartibga soluvchi standartlarga rioya qilishni ta'minlash nozik muvozanatni talab qiladi.

Texnologik integratsiya. Xususiy oliy o'quv yurtlari ko'pincha ma'muriy samaradorlikni va talabalarning faolligini oshirish uchun ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirishda etakchilik qiladi. Bulutga asoslangan ta'limni boshqarish tizimlaridan AIga asoslangan analitikagacha ushbu vositalar ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilish imkonini beradi va institutsional samaradorlikni oshiradi.

Menejmentdagi qiyinchiliklar. Xususiy oliy o'quv yurtlarini boshqarishdagi asosiy muammolarga quyidagilar kiradi:

Normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqlik: avtonomiyani saqlab, murakkab huquqiy bazalarni kezish.

Bozor raqobati: to'yingan ta'lim bozorida dasturlarni farqlash.

Tenglik va foydalanish imkoniyati: moliyaviy barqarorlikni inklyuziv amaliyotlar bilan muvozanatlash.

Olimlarning hissalari. Bir qator olimlar xususiy oliy ta'lim haqidagi nutqni boyitib, uning pedagogik va boshqaruv jihatlari haqida tushuncha berdilar:

✓ Altbach va Levy (2005): Xususiy oliy ta'limning global o'sishi va uning turli xil ta'lim ehtiyojlarini qondirishdagi rolini ta'kidladi.¹³⁷

✓ Levy (2006): xususiy oliy o'quv yurtlarining tadbirkorlik va bozorga yo'naltirilganligini ta'kidladi.

✓ Marginson (2016): Rivojlanayotgan akademik va ijtimoiy muammolarni hal qilishda xususiy muassasalarning moslashuvini muhokama qildi.

✓ Shuster va Finkelshteyn (2006): O'qituvchilarni ishga olish amaliyoti va ularning o'qitish va tadqiqotga ta'siri o'rganildi.

✓ Drucker (1990): Tadbirkorlik rahbariyatini institutsional muvaffaqiyat uchun harakatlantiruvchi kuch sifatida himoya qilgan.

Siyosat bo'yicha tavsiyalar. Davlat-xususiy hamkorlikni rag'batlantirish: resurslar va ilg'or tajribalarni almashish uchun xususiy oliy o'quv yurtlari va davlat muassasalari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish: Hisobdorlikni ta'minlashda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash siyosatini soddalashtirish.

¹³⁷ Altbach, Philip G., and Daniel C. Levy. *Private higher education: A global revolution*. Vol. 2. Brill, 2005.

Inklyuzivlikni rag'batlantirish: Imtiyozli talabalar uchun kirishni yaxshilash uchun moliyaviy yordam dasturlari va stipendiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot salohiyatini qo'llab-quvvatlash: Xususiy oliy o'quv yurtlarini tadqiqot va professor-o'qituvchilarni rivojlantirishga sarmoya kiritish uchun rag'batlantirish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xususiy oliy ta'lim tizimi o'zining pedagogik va boshqaruv jihatlari bilan davlat oliy ta'lim tizimidan farq qiladi. Uning muvaffaqiyati bozor talablariga moslashuvchanlik, innovatsiyalarni qo'llash, ta'lim sifatini ta'minlash va samarali boshqaruvga bog'liq. Biroq, xususiy universitetlar ham davlat tomonidan belgilangan standartlarga va akkreditatsiya talablariga rioya qilishlari zarur. Xususiy oliy ta'lim kontseptsiyasi o'zining alohida pedagogik va boshqaruv jihatlari ega bo'lib, uning global ta'limning o'zgaruvchan talablarini qondirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Qiyinchiliklar saqlanib qolsa-da, innovatsion amaliyotlar va strategik boshqaruv sektorning to'liq salohiyatini ochib berishi mumkin. Olimlarning fikrlarini birlashtirish va dalillarga asoslangan siyosatni qabul qilish orqali xususiy OTMLar akademik mukammallikka va ijtimoiy taraqqiyotga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Altbach P. G. Edward Shils: Defender of the traditional university //The calling of social thought. – Manchester University Press, 2019. – C. 202-211.
2. Levy, Daniel C. "Unanticipated development: Perspectives on private higher education's emerging roles." Comparative Education Review 50.2 (2002): 217-240.
3. Marginson, S. (2016). The Dream is Over: The Crisis of Clark Kerr's California Idea of Higher Education. University of California Press.
4. Schuster, J. H., & Finkelstein, M. J. (2006). The American Faculty: The Restructuring of Academic Work and Careers. Johns Hopkins University Press.
5. Drucker, Peter Ferdinand. Classic Drucker: essential wisdom of Peter Drucker from the pages of Harvard Business Review. Harvard Business Press, 2006.
6. Xudoynazarovich, Shadiyev Alisher. "KADRLAR BOSHQARUVI XUSUSIY OTMLARDA: XUSUSIYATLARI, YONDASHUVLARI VA MUAMMOLARI." Gospodarka i Innowacje. 54 (2024): 70-77.
7. Weisbrod, B. A., Ballou, J. P., & Asch, E. D. (2008). Mission and Money: Understanding the University. Cambridge University Press.
8. Selwyn, N. (2016). Education and Technology: Key Issues and Debates. Bloomsbury.
9. Altbach, Philip G., and Daniel C. Levy. Private higher education: A global revolution. Vol. 2. Brill, 2005.
10. Levy, D. C. (2006). How Private Higher Education's Growth Challenges the New Institutionalism. SUNY Press.
11. Drucker, P. F. (1990). Managing the Non-Profit Organization: Principles and Practices. HarperBusiness.



UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA “INFORMATIKA VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI” FANINI O‘QITISHDA XORIJIY TAJRIBALAR

Hasanova Sumanbar Hamroqulovna

O‘zbekiston - Finlandiya Pedagogika Instituti Informatika kafedrasi dotsenti

Annotatsiya Ushbu maqolada “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini umumta’lim maktablarida o‘qitishda xorijiy tajribalar o‘rganiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, texnik infratuzilma, o‘qituvchi malakasi va moslashtirilgan o‘quv dasturlari asosida xorijiy tajribalarni joriy qilish maktablarda axborot texnologiyalari bo‘yicha yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Informatika va axborot texnologiyalari, xorijiy tajriba, dasturlash, raqamli savodxonlik, integratsiyalashgan ta’lim, umumta’lim maktabi, pedagogik metodika, texnik infratuzilma.

Аннотация. В данной статье изучается иностранный опыт преподавания предмета «Информатика и информационные технологии» в общеобразовательных Результаты показывают, что при наличии соответствующей технической инфраструктуры, квалифицированных учителей и адаптированных учебных программ внедрение зарубежного опыта может способствовать достижению высоких результатов в области информационных технологий в школах.

Ключевые слова: Информатика и информационные технологии, зарубежный опыт, программирование, цифровая грамотность, интегрированное обучение, общеобразовательная школа, педагогическая методика, техническая инфраструктура.

Abstract. This article examines international practices in teaching “Computer Science and Information Technologies” in general education schools. The findings suggest that with appropriate technical infrastructure, qualified teachers, and localized curricula, the adoption of foreign experiences can lead to significant improvements in IT education at schools.

Keywords: Informatics and information technology, international experience, programming, digital literacy, integrated learning, general education school, pedagogical methodology, technical infrastructure.

Kirish

Zamonaviy jamiyatni raqamli inqilob bosqichi sifatida tavsiflash mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hayotning deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib borayotgan bir paytda, maktab ta’limi ham bu jarayondan chetda qolishi mumkin emas. Shuning

uchun “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini umumta’lim maktablarida samarali o‘qitish, avvalo, o‘quvchilarda zamonaviy raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish, keyinchalik ularni hayotga tatbiq etish imkoniyatlarini yaratish nuqtayi nazaridan nihoyatda muhim.

Xorijiy tajribani o‘rganish mazkur fanni o‘qitishda zamonaviy metodikalar va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni shakllantirishga katta hissa qo‘shadi. Masalan, Finlandiya, Singapur, Estoniya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda AKT bo‘yicha maktab ta’limi strategik darajada yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, erta yoshdan boshlab dasturlash, raqamli savodxonlik va axborot xavfsizligi bo‘yicha chuqurlashtirilgan mashg‘ulotlar olib boriladi. O‘zbekiston uchun ham bunday tajriba, har ikkala pedagogik ham texnologik nuqtayi nazardan juda foydali bo‘lishi shubhasiz.

Metod

Tadqiqot doirasida adabiyotlar tahlili va metodologik qiyoslash asosiy uslub sifatida qo‘llandi. Dastlab jahon miqyosida “Informatika” (Computer Science), “Axborot texnologiyalari” (Information Technologies) yoki “Texnologiya ta’limi” (Technology Education) nomi bilan yuritiladigan fanlar bo‘yicha o‘rnatilgan me‘yoriy hujjatlar, o‘quv dasturlari, dasturiy hujjatlar ko‘rib chiqildi. Buning uchun xalqaro ma’lumotlar bazalari (Scopus, Web of Science, Google Scholar) hamda xorijiy ta’lim vazirliklarining rasmiy saytlaridan foydalanildi.

Keyingi bosqichda Finlandiya, Singapur, Estoniya, Janubiy Koreya, shuningdek, AQSHning ayrim shtatlarida joriy etilgan informatik ta’lim modeliga oid maqolalar va tadqiqotlar chuqur tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar O‘zbekiston sharoitidagi amaliyot bilan taqqoslab, moslashuvchanlik darajasi baholandi.

Shuningdek, bir nechta mahalliy maktablarda sinov tariqasida xorijiy metodlar elementlarini joriy qilish bo‘yicha eksperimental kuzatuvlar amalga oshirildi. Unda o‘quvchilarning darsdagi faolligi, yaratilgan amaliy loyihalar, baholash natijalari va o‘qituvchilar fikri inobatga olindi. Ma’lumotlar asosan sifat tahlili (qualitative analysis) va qisman statistik ko‘rsatkichlar (quantitative data) shaklida to‘plandi.

Metod sifatida strukturalashtirilgan intervyular ham o‘tkazildi, ya’ni informatikani o‘qitish bo‘yicha xorijda malaka oshirgan bir nechta mahalliy o‘qituvchilar bilan suhbatlar tashkil etildi. Ushbu jarayonda xorijiy tajribalarni amalda qo‘llashdagi yutuqlar va muammolar hamda infratuzilma, o‘quv metodikalariga oid real vaziyatlar tahlil qilindi.

Natijalar

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy mamlakatlarda informatikani o‘qitishga bir qator o‘ziga xos yondashuvlar mavjud. Masalan, Finlandiyada fanlar integratsiyasi asosida “Informatika” alohida fan sifatida emas, balki matematika, fizika va boshqa fanlar bilan birgalikda o‘qitiladi. Bu o‘quvchilarda amaliy masalalarni echishda kompyuterdan foydalanish ko‘nikmasini erta shakllantirishga yordam beradi.

Singapurda esa informatikada dasturlash bo‘yicha loyihalar ustida ishlash, robototexnika to‘garaklari, xalqaro olimpiadalarga tayyorgarlik jarayonlari juda rivojlangan. Maktablarning

o‘zida malakali trenerlar tomonidan boshqariladigan kurslar mavjud bo‘lib, o‘quvchilarga erta yoshdan dasturlash tillarini o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Natijada o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va ijodiy yondashuvi yuqori darajada rivojlanadi.

Estoniya tajribasi esa raqamli davlat konsepsiyasining bir qismi sifatida maktablarda 1-sinfдан boshlab “Raqamli savodxonlik” (Digital Literacy) elementlarini kiritish bilan ajralib turadi. O‘quvchilar oddiy grafik dasturlardan tortib, sodda dasturlash vositalarigacha bosqichma-bosqich o‘rganishadi. Bu nafaqat maktab darajasida, balki jamiyatda ham AKT ko‘nikmalarining kuchli rivojlanishiga zamin yaratadi.

Janubiy Koreyada maktab bazasi kuchli texnik infratuzilma bilan jihozlangan: har bir sinfda interaktiv displeylar, o‘quvchilar uchun individual kompyuter yoki planshetlar mavjud. Bu nafaqat informatika darslari, balki boshqa fanlarda ham raqamli texnologiyalardan foydalanishga xizmat qiladi. Dasturlash asosan blokli dasturlash muhitlaridan boshlab, keyinroq algoritm va ma’lumot tuzilmalari darajasiga o‘tiladi. Shuningdek, maxsus platformalarda o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, robototexnikaga oid amaliy loyihalar katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizning eksperimental qismi O‘zbekistondagi uchta turli maktabda o‘tkazildi. Xususan, xorijiy tajribaga tayanilgan holda dasturlash asoslarining blokli versiyalarini (Scratch, Code.org muhitlari) joriy qilish, real hayotga doir masalalar bo‘yicha loyiha ishlab chiqish usullari sinovdan o‘tkazildi. Natijada o‘quvchilarda qiziqish, amaliy ko‘nikmalar va darsdagi faollik sezilarli ravishda oshgani kuzatildi. Biroq, kompyuter sinflarining etarlicha jihozlanmaganligi hamda internet tezligining pastligi muammo bo‘ldi.

O‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan intervyular shuni ko‘rsatdiki, metodik qo‘llanmalar va tegishli didaktik resurslar etishmasligi, o‘qituvchilarning zamonaviy dasturlash tillari yoki robototexnika bo‘yicha tayyorgarligi etarli emasligi - fanni xorijiy andozalarga yaqin tarzda o‘qitishga to‘sqinlik qilmoqda. Ammo zamonaviy texnologiyalarni o‘qitish usullari bo‘yicha tashkil etilgan qisqa muddatli o‘quv-seminarlar bu muammolarni qisman bartaraf etishga yordam beradi.

Muhokama

Xorijiy tajribani umumiy holda tahlil qilganda quyidagi muhim jihatlar e’tiborni tortadi. Birinchidan, informatikani erta yoshdan o‘qitish tendensiyasi keng tarqalgan. Bu jarayon, ayniqsa, tez rivojlanayotgan texnologiyalar davrida o‘quvchilarni ertaroq zamonaviy ko‘nikmalarga ega bo‘lishga undaydi. Ikkinchidan, dasturlashni amaliy loyihalar orqali o‘qitish modeli barcha ilg‘or tajribalarda ko‘zga tashlanadi. Oddiy misollardan boshlab bosqichma-bosqich murakkab loyihalarga o‘tish, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini va muammolarni echish malakasini kuchaytiradi.

Pedagogik jihatdan qaraganda, integratsiyalashgan ta’lim - ya’ni informatika fani mazmunini matematika, tabiiy fanlar yoki ijtimoiy fanlar bilan hamkorlikda tashkil etish - xorijda samarali yo‘nalishlardan biridir. Bu nafaqat fan o‘rganish jarayonini turli maqsad va kontekstlarda tadbiq etishga yordam beradi, balki o‘quvchilarning informatika bo‘yicha

o‘zlashtirish darajasini ham oshiradi. Chunki ular nafaqat dasturlashni, balki uni real masalalarga qanday tatbiq qilishni ham anglab etishadi.

Infratuzilma muammolari, odatda, rivojlanayotgan davlatlarda eng asosiy to‘siq sifatida ko‘rinadi. Singapur yoki Janubiy Koreya misolida, u erdagi maktablarning zamonaviy texnik bazasi o‘quvchilarga ham, o‘qituvchilarga ham eng qulay sharoitlarni yaratib beradi. O‘zbekistonda esa kompyuter sinflari cheklanganligi, tezkor internetning hamma joyda mavjud emasligi hamda o‘qituvchilarning tegishli malakasi etarli bo‘lmasligi sababli xorijiy tajribalarni to‘liq joriy qilish qiyin kechishi mumkin. Ammo bu muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish hamda maktablarni zarur texnik vositalar bilan ta‘minlash, pedagoglarni tizimli tayyorlash jarayoni allaqachon boshlanganini e‘tirof etish lozim.

Metodik qo‘llanmalar va o‘quv dasturlarini adaptatsiya qilishda mahalliy sharoitni inobatga olish zarur. Xorijiy davlatlarda qo‘llaniladigan ayrim dasturlash tillari yoki platformalari qimmat bo‘lishi, yoki ularning ichidagi mazmun mahalliy tillarda bo‘lmasligi mumkin. Shu bois, mahalliyashtirish va moslashtirish ishlari strategik darajada yo‘lga qo‘yilishi kerak. Shuningdek, informatikani o‘qitishdagi xorijiy yangiliklarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirishdan oldin, ularning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jihatlarini ham o‘rganish zarur.

Xulosa

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini umumta‘lim maktablarida samarali o‘qitish uchun xorijiy tajribalardan o‘rganish zarur. Dasturlashni erta yoshdan, amaliy loyihalar asosida va integratsiyalashgan holatda o‘qitish xorijda o‘zini oqlagan usullardan sanaladi. Biroq, bu modellarni O‘zbekistonda amaliyotga tatbiq etish jarayonida texnik infratuzilma, o‘qituvchilarning malakasi, metodik materiallar va mahalliy sharoit kabi omillarni e‘tiborga olish muhim.

Zamonaviy texnologik taraqqiyot va raqamli iqtisodiyot sharoitida har bir o‘quvchining raqamli savodxonligini oshirish jamiyat taraqqiyoti uchun ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun xorijiy tajribalar negizida, lekin milliy ta‘lim kontekstiga mos xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish, ularni izchil joriy etish, maktab ta‘limini raqamli inqilobga mos holda rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ministry of Education and Culture of Finland (2020). *National Core Curriculum for Basic Education: Implementation of ICT and Programming*. Helsinki: Finnish National Board of Education.
2. Sengupta, P., Kinnebrew, J., Basu, S., Biswas, G., & Clark, D. (2013). *Integrating Computational Thinking with K-12 Science Education Using Agent-Based Computation*. *Education and Information Technologies*, 18(2), 351–380.
3. Tan, Y. S. M., & Lee, C. B. (2015). *The Impact of Singapore’s ICT Masterplans in Education on the Implementation of ICT in Primary Schools*. *Computers & Education*, 29(2), 1–16.

4. Kori, K., Pedaste, M., & Tönnissen, E. (2016). *What Influences Students to Study Information and Communications Technology?. The Role of Informal and Non-Formal Learning. International Journal of Information and Education Technology*, 6(6), 461–466.
5. Park, H. W., & Chung, H. (2015). *ICT Educational Infrastructure and Educational Performance: The Case of Korea. International Journal of Educational Development*, 41(3), 49–56.



**KLASSIK ARALASH TA'LIM MODELLARI (FLIPPED CLASSROOM,
STATION ROTATION, FLEX, SELF-BLEND).**

Humoyun Tursunov
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Flipped Classroom, Station Rotation, Flex va Self-Blend kabi klassik aralash ta'lim modellari o'rganiladi. Aralash ta'lim texnologik vositalar bilan an'anaviy darslarni uyg'unlashtirishi, talabalar faolligini va o'qitish samaradorligini oshirishi mumkin. Natijalar shuni ko'rsatadiki, har bir modelning o'ziga xos afzallik va kamchiliklari bo'lib, samarali joriy etish uchun texnik infrastrukturani rivojlantirish va o'qituvchilarning digital ko'nikmalarini oshirish zarur.

Kalit so'zlar: Aralash ta'lim, Flipped Classroom, Station Rotation, Flex, Self-Blend, raqamli texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, pedagogik innovatsiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются классические модели смешанного обучения, такие как Flipped Classroom, Station Rotation, Flex и Self-Blend. Смешанное обучение сочетает в себе традиционные методы преподавания с использованием технологических инструментов и может повышать активность обучающихся, а также эффективность обучения. Результаты показывают, что каждая из моделей имеет свои преимущества и недостатки. Для успешного внедрения необходимы надлежащая техническая инфраструктура и развитие цифровых навыков у преподавателей.

Ключевые слова: Смешанное обучение, Flipped Classroom, Station Rotation, Flex, Self-Blend, цифровые технологии, эффективность образования, педагогические инновации.

Abstract. This article examines four classical blended learning models: Flipped Classroom, Station Rotation, Flex, and Self-Blend. Blended learning combines traditional teaching methods with technological tools, potentially increasing student engagement and instructional effectiveness. Findings indicate that each model has distinct advantages and drawbacks, and successful implementation requires adequate technical infrastructure and improved digital competencies among educators.

Keywords: Blended learning, Flipped Classroom, Station Rotation, Flex, Self-Blend, digital technologies, educational effectiveness, pedagogical innovation.

Kirish

Ta’lim jarayoni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tobora yangilanib, an’anaviy va elektron (onlayn) usullar uyg‘unlashuvi orqali samarali o‘quv muhiti yaratish maqsadida rivojlanmoqda. Bu o‘zgarishlar kontekstida “aralash ta’lim” (blended learning) modellari alohida ahamiyat kasb etadi. Aralash ta’lim, keng ma’noda, an’anaviy o‘qitish usullari (ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar) bilan zamonaviy raqamli ta’lim platformalaridan (onlayn testlar, virtual muhit, videodarslar va h.k.) foydalanishni birlashtiradi. Shu bilan birga, aralash ta’limning turli shakl va yondashuvlari paydo bo‘lgan bo‘lib, ular ichida **Flipped Classroom**, **Station Rotation**, **Flex** va **Self-Blend** eng ko‘p tarqalgan klassik modellardir.

Flipped Classroom (teskari sinf) modelida o‘quvchilar yoki talabalar dars mavzusi bo‘yicha asosiy nazariy bilimlarni avval onlayn tarzda mustaqil egallab, mashg‘ulot vaqtida ko‘proq amaliy mashq va munozaraga e’tibor qaratadilar. **Station Rotation** modelida esa mashg‘ulot bir necha stansiya (bo‘linma)larga bo‘linib, har bir stansiya o‘zgacha usul va materiallar bilan ishlashni ko‘zda tutadi. **Flex** modeli odatda mustaqil o‘qishga va har bir talaba uchun individual trajektoriyani shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda o‘quvchilar onlayn kontentdan faol foydalanadilar, o‘qituvchi esa kuzatuvchi va maslahatchi rolini bajaradi. **Self-Blend** modelida o‘quvchilarga individual ehtiyoj va qiziqishlariga qarab, raqamli kurslar yoki an’anaviy darslarni qo‘shimcha ravishda mustaqil tanlash imkoniyati beriladi.

Mazkur tadqiqotda ushbu to‘rtta asosiy aralash ta’lim modelining xususiyatlari, afzalliklari va cheklovlari, shuningdek, ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, bu modellarning pedagogik jarayondagi o‘rni va ularni qo‘llash metodlarining amaliy natijalari ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O‘zbekistonda ham raqamli texnologiyalardan foydalanish hajmi ortib bormoqda, yangi avlod talabalarining o‘qish va idrok qilish uslubi o‘zgarayotir. Shunday ekan, raqamli texnologiyalar bilan an’anaviy darslarni uyg‘unlashtirish muhim masala bo‘lib qolmoqda. Aynan shu maqsadda, klassik aralash ta’lim modellari haqida ilmiy va tajribaviy ma’lumotlar taqdim etish, ularni tatbiq qilishda e’tiborga olish lozim bo‘lgan jihatlarni yoritish tadqiqotning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Metod. Ushbu ilmiy maqolada asosan quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Adabiyotlar tahlili:** Mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, xalqaro ilmiy jurnallar hamda elektron ma’lumotlar bazalaridan (Scopus, Web of Science, Google Scholar va h.k.) olingan maqolalar ko‘rib chiqildi. Flipped Classroom, Station Rotation, Flex va Self-Blend modellari bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy tadqiqot natijalari ham o‘rganildi.
2. **Taqqoslash:** Har bir modelning didaktik tamoyillarga mosligi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, o‘zaro farqli xususiyatlarini ochib berish maqsadida qiyosiy tahlil qilindi.
3. **Eksperimental kuzatuv:** Tadqiqot doirasida ayrim oliy ta’lim dargohlarida o‘quv jarayoniga kiritilgan aralash ta’lim elementlari sinov tariqasida kuzatildi. Bunda

talabalarining o‘qishdagi faollik darajasi, baholash natijalari va dars jarayonidagi ishtirok darajasi baholandi.

4. **Ma’lumotlarni tahlil qilish:** Eksperimental kuzatuvdan olingan raqamli ko‘rsatkichlar Microsoft Excel va SPSS dasturlarida qayta ishlanib, statistik xulosalar chiqildi.

Metodologik yondashuv sifatida tizimli analiz asos sifatida olinib, aralash ta’lim modellarining barcha didaktik komponentlariga (maqsad, mazmun, uslub, baholash) ta’siri turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha (talabaning mustaqil ishlash faolligi, muvaffaqiyat ko‘rsatkichi, qiziqish darajasi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa) o‘rganildi.

Natijalar

1. Flipped Classroom modelining samaradorligi

Tahlil natijalariga ko‘ra, Flipped Classroom metodida talabalar mustaqil ta’limga keng jalb etiladi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, bu yondashuv o‘qishdagi faollik va natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, oldindan dars mavzusini videodarslar yoki interaktiv materiallar yordamida o‘rganish talabaning dars jarayonida ko‘proq savol berishi va amaliy masalalarda faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Shuningdek, dars jarayonida o‘qituvchi bilan yuzma-yuz muloqotning roli pasaymaydi, balki dars vaqtini aniq maqsadga – munozara, muammolarni hal qilish, kichik guruhlarda amaliy topshiriqlar bajarishga yo‘naltiradi.

2. Station Rotation modelining ahamiyati

Stansiyalar bo‘yicha aylanma (rotatsiya) usuli talabalar uchun turli faoliyat turlarini sinfda paralel ravishda amalga oshirish imkonini beradi. Bir stansiyada amaliy mashqlar bajarilsa, boshqa stansiyada onlayn test, yana boshqasida esa muammoli vaziyatlar (case studies) bo‘yicha guruhli munozaralar o‘tkazilishi mumkin. Bizning eksperimental kuzatuvimizda Station Rotation modelidan foydalangan guruhda talabalar o‘rtasidagi hamkorlik va guruhli ish ko‘nikmalari kuchaygani, shuningdek, sinfdagi faollik va motivatsiya sezilarli ravishda ortgani qayd etildi.

3. Flex modelining mustaqil o‘qishga ta’siri

Flex modelida har bir talaba o‘zining individual rejasi asosida onlayn kontentni o‘rganadi. O‘qituvchi murabbiy va maslahatchi sifatida, zarur bo‘lganda yordam ko‘rsatadi. Bizning kuzatuvimiz shuni ko‘rsatdiki, talabaning o‘z vaqtini rejalashtirish ko‘nikmasi va mustaqil ta’lim olish mas’uliyati ortadi. Biroq, bu modelda dars jarayoni qisman bo‘sh bo‘lgani tufayli, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi sust rivojlangan talabalar qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Statistika talabalarining 20 foizi aniq reja va o‘qituvchi nazorati bo‘lmasa, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmay qolishi mumkinligini ko‘rsatdi.

4. Self-Blend modelining moslashuvchanligi

Ushbu modelda o‘quvchilar yoki talabalar o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga qarab onlayn kurslar, seminarlar yoki boshqa qo‘shimcha resurslarni tanlab, o‘qitish jarayonini “to‘ldirib” boradilar. Tajribadan ma’lum bo‘ldiki, Self-Blend modeli talabalarni chuqurroq o‘rganishga va o‘ziga xos ilmiy yo‘nalishlarga ixtisoslashishlariga yordam beradi. Masalan, kimyo sohasida qiziqishi baland bo‘lgan talaba boshqa mavzular bo‘yicha oraliqda onlayn kurslarni topib, o‘rganishi

mumkin. Biroq, bu model ham ma'lum "raqamli tafovut" (digital divide) muammosini keltirib chiqarishi ehtimoli bor, chunki masofaviy resurslarga kirish imkoniyati hamma uchun ham bir xil bo'lmastligi mumkin.

Muhokama. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aralash ta'lim modellari ta'lim jarayoniga moslashuvchanlik, motivatsiya va interaktivlikni olib kiradi. Flipped Classroom masofaviy ta'lim elementlari bilan sinf ichidagi faol o'qitishni uyg'unlashtirsa, Station Rotation mozaik usul yordamida talabalarni turli usullarda bilish faoliyatiga jalb etadi. Flex modelida asosiy urg'u o'quvchilarning mustaqil ishlashiga qaratiladi, Self-Blend esa har bir talabaning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashishni ta'minlaydi.

Ayni paytda, bu modellarni joriy qilish uchun zarur bo'lgan texnik infrastrukturani (kompyuter sinflari, tezkor internet, axborot xavfsizligi) ta'minlash muhimdir. Shuningdek, o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalarni puxta o'zlashtirishi va didaktik mahoratini takomillashtirishi talab etiladi. Modellarning ijobiy samarasini oshirish uchun o'quv materiallarini sifatli raqamli formatga o'tkazish, talabalarning ijodiy faolligini rag'batlantiradigan topshiriqlar tayyorlash va baholash mexanizmini yangilash lozim.

Aralash ta'lim modellarini tadqiq qilish jarayonida uchragan yana bir muammo – akademik halollik (plagiat, topshiriqlarni boshqalar orqali bajarish) masalasidir. Raqamli muhadda nazoratni yo'lga qo'yish, talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini muntazam monitoring qilish zarur.

Ishonch bilan aytish mumkinki, yuqoridagi modellarni to'g'ri va izchil joriy etish nafaqat ta'lim mazmunini boyitadi, balki talabalar ijodkorligi, mas'uliyat hissi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot Flipped Classroom, Station Rotation, Flex va Self-Blend kabi klassik aralash ta'lim modellarining pedagogik jarayondagi o'rni va samaradorligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra:

1. **Faollik va motivatsiya oshadi:** Aralash ta'lim modellarida talabalar mustaqil ish va amaliy mashg'ulotlarga ko'proq jalb qilinadi.
2. **Individual yondashuv kuchayadi:** Flex va Self-Blend modellarida har bir talabaning ehtiyojiga mos ta'lim olish imkoniyati kengayadi.
3. **Collaboratsion ko'nikmalar shakllanadi:** Station Rotation modeli guruhliy ishlash madaniyatini rivojlantiradi.
4. **Tafovutlar:** Texnik infrastrukturadagi cheklovlar, o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalari va talabalarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati bu modellarni joriy etishda eng asosiy qiyinchiliklar bo'lib qolmoqda.

Shunday qilib, aralash ta'lim modellarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun pedagoglar, ta'lim muassasalari rahbarlari va talabalarning hamkorligi, doimiy yangilanishga tayyorligi zarur. Ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish barobarida, an'anaviy pedagogik yondashuvlarning boy tajribasini ham saqlab qolish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). *Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day*. International Society for Technology in Education.
2. Horn, M. B., & Staker, H. (2015). *Blended: Using Disruptive Innovation to Improve Schools*. Jossey-Bass.
3. Staker, H., & Horn, M. B. (2012). *Classifying K-12 Blended Learning*. Innosight Institute.
4. Tucker, C. R. (2012). *Blended Learning in Grades 4–12: Leveraging the Power of Technology to Create Student-Centered Classrooms*. Corwin Press.
5. Van Laer, S., & Elen, J. (2016). *In search of attributes that support self-regulation in blended learning environments*. *Education and Information Technologies*, 21(4), 885–898.



DEVELOPING COGNITIVE UNIVERSAL LEARNING ACTIVITIES IN RUSSIAN LANGUAGE LESSONS: A METHODOLOGICAL APPROACH BASED ON THE TRIADIC LEARNING FRAMEWORK

Jo‘razoda Mokhinakhon Ibodulloxon qizi

PhD Student, Namangan State University, Uzbekistan

2. Jumaev Giyosjon, —Proceedings of the 11th International Conference on Applied Innovations in IT|| Xalqaro Ilmiy Jurnali. Enhancing Organizational Cybersecurity Through Artificial Intelligence <https://doi.org/10.5281/zenodo.10471793>
3. Mamadjanov Doniyor, Jumaev Giyosjon, Normuminov Anvarjon Innovation In The Modern Education System: a collection scientific works of the International scientific conference (25th January , 2024) – Washington, USA: "CESS", 2024. Part 37 – 368 p. The role of machine learning in credit risk assessment:empowering lending decisions
4. Mamadjanov Doniyor, Jumaev Giyosjon, Normuminov Anvarjon INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection scientific works of the International scientific conference (25th January , 2024) – Washington, USA: "CESS", 2024. Part 37 – 368 p. The Role Of Cloud Computing In Economic Transformation
5. Biggio, B., & Roli, F. (2018). Wild Patterns: Ten Years After the Rise of Adversarial Machine Learning. Pattern Recognition, 84, 317–331. <https://doi.org/10.1016/j.patcog.2018.07.019>
6. Sarker, I. H. (2021). Machine Learning for Data Analytics in Cybersecurity. Journal of Big Data, 8(1), 1–29. <https://doi.org/10.1186/s40537-021-00426-3>
7. Chakraborty, S., Alam, M., & Upadhyaya, S. (2020). A Framework for Explainable AI in Cybersecurity. ACM Asia CCS, 234–243. <https://doi.org/10.1145/3321707.3329847>
8. Gu, T., Dolan-Gavitt, B., & Garg, S. (2019). BadNets: Identifying Vulnerabilities in the Machine Learning Model Supply Chain. IEEE Security and Privacy Workshops, 1–9. <https://doi.org/10.1109/SPW.2019.00005>
9. Lin, Y., Hong, J., & Sadeh, N. (2020). An Empirical Study of the Effectiveness of AI-Driven Phishing Detection. USENIX Security Symposium. <https://www.usenix.org/conference/usenixsecurity20/presentation/lin>
10. IBM Security. (2023). The Cost of a Data Breach Report. IBM Research. Retrieved from <https://www.ibm.com>

11. Kurniawan, E. D., & Pustokhina, I. (2020). Anomaly Detection with Machine Learning in Cybersecurity. *Journal of Computer Science and Technology*, 35(6), 1184-1199. <https://doi.org/10.1007/s11390-020-0151-0>
12. Papernot, N., McDaniel, P., & Goodfellow, I. J. (2017). Transferability in Machine Learning: From Phenomena to Black-Box Attacks using Adversarial Samples. *IEEE European Symposium on Security and Privacy*, 161-176. <https://doi.org/10.1109/EuroSP.2017.36>
13. Aghaei, M., & Shabani, A. (2021). Machine Learning Techniques in Cybersecurity: A Survey. *Security and Privacy*, 4(1), e126. <https://doi.org/10.1002/spy2.126>
14. Zhang, Y., Liu, Y., & Wang, L. (2018). Deep Learning for Cybersecurity. *IEEE Access*, 6, 29598-29613. <https://doi.org/10.1109/ACCESS.2018.2848935>
15. Carlini, N., & Wagner, D. (2017). Towards Evaluating the Robustness of Neural Networks. *IEEE Symposium on Security and Privacy*, 39–57. <https://doi.org/10.1109/SP.2017.49>
16. LeCun, Y., Bengio, Y., & Hinton, G. (2015). Deep Learning. *Nature*, 521(7553), 436-444. <https://doi.org/10.1038/nature14539>
17. Chia, D., & Sundararajan, V. (2017). Exploring the Impact of Adversarial Inputs on Intrusion Detection Systems. *ACM Transactions on Privacy and Security*, 20(4), 25-45. <https://doi.org/10.1145/3122903>
18. Goodfellow, I., Shlens, J., & Szegedy, C. (2015). Explaining and Harnessing Adversarial Examples. *International Conference on Machine Learning (ICML)*. <http://proceedings.mlr.press/v37/goodfellow15.pdf>
19. Sundararajan, M., & Xu, W. (2020). A Survey on AI in Cybersecurity. *International Journal of Information Security*, 19(4), 237–252. <https://doi.org/10.1007/s10207-020-00506-7>
20. Zhang, Z., & Zhao, H. (2019). A Survey of Machine Learning Techniques in Cybersecurity. *Journal of Computer Science and Technology*, 34(3), 479–505. <https://doi.org/10.1007/s11390-019-1919-5>
21. Xie, C., Zhang, M., & Wu, J. (2019). Artificial Intelligence in Cyber Defense: Challenges and Applications. *Security and Privacy*, 2(3), e87. <https://doi.org/10.1002/spy2.87>
22. Mueller, F., & Möller, L. (2020). Adversarial Example Generation and Its Impact on AI-Driven Cybersecurity Systems. *ACM Computing Surveys*, 53(6), 1-23. <https://doi.org/10.1145/3399266>
23. Liu, Y., & Tan, C. (2020). Cybersecurity in the Era of Machine Learning. *IEEE Security & Privacy*, 18(3), 52–58. <https://doi.org/10.1109/MSP.2020.2975445>
24. Bishop, C. M. (2006). *Pattern Recognition and Machine Learning*. Springer. <https://doi.org/10.1007/978-0-387-45528-0>



MA’NAVIY TARAQQIYOTNING TARIXIY ZAMINLARI VA UNING MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDAGI AHAMIYATI.

Jumaniyozov X.S.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma’naviy qadriyatlarning tarixiy zaminlari, ildizlari va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatiga e’tibor qaratilgan. Globallashuv sabab yoshlar ongiga bo‘layotgan turli mafkuraviy ta’sirlar, ulardan yoshlarning ma’naviy olamini himoyalash, ma’naviy-ma’rifiy tarhibot tizimida bu boradagi vazifalarni hal qilishda milliy o‘zlikni anglash omili negizlariga tayanish, unga hurmat ruhini tarbiyalash borasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyat, milliy ong, milliy o‘zlikni anglash, globallashuv, ommaviy axborot vositalari, shaxs, ta’lim, ma’rifat, tarbiya, ma’naviyat, mafkuraviy bo‘shliq.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ОСОЗНАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация. В статье уделяется внимание историческим основам и корням духовных ценностей, а также их значению в воспитании молодежи. Обсуждаются различные идеологические влияния, воздействующие на сознание молодежи в условиях глобализации, необходимость защиты их духовного мира, а также роль осознания национальной идентичности в решении задач духовно-просветительской работы. Рассматриваются важные задачи по воспитанию уважения к национальной идентичности и преодолению идеологического вакуума.

Ключевые слова: национальные ценности, национальное сознание, осознание национальной идентичности, глобализация, средства массовой информации, личность, образование, просвещение, воспитание, духовность, идеологический вакуум.

HISTORICAL FOUNDATIONS OF SPIRITUAL DEVELOPMENT AND ITS SIGNIFICANCE IN THE UNDERSTANDING OF NATIONAL IDENTITY

Abstract. This article focuses on the historical foundations and roots of spiritual values and their significance in the upbringing of youth. It discusses various ideological influences shaping young people’s minds in the context of globalization, the need to protect their spiritual world, and the role of national identity awareness in addressing the tasks within the system of

spiritual and educational enlightenment. The article highlights important tasks for fostering respect for national identity and addressing ideological gaps.

Keywords: national values, national consciousness, national identity awareness, globalization, mass media, individual, education, enlightenment, upbringing, spirituality, ideological vacuum.

Insoniyatning bir necha ming yillik tarixi shunday dalolat beradiki, biron bir millat, jamiyat o‘zining ma’naviy merosini, milliy ma’naviy qadriyatlarini, o‘ziga xos milliy madaniyatini o‘z aholisi ongida qaror toptirmasdan, mustahkamlamasdan turib ijtimoiy taraqqiyotda biron natijaga erisha olmaydi, o‘z istiqbolini tasavvur qila olmaydi. Ana shu sabab har bir millat o‘zining bu bebaho milliy-ma’naviy merosiga doimo intilib yashagan, uni qadrlab keladi. O‘zining betakror milliy qadriyatlarini asrash, yanada rivojantirish masalalariga hayotiy muhim masala sifatida qaraydi, shu negizda ta’lim-tarbiya tizimini yo‘lga qo‘yadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni ushbu milliy an‘analarga hurmat ruxida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratadi. Yangi O‘zbekiston strategiyasida ham ma’naviy taraqqiyot masalalari muhim ahamiyat kasb etgan.

O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi Qonunda ham yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash masalalariga keng e’tibor qaratilgan.

Xalqimizning uzoq tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak bu mintaqada turli milliy va diniy jamoalar har doim do‘stonalik, bag‘rikenglik muhitida yashab kelishgan. Bu hamkorlik rishtalari mintaqaning davlatchilik, iqtisodiyot, madaniyat, ilm-fan sohasidagi yuksaklikka erishuvining muhim omili bo‘lib kelgan. Shu sabab fuqarolarda tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash, yuksak ma’naviyat, xalqning tarixiy an‘analari, madaniy merosiga hurmat, mamlakatimiz mustaqillikka erishganligining buyuk tarixiy ahamiyatini anglash kabi fazilatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali oshirib borishga ko‘maklashish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi ma’naviy-mafkuraviy jarayonlardagi globallashuvning shiddat bilan davom etayotgan bugungi kunimizda xalqimizga xos bo‘lgan bo‘lgan qadriyatlarni, an‘analarni qadr qiymati, ahamiyati, dolzarbligi yanada oshmoqda. Negaki bunday tushdagi ma’naviy ta’sir xalqimizning bir necha mingyillik merosi bo‘lmish milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga ta’sir qilmasdan qolmaydi. Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Ma’lumki, bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O‘zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi.

Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma’naviy merosini har tomonlama o‘rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida biz azim poytaxtimiz Toshkent

shahrida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini barpo etishga qaror qildik. Nega deganda, “Jaholatga qarshi-ma’rifat” shiori ostida mana shunday markazni tashkil etishni butun davrning o‘zi taqozo etmoqda”.

O‘zbekiston, shuningdek Markaziy Osiyodagi boshqa qardosh qo‘shni davlatlar nafaqat bugun tarixan ham ko‘p millatli, turli diniy konfessiya vakillari yashaydigan mamlakatlar bo‘lib kelgan. Mintaqada ijtimoiy hamkorlikni ta’minlashda, mintaqa imkoniyatlaridan ahillikda foydalanib iqtisodiy taraqqiyotning yuksak darajasiga erishishda mintaqada yashayotgan turli millat vakillari, diniy jamoalar vakillari o‘rtasida totuvlikni ta’minlash, bag‘rikenglik muhitini shakllantirish, ularni yagona maqsad, manfaatlar yo‘lida uyushtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning yechimi unda yashayotgan turli millat, diniy jamoa vakillarining hamjihatligiga bog‘liq. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan beri o‘tgan davr mobaynida bu masalalar har doim ustuvor ahamiyat kasb etib keladi. Turli millat vakillari, diniy jamoa vakillari o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari yaratildi va takomillashtirilib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev qayd etib o‘tganidek “Turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bugungi tahlikali vaziyatda bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlik va osoyishtalikni ko‘z qorachig‘idek saqlashimiz, yurtimizdagi millatlar va dinlararo hamjihatlik, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlashimiz kerak”. Shu sabab mamlakatimizda milliy totuvlikni, diniy bag‘rikenglikni targ‘ib etish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy hatti-harakatlar, bu jarayonlardagi faoliyatda uyushqoqlik bilan faoliyat olib borish, uning institutsional tizimini takomillashtirishga qaratilgan faol ishlar olib borilmoqda.

Shu sabab O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi" mavzusida anjumanda ham ushbu masalalarga alohida e’tibor qaratildi. Bu tadbirda Shavkat Mirziyoyev yuqorida qayd etib o‘tilgan masalalarga to‘xtar ekan shunday deydi: “Kun tartibiga qo‘yilgan masala, ya’ni, ijtimoiy-ma’naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog‘lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o‘ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo‘q”. Nega deganda, aynan shu masalalar Vatanimizning, yoshlarimizning bugungi va ertangi kunini, ularning taqdirini, bir so‘z bilan aytganda, hayot-mamotini hal qilishi hech kimga sir emas.

Keyingi yillarda har bir ongli insonni chuqur o‘ylantiradigan, tashvish va xavotirga soladigan bu masalalar borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ma’lumki O‘zbekistonimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi va uni hayotga tatbiq etish bo‘yicha faol ish olib borilmoqda. Ta’kidlash kerakki, ushbu strategiya jamiyat hayotining barcha soha va tarmoqlariga chuqur kirib, amaliy harakatlar mezoniga aylanib bormoqda.

Vatanimiz yoshlarini milliy ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, millatparvarlik ruhiyatini yanada mustahkamlash, Vatanimiz dong'ini olamga yoygan buyuk siymolarimiz merosiga munosib voris qilib tarbiyalashda, ularda yuksak milliy o'zlikni anglash ko'nikmalarini tarbiyalashda millatlararo totuvlik g'oyasining tarixiy-huquqiy asoslaridan yanada unumli foydalanishda quyidagi vazifalarga keng e'tibor qaratish talab etiladi:

Birinchidan, mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashda ma'naviy qadriyatlarga tayanish, ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlashda oila, maktab va mahalla hamkorligini oldimizga qo'ygan umummilliy maqsadlar atrofida yanada mustahkamlash. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarda har bir tarbiya maskani o'z imkoniyati darajasida ishtirok etishi lozim.

Ikkinchidan, ta'lim-tarbiya maskanlarini chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish. Mamlakatimiz miqyosidagi bayram tadbirlari Strategiyada belgilangan vazifalar yechimi bilan uyg'unlashtirilgan xolda olib borilishi talab etiladi.

Uchinchidan, o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish. Xalqimizga xos bo'lgan ijtimoiy hamkorlik, bag'rikenglik, yaratuvchanlik kabi fazilatlarni tarannum etuvchi voqelikni aks ettiradigan adabiyot, san'at, filmlar ustida ishlash zarur. Keng qamrovli islohotlar natijasi sabab bunyod etilgan temir yo'l sohasidagi qurilishlar, avtomobil yo'llari, yirik korxonalar ishga tushishida jonbozlik qilgan zamonaviy qahramonlar siymosi yaratilishi kerak. Bu esa avvalo yoshlarda yaratuvchanlik shukuhini, vatanparvarlik tuyg'ularini yanada mustahkamlaydi.

To'rtinchidan, ilmiy va sotsiologik tadqiqotlar asosida jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit rivoji bilan bog'liq jarayonlarning xususiyatlarini, uning barqarorligini ta'minlashning barcha asosiy masalalarini qamrab olishi, o'rganishi, tegishli taklif va xulosalar ishlab chiqishi zarur.

Beshinchidan, yoshlarni kitobxonlik madaniyatiga keng jaob qilish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish zarur. Jamiyatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar yechimini o'zida qamrab olgan, yoshlarni ma'naviy qadriyatlarga sodiq lik ruhida tarbiyalaydigan, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalaydigan badiiy adabiyotlar fondini boyitish talab etiladi. Bu manbalardan keng foydalanishni vositalarini ishga tushirish lozim.

Yoshlarni ogohlik, dahldorlik ruhida tarbiyalashda teatr san'ati imkoniyatlaridan keng foydalanilsa o'ylagan natijalarga erishish osonroq kechishish mumkin. Yangi O'zbekiston strategiyasidagi vazifalar yechimi unda o'z aksini topishi talab etiladi. 2024-2030 yillarda 50 ta kinoloyihadan iborat davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixini, buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini aks ettiruvchi filmlar turkumini ishlab chiqarish hamda xorijda, xususan kinofestivallar va telekanallarda namoyish etish. Milliy

qahramonlar haqida 10 ta multiplikatsion film va seriallar ishlab chiqarish. Dunyodagi eng ommabop 10 ta internet platformasiga milliy filmlarni joylashtirish.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida. PQ 3105. 30.06.2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
4. Jumaniyozov X. Nigmanova U. Globallashuv asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2020.
5. Otamurotov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. T.2013.
6. G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari.-T.: “O‘zbekiston”, 2013.



TALABALAR KASBIY MULOQOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHARTLARI.

Karimova Nilufar

O‘zbekiston jahon tillari universiteti

Annotatsiya Mazkur maqolada talabalarning kasbiy muloqotga tayyorlash jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik shartlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda eksperimental yondashuv asosida olingan natijalar, xususan, interaktiv mashg‘ulotlar, rolly o‘yinlar, jamoaviy loyihalar yordamida talabalarning nutqiy kompetensiyalari va ijtimoiy-psixologik faolligi sezilarli darajada oshgani ko‘rsatildi. Maqolada nazariy asoslar, uslubiy yondashuvlar va amaliy tajribalar asosida kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy muloqot, pedagogik shartlar, interaktiv usullar, nutqiy kompetensiya, jamoaviy loyiha, trening, tajriba-sinov

Аннотация В статье анализируются педагогические условия подготовки студентов к профессиональному общению. На основе экспериментального подхода показано, что использование интерактивных занятий, ролевых игр и командных проектов способствует существенному повышению коммуникативных компетенций и социально-психологической активности у обучающихся. В работе приведены теоретические обоснования, методические подходы и практический опыт по развитию компетенций в сфере профессионального общения.

Ключевые слова: профессиональное общение, педагогические условия, интерактивные методы, коммуникативная компетентность, командный проект, тренинг, эксперимент

Annotation This article explores the pedagogical conditions necessary for preparing students for professional communication. Based on an experimental approach, the findings indicate that the use of interactive lessons, role-playing games, and team projects significantly enhances students' communicative competencies and socio-psychological engagement. The paper provides theoretical rationales, methodological approaches, and practical experiences aimed at developing professional communication competencies.

Keywords: professional communication, pedagogical conditions, interactive methods, communicative competence, team project, training, experiment

Kirish (Introduction)

Zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash uchun ular nafaqat nazariy bilimlar, balki kasbiy muloqot madaniyatiga ham ega bo‘lishlari muhimdir. Muloqotning sifatli amalga oshirilishi esa ish samaradorligi, hamkasblar bilan ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, mijozlar yoki hamkorlar bilan samarali aloqalar o‘rnatish kabi ko‘plab omillarga bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, oliy ta’lim dargohlarida talabalarni kasbiy muloqotga tayyorlash — ularning kelajakdagi faoliyatlari uchun poydevor yaratish, mustaqil fikrlash va o‘z g‘oyalarini aniq ifodalash, shuningdek, ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishi uchun zarur hisoblanadi. Muloqot kompetensiyasi dastlab kundalik hayotiy tajriba orqali shakllansa-da, professional muhitga xos bo‘lgan uslublar, kommunikativ me’yorlar, kasbiy etika va ijtimoiy-lingvistik xususiyatlar maxsus pedagogik shartlarni talab etadi. Talabalarni shu tarzda tayyorlashda o‘quv rejalari va fan dasturlari, amaliy treninglar, interaktiv metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Mazkur maqolada talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish, ayniqsa, bu jarayon uchun zarur bo‘lgan pedagogik shartlar tahlil qilinadi.

Metod (Methods)

Ushbu tadqiqot uslubiy jihatdan kompleks yondashuvni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, **pedagogik kuzatuv** va **diagnostik test** usuli qo‘llanildi. Bunda talabalarining muloqot ko‘nikmalarini aniqlash, dars jarayonida faol ishtirok darajasi, ijodiy fikrlash, ijtimoiy ruhiy tayyorgarlik, o‘z fikrini bayon etish va kuzatuvchanlik kabi xususiyatlar baholandi. Ikkinchidan, **eksperimental guruh** va **nazorat guruhi** shakllantirildi. Eksperimental guruhda talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantiruvchi maxsus mashg‘ulotlar, treninglar, rolli o‘yinlar, taqdimotlar va interaktiv metodlardan foydalangan holda darslar o‘tkazildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy ma’ruza-seminar formati saqlab qolindi. Tajriba muddatida har ikkala guruhda o‘qish jarayoni parallel ravishda tashkil etildi. Test, so‘rovnoma va baholash mezonlari bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlar **statistik tahlil** qilindi. Xususan, talabalarining dars jarayonidagi faolligi, ijtimoiy muloqot uslublari, oldindan belgilangan vazifalar (prezentatsiya, munozara, keys-stadi, mustaqil ijodiy ishlar) qanday darajada amalga oshirilgani yuzasidan ma’lumotlar to‘plandi. So‘rovnomada talabalar o‘zlarining muloqotdagi kuchli va zaif tomonlarini baholash, qiziqish va motivatsiya darajasi, kelajakdagi kasbiy faoliyatidagi kommunikativ ehtiyojlari haqida fikr bildirishdi. Shuningdek, professor-o‘qituvchilar bilan ham suhbatlar o‘tkazildi, bu jarayonda “talabalar kasbiy muloqot kompetensiyasini shakllantirishda nimalar yetishmaydi, qanday qulay va pedagogik shartlar yaratilishi lozim?” kabi savollarga aniq javoblar topishga harakat qilindi.

Natijalar (Results)

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruhdagi talabalar nazorat guruhiga nisbatan kasbiy muloqot elementlarini puxta o‘zlashtirish, fikrlarini ravon va ishonarli bayon

etish, jamoaviy munozaralarda faol bo‘lish kabi ko‘nikmalar bo‘yicha aniq ustunlik namoyish etdilar. Bunda bir nechta mezonlar asosida baholash o‘tkazildi:

1. **Nutq aniqligi va ravonligi:** Talabaning nutqida ortiqcha pauzalar, takroriy so‘zlar, uyatli so‘zlarni qisqartirish hamda uzluksiz, izchil fikr bildirish foiz ko‘rinishida ifodalandi. Eksperimental guruhda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 15 foizga yaxshilangan.

2. **O‘rtoqlik munosabatidan kasbiy-uslubiy muloqotga moslashish:** Talabalarning rasmiy yoki yarim rasmiy muhitda mos ravishda uzviy, etika qoidalarga rioya qilgan holda muloqot qilishi aniqlandi. Eksperimental guruhda bunday ijtimoiy-lingvistik xatti-harakatni to‘g‘ri bajara olgan talabalar soni 40 foizdan 70 foizga oshdi.

3. **Ko‘p tomonlama fikrlash va ijodiy yondashuv:** Kasbiy mavzular bo‘yicha prezentatsiyalar tashkil etilganda, talabalar ijtimoiy va texnik bilgilarni uyg‘unlashtirish, tanqidiy savollarga javob topish, jamoa bilan hamkorlikda innovatsion g‘oyalarni ilgari surish bo‘yicha baholandi. Eksperimental guruh talabalari o‘rtacha 25 foiz yuqori natijaga ega bo‘ldi.

4. **Motivatsiya va ishtirok faolligi:** Uzoq muddatli ma‘ruza mashg‘ulotlarida nazorat guruhidagi talabalar tez charchash yoki passiv bo‘lib qolish hollariga ko‘proq duch keldi. Eksperimental guruhda esa rolli o‘yinlar, keys-stadi, jamoaviy loyiha taqdimotlari kabi interaktiv metodlar natijasida talabalar ishtiroki 20 foizga yuqori bo‘ldi.

Aniqlanishicha, kasbiy muloqotni shakllantirish, avvalo, **amaliy vazifalar** bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Nazariy bilimni o‘rganish ham zarur, ammo uni kasbiy muloqot jarayonida qo‘llash, muammoli vaziyatlarni modellashtirish, hal etish yo‘llarini topish, jamoada ijtimoiy-psixologik o‘zaro ta’sirga tayyor bo‘lish orqali mustahkamlanadi. Eksperimental guruhdagi talabalar muammoli topshiriqlarni hal qilishda bir-biriga ko‘mak berish, turli funksiyalarni taqsimlash, har bir ishtirokchining qobiliyati va layoqatini hisobga olishga o‘tdi. Natijada, to‘g‘ri muloqot, tinglash, o‘z fikrini aniq va tushunarli ifodalash, tanqidiy mulohazalarni inobatga olish qobiliyatlari sezilarli darajada oshdi.

Muhokama (Discussion)

Ushbu tadqiqotdan olingan natijalar talabalarning kasbiy muloqotga tayyorlashida amaliy va interaktiv yondashuvlar muhim omil ekanini tasdiqlaydi. Misol uchun, an’anaviy ma‘ruza-seminar mashg‘ulotida talaba odatda tinglovchi rolini bajarsa, interaktiv metodlar va rolli o‘yinlarda bevosita faol ishtirokchi sifatida nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi. Shuningdek, kasbiy muloqot o‘z ichiga kasbiy atamalarni bilish, xushmuomala bo‘lish, bahslashish madaniyati, ishchi jamoada kommunikatsiya jarayonlarini boshqarish kabi ko‘plab kompetensiyalarni oladi.

Pedagogik shartlar deb ataladigan omillarga quyidagilar kiradi:

1. **O‘quv dasturlarini moslashtirish:** Kasbiy muloqot mashg‘ulotlari mustaqil modul yoki kurs sifatida kiritilishi, boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘tilishi mumkin. Shunda talabaning nazariy bilimlari turli fanda qo‘llangan uslublar bilan boyib, real kontekstlar yaratiladi.

2. **Interaktiv muhit tashkil etish:** Jamoaviy munozara, rolli o‘yinlar, amaliy loyihalar, keys-stadilar kasbiy muloqotga tayyorlash uchun asosiy usullardir. Shuningdek, turli interaktiv texnologiyalar (videokonferensiya, onlayn forum, simulyatsion dasturlar) ham ishlatish talabalar uchun qulaydir.

3. **Professor-o‘qituvchining metodik tayyorgarligi:** Kasbiy muloqot jarayonida o‘qituvchi moderator, maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Buning uchun o‘qituvchi interfaol mashg‘ulotlar olib borish, talabalarga nutqiy ko‘nikmalarni o‘rgatish, bahslar va yakuniy tahlillarni tashkil etish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur.

4. **O‘quv muhitida turtki va baholash tizimi:** Talabaga interaktiv mashg‘ulotlar, jamoaviy loyihalar, ijodiy vazifalar bo‘yicha kredit yoki bonus ballarni berish, baholash me‘zonlarida muloqot qobiliyatini ham o‘z ichiga kiritish motivatsiyani oshiradi.

5. **Resurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari:** Zamonaviy o‘quv jarayonida video darslar, onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar talabalar nutqini rivojlantirish va o‘z-o‘zini baholash uchun katta imkon beradi. Masalan, talabalarga o‘z chiqishlarini videotasvirga olish va tahlil qilish imkoniyati yaratilsa, ular o‘z nutqidagi nuqsonlar, talaffuz, harakat va nutq ohangini tezroq tuzatib boradilar. Keltirilgan pedagogik shartlar kasbiy muloqot kompetensiyasining shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Natijada, talabalar ish jarayonida ko‘nikma va bilimlarini aniq, ravon va ijtimoiy-axloqiy me‘yorlarga mos tarzda ifodalay olish imkoniga ega bo‘ladilar. Kelajakda bunday mutaxassislar har qanday professional muhitda, whether korxonada yoki ilmiy tadqiqot muassasalarida, samarali faoliyat yurita oladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, talabalarni kasbiy muloqotga tayyorlash alohida metodik yondashuvlar va boy pedagogik shartlarni talab qiladi. An’anaviy nazariy yondashuvlar bu sohada cheklangan bo‘lib, interaktiv treninglar, jamoaviy ishlar, amaliy loyihalar yordamida talabalarda haqiqiy muloqot kompetensiyasini shakllantirish samarali natija beradi. O‘qituvchi esa faqat bilim beruvchi emas, balki jarayonni boshqaruvchi, muvofiqlashtiruvchi va baholovchi sifatida maydonga tushishi kerak. Shunday qilib, kasbiy muloqotga tayyorlangan talaba kelgusida nafaqat o‘z ish joyida, balki jamiyatda ham faol, maqsadga intilgan, ijodiy shaxs sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Mirzayeva N. M.** Kasbiy muloqot psixologiyasi. — Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019. — 156 b.

2. **Nazarova S. D.** Professional Communication in Modern Higher Education // Theoretical and Applied Linguistics. — 2021. — Vol. 14, Issue 3. — P. 77–85.

3. **Karaulova T. E.** Rolley playing and Professional Interaction: Methodological Foundations. — Moskva: “Pednauka”, 2021. — 104 s.

4. **Cooper J., Smith T.** Teamwork in Higher Education: Enhancing Students’ Communicative and Social Skills. — New York: “EdTech Press”, 2020. — 120 p.

5. **UNESCO.** Communication and Education for Sustainable Development: Guidelines and Practices. — Paris: UNESCO Publishing, 2019. — 76 p.



THE IMPORTANCE OF DIDACTIC MATERIALS IN DEVELOPING PRIMARY SCHOOL STUDENTS’ ORAL SPEECH IN ENGLISH

Khosiyat Juraevna Khakimova

Lecturer of Angren University

Sevinch Begzodovna Haitboyeva

Angren University

1st-year student

Abstract: This article analyzes the role and importance of didactic materials in the process of developing and enhancing oral speech skills in English among primary school students. In the process of learning a language, various didactic tools — such as audio and video materials, visual aids, role-playing games, interactive applications, and flashcards — serve as effective means to engage students in active conversation, expand their vocabulary, and improve pronunciation. The article explores how to use these materials in lessons through modern approaches, methodological recommendations, and practical examples. It also discusses the psychopedagogical foundations of selecting materials appropriate to students’ age characteristics and directing them toward speech activity.

Keywords: primary education, English language, oral speech, didactic materials, interactive methods, listening skills, communication culture, teaching methodology, language learning, audio-video tools, role-play activities, visual aids, language motivation, communicative approach.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING INGLIZ TILIDA OG‘ZAKI NUTQINI O‘STIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida didaktik materiallarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Til o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni faol suhbatga jalb etish, ularning so‘z boyligini kengaytirish va talaffuzni to‘g‘rilash uchun turli didaktik vositalar — audio va video materiallar, vizual ko‘makchilar, rolli o‘yinlar, interaktiv ilovalar va kartochkalar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada zamonaviy yondashuvlar, metodik tavsiyalar va amaliy misollar orqali darslarda bu materiallardan qanday foydalanish mumkinligi yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos materiallar tanlash va ularni nutq faoliyatiga yo‘naltirishning psixopedagogik asoslari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar (keywords): boshlang‘ich ta‘lim, ingliz tili, og‘zaki nutq, didaktik materiallar, interaktiv usullar, eshitish ko‘nikmasi, muloqot madaniyati, dars metodikasi, til o‘rganish, audio-video vositalar, rolly o‘yinlar, vizual ko‘makchilar, til motivatsiyasi, kommunikativ yondashuv

KIRISH.

Bugungi globallashuv davrida chet tillarini, xususan ingliz tilini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tili nafaqat xalqaro aloqa vositasi, balki ilm-fan, texnologiya va madaniyatlararo muloqotning asosiy vositasidir. Shu boisdan, uni o‘rgatish jarayonini iloji boricha erta yoshdan, ya’ni boshlang‘ich sinflardan boshlab samarali usullar asosida yo‘lga qo‘yish zarurdir. Ayniqsa, o‘quvchilarning **og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda** didaktik materiallardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq faoliyatining xususiyatlari, ya’ni

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tilni o‘rganishning eng faol bosqichida bo‘ladi. Ularning yoshi (6–10 yosh oralig‘i) bolalarning nutqiy faolligini rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi. Bu davrda ular quyidagi xususiyatlarga ega:

- Matnga emas, balki og‘zaki va vizual axborotga yaxshi javob qaytaradilar;
- Taqlid qilishga moyillik yuqori bo‘ladi;
- Harakatli va o‘yin orqali o‘rganishga ishtiyoq bilan qaraydilar;
- Eshitish orqali yod olish qobiliyati kuchli bo‘ladi.

Shu sababli, bu bosqichda tilni o‘rgatish jarayonida **ko‘proq interaktiv va vizual materiallardan** foydalanish, darsni jonli va qiziqarli qilish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tili darslarida kreativ faolligini rivojlantirish lozim, bu orqali ularning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va samaradorligini oshirish mumkin.

Didaktik materiallar tushunchasi va ularning turlari.

Didaktik materiallar — bu o‘quvchilarga bilim berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda yordam beruvchi o‘quv vositalari bo‘lib, ular darsning samaradorligini oshiradi. Ingliz tilini o‘qitishda ishlatiladigan asosiy didaktik materiallar quyidagilar:

1. **Audio va video materiallar** – dialoglar, hikoyalar, qo‘shiqlar, multfilmlar.
2. **Rasmlar va ilustratsiyalar** – predmetlar, hayvonlar, holatlar tasvirlari.
3. **Flashkartalar** – so‘z va rasm birikmalari.
4. **O‘yinli topshiriqlar** – rolly o‘yinlar, savol-javob, “kim bu?”, “nima bu?”

kabilar.

5. **Interaktiv taqdimotlar va platformalar** – Smart-board, Quizlet, Kahoot, Duolingo kabi vositalar.

Didaktik materiallarning og‘zaki nutqni rivojlantirishdagi roli quyidagilardan iborat:

1. So‘z boyligini oshirish

Ushbu ilmiy-metodik ish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilini o‘rganish jarayonida **kreativ faolligini shakllantirishga** qaratilgan **didaktik vaziyatlarning** mazmuni, maqsadi, shakllari va amaliy qo‘llanilishini o‘rganadi. O‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi, muloqot qilishga bo‘lgan tayyorgarligi va o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishda didaktik vaziyatlarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ishda ingliz tili darslarida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi, kreativlikni rivojlantiruvchi, bilimlarni amaliyot bilan bog‘lovchi usullar tahlil qilinadi. Rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar, guruhii mashg‘ulotlar, interaktiv topshiriqlar orqali o‘quvchilarning muloqotga kirishish malakalari shakllanadi.

Didaktik vaziyatlar orqali o‘quvchi darsga nafaqat bilim oluvchi, balki faol ishtirokchi sifatida jalb qilinadi. Bu yondashuv zamonaviy ta‘lim talablari – kompetensiyaviy yondashuv, individual yondashuv va ijodiy rivojlanishga asoslanadi. Didaktik materiallar orqali o‘quvchilar yangi so‘zlarni nafaqat ko‘radi, balki eshitadi, talaffuz qiladi va ular bilan gaplar tuzadi. Masalan, rasmlil flashkarta yordamida “apple” so‘zini ko‘rish, eshitish va aytish orqali bola bu so‘zni mustahkam o‘zlashtiradi.

Bundan tashqari, didaktik materiallar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida kreativ faolligini shakllantirish — bu zamonaviy ta‘limning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ular nafaqat so‘z boyligini, balki kommunikativ kompetensiyani, ijodiy tafakkurni, nutqii faollikni rivojlantiradi.

Ingliz tili darslarini qiziqarli va faoliyatga yo‘naltirilgan tarzda olib borish orqali o‘quvchilarda “o‘rganish” emas, “kashf qilish” istagi uyg‘otiladi.

2. To‘g‘ri talaffuzni shakllantirish

Talaffuz (pronunciation) — bu so‘zlarni aytishda tovushlarni to‘g‘ri chiqarish, urg‘u (stress) va intonatsiyani to‘g‘ri ishlatishdir. Ingliz tilini o‘rganishda to‘g‘ri talaffuzga ega bo‘lish og‘zaki muloqotda tushunishga va tushunilishga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. To‘g‘ri talaffuz til o‘rganuvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va til o‘rganish motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu bilan birga audio va video materiallar orqali o‘quvchilar ingliz tilidagi so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini eshitib, ularga taqlid qiladi. To‘g‘ri talaffuzni shakllantirish ingliz tilini o‘rganishda muhim bosqich hisoblanadi. Bu ko‘nikma orqali o‘quvchi nafaqat o‘z fikrini aniq ifoda etadi, balki boshqalarni ham yaxshiroq tushunadi. Tovushlarni eshitish, taqlid qilish, ko‘p mashq qilish va turli texnologik vositalardan foydalanish orqali talaffuz asta-sekin mukammallashadi. Bu og‘zaki nutqning tabiiy ravishda rivojlanishiga olib keladi.

3. Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ingliz tilida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda nimalarga e‘tibor berish kerak.

Ingliz tilini o‘rganishning asosii maqsadlaridan biri — u orqali **samarali muloqot qilish**dir. Muloqot (communication) bu ikki va undan ortiq kishining ma‘lumot almashish jarayoni bo‘lib, bunda **tinglash, tushunish, fikr bildirish va javob qaytarish** kabi ko‘nikmalar talab etiladi. Muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish esa mustahkam til bazasi, madaniy kontekstni anglash va ko‘p amaliy mashqlar orqali erishiladigan murakkab jarayondir. Ingliz

tilida muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish — bu doimiy mashq, sabr, va faol ishtirokni talab qiluvchi jarayon. Har bir o‘quvchi shaxsiy imkoniyatiga qarab turli tempda rivojlanadi. Muhimi — unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, xatolardan qo‘rqmaslik va haqiqiy muloqotga imkon yaratishdir.

Samarali muloqot — bu tilni "bilish" emas, balki **undan foydalanish** ko‘nikmasidir.

Rolli o‘yinlar, dialoglar va savol-javob mashqlari o‘quvchilarning o‘zaro ingliz tilida muloqot qilishga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Didaktik o‘yinlar orqali ular ingliz tilida so‘zlashishga intiladi, bu esa tabiiy nutq muhitini yaratadi.

4. Darsga qiziqishni kuchaytirish

Ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan **qiziqish — bu o‘quv jarayonining harakatlantiruvchi kuchidir**. O‘quvchi ingliz tilini yoqtirsa va uni o‘rganishga ichki ehtiyoj sezsa, ta’lim jarayoni samarali, quvnoq va izchil kechadi. Aks holda, dars quruq yodlash va majburiylik asosida davom etadi. Shuning uchun o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri — **o‘quvchilarda ingliz tiliga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish** va uni doimiy ravishda rag‘batlantirib borishdir. Didaktik materiallar orqali dars jarayoni jonli va interaktiv bo‘ladi. Ayniqsa, animatsion videolar, multfilmlar yoki inglizcha qo‘shiqlar orqali berilgan topshiriqlar o‘quvchilarda ingliz tiliga qiziqishni kuchaytiradi. Shu bilan birga, **ijtimoiy-motivatsion yondashuv orqali ham** o‘quvchi tilni jamiyatda kerakli deb bilsa, uni o‘rganishga qiziqadi. Masalan, xorijiy tilni bilish orqali yaxshi ish topish, xorijda o‘qish yoki sayohat qilish imkoniyati mavjudligi o‘quvchini rag‘batlantiradi.

Ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish bu faqatgina o‘qituvchining yondashuvini emas, balki **darsning tashkil etilishi, uslubiysi va o‘quvchining ichki motivatsiyasini uyg‘otish** kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos, shuning uchun til o‘rgatish jarayoni ham moslashuvchan, jonli va qiziqarli bo‘lishi lozim. Til — bu muloqot vositasi, demak, o‘rgatish ham muloqot orqali bo‘lishi kerak.

5. Eshitish va tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda audio materiallar orqali berilgan topshiriqlar (masalan, "Listen and choose", "Listen and repeat") o‘quvchilarning eshitib tushunish (listening comprehension) ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu esa og‘zaki muloqotning ajralmas qismidir. Chet tilini, xususan **ingliz tilini o‘rganishda** asosiy to‘rtta ko‘nikma (listening, speaking, reading, writing) orasida **eshitish va tushunish (listening comprehension)** eng birinchi rivojlantirilishi kerak bo‘lgan ko‘nikma hisoblanadi. Chunki eshitish orqali o‘quvchi tilning tabiiy ohangini, talaffuzni va so‘zlarning kontekstdagi ma’nosini o‘zlashtiradi. Bu ko‘nikmani shakllantirishda **to‘g‘ri tanlangan didaktik materiallar** muhim rol o‘ynaydi. Eshitish va tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish — ingliz tilini samarali o‘rganishning ajralmas qismidir. To‘g‘ri tanlangan **didaktik materiallar** yordamida bu ko‘nikma bosqichma-bosqich shakllanadi. O‘quvchi tinglab tushunishga o‘rgansa, u keyinchalik og‘zaki va yozma nutqda ham faolroq bo‘ladi. Muhimi — materiallar **qiziqarli, mazmunli va yoshga mos** bo‘lishi kerak.

Amaliy misollar

1. Flashkartalar bilan ish: Har bir yangi mavzuda (masalan, "Fruits", "Animals") o‘qituvchi tegishli flashkartalarni ko‘rsatadi, so‘zlarni talaffuz qiladi, so‘ng bolalarga bu so‘zlarni takrorlatadi. Keyinchalik bolalar bu so‘zlar bilan gaplar tuzadi: "This is an apple", "I like bananas", va hokazo.

2. Rolle o‘yin: "At the shop" mavzusida rolli o‘yin tashkil etiladi. Biri sotuvchi, biri xaridor rolida so‘zlashadi:

- Hello! Can I help you?
- Yes, I want a sandwich, please.
- Here you are.
- Thank you!

Bu kabi o‘yinlar orqali o‘quvchilar real hayotga yaqin muloqotlarda ishtirok etadi.

XULOSA.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida og‘zaki nutqini rivojlantirishda didaktik materiallar muhim vosita hisoblanadi. Ular yordamida o‘quvchilarning so‘z boyligi kengayadi, talaffuzi yaxshilanadi, eshitish va muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi hamda dars jarayoni qiziqarli, jonli va samarali kechadi. Shu sababli har bir boshlang‘ich sinf ingliz tili o‘qituvchisi o‘z faoliyatida turli xil didaktik materiallardan keng foydalanishi zarur.

Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida kreativ faolligini shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik vaziyatlardan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi, hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metod va vositalar tahlil qilinadi. Didaktik vaziyatlar orqali ingliz tilini o‘rganishda bolalarning faol ishtirokini ta‘minlash, ularning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish va til o‘rgatishda yangicha yondashuvlarni qo‘llashga e‘tibor qaratilgan. Ishda interaktiv o‘yinlar, rolli o‘yinlar, guruhli ishlar va muammo yechish metodlari asosida yaratilgan didaktik holatlar misol tariqasida ko‘rsatilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida og‘zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirishda didaktik materiallarning o‘rni beqiyosdir. Bolalar yosh jihatdan ko‘proq amaliy, ko‘rgazmali va interaktiv vositalar orqali ta‘limni yaxshi qabul qiladilar. Shu sababli audio va video materiallar, rolli o‘yinlar, rasmlar, flashkartalar, qo‘shiqlar, hamda interaktiv ilovalar orqali og‘zaki muloqotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar ularning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, eshitish, tushunish va talaffuz ko‘nikmalarini samarali shakllantiradi.

Shuningdek, didaktik materiallar yordamida o‘quvchilarning mustaqil fikr bildirish, savol-javobda ishtirok etish, suhbat qurish kabi ko‘nikmalari bosqichma-bosqich rivojlanadi. Muhimi, tanlanadigan materiallar bolalarning yoshi, bilish darajasi va ehtiyojlariga mos bo‘lishi kerak. O‘qituvchi esa bu materiallardan to‘g‘ri, maqsadga muvofiq foydalanib, har bir o‘quvchini faol nutqiy faoliyatga jalb eta olishi lozim.

Shunday qilib, didaktik materiallar ingliz tili darslarining mazmunini boyitadi, darsni jonlantiradi va og‘zaki nutq ko‘nikmasini shakllantirishda asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Harmer J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.
2. Richards, J.C. & Rodgers, T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari”. (2021).
4. Mavlonova R. va boshqalar. (2020). Boshlang‘ich ta’limda xorijiy til o‘qitish metodikasi.
5. Duolingo for Schools – <https://schools.duolingo.com>
6. Wordwall.net – <https://wordwall.net/>
7. Richards, J. C. (2006). Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press.



PROFESSIONAL TA‘LIM TIZIMIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TA‘MINOTNI TAKOMILLASHTIRISH

Mamanova Sayyora Faxriddinovna

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali tayanch doktoranti

e-mail: sayyoramamanova94@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada professional ta‘lim tizimida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonining didaktik asoslari tahlil qilinib, kommunikativ munosabatlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirishda interaktiv ta‘lim metodlarining pedagogik ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi subyektlari o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlar asosida muloqot madaniyatini shakllantirishda interaktiv ta‘lim metodlarining tutgan o‘rni ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda professional ta‘lim muassasalari uchun taklif etilgan didaktik ta‘minot modelining pedagogik samaradorligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: professional ta‘lim, nutqiy kompetensiya, didaktik ta‘minot, pedagogik yondashuv, kommunikativ faoliyat, interaktiv metodlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются дидактические основы процесса развития речевой компетенции в системе профессионального образования и подчеркивается педагогическое значение интерактивных методов обучения в формировании культуры общения через коммуникативные отношения. Также показывается роль интерактивных методов обучения в формировании культуры общения на основе коммуникативных отношений между субъектами — учителем и учащимся. На основе результатов исследования освещается педагогическая эффективность модели дидактического обеспечения, предлагаемой для учреждений профессионального образования.

Ключевые слова: профессиональное образование, речевая компетенция, дидактическое обеспечение, педагогический подход, коммуникативная деятельность, интерактивные методы.

IMPROVING DIDACTIC SUPPORT FOR THE DEVELOPMENT OF SPEECH COMPETENCE IN THE PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM

Annotation: This article analyzes the didactic foundations of the development process of speech competence in the professional education system and highlights the pedagogical significance of interactive teaching methods in shaping communication culture through communicative relations. It also demonstrates the role of interactive teaching methods in forming communication culture based on communicative relations between teacher and student subjects. The pedagogical effectiveness of the didactic support model proposed for professional education institutions, based on the research results, is revealed.

Keywords: professional education, speech competence, didactic support, pedagogical approach, communicative activity, interactive methods.

KIRISH. Bugungi global va raqamli asrda professional ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda nutqiy kompetensiyaning o’rni tobora ortib bormoqda. Mutaxassislarining professional muvaffaqiyati faqat texnik bilim va ko‘nikmalarga emas, balki samarali kommunikatsiya, aniq va tushunarli fikr yuritish, nutq madaniyati va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalariga ham bog‘liq. Shu bois, professional ta’lim jarayonida nutqiy kompetensiyaning shakllantirish va rivojlantirish nafaqat ta’lim sifati, balki kelajak mutaxassisining ijtimoiy moslashuvi va kasbiy faoliyatining muvaffaqiyati uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda faqat nazariy bilim emas, balki amaliy nutqiy faoliyat ham ustuvor ahamiyatga ega.

Zamonaviy professional ta’lim jarayonida nutqiy kompetensiya — talabaning so‘zlashuv madaniyati, fikrini aniq, ravon va lo‘nda ifoda eta olish, shuningdek, kasbiy muloqotga tayyorligi sifatida ko‘riladi. Nutqiy kompetensiyaning shakllanishi o‘quv jarayonining samaradorligi, talabalar kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli moslashuvi va jamiyat bilan samarali integratsiyasini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, nutqiy kompetensiyaning rivojlantirish uchun didaktik ta’minotning sifati va samaradorligi katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Nutqiy kompetensiyaning shakllanishi, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik ta’minotlar tizimi bugungi kunda chuqur ilmiy tadqiqot va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi.

Hozirgi ta’lim jarayonida o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyati nafaqat nazariy bilimlariga, balki samarali kommunikatsiya qobiliyatlariga ham bog‘liq. Nutqiy kompetensiya ta’lim jarayonining asosiy vositalaridan biri sifatida, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlaydi hamda o‘quv jarayonining sifatini oshiradi. Ayniqsa, professional ta’lim sohasida nutqiy kompetensiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatida o‘quvchilarga bilim va ko‘nikmalarni yetkazishda, ularni rag‘batlantirishda, shuningdek, o‘quv jarayonini boshqarishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, nutqiy kompetensiyaning kasbiy faoliyatdagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarbdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Pedagogik adabiyotlarda nutqiy kompetensiya tushunchasi keng tadqiq etilgan. Nutqiy kompetensiya tushunchasi dastlab

Chomsky [3] tomonidan til tizimidagi bilimlar majmui sifatida ta'riflangan bo'lsa, keyinchalik Canale va Swain [5] tomonidan kommunikativ modelga asoslangan holda grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlar bilan boyitilgan. Pedagogik jarayonda esa bu komponentlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol muloqotni ta'minlaydi.

N.A.Muslimov [1] nutqiy kompetensiyani shaxsning kasbiy faoliyatida samarali kommunikatsiya qobiliyati sifatida ta'riflaydi. K.T. Umataliyeva [2] esa nutqiy kompetensiyaning shakllanishida innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni katta ekanligini ta'kidlaydi. T.V. Chemodanova [4] nutqiy kompetensiyani o'quv jarayonida ijodiy yondashuv orqali rivojlantirish muhimligini ta'kidlagan. Shuningdek, V.Arefyeva [6] professional ta'limda o'qituvchining nutq madaniyati o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Bu tadqiqotlar nutqiy kompetensiyaning kasbiy faoliyatdagi o'rni va ahamiyatini aniq ko'rsatadi hamda uning rivojlanishi uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar zarurligini ochib beradi.

A.X. Karimov [10] nutqiy madaniyatni professional ta'limning ajralmas qismi sifatida ko'rib, uning shakllanishi o'quv jarayonida individual va jamoaviy faoliyat orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi. B.T. Islomov [9] nutqiy kompetensiyani kommunikativ, lingvistik va madaniy komponentlar orqali tahlil qilib, uni rivojlantirish metodikasini taklif etadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish kommunikativ yondashuv asosida amalga oshiriladi, bu esa talabanning nafaqat so'zlashish, balki tinglash, tushunish va muloqot qilish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi [11]. Shu bilan birga, tadqiqotlarda nutqiy kompetensiyaning kasbiy kommunikatsiyadagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi, chunki har bir mutaxassis o'z sohasida muloqot vositachisi vazifasini bajaradi [13].

Professional ta'lim o'z tabiatiga ko'ra amaliy faoliyatga tayyorlovchi tizim bo'lib, bunda kasbiy atamalar, muomala madaniyati, kasbga oid vaziyatlarda nutqiy faoliyatni tashkil qilish muhimdir. Bu esa o'quvchilarda muayyan kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishni talab etadi. Ayniqsa, texnikum o'quvchilari uchun kasbiy kontekstga asoslangan muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Nutqiy kompetensiya — bu nafaqat lug'aviy va grammatik bilimlar majmui, balki kontekstga mos fikr yuritish, nutq madaniyati va samarali muloqot qobiliyatini o'z ichiga oladi. Didaktik nuqtai nazardan, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish quyidagi asosiy komponentlarga tayanadi:

-Lingvistik bilimlar: Til qoidalari, so'z boyligi va grammatika.

-Sotsiokultural bilimlar: Madaniy kontekstda nutqning o'rni va muloqotning ijtimoiy xususiyatlari.

-Kommunikativ qobiliyatlar: O'z fikrini aniq va o'rinli ifoda etish, tinglash va munozara qilish ko'nikmalari.

-Reflektiv faoliyat: O'z nutqini tahlil qilish va takomillashtirishga tayyorlik.

Nutqiy kompetensiyaning didaktik shakllanishi pedagogik jarayonni strategik rejalashtirishni, o'quvchilarga nutqiy vazifalarni bosqichma-bosqich va tizimli ravishda

bajarishni ta'minlaydi. Didaktik ta'minot esa ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, ayniqsa nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Didaktika fanining asosiy vazifasi ham o'quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish uchun zarur o'quv-materiallar va pedagogik usullarni yaratishdir. Nutqiy kompetensiya shakllanishi uchun didaktik ta'minot lingvistik, psixologik va pedagogik tamoyillar asosida ishlab chiqilishi kerak. Nutqiy kompetensiyaning shakllanishida kommunikativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi, bu yondashuv talabaning faol muloqotdagi rolini ta'kidlaydi. Shuning uchun didaktik ta'minot interfaol o'quv faoliyatiga yo'naltirilgan bo'lishi shart. Bu yondashuvga asoslangan didaktik materiallar nutqiy vaziyatlarga tayyorlaydi va real kasbiy muloqot sharoitlarini taqlid qiladi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda didaktik ta'minotni takomillashtirish yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

– **O'quv-materiallarni zamonaviylashtirish:** Nutqiy kompetensiyani shakllantirish uchun tayyorlangan o'quv qo'llanmalar, metodik ko'rsatmalar va interaktiv resurslar zamonaviy pedagogik va lingvistik tadqiqotlarga asoslangan holda yangilanishi kerak. Bu materiallar talabalarining kasbiy sohadagi real nutqiy vaziyatlarga tayyorlanishini ta'minlashi lozim.

– **Interfaol o'qitish vositalarini joriy etish:** Nutqiy ko'nikmalarni mustahkamlash uchun muhokama, rolli o'yin, debatlar va loyiha faoliyati kabi metodlardan samarali foydalanish didaktik ta'minotni yanada boyitadi.

– **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish:** Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, nutqiy treninglar va multimediya resurslari orqali didaktik ta'minotni kengaytirish o'quv jarayonini yanada interfaol va qiziqarli qiladi.

– **Baholash va monitoring tizimini takomillashtirish:** Nutqiy kompetensiyaning rivojlanishini doimiy baholash va natijalarni tahlil qilish uchun innovatsion diagnostika vositalarini joriy etish zarur. Bu esa o'quv jarayonining individual xususiyatlariga moslashishga yordam beradi.

– **Pedagoglarning malakasini oshirish:** Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik ta'lim berish orqali o'qituvchilarning didaktik ta'minotni yaratish va qo'llashdagi kompetensiyasini oshirish muhimdir.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Interaktiv metodlar orqali o'quvchilar faolligi oshadi, ular o'zaro muloqot, fikr almashish va fikrini himoya qilish imkoniga ega bo'ladi. Shu tarzda muloqot madaniyati shakllanadi, bu esa professional faoliyatda muvaffaqiyat kalitidir. Interfaol metodlarning qo'llanilishi o'qituvchi va talabalar nutqida aniqlik, ravonlik va kasbiy muloqotga tayyorlik darajasini oshiradi. Multimedia vositalari va virtual muhitlar esa o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, baholash tizimini takomillashtirish o'quv jarayonining shaffofligini ta'minlab, individual yondashuvni kuchaytiradi. Pedagoglarning didaktik ta'minotni yaratish va qo'llashdagi kompetentsiyalarini oshirish esa ta'lim sifatining barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida interfaol o‘quv metodlari va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Muammoli o‘rgatish, jamoaviy loyihalar, rolli o‘yinlar, taqdimot va munozaralar talabalarning nutqiy faoliyatini faollashtiradi va ularni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari — onlayn treninglar, virtual laboratoriyalar, audio va video materiallar nutq mashqlarini samarali tashkil etishga imkon beradi [12]. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga muntazam ravishda mustaqil nutq mashqlari va ijodiy topshiriqlar berish ularning kommunikativ qobiliyatlarini mustahkamlaydi.

Didaktik ta’minot ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-materiallar, metodlar, vositalar va usullar majmuasini anglatadi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda didaktik ta’minot nutqiy faoliyatning barcha jihatlarini qamrab olishi, interfaol va amaliy mashg‘ulotlar uchun yetarli resurslarni taqdim etishi lozim.

Ushbu tadqiqotda sifat va miqdoriy metodlar qo‘llanildi. Sifat metodlari doirasida professional ta’lim o‘qituvchilari bilan suhbatlar va intervyular o‘tkazildi, ularning nutqiy kompetensiyaga bo‘lgan munosabati, rivojlantirish usullari o‘rganildi. Miqdoriy metodlar sifatida esa o‘qituvchilar orasida so‘rovnoma tashkil etilib, nutqiy kompetensiya darajasi va uning kasbiy faoliyatga ta’siri statistik tahlil qilindi. Tadqiqot ishtirokchilarining soni 50 nafar professional ta’lim o‘qituvchilarini tashkil etdi. Ma’lumotlar Microsoft Excel va SPSS dasturlari yordamida qayta ishlanib, natijalar grafik va jadval ko‘rinishida tahlil qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR. Tajriba-sinov ishlari natijalari nutqiy kompetensiyani rivojlantirish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Nutq madaniyati va muloqot ko‘nikmalari shakllangan talabalarda ijtimoiy moslashuv kuchayadi, jamoada ishlash va rahbarlik qobiliyatlari rivojlanadi. Buning natijasida ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi yaxshilanadi va ish beruvchilar talablariga javob beradigan mutaxassislar yetishtiriladi [8]. Shuningdek, nutqiy kompetensiya talabaning o‘z fikrini aniq va ravon ifoda etish imkonini berib, professional muhitda samarali hamkorlik va innovatsion faoliyatni ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, professional ta’lim o‘qituvchilarining 82% nutqiy kompetensiyani o‘z kasbiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida baholaydi. Ushbu guruhdagi o‘qituvchilar darslarni samarali tashkil etish, talabalar bilan ishonchli muloqot o‘rnatishda yuqori natijalarga erishmoqda. Shuningdek, intervyular natijasida aniqlanishicha, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun malaka oshirish kurslari, treninglar va interfaol metodlardan foydalanish samarali deb topildi. Biroq, 18% o‘qituvchilar nutqiy kompetensiyaning ahamiyatini yetarlicha anglasha olmayapti, bu esa ularning kasbiy faoliyat samaradorligini kamaytiradi. Ushbu holat nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun tizimli yondashuvlarning zarurligini ko‘rsatadi.

Sifat metodlari doirasida o‘tkazilgan suhbatlarda o‘qituvchilar nutq madaniyatining o‘zaro muloqotdagi rolini yuqori baholadi. Ular, ayniqsa, ta’lim jarayonida so‘zlashuv madaniyati, intonatsiya va nutqning ta’sirchanligi muhimligini qayd etdi. Biroq, so‘nggi

yillarda interfaol pedagogik metodlardan foydalanish imkoniyatlari yetarli emasligi ham ta’kidlandi. Bu esa nutqiy kompetensiyani yanada samarali rivojlantirish uchun zamonaviy metodlarni keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari xalqaro tadqiqotlar natijalari bilan mos keladi [16], ya’ni pedagoglarning nutqiy kompetensiyasi ta’lim jarayonining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun doimiy malaka oshirish, pedagoglarning kommunikativ ko‘nikmalarini yaxshilash zarurligi yana bir bor tasdiqlandi. Ushbu tadqiqot natijalari boshqa olimlar fikrlari bilan hamohanglikda bo‘lib, nutqiy kompetensiyaning professional ta’lim o‘qituvchilarining samaradorligi va ta’lim sifati uchun muhim ekanligini tasdiqlaydi [1; 2; 4]. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. So‘nggi tadqiqotlar didaktik ta’minotni takomillashtirish nutqiy kompetensiyani shakllantirish jarayonining sifatini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatmoqda [7; 13].

Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan didaktik ta’minot modeli nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini tizimli, bosqichma-bosqich va natijaga yo‘naltirilgan amalga oshirish imkonini beradi. Model quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- Ta’lim maqsadlari va vazifalari aniq belgilangan.
- Nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun metod va vositalar tanlangan.
- O‘quvchilarning nutqiy faoliyati monitoringi va baholash mexanizmi mavjud.
- O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali kommunikatsiya ta’minlangan.

Model amaliyotda sinovdan o‘tgan bo‘lib, ta’lim jarayonida talabalar nutqiy kompetensiyasining sezilarli darajada oshishiga olib kelgan. Bu esa professional ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA. Professional ta’limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Bu sohada tizimli ish olib borish nafaqat o‘quvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshiradi, balki ularning kommunikativ madaniyatini va kasbiy muvaffaqiyatini ham ta’minlaydi. Kelajakda nutqiy kompetensiya sohasida innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish, individual yondashuvlarni rivojlantirish hamda o‘quv jarayonini interfaol va raqamli texnologiyalar yordamida boyitish muhim vazifa bo‘lib qoladi. Shunday qilib, nutqiy kompetensiya — professional ta’limning samarali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Professional ta’lim o‘qituvchilarining nutqiy kompetensiyasi ularning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqiy kompetensiya o‘qituvchilarga dars jarayonini samarali tashkil etish, talabalar bilan ishonchli muloqot o‘rnatish va ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun doimiy va tizimli ishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois, pedagogik amaliyotda zamonaviy interfaol usullar, malaka oshirish kurslari va treninglar orqali nutqiy ko‘nikmalarni yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Kelgusida nutqiy kompetensiyaning kasbiy faoliyatga ta’siri

bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar olib borilishi ta’lim jarayonining yanada mukammallashtirishiga hissa qo‘shadi. Nutqiy kompetensiya professional ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, dars jarayonining samarali tashkil etilishi, talabalar bilan ishonchli va samarali muloqot o‘rnatishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun malaka oshirish, treninglar, interfaol pedagogik metodlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Kelgusida nutqiy kompetensiyaning ta’lim sifati va o‘quvchilar muvaffaqiyatiga ta’siri bo‘yicha yanada keng qamrovli tadqiqotlar olib borilishi ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Professional ta’lim tizimida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish didaktik asoslari va pedagogik yondashuvlari o‘quv jarayonining samarali tashkil etilishi uchun muhimdir. Interaktiv ta’lim metodlari esa muloqot madaniyatini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan didaktik ta’minot modeli nutqiy kompetensiyaning kompleks va tizimli rivojlanishiga xizmat qilib, professional ta’lim sifatini yanada oshirish imkonini beradi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda pedagogik texnologiyalarni yanada takomillashtirish va amaliyotga keng joriy etish istiqbollari o‘rganish dolzarbdir.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda didaktik ta’minotni takomillashtirish — professional ta’limning samaradorligini oshirish uchun ustuvor yo‘nalishdir. O‘quv-uslubiy materiallarni zamonaviylashtirish, interfaol metodlarni keng joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, baholash tizimini takomillashtirish va pedagoglarning malakasini oshirish orqali ta’lim jarayonining sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Kelajakda didaktik ta’minotni yanada mukammallashtirish va innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish sohasida ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Muslimov N.A.** Nutqiy kompetensiya va kasbiy faoliyat: ilmiy maqola. — Toshkent, 2010. (*Nutqiy kompetensiyaning kasbiy faoliyatdagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qiluvchi manba*).
2. **Umataliyeva K.T.** Innovatsion ta’lim texnologiyalari va nutqiy kompetensiya rivoji. — Toshkent, 2018. (*Nutqiy kompetensiyani zamonaviy pedagogik metodlar orqali rivojlantirish masalalari*.)
3. Chomsky, N. *Aspects of the Theory of Syntax*, 1965. MIT Press.
4. **Chemodanova T.V.** Pedagogik kommunikatsiyada nutqiy kompetensiyaning roli. — Moskva, 2015. (*O‘quv jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish*.)
5. **Canale M., Swain M.** Theoretical bases of communicative competence. — Applied Linguistics, 1980. (*Kommunikativ kompetensiya nazariyasi, nutqiy komponentning ahamiyati*.)
6. **Arefyeva V.A.** Professional ta’limda o‘qituvchining nutq madaniyati. — Moskva, 2016. (*Nutq madaniyati va uning ta’lim samaradorligiga ta’siri*.)

7. Aliyev, S. M. Nutqiy kompetensiya va uning rivojlanishi metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2022.
8. Abdullaev R.T., Kasbiy kommunikatsiya va nutqiy madaniyatni shakllantirish. Pedagogika ilmiy jurnali, 2023. 4(12), 45-52.
9. Islomov B.T. Nutqiy kompetensiyaning kommunikativ qirralari. Toshkent: Fan va Texnologiya, 2020.
10. Karimov A.X. Nutqiy madaniyat va professional ta’lim. Toshkent: O‘zbekiston Ta’lim Vazirligi Nashriyoti, 2018.
11. Qodirov N.A. Pedagogik kommunikatsiya va nutqiy kompetensiya. Pedagogika va Psixologiya, 2(5), 2019. 34-41.
12. Saidova L.F. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni. Zamonaviy ta’lim, 1(9), 2022. 21-28.
13. Tursunova M.S. Interfaol metodlar yordamida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish. Oliy ta’lim va ilm-fan, 5(14), 2023. 56-63.
14. Xolmurodova Z.B. Didaktik ta’minotni takomillashtirishning pedagogik asoslari. Pedagogik izlanishlar, 6(10), 2022, 12-20.
15. Yusupov R. Nutqiy kompetensiya va uning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati. Ilmiy jurnali, 7(3), 2020. 39-46.
16. **Richards J.C., Rodgers T.S.** Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge University Press, 2014.
17. S.Ashurova, S.Mamanova WAYS TO DEVELOP SPEAKING ACTIVITY OF VOCATIONAL SCHOOL STUDENTS “International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research” ISSN - 2181 3884. 2023
18. Маманова С. Методика развития речевой компетентности у студентов профессионально-технических учебных заведений //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 4



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISH

Mirzaliyeva Dilafró‘z Muxammajonovna
NamPI mustaqil tadqiqotchisi
Dilafró‘z@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik faoliyatini tashkil etish orqali mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali texnologiyalari yoritilgan. Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari tahlil qilingan. Metodlar samaradorligi grafik va jadvallar bilan ifodalangan.

Kalit so‘z: boshlang‘ich ta‘lim, kitobxonlik madaniyati, mustaqil o‘qish ko‘nikmasi, bolalarda o‘qishga qiziqish, pedagogik texnologiyalar interaktiv metodlar, axborot madaniyati, kitob tanlovi, tafakkurni rivojlantirish, ta‘limda innovatsiya

РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В статье раскрываются эффективные технологии развития навыков самостоятельного мышления у учащихся начальных классов через организацию их читательской деятельности. Проведен анализ результатов экспериментальных работ, проведенных в рамках исследования. Эффективность методов представлена с помощью графиков и таблиц.

Ключевые слова: начальное образование, культура чтения, навык самостоятельного чтения, интерес к чтению у детей, педагогические технологии, интерактивные методы, информационная культура, выбор книги, развитие мышления, инновации в образовании.

DEVELOPING READING ACTIVITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract: The article presents effective technologies for developing independent thinking skills in primary school students through the organization of their reading activities. The results of experimental work conducted within the framework of the research are analyzed. The effectiveness of the applied methods is illustrated using charts and tables.

Keywords: primary education, reading culture, independent reading skills, children's interest in reading, pedagogical technologies, interactive methods, information culture, book selection, development of thinking, educational innovations.

O‘zbekiston Respublikasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qator rasmiy qarorlar va dasturlar qabul qilingan. Ushbu qarorlar va dasturlar mamlakatimizda kitobxonlikni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirishga qaratilgan. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda 781-son qarorida "2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi" tasdiqlangan. Xususan dasturning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish;
- nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko‘maklashish;
- bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo‘llab-quvvatlash;
- milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish;
- mutolaa madaniyatini yuksaltirish;
- respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;
- kitob savdosini tashkil etish tartiblarini soddalashtirish;
- yangi nashr etilgan kitoblarni yetkazish va axborot manbalarini tarqatish tizimini takomillashtirish.

Bugungi ta’lim tizimida o‘quvchilarni faqat bilim olishga emas, balki o‘z fikrini mustaqil shakllantirishga, tanqidiy fikrlashga va yangilik yaratishga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu jarayonni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ta’lim sifatining kafolati bo‘la oladi. Kitobxonlik esa bu jarayonning asosiy kalitidir.

Kitobxonlik - bu o‘quvchining ma’lumotni qabul qilish, anglash, tahlil qilish, eslab qolish va uni qayta ifodalash jarayonlari majmuidir. Psixologik nuqtai nazardan, bu jarayon o‘quvchining quyidagi funksiyalariga bog‘liq:

- ishchi xotira (working memory);
- obrazli va abstrakt tafakkur;
- logik fikrlash;
- refleksiya.


Masalan, pedagog olim L.S. Vygotskiy ta’lim jarayonidagi “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga tayanib, bola ayrim vazifalarni kattalar yordamida bajara oladi, lekin muayyan metodlar yordamida u mustaqil ravishda ham faoliyat yurita olishi mumkinligini ta’kidlaydi. Demak, kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirishda yordamchi vositalar – so‘zlashuv, suhbat, savol-javob, vizuallashtirish kabi usullar muhimdir.

Vygotskiyning "*Yaqin rivojlanish zonasi*" nazariyasi va kitobxonlikni shakllantirishda qo‘llanilishi. Mashhur rus pedagogi va psixologi Lev Semenovich Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "*yaqin rivojlanish zonasi*" (YRZ) tushunchasi – bu bolaning hozirgi holatda mustaqil bajara olishi mumkin bo‘lgan vazifalar bilan katta yordamida bajara oladigan vazifalar orasidagi sohadir. YRZ – bu bola o‘z imkoniyatlarining yuqori chegarasiga erishishida pedagogik va ijtimoiy yordam zarur bo‘lgan rivojlanish nuqtasi hisoblanadi.

Vygotskiyning ta’limga nisbatan qarashiga ko‘ra, bolalarning fikrlash, tafakkur va nutq qobiliyatlari tabiiy ravishda emas, balki ijtimoiy faoliyat orqali, kattalar bilan hamkorlikda shakllanadi. Shuning uchun bolaga savod o‘rgatish va kitob o‘qishga rag‘bat uyg‘otish jarayonida usullar va vositalarning pedagogik mo‘tadilligi juda muhim.

Kitobxonlikni shakllantirishda YRZni hisobga olgan holda qanday yondashish kerak? O‘quvchining hozirgi bilim va ko‘nikmalari aniqlanadi – bolaning qay darajada o‘qishni tushuna olishi, yangi so‘zlarni o‘zlashtira olishi baholanadi.

Mustaqil bajara olmaydigan, lekin yordam bilan bajara oladigan vazifalar tanlanadi – masalan, katta yoki o‘qituvchi bilan birga kitob mazmunini tahlil qilish, so‘z ma’nolarini sharhlash. Yordamchi vositalar, metodlar orqali rivojlantirish ishlari olib boriladi – bularga quyidagilar kiradi 1-rasm:



1-rasm. O‘quvchilarda kitobxonlikni shakllantirish trayektoriyasi

Pedagog V.V. Davidov va D.B. Elkoninlarning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasida ham bolaning ta’lim jarayonida faol sub’yekt sifatida qatnashishi, yangi bilimni o‘zlashtirishda mustaqil izlanishini qo‘llab-quvvatlash kerakligi ta’kidlangan. Bu esa kitob o‘qish jarayonida bolaning faqat tushunish emas, balki matnga shaxsan munosabat bildirishiga olib keladi.

Tajribalarga ko‘ra, 5-8 yoshdagi bolalarda kutubxona va kitoblarga bo‘lgan qiziqish vizual va emosiyaviy ta’sirlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, rasmlar, rasmlar, rasmlar, interaktiv formatlar bu yoshda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, oilada va maktabda kitobxonlik muhitini yaratish – o‘quvchining nutqiy faolligi, ko‘proq savol berish qobiliyati va ijodkorligini oshiradi.

Darxaqiqat, Kitobxonlikni rivojlantirishda o‘qituvchi faoliyati ham o‘quvchilarda kitobga nisbatan ijobiy munosabat, o‘qishga bo‘lgan qiziqish va doimiy o‘rganishga ichki ehtiyoj shakllanadigan davrdir. Bu jarayonda asosiy motivator va yo‘naltiruvchi shaxs - o‘qituvchi hisoblanadi. U o‘quvchining individual rivojlanish tezligi, til boyligi va axborot

qabul qilish uslubini hisobga olib, kitobxonlikni shakllantirishning metod va texnologiyalarini to‘g‘ri tanlashi talab etadi (1-rasm).

Zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlar O‘qituvchi tomonidan samarali qo‘llanilishi ham XXI asr o‘quvchilarni vizual, interaktiv va raqamli muhitda rivojlanishiga olib keladi. Shu sabab, kitobxonlikni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan maqsadli foydalanish juda muhimdir. Bu usullar o‘quvchilarning diqqatini jalb etish, qiziqishni o‘rttirish va individual rivojlanish trayektoriyasini ta’minlashga imkon beradi.

Masalan qo‘yidagi texnologiyalarni ko‘rib chiqamiz:

QR-kodli kitoblar - bola kodni telefon orqali ochib, video, tasvir yoki ovozli matn bilan tanishishi mumkin.

Audiokitoblar - eshitish orqali yodda saqlashni yaxshilaydi.

Raqamli kutubxonalar (ZiyoNET, Kitob.uz) - bolalar uchun maxsus tanlangan kitoblar platformasi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning kitobxonligini shakllantirish bilan birga, ularda mustaqil fikrlashga o‘rgatish imkoniyati ham kuchli bo‘ladi. Texnologik yondashuvlar – ayniqsa, muammoli va interfaol metodlar – bu jarayonni sezilarli darajada samarali qiladi. Natijada, o‘quvchilar matnga nisbatan faollashadi, savollar beradi, fikr bildiradi va o‘z xulosalarini asoslay oladi. Kitobxonlik - shaxsning bilish, mulohaza qilish, faol bo‘lish va ijtimoiylashish imkoniyatlarini ochuvchi moslashuvchan tajriba hisoblanadi. Uning rivojlanishiga yoshga mos psixik rivojlanish xususiyatlari, ta’lim muhiti, pedagogik ta’sir va oilaviy omillar ta’sir etadi. Shu sabab, kitobxonlik faoliyatini boshlang‘ich bosqichda psixologik-pedagogik jihatdan puxta rejalashtirish, bolada nafaqat savodxonlikni, balki universal fikrlash asoslarini shakllantirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Хамидова М. “Бошлангич синфларда китобхонликни шакллантириш” — Т.: Fan, 2020.

2.Юлдошев А., “Интерактив таълим технологиялари”, СамДУ нашри, 2021.

3.Виготский Л.С. “Мышление и речь” — М.: Педагогика, 1984.

4.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020.

5.Методик тавсиялар: “Boshqotirma darslar”, МКМ, 2022.

6.Ўзбекистон Республикасида китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш мақсадида бир қатор расмий қарорлар ва дастурлар қабул қилинган. Ушбу қарорлар ва дастурлар мамлакатимизда китобхонликни оммалаштириш, аҳоли, айниқса, ёшларнинг маънавий-маърифий савиясини оширишга қаратилган.

7. Najmiddinova Yo. R., Inamov D. D., Davronova M. U., Inamiddinova D. K. METHODOLOGY OF THE FORMATION OF GENERAL VOCATIONAL TRAINING IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON THE BASIS OF COMPETENCY APPROACH // PALARCH'S JOURNAL OF ARCHAEOLOGY OF EGYPT /

EGYPTOLOGY, PJAEE, 17 (6) (2020). – 3663-3679 page.
<http://www.palarch.nl/index.php/jae/article/view/1482>

8. Najmiddinova Yo. R. Conditions of Forming Professional Abilities and Skills on Competence Approach among Colleges Students // *Eastern European Scientific Journal*. - Germany, 2018. - №4. - P.196-199.

9. Najmiddinova Yo. R., Ibragimov R. Sh., Yigitaliyev J. A. THE CONCEPT OF ICT COMPETENCE OF PERSONNEL. THE IMPORTANCE OF HAVING ICT COMPLEMENT AND INFORMATION CULTURE // *INTERNATIONAL ENGINEERING JOURNAL FOR RESEARCH AND DEVELOPMENT* - Vol. 5 Issue 2, March 2020... <http://www.iejrd.com>



TIBBIYOT OLIYGOHLARI TALABALARINING ICHKI ZIDDIYATLARIDA HIMOYA MEXANIZMLARINING O‘RNI

Mirzayeva Umida Bosit qizi

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot talabalari psixologiyasining muhim jihatlari, xususan, ularning o‘qish jarayonida duch keladigan ichki ziddiyatlar, stress va himoya mexanizmlari tahlil qilinadi. Tibbiyot universitetiga kirgan talabalarning akademik bosim va yangi ijtimoiy muhitga moslashishdagi psixologik qiyinchiliklari, shuningdek, kasbiy shakllanish jarayonida yuzaga keladigan ichki ziddiyatlar haqida batafsil ma'lumot berilgan. Maqolada talabalarning stressga qarshi qanday psixologik himoya mexanizmlarini qo‘llashlari, bu mexanizmlarning samaradorligi va shaxsiy shakllanishdagi roli o‘rganiladi. Tibbiyot oliygochida psixologik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati va uning talabalarning ruhiy barqarorligini saqlashdagi o‘rni ta’kidlanadi. Psixologik maslahat markazlari, stressni kamaytiruvchi treninglar va ustoz-shogird tizimi orqali talabalarning ruhiy salomatligini yaxshilash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Ushbu ish tibbiyot talabalari uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining muhimligini namoyish etadi va psixologik yordamni yanada rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi.

Kalit so'zlar. Tibbiyot talabalari, psixologik stress, ichki ziddiyatlar, himoya mexanizmlari, akademik bosim, moslashuv, ruhiy barqarorlik, psixologik qo‘llab-quvvatlash, sublimatsiya, repressiya, ratsionalizatsiya, proyeksiya, kasbiy shakllanish, stressni kamaytiruvchi treninglar, ustoz-shogird tizimi

THE ROLE OF DEFENSE MECHANISMS IN INTERNAL CONFLICTS OF MEDICAL UNIVERSITY STUDENTS

Annotation. This article analyzes important aspects of the psychology of medical students, in particular, the internal conflicts, stress and protection mechanisms facing their study. Detailed information on which students entered the university in Medical University and psychological hardships of the academic pressure, as well as in the process of professional formation. The article publishes what psychological protection mechanisms against stress, the effectiveness of these mechanisms and the role of personal formation. The importance of psychological support in the medical university and its role in maintaining the spiritual stability of students. Psychological counseling centers, stress reducing trainings, and the opportunities

to improve students through the Teacher-Apprentice system will be considered. This work demonstrates the importance of a psychological support system for medical students and shows the need to further develop psychological assistance.

Keywords. Medical students, psychological stress, internal conflicts, protection mechanisms, academic pressure, mental stability, psychological support, reproduction, repression, trainings, professional formation, stress-vision system, teaching-student system.

РОЛЬ ЗАЩИТНЫХ МЕХАНИЗМОВ ВО ВНУТРЕННИХ КОНФЛИКТАХ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

Аннотация. В статье анализируются важные аспекты психологии студентов, в частности внутренние конфликты, стрессы и защитные механизмы, с которыми они сталкиваются в процессе обучения. Подробная информация представлена о психологических трудностях адаптации студентов, поступающих в медицинские вузы, к академическому давлению и новой социальной среде, а также о внутренних конфликтах, возникающих в процессе профессионального становления. В статье рассматриваются механизмы психологической защиты студентов от стресса, эффективность этих механизмов и их роль в развитии личности. Подчеркивается важность психологической поддержки в медицинском вузе и ее роль в поддержании психической устойчивости студентов.

Ключевые слова. Студенты-медики, психологический стресс, внутренние конфликты, защитные механизмы, академическое давление, психическая устойчивость, психологическая поддержка, воспроизводство, репрессии, тренинги, профессиональное становление.

KIRISH. Tibbiyot universitetida o‘qish talabalardan yuqori darajadagi akademik bilim, kasbiy mahorat va psixologik barqarorlik talab etadi. Ushbu jarayonda ko‘plab yoshlar moslashish qiyinchiliklari, stress, ichki ziddiyatlar va hissiy zo‘riqish bilan yuzlashadilar. Tibbiyot talabalari uchun psixologik barqarorlik muhim bo‘lib, himoya mexanizmlari ushbu bosimlarni engishga yordam beradi. Ushbu maqola tibbiyot talabalari hayotidagi ichki ziddiyatlar, akademik bosim, kasbiy shakllanish va psixologik moslashuv haqida batafsil tahlil beradi.

ADABAIYOTLAR TAXLILI.

Tibbiyot universitetiga moslashuv va akademik bosim. Tibbiyot universitetiga qadam qo‘ygan har bir talaba uchun o‘quv jarayoni faqatgina yangi bilimlar bilan to‘qnashuv emas, balki o‘zini tanish, bosimlarga bardosh berish, mustaqil hayotga moslashish va kasbiy identitet shakllanishining ilk bosqichidir. Bu jarayonning eng muhim va og‘ir tomonlaridan biri – **o‘qish jarayonidagi murakkablik** bo‘lib, bu holat talabaning ruhiy salomatligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va kelajakdagi kasbiy motivatsiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Tibbiyot ta’limi o‘z mohiyatiga ko‘ra nazariy, amaliy va klinik bilimlarni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa,

universitetning ilk kurslarida talabalar juda keng qamrovli va murakkab fanlar – anatomiya, gistologiya, biokimyo, fiziologiya, tibbiy biofizika kabi darslarga duch kelishadi. Bu fanlar ko‘p hollarda **abstrakt tushunchalar, yangi terminologiya** va **intensiv yodlash** talab qiladi. Shu sababli, talabalar ko‘p vaqtlarini o‘zlashtirishga sarflab, dam olish, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy faoliyat kabi jihatlardan chetlashib qoladilar.

O‘qish bosqichida yuzaga keladigan **asosiy murakkabliklar** quyidagicha umumlashtiriladi:

- **O‘quv yuklamasining og‘irligi:** Tibbiyot universitetlarida haftasiga 30–36 soatgacha dars mashg‘ulotlari bo‘lishi mumkin. Bu holat talabalarni doimiy ravishda intellektual kuchanish holatida ushlab turadi.
- **Terminologik bosim:** Lotincha, inglizcha, yunoncha asosli terminlarning ko‘pligi, ularning izchil yodlanishi katta aqliy yukni talab qiladi. Talaba bir necha ming atamani bir semestrda o‘zlashtirishga majbur bo‘ladi.
- **Nazorat tizimi:** Testlar, yozma ishlar, oraliq va yakuniy imtihonlar, kollokviumlar – bu baholash tizimi ko‘plab talabalar uchun psixologik bosim manbai bo‘lib xizmat qiladi.
- **Tashkiliy muammolar:** O‘qituvchilar bilan muloqotdagi noaniqlik, dars jadvalining moslashmasligi, kerakli resurslarning etishmasligi o‘qish jarayonini murakkablashtiradi.

Ayrim talabalar bu jarayonni moslashuv orqali engib o‘tishga harakat qilsa, boshqalarida esa bu holatlar **stress, tashvish (anksiyete), uyqusizlik, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquv** kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Bu esa psixologik salomatlikka jiddiy putur etkazadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tibbiyot talabalarining 40–60 foizi o‘qishning ilk yillarida o‘zini **ruhan charchagan, motivatsiyasi pasaygan**, ba'zilar esa hattoki o‘qishni tashlab ketish istagida bo‘lgan holatlarni boshdan kechirgan. Bu esa talabaning kasbiy shakllanish jarayoniga salbiy ta’sir qiladi.

Shuningdek, maktab davrida ko‘proq tashqi nazoratga asoslangan ta’lim tizimidan chiqqan talabalar universitetdagi mustaqil ta’limga moslashishda qiynalishadi. O‘z-o‘zini boshqarish, darsga tayyorgarlikni rejalashtirish, vaqtni taqsimlash – bularning barchasi yangi ko‘nikmalar bo‘lib, ularni qisqa muddatda egallash ko‘pchilik uchun murakkab kechadi.

Umuman olganda, o‘qish jarayonidagi murakkabliklar – bu nafaqat akademik, balki psixologik va sotsiologik omillar yig‘indisidir. Universitetlar bu muammoni engillashtirish uchun **ta’lim metodologiyasini engillashtiruvchi uslublar, moslashuv kurslari, psixologik maslahat markazlari** va **peer support tizimlari** (ya’ni tengdosh yordamchilar) joriy etishlari lozim.

STATISTIK MA’LUMOTLAR. So‘nggi yillarda psixologlar va oliy ta’lim sohasidagi mutaxassislar tomonidan o‘tkazilgan turli tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, **tibbiyot talabalari boshqa sohalarda tahsil olayotgan talabalar bilan solishtirilganda, psixologik stress, depressiv holatlar va tashvish (anksiyete)ni ancha yuqori darajada boshdan kechiradilar.** Bu holat ayniqsa, o‘qishning ilk bosqichlarida yaqqol seziladi. Masalan, Jahon sog‘liqni saqlash

tashkiloti (JSST) bilan hamkorlikda bir nechta mamlakatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra:

- **Tibbiyot talabalari orasida stress darajasi 56% dan 72% gacha** bo‘lgan intervalda uchraydi. Bu ko‘rsatkich gumanitar yoki texnik yo‘nalishlardagi talabalar orasida esa 30–45% atrofida saqlanadi (Dyrbye et al., 2006).
- 2021-yilda Hindistonda 1123 nafar tibbiyot talabalari orasida o‘tkazilgan kesim tadqiqotda **birinchi kurs talabalarining 68 foizi o‘rtacha va yuqori darajadagi stress alomatlarini** bildirgan (Maqbool et al., Indian J Psychiatry, 2021).
- 2020-yilgi Amerika Tibbiyot Talabalar Assotsiatsiyasi (AAMC) ma’lumotlariga ko‘ra, **har uchinchi tibbiyot talabasi klinik depressiya mezonlariga mos keluvchi simptomlarga ega** bo‘lgan.
- Yana bir metaanalizga ko‘ra, **tibbiyot talabalarida depressiya darajasi umumiy talabalar guruhiga nisbatan 2 baravar yuqori**, tashvish holati esa 1.7 baravar yuqori ekani aniqlangan (Rotenstein et al., JAMA, 2016).

O‘zbekiston yoki Markaziy Osiyo doirasida bu boradagi statistik ma’lumotlar cheklangan bo‘lsa-da, ayrim universitetlar darajasida o‘tkazilgan ichki so‘rovnoma va dissertatsiya ishlari ham shunga o‘xshash tendensiyalarni ko‘rsatadi. Masalan, Toshkent Tibbiyot Akademiyasida 2023-yilda o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, **birinchi kurs talabalarining 63 foizi o‘zini “psixologik jihatdan qiynalayotgan” deb ta’riflagan**, ulardan 41 foizi doimiy xavotir va asabiylik holatida ekanini bildirgan.

Bu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, tibbiyot yo‘nalishidagi ta’lim faqat intellektual emas, balki ruhiy bardoshlikni ham talab etadi. Shuning uchun, stressni erta aniqlash, himoya mexanizmlarini o‘rgatish va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish — talabaning nafaqat akademik, balki shaxsiy salomatligi uchun ham zarur omillardir.

Moslashishning psixologik jihatlari. Tibbiyot universiteti — bu nafaqat yangi akademik muhit, balki shaxsiy va ijtimoiy hayotda ham tub o‘zgarishlarni anglatadi. Talabaning bu muhitga moslashuvi, odatda, avvalgi ta’lim shakli, shaxsiy fazilatlar, oilaviy tarbiyasi va psixologik tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta’lim olgan talabalar, odatda, mustaqil yashash va o‘qishga nisbatan ancha tayyor bo‘lishadi. Ular yotoqxona hayotiga moslashgan, darsdan tashqari mashg‘ulotlar, o‘z vaqtini boshqarish, guruh bilan ishlash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi. Bu esa universitetning dastlabki bosqichlarida psixologik barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

Aksincha, **maktabdan so‘ng bevosita tibbiyot universitetiga kirgan talabalar uchun** bu bosqich ko‘proq stress manbaiga aylanishi mumkin. Ular ko‘pincha oila qo‘ynidan ilk bor uzoqlashishadi, o‘z vaqtini mustaqil ravishda rejalashtirishda qiynaladilar, yangi do‘stlar orttirish, guruhda o‘z o‘rnini topish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarda nochorlik sezishadi. Aynan mana shu psixologik qiyinchiliklar ularning ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik moslashuv jarayonini tahlil qilganda, quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi:

- **Shaxsiy xususiyatlar** – ya'ni extirojij barqarorlik, tashqi ta'sirlarga chidamlilik, motivatsiya darajasi.
- **Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash** – oila, do'stlar yoki ustozlar tomonidan beriladigan ma'naviy yordam.
- **Moslashuv strategiyalari** – talabaning stressga qanday munosabatda bo'lishi, muammoni hal qilish uslubi.
- **Kutilmalar va haqiqat orasidagi tafovut** – ko'pincha tibbiyotga kirgan talaba tibbiyotni ideal kasb sifatida tasavvur qilgan bo'ladi, biroq murakkab reallik unga ruhiy bosim sifatida qaytadi.

Psixologik jihatdan moslasha olmagan talabalar orasida o'zini past baholash, ijtimoiy yakkalanish, uyga tez-tez qaytishni xohlash, hatto o'qishni tashlash haqida o'ylash kabi simptomlar kuzatiladi. Bu esa stress, depressiya va xavotir darajalarining ortishiga olib keladi. Moslashuv davrini engillashtirish uchun psixologlar quyidagi amaliy tavsiyalarni berishadi:

- Talabalarni **o'quv yilining boshida adaptatsion treninglar** orqali yangi muhitga tayyorlash;
- **“Peer-mentoring” tizimi** – yuqori kurs talabalarining yangi talabalarni yo'naltirishi;
- **Psixologik maslahat markazlari** faoliyatini kuchaytirish;
- O'qituvchilar tomonidan talabaga **individuallashtirilgan yondashuvni** ta'minlash.

Shunday qilib, tibbiyot universitetiga moslashuv — bu oddiy o'quv jarayoni emas, balki shaxsning ichki o'zgarishlar davri bo'lib, uni boshqarish va qo'llab-quvvatlash uchun akademik va psixologik tizimlar birgalikda ishlashi zarur.

Ichki ziddiyatlarning asosiy turlari. Ichki ziddiyat (intrapersonal konflikt) — bu shaxsning o'z ongida yuz beradigan, qarama-qarshi istaklar, his-tuyg'ular, qadriyatlar va qarorlar o'rtasidagi kurashdir. Bu ziddiyatlar insonning ruhiy barqarorligi, o'zini anglash darajasi, qaror qabul qilish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, tibbiyot sohasida o'qiyotgan talabalarda bu ziddiyatlar keskinroq namoyon bo'lishi mumkin. Chunki bu soha yuqori mas'uliyat, qat'iylik va ichki muvozanatni talab qiladi.

Kasb tanlovi bilan bog'liq ziddiyatlar. Tibbiyot fakultetiga kirish ko'plab yoshlar uchun katta orzu bo'lishi mumkin, ammo bu har doim ham talabaning ichki istagi bilan bog'liq emas. Ko'pincha quyidagi sabablarga ko'ra kasb tanlovi ichki ziddiyat manbaiga aylanadi:

- **Ota-onaning bosimi:** Ba'zi oilalarda tibbiyot kasbi yuqori maqomga ega deb hisoblanadi va farzandlar shunga majburiy ravishda yo'naltiriladi. Talaba o'zining qiziqishlari boshqa sohada bo'lsa-da, oilaviy bosim tufayli bu tanlovni amalga oshirgan bo'ladi.
- **Jamiyatning stereotiplari:** “Shifokor bo'lish – eng obro'li yo'l” degan ijtimoiy tasavvur ham ba'zi talabalarni o'z qiziqishlaridan voz kechib, tibbiyotga kirishga undaydi.

- **Shaxsiy nomuvofiqlik:** Tibbiyotning real hayoti (uzoq o‘qish muddati, inson salomatligi uchun mas’uliyat, bemorlar bilan muloqot) ba’zi talabalarning shaxsiy fazilatlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Bu esa ularda ichki norozi holatni kuchaytiradi.

Bunday ziddiyatli holatlar, odatda, quyidagi psixologik belgilar orqali namoyon bo‘ladi:

- o‘qishga befarqlik,
- tez charchash va diqqatni jamlay olmaslik,
- kelajak kasbiga nisbatan motivatsiyaning yo‘qolishi,
- o‘zini yolg‘iz va keraksiz his qilish.

YECHIM VA TAVSIYALAR.

Bu turdagi ichki ziddiyatlarni yumshatish uchun birinchi navbatda **kasbga bo‘lgan shaxsiy munosabatni ochiq-oshkora anglash** zarur. Universitetlar quyidagi choralarni ko‘rishlari mumkin:

- **Karyera bo‘yicha maslahat xizmatlarini** tashkil etish: Talabaga o‘zini anglash, kasb tanlovidagi shubhalarni tahlil qilishda yordam beradi.
- **Psixologik suhbatlar va mashg‘ulotlar:** Talabaning ichki motivatsiyasini aniqlashga yordam beradi.
- **Shaxsiy rivojlanish klublari:** Talabalar o‘zini tibbiyotdan tashqaridagi faoliyatlarda sinab ko‘rib, qiziqishlarini to‘liqroq anglashlari mumkin.
- **Ustozlar bilan ochiq muloqotlar:** Tibbiyotda o‘z o‘rnini topgan shaxslar tajribasi talabalarga yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, kasb tanlovi bilan bog‘liq ichki ziddiyatlar — bu faqatgina psixologik muammo emas, balki yondashuvni talab qiladigan muhim pedagogik masaladir. Agar bu muammo vaqtida aniqlanmasa va hal qilinmasa, talabada o‘qishni tashlash, depressiv holatlar yoki kasbiy inqirozga olib keluvchi salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Erickson, S. J., & Griggs, S. S.** (2016). *Psychological stress and coping mechanisms in medical students*. Journal of Medical Education
2. **Dyrbye, L. N., Thomas, M. R., & Shanafelt, T. D.** (2006). *Medical student distress: Causes, consequences, and proposed solutions*. Mayo Clinic Proceedings
3. **Shapiro, J. R., & Shapiro, D. E.** (2007). *Stress management in medical education: A review of the literature*. Medical Education
4. **Parker, J., & Moore, P.** (2018). *Coping mechanisms and their impact on academic performance in medical students*. International Journal of Medical Research
5. **Alzahem, A. M., et al.** (2014). *The prevalence of stress, anxiety, and depression among medical students in Saudi Arabia*. Journal of Health Education Research & Development
6. **Kovacs, M., & Stokes, R.** (2012). *Coping strategies and emotional intelligence in medical students: A cross-sectional study*. Academic Medicine

7. **Sullivan, M. G., & McWhinney, I. R.** (2015). *The role of mentoring in medical students' development: Supporting resilience and personal growth*. Medical Teacher
8. **Cohen, S., & Wills, T. A.** (1985). *Stress, social support, and the buffering hypothesis*. Psychological Bulletin.
9. **Umarkulova, Z. D., & Askarova, N. A.** (2025). TIBBIYOT OLIYGOHLARI TALABALARIDA PSIXIK SALOMATLIK MUAMMOLARI VA ULARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISH ISHLARI. Inter education & global study, (3), 718-726.
10. **Askarova Nargiza Abdivaliyevna.** (2024). INFLUENCE OF PSYCHOPATHIC QUALITIES OF PARENTS ON MENTAL DISORDERS IN CHILDREN. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(10), 367–371.
11. **Abdivaliyevna, A. N., & Gulomjonovna, E. G.** (2025). In Remembrance of Zulfiya. European International Journal of Pedagogics, 5(01), 109-111.
12. **Askarova Nargiza Abdivaliyevna.** (2024). INFLUENCE OF PSYCHOPATHIC QUALITIES OF PARENTS ON MENTAL DISORDERS IN CHILDREN. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(10), 367–371.
13. **Narmetova, Y. K.** (2016). Organization of the psychological support in the cardiology clinics. Theoretical & Applied Science, (7), 28-31.
14. **Narmetova, Y. K.** (2024). Hope and Healing: The Psychological Side of Cancer Care. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 4(12), 147-149.
15. **Narmetova, Y. K.** (2023). SHAXSLARARO ZIDDIYAT PSIXOSOMATIK KASALLIKLARNING PAYDO BO'LISH OMILI SIFATIDA. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 677-682.
16. **Askarova, N. A., Bekmirov, T. R., Nurbaeva, K. B., Muminova, N. B., & Amangeldiev, A. B.** (2024). PERSONAL CHARACTERISTICS IN CHILDREN'S PSYCHOLOGY AS AN OBJECT OF RESEARCH.
17. **Nurbaeva, H.** (2022). FORMATION OF NATIONAL VALUES IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Conferencea, 207-210.
18. **Botirovna, N. H.** (2022). SYSTEMATIC METHODS OF DEVELOPMENT OF NATIONAL VALUES IN STUDENTS.



KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TALABALARNI KASBIY-GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING ROLI VA O‘RNI

Muslimov Sherzod Narzulla o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU professori v/b, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Maqolada kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning kasbiy-grafik kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta’limning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustaqil ta’lim jarayonini samarali tashkil etish yo‘llari, uning talabalarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali mustaqil ta’limni takomillashtirish, grafik fanlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Maqolada kasbiy-grafik kompetentligini rivojlantirishning amaliy usullari va innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida ta’lim sifatini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Kredit-modul, tafakkur, rol, mustaqil ta’lim, usullar, kompetentlik, ijodiy, AKT, kasbiy-grafik.

РОЛЬ И МЕСТО САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация В статье анализируется роль и значение самостоятельного обучения в развитии профессионально-графической компетентности учащихся в условиях кредитно-модульной системы. В исследовании освещаются пути эффективной организации самостоятельного образовательного процесса, его роль в формировании творческого и критического мышления учащихся. Также даны рекомендации по совершенствованию самостоятельного обучения, повышению эффективности освоения графических дисциплин за счет использования современных информационно-коммуникационных технологий. В статье рассматриваются практические методы развития профессионально-графической компетентности и пути повышения качества образования на основе инновационных педагогических подходов.

Ключевые слова. Кредит-модуль, мышление, роль, самостоятельное обучение, методы, компетентность, творческий, ИКТ, профессионально-графический.

THE ROLE AND PLACE OF INDEPENDENT LEARNING IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND GRAPHIC COMPETENCE OF STUDENTS IN A CREDIT-MODULAR SYSTEM

Annotation. The article analyzes the role and importance of independent learning in the development of professional and graphic competence of students in a credit-modular system. The study highlights the ways of effective organization of the independent educational process, its role in the formation of creative and critical thinking of students. Recommendations are also given on improving self-study, increasing the effectiveness of mastering graphic disciplines through the use of modern information and communication technologies. The article discusses practical methods for developing professional graphic competence and ways to improve the quality of education based on innovative pedagogical approaches.

Keywords. Credit module, thinking, role, independent learning, methods, competence, creative, ICT, professional graphic.

Jamiyatida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ijtimoiy rivojlanish paradigmasining o‘zgarishi, umuman ta’lim tizimiga, xususan, oliy ta’lim tizimiga yangi shaxsiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida raqobatbardosh davlat mutaxassislarini tayyorlash, ular barqaror o‘z-o‘zini rivojlantirish, ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash zarurati bilan tavsiflanadi. Oliy ta’lim kapitalni investitsiyalashning eng foydali sohasi sifatida investitsiya sohasida ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Ta’lim mamlakat iqtisodiyotining asosiga aylangan hayotning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda, chunki ishlab chiqarish, fan va sanoatning rivojlanish darajasini anglatadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish iqtisodiy islohotlarni hal qilish va bozorni samarali rivojlantirishda davlat yosh avlodga, muammolarni ko‘ra oladigan va ijodiy hal qila oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga tayanadi va rivojlanishning innovatsion usullarini o‘zlashtirgan o‘zgaruvchan turmush sharoitlariga shu tarzda moslashadi.

Ta’lim holatining o‘ziga xosligi oliy ta’limning yangi, ochiq tizimining shakllanishi, uning yangi mazmuni, shu jumladan kredit modullariga o‘tish va o‘qitishni tashkil etish tizimi bilan tavsiflanadi.

Kredit – bu, olingan bilimni qachon yoki qaerda olinganidan qat’iy nazar, hisobini chiqarish va tan olish demakdir. Almashinuv birligidir.

Modul – bu alohida individual o‘quv fani. O‘zida bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarini qamrab olgan bo‘lib, ta’lim oluvchilarning o‘quv dasturini o‘zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishni nazarda tutadi.

Kredit-modul o‘qitish tizimi esa, har bir o‘quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o‘quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o‘quv dasturini o‘zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.

Ta’limning kredit tizimi talabaga yo‘naltirilgan o‘qitish, ta’lim berish va baholashning oshkoraligi tamoyiliga asoslangan bo‘lib, sinov birliklarini yig‘ish va ko‘chirib o‘tkazishdan iboratdir. Mazkur tizim sinov birliklarining jamg‘arib boriladigan ta’limning barcha bosqichlari bo‘yicha ilgari yig‘ilgan o‘sib boruvchi sinov birliklari hisobini bildiradi.

Kredit-modul tizimi bo‘yicha o‘qitish har bir modulning tarkibiy mazmuniga ega bo‘lgan o‘quv materialining (modullarning) mantiqiy to‘ldirilgan qismlaridan iborat bo‘lgan oldindan ishlab chiqilgan modul dasturi bo‘yicha o‘quv materialini talabalar tomonidan o‘zlashtirishni tashkil etishni nazarda tutadi.

Talaba o‘rganish va o‘zlashtirish uchun kerakli miqdordagi o‘quv fanlarini tanlaydi va ularni ma’lum vaqt ichida o‘zlashtirish majburiyatini oladi. Ta’lim jarayonining bunday tashkil etilishi talabani oliy ta’lim mazmunini sifatli o‘zlashtirishga majbur qiladi, shu orqali boshqa mamlakatlarning ta’lim muassasalarida natijalarni ob‘ektiv tan olishni ta’minlaydi. Agar an’anaviy ta’lim tashkilotida o‘qituvchi tayyor bilim va ko‘nikmalarning tarjimoni, talaba esa ko‘p hollarda passiv tomon rolini o‘ynasa, kredit-modul tizimida o‘qituvchi talabaning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning tashkilotchisi hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘qitishni tashkil etishning kredit-modul tizimi asosida o‘qitishni tashkil etishning modulli tizimi, umumiy o‘qitish vaqtining uchdan ikki qismi o‘qituvchi rahbarligida yoki usiz talabaning mustaqil ishiga ajratiladi.

Oliy ta’limni tashkil etishning kredit-modul tizimi doirasida, birinchi navbatda, o‘z-o‘zini ta’lim faoliyatida ko‘nikmalarni shakllantirish muammosini hal qilish kerak. Tegishli ilmiy-uslubiy yordam bilan kredit-modul tizimi orqali ta’lim tizimini tashkil etishda texnologik yutuq yaratgan ijobiy mahalliy tajriba va talabalarining o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini samarali shakllantirishni ta’minlash mumkin.

O‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati ko‘nikmalari deganda talabaga o‘zining tarkibiy qismlariga muvofiq faoliyatni mustaqil ravishda tashkil etishga imkon beradigan maqsadli, ongli harakatlar majmui tushuniladi: motiv, maqsad, mazmun, operatsiya-harakat, natija, refleksi.

Kredit-modul texnologiyasi sharoitida o‘z-o‘zini o‘qitish faoliyatida quyidagi qimmatli ko‘nikmalar turlari dolzarbdir:

- axborot-tahliliy (muammo bo‘yicha manbalarni tanlash; zamonaviy ma’lumot kutubxonasi jihozlaridan, bibliografik va manba ma’lumotnomalaridan, shu jumladan kompyuter ma’lumotlaridan foydalanish; o‘qish, tez o‘qish usulidan foydalanish; tezislar, axborot materiallariga sharhlar, rejalar, eslatmalar va ommaviy nutqlarning matnlarini tuzish);
- ikkinchi guruh faoliyatni o‘z-o‘zini tashkil etish ko‘nikmalaridan iborat edi (mustaqil ishlarni rejalashtirish; maqsad, gipoteza, uni tekshirish usullarini shakllantirish; olingan natijalarni qayta ishlashning turli usullaridan, jumladan, matematik statistikadan foydalanish);
- refleksiv ko‘nikmalar (o‘z-o‘zini rivojlantirish faoliyatidagi qiyinchiliklarni aniqlash, ularning mohiyatini aniqlash, faoliyatni modellashtirish, tanqidiy fikrlashning rivojlanishini baholash).

Ta’kidlash joizki, o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati ko‘nikmalari boshqa ko‘nikmalar bilan umumiy xususiyatlarga ega:

- har doim faoliyat maqsadi, uni amalga oshirish usullari va shartlari o‘rtasida qadriyat munosabatlarini ongli ravishda o‘rnatishni nazarda tutadigan mahoratning tabiati;
- amalga oshirish mexanizmi - faoliyatning ma’lum usullarini yangi sharoitlarga mustaqil ravishda o‘tkazish.

Talabalarining o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirishda ta’limni tashkil etishning kredit-modul tizimining pedagogik salohiyati.

Kredit-modul tizimining tuzilishi o‘ziga xos munosabatlar va o‘zaro ta’sirlar to‘plamini aks ettiradi, buning natijasida yangi xususiyatlar paydo bo‘ladi.

Tizimga xos bo‘lgan va uning alohida tarkibiy qismlarida mavjud bo‘lmagan xususiyatlar (o‘zaro ta’sir natijasida paydo bo‘ladigan va faqat tizimlarga xos bo‘lgan xususiyatlar).

Ta’lim tashkilotining kredit-modul tizimi dinamik tizimdir. Tizim xatti-harakatlari dinamikasini bashorat qilish tabiatiga ko‘ra, u maqsadli, amalga oshirishga yo‘naltirilgan – ta’limni tashkil etishning kredit-modul tizimi talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish omili bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlarni asoslash. Ushbu tizimga xos bo‘lgan barcha tarkibiy qismlarning (maqsadlar, mazmun, usullar (texnologiyalar), vositalar, shakllar, natijalar) o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladigan xossa – o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati ko‘nikmalaridir.

O‘rganilayotgan tizimning pedagogik salohiyati o‘qituvchi rahbarligida va talabaning faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan funksiyalar bilan belgilanadi.

Ta’lim tashkilotining kredit-modul tizimining pedagogik salohiyati uning imkoniyatlari (ijtimoiy-madaniy, tizimli, tashkiliy, huquqiy sharoitlar) majmui sifatida quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- axborot va kontent resurslarining mavjudligi;
- talabalar va o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishi qiyinchiliklarini aniqlash va bartaraf etishga e’tibor qaratish;
- o‘qituvchi va talabaning hamkorlikka asoslangan o‘zaro munosabati, o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatining tashkiliy shakllari, usullari, vositalarini tanlash erkinligi, talabaning o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatining individual shaxsiy traektoriyasini tanlash qobiliyati;
- talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirishi turli shakllariga shaxsiy qo‘shilishi.

Ta’limni tashkil etishning kredit-modul tizimining pedagogik salohiyatining yig‘indisi yaxlitligida ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini aks ettiradi.

Ta’lim tashkilotining kredit-modul tizimining pedagogik salohiyatining ko‘rsatilgan talqini uni o‘ziga xos mazmun bilan to‘ldirishni talab qildi. Tizimli-yaxlit yondashuv nuqtai nazaridan, bizga ta’lim jarayonidagi funksiyalarni tahlil qilish orqali aniqlash maqsadga muvofiq.

Talaba o‘qituvchi va boshqalar bilan va uning ta’lim salohiyatini aniqlash:

- refleksiv (o‘zlashtirilgan tajribani tushunish - kognitiv, amaliy, ijodiy, munosabatlar tajribasi);
- rag‘batlantirish (talabalarning xarakterini belgilaydi va etarlicha kuchli va barqaror ijobiy mavjud bo‘lganda imkon beradi. Motivlar o‘z-o‘zini rivojlantirishga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga undash);
- takomillashtirish (yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yordam beradi; mavjud bilimlarni yangilash va aqliy faoliyatni faollashtirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi);
- yo‘naltirilgan (bo‘lajak va kelajakdagi maqsadlar, rejalar va vositalar haqida g‘oyalar tizimini shakllantirishni ta‘minlaydi. Davom etayotgan harakat, baholash munosabatlarini belgilaydi);
- kommunikativ (o‘z-o‘zini rivojlantirishini ta‘minlashi, sifat jihatidan o‘zgarishini belgilaydi).

Grafik kompetensiya - bu turli grafik tasvirlarni o‘rganishga asoslangan to‘liq tizim. Grafik kompetensiya quyidagi o‘quv (talimiy) komponentlarni o‘z ichiga oladi: Grafik savodxonlik - grafik vositalar orqali o‘qish, turli konstruksiya va texnik hujjatlarni tayyorlash qobiliyati. Grafik ma‘lumot - turli texnik va texnologiyaviy adabiyotlardan olingan ma‘lumotlar. Grafik bilimlar - mahsulotlarni, jarayonlarni, hodisalarni grafik tasvirlash usullari, standart tizimlariga muvofiq normalar va qoidalar to‘g‘risidagi tushunchalar. Grafik ko‘nikmalar - insonning turli grafik asoslarda yaratilgan fazoviy obrazlar bilan ishlashga tayyorligi, o‘z fikrlarini aniq bayon qilish va boshqa insonning fikrlarini texnik hujjatlar asosida tushunish qobiliyati. Grafik malaka - grafik muharrirlarida ishlash usullari va dasturiy vositalarga ega bo‘lish.

Grafik kompetensiyasining maqsadi jamiyatning ijtimoiy talablari, yani aniqrog‘i texnologik talim o‘qituvchisi kasbiy faoliyatining zamonaviy xususiyatlari va talablari bilan belgilab beriladi, Biz oliy talim malaka talablari asosida talabalarining grafik kompetensiyasini aniqladik – bu bitiruvchilarning grafik harakatlarni bajarish uchun mo‘ljallangan vakolatlar to‘plami bo‘lib, bu texnologik talim o‘qituvchisining kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun kerak, shundan kelib chiqqan holda, oliy talimning bir-birini to‘ldiruvchi ta‘lim jarayoni sharoitida talabalarning shaxsiy rivojlanishini rag‘batlantiradi. Har bir kompetensiya talabalarning shaxsiy sifatiga mos bo‘lib, kasbiy faoliyatda bilimlarni mos ravishda qo‘llashga qaratilgan. Kompetent bo‘lish – bu kasbiy vazifalarni hal qilishda zamonaviy vositalar va usullar asosida mustaqil, kompleks, tizimli fikrlash va talim tashkiloti hamda jamiyat uchun natijalariga qarab, mo‘ljallangan alternativa yondoshuvlar orasidan optimal echimlarni tanlash qobiliyatini rivojlantirishni anglatadi.

Kompetensiya insonni kasbiy faoliyat sub’ekti sifatida belgilab beradi, uning muammoli vaziyatlarda adekvat va javobgar qaror qabul qilish qobiliyatining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Grafik kompetensiyani shakllantirishda grafik savodxonlikni shakllantirish kerak.

Elementar grafik savodxonlik: o‘quvchi parallel proeksiyada tasvirlar nazariyasining elementar qonuniyatlarini biladi (parallelogramm, kub, parallelepiped, prizma, tetraedr, ellips

shaklidagi doira, silindr, konus); Paint, Word grafik muharrirlarida asosiy primitivlarni chiza oladi; asosiy shakllarni o‘zgartirishni bilgan. Funksional grafik savodxonlik: talaba parallel proeksiyada shakllarning tasvirlari nazariyasining asosiy qoidalar bilan tanish (to‘g‘ri chiziqlarning parallelligini saqlash, bir va yoki parallel to‘g‘ri chiziqlarda bo‘laklarning oddiy munosabatini saqlash, ellipsning o‘zaro diametrlarini tasvirlash); originaldagi metrik munosabatlarni tahlil qilishni biladi va ularni shaklni tasvirlashda hisobga oladi; asosiy primitivlardan yangi shaklni shakllantirishni, figuralarni umumiy elementlar bo‘yicha birlashtirishni, beriladigan figuraning bir qismiga rang berishi, ikki ko‘p burchakning birlashishi yoki kesilishi; shakldagi elementlarni (*aylana, uchburchak, to‘rtburchak, elleps, konus, prizma va boshqa*) belgilanishini bilgan.

Elementar grafik savodxonlik mezonlari: Eng oddiy geometrik shakllarni tasvirlash; Belgilangan shartlarga javob beradigan shakllar yoki geometrik vaziyatlarni tasvirlash; Belgilangan instrumentlar to‘plamidan foydalanib asosiy qurilishlarni bajarish; Berilgan grafik nuqtalar yoki shakl elementlari asosida shaklni tiklash; Berilgan boshlang‘ich grafik tasvirlaridan yangi shakllarni konstruksiyalash.

Funksional grafik savodxonlik mezonlari: Geometrik shakllarni tanib olish, ularni muayyan konsepsiyaga moslash yoki shaklning turini aniqlash; Bir xil elementni turli geometrik shakllarda ishlatish; Geometrik shakllarning xususiyatlarini taqqoslash, ularning farqini yoki o‘xshashligini aniqlash, ushbu xususiyatlar asosida klasslarga bo‘lish; Grafik ma‘lumotlarni so‘zli yoki analitik usulda o‘qish; Talabalarning fazoviy fikrlashini rivojlantirish; Talabalarning konstruktiv qobiliyatlarini rivojlantirish.

Elementar va funksional grafik savodxonlik mezonlari hamda DTS talablarini tahlil qilganimizda, grafik kompetensiyani shakllantirish natijasida talabalar quyidagilarni bilishi zarur:

- Chizma geometriyaning asosiy elementlari, fazoviy shakllar bilan muammolarni hal qilish usullari, grafik tasvirlarni yaratish uchun asosiy qoidalar va usullar, chizmalarni bajarish uchun davlat standartlari, kompyuter grafikasining dasturiy vositalari;
- Mexanik (aanaviy) grafika orqali detallarni mustaqil ravishda chizmalarni yaratish, aniq grafik ishni hal qilish uchun nazariy materialdan foydalanish, maxsus o‘lchov va chizma vositalaridan foydalanish, darslarga tayyorgarlik ko‘rishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, ta‘lim jarayonini mustaqil ravishda tashkil qilish;
- Abstrakt fikrlash faoliyati, fazoviy tafakkur, texnik g‘oyalarni chizma orqali bayon qilish, texnik adabiyotlar bilan ishlash, mustaqil ijodiy faoliyatga tayyor bo‘lish qobiliyatlariga ega bo‘lish.

"Kompyuter grafikasi" fanini umumkasbiy fan sifatida o‘rganish jarayonida talabalar grafik redaktorlarini, jumladan, ularning asoslari, oddiylarini yaratish va asboblarni ishlatishni o‘zlashtiradilar. Shuningdek, kursga "Chizma geometriya" va "Proeksion chizmachilik" mavzulari kiritilgan bo‘lib, bu esa avtomatlashtirilgan loyiha tizimlari (SAPR) bilan ishlashni yaxshiroq o‘zlashtirishga va kompyuterda konstruktiv hujjatlarni tayyorlash ko‘nikmalarini

shakllantirishga yordam beradi. Bu talabalar uchun nazariyani tushunish va uni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. "Kompyuter grafikasi" fanidan elektron o‘quv-uslubiy taminotini ishlab chiqilishi "Chizma geometriya" va "Proeksion chizmachilik" mavzularini o‘z ichiga oladi. Talabalar "Texnik ijodkorligi" va "Texnik mexanika" fanlarini o‘rganadilar, bu esa avtomatlashtirilgan loyiha tizimlari haqida bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishga asos bo‘ladi. Kurs davomida talabalar "Texnik ijodkorligi" va avtomatlashtirilgan loyiha tizimini (SAPR) dasturlarining yangi imkoniyatlarini o‘rganadilar va hisob-kitob xamda grafik vazifalarini bajaradilar, bu esa ularni kasbiy-pedagogik faoliyat sharoitlariga moslashib borishga imkoniyat yaratadi. Shu jarayonda talabalar uch o‘lchovli modellashtirishni o‘rganadilar, bu esa fazoviy texnik tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar obekt ko‘rinishlarni va kesmalarni qurish, elektron kutubxonalardan foydalanish yani malumotni qidirish, saqlash va qo‘llash ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar, bu esa murakkab grafik modellar va loyiha hujjatlarini yaratish uchun muhimdir. Ushbu tadbirlar talabalar uchun grafik kompetensiyani shakllantirishga mustahkam asos yaratadi, kerakli bilim va amaliy ko‘nikmalarni taminlaydi, bu esa mehnat bozori extiyojlariga mos kadrlar tayyorlashga asos bo‘ladi.

Kompyuter terminologiyasi asosida axborot texnologiyalari sohasida kontentni uchta asosiy guruhga bo‘lish mumkin: grafik (multimedia) kontent; texnik kontent; matnli kontent. Grafik kontent - bu turli turli ko‘rinishdagi rasmlar, fotosuratlar, diagrammalar, chizmalar, sxemalar, shuningdek animatsiya va video. Texnik kontentga texnik xususiyatlar, ekspluatatsiya bo‘yicha ko‘rsatmalar, tadqiqot ma‘lumotlari, raqamli va jadval ma‘lumotlari kiradi. Matnli kontent esa turli xil mazmundagi matnlarni o‘zichiga oladi. DTS muvofiq, bo‘ljak texnologik talim o‘qituvchilari kontent turlari, shu jumladan grafik kontent bilan ishlashni bilishi kerak.

Zamonaviy loyiha tayyorlash texnologiyalari usullari va vositalari kompyuter grafikasi asosida ishlab chiqilmoqda, shuningdek, avtomatlashtirilgan loyiha tizimlaridan (SAPR) foydalaniladi. Inson-mashina interfeysi, avvalambor, grafik interaktiv interfeys hisoblanadi.

Texnologik talim yo‘nalishidagi kompyuter grafikasi dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish, joriy etish va moslashtirish, tasvirlash, konstruksiyalash, loyixalash, modellashtirish yo‘nalishdagi dasturiy ta‘minotni kuzatish va targ‘ib qilish, hamda loyiha faoliyatini ta‘minlash grafik ma‘lumotlar bilan ishlashni bilmay turib uni o‘zlashtira olmaydi.

Endi grafik kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladigan grafik kompetensiyalarni o‘z ichiga olgan tayanch kompetensiyalarni ko‘rib chiqamiz: kelajak kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga ustuvor qiziqishni namoyon qilish; standart va nestandart vaziyatlarda qaror qabul qilish va ular uchun masuliyatni o‘ziga olish; kasbiy vazifalarni samarali bajarish, kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni izlash va foydalanish; kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish; kasbiy va shaxsiy rivojlanish vazifalarini mustaqil ravishda aniqlash, o‘ziga ta‘lim berish, malakani

oshirishni yondashish bilan rejalashtirish; kasbiy faoliyatda texnologiyalarning tez o‘zgarish sharoitlarida moslashish.

Yuqorida zikr etilgan grafik kompetensiyasi kasbiy kompetensiyalardan biri ekanligi to‘g‘risida xulosa chiqarish uchun asos bo‘ladi, bu grafik kompetensiyalar kompyuter grafikasi va informatika modullari doirasida shakllanadi.

Bundan tashqari, ish beruvchilar va bitiruvchilar bilan o‘tkazilgan suhbatlarni, shuningdek, turli kasbiy vazifalarni hal qilish uchun grafik tizimlarni keng ko‘lamda foydalanishni tahlil qilish, grafik kompetensiyani shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoj haqida xulosa qilish imkonini beradi. Shuningdek, chizmachilik, muxandislik grafikasi va kompyuter grafika fanlari o‘qituvchilarining ish samaradorligini tahlil qilish, o‘quv rejalari va fanlar hamda modullar dasturlarini ko‘rib chiqish grafik kompetensiyaning kasbiy kompetentlikning ajralmas qismi xisoblanadi. Grafik ma‘lumot insonning barcha faoliyat sohalarida keng foydalaniladi va ko‘rgazmalilik va kompaktlik bilan tavsiflanadi. Bundan kelib chiqib, grafik kompetensiyani shakllantirish metodikasini, grafik ma‘lumotlarni taqdim etish usullari to‘g‘risidagi bilimlarni takomillashtirish zarur.

“Kompyuter grafikasi” faniga oid o‘quv-metodik majmua quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi: nazariy malumotlar - ushbu material grafik kompetensiyani shakllantirish uchun zarur va etarli bo‘lib, muhandislik grafikasi, chizma geometriya va kompyuter grafikasi asoslarini o‘z ichiga oladi. Mashq qilish uchun kompleks vazifalarni hal qilishga yordam beradi, yani - pedagogga talabalar uchun chizmachilik va konstruktiv ishlarni bajarishni individual ravishda yoki guruxda jamoaviy ravishda, har bir talabaning o‘ziga xos tezligida tashkil qilish imkonini beradi. Mustaqil va ijodiy ishlar esa talabalarni elektron o‘quv-metodik majmuada taqdim etilgan bo‘lib, talabalar uchun amaliy ishlarni bajarishda noyob talim muhitini yaratadi. Ushbu qismlar, talabalarga amaliy ishlarni o‘tkazish uchun, o‘qituvchi bilan birgalikda dars vaqtida yoki mustaqil ravishda bajarish imkonini beruvchi noyob talim muhitini tashkil qiladi. Modulda nazariy qism mavjud bo‘lib, u amaliy ishlarni bajarish uchun metodik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi va shuningdek, bajarilgan ishning elektron variantini taqdim etadi.

Talabalar uchun grafik kompetensiyani shakllantirish jarayonida o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari: Muammoli mazmunli maruzalar: Muammoli xususiyatga ega maruzalar taqdim etilayotgan materialni chuqur tahlil qilish bilan ajralib turadi. Ular talabalar orasida mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi va ularga bilim olish ko‘nikmalarini o‘rgatadi. Trening shakllari: Talabalarni faol ishtirok etishiga imkon beradigan uslublar, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. “Davra suhbatlari”: Bu format talabalar o‘rtasida fikr almashish va muhokama olib borishga imkon beradi.

Xulosa sifatida shuni takidlash mumkinki, grafik kompetensiyalarni shakllantirishda kasbiy-grafik kompetensiyalarni tarkibiy komponentlari (talimiy (o‘quv), ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-metodik va konstruktorlik-texnologik komponentlar) xamda tayanch kompetensiyalar ham muhim rol o‘ynaydi. Ular kelajakda talabalarning kasbga bo‘lgan qiziqishini oshirish; standart va nestandart vaziyatlarda qarorlar qabul qilish va ular uchun masuliyatni o‘z

zimmasiga olish; kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni qidirish va foydalanish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash; kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun mustaqil ravishda vazifalar belgilash va o‘qishni tashkil qilish kabi kasbiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, grafik kompetensiya kasbiy kompetensiyalarning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi haqida xulosa qilinadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qo‘ysinov O.A. «Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari» // T-2019, pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – 245 b.
2. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy va metodik asoslari: Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. – T.: 2007. – 275 b.
3. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo‘jaev A.A., Yusupov B.E. Ta’lim texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent “Voriz” nashriyoti – 2020. 192 b
4. Muslimov Sh.N. "Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy grafik kompetentsiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" T-2020: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.
5. Muslimov Sh.N. "Integratsiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy-grafik kompetentligini rivojlantirish" T-2024: Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi.
6. Мусалимов Т.К. Теоретические и методические основы профессионально-графической подготовки учителя черчения и изобразительного искусства в педагогическом вузе [Электронный ресурс]: Дис. ... д-па пед. наук : 13.00.08. - М.: РГБ, 2005 (Из фондов Российской Государственной Библиотеки) 250 с.
7. Мусалимов Т.К., Алижан А., Бекишева А.Д. Исследование проблемы формирования графической компетентности студентов на занятиях начертательной геометрии и инженерной графики // http://kazatu.kz/ asses/i/science/sf13_shmash_121.pdf.



BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA SCAMPER METODIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Muxidova Olima Nurilloevna

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining transversal kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta‘lim yondashuvlarining o‘rni va ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Zamonaviy ta‘limda talabalarning nafaqat kasbiy bilimlarga, balki transversal kompetensiyalarga ham ega bo‘lishi taqozo etilmoqda. Maqolada innovatsion metodlardan “SCAMPER” metodi asosida transversal kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali usullari, ularning struktura-modellari, baholash mezonlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: transversal kompetensiyalar, SCAMPER metodi, texnologiya fani, dizayn, modellashtirish, tanqidiy fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion metodlar.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА SCAMPER ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТРАНСВЕРСАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье научно обоснованно анализируется роль и значение инновационных образовательных подходов в формировании трансверсальных компетенций у будущих учителей технологии. В условиях современного образования от студентов требуется не только овладение профессиональными знаниями, но и развитие трансверсальных компетенций. В статье освещаются эффективные способы развития данных компетенций на основе инновационного метода “SCAMPER”, а также рассматриваются их структурные модели и критерии оценки.

Ключевые слова: трансверсальные компетенции, метод SCAMPER, предмет технология, дизайн, моделирование, критическое мышление, компетентностный подход, инновационные методы.

METHODOLOGY OF USING THE SCAMPER METHOD TO DEVELOP TRANSVERSAL COMPETENCIES OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS

Abstract. This article provides a scientifically grounded analysis of the role and significance of innovative educational approaches in the development of transversal competencies among future technology teachers. In the context of modern education, students

are required not only to acquire professional knowledge but also to develop transversal competencies. The article explores effective methods for developing these competencies through the innovative “SCAMPER” method and examines their structural models and assessment criteria.

Keywords: transversal competencies, SCAMPER method, technology subject, design, modeling, critical thinking, competency-based approach, innovative methods.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli transformatsiya, mehnat bozori ehtiyojlari va kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining nafaqat kasbiy bilimlari, balki tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, jamoaviy ishlash, innovatsion qaror qabul qilish, axborot bilan ishlash kabi transversal kompetensiyalari ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bois innovatsion metodlar orqali bu kompetensiyalarni shakllantirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Transversal ko‘nikmalar to‘plami faoliyatning bir sohasidan boshqasi bilan farq qilishi mumkin. Masalan, o‘qituvchilar uchun o‘z sohasidagi bilimlari bu uning kasbiy ko‘nikmalari, xorijiy tildagi nutqi, axborot va raqamli texnologiyalardan foydalana olishi bu transversal ko‘nikmalardir. Boshqa tomondan, raqamli texnologiya ko‘nikmalari axborot sohasi xodimlari uchun kasbiy ko‘nikma sifatida qaraladi, aksincha o‘qituvchilar uchun muhim transversal ko‘nikmalardir. Shuningdek, transversal ko‘nikmalar ya’ni 21-asr ko‘nikmalari hisoblanib ta’lim tizimida keng qo‘llanilmoqda.

Ular tanqidiy fikrlash, yetakchilik, axborot va raqamli vositalardan foydalanish, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Ushbu ko‘nikmalar shaxsni rivojlantirish asoslari hisoblanadi va har qanday bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishning muhim qismidir.

Transversal kompetensiyalar bilishning eng murakkab kompetensiyalardan biri bo‘lib, jamiyatda ta’limga qaratilgan asosiy yo‘l sifatida tan olinadi. Ushbu kompetensiya mehnat bozori talablarini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, shuning uchun ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu kompetensiya mehnat kompetensiyasi deb ham ataladi.

Quyida “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fanidan “Ayollar ko‘ylagini texnik modellashtirish” mavzusini o‘qitishda SCAMPER metodidan foydalanishning samaradorlik jihatlari yoritiladi.

SCAMPER metodi (Substitute, Combine, Adapt, Modify, Put to another use, Eliminate, Reverse) — bu innovatsion va ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishga xizmat qiluvchi tizimli yondashuv bo‘lib, “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fanida talabalarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Ushbu metod orqali talabalar mavjud dizayn yechimlarini tahlil qilish, ularni qayta ishlab chiqish, hamda yangicha loyihaviy takliflar yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Metodning har bir bosqichi texnologik dizayn komponentlariga moslashtirilgan bo‘lib, quyidagi shaklda amaliyotga tadbiq etiladi:

1. Substitute (O‘rnini bosish). Mazkur bosqichda talabalar mavjud dizayn elementlarining ayrim qismlarini yangi, funksional yoki estetik jihatdan yaxshilangan variantlarga almashtirish yo‘llarini izlaydilar. *Misol:* Ko‘ylakdagi an‘anaviy yoqa turini asimmetrik yoki ergonomik shakldagi zamonaviy yoqa bilan almashtirish; paxta matosining o‘rniga ipak yoki zamonaviy sintetik matolarni sinab ko‘rish.

2. Combine (Birlashma). Turli dizayn elementlarini o‘zaro integratsiyalash orqali yangi, uyg‘un kompozitsiyalar hosil qilinadi. *Misol:* Ko‘ylak yenglariga milliy bezaklar qo‘shilib, asimmetrik detallar bilan uyg‘unlashtiriladi. Bu esa an‘anaviy va zamonaviy dizayn elementlarining sintezini ta‘minlaydi.

3. Adapt (Moslashtirish). Dizaynni yangi funksional kontekstga moslashtirish orqali uning qo‘llanish doirasi kengaytiriladi. *Misol:* An‘anaviy uzun ko‘ylaklar zamonaviy yoshlar uchun qulay, qisqa va sport uslubidagi variantga aylantiriladi. Bu o‘zgarishlar mato tanlovi, kesim shakli va ergonomik jihatlar orqali amalga oshiriladi.

4. Modify (O‘zgartirish). Dizayn elementlarining shakl, o‘lcham yoki rang jihatidan transformatsiyasi orqali yangi estetik ifoda yaratiladi. *Misol:* Yeng va yoqa qismlarining nisbatlarini o‘zgartirish yoki dizayndagi naqshlar kontrastini kuchaytirish orqali yangi vizual ta‘sirga erishiladi.

5. Put to Another Use (Boshqa maqsadda foydalanish). Mavjud kiyim elementlari boshqa turdagi kiyimlarga moslashtirilib, funksional jihatdan qayta ishlanadi. *Misol:* Klassik ko‘ylak elementlaridan foydalanib, tunika yoki sport uslubidagi kiyim dizayni ishlab chiqiladi.

6. Eliminate (Yo‘qotish). Dizaynni ortiqcha elementlardan tozalash orqali minimalistik va funksional yechimga erishiladi. *Misol:* Ko‘ylakdagi bezak elementlarini olib tashlash orqali soddalashtirilgan, kundalik kiyishga qulay dizayn shakllantiriladi.

7. Reverse (Teskari qilish). Dizayndagi elementlar joylashuvini yoki ularning ishlatilish tartibini teskari tartibda qo‘llash orqali yangi vizual kompozitsiya vujudga keladi. *Misol:* Old bo‘lakdagi naqshlarni orqa bo‘lakka ko‘chirish yoki ko‘ylakning klassik kesimini teskari variant bilan almashtirish orqali yangicha estetik yechim topiladi.

“SCAMPER” metodi asosida dars jarayonini tashkil etish bosqichlari:

1. Topshiriqni belgilash. Darsning ushbu boshlang‘ich bosqichida o‘qituvchi talabalarni “SCAMPER” metodining mohiyati, maqsadi va har bir bosqichi bilan tanishtiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi talabalar bilan interaktiv muloqot olib boradi. Misol sifatida, oddiy ayollar ko‘ylagining texnik chizmasi namoyish etiladi va savol-javob orqali quyidagi savollar muhokama qilinadi:

- Agar bu yoqani boshqa turdagi yoqaga almashtirsak, qanday o‘zgarish yuz beradi?
- Bu ko‘ylakni qanday qilib yoshlar uchun zamonaviylashtirish mumkin?
- Qaysi qismlarni olib tashlab, ko‘rinishni soddalashtirish mumkin?

Bu savollar orqali talabalar SCAMPER metodining har bir bosqichini tushunib olishadi va ularni amalda qanday qo‘llash mumkinligini anglaydilar.

2. Guruhlarga bo‘lish va topshiriqlarni taqsimlash. Talabalar 4–5 kishilik kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruhga bir xil asosiy dizayn (masalan, klassik ayollar ko‘ylagi chizmasi) beriladi. Topshiriq: Har bir guruh “SCAMPER” metodining muayyan bosqichiga asoslangan holda ushbu dizaynga o‘zgarishlar kiritishi kerak. Masalan, ba’zi guruhlar faqat bitta bosqichni chuqur tahlil qiladi (masalan, Substitute – elementni almashtirish); boshqa guruhlar esa bir nechta bosqichni birlashtirib, kompleks yondashuvni qo‘llaydi (masalan, Adapt + Modify).

Har bir guruhga ko‘rsatma kartasi, materiallar ro‘yxati, rasmiylashtirish tartibi va vaqt chegarasi beriladi.

3. Amaliy faoliyat (Loyihalashtirish jarayoni). Guruhlar o‘zlariga berilgan dizayn asosida ijodiy va amaliy ishga kirishadi. Ular SCAMPER metodining tanlangan bosqichlarini amalda qo‘llagan holda:

- yangi elementlar qo‘shish;
- mavjud qismlarni almashtirish;
- dizaynni ma’lum auditoriyaga moslashtirish,
- rang, forma, funksional xususiyatlar bo‘yicha o‘zgarishlar kiritishadi.

Jarayon davomida o‘qituvchi maslahatchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi, texnik va estetik jihatlarni kuzatib boradi.

4. Taqdimot va himoya. Har bir guruh o‘z dizayn loyihasini sinf oldida taqdim etadi. Taqdimot quyidagi asosda olib boriladi:

- SCAMPER bosqichlariga asoslangan kiritilgan o‘zgarishlarning izohi;
- dizaynning funksional, estetik va texnik jihatlari;
- o‘zgarishlarning qanday muammoga yechim bergani va foydasi.

Qolgan guruhlar taqdimot ishtirokchisiga savollar beradi, o‘z fikrini bildiradi va konstruktiv mulohaza bildiradi. Bu bosqichda talabalar nafaqat ijodkor, balki tanqidiy tahlilchi sifatida ham faol ishtirok etadilar.

5. Yakuniy baholash va refleksiya (muhokama qilish). Darsning yakuniy qismida o‘qituvchi va talabalar birgalikda barcha loyihalarni muhokama qiladilar. Muhokama quyidagilarga qaratiladi:

- Qaysi guruhlarning yechimlari eng innovatsion va texnik jihatdan asosli bo‘ldi?
- Qaysi SCAMPER bosqichlari ayniqsa samarali qo‘llanildi?
- Qaysi jihatlar ustida yana ishlash kerak?

O‘qituvchi baholash mezonlarini e’lon qiladi: kreativlik, texnik asoslanganlik, loyihaning amaliy ahamiyati, taqdimot sifati va jamoaviy ish. Refleksiya savollari orqali talabalar o‘zlarining darsdagi faoliyatini tahlil qiladilar va o‘z bilimlarini mustahkamlab oladilar.

Demak, shuni ta’kidlash joizki, “SCAMPER” metodi talabalar ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Bu metod orqali talabalar mavjud dizaynlar asosida ishlash jarayonida yangi, original va funksional yechimlar

ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Har bir o‘zgartirish texnik va iqtisodiy mezonlar asosida baholanishi talab etiladi, bu esa ularning tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Guruhiy ish jarayonida talabalar o‘zaro hamkorlik qilish, fikr almashish, kelishuvga erishish va samarali muloqot yuritish kabi shaxslararo kompetensiyalarni rivojlantiradilar. Ayniqsa, dizayn jarayonida yuzaga kelgan texnik va estetik muammolarni aniqlab, ularga ijodiy yondashuv asosida yechim topish orqali muammoni hal qilish qobiliyatlari mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, “SCAMPER” metodi talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiya qilish imkonini beradi hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida zarur bo‘lgan transversal kompetensiyalarni mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mezirow J. [Transformative learning theory](#). Contemporary theories of learning 2018/3/27, pp.114-128
2. Moos D. C. and A. Ringdal, “Self-Regulated Learning in the Classroom: A Literature Review on the Teacher’s Role,” Education Research International Volume, Article ID 423284, 15 pages, 2012.
3. Mukhidova O. N. (2024). Methods for effective use of information and communication technology in technology lessons. International Journal of Artificial Intelligence, 4(04), 158-161.
4. Mukhidova O. N. (2024). Opportunities for forming transversal competences in higher education institutions. International journal of european research output 3 (6), 220-224.
5. Muxidova O. N. (2023). Pedagogik hamkorlik jarayonida transversal kompetensiyalarning zaruriyati. Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches. International scientific-practical conference. 318-321.
6. Muxidova O. N. (2024). Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarida transversal kompetensiyalarning rivojlanish shartlari. “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami. 263-266.



**TEXNIKA OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA STANDARTLASHTIRISH
ASOSLARI FANINI O‘QITISHDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARDA
METAPREDMET KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAMETODIK
YONDASHUVLAR**

Najmiddinova Yoqutxon Ruxiddinovna
Namangan davlat chet tillar instituti
Gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya
kafedrasi dotsenti yokuthongano@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimida “Standartlashtirish asoslari” fanini o‘qitish orqali bo‘lajak mutaxassislarda metapredmet kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil etilgan. Metodik yondashuvlar sifatida loyihaviy ta‘lim, keys-stadi, fanlararo integratsiya, simulyativ mashg‘ulotlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta‘lim tavsiflangan. Ushbu yondashuvlar orqali bo‘lajak mutaxassislarning muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, jamoaviy ishlash, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Kalit so‘zlar: metapredmet kompetensiyalar, amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim, standartlashtirish asoslari, loyiha usuli, keys-stadi, integratsiyalangan ta‘lim.

**МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕТАПРЕДМЕТНЫХ
КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ
ДИСЦИПЛИНЕ «ОСНОВЫ СТАНДАРТИЗАЦИИ» В ТЕХНИЧЕСКИХ
ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**

Аннотация: В данной статье рассмотрены возможности формирования метапредметных компетенций студентов посредством преподавания дисциплины «Основы стандартизации» в условиях практико-ориентированного обучения. Описаны методические подходы, такие как проектное обучение, кейс-стади, межпредметная интеграция, симулятивные занятия и ИКТ-ориентированное обучение. Указанные подходы способствуют развитию у студентов навыков принятия решений в проблемных ситуациях, командной работы, логического и критического мышления.

Ключевые слова: метапредметные компетенции, практико-ориентированное обучение, основы стандартизации, проектный метод, кейс-стади, интегративное обучение.

METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF METASUBJECT COMPETENCIES IN FUTURE SPECIALISTS IN THE COURSE "FUNDAMENTALS OF STANDARDIZATION" AT TECHNICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: *This article explores the potential for developing meta-subject competencies in students through practice-oriented teaching of the course “Fundamentals of Standardization.” Methodological approaches such as project-based learning, case studies, interdisciplinary integration, simulation-based sessions, and ICT-supported instruction are described. These approaches foster skills in decision-making, teamwork, logical reasoning, and critical thinking among students.*

Keywords: *meta-subject competencies, practice-oriented education, fundamentals of standardization, project method, case study, integrated learning.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida aytib o‘tilgan [1].

Hozirgi zamon sharoitida taraqqiy etgan mamlakatlarning ta’lim muassasalarida shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni, ilmiy-metodik ta’minot va axborot-ta’lim muhitini shakllantirish, oliy ta’lim muassasalari faoliyatining komponentlari bo‘yicha qiyosiy tahlil etish orqali muammolarga yechim topish, ta’lim sifatini oshirishning yalpi boshqaruvi, umumkasbiy va mutaxassislik kompetensiyalariga asoslangan ta’lim berishning intellektuallashtirilgan tizimlari keng joriy etilmoqda. Ta’limning yangi paradigmalariga o‘tish nafaqat bo‘lajak mutaxassislarning o‘zini-o‘zi natijaviy ijodiy rivojlantirishga amaliy yondashuvlarni izlashni, balki ayni jarayonni ta’minlashga imkon beruvchi metodologik asoslarni ham takomillashtirishni taqozo qilmoqda [2].

Jamiyatning innovatsion rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy talablarga mos mutaxassis nafaqat muayyan sohada chuqur bilimga ega bo‘lishi, balki fanlararo kompetensiyalarga, mustaqil va tanqidiy fikrlash, jamoaviy faoliyat, muammolarni hal etish, axborotlar bilan ishlash salohiyatiga ham ega bo‘lishi zarur. Bu kompetensiyalar jahon ta’lim standartlarida “metapredmet kompetensiyalar” yoki “metakompetensiyalar” sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda PQ-4884-son qarorida ta’limda amaliyotga yaqinlashtirilgan yondashuvlar, fanlararo integratsiya, kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish zarurligi ta’kidlangan [3]. Shu jihatdan, amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan “Standartlashtirish asoslari” kabi fanlar orqali bo‘lajak mutaxassislarda metapredmet kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Metapredmet kompetensiyalar tushunchasi ta’limdagi kompetensiyaviy yondashuvning rivoji bilan uzviy bog‘liq. Jahon amaliyotida ushbu tushuncha P.Ya. Galperin, V.V. Serikov, I.A. Zimnyaya, Yu.G. Tatur, Dj. Raven, X. Xekxaufen, L.S. Vygotskiy va boshqalarning asarlarida nazariy jihatdan asoslangan. Ular ta’limning asosiy vazifasi sifatida faqat bilim berish emas, balki shaxsning tafakkur, muloqot, ijtimoiy adaptatsiya va kasbiy mobillik qobiliyatlarini shakllantirishni belgilagan.

Metapredmet kompetensiyalar tushunchasi Zimnyaya I.A. ta’rifiga ko‘ra, “o‘quv fani chegaralaridan tashqaridagi universal bilim va kompetensiyalar tizimi” sifatida ta’riflanadi. Bularga tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammoni hal qilish, muloqot qilish va axborotlar bilan mustaqil ishlash kiritiladi.

Yu.G. Tatur ta’kidlashicha, kompetensiya - bu “fanlararo va faoliyatlararo qo‘llaniladigan qobiliyatlar majmui” bo‘lib, zamonaviy mutaxassis uchun asosiy mezon hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi


Falsafiy asoslar - V.I. Vernadskiy va L.S. Vygotskiyning “faoliyat teoriyasi” hamda ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga tayanadi;

Psixologik asoslar - bo‘lajak mutaxassisning intellektual va ijtimoiy rivojini qo‘llab-quvvatlovchi L.S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” va J. Piage nazariyasi;

Pedagogik asoslar - kompetensiyaviy, amaliy-faol, fanlararo integratsiya, loyihalash va konstruktiv yondashuvlardan iborat;

Ilmiy-amaliy asoslar - “dual ta’lim”, “stajirovka modeli”, “STEM-pedagogika”, “protsessual ta’lim” kabi modellarga asoslanadi.

Umumkasbiy fanlarni o‘qitishda metakompetensiyalar shakllanishi “ta’lim - tadqiqot - amaliyot” uch burchakli integratsiyasini talab etadi (1-rasm). Ta’limni ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘lash, bo‘lajak mutaxassislarning faol ishtirokini ta’minlash, turli sohalarni bog‘lovchi fanlararo mazmunni shakllantirish - metapredmet bilimlar shakllanishining asosiy shartlaridir.



1-rasm. Umumkasbiy fanlarni o‘qitishda «Uch burchakli integratsiya» tuzilmasi

“Standartlashtirish asoslari” fani ushbu talabalarga javob beradigan muhim umumkasbiy fanlardan biri sifatida, bo‘lajak mutaxassislarda sifat, me‘yoriy hujjatlar, texnik tavsiflar, mantiqiy tahlil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu fan doirasida metapredmet kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

“Standartlashtirish asoslari” fanini amaliyotga yo‘naltirilgan usulda o‘qitish jarayonida bir qator samarali metodik yondashuvlar qo‘llashni tavsiya beramiz:

1. Loyihalashtirish texnologiyasi (Project-Based Learning – PBL)

Bunday yondashuv ta‘lim jarayonini loyiha faoliyati orqali tashkil etishni nazarda tutadi. Bo‘lajak mutaxassislar ma‘lum bir hayotiy muammo yechimi ustida ishlaydi, jamoaviy muhokamalar, jamoadagi vazifalar taqsimoti, ma‘lumotlar tahlili va loyiha hujjatlarini tayyorlash orqali “tanqidiy fikrlash”, “jamoaviy hamkorlik”, “mustaqil qaror qabul qilish” kabi kompetensiyalarini rivojlantiradi.

2. Keys-stadi texnologiyasi (Case-study method)

Keys-metod tahlilga asoslangan, tanqidiy fikrlash va yechim taklif qilish qobiliyatini rivojlantiradigan ta‘lim texnologiyasidir. Bu metodda real vaziyatga asoslangan muammoli holat tahlil qilinib, bo‘lajak mutaxassislardan nostandart yechimlar tayyorlash, ularni asoslash, turli pozitsiyalarni qiyosiy baholash talab etadi.

3. Integratsiyalashgan o‘qitish (Interdisciplinary integration)

Metapredmet kompetensiyalar, xususan, fanlararo fikrlash va funksional savodxonlikni rivojlantirishda fanlararo integratsiya muhim ahamiyatga ega. “Standartlashtirish asoslari” fani iqtisodiyot, menejment, metrologiya, axborot texnologiyalari bilan bog‘langanda, bo‘lajak mutaxassislarning ko‘p sohali bilim, qo‘p funksiyali vazifalarni bir vaqtning o‘zida ijobiy hal qilaolish ko‘nikmasi va kompetensiyalarini uyg‘unlashtirish imkoniyati yaratadi.

4. Simulyativ o‘qitish (Simulation-based learning)

Simulyativ ta‘lim real ish jarayonlarini ta‘lim muhitida qayta yaratishga asoslangan. Bunda bo‘lajak mutaxassislar turli rollarni bajaradi: sifat nazorati mutaxassisi, standartlashtirish

injeneri, sertifikatchi, audit xodimi va h.k. Bu usul orqali ularda jamoada ishlash, qaror qabul qilish va amaliyotdagi rollarni tushunish kompetensiyalari rivojlanadi.

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) asoslangan ta'lim

Zamonaviy ta'lim jarayonini AKT vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. "Standartlashtirish asoslari" fanini o'qitishda raqamli platformalar (ISO, GOST, O'zD standarti bazalari), elektron keyslar, onlayn testlar, infografikalar va interaktiv taqdimotlardan foydalanish orqali bilimlar yanada chuqur o'zlashtiriladi va bo'lajak mutaxassislar mustaqil axborot izlash, tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

6. Mushohada va refleksiya (Reflective approach)

Metapredmet kompetensiyalarni rivojlantirishda faqat faollik emas, balki o'zlashtirilgan bilim va kompetensiyalar yuzasidan to'g'ri mushohada qilish, o'z kamchiliklarini tahlil qilish, fikrlarini asoslash qobiliyati ham muhim. Shu maqsadda darslar yakunida refleksiya elementlarini joriy etish, bo'lajak mutaxassislarga "Nima o'rgandim?", "Qanday qiyinchiliklar bo'ldi?", "Kelgusida nimani yaxshilashim kerak?" kabi savollar orqali tahlil berish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bo'lajak mutaxassislarda metapredmet kompetensiyalarni shakllantirishdagi metodik yondashuvlar ta'lim mazmuni va texnologiyalarining fanlararo, amaliy va tanqidiy-analitik xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. metapredmet kompetentlik ta'limning amaliy yo'nalganligini kuchaytirishni nazarda tutadi. Egallangan bilimlarning ahamiyatini nazarda tutgan holda, ulardan amalda foydalanishga ko'proq urg'u beriladi. Bunday yondashuvda ta'lim mazmuni o'zgartiriladi, ta'lim oluvchida yangi imkoniyatlarni shakllantirish, uning shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish nazarda tutiladi, masalan: o'qishga o'rganish, ya'ni o'quv faoliyati sohasidagi muammolarni, shu jumladan, universal o'quv-bilish faoliyati maqsadini, axborotning zaruriy manbasini aniqlash, qo'yilgan maqsadga erishishning maqbul usullarini topish, olingan natijalarni baholash, o'z faoliyatini tashkil etish, boshqa ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash muammolarini yechishga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. –Т., 2017. –Б.39.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги ПҚ–4884-сон қарори "2021–2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида таълим ва тарбия сифатини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида".

<https://lex.uz/docs/5089612>

4. ЮНЕСКО. *Reimagining our futures together: a new social contract for education*. International Commission on the Futures of Education. UNESCO, 2021.

5. Нажмиддинова Ё.Р., Давронова М.У. Бўлажак муҳандис-техникларда касбий тарбия муаммоси. – “Техника ва технологик фанлар соҳаларининг инноватсион масалалари” мавзусидаги халқаро илмий-техник анжумани. ТДТУТФ -2020 йил. 24-бет.

6. Najmiddinova Yo. R., Inamov D. D., Davronova M. U., Inamiddinova D. K. METHODOLOGY OF THE FORMATION OF GENERAL VOCATIONAL TRAINING IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON THE BASIS OF COMPETENCY APPROACH // PALARCH'S JOURNAL OF ARCHAEOLOGY OF EGYPT / EGYPTOLOGY, PJAEE, 17 (6) (2020). – 3663-3679 page. <http://www.palarch.nl/index.php/jae/article/view/1482>

7. Najmiddinova Yo. R. Conditions of Forming Professional Abilities and Skills on Competence Approach among Colleges Students // *Eastern European Scientific Journal*. - Germany, 2018. - №4. - P.196-199.

8. Najmiddinova Yo. R., Ibragimov R. Sh., Yigitaliyev J. A. THE CONCEPT OF ICT COMPETENCE OF PERSONNEL. THE IMPORTANCE OF HAVING ICT COMPLEMENT AND INFORMATION CULTURE // *INTERNATIONAL ENGINEERING JOURNAL FOR RESEARCH AND DEVELOPMENT* - Vol. 5 Issue 2, March 2020... <http://www.iejrd.com>

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

SOCIOCULTURAL DYNAMICS AND EVOLUTION OF MASS MEDIA IN THE DIGITAL AGE

Nozima Eshmirzayeva Bahodir qizi

PhD Candidate in Media and Communication Studies

Karshi State university

Email: eshmirzayevanozima95@gmail.com

Abstract: This article explores the contemporary dynamics of mass media as it evolves in response to globalization, digital transformation, and sociocultural shifts. As a cornerstone of public discourse, mass media has transitioned from traditional broadcast forms to algorithm-driven digital ecosystems. This study examines how media practices adapt across platforms, the impact of technological innovation on information dissemination, and the sociolinguistic and cultural factors shaping media consumption. Using a comparative document analysis approach, this research synthesizes findings from scholarly literature and global case studies. Results reveal a convergence of media forms, increased audience fragmentation, and growing concerns regarding trust, misinformation, and ethical journalism. The study highlights the ongoing tension between corporate interests and public service, suggesting that the future of mass media depends on inclusive, ethical, and culturally aware communication strategies.

Keywords: Mass media, digital communication, globalization, media ethics, media convergence, misinformation, sociolinguistics

СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ ДИНАМИКА И ЭВОЛЮЦИЯ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные динамические изменения в сфере массовых медиа в контексте глобализации, цифровой трансформации и социокультурных сдвигов. Будучи краеугольным камнем общественного дискурса, масс-медиа претерпели переход от традиционного вещания к алгоритмически управляемым цифровым экосистемам. Исследование анализирует адаптацию медиапрактик на различных платформах, влияние технологических инноваций на распространение информации, а также социолингвистические и культурные факторы, формирующие медиапотребление. На основе сравнительного анализа документов исследование обобщает данные из научной литературы и глобальных кейс-стадий. Результаты показывают сближение медиаформатов, рост фрагментации аудитории и усиливающееся беспокойство по поводу доверия, дезинформации и этики журналистики.

В статье подчеркивается сохраняющееся напряжение между корпоративными интересами и общественным служением, делая вывод, что будущее массовых медиа зависит от инклюзивных, этических и культурно осознанных стратегий коммуникации. **Ключевые слова:** массовые медиа, цифровая коммуникация, глобализация, медиаэтика, конвергенция медиа, дезинформация, социолингвистика.

RAQAMLI DAVRDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING SOTSIOMADANIY DINAMIKASI VA EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv, raqamli transformatsiya va sotsiomadaniy o‘zgarishlar ta’sirida rivojlanayotgan zamonaviy ommaviy axborot vositalari (OAV) dinamikasi o‘rganiladi. Jamoatchilik diskursining asosiy tayanchlaridan biri sifatida OAV an’anaviy efir shakllaridan algoritmlar boshqaradigan raqamli ekotizimlarga o‘tmoqda. Ushbu tadqiqot turli platformalarda media amaliyotlarining qanday moslashayotganini, texnologik innovatsiyalarning axborot tarqatishga ta’sirini hamda OAV iste’molini shakllantiruvchi sociolingvistik va madaniy omillarni tahlil qiladi. Taqqoslovchi hujjatlar tahlili usuli asosida olib borilgan bu tadqiqot ilmiy adabiyotlar va global holatlar bo‘yicha natijalarni umumlashtiradi. Natijalar media shakllarining yaqinlashuvi, auditoriya bo‘linishining kuchayishi va ishonch, dezinformatsiya hamda axloqiy jurnalistikaga oid xavotirlarning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Maqolada korporativ manfaatlar bilan jamoatchilik xizmatlari o‘rtasidagi doimiy ziddiyat ta’kidlanib, OAV kelajagi inklyuziv, axloqiy va madaniy jihatdan ongli kommunikatsiya strategiyalariga bog‘liq ekani xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ommaviy axborot vositalari, raqamli kommunikatsiya, globallashuv, media etikasi, media konvergentsiyasi, dezinformatsiya, sociolingvistika.

1. Introduction

Mass media has long served as a vital institution in society—informing the public, shaping perceptions, and mediating cultural exchange. From Gutenberg’s press to global broadcasting networks, the media landscape has reflected each technological era’s values and communication priorities (McQuail, 2010). Today, media’s role is more complex and contested than ever, as digitalization transforms the production, distribution, and consumption of content.

The 21st-century media ecosystem is defined by **convergence**, where newspapers, television, podcasts, and social media co-exist and interact. In this environment, consumers are not merely passive recipients of information; they also **produce, remix, and amplify** content (Jenkins, 2006). Despite the democratic potential of digital platforms, recent years have seen rising concerns about **algorithmic manipulation, information echo chambers, and disinformation**—phenomena that challenge traditional journalism’s truth-telling function (Tufekci, 2015; Wardle & Derakhshan, 2017).

This article investigates the transformation of mass media in a globalized, digital context, focusing on sociocultural patterns, ethical tensions, and evolving audience dynamics. Through

comparative literature review and discourse analysis, the research illuminates both the promises and perils of contemporary media.

2. Review of Literature

Classic media theorists such as **Habermas (1989)** and **McLuhan (1964)** stressed media's role in forming the public sphere and reshaping human consciousness, respectively. **McQuail (2010)** categorizes media functions as surveillance, correlation, cultural transmission, and entertainment.

Castells (2009) and **Jenkins (2006)** discuss the paradigm shift from mass communication to participatory, networked communication. In the digital age, **gatekeeping** shifts from editors to **algorithms**, changing power dynamics in information flow.

3. Methods and Results

This study employed **qualitative document analysis (QDA)** to investigate sociocultural features and patterns in contemporary mass media. A corpus of 40 peer-reviewed articles, institutional reports (e.g., UNESCO, Reuters Institute), and media discourse samples (from outlets like CNN, BBC, Al Jazeera, X/Twitter, and Telegram) were examined. Thematic analysis followed **Braun & Clarke's (2006)** six-phase model, identifying recurring themes in media content, audience responses, and platform strategies.

4. Discussion

The findings demonstrate that mass media is no longer a unified system but a **fluid, multifaceted environment** shaped by sociotechnical, cultural, and economic forces. The **blending of professional and amateur content**, paired with the rise of **AI-generated media**, further complicates issues of authorship, credibility, and regulation.

While platforms like Instagram, X, and Telegram have democratized content creation, they have also **empowered disinformation networks**, giving rise to global crises of truth. Ethical journalism, once upheld through institutional norms, is now in a tug-of-war with engagement algorithms and monetization models.

Cultural representation and language diversity remain key issues. English continues to dominate global media, often at the expense of local languages and perspectives. This linguistic imbalance underscores **media imperialism** and highlights the need for **inclusive communication strategies**.

Furthermore, the research identifies media literacy as a critical pedagogical imperative, equipping citizens with the cognitive tools required to critically engage with and interpret media content. The study also highlights the pivotal role of public-interest journalism in sustaining democratic discourse, calling for increased institutional and policy-level support. Finally, it emphasizes the protection and promotion of local languages and indigenous narratives through targeted media policies, thereby contributing to a more pluralistic, culturally grounded, and ethically responsible global media environment.

Conclusion

Mass media in the digital age is at once **empowering and destabilizing**. Its transformation is not merely technical but deeply social and cultural. As traditional paradigms of gatekeeping and editorial control give way to participatory and algorithmic systems, the public’s relationship with truth, identity, and community is redefined.

This study affirms the necessity of reimagining media ethics, fostering inclusive narratives, and adapting media practices to serve the public good in a hyperconnected world. The challenges are immense—but so are the possibilities.

REFERENCES

1. Braun, V., & Clarke, V. (2006). Using thematic analysis in psychology. *Qualitative Research in Psychology*, 3(2), 77–101.
2. Castells, M. (2009). *Communication Power*. Oxford University Press.
3. Edelman. (2024). *Edelman Trust Barometer 2024*. <https://www.edelman.com>
4. Gozzi, N., et al. (2021). Collective response to media coverage during COVID-19. *Nature Human Behaviour*, 5(5), 693–705.
5. Jenkins, H. (2006). *Convergence Culture: Where Old and New Media Collide*. NYU Press.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARDA XORIJIY TILNI O'QITISHDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI TAHLILI.

Obidova Gulmira Kuzibaevna

TATU Farg'ona filiali xorijiy tillar kafedrası dotsenti

e-mail: guli.obidova.1986@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda ekologik ta'limning zamonaviy metodlari keltirilgan va o'quv jarayonini aniq maqsadlar orqali izchillik bilan yo'naltirish nazarda tutilgan. Maqolada bo'lajak mutaxassislarning ekologik madaniyatga oid bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga oid zamonaviy yondashuvlar, talabalarning kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ekologik nuqtai nazardan yangicha qarashlari, ekologiyani ingliz tilida o'qitishdagi metodlarining samaradorligi, ekologik kompetensiyalarni o'zlashtirish hamda ekologik ta'lim va tarbiya samaradorligini oshiruvchi pozitsiyalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lim, prognozlashtirish, ekologik kompetentlik, ekologik-pedagogik faoliyat, ekologik lug'at, kasbiy kompetensiya.

АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ.

Аннотация: В статье изложены методы экологического образования при изучении английского языка в современной педагогической науке, имеется корректировка учебного процесса с необходимой последовательной ориентацией на четко поставленные цели. А также рассматриваются современные подходы к формированию и развитию экологической культуры будущих специалистов, новые подходы к процессу профессиональной подготовки студентов с экологической точки зрения, эффективная методика преподавания экологии на английском языке, развитие экологических компетенций и позиции.

Ключевые слова: экологическое образование, прогнозирование, экологическая компетентность, эколого-педагогическая деятельность, экологический глоссарий, профессиональная компетенция.

ANALYSIS OF EFFECTIVE METHODS FOR DEVELOPING ENVIRONMENTAL CULTURE THROUGH FOREIGN LANGUAGE TEACHING AMONG STUDENTS OF TECHNICAL SPECIALTIES.

Annotation: *The article highlights the modes of ecological education in learning foreign languages in the teaching of modern science, and there is adjustment of the educational process with the necessary consistent focus on apparent goals. Also discusses modern approaches of developing of ecological culture of future being a specialist, new approaches to the process of professional training of students from an environmental point of views, the effectiveness of methods of teaching ecology in English, intaking of environmental competencies and literacy that enhances environmental education.*

Keywords: *environmental education, forecasting, ecological competence, ecological and pedagogical activity, ecological glossary, professional competence*

KIRISH.

Bugungi kunda bo‘lajak mutaxassislarning ekologik madaniyatini rivojlantirish oliy ta’limining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bo‘lajak mutaxassislarning ekologik madaniyatini shakllantirishga va rivojlantirishga oid zamonaviy yondashuv o‘zining tashkil topishida murakkab yo‘lini bosib o‘tmoqda, bu jarayonda pedagogik faoliyatning mazmuni, maqsadi va vazifalari o‘zgara boshlaydi, ammo o‘z mohiyatini saqlab qoladi, ya’ni talabaning va u yashayotgan atrof-muhitning uyg‘un rivojlangan munosabatlarini tarbiyalash ham ancha ahamiyatlidir. Ammo, bizning jamiyatimiz faoliyati shu paytga qadar tabiatda tuzatib bo‘lmas o‘zgarishlarni birma bir keltirishga qodir, shu bilan ta’lim oluvchilarning ekologik madaniyati dastur talablari darajasida emasligini tasdiqlanadi. Natijada bugun talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish vazifalarini samarali hal etish maqsadida yangi yondoshuvlarni izlab topish zarur.

Asosiy qism. Bo‘lajak mutaxassislarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jamiyatimiz va tabiatning o‘zaro aloqadarligini takomillash-tirishning muhim vazifalaridan biri sifatida, avvalambor, o‘sib kelayotgan avlodning har tomonlama yetuk rivojlanishiga ta’sir qiladi. Ammo barcha bu yondoshuvlar nafaqat til o‘qitish uslubiyoti va ta’lim oluvchilar tarbiyasiga ta’luqli bo‘lishi kerak, balki bo‘lajak mutaxassislarning to‘liq ta’lim jarayonini qamrab olishi kerak. Talabalarning kasbiy tayyorgarligi jarayoniga ekologiya nuqtai nazaridan yangicha qarashlar kiritilishi zarur. Ko‘rib chiqilayotgan jarayonlarni tadqiq etish davrida biz ushbu masalani yechish maqsadida yangi ekologik jarayonga kirisha olish bo‘yicha yondashuv taqdim etdik. Ekologiyani kasbiy o‘qitishning nazariyasi va amaliyoti, tafakkur va fe’l-atvor ekologizasiyasi bo‘yicha o‘quv ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish talabalarning ekologik madaniyatini shakllantirishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada aksariyat olimlar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi olimlari, ingliz tili mashg‘ulotlarida ta’lim jarayonining samarali natijaviyligini ta’minlashga doir bo‘lgan eng ko‘p maqbul va to‘g‘ri o‘qitish tamoyillari, usullari va vositalarini izlamoqdalar.

Muammoni hal qilishga oid fikrlarni (Ekologik muammolarni inson saolmatligiga ta'siri) tizimlashtirish va guruxlashni amalga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi holatni shakllantirishga imkon beradi.

O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy xujumni boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi). Talabalar tomonidan bir qancha maqollar ingliz tilida bayon qilindi. (Earth does not belong to us, we belong to Earth; The Environment makes our Characters; To keep nature a beauty.)

Fikrlarni taklif qiladilar muhokama qiladilar, baxolaydilar va eng optimal fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (ikkita so'zdan ko'p bo'lmagan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

Guruh vakillari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- ☐ yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- ☐ baxtli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- ☐ fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarni aniqlaydilar;
- ☐ shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni qog'oz varaqlaridagi guruhlariga ajratadilar;

☐ ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: jamoning yagona yoki qarama - qarshi holatlari ishlab chiqiladi.

Score- interfaoluslubi talabalarda muammolarni aniqlash qobilyati kognitiv ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, bor manbalar va imkoniyatlardan foydalanib, muammoning yechimini topishni shakllantirishga yo'naltirilgan.

“Contact”-usuli

Treningning maqsadi:

- ☐ O'quv jamoasi ishtirokchilarini bir - biri bilan tanishtirish;
- ☐ Do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish;
- ☐ O'quvchilar o'rtasidagi psixologik to'siqlarni yengishga o'rgatish.

Treningdan kutiladigan natija:

Mazkur trening o'qituvchi va talabalar jamosini, uning xarakteri, ijodiy imkoniyatlari, qobilyatlari, ishga munosabatlari, shuningdek, pedagogik jarayonda kim bilan qanday ishlashni, nimaga e'tibor berishni, kimga nimada yordam berishni, kimni qo'llab - quvvatlashni o'rgatishga imkon yaratadi.[1]

Yuqorida keltirilgan texnologiyalarning muhim aspektlardan biri talabalarda mutaxassisliklari doirasida chet tilida fikrlay olishlaridadir. Shu bilan birga talabalarning sinfdan tashqari ekologik-pedagogik faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish til yo'nalishining eng maqbul tomonlarini amalga oshirilishi bilan bog'liqdir, bunda shaxs kasbiy sifatlari, kasbiy kompetentlikning rivojlanishi mutaxassislar faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir. Taqdim etilayotgan shaxs sifatlari bo'lajak mutaxassis shaxsiga qo'yiladigan asosiy kasbiy-pedagogik yondoshuv sifatida namoyon bo'ladi va bundan muntazam ravishda foydalanish lozim.

Xorijiy tillarni o‘qitishda ekologik ta’lim va tarbiya shakllanishining zamonaviy bosqichi o‘z ichiga bo‘lajak yosh professionallarni shartli ravishda tayyorlash sohasida pedagogik faoliyatning mazmuni, shakli va usullarini takomillashtirishni oladi. Bunda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha mavjud tarbiyaviy faoliyat jihatining bo‘lajak mutaxassislar tayyorgarligi tizimiga moslashishi zarur. Mazkur faoliyat, zamonaviy talablarga muvofiq, yosh mutaxassislarni nazariy-amaliy tayyorlashga aniq yo‘naltirilgan tizimining yaratilishini kutmoqda. Aynan talabalik yillarida, jamoatchilik munosabatlariga nafaqat intellektual va ijtimoiy munosabatlarning joriy etilishining shakllanishi, shuningdek, hayotiy munosabatlarning individual uslubi ham aniqlanadi. Oddiy qilib aytganda, bo‘lajak mutaxassisning kompetensiyalari shakllana boshlaydi, ular bilan mutaxassis o‘z kasbiy faoliyati muhitiga va odatiy hayot tarzi sohasida kirib boradi [2]. Shu bois, talabalarning korxona va kollejlarda o‘z kasbiy amaliyotini o‘tash davrini ko‘paytirish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Imkon qadar shunday kurslarni qo‘shish zarurki, ular talabalarni ekologik madaniyat sohasida shartli ravishda o‘tilishi kerak bo‘lgan amaliy, darsdan tashqari yoki fakultativ mashg‘ulotlariga tayyorlasin.

Ko‘rib turganimizdek, bo‘lajak mutaxassislarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish muammolarining yechimi ko‘p qirrali, ko‘p bosqichli va dinamik jarayon hisoblanib, uni o‘rganish turli pozitsiyalardan amalga oshirilish mumkin bo‘ladi. Mazkur tadqiqotda “ekologik madaniyat”ni mazmuni murakkab va bir xil ma’noga ega bo‘lmaganligi, jiddiy tahlil qilishdagi birgina yondashuv, ya’ni ingliz tilini o‘rganishda ekologik madaniyatning shakllanishi jarayoni berilgan. Bunday yondoshuv ekologik madaniyatli shaxsni tarbiyalash borasidagi muhim vazifalarni yechishda samarali bo‘lishi mumkin, bunda ta’lim oluvchining o‘z xatti-harakatlarining turli oqibatlarini oldindan prognozlashtirish, taqqoslash, aniqlash layoqatlari shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari namoyon etadi.[3] Shunday qilib, oliy ta’limning zamonaviy tizimida inson ekologik madaniyati shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ekologik kompetensiyalarning minimumini o‘zlashtirish oliygohda ekologik bilimlar asoslarini shartli ravishda o‘qitilishi bilan ta’minlanishi mumkin. Yo‘nalishlarga muvofiq, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida atrofimizdagi tabiiy olamni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish bo‘yicha maxsus fanlarni o‘qitish ko‘zlanmoqda. Talabalarda ekologik qonuniylik bilimlari asosida aniq ekologik muammolarni yechishga layoqati va tayyorgarligi sifatida ekologik mas’uliyatni rivojlantirish, faoliyatning ekologik maqsadga muvofiq usullarini egallash, chet tilini shartli ravishda bilish, shuningdek ekologik qadriyatlar tizimini anglash va qabul qilish “Ekologik madaniyat”ning mazmun yo‘nalishi bo‘yicha ta’limning maqsadi va kutilayotgan natijasi hisoblanadi.

Avvalambor tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, aksariyat talabalar (75% ko‘prog‘i) tuman, shahar, mamlakat va dunyodagi ekologik vaziyatlar haqidagi ma’lumotni ta’lim jarayonidan tashqarida, ya’ni teleko‘rsatuvlar (36,8%), kitob, jurnal va gazetalardan (32%), shuningdek otanonasi (17,6%) va do‘stlari (13,6%), orqali olishadi, shunday bo‘lishiga qaramay, 50% dan sal ko‘proq talaba yangi ekologik bilimlarni olishda ta’lim jarayonining muhim rolini

ta’kidlashmoqda. Shu bilan birga talabalar uchun televideniye va atrofdagilarni kuzatishga asoslangan o‘zlarining shaxsiy tajribasi asosiy ustivorliklar hisoblanishini ta’kidlashimiz kerak.

Olingan ma’lumotlar shuni ta’kidlaydiki, televideniye, radio, davriy matbuot, internet va boshqa ommaviy kommunikasiya vositalarida mavjud aynan ekologik tizimi bugungi kunda aksariyat darajada zamonaviy talabalarning ekologik qarashlari, e’tiqodlari va yuksak orzularini shakllantiradi.

Yangi ekologik kompetensiyalarni egallashda ta’lim jarayoni rolining yuqori ko‘rsatkichlari, shahridagi oliy ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim va tarbiya tizimi xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Tahlillarning ko‘rsatishicha, shaharning aksariyat ta’lim muassasalarida (74,7%) ekologiya alohida mustaqil fan sifatida o‘qitiladi. Shunday ekan ta’lim oluvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish bilan birga ekologik ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirish sabablaridan yana biri ekologik materialni o‘rganishda muntazamlilik va uzluksizlik tamoyillariga rioya qilish hisoblanadi.

Ekologiyani o‘rganish 71,8% lisey va kollejlarda ta’limning 1-bosqichidan, 24,7% 2-bosqich, va boryo‘g‘i 3,5% 3-bosqichdan boshlanishi haqidagi fakt ham shunga xizmat qiladi. Ekologik ta’lim va tarbiya tizimining ana shunday xususiyati chet tili bo‘yicha mashg‘ulotlarda ekologik materiallarni o‘tish paytida izchillikni oshirishga olib keladi, bu bilan ta’lim oluvchilarda keng va tizimli ekologik bilimlar olishi uchun imkoniyatlar paydo bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, so‘nggi ko‘p yillar davomida liseylar va kasb-hunar kollejlarida ingliz tili darslarida ta’lim oluvchilarning ekologik ta’limi va tarbiyasi vazifalariga alohida jiddiy e’tibor berib kelinmoqda. Shuningdek, ta’kidlash joizki, chop etilayotgan o‘quv-uslubiy majmualar materiallari bizga ekologiya bilan chambarchas bog‘liq muammolarni tilga oid materiallarning hajm jihatidan cheklanganligi munosabati bilan keng muhokama qilishimiz uchun imkon bermaydi, shu bois mazkur muammo mohiyatining kattaligi sababli ularni ko‘paytirish zarurdir. Ta’limning yuqori bosqichi oxirida ta’lim oluvchilar va talabalarda yetarli darajada keng ekologik lug‘at to‘planishiga qaramay, u o‘qitish vaqtiga nisbatan birmuncha orqaga surilgandir. Shunday qilib, o‘qitila-yotgan materiallar sonini yetarli hajmda ko‘paytirishga imkon borligini qayd etishimiz mumkin.

Insonning atrofimizdagi tabiiy olamga nisbatan mas’uliyatli muno-sabatini sifatli tarbiyalashga shartli ravishda qaratilgan, ekologik, ma’naviy-axloqiy, madaniy qadriyatlarni shakllantirish maqsadini ko‘zlagan zamonaviy ekologik ta’lim talabalarning umumta’lim tayyorgarligi bo‘yicha, jumladan ingliz tiliga o‘qitishda ham majburiy tarkibiy qism-laridan biri bo‘lishi kerak.

Ayni paytda talabalarga ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha yaratilgan majmualar tahlili bizga shuni ko‘rsatmoqdaki, ularning mazmuni kerakli me’yorda talabalarda barcha tirik mavjudotga, umuman tabiat olamiga bo‘lgan insoniy-axloqiy munosabatni tarbiyalashga yordam berishi mumkin. Aksariyat majmualarda mutaxassis uchun o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanish hamda amaliyotda qo‘llash bo‘yicha muayyan tavsiyalar mavjud.

Masalan, o‘qitishning boshlang‘ich bosqichiga tegishli grammatik leksika bilan tanishishning boshlanishini belgilaydi, ya‘ni ingliz so‘zlari va terminlari tayanch lug‘atining shakllanishi boshlanadi. O‘quv-uslubiy majmualar tahlili bizga muayyan qonuniyatni aniqlashimizga imkon beradi, ya‘ni ekologiyaga oid muammolar tarkibiga kiruvchi lug‘aviy material, albatta, yildan yilga ularni qo‘llanilishini kengaytirish orqali ko‘payaveradi. Lug‘at birmuncha murakkab nutqiy sxema yaratish imkonini beradi. Bu quyidagicha aks etadi: talabalarni o‘qitishning boshlang‘ich bosqichida tabiatni tayanch tasvirlashdan biroz mazmunliroq mulohaza qilishga o‘tishadi, shuningdek, o‘qitishning keyingi bosqichlarida ekologiya mavzusini doimiy ravishda rivojlantirib, muhokama qilinayotgan muammolar bo‘yicha o‘z fikrlarini bayon etishadi. Mamlakatlar, hududlarga oid axborotlar esa talabalarda ona-Vatanga muhabbat tuyg‘ularining rivojlanishiga yordam berishi mumkin, bu borada o‘rganilayotgan til mamlakatiga qiziquvchanlik bilan e‘tibor qaratib, ularda vatanparvarlik va internasionalizm tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Ammo, xalqaro tajribalarning ko‘rsatishicha, xorijiy tillarga qiziquvchanlik talabalarda o‘qitishning keyingi jarayonlarida ancha susayishi mumkin, masalan, o‘qitishning boshlang‘ich bosqichida talabalar mazkur fanni o‘rganish borasida katta qiziqish bildirishga qodir bo‘lsa, bunda uning yangiligi asosiy sabab hisoblansa hamda o‘qitish xususiyati shuni taqozo qilsa, o‘rta bosqichda esa qiziqitirish uchun qo‘shimcha sabablarni izlash zarur bo‘ladi. Talabalarning xorijiy tillarga qiziqishining pasayishiga qaratilgan barcha moyilliklar aynan o‘qitishning keyingi bosqichlarida namoyon bo‘ladi, bu esa o‘ziga xos yosh va shaxsiy xususiyatlarga bog‘liqdir. Aynan shu davrda talabalarning ingliz tili bo‘yicha bilim darajasi, tilni o‘rganishda paydo bo‘lgan muammolarni yechishda ko‘plab shaxsiy imkoniyatlarini aniqlay boshlaydi. Fikrimizcha, aksariyat talabalarda ingliz tiliga oldindan bo‘lgan qiziqish yo‘qolishining aniq sabablaridan biri - ingliz tiliga tabiiy ehtiyojning mavjud emasligi hamda uni amaliyotda qo‘llashda aniq imkoniyatlarning yo‘qligidir.

Ma‘lumki talabalarning xorijiy tillarni egallashni intilishidagi faolligi real sharoitda ahamiyatli emas. Talabalarning xorijiy tillarni o‘rganishlarida ularning doimiy va tizimli ishlamasliklari, shuningdek kommunikativ muloqotning real vaziyatlari mavjud emasligi sharoitida chet tilini egallash imkoniyatiga ishonchning bo‘lmasligi o‘qishga qiziqishning yo‘qligi sabab bo‘lishi mumkin. Talabalar uchun ingliz tilini amalda qo‘llay olish imkoniyatlari ila o‘zlashtirish natijaviyligini his qilish ayniqsa muhimdir. Biz ingliz tili mutaxassisining faoliyati texnologik darajada o‘tishining muhim mezonlarini aniqlab berishimiz zarur:

- xorijiy tillarni o‘qitishda kutilayotgan natija sifatida odob bilan o‘lchanadigan tasavvurlar, tushunchalar, operasiyalar hamda talabalar faoliyati bilan aniq belgilangan maqsadning, shuningdek qo‘yilgan maqsadga erishishning natijaviy tashxisi uslublarining mavjudligi;

- xorijiy tillarni o‘rganishni bilish amaliy vazifalari va ularning yechim yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi aniq tizim shaklida taqdim etish zaruriyati;

- xorijiy tillarni materiallarni o‘zlashtirishning barcha bosqichlarida qattiq izchillik va logikaning zarur mavjudligi;

- har bir o‘qitish bosqichida talabalarning axborot texnikasi bilan o‘zaro munosabatga kirishishida o‘zaro aloqadorligi usullarini ko‘rsatish imkoniyati;
- talabalarning kreativligi va tanlash erkinligini aks ettiruvchi, shaxsga yo‘naltirilgan funksiyalarini amalga oshirishiga asoslangan faoliyatida motivasiyaning mavjudligi;
- ta’lim jarayonida fe’l-atvorning belgilangan insoniy qoidalariga mutanosibligi;
- ta’lim jarayonida axborotlarni qayta ishlash va taqdim etishning innovasion vosita va usullaridan foydalanish;
- o‘qitish jarayoni boshqarilishi ustidan nazorat;
- yakuniy natijaning kafolatlanganligi.

Xulosa va takliflar. Shu tariqa qayd etishimiz mumkinki, ingliz tilini o‘qitishdagi ta’lim texnologiyalari nafaqat pedagogik jarayonni boshqarish mexanizmini, balki talaba shaxsiga ta’sir etuvchi muayyan mexanizmlarni ham loyihalashtiradi.

Oliy ta’limni modernizatsiyalash jarayonida esa shaxsning va butun jamiyatning ekologik madaniyati vujudga kelishida dunyoqarashning bir butunligi shakllanishi va amalga oshirilishi har qanday ta’lim tizimining ustuvorligi hisoblanadi. Bu borada ta’lim oluvchilarni ekologik tayyorgarligining samaradorligi quyidagi bajarilishi zarur bo‘lgan quyidagi tadbirlar bilan bog‘liqdir:

- shaxs ekologik madaniyati shakllanishi va rivojlanishi vazifalarini anglash zarur;
- talabalarning insoniylik dunyoqarashlarini rivojlanishini ta’minlash orqali o‘quv fanlari mazmunini integratsiyasining mumkinligi, bu bilan ekologik talabning alohida o‘ringa ega qadriyatli-motivasion oriyentirlarning to‘liq rivojlanishi amalga oshiriladi;
- o‘quv-uslubiy rejaga o‘qitishning har bir bosqichida joriy qilishni ko‘zlagan holda integrativ o‘quv kurslari yoki fakultetlarni kiritish zaruriyati, bu bilan ekologik ta’limda o‘qitishning uzluksizlik tamoyili amaliyotda amalga oshiriladi;
- oliy ta’lim muassasalarida muayyan ekologik ta’lim muhitini yaratish zaruriyati, buning natijasida talabalarning ekologik madaniyati shakllanishining shartlari atrofimizdagi tabiat olamiga qattiq ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, xorijiy til mashg‘ulotlarida olinadigan zamonaviy ekologik ta’lim xalqaro tashkilotlarda eng yuksak darajadagi samimiy qiziqish va harakatlar predmeti bo‘lib qolmoqda. Ekologik ta’limning global va shunga muvofiq umuminsoniy ahamiyati odamlarning va jamoatchilikning ekologik ongini konstruktiv ravishda isloh qilishning muhim vositasi sifatida atrof-muhitning dolzarb muammolari bo‘yicha o‘tkazilayotgan deyarli barcha xalqaro anjumanlarda ko‘rsatilishi mumkin.

Konstruktiv yagona ta’lim jarayonini yaratish doirasida biz yagona ekologik jarayon yaratilishi, insonlarning umumiy mas’uliyati haqida ham so‘z yuritishimiz mumkin, va shu bois chet tili turli xalqlar o‘rtasida muloqot va anglashning universal vositasi bo‘lishi mumkin. Bu esa insonni boshqa madaniyatlarga, jumladan ekologik madaniyatga jalb qilish vositasi bo‘lishi mumkin.

“Xorijiy til” o‘quv fani, bizning tadqiqotimiz orqali, ma’naviy-axloqiy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishda keng qamrovli imkoniyatlari, shuningdek zamonaviy polimadaniyat jarayonida har bir insonni shaxsiy va ijtimoiy o‘zini-o‘zi anglashiga tayyorgarligi bois, aynan o‘rganilayotgan muammo yechimiga o‘zining munosib ulushini qo‘shishi zarur bo‘lgan fanga aylanadi. Ekologik ta’limning taqdim etilgan o‘quv fani doirasidagi maqsadi ekologik kompetentlikning shakllanishidir, ya’ni jahon ekologik inqirozi dolzarb muammolarini jonli tabiat bilan o‘zaro uyg‘un aloqalarni rioya qilish barobarida atrofdagi tabiat olami sifatini yaxshilash imkoniyatlari bilan yechishda o‘zining alohida rolini anglab yetishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishmuxammedov R.J, Yuldashev M Ta’lim va tarbiyada innovasion pedagogik texnologiyalar – T.: Toshkent, 2017.- 169, 182, 212 b.
2. Obidova, G. K. (2022). INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANISHINI TA’MINLOVCHI OMILLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 20), 124-129.
3. Обидова, Г. (2021). Развитие экологической культуры в образовательных моделях развитых стран мира. *Общество и инновации*, 2(10/S), 251-256.
4. Obidova, G. K., & Gaybullayeva, M. F. (2021). Xorijiy tillarni o‘qitishda ekologik ta’limning pedagogik psixologik imkoniyatlari.
5. TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. D Raximjonova, A Xolmurodov - *Engineering problems and innovations*, 2023
6. Raximjonova, D. (2022). INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KOMPOZITSIYA USULIDA SO‘Z YASALISHI HODISASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(4), 710-713.
7. Обидова, Г. К. (2016). Закономерности и принципы становления и развития экологической культуры будущих учителей в системе педагогического образования. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (3-5), 82-85.
8. Обидова, Г. К. Гуманизация и интеграция в экологизации образовательного процесса. *ХАБАРИШЫСЫ*, 55.
9. Хасиханов М.С. Развитие экологической культуры преподавателей вузов // *Педагогика (Кадры науки, культуры, образования)*. – М., 2007. - № 5. – С. 65
10. Kuzibaevna, O. G. (2020). TECHNOLOGIES OF DEVELOPING THE ECOLOGICAL CULTURE OF STUDENTS IN THE PROCESS OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Solid State Technology*, 63(1s), 1816-1825.



TALABALARNING UMUMTEXNIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING ZARURATI

Parmonov Abdutolib Abduvahob o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali dotsenti, PhD

pabdutolib@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’limda an’anaviy va innovatsion yondashuvlar solishtirilib, ularning bo‘lajak muhandislarning umumtexnik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning mazmuni ochib beriladi. Pedagogik jarayonda interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, loyiha va tadqiqot asosida o‘qitish, STEAM kabi innovatsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. an’anaviy yondashuv, innovatsion yondashuv, umumtexnik kompetentlik, STEAM ta’lim, loyiha asosidagi ta’lim, raqamli texnologiyalar, muhandislik fikrlash.

НЕОБХОДИМОСТЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В РАЗВИТИИ ОБЩЕТЕХНИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье сопоставляются традиционные и инновационные подходы в образовании, а также раскрывается содержание инновационных подходов в формировании и развитии общетехнической компетентности будущих инженеров. Анализируется эффективность таких инновационных подходов, как интерактивные методы, цифровые технологии, обучение на основе проектов и исследований, а также STEAM-образование.

Ключевые слова: традиционный подход, инновационный подход, общетехническая компетентность, STEAM-образование, проектное обучение, цифровые технологии, инженерное мышление.


THE NEED FOR INNOVATIVE APPROACHES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' GENERAL TECHNICAL COMPETENCE

Abstract. This article compares traditional and innovative approaches in education and reveals the content of innovative approaches in forming and developing future engineers' general technical competence. The effectiveness of innovative approaches such as interactive methods, digital technologies, project- and research-based learning, and STEAM education is analyzed.

Keywords: traditional approach, innovative approach, general technical competence, STEAM education, project-based learning, digital technologies, engineering thinking.

Kirish. Mamalakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining so‘ngi o‘n yilligida raqamli texnologiyalar, barcha sohalarida innovatsiyalarni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. Buning asosiy sababi bugungi zamonaviy jamiyatimizning iqtisodiy qudratini oshirish, global raqobatbardoshlikni kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, aholi uchun qulaylik yaratish kabi islohotlarni amalga oshirish uchun asosiy shart bo‘lmoqda. Bularni barchasini ishlab chiqarish, yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan iqtisodiyot tarmoqlari, korxonalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu zamonaviy jihozlarni albatta yuqori malakaga ega kadrlarsiz boshqarish va iqtisodiy yutuqlarga erishish mumkin emas. Shu boisdan muhandislik ta‘limiga ega oliy ta‘lim muassasalari oldi yuksak mas‘uliyat yuklaydi. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda ta‘lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim strategik yo‘nalishga aylangan. Xususan, texnik soha bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarni **umumtexnik kompetentligini** shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashni talab etadi. Bunda innovatsion yondashuvlar - talabaning texnik tafakkuri, amaliy ko‘nikmalari va ijodiy yondashuvini rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy texnik ta‘lim jarayoni talabalarning nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishini, balki amaliy ko‘nikmalar, texnologik savodxonlik, kreativ fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatlarini shakllantirishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan olganda, talabalarning umumtexnik kompetentligini shakllantirishda qanday ta‘lim yondashuvi afzal ekani dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Bugungi kunga kelib ta‘lim, ijtimoiy, iqtisodiy, umuman barcha sohalar asta-sekinlik bilan raqamli iqtisodiyotga o‘tkazilmoqda. Bulardan eng asosiysi ta‘lim sohasini yaqqol misol qilib keltirishimiz mumkin. Chunki ta‘lim tizimi kundan kunga yangilanib turishi lozim. Sababi shundaki, zamonaviy yondashuvlar asosida qurilgan darslar hech qaysi o‘quvchining diqqatidan chetda qolmaydi [1].



1-rasm. An'anaviy yondashuvning o'ziga xususiyatlari

Bizga ma‘lumki, an‘anaviy ta‘lim yondashuvida o‘qituvchi markaziy ro‘l o‘ynaydi va qat‘iy tartibga ega hamda bilimlarning tayyor holatda uzatilishiga asoslangan model qo‘llaniladi (1-rasm).

Ushbu yondashuvning ijobiy jihati shundaki, u nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga imkon beradi. Biroq, texnik yo‘nalishdagi talabalarda zarur amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, jamoaviy ishlash, yangi texnologiyalar bilan ishlash kabi kompetensiyalarni shakllantirishda samarasiz bo‘lishi mumkin. Bugungi davrda axborot raqamli texnologiyalariga oid bilimlarga ega bo‘lmay turib zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirib bo‘lmaydi. Talabalarda zaruriy bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari ularni keyingi hayotga tayyorligining bosh mezoni hisoblanadi. Bu sharoitda zamonaviy ta‘limning maqsad va vazifalari ham o‘zgarib boryapti, an‘anaviy ta‘lim yondashuvidan bugungi asr yondashuviga, ya‘ni shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limga o‘tilmoqda. Bunday ta‘lim yondashuvining asosida talaba-yoshlar shaxsining to‘la rivojlanishi, tez o‘zgaruvchan hayotga har tomonlama tayyor bo‘lishi, ularning mustaqil ravishda bilim olish ko‘nikmalarini, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ulkan axborot makonida ma‘lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan to‘g‘ri izlash, tanlab olish, ma‘lumot ustida qayta ishlash, oldida turgan muammolarni nafaqat ko‘ra bilish, balki ularni og‘zaki ifodalash va hal eta olish yotadi [2]. Biroq yana bir olimimiz o‘qituvchi axborot kompetentligining asosiy ko‘rinishlaridan biri uning o‘z tajribasini taqdim eta olish qobiliyatidir. O‘qituvchilar ishchi dasturlari, hisobotlar va boshqa xujjatlarni kompyuterda bajara olishi, ularni innovatsiyalarga tayyor bo‘lgan malakali mutaxassis sifatida tavsiflaydi. Umuman olganda esa yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘quv jarayoniga tatbiq etishi an‘anaviy texnologiyalardan voz kechish kerakligini bildirmaydi. Ular o‘zaro hamjixatlikda qo‘llanilishi lozim [3] degan fikrlarni bayon etadilar. Yana boshqa o‘zbek olimlarimiz, an‘anaviy ta‘limda o‘qituvchi bilim manbai sifatida biryoqlama axborot yetkazuvchi bo‘lib qoladi, talaba esa faqat eslab qolish va takrorlashga majbur bo‘lishi, o‘quvchining faolligi emas, balki o‘qituvchining ustunligi ustiga qurilgan modelligi, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish emas, balki axborotni yetkazishga asoslanishi bilan baholaydilar.

Xorijiy olimlar J.S.Bruner[4], J.Dewey[5], P.Freire[6], L.S.Vygotsky[7], B.F.Skinner[8]lar an‘anaviy ta‘lim yondashuvi ko‘proq avtoritar va o‘qituvchi markazli model sifatida qaraladi. U ko‘p hollarda nazariy bilim berish, reproduktiv faoliyat, passiv o‘rgatish, o‘zaro muloqotning yo‘qligi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Jumaladan John Dewey o‘zining “Experience and Education” asarida an‘anaviy ta‘limni avtoritar, qat‘iy tuzilgan va talabaning faoliyatini cheklovchi yondashuv deb ta‘riflagan. Bu uslubda talaba faqat “bilim oluvchi” bo‘lib, faoliyatga jalb qilinmaydi [5] deya fikr yuritgan. Freire “Pedagogy of the Oppressed” asarida an‘anaviy ta‘limni “bank modeli” deb ataydi. Ya‘ni, o‘qituvchi bilimni talabaga “joylaydi”, talaba esa uni yodlab oladi. U bu modelni tanqid qilib, dialogga asoslangan, talabani faol subyektga aylantiruvchi ta‘limni ilgari surgan [6].

Albatta an‘anaviy ta‘lim tarixiy ma‘lum bir davrlarda eng kuchli yondashuvlardan bo‘lgan, biroq hozirgi globallashuv asrida bu usullar yordamida dars jarayonlarini tashkil etish

anchayin talabani darsdan zeriktirib qo‘yishi, fanga bo‘lgan qiziqishlarini so‘ndirib qo‘yishi muammoli masalalardan biridir. Shu bois talabalarni faolikka chorlaydigan, ularni fan olamiga kirishga undaydigan, motivatsiya beradigan innovatsion yondashuvlar va ta‘lim texnologiyalarini pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqishni talab qilmoqda.

Bugungi kunda barcha sohalarda texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda, shu jumladan ta‘lim sohasida ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta‘lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali ta‘lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zamon talabi hisoblanadi [2]. Bu esa bugungi ta‘lim tizimida, ta‘lim maqsadiga mos bo‘lgan va ro‘yobga chiqara oladigan yangi-yangi innovatsion yondashuvlarga asoslangan ta‘lim texnologiyalarini yaratilishiga sabab bo‘ladi. Yuqorida an‘anaviy yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklari haqida ma‘lumot berildi. Endi hozirgi kunda jarangdor eshitilayotgan innovatsiya, innovatsion yondashuv haqida to‘xtalib o‘tsak.

Bugungi kun auditoriyalari o‘n yil, o‘n besh yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta‘lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi Respublikamizda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo‘lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Raqamli avlod ota-onalarimiz o‘rgangan uslubda o‘qitilishi mumkin emas va bo‘lmasligi ham kerak. Bu avlodni o‘qitishda eskicha texnologiyalar (qora doska va oq bo‘r)dan foydalanish ham mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo‘rni markerga o‘zgartirish hech narsani o‘zgartirmaydi, ya‘ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo‘la olmaydi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta‘lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali ta‘lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zamon talabi hisoblanadi[9].

Ta‘lim jarayonlariga innovatsiyalarni qo‘llash juda qadim zamonlardan qo‘llanilib keladi desak mantiqan to‘g‘ri fikrlagan bo‘lamiz. Innovatsion yondashuvlar ta‘limda tadqiq qilina boshlangan davr bir necha o‘n yilliklarga borib taqaladi. 20-asrning o‘rtalaridan boshlab, ta‘limda innovatsiyalar va yangi metodikalar joriy etishga alohida e‘tibor qaratila boshlandi. 1950-1960-yillarda ta‘limda texnologik yondashuvlar, kompyuterlar va elektron qurilmalarning qo‘llanilishi boshlangan, bu esa ta‘lim metodlarida yangiliklarning kiritilishiga olib keldi. 1970-1980-yillarda esa konstruksion yondashuvlar, jamoaviy ishlash va ta‘limni shaxsiylashtirish kabi innovatsion metodlar sinovdan o‘tdi. Shuningdek, 1990-yillardan boshlab interaktiv texnologiyalar va raqamli resurslar ta‘limda keng qo‘llanila boshlandi, bu esa ta‘limda yangiliklarning jarayonini tezlashtirdi. Shu bilan birga, pedagogik tadqiqotlarda, ayniqsa, ilmiy

va texnik ta’limda yangiliklar va innovatsiyalarni qo‘llash borasida ko‘plab zamonaviy yondashuvlar va metodologiyalar ishlab chiqildi.


Innovatsiya (inglizcha. innovationas - kiritilgan yangilik, ixtiro) - 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi [10].

Innovatsion yondashuvlarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi borasida Kanada, AQSH va boshqa rivojlangan davlatlardagi nufuzli universitetlar, jumladan, Harvard University, North Carolina State University, Bloomsburg University olimlari tomonidan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, Bloomsburg University olimi Karl Kapp ta’limda o‘yin elementlarini qo‘llash orqali talabalarni o‘qishga jalb etish, ularning motivatsiyasini oshirish va bilimlarni mustahkamlash imkonini beruvchi “serious games” konsepsiyasini asoslagan [11].

Barbara Oakley esa texnik fanlarni o‘zlashtirishda guruhli faoliyatning o‘quv samaradorligiga ta’sirini o‘rganib, birgalikda ishlash orqali murakkab kontsepsiyalarni chuqurroq anglash mumkinligini ko‘rsatgan [12].

Richard M. Felder va Rebecca Brent tomonidan esa STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) yo‘nalishlarida faol o‘qitish usullari, kurs dizaynini takomillashtirish, baholash mezonlarini aniq belgilash hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan [13].



2-rasm. Innovatsion yondashuvning o‘ziga xususiyatlari

Shuningdek, Eric Mazur (Harvard University) tomonidan ishlab chiqilgan “Peer Instruction” metodi dars jarayonida talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Bu yondashuv orqali talabalar o‘rtasida savol-javob va muhokamarlar vositasida chuqur tushunish, tanqidiy fikrlash va bilimlarni tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi [14].

Innovatsiya-yangilik kiritish, yaratish. An’anaviy ta’limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiyadir [15].

“Innovatsion ta’lim” deganda, odatda, o‘quv tarbiya jarayoniga foydali, samarali yangiliklar olib kirish tushuniladi [16].

Ta’lim jarayonini amalga oshirishda qo‘llanilgan yangi texnologiyalar va zamonaviy metodlar o‘quvchilarni yangi bilimlarni o‘zlashtirishga undaydi desak adashmagan bo‘lamiz. An’anaviy va innovatsion ta’limning birgalikdagi uyg‘unligi, ta’lim sifatining yaxshilanishiga keng imkoniyat yaratadi [17].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarga asoslanib, **umumtexnik fanlarga “innovatsion ta’lim” yondashuvlarini** qanday samarali qo‘llash mumkinligini quyidagi 1-jadvalda ko‘rib o‘tishimiz va ilmiy-nazariy asoslangan yondashuvlarni taklif qilish mumkin:

№	Yondashuv nomi	Asoschi olim	Qo‘llash imkoniyati	Misollar
1	“Serious games” konsepsiyasi	Karl Kapp (Bloomsburg Univ.)	- O‘yin shaklidagi topshiriqlar orqali murakkab tushunchalarni o‘rganish. - Interaktiv o‘yinlar orqali bilimni mustahkamlash.	– “Quvvat va energiya” mavzusida virtual o‘yin. – Kuchlanish-deformatsiya diagrammasi asosida “virtual test” o‘yini.
2	Guruhiy o‘rganish samaradorligi	Barbara Oakley	- Kichik guruhlarda loyiha va laboratoriya ishlari. - Birgalikda muammoli savollarni tahlil qilish.	– Mashina detallarini loyihalash guruh ishi. – Real sanoat muammosini “case-study” asosida yechish.
3	STEMda faol o‘qitish	Richard Felder & Rebecca Brent	- Faoliyatga asoslangan topshiriqlar. - Darsda interaktiv ishtirok va mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish.	– Dars boshida viktorina, o‘rtasida “Stop & Think”, oxirida refleksiya. – Kuchlar muvozanatini doskada hisoblash va taqqoslash.
4	“Peer Instruction” yondashuvi	Eric Mazur (Harvard Univ.)	- Talabalar o‘zaro fikr almashadi, savollar muhokama qilinadi. - Tanqidiy fikrlash va tushunishni chuqurlashtirish.	– “Nyutonning ikkinchi qonuni”ga oid savolni avval individual, keyin juftlikda tahlil qilish.
5	Innovatsion va an’anaviy usullar uyg‘unligi	Umumiy yondashuv	- Ma’ruza + interaktiv topshiriqlar + loyiha ishlari. - Talabani har tomonlama faol ta’limga jalb qilish.	– Ma’ruzani animatsion video bilan takrorlash. – So‘ng “konstruktiv bahs” orqali yangi mavzuni o‘rganish.

1-jadval. Innovatsion ta’lim yondashuvlarining umumtexnik fanlardagi qo‘llanilishi

Yuqorida keltirilgan xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari innovatsion yondashuvning mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Umuman olganda, innovatsion yondashuvlar - bu an’anaviy ta’lim uslublarini zamonaviy texnologiyalar, psixologik-pedagogik yangiliklar, o‘quvchilarning individual xususiyatlari va jamiyat talablariga mos

holda qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish jarayonidir. Bunday yondashuvlar 2-rasmda keltirilgan xususiyatlari bilan ajralib turadi.

An‘anaviy va innovatsion yondashuvlar asosida ta‘limni tahlil qilish asosida 2-jadvalda har ikki yondashuvning yutuqlari va kamchiliklari keltirilgan:

Yondashuv	Yutuqlar	Kamchiliklar
An‘anaviy	Mustahkam bilim asoslari yaratadi.	Talabalarni faqat nazariy bilimlar bilan cheklaydi.
	O‘qituvchi tomonidan nazorat kuchli, o‘quv jarayoni tartibga solingan.	Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda cheklovlar mavjud.
	Tushunish va qabul qilish jarayoni aniq, strukturalangan.	O‘quvchilarning kreativ fikrlashini cheklaydi.
	Tez va oson baholash imkoniyatlari mavjud (yaxshi o‘lchov tizimi).	Darslar repetitiv va monoton bo‘lishi mumkin.
	Tajribali o‘qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi.	Talabalarning o‘zlashtirish darajasi individual farqlarni hisobga olmaydi.
Innovatsion	1. Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga e‘tibor qaratadi.	Resurslar va vaqt talablari yuqori bo‘lishi mumkin.
	2. O‘quvchilarning kreativligi va mustaqilliklarini oshiradi.	An‘anaviy baholash tizimiga qaraganda murakkabroq baholash mexanizmlari kerak.
	3. Yangi texnologiyalar va metodikalar bilan o‘quv jarayonini boyitadi.	Barcha talabalarda texnologiyalarni qo‘llay olish darajasi bir xil emas.
	4. Talabalarni amaliyotga yo‘naltiradi, real hayot vazifalariga tayyorlaydi.	Innovatsion usullarni joriy etish uchun o‘qituvchilarni tayyorlash zarur.
	5. O‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.	Talabalar uchun murakkab va qiyin bo‘lishi mumkin, ba‘zan o‘zlashtirish qiyin.

2-jadval. An‘anaviy va innovatsion yondashuvlarning solishtirma jadvali

Xulosa va tavsiyalar. Umumtexnik fanlarni o‘qitishda innovatsion ta‘lim yondashuvlaridan foydalanish – zamonaviy ta‘lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Karl Kappning “serious games” konsepsiyasi orqali o‘yin elementlarini ta’limga integratsiya qilish, Barbara Oakley tomonidan asoslangan guruhli o‘rganish samaradorligi, Felder va Brentning faol o‘qitish yondashuvlari hamda Eric Mazurning “Peer Instruction” metodi talabalarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol fikrlash va amaliyotga tayyorlaydi.

Innovatsion metodlar an’anaviy uslublar bilan uyg‘unlashganda, ta’lim sifati sezilarli darajada oshadi. Talabalar mavzuni nafaqat nazariy jihatdan, balki real muammolarni hal qilishda ham chuqurroq anglab yetishadi. Bu yondashuvlar texnik fanni faqat o‘rganiladigan predmet emas, balki hayotiy, amaliy va ijodiy faoliyatning bir qismi sifatida qabul qilishga yordam beradi.

Shunday qilib, umumtexnik fanlarda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash – bu nafaqat bilim berish, balki talabalarni **mustaqil fikrlovchi, muammolarni hal qiluvchi va jamoada ishlay oladigan mutaxassis** sifatida shakllantirish yo‘lidir.

Ta’lim tizimida har ikki yondashuv ham o‘zining ahamiyatiga ega. An’anaviy yondashuv mustahkam nazariy bilimlar asosida yaxshi ishlaydi va aniq baholash imkoniyatlarini taqdim etadi, ammo amaliy ko‘nikmalar va kreativ fikrlashni rivojlantirishda kamchiliklari mavjud. Innovatsion yondashuv esa o‘quvchilarning ijodkorligini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, lekin uning amalga oshirilishi ko‘proq vaqt, resurslar va o‘qituvchilarning tayyorlanishini talab qiladi.

Ideal ta’lim jarayoni har ikki yondashuvning kombinatsiyasidan foydalanishi kerak: nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratish, shuningdek, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga qarab, an’anaviy va innovatsion yondashuvlarni mos ravishda qo‘llash muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nuriddinov, A. (2025). Ta’limga tizimiga zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar. B Yangi O‘zbekiston Pedagoglari Axborotnomasi (T. 3, Выпуск 3, cc. 66–68). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15128846>
2. Xudayberdiyev, A. (2023). Talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni. Ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar: ilg‘or xorijiy tajribalar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 73-76.
3. Eshquvatov, K. (2023). O‘qituvchilarda axborot madaniyatini shallantirish asoslari. Ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar: ilg‘or xorijiy tajribalar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 64-66.
4. Bruner, J. S. (1960). The Process of Education. Harvard University Press.
5. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
6. Freire, P. (1970). Pedagogy of the Oppressed. New York: Herder and Herder.

7. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
8. Skinner, B. F. (1954). *The Science of Learning and the Art of Teaching*. Harvard Educational Review, 24(2), 86–97.
9. Parmonov, A. (2022). Talabalarga zamonaviy ta’limni raqamli texnologiyalar yordamida berishning pedagogik zarurati. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 202–204. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5152>
10. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. 199-b. Toshkent:. 2000.
11. Kapp, K. M. (2012). *The gamification of learning and instruction: Game-based methods and strategies for training and education*.
12. Oakley, B. (2003). *Coping with hitchhikers and couch potatoes on teams*. Journal of Student Centered Learning, 1(1), 9–13.
13. Felder, R. M., & Brent, R. (2016). *Teaching and learning STEM: A practical guide*.
14. Mazur, E. (1997). *Peer instruction: A user's manual*. Prentice Hall. <https://doi.org/10.5860/choice>.
15. Homidova, Sh. (2023). Ta’lim jarayoniga innovatsion yondoshuvlar Farg‘ona ishchi kasb-hunar maktabi. Международный научный журнал №9 (100), часть2 «Научный импульс» апреля, 1089-1094.
16. Turg‘unboyev K., Ortiqova M. (2011). Ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar. Ilmiy xabarnoma, AnDU, №1, 85-87.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

FATTOHXON MAMADALIYEVNING USTOZ-SHOGIRDLIK AN‘ANALARI YO‘NALISHDAGI FAOLIYATI

Andijon davlat universiteti
Toxirov Botirbek G‘ofurjon o‘g‘li

Annotatsiya: “Ustoz-shogird” an‘anasi xalqimiz orasida, xususan, barcha sohalarda qadimdan saqlanib kelayotgan qadriyat hisoblanadi. Mazkur maqolada qadimiy qadriyatlardan biri sanalgan ustoz-shogird an‘anasining yosh avlod, yosh kadrlar faoliyatida va hayotida muhim o‘rni hamda ustoz-shogird an‘anasida, ayniqsa, pedagogika, tarbiyaning ahamiyatli jihatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ustoz, shogird, tarbiya, an‘ana, ma‘naviy meros, pedagogik mahorat, iste‘dod, urf-odat, ma‘naviyat.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ФАТТОХХОНА МАМАДАЛИЕВА В НАПРАВЛЕНИИ ТРАДИЦИЙ НАСТАВНИЧЕСТВА

Аннотация: Традиция "наставник-ученик" является ценностью, которая издревле сохраняется среди нашего народа, в частности, во всех сферах. В данной статье рассматривается важная роль традиции "наставник-ученик," считающейся одной из древних ценностей, в деятельности и жизни молодого поколения и молодых кадров, а также значимые аспекты этой традиции, особенно в педагогике и воспитании.

Ключевые слова: наставник, ученик, воспитание, традиция, духовное наследие, педагогическое мастерство, талант, обычаи, духовность.

FATTOHXON MAMADALIYEV'S ACTIVITIES IN THE DIRECTION OF MASTER-APPRENTICE TRADITIONS

Abstract: The "Master-Apprentice" tradition is considered a value that has been preserved since ancient times among our people, particularly in all fields. This article discusses the important role of the master-apprentice tradition, regarded as one of the ancient values, in the activities and lives of the younger generation and young professionals. It also explores the significant aspects of the master-apprentice tradition, especially in pedagogy and upbringing.

Keywords: master, apprentice, upbringing, tradition, spiritual heritage, pedagogical skill, talent, customs, spirituality.

Jamiyatimizda ma'naviy yangilanishlar, yuksalishlar jadal kechayotgan, qolaversa, globallashuv jarayoni qadriyatlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatib turgan bir paytda, yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy merosimizga asoslangan milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, uyg'un holda saqlab qolish, rivojlantirish hamda kelgusi avlodlarga yetkazib berish asosiy vazifaga aylangan. Zero, Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Ma'naviy meros yoshlarda o'zlikni va o'tmishdan faxrlanish tuyg'ularini shakllantiradi. Buning yaqqol ne-ne daholarni, qahramonlarni, chinakam millatsevar, vatanparvarlarni, bir so'z bilan aytganda, dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan munavvar zotlarni kamolga yetkazgan xalqimizning yaqin o'tmishida ko'rishimiz mumkin. Buyuk, o'lmas qadriyatlarning yaratuvchisi, ijodkori bo'lgan, ayni bir paytda, uni avdoddan avlodga gard yuqtirmay, mo'tabar qilib yetkazib kelayotgan xalqimiz, nihoyat uzoq davom etgan istibdod zanjiridan qutildi. Eng muhimi, asrlar mobaynida shakllangan, sayqallangan, milliy qadriyatlarga bugungi kunda egalik qilmoqdamiz. Usta-shogirdlik an'analari ustoz oldiga ham, shogird oldiga ham, katta mas'uliyat yuklaydi. Usta-shogirdlik an'anasi faqat hofizlar orasida emas, balki sozandalar, bastakorlar orasida ham, xatto oddiy xat-savod o'rgatish borasida ham keng qo'llanib kelingan. Odatda, ota o'z farzandini ustozga shogirdlikka berar ekan, taomil bo'yicha: «Suyagi meniki, eti sizniki» degan iborani ishlatganlar. Bu so'z orqali ustoz har qancha qattiqqo'l bo'lmasin, shogird uning aytganlarini so'zsiz va bekamu-ko'st bajarishi lozim, degan mazmunni bildiradi. Shogird-ustozdan nafaqat ilm-hunar o'rganish, balki sharqona urf-odatlar, mulozamat va muloqotni, ahloq-odobni ham o'rganishi nazarda tutiladi.

An'ana, qadriyat, urf-odatlar har bir xalqning o'zigagina xos milliy xususiyatlarini ifodalovchi omillardir. O'zbek xalqining urf-odatlari, marosimlari va an'analarga berilayotgan katta e'tibor, ularni tiklash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish yo'lida samarali sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Bu borada "Ustoz-shogird" an'anasining davom ettirilishi yoshlarga saboq berishning o'ziga xos ko'rinishlaridan biridir. Xalqimizda: "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar", - degan naql bor. Har kasbning o'z ustalari bo'lgani kabi ustozlik kasbini avloddan avlodga yetkazuvchi izdoshlar, o'rinbosarlar, qisqa qilib aytganda, shogirdlarning ham bo'lishi tabiiy. O'z kasbining ustasi bo'lgan ustozlar o'zlarining bebaho hunarlarini o'zi bilan olib keta olmasligi barobarida o'sha hunarni shogirdlariga o'rgatadi. O'z navbatida, shogirdlar ham ustozdan o'rgangan hunarni rivojlantirib, o'z imkoniyati darajasida keyingi avlod shogirdlarini yetishtirib chiqaradi. Ustoz-shogirdlik bizning milliy an'analimizga xosdir. San'at, xususan, qo'shiqchilikdagi mazkur an'ana borasida katta tajribaga egamiz. Ozod diyorimizda shunday ijrochilik maktablari mavjudki, bir-biridan go'zal, bir-biridan zabardast, rang-barangligini ta'riflashga til ojiz:

Ustoz Hojixon Boltayev - shogird Ro'zmat Jumaniyozov;

Ustoz Yunus Rajabiy - shogird Orif Alimahsumov;

Ustoz Hoji Abdulaziz Abdurasulov - shogird domla Halim Ibodov;

Ustoz Jo‘raxon Sultonov - shogird Ma‘murjon Uzoqov;

Ustoz Fattoxon Mamadaliyev – shogird Mahmudjon Tojiboyev.¹⁵⁸

Zabardast hofiz, avvalombor, kamdan-kam uchraydigan yoqimli va chuqur dardli, shirador va mungli, shu dila birga, qudratli va nihoyatda ko‘lamli keng ovoz sohibi bo‘lgan Fatoixon hofiz ijodiy yetuklik pog‘onasiga chiqqan ekan, xalq ashulalarini ham, zamondosh bastakorlarning ma‘qul ko‘rgan asarlarini ham o‘zining noyob ijroviy uslubiga singdirgan holda tarannum etgan ardoqli san‘atkordir. Uning chuqur dardli talqinida yangragan “Girya I”, “Sayqal”, “Qashqarchai Mug‘ulchai Dugoh”, “Chapandozi navo”, “Savti Miskin”, T.Jalilovning “Jonim mening”, D.Zokirovning “Ey sabo”, K.Jabborovning “Etmasmidim” va boshqalar bunga yorqin dalil bo‘lib xizmat qildi.

F.Mamadaliyev “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari” nomi kitobida xonandalik ovozlari turlicha toifalarini hamda usluban rango-rang aytm xususiyatlari haqida yozgan. Ushbu o‘ziga xosliklari yoritish, nazariy va asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, ularni hozirgi zamon kasbiy musiqa ta‘limi jarayoniga kengroq joriy qilish vazifalarini bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda deyishgan.

F.Mamadaliyev aytishicha: “Xonandalik ovozining tusi, jarangdorligi, kuchi, ko‘lami, shiradorligi, uni ishlatish imkoniyatlari va boshqa sifatlari tabiatdan xilma-xil bo‘lishini hisobga olish shart”. Burungi davr ayrim savodxon musiqachilar tomonidan ovozlarni ta‘riflash, bir-biridan farqlash, kasbiy jihatdan baholash uchun qator masus atama va iboralardan foydalanilgan.

Demak, talaygina aniq tushunchalar og‘zaki bo‘lsa-da, muttasil ilmiy-amaliy muomalada bo‘lgan. Ammo respublikamizda joriy etilgan maxsus musiqa o‘quv tizimida tajriba deyarli qo‘llanilmadi. Oqibatda, an‘anaviy yo‘nalishdagi eski ustoz-shogirdlik “maktab”larining yutuqlari aksariyat hollarda kishining xotirasidan ham chiqa yozdi. Buning isboti uchun birgina misol keltiraylik. Andijon viloyatining Baliqchi tumani Eski Haqqulobodda yashab o‘tgan san‘atkorlari biri, o‘z davrida mashhur sozanda (dutorchi, tanburchi) va ashulachi, ustoz Umrzoq Polvon Saydalining ovozi “nor ovoz” deb yuritilganini eslatishimiz mumkin.

Tabiiyki, Farg‘ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Xorazm va Surxondaryo-Qashqadaryo vohalarining musiqiy udum-an‘analari o‘rtasida chuqur milliy mushtaraklik mavjud. Shunday bo‘lsa-da, mahalliy-yerli o‘zgacha ijodiy ko‘rinishlar sezilarli darajada saqlangan. Shu boisdan ko‘tarilayotgan masalani, asosan, bizga bevosita dahldor bo‘lgan Farg‘ona vodiysi xonandaligi misolida yoritishni maqsad qilib oldik.

O‘zbek milliy xonandaligining Farg‘ona-Toshkent udumlarini nazarda tutar ekanmiz, avvalo, ashulachilar ovozining sifat darajasi hamda ovoz ishlatishni hisobga olgan holda, ular bir necha toifalarga ajratildi.¹⁵⁹

Asosiylari quyidagi nomlarda yuritilgan:

¹⁵⁸ <https://typeset.io/papers/ozbek-xalq-musiqa-ijodida-ustoz-shogird-ananalari-ia7dx1h5>

¹⁵⁹ Ф.Мамадалиев. “Миллий музика мероси ижрочилиги масалалари” 2010й., 10-бет

- “Nor ovoz”;
- “Tik ovoz” (yoki “jarangdor ovoz”)
- “Jarangdor kuvrak ovoz”;
- “Bo‘zak ovoz” (yoki “moda ovoz”)
- “Pang ovoz”
- “Ishkami ovoz”.

Bulardan tashqari, Buzak yoki moda ovoz, Pang ovozlar ham quyidagi ovoz turlariga qo‘shilgan. Fattohxon Mamadaliyev ovozni ishlatish masalasi haqida shunday deganlar: “Qishlog‘imda ajoyib xonandalar bo‘lib Turg‘un “novcha” ismli keksha kishi bor edi. Bo‘yi uzunligi uchun uni “novcha” laqabi bilan atashardi. To‘y hashamlarda agar u katta ashulani hamnafaslikda aytishadigan bo‘lsa, unga boshlattirmas edilar. Chunki uning ovozi judayam tik bo‘lgani sababli ashulani ba‘zida boshlab qo‘yar ekan”.¹⁶⁰ Ashulani ko‘proq Umirzoq Polvon boshlar ekan. Agar ashullachining ovozi yetmay pardani ololmay qolsa, Turg‘un “novcha” ashullachilarga qarab “tanglay qiling”, - deb maslahat berar yedi. Katta ashula deb, odatda, ikki yoki to‘rt hofiz tamonidan ijro san‘atining original janri bo‘lmish katta ashula marsiya, navha va boshqa marosim kuy-qushiqlari hamda aruz vaznidagi g‘azallarning qadimgi o‘qilish nazarda tutilgan.

Uning o‘tmishdagi na‘munalari lirik g‘azallar bilan bir qatorda diniy-mistik she‘rlar ham kuylangan. Keyinchalik Lutfiy, Navoiy, Muqimiy, Furqat va boshqa shoirlarning g‘azallari katta ashulladan mustahkam o‘rin olgan. Katta ashulada, odatda, she‘rning boshlang‘ich misralarini galma-gal, so‘nggi misrani qo‘shilib ijro etganlar. Boltaboy hofiz, Mamatbobo Sattorov, Xamraqulqori, Erkaqori Sultonov, Ma‘murjan Uzoqov kabi ko‘pgina xonandalar katta ashulla ijrochiligida shuhrat qozonishgan. Katta ashulaning bilimdoni O‘zbekiston xalq artisti G‘anijon Toshmatov ana shunday atoqli san‘atkorlarimizdan.

Ulug‘ ustozlarni ko‘rgan hofizning qimmatli kasbiy fazilatlaridan yana biri bu maqom ashulla ovozga “yetakchi” tanbur hamda Sharq ilmida mukammal sanalgan g‘ijjak cholg‘ularidan mohirona jo‘r bo‘lishda deb aytish mumkin.

Fattohxon hofizning bastakorlik faoliyati haqidagi qo‘lyozma hisobotida 37 va undan ortiq asarlari ro‘yxatini qayd etgan.

1. “Axd qildim” – Muqimiy.
2. “O‘lmag‘ay” – A.Navoiy
3. “Fasligul” – Furqat
4. “Shaxloga tushdi” – S. Abdulla
5. “Ishqingda janon” – Furqat
6. “Mehmon bo‘lib” – Nodira
7. “Oqibat” – Nodira
8. “Sog‘indim” – Nodira

¹⁶⁰ Ф.Мамадалиев. Нодир Мерос //Ўзбекистон Санъати №7., Т., 1986.

9. “Ra’no kulib” – O. Xoldor
10. “Ketsam agar” – O. Xoldor
11. “Sog‘inib aytay qo‘shiq” – O. Xoldor
12. “Intizoringman” – Ulfatiy
13. “Tong otguncha” – Dilafkor
14. “Faslingga yetmaguncha” – Z. Obidov
15. “Andijon” – X. Razzoq
16. “Ayondur ayon” – Munis
17. “Kalomingdan” – X. Azimiy
18. “Dilkusho” – X. Azimiy
19. “So‘rmasa” – X. Azimiy
20. “Ko‘ngil” – X. Yaxyoev
21. “Sirri ishq” – X. Yaxyoev
22. “Tosh yili” – X. Yaxyoev
23. “Fosh o‘lsun” – A. Navoiy
24. “Orzu” - V. Sa’dullo
25. “Dexqonlarim” – V. Sa’dullo
26. “Dardi dilim” – Ogahiy
27. “Ulfat bilan” – G‘. Abdullo
28. “Yetmagaymen” – Bobir
29. “Ermish” – A. Navoiy
30. “Topmadim” – Xayratiy
31. “Intizor” – Ulfatiy
32. “Tortadir” – Lutfiy
33. “Falak” – Nodira, Furqat
34. “Bo‘lmasa” – Zebiniso
35. “Yor uchun” – A. Navoiy
36. “Jonim meni” – Muqiyimiy
37. “Eslagil” – F. Mamadaliyev va boshqalar.¹⁶¹

O‘zbek xalqining madaniyat, jumladan, musiqa tarbiyasi sohasida ko‘p asrlar davomida o‘rttirgan tajribalarining rivojlanish, taraqqiyot bosqichlarini o‘rganish, tahlil qilish va xulosa chiqarish hamda zamonaviy musiqiy ta’lim tizimini davr talabi asosida yanada takomillashtirish soha mutaxassislari oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad va vazifalardandir. Istiqlol sharofati bilan ma’naviyat, jumladan, musiqa madaniyatini egallash sohasida ham katta yutuqlarga erishildi. Insonlar ongi-shuurida musiqiy, axloqiy qadriyatlarni anglash, rivojlantirishga e’tibor kuchaydi.

Istiqlol sharofati bilan milliy musiqiy qadriyatlarimiz ustuvor ahamiyat kasb eta boshlagani quvonarli hol bo‘ldi. Yo‘qolayozgan qimmatli an‘analarni tiklash, milliy musiqa

⁴ Ф.Мамадалиев. “Бастакорлик фаолиятида” номли қўлёзмаси

ta’limi va targ‘ibotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ilmiy jihatdan atroflicha o‘rganish uchun yaralgan imkonlarni ishga solish vaqti keldi. Xalq musiqa ijodiyotida vujudga kelgan ko‘hna kuyohanglar yoshini aniqlashning ilojisi yo‘qdir, ammo shahar madaniyati uzil-kesil shakllanishi va rivoji bilan bog‘liq ijod qatlamlari salkam uch ming yillik tarixga ega, deb aytishimiz mumkin. Demakki, musiqada kasbiylik darajasi, shu jumladan, musiqa folkloridan bir hisobda ajralib chiqqan bo‘lsa-da, u bilan har doimgidek chambarchas bog‘liq holda rivojlanib keldi. Milliy-mahalliy xonandalik, cholg‘u ijrochiligi va bastakorlik harakatlari hamisha bir-birini boyitib bordi. Chunki mashhur san‘at ustalarining kasbiy faoliyatida mazkur jabhalar bir butunlikni tashkil etganligi kundek ravshan.

Ustoz hofizlar o‘z ijrochilik mahoratlarini oshirish uchun aks-sado beruvchi maxsus gumbazli binolarda mashg‘ulot o‘tkazganlar, shu tariqa ovozlariga sayqal berishgan. «Ishkambi» yo‘lidan farq qiluvchi «Xonaqohiy» yo‘li bo‘lib, unda hofiz qo‘shiq so‘zlarini aniq talaffuz etib, tinglovchiga g‘azal mazmunini ifodali qilib yetkazgan.

Ustoz hofizlarimiz dasturlaridan har xil marosimlarda ijro etiladigan ashulalar ham o‘rin olgan. Masalan, Sodirxon hofiz ashulalarni so‘zsiz, ikki kaftini qulog‘iga qo‘ygan holda, alamli «Yakka faryod» tarzida, «Xonaqohiy» yo‘lida ijro etib kelgan. O‘z ashulalarini yil fasllari va hatto, kunning ma’lum paytlariga ko‘ra tanlab aytgan. Bahor tonglarida - «Amin nasrulloyi», «Qiyiq», «Qora tong»ni, peshindan keyin «Gulyori Shahnoz»ni, kechqurun «Sarparda», «Rok baland», «Dilxiroj» va boshqalarni kuylagan.

Bundan tashqari, ustoz hofizlarimiz ashula ijro etish bilan birga maqomlarni o‘zlashtirib, betakror muallif sifatida maqomlarni yangi sho‘balar bilan boyitganlar. Masalan, maqomdon ustoz Ota Jalol Nosirov «Shashmaqom»ning mushkulot qismlarini tartibga solgan, ayrim maqom sho‘balarini kengaytirgan, rivojlantirgan va qo‘shimcha qismlar bastalagan. Jumladan, ulardan biri «Savti Jaloliy» deb ataladi. Marg‘ilonlik Madali hofiz esa «Abdurahmonbegi», «Qalandar», «Tanovar» kabi ijro yo‘llarini yangi talqinlari bilan to‘ldirib, san‘atimiz xazinasini yangi ijrolar bilan boyitdi. Shu tariqa, umrboqiy maqomlarimizga ustoz hofizlarimiz ijrosida qo‘shimcha jilo berilib, yanada to‘ldirilib ijro etib kelinmoqda.

Bizning davrimizga kelib ham bu xayrli ishlar davom etdi. Masalan, mashhur hofiz va bastakor Fattohxon Mamadaliyev «Nasrulloyi» musiqa yo‘llariga so‘z solib, uning talqinchasini, uforisini, soqinomasini yaratdi. «Miskin»ning beshta yo‘lini, «Chorgoh»ning beshta yo‘lini, «Umrzoqpolvon ushshoqi»ning soqinamolarini qo‘shib, ushshoqlarning qadimiy ijrolarini tikladi. «Buzruk»ning surnay yo‘llarini talqin qildi. Izlanishlar natijasida xalq an’anaviy ijrochiligi bir necha ijro yo‘llari bilan boyidi, ulardan biri turkum sifatida «Savti Fattohxon» nomi bilan ijrochilarimiz va olimlarimiz tomonidan tan olindi.

XX asrning 20-30-yillariga kelib an’anaviy ashulachiligimizga ikkinchi bir avlod kirib keldiki, bu ulug‘ hofizlarimiz san‘atimiz xazinasini o‘zlarining mumtoz qo‘shiqlari bilan boyitdilar. Ularning muborak nomlarini hurmat va ehtirom bilan zikr etib o‘tish joizdir.

Bugungi kunga qadar ijrochilik maktabi bir qator mualliflik uslublar bilan boyidi. Ijrochilik amaliyotida bu uslublarni yaratgan ustoz sozandalar elga tanildilar. Mavjud usullarni

o‘zlashtirish bilan bir qatorda ushbu san’atni zamonamizga mos holda talqin qilish, o‘zining bor kuchini sarf qilib rivojlantirishi lozim. O‘tgan davrda yashab ijod etgan san’atkorlar o‘zlaridan oldingi san’atkorlar bilimini puxta o‘rganishga katta ahamiyat berganlar, o‘zlashtirgan bilimlarini esa, keyingi avlod shogirdlariga o‘tkazganlar. Bu faqat doirachilarning emas, balki barcha o‘zbek san’ati namoyondalarining uslubi bo‘lmish “Ustoz-shogirt” an’anasidir. Mazkur nuqtayi nazardan kelib chiqib, kelajak avlodning o‘tmishga xos tarzda kamol topishi, bu barkamol avlod tarbiyasidagi asosiy vazifarlardan desak, mubolag‘a bo‘lmas. Bugungi davrda taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining yangidan-yangi namunalari joriy etilayotgan bir paytda o‘zbek milliy zarblarini turli cholg‘ular, elektron vositalar va mavjud cholg‘u sozlarda tarannum etish imkoniyatlari ochilmoqda. O‘zbek usullarini zamonaviy texnika vositasida doiraning jonli sadosini tarannum etish yosh shijoatkor san’atkorlarimizning iodiy munosabatiga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy hayotida mavjud barcha sohalar qatori musiqa san’ati ham ajdodlarning bebaho merosidan bahramand bo‘lmay turib taraqqiyotga erishishi mumkin emas. Shu bois, an’analarga sodiq qolish va ularga har lahzada tayanish kelajak samarasi, farzandlar istiqboli va barkamol avlod tarbiyasi garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://typeset.io/papers/ozbek-xalq-musiqa-ijodida-ustoz-shogird-ananalari-ia7dx1h5>
2. Ф.Мамадалиев. “Миллий муסיқа мероси ижрочилиги масалалари” 2010й., 10-бет
3. Ф.Мамадалиев. Нодир Мерос //Ўзбекистон Санъати №7., Т., 1986.
4. Ф.Мамадалиев. “Бастакорлик фаолиятида” номли қўлёзмаси



O‘SMIR YOSHDAGI QIZLARDA UMUM-KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

Meliboyeva Sarvinoz Sobirjonovna
Qo‘qon davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot umum-kasbiy kompetensiya tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish va o‘smir yoshdagi qizlarni milliy hunarmandchilik vositasida umum-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va kontentni tahlil qilish metodlari qo‘llanilgan. Xorijiy va mahalliy pedagogik adabiyotlar, Yevropa Kengashi hujjatlari va pedagogik-psixologik manbalar sistemli ravishda o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: umum-kasbiy kompetensiya, kompetentlik, o‘smir yoshi, milliy hunarmandchilik, pedagogik jarayon.

РАЗВИТИЕ ОБЩЕПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У ДЕВОЧЕК-ПОДРОСТКОВ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. Целью данного исследования является анализ теоретических основ понятия общепрофессиональной компетентности и изучение педагогических возможностей формирования общепрофессиональных компетентностей девочек-подростков посредством народных промыслов. В исследовании использованы методы теоретического анализа, сравнительного анализа и контент-анализа. Систематически изучалась зарубежная и отечественная педагогическая литература, документы Совета Европы, педагогические и психологические источники.

Ключевые слова: общепрофессиональная компетентность, компетентность, подростковый возраст, народные промыслы, педагогический процесс.

DEVELOPMENT OF GENERAL PROFESSIONAL COMPETENCES IN ADOLESCENT GIRLS: THEORETICAL BASIS AND PRACTICAL APPROACHES

Abstract. This study aims to analyze the theoretical foundations of the concept of general professional competence and to study the pedagogical possibilities of developing general professional competences of adolescent girls through national crafts. The research used the methods of theoretical analysis, comparative analysis and content analysis. Foreign and

domestic pedagogical literature, documents of the Council of Europe and pedagogical and psychological sources were systematically studied.

Keywords: general professional competence, competence, adolescence, national crafts, pedagogical process.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning zarur ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi muhim talab sifatida qaralmoqda. XXI asrda ijtimoiy o‘zgarishlar va iqtisodiy munosabatlarning yangi talqini moddiy resurslarni emas, balki shaxsning salohiyatini mehnat bozorining asosiy mezonini deb tan olmoqda. Ishlab chiqarish jarayonining tobora innovatsion mexanizm, jihoz va qurilmalar vositasida bajarilayotgan mehnat bozoridagi yangiliklar yangi turdagi kasblar paydo bo‘lishini ta’minlash bilan birga, ularni yanada takomillashtirish qobiliyatiga ega aktiv inson kapitaliga bo‘lgan talab va ehtiyojni oshirmoqda.

Pedagogik adabiyotlarda “kompetensiya” tushunchasi 1957-yildan boshlab qo‘llanila boshlangan bo‘lib, dastlab AQSH ta’limi tizimidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan edi. Amerikalik psixolog Robert Uayt 1959-yilda “kompetensiya” tushunchasini “individdning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatini ta’minlovchi qobiliyat” sifatida ta’riflagan. XX asrning 70-yillarida N. Xomskiy bu tushunchani tilshunoslik va til ta’limiga tatbiq qilgan.

O‘smir yoshi shaxsning kasbiy yo‘nalishini tanlash va kelajakdagi professional faoliyatga tayyorlanishning muhim davri hisoblanadi. Aynan shu davrda umum-kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi kelajakdagi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun mustahkam asos yaratadi. Milliy hunarmandchilik esa o‘zbek madaniyatining boy an‘analarini o‘z ichiga olgan holda, o‘smir qizlarda umum-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun samarali vosita bo‘la oladi.

Umum-kasbiy kompetensiya tushunchasining nazariy asoslarini o‘rganish va o‘smir yoshdagi qizlarni milliy hunarmandchilik vositasida umum-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kompetensiya yondashuvi bo‘yicha mahalliy va xorijiy pedagogik-psixologik adabiyotlarning sistemli tahlili amalga oshirildi. Tadqiqotda A.V.Xutorskoy, V.I.Baydenko, M.H.Usmonboyeva, A.K.Markova va boshqa olimlarning nazariy qarashlari o‘rganildi. Turli mamlakatlar (AQSH, Yevropa, O‘zbekiston) tajribasida kompetensiya tushunchasining talqini va rivojlanish yo‘nalishlari qiyosiy tahlil qilindi. Yevropa Kengashi hujjatlari, professional ta’lim standartlari va pedagogik dasturlar mazmunidagi kompetensiyalarga oid talablar tahlil qilindi. Kompetensiyalar tizimini bir butun sifatida qarab, ularning o‘zaro bog‘liqlik va ierarxik tuzilishini o‘rganish uchun qo‘llanildi.

Olib borilgan tahlil natijasida "kompetensiya" tushunchasining turli talqinlari aniqlandi:

- A.V. Xutorskoy: "Bitiruvchi ta’limiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarda aks etadigan shaxsning o‘zaro aloqador sifatleri majmui";
- T.V. Pankova: "Muayyan fan sohasini bilish, uning kategoriyalari yordamida fikrlashni ifodalovchi, ta’lim jarayonida shakllangan bilim, ko‘nikma, malakalar majmui";

• G.S. Vyalikova: "Muayyan predmet bo'yicha axborotli o'zlashtirilgan chuqur bilimlar; qandaydir vakolat, huquqlar doirasi".

Yevropa Kengashi (2017) tomonidan belgilangan madaniy kompetensiyalar:

Muhokama va natijalar. Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyalar to'rt asosiy guruhga bo'linadi:

Qadriyatlarni ifodalovchi kompetensiyalar inson sha'nini hurmat qilish va insoniy huquqlarni himoya qilishga qaratilgan bo'lib, shaxsning axloqiy-ma'naviy asoslarini mustahkamlaydi. Harakatlar yo'nalishini belgilovchi kompetensiyalar o'zaro hurmat va fuqaro sifatida o'z-o'zini anglash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Amaliy malakalarni ifodalovchi kompetensiyalar tahliliy va tanqidiy tafakkur hamda hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bilim va tanqidiy fikrlash kompetensiyalari esa o'z-o'zini anglash va tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Tadqiqot natijasida umum-kasbiy kompetensiyalarning oltita asosiy komponenti aniqlandi. Motivatsion komponent kelajakda o'zi egallashi mumkin bo'lgan kasbning ijtimoiy ahamiyatini anglashni ta'minlaydi. Bilimli komponent kasbiy faoliyat asoslarini puxta o'zlashtirishga qaratilgan. Amaliy komponent bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi. Muloqot komponenti kasbiy nutq madaniyati asoslarini egallashni nazarda tutadi. Mas'uliyat komponenti kasbiy faoliyat natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Til komponenti xorijiy tillardan birini professional darajada bilishni talab qiladi.

Tahlil natijasida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari o'rtasidagi muhim farq aniqlandi. Kompetensiya faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuini ifodalaydi. Kompetentlik esa mavjud kompetensiyalar asosida tegishli faoliyatni samarali bajarish qobiliyati va sifatini bildiradi. Boshqacha aytganda, kompetensiya nazariy asos bo'lsa, kompetentlik uni amalda qo'llash mahoratini anglatadi.

Milliy hunarmandchilik orqali umum-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun to'rtta asosiy pedagogik sharoit zarur. Madaniy merosni o'rganish milliy hunarmandchilik an'alarini chuqur o'zlashtirishni talab qiladi. Amaliy faoliyat qo'l mehnati orqali praktik ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijodiy yondashuv an'anaviy usullarni zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Jamoa bilan hamkorlik guruh ishlarida o'zaro munosabat ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Martin Mulder va boshqa xorijiy tadqiqotchilarning e'tirofiga ko'ra, ijtimoiy sub'yektlarning ma'lum faoliyat sohasida muayyan kompetensiyalarni egallashga bo'lgan yondashuv barcha davrlarda o'zgarishsiz qolgan. Bugungi kunda ham jamiyatda maqomga ega bo'lish uchun rasman ta'lim olish va tegishli malakalarni egallab olish zarur hisoblanadi.

O'zbek pedagoglari, xususan M.H.Usmonboyevaning tadqiqotlarida kompetentlik "mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi" sifatida ta'riflanadi.

O‘smir yoshdagi qizlarda umum-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda milliy hunarmandchilikning pedagogik salohiyati to‘rt yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Madaniy o‘zlikni anglash milliy hunarmandchilik orqali o‘z madaniyatiga mehr va hurmat tuyg‘usini rivojlantirishni ta‘minlaydi. Mehnat madaniyatini shakllantirish qo‘l mehnati orqali mehnatsevarlik va mashaqqatbardoshlikni tarbiyalash imkonini beradi. Estetik didni rivojlantirish milliy san‘at namunalari orqali go‘zallikni his qilish qobiliyatini oshiradi. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish an‘anaviy usullarni zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirishda ijodkorlikni namoyon etish imkonini yaratadi.

O‘smir yoshdagi qizlarda umum-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda to‘rtta asosiy pedagogik tamoyilni hisobga olish zarur. Bosqichma-bosqichlik tamoyili oddiy usullardan murakkabga o‘tishni nazarda tutadi. Individuallashtirish har bir o‘quvchining qiziqishi va qobiliyatini hisobga olishni talab qiladi. Nazariya va amaliyot birligi nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashni ta‘minlaydi. Motivatsiyani oshirish o‘quvchilarning ichki qiziqishini uyg‘otish va saqlashga qaratilgan.

Bu yondashuv o‘smir yoshdagi qizlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim rol o‘ynab, ularni kelajakdagi faoliyatga samarali tayyorlashga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot asosan nazariy tahlilga asoslangan bo‘lib, amaliy sinov ishlari amalga oshirilmagan. Kelajakdagi tadqiqotlarda quyidagi yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- ✓ Eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish;
- ✓ O‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish;
- ✓ Baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- ✓ Turli hunarmandchilik turlarining samaradorligini qiyoslash.

Xulosa. Umum-kasbiy kompetensiya tushunchasi barcha kasbiy faoliyat turlari uchun universal asos bo‘lib, u shaxsning kasbiy rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Bu kompetensiyalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi. O‘smir yoshi umum-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning eng qulay davri hisoblanadi. Bu davrda shaxs o‘zining kasbiy yo‘nalishini tanlashga tayyorlanadi va kelajakdagi professional faoliyat uchun zarur qobiliyatlarni rivojlantiradi. Milliy hunarmandchilik o‘smir yoshdagi qizlarda umum-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. U nafaqat praktik ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki madaniy o‘zlikni anglash, estetik did, ijodkorlik va mehnat madaniyatini ham shakllantiradi. Umum-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda tizimli yondashuv, bosqichma-bosqichlik va nazariya-amaliyot birligi tamoyillariga amal qilish zarur.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, umum-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy ta‘lim tizimining muhim vazifasi bo‘lib, bu jarayonda milliy hunarmandchilik kabi an‘anaviy usullardan foydalanish pedagogik jihatdan asosli va samaralidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Байденко В.И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования. – М.: 2005.
2. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: 2019.
3. Усмонбоева М.Х. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик. – Т.: 2016.
4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты. – М.: 2017.
5. Компетенции для демократической культуры. – Страсбург: Совет Европы, 2017.
6. Antera Sofia. Professional Competence of Vocational Teachers: a Conceptual Review // Educational Research. – 2021.
7. Mulder M. Conceptions of Professional Competence. – Dordrecht: Springer, 2014.
8. Sanakulov XR., Meliboyeva S.S., Abduraimova G.O. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent. 2019. – B.47-49.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

TARIX FANI METODIKASI O‘QITISHNING ZARURIYATI VA OMILLARI

Safarov Bobirjon Baxodir o‘g‘li

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, tayanch doktorant

e-mail:bobur.safarov.94@mail.ru

+998909282524

Annotatsiya: Maqolada tarix fani o‘qituvchilariga metodika o‘qitishning zaruriyati undan ko‘zlangan maqsadlarning ilmiy asoslari xorijiy tadqiqotchilarning tadqiqotlarini tahlil qilish asosida ko‘rsatib berilgan. Hozirgi davrda tarix fani o‘qituvchilari tarix fanini o‘qitishda nimalarga e‘tibor berishlari va o‘quvchilarning bu fanga nisbatan qanday ehtiyojlari borligi xorijiy olimlar asarlari asosida tadqiq etildi. Rivojlanayotgan dunyoda tarix fani metodikasi qanday transformatsiyaga uchrayotganligi va yangi metodlar o‘rganib chiqildi. Mazkur mavzu muammosi bo‘yicha yechim va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Tarix fani metodikasi, metodikaning zaruriyati, Tarix fani metodikasi omillari.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ: НЕОБХОДИМОСТЬ И ФАКТОРЫ

Аннотация: В статье представлена необходимость преподавания методики истории, научные основы поставленных целей, а также анализ исследований зарубежных ученых. В современный период исследуется, на что должны обращать внимание преподаватели истории при обучении предмету и какие потребности у учащихся в изучении данной дисциплины, основываясь на трудах зарубежных ученых. Рассмотрены трансформации методики преподавания истории в условиях развивающегося мира и изучены новые методы. Разработаны решения и предложения по проблематике данной темы.

Ключевые слова: Методика преподавания истории, необходимость методики, факторы методики преподавания истории.

KIRISH. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish orqali ularni davlat va jamiyatga foyda keltiruvchi kadr qilib tarbiyalash barcha davlat hukumatlarining umumiy maqsadi hisoblanadi. Shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uning ijtimoiylashuv jarayonlarining barqaror bo‘lishida tarix fanining o‘rni juda muhim sanaladi. Samarali va qiziqarli tarix darslarini tashkillashtirish uchun o‘qituvchilarning metodikasini zamonga mos ravishda

takomillashtirib borish hozirgi kunda tadqiqotchilarni o‘ylantirayotgan masalalaridan biri sanaladi. Tarix fani o‘qituvchilarining metodikasini takomillashtirish va mavjud muammolarga yechim topish tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Tarix fani metodikasini o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad tarix fani o‘qituvchilarining dars o‘tish jarayonida fikrlarini ilmiy asoslashda nazariya bilan ko‘mak berishdir. Tarix –nafaqat o‘tmishdagi sodir bo‘lgan voqealar ilmini o‘rganish balki hozirgi zamonning tarix bilan bog‘liqligi kelajakdagi o‘zgarishlarni pragnoz qilish imkoniyatini ham beradi. O‘quvchilarning tafakkurining rivojlanishi va bo‘layotgan voqea-hodisalar haqida teran fikr yurita olishi uchun malakali o‘qituvchilarga ehtiyoj sezamiz. O‘qituvchilar doimo malakasini oshirib borishlari va sifatli dars o‘tishlari uchun zamonaviy metodlar bo‘yicha yetarlicha bilim olishlari maqsadga muvofiqdir. Metodika o‘qituvchining dars jarayonida samarali bilim berish maqsadida qo‘llagan yondashuvi, texnologiyalari, usullarining ilmiy majmuyi hisoblanib u vaqt o‘tgan sari yangilanib zamonga moslashib borishni talab etadi. O‘quvchilar tarixda sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni tahlil qilish, tarixiy manbalardan to‘g‘ri foydalanish, sabab va oqibatlarini aniq baholay olishlari, qobiliyatlarni shakllantirish uchun tarix fani o‘qituvchilari aniq, samarali, zamonaviy metodlarini bilishlariga ehtiyoj sezadilar. Tarix fani metodikalari boshqa fanlar metodikalari singari yildan yilga o‘zgarishga va takomillashishga majbur bo‘lmoqda. Bunga sabab qilib fanni o‘qitishga bo‘lgan yondashuvlar yildan-yilga o‘zgarib borishidadir. Shunday sharoitda tarix fani o‘qituvchilariga nafaqat metodikani balki amaliy tajribalarni birgalikda o‘rgatishni talab qilmoqda. Hozirda o‘quvchilarga an‘anaviy metodlarga asoslangan (maruza, savol-javob, xronologik yodlash) darslar vositasida tarixiy g‘urur uyg‘otish ularda vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ularini rivojlantirish uchun yetarli emas deb hisoblash mumkin. Tarixiy tafakkur, tanqidiy fikr, tarixiy kontekslarni o‘rganish va tahlil qilish, muhokamalar orqali sinfda jonli tarix muhitini shakllantirish va bu orqali ularda tarix faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Tarix fani metodikasini o‘rgatish orqali tarix fani o‘qituvchilarining metodik tayyorgarliklarini oshirish nafaqat dars olib borish strategiyalarni balki o‘quvchilarning nimaga ehtiyoj sezishi, ularning bilimlarini baholash imkoniyatlarini ham aniq tahlil qilishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tadqiqotda manbalar tahlili va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Adabiyotlar tahlili metodologiyaning muhim qismi bo‘lib, asosiy manbalar sifatida tarixiy ilmiy maqolalar, ta’lim sohasidagi hujjatlar va nufuzli tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan akademik izlanishlar o‘rganildi. Manbalarni tahlil qilish usuli orqali tarix fanining zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rnini ilmiy asoslashga imkon beruvchi dalillarga e’tibor qaratildi. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning tarix fanining ta’limdagi o‘rni haqidagi fikrlari zamonaviy tendensiyalar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Behbudiyning ta’limga oid qarashlari Yevropa Kengashining zamonaviy tarix ta’limi bo‘yicha hujjatlarida aks ettirilgan yondashuvlar bilan solishtirildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida tarix fanining zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyatini ko‘rsatib berish maqsad qilingan. Shu bilan birga, turli metodlar tahlil qilinib, tarix fani o‘qituvchilari tomonidan qo‘llanilayotgan an‘anaviy

va innovatsion pedagogik yondashuvlar o‘zaro taqqoslandi. Ushbu tahlil natijasida o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirish va manipulyatsiyaga qarshi immunitetni rivojlantirishning ahamiyati ilmiy asoslandi.

Tadqiqot doirasida ilmiy yondashuvlarning samaradorligi ham baholandi. Sun‘iy intellekt va vizual tasvirlarning ta‘limga ta‘siri tahlil qilinib, zamonaviy tarix ta‘limini yanada takomillashtirishga qaratilgan usullar taklif etildi. Ilmiy-tadqiqot natijalariga asoslangan holda tarix fanining ta‘lim tizimidagi rolini oshirish uchun pedagogik metodikalarning takomillashtirilishi zarurligi ilmiy asosda ilgari surildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid adabiyotlar keng qamrovda o‘rganildi. Manbalarni tanlashda ularning ilmiy asoslanganligi va dolzarbligi e‘tiborga olindi. Jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1914-yilda "Oyna" jurnalida chop etilgan "Tarix va jug‘rofiya" maqolasi tahlil qilindi. Ushbu maqolada davlat va jamiyat rivoji, shuningdek, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda tarix fanining ahamiyati alohida ta‘kidlangan. Ta‘lim tizimida tarix fanining rivojlanishi, ayniqsa, o‘qituvchilarning roli bilan bog‘liq muhim fikrlar ilgari surilgan. 2018-yilda Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan "Zamonaviy Yevropada tarixni o‘qitish bo‘yicha tamoyillar va yo‘riqnomalar" hujjatida tarix fanining Yevropa mamlakatlarida eng dolzarb bilim sohalaridan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Ushbu hujjatda ta‘kidlanishicha, siyosiy beqarorlik sababli Yevropaga kelayotgan qochqinlar sonining ortishi va ularning farzandlarini ta‘lim tizimiga integratsiya qilish jarayoni tarix ta‘limi yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini oshirgan. Turli millat vakillari bir maktabda ta‘lim olayotganda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan madaniy shok – ya‘ni madaniyatlar o‘rtasidagi tushunmovchiliklarni oldini olish yoki yumshatishda tarix fani muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy tadqiqotlar orqali isbotlangan. AQShning Indiana Universiteti professori David Pase o‘z tadqiqotlarida tarix fanini o‘qitish metodikasining dolzarbligini tahlil qilgan bo‘lib, tarixiy tafakkurni rivojlantirishda yondashuvlar takomillashtirilishi kerakligini ta‘kidlaydi. Tadqiqotchilar Joseph Zajda va John A. Whitehouse an‘anaviy pedagogik usullar orqali tarixni o‘qitish yoshlarning bugungi kun muammolarini to‘liq anglashiga yetarli emasligini ilmiy asoslab berishgan. Ularning fikricha, tarix fanini o‘qitish o‘quvchilarda inson qadriyatlarini, tinchlik va ijtimoiy mas‘uliyat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Mashhur tarixchi olim W. Robert Houston esa tarix fanini og‘zaki hikoya va ma‘ruza metodlari asosida o‘qitish zamonaviy ta‘lim jarayonida yetarli natija bermasligini ta‘kidlaydi. Sun‘iy intellekt va vizual tasvir vositalarining rivojlanishi sababli zamonaviy yoshlarni tarix faniga qiziqtirish uchun innovatsion usullardan foydalanish lozimligini ilgari suradi. Shuningdek, tarixiy tafakkurni shakllantirish va ishonchsiz ma‘lumotlarning tarqalishini oldini olish maqsadida o‘quvchilarni mustaqil tahlil va fikrlashga o‘rgatish muhimligi ta‘kidlangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tarixni o‘qitish va qanday tarzda o‘qitishga doir muammolar jadid olimlarining ham e‘tiboridan chetda qolmagan. Turkiston jadidchiligi yetakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy «Tarix va jug‘rofiya» maqolasida bu borada: «...taraqqiy nadur? Muni bilmoq uchun tarix o‘qumoq kerak.., dinu dunyodan boxabar bo‘lmoqni

xohlaydigan har kim uchun tarix o‘qumoq kerak. Chunki har nimarsa va uning asli va nasli tarixdan bilinur», - deb yozgan.[1] Mahmudxo‘ja Behbudi tarixni o‘qitish masalalariga to‘xtalar ekan, tarix faqatgina o‘tmishni bilish vositasi emas balki kelajakni bilish vositasiligini o‘z asarlarida izoh beradi. Mahmudxo‘ja Behbudi ta’limni modernizatsiya qilish milliy ongini rivojlantirish uchun tarix ta’limini o‘zgartirish lozimligini ta’kidlaydi. O‘quvchilardada tanqidiy fikrni –tarixiy muammolarni chuqur tahliliy muhokamalar vositasida rivojlantirish mumkinligini eslatib o‘tadi. Tarix nafaqat bilib berishi va xalqda milliy g‘urur, milliy ongini rivojlantirishini o‘z asarlarida nazariy jihatdan isbotlab beradi. Tarixni faqatgina mahalliy doirada emas, balki jahon kontekstida o‘rganish orqaligina o‘quvchilarda dunyoqarashni rivojlantirish mumkinligini o‘z asarlarida keltirib o‘tadi. Yevropa kengashining “Zamonaviy Yevropada tarixni o‘qitish bo‘yicha tamoyillar va yo‘riqnomalar” nomli hujjatida tarix o‘qitish metodikasining zaruriyatiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. 2018-yildan amalga kiritilgan bu hujjatga ko‘ra Yevropada tarixni o‘qitishdan maqsad fuqarolarni adolatli, tolerantlik, insoniylik, turli xil millatlarga nisbatan bag‘rikeng munosabatli bo‘lish ruhiyatida tarbiylashdan iboratdir. Yevropaga turli davlatlardan turli insonlarning ko‘chib borishi tufayli Yevropaliklarni ularga nisbatan hurmat va tolerantlik ruhida bo‘lishida tarix fanining o‘qitilishining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishidan kutilayotgan maqsadlar katta. Tarix ta’limini sifatli yo‘lga qo‘yilishida quyidagi omillarga ahamiyat berish lozim:

1. Tarix o‘qituvchilari va o‘quv dasturlari ishlab chiquvchilari tolerantlik, inkluzivlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlarni egallashi kerak.
2. Tarix o‘qitish orqali o‘quvchilar bahsli tarixiy voqealarni ochiq muhokama qilishga o‘rgatiladi; bu esa ular uchun tanqidiy fikrlash va tolerantlikni shakllantiradi.
3. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va sun‘iy intellekt asrida axborotni tahlil qilish va tarixiy faktlarni farqlash qobiliyati o‘quvchilar uchun muhim kompetensiyaga aylanadi.
4. Tarix ta’limi UNESCO, Yevropa Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlarning maqsadlariga hamohang bo‘lib, shaxsiy rivojlanish, analitik fikrlash, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy qadriyatlarini rivojlantiradi.
5. Tarix o‘z vazifasini to‘laqonli bajarishi uchun sifatli darsliklar, o‘quv metodikasi va o‘qitish uslublari zarur. Tarix faqat voqealarni yodlash emas, balki dalillarga asoslangan tahliliy yondashuvni o‘rgatishi lozim.

Bu hujjatda tarix o‘ziga xos fan sifatida o‘rgatilishi, tarixda sodir bo‘lgan har-bir hodisa tahlil va munozara obekti bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi.[2] O‘quvchilarda tanqidiy fikr bo‘lishi va uning rivojlanishida tahlil va muhokamalarning o‘rni beqiyosdir. Ushbu hujjatda tarix fani metodikalarini o‘rgatishdan ko‘zlangan bir qator maqsadlarni ilgari suradi. Bugungi globallashuv davrida turli xil asosiz ma’lumotlar internet saytlarida to‘ldirib tashlangan akraeyati esa ishonarsiz va sayoz ilmlar hisoblanadi. Vizual ma’lumotlar esa asil manbadan ko‘ra ta’sir kuchi yuqori bo‘lganligi sababli ularni oddiy insonlar haqiqat sifatida qabul qiladir bu esa bu ma’lumotni tayyorlovchilarga oddiy insonlarni manipulyatsiya qilishga imkon beradi; Ko‘plab davlatlar tarixini o‘rganishda xorijiy davlatlar manbasiga murojat qilishga

majbur bo‘lamiz lekin ular o‘z tarixini ba‘zi bir jihatlarini yoritmaydilar yoki yashirishga harakat qiladilar (mag‘lubiyat, sharmandali holatlar) ba‘zi jihatlarini esa bo‘rtirib yuboradilar (g‘alabalar, davlat ahamiyatidagi ulkan siyosiy voqealar) bu esa tarixni o‘rganishda noholislikni keltirib chiqaradi. Tarix fani o‘qituvchisi esa o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatadigan, manbalarni to‘g‘ri yoki yolg‘on ekanligini farq qilishga o‘rgata oladigan metodikalarga ega bo‘lishi yoki ularni rivojlantirishi bu zamon talabi hisoblanadi. Ushbu hujjatga ko‘ra tarix fani o‘qituvchisi o‘quvchini quyidagi qobiliyatlarini rivojlantirishi talab etiladi: Tarix fanini faklarga asoslangan fan emas balki izlanish uchun doim ochiq soha sifatida ko‘radigan; Turli manba va taqinlarni tahlil qila oladigan va tanqidiy fikrlay oladigan; Dunyodagi turli muammolarga hissiy emas balki ilmiy yondashadigan va fikr bera oladigan; Inson qadr-qimmatini va ma‘daniyatlar xilma-xilligini e‘tirof etadigan; Turlicha qarashlarga ochiqlik, empatiya va ijtimoiy ma‘suliyat; Qarama-qarshiliklardagi umumiy vaziyatni tushungan holda unga yechim bera oladigan. Tarixni o‘rganishda nafaqat aqliy (kognitiv), balki hissiy (emotiv) va axloqiy (etik) yondashuvlar muhimligini unutmaslik lozim. Tarixiy empatiya — o‘quvchi tarixiy shaxslar va hodisalarni chuqur tushunishga intilishi — tarbiyaviy vosita sifatida taqdim etiladi. Tarixiy baho berishda axloqiy me‘yorlar zamonlar osha o‘zgarishi tan olinadi, lekin jinoyatlarga nisbatan universal yondashuv ham zarur deb topiladi. AQShning Indiana Universiteti professori David Pase tarix fani o‘qitish metodikasi zaruriyati va omillarini quyidagicha fikr yuritadi:

1. Tarix fanini o‘qitishdan asosiy maqsad o‘quvchilarni faqat tarixiy ma‘lumotlarni yodlashga undashdan iborat emas balki ularni tarixiy tafakkur bilan o‘ylashga jalb qilishdir. Shu bilan birga talabalarning vaqealarning tahlil qilish, tarixiy kontekstlarni tushungan holda ularni tahlil qilish, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda xulosalar chiqarish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishni talab qiladi. Bu kabi qobiliyatlarni o‘quvchilarda rivojlantirish uchun tarix fani o‘qituvchilaridan yetarlicha metodik baza bo‘lishi lozim. Yuqoridagi qobiliyatlarni o‘quvchilarda yuzaga keltirish uchun o‘qituvchi o‘z malaka-tajribalari bilan yordam berishi lozim.

2. O‘quvchilar berilgan kontekstlarni ma‘lumot manbasi sifatida qabul qiladilar va ularning tahliliga e‘tibor qaratmaydilar. Holbuki bu jarayonga tarixchilar jiddiy tarzda yondashadilar. O‘quvchilar bu ko‘nikmaga ega qilib tarbiyalanishlari uchun tarix fani o‘qituvchilaridan alohida metodikaga ega bo‘lish talab qilinadi.

3. O‘quvchilarda hozirgi kun tushunchalarini o‘tmishga nisbatan qo‘llashda kamchiliklar mavjud. Bu presentizm tushunchasi bilan izohlanadi. Ya‘ni zamonaviy qadriyatlar va tushunchalarni o‘tmishga nisbatan qo‘llash. Tarixiy metodika o‘quvchilarni o‘sha davr shaxslarini yoki voqea hodisalarni tushunish uchun o‘z zamonalaridan tashqari chiqishga undaydi. O‘qituvchilar esa bu jarayonni qo‘llab quvvatlash uchun metodik yondashuvlar ishlab chiqilmog‘i kerak

4. Tarixni o‘rganishda o‘quvchilar jarayonlarni bir-biriga bog‘lashga qiynaladilar yoki ularni bir butun sifatida ko‘ra olmaydilar. Chunki ular tarixni voqealar ketma –ketligida

o‘rganganlar ular o‘rtasidagi sabab va oqibatlarni chuqur tahlil etmaganlar. Bu ham tarix fani o‘qitishdagi o‘z yechimini topa olmayotgan muammolardan biri sanaladi.

5. O‘quvchilar tarixni o‘rganish jarayonida konteksni tushunish uchun o‘z dunyoqarashlari nuqtai nazari bilan yoki hozirgi zamon nuqtai nazari bilan masalaga javob topishga harakat qiladilar. Bu esa o‘z novbatida presentizmini keltirib chiqaradi, noto‘g‘ri tushunchlarning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Tarix fani metodikasi esa o‘quvchilarning voqea jarayonlarni tahlil qilishda o‘sha davr konteksida qarashga va tahlil qilishga o‘rgatishi lozim.

6. Tarix fani o‘qitish metodikasi o‘quvchilarni matnlarni tahlil qilish, tarafkashliklarni baholash, tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish tarixiy fikrash qobiliyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor berishi lozim.

Tadqiqotchi David Pace tarix darslarida yodlash orqali olingan bilimlar o‘rganilgan mavzularni tamoman tushunishga yetarli bo‘lmasligini ta’kidlaydi.[3]

Xronologik yodlangan bilimlar takrorlanib turulmasa inson xotirasidan tezda chiqib ketishini va shu metodga asoslangan darslar o‘quvchilarni hozirgi kunda e‘tiborini tortmayotganini ham eslatib o‘tadi. Lekin bu fikrni to‘la quvvatlash ham yaramaydi. Chunki xronologik yondoshuvdan to‘la voz kechish tarixning ilmiyligini sustlashtirishi fikr bildirishda faktlarga asoslanish so‘zlovchining bilim darajasini yuksakligidan darak beradi. Shu bilan birga qo‘shimcha savollarga ham ehtiyojni qoldirmaydi. Agarda o‘qituvchilarni dars o‘tish jarayonida o‘quvchilarni ham xronologik ham tarixiy tafakkur yondoshuvlarida umumiylikka erisha olsalar o‘quvchilarning bilim saviyasining rivojlanishini ta‘minlaydi. Har bir o‘quvchi berilgan kontekstlarga ma‘lumot manbasi sifatida qaraydi lekin uning tahliliga yetarlicha e‘tibor qaratmadi. Shu sabab esa o‘quvchilarda tanqidiy mulohaza qilish qobiliyati yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi. Hozirda ko‘plab o‘qituvchilar va tadqiqodchilar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va tarixiy tafakkur qobiliyatini rivojlantiruvchi metodikalarga ehtiyoj sezadilar. Agarda o‘qituvchilar bir mavzu yuzasida 2 xil manbani qiyosiy tahlil qilishni o‘rgatsalar bu o‘quvchilarda tanqidiy fikr bildirish qobiliyatini rivojlanishiga olib keladi. Chunki 2 xil manbaning mualliflari bir mavzuga turli tomondan fikr bildiradilar. Bu jarayonda o‘quvchi tarafkashlik qilmasdan masalaga xolis fikr bildirish katta ahamiyatga ega. Tarixiy masala yuzasidan muammoli savol payo bo‘linsa albatta o‘sha davr muhitidan kelib chiqib fikr berilishi bunda o‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchilarga yordam berishi lozim. Agarda o‘quvchilar muammoli vaziyatga baho berishdan oldin umumiy vaziyatni aniq tushunsalar albatta unga muqobil javobni topa oladilar. Tarixni hukmdorlar va sulolalar almashinuvi sifatida o‘rganmasdan voqealar ketma ketligini o‘rganishda o‘qituvchi mavzular orasidagi bo‘shliqlarni tahlil qilishi, sabab va oqibatlarni o‘quvchilarga tushunish imkonini o‘rgatishi lozim. O‘quvchilar ongida tarix bo‘yicha umumiy xarita yaratish qobiliyatini shakllantira olsak o‘quvchilar buni tarixiy fakt va sanalar bilan to‘ldirib keta oladilar, lekin bu qobiliyatni rivojlantiruvchi metodlar ishlab chiqilmasa tarixiy ma‘lumotlarni yodlab borilgani bilan o‘quvchi mavzular yuzasidan chalkashlikka uchrashlari mumkin.

Tadqiqotchilar Joseph Zajda va John A. Whitehouse tarix fani o‘qituvchilar dars o‘tish jarayonida ko‘pincha an’anaviy ya’ni faktlarni yodlashga yoki esda saqlashga e’tibot qaratadigan va aksincha tarixiy jarayonlarni tafakkur qilish orqali tushuntirishga qaratilgan dars mashg‘ulotlarni bir biriga taqqoslaydi. Tarixni o‘rganishda tarixiy tafakkurni ustun qo‘yadi. Bilim bu yozilgan ma’lumotlarni shundayligicha yetkazish emas balki uni qanday paydo bo‘lishini o‘quvchilarga tushuntirib bera olish muhimligini ta’kidlaydi. O‘qituvchilar yozilgan darslil yoki manbalarni chuqur tahlil qilib o‘quvchilarni mulohaza qilishga undaydigan savollar qo‘ya olishi kerak. O‘qituvchi mavzuni teran tushunishi lozim shundagina U o‘quvchilarga kerakli bo‘lgan o‘quv materialini tanlaydi, tayyorlashdi va tushuntira oladi. Tarix o‘qitish metodikasi aniq tashkil etilsa o‘qituvchilar o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradilar:

1. O‘quvchilarda global muammolar (siyosiy va iqtisodiy inqirozlar, etnik va diniy nizolar, urushlarning sabab mohiyatini aniq tahlil qila olishlari va bulardan tegishli xulosa chiqaradilar.

2. Tarixiy tafakkur orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikr va mavjud muammoga o‘z fikrini bildirish shu bilan global muhit bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3. Tarixiy bilimlarni faqat infarmatsion ma’lumot tarzda emas bag‘rikenglik, insoniylik, tinchlikni qadrlash singari tushunchalar vositasida o‘rganadilar.

Ushbu tadqiqotda tarix o‘qitish metodikasining dolzarbligi va metodikani o‘qitishda qanday yondashuvlardan foydalanish lozimligi aniqlab berilgan.[4] Tarixni o‘qitishda yangi bo‘lgan konstruktivistik-o‘quvchilarni faol jalb qilish, Transformatsion-hayotga ta’sir qiluvchi va o‘zgartiruvchi, Germenevtik-mazmunni tahlil qilish va qayta talqin qilish kabi metodik yondashuvlarining afzalliklari yoritib berilgan. O‘qituvchining rolini tubdan o‘zgartirish lozimligi unung oddiy maruzachidan tanqidiy fikrlarni rivojlantiruvchi, muhokamali savollarni paydo qiluvchi, tafakkurni rivojlantiruvchi shaxs darajasiga olib chiqish lozim. Tarixni o‘qitishda milliy va global qarashlar o‘zaro uyg‘un bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy tarix fani o‘qituvchisi nafaqat bilimlarni yetkazib beruvchi shu bilan birga o‘quvchilarning shaxsiy, milliy va global ongini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan yangi metodlardan foydalana olishlari zamon talabi hisoblanadi.

Tarixchi olim W. Robert Houston tarix fani o‘qituvchilarining darsdagi roli haqida to‘xtalar ekan quyidagi fikrlarni ilgari suradi.

1. Daslabki jamiyatlarda tarixni o‘qitish metodikasida og‘zaki tarix metodidan keng foydalanilgan bo‘lsa ham bu uslub hozirda ham keng qo‘llanilib kelmoqda. Bu uslubda xalq og‘zaki ijodidan keng foydalaniladi.

2. Miloddan avvalgi 3000 – yillarda yozuvni paydo bo‘lishi ortidan tarixiy hujjatlarni qayd etish boshlandi. Bu esa o‘z novbatida tarixiy manbalar bilan ishlash ularni dars jarayonlarida tahlil qilish metodikasini rivojlantirishni talab qiladi.

3. Kompyuter internet rivojlangan sari o‘qituvchilar ham o‘z malakalari ustida doimiy ishlashlarini talab etib boradi. Hozirda yoshlar visual vositalar orqali tarixdagi voqealarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari to‘xtovsiz o‘sib bormoqda.

4. Turli davrlarda sodir bo‘lga urushlar, katta siyosiy voqealar o‘qituvchilardan o‘quvchilarga vatanparvarlik, insoniylik tuyg‘ularini kuchaytirishni talab etadi. Shu sababli tarixni o‘qitish metodikasida dars mazmunini hozirgi kundagi aktual voqealar bilan bog‘lash muhim metodik vazifa hisoblanadi.

5. Tarixiy bilimlar ko‘payib va tarmoqlanib borganligi sababli bu fan bo‘yicha bilimli kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib boradi. Tarix fani metodikasining rivoji esa o‘qituvchilarning malakasini oshirib borish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir.

6. O‘qituvchi faqat yetkazib qo‘yuvchi shaxs emas balki madaniy meroslar ahamiyatini tushuntirishi, ularni qanday asrab qolish mumkinligini yoshlarga o‘rgatuvchi pedagogdir.

Tarixchi olim W. Robert Houston yuqorida ilgari surilgan fikrlari nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega.[5] Tarixni o‘rganishda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish foydali ayniqsa boshlang‘ich sinflarda bu metod yaxshi samara beradi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari juda qiziquvchan va ertaklarni yaxshi ko‘rganliklari sababli ularda tarix faniga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Lekin xalq og‘zaki ijodida asl haqiqatga turli uydurmalar va tarixda mavjud bo‘lmagan obrazlarni xam qo‘shilib qolganligi uchun haqiqatni asl mohiyatini o‘quvchilarga yetkazish uchun tarix fani o‘qituvchisidan maxsus bilim talab etadi. Agarda o‘qituvchida adabiyot fanidan yetarli bilim va ko‘nikmalar bo‘lsa u o‘quvchilarni bevosita tarix faniga bo‘lgan qiziqishni oshirishda yordamchi vosita bo‘lib hizmat qiladi. Yuqori sinflarda esa Fransiyada 20 asrda paydo bo‘lgan anallar maktabi nazaryalaridan foydalanish samarali bo‘ladi. Ya‘ni tarixni urushlar va buyuk shaxslarning rakursida emas balki bunda oddiy insonlarnilarni ichki kechinmalari, ruhiyati voqealarning ularning hayotiga qanday ta’sir etishini dars jarayonida tahlil qilsak bu o‘quvchilarni qiziqishlarini oshirishga hizmat qiladi. O‘qituvchilar darsga ushbu metodikadan foydalanishga oid bilimlarni olishga ehtiyoj sezadilar. Insoniyat daslabgi voqealarni kelajak avlodga qoldirishda og‘zaki usuldan foydalangan bo‘lsalar bu usulda ma’lumot qoldirishda turli xil o‘zgarishlar va qo‘shimchalar kiritilgan. Keyinchalik esa yozuvni paydo bo‘lishi esa tarixiy ma’lumotlarni yozib qoldirishga ehtiyoj sezib brogan. Tarixiy matnlardan bilim berish maqsadida dars jarayonida foydalanish hozirgi kunda Yevropa va AQSHda juda ham keng tarqalgan. Bu metoddan foydalanish o‘quvchilarda sodir bo‘lgan davr bo‘yicha aniq tushuncha va bilim beradi. Ushbu metoddan dars faqtida foydalanish uchun o‘qituvchi aniq dars rejasi va material bilan tayyorlanib kelishi mumkin. Bu o‘qituvchidan maxsus malaka talab etadi. O‘qituvchilar bu metoddan foydalanish uchun maxsun o‘quv uslubiy qo‘llanmaga ehtiyoj sezadilar. Materiallarni va qo‘llanmani yaratishda tarixchi olimlardan maslahat olinsa bu juda ham foydali bo‘lar edi. Agarda tarixchi olim va tarixchi pedagoglarni ishlarida hamkorlikka erishilsa o‘quvchilarni tarixiy bilimlarini saviyali oshirishda kompleks natijalarga erishish mumkin. Ko‘plab yoshlar va katta yoshlilar tarixiy bilimlarni nafaqat

kitoblar orqali balki turli vodiolar ko‘rish orqali o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari ham ahamiyatga sazovordir. Masalan: You tube platformasida British pathe kanali 3.4 million, epic history TV 2.53 million, Ted-ed history kanali 19 million, Crash course kanali 16 million obunachisi bo‘lgan kannallarning ko‘plab obunachilariga ega bo‘lishiga asosiy sabab insonlarning o‘tmishdagi voqealarni ko‘rish orqali bilishga bo‘lgan intilishlarini ko‘rish mumkin. Agar bu faqat xorijda samara beradi deb o‘ylasak o‘zbek tilida segment qiluvchi Turfa olam kanali 2milliondan ziyod, xuddi shunday kanalida esa 200 mingdan ziyod obunachini ko‘rish mumkin. Insonlar qadimgi davrda bo‘lgan voqea va hodisalarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rishga bo‘lgan qiziqishlari yuqoriligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda suniy intellekt bilan qisqa vaqtda turli xil video va animatsiyalar va tarixiy shaxslarni obrazini bittagina rasm orqali jonlantirish bilan kontetlarni tayyorlash mumkin, Bu imkoniyatlarda tarix fani o‘qituvchilarda foydalanishda yetarli malaka va metodika yetishmaydi. Agarda ushbu ko‘nikmani shakllantirish uchun zaruriy qo‘llanma va video darslarni tayyorlash yo‘lga qo‘yilsa bu bilan tarix fani o‘qituvchilari o‘z darslarini yanada qiziqarli o‘tishlari va bu ko‘nikma bilan qo‘shimcha mablag‘ ham topishlari mumkin. Tarix darslarida o‘qituvchilar mavzularni hozirgi kundagi aktual voqealar bilan bog‘lash bo‘yicha metodikaga ehtiyoj sezadilar. Agarda bu ko‘nikma shakllansa o‘qituvchilar o‘tmishda bo‘lgan voqea va hodisalarda yetarlicha saboq olib kelajakka bu qanday ta’siri bo‘lishi doirasida o‘z pragnoz qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu Ko‘nikma ularga ijtimoiy, ma’daniy va iqtisodiy foyda keltiradi. Shu bilan birga ularda vatanparvarlik hissi ham salmoqli darajada oshishi mumkin. Tarix fani ilmiy jihatdan vaqt o‘tgani sayin turli bilimlar va ma’lumotlar bilan boyib bormoqda bunga asosiy sabab fan-texnologiyalari rivoj topgayin sari avval mavjud nazariya va bilimlar o‘zgartirilmoqda kamchiliklar esa tuzatib borilmoqda. Malakali tarix fani o‘qituvchisi esa bu ma’lumotlarni o‘rgani boorish va tahlil qilishi kerak. Lekin tarix fani ummon kabi chegarasi yo‘q, barcha ma’lumotlarni bilish esa imkonsizdir. Agarda tarixni o‘qitishda zamonaviy metodikalarni rivojlantiruvchi qo‘llanmalar yanada ko‘paysa o‘qituvchilarning ishini yengillashtirish mumkin.

Tadqiqot natijalari tarix fanining o‘qitilishi zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu fan nafaqat o‘tmishni anglash, balki kelajakni ilmiy asosda tahlil qilish uchun muhim vosita hisoblanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy fikrlariga ko‘ra, tarix ta’limi milliy ongini rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish hamda o‘qituvchilarni ilmiy mulohaza yuritishga yo‘naltirishda muhim rol o‘ynaydi. Tarix fanini o‘qitish metodikasining takomillashuvi o‘qituvchilarning ilmiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur. Ushbu metodika takomillashuvi quyidagi asosiy maqsadlarni qamrab olishi kerak:

- Tanqidiy tafakkurni shakllantirish – tarix fanining asosiy maqsadi o‘qituvchilarni mustaqil tahlil qilish va muammolarni ilmiy asosda anglashga o‘rgatishdir.
- Bahsli tarixiy voqealarni tahlil qilish – tarixni faqat faktlar yig‘indisi emas, balki turli nuqtai nazarlarga asoslangan voqealar majmuasi sifatida anglash muhimdir.

- Global muammolarni tushunish – tarixiy hodisalar zamonaviy jamiyatning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini anglash o‘quvchilarda keng dunyoqarashni shakllantiradi.

- Axborot manbalarini tahlil qilish – zamonaviy ta’limda tarixiy manbalarning ishonchliligini baholash va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

Tarix fanini samarali o‘qitish quyidagi pedagogik va metodologik omillarga bog‘liq:

- Pedagogik yondashuv – o‘qituvchilarning malakasi, ularning zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish qobiliyati ta’lim sifatini belgilovchi asosiy faktor hisoblanadi.

- Interaktiv va vizual ta’lim metodlari – o‘quvchilar tarixiy hodisalarni nafaqat o‘qib, balki tasviriy vositalar orqali idrok qilishlari uchun sun’iy intellekt, animatsiya va boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi.

- Tarixiy tafakkurni rivojlantirish – tarixiy hodisalarni faqat yodlash emas, balki ularning sabablari va oqibatlarini tahlil qilish orqali o‘rganish talab etiladi.

- Ilmiy va metodik ko‘rsatmalar – tarix fanini o‘qitish bo‘yicha xalqaro hujjatlar, xususan, Yevropa Kengashining “Zamonaviy Yevropada tarixni o‘qitish bo‘yicha tamoyillar va yo‘riqnomalar” hujjati ta’limni global kontekstdan anglashga xizmat qiladi.

- O‘qituvchining roli – tarix fani o‘qituvchisi nafaqat ma’lumot yetkazuvchi, balki o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga undovchi shaxs bo‘lishi lozim.

XULOSA. Yuqoridagi natijalarga tayangan holda shuni xulosa qilamizki, tarix fanini o‘qitish jarayonida nafaqat faktlarni yodlash, balki ularni tahlil qilish va muhokama qilish qobiliyatini shakllantirish lozim. David Pace va Joseph Zajda kabi olimlar fikriga ko‘ra, o‘qituvchilar tarixni tanqidiy yondashuv asosida o‘rgatishi, shuningdek, xalqaro standartlarga mos zamonaviy metodikalarni qo‘llashi zarur. Yevropa Kengashining tavsiyalari asosida, tarix ta’limi demokratik va inklyuziv tamoyillarga tayangan holda, o‘quvchilarda tarixiy tafakkur va fuqarolik ongini rivojlantirishga qaratilishi kerak. Shuning uchun ham, tarix o‘qituvchilarining doimiy professional o‘sishi va pedagogik innovatsiyalarni qo‘llashi ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning chuqur tarixiy tushunchalarini shakllantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Tarix fanini o‘qitishda klassik yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy, tanqidiy va interaktiv metodikalar qo‘llanilishi zarur. Tarix o‘qituvchilari o‘z metodik tayyorgarligini muntazam takomillashtirib borishi, xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishi lozim. Tarixiy voqealarning ko‘p qirrali tahlili, manbalar bilan ishlash malakasi, sabab-oqibat aloqalarini tushuntirish kabi ko‘nikmalar o‘quvchilarda chuqur tarixiy tafakkurni shakllantiradi. Shu bois, tarix ta’limi bugungi kunda faqatgina o‘tmishni o‘rgatish vositasi emas, balki kelajak avlodni ongli, tanqidiy fikrlovchi va fuqarolik ma’suliyatini anglaydigan shaxs sifatida tarbiyalovchi strategik sohaga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tarix va jug‘rofiya. «Oina», 1914, 502-505 b.
2. Yevropa Kengashi. (2018). *21-asrda sifatli tarix ta’limi: tamoyillar va yo‘riqnomalar*. Strasburg: Yevropa Kengashi. Manba: <https://www.coe.int/en/web/history-teaching/quality-history-education-in-the-21st-century>
3. David Pace. The Amateur in the Operating Room: History and the Scholarship of Teaching and Learning. *Americal historical review*.10.2004.
4. Joseph Zajda and John A. Whitehouse. Teaching history. The Teaching of Reading, Springer International Handbook of Research on Teachers and Teaching volume 21,-P.905-917.
5. Joseph Zajda and John A. Whitehouse. Teaching history. The Teaching of Reading, Springer International Handbook of Research on Teachers and Teaching volume 21,-P.905-917.



MUSTAQIL TA‘LIM FAOLIYATIDA TALABALARNI PEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI.

Azizova Umida Xabibullayevna

Namangan davlat universiteti doktoranti

Email: umida.azizaova.89@inbox.ru

Inamov Dilmirza Dadamirzayevich

Namangan davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Madaniyat haqida so‘z yuritar ekanmiz, uning murakkab va ko‘p qirrali ma‘naviy-ijtimoiy hodisa ekanligini, jamiyatda inson turmushi va uning har tomonlama faoliyatini aks ettirishini ta‘kidlab o‘tish muhimdir. Ushbu maqolada pedagogik madaniyatning mohiyati, tarkibiy qismlari va uning muhim shartari to‘g‘risidagi fikrlar yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik madaniyat, madaniyat, ma‘naviy madaniyat, moddiy-madaniyat, yaratuvchanlik, san‘at, axloq, inson faoliyati, shaxs madaniyati, siyosiy madaniyat, xulq madaniyati, estetik madaniyat.

Аннотация: Говоря о культуре, важно подчеркнуть, что это сложное и многообразное духовное и социальное явление, отражающее жизнь человека и его всестороннюю деятельность в обществе.

Ключевые слова: Педагогическая культура, культура, духовная культура, материальная культура, творчество, искусство, этика, человеческая деятельность, культура личности, политическая культура, поведенческая культура, эстетическая культура.

Abstract. Speaking about culture, it is important to emphasize that this is a complex and diverse spiritual and social phenomenon that reflects a person's life and his comprehensive activities in society. This article highlights the essence, components and important conditions of pedagogical culture.

Key words: Pedagogical culture, culture, spiritual culture, material culture, creativity, art, ethics, human activity, personal culture, political culture, behavioral culture, aesthetic culture.

Kirish.

Pedagogik madaniyat – bu o‘qituvchining va ta‘lim oluvchining kasbiy faoliyatidagi axloqiy, estetik, kommunikativ, innovatsion va kasbiy kompetensiyalar majmui bo‘lib, bu ular orasidagi munosabatlar, ta‘lim berish jarayoni va shaxsiy namuna orqali namoyon bo‘ladi.

Madaniyat alohida individning hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat), ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradi. Madaniyat – rus tilida «kultura» iborasi bilan atalib, (lotinchada cultura –«ishlovberish», «yetishtirish» ma’nosini anglatadi), insoniyat tomonidan ijtimoiy-tarixiy amaliyoti jarayonidan yaratilgan va yaratilayotgan, jamiyatning rivojlanishdagi tarixiy erishilgan darajasini ifoda etuvchi moddiy-ma’naviy qadriyatlari to‘plamidan iborat bo‘ladi. Demak, madaniyat, birinchidan, insonning maqsadli ravishda tabiatga ta’siri, ikkinchidan, insonning ma’lum muhitda tarbiyalanishi, ta’lim olishi demakdir. Pedagogik madaniyat – pedagogik tushunchalar va mahorat, pedagogik axloq va kasbiy-pedagogik xislatlar, pedagogning ish uslubi va o‘z faoliyatiga munosabatlari yig‘indisidir. Pedagogik madaniyatning namoyon bo‘lishi va uning qadriyatga, turmush tarziga aylanishi uchun insondan yuqori kasbiy salohiyat, ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy barkamollik talab qilinadi. Mustaqil ta’lim talabalarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘z tadqiqotlarini tengdoshlari bilan muhokama qilish orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari ham rivojlanadi. Talabalar fanga tegishli bilimlarni 40-50 foizini bevosita mustaqil o‘rganish orqali o‘zlashtiradi. Mustaqil ta’lim o‘quvchilarga tabaqalashtirilgan topshiriqlar berish imkonini ham beradi.

Pedagogik madaniyat o‘qituvchi shaxsiga, uning tarbiya va tarbiyaviy faoliyat sharoitidagi xulq-atvoriga xos xususiyatdir. Bugungi kunda pedagogik madaniyat kontseptsiyasini har qanday ta’rif bilan cheklash juda qiyin. Asosiy qiyinchilik madaniyat nima ekanligini tushunishdan kelib chiqadi. Bugungi kunda bu haqda ko‘p yozilgan, faqat uning ta’riflari besh yuzdan ortiq. Ikkinchi muammoli nuqta - pedagogik faoliyatning murakkabligi. Turli xil spekulativ tushunchalar tadqiqotimiz ob’ekti haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmaydi. Zamonaviy o‘qituvchi faoliyatining muhim va ayni paytda murakkab xususiyatlaridan biri bu pedagogik madaniyat kabi murakkab tushunchadir. Zamonaviy maktabda ham, oilada ham ta’lim jarayonining barcha ko‘p qirraliligini hisobga olsak, shuni ta’kidlash kerakki, uning nima ekanligini aniq ko‘rsatib, uni aniqlash oson emas. Ammo shunga qaramay, biz o‘tgan va hozirgi asrlarning nufuzli o‘qituvchilarining g‘oyalarini, madaniyat va jamiyat taraqqiyotidagi zamonaviy tendentsiyalarni hisobga olgan holda buni qilishga harakat qilamiz. Pedagogik madaniyat tushunchasiga qaytsak, uning ancha yosh ekanligini qayd etamiz. Uning paydo bo‘lishi zamonaviy jamiyatda o‘quv jarayoniga texnokratik qarashlardan gumanitar qarashlarga o‘tish bilan bog‘liq. Avtoritar munosabatlar demokratik munosabatlarga o‘tadi va bu borada o‘qituvchining mas’uliyati ortadi.

Adabiyotlar tahlili:

E.A.Grishin pedagogik madaniyatni ifoda etib, o‘qituvchining quyidagi kasbiy ahamiyatga molik sifatlarini ko‘rsatadi: umumiy bilimdonlik; o‘z fanini bilish, pedagogik bilim va mahoratlarini doimiy rivojlantirib borish; pedagogik kasbini sevish; odamiylik, haqiqatgo‘ylik va talabchanlik; ko‘zatuvchanlik, e’tiborlilik va odoblilik.

Texnologiya — biror ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladigan usullar, yo‘llar yig‘indisi. Pedagogik texnologiya — o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik

muvaffakqiyatni kafolatlay oladigan, o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. (V.Bes’alko).

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada barcha o‘quv yurti muassasalarida ta’lim oladigan talabalarning mustaqil talim darslarida pedagogik madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Ta’lim sifatining nafaqat o‘lchovini, balki standartini ham aniqlash kerak. Bundan kelib chiqib, pedagogik madaniyat kabi tushunchaga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Tahlillar va natijalar.

O‘qituvchining dunyoqarashi uning o‘y fikrlari va his tuyg‘ularini ahloqiy sifatlari va o‘z mehnati natijasi uchun fuqarolik mas’uliyatini ifodalaydi. Aynan dunyo qarash madaniyatida pedagogik xulosalar shakllanish jarayoni natijasi ifodalanadi, shaxsiy qiziqishlar, qadriyatlar aniqlanadi. Pedagogik muloqot – madaniyati eshitish va suhbatdoshni tinglash savol bera olish, aloqo‘rnatish, boshqa kishini tushunish, pedagogik vaziyatlarda yo‘l topa olish ko‘nikmalarida ifodalanadi. Pedagogning ish o‘rni madaniyati – uning ish vaqti va shaxsiy vaqtini tashkil eta olishda hujjatlar bilan, adabiy manbalar bilan ishlay olishi, zarur axborotlarni belgilash, qayta ishlash, uni tanlash va saqlash ko‘nikmalarini nazarga tutadi. Pedagogik madaniyatning muhim komponentlardan biri pedagogik mahoratdir. Pedagogik mahorat – bu rivojlangan psixologik – pedagogik tafakkur, pedagogik bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va hissiy irodaviy ifodalanagan vositalar tizimi bo‘lib pedagog shaxsining yuksak rivojlangan shaxsiy sifatlari bilan birgalikda unga o‘quv tarbiyaviy topshiriqlarni hal etish uchun yordam beradi. Pedagogik mahoratning markaziy komponenti rivojlangan psixologik-pedagogik tafakkur bo‘lib, u pedagogik faoliyatdagi ijroklikka asoslanadi. Mahoratli pedagog tafakkuri, mustaqilligi, egiluvchanligi va tezligi bilan ajralib turadi. Pedagogik ijroklik – pedagogik jarayonda har doim yangi va asoslangan ta’lim–tarbiyaning turli metod va shakllarni qo‘llay olish, kasbiy bilim va shaxsiy sifatlarda namoyon bo‘ladi. Shuningdek pedagogik g‘oyalarni anglash, o‘quv tarbiya faoliyati usullari noan’anaviy topshiriqlarni yecha olish ko‘nikmalarida ham ifodalanadi. Pedagogik optimizm – bu o‘z kuchi va qobiliyatiga ishonish va o‘quvchilarning qobiliyatlari hamda imkoniyatlariga, yuqori o‘quv va kasbiy natijalariga erishishga ishonish.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik madaniyat komponentlari orasida murakkab bog‘liqliklar mavjud bo‘lib ular shaxsning psixologik xususiyatlari va unda o‘qituvchining shaxs va mutaxassis shakllanishi mujassamlashadi. Pedagogik madaniyati egallash murakkab va uzoq davom etadigan jarayon. Pedagogik madaniyat elementlari maktabda oilada shakllana boshlanadi. Mustaqil ta’lim individual yondashuv, akademik tanlovning xilma-xilligi bilan talabani ko‘proq jalb etadi. Mustaqil izlanish natijasida turli manbalar bilan tanishish talaba dunyoqarashi rivojlanishiga xizmat qiladi. Tashabbuskorlik ko‘nikmalari shakllanadi. Shuningdek, mustaqil o‘qish muammolar yechimi bo‘yicha jamoaviy muhokamalarda yetakchi mavqeni egallash uchun zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. M.J.Mutalipova, “Xalq pedagogikasi” Toshkent, O‘zbekiston, 2010. 180b
2. O. Suvanov, S.Atanova. “Pedagogik mahorat”. –Guliston 2010. 127b
3. Ivanov I., Zufarova M. —Umumiy psixologiyal. O‘z.FMJ., 2008. 264b
- 4.Xaydarov F.I., Xalilova N. —Umumiy psixologiyal. T.: —Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi : 2009. 95b
5. Абдуллаева, III. (2019). Ta’limda innovatsion texnologiyalar va mustaqil ta’limni tashkil etish asoslari. – Toshkent: Fan.
6. G‘ofurov, Q. (2019). Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishning zamonaviy yo‘llari. – “Pedagogika va psixologiya” jurnali, №3.
7. Sharipova, G. (2018). O‘qituvchi shaxsining pedagogik madaniyati va uning rivojlanish omillari. – O‘zMU Ilmiy axboroti.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

KOMMUNIKATIV AKT VOSITASIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY MULOQOTINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Axmedov Akmal Yusufovich

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

akmal0086ahmedov@gmail.com

+99891 686 89 21

Annotasiya: Ushbu maqola bo‘lajak pedagoglarning kasbiy muloqotini rivojlantirishda kommunikativ aktning o‘rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan. Kommunikativ akt pedagogik faoliyatda vosita sifatida nafaqat muloqot jarayonini takomillashtiradi, balki didaktik va madaniyatlararo muloqotni samarali tashkil etishda ham xizmat qiladi. Maqolada pedagogik muloqotni rivojlantirish uchun kommunikativ aktlardan foydalanish omillari, innovatsion texnologiyalar va amaliy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot pedagoglarning kommunikativ kompetentligi va kasbiy faoliyatini mustahkamlashga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: Kommunikativ akt, kasbiy muloqot, bo‘lajak pedagoglar, nutqiy kompetentlik, madaniyatlararo muloqot, didaktik yondashuv, innovatsion texnologiyalar, kommunikativ kompetentlik.

FACTORS FOR DEVELOPING FUTURE EDUCATORS' PROFESSIONAL COMMUNICATION THROUGH COMMUNICATIVE ACTS.

Abstaract: This article aims to highlight the role and significance of communicative acts in developing future educators' professional communication. Communicative acts serve as tools in pedagogical activities not only to enhance the communication process but also to effectively organize didactic and intercultural interactions. The article examines factors for utilizing communicative acts, innovative technologies, and practical approaches to develop pedagogical communication. This research contributes to strengthening educators' communicative competence and professional activities.

Keywords: communicative act, professional communication, future educators, speech competence, intercultural communication, didactic approach, innovative technologies, communicative competence.

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ЧЕРЕЗ КОММУНИКАТИВНЫЙ АКТ.

Аннотация: Настоящая статья направлена на раскрытие роли и значимости коммуникативного акта в развитии профессионального общения будущих педагогов. Коммуникативный акт в педагогической деятельности служит средством не только для совершенствования процесса общения, но и для эффективной организации дидактического и межкультурного взаимодействия. В статье рассматриваются факторы использования коммуникативных актов, инновационные технологии и практические подходы для развития педагогического общения. Данное исследование вносит вклад в укрепление коммуникативной компетентности педагогов и их профессиональной деятельности.

Ключевые слова: коммуникативный акт, профессиональное общение, будущие педагоги, речевая компетентность, межкультурное общение, дидактический подход, инновационные технологии, коммуникативная компетентность.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim sohasida pedagoglarning kasbiy muloqotini rivojlantirish dolzarb masala bo'lib, bu ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va o'quvchilarning talablariga moslashish jarayonida muhim o'rin tutadi. Muloqot — bu nafaqat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi axborot almashinuvi, balki bilim, tajriba va qadriyatlarni uzatishning asosiy vositasidir. Shu ma'noda, kommunikativ aktlar pedagoglarning kasbiy muloqot kompetentligini oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy muloqotini rivojlantirishning ahamiyati shundan iboratki, bugungi kunda ta'lim jarayoni faqatgina ma'lumot yetkazishga qaratilgan emas, balki o'quvchilarni interaktiv va ijodiy fikrlashga jalb qilishni ham talab qiladi. Kommunikativ aktlar orqali pedagoglar o'z muloqot ko'nikmalarini takomillashtirib, dars jarayonini interaktiv usullarda tashkil etishlari mumkin. Mazkur mavzuni yoritishning dolzarbligi zamonaviy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, ya'ni madaniyatlararo muloqotning ahamiyatining ortib borishi va innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi bilan bog'liq. Ushbu tadqiqot bo'lajak pedagoglarga nafaqat kasbiy muloqotni samarali tashkil etish, balki o'z-o'zini rivojlantirish uchun ham yangi imkoniyatlar taqdim etadi. Shuningdek, kommunikativ akt vositasida kasbiy muloqot strategiyalarini ishlab chiqish ta'lim jarayonida yuqori sifatni ta'minlashga hissa qo'shadi.

KOMMUNIKATIV AKTNING TA'RIFI VA AHAMIYATI

Kommunikativ akt — bu muloqot jarayonida axborot almashinuvi, fikr bildirish va o'zaro munosabatlarni o'rnatish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyatda kommunikativ aktlar o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va didaktik yondashuvlarni takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Kasbiy muloqotni rivojlantirish omillari

1. **Innovatsion texnologiyalarni qo'llash:** Interaktiv dars usullari va kommunikativ mashqlar orqali pedagoglar o'z muloqot ko'nikmalarini takomillashtirishi mumkin.

2. **Madaniyatlararo muloqot:** Turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish orqali pedagoglar o‘z kommunikativ kompetentligini oshiradi.

3. **Didaktik yondashuvlar:** Dars jarayonida kommunikativ aktlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

Bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun maxsus treninglar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilishi lozim. Bu jarayon pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kommunikativ aktlar pedagogik faoliyatda nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ularning ehtiyojlarini tushunish va dars jarayonini interaktiv qilish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayon o‘qituvchining nafaqat kasbiy, balki shaxsiy kompetentligini ham oshiradi.

Kommunikativ akt tushunchasi lingvistika va muloqot nazariyasida XX asrda rivojlangan. Ushbu tushuncha dastlab nutq aktlari nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, J.L.Austin va J.R.Searle kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Austinning "How to Do Things with Words" asari nutq aktlari nazariyasining asosini tashkil etadi. Ushbu nazariya muloqot jarayonida so‘zlarning faqatgina ma‘no ifodalash emas, balki harakatni amalga oshirish vositasi sifatida ham xizmat qilishini ko‘rsatadi. Keyinchalik kommunikativ akt tushunchasi pedagogika, psixologiya va madaniyatlararo muloqot sohalarida keng qo‘llanila boshlandi.

Kommunikativ akt — bu muloqot jarayonida axborot almashinuvi, fikr bildirish va o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. U quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Axborot almashinuvi:** Kommunikativ akt orqali shaxslar o‘rtasida ma'lumot, fikr va g‘oyalar almashiladi.

2. **Madaniyatlararo muloqot:** Turli madaniyat vakillari o‘rtasida muloqotni samarali tashkil etish imkonini beradi.

3. **Didaktik yondashuv:** Ta'lim jarayonida o‘quvchilarni interaktiv va ijodiy fikrlashga jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Kommunikativ aktning mohiyati shundan iboratki, u nafaqat muloqot jarayonini takomillashtiradi, balki shaxsiy va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Kommunikativ aktning komponentlari muloqot jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu komponentlar quyidagilardan iborat:

☑ **Kommunikativ maqsad:** Har bir muloqot aktining asosiy maqsadi bo‘lib, bu maqsad orqali muloqotning yo‘nalishi va mazmuni aniqlanadi. Masalan, axborot almashish, fikr bildirish yoki munosabat o‘rnatish.

☑ **Kommunikativ vositalar:** Muloqot jarayonida foydalaniladigan vositalar, jumladan, verbal (so‘zlar, nutq) va noverbal (mimika, imo-ishoralar) vositalar.

☑ **Kommunikativ kontekst:** Muloqotning sodir bo‘ladigan sharoiti va vaziyatini o‘z ichiga oladi. Bu muloqotning mazmunini to‘g‘ri tushunish uchun muhimdir.

☑ **Kommunikativ ishtirokchilar:** Muloqotda qatnashuvchi shaxslar yoki guruhlar. Ularning roli va munosabatlari muloqotning samaradorligiga ta'sir qiladi.

☑ **Kommunikativ natija:** Muloqot jarayonining yakuniy natijasi, ya'ni maqsadga erishish darajasi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy muloqotini rivojlantirishda kommunikativ aktning o‘rni juda muhimdir. Bu jarayon o‘qituvchining nafaqat muloqot ko‘nikmalarini, balki kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi. Quyida kommunikativ aktning o‘rni haqida asosiy jihatlar keltirilgan:

1. Muloqot samaradorligini oshirish: Kommunikativ aktlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi axborot almashinuvi jarayonini takomillashtiradi. Bu o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi.

2. Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish: Kommunikativ aktlar orqali o‘qituvchilar turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa global ta'lim muhitida muhim ahamiyatga ega.

3. Didaktik yondashuvlarni takomillashtirish: Kommunikativ aktlar dars jarayonini interaktiv va ijodiy qilish imkonini beradi. Bu o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Kasbiy kompetentlikni oshirish: Kommunikativ aktlar o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini mustahkamlashga yordam beradi. Bu esa ularning ta'lim jarayonida yuqori sifatni ta'minlashiga imkon yaratadi.

5. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash: Kommunikativ aktlar zamonaviy texnologiyalar bilan birgalikda qo‘llanilganda, ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Ushbu jihatlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy muloqotini rivojlantirishda kommunikativ aktning qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Kommunikativ akt bo‘lajak pedagoglarning kasbiy muloqotini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon pedagoglarning nafaqat nutqiy kompetentligini, balki madaniyatlararo muloqot, didaktik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

☑ Kommunikativ aktlar o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish va ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

☑ Madaniyatlararo muloqot strategiyalari pedagoglarning global kompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

☑ Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish mumkin.

☑ Didaktik yondashuvlarni takomillashtirish o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi.

Shu sababli, kommunikativ akt asosida pedagoglarning kasbiy muloqotini rivojlantirishga qaratilgan maxsus treninglar, mashg‘ulotlar va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish ta'lim sifatini oshirishga hissa qo‘shadi. Ushbu yondashuv nafaqat pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi, balki ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

- 1.Халиков А.А. Олий таълим муассасасида бўлажак тингловчиларнинг педагогик маҳоратини ривожлантириш. пед. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD). дис. автореф. – Т.: 2018. – Б. 22.
2. Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Namangan – 2019. 5-6 3.Yusufovich, A. A., & O‘G‘Li, E. O. A. (2022). Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini takomillashtirishning pedagogik asoslari. *Science and innovation*, 1(B3), 40-46.
4. Yusufovich, A. A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(1), 302-304.
5. Ахмедов, А. Ю. (2022). Бўлажак ўқитувчиларда коммуникатив компетентлиликни шакллантириш масалалари. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 5-9.



UDK: 371.33:004.9

ORCID: 0009-0008-92587625

ZAMONAVIY SINFXONALARDA INTERAKTIV MULTIMEDIA VOSITALARINING ROLI

Abdukarimova Navbahor Amet qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xorijiy tillar ta'lim kafedrasi
Ingliz-tili o'qituvchisi.
n.abdukarimova@tsue.uz

Annotatsiya. Zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv multimedia vositalari o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, bilimni chuqurroq egallash va o'zlashtirish darajasini yaxshilashda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada interaktiv doskalar, proyektorlar, ta'limiy dasturlar, videodarslar va boshqa raqamli vositalarning sinfda qo'llanishi, ularning samaradorligi hamda pedagogik jarayonga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilar bilan individual ishlash, fikrlashni rivojlantirish va darslarni jonlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Interaktiv vositalar o'qituvchining metodik yondashuvlarini boyitadi hamda sifatli ta'limga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: interaktiv vositalar, multimedia, zamonaviy ta'lim, sinfxona texnologiyalari, videodarslar, raqamli ta'lim, interaktiv doska.

РОЛЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ В СОВРЕМЕННЫХ КЛАССНЫХ КОМНАТАХ

Аннотация. В современном образовательном процессе интерактивные мультимедийные средства играют важную роль в повышении интереса учащихся к урокам, углублении знаний и улучшении уровня усвоения. В данной статье анализируется использование интерактивных досок, проекторов, образовательных программ, видеоуроков и других цифровых средств в классе, их эффективность и влияние на педагогический процесс. Также рассматриваются возможности индивидуальной работы с учащимися, развития мышления и оживления уроков с помощью современных технологий. Интерактивные средства обогащают методические подходы учителя и способствуют качественному образованию. Ключевые слова:

интерактивные средства, мультимедия, современное образование, технологии в классе, видеоуроки, цифровое образование, интерактивная доска.

THE ROLE OF INTERACTIVE MULTIMEDIA TOOLS IN MODERN CLASSROOMS

Abstract. In the modern education process, interactive multimedia tools play a significant role in enhancing students' interest in lessons, deepening knowledge acquisition, and improving the level of understanding. This article analyzes the application of interactive whiteboards, projectors, educational programs, video lessons, and other digital tools in the classroom, their effectiveness, and their impact on the pedagogical process. Additionally, it sheds light on the opportunities to work individually with students, develop thinking skills, and enliven lessons using modern technologies. Interactive tools enrich the teacher's methodological approaches and serve quality education.

Keywords: interactive tools, multimedia, modern education, classroom technologies, video lessons, digital education, interactive whiteboard.

KIRISH

XXI asrda ro‘y berayotgan texnologik taraqqiyot hayotning deyarli barcha jabhalarini, ayniqsa, ta‘lim sohasini tubdan o‘zgartirmoqda. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar, interaktiv qurilmalar va multimedia ilovalari ta‘lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Jumladan, interaktiv doskalar, proyektorlar, elektron darsliklar va virtual laboratoriyalar kabi vositalarning qo‘llanilishi darslarning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada sinfxonalarda multimedia vositalarining tutgan o‘rni, ularning afzalliklari, joriy etishdagi qiyinchiliklar hamda kelajakdagi istiqbollari yoritib beriladi.

Multimedia vositalarining ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu texnologiyalar orqali o‘quv jarayoni yanada interaktiv, qiziqarli va tushunarli bo‘ladi. Videodarslar, animatsiyalar, taqdimotlar va turli interaktiv dasturlar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi hamda ularning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Bunday imkoniyatlar nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham yangi uslublar va yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi.

Shuningdek, multimedia vositalari murakkab mavzularni sodda va tushunarli qilib tushuntirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, tarixiy voqealarni animatsiya tarzida tasvirlash yoki uch o‘lchamli modellar orqali geometriyani o‘rgatish darsni osonroq qabul qilish imkonini yaratadi. Bu vositalar o‘qituvchining vaqtini tejab, bilimlarni tizimli va aniq shaklda yetkazishga ko‘maklashadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida AKT sohasining jadal rivojlanishi, bu texnologiyalarni ta‘lim tizimiga keng tatbiq etish masalasi dolzarb sanaladi. Interaktiv vizual

aloqa vositalari orasida skribing texnologiyasi ayniqsa samarali vosita sifatida ajralib turadi. Skribingdan ta’lim jarayonida foydalanish o‘quvchilarning tinglash, ko‘rish va tasavvur qilish qobiliyatlarini bir vaqtning o‘zida ishga solishga imkon yaratadi. Ayniqsa, chet tillarini o‘rganish jarayonida bu texnologiya juda foydali, chunki bu jarayonda bilimni vizual tarzda aks ettirish o‘quvchilarning tafakkurini kengaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

Mutaxassislar, jumladan, N.V. Voroshilov, A.V. Tolmacheva va E.N. Kuklar o‘z tadqiqotlarida skribingning o‘quv materialini tushunarli tarzda tasvirlar orqali yetkazishdagi roliga e’tibor qaratadilar. Skribing turli shakllarda bo‘lishi mumkin: bu tayyor video materiallar, o‘qituvchi tomonidan yaratilgan chizmalar yoki mavzuga oid taqdimotlardir. Video va statik skribing o‘rtasidagi farq – bu usullarning vizual elementlar orqali o‘zaro bog‘liqlikni ifodalash imkoniyatidadir. Ularning asosiy afzalliklaridan biri — o‘quvchilar axborotni eshitish, ko‘rish va tasavvur qilish orqali yanada yaxshi o‘zlashtiradilar.

Skribing ta’lim jarayonida mustaqil fikrlashni kuchaytirish, vizual muloqotni rivojlantirish va umumiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotchilar — N.V. Bystrova, I.L. Belova va A. Sayed — bu texnologiyaning ijobiy jihatlarini sanab o‘tadilar: eslab qolish osonligi, tushunishni yengillashtirish, universal vizual til vositalaridan foydalanish va o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish.[2; 51,55-b]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Interaktiv multimedia vositalari — bu matn, tasvir, ovoz, video va animatsiyani o‘z ichiga olgan, foydalanuvchi bilan faol muloqotni amalga oshira oladigan texnologik yechimlardir. Ushbu vositalar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ta’lim jarayonini jonlantiradi va murakkab tushunchalarni osonroq anglashga ko‘maklashadi.

Asosiy interaktiv texnologiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1	Interaktiv doskalar — ularda yozish, chizish va turli materiallar bilan amaliy shug‘ullanish mumkin;
2	Proyektorlar — vizual axborotni ko‘plab auditoriyaga bir vaqtda yetkazadi;
3	Kompyuter va planshetlar — individual yoki guruhli ishlar uchun keng foydalaniladi;
4	Multimedia darsliklar va interaktiv dasturlar — topshiriqlar va nazorat vositalari bilan boyitilgan;
5	Virtual laboratoriyalar — tajriba o‘tkazishni simulyatsiya qilish imkonini beradi;

1-jadval

Ta’limiy mobil ilovalar — bilimlarni mustahkamlashda yordam beradi.

Zamonaviy sinfxona bu — raqamli texnologiyalar bilan ta’minlangan, har bir o‘quvchiga alohida yondashuvni qo‘llash, ko‘rgazmali materiallar asosida o‘qitish va ijodiy muhitni yaratishga xizmat qiluvchi o‘quv muhitidir. Bunda multimedia texnologiyalari ta’limning ajralmas qismiga aylangan.

Bulut texnologiyalari asosidagi platformalar (Google Classroom, Moodle)

Ushbu vositalar orqali ma'lumotlar vizual, eshitish va kinestetik uslublar yordamida yetkaziladi, bu esa har xil o'quv uslublarini qo'llab-quvvatlaydi [4; 90,92-b].

Interaktiv multimedia texnologiyalarining afzalliklari:

Motivatsiyani kuchaytiradi: O'quvchilarni darsga jalb qiladi va ularni faol ishtirok etishga undaydi;

Axborotni qamrab olishni osonlashtiradi: Ayniqsa vizual va eshitish orqali yaxshi o'rganadigan o'quvchilar uchun foydalidir;

Ijodiy salohiyatni oshiradi: Video taqdimotlar, animatsiyalar va loyihalar yaratish imkonini beradi;

Shaxsiylashtirilgan ta'limni ta'minlaydi: Har bir o'quvchining o'z tezligida bilim olishiga imkon beradi;

Baholashni qulaylashtiradi: Interaktiv testlar va savol-javoblar orqali bilimlarni tekshirish osonlashadi.

O'qituvchining texnologik tayyorgarligi multimedia vositalaridan samarali foydalanishda muhim rol o'ynaydi. Quyidagi metodik yondashuvlar ayniqsa foydalidir:

Vizual metodlar: Video, grafik va slaydlar orqali mavzularni tushuntirish;

Interfaol yondashuv: Savol-javoblar, guruhli muhokamalar, o'yinli metodlar;

Ijodiy loyihalarga asoslangan o'qitish: Multimedia vositalari orqali mustaqil yoki guruhliy ijodiy ishlar olib borish;

Masofaviy ta'lim vositalari: Platformalar orqali sinfdan tashqari ta'limni tashkil qilish.

O'quvchilar multimedia vositalarini yuqori baholaydilar. Ular bu vositalar yordamida:

dars mazmunini tezroq va chuqurroq tushunadilar,

topshiriqlarga tezda javob beradilar,

o'z fikrlarini erkin bayon etish imkoniga ega bo'ladilar.

Shuningdek, ular multimedia orqali o'rganilgan mavzularni uzoqroq vaqt eslab qolishlarini ta'kidlashadi.

Turli fanlarda multimedia texnologiyalarining qo'llanilishi:

Matematika: Geometrik shakllarni jonlantirish, formulalarni ko'rgazmali ko'rsatish, onlayn kalkulyatorlar orqali hisob-kitoblar;

Fizika va kimyo: Virtual tajriba laboratoriyalari, 3D modellar va simulyatsiyalar;

Tarix: Interaktiv xaritalar, hujjatlar va tarixiy voqealarni yorituvchi videolar;

Til va adabiyot: Ovozi yozilgan matnlar, dramatisatsiyalar, interaktiv lug'atlar;

Biologiya: Hujayra va organ tuzilmasi animatsiyalari, biologik jarayonlar tasviri.

Interaktiv multimedia vositalari o'quv jarayonini yanada jonlantiradi, o'quvchilarni faol fikrlashga chorlaydi va har tomonlama intellektual hamda ijodiy rivojlanishga zamin yaratadi. Shuningdek, bu vositalar fikr almashuviga rag'batlantiradi va bilimlarni tezda baholash imkonini ham beradi.

Shu bilan birga, ayrim kamchiliklar mavjud. Masalan, texnik nosozliklar (elektr energiyasi uzilishi, internet bilan bog'liq muammolar), barcha maktablarda teng texnologik

imkoniyatlarning mavjud emasligi, o‘qituvchilarning texnik tayyorgarlik darajasining pastligi, hamda interaktiv vositalardan foydalanishning vaqt talab qilishi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, o‘quvchilarning texnologiyaga haddan tashqari qaram bo‘lib qolish xavfi ham mavjud [5; 61, 65-b].

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘lim tizimida bir qator muhim o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022–2026-yillar oralig‘ida barcha maktablarni internet va kompyuterlar bilan jihozlash ishlari boshlangan. “Har bir maktab – bitta interaktiv doska” tashabbusi asosida zamonaviy o‘quv qurollari bilan ta‘minlash davom etmoqda. Pedagoglarning AKT bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan kurslar tashkil etilmoqda. Elektron darsliklar, video mashg‘ulotlar va onlayn ta‘lim platformalari (masalan, edu.uz, kundalik.com) ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Ammo, ayrim hududlarda texnik infratuzilmaning sustligi va resurslar taqsimotidagi nomutanosiblik hanuzgacha dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Kelajak yo‘nalishlari

Yaqin yillarda ta‘limda quyidagi texnologik yondashuvlar rivojlanishi kutilmoqda:

Sun‘iy intellekt (AI): Talabalar ehtiyojlariga mos ta‘lim kontentini individual tarzda taklif qilish imkonini beradi.

VR/AR texnologiyalari: Real voqelikni virtual muhitda sinfga olib kirish orqali mavzularni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.

Gamifikatsiya: Ta‘lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarning ishtirokini kuchaytiradi.

IoT texnologiyalari: Aqlli sinfxonalar va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari orqali ta‘lim samaradorligini oshiradi.[6; 30,33-b]

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash joizki, interaktiv multimedia vositalarining zamonaviy sinfxonalarda joriy etilishi ta‘lim sifatini oshirishda, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va bilimni o‘zlashtirish darajasini kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq bu texnologiyalarning samaradorligini ta‘minlash uchun quyidagi yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish zarur:

Pedagog kadrlarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish;

Barcha ta‘lim muassasalarini teng ravishda texnik vositalar bilan ta‘minlash;

Amaliyotga yo‘naltirilgan metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish;

Texnologiyadan foydalanuv madaniyatini shakllantirish;

Ilmiy yondashuv asosida interaktiv kontentlarni yaratishni qo‘llab-quvvatlash.

Mazkur tavsiyalarni izchil amalga oshirish orqali O‘zbekiston ta‘lim tizimi raqamli transformatsiya yo‘lida katta yutuqlarga erishishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Toshpo‘lotova, Jasmina, and Yayra Musurmanova. "TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA INTEGRATSIYALASH MASALALARI." *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 3.3 (2024): 46-49.
2. Shukurullo Fayzullo o‘g‘li, A. (2024). TA'LIMDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH. *PEDAGOGS*, 50(2), 51-55.
3. Aliqulov, Sh. "M. Yaxiyaxonova. Ta'lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyati. Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani Qo'llashning ta'lim samaradorligiga ta'siri: xalqaro Tajribalar va rivojlanish istiqbollari." (2024).
4. Muhammadiyev, Alijon, and Shukurullo Aliqulov. "PROSPECTS OF USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION." *Наука и технология в современном мире* 3.3 (2024): 90-92.
5. FAYZULLO, ALIQULOV SHUKURULLO. "TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARINI QO‘LLASH." *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS* 45.2 (2024): 61-65.
6. Bystrova N.V., Belova I.L., Sayed A. O‘quv jarayonida axborot vizualizatsiya texnologiyalaridan foydalanish to‘g‘risida // *Zamonaviy pedagogik ta'lim muammolari*. - 2020. - 69-2-son. - S. 30-33.
7. Voroshilova N.V., Tolmacheva A.V., Kuksa E.N. Tarix va ijtimoiy fanlarni o‘qitishda vizualizatsiya texnologiyalari . *Izvestiya VGPU*. - 2021 yil - 2-son (155). - S. 43-50.
8. Drozdova I.L. Botanika kursining o‘quv jarayonida elektron o‘quv qo‘llanmalarining o‘rni // *Kareliya ilmiy jurnali*. - 2018. - V. 7. - No 3 (24). - S. 13-16.
9. Ivanova O.V. Yozish o‘rta va oliy maktablarda matematika fanlarini o‘qitishda modulli vizualizatsiya vositasi sifatida // *Shkolnye texnologiyalari*. - 2018 yil - 4-son. - S. 72-79.
10. Kirillova I. K., Soluyanov O. N. Texnik universitetda chet tilini o‘qitishning faol usullari tizimi // *Kazanskaya Nauka*. - 2015 yil. - 4-son. - S. 205-207.
11. Kozyreva O.A. Ilmiy va pedagogik xodimning kasbiy faoliyatidagi pedagogik shart sharoitlarni nazariylashtirish va modellashtirish // *Minin universiteti axborotnomasi*. - 2021. - V. 9, 1-son. - 3 - bet
12. Savelyeva N.X., Demakova G.A., Ulyanova V.G. Bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash uchun universitetning elektron axborot ta'lim muhitining imkoniyatlari // *Balkan ilmiy sharhi*. - 2020. - 4-jild. - 1-son (7). - S. 37-39.
13. Tatarinov K.A. Elektron ta'lim o‘rganish texnologiyasi sifatida // *Boltingbo‘yi gumanitar jurnali*. - 2020. - V. 9. - No 1 (30). - S. 117-120.



UDK: 376:371.33:004.9

ORCID: 0009-0008-92587625

INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI YARATISH: MULTIMEDIA RESURSLARINING TURLI O'QUVCHILARGA TA'SIRI

Abdukarimova Navbahor Amet qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xorijiy tillar ta'lim kafedrası
Ingliz-tili o'qituvchisi.
n.abdukarimova@tsue.uz

Annotatsiya. Inklyuziv ta'lim muhitini yaratishda multimedia resurslarining roli beqiyosdir. Turli yoshdagi, imkoniyatlari cheklangan yoki o'quv ehtiyojlari o'ziga xos bo'lgan o'quvchilar uchun vizual, eshitish va interaktiv vositalar ta'limni qulay va tushunarli qiladi. Multimedia kontentlari orqali o'quvchilar bilimga erkin kirishadi, o'ziga xos qobiliyatlarini namoyon etish imkoniga ega bo'ladi. Ushbu maqolada multimedia vositalarining inklyuziv muhitda qo'llanilishi, ularning ijtimoiy-psixologik va pedagogik ta'siri tahlil qilinadi hamda teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, multimedia, interaktiv resurslar, maxsus ehtiyoj, imkoniyatlar tengligi, vizual materiallar, raqamli ta'lim, integratsiya.

СОЗДАНИЕ ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ: ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ РЕСУРСОВ НА УЧАЩИХСЯ

Аннотация. Роль мультимедийных ресурсов в создании инклюзивной образовательной среды неопределима. Визуальные, аудиовизуальные и интерактивные средства делают обучение удобным и понятным для учащихся разного возраста, с ограниченными возможностями или с особыми образовательными потребностями. С помощью мультимедийного контента учащиеся получают свободный доступ к знаниям и могут проявлять свои уникальные способности. В данной статье анализируется использование мультимедийных средств в инклюзивной среде, их социально-психологическое и педагогическое влияние, а также подчеркивается их значение в создании равных возможностей для обучения.

Ключевые слова: инклюзивное образование, мультимедиа, интерактивные ресурсы, специальные потребности, равенство возможностей, визуальные материалы, цифровое образование, интеграция.

CREATING AN INCLUSIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT: THE IMPACT OF MULTIMEDIA RESOURCES ON DIFFERENT LEARNERS

Annotation: The role of multimedia resources in creating an inclusive educational environment is unparalleled. Visual, auditory, and interactive tools make education convenient and comprehensible for learners of different ages, those with limited abilities, or specific educational needs. Through multimedia content, learners gain free access to knowledge and have the opportunity to showcase their unique talents. This article analyzes the application of multimedia tools in an inclusive environment, discusses their socio-psychological and pedagogical impact, and highlights their importance in creating equal educational opportunities.

Keywords: inclusive education, multimedia, interactive resources, special needs, equality of opportunities, visual materials, digital education, integration.

KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimi tenglik va inklyuzivlik prinsiplariga tayangan holda rivojlanmoqda. Har bir bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlash, ayniqsa, jismoniy yoki ruhiy imkoniyatlari cheklangan, ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj, shuningdek, turli milliy va madaniy qatlamlarga mansub o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish – inklyuziv ta'limning asosiy vazifasidir. Shu ma'noda, zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, multimedia vositalaridan foydalanish inklyuziv muhit yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Inklyuziv ta'lim bu – barcha bolalarning, jumladan, nogironligi bor yoki ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashayotgan bolalarning ham ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydigan davlat siyosati hisoblanadi. Ushbu yondashuv bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish va umumta'lim tizimiga qo'shishga xizmat qiladi. “Inklyuziv ta'lim” atamasi fransuz tilidagi “inclusif” so'zidan olingan bo'lib, “ichiga oluvchi” ma'nosini anglatadi. Bu esa, sog'lom va maxsus ehtiyojga ega bolalarning bir maktab muhitida ta'lim olishini anglatadi.

Afsuski, jamiyatda inklyuziv ta'lim mazmuni haqida to'liq tasavvur mavjud emas. Bu tizimning mohiyati – alohida g'amxo'rlik talab qiluvchi bolalarni ham umumiy ta'lim muhitiga integratsiyalash orqali ularning huquqiy tengligini ta'minlashdan iborat. Inklyuziv ta'limda farqli intellektual, jismoniy va ruhiy salohiyatga ega bolalar o'z tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Bu esa, ta'limning tenglikka asoslanganligini anglatadi.

UNICEF O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish va takomillashtirish yo'lida faoliyat yuritmoqda. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi barcha bolalarga, ularning individual imkoniyatlaridan qat'i nazar, sifatli va qulay ta'lim muhitini yaratishni ko'zda tutadi. Bunday yondashuv bolaning o'z oilasida yashab, o'z tengdoshlari bilan birga yaqin maktabda ta'lim

o‘lish huquqini tan oladi. Shu bilan birga, nogironlar aravachasida harakatlanadigan bola yaqinidagi maktabda o‘qishi, o‘zlashtirishda muammoga duch kelgan o‘quvchiga esa maxsus yordam ko‘rsatilishi kafolatlanadi. Ta’limdan chetlashtirilgan bolalarning maktabga qaytishi uchun ham zarur shart-sharoitlar yaratiladi. [4]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekiston Respublikasida 2020-yil sentyabr oyida yangilangan tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun loyihasining inklyuziv ta’lim prinsiplari asosida ishlab chiqilganligi uning qabul qilinishidan oldin O‘zbekiston Respublikasi Nogironlar assotsiatsiyasi hamda soha mutaxassislari ishtirokida o‘tkazilgan tahlillar orqali aniqlangan. Qonunning 20-moddasida jismoniy, aqliy, sezgi va ruhiy imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish belgilab berilgan.

Ushbu qonun doirasidagi vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida 2020-yil 13-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4860-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va 2021-yil 12-oktabrda Vazirlar Mahkamasining 638-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarga asosan tasdiqlangan “2020–2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”da quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan: alohida ehtiyojga ega bolalar uchun mo‘ljallangan ta’lim muassasalari binolari va infratuzilmasiga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish; bu muassasalarni zarur darsliklar, metodik materiallar, kasbga yo‘naltirilgan texnik vositalar bilan ta’minlash; umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’limni joriy etish, ularni mos jihozlar va maxsus tayyorlangan pedagog kadrlar bilan ta’minlash; shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning jamiyatga moslashuvi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich zamonaviy uskunalar bilan jihozlash choralari belgilangan. [5; 5-b]

NATIJA VA MUHOKAMA

Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalar, ularning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy yoki madaniy xususiyatlaridan qat’i nazar, yagona ta’lim muhitida birgalikda o‘qish va rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lishini nazarda tutuvchi tamoyillardir. Ushbu yondashuv bir necha asosiy mezonlarga tayangan holda shakllanadi: turlicha bo‘lganlikni qadrlash va tan olish, har bir bola uchun teng sharoitlar yaratish, o‘quv jarayonini moslashtirish va zarur vositalar bilan ta’minlash, hamda har qanday kamsitishga qarshi kurashish.

Inklusiv ta’lim ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlash bilangina cheklanmay, balki o‘quvchilarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga, shaxs sifatida kamol topishiga va ularning individual salohiyatini to‘liq namoyon etishiga xizmat qiladi.

Multimedia vositalari esa o‘quv jarayonini interaktiv va mazmunli qilishga xizmat qiluvchi zamonaviy elektron resurslar bo‘lib, ular matn, tovush, video, tasvir, animatsiya va boshqa interaktiv komponentlarni birlashtirgan holatda taqdim etiladi.

Inklyuziv ta’lim muhitini yaratishda multimedia resurslarining turli quydagicha:

1	Interaktiv darsliklar va e-platformalar (LearningApps, Moodle, Khan Academy);
2	Audio- va videoresurslar (ta’limiy podcastlar, subtitrli videodarslar);
3	Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar;
4	Tovushli kitoblar va nutq sintezatorlari;
5	Raqamli didaktik o‘yinlar va mobil ilovalar.

1-jadval

Ushbu resurslar ta’limni shaxsiylashtirish, o‘quvchilarni motivatsiyalash, bilimni ongli va barqaror tarzda egallash imkonini beradi.[6; 481-b]

Multimedia texnologiyalari imkoniyati cheklangan bolalarning o‘rganish jarayonini soddalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, eshitishda muammosi bor o‘quvchilar uchun subtitrli videolar yoki imo-ishora tarjimalari mavjud bo‘lishi, ko‘rishida cheklov bo‘lganlar uchun esa audio-tavsiflar va braille yozuvidagi qurilmalar taqdim etilishi zarur. Aqliy yoki ruhiy rivojlanishida muammolar bor bolalar uchun esa soddalashtirilgan interfeyslar, oddiy dizayn va bosqichma-bosqich ko‘rsatmalar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu kabi o‘quv resurslari bolalar uchun psixologik jihatdan xavfsiz, qulay va rag‘batlantiruvchi bo‘lishi kerak.

Qishloqlarda yashovchi va kam ta’minlangan oilalarning farzandlari uchun multimedia vositalari orqali sifatli ta’lim manbalariga kirish kengayadi. Bepul onlayn platformalar orqali ular mustaqil o‘qib, murabbiylarsiz bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Multimedia kontentining turli tillarda mavjudligi, eshitish va ko‘rish orqali uzatiladigan ma’lumotlar boshqa millat vakillari uchun ham qulay ta’lim muhitini yaratadi. Bu esa til to‘siqlarini yengib o‘tishga, madaniy farqlarni tushunishga va darslarda faol ishtirok etishga yordam beradi.

Inklyuziv sinfda o‘qituvchining vazifasi faqat bilim berish bilangina cheklanmaydi. U har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini aniqlash, mos multimedia vositalarini tanlash, AKT texnologiyalaridan foydalanish hamda psixologik va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlarini ham amalga oshiradi. Shu sababli o‘qituvchilar uchun multimedia vositalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar, onlayn kurslar va metodik qo‘llanmalar joriy etilishi muhimdir.

Xalqaro tajribalar:

Finlyandiya: Har bir o‘quvchining individual rivojlanish xaritasi tuziladi, jismoniy imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus planshetlar ishlab chiqilgan.

AQSh: Har bir o‘quvchi uchun alohida IEP (Individual Education Plan) asosida multimedia materiallar yaratiladi. Interaktiv doskalar va ovozli vizualizatsiyalar keng foydalaniladi.

Yaponiya: Elektron darsliklar va nutq sintezatorli raqamli kitoblar ta’limga joriy etilgan.

O‘zbekiston: Yangi milliy o‘quv dasturlarida multimedia elementlaridan foydalanish boshlangan, biroq bu hali keng miqyosda emas.

Muammolar:

O‘qituvchilarning AKTdan foydalanish ko‘nikmalari yetarli emas.

Multimedia vositalari barcha ta‘lim muassasalarida mavjud emas.

Didaktik materiallar imkoniyati cheklangan bolalar uchun moslashtirilmagan.

Texnik infratuzilma ba‘zi hududlarda zaif.

Takliflar:

Maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun multimedia resurslarini ishlab chiqish bo‘yicha davlat dasturi ishlab chiqilsin.

Har bir o‘qituvchi uchun “Inklyuziv multimedia texnologiyalari” bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilsin.

Maktablarda texnologik infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha aniq choralar ko‘rilsin.

Darsliklar va videodarslar turli formatlarda (video, audio, matnli, grafik) yaratilishi yo‘lga qo‘yilsin.

Nogironlar uyushmalari va IT-kompaniyalar bilan hamkorlikda maxsus ta‘limiy kontent ishlab chiqish qo‘llab-quvvatlansin. [9; 452,458-b]

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, inklyuziv ta‘lim tizimi faqat alohida ehtiyojga ega bolalar uchun emas, balki barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyat va har tomonlama rivojlanish muhitini yaratadi. Multimedia texnologiyalari esa ushbu ta‘lim jarayonini yanada samarali, rag‘batlantiruvchi va moslashtirilgan shaklda olib borishga yordam beradi. Agar O‘zbekiston ta‘lim tizimida bu vositalar kengroq qo‘llanilsa, ta‘limda ijtimoiy adolatni ta‘minlash, o‘quv jarayonining sifati va inson salohiyatining yuksalishiga sezilarli darajada hissa qo‘shish mumkin bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr.O‘RQ-637-son
2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasin Vazirlar Mahkamasining 2021yil 12 oktyabrda «Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 638-son qarori.
4. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova “ Inklyuziv ta‘lim” Qo‘qon-2023
5. D.S. To‘xtasinova, V.S. Xamidov. Elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish va rasmiylashtirish.Toshkent, 2017, 5b.
6. Tay Vaughan, Multimedia: Making It Work, 8th Edition, 2011, p.481 (xiv).
7. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova “ Inklyuziv ta‘lim” Qo‘qon-2023

8. Alekseyeva T.P. Psixologo-pedagogicheskaya reabilitasiya detey s narusheniyami zreniya sredstvami muzыkalnogo tvorchestva v nachalnyy period obucheniya / T.P. Alekseyeva // Fond dobryx sobytiy : iz opyta raboty Lipeskoy oblastnoy spetsialnoy korreksionnoy obshchobrazovatelnoy shkoly III-IV vida dlya detey s narusheniyami zreniya. — Lipesk, 2003. — S.220-231. — Bibliogr.: s.230- 231.

9. X. N. Muzaffarova, D. Tangirova „Inklyuziv ta'lim“. library.samdukf.uz. Qaraldi: 10 noyabr 2022-yil. 452-458



BLUM TAKSONOMIYASI ORQALI TOPIK IMTIHONINING 52 YOZISH BO‘LIMINI SAMARALI O‘QITISH

Axmedov O‘ktamjon O‘roqovich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Koreys filologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Koreys tilini bilish darajasini aniqlash uchun o‘tkaziladigan TOPIK imtihonining 52 yozish bo‘limini Blum taksonomiyasi asosida rivojlantirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Maqolada Blum taksonomiyasining kognitiv darajalari — bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish — orqali yozma ifoda ko‘nikmalarini qanday bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkinligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu yondashuvning koreys tilini o‘rganuvchilarning yozma nutqini mustahkamlash, fikrlarni aniq va mantiqiy ifodalash hamda ijodiy yozish qobiliyatlarini oshirishdagi ahamiyati ta’kidlanadi. Maqola amaliy pedagogik tavsiyalar va metodik usullar bilan boyitilgan bo‘lib, koreys tilini o‘rgatishda samarali o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqishda foydali bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: TOPIK, koreys tili, yozish bo‘limi, Blum taksonomiyasi, til o‘rganish, kognitiv rivojlanish, yozma ko‘nikmalar, pedagogika, til imtihoni, yozma ifoda, til ta’limi.

ЭФФЕКТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ 52-ГО РАЗДЕЛА ПИСЬМА ЭКЗАМЕНА ТОPIK НА ОСНОВЕ ТАКСОНОМИИ БЛУМА

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос развития 52-го раздела письменной части экзамена TOPIK (Test of Proficiency in Korean) — теста на определение уровня владения корейским языком — на основе таксономии Блума. В статье анализируется, каким образом можно поэтапно развивать навыки письменной речи с опорой на когнитивные уровни таксономии Блума: знание, понимание, применение, анализ, оценка и создание. Также подчеркивается значение такого подхода для укрепления письменной речи изучающих корейский язык, формирования умений четко и логично выражать мысли, а также развития творческого письма. Работа содержит практические педагогические рекомендации и методические подходы, полезные для разработки эффективных стратегий преподавания корейского языка.

Ключевые слова: TOPIK, корейский язык, раздел письма, таксономия Блума, изучение языка, когнитивное развитие, навыки письма, педагогика, языковой экзамен, письменная речь, языковое образование.

EFFECTIVE TEACHING OF THE 52ND WRITING SECTION OF THE TOPIK EXAM THROUGH BLOOM’S TAXONOMY

Abstract. This article explores the development of the 52nd writing section of the TOPIK (Test of Proficiency in Korean), which assesses Korean language proficiency, through the framework of Bloom’s Taxonomy. The paper analyzes how writing skills can be developed step by step based on the cognitive levels of Bloom’s Taxonomy—knowledge, comprehension, application, analysis, evaluation, and creation. It highlights the importance of this approach in strengthening learners’ Korean writing skills, helping them express thoughts clearly and logically, and improving their creative writing abilities. The article is enriched with practical pedagogical recommendations and methodological tools, offering useful insights for developing effective teaching strategies in Korean language instruction.

Keywords: TOPIK, Korean language, writing section, Bloom’s Taxonomy, language learning, cognitive development, writing skills, pedagogy, language testing, written expression, language education.

Kirish

Hozirgi kunda koreys tili global muloqot va madaniyatlararo aloqalarda tobora ahamiyat kasb etmoqda. Koreys tilini o‘rganayotganlar soni ortib borayotgani natijasida til bilish darajasini aniqlash uchun ishlab chiqilgan standartlashtirilgan testlar, xususan TOPIK (Test of Proficiency in Korean) imtihoni keng qo‘llanilmoqda. Ushbu imtihon koreys tilidagi bilimlarni har tomonlama baholashga mo‘ljallangan bo‘lib, unda tinglab tushunish, o‘qish, yozish va og‘zaki ifoda ko‘nikmalari sinovdan o‘tkaziladi.

TOPIKning yozish bo‘limi, ayniqsa, til o‘rganuvchilarning fikrlarini aniq, mantiqiy va to‘g‘ri ifoda etish qobiliyatini o‘lchashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, yozish bo‘limini o‘rganish va rivojlantirishda samarali pedagogik yondashuvlarni qo‘llash zarur. Blum taksonomiyasi ta’lim jarayonida kognitiv ko‘nikmalarni tizimli shakllantirish uchun keng qo‘llanilib, o‘quvchilarning bilim darajasidan boshlab yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalariga qadar rivojlanishini ta’minlaydi.

Asosiy qism

TOPIK imtihonining yozish bo‘limi va uning ahamiyati

Koreys tilini o‘rganish jarayonida TOPIK imtihoni til bilish darajasini baholash uchun asosiy vosita hisoblanadi. Xususan, 52 yozish bo‘limi o‘quvchilarning yozma nutq ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazadi. Bu bo‘limda talabalar nafaqat grammatika va lug‘at bilimlarini, balki fikrlarni mantiqan tuzish, asoslash va aniq ifoda etish qobiliyatlarini namoyon qilishlari zarur. Yozma ifoda o‘zaro muloqotning muhim qismi sifatida til o‘rganuvchilarning nafaqat til bilimini, balki fikrlash va yaratish darajasini ham aks ettiradi.

Yozish bo‘limi orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va izchil tarzda bayon eta olishlari, fikrlar zanjirini to‘g‘ri qurishlari, grammatik jihatdan to‘g‘ri va mazmunan boy matnlar yaratishlari talab etiladi. Shu sababli, bu bo‘limni o‘rganish jarayonida talabalarni bosqichma-

bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

Blum taksonomiyasining ta’limdagi roli

Blum taksonomiyasi — ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini tizimli ravishda rivojlantirishga qaratilgan konsepsiya bo‘lib, uni 1956-yilda Benjamin Blum va hamkasblari ishlab chiqqan. Ushbu taksonomiya bilimlarni yodlashdan tortib, ularni tahlil qilish, baholash va yangi bilimlar yaratishgacha bo‘lgan bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Taksonomiya kognitiv darajalarni quyidagicha guruhlaydi:

1. **Bilish (Remembering)** — ma’lumotlarni eslab qolish.
2. **Tushunish (Understanding)** — ma’lumotlarni anglash va tushunish.
3. **Qo‘llash (Applying)** — o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llash.
4. **Tahlil qilish (Analyzing)** — ma’lumotlarni qismlarga ajratib, ularni tahlil qilish.
5. **Baholash (Evaluating)** — ma’lumotlarni baholash, tanqidiy fikr yuritish.
6. **Yaratish (Creating)** — yangi bilimlar, g‘oyalar yoki matnlarni yaratish.

Til o‘rgatishda aynan ushbu bosqichlar o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini yanada chuqurroq o‘zlashtirishiga, fikrlash doirasini kengaytirishiga yordam beradi.

TOPIK 52 yozish bo‘limini Blum taksonomiyasi asosida rivojlantirish bosqichlari

3.1 Bilish va tushunish bosqichlari

Ushbu bosqichda o‘quvchilarga koreys tilining asosiy grammatik qoidalari, so‘z boyligi, yozma nutqning asosiy tuzilishi o‘rgatiladi. Masalan, grammatika qoidalari, so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi va talaffuzi, oddiy gaplar tuzish kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi. O‘quvchilar matnni o‘qib, uning mazmunini tushunishga, oddiy fikrlarni ajratib olishga o‘rgatiladi. Bu bosqich yozma ifoda uchun zarur poydevor hisoblanadi.

Qo‘llash bosqichi

Bu bosqichda talabalar o‘zlashtirgan bilimlarni yozma topshiriqlarda qo‘llashni boshlaydilar. Masalan, mavzuga qisqa insho yozish, berilgan so‘zlarni ishlatib gaplar qurish, oddiy fikrlarni yozma shaklda ifodalash. Qo‘llash bosqichi o‘quvchilarning o‘rganganlarini amalda sinovdan o‘tkazish imkonini beradi. Bu bosqichda yozish mashqlari grammatik jihatdan to‘g‘ri va mazmunan aniq bo‘lishiga e’tibor qaratiladi.

Tahlil qilish bosqichi

Bu bosqichda talabalar yozgan matnlarni mantiqiy tarkibiy qismlarga ajratib, ularni tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradilar. Ular matnning kirish, rivojlanish va xulosa qismlarini aniqlash, asosiy va yordamchi fikrlarni farqlash, matn ichidagi bog‘lanishlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha mashqlar bajaradilar. Tahlil qilish bosqichi talabalarni tanqidiy fikrlashga, yozma matnning mantiqiy va mazmunan to‘g‘ri bo‘lishini tushunishga o‘rgatadi.

Baholash bosqichi

Bu bosqichda o‘quvchilar o‘zlari va boshqalar yozgan matnlarni baholashni o‘rganadilar. Baholash mezonlari sifatida grammatik to‘g‘rilik, ifoda aniqligi, fikrlarning mantiqiy ketma-

ketligi va mavzu bilan mosligi olinadi. Talabalar yozma ishlarini tanqidiy ko‘z bilan tahlil qilib, xatolarini aniqlash, yaxshilash uchun takliflar berish ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Bu bosqich yozish jarayonida mustaqil ishlashni va o‘z-o‘zini rivojlantirishni ta‘minlaydi.

Yaratish bosqichi

Blum taksonomiyasining eng yuqori bosqichi bo‘lmish yaratishda talabalar mustaqil ravishda yangi, ijodiy va mazmunli yozma ishlar yozishga o‘rgatiladi. Ular mavzuni kengroq yoritib, o‘z fikrlarini asoslash, turli yozish uslublaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Yaratish bosqichi talabalar fikrlash doirasini kengaytirib, yozma ifoda san‘atini oshiradi.

Blum taksonomiyasiga asoslangan pedagogik yondashuvlarning samarasi

Blum taksonomiyasi asosida yozish bo‘limini rivojlantirish nafaqat til o‘rganuvchilarning yozma nutqini takomillashtiradi, balki ularning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Bu yondashuv orqali talabalar o‘rgangan bilimlarni faqat yodlab qolmay, balki ularni amaliyotda qo‘llash, tahlil qilish va yangi matnlar yaratishga o‘rganadilar.

Ushbu metodika koreys tilini o‘rgatish jarayonida bosqichma-bosqich mashqlar, yozma topshiriqlar va baholash usullarini muvofiqlashtirishga imkon beradi. Shu tariqa o‘qituvchilar darslarni yanada samarali tashkil etib, o‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini yaxshilashga erishadilar.

Amaliy tavsiyalar

- Har bosqichda talabalar uchun mos darajadagi yozma mashqlar tayyorlash;
- Talabalarning yozma ishlarini tahlil qilib, konstruktiv fikrlar berish;
- Talabalarni o‘z ishlarini va sinfdoshlar ishlarini baholashga o‘rgatish;
- Kreativ yozishga yo‘naltirilgan mavzularni qo‘llash;
- O‘zaro fikr almashish va muhokama uchun imkoniyat yaratish.

Xulosa

Ushbu maqolada Koreys tilidagi TOPIK imtihonining 52 yozish bo‘limini Blum taksonomiyasi asosida rivojlantirish masalasi keng yoritildi. Blum taksonomiyasining olti kognitiv bosqichi – bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish – yozish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish va mustahkamlash uchun samarali vosita ekanligi ta‘kidlandi.

TOPIK imtihonining yozish bo‘limi nafaqat grammatik bilimlarni, balki talabalarning fikrlarni mantiqiy, aniq va ijodiy ifoda etish qobiliyatini ham sinovdan o‘tkazadi. Blum taksonomiyasini qo‘llash orqali pedagoglar yozish ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirib, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va mustaqil ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishlari mumkin.

Natijada, bu yondashuv koreys tilini o‘rganuvchilarning yozma nutqini yanada samarali rivojlantirishga, ularning til bilimini amaliyotda qo‘llashga va yuqori darajadagi yozma ifoda

qobiliyatini hosil qilishga xizmat qiladi. Shu bois, Blum taksonomiyasiga asoslangan pedagogik strategiyalarni TOPIK yozish bo‘limida keng joriy etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Blum 's Taxonomy of Educational Objectives*. Longman.
2. Lee, K. M. (2010). *TOPIK Writing Strategies and Practice*. Seoul: Language Press.
3. Kim, H. S. (2015). *Effective Methods for Teaching Korean Writing Skills*. Journal of Korean Language Education, 22(3), 45-62.
4. Blum , B. S. (1956). *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*. Handbook I: Cognitive Domain. David McKay Co Inc.
5. Lee, J. H. (2018). *Developing Korean Writing Competency through Blum 's Taxonomy*. Korean Language Teaching Journal, 30(1), 78-92.
6. Shin, Y. S. (2017). *Practical Approaches to TOPIK Preparation*. Seoul: Hanbit Publishing.
7. National Institute of the Korean Language. (2020). *Guide to TOPIK Examination*. Seoul.



DUDUQLANISHDA TORTISHISH TURLARI.

Isayeva Mushtariy Alisher qizi
Alfraganus Universiteti Pedagogikava
Psixologiya fakulteti, Defektologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Duduqlanishda tortishishlarning turli ko‘rinishlari, ularning logopedik tashxislanishi tahlil qilingan. Shuningdek, har bir tortishish turi (tonik, klonik, aralash) alohida tavsiflanagan.

Kalit so‘zlar: intensiv, duduqlanish, evolutsion, insperator, klo‘nik, to‘nik, talaffuz, nutqiy nafas, temp, ritm, eksperator.

Аннотация: В статье проанализированы различные формы судорог при заикании и их логопедическая диагностика. Каждая форма судорог (тоническая, клоническая, смешанная) подробно охарактеризована.

Ключевые слова: интенсивность, заикание, эволюция, инспираторный, клонический, тонический, произношение, речевое дыхание, темп, ритм, экспираторный.

Annotation: The article analyzes different types of spasms in stuttering and their speech therapy diagnostics. Each type of spasm (tonic, clonic, mixed) is described in detail.

Keywords: intensity, stuttering, evolutionary, inspiratory, clonic, tonic, pronunciation, speech breathing, tempo, rhythm, expiratory.

Kirish:

Duduqlanishda nutq apparatida ishtirok etadigan mushaklarda ixtiyorsiz tortishish natijasida nutqning tempi ritmi ohangi va ravonligining buzulishiga aytiladi. duduqlanish nutqning intensiv shakllanish davri 2 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida yuzaga keladi olimlar bu kabi duduqlanishni evolutsion duduqlanish ham deb ataydi. Bundan tashqari markaziy asab tizimi kasalliklari va jarohatlaridan so‘ng yuzaga keluvchi duduqlanishni 2 lamchi D. deb ataydilar.

Duduqlanishda tortishish turlari.

Og‘zaki nutq jarayonida hosil bo‘ladigan tortishishlar asosan 2 ta ko‘rinishda klonik va tonik uchraydi.

Og‘zining yarim holatda ochilgan yuz mushaklarining taranglashishi natijasida nutqni qiyinchilik bilan davom ettiradi tonik tortishishni eshitib ko‘radigan bo‘lsak bemorda uzoq yoki

qisqa to‘xtash yoki tovushni qiynalib cho‘zib yoki qiynalib talaffuz qilishini ko‘rishimiz mumkin.

A.I Sikorskiy tomonidan duduqlanishda 16 tortishish turi ko‘rsatilgan.

Nafas mushaklarida tortishishlar

Inspirator tortishish- nutq jarayonida to‘satdan nafas olish natijasida qisqa to‘xtash va ketma ket zarb bilan nafas olish, ovoz va artikulyatsiya tortishishlarini turli hil ko‘rinishda yuzaga keltiradi.

Inspirator tortishishlarni darajalari turlicha bo‘lib suxbatdoshiga eshtilganida pas va uncha sezilmaydi. Ayrim holatlardagina inspirator tortishishlar kuchli va davomli bo‘ladi. Inspirator tortishishlarda duduqlanuvchini ko‘krak sohasida og‘irlashish kuzatiladi.

Eksperator tortishish- to‘satdan nafas chiqarishda yuzaga keladi. Bu tortishishi bo‘lgan duduqlanuvchilarda bel sohasida tortishishlar bo‘ladi. To‘satdan yuzaga kelgan tortishish.

Eksperator tortishish artikulyatsion va ovoz mushaklarining harakatini cheklaydi va duduqlanuvchida ko‘krak qafasining qisilishi va nafas buzilishi kuzatilinadi. Uzoq davom etadigon tonik tortishish natijasida eksperator talvasalar un paychalarining ochilib qolishi pastki jag‘ining pastka tushishi yumshoq tanlayning tepaga ko‘tarilishi burun qanotlarining kengayishi bilan tavsiflanadi.

Ovoz bo‘limidagi tortishishlar.

Bu tortishishlarning 3ta ko‘rinishi mavjuda.

1.Ovoz tortishishi asosan unili tovush talafuzida yuzaga keladi. Un paychalarini yopilishida sodir bo‘ladigan tortishishlar duduqlanuvchuni gapni boshlashdan oldin yoki gapni ortasida birdaniga ovozning yoqolishi ko‘rinishida yuzaga keladi. Un paychalaridagi boylamlar tortishish vaqtida tez yopikishi natijasida nafasni o‘tishiga to‘sqinlik qiladi. Bu holat o‘z o‘zidan duduqlanuvchida ovozning yoqolib qolishiga sabab bo‘ladi.

2. Duduqlanuvchining yuz qiyofasi tortishish vaqtida harakat taranglashkan va harakatsiz. Butun tana qismida qotib qolish halqumning taranglanishi kuzatilinadi. Ovoz paychalarining tonusi oshib ketishi natijasida vakal tortishishlar yuzaga keladi. Nutq jarayonida duduqlanuvchining nutqi unli tovushni cho‘zib talafuz qilish bilan namoyon bo‘ladi.

3. Ayrim holatlarda unli tovushlarni hadan ziyod cho‘zish so‘zni butunligicha talaffus qilishga yetib bormaydi va duduqlanuvchi qaytadan nafas olishga majbur bo‘ladi. Ko‘p holatlarda duduqlanuvchining ovoz tembori o‘zgarmaydi. Kam holatlardagina ovoz tembori va balandligida o‘zgarish kuzatiladi. Vakal sudurgi natijasida bo‘yin mushaklari tortishib taranglashadi. Natijada artikulyatsion harakatlar ham mushaklar bo‘shagandan so‘ng harakatga keladi. Titroqli zarbli halqum spazmi unli to‘vushlar talaffuzida artikulyatsiani butunlay harakatsizlanishi kuzatiladi.

Halqumni titroqli spazmida un paychalari bekiladi yoki ochiladi. Natijada noaniq tovushlar hosil bo‘ladi bu tortishishda bola og‘zini katta ochadi boshini orqa tarafga yoki oldi tarafga ritmik ravishda harakatlantiradi.

Artikulyatsion tortishishlar- yuz, lab, tanlay, pastki jag‘, til , yumshoq tanlay to‘rtishishlariga bo‘linadi.

Yuz to‘rtishishlari- eng ko‘p uchraydigan artikulyatsion tortishishlardan biri labning to‘rtishishidir. Bolada dastlabki duduqlanish davrida labdagi tortishish dominantli qiladi.

Labdagi tortishish og‘izning aylana mushaklarida taranglik natijasida lablar bir biriga jipslashgan holatda yanoqlarning havo bilan to‘lishi natijasida (p b m v f) tovushlarini talaffuzida qiyinchiliklar tug‘diradi. Og‘ir holatlarda (t d k) tovushlaridam qo‘pol buzilishlar kuzatiladi. Yuqori lab tortishishlari kuzatilinadi yuqori labda tortishish kuzatilsa burun karnaylarining kengayishi kuzatiladi. Bu tortishish faqatgina bir tomonlama ko‘rinishda bo‘ladi.

Duduqlanuvchining lablari o‘ng yoki chap tarafga qarab uchadi. Duduqlanuvchi o‘ng yoki chap tomonga uchadi.

Pastki labdagi tortishish natijasida bir tomonlama yoki ikki tomonlama tortishish kuzatiladi.

Til uchidadagi tortishishda til uchi ko‘tarilib qisqa mudatli to‘xtash ovozning yo‘qolib qolishiga olib keladi.

Til ildizining tepaga ko‘tarilishi va orqa tomon tortilishi: Bu tortishish til orqa tovushlarni (k g‘ q g h) talaffuz qilishda duduqlanuvchini tanasiga boysunmagan holatda tilning orqa qismi tanlay tomon ko‘tarilib havo yo‘lini butunlay to‘sib qo‘yadi natijada duduqlanuvchi til orqa tovushlarni talaffus qila olmaydi.

Tilni ikkta tish orasidan duduqlanuvchiga boysunmagan holatda og‘izdan chiqishi: Bu tortishis klonik va tonik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

To‘nik tortishishda tilning holati og‘izdan chiqqan holatda qotib tursa **klonik** tortishishda esa bir necha marotaba og‘izdan oldinga qarab chiqishi va birdaniga og‘izning ichiga tortilishini kuzatish mumkin.

Tortishish natijasida duduqlanuvchi bita tovushni ham talaffuz qila olmaydi va bu holat yuz va artikulyatsion mushaklarda og‘riq hisini uyg‘otadi. Agarda tortishish yengil darajada bo‘lsa til og‘izdan chiqmagan holatda ikkta tish orasiga borib uriladi.

Til osti tortishishi: Bu tortishish natijasida duduqlanuvchining pastki jag‘i og‘iz katta ochilgan holatda birdaniga pastga tortiladi. Bu tortishishi til osti mushaklarini pastga tomon tortadi. Duduqlanuvchi bunday tortishish turida nafas olish jarayonida bog‘inlarni bir necha marotaba takrorlaydi kam holatlarda yaka taribda uchraydi.

Yumshoq tanlaydagi tortishishlar: Yumshoq tanlaydagi tortishishlar duduqlanuvchilar orqasida juda kam uchraydi faqatkina murakkab duduqlanishda artikulyatsion tortishishlar bilan keladi. Bu tortishishda yumshoq tanlay tepaga yoki ko‘tariladi yoki birdaniga pastga tushadi natijada nafasni burun yo‘liga o‘tishi va natijada ovoz tembirining manqalanishi bilan eshtiladi. Duduqlanuvchining nutqi bu tortishi jarayonida bir daniga to‘xtab qolish hamda burunli (pm pm, tn tn, kn kn) kabi bo‘g‘inlarni takrorlash bilan birga keladi.

Duduqlanuvchi bu holatdan qiynaladi va burnida quruqlik holatidan shikoyat qiladi.

Tortishishlarni og‘irlik darajasiga ko‘ra turlari: Duduqlanishning og‘irlik darajasiga ko‘ra 3 ta turi mavjud yengil, o‘rta va og‘ir. Hozirgi kunga kelib hech bir ko‘rsatgich yoki usul duduqlanishning og‘irlik darajasini anq belgib bera olmaydi. Ko‘plab amaliyotchi logopedlar duduqlanishning og‘irlik darajasini faqatgina duduqlanuvchini nutqning ravonligiga ko‘ra belgilash zaruratligini takidlaydilar. Shunga ko‘ra duduqlanuvchida tortishishlar spantan mustaqil nutq jarayonida yuzaga keladi. O‘rta darajadagi duduqlanish duduqlanuvchining monologik va diologik nutq jarayonida tortishishlar bilan namoyon bo‘ladi. Og‘ir darajadagi duduqlanishda esa hama nutq shakillarida kuzatiladi.

Duduqlanuvchilar o‘z nutqiga e‘tiborning oshishi bilan tasniflaydilar boshqa tadqiqotchilar esa nutqning temp ritm ravonligi ko‘rsatgichlariga ko‘ra tasniflaydilar.

Bir kishida duduqlanishning darajasi turli hil omillarga bog‘liq.

- Duduqlanuvchining hozirgi vaqtdagi emotsional holati.
- Duduqlanuvchining suxbatdoshi qanchalik yaqin yoki begonaligi.
- O‘z fikrini bayon qilishdagi muommolar.
- Talaffuzdagi qiyinchiliklar.
- O‘z fikrini bayon qilishdan qattiq qo‘rqish.

Tortishishlarni yuzaga keltruvchi lingvistik omillar.

Tortishishlar tivushlarning fonetik harakteriga bog‘liq bo‘lib p,k,t tovushlar talaffuzida hamda ikkta undishni tr,st,kr,sp talaffuzida yaqol ko‘zga tashlanadi. Tortishishlar asoan murakkab tuzilishga ega bo‘lgan gaplarni talaffuz qilish jarayonida yuzaga keladi. Duduqlanuvchi gapirayotgan vaqtda asosiy ma‘no bildiruvchi so‘zni yoki eng kam ishlatiladigan so‘zni talaffuz qilishda tutilishlar kuzatiladi. Bundan tashqari tortishish yuzaga kelganda so‘zlarning ritmik tarkibi urg‘u tushishdan oldingi va urg‘u tushadgan bo‘g‘in talaffuzida yuzaga keladi. Ko‘p holatlarda birinchi bo‘g‘in talaffuzida tutulib galiradi.

Xulosa: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, duduqlanishda uchraydigan tortishishlar uch asosiy shaklda — tonik, klonik va aralash turlarda namoyon bo‘ladi. Har bir tur o‘ziga xos klinik belgilarga ega bo‘lib, ularning aniqligi logopedik tashxis va individual reabilitatsiya yo‘nalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Davolash va korreksion ishlar kompleks yondashuvni talab qiladi: psixologik yordam, logopedik mashg‘ulotlar, hamda zaruratga ko‘ra nevrologik aralashuv muhim hisoblanadi. Duduqlanishning tortishish turlarini aniqlash, ularni to‘g‘ri baholash va kerakli metodik yondashuvni tanlash natijadorlikni oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. Власова Т.Ф. Логопедия: Заикание у детей и взрослых. — Москва: Владос, 2020.
2. Мастюкова Е.М. Диагностика и коррекция нарушений речи. — Санкт-Петербург: Речь, 2019.
3. Ситорова М.Т. Логопедия asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston fan nashriyoti, 2021.
4. Yefimenkova L.A. Nutq buzilishlarining psixologik-pedagogik asoslari. — Toshkent: 2022.

5. Ковалёв В.В. Невропатология детского возраста. — Москва: Медицина, 2018.
6. Beknazarova D.I. Dudaqlanish va logonevrozlar diagnostikasi va korreksiyasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
7. Волкова Г.А. Коррекционная педагогика: Основы логопедии. — Москва: Академкнига, 2017.
8. Lut V. Zaikaniye u detey: klinika, diagnostika, terapiya. — Kiev: Logos, 2016.
9. Andrews G., Howie P.M. Stuttering: Theory and Treatment. — New York: Academic Press, 2005.
10. Guitar B. Stuttering: An Integrated Approach to Its Nature and Treatment. — Baltimore: Lippincott Williams & Wilkins, 2013.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

OLIV TA‘LIM TIZIMIDA TA‘LIM SIFATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY OMILLARI.

Hakimova Gulmira To‘xtatoshevna

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti,
Ta‘lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i*

Tel: +99890-602-94-44

E-mail: Gulmira.Hakimova@inbox.ru

Annotatsiya: Oliy ta‘lim tizimida ta‘lim sifatni rivojlantirishning ijtimoiy omillari yuzasidan fikr mulohazalarga ega bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: maqsad, motivatsiya, sifat menejmenti, iqtisodiy islohot, xalqaro standartlar, ta‘limni takomillashtirish, qonunchilik bazasi, g‘oyalar tizimi.

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Аннотация: У вас будут мнения о социальных факторах развития качества образования в системе высшего образования.

Ключевые слова: цель, мотивация, управление качеством, экономическая реформа, международные стандарты, совершенствование образования, правовая база, система идей.

SOCIAL FACTORS OF EDUCATION QUALITY DEVELOPMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.

Abstract: You will have opinions about social factors in the development of the quality of education in the higher education system.

Key words: goal, motivation, quality management, economic reform, international standards, improvement of education, legal framework, system of ideas.

Kirish. Davlatimiz rahbari oliy ta‘lim muassasalariga umumiy davlat buyurtmasini tasdiqlash, bunda mamlakatimiz rivoji va mehnat bozori talablariga e‘tibor qaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Yurtimizda muhandis kadrlarga talab yuqori. 20-iyun kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida bu sohadagi oliy ta‘lim muassasalari Universitetning boshqaruv va o‘qituvchilik lavozimlariga xorijiy tajribaga ega, ilmiy va amaliy malakasi yuqori

mutaxassislarini jalb etish, ularning ish samarasini xalqaro standartlar asosida baholash vazifalari qo‘yildi.

Oliy ta‘lim muassasasini rivojlantirish strategiyasi - bu “tashkilot samaradorligini ta‘minlaydigan barcha qonuniyatlarni, tashqi va ichki sharoitlarni, maqsad va vazifalarni har tomonlama o‘rganishga asoslangan tizimli harakatlar va ularni amalda amalga oshirishning keng qamrovli, uzoq muddatli rejasi” 3 . Yuqoridagi tahlillarga asosan shuni aytish mumkinki, oliy ta‘lim muassasalarida turli xil rivojlanish strategiyalari yoki ularning kombinatsiyalaridan foydalanish mumkin. Oliy ta‘limni muassasalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda ta‘lim va bozor munosabatlarining maqbul kombinatsiyasini hisobga olish kerak.

O‘quv jarayonining sifati quyidagi omillardan iborat:

- ✓ o‘quv dasturining sifati (mukammal ishlab chiqilganlik holati);
- ✓ professor-o‘qituvchilar tarkibi (ilmiy tadqiqotlarni olib borish darajasi, ijodiy fikrlash, kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati);
- ✓ talabalar kontingenti (auditoriyada talabalar sonining me‘yordan oshishi yoki me‘yorlarga muvofiqligi);
- ✓ o‘quv jarayonining o‘quv uskunalar va texnologiyalar bilan ta‘minlanganligi;
- ✓ ta‘lim tizimi jarayonlarini boshqarish mexanizmi (o‘qituvchining o‘quv yuklamasi hajmi yoki yuklamadan tashqari ishlarga jalb etilish holati).

Ta‘lim jarayoni sifatini oshirishda quyidagi yondashuvlarga rioya qilish zarur:

- ✓ talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida turli tanlovlar o‘tkazish, muayyan ijodiy natijalarga erishgan talabalarni rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish va ularga boshqa oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lish imkoniyatini taqdim etish;
- ✓ yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, ya‘ni taqdimotlarni tayyorlashning yangi versiyalari va ma‘lumotlarni avtomatik yangilovchi ilovalarni ishlab chiqish, internet resurslaridan, raqamli ta‘lim resurslaridan foydalanish;
- ✓ o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish: o‘qituvchilarning yangi moddiy bazalarni o‘zlashtirishi va ularni amalda qo‘llashi, shuningdek, intellektual salohiyatni oshirishning rivojlangan mexanizmlaridan foydalanish, boshqa oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish va hokazo. intellektual salohiyatni oshirish mexanizmlari, tuzilmasini yo‘lga qo‘yish boshqa oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlash va h.k.

Ta‘lim sifati har qanday davlatning muvafaqqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda ta‘lim sifati bilan belgilanuvchi intellektual salohiyat jamiyat farovonligining muhim omiliga aylanmoqda.

“Sifat” tushunchasi turlicha, ba‘zan bir-biriga zid ma‘noda talqin qilinadi. Pedagogika fanida u: bir predmet yoki hodisani boshqasidan farqlovchi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan belgilar, xususiyatlar, o‘ziga xosliklar; shuningdek u yoki bu xususiyat, qadr, yaroqlilik darajasi, ma‘naviy-ahloqiy kategoriya yoki sof iqtisodiy tushuncha kabi talqin etiladi.

Ba‘zi olim va amaliyotchilar uni ta‘lim tizimining o‘zlashtirish sifatiga erishishga intilishi; boshqalar o‘qitish va tarbiyalashning sifati, uchinchilar, shaxs iqtidori rivojlanish

darajasining oshishi; to‘rtinchilar, oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilingan umumiy o‘rta ta‘lim va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari sonining ko‘payishi; beshinchilar oliy ta‘lim muassasasi bitiruvchisining ijtimoiy hayotga tayyorgarligi darajasini tushunadilar.

Ta‘lim sifati va uni ta‘minlovchi omillar: ta‘lim mazmunining fundamentalligi, ma‘lum ehtiyojlarning qondirilishi, maqsad va natijalarning mutanosibligi, ta‘lim oluvchilarning mustaqil ishlashi, ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining ijodiy faoliyati, boshqarishga kompleks yondashuv, fanlararo integratsiya va boshqalar orasidagi bog‘liqliklarni tavsiflashga nisbatan turli qarashlar mavjud.

Ta‘lim sifati – bu nafaqat ta‘lim oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta‘lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi, shuningdek har bir pedagog va rahbarning ta‘lim xizmatlari sifatini ta‘minlashdagi faoliyati hamdir.

Zamonaviy ta‘lim muassasasida ta‘lim sifati erishilgan miqdoriy va sifat natijalarining darajasini, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va amalga oshirish darajasini, u kechadigan sharoitlarni aks ettiruvchi tavsiflar to‘plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi.

Ta‘lim sifatini boshqarish (ta‘lim sifati menejmenti) ta‘limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi.

Bunda ta‘lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan va amalda o‘z samaradorligini ko‘rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O‘z o‘rnida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta‘lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o‘zi, bajarish yo‘llari, alohida usul va xarakatlarning batafsil tartibi, ta‘lim sifatini ta‘minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi.

Sifatning umumiy boshqaruvini joriy etish uchun rahbar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- ✓ sifat menejmentini joriy etish, raqobat sharoitida ta‘lim muassasasining maqsadi, umumiy mafkurasi, rivojlanish tamoyillarini ishlab chiqish to‘g‘risida strategik qarorni qabul qilishi;
- ✓ tashkilot maqsadlari tarkibiga sifatni ta‘minlashni kiritish, uni ham ma‘naviy va ham moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- ✓ tashkilot oliy boshqaruvi tarkibidan sifat uchun mas‘ul vakilni tayinlash;
- ✓ jarayonlarni boshqarishning statistik usullari va sifat menejmenti sohalari bo‘yicha xodimlarni (shu jumladan, yuqori pog‘ona rahbarlar tarkibidan) tayyorlash;
- ✓ xodimlar bilan qayta aloqani tashkil qilish (ichki iste‘molchilarning fikrlari va talablarini inobatga olish);
- ✓ ichki audit va tashkilotdagi kamchiliklar tahlilini muntazam o‘tkazib turish.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo‘lsak ta’lim sifati ko‘p o‘lchovli tushunchadir. Shuning uchun uni oshirish jarayonida ta’lim sifatiga quyidagi jihatlariga rioya qilishni tavsiya etamiz:

✓ jamoatchilik vakillari, ishlab chiqarishdagi mutaxassislar va boshqalarni qamrab olish manfaatdor tomonlarni jalb qilish, sifatni boshqarish yondashuvlarini joriy etish ularning ehtiyojlarini qondirish darajasi;

✓ jarayonni boshqarishning uzluksizligini ta’minlash, tashkil etish o‘quv jarayonidagi ishlab chiqarish yoki tanishuv amaliyotlari;

✓ o‘rganishning huquqiy va tashkiliy asoslarini ishlab chiqish va qo‘llash samarali faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar faoliyatini, amaliy ko‘nikmalar;

✓ ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish orqali integratsiya va o‘zaro bog‘liqlikni oshirish hamda ularning ta’sirini kuchaytirish va oshirish tuzilmalarning manfaatdorligi;

Sifatli va sifat menejmenti tizimi samaradorligini miqdoriy baholash zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022 (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoev “On the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026”. - Tashkent, 2022).

2. Барбер М., Доннелли К., Ризви С. Накануне схода лавины. Высшее образование и грядущая революция // Вопросы образования. 2013. № 3. С. 152- 236

3. Шаев Д.А. Развитие инфраструктуры туристской индустрии в Узбекистане, 2018 Вопросы науки и образования <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-infrastrukturyturistskoy-industrii-v-uzbekistane/>

4. Парпиева М.М. Новые образовательные технологии как механизм повышения качества подготовки высококвалифицированных специалистов. Сборник материалов I Международной научно-практической конференции “Актуальные проблемы внедрения инновационной техники и технологий на предприятиях по производству строительных материалов, химической промышленности и в смежных отраслях” 24-25 мая 2019 года. 2 том.



BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA MALAKAVIY AMALIYOTNING TUTGAN O'RNI

Ulug'bek Eshquvvatov

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yich falsafa doktori (PhD)*

E-mail: eshkuvvatov.ulugbek@mail.ru

Annotasiya. Mazkur maqolada bo'lajak muhandisning kasbiy tayyorgarlik faoliyatida malakaviy amaliyot qanday o'rin tutishi ularda kasbiy ko'nikma va malakani tarkib toptirishning mazmuni, mohiyati, shakl va metodlari haqida so'z yuritiladi.

Tayanch iboralar va atamalar: kasbiy tayyorgarlik, malakaviy amaliyot, kasbiy ko'nikma va malaka, muhandislik faoliyati.

РОЛЬ КВАЛИФИКАЦИОННОЙ ПРАКТИКИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

Аннотация. В данной статье рассказывается о том, какое место занимает квалификационная практика в профессиональной подготовительной деятельности будущего инженера, о содержании, сущности, формах и методах формирования в них профессиональных умений и навыков.

Базовые фразы и термины: профессиональная подготовка, профессиональная практика, профессиональные навыки и компетенции, инженерная деятельность.

THE ROLE OF QUALIFICATION PRACTICE IN THE PROFESSIONAL TRAINING ACTIVITIES OF FUTURE ENGINEERS

Annotation. This article will talk about how qualification practice takes place in the professional training activities of the future engineer and the content, relevance, form and methods of composing professional skills and qualifications in them.

Keywords: professional training, pedagogical practice, professional skills and qualifications, teaching activity

KIRISH

Rivojlanib borayotgan O'zbekistonda ta'lim soxasiga juda kata e'tibor qaratilib kelinmoqda. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri ta'lim tizimiga juda katta o'zgarishlar kiritdi. Mazkur qonunning 35-moddasida "O'quv rejasida, qoida tariqasida, ta'lim jarayonining jadvali, o'qitishning boshlanishi, muddati va davriyligi, o'quv yillari, choraklar, semestrlar, amaliyot, ta'tillar hamda attestatsiya, ajratilgan haftalar soni, o'rganiladigan fanlar (modullar) va ularga ajratilgan soatlar (kreditlar) hamda boshqa zarur parametrlar aks ettiriladi".

Ta’lim oluvchilarning amaliyotni o’tash tartibi va uni tashkil etish ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi[1]. deyilgan. Ta’lim oluvchilar kasbiy ko’nikmalarini mukammal egallashi uchun o’quv rejalari va muayyan fanlarning o’quv dasturlarida o’quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini o’tashlari shart.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Amaliyotlar bakalavr ta’lim jarayonining majburiy qismi bo’lib, talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko’nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo’naltiriladi. Bakalavrlar tayyorlashda ko’plab amaliyot turlari o’tkaziladi. Shulardan biri Malakaviy amaliyotdir[2].

Malakaviy amaliyotbo’lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlash tizimining asosiy va muhim bo’g’inidir.

Malakaviy amaliyottalabanning nazariy ta’limi va bo’lajak mustaqil faoliyatini bog’laydigan hamda kasbiy ko’nikma va malakalarni shakllantirishni ta’minlovchi jarayon bo’lib, dastlabki tajriba maktabi hisoblanadi.

Malakaviy amaliyot– bo’lajak muhandislarni tayyorlashda o’quvMalakaviy jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Malakaviy amaliyotnamunaviy va ishchi o’quv rejasiga mos ravishda amalga oshiriladi. Malakaviy amaliyotning mazmuni amaliyot turiga qarab, kafedrada ishlab chiqilgan dasturiga mos bo’ladi. Malakaviy amaliyoto’quv mashg’ulotlaridan ajralgan holda tashkil etiladi.

Malakaviy amaliyotning maqsadi – bo’lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko’rish, Malakaviy faoliyat mas’uliyatini his etish va o’z ustida ishlash ko’nikmasini shakllantirish, shuningdek, tajribali muhandislarning ish faoliyatini o’rganishdan iboratdir. Malakaviy amaliyotvazifalari:[3].

- Talabalarda muhandis kasbiga qiziqishni tarbiyalash;
- Malakaviy faoliyat haqida bir butun tushunchani shakllantirish; □

Malakaviy ko’nikma va malakalarni shakllantirish; □ Malakaviy faoliyat bo’yicha tajribani yaratish.

Malakaviy amaliyot bo’lajak muhandisning muhandislik faoliyatiga qo’yayotgan ilk qadami hisoblanadi. Malakaviy amaliyot– kasb ta’limi yo’nalishlari uchun qo’llaniladi va Malakaviy maxoratni oshirishga qaratiladi. Bo’lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligi malakaviy amaliyot bilan birgalikda kechadi. Malakaviy amaliyotning eng muhim vazifalaridan biri bu bo’lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdir.



1-rasm. Muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik jarayoni

Kasbiy tayyorgarlik – zaruriy kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida izohlanadi. Kasbiy tayyorgarlik o‘z-o‘zidan yuzaga kelmay, balki aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi.

Shaxsda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi dastlab kasbga xos tasavvur, tushunchalarni tarkib topganligi bilan belgilansa, keyinchalik mutaxassislikka oid bilim, malaka va ko‘nikmalarning o‘zlashtirilishi, kasbiy sifatlarning qaror topishi hamda kasbiy moslashish darajasi bilan izohlanadi. Oliy ta‘lim muassasalari va ulardagi o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat–monitoringini oshirish, bo‘lajak muhandislarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi.


Malakaviy amaliyotalabalarda tanlangan mutaxassislikning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo‘lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta‘lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta‘minlanadi. Bunda kasbiy tayyorgarlikning asosiy mezonlari sifatida bo‘lajak mutaxassisning faoliyatga amaliy tayyorgarligi va ixtisoslik doirasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirish, kasbiy faoliyat talablariga moslashish darajasi belgilanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kasbiy tayyorgarlik mutaxassisning butun faoliyati davomida ma‘naviyaxloqiy hamda kasbiy sifatlarining yanada takomillashishi, kasbiy kompetentlikning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini ifodalaydi.

Keltirilgan mazkur vazifalarning amaldagi ijrosi texnika oliy ta‘lim muassasalari oldiga qo‘yiladigan masalalardan eng muhimi, ya‘ni bo‘lajak muhandislarni tayyorlash jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvlarni talab etadi:

- mehnat bozori talablari hamda ilm-fan, texnika, texnologiya va iqtisodiyotning eng so‘nggi yutuqlari asosida uzviy ravishda takomillashtirilib turiladigan kasbiy ta‘lim dasturlarini yaratish;
- uzluksiz ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish orasidagi o‘zaro mustahkam integratsiyani yo‘lga qo‘yish;
- ta‘lim muassasalarini zamonaviy moddiy-texnik baza va o‘quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta‘minlash;
- oliy ta‘lim tizimiga yuqori malakali muhandis, metodist va muhandis-pedagoglarni jalb etish;
- bo‘lajak muhandislarning bilish faolligi, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ularda faol kasbiy motivatsiyani qaror toptirish;
- oliy ta‘lim muassasalari o‘quv amaliyotiga innovatsion o‘qitish texnologiyalarini keng tatbiq etish zaruriy omillardan hisoblanadi[5].



2-rasm. Muhandislarni tayyorlash jarayonining innovatsion yondashuvlari

Kasbiy tayyorgarlik – maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma‘naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi.

Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish – DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma‘naviy- axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo‘lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik jarayonidir.

Bo‘lajak muhandislarning Malakaviy amaliyoti mobaynida ularga kerak bo‘ladigan asosiy narsa bu – kasbiy bilimdir.

Kasbiy bilim – aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo‘lgan axborotlar va o‘zlashtirilgan nazariy ma‘lumotlar birlashmasidir .

Kasbiy ko‘nikma va malakalar – amaliy faoliyat jarayonida paydo bo‘ladigan, shaxsning o‘zlashtirilgan kasbiy bilimlarini anglangan ish harakatlariga aylanishidagi avtomatlashgan usuldir.

Konstruktivlik (loyihalash qobiliyatiga egalik) – bu tarbiyachining Malakaviy jarayonni metodik jihatdan to‘g‘ri loyihalashtirishi va tashkil etishi ko‘zda tutiladi. Bunda ta‘lim jarayoni natijalarini prognoz qilish, o‘quv-tarbiya jarayonini maqsadli loyihalash, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlaridan kelib chiqib ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni to‘g‘ri belgilash va darsning texnologik tuzilmasini aniq belgilash, amalga oshirish bilan bog‘liq malakalar nazarda tutiladi.

Kommunikativlik – bu tarbiyachi-pedagogning alohida xususiyati bo‘lib, unda o‘quvchilar va hamkasblari bilan o‘zaro hamkorlik muloqoti nazarda tutiladi. Bunda tarbiyachining bolalarni o‘ziga jalb etishni bilishi, o‘quvchilar va ota-onalar bilan muloqotni tashkil etishi, boshqarishi va nazorat qilishi, ular bilan Malakaviypsixologik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o‘zaro aloqa bog‘lashga, shaxslararo munosabatlarni faollashtirishga qaratilgan malakalardir. O‘quvchilar bilan muloqotda Malakaviy tayyorgarlikning muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan muhandisning kommunikativ ko‘nikma va malakalarni uzluksiz ravishda egallab borishi, uni qo‘llay olish layoqatiga bog‘liq.

Tashkilotchilik – tarbiyachining o‘quvchilar jamoasini uyushtira bilishi, jamoani jipslashtira olishi, o‘quvchilarning bilish faolligini faollashtira olishi, shaxsiy tajribasi va ilg‘or Malakaviy g‘oyalarni dars jarayoniga tatbiq eta olishi bilan tavsiflanadi[6].

Malakaviy amaliyotishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish va uning uslubiy ta‘minotini yaratish kasbiy moslashtirish jarayonidagi muhim tashkiliy-metodik shart-sharoitlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, bo‘lajak muhandislarning faoliyatida malakaviy amaliyotbeqiyos o‘rin tutadi. Har bir pedogog qanday qobilyatlarga ega bo‘lishi va gnostik malakalar, konstruktiv malakalar, kommunikativlik, tashkilotchilik malalkalarni egallashda malakaviy amaliyotmuxim ahamiyatga ega. Albatta shuni ham aytish zarurki, talabalarning o‘quv davri mobaynida egallagan kasbiy ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘llash uchun ham eng qulay fursat malakaviy amaliyothisoblanadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni Ta‘lim to‘g‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil.
2. O‘zbekiston uzluksiz ta‘limining davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti 2021-yil 16-iyul.
3. Шило Т.Б. Структура креативности: современные взгляды на проблему. Тенденции развития психологии, педагогики и образования/Сборник научных трудов по итогам международной научно-практической конференции. Казань, 2014.
4. Haydarov F.I., Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. B– 18-32.
5. Tolipov O‘.Q oliy Malakaviy ta‘lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirishning Malakaviy texnologiyalari/ Monografiya. – T.: Fan, 2004.b – 73-80.
6. Xusnidinova Gulnoza Zoxidjon qizining Magistrlik dissertatsiyasi «Bo‘lajak muhandislarni kasbiy moslashtirishning Malakaviy shart-sharoitlari ».

7. Baydjanov, B. (2021). Protection from the threat of harmful information that negatively affects the physical and mental development of students as a pedagogical problem. “Innovative technologies in sports and physical education of the younger generation”. Collection of materials of the international online conference. (1). <https://doi.org/10.47100/v1i1.71>

8. Шарипов Ш.С. Талабалар ихтирочилигини шаклланти-ришнинг педагогик шароитлари: Дисс. ... пед. фан. номз. – Т.,2001. – Б.140

9. Eshquvvatov U.A., Talabalarning muhandislik kasbiga oid ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik talablari va shartlari. Ta’lim va innovatsion taqiqotlar jurnali 377-380 betlar.

10. Eshquvvatov, Ulug‘bek. “Talabalarni muhandislik kasbiga yo ‘naltirishning dolzarbligi”. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал 1.3 (2023).

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK:378.2

ORCID:0009-0007-7055-8439

INGLIZ TILI DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Haydarova Maftuna Murodilla qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail:mhaydarova78@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish jarayonini sifatli va mazmunli tashkillash maqsadida innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamda ularning ta’limda samaradorligi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Innovatsion texnologiyalar, Cinquain, Brainstorming, Case study, Cluster, Project, Mind Mapping, Zigzag.

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В статье рассматривается применение инновационных технологий и их эффективность в образовании с целью качественной и содержательной организации процесса обучения английскому языку в начальных классах.

Ключевые слова: Инновационные технологии, Синквейн, Мозговой штурм, Анализ случая, Кластер, Проект, Составление интеллект-карт, Зигзаг

INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN ENGLISH LESSONS

Abstract: The article discusses the use of innovative technologies and their effectiveness in education in order to organize the English language teaching process in primary grades in a qualitative and meaningful way.

Keywords: Innovative technologies, Cinquain, Brainstorming, Case study, Cluster, Project, Mind Mapping, Zigzag.

KIRISH

Bugungi kunda o‘quvchilarga chet tillarni, xususan, ingliz tilini o‘qitishda qo‘shimcha manbalardan foydalanib, yordamchi o‘quv vositalar orqali ularning xorijiy tillarga bo‘lgan qiziqishini va ushbu tillarga munosabatini yanada oshirish maqsadida ta’lim jarayonida innovatsion usullar hamda texnologiyalardan keng foydalanishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Maktab ta’limida innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkil etish o‘quvchilarning chet tiliga bo‘lgan qiziqishlarini orttiribgina qolmay, shu bilan birga ularning mustaqil ijodiy ishlash malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirib boradi.

“Innovatsion texnologiya” atamasining etimologiyasi ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha “innovatsiya” (inglizcha innovation- kiritilgan yangilik, ixtiro, fan-texnikada joriy etilgan “yangilik”) ma’nosini ifodalaydi, “texnologiya” esa lingvodidaktik tushuncha sifatida “kam vaqt, kuch va mablag‘ sarflab, ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlovchi sa’y-harakatni ilmiy tashkil qilishning oqilona usullari majmui”ni ifodalaydi. Innovatsion texnologiyalarning Cinquain, Brainstorming, Case study, Cluster, Project, Mind Mapping, Zigzag, FSMU kabi turlarini dars mashg‘ulotlari jarayonida qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali samaradorlikka erishish usullari Mahkamova G.T., Alimova Sh.S., Ziyayev A.I.[2], Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A.[3], Motteram G.[5] kabi olimlarning tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida keltirib o‘tilgan innovatsion texnologiya turlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Cinquain- ushbu so‘z fransuzcha “besh” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ma’lum qoidalarga muvofiq yozilgan “besh satrning she’ri” degan ma’noni anglatadi.

Cinquain funksiyalari:

1. Nutqni rivojlantirishga yordam beradi: tushuntirish, o‘quvchilar so‘z boyligini faollashtirish, nutq haqida bilimlarni mustahkamlash.

Sinonimlarni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatadi.

2. Aqliy jarayonlarni rivojlantiradi: diqqat, fikrlash, xotira, xayol.

3. Nozik vosita ko‘nikmalarini, visual qobiliyatlarni yaxshilaydi.

4. Ijodiy faoliyat, mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi.

5. O‘yin lahzasini o‘z ichiga oladi.

Brainstorming- aqliy hujum texnologiyasi. Ushbu texnologiya asosida o‘quvchilar erkin fikrlay olishadi, yana muammoli vaziyatlarga yechim topishadi. To‘g‘ri tashkil etilgan aqliy hujumning amaliy afzalliklari ko‘p. Faqat bunda quyidagi qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- jumlar qisqa bo‘lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas.

- har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya’ni fikrlar tanqiddan holidir.

- mantiqiy fikrlardan ko‘ra tasodifan miyada paydo bo‘lgan fikr muhimroq.

Case-study muammoli o‘qitish texnologiyalarida biri hisoblanadi. Ushbu innovatsion texnologiya asosida o‘quvchilar muayyan vaziyatlarni har tomonlama o‘rganadilar. O‘z navbatida ularni faol fikrlashga undaydi, nazariy mashg‘ulotlarda egallagan bilimlarini mustaqil o‘rganish davomida to‘plagan ma’lumotlar bilan taqqoslaydilar, shaxsiy tajribalarga murojaat qiladilar. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, nutq mahorati, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Cluster usuli - o‘quvchini mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan. Bir mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchining fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi.

Mind Mapping-aql xaritasi texnologiyasi. Aql xaritalarini qo‘llash fikrlashni vizuallashtirishning bir usuli bo‘lib, uning yordamida ba’zi ma’lumotlarni xotirada yaxshiroq va samaraliroq saqlash mumkin bo‘ladi. Ushbu texnologiya juda ko‘p maqsadlarda keng qo‘llaniladi, jumladan:

- axborotni yod olish. Biror narsani qulay shaklda yozilsa, u avtomatik ravishda xotiraga tushadi.

- ma’lumotlarga oson murojaat. Aql xaritasi shaklida qayd etilgan ma’lumotlarni yodda saqlash oson, hatto ularni bir qarashda eslab qolish mumkin.

- axborotni tahlil qilish. Aql xaritasi oldindan sezilmaydigan o‘zaro bog‘liqlikni, e’tibordan chetda qolgan kichik tafsilotlarni ko‘rish imkonini beradi, bu esa qarorlarni qabul qilishda juda muhimdir.

FSMU texnologiyasi - munozarali masalalarni hal etishda, bahs - munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminarlari yakunida o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin. Bunda o‘quvchilar erkin fikrlash va o‘z fikrini himoya qilishga, o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazish, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga egallagan bilimlarni baholashga, tahlil etishga hamda tinglovchilarda bahslashish madaniyatini o‘rgatadi.

F-fikringizni bayon eting.

S-fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating.

M-ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring.

U-fikringizni umumlashtiring.

Zamonaviy ta’lim jarayonida ingliz tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini olib borish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga metodik jihatidan yordam beradi va ta’lim sohasida yuqori natijalarga erishishga olib boradi. SHuningdek, texnologiyalardan ta’lim jarayonida foydalanish, ta’limni jozibali va samarali bo‘lishiga yordam beradi.

“Jigsaw” - o‘qish (reading) nutq faoliyati turini rivojlantiradigan, o‘quvchilarni qiziqtiradigan va ularning o‘quv jarayonidagi ishtiroki hamda hissasini oshiradigan foydali hamkorlik strategiyasi. “Jigsaw” o‘quvchilarni muvaffaqiyatga erishish uchun bir-biriga bog‘liqligini ta’minlaydigan auditoriya faoliyatini tashkil etish usuli. O‘qituvchi auditoriyani

guruhlarga ajratadi va berilgan jumboqli matnni bajarish uchun guruh bajaradigan topshiriqlarni qismlarga ajratadi.

Jigsaw (reading) o‘qish - bu nutq faoliyati turi o‘qish (reading) ko‘nikmasini rivojlantirishning ajoyib usuli. Bu chinakam muloqot va o‘qish (reading) uchun haqiqiy imkoniyat yaratadi.

“Ikki qismli kundalik” texnologiyasi—bu yozma (writing) nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o‘qib chiqilgan mavzu bo‘yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog‘lashga imkon beradi. Bu texnologiya tanqidiy fikrlashni ham o‘stirishga yordam beradi. Maqsad: o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg‘otish, tanqidiy fikrini bilish va yozma (writing) nutqni rivojlantirish.

“TRIZ” texnologiyasi – gapirish (speaking) nutq faoliyat turini rivojlantirishga yordam beradi. Bu pedagogikaning strategik maqsadi o‘quvchining ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishdir. TRIZ texnologiyasidan foydalanishning maqsadlari:

- dunyoning to‘liq tasvirini yaratish;
- qidiruv faoliyatiga qiziqish ortishi, muammoning g‘ayritabiiy yechimlarini ishlab chiqish istagi;
- so‘z, xotira, ijodiy xayolotni rivojlantirish.

TRIZ texnologiyasi analitik va tizimli fikrlashni rivojlantirish uchun samarali vosita sanaladi.

TRIZ elementlaridan foydalanishning afzalliklari:

- har bir o‘quvchining o‘ziga xosligini ochib berishga imkon beradi;
- original g‘oyalarni o‘zaro almashishni rag‘batlantiradi;
- maqsadga erishishdagi muvaffaqiyat ta‘mini his etishga yordam beradi;
- ijodiy faol mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi;
- o‘yinda, amaliy va badiiy faoliyatda namoyon bo‘lgan o‘quvchilar tasavvuri rivojlanadi;
- noan‘anaviy yechim taklif qiladigan, qiyin vaziyatdan chiqish yo‘lini topadigan, boshqalarga muammoni boshqa tomondan qarashga yordam beradigan shaxsni shakllantirishga yordam beradi.

XULOSA

Endilikda ta‘lim jarayonini innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyinligi yuqorida aytib o‘tilgan fikr- mulohazalardan ham sezish mushkul emas. Ta‘limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

- o‘quvchilarning bilim egallashga bo‘lgan qiziqishlari va motivatsiyasi kuchayadi;
- o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlari jarayonida zerikishi va charchashining oldi olinadi;
- o‘quvchilarda ijodiy ishlash ko‘nikmalari va faol fikr rivojlanadi;
- mavzu bo‘yicha yangi assotsiativ fikr va tasavvurni erkin hamda ochiq jalb qilishga yordam beradi;

- o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Сайидахмедов Н.С. Педагогик маҳорат ва педагогик технология. –Т.: ЎзМУ қошидаги ОПИ, 2003.
2. Махкамова Г.Т., Алимова Ш.С., Зияев А.И. Innovative pedagogical technologies in the English language teaching.-Т.:2017.
3. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент, Истеъдод, 2008. – 180 б.
4. J.J.Jalolov,G.T.Makhamova, Sh.S.Ashurov. English language teaching methodology. .-Т.:2015. Pp:336
5. G.Motteram. Innovations in learning technologies for English language teaching. –GB.: “British council band and design”, 2013.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK: 372.851

ORCID: 0009-0003-8039-992X

BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Meliboyev Anvar Rashidovich,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali “Registrator ofisi” boshlig‘i, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
meliboyevanvar131@gmail.com +99894-307-76-74

Annotatsiya: O‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Interfaol metodlar boshlang‘ich sinf matematika darslarida ta‘limning samarali borishiga, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya‘ni didaktik o‘yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi.

Kalit so‘zlar: samaradorlik, geometrik shakllar modellari, kartochkalar, predmetlar, interfaol, geometrik shakl, axborot kommunikatsion texnologiya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: Использование интерактивных методов обучения приводит к повышению эффективности учебного процесса. Интерактивные методы во многом способствуют эффективному прогрессу обучения на уроках математики в начальной школе, успешному управлению учебной деятельностью учащихся, то есть теоретические знания легко усваиваются посредством дидактических игр, повышается интерес учащихся к обучению.

Ключевые слова: эффективность, модели геометрических фигур, карточки, предметы, интерактив, геометрические фигуры, информационно-коммуникационные технологии.

USING INTERACTIVE METHODS IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS LESSONS

Abstract: The use of interactive teaching methods leads to an increase in the effectiveness of the educational process. Interactive methods largely contribute to the effective

progress of learning in mathematics lessons in primary school, successful management of students' educational activities, that is, theoretical knowledge is easily learned through didactic games, and students' interest in learning increases.

Keywords: efficiency, geometric shapes models, cards, objects, interactive, geometric shapes, information and communication technologies.

KIRISH.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matematik savodxonligini oshirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. “Matematik savodxonlik” o‘quvchilarning maktab matematika kursida egallagan bilimlarini tekshirishni emas, balki turli vaziyatlarda matematik bilim, ko‘nikmalarni qo‘llay olishlariga asosiy e‘tibor qaratiladi. O‘quvchilarga asosan, o‘quv emas, balki kundalik hayotga xos bo‘lgan amaliy vaziyatlar taklif etiladi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta‘lim standartida o‘quvchilarda matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Boshlang‘ich sinf matematika darslari unumdorligini oshirish uchun turli usullardan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda va shu o‘rinda fanlararo integratsiyani ta‘minlash hamda o‘quvchilarni har tomonlama intellektual qobiliyatini oshirish muhim vazifalardan biridir.

Yangicha metod yoki innovatsiyalarni ta‘lim jarayoniga tadbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarning o‘quv jarayonida qo‘llanilishi tushuniladi. Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda.

Interfaol metod - ta‘lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirishini faollashtiradi, shaxsiy sifatlarini rivojlantiradi. O‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Faqatgina o‘qituvchi emas, balki o‘qituvchi bilan birgalikda o‘quvchi ham faol bo‘lishi hozirgi kunning talabi hisoblanadi.

ASOSIY QISM.

Bolalarga dars jarayonlarini turli xil ko‘rinishdagi metodlar, o‘yinlar orqali ularga tushuntirib, ularni psixikasiga mos dars jarayonlarni tashkil qilamiz. Dars jarayonida bolalarni zerkitib qo‘ymaslik uchun ularga turli xildagi metodlar asosida dars jarayonni tashkil qilamiz.

O‘qitishning interfaol usullarini - o‘qitish metodini olsak, bu tushuncha didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Didaktika va metodikaga oid hozirgi zamon ishlarining ko‘pchiligida o‘qitish metodlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari usullari bo‘lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malaka va ko‘nikmalarga erishiladi, o‘quvchilarning dunyoqarashlari shakllanadi, ularning qobiliyatlari rivojlanadi. Darsda o‘quvchilar faolligini oshiruvchi vositalardan biri-interfaol metodlardir. Bu uslublar maktab pedagogikasi uchun yangilik emas. Ulardan ilgari ham foydalanib kelingan. Qachon bu metodlar samarali natija bera oladi:

- Dars va mavzuning maqsadlari to‘g‘ri, aniq tanlanganda;
- Mavzuga mos metodlarni tanlay olinsa;
- Bir metod butun dars davomida qamrab olmasdan, balki kichik daqiqalarni qamrab olsa;
- Tanlagan metod o‘quvchilarga yangi bir axborotlarni yetkazib bersa, o‘quvchi mavzuni

nima haqidaligini tezgina tushuna olsa yaxshi natija beradi.

Bugungi kunda dars jarayonida bolalarni yoshiga va bilim darajasiga qarab, interfaol metodlardan foydalanib dars o‘tamiz. So‘ngi yillarda pedagogika faoliyatida turli axborot vositalari (kompyuter, televideniya, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta‘lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta‘lim jarayonida turli axborot vositalardan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Biz o‘qituvchilar darslarni turli xil innavotsion metodlar orqali tushuntirib, yoritib bolalarga yetkazib berishga harakat qilishimiz kerak.

Interfaol metodlar deganda - o‘quvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrga undovchi, ta‘lim jarayonining markazida ta‘lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda o‘qituvchi o‘quvchilarni faol ishtirok etishga chorlaydi. O‘quvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta‘lim oluvchi markazida bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta‘lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta‘lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e‘tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta‘lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- o‘quvchining tashabbuskorligi va mas‘uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Ta‘lim jarayonini interfaol metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur.

Interfaol metodlar boshlang‘ich sinflarda ta‘limning samarali borishiga, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya‘ni didaktik o‘yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi.

Ayrim insonlar o‘qituvchini aktyor bo‘lishi kerak deb o‘ylashadi. Chunki, o‘qituvchi o‘quvchilarning yaxshi bilim olishi, ilm cho‘qqilarini mukammal darajada egallashi uchun turli xil obrazlarda namoyon bo‘ladi-da. Bugungi kunda zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida “aktyor” emas, aksincha o‘qituvchi “rejissyor” bo‘lishi kerakligini bilishi kerak. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini har bir fanga ijodkorlik nuqtai nazaridan qarashi, o‘quvchilarda izlanuvchanlik, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishi kerak.

Boshlang‘ich sinf darslarida foydalanib kelinayotgan metodlarda biz ko‘pincha geometrik shakllardan foydalanamiz. Buning uchun o‘qituvchi avvalo geometriya so‘zini ma‘nosini yaxshi tushunib, o‘quvchilarga u haqida ma‘lumot berib borishi kerak.

Geometriya 2500 yildan avvalroq paydo bo‘lgan. Geometriya yunoncha so‘z bo‘lib, “yer o‘lchash” degan ma‘noni bildiradi (geo-yer, metreo-o‘lchayman).

Geometrik material boshlang‘ich sinflar uchun mustaqil bo‘lim sifatida o‘quv dasturiga kiritilmagan. O‘quv jarayonida geometriya elementlarini o‘rganish bilan bevosita bog‘lab olib boriladi. Shuning uchun, interfaol metodlardan foydalanayotganda geometrik figuralarni qo‘llash o‘quvchilardagi geometriya elementlarini mukammalroq bilishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda geometrik elementlarini o‘rganishning asosiy maqsadi geometrik shakllar, ularning elementlari orasidagi munosabatlari, xossalari haqidagi tasavvurlar tizimini tarkib toptirishdan iborat, shakllarni chizmachilik va o‘lchash asboblari yordamida yoki ularsiz yasash, o‘lchash amaliy malakalari shakllantiriladi. Geometrik elementlari bilan tanishtirishda kuzatish, taqqoslash, induktiv va deduktiv xulosa chiqarish, laboratoriya, amaliy metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda o‘qitishning turli vositalaridan keng foydalaniladi. Masalan, geometrik shakllar modellari, plakatlar, kartochkalar, predmetlar, cho‘plar bilan birga chizmalarni bajarish uchun chizmachilik – o‘lchash asboblari to‘plami: chizg‘ich, sirkul, paletka albatta sinfda mavjud bo‘lishi muhimdir.


O‘z fanini sevuvchi o‘qituvchilar darsni tashkil etishda o‘quvchilar qiziqishini oshirish va darslarni jonlantirish uchun turli metod va o‘yinlardan foydalanadi. O‘yin asosida olib borilgan mavzular esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. O‘quvchilar ham noodatiy darslarni juda yaxshi ko‘radi.

Sizlarga quyidagi foydalanilishi mumkin bo‘lgan ana shunday metodlardan ayrimlarini izohlab beraman. Bu metodlar mening ish faoliyatimda, dars jarayonlarimda juda qo‘l kelgan. O‘quvchilarim ushbu metodlar bilan dars o‘tishimni juda xohlashadi. Har bir fan mavzularidan kelib chiqqan holda, bu metodlarni darsga moslashtirib boraman. Ushbu metodlarni siz o‘z ish faoliyatingizda kengaytirib foydalanishingiz, o‘z ijodkorligingiz bilan uni yanada boyitishingiz mumkin. O‘ylaymanki, bu metodlar sizning ham dars jarayoningizda qo‘l keladi va dars maqsadini amalga oshirishda sizga yordam beradi.



“Bizlar mohir quruvchi” metodi.

Bu metod o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lib yoki yakka tartibda, o‘tilgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash vaqtida va yana butun dars davomida o‘tkazilishi mumkin. O‘qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko‘rib, rangli qog‘oz bo‘laklaridan geometrik shakllar tayyorlab olishi kerak bo‘ladi. Darsda foydalanishiga qarab geometrik shakllar sonini orttirib boradi. Masalan, uch guruh bilan ishlamoqchi bo‘lsa, quyidagi geometrik shakllarni uchta dan qilib oladi.



Yuqorida ko‘rsatilgan geometrik shakllarni o‘quvchilar dars davomida beriladigan topshiriqlarni bajarishiga qarab qo‘lga kiritadilar. Ushbu geometrik shakllardan o‘quvchilar dars so‘ngida uy tasvirini hosil qilishi kerak bo‘ladi.

Birinchi topshiriq bajarilganidan so‘ng o‘quvchilar uyning poydevor qismini, ikkinchi topshiriqni bajarganidan keyin uyning devor qismini, shu tartibda tom qismini va boshqa qismlarini qo‘lga kiritadilar. Topshiriqlarga javob bera olmagan o‘quvchi yoki guruh uyning qismlarini qo‘lga kiritmaydi. O‘qituvchi darsni yanada qiziqarli bo‘lishi uchun tezkor savollar berib o‘quvchilar bilimni mustahkamlaydi. Natijada esa o‘quvchilar deraza va eshik uchun kerakli qismlar (tutqich va romlar)ni qo‘lga kiritadilar. Bu esa uyning yanada chiroyli va ko‘rkam bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Dars so‘ngida guruh yoki o‘quvchilarning yasagan uylari ko‘rib chiqiladi. Mohirlik bilan hamma topshiriqlarni a‘lo darajada bajargan guruh yoki o‘quvchilarning yasagan uyi chiroyli ko‘rinishga ega bo‘ladi va shu guruh yoki o‘quvchi go‘lib hisoblanadi.

“Bizlar mohir quruvchi” metodi o‘quvchilarda mavzuni o‘rganishga ishtiyoq va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. O‘quvchilarda quruvchilik kasbiga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Biror ishni boshlaganda, albatta, uni oxiriga yetkazishni, oxiriga yetmay qolgan ish yaxshi natija bermasligini tushunib oladilar.



Bu metodni boshlang‘ich sinflarning barcha fanlarida foydalanish juda yaxshi samara beradi.

XULOSA.

Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning asosi hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko‘ra interfaol metodlar keng qo‘llanilmoqda. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim- tarbiya jarayoni sifatini kafolatlaydi. Ta’lim jarayonlarida interfaol o‘yinli metodlar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mamatqulova R. Interfaol usul: bahs-munozara. Xalq ta’limi. 2004. 1-son. - 26-39 b.
2. Ochilov M., Ochilova N. “Oliy maktab pedagogikasi” -T. 2008
3. Yo‘ldoshev J.G, Usmonov S.A “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish” -T. Fan va texnologiya. 2008.
4. Jumayev M. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” -T. 2022.



MILLIY TARBIYA ASOSLARI FANINI O‘QITISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Alisher Tursunov
Farg‘ona Davlat Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy tarbiya asoslari fanini o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Milliy tarbiya ta’lim jarayonida talabalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, milliy g‘urur va o‘zligini anglashga xizmat qiladigan muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotda milliy tarbiyani samarali o‘qitish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar, o‘qitish metodikalarining ta’siri va o‘qituvchilar hamda talabalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot metodlari sifatida kuzatish, eksperiment va tahlil usullari qo‘llanilgan. Natijalarda pedagogik shart-sharoitlar talabalarning milliy tarbiyani qabul qilishida va uni o‘zlashtirishda qanday rol o‘ynashi ko‘rsatilgan. Maqolada o‘qitishning samarali metodlari va tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan takliflar berilgan. Bu ish milliy tarbiyani o‘qitishda pedagogik shart-sharoitlarning ahamiyatini tushunishga yordam beradi va ta’lim sohasidagi o‘qituvchilar uchun muhim tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: milliy tarbiya, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim jarayoni, o‘qitish metodikalari, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, talabalar, o‘qituvchilar, metodologik yondashuv, pedagogik tahlil, ta’lim samaradorligi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «ОСНОВЫ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ»

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические условия преподавания предмета «Основы отечественного образования». Национальное образование является важным фактором образовательного процесса, служащим формированию у учащихся духовно-нравственных ценностей, национальной гордости и самосознания. В исследовании рассматриваются педагогические условия, необходимые для эффективного национального образования, влияние методов обучения, а также взаимоотношения между учителями и учащимися. В качестве методов исследования использовались методы наблюдения, эксперимента и анализа. Результаты показывают роль педагогических условий в принятии и освоении учащимися национального образования. В статье даны предложения по эффективным методам преподавания и тренинга для развития тренинга. Данная работа помогает понять важность

педагогических условий в преподавании национального образования и дает важные рекомендации для педагогов в области образования.

Ключевые слова: национальное образование, педагогические условия, образовательный процесс, методика обучения, духовно-нравственные ценности, обучающиеся, преподаватели, методический подход, педагогический анализ, эффективность образования.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR TEACHING THE SUBJECT OF THE BASICS OF NATIONAL EDUCATION

Annotation: This article analyzes the pedagogical conditions of teaching the subject of the fundamentals of national education. National education is an important factor in the educational process that serves the formation of students' spiritual and moral values, national pride and self-awareness. The study examines the pedagogical conditions necessary for effective national education, the impact of teaching methods, and the relationship between teachers and students. Observation, experimental and analysis methods were used as research methods. The results show the role of pedagogical conditions in the adoption and mastering of national education by students. The article gives suggestions for effective methods of teaching and training for the development of training. This work helps to understand the importance of pedagogical conditions in the teaching of national education and provides important recommendations for educators in the field of education.

Keywords: national education, pedagogical conditions, educational process, teaching methods, spiritual and moral values, students, teachers, methodological approach, pedagogical analysis, effectiveness of education.

Kirish

Milliy tarbiya asoslari fani bugungi ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning maqsadi yosh avlodni vatanparvarlik, ma'naviyat va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir. Milliy tarbiya, o'zining maqsadi va mazmuni jihatidan, jamiyatda shakllanayotgan muhim ijtimoiy qadr-qimmatlarni tarbiyalashga qaratilgan. Bu fan, nafaqat o'quvchilarni madaniy va axloqiy jihatdan shakllantirish, balki ularning ma'naviy dunyosini boyitishga ham yordam beradi. Milliy tarbiya orqali yoshlar o'z xalqining tarixini, an'alarini, tilini va madaniyatini chuqur anglab yetadilar. Shu bois, milliy tarbiya asoslari fanini o'qitish pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylanishi zarur.

Pedagogik shart-sharoitlar o'quv jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Milliy tarbiya fanini o'qitishda shart-sharoitlarning to'g'ri tashkil etilishi o'quvchilarning ushbu fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Pedagogik shart-sharoitlar o'qituvchining metodik mahorati, talabalarning shaxsiy xususiyatlari va o'quv muassasasining material-texnik bazasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, milliy tarbiya asoslari fanini o'qitishda muayyan shart-sharoitlarning yaratilishi va ular bilan ishlash

metodologiyasini tahlil qilish zarur. Bu, o‘z navbatida, ta’limning sifatini oshirish va milliy qadriyatlarni o‘quvchilarga yetkazishning samarali yo‘lini topishga yordam beradi. [1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Milliy tarbiya asoslari fanini o‘qitishda pedagogik shart-sharoitlarni tahlil qilishda bir nechta metodik yondashuvlar qo‘llanildi. Birinchi metod, ta’lim jarayonini bevosita kuzatish orqali o‘qituvchining metodik ishlash usullarini va o‘quvchilarning darsdagi faoliyatini o‘rganishdir. Kuzatish metodini qo‘llash orqali, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, talabalar faoliyati va o‘qitishning samaradorligi haqida aniq ma’lumotlar yig‘ildi. Shuningdek, bu metod o‘qituvchilarning milliy tarbiya asoslari fanini qanday o‘qitish, qaysi metodlarni qo‘llashda muvaffaqiyatli bo‘lishi haqida ko‘plab dalillarni taqdim etdi. Ta’lim jarayonidagi ba’zi xatoliklar va muammolarni aniqlash ham kuzatish metodidan foydalanish orqali amalga oshirildi. [2]

Ikkinchi metod sifatida eksperiment metodini qo‘lladik. Eksperiment orqali, milliy tarbiya fanining samarali o‘qitilishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar va metodik yondashuvlarning ta’siri tahlil qilindi. O‘quvchilarning bilim darajasi, shaxsiy qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganildi. Eksperiment davomida o‘quvchilarga turli pedagogik usullar va metodlar qo‘llanilib, ularning natijalari tahlil qilindi. O‘quvchilarning bilim darajasi, faolligi va fan asosidagi qarashlari o‘zgarganligi kuzatildi. Bu metodning asosiy maqsadi, milliy tarbiya asoslari fanini samarali o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlarini shakllantirishda qaysi yondashuvlar samarali ekanligini aniqlash edi.

Uchinchi metod sifatida interv’yu olish metodini ishlatdik. Bu metod, o‘qituvchilar va talabalar bilan suhbatlar o‘tkazish orqali, milliy tarbiya asoslari fanining o‘qitilishi haqidagi fikrlarni to‘plashga qaratilgan. Interv’yu jarayonida, o‘qituvchilarning o‘z tajribalari, ishlatgan metodikasi va talabalar bilan ishlashda duch kelgan muammolarini tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Bu metodning asosiy maqsadi, o‘qituvchilarning pedagogik tajribasidan foydalangan holda, milliy tarbiya fanining samarali o‘qitilishiga oid ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish edi. O‘quvchilarning fikrlarini ham eshitish orqali, ularning o‘qituvchilar tomonidan taqdim etilgan darslarga qanday munosabatda ekanligi aniqlanishi mumkin edi. [3]

To‘rtinchi metod, adabiyotlarni tahlil qilish metodidir. Bu metod orqali milliy tarbiya fanini o‘qitishning pedagogik asoslarini aniqlash maqsadida ilmiy maqolalar, monografiyalar va pedagogik kitoblar o‘rganildi. Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida, turli mamlakatlar va milliy ta’lim tizimlaridagi o‘qitish tajribalari solishtirildi. O‘qitish metodikalari, milliy qadriyatlarni o‘rgatishda qo‘llaniladigan metodlar va pedagogik shart-sharoitlar haqida fikrlar yig‘ildi. Bu metod, ilmiy adabiyotlarning pedagogik amaliyotga qanday ta’sir qilishi va milliy tarbiyani ta’lim tizimida qanday samarali o‘rgatish mumkinligi haqida qimmatli ma’lumotlar berdi. Adabiyotlar tahlili metodini qo‘llash orqali o‘qituvchilarning tajribalarini, o‘quvchilarning milliy tarbiya haqidagi bilimlarini kengaytirish mumkin bo‘ladi. [4]

Natijalar

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida, milliy tarbiya asoslari fanining samarali o‘qitilishi uchun pedagogik shart-sharoitlarning o‘rni muhimligini ko‘rsatdi. Darslarni tashkil etishda milliy qadriyatlarni o‘rgatishning ahamiyati o‘z isbotini topdi. Tadqiqotda qatnashgan o‘qituvchilarning aksariyati milliy tarbiya asoslari fanini o‘qitishda o‘z tajribalarini kengaytirish, yangi pedagogik metodlarni qo‘llashning zarurligini ta’kidlashdi. Shuningdek, o‘quvchilarning milliy qadriyatlarni o‘rganishdagi ishtirokini yuqori baholashdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning metodik bilimlari va malakalarini oshirish orqali, milliy tarbiya asoslari fanining ta’lim jarayoniga integratsiyasi sezilarli darajada samarali bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlarning to‘g‘ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Milliy tarbiya asoslari fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish uchun, interaktiv metodlarning qo‘llanilishi ko‘rgan natijalar bo‘yicha foydalidir. [5]

Bundan tashqari, pedagogik shart-sharoitlarning ta’siri milliy tarbiyani o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘quvchilarning milliy qadriyatlarni o‘rganishdagi faolligi va muvaffaqiyatlari pedagogik usullar va shart-sharoitlarga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida o‘qituvchilarning yangi metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning milliy tarbiya haqidagi bilimlarini oshirishga bo‘lgan yondashuvi samarali bo‘lganini ko‘rdik. O‘quvchilarning o‘zlarining tarixiy merosini anglashlari, madaniy qadriyatlarni tushunishlari, o‘z millatiga bo‘lgan muhabbatlarini shakllantirishda o‘qituvchilarning roli muhimligini ta’kidlab o‘tish zarur. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda milliy tarbiya asoslarini yanada chuqurroq o‘zlashtirishga yordam berdi. Pedagogik shart-sharoitlarning to‘g‘ri tashkil etilishi, talabalar o‘rtasida milliy qadriyatlar haqida to‘g‘ri tushunchalar shakllanishiga sabab bo‘ldi. [6]

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy tarbiya fanining samarali o‘qitilishi uchun nafaqat metodik yondashuvlar, balki o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. O‘quvchilarning individual va guruhli faoliyatlarini tashkil etishda ularning intellektual va ruhiy holati, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Shuningdek, o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni o‘rgatishning samarali usullarini ishlab chiqish va qo‘llash zarur. Tadqiqotda o‘quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirish, ular bilan ishlashda modern pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi aniqlangan. Pedagogik shart-sharoitlarning aniq va asosli tashkil etilishi o‘quvchilarda mustahkam bilim, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, metodik yondashuvlar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta’lim jarayonini yaxshilashga yordam berdi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning milliy tarbiya asoslari fanini o‘rganishdagi motivatsiyasini oshirishda, ta’lim shart-sharoitlarining ahamiyati ko‘rsatildi. [7]

Milliy tarbiya asoslari fanini o‘qitishda o‘quvchilarni rag‘batlantirish va ularning faolligini oshirish uchun yangi pedagogik usullarni joriy etish zarur. O‘quvchilarni milliy qadriyatlarni anglash va ularga hurmat qilishga undashning samarali yondashuvlari aniqlangan. Tadqiqotda o‘quvchilar o‘rtasida milliy tarbiyaning o‘rni va ahamiyatini tushunish darajasi sezilarli darajada ortgani ko‘rildi. O‘quvchilarni milliy tarbiya asoslarini o‘rgatishda ularning psixologik va madaniy ehtiyojlarini hisobga olish orqali, ta’lim jarayonini yanada samarali

qilish mumkin. O‘qituvchilar milliy qadriyatlarni talabalarga yetkazish uchun interaktiv metodlardan samarali foydalanishdi. Bu usullar o‘quvchilarning bilimini yanada chuqurlashtirishga yordam berdi. Natijada, o‘quvchilar o‘rtasida milliy tarbiya asoslari haqida mustahkam bilim shakllandi. [8]

Munozara

Milliy tarbiya asoslari fanining samarali o‘qitilishida pedagogik shart-sharoitlarning ta’siri katta. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bu fanni o‘qitish jarayonida milliy qadriyatlarni o‘rgatish uchun yaratilgan shart-sharoitlar o‘quvchilarda mustahkam ma’naviy asoslar shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, milliy tarbiya fanining samarali o‘qitilishi uchun pedagogik yondashuvlar hamda metodik qo‘llanmalarning ahamiyati katta. O‘qituvchilar o‘z malakalarini oshirib, yangi metodlarni qo‘llash orqali ta’lim jarayonini yanada samarali qiladilar. Shu bilan birga, o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlarini hisobga olish, ularni milliy tarbiya asoslarini chuqur o‘rganishga jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda ta’lim texnologiyalarining roli beqiyosdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashda samarali vosita hisoblanadi. Biroq, milliy tarbiya asoslari fanini o‘qitishning ba’zi qiyinchiliklari ham mavjud. Ba’zi o‘qituvchilar ushbu fanni o‘qitishdagi qiyinchiliklarni sezmoqdalar, chunki milliy qadriyatlarni o‘rgatish ko‘pincha an’anaviy pedagogik metodlar bilan bog‘liq. Bu esa o‘quvchilarda yangiliklarga nisbatan qarshilikni keltirib chiqaradi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni o‘rganishga qiziqish ba’zan past bo‘ladi, chunki o‘quvchilar bu mavzuga nisbatan ko‘proq zamonaviy fanlarga e’tibor qaratishadi. Bu esa o‘quvchilarning milliy qadriyatlarni o‘rganishdagi ishtirokini pasaytiradi. O‘qituvchilar bu muammolarni hal qilish uchun o‘z ish uslubini o‘zgartirishi va interaktiv metodlarga asoslanishi zarur. Interaktiv metodlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi mumkin. [9]

Bundan tashqari, milliy tarbiya asoslari fanini o‘qitishda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy rivojlanish darajasiga qarab o‘qitish usulini talab qiladi. Ba’zi o‘quvchilar yanada ko‘proq yordamga muhtoj, boshqalari esa mustaqil ravishda bilim olishga qodir. Shuning uchun, o‘qituvchilar o‘z darslarini o‘quvchilarni yaxshilab kuzatib, har birining ehtiyojlariga qarab sozlashlari kerak. Bu holatda, individual yondashuvlarning qo‘llanilishi samarali bo‘ladi. O‘quvchilarning ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarini hisobga olish ularning milliy tarbiya asoslarini o‘rganishdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlaydi. Bundan tashqari, darslarni o‘qitishda guruhli ishlar va hamkorlik metodlari ham muhim rol o‘ynaydi. Milliy tarbiya fanining o‘qitilishi jarayonida shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishga e’tibor qaratish zarur. O‘qituvchilarning bilim va tajribasi milliy tarbiya fanini o‘rgatishda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchilarni malaka oshirish kurslari va pedagogik treninglarga jalb qilish kerak. O‘qituvchilar uchun zamonaviy pedagogik metodlarni o‘rgatish, ularni milliy tarbiya asoslari fanini samarali o‘qitish uchun zarur vositalar bilan ta’minlash muhimdir. Bunda, o‘qituvchilarning ilmiy ishlanmalar va metodik qo‘llanmalar bilan tanishishlari, o‘quvchilarga

samarali ta’lim berish imkonini yaratadi. Pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish o‘quvchilarning milliy qadriyatlarni chuqur o‘rganishiga yordam beradi. [10]

Xulosa

Аннотация: В данной статье рассматривается значимость письменных источников и архивных документов в развитии исторического мышления и их роль в современном преподавании истории. Автор утверждает, что письменные исторические свидетельства не являются пассивными доказательствами, а выступают активными инструментами, определяющими процесс формирования исторического понимания как у студентов, так и у исследователей. На основе анализа современных международных и региональных работ, в том числе из Узбекистана и России, в статье обсуждаются методологические подходы, делающие историческое мышление более рефлексивным и исследовательским. Особое внимание уделено тому, как письменные источники и архивы интегрируются в учебные программы средних и высших образовательных учреждений Узбекистана и насколько эти подходы соответствуют общемировым педагогическим стандартам. В

заклучении предлагаются педагогические практики, которые поддерживают историческое исследование за счёт структурированного взаимодействия с документами.

Ключевые слова: историческое мышление, архивные документы, письменные источники, преподавание истории, методология, обучение на основе источников

TARIXIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA YOZMA MANBALAR VA ARXIV HUJJATLARINING O‘RNI HAMDA ULARNING TARIX O‘QITISH METODOLOGIYASIDAGI QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozma manbalar va arxiv hujjatlarining tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati hamda zamonaviy tarix o‘qitishdagi roli tahlil etiladi. Muallif, yozma tarixiy dalillar passiv isbot bo‘lib qolmasdan, balki talabalar va tadqiqotchilar tarixiy tushunchani shakllantirish jarayoniga faol ravishda yo‘naltirishini ta’kidlaydi. Uzoq va yaqin xorijiy ilmiy tadqiqotlar, xususan, O‘zbekiston va Rossiya tajribalari tahliliga asoslangan holda, maqolada tarixiy tafakkurni yanada refleksiv va tadqiqotga asoslangan shaklda rivojlantiruvchi metodologik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, O‘zbekistonning o‘rta va oliy ta’lim tizimlarida yozma manbalar va arxiv hujjatlarini dars jarayoniga integratsiya qilish tajribalari hamda ularning jahon pedagogik standartlariga qanchalik mos kelishi alohida o‘rganiladi. Xulosa qismida, tarixiy izlanishni hujjatlar bilan izchil ishlash orqali qo‘llab-quvvatlaydigan pedagogik amaliyotlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy tafakkur, arxiv hujjatlari, yozma manbalar, tarix o‘qitish, metodologiya, manbalarga asoslangan ta’lim

Introduction

In history teaching, the use of written sources and archival documents plays a key role in not only conveying facts but also in shaping how students and scholars understand the past. These sources are central to the process of historical inquiry, enabling learners to engage with multiple perspectives, develop critical thinking, and understand the complexity of historical narratives (Wineburg, 2001). For post-Soviet states like Uzbekistan, where educational reforms are ongoing, integrating source-based learning into the history curriculum is essential to building independent and analytical thinking in students (Karimov, 2020).

This article discusses the methodological and epistemological role of archival documents and written records in history education. It reviews how historians and educators use these sources to support historical thinking and evaluates teaching strategies in the context of Uzbekistan’s evolving educational policies. Real-life examples and up-to-date literature from both Western and post-Soviet academic spheres, including works by Uzbek and Russian scholars, are used to contextualize the discussion.

Methods

This article is based on a qualitative review of academic literature and educational policy documents. A comparative method was used to analyze how different countries and traditions

integrate written and archival sources into history education. Scholarly articles in English, Uzbek, and Russian were reviewed, including peer-reviewed journals and government reports. Particular attention was paid to literature published between 2015 and 2024 to ensure relevance. Sources were selected for their academic credibility and alignment with the topic, such as those by Wineburg (2001), Seixas and Morton (2013), Karimov (2020), and Russian scholars like Zabolotnaya (2019) and Chigrinova (2022).

Results and Discussion

Written historical sources such as letters, memoirs, laws, reports, newspapers, and administrative records serve not only as historical evidence but also as the voices of different time periods. These sources support the development of critical and reflective historical thinking by allowing students to interpret perspectives, understand author intentions, and examine historical context. As stated by Wineburg (2001), learning to think historically involves practices that differ from everyday thinking, and written sources help guide students toward this discipline. Engaging with these documents strengthens skills like contextual understanding, evaluating perspectives, and identifying bias, which are essential elements of historical literacy (Seixas & Morton, 2013).

In Uzbekistan, traditional history education has often focused on national pride, historical figures, and dates, relying on memorization. However, recent education reforms emphasize the need for student-centered, analytical learning. Curriculum changes introduced by the Ministry of Public Education now encourage the use of historical documents. Yet, according to Karimov (2020), many educators are not fully equipped to apply these methods in practice due to limited professional training. Teachers may present documents but often do not explain how to critically read them. To address this, teacher education programs must include modules on working with historical documents. This includes not only content knowledge but also strategies for guiding students in analyzing texts. Written sources, if used meaningfully, can help learners better understand complexity in the past, avoid simplified narratives, and develop deeper historical understanding.

Archival documents provide access to authentic voices from the past and allow learners to explore history as a process shaped by choices, interpretation, and power. These materials include state correspondence, personal diaries, school records, court cases, and many other types of evidence. They support the development of critical thinking by showing that history is constructed from sources and interpretations rather than fixed facts. Farge (2013) emphasizes that the archive is not a passive place of storage but a dynamic space where meaning is created through research. This view shows the value of archives in developing research-based learning in history classrooms.

In Uzbekistan, archives such as the Central State Archive and regional collections contain valuable materials for studying local history, especially from the Soviet and pre-Soviet periods. However, school students and teachers rarely use these documents directly. While universities often include some archival work in their programs, secondary schools lack both the access and

the methodological support to integrate such resources into the curriculum. As noted by Turaeva (2021), digitization has helped increase access to some extent, especially in cities, but rural areas still face serious limitations. Teachers may also be unfamiliar with how to structure lessons around primary sources. Russian educators have developed useful models in this area. For instance, Zabolotnaya (2019) describes educational programs that involve school students in exploring documents from the Stalinist era or World War II. These activities have proven to increase motivation and help students understand the human experience behind historical events. Chigrinova (2022) also notes that projects involving declassified archives allow students to approach history not only as knowledge but as investigation. For Uzbekistan, learning from such examples can improve the integration of archives into school programs, provided that educators receive proper guidance and technical support.

Even though the curriculum now encourages working with historical sources, in many classrooms, documents are still used in a very basic way. Often, students are asked to read a short text and answer simple questions that only check understanding. There is usually not enough time for deep analysis or discussion. Teachers may feel pressure to finish the program quickly, so they do not spend time exploring the meaning or background of each document. In such lessons, students miss the chance to really think about what the source is saying, why it was created, and what point of view it shows. If the goal is to teach students how to think historically, then lessons need to focus more on quality than quantity. Instead of memorizing more information, students should spend more time working with a few sources in depth, learning how to ask good questions, compare different perspectives, and build their own understanding of the past.

Using historical documents in teaching must be more than just showing a source or reading a quote. Effective pedagogical integration means using sources in a structured process that leads students to build historical understanding step by step. This includes identifying the author and purpose of the document, placing it in context, comparing it with other sources, and drawing conclusions based on evidence. Seixas and Morton (2013) explain that historical literacy includes not only facts but also the ability to interpret sources, recognize change over time, and understand the ethical dimensions of past events. For example, a lesson on Soviet collectivization could begin with an official decree, followed by personal letters or local reports, helping students understand how national policies were experienced differently in local contexts.

Uzbek researchers such as Kadirova (2022) argue that historical documents should not be seen as supplementary materials but as central to the learning process. However, many classrooms in Uzbekistan still rely on textbook summaries, and documents are often used only for illustration. According to Makhkamova and Yusupov (2019), this situation results from lack of teacher training and limited lesson time. Although some textbooks now include primary sources, the activities that follow often ask students to copy information rather than to analyze or reflect. Training teachers in how to scaffold document-based lessons is essential for

improving this situation. One recent development is the introduction of document-based questions (DBQ) in upper-level examinations. These tasks require students to analyze multiple sources and form reasoned arguments. This aligns with global trends in history education and reflects the goal of improving critical thinking. However, the success of such innovations depends on proper teacher support. Curriculum developers must also design materials that are appropriate for different student levels. When sources are connected to real historical problems, they allow students to develop both knowledge and reasoning, which is necessary for building independent and thoughtful citizens.

It is also important to think about how students of different ages and abilities understand historical documents. Many sources use old language or unfamiliar ideas, and for some students this can be very difficult. If the text is too complicated, students may lose interest or feel frustrated. That is why teachers need to help students step by step. This might mean giving short background explanations, using easier versions of the document, or guiding them with clear questions. Historical thinking is a skill that takes time to develop, so lessons should give space for students to try, make mistakes, and improve. Group discussion can also help, because students can learn from each other's ideas. When used in the right way, sources do not only teach facts, but they also help students think more carefully, express their opinions, and become more active learners.

Uzbekistan has made visible efforts to improve the teaching of history by including critical thinking and source work in national strategies and curriculum reforms. Uzbekistan has made visible efforts to improve the teaching of history by including critical thinking and source work in national strategies and curriculum reforms. These efforts are part of broader educational changes aimed at modernizing teaching practices and aligning them with international standards. The National Development Strategy for 2017–2021 emphasized the importance of developing analytical and independent thinking among students, which directly influenced history education. As a result, new textbooks have begun to include primary sources such as excerpts from historical letters, legal documents, and newspaper articles. Curriculum guidelines now encourage teachers to ask students to analyze and interpret these materials rather than simply memorize facts. In addition, professional development programs for educators have started to introduce methods for working with historical documents in the classroom, including source criticism and comparative analysis. Pilot projects in cities like Tashkent and Samarkand have tested inquiry-based learning models that center on historical problems and the use of archival materials. While these reforms are still being implemented gradually, they reflect a growing recognition that critical engagement with sources is essential for developing informed and thoughtful citizens in a democratic society.

However, the practical application of these reforms remains uneven. Many schools, especially in rural areas, still lack access to necessary resources. Internet connectivity, computer equipment, and digitized archives are not yet available in all regions. Even when materials are available online, teachers may not have the skills to find, select, and use them effectively in

classroom settings. Turaeva (2021) explains that technical and pedagogical barriers often prevent full use of digitized archives. Without teacher training and long-term planning, the benefits of modernization cannot be fully realized.

Another challenge is the language of historical documents. Many important sources are written in Russian, Arabic-script Uzbek, or Soviet administrative language, which are difficult for students to understand today. This makes it hard to work with original documents unless they are translated or adapted. Translation projects are ongoing, but they remain limited in scope and are often not easily available to teachers. Karimov (2020) points out that annotated versions of documents with explanations would help teachers integrate them into lessons. Additionally, many teachers are unsure of how to connect historical sources to national identity or local history in a balanced way. There is sometimes tension between encouraging critical thinking and respecting national historical narratives.

One of the important challenges in history teaching today is how to balance respect for national identity with the development of critical thinking skills. In many countries, including Uzbekistan, history education has traditionally focused on creating a positive national story that unites people and fosters pride. While this is understandable and valuable, it can sometimes limit the space for questioning or re-examining difficult aspects of the past. Encouraging students to think critically about history means inviting them to explore not only achievements but also failures, conflicts, and injustices. This is not always easy, as it may challenge long-held beliefs or official narratives. However, allowing students to engage with multiple perspectives and complex realities helps build a mature understanding of history and citizenship. It teaches that history is not a fixed story but a conversation between past and present, where everyone has a role in interpreting and learning from what happened. Finding the right balance between national pride and critical inquiry remains a key task for educators and curriculum developers.

Despite these problems, there are real opportunities for progress. Pilot programs have shown that when students engage with documents related to local history, such as the Jadid movement or the independence era, their interest and understanding increase. Workshops like those held in Samarkand in 2022, which trained teachers in using digital archives and project-based learning, are steps in the right direction. Collaboration with universities and academic institutions can also strengthen the knowledge base of teachers. For instance, sharing translated source sets, offering online training, and creating model lesson plans could all help teachers feel more confident. In addition, cooperation with Russian and Central Asian scholars on shared historical topics can enrich the educational content and help bring in multiple perspectives. If reforms are supported through infrastructure, professional development, and long-term strategy, Uzbekistan's history education system has the potential to build a generation of students who are able to understand their past in a critical and informed way.

Conclusion

Written sources and archival documents are central to historical thinking and should form the foundation of history teaching. In Uzbekistan, while recent reforms and academic

discussions support this approach, more effort is needed to translate theory into practice. Key steps include teacher training, curriculum revision, improved archive access, and increased collaboration with regional and international scholars.

To foster historical thinking, students must move beyond learning what happened to understanding how we know what happened. This requires structured, scaffolded engagement with documents and not just reading but questioning, analyzing, and interpreting. In the end, the archive must not only be a warehouse of history but a classroom of the future.

References

1. Arlette, F. (2013). *The Allure of the Archives* (T. Scott-Railton, Trans.). Yale University Press.
2. Chigrinova, N. V. (2022). Преподавание истории в современной школе: Архивные источники как средство развития критического мышления. *Историческое образование в школе*, 3(4), 25–31.
3. Kadirova, M. (2022). Developing Historical Thinking through Document-Based Lessons: A Case Study from Uzbekistan. *Pedagogika va Psixologiya Jurnal*, 4(1), 32–39.
4. Karimov, A. R. (2020). Source-Based Learning in the Modernization of History Education in Uzbekistan. *Ta'lim va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal*, 5(2), 45–54.
5. Lévesque, S. (2008). *Thinking Historically: Educating Students for the Twenty-First Century*. University of Toronto Press.
6. Makhkamova, D., & Yusupov, S. (2019). O‘zbekistonda tarix ta’limining yangilanishi: Muammo va istiqbollar. *O‘zbekiston Pedagogik Jurnal*, 3(1), 67–74.
7. Seixas, P., & Morton, T. (2013). *The Big Six Historical Thinking Concepts*. Nelson Education.
8. Turaeva, M. B. (2021). Digitization of Archival Materials and its Role in History Teaching in Uzbekistan. *Milliy Arxiv Tadqiqotlari Jurnal*, 1(1), 20–27.
9. VanSledright, B. A. (2011). *The Challenge of Rethinking History Education: On Practices, Theories, and Policy*. Routledge.
10. Wineburg, S. (2001). *Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past*. Temple University Press.
11. Zabolotnaya, T. I. (2019). Источники как инструмент формирования исторического мышления учащихся. *Проблемы современного образования*, 6, 98–104.



**BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSIYALASHGAN
TA‘LIM BERISH USULLARI**

Sharipova Sevara Erkin qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta‘lim) Mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalar yordamida integratsiyalashgan ta‘lim berishning samaradorligi tahlil qilingan. Konstruktivistik yondashuv va fanlararo integratsiya prinsiplari asosida o‘tkazilgan tajriba-sinovlar natijasida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi, nutqiy kompetensiyasi va ijodiy fikrlash darajasi sezilarli ravishda rivojlangani aniqlangan. Shuningdek, maqolada bunday uslubni keng miqyosda joriy etishning amaliy ahamiyati hamda istiqbollari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyalar, integratsiyalashgan ta‘lim, boshlang‘ich sinf, ona tili, konstruktivistik yondashuv, fanlararo bog‘liqlik, ijodiy fikrlash

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективность интегрированного обучения в начальных классах на уроках родного языка с использованием инновационных технологий. На основе конструктивистского подхода и принципов междисциплинарной интеграции экспериментально доказано значительное повышение интереса учащихся к урокам, их речевой компетентности и творческого мышления. Кроме того, раскрывается практическая значимость и перспективы широкого внедрения такого подхода.

Ключевые слова: инновационные технологии, интегрированное обучение, начальные классы, родной язык, конструктивистский подход, междисциплинарные связи, творческое мышление

Annotation: This article examines the effectiveness of integrated teaching methods in primary school mother tongue lessons through the use of innovative technologies. Based on the constructivist approach and interdisciplinary integration principles, experimental findings reveal a significant increase in students' interest in lessons, as well as improvements in their language competence and creative thinking. In addition, the article highlights the practical relevance and future prospects of implementing this approach on a broader scale.

Keywords: innovative technologies, integrated teaching, primary school, mother tongue, constructivist approach, interdisciplinary links, creative thinking

Kirish (Introduction). Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili kompetensiyasini rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ona tili darslari nafaqat o‘quvchilarga savod o‘rgatish, balki ular ongida mustaqil fikrlashni, ijodiy ko‘nikmalarni va muloqot madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirishi, fanlararo integratsiyani kengaytirishi va ta’limning samaradorligini yuqori bosqichga olib chiqishi bilan ajralib turadi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ona tili darslarini takomillashtirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mazmunan boyitish va didaktik jarayonni integratsiya prinsiplari asosida tashkil etish masalasi dolzarb hisoblanadi. Mavzuga oid ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalar — xususan axborot-kommunikatsiya vositalari, interfaol usullar, ko‘p sensorli interaktiv platformalar — o‘quvchilarning mustaqil o‘qish va fikrlash malakalarini yuqori bosqichga ko‘tarishda katta hissa qo‘shadi. Ayniqsa, integratsiyalashgan ta’lim modelidan foydalanish natijasida o‘quvchilar turli fanlardan olgan bilimlarini qo‘llab, aniq bir mavzu yoki muammoni har tomonlama tadqiq etish imkoniga ega bo‘ladilar. Bunday yondashuv o‘quvchilar orasida ijodiy izlanish muhitini shakllantiradi, murakkab kontseptlarni yaxshi o‘zlashtirishlari va turli kompetensiyalarni uyg‘unlashtira olishlariga yo‘l ochadi. Shu munosabat bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga innovatsion texnologiyalar asosida integratsiyalashgan ta’lim berish masalasini tadqiq etish zarur bo‘lib, ayniqsa, ona tili darslarining didaktik salohiyatini kuchaytirish hamda pedagogik jarayonni samarali tashkil etish usullarini belgilab olish muhimdir. Mazkur ilmiy maqolada biz ona tili darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va integratsiyalashgan ta’lim berishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritamiz. Bunda IMRAD formati asosida ilgari surilgan metodlardan foydalanib olingan natijalar, ularning tahlili va kelgusida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tavsiyalarni bayon etamiz.

Metod (Methods). Tadqiqot uslubi sifatida biz zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlang‘ich sinf ona tili darslariga integratsiyalash jarayonini kuzatish, tahlil qilish va tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish yo‘lidan bordik. Metodologik asos sifatida konstruktivistik yondashuvga tayanildi, chunki konstruktivizm o‘quvchilarning shaxsiy tajribalaridan, mustaqil kashfiyotlaridan, o‘qituvchi bilan muloqot orqali o‘zlashtirgan bilimlaridan foydalanishga urg‘u beradi. Shuningdek, integratsiyalashgan ta’lim modelida fanlararo bog‘liqlik, ko‘nikma hamda kompetensiyalarning bir butunlikda shakllanishi ta’minlanishi sababli, ushbu yondashuv boshlang‘ich sinf amaliyotiga mos keladi. Tadqiqotda dastlab o‘qituvchilar hamda o‘quvchilar bilan suhbatlar va savol-javoblar o‘tkazildi. Suhbat davomida dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda duch kelinayotgan qiyinchiliklar, o‘quvchilarning ona tili va boshqa fanlarni qanday darajada o‘zlashtirayotgani, ayniqsa, interaktiv usullar bilan ishlashga bo‘lgan munosabatlari atroflicha o‘rganildi. Ushbu ma’lumotlarga asosan, texnologik vositalarni qanday tadbiq etish, dars jarayonini qanday shakllantirish lozimligi haqida dastlabki tahlillar qilindi. Keyinchalik tajriba-sinov bosqichida boshlang‘ich sinflarga mo‘ljallangan ona tili darslari uchun maxsus integratsiyalashgan dastur ishlab chiqildi va sinf xonalarida amaliyotga

joriy etildi. Jarayon davomida darslar turli mavzular (masalan, leksik mavzu, grammatik qurilmalar, o‘qish va tushunish texnikasi) bo‘yicha tashkil etilib, multimedia vositalari (projeksion devor, elektron darsliklar, interaktiv doska, audio va video materiallar) bilan boyitildi. O‘quvchilarning boshqa fanlardan (tabiatshunoslik, matematika, tasviriy san’at va boshqalar) olingan bilimlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ona tili mavzulari bilan integratsiya qilishga e’tibor qaratildi. Jarayonni tahlil qilishda kuzatish, diagnostika suhbatlari, test topshiriqlari va nazorat ishlari kabi ko‘p qirrali baholash usullaridan foydalanildi. Tajriba-sinov bosqichi tugagach, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar darajasi baholandi. O‘quvchilarning darslarda qay darajada ishtirok etgani, ustoz ko‘rsatmasiga qanday javob berayotgani, mustaqil ijodiy topshiriqlarni bajarishdagi faolligi va natijalari ob’ektiv mezonlar asosida o‘lchandi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning dars jarayoni bo‘yicha fikrlari ham alohida qayd etildi. Olingan ma’lumotlar kompyuter dasturlarida qayta ishlanib, tahlil qilish uchun statistik indikatorlar (o‘rtacha ball, foizlar, dispersiya, korrelyatsiya) yordamida sarhisob qilindi.

Natijalar (Results). Tajriba-sinov bosqichi natijalari ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bilan birga integratsiyalashgan ta’limni tashkil etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tili fanini chuqurroq o‘rganishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada oshgani qayd etildi. Chunki multimedia va interaktiv vositalar, shu jumladan, elektron darsliklar, onlayn platformalar, audio-video manbalar o‘quvchilarda mustaqil izlanish, o‘rganish va materiallarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi. Ikkinchidan, o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Dars jarayonlarida ona tili mavzularini tabiatshunoslik yoki matematika bilan bog‘lab, tegishli terminlar hamda misollarni berish ularning so‘z boyligini kengaytirish hamda tushunchalarni aniqroq ifodalashga yordam bergan. Statistik ko‘rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning imlo xatolarini kamaytirish va tushunish ko‘nikmasi nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan. Integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarga turli fanlardan olgan bilimlarini uyg‘unlashtirish va biror mavzuga ko‘p qirrali yondashish imkonini bergani sababli, ularning darsda faolligi, savollar berish darajasi va ijodkorlik namoyon etish holati ham oshdi. Ushbu jarayonni nazorat qilgan o‘qituvchilarning fikricha, integratsiyalashgan darslarda o‘quvchilarda mas’uliyat, mustaqillik va jamoada ishlash ko‘nikmalari kuchaygan. Ona tili darslarini texnologik vositalar bilan boyitish orqali matnlarni o‘qish, tushunish va qayta ifodalash bo‘yicha uzviy ko‘nikma hosil bo‘lishiga erishilgan. Alohida e’tiborli jihati shundaki, bolalar boshqa fanlardan o‘rganib kelgan bilimlarini ona tili mavzularida mustahkamlashni qisqa va samarali tarzda amalga oshira boshladilar. Bu esa o‘quvchilarning xotira hajmi va mantiqiy mulohaza qilish, o‘z nutqini tahlil qilish va tuzatish qobiliyatlarini rivojlantirganini ko‘rsatadi. Natijada, o‘quvchilarning test natijalari va kundalik baholari sezilarli darajada yaxshilandi. Bundan tashqari, yangi texnologiyalarni qo‘llab, masalan, virtual platformalarda so‘z boyligini mustahkamlash

bo‘yicha mustaqil mashqlarni bajarish imkoniyati o‘quvchilarni darsdan tashqari paytda ham ijodiy jarayonga jalb qildi.

Muhokama (Discussion). Olingan natijalar asosida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va fanlararo integratsiyaga asoslangan ta‘lim berish o‘quvchilarning chuqur hamda barqaror bilimlar egasi bo‘lishiga yordam beradi. Avvalo, interaktiv metoda asoslangan darslar tradicion an‘anaviy yondashuvga qaraganda o‘quvchilarning e‘tiborini jalb qilish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va dars jarayonida faol ishtirok etishlarini ta‘minlashda samaraliroq bo‘lib chiqdi. O‘quvchilarda til materialini bilan ijodiy ishlash, uni puxta o‘zlashtirish, boshqa mavzular bilan uzviy bog‘lash hamda tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi. Metodologik nuqtai nazardan, konstruktivistik yondashuv chetdan beriladigan tayyor malumotlar o‘rniga o‘quvchilarning mustaqil tajribasi va izlanishlariga tayanadi. Integratsiya prinsipi esa ushbu jarayonni yanada boyitib, o‘quvchilarning ko‘proq hissiy-aqliy faoliyatiga imkon yaratadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar hali fikrlash hamda tushunish jarayonida aniq va ayrim fanlar doirasida ishlashdan ko‘ra yaxlit bilish metodiga ko‘proq tayanganliklari sababli integratsiya, ayniqsa, samarali natija beradi. Bu tajriba chog‘ida aniq ko‘zga tashlandi: o‘quvchilar muayyan til hodisasini nafaqat so‘z yoki jumla miqyosida, balki uning lingvistik, tabiatshunoslik va matematik jihatlarini ham o‘zaro bog‘lab idrok etishni o‘rgandilar. Mazkur tadqiqot doirasida, albatta, ba‘zi cheklovlar ham kuzatildi. Jumladan, har bir boshlang‘ich sinfda texnologik vositalar yetarli darajada ta‘minlanmagan yoki internet tezligi past bo‘lgani sababli, ayrim darslarda rejalashtirilgan interaktiv mashg‘ulotlarni to‘liq o‘tkazish mushkul bo‘ldi. Shuningdek, o‘qituvchilarning barcha innovatsion texnologiyalarni mukammal bilish darajasi ham bir xil emasligi sezildi. Bu esa darslarni rejalashtirish va o‘tkazishda ayrim muammolarni keltirib chiqardi. Lekin ushbu muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish orqali tajribani yanada muvaffaqiyatli o‘tkazish, innovatsion texnologiyalar bazasini mustahkamlash, o‘qituvchilarning malakasini oshirish kabi masalalarni e‘tibor markazida saqlash mumkin. Umuman olganda, olishgan natijalar boshlang‘ich sinfda ona tili fani sifatini oshirishda innovatsion va integratsiyalashgan yondashuvlar istiqbolli ekanini tasdiqlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z pedagogik amaliyotida multimedia, interaktiv doskalar, kompyuter dasturlari hamda onlayn platformalarni samarali qo‘llasa, o‘quvchilarning faolligi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Ayniqsa, integratsiyalashgan ta‘lim o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni yechish, ijodkorlik hamda mustaqil o‘qish kompetensiyalarini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi.

Shunday qilib, tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, ona tili darslarida innovatsion texnologiyalar asosida integratsiyalashgan ta‘limning samaradorligi yuqori bo‘lib, bunday yondashuvni keng miqyosda joriy etish kelajakda boshlang‘ich ta‘lim sifatini izchil rivojlantirish, ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik jihatdan etuk shaxsni shakllantirishga hissa qo‘shadi. Pedagog va ilmiy tadqiqotchilar uchun bu tajriba uzluksiz va chuqur tadqiqotlar olib borish, ayni paytda, zamonaviy texnologik vositalarni ta‘lim jarayoniga mos ravishda

integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Niyozova S. Pedagogik integratsiya tamoyillari: nazariy ko‘rib chiqish // Pedagogika jurnali. — 2020. — №4. — B. 12–17.
2. Davlatova M. Integratsiyalashgan ta’lim: nazariy asoslar va amaliy joriy etish tajribasi. — T.: “Fan va taraqqiyot”, 2021. — 96 b.
3. Shavkatov R., Turg‘unova O. Boshlang‘ich sinflarda konstruktivistik yondashuv asosida ona tili darslarini tashkil etish // Boshlang‘ich ta’lim innovatsiyalari jurnali. — 2021. — №2(15). — B. 33–39.
4. Karimov U. Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish: nazariya va uslubiyot. — T.: “Universitet nashriyoti”, 2020. — 110 b.
5. UNESCO (tarj. Avazov J.) Ta’limdagi zamonaviy texnologiyalar va ularning salohiyati. — T.: “Universitet”, 2018. — 84 b.
6. Xasanova D. A. Integratsiyalashgan ta’lim jarayonining metodologik asoslari. — T.: “Ilm-Ziyo”, 2019. — 76 b.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA AXLOQIY QARASHLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI ASOSIY NAZARIY YONDASHUVLAR

Shaxlo Xudaykulova Mamaniyozovna
O‘zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti
Boshlang‘ich talim kafedrasi dotsenti
E-mail: sahlohudojkulova@gmail.com
Tel: +998 90 2282625
ORCID:
0009-0003-0342-6648

Annotatsiya: mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda axloqiy qarashlarni shakllantirishga oid nazariy yondoshuvlar tahlil qilingan. Axloqiy tarbiyaning pedagogik jarayondagi o‘rni va insonning ma‘naviy rivojlanishini qo‘llabquvvatlovchi asosiy nazariy maktablar: insonparvarlik (gumanizm) nazariyasi, kognitiv rivojlanish nazariyasi va sotsializatsiya nazariyalari yoritilgan. Har bir nazariyaning maqsad va tamoyillari shaxsning ijtimoiy munosabatlarda axloqiy qarashlarga sodiq qolishidagi ahamiyati bilan aloqador holda tahlil qilingan. Maqolada neyropedagogik yondashuv orqali axloqiy tarbiyada foydalaniladigan metod va usullar ham ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: axloqiy tarbiya, axloqiy qarashlar, kognitiv rivojlanish nazariyasi, sotsializatsiya, neyropedagogika, bo‘lajak o‘qituvchilar.

ОСНОВНЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ПРАВСТВЕННЫХ ВЗГЛЯДОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические подходы к формированию нравственных взглядов у будущих учителей. Рассматривается роль нравственного воспитания в педагогическом процессе, а также освещаются основные теоретические школы, поддерживающие духовное развитие личности: теория гуманизма, теория когнитивного развития и теории социализации. Цели и принципы каждой из этих теорий рассматриваются в контексте их значения для сохранения верности нравственным убеждениям в социальных взаимодействиях. Также в статье представлены методы и приемы, применяемые в нравственном воспитании с использованием нейропедагогического подхода.

Ключевые слова: нравственное воспитание, нравственные взгляды, теория когнитивного развития, социализация, нейропедагогика, будущие учителя

MAJOR THEORETICAL APPROACHES TO THE FORMATION OF MORAL VIEWS IN FUTURE TEACHERS

Abstract: This article analyzes the theoretical approaches to the formation of moral views in future teachers. It discusses the role of moral education in the pedagogical process and highlights the main theoretical schools that support human spiritual development: the humanistic theory, the theory of cognitive development, and theories of socialization. The goals and principles of each theory are examined in connection with their relevance to maintaining moral values in social interactions. The article also presents the methods and techniques used in moral education based on a neuro-pedagogical approach.

Keywords: moral education, moral views, theory of cognitive development, socialization, neuro-pedagogy, future teachers

Kirish. Axloqiy qarashlarni shakllantirishga oid nazariy yondashuvlar axloqiy tarbiyaning nazariy asoslari va turli maktablar tomonidan ishlab chiqilgan asosiy tamoyillarni qamrab oladi. Axloqiy qarashlarni shakllantirish shaxsning ma'naviy yetukligiga va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri bo'lib, bu jarayonda turli pedagogik yondashuvlar orqali shaxsning axloqiy ruhiy olami rivojlantiriladi. Axloqiy tarbiyaning nazariy asoslari insonning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirish va uni jamiyatda to'g'ri yo'naltirish jarayonida muhim o'rin tutadi. Bu nazariy asoslar shaxsning axloqiy qarashlarini barpo qilish va ularni hayotga tatbiq etishga ko'maklashadi. Axloqiy tarbiya nafaqat shaxsning ichki dunyosi, balki uning jamiyat bilan munosabatlarini, ijtimoiy burchini ham rivojlantiradi. Shu tariqa, axloqiy tarbiya insonning o'zini tanishiga, jamiyatdagi o'rnini anglashiga va boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishiga asos bo'ladi.

Pedagogik jarayonda axloqiy tarbiya bilim berishdan tashqari, yoshlarga shaxsiy mas'uliyat, adolat, hurmat, mehr-oqibat kabi insoniy qadriyatlarni singdirish vazifasini bajaradi. Axloqiy tarbiya shaxsni ijtimoiy muhitga tayyorlab, uning shaxsiy va jamoatchilik burchlariga nisbatan javobgarlik tuyg'usini shakllantiradi. Bunda pedagogik jarayon shaxsni ko'p qirrali rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uning axloqiy qarashlari orqali uni ma'naviy jihatdan yetuklikka yetaklaydi. Axloqiy tarbiyaning nazariy asoslari o'quvchilarda insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ijtimoiy munosabatlarda adolatli bo'lishga qaratilgan mustahkam tamoyillar shakllantirishga yordam beradi.

Shu ma'noda, pedagogik jarayon axloqiy qarashlarni rivojlantirishda nazariy va amaliy jihatlarni birlashtiradi. Yoshlar o'quv jarayonida olgan axloqiy qadriyatlar orqali faqat shaxsiy rivojlanish bilan cheklanmaydilar, balki jamiyatdagi o'z o'rinlarini topishga, foydali shaxs bo'lishga intiladilar. Axloqiy tarbiyaning asoslari o'quvchilarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirib, ularni o'z xulq-atvorini boshqara olishga, nafaqat bilimini, balki axloqiy prinsiplarini amalga oshirishga qo'llab-quvvatlaydi. "Axloqiy tarbiya jarayoni yoshlarning nafaqat bilimini oshirish, balki ularning axloqiy prinsiplarini hayotda qo'llash qobiliyatini

rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu orqali ular jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga va mas’uliyatli shaxs sifatida kamolga yetishga intiladilar”.

Insonparvarlik (gumanizm) nazariyasi axloqiy qarashlarni shakllantirishda shaxsni uning qadr-qimmatini e’tirof etishga asoslangan holda rivojlantirishga qaratilgan. Bu nazariya yordamida shaxsning shaxsiy ehtiyojlari, potentsiali va ichki qobiliyatlarini inobatga olgan holda axloqiy rivojlanishi ta’minlanadi. Insonparvarlik nazariyasining asoschilari va tarafdorlari Karl Rodjers va Abraxam Maslou kabi psixologiya olimlari hisoblanadi. Ular insonning shaxs sifatidagi mustaqil rivojlanishi va ichki ehtiyojlarini qondirish orqali uning axloqiy qarashlari shakllanishiga yordam berishni nazarda tutadi.

Insonparvarlik nazariyasining asoschilaridan biri Karl Rodjers hisoblanadi. Uning fikriga ko‘ra, har bir shaxs ichki potentsialga ega bo‘lib, unda axloqiy rivojlanish, adolat va hurmat kabi insoniy tuyg‘ularni rivojlantirish mumkin. Rodjersning ta’kidlashicha, shaxsga erkin va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratilishi uning axloqiy qarashlari shakllanishiga yordam beradi. Bu nazariyaga ko‘ra, muallimlar o‘quvchilarga ularning shaxsiy ehtiyoj va qadriyatlarini tushunishga yordam berishlari kerak, ularga hurmat va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish orqali shaxsning axloqiy rivojlanishini ta’minlash mumkin.

Karl Rodjers insonni tabiatan ijobiy, ichki rivojlanishga intilayotgan mavjudot sifatida ko‘radi. Rodjersning fikricha, insonda axloqiy rivojlanish va ijtimoiy mas’uliyatni anglashga yordam beradigan tabiiy ehtiyoj mavjud. Uning nazariyasiga ko‘ra, shaxsga erkin va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratilganida, inson o‘z qadriyatlarini anglab yetadi va ularga amal qilib, to‘g‘ri yo‘nalishda rivojlanadi. Rodjers insonning ichki ehtiyojlarini tushunib, ularni qondirish axloqiy qarashlarni shakllantirishda muhim deb hisoblaydi. Uning bu g‘oyasi ta’limda shaxsiy ehtiyojlarga hurmat bilan yondashuvni rag‘batlantiradi, yoshlarning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlaydi.

Abraxam Maslou inson ehtiyojlarining tuzilmasini piramida shaklida tasvirlab, uning asosiy ehtiyojlaridan tortib, yuqori ehtiyojlari sari rivojlanishini ilgari surgan. Uning fikricha, insonning axloqiy rivojlanishi uning ehtiyojlari to‘liq qondirilganidan so‘ng boshlanadi, ya’ni shaxs o‘z ehtiyojlarini qondirib, o‘zini-o‘zi anglash bosqichiga yetishi mumkin bo‘lsa, u axloqiy jihatdan to‘liq rivojlana oladi. Maslouning nazariyasi yoshlarning shaxsiy ehtiyojlarini tushunish va ularning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish orqali axloqiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. “Insonning yuqori ehtiyojlari, ya’ni o‘zini-o‘zi anglash va o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyoji faqat uning asosiy ehtiyojlari qondirilganidan so‘ng shakllanadi. Bu bosqichga yetib, shaxs o‘zining haqiqiy potentsialini ochib, axloqiy rivojlanishga intiladi”.

Insonparvarlik nazariyasi ta’limda shaxsga hurmat va uning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olish g‘oyalariga tayanadi, bu esa yoshlarda mustaqillik, javobgarlik va ijobiy xislatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu nazariyaning yutuqlari quyidagilardan iborat:

- Shaxsni uning shaxsiy qobiliyati va ehtiyojlariga asoslangan holda rivojlantirish imkonini beradi.

- Ushbu yondashuv yoshlarda ijtimoiy mas’uliyatni, o‘z-o‘ziga ishonchni va shaxsiy qadriyatlarni shakllantirishda samaralidir.

- Ta’lim jarayonida talabalarni ijodiylikka, mustaqil qarorlar qabul qilishga va shaxsiy burchni anglashga rag‘batlantiradi.

Insonparvarlik nazariyasi, ayrim hollarda, shaxsning ijtimoiy va jamoaviy munosabatlari yetarli darajada inobatga olinmasligi mumkin. Bu yondashuvning kamchiliklari:

- Insonparvarlik nazariyasida shaxsning ijtimoiy mas’uliyatidan ko‘ra uning shaxsiy ehtiyojlari asosiy ahamiyat kasb etgani uchun, jamoaviy hamjihatlik yoki umumiy maqsadlardan ajralib qolish ehtimoli bor.

- Barcha o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini tushunish va ularni qondirish murakkab bo‘lib, ko‘p vaqt va resurs talab qilishi mumkin.

- Ba’zi hollarda shaxsning shaxsiy rivojlanishi jamoa manfaatlari bilan to‘liq uyg‘un bo‘lmisligi mumkin, bu esa jamoaviy burchlarni bajarishda muammolarga olib kelishi ehtimoli bor.

Insonparvarlik nazariyasi yoshlarning shaxsiy ehtiyojlarini tushunib, ularning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish g‘oyalarini ilgari surib, ta’lim jarayonida axloqiy qarashlarni shakllantirishga katta hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, uning ijtimoiy aloqalar va jamoaviy burchga ta’siri mustahkamlanishni talab qiladi. Kognitiv rivojlanish nazariyasi (Piaje va Kolberg). Kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, shaxsning axloqiy qarashlari uning aqliy va kognitiv rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bu nazariya asoschilaridan Jan Piaje va Lourens Kolberg insonning axloqiy rivojlanishi uning kognitiv rivojlanish bosqichlari orqali amalga oshishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Piajega ko‘ra, bolalar axloqiy me’yorlarni anglab yetish jarayonidagi turli bosqichlarda turlicha fikrlaydilar. Boshlang‘ich bosqichda ular ko‘proq jazo va mukofotga asoslangan axloqiy tushunchalarga ega bo‘lsalar, keyingi bosqichlarda esa adolat, xolislik va insoniylik kabi qadriyatlarni anglab yetadilar. “Bolalarning axloqiy fikrlashi ulug‘lardikidan farq qiladi, chunki ularda axloqiy me’yorlar va qoidalar birinchi navbatda jazo va mukofot bilan bog‘liq holda shakllanadi. Faqat keyinchalik ular adolat va xolislik tushunchalarini to‘liq anglay boshlaydilar.”

Lourens Kolberg esa inson axloqiy rivojlanishining uchta asosiy bosqichini ajratadi:

1. Pre-konvensional bosqich — shaxs o‘z xatti-harakatlarini asosan mukofot va jazo tuyg‘usiga ko‘ra boshqaradi. Bu bosqichda inson ko‘proq shaxsiy manfaatlarni inobatga oladi.

2. Konvensional bosqich — shaxs jamiyatning umumiy qoidalariga amal qilishga, ijtimoiy munosabatlar va boshqalarning fikrini inobatga olishga intilgan holda harakat qiladi.

3. Post-konvensional bosqich — shaxsning axloqiy tushunchalari universal qadriyatlarga asoslanadi va u axloqiy qarorlarni umuminsoniy tamoyillarga ko‘ra qabul qiladi.

Bu nazariyaga ko‘ra, axloqiy qarashlarni shakllantirish jarayonida shaxsning kognitiv rivojlanishiga e’tibor qaratish kerak. Axloqiy rivojlanishda ta’lim orqali shaxsni xulq-atvor me’yorlari va ijtimoiy qadriyatlar bilan tanishtirish, uning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish muhimdir.

Sotsializatsiya nazariyasi. Sotsializatsiya nazariyasi shaxsning axloqiy qarashlarini uning ijtimoiy muhiti bilan bog‘laydi. Bu nazariyaga ko‘ra, inson o‘z atrofidagi odamlar, jamiyat va uning normalari ta’sirida axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Sotsializatsiya jarayonida shaxs jamiyatda qabul qilingan axloqiy me’yorlar va qoidalarni o‘rganib, ularga mos harakat qiladi. Bu nazariyani rivojlantirganlardan biri Emil Dyurkgeym bo‘lib, u axloq va ijtimoiy me’yorlar jamiyatda barqarorlik va hamjihatlikni ta’minlaydi deb hisoblagan. Dyurkgeymning fikriga ko‘ra, jamiyat a’zolari umumiy qadriyatlar va axloqiy normalar asosida harakat qilganda ijtimoiy hamjihatlik kuchayadi

Sotsializatsiya nazariyasi axloqiy qarashlarning shakllanishida shaxsning ijtimoiy muhitdagi tajribasi, jamiyat bilan bo‘lgan munosabati va ijtimoiy normalarni o‘zlashtirishi muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Bu nazariyaga ko‘ra, insonning axloqiy qarashlari uning atrofida odamlar, oila, maktab va jamiyat bilan bog‘lanishi jarayonida shakllanadi. Sotsializatsiya nazariyasi insonning axloqiy qadriyatlari va xulq-atvori uning ijtimoiy muhiti bilan bevosita bog‘liq ekanligini nazarda tutadi.

Sotsializatsiya nazariyasining asoschilari va uni rivojlantirganlardan biri Emil Dyurkgeymdir. Uning fikricha, axloq va axloqiy normalar shaxs uchun yolg‘iz shaxsiy tushuncha emas, balki jamiyat tomonidan tartibga solinadigan me’yorlardir. Dyurkgeymning ta’kidlashicha, insonning axloqiy qarashlari uning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy vazifalari va burchlari bilan chambarchas bog‘liq. Uning fikriga ko‘ra, jamiyat o‘z a’zolarini axloqiy jihatdan shakllantirish uchun umumiy qoidalar va qadriyatlarni singdiradi. Dyurkgeym yozishicha, “axloq jamiyatning asosiy ustuni va ijtimoiy hamjihatlikning kafolatidir.”

Sotsializatsiya nazariyasini qo‘llab-quvvatlagan yana bir muhim olim Jorj Gerbnerdir. Uning media ta’siriga doir tadqiqotlari inson axloqiy qarashlarining shakllanishida ommaviy axborot vositalarining muhim rolini ko‘rsatib bergan. Gerbnerning fikricha, insonlarning axloqiy qarashlari yoki ijtimoiy normalar haqidagi qarashlari ko‘pincha televideniye, internet va ommaviy axborot vositalari orqali shakllanadi. Zero, “Ommaviy axborot vositalari, xususan televideniye, odamlar o‘rtasida umumiy dunyoqarash va ijtimoiy voqelikning umumiy modellarini shakllantiradi. Bu jarayon yoshlarning axloqiy qarashlari va ijtimoiy normalarini hosil qilishda katta ta’sirga ega”.

Sotsializatsiya nazariyasiga ko‘ra, shaxs ijtimoiy munosabatlarda tajriba orttirish, jamoatchilik normalari va qadriyatlarini o‘zlashtirish orqali axloqiy qarashlarni shakllantiradi. Jamiyat yordamida inson ijtimoiy burch va mas’uliyatlarini tushunib yetadi. Misol uchun, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar bolalarda hurmat, yordam berish va mehr-muhabbat kabi qadriyatlarni shakllantiradi. Shuningdek, maktabda o‘qituvchilar va sinfdoshlar bilan bo‘lgan munosabatlar orqali yoshlar adolat, jamoaviy hamjihatlik va mas’uliyatni o‘zlashtiradilar

Bizningcha, sotsializatsiya nazariyasining yutuqlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini mustahkamlaydi: sotsializatsiya nazariyasi insonni jamiyatning faol va mas’uliyatli a’zosi sifatida shakllantirishga yordam beradi. Bu nazariya

yoshlarda jamoatchilik manfaatlarini, ijtimoiy burch va umumiy qadriyatlar haqida tushuncha hosil qiladi.

2. Axloqiy qarashlarning ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatadi: bu nazariyaga ko‘ra, shaxsning axloqiy qarashlari faqat uning shaxsiy qarashlari emas, balki jamiyatning umumiy qadriyatlari bilan bog‘liq. Sotsializatsiya nazariyasi axloqiy qadriyatlarni jamoaviy me‘yorlar sifatida tushuntirib, jamiyatdagi barqarorlik va hamjihatlikka erishishga xizmat qiladi.

3. Tarbiya jarayonini yanada samarali qiladi: sotsializatsiya nazariyasi axloqiy qadriyatlarning jamiyat orqali uzatilishini e‘tirof etib, ta‘lim va tarbiya jarayonida jamoatchilik va oilaviy rolning ahamiyatini tushuntirib beradi. Bu esa pedagoglar uchun tarbiya jarayonida jamoa va ijtimoiy aloqalarni samarali qo‘llash imkoniyatini beradi.

Ushbu nazariyaning kamchiliklari esa, bizningcha, quyidagilardir:

1. Shaxsning mustaqilligini yetarli darajada inobatga olmaslik: sotsializatsiya nazariyasi shaxsning ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan ta‘sirini ortiqcha qayd etishi tufayli uning shaxsiy rivojlanishi va mustaqil axloqiy qarashlari yetarli darajada inobatga olinmasligi mumkin. Ba‘zan shaxs ijtimoiy ta‘sirga moil bo‘lib, o‘ziga xos qarorlar qabul qilish qobiliyatini cheklash xavfi paydo bo‘ladi.

Inklyuziv ta‘lim bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu sohadagi tadqiqotlar pedagogik innovatsiyalar, texnologik yondashuvlar va inklyuziv muhitni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Florian (2014) inklyuziv ta‘lim modelining asosiy tamoyillarini tahlil qilib, pedagoglarning tayyorgarligi inklyuziv sinflarda ta‘lim sifati uchun hal qiluvchi omil ekanligini ta‘kidlaydi. Ainscow (2020) esa inklyuziv ta‘limni rivojlantirishda ta‘lim tizimining moslashuvchanligini oshirish va o‘qituvchilarni doimiy qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta‘kidlaydi.

Bundan tashqari, Farrell (2012) inklyuziv ta‘limda o‘qituvchilarning maxsus metodikalardan foydalanish ahamiyatini tadqiq qilib, pedagoglarning malaka oshirish kurslariga jalb qilinishining ta‘lim sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini isbotlaydi. OECD (2019) ma‘lumotlariga ko‘ra, inklyuziv ta‘limda muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchilarning texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish va AKTdan keng foydalanish muhim omillar hisoblanadi. Slee (2018) esa inklyuziv ta‘limni huquqiy va ijtimoiy jihatdan o‘rganib, siyosat va amaliyot o‘rtasidagi uzilishlarni bartaraf etish lozimligini qayd etadi.

O‘zbek olimlari (Qosimov, 2021; Karimova, 2019) esa inklyuziv ta‘limni milliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, pedagoglarning tayyorgarligi, maxsus metodikalardan foydalanish va mahalliy resurslardan samarali foydalanishning muhimligini ta‘kidlaydilar. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida inklyuziv ta‘limni keng joriy etish uchun davlat siyosati va o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonlari uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim.

O‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda (Qosimov, 2021; Karimova, 2019) inklyuziv ta‘limni milliy sharoitga moslashtirish masalalari ko‘tarilib, pedagoglarning maxsus tayyorgarligi, o‘quv dasturlarining inklyuziv talablariga mosligi hamda ta‘lim resurslarini optimallashtirish muhimligi ta‘kidlanadi. Ushbu tadqiqotlar inklyuziv ta‘limni joriy etishning samarali strategiyalarini aniqlash, pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish va milliy ta‘lim tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, tadqiqotlarda inklyuziv ta‘limning huquqiy asoslari, maktablarda pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlari hamda ijtimoiy omillarning ahamiyati tahlil qilinadi. O‘zbek olimlarining izlanishlari ko‘p tarmoqli hamkorlik, resurs markazlarini rivojlantirish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ilgari suradi.

Inklyuziv ta‘lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagoglar quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur:

- **Pedagogik va psixologik tayyorgarlik** – inklyuziv ta’lim jarayonida maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan samarali ishlash uchun chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi. Bu tayyorgarlik o‘qituvchining maxsus pedagogika, defektologiya, klinik psixologiya va nevropsixologiya kabi sohalaridagi bilimlarini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishi lozim. Shuningdek, inklyuziv ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun pedagoglarning emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi va adaptiv ko‘nikmalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

- **Didaktik yondashuvlar** – inklyuziv ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos ta’lim metodlarini tanlash va ularni samarali qo‘llay bilish qobiliyatidir. Bu yondashuv o‘quvchilarni qiziqtirish, ularning bilim olish sur‘atini inobatga olish, turli o‘quv usullaridan foydalanish va inklyuziv ta’lim muhitida moslashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, didaktik yondashuvlar pedagoglarning adaptiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, differensial ta’lim metodlarini joriy etish va individual ta’lim rejalari asosida darslarni loyihalash malakasini ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda multimodal ta’lim metodlari, interfaol texnologiyalar va muhitga mos moslashuvchan didaktik vositalar asosiy rol o‘ynaydi.

- **Texnologik kompetensiya** – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etish, moslashtirilgan elektron resurslar yaratish va interfaol ta’lim platformalaridan samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi. Inklyuziv ta’lim muhitida bu kompetensiya maxsus dasturiy ta’minotdan foydalanish, masofaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish va o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos axborot tizimlarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Pedagog texnologik kompetensiya orqali sun‘iy intellekt va raqamli o‘quv muhitlarini tatbiq etish, raqamli didaktika elementlarini qo‘llash hamda individual o‘quv jarayonlarini avtomatlashtirishga erishishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli inklyuziv resurslardan foydalanish, multimedia vositalarini qo‘llash va moslashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish texnologik kompetensiyaning ajralmas qismlaridandir.

- **Kommunikativ ko‘nikmalar** – inklyuziv ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va boshqa ta’lim ishtirokchilari bilan samarali muloqot olib borish qobiliyatidir. Ushbu ko‘nikmalar nafaqat axborot almashinuvi, balki pedagogik hamkorlik, o‘zaro tushunish va inklyuziv muhitni shakllantirish uchun muhim hisoblanadi. O‘qituvchi ta’lim ehtiyojlari turlicha bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida aniq, ravon va individual ehtiyojlarga mos kommunikativ usullardan foydalana olishi zarur. Shuningdek, samarali kommunikatsiya stressni kamaytirish, ijtimoiy integratsiyani mustahkamlash va inklyuziv sinf muhitida barcha ishtirokchilar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu kompetensiyaning rivojlantirish uchun o‘qituvchilar psixologik muloqot texnikalarini, faol tinglash, neverbal kommunikatsiya va konfliktlarni boshqarish strategiyalarini o‘zlashtirishlari kerak.

- **Tashkiliy va muvofiqlashtiruvchi ko‘nikmalar** – inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirish jarayonida o‘qituvchilarning jamoaviy ishlash, resurslarni samarali taqsimlash, ta’lim jarayonini muvofiqlashtirish hamda ko‘p tarmoqli yondashuv asosida turli mutaxassislar bilan hamkorlik qilish qobiliyatini ifodalaydi. Bu ko‘nikmalar o‘qituvchiga o‘quv dasturlarini individual ehtiyojlarga moslashtirish, sinf muhitini boshqarish va pedagogik hamkorlikni rivojlantirish imkonini beradi. Samarali tashkiliy va muvofiqlashtiruvchi ko‘nikmalar orqali o‘qituvchi ta’lim muassasalari, ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, psixologlar, logopedlar va boshqa mutaxassislar bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, inklyuziv muhitning izchil ishlashini ta’minlaydi. Bu esa nafaqat ta’lim sifati oshishiga, balki barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Inklyuziv ta’limda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik nazariyalar, empirik tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalarga asoslangan quyidagi yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuvlar inklyuziv ta’limni samarali amalga oshirish, o‘quvchilar ehtiyojlariga mos o‘quv strategiyalarini ishlab chiqish hamda ta’lim muhitida inklyuzivlik tamoyillarini mustahkamlash imkonini beradi:

1. Differensial va moslashtirilgan ta’lim metodlari

Differensial yondashuv har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlari, bilim olish sur’ati va qobiliyat darajasiga mos o‘qitish strategiyalarini tanlash va ularni ta’lim jarayonida qo‘llashni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning individual intellektual va psixomotor qobiliyatlarini inobatga olib, moslashtirilgan o‘quv rejalarini ishlab chiqishga, shu bilan birga, ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan va samarali tashkil etishga yordam beradi. Differensial yondashuvning asosiy tamoyillari orasida konstruktiv pedagogika, o‘quvchilarning reflektiv va interfaol ishtirokini ta’minlash, moslashtirilgan baholash tizimlarini joriy etish hamda ta’limni individual talablarga mos tarzda loyihalash kabi jihatlar muhim rol o‘ynaydi.

2. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) dan foydalanish

Interaktiv ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim vositalari va sun’iy intellekt asosida yaratilgan maxsus dasturlar o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar pedagoglarning o‘qitish usullarini diversifikatsiya qilish, individual yondashuvlarni rivojlantirish va inkluziv o‘quv muhitlarini yaratishga imkon beradi. Masalan, maxsus dasturlar yordamida nogironligi bor bolalar uchun moslashtirilgan dars materiallari ishlab chiqilishi mumkin, bu esa ularning ta’lim jarayoniga to‘laqonli jalb etilishiga ko‘mak beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi moslashtirilgan o‘qitish tizimlari o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini tahlil qilib, ularga mos resurslarni taqdim etish orqali ta’lim samaradorligini oshiradi. Bu texnologiyalar nafaqat o‘qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, balki butun ta’lim tizimining inklyuzivligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

3. Trening va malaka oshirish kurslari

Pedagoglarni inklyuziv ta’limga tayyorlash bo‘yicha maxsus kurslar, treninglar va amaliy seminarlar tashkil etish o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu


tadbirlar o‘qituvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni egallash imkonini beradi, balki ularga zamonaviy inklyuziv ta’lim metodlarini amaliyotda qo‘llash, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlashda psixologik va pedagogik strategiyalarni rivojlantirish, turli ta’lim resurslarini moslashtirish hamda multidisiplinar hamkorlikni amalga oshirish bo‘yicha muhim tajribalarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar, jumladan, virtual reallik, interfaol texnologiyalar va diagnostik baholash tizimlaridan foydalangan holda treninglar o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini yanada mustahkamlaydi.

4. Hamkorlik va mentorlik tizimi

Yangi pedagoglarning inklyuziv ta’lim jarayoniga moslashishini ta’minlash uchun tajribali ustozlar bilan tizimli hamkorlik qilish samarali strategiya hisoblanadi. Mentorlik dasturlari orqali yosh o‘qituvchilar tajribali pedagoglardan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, individual o‘quv yondashuvlarini ishlab chiqish hamda inklyuziv sinfda samarali ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha muhim tajribalarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Mentorlik jarayonida o‘qituvchilar inklyuziv ta’limga oid huquqiy asoslar, pedagogik-psixologik yondashuvlar va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarida ishtirok etish orqali o‘z kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashlari mumkin.

5. Ta’lim muassasalari va jamiyat bilan hamkorlik

Inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish uchun ta’lim muassasalari mahalliy jamoatchilik, nodavlat tashkilotlar va davlat idoralari bilan tizimli va institutsional hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi zarur. Bu hamkorlik pedagoglarning inklyuziv pedagogika bo‘yicha kasbiy malakasini oshirishga, innovatsion ta’lim metodlarini joriy etishga va ta’lim resurslarini samarali taqsimlashga imkon beradi. Xususan, davlat va nodavlat sektorlari o‘rtasidagi integratsiyalashgan yondashuvlar ta’lim sohasida muvofiqlashtirilgan strategik dasturlar ishlab chiqilishiga va resurs bazasining kengayishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, jamiyatning inklyuziv ta’limga bo‘lgan yondashuvini shakllantirish maqsadida jamoatchilikni jalb etish, ota-onalar bilan faol hamkorlik qilish hamda ijtimoiy sohada innovatsion loyihalarni amalga oshirish zarur. Shunday qilib, inklyuziv ta’lim jarayonining institutsional asoslarini mustahkamlash orqali ta’lim sifatini oshirishga erishish mumkin.



Turli mamlakatlarda inklyuziv ta’lim bo‘yicha qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalar inklyuziv ta’lim siyosatlari, amaliy usullar va pedagogik yondashuvlarning xilma-xilligini namoyon etadi.

Bu tajribalar ta’lim tizimlarining moslashuvchanligi va har bir o‘quvchiga ta’lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tajribalar orqali turli mamlakatlarda pedagoglarning inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligini mustahkamlash, shuningdek, maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun samarali qo‘llab-quvvatlash tizimlarini ishlab chiqish yo‘nalishlari o‘rganiladi.

- **Finlandiya** – inklyuziv ta’lim bo‘yicha ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan davlatlardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatda har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim rejasi ishlab chiqiladi va ta’lim jarayoni ko‘p tarmoqli mutaxassislar guruhi bilan hamkorlikda olib boriladi. Ushbu guruh tarkibiga pedagoglar, defektologlar, logopedlar, psixologlar va ijtimoiy ishchilar kirib, ular har bir o‘quvchining ehtiyojlariga moslashtirilgan yondashuvni ishlab chiqishda ishtirok etadilar. Finlandiyada ta’lim tizimi moslashuvchan bo‘lib, o‘quvchilarga ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash, adaptiv o‘quv dasturlari va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyati yaratilgan. Shu bilan birga, inkluziv ta’limning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o‘tib, individual pedagogik strategiyalarni qo‘llashga yo‘naltiriladi.

- **Germaniya** – maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv maktablar va resurs markazlari faoliyat yuritadi. Ushbu maktablar inklyuziv ta’limning samaradorligini oshirish maqsadida individual ta’lim rejalarini ishlab chiqish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini ko‘rsatish va turli mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash tizimini joriy qilgan. Germaniyada maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar davlat tomonidan moliyalashtiriladigan maxsus dasturlar orqali psixologik, logopedik va ijtimoiy ko‘makka ega bo‘lishadi. Shu bilan birga, mamlakatda umumiy ta’lim maktablarida ham inklyuziv sinflar tashkil etilib, u yerda yordamchi pedagoglar, maxsus ta’lim mutaxassislari va boshqa soha vakillari bolalarning o‘quv jarayoniga samarali integratsiyasini ta’minlaydi. Germaniya tajribasida muhim omillardan biri bu jamiyatning inklyuziv ta’limga ijobiy munosabatini shakllantirish va pedagoglar uchun muntazam malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish hisoblanadi.

- **AQSh** – inklyuziv ta’limga oid qonunchilik kuchli bo‘lib, ta’lim jarayoni huquqiy asoslar bilan mustahkamlangan. 1975-yilda qabul qilingan “Individuals with Disabilities Education Act” (IDEA) qonuni barcha bolalarga bepul va moslashtirilgan ta’lim olish huquqini kafolatlaydi. Mazkur qonun asosida davlat maktablarida maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun qo‘shimcha xizmatlar, shu jumladan, individual ta’lim rejalarini (IEP), yordamchi texnologiyalar va maxsus pedagogik yondashuvlar joriy etiladi. Shuningdek, AQShda inkluziv ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi maxsus markazlar, tajriba maktablari va tadqiqot institutlari faoliyat yuritadi. Ushbu tizim o‘qituvchilarning doimiy ravishda malaka oshirishini talab qiladi va multidisiplinar yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etishga urg‘u beradi.

XULOSA

Inklyuziv ta’limda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, bu jarayon tizimli yondashuvni va ilmiy

asoslangan strategiyalarni talab qiladi. Zamonaviy pedagogik innovatsiyalar, differensial ta'lim metodlari va texnologik resurslardan samarali foydalanish orqali o'qituvchilarning metodik ko'nikmalari takomillashtiriladi, bu esa inklyuziv ta'lim muhitining yanada samarali shakllanishiga olib keladi. Shuningdek, inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi pedagoglarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini to'g'ri baholash hamda ularni qo'llab-quvvatlash tizimlarini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Bularning barchasi barcha bolalar uchun adolatli va teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, M. (2022). O'zbekistonda inklyuziv ta'lim bo'yicha normativ-huquqiy asoslar va ularning amaliyoti. Davlat ta'lim siyosati jurnali, 5(3), 30-45.
2. Ainscow, M. (2020). Promoting inclusion and equity in education: Lessons from international experiences. Nordic Journal of Studies in Educational Policy, 6(1), 7-16.
3. Farrell, P. (2012). Inclusive education for children with special educational needs: Current uncertainties and future directions. British Journal of Special Education, 39(3), 99-104.
4. Florian, L. (2014). What counts as evidence of inclusive education? European Journal of Special Needs Education, 29(3), 286-294.
5. Karimova, D. (2019). Inklyuziv ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash tajribasi. Pedagogika ilmiy jurnali, 4(2), 55-67.
6. Qosimov, S. (2021). O'zbekistonda inklyuziv ta'lim: Muammolar va istiqbollar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti noshirlik markazi.
7. Shogren, K. A., Wehmeyer, M. L., et al. (2015). Research-based principles and practices for inclusive education. Inclusion, 3(2), 67-81.
8. Slee, R. (2018). Inclusive education: From policy to classroom. Routledge.
9. Yusupova, N. (2020). Maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim metodikalarini takomillashtirish. O'zbekiston pedagogika tadqiqotlari, 7(1), 88-102.



SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA JISMONIY TARBIYA ASOSLARI

Voxidov Erkin Odilovich

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Erkin.Vohidov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiya asoslari, sog‘lom turmush tarzi va uning tarkibiga kiruvchi tushunchalar haqida ma‘lumot berib, ushbu tushunchalar tahlil qilingan. Sog‘lom turmush tarzi va salomatlik tushunchalarining o‘zaro aloqadorligi ko‘rib o‘tilgan. Jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzi sohasiga hukumat darajasida e‘tibor hamda tegishli fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Sog‘lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya asoslari, sog‘lom turmush tarzini yetti qoidasi, sport, to‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlar, kun tartibi, ijobiy kayfiyat, toza havo, shaxsiy gigiyena, fiziologik, biologik, psixologik va psixologik xususiyatlar.

ОСНОВЫ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ И ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация: В статье рассматриваются основы физического воспитания, понятие здорового образа жизни и связанные с ним понятия. Проведен анализ этих понятий, а также взаимосвязь между здоровым образом жизни и понятием здоровья. Подчеркнуто внимание, уделяемое государством сфере физического воспитания и здорового образа жизни, а также представлены соответствующие мнения и подходы.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, основы физического воспитания, семь правил здорового образа жизни, спорт, правильное питание, вредные привычки, режим дня, положительное настроение, свежий воздух, личная гигиена, физиологические, биологические, психологические и психические особенности.

BASICS OF A HEALTHY LIFESTYLE AND PHYSICAL EDUCATION

Abstract: This article provides information about the basics of physical education, the concept of a healthy lifestyle, and related ideas, while also analyzing these concepts. It discusses the interconnection between a healthy lifestyle and health itself. The article also highlights government-level attention and opinions related to the fields of physical education and a healthy lifestyle.

Keywords: healthy lifestyle, basics of physical education, seven principles of a healthy lifestyle, sports, proper nutrition, harmful habits, daily routine, positive mood, fresh air, personal hygiene, physiological, biological, psychological and mental characteristics.

Kirish: Aholining uzoq umr ko‘rish davomiyligini ta‘minlash dolzarb masalalardan biridir. Zero, ushbu ko‘rsatkich insonlarning sog‘lom turmush tarzi va farovon hayoti ifodasidir. Shu o‘rinda sog‘lom turmush tarzi nima, unga amal qilish me‘yorlari qanday, yurtimizda sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar nimalardan iborat, kabi savollar tug‘iladi.

Sog‘lom turmush tarzini yetti qoidasi bo‘lib bularga sport, to‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlar, kun tartibi, ijobiy kayfiyat, toza havo va shaxsiy gigiyena kiradi. Bu tushuncha sog‘lom yashashning har bir jihatini o‘z ichiga oladi va sog‘lom turmush tarzi nafaqat kasalliklarning oldini olish, balki umumiy farovonlikni ta‘minlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Sog‘lom turmush tarzi tamaki va spirtli ichimliklarni iste‘mol qilishdan voz kechish, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, ruhiy salomatlikni mustahkamlash va boshqa sog‘liqni saqlash choralarini o‘z ichiga oladi. So‘g‘lom turmush tarzi tamoyillari odatda erta yoshda belgilanadi. Sog‘lom turmush tarzini erta yoshda shakllantirish muhimdir, chunki yoshlarda shakllangan odatlar ko‘pincha balog‘at yoshiga qadar saqlanib qoladi.

Asosiy matn:

Sog‘lom turmush tarzini shakllanishida, keng tarqalishida va motivasiyasida, ongli tanlash yetarli darajada bo‘lmasada, asosiy rolni oila, mahalla va eng asosiysi ta‘lim muassasalari o‘ynaydi. Niholni to‘g‘ri yoki qiyshiq o‘sishi unga berilgan dastlabki parvarishga bog‘liq bo‘lgani kabi bolani sog‘lom turmush tarzi ham beshikdan boshlanadi, deyish mumkin. Komillika intilish urug‘lari, eng avvalo, oilada shakllanadi.

Sog‘lom turmush tarzini ta‘lim muassasalarida tashkil etishning o‘ziga xos afzalliklari va ustunliklari bor. Chunki oila, mahalladan farqli o‘laroq ta‘lim muassasalarida bolalarni tengdoshlari bilan guruh va sinflarga ajratilishi, moddiy-texnik bazasining mavjudligi, eng muhimi ta‘lim muassasalarida mutaxassis pedagoglar, trenerlarning faoliyat yuritishi bu jarayonning samaradorligini ta‘minlanishini kafolatlaydi.

Maktab ta‘limi bolalar sog‘lom turmush tarzini shakllanishining keyingi bosqichini o‘z ichiga oladi. Ammo, maktablarda o‘quvchilar ovqatlanishining turlichaligi, shuningdek, yuqori sifatli emasligi ularning ko‘pchiligida oshqozon-ichak kasalliklarini orttirib olishlariga olib keladi. Ikkinchi tomondan, maktab ta‘limida o‘quv yuklamalarining yuqoriligi va binobarin yetarli darajada ko‘p vaqtni talab etadi, aqliy bosimlar ham o‘zini ko‘rsata boshlaydi. O‘quvchi bolalarning dars jarayonida ko‘p vaqtlari statik, ya‘ni bir gavdaning bir vaziyatda bo‘lishligi, bo‘y-bastlari turlicha bolalar bir xil mebelidan (stol-stul, parta) foydalanishlari ularda umurtqaning noto‘g‘ri rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Jismoniy madaniyat darslari, aslida o‘quvchining salomatligini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lsada, ko‘pgina obyektiv sabablar tufayli ko‘zlangan maqsadga erishishga olib

kelaydi: sport zallarining yetishmasligi (yoki yo‘qligi), qisqa tanaffus vaqtida o‘quvchilarni sport kiyimlarini kiyish-yechish va mashg‘ulotdan keyin tozalik gigiyenasiga rioya qilish (yuvinish, dush qabul qilish) imkoniyatining yo‘qligi, jismoniy zo‘riqish (bosim)dan keyin fiziologik tiklanish va aqliy faoliyatna (darslarga) psixologik tayyorgarlik uchun vaqtning yetishmasligi va h.k. Shu o‘rinda yana bir muhim holatga e‘tiborni qaratish lozim deb o‘ylaymiz. Maktab o‘quvchilari uchun qabul qilingan jismoniy madaniyat darslari faqat sog‘lom bolalarga mo‘ljallanib ishlab chiqilgan bo‘lib, fiziologik, biologik va psixologik nuqsonli bolalar e‘tiborga olinmagan. Bu toifadagi o‘quvchilar sog‘lom bolalar kabi jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishda va baho olish uchun belgilangan normativlarni bajarishda ancha yuqori jismoniy va psixologik bosimni yengishlariga to‘g‘ri keladi.

O‘quvchi bolalarning jismoniy madaniyat mashg‘ulotlariga moyilligini (motivasiyasini) oshirish va ularning sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish uchun ta‘lim muassasalarida bir qator tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, jumladan:

- har bir o‘quvchining jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanish, jismoniy yuklama miqdorini aniqlash, sportning qaysi turining mosligi, individual yoki guruhviy mashg‘ulotlarni tanlash maqsadida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish;

- tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra sinfdagi o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lish va har bir alohida guruh uchun maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

- o‘quvchilarni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlaridagi jismoniy va psixologik yuklamalardan tiklanishini e‘tiborga olgan xolda jismoniy tarbiya darslarining optimal jadvalini tuzish va h.k.

Sog‘lom turmush tarzi – insonning yashashi, ta‘lim olishi, ishlashi, jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarini o‘z ichiga olgan murakkab faoliyati bo‘lib, bu kompleks chora-tadbirlar (faoliyat) natijasida inson ijtimoiy hayotda faol, zavq-shavqqa to‘la turmush kechirishi, o‘qish va ishda raqobatbardoshli, kasbiy va axloqiy yetuk shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Aholining sog‘lom, maqsadli va barkamol bo‘lib voyaga yetishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati katta. Jismoniy faollik jamiyatning har bir a‘zosining shaxsiyati, ijtimoiy munosabatlari, muvaffaqiyati, yutuqlari va xarakter kuchining shakllanishiga ta‘sir qiladi.

Hozirgi kunda odamlar sog‘lom turmush tarzini olib borishga e‘tibor qaratmoqda, shuning uchun jismoniy mashqlar va sport juda mashhur. Sport haqida maqolalar yoziladi, filmlar suratga olinadi, uning xususiyatlari va muammolari olimlar, o‘qituvchilar, sotsiologlar tomonidan o‘rganiladi va bu modaga bo‘lgan hurmat emas, balki zamonaviy jamiyatning sog‘liqni saqlash, madaniyat, uyg‘unlik va taraqqiyot yo‘lini ongli ravishda tanlashidir.

Jismoniy tarbiya asoslari — bu inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy rivojlanishini ta‘minlash va harakat faoliyatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy bilimlar majmuasidir. Bu soha inson tanasining anatomiyasi, fiziologiyasi, psixologiyasi, pedagogikasi hamda sport bilan bog‘liq mashg‘ulotlar asosida shakllanadi.

O‘zbekistonda jismoniy tarbiyaga juda qadimdan salomatlikni mustahkamlashning asosiy vositasi deb qaralgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida 100 dan ziyod xalq o‘yinlari to‘g‘risida ma‘lumot berilgan. “Alpomish” o‘zbek xalq qahramonlik

dostoni, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye” (“Nodir voqealar”), Boburning “Boburnoma” asari va boshqalarda jismoniy, jangovar mashqlar, kuchlilik bahs munozaralarining xilma-xil namunalaridan hikoya qilinadi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillariga kelib jismoniy tarbiya va sport davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. 1992-yilda (2000-yilda esa yangi tahrirda) “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi, 1993-yilda Sog‘lom avlod davlat dasturining ishlab chiqilishi, Vazirlar Mahkamasining sportning alohida turlarini rivojlantirishga oid va nihoyat 1999-yilda “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori jismoniy tarbiyaning huquqiy asoslarini yaratdi.

Takliflar:

1. Yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishga oid g‘oyalarni uzluksiz ta‘lim tizimi amaliyotida dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni orqali ular ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Sog‘lom turmush tarzi va madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda oila, mahalla, ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi aloqalarning uyg‘unligiga erishish mexanizmlarini yaratish. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishda xalq milliy pedagogika janrlari: doston, ertak, rivoyat, maqol, topishmoq, qo‘shiq, marosim folklori kabilar muhim vosita hisoblanadi.

3. Mamlakatimiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida o‘quvchi shaxsining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan jismoniy madaniyat va ommaviy sport turlarini xalq o‘yinlari bilan qo‘shib olib borish orqali sog‘lom turmush madaniyati indikatorlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Xulosa.

Sog‘lom turmush tarzi murakkab ijtimoiy jarayonlarni o‘zida ifodalaydi va sog‘lom turmush tarzining mezonlariga shaxsning jamoatchilik va mehnat jarayonlarida faollik ko‘rsatib, samarali ijodiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishi, oilada va kundalik turmushda namunali yashashi, o‘zidagi jismoniy va ma‘naviy qobiliyatlarni ro‘yobga chiqarishga intilishi, tabiiy va ijtimoiy muhit bilan mutanosiblikda yashashi, sog‘lom va barkamol inson bo‘lib shakllanish uchun o‘z shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga intilishi, nosog‘lom turmush tarziga xos zararli odatlarning ta‘siriga tushib qolishdan o‘zini asrashga intilib yashashi, hayotda to‘g‘ri yashayotganidan qoniqish hosil qilib, zavqlanib yashashga intilishi, sog‘lom turmush tarzini o‘zi uchun bir umrga maqsad qilib tanlashi va shu yo‘lda faoliyat olib borishi kabi qimmatli insoniy sifat va xususiyatlarni kiritish mumkin.

O‘zbekistonda sog‘lom avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatidagi eng muhim masalalardan biridir. O‘zbekistonning tashqi siyosatida o‘zaro tenglik va manfaatli hamkorlik masalasiga asosiy e‘tibor qaratilayotgan bo‘lsa, ichki siyosatda fuqarolarning bahtli va farovon hayot kechirishi, ularning sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sog‘lom turmush tarzining rivojlanishida diniy va dunyoviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish O‘zbekistonning kelgusi taraqqiyot yo‘lini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to‘g‘risida»gi PQ-3031-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/3226019>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-dekabrdagi «Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4063-sonli qarori. <https://www.lex.uz/docs/4111365>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019-yil 29-yanvardagi «O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida»gi 65-sonli qarori.
4. Salomov R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik –Toshkent 2014-yil 284 b.
6. Sodiqov K. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent. 2007. -www.ziyouz.com kutubxonasi.
7. Povlov.Sh.K, Abdalimov.O.X, Yusupova.Z.E. Sport nazariyasi va uslubiyoti. Darslik. Toshkent 2017-yil. 415 b.



**PEDAGOG OLIMLAR VA AMALIYOTCHILARNING HAMKORLIGIDA
KASBIY-MA’NAVIY NAFOSAT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
ISTIQBOLLARI**

Xalilov Rauffjon Rahimjon o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

ulashmustafoyev1957@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola pedagog olimlar va amaliyotchilar o‘rtasidagi hamkorlikda kasbiy-ma’naviyat nafosat metodikasini takomillashtirish istiqbollari muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada kasbiy-ma’naviy nafosatning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, uning zamonaviy ta’lim tizimidagi rolini oshirish uchun zarur bo‘lgan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada pedagogik nazariyalar va amaliyot orasidagi aloqalar ko‘rib chiqilib, ta’lim jarayonida nafaqat ilmiy bilimlar, balki ma’naviyat va kasbiy axloqiy qadriyatlarining ham o‘rni ta’kidlanadi. Asosiy qismda pedagog olimlar va amaliyotchilar o‘rtasidagi hamkorlikning muhim yo‘nalishlari, masalan, tajriba almashish, innovatsion metodologiyalarni joriy etish va o‘zaro treninglar tashkil etish kabi aspektlar batafsil yoritiladi. Shuningdek, kasbiy-ma’naviyat nafosat metodikasining rivojlanishi uchun zamonaviy talablar va shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Umuman olganda, maqola kasbiy-ma’naviyat nafosat metodikasini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi asosli fikrlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: Pedagogika, kasbiy ma’naviyat, nafosat, ta’lim tizimi, innovatsion usullar, pedagogik tadqiqotlar, kasbiy tayyorgarlik, amaliy tajriba, ma’naviy qadriyatlar, pedagogik strategiyalar, ijtimoiy mas’uliyat, integratsiya, muloqot va hamkorlik

**ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ
ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ В
СОТРУДНИЧЕСТВЕ УЧЕНЫХ-ПЕДАГОГОВ И ПРАКТИКОВ**

Аннотация: Данная статья посвящена изучению проблем перспектив совершенствования методики профессионально-нравственного совершенствования в сотрудничестве ученых-педагогов и практиков. В статье анализируется значение профессионально-нравственной утонченности в образовательном процессе, методические подходы, необходимые для повышения ее роли в современной системе образования. В статье рассматриваются взаимосвязи педагогических теорий и практики, подчеркивается роль в образовательном процессе не только научных знаний, но и

духовных и профессиональных нравственных ценностей. В основной части подробно освещаются важные направления сотрудничества ученых-педагогов и практиков, такие как обмен опытом, внедрение инновационных методологий и организация взаимных тренингов. Также анализируются современные требования и предпосылки развития методики профессионально-нравственного совершенствования. В целом, статья предлагает обоснованные соображения, которые служат для улучшения качества образования за счет совершенствования методики профессиональной духовности.

Ключевые слова: педагогика, профессиональная духовность, изысканность, система образования, инновационные методы, педагогические исследования, профессиональная подготовка, практический опыт, духовные ценности, педагогические стратегии, социальная ответственность, интеграция, общение и сотрудничество

PROSPECTS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF PROFESSIONAL AND SPIRITUAL SOPHISTICATION IN THE COOPERATION OF PEDAGOGICAL SCIENTISTS AND PRACTITIONERS

Annotation: This article is devoted to the study of the problems of the prospects for improving the methodology of professional-spiritual sophistication in cooperation between pedagogical scientists and practitioners. The article analyzes the importance of professional-spiritual sophistication in the educational process, the methodological approaches necessary to increase its role in the modern educational system. The article examines the connections between pedagogical theories and practice and emphasizes the role of not only scientific knowledge, but also spirituality and professional moral values in the educational process. The main part covers in detail aspects of cooperation between pedagogical scientists and practitioners, such as the exchange of experience, the introduction of innovative methodologies and the organization of mutual trainings. Also, modern requirements and conditions for the development of the methodology of professional-spiritual sophistication are analyzed. In general, the article offers reasoned opinions that serve to improve the quality of education by improving the methodology of professional-spiritual sophistication.

Keywords: Pedagogy, professional spirituality, sophistication, educational system, innovative methods, pedagogical research, professional training, practical experience, spiritual values, pedagogical strategies, social responsibility, integration, communication and cooperation

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida talaba-yoshlarni nafaqat kasbiy bilim va malakalar bilan qurollantirish, balki ularning ma’naviy-axloqiy, shaxsiy fazilatlarini ham yuksaltirish masalasi kun tartibida ustuvor o‘rin egallaydi. Aynan shu nuqtayi nazardan, kasbiy-ma’naviy nafosatni shakllantirish jarayonini takomillashtirish – bugungi pedagogika fani va amaliyoti oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Talaba-yoshlar kelgusida ijtimoiy hayotda faol, mustaqil fikrlovchi, kasbiga sodiq va vijdonli mutaxassis sifatida shakllanishi uchun ham

kasbiy-ma'naviy nafosat tushunchasining nazariy asoslarini chuqur o'rganish, ham uni ta'lim amaliyotiga joriy etish zarurati vujudga kelmoqda. Mazkur vazifani amalga oshirishda ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borayotgan olimlar hamda bevosita dars mashg'ulotlarida yoki muayyan ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan amaliyotchilar o'rtasidagi hamkorlik katta ahamiyat kasb etadi. Zero, ilmiy tadqiqotlar nazariy konsepsiyaga, uslubiy asosga tayanadi, amaliyotchilar esa dars jarayonida yuzaga kelayotgan real muammolar, talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini yaxshi biladi. Olimlar va amaliyotchilarning barkamol hamkorligi tufayli kasbiy-ma'naviy nafosat metodikasi yangi bosqichga ko'tarilishi, zamon talablariga moslashishi va amaliy samaradorligi ortishi kutiladi.

Kasbiy-ma'naviy nafosat – bu shaxsning kasb doirasida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mustahkam nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va ijodkorlik salohiyatini uyg'un shaklda namoyon qila olishini ifodalaydi[1]. Bu tushuncha ikki asosiy qismdan iborat:

Kasbiy kompetensiya: O'z sohasida yetarli nazariy bilim, amaliy malaka, ijodiy izlanish, xulosa chiqarish, qaror qabul qilish hamda muammolarni yechish layoqati.

Ma'naviy-axloqiy meros: Insonning ichki qadriyatlari, adolat, halollik, insonparvarlik, vijdonlilik kabi fazilatlar; bular shaxsiy mas'uliyatni oshiradi, kasbda yuqori etika me'yorlariga amal qilishni rag'batlantiradi.

Shaxs rivojida kasbiy-ma'naviy nafosatning o'rni. Har qanday mutaxassisning keng ko'lamdagi bilim va mahorati, shu bilan birga, unda shakllanadigan axloqiy tamoyillar jamiyat oldidagi mas'uliyatni belgilab beradi. Kasbiy-ma'naviy nafosatga ega bo'lmagan kishi bilimdon bo'lsa-da, o'z kasbining ijtimoiy ahamiyatini, shaxsiy mas'uliyatini to'liq his etmaydi. Shu bois, bugungi murakkab hayotda nazariy va amaliy tayyorgarlik bilan ma'naviy-axloqiy yetuklik uyg'unligi har qachongidan ham muhim. Yangi O'zbekistonda kasbiy-ma'naviy nafosat masalasi. Zamonaviy islohotlar davrida, xususan, Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalar tub yangilanish jarayonini boshidan kechirayotgani tufayli, kasbiy-ma'naviy nafosat tushunchasi yanada dolzarblashdi. Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarga innovatsion fan-texnik bilimlar, zamonaviy IT-ko'nikmalar, xorijiy tajriba bilan tanishish imkoniyati kengayib borar ekan, bu jarayonni milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy prinsiplar bilan uyg'unlashtirish vazifasi eng ustun yo'nalish sifatida belgilandi. Bunday sharoitda kasbiy-ma'naviy nafosatni shakllantirish – har bir oliy ta'lim muassasasining ustuvor maqsadi. Biroq, bu masalaning samarali hal etilishida ilmiy tadqiqotlar va amaliy ta'lim jarayonini uzviy bog'lash, o'zaro tajriba va ma'lumot almashuvini yo'lga qo'yish muhimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Pedagog olimlar kasbiy-ma'naviy nafosatni shakllantirish masalasini nazariy jihatdan tadqiq etib, tegishli kontseptual model, metodikalar, o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqadilar. Ular ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar tayyorlash orqali ushbu sohaning nazariy masalalarini yoritishadi, xorijiy tajribani o'rganishadi, yangi ilmiy g'oya va yondashuvlarni ilgari surishadi. Masalan: Pedagogik psixologiya: Motivatsiya, xulq-atvor nazariyasi, kognitiv rivojlanish, didaktik modellash.

Axloqiy tarbiya: Ma‘naviy qadriyatlar, shaxs ongini shakllantirish, milliy an‘analar va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi.

Zamonaviy metodlar: Interfaol, loyiha, raqamli texnologiyalar, mentorlik, kooperativ o‘qitish kabi ta‘lim yondashuvlarini rivojlantirish.

Amaliyotchilar: dars jarayonining “birinchi liniyasi”. Amaliyotchilar – bu o‘qituvchilar, metodistlar, sinf rahbarlari, dekanlar, o‘quv-ishlab chiqarish amaliyoti rahbarlari, psixologlar va boshqalar – bevosita talabalarning kasbiy-ma‘naviy rivojlanishi uchun mas‘ul bo‘ladilar. Ular har kuni dars jarayonida, turli ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, seminarlar, amaliy mashg‘ulotlarda talabalarning intilishlari, ehtiyojlari, qiziqishlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanish bo‘lishadi [2].

Amaliy tajriba: O‘quv mashg‘ulotlaridagi real muammolar, pedagogik vaziyatlar, guruhdagi psixologik muhit, individual yondashuv masalalari.

Pedagogik tadbirlar: Ekskursiyalar, interfaol darslar, turli loyihalar, konkurslar, ijtimoiy faoliyat va amaliy mashg‘ulotlar.

Individual yo‘llanma: Talabalarning kasbiy qiziqishlariga ko‘ra ijodiy, ilmiy, amaliy bo‘lishi mumkin bo‘lgan mavzularni aniqlash, ma‘naviy-axloqiy masalalarda yo‘naltirish.

Hamkorlik zarurati. Pedagog olimlar nazariy konsepsiya va metodik imkoniyatlarni ishlab chiqadi, amaliyotchilar esa bu yondashuvlarni real dars jarayonida sinab ko‘rish, baholash, takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu boisdan, kasbiy-ma‘naviy nafosatga doir metodikalarni takomillashtirish uchun har ikki tomonning: Tajribadan kelib chiqadigan g‘oyasi: Dars jarayonidagi real muammo va yutuqlar.

Nazariy tahlil: Olimlarning yondashuvi, xorijiy tajriba, ilmiy tadqiqot natijalari. Qayta aloqa: Yangi ishlab chiqilgan metodika, dastur yoki modelni sinovdan o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish, xatolar va kamchiliklarni bartaraf etish. Bunday hamkorlik keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yilsa, kasbiy-ma‘naviy nafosatga erishish jarayonida dars sifatini oshirish, ilm-fanni amaliy hayot bilan chambarchas bog‘lash, shuningdek, talabalarda chuqur va barqaror ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish oson kechadi [3].

Kasbiy-ma‘naviy nafosat metodikasini takomillashtirish: asosiy yo‘nalishlar (Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash). Bugungi kunda kasbiy-ma‘naviy nafosatni shakllantirish uchun an‘anaviy ma‘ruza va seminarlar, passiv o‘qitish uslublari yetarli emas. Interfaol metodlar (rolli o‘yinlar, munozaralar, case-study), loyihaviy ta‘lim, kollaborativ usullar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Pedagog olimlar shu yo‘nalishlarda nazariy-texnik bazani ishlab chiqib, amaliyotchilar bilan kelishilgan holda ishga solishlari mumkin [4].

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasi. Kasbiy-ma‘naviy nafosat – bu muayyan kasb doirasida etik prinsiplar va ijtimoiy-ma‘naviy mas‘uliyatni egallash demakdir. Shu bois, milliy an‘analar, xalq pedagogikasi, allomalar merosi, sharqona tarbiya unsurlari umuminsoniy g‘oyalar (halollik, adolat, demokratik tamoyillar, huquqiy madaniyat) bilan uyg‘unlasha olishi kerak. Olimlar bunday mazmundagi dars ishlanmalari, integratsion fanlararo

mashg‘ulotlar, amaliyotchilar esa ularni sinovdan o‘tkazish orqali to‘liq uslubiy modelga aylantirishi mumkin.

Kasbiy etika va amaliy tayyorgarlik sintezi. Faoliyat jarayonida kasbiy-ma‘naviy mas‘uliyatni chuqur tushunish – bu o‘quv jarayonida to‘la shakllanmaydi, balki real ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonidagi amaliy holatlar bilan uyg‘unlashgandagina talaba o‘zida shakllantirishi mumkin. Shuning uchun: Ishlab chiqarish amaliyoti: Talabalar kasbiy faoliyat bilan bog‘liq korxonalar, tashkilotlarda amaliyot o‘tash vaqtida nazariy bilimlarini o‘sha joyning etika me‘yorlari, odob-ahloq qoidalari bilan sinovdan o‘tkazadi.

Kooperativ hamkorlik: Pedagog olimlar, amaliyotchilar, korxona rahbarlari birgalikda kasbiy-ma‘naviy nafosat bo‘yicha dasturlar tuzish, malaka baholash, ijtimoiy-ma‘naviy me‘yorlarga doir test yoki monitoring modellarini ishlab chiqishlari lozim.

Mentorlik va ustoz-shogird an‘analarini rivojlantirish. Kasbiy-ma‘naviy nafosat metodikasida mentorlik yoki ustoz-shogird an‘anasiga tayanish katta samara beradi. Olimlarning ushbu an‘ana bo‘yicha ilmiy-nazariy tahlillari, amaliyotchilarning esa real ustoz-shogird jarayonidagi tajribalari asosida yanada pishiq metodik model paydo bo‘ladi. Bu modelda: Ustoz (yoki mentor) – talabaning kasbiy va ma‘naviy kamolotini nazorat qiluvchi, yo‘naltiruvchi maslahatchi. Shogird (talaba) – nazariy bilimni to‘plab, uni amaliyotda qo‘llashga intiluvchi, ma‘naviy-axloqiy masalalarda ustozni ibrat, namunaviy “rol modeli” sifatida qabul qiluvchi faol subyekt. Shu turdagi ikki tomonlama integratsiya o‘qituvchi va talaba o‘rtasida ishonchli aloqani kuchaytiradi, kasbiy-ma‘naviy nafosatni egallash jarayonini tezlashtiradi [5].

Ta‘lim mazmunini raqamli resurslar bilan boyitish. Raqamli resurslar – onlayn kutubxonalar, virtual laboratoriyalar, masofaviy o‘qitish platformalari, ijtimoiy tarmoqlardagi ta‘lim kanallari – kasbiy-ma‘naviy nafosat metodikasini takomillashtirishda yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Pedagog olimlar o‘quv modullarini raqamli shaklga moslashtirib, interaktiv test, video-ma‘ruza, multimedia materiallarni yaratishda o‘z hissasini qo‘shsa, amaliyotchilar ularni dars jarayonida qo‘llab, natijani baholaydi, modullarni takomillashtiradi. Samaradorlik: Raqamli platformalar talabalarning mustaqil izlanishlarini kuzatish, baholash, vazifa berish, ijodiy loyihalarni taqdim qilishda qulay vosita hisoblanadi.

Refleksiya: Onlayn baholash, forum, an‘anaviy baho bilan raqamli reytingni taqqoslash orqali talabaning kasbiy-ma‘naviy rivojlanish dinamikasini real vaqtda ko‘rish Ta‘lim mazmunini raqamli resurslar bilan boyitish

Raqamli resurslar – onlayn kutubxonalar, virtual laboratoriyalar, masofaviy o‘qitish platformalari, ijtimoiy tarmoqlardagi ta‘lim kanallari – kasbiy-ma‘naviy nafosat metodikasini takomillashtirishda yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Pedagog olimlar o‘quv modullarini raqamli shaklga moslashtirib, interaktiv test, video-ma‘ruza, multimedia materiallarni yaratishda o‘z hissasini qo‘shsa, amaliyotchilar ularni dars jarayonida qo‘llab, natijani baholaydi, modullarni takomillashtiradi [6].

Samaradorlik: Raqamli platformalar talabalarning mustaqil izlanishlarini kuzatish, baholash, vazifa berish, ijodiy loyihalarni taqdim qilishda qulay vosita hisoblanadi.

Refleksiya: Onlayn baholash, forum, an’anaviy baho bilan raqamli reytingni taqqoslash orqali talabaning kasbiy-ma’naviy rivojlanish dinamikasini real vaqtda ko‘rish mumkin bo‘ladi. mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy-ma’naviy nafosatni shakllantirish – ta’lim jarayonining faqat bir yo‘nalishi bo‘lib qolmay, balki uning integral, asosiy tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Bu borada, bir tomondan, pedagog olimlar olib boradigan nazariy tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, metodologik konsepsiyalar, ikkinchi tomondan, amaliyotchilarning real dars jarayonidagi faoliyati, bevosita tajriba to‘plash va muammolarni hal qilish yondashuvi uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak. Shundagina kasbiy-ma’naviy nafosatga yo‘naltirilgan metodika yashovchan, amaliy samara beruvchi, zamon talablariga javob beruvchi shaklga ega bo‘ladi. Shunday qilib, kasbiy-ma’naviy nafosatni shakllantirish bo‘yicha metodika ustida olib boriladigan ishlarda pedagog olimlar va amaliyotchilarning sinergetik hamkorligi buning eng samarali yo‘li ekani yana bir karra tasdiqlandi. Mazkur hamkorlik orqali ilmiy-innovatsion g‘oyalar ta’lim jarayoniga joriy etiladi, real mashg‘ulotlardagi samaradorligi sinab ko‘riladi, qayta aloqalar asosida takomillashtiriladi. Natijada zamon talablari, milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy ideallar uyg‘unlashgan, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, ijodkor mutaxassislar avlodi voyaga yetadi. Aynan ular kelajakda inson kapitali sifatida jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi kuch bo‘lib maydonga chiqadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ummatjonov Shaxboz Halim o‘g‘li. "O‘zbek milliy pedagogikasi." Central Asian Academic Journal of Scientific Research 3.1 (2025): 6-11.
2. Majidova Feruza Maxmudovna. "Ta’lim jarayonida interfaol metodlarning roli va samaradorligi." Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies. 1.3 (2024): 148-154.
3. Maxmudov R. "Yoshlarda kasbiy ma’naviyat va huquqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari." harbiy pedagog 1.2 (2024): 1-6.
4. Marifjanovna Isamutdinova Durdona. "Innovatsion pedagogik texnologiya asosida darslarni tashkil qilish." современное образование и исследования 1.1 (2024): 169-172.
5. Kuvatov Ilyos Isroilovich. "O‘zbekistonda Ustoz-shogird an’anasiga tizgilar." Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments 2.1 (2024): 30-38.
6. Murodova Nafisa Mizrobovna. "Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli ta’lim resurs materiallarini qo‘llash." interdisciplinary innovation and scientific research conference. Vol. 3. No. 26. 2024.



BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARIDA KOMPOZITSIYAGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANIRISH

Xasanova Munisa Ziyodillo qizi.

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
Tasviriy san'at kafedrası v/b dots, p.f.f.d.(PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san’at yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarda kompozitsiyaga oid kompetensiyalarni shakllantirishning ahamiyati, asosiy yo‘nalishlari hamda amaliy mashg‘ulotlar orqali rivojlantirish usullari tahlil etiladi. Kompozitsiya nazariyasi, badiiy tahlil va metodik yondashuvlar orqali ijodiy jarayonni boshqarish, talabalarda ijodiy tafakkur hamda badiiy didni rivojlantirish xususiyatlari yoritiladi. Mazkur tajribalar tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy mahorati va ijodiy potensialini yuksaltirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, kompozitsiya, kompetensiya, badiiy tahlil, ijodiy jarayon, metodika, kasbiy mahorat.

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ В ОБЛАСТИ КОМПОЗИЦИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Основной уровень подготовки, который осуществляется в течение четырех-пяти лет в рамках высших учебных заведений по выбранной специальности, сосредоточен на дальнейшей разработке и углублении навыков, полученных на предыдущих стадиях обучения.

Актуальным также является понимание взаимосвязи языка и культуры в различных ее проявлениях, таких как бытовые обычаи, нормы этикета, гастрономические предпочтения, особенности одежды, коммуникации. Эти элементы отражают принадлежность одного человека к различным этническим группам. Язык сохраняет и передает культурный опыт народа, служа средством передачи знаний о менталитете, который отличается своими национальными особенностями. Таким образом, изучение русского языка тесно связано с погружением в культуру России, поскольку язык, в своей роли своего рода ретранслятора, передает информацию о культурном наследии нации от одного поколения к другому, обеспечивая людям доступ к этому наследию из различных этнических сообществ.

Использование материалов по лингвострановедению в процессе преподавания русского языка как иностранного играет значительную роль в содействии нерусскоязычным студентам в адаптации к новой культурно-языковой среде. Тексты,

выступающие в качестве языковых и речевых единиц, служат эффективным инструментом для передачи лингвокраеведческой информации, позволяя обучающимся лучше понять особенности русской культуры и языка[6].

Такой подход способствует не только формированию языковых навыков, но и формированию межкультурной компетенции, что является важным аспектом успешного общения в многокультурной среде. В конечном счете, целенаправленное внедрение лингвокраеведческих материалов в обучающий процесс обогащает студенческий опыт и способствует более глубокой интеграции в русскоязычное общество. Выбор текстов для учебного процесса осуществляется на основе критериев, актуальных для достижения поставленных образовательных целей и задач. В первую очередь учитываются коммуникативные потребности студентов, их интересы и запросы в контексте познавательной деятельности. В дополнение к этому, важную роль играют воспитательные задачи, которые преподаватель намеревается реализовать в рамках обучения[2].

На основе текстового материала обучающиеся имеют возможность ознакомиться с великими личностями и их достижениями в областях науки, культуры и спорта России. Для успешной реализации учебных и воспитательных задач необходимо использовать тексты различных стилей и жанров, включая художественные, научные, официально-деловые, публицистические, а также тексты разговорного стиля. При этом текст следует рассматривать не только как языковую единицу, но и как средство коммуникации: исследования показывают, что в процессе общения люди обмениваются не только словами, а именно текстами, которые структурированы с учетом композиции, содержания и намерений говорящего. Ориентация учебного процесса на активную коммуникацию и её языковое сопровождение имеет своей целью способствовать формированию индивида как полноценной социальной личности. Этот подход способствует развитию межличностных навыков, укреплению способности к взаимодействию в разнообразных социальных контекстах. Таким образом, акцент на живой коммуникации не только обогащает языковую компетенцию студентов, но и формирует их социальную активность и готовность к профессиональной деятельности в многообразных культурах[1].

Русский язык представляет собой один из наиболее сложных учебных предметов для студентов, не изучающих филологию, при этом значительные трудности возникают в вербальном выражении содержания, особенно в таких заданиях, как пересказ текстов, насыщенных сравнениями, метафорами и образными выражениями. В этой связи крайне важно тщательно подбирать литературные материалы, способствующие повышению мотивации нерусскоязычных студентов и формированию их интереса к изучению языка. Использование лингвокраеведческих ресурсов, таких как аутентичные тексты (отрывки из художественной прозы, статьи из журналов и газет, диалоги), стихи и песни, играет ключевую роль в этом процессе.

Дополнительно, расширению кругозора студентов и углублению их осведомленности о различных аспектах жизни будет способствовать просмотр телепередач, документальных и художественных фильмов на русском языке. Преподавание русского языка как иностранного должно отвечать современным требованиям и опираться на новейшие достижения науки и технологий. В этом контексте интеграция интернет-технологий в образовательный процесс позволяет студентам эффективно искать дополнительную информацию по изучаемым темам, а также проверять уровень своих знаний через онлайн-тесты и словари, тем самым обогащая учебный опыт и повышая качество образования.

Вовлечение студентов в активное обсуждение просмотренных материалов позволяет им не только практиковать язык, но и глубже понять культурные аспекты, отраженные в этих текстах и фильмах. Таким образом, создание атмосферы доверия и комфорта, основанной на юморе и активном участии, является важным условием для успешного освоения русского языка как иностранного.

Подходы к изучению языка определяются как основными функциями самого языка, который служит важнейшим средством общения, познания и влияния, так и запросами общества на формирование всесторонне развитой личности, способной проявлять социальную активность и обладающей коммуникативной культурой. Таким образом, современные методы обучения должны учитывать не только языковые аспекты, но и социальные, культурные и психологические компоненты, способствуя интеграции знаний с практическими навыками, необходимыми для успешного взаимодействия в многообразных социальных контекстах. Это подчеркивает необходимость создания курсов, которые направлены не только на изучение языка как конструкции, но и на развитие личностных качеств, которые способствуют эффективному общению и взаимодействию в обществе[3].

Категория «коммуникативная культура личности» подразумевает способность строить высказывания в соответствии с различными стилями, жанрами и типами речевой деятельности, а также включает в себя навыки овладения языковыми нормами, ведения диалога и аргументации своей точки зрения, что предполагает знание и применение правил речевого этикета. Обучение русскому языку как иностранному охватывает изучение лексики, причем системно-языковой подход является наиболее эффективным. В рамках этого подхода следует подчеркнуть значение различных языковых единиц (лексических, морфологических, синтаксических) в достижении коммуникативной цели, поскольку участники общения стремятся к четкому выражению своих мыслей и успешному взаимодействию. Кроме того, развитие аналитического мышления у студентов способствует более осознанному подходу к процессу коммуникации и повышает их способность к интерпретации различных речевых ситуаций. Включение элементов анализа речевых ситуаций и практики коммуникативного взаимодействия способствует углублению понимания норм языкового поведения и этики общения. Таким

образом, формирование комплексной коммуникативной компетенции представляет собой ключевой аспект успешного обучения русскому языку как иностранному и открывает возможности для культурной интеграции и международного общения. В конечном итоге, интеграция лингвистических и социокультурных аспектов в образовательный процесс поможет студентам более эффективно взаимодействовать в многоязычной среде и способствует формированию межкультурной толерантности.

Дополнительно, важно учитывать, что коммуникативная культура включает в себя не только формальные аспекты, но и такие факторы, как эмоциональная интонация, контекстуализация и культурные особенности общения. Формирование этих навыков позволяет студентам не только осваивать язык, но и активно участвовать в культурном и социальном обмене, что является неотъемлемой частью их интеграции в новую языковую среду. Эффективная учебная программа должна сочетать теоретические и практические элементы, что позволит обучающимся развивать уверенность в своей способности общаться на русском языке в различных ситуациях [2].

Например, студенты должны осознать, что для создания художественного описания конкретного объекта, человека или явления необходимо использовать разнообразные прилагательные, тогда как описание трудового процесса требует употребления глагольных форм. Такой подход придаст работе по развитию речевых навыков целеустремленность, так как у обучающихся будет активно формироваться набор специализированных речевых умений. В результате, это не только позволит им улучшить качество своих высказываний, но и укрепит их уверенность в использовании языка в различных коммуникативных ситуациях.

Анализ целей, содержания и структуры социокультурного компонента, а также критериев его усвоения показывает, что центральным элементом этого компонента является текст или система тематически объединенных русскоязычных текстов. Учебный текст должен занимать ключевое место в каждом занятии, вне зависимости от его темы, целей, этапа обучения или типа урока, что соответствует принципам функционального подхода к изучению языка. Реализация данного подхода включает формирование речевых и коммуникативных навыков через работу с текстами, что подразумевает как анализ существующих материалов, так и создание собственных высказываний различных стилей и жанров. Важно также разнообразие текстов, поскольку это обогащает образовательный процесс и углубляет понимание культурных аспектов языка. Кроме того, работа с текстами способствует развитию критического мышления, что необходимо для успешной коммуникации в различных жизненных ситуациях.

Это подчеркивает, что активное взаимодействие со словесными материалами является ключевым для развития навыков эффективного общения. Кроме того, такой подход способствует более глубокому пониманию языковых структур и культурных контекстов, что, в свою очередь, обогащает лексический запас студентов.

Наконец, систематизация знаний о различных аспектах языка, сочетающаяся с практическими упражнениями, позволяет студентам уверенно применять эти знания в реальных ситуациях и развивать свою коммуникативную компетенцию [7, с. 81].

Социокультурный подход в языковом образовании акцентирует внимание на изучении языка в контексте уникальной и значимой культуры, сформированной русским народом на протяжении всей его истории. «Национальная культура находит свое отражение в мифологии, традициях и обычаях, а также в устном народном творчестве, и она дополнительно осуществляется через переводы литературных произведений других народов». Этот подход подчеркивает важность культурной среды как неотъемлемой части языкового обучения, позволяя студентам не только осваивать языковые структуры, но и глубже понимать культурные и исторические контексты, в которых эти структуры функционируют [7, с. 80].

Нерусскоязычные обучающиеся осваивают иностранную культуру через призму сопоставления, что позволяет им осознать различия и границы между своими и чужими культурными традициями, каждая из которых обладает своей индивидуальностью и уникальностью. Процесс погружения в другую культуру невозможно реализовать без формирования внутренней толерантности и доброжелательности.

Кроме того, сопоставительный анализ культур способствует расширению кругозора студентов и развивает их критическое мышление, позволяя им воспринимать разнообразие культур как ценность. Важным аспектом этого процесса является формирование умения учитывать и уважать различные культурные взгляды и практики, что в свою очередь улучшает межкультурные коммуникации. Таким образом, данный подход не только способствует языковому обучению, но и формирует более открытое и уважительное отношение к многообразию мировых культур.

Личностно ориентированный подход к изучению языка основывается на создании оптимальных условий и благоприятной среды для всестороннего речевого развития обучающихся. Педагог в рамках данного подхода поощряет студентов и оказывает им поддержку в определении индивидуальных учебных целей, а также в планировании и организации деятельности, направленной на их достижение, по мере готовности к самостоятельному обучению.

Такой подход позволяет учитывать уникальные потребности и интересы каждого ученика, что способствует повышению мотивации и эффективности обучения. Кроме того, он способствует развитию самостоятельности обучающихся в образовательном процессе, укрепляя их позицию как активных участников обучения. Важным аспектом является создание атмосферы поддержки и взаимодействия в аудитории, что улучшает общение и сотрудничество между всеми участниками образовательного процесса [4]. Наиболее эффективными для внедрения данного подхода являются методы и формы работы, такие как: дискуссии, ролевые игры, групповые и парные формы

взаимодействия, управляемые исследования, контракты, проекты, самостоятельные поисковые задания, а также методы самооценки и другие.

Компетентностный подход акцентирует внимание на результатах образовательного процесса, который определяется через призму приобретённых коммуникативных навыков и умений их применения в практическом общении. Следует подчеркнуть, что на текущий момент отсутствуют эффективные инструменты для оценки уровня развития этих навыков и умений. В условиях, когда главной целью современного языка образования является формирование коммуникативной компетенции, реализация компетентностного подхода становится приоритетным направлением в преподавании русского языка как иностранного.

В заключение, изучение русского языка как иностранного представляет собой многоступенчатый процесс, состоящий из трех основных уровней подготовки, каждый из которых играет важную роль в формировании языковых и коммуникативных навыков студентов. Начальный уровень, продолжительностью от двух до трех месяцев, закладывает основополагающие навыки восприятия речи и обогащает словарный запас, что критически важно для дальнейшего обучения.

Средний уровень обучения углубляет эти навыки, позволяя студентам ориентироваться в разных стилях языка и эффективно взаимодействовать в бытовых ситуациях через чтение адаптированной литературы и научных текстов. Основной уровень подготовки, охватывающий длительный период, фокусируется на более сложных аспектах языка и его культурной значимости, что обеспечивает студентов глубокими знаниями и уверенными навыками в речевой деятельности. Понимание взаимосвязи языка и культуры является ключевым аспектом, обобщающим процесс обучения, поскольку оно помогает студентам интегрироваться в русскоязычное общество и осваивать культурные особенности, такие как обычаи и нормы этикета. Использование материалов по лингвострановедению в обучении облегчает переход нерусскоязычных студентов в новую культурную среду, обогащая их опыт и способствует развитию межкультурной компетенции. Этот подход не только формирует практические языковые навыки, но и способствует более глубокому пониманию культурного наследия России. Важно, чтобы выбранные учебные материалы соответствовали интересам и потребностям студентов, а также образовательным целям, что создаст условия для успешного обучения и эффективной коммуникации. Таким образом, целенаправленный выбор текстов и подход к обучению служат важным шагом на пути к качественной подготовке студентов в области русского языка как иностранного.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Дейкина, А. Д. Формирование языковой личности с ценностным взглядом на русский язык: методологические проблемы преподавания русского языка / А. Д. Дейкина. Москва; Оренбург: Пресса, 2009. 308 с. Текст: непосредственный.
2. Джураева, З. Р. Современные методы преподавания иностранных языков. Коммуникативный системно-деятельностный метод / З. Р. Джураева, Д. С. Салихова. Текст: электронный // Наука. Мысль. 2014. Т. 4, № 6. С. 48–51. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-metody-prepodavaniya-inostrannyh-yazykov-kommunikativnyy-sistemno-deyatelnostnyy-metod>.
3. Красных, В. Лингвокогнитивная природа воспроизводимости в свете психолингвокультурологии / В. Красных. Текст: непосредственный // Мир русского слова. 2014. № 2. С. 9–16.
4. Лазарева, О. А. Лексическое знание в процессе обучения иностранных студентов русской лексике: структура и форма репрезентации / О. А. Лазарева. Текст: непосредственный // Вестник Московского государственного гуманитарного университета им. М. А. Шолохова. Филологические науки. 2012. № 1. С. 94–106.
5. Мильруд, Р. П. Актуальные проблемы методики обучения иностранным языкам за рубежом / Р. П. Мильруд. Текст: непосредственный // Иностранные языки в школе. 2004. № 3. С. 34–40.
6. Преподавание русского языка в школе и вузе в контексте межкультурной коммуникации: материалы международной научно-практической конференции. Москва: Изд-во Моск. пед. гос. ун-та; Ярославль: РЕМДЕР, 2010. 516 с. Текст: непосредственный.
7. Шульгина, Н. П. Когнитивная модель преподавания лексики как способ реализации инновационных подходов обучения в курсе РКИ / Н. П. Шульгина, И. А. Комарова. Текст: непосредственный // Известия Юго-Западного государственного университета. Сер.: Лингвистика и педагогика. 2016. № 1. С. 78–89.



XALQARO TADQIQOTLARDA O‘QUVCHILARNING TABIIY FANLAR BO‘YICHA SAVODXONLIGINI BAHOLASH

Ataqulova Manzura Nematovna
Navoiy davlat universiteti dotsenti
Murtazayeva Fazilat Bahodir qizi
Mustaqil tadqiqotchi
manzuraatakulova2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro darajada olib borilayotgan PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlari doirasida o‘quv jarayonida, biologiya darslarida PISA topshiriqlaridan foydalanish imkoniyatlari va samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Tadqiqot, innovatsion taraqqiyot, xalqaro baholash, o‘qish savodxonlogi, ta’lim sifatini baholash, pedagog kadrlarning malakasini oshirish, pedagogik kuzatuv, falsafaviy qarashlar, g‘oyalar, ilovalar, test, topshiriq, iqtisodiy hamkorlik.

Аннотация: В статье анализируются возможности и эффективность использования заданий PISA на уроках биологии в образовательном процессе в рамках исследования PISA (Программа международной оценки образовательных достижений учащихся), проводимого на международном уровне.

Ключевые слова: Исследования, инновационное развитие, международная оценка, грамотность чтения, оценка качества образования, профессиональное развитие педагогических кадров, педагогическое наблюдение, философские взгляды, идеи, приложения, тест, задание, экономическое сотрудничество.

Abstract: The article analyzes the possibilities and effectiveness of using PISA buildings in biology lessons in the educational process within the framework of the PISA (Programme for International Student Assessment) study, conducted at the international level.

Key words: Research, innovative development, international assessment, reading literacy, education quality assessment, professional development of teaching staff, pedagogical observation, philosophical views, ideas, applications, test, task, economic cooperation.

Kirish. Globallashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo‘ymoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarining o‘rni beqiyos. Bunday

raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson va uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug‘vor vazifalar turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘shirib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, *O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish* hamda xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda,

zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta‘lim dasturlari va yangi davlat ta‘lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini, ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro

PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

– O‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur (The Programme for International Student Assessment –PISA);

– Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi (Progress in International Reading and Literacy Study – PIRLS);

– O‘quvchilarning matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash dasturi (Trends in International Mathematics and Science Study – TIMSS)[3];

Shuningdek, mazkur tizimda ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi yoshlarning ilmiy– tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq.

PISA (Xalqaro o‘quvchilarning ta‘lim yutuqlarini baholash dasturi) — Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan har uch yilda bir marta tashkil etiladigan xalqaro tadqiqotdir. Bu dastur 15 yoshli o‘quvchilarning funksional savodxonlik darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, ularning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha real hayotga yaqin vaziyatlardagi bilim va ko‘nikmalarini baholaydi. PISA ta‘lim sifatini xalqaro miqyosda solishtirish imkonini beradi va ishtirokchi davlatlarga ta‘lim siyosatini takomillashtirishda muhim ma‘lumotlar taqdim etadi.

Material va metodlar. Zamonaviy ta‘lim tizimida biologiya fanini o‘qitishning sifatini oshirish va o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish o‘quv jarayonini

standartlashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini global mezonlar asosida aniqlash va ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. PISA, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini sinovdan o‘tkazish, balki ta’lim tizimining samaradorligini baholashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu dasturlar o‘quvchilarning Tabiiy fanlar (biologiya) bo‘yicha fundamental tushunchalarini, ilmiy metodologiya va amaliy tajribalarni egallash darajasini aniqlashga xizmat qiladi[2].

Xalqaro baholash tizimlarini tabiiy fanlar miqiyosida integratsiya qilish o‘qituvchilar uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash imkonini yaratadi. Bu esa biologiya, kimyo, fizika fanlarining o‘quv jarayonidagi o‘rnini yanada mustahkamlab, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, xalqaro baholash dasturlarining qo‘llanilishi ta’lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirishga yordam beradi. O‘quvchilar ilmiy loyihalarda ishtirok etish, laboratoriya ishlarini bajarish va analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali chuqurlashtirilgan bilimga ega bo‘ladilar. Bu jarayon o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini kengaytirib, ularning kelajakdagi akademik va kasbiy yo‘nalishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, xalqaro baholash tizimlari orqali olingan natijalar ta’lim tizimining kuchli va zaif jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa o‘qituvchilar va ta’lim muassasalariga o‘quv dasturlarini optimallashtirish, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish hamda tabiiy fanlar (biologiya) darslarini yanada samarali tashkil qilish imkonini yaratadi. Umuman olganda, biologiya fanini xalqaro baholash tizimlari asosida rivojlantirish o‘quvchilarni global fan va ilmiy hamjamiyatga mos tayyorlash, ularning zamonaviy ilm-fan bilan hamohang bo‘lishini ta’minlash va ta’lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o‘tkaziladigan PISA tadqiqotiga ilk bor 2022-yilda qo‘shilgan. Tadqiqot davomida savodxonlikning uchta yo‘nalishi: o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha 80 dan ortiq davlatdan bo‘lgan 15 yoshdagi o‘quvchilarning ko‘nikmalari va bilimlaridan foydalanish qobiliyati baholangan. O‘zbekiston 2025 yil ikkinchi bor Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturida (PISA) ishtirok etmoqda. Loyiha yana Jahon banki tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. PISA-2025 ning pilot testlari joriy yilning may oyida bo‘lib o‘tadi. Hozirda ta’lim sohasi mutaxassislari metodologiya bilan tanishmoqda[1].

Olingan natijalar va muhokama. Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi: Hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasi. Bu xulosalar atrofimizdagi olamni tushinish va inson faoliyati natijasida unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglab yetish, shunga ko‘ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish bu bo‘limning asosiy maqsadidir[6].

PISAda ilmiy savodxonlik o‘quvchilar tomonidan savollar berish, yangi bilimlarni egallash, jarayonga kreativ yondashish, ilmiy hodisalarni dalillar asosida tushintirish hamda xulosalash asosida idindifikatsiya qilinadi va tavsiflanadi. PISA testlari – bu o‘quvchilarning

fan bo‘yicha nazariy bilimlarini emas, balki ularni kundalik hayot va real dunyo muammolarida qo‘llash qobiliyatini baholashga yo‘naltirilgan xalqaro baholash tizimidir. Zoologiya fanida PISA testlarini qo‘llash o‘quvchilarning hayvonot olamiga oid tushunchalarini amaliy vaziyatlarda tahlil qilish, muammolarni yechish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Bunda kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan eng muhim ko‘nikmalardan biridir. **Masalan: Test mavzusi: Suvda va quruqlikda yashovchilar**



(amfibiylar)

Matni: Amfibiylar – bu suvda ham, quruqlikda ham yashay oladigan umurtqali hayvonlardir. Ular hayotining dastlabki bosqichida suvda yashaydi va nafas oladi, voyaga yetgach, ko‘pchiligi quruqlikda ham, suvda ham yashay oladi. Qurbaqalar, salamandrlar va tritonlar amfibiylarning eng mashhur vakillaridir. Amfibiylar – ekologik muvozanat uchun muhim bo‘lgan hayvonlar. Ular ham hasharotlar, ham boshqa kichik hayvonlar bilan oziqlanadi, va o‘zlari ko‘plab yirtqichlar uchun o‘lja bo‘lib xizmat qiladi. Amfibiylar, shuningdek, suv va havoning tozaligini “indikator” sifatida baholashda ham muhimdir.

1-savol (tanlash savoli). Amfibiylar hayotining dastlabki bosqichida qanday yashaydi va nafas oladi?

- A) Faqat quruqlikda, o‘pkasi bilan
- B) Suvda, terisi va jabhra (gill)lari bilan
- C) Quruqlikda, terisi bilan
- D) Faqat suvda, o‘pkasi bilan

2-savol (ochiq savol). Amfibiylar nega ekologik muvozanat uchun muhim hisoblanadi? Kamida ikki sabab yozing.

3-savol (tanlash savoli). Amfibiylarning ko‘pchiligi voyaga yetgach qanday yashaydi?

- A) Faqat suvda
- B) Suvda ham, quruqlikda ham
- C) Faqat quruqlikda
- D) Faqat tog‘larda

4-savol (ochiq savol). Nima uchun amfibiylarni “indikator organizmlar” deb atashadi? Qisqacha tushuntiring.

5-savol (tanlash savoli). Quyidagilardan qaysi biri amfibiyalarga misol bo‘la oladi?

- A) Qurbaqa
- B) Kapalak

C) Ilon

D) Kaplumbaqa

6-savol (ochiq savol). Amfibiyalarning soni kamayishi tabiat va inson hayotiga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin? Kamida ikki misol yozing.

PISA testlari yordamida o‘quvchilar faqat yodlashga emas, balki hayvonlarning turli xususiyatlari, ularning muhitga moslashuvi, biologik jarayonlar va ekologik munosabatlar haqida chuqurroq anglashga undaladi. Bu testlar o‘quv jarayonida interfaol metodlarni qo‘llashga imkon yaratadi, shu bilan birga ta’lim sifatini oshirishga va o‘quvchilarni mustaqil o‘ylashga rag‘batlantiradi.

Masalan: Test mavzusi: Sudralib yuruvchilar mavzusida matn va diagramma asosida

Matn: Sudralib yuruvchilar suvda va quruqlikda yashashi mumkin. Ularning terisi doim nam bo‘lib, kislorod olishga yordam beradi. Bu hayvonlar nafas olish uchun nafaqat o‘pkalaridan, balki terilaridan ham foydalanadi.

Diagramma:

(1) O‘pka orqali nafas olish

(2) Teri orqali nafas olish

Hayvonlar	O‘pka nafas olish (%)	Teri nafas olish (%)
Sudralib yuruvchilar	60%	40%
Baliqlar	90%	10%

Savol: Sudralib yuruvchilarning nafas olish usullarini diagrammadagi ma’lumotga qarab taqqoslang. Ularning suv va quruqlikda yashashiga qanday ta’siri bor?

- A) Ular faqat suvda nafas olishga moslashgan.
- B) Ular teri orqali ham kislorod olgani uchun quruqlikda ham yashay oladi.
- C) Ular faqat o‘pkalar orqali nafas olishadi, shuning uchun suvda yashay olmaydi.
- D) Ularning nafas olish tizimi baliqlarnikidan farq qilmaydi.

2. Grafik asosida savol. **Grafik:** Sudralib yuruvchining harakat qilgan masofasi soatlab o‘lchanmoqda.

Soat	Masofa (metr)
1	50
2	90
3	120
4	160

Savol: Grafikka qarab, sudralib yuruvchi harakatining o‘rtacha tezligini hisoblang.

A) 40 m/soat

B) 50 m/soat

C) 60 m/soat

D) 70 m/soat

3. Savol. Sudralib yuruvchilarning terisi doim nam bo‘lishi ularning suv va quruqlikda yashashiga yordam beradi. Teri nafas olish uchun muhimdir.

Savol:

Nima uchun sudralib yuruvchilarning terisi doim nam bo‘lishi kerak?

A) Terining namligi bakteriyalar ko‘payishini oldini oladi.

B) Terining namligi kislorod almashinuviga yordam beradi.

C) Terining namligi ularni quruqdan himoya qiladi.

D) Terining namligi ularni issiqdan saqlaydi.

4. **Eksperiment asosida savol.** Tadqiqotda sudralib yuruvchilarning nafas olish qobiliyati suvda va quruqlikda o‘lchanmoqda. Ular suvda teri orqali ko‘proq kislorod oladilar.

Savol: Nima uchun sudralib yuruvchilar suvda teri orqali ko‘proq nafas olishga muhtoj?

A) Suvda o‘pka yaxshi ishlamaydi.

B) Suvda kislorod miqdori kamayadi.

C) Suvda teri ko‘proq kislorod olishi mumkin.

D) Suvda nafas olish qiyin.

Shuningdek, PISA testlari o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun o‘z bilimlarini baholash va o‘z-o‘zini tahlil qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu orqali ta’lim dasturlari kamchiliklari aniqlanib, ularni takomillashtirish uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Zoologiya fanida PISA testlaridan foydalanish natijasida o‘quvchilar ilmiy asoslangan, tanqidiy fikrlashga ega, ekologik ongli va amaliy bilimlarni o‘zlashtirgan shaxslar sifatida shakllanadi[5]. PISA testlari Biologiya fanlarini yanada qiziqarli, interfaol va samarali qilishda muhim vosita bo‘lib, o‘quvchilarning fan va tabiatga bo‘lgan qiziqishini oshirishga katta hissa qo‘shadi. PISA testlari o‘quvchilarning o‘qish, matematika va fan sohalaridagi real hayotga mos ko‘nikmalarini baholashga qaratilgan bo‘lib, ularning bilim va malakalarini xalqaro miqyosda taqqoslashga xizmat qiladi. Tadqiqotda PISA topshiriqlarining o‘quv jarayonida o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va mustaqil o‘rganishga rag‘batlantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, PISA testlaridan foydalanish orqali ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish hamda o‘qitish metodikasini rivojlantirish mumkinligi ta’kidlanadi. Ushbu yondashuv, ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va zamonaviy talablarga javob beradigan bilim berish tizimini yaratishda muhim vosita sifatida ko‘riladi.

Xulosa. O‘quvchilarni tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini oshirishda o‘qitishning mazmuni faqat bilim berish bilan cheklanmay, o‘quvchilarning tahliliy fikrlash, izlanish va yangi g‘oyalar ishlab chiqish qobiliyatlarini ham shakllantirish muhim sanaladi. Xususan biologiya fanining xususiyatlari asosida ijodiy yondashuvlarni qo‘llash zarurligini taqozo etadi. Shu jihatdan o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish uchun o‘quv jarayonida xalqaro baholash tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi.

Umuman olganda xalqaro tadqiqotlar orqali o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligi baholanadi. Natijalar xalqaro miqyosda ta’lim sifatini tahlil qilish va ta’lim islohotlarini rejalashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu esa O‘zbekiston ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari
2. “PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari”: To‘plam – “Axborot-tahlil markazi” AQ. Astana. 2016-126 bet. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X
3. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy.
4. “PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari”: To‘plam – “Axborot-tahlil markazi” AQ. Astana. 2016-126 bet.
5. <http://www.tdi.uz/uz> Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
6. <http://markaz.tdi.uz/>– Ta’lim sifatini baholashda xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi



O‘RGANISH JARAYONI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Mustafoyeva Saidaxon Juma qizi

Farg‘ona davlat universiteti 22.118-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada o‘rganish jarayoni va unga ta’sir etuvchi omillar haqida ayrim mulohazalar keltirib o‘tilgan. O‘rganish jarayoni qaysi omillarga bog‘liq bo‘lishini batafsil yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘rganish, ta’sir, omil, qiziqish, muhit, til siyosati, til o‘rganuvchi.

Abstract: The article presents some considerations about the learning process and the factors that influence it. An attempt has been made to explain in detail the factors on which the learning process depends.

Keywords: learning, influence, factor, interest, environment, language policy, language learner.

Аннотация: В статье представлены некоторые наблюдения о процессе обучения и факторах, которые на него влияют. Сделана попытка подробно объяснить факторы, определяющие процесс обучения.

Ключевые слова: обучение, влияние, фактор, интерес, среда, языковая политика, изучающий язык.

KIRISH

Inson tug‘ilganidan buyon o‘rganadi. O‘rganish hayotning dastlabki yillaridan boshlanib, inson umrining oxiriga qadar davom etadi. Insoniyat nafaqat maktabda, yoki nimanidir emas, o‘zi bilgan va bilmagan holda o‘rganishda davom etadi. Insonlarning o‘rganish jarayoni davom etuvchan, rejalashtirilgan yoki rejalashtirilmagan bo‘lishi mumkin. Masalan o‘rganishning oddiy namunasi sifatida qo‘shnilarimizning ismlarini va yuz tuzilishlarini eslab qolishimiz, do‘stlarimizning telefon raqamlarini yodda saqlashimiz, kompyuterdan foydalanish yoki qahva tayyorlash jarayonini bilish ham ko‘rsatilishi mumkin. Shundan ko‘rinib turiptiki, jamiki insoniyat o‘rganuvchi hisoblanadi va biz ko‘p narsalarni deyarli qiyinchiliklarsiz o‘rganib boramiz.

ASOSIY QISM

Agar insonlar ma’lum berilgan mavzuni o‘rganishiga to‘g‘ri kelsa, agar bu o‘rganilayotgan ma’lumotlar keyinchalik test va imtihonlarda tekshirilishini bilsa, insonlar

bosim ostiga tushadilar va o‘rganish jarayoni qiyinlasha boshlaydi. Yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash uchun ma’lum o‘rganish harakatlarini amalga oshiriladi¹⁶⁷.

O‘qituvchilar bunday o‘rganish uchun amalga oshiriladigan harakatlarga ishonishadi. Maktablar esa yangi bilimlar taqdim etiladigan hamda o‘rganiladigan joy sifatida baholanadi. Bundan tashqari maktablarda yangi kompetensiyalar shakllantirilishi ham ko‘zda tutiladi. O‘qituvchilar esa bu jarayonda vositachi rolini ijro etadilar. Lekin bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat o‘quvchilarga o‘rganish jarayonida yordam beradi, nafaqat o‘zi ham yangi bilimlarni o‘zlashtirib boradi.

O‘rganish jarayoni qaysi omillarga bog‘liq?

Tillarni o‘rganishga ta’sir etuvchi omillar juda ham murakkab bo‘lib, dunyoning har bir burchagida unga bo‘lgan qarashlar ham boshqachadir. Dunyo bo‘ylab nafaqat ta’lim tizimi turlicha ko‘rinishga ega emas, balki tillarni o‘rganishga bo‘lgan munosabat, uning jamiyatdagi ahamiyati hamda roli ham turlicha. Dunyo bo‘ylab til darslari ham turlicha tashkil etiladi. Dars uchun qanday mavzular tanlab olinishi, qanday qo‘shimcha materiallardan foydalanish, qaysi imtihonga tayyorgarlik ko‘rish kabi omillar ham albatta o‘rganish jarayoniga ta’sir etmay qolmaydi.

Chet tillarni o‘rganish til o‘rganilayotgan mamlakatdagi til bilan bog‘liq siyosatga ham bog‘liq. Til bilan bog‘liq siyosat o‘rganilayotgan tilning shu jamiyatdagi ahamiyatiga bevosita bog‘liq. Bundan tashqari shu mamlakatda ta’lim muassasalarida qaysi tillarni o‘rganish taklif etiladi, nechta til o‘rganiladi, xorijiy tillarni o‘rgatish nechanchi sinfdan boshlanadi kabi savollar ham muhim ahamiyatga ega. Albatta bu jarayon har bir mamlakatda turlicha bo‘lishi tabiiy.

Til o‘rganuvchilarimiz nima uchun xorijiy tillarni o‘rganishadi?

Ehtimol sizga ham o‘quvchi yoki talabalar tomonidan *Nima uchun xorijiy tillarni o‘rganishim kerak? U menga nima beradi?* Degan savollar ko‘p berilgan bo‘lishi tabiiy.

Bizning fikrimizcha, xorijiy tillarni o‘rganishning bir qancha sabablari mavjud. Agar til o‘rganuvchilarning o‘zlari bilan til bilishning ahamiyati haqida muhokamalar o‘tkazib turilsa, bu ularning o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyalarini oshishiga xizmat qiladi.

Xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan asosiy sabablar deb quyidagilarni ko‘rsatish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- Xorijiy tillar dunyo bo‘ylab ko‘p odamlar tomonidan gapiriladi hamda tushuniladi;
- Til o‘rganuvchiga o‘rgangan xorijiy tili kelgusi ish faoliyatida kerak bo‘lib qolishi mumkin;
- Xorijiy tillar chiroyli jarangi bilan insonni o‘ziga jalb qiladi;
- O‘sha tilda gapiradigan do‘stlar orttirish imkoni paydo bo‘ladi;
- Til boshqa mamlakat madaniyatini o‘rganish uchun kalit sifatida xizmat qiladi;

¹⁶⁷ Ballweg und andere. Deutsch lehren lernen. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch. 2013. Munchen. S. 7

- Xorijiy tillarni biladigan insonlar jamiyatda o‘zlarini munosib o‘rinlarini tez topa olishadi;
- Xorijiy tillarni biladigan insonlar o‘zlarida mamnunlik hissini qolgan insonlarga qaraganda ko‘proq his qilishadi;
- O‘rganilayotgan xorijiy til gapiriladigan mamlakatga sayohat qilish osonlashadi;
- Xorijiy tillarni o‘rganish insonga zavq bag‘ishlaydi;
- Xorijiy tillar maktablarda majburiy fan hisoblanadi, shuning uchun ham ularni yaxshi o‘zlashtirish maqsadga muvofiq.

Yuqorida keltirilgan yoki boshqa omillar til o‘rganuvchilarning qaysi xorijiy tilni tanlashlarida asosiy mezon sifatida xizmat qilishi mumkin. Yoki xorijiy tillardan birini tanlashda ota-onaning qarori asosiy mezon bo‘lib xizmat qilgan bo‘lishi ham mumkin. Bunday tanlovlarda albatta tilning qanchalik dunyo bo‘ylab keng tarqalgani, ish bilan yoki shaxsiy sabablar ham rol o‘ynagan bo‘lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan ko‘p omillar tilning prestiji bilan bog‘liq bo‘lib, ba‘zi hollarda bu omillar e‘tiborga olinmasigi ham mumkin.

Bolalar yoki o‘smirlar ko‘pincha xorijiy tilni o‘rganishni tanlashda uni foydalanish ko‘lamiga uncha katta e‘tibor bermasliklari mumkin. Ko‘p maktablarda o‘quvchilarining xorijiy tillardan birini tanlash imkoni ham bo‘lmasligi mumkin. Chunki ba‘zi mamlakatlarda bir maktabda faqat bir xorijiy til o‘qitiladi.

Katta yoshdagilar esa ko‘pincha xorijiy tillardan birini tanlash kerak bo‘lganida o‘z qiziqish va ehtiyojlariga suyangan holda ish ko‘radilar¹⁶⁸.

Bugungi shiddatli dunyodagi globallashuv va migratsiya jarayoni ham dunyo aholisining katta qismini xorijiy tillarni o‘rganishiga sabab bo‘lmoqda. Kundan-kunga insoniyat tomonidan o‘rganilayotgan xorijiy tillar soni ortib bormoqda. Avvallari bir-ikki xorijiy tilni bilish bilan cheklanganlar, endilikda to‘rt, besh xorijiy tillarda erkin muloqot qilishni maqsad qilmoqda.

Dunyoda bugungi kunda multimillatli oilalar ko‘payib bormoqda, bunday oilalarda ulg‘ayayotgan bolalar kamida ikki tilda so‘zlasha oladilar. Bunday oila farzandlari kundalik hayotda ham ikki tilni o‘zaro, yonma-yon tarzda qo‘llab keladilar.

Bizning fikrimizcha, bizning til o‘rganuvchilarimiz ham imkon qadar bir qancha xorijiy tillarni o‘rganganlari maqsadga muvofiq, bu orqali ular o‘zlari uchun yangi gorizontlarni kashf qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Ular o‘zlari o‘rgangan tillardan nemis tilini o‘rganishda samarali foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

Xorijiy til o‘qituvchilaridan o‘z til o‘rganuvchilarini xorijiy tillar borasidagi bilimlarini hisobga olish yaxshi samara beradi. Bunda qaysi til o‘rganuvchilar nechta tilni bilishi, qaysi tilni qay darajada egallagani, ikki tilli oilada o‘sgani kabilarga e‘tibor berish muhim ahamiyatga ega.

¹⁶⁸ Ballweg und andere. Deutsch lehren lernen. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch. 2013. Munchen. S. 12

O‘rganuvchilar shunday xilma-xil bo‘lganligi sababli, ularni xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlari ham turlicha bo‘lishi tabiiy. Kimdir uyida ikki tilda gaplashib o‘sayotgan bo‘lsa, u xorijiy til darsida boshqa til o‘rganuvchilarga qaraganda yuqori potensialga ega bo‘lish ehtimoli yuqori. Bunday o‘quvchilar oldindan orttirilgan xorijiy til bilimlariga ega bo‘lishadi va bu bilimlarini darslarda o‘rganilayotgan mavzularga bog‘lashga harakat qilishadi. Ko‘p tillarni biladigan bolalar nafaqat tilning strukturasi va uni qo‘llanilishi haqidagi bilimlarga, balki xorijiy tilni qanday qilib samarali o‘rganish borasida ham ko‘nikmaga ega bo‘lishadi. Tillar ular uchun tanish muhitga aylanib ulgurgan bo‘ladi.

O‘zbek oilalarida ham ko‘p bolalar rus tili va o‘zbek tilini o‘rganib katta bo‘lishgan bo‘lsa, nemis tilini o‘rganishda kamroq qiyinchiliklarga uchraydilar. Bundan tashqari til o‘rganuvchilar qo‘shnilari, interndagi do‘stlari yoki televizor orqali boshqa tillardan ko‘nikmaga ega bo‘lgan bo‘lishlari ham mumkin. Bunday bilimlardan ham nemis tilini o‘rganishda foydalanish yaxshi samara beradi.

MUHOKAMA

Til o‘rganuvchilar nafaqat kelib chiqish mamlakatlariga qarab, balki tildagi oldin egallagan bilimlari va til o‘rganishga bo‘lgan asoslari, qiziqishlari, maqsadlari va o‘rganish ehtiyojlariga ko‘ra ham turlicha bo‘lishlari mumkin. Har bir til o‘rganuvchi tilni o‘rganishdan o‘ziga xos xususiyat kutadi, turli hil narsalardan motivatsiya oladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda xorijiy tillarni o‘rganishga ta’sir etuvchi omillarni quyidagicha tarzda aks ettirishimiz mumkin:



Rasm № 1. Xorijiy tillarni o‘rganishga ta’sir etuvchi omillar

Ushbu omillar ham turli olimlar yoki o‘qituvchilar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin. Buning sababi yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, har bir mamlakatda xorijiy tillarga turlicha e’tibor beriladi.

Har qanday omilni inobatga olgan holda xorijiy til darslarini tashkil etish albatta o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Insonlar juda ham yoshligidan, aniqrog‘i hayotga ilk qo‘ygan qadamidan o‘rganish jarayoniga qadam qo‘yadi. Masalan, chaqaloqlar yig‘lash yoki qichqirish yordamida atrofdagilarni o‘ziga jalb qilishni tezlik bilan o‘rganadilar. Yurishni, gapirishni, bundan tashqari qolganlar bolaga o‘rgatmasa ham boshqa harakatlarni o‘zlashtira boshlaydi. Lekin ko‘pincha o‘rganish degan so‘z ta‘lim muassasalari, maktab, oliy ta‘lim muassasasiga assotsatsiya qiladi. Aynan shu asos *o‘rganish* va *egallash* tushunchalari o‘rtasidagi mazmuniy chegarani qanday ma‘noli ekanligini ko‘rsatib turadi.

Agar kichik yoshdagi bola xorijiy tilni egallashni boshlasa, bunda *egallash* so‘zini ishlatishimiz ma‘qul bo‘ladi. Egallash jarayoni shartsiz jarayon bo‘lib, uning darsli jarayonlarga hech qanday aloqadorligi yo‘q. U tabiiy muloqot jarayonida shakllana boshlaydi. Bunday tabiiy muloqot jarayonida yoshi kattalar ham tillarni yaxshi egallashlari mumkin. Ular egallash jarayoni haqida tushunchaga ega bo‘lmagan holda, yangi tilda yangi bilim hamda ko‘nikmalarni egallay boshlaydilar¹⁶⁹.

O‘rganish jarayoni esa egallashga qarama-qarshi qo‘yilgan holda darslar yordamida amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Bu jarayon o‘qituvchi shaxsi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, turli o‘quv materiallari, turli ijtimoiy shakllar yordamida tashkil etiladi. O‘qituvchi oldindan rejalashtirilgan holda o‘z o‘quv faoliyatini tashkil etadi va til o‘rganuvchilar kutilgan natijaga erishishlari uchun ma‘lum qoidalar joriy etiladi. Bu jarayon albatta o‘z samarasini beradi. Bu samaraga erishish jarayoni ham o‘qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. Darsda orttirilgan tajribalar yordamida til o‘rganuvchilarning bilim, ko‘nikma hamda malakalari shakllanib, sayqallanib boradi.

Juda qadimdan insoniyat o‘rganish qanday jarayon ekanligiga, u qanday ishlashiga qiziqib keladi. Shunga qaramasdan bugunga qadar bu jarayonni aniq asoslab beruvchi ilmiy xulosalar keltirib o‘tilmagan.

Insonlar o‘rganishning faqat o‘ziga ma‘lum tomonlarigagina ta‘rif bera olishi mumkin. O‘rganishning ko‘p qismi esa bayon qilib, tushuntirib bo‘lmaydigan jarayon sifatida baholanadi. Inson o‘z miyasi yordamida o‘rgangan narsalarini ba‘zan bilib tushunadi, ba‘zan bu qanday kechganiga e‘tibor ham bermaydi. Lekin miya o‘z vazifasini bajarib boravedi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda kompyuter va zamonaviy texnologiyalar yordamida miyaning qanday faoliyat yuritishini aniqlashtirish yuzasidan juda ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa o‘rganish aktiv jarayon ekanligini, olam bilan o‘zaro aloqadorlikda yuz berishini bilib olish mumkinligi imkonini bermoqda.

¹⁶⁹ S.Ballweg und andere. Deutsch lehren lernen. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch. 2013. Munchen. S. 15

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ballweg S und andere. Deutsch lehren lernen. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch. 2013. Munchen. S. 199.
2. Kurtz J. Nachhaltigkeit als Leitmotiv des schulischen Fremdsprachenunterrichts //Entwicklung von Nachhaltigkeit beim Lehren und Lernen von Fremd-und Zweitsprachen, Tübingen: Narr Francke Attempto. – 2021. – С. 89-99.
3. Fritz J. Fremdsprachenunterricht aus Schülersicht: eine qualitative Untersuchung zum Unterrichtserleben von Französisch-und Spanischlernenden am Ende der Sekundarstufe I. – Narr Francke Attempto Verlag, 2020.
4. Reichelt M. Motivation und forderung von lernleistung im universitären fremdsprachenunterricht //Науковий вісник Національного університету біоресурсів і природокористування України. Серія: Педагогіка, психологія, філософія. – 2013. – №. 192 (2). – С. 96-102.
5. İşigüzel B. Die motivation: das Hormon des Fremdsprachenunterrichts //Mersin Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi. – 2011. – T. 7. – №. 1. – С. 29-41.

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI**
(2025-yil 5-son)



**PEDAGOGIKA
PEDAGOGY**

KEPLER QONUNLARI VA SAYYORALAR KONFIGURATSIYASI LABORATORIYA ISHINI “SOLAR SYSTEM SCOPE” DASTURIDA TASHLIK ETISH

*Isomaddinova Umida Mamurjonovna, QDU (PhD)
Azamjon Ergashev Anvarjon o‘g‘li, 1-bosqich magistr
umidaisomaddinova0@gmail.com*

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada, Oliy ta’limda umumiy astronomiya fanini o‘qitishda virtual “**Solar System Scope**” dasturidan foydalanib Kepler qonunlari va sayyoralar konfiguratsiyasi laboratoriya ishini tashkil etishda uslubiy ko‘rsatmalari ishlab chiqilgan bunda dasturni o‘rnatish tartibi va undan foydalanish keltirilgan. Kepler qonunlari va sayyoralar konfiguratsiyasi laboratoriya ishini virtual “**Solar System Scope**” dasturida bajararish ketma-ketligi, shu bilan birgalikda olingan natijalar va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar : virtual, virtual laboratoriya, , Solar System Scope, Quyosh sistemasi, gallaktikalar, Merkuriy, Vnera, Yer, orbita, konfiguratsiya, sharqish elongatsiya, g‘arbiy elongatsiya, konfiguratsion vaziyatlar, PC qurilmasi Windows10+

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)

Jamiyatning axborotlashuvi inson faoliyatining barcha sohalariga intellektual mehnat quroli sifatida axborotlarni tezkorlik bilan yig‘ish, qayta ishlash hamda jarayon, voqea va hodisalarni modellashtirish, ularni tahlil qilish imkonini beruvchi kompyuterlashtirilgan texnologiyalarning kirib kelishini anglatadi. Chunki, hozir inson tomonidan to‘planayotgan bilimlar hajmi nihoyatda yuqori suratlar bilan ortib bormoqda. Ayniqsa ta’lim sohasining kompyuterlashtirilishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Lekin astronomiyada fanini o‘rganishda biz tajribalar metodini qo‘llay olmaymiz. Astronomiya fanini o‘rganishda biz ko‘proq tasavvurlarimizga suyanamiz. Bu esa o‘qituvchining mahorati va talabning fikrlash doirasi kengligining uyg‘unligiga bog‘liq.

Astronomiya fanini o‘qitish jarayonida biz, o‘quvchilarni koinot uzra sayohatga olib chiqa olmaymiz. Lekin zamonaviy qurilmalar va dasturiy vositalar yordamida biz Koinotni virtual ravishda kuzatishimiz mumkin. Buning uchun bizga kompyuter dasturlari yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / LITERATURE REVIEW) [1]

1.Mamadazimov M., Umumiy astronomiya (universitetlar va pedgogika oliy o‘quv yurtlari uchun darslik). – T.: “Yangi asr avlodi”, 2008 y.

Mazkur Umumiy astranomiya kitobida Quyoshning chiqish va botish vaqtlaridagi va azimutlarini hisoblash uichun nazariy formulalar hamda boshlang‘ich tushunchalar keltirilgan. [1]

2.Mamadazimov M. “Astronomiya” (AL va KHKlari uchun darslik). –T.,O‘qituvchi, 2007 y.

Quyidagi adabiyotdan Kepler qonunlari va sayyoralarni konfiguratsion vaziyatlari haqida ma’lumotlar va nazariy bilimlar mavjud.Bu laboratoriya ishlarini bajarish uchun zarur ma’lumotlar keltirilgan. [1]

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

SolarSystemScope dasturini tuzulishi :

Ishning bajarish tartibi :

Ishni boshlashdan oldin **SolarSystemScope** dasturi to‘liq o‘rganib chiqish talab qilinadi.Demak Keplerning birinchi qonuni bo‘yicha ishni boshlaymiz.(1-rasm)



1-rasm

Haqattan ham ko‘rish mumkinki har qandanday osmon jismi albatta elepsimon traektoriya bilan harakatlanmoqda.

Ichki va tashqi sayyorlarni **SolarSystemScope dasturida** konfiguratsion vaziyatini aniqlash va kuzatish:


Birinchi novbatda **SolarSystemScope dasturi** ishga tushiriladi.(2-rasm)



2-rasm


Keyingi qadamda ko‘rish manzarasini quyidagi holatga keltirib olinadi .

(3-rasm)




3-rasm

Bundan keyin esa, berilgan biror bir sana misol uchun 14.08.2023yil sanasini tanlab olinadi .(4-rasm)



4-rasm

Quyidagi amal bajarilgandan so‘ng Yer sayyorasi quyi tomonga olib o‘tiladi. (5-rasm)



5-rasm

(5-rasm) da Ichki planetalardan biri Veneraning konfiguratsion vaziyati quyi qo‘shilishda ekanligi ko‘rish mumkin. Merkuriy planetasining bu sanadagi vaziyati sharqiy elongatsiyadagiligi ko‘rish mumkin. Aynan shu tarzda vaqtni o‘zgartirgan holda har qanday ichki yoki tashqi sayyoralrning konfiguratsion vaziyatlarini **SolarSystemScope dasturida** kuzatish va tahlil qilish mumkin. Bu dastur Kepler qonunlari va sayyoralar konfiguratsiyasi laboratoriya ishini talabalar ko‘z oldiga keltirishiga juda katta xissa qo‘shadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

O‘quv jarayonida astronomiyaning xar bir mavzusiga yangi o‘qitish usulini kashf etish eng dolzarb muammodir. Bu bevosita dars jarayonining isloh qilinishi bilan bog‘liqdir, ya’ni, o‘quv materiallariga innovatsion yondashuv asosida o‘rganiladigan mavzuni o‘quvchilar tomonidan xaqiqiy bilish imkoniyatlariga mos keladigan yangicha o‘qitish usulini joriy etishdan iborat bo‘ladi. Astronomiya fanini pedagogik dasturiy vositalar asosida o‘qitishda o‘quvchilarning intellektual salohiyatlarini rivojlanishiga yo‘naltirilgan ilmiy-uslubiy tadqiqotlar eng muhim dolzarb muammolar bo‘lib, astronomik hodisaning kompyuter modellari orqali o‘quvchilarning tafakkurlari rivojlantiriladi. Hozirgi paytda astronomik hodisalarning modellarini, virtual astronomiya tajribalarni kompyuter texnologiyalari yordamida bajarish oliy ta’lim talabalarining intellektual salohiyatlarini rivojlanishiga amaliy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Masofaviy virtual laboratoriya - bu turli ilmiy markazlarga tegishli bo‘lgan va internet orqali o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha olimlarning guruhli tashkiliy tuzulmasi. An’anaviy laboratoriya ishi bilan taqqoslaganda, virtual laboratoriya ishi bir nechta afzalliklarga ega.

➤ Birinchidan, Beshinchidan Oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talabar uchun an’anaviy laboratoriya ishlari bajarish uchun ko‘proq vaqt sarflanadi, virtual laboratoriyalarda esa buni mutlaqo aksi bo‘lib vaqt boshqarilishi va biz istalgan paytdagi vaqtni tanlab olib o‘zgartirishimiz mumkin.

➤ Ikkinchidan, qimmat uskunalar va xavfli materiallarni sotib olishning hojati yo‘q. Virtual laboratoriya ishi esa kamsarf, ko‘z bilan kuzatish mumkin bo‘lmagan obyektlarni kuzatishga imkon beradi.

➤ Uchinchidan, laboratoriyada ishi mavjud bo‘lmagan jarayonlarni tahlil qilish mumkin. Xususan, kosmonavtika va astrofizika klassik laboratoriya ishlarining aksariyati yopiq tizimlar bo‘lib, ularning chiqishida ma’lum kosmonaftik elementlar kerak bo‘ladi. Astronomiyaning ushbu sohalarida virtual laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida talabalar o‘rganilayotgan fizik-kimyoviy hodisalar va real tajribada kuzatib bo‘lmaydigan jarayonlarning dinamik rasmlarini kuzatish uchun animatsion modellardan foydalanishlari mumkin, shu bilan birga, eksperiment bilan bir qatorda fizik miqdorlarning mos keladigan grafik tuzilishini kuzatishlari mumkin.

➤ To‘rtinchidan, virtual laboratoriya ishi an’anaviy laboratoriya ishlariga qaraganda samaraliroq hisoblanadi. Bu bitiruv malakaviy ishida asosan ikki virtual dasturlardan

foydalangan holda oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi ikkinchi kurs talabalarining an’anaviy ishlarini virtual tarzda bajargan holatda virtual laboratoriya ishlari an’anaviy laboratoriya ishlariga qaraganda ancha talabalar uchun foydaliroq va samaraliroq ekanligini guvohi bo’ldik.

➤ Beshinchidan, agarda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun an’anaviy laboratoriya ishlari virtual laboratoriyalar bilan bir-biriga o‘zaro bog‘lab tushintirilsa talabalarning astronomiya faniga qiziqishi anchagina ortishi va bilimlari mukammallashishi hamda ilmiy dunyoqarashi rivojlanishiga anchagina hissa qo‘shgan bo‘lar edik.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

- 1.Mamadazimov M., Umumiy astronomiya (universitetlar va pedgogika oliy o‘quv yurtlari uchun darslik). – T.: “Yangi asr avlodi”, 2008 y.
- 2.Mamadazimov M. “Astronomiya” (AL va KHKlari uchun darslik). –T.,O‘qituvchi, 2007 y.
- 3.Mamadazimov M., Tillaboyev A va boshqalar. “Umumiy astronomiyadan laboratoriya ishlari” T., TDPU 2015 y.
- 4.A.E.Roy and D.Clarke Astronomy Principles and practice 2000 y.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

MEXANIKA BO‘LIMIGA DOIR MASALALAR YECHISH METODIKASI VA UNI UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Toxirova Maxfuzaxon Otaqo‘ziyevna,
Qo‘qon davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Gmail: mahfuzaxontohirova@mail.ru
Tel raqam: +99890 293 87 21

Annotatsiya: Ushbu maqola “Mexanika” bo‘limiga doir masalalar yechish metodikasi va uni umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari, fizikaning eng dolzarb va qiziqarli sohalaridan biri bo‘lgan mexanika bo‘limiga doir masalalar va ularni umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida qanday qilib samarali o‘qitish mumkinligi haqida fikrlar bayoni keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Integratsiya, STEAM, grafik, eksperimental, kompetensiya, sxema, jadval, mexanika, matematik usul.

МЕТОДИКА РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ ПО РАЗДЕЛУ ФИЗИКИ «МЕХАНИКА» И СПЕЦИФИКА ЕЕ ПРЕПОДАВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация: В статье представлена методика решения задач по разделу «Механика» и особенности его преподавания в общеобразовательных средних школах, а также изложены идеи о том, как эффективно преподавать задачи по разделу механика — одному из самых актуальных и интересных направлений физики.

Ключевые слова: Интеграция, STEAM, графический, экспериментальный, компетенция, схема, таблица, механика, математический метод.

METHODOLOGY FOR SOLVING PROBLEMS IN THE "MECHANICS" SECTION OF PHYSICS AND SPECIFIC ASPECTS OF ITS TEACHING IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Annotation: This article presents a statement of ideas on the methodology for solving problems in the "Mechanics" section and specific aspects of its teaching in general secondary schools, problems in the mechanics section, which is one of the most relevant and interesting areas of physics, and how to effectively teach them in general secondary schools.

Keywords: Integration, STEAM, graphic, experimental, competence, scheme, table, mechanics, mathematical method.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida fizika ta’limini amaliyotga joriy etish holati va mavjud muammolar keltirilgan bo‘lib, STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosda o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda umumta’lim fanlari bo‘yicha fanlararo bog‘lanish va amaliy yondoshuvga e’tibor qaratilmaganligi, fizika fani o‘quv-metodik ta’minoti yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va boshqa mavjud muammolar belgilangan. Shu kabi muammolarni yechish uchun umumta’lim maktablarida STEAM ta’limi asosida o‘qitish tabiiy va iqtisodiy fanlar yo‘nalishida o‘quvchilarning egallagan bilimi va tafakkurini boyitadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’limning sifat bosqichiga ko‘tarilish bo‘yicha dunyodagi yetakchi olimlar o‘z izlanishlarini olib borishgan. Bu izlanishlar asosan ta’lim jarayonining ijtimoiy ehtiyojini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, rus olimlaridan J.S.Maksimova, E.V.Starseva va O.L.Alekseevalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. AQSh olimlaridan Benjamin, J.Wrenn, B.Wrenn, A.Patil, S.More, S.Green, va H.Andersenlar tomonidan kabi olimlar nazariya va amaliyotni integratsiyalashgan holda o‘rganishni kuchaytirish, fizik jarayonlarni matematik modellashtirish, fanlararo bog‘lanishdagi muammolar, fanlararo integratsiyasini amalga oshirish tadqiqot ishlariga innovatsion yondoshuvni faollashtirish muammolari bo‘yicha izlanishlar olib borganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada Fizikaning “Mexanika” bo‘limiga doir masalalar yechish metodikasi va uni umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari, masalalarni klassifikatsiyasi tavsiflanadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada hizmat qiladi. 2021-yildagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son¹⁷⁰ qarorlari hamda mazkur faoliyatga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsad qilib qo‘ydi.

¹⁷⁰O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son qarori. - Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.03.2021-y., 07/21/5032/0226-son, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.05.2022-y., 07/22/241/0408-son; 31.08.2022-y., 06/22/214/0791-son; 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-son

Fizika fanining mexanika bo‘limi o‘quvchilarga tabiatdagi harakatlar, kuchlar va ularning o‘zaro ta’siri haqida bilim beradi. Bu bo‘limda o‘qitish, nafaqat fizika fanining asosiy tushunchalarini tushuntirishni, balki o‘quvchilarda analitik fikrlashni va masalalarni yechish qobiliyatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Mexanika bo‘limining masalalarini yechish metodikasi o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtiradi va ularning umumiy ta’lim olish jarayonini mustahkamlaydi.

Mexanika qonunlari — bu fizikada harakatni va kuchlarni o‘rganish bilan bog‘liq asosiy qonunlar. Bu qonunlar, ayniqsa, klassik mexanikaning asosiy qismini tashkil etadi. Fizika fanining tabiiy fanlar bilan integratsiyasi hamda masalalar yechish jarayonida bu bog‘lanishlarni qo‘llash jarayonlari, oliy ta’limda masalalar tartiblari va umumta’lim maktablarida fizikadan masalalar yechish, olimpiada masalalarini o‘rganib chiqdik. Biroq umumta’lim maktablarida fizikadan masalalar yechish darslari kamligi uchun har bir darsning ohirida mavzu bo‘yicha masalalar berilsa va bu masalalar fanlararo bog‘lanilsa, o‘quvchilar ongida masalalarga bo‘lgan qiziqish yanada ortadi.

Hozirgi vaqtda fizika o‘quv fani umumta’lim fani sifatida maktab kurslarida har bir o‘quvchi uchun zarur bo‘lgan bilimlar yig‘indisi shaklida emas, balki dunyoni bilish va uning qonunlarini o‘zlashtirish yo‘lida uchraydigan haqiqiy muammolarni hal qilishda qo‘llanilgan faoliyat usullariga ko‘ra, inson aqli erishgan yutuqlarni taqdim etishi kerak. Ko‘pgina zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, maktab fizikasi yetarlicha ilmiy bo‘lishi, fizik bilimlar jonli va rivojlanayotgan holda, taqdim etilishi va fanning o‘zi kundalik muammolar dunyosi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak.

Shubhasiz, “Mexanika” bo‘limiga doir masalalar yechish metodikasi va uni umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitish o‘rgatish o‘qituvchi uchun juda muhim hisoblanadi.

Ushbu maqolaning o‘ziga xosligi shundaki, kelajakda fizika fanidan umumta’lim maktablarida Mexanika qonunlariga doir amaliy mashg‘ulotlarni fanlararo tadbiqiy masalalar va ularni tanlash prinsiplarini ishlab chiqish va ularning mohiyatini ochib berish orqali o‘quvchilarining mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib, umumta’lim maktablarida “Mexanika” bo‘limiga doir masalalar yechish metodikasi va uni umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari mexanika qonunlariga doir masalalar va ularni tanlash prinsiplari, masalalarni turli tipdagilari masalan; sifat, miqdoriy, grafik, eksperimental, sxema va jadval ko‘rinishidagi masalalarni yechish metodikasini ishlab chiqish hamda fanlararo turli tipdagi tadbiqiy masalalarning o‘ziga xos xususiyatlariga doir masalalar ishlab chiqish orqali o‘quvchilarning fizikadan masala yechish darslarida fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi deb o‘ylaymiz. Bu masalalarni yechish orqali o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishi, intellektual salohiyati, matematik qobiliyati hamda har bir fanni chuqur egallashligini tushunib yetadi [3]. Mavzuga doir masalalarni tanlashda fanlararo muammolarga e’tibor qaratish zarur. Masalan, mexanika qonunlariga doir miqdoriy masalalarni tanlashda matematik bilimlarga ko‘proq tayaniladi. Grafik, eksperimental, sxema ko‘rinishidagi masalalarni

yechishda geometriyadan olgan bilimlar ishlatiladi. Shunday qilib, mexanika qonunlariga doir masalalarni tanlashda o‘quvchilar ongida va tasavvurida qiziq va keng qamrovli bo‘ladi shu bilan birga tabiatda, ishlab chiqarishda uchraydigan muammoli vaziyatlarga xos bo‘lgan masalalarni tanlash zarur bo‘ladi [1]. Bunda masalalarni yechish olingan bilim va tushunchalarni mustahkamlashga yordam beradi, muammolarni hayot bilan, texnika va texnologiyalar bilan uzviyligini ta’minlaydi

Mexanika bo‘limi masalalarini yechish metodikasi, o‘quvchilarda tizimli yondashuvni shakllantirishga qaratilgan. Bunda bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin:

Masalani to‘liq tushunish:

- O‘quvchi masalani to‘liq o‘qib chiqishi va unga oid ma'lumotlarni tahlil qilishi kerak. Masalada berilgan va talab qilinayotgan qiymatlar aniq belgilab olinishi lozim.

- Masalada berilgan fizik hodisalar yoki tushunchalar haqida o‘quvchi tushuncha hosil qilishi, masala asosidagi qonuniyatlar va formulalarga murojaat qilishi kerak.

Fizik qonunlar va formulalardan foydalanish:

- Masalani yechishda fizik qonunlar va formulalardan to‘g‘ri foydalanish muhim. Masalan, Nyutonning harakat qonunlari, energiya saqlanish qonuni va boshqa mexanik qonuniyatlar masalaning yechimi uchun asos bo‘ladi.

Matematik yechim:

- Mexanika masalalari ko‘pincha matematik tenglamalar bilan ifodalanadi, shuning uchun o‘quvchi formulalar bilan ishlashni bilishi va matematik hisoblashlarni to‘g‘ri bajarishi kerak. Bu jarayonlar ko‘pincha algebraik va geometrik yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Yechimni tahlil qilish:

- Masalani yechib bo‘lgach, o‘quvchi natijani tahlil qilishi, uning fizik ma’nosini tushunishi, natijaning haqiqiylik va mantiqiyligini tekshirishi kerak. Bu bosqichda o‘quvchi o‘z yechimini boshqa fizika qonunlari bilan solishtirib, tekshirishi lozim [4].

Mexanika bo‘limini o‘qitishda muhim jihatlarning biri o‘quvchilarni nazariy bilimlar bilan amaliy masalalar yechish orqali tanishtirishdir. Quyidagi metodik yondashuvlar o‘qitishda foydalidir:

O‘qituvchilar masalalar to‘plamlari orqali o‘quvchilarni turli xil murakkablikdagi masalalar bilan tanishtirishlari kerak. Har bir masala o‘ziga xos jihatlari va murakkabliklarga ega bo‘lib, o‘quvchilarni turli yondashuvlarga o‘rgatishi mumkin.

Xulosa

Fizikaning mexanika bo‘limi nafaqat ilmiy bilimlarni beradi, balki o‘quvchilarning tahliliy va matematik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalalar yechish metodikasi, o‘quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarni birlashtirishiga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘z darslarini nafaqat fizika qonuniyatlarini tushuntirishga, balki o‘quvchilarni ilmiy yondashuvlarni qo‘llashga, kreativ fikrlashga va mustaqil ish yuritishga rag‘batlantirishga qaratishlari lozim. Bu metodik yondashuvlar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mexanika bo‘limini o‘qitishda samarali bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Лукашик В.И. Сборник задач по физике: кн. для учащихся 7–9 кл. общеобразоват. учреждений / В. И. Лукашик, Е.В. Иванова, - М.: Просвещение, 2011. – 242 с.
2. Лукашик В.И. Иванова Е.В. Сборник задач по физике. 7-9 классы. Москва: Просвещение. 2011. 240 с.
3. Воробьев И. И., Зубков П. И. “Задачи по физике” Новосибирск: Новосибирский государственный университет, 1999. — 370 с.
4. Toxirova M.O. Maktabda Nyuton qonunlari mavzusini o‘qitishda fanlararo bog‘lanish// Fizika, matematika va informatika ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent. 2025 y 27 fevral. B.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

**PEDAGOGIK IMPROVIZATSIYA ASOSIDA DARSNI TARTIBGA SOLISH,
YANGILIK KASHF ETISH VA SHAXSNI O‘Z-O‘ZINI ANGLASHI KONTEKSTIDA
TAHLIL O‘ZBEKISTON TARIXI FANI MISOLIDA.**

Ergasheva Muhayyoxon G‘anijonovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrası v.b. dotsenti
muhayyoergasheva162@mail.com

Anotatsiya Ushbu maqolada pedagogik improvizatsiya tushunchasi, uning mohiyati va o‘quv faoliyatiga ta’siri keng yoritilgan. O‘zbekiston tarixi fani misolida talabalar bilimlarini chuqurlashtirish, mustaqil tafakkurni rivojlantirish va dars jarayonini jonlantirishda improvizatsion metodlarning o‘rni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar; Pedagogik improvizatsiya, o‘quv faoliyati, metodik asoslar, O‘zbekiston tarixi, kreativ ta’lim, interaktiv metodlar, ijodiy yondashuv, tarixiy muhit, ta’lim jarayoni, ijodiy fikrlash.

Аннотация В данной статье широко раскрыты понятие педагогической импровизации, её сущность и влияние на учебную деятельность. На примере предмета «История Узбекистана» проанализирована роль импровизационных методов в углублении знаний студентов, развитии самостоятельного мышления и оживлении учебного процесса.

Ключевые слова: Педагогическая импровизация, учебная деятельность, методические основы, история Узбекистана, креативное обучение, интерактивные методы, творческий подход, историческая среда, образовательный процесс, творческое мышление.

Annotation This article provides a comprehensive overview of the concept of pedagogical improvisation, its essence, and its impact on the educational process. Using the subject of the History of Uzbekistan as an example, the role of improvisational methods in deepening students' knowledge, developing independent thinking, and revitalizing the lesson process is analyzed.

Keywords: Pedagogical improvisation, educational activity, methodological foundations, history of Uzbekistan, creative education, interactive methods, creative approach, historical environment, educational process, creative thinking.

Kirish

Dars jarayoni o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro o‘quv, ilmiy va metodik qarashlarini yaxlit bir mavzu asosidagi jamlangan fikrlari majmuasidan hosil bo‘lgan hulosaning ilmiy tahlili hisoblanadi. Ushbu jarayon bugungi kun zamonaviy o‘qituvchining klassik metodlardan chetga chiqib, o‘quvchining ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda darsni yangicha tarzda olib borish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik improvizatsiya o‘qituvchiga yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni sinab ko‘rish imkonini beradi va shaxsiylashtirilgan ta’limni samarali tarzda qo‘llashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Pedagogik improvizatsiya – bu o‘qituvchining dars jarayoniga yangicha, xayoliy va shaxsiy yondashuvi bo‘lib, o‘quvchilarning nafaqat bilim, balki o‘z-o‘zini anglash, kreativ fikrlash va tanqidiy qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Pedagogik faoliyatda improvizatsiya o‘quvchilarni nafaqat an’anaviy ta’lim uslublaridan chiqishga, balki yangiliklarga ochiq bo‘lishga, o‘zlarini o‘rganishga undaydi. Ushbu jarayon o‘qituvchiga ma’lum bir mavzu yoki topshiriqni o‘zgacha va qiziqarli tarzda taqdim etish imkoniyatini beradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarni darsda faol ishtirok etishga, o‘z fikrlarini erkin va yaratijonlik bilan ifodalashga majbur qiladi.

Rossiya davlat san’at instituti katta o‘qituvchisi Д.Блюдов “Педагогическая импровизация на уроках сценической речи” nomli ilmiy maqolasida nutq bilan bog‘liq fanlardagi pedagogik improvizatsiyaning ahamiyatini keng tahlil etib bergan. Uning ilmiy tahlillarida san’at, ijtimoiy-gumanitar fanlarda aniq va tabiiy fanlarga nisbatan improvizatsiya jarayoniga ehtiyoj kuchli bo‘ladi, zero dars jarayonida ayni tarix fanida zamon, makon va tarixiy shaxslarning ijtimoiy qiyofasiga oid tasavvurlarni yaratish zarurati yuzaga keladi. Ayni ushbu masalada rus olimasi E.P.Turbinaning “Роль педагогической импровизации в процессе педагогического творчества будущего учителя” ilmiy maqolasida Pedagogik improvizatsiya pedagogikada pedagogika orqali ochiladi ijodkorlik, bu rag‘batlantiruvchi jarayon sifatida amalga oshiriladi darsga tayyorgarlik, balki rejani amalga oshirish, aniqlashtirish va takomillashtirish jarayonida ham darsning pedagogik dizayniga kiritilgan usullar, mazmun va o‘quv maqsadlari, ta’lim va reabilitatsiya vaziyatlari talablariga muvofiq tahlil etiladi deb ta’kidlaydi.

Shuningdek ushbu masala yuzasidan rus olimlarning Сластенин Виталий Александрович Исаев Илья Федорович Шиянов Евгений Николаевич muallifligida “Педагогика учебное пособие” o‘quv qo‘llanmasida ayni ta’lim metodlarning jarayonga moslashtirilishi va ularni to‘liq shaxsga yo‘naltirilishi ilmiy tahlil etilgan va ushbu jarayonning uslubiy jihatlari tahlil etilgan.

XXI asrga qadar deyarli sanat sohasi o‘qitilishida muhimlik kasb etgan improvizatsiya metodlari bugun ta’limning barcha sohalari uchun muhim ahamiyatli tushunchaga aylanib qolmoqda. Ayni filologiya sohasidagi ta’lim jarayoniga tegishli improvizatsion jihatlari Ukraina davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi Alla Vinnichukning ilmiy tahlillarga bag‘ishlangan

“Pedagogical improvisation in forming professional competence of the future teachers-philologists” mavzusidagi ilmiy maqolasida batafsil ma’lumotlar bilan muhokama etilgan.

Andijon davlat universitetining Umumiy pedagogika kafedrası o‘qituvchisi Miraxmedova Dilafrozning “Bo‘lajak o‘qituvchilarni improvizatsion muxitda ta’limni amalga oshirishga tayyorlash” nomli ilmiy maqolasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbga tayyorlashda ularni turli vaziyatlardan ilmiy va metodik asoslar bilan chiqishlarini o‘quv metodik jihatlari bilan o‘rgatilishi zamonaviy ta’limda zaruriy holat ekanligi haqida ta’kidlab o‘tilgan. Shuningdek bo‘lajak o‘qituvchi ijodkorlik zahirida o‘zida improvizatsion elementlarni namoyon qila olishi zarur. Bu faoliyatning o‘zida borishi talabalar oldiga yangi-yangi vazifalarni qo‘yish bilan bir qatorda doimo o‘zgarishda bo‘lgan pedagogik jarayonda ularning yechimi borasida tezkor tarzda sifatli tahlil va baholash hamda maqbul yechim topishni talab qiladi. Ushbu jarayon bilan bog‘liq holda improvizatsiya muhim ijodiy va samarali natija uchun xizmat qiladi degan ilmiy mulohazalar misollar yordamida tahlil etilgan.

Asosiy qism

Bugungi kunda ta’lim jarayonlarida yangiliklarni kashf etish, o‘quvchilarni yangi fikrlar bilan tanishtirish va ularni zamonaviy o‘qitish metodlari bilan qo‘llab-quvvatlash juda muhimdir. Pedagogik improvizatsiya o‘qituvchining ijodiy yondashuvi orqali darsni qiziqarli, samarali va interaktiv qilishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshiradilar, shaxsiy qobiliyatlarini yanada rivojlantiradilar va o‘z-o‘zini anglash yo‘lida mustahkam qadamlar qo‘yadilar.

Pedagogik improvizatsiya faqatgina darsdagi o‘qituvchining ijodiy faoliyati emas, balki o‘quvchining o‘zini kashf etish jarayoniga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi bu interaktiv aloqalar orqali dars nafaqat bilim olish jarayoni, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Improvizatsiya jarayonida o‘qituvchi o‘zining pedagogik maqsadlarini amalga oshirishi bilan birga, o‘quvchining ichki dunyosiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘quvchilarni o‘z bilimlarini sinash, yangi g‘oyalarni yaratish, va o‘zlarining ijtimoiy shaxs sifatida rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. pedagogik improvizatsiyaning o‘qitish jarayonida qanday muhim rol o‘ynashini, o‘quvchilarni yangiliklarga ochiq qilishdagi o‘rnini va o‘z-o‘zini anglash jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotda pedagogik improvizatsiyaning samaradorligi, o‘quvchilarning darsdagi faolligi, o‘z-o‘zini anglash va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga bo‘lgan ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘quvchilarga shaxsiylashgan, interaktiv va innovatsion yondashuvlar yordamida yanada samarali ta’lim berishning yangi usullari tahlil qilinadi.

Ta’lim jarayonida talabalarni faollashtirish va o‘quv motivatsiyasini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Rivojlangan texnika asri va zamonaviy ta’lim jarayonida an’anaviy dars usullari talabalar ongida qiziqish uyg‘otishda yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shu bois darsning sifati va mazmunam boyligini kafolatlash uchun dars beruvchi uchun improvizatsion metodlardan foydalanish ehtiyoji kuchaymoqda. Pedagogik improvizatsiya orqali talabalar nafaqat bilim

oladilar, balki o‘zlarini erkin ifoda etishga, mustaqil fikrlashga va tarixiy tafakkurni rivojlantirishga imkon topadilar. Ayniqsa, O‘zbekiston tarixi kabi milliy ong va g‘ururni shakllantiruvchi fanning o‘qitilishida improvizatsiya usullarining roli beqiyosdir.

Tarix fanini o‘qitilishida improvizatsion yondashuv asosida talabaning quyidagi metodik va ilmiy jihatdan nazoratni amalga oshirish imkoni oshirilishi kuzatiladi.

Shaxsni o‘z-o‘zini anglashi kontekstida tahlil qilish — bu psixologik, falsafiy va ijtimoiy jihatlarni o‘z ichiga olgan chuqur tahlil jarayonidir. Quyida bu masalani turli kontekstlarda izohlanadi. Bu metodik asosda talabalarga mavzu yuzasidan emas fan nuqtai nazaridan yondashuvga alohida ahamiyat berilib, talabaning jarayondagi o‘z o‘rnini belgilash bilan bog‘liq qarashlari mustahkamlanadi. Ya‘ni talabaga o‘z-o‘zini anglash haqida fan nuqtai nazaridan tushuncha berib o‘tiladi. Falsafiy nuqtayi nazardan o‘z-o‘zini anglash quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- **Subyektivlik:** Har bir inson dunyoni o‘ziga xos tarzda idrok qiladi va bu idrok orqali o‘zini anglaydi.

- **Erk va tanlov:** Odam o‘z hayot yo‘lini ongli ravishda tanlash orqali o‘z mohiyatini yaratadi.

- **Mas’uliyat:** O‘zini anglagan inson o‘z harakatlari va qarorlarining oqibatlarini ham tushunadi va ular uchun javobgar bo‘ladi.

Jarayonni nazorat qilishdagi muhim metodologik bosqichlardan biri bu psixologiyada o‘z-o‘zini anglash ya‘ni insonning ichki “Men” obrazini tan olishi va uni rivojlantirishi bilan bog‘liq:

- **O‘zini identifikatsiyalash:** Shaxs o‘zining kim ekanini, jamiyatda qanday rol o‘ynayotganini tushunadi. Bu tarxiiy shaxslar bilan bog‘liq ravishda ijtimoiy ahamiyatini oshirishga katta ko‘mak beradi.

- **O‘z-o‘zini baholash:** Inson o‘zini qanday qabul qilishi (o‘ziga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat) — uning o‘z-o‘zini anglash darajasiga bog‘liq.

- **O‘zini rivojlantirish:** Anglash orqali inson o‘z ustida ishlaydi, o‘zini tahlil qiladi va shaxs sifatida o‘sadi. Bu O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitilishidagi muhim jihat sifatida talabalarda milliy g‘urur va jamiyat oldidagi mas’uliyatni belgilash alohida ahamiyatli hisoblanadi.

Ba’zan dars jarayonida talabalar o‘zini ijtimoiy muhitda — oilada, maktabda, do‘stlar orasida anglaydi:

- **Ijtimoiy rollar:** Shaxs o‘zini o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona yoki boshqa rollarda qanday tutishini biladi.

- **Ijtimoiy solishtirish:** dars jarayonida talaba o‘zini boshqalar bilan solishtirib, o‘ziga baho beradi va o‘z o‘rnini aniqlaydi.

- **Ijtimoiy ta’sir:** Atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari va madaniyat shaxsni anglash jarayoniga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Bu jarayonlar tarix darslarida talabalar bilimni rivojlantirishning asosiy mezonlaridan bo‘lib xizmat qiladi va o‘qituvchi tomonidan belgilangan bilim darajasini berishda aniq maqsadni belgilash hamda kutilmagan vaziyatlardagi o‘quvchi tomonidan beriladigan, yohud ijodiy tasavvur yaratish jarayonining asl mohiyatiga tayyorgarlikni amalga oshiradi.

Metodologiya

Pedagogik improvizatsiya jarayonida talabalar o‘zlarini nafaqat bilgan holda, balki o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rib, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish orqali o‘zlarini kashf etadilar. Dars davomida o‘qituvchining improvisatsion yondashuvlari o‘quvchilarni o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshirishga va o‘zlarining shaxsiy rivojlanishiga turtki beradi. Shaxsiy o‘z-o‘zini anglash jarayoni, o‘quvchilarning o‘zlarining xususiyatlarini, qobiliyatlarini va imkoniyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Bunda o‘qituvchining yordami, o‘quvchining o‘zini tanish va rivojlantirish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydigan muhim faktor hisoblanadi.

O‘zbekiston tarixi kabi fanlarda improvizatsion usullar yordamida talabalar:

- Tarixiy shaxslar obraziga kirib, ularning hayoti va faoliyatini jonli tasavvur qiladilar;
- Tarixiy voqealarni sahnalashtirib, ularning mohiyatini chuqur anglaydilar;
- Tarixiy munozaralarda qatnashib, o‘z fikrlarini asoslashni o‘rganadilar;
- Rolli o‘yinlar orqali tarixiy tafakkur va analiz ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar.

Masalan: Amir Temur obrazida sahna tashkil qilish, Alisher Navoiyning madaniy merosi haqida interaktiv suhbatlar uyushtirish va Boburning tarixiy qarorlarini muhokama qilish orqali talabalar tarixni yurakdan his qiladilar.

Kontent tahlili metodini qo‘llash, o‘quv materiallari, dars rejalari va o‘qituvchining pedagogik yondashuvlari orqali o‘quvchilarga qanday yangiliklar kiritilganligini va bu yangiliklarning ta’lim jarayoniga qanday ta’sir qilganligini tahlil qilish imkonini beradi. Dars materiallari va metodologiyalarni chuqur tahlil qilish, improvizatsiya elementlarining ta’limning samaradorligini qanday oshirishini ko‘rsatishga yordam beradi. Bu metod yordamida o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvlarini va ularning darsdagi yangi metodlarni qo‘llashdagi muvaffaqiyatlarini baholash mumkin.

Guruhlar bilan ishlash usuli, o‘quvchilarning bir-biri bilan interaktiv muloqotda bo‘lishini, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va o‘zaro fikr almashishlarini rag‘batlantiradi. Pedagogik improvizatsiya jarayonida o‘quvchilar o‘zlarining bilimlarini boshqalar bilan baham ko‘rish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu metod o‘quvchilarni aktivlashtirishga va ular orasida jamoaviy ishni kuchaytirishga yordam beradi. Guruhlarda fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglashiga va o‘z imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Videoregistratsiya metodidan foydalanish dars jarayonidagi improvizatsiyaning konkret misollarini ko‘rish va tahlil qilish imkonini beradi. Videolarni tahlil qilish orqali o‘qituvchilarning improvizatsiya jarayonidagi yondashuvlari, darsning dinamikasi va o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan munosabati haqida aniq va chuqur ma’lumotlar olish mumkin. Darslarni qayta tomosha qilish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini o‘rganish,

pedagogik improvizatsiya jarayonining muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo‘lgan tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa

Shaxsni o‘z-o‘zini anglashi — bu o‘zligining mohiyatini tushunish, jamiyatdagi o‘rnini bilish va o‘zini ongli ravishda shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon orqali inson o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqaradi, maqsad sari harakat qiladi va hayotida barqarorlikka erishadi. Pedagogik improvizatsiya ta‘lim jarayonida yangi yondashuvlarning va metodlarning joriy etilishiga imkon yaratdi, bu esa o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, motivatsiyasini oshirish va ta‘limning umumiy sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynadi. Tadqiqot davomida o‘qituvchilarning improvizatsion metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarga yangi bilimlarni taqdim etish usullari, shuningdek, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishdagi o‘rinlari ko‘rsatilgan. Bu metodlarning ta‘lim jarayonida qanday ijobiy o‘zgarishlarga olib kelganligi, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga bo‘lgan ta’siri, shuningdek, o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvlariga qanday yangiliklar kiritgani tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Alla Vinnichuk. “Pedagogical improvisation in forming professional competence of the future teachers-philologists” // Society. Integration. Education Proceedings of the International Scientific Conference. Volume I, May 27th, 2022. 284-294.

2. Д.Блюдов “Педагогическая импровизация на уроках сценической речи” // Педагогические науки. International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 11-1 (98), 2024. С – 76-78.

3. Miraxmedova.D. “Bo‘lajak o‘qituvchilarni improvizatsion muxitda ta‘limni amalga oshirishga tayyorlash” // “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to‘plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun. Andijon. В – 181-182.

4. Слостенин Виталий Александрович Исаев Илья Федорович Шиянов Евгений Николаевич muallifligida “Педагогика учебное пособие”.

5. Е.П. Турбина. “Роль педагогической импровизации в процессе педагогического творчества будущего учителя”. // Профессиональное педагогическое образование. 2017. С - 84-85.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБУЧЕНИЯ НЕРОДНОМУ (РУССКОМУ) ЯЗЫКУ <i>Алимсаидова Сайёра Амидьеевна</i>	4
KOGNITIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH – O‘QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGI OSHIRISH OMILI SIFATI <i>Ismoilova Nozimaxon</i>	10
OLIY O‘QUV YURLARI TIBBIYOT TALABLARINI O‘QITISHDA SIMULYATSION O‘QITISHNING AHAMIYATI <i>Shaismatova Gulbaxor Xikmatovna, Ikramova SokinaBonu Ravshanzoda, Yuldasheva Zarofat Igamberdiyevna, Rahmatullayeva Maxfuza Igamberdiyevna</i>	18
SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI <i>Jamalova Kamola Shahobiddinovna</i>	22
FORMING SPEAKING SKILL BY IMPLEMENTING “ONLINE AND OFFLINE GAMING” METHODOLOGY IN ELEMENTARY CLASSES <i>Fayziyeva Nigora Axmadjonovna</i>	30
DAVLAT MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOT RAHBARINING BOSHQARUV MULOQOTI <i>Madgafurova Dilfuza Oxunovna</i>	39
RAQAMLI TA‘LIM MUHITIDA MUSTAQIL TA‘LIM ISHLARINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI <i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>	43
MA‘NAVIY TARBIYA: YAPONIYADA TALABALARNING EMOSIONAL INTELLEKTI <i>Jakbarov Odiljon Otamirzayevich</i>	47
“O‘ZBEK MUSIQA SAN‘ATINING RIVOJIDA FARG‘ONA VODIYSI XONANDALIK MAKTABLARINING ROLI” <i>Mamajonova Dildoraxon Abduraxmonovna</i>	52
PLANNING WAYS OF INTEGRATING DIFFERENT TYPES OF LEARNING <i>Abdullayeva Zarinaxon Dilshodbekovna</i>	58
THE ROLE OF AI IN DIFFERENTIATED INSTRUCTION <i>Akhmedova Muyassar</i>	63
AUTIZM SPEKTRI BUZILISHI BO‘LGAN BOLALARNING TURLI BELGILARI VA SIMPTOMLAR ORQALI NAMOYON BO‘LISHI <i>Yoqubova Hurriyat Burxonovna</i>	67
AUTIZM SPEKTRINING BUZILISHINING SO‘NGGI DIAGNOSTIK MEZONI <i>Babayeva Azizabonu Hamidjon qizi</i>	72
IJTIMOIIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MAZMUN-MOHIIYATI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI <i>Yuldasheva Diyora</i>	77
IMITATSION PARADIGMANING MOHIYATI <i>Badalov Kamoliddin Rahmat o‘g‘li</i>	83
BLENDED LEARNING IN LANGUAGE EDUCATION: ENHANCING ENGAGEMENT AND EFFECTIVENESS	87

<i>Dilnoza Shamuratova Jamolovna, G. Makhkamova, Qoryog`diyeva Asalyoy Baxtiyorovna, Alimjonova Marjona Sherzod qizi</i>	
BOSHLANG‘ICH INKLYUZIV SINFDA RIVOJLANISHI MEYORDA VA AQLI ZAIF NUTQ NUQSONLARIGA EGA O‘QUVCHILARNI MAYDA QO‘L MOTORIKASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR <i>Yuldashev Sodirboy Jurayevich</i>	95
KEY PRINCIPLES OF MODERN PEDAGOGY <i>Yokubjonova Dilnavozxon Serobjon qizi</i>	104
STRATEGIES TO ENHANCE STUDENT MOTIVATION IN LEARNING <i>Yokubjonova Dilnavozxon Serobjon qizi</i>	110
RAQAMLI MUHITDA TEXNOLOGIYA FANINING AMALIY MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI <i>Do‘schonov Shodyorbek Yo‘ldoshovich</i>	119
TEXNOLOGIYA FANINI RAQAMLI TA‘LIM MUHITIDA O‘QITISHDA PEDAGOGIK MONITORINGNI JORIY ETISH <i>Do‘schonov Shodyorbek Yo‘ldoshovich</i>	124
TIBBIY AMALIYOTDA INGLIZ TILINING ROLI <i>Fazilova Nodira Akramovna</i>	130
FIZIKADAN MASALALAR YECHISHNI MAQBUL USULLARI <i>A.S.Tolipov, M. O. Mustafoyeva</i>	136
FLIPPED LEARNING IN LANGUAGE EDUCATION: A SHIFT TOWARD ACTIVE ENGAGEMENT AND AUTONOMY <i>Dilnoza Shamuratova Jamolovna, Nozima Tojiboyeva Valijon qizi, Shahrizoda Buriyeva Bahodir qizi</i>	142
TIBBIYOTDA XORIJIY TILNI O‘RGATISHDA ICHKI VA TASHQI MOTIVATSIYA OMILLARI <i>Iminaxunova Iroda Xuseynovna</i>	151
BO‘LAJAK HAMSHIRALARNING AMALIY KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA SIMULYATSION O‘QITISH ISHLARINI TASHKIL ETISHNING USLUBIY ASOSLARI <i>Irgasheva Maxbubaxon Davlatjon qizi</i>	159
DEEP LEARNING APPROACH AND ITS USAGE AS A FOREIGN LANGUAGE TEACHING TOOL <i>Abdurakhimova Janar Seyda-Axmetovna</i>	165
MACHINE LEARNING TO ANTICIPATE AND BOOST STUDENT MOTIVATION AND ENGAGEMENT <i>Juraeva Zamirakhon Quchqarboevna</i>	175
"THE ROLE OF HARD SKILLS AND SOFT SKILLS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES" <i>Khusanova Guljakhon</i>	180
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA SYUJETLI-ROLI O‘YINLARNING AHAMIYATI <i>Kurbanbayeva Moldir Abat qizi</i>	185
TINGLOVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY MALAKA OSHIRISHDA INKLYUZIV TA'LIMGA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH <i>M.A.Tilakova</i>	191
PEDAGOGIK INTEGRATSIYANI RIVOJLANTIRISH VA SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	195

<i>Rasulova Mohidil Tursunaliyevna</i>	
REFLEKSIV MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIKA FANINING AHAMIYATI <i>Axmedova Nigora Dadaxanovna, Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi</i>	204
ATOM FIZIKASI BO‘LIMIDAN MUSTAQIL TA‘LIMNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH METODIKASI <i>Madaliyev Akmaljon Maxammadjonovich, Nabiyeu Yorkinjon Xoshimjon o‘g‘li</i>	208
INTEGRATING COMPUTER GAMES AND ONLINE DICTIONARIES INTO ENGLISH LANGUAGE TEACHING <i>Makhhuba Ikromovna Toshpulatova, Dildora Maxkamova Baxtiyorovna</i>	214
TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH VA UNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI <i>Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi</i>	218
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARDA ATROF-MUHITGA BO‘LGAN MUNOSABATNI O‘RGANISH VA UNING NEGIZIDA MUHIM VAZIFALAR OLIB BORISH <i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Fayziyeva Dilfuza Tohir qizi</i>	224
STRATEGIK BOSHQARUV NAZARIYALARINI UMUMIY O‘RTA TA‘LIM TIZIMI BOSHQARUV JARAYONLARIGA TATBIQ ETISH <i>Rahimova Feruza Najmiddinovna</i>	230
BO‘LAJAK TIBBIYOT MUTAXASSISLARINING XORIJIY TIL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING MUHIM JIHATLARI <i>Tuychibayeva Maftuna Baxodirovna</i>	236
BO‘LAJAK LOGOPEDLARGA PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKAGA O‘RGATISH ISHLARI TIZIMI <i>M.X. Xovodillayev</i>	243
DEVELOPING WRITING SKILLS IN HIGHER EDUCATION THROUGH SYSTEMATIC INSTRUCTIONAL APPROACHES <i>Kosimova Kumush</i>	248
FIZIKA FANINI ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH ORQALI TALABALARNING BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH <i>Odilova Sarvinoz Isoq qizi</i>	253
BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KONFLIKTOLOGIK MADANIYATINI AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI <i>Azimova Osiyoxon Adxam qizi</i>	259
O‘QUVCHI VA TALABALARNI FIZIKA FANIDAN, O‘QUV VA ILMIY ADABIYOTLAR BILAN ISHLASHGA QIZIQTIRISH <i>Erkinova Mohlaroyim Muxtorjon qizi</i>	266
FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA TALABALARNI AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY TA‘MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Abdusamatova Hilola Odiljon qizi, Norqo‘ziyev Jahongir Sheraliyevich, Qurbonmurodov Umid Jumanazarovich</i>	270
LAGRANJ KO‘PAYTUVCHILARI VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI TATBIQLARI <i>Muhiddinova Gulzoda Shukur qizi</i>	276
OLIY TALIMDA TA‘LIM SIFATINI OSHIRISHDA TALABALAR ORASIDA JAMOATCHILIK NAZORATINI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI	282

<i>Alimova Mavludaxon Shuxratbekovna</i>	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHIDA KASBIY PEDAGOGIKA <i>Qo‘ziboyeva Maxfuza Mirzayevna</i>	286
SMART TECHNOLOGIES AND THEIR IMPACT ON LANGUAGE LEARNING <i>Dildora Maxkamova Baxtiyorovna</i>	290
UZLUKSIZ KIMYO TA’LIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TA’LIM SAMARADORLIGI GAROVIDIR <i>Meliboeva Gulchexra Salavatovna</i>	295
KOOPERATIV O‘QITISH TURLARI GURUHDA O‘RGANISHNI PASSIV O‘QITISH BILAN MATERIALLARGA E’TIBOR QARATISH ORQALI BIRLASHTIRILISHI <i>Madina Muxtorova Alijon qizi</i>	302
BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINI MUZEY PEDAGOGIKASI VOSITASI ORQALI TARIXIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI <i>Niyozov Javlonbek Jaxongir o‘g‘li</i>	309
NIZOLARNI BARTARAF ETISH MEHANIZMI <i>Ortiqova Nargiza Akramovna</i>	313
TA’LIMNI VIZUALLASHTIRISH: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR <i>S.X.Egamnazarova</i>	321
GIGIYENA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNING ILMIY-TADQIQOT KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH <i>Osbayov Muhammadjon Imaraliyevich</i>	330
TALABALARNI KREATIV FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA XORIJ TAJRIBASI <i>Otajonova Malikabonu Sadulla qizi</i>	336
TIBBIY TA'LIMDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA 3D VA VIRTUAL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA MUAMMOLAR VA YECHIMLAR <i>Qaxorova Tursinoy Ulug‘bek qizi</i>	343
ФОРМА ОРГАНИЗАЦИИ И ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ПЛАВАНИЮ <i>Алишер Базарбаевич Ашуралиев</i>	347
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA <i>Azizova Ziroat Bahadirovna</i>	351
BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARI TAYYORLASH TA’LIM DASTURLARINING LINGVODIDAKTIK TAHLILI <i>Artikova Tanzilla Abduxalilovna</i>	357
QORAQALPOQ TELEVIDENIYESINING RIVOJLANISHIDA JURNALISTLARING TUTGAN O‘RNI <i>Utepbergenova Amangul Kengesbayevna, Qudaybergenova Shaxnoza Reymnazarovna</i>	362
ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ДЕТСКО-РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ <i>Мамаджонова Мохимир Рашидовна</i>	366

CHET TILINI O‘QITISH BO‘YICHA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING IJODIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN TIL O‘RGANISHNING O‘RNI VA TA’SIRI <i>Raximov Xurshidjon Xursandjon o‘g‘li</i>	371
TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN TIL O‘RGANISHNING BO‘LAJAK CHET TIL O‘QITUVCHILARINING LINGVISTIK VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASIGA TA’SIRI VA ROLI <i>Raximova Charosxon</i>	376
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALAR ASOSIDA INKLUZIV TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Raxmatullayeva Nozima Shodiqulovna</i>	380
TA’LIMDA VIRTUAL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI <i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi</i>	386
MATRITSALAR YORDAMIDA IQTISODIY MASALALARNI FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA YECHISH METODIKASI. <i>Sakiyeva.B.B</i>	390
BO‘LAJAK MUTAXASISLARDA PEDAGOGIK MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Saydanova Dilafruz Sadirdinovna</i>	398
TIBBIY TA’LIMDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI <i>Xamdanova Shahnoza Yusupaliyevna</i>	402
TANQIDIY TAFAKKUR TUSHUNCHASINING METODOLOGIK ASOSLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Darvishxojayev Xasan Abdulxakimovich</i>	408
TA’LIMDA MOTIVATSIYA VA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA O‘QUV O‘YINLARINING ROLI <i>Turayeva Gulnoza Ergashevna</i>	414
UMUMIY ASTRONOMIYADAN TALABALARNING MUSTAQIL TOPSHIRIQLARINI IDROK XARITASI YORDAMIDA TASHKIL ETISH <i>Dadaboyeva Feruzaxon Olimjonovna, Qosimova Mohinur</i>	420
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH, BOSHQARISH VA BOLALARNI XISSIY-MA'NAVIY TAYYORLASH MEKANIZMLARI <i>Axmedova Nigoraxon Dadaxonovna, Urinbayeva Barchinoy Zafarjonovna</i>	426
GOOGLE CLASSROOM YORDAMIDA YOZUV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI <i>Usmanova Shokhsanam Avazovna</i>	433
USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN VOCABULARY TEACHING IN PRIMARY SCHOOL <i>Usmonova Gulsevar Abdulaziz qizi</i>	437
BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI QIZIQISHINI ORTTIRISH <i>Maxmudova Ozoda Yuldashovna</i>	442
ПРАГМАТИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ: СКРЫТЫЙ НАВЫК В ОСВОЕНИИ ЯЗЫКА <i>Вахобова Феруза Мансуровна</i>	451
